

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY Gvardiyasi
HARBIY-TEXNIK INSTITUTI**

**“GUMANITAR VA IJTIMOIIY FANLAR”
KAFEDRASI**

**“FALSAFA (ETIKA VA ESTETIKA, MANTIQ)”
FANI BO‘YICHA**

O‘QUV – USLUBIY MAJMU‘A

TOSHKENT 2019

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GWARDIYASI HARBIY-
TEXNIK INSTITUTI**

**“FALSAFA (ETIKA VA ESTETIKA, MANTIQ)”
FANI BO'YICHA**

O 'Q U V – U S L U B I Y M A J M U A

TOSHKENT 2019

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2018 yil “8” sentyabrdagi 744 – sonli buyrug‘i bilan ma‘qullangan fan dasturi va O‘zbekiston Respublikasi MG HTI boshlig‘ining 2019 yil “25” iyundagi 318-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturiga muvofiq tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Harbiy-texnik instituti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) M.B.Kadirov

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Harbiy-texnik instituti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi Y.A.Xudoyqulov

Taqrizchilar:

Po‘latova D

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti “Sharq falsafasi” kafedrasida mudiri f.f.d. prof

Bozarov D.M.

- O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Harbiy-texnik instituti O‘quv uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan. 2019-yilning ___- sonli majlis bayonnomasi.

Majmua mundarijasi

1	Fan dasturi	4-17
2	Ishchi o'quv dasturi	18-34
3	Ma'ruzalar matni	35-381
4	Munozara mashg'ulotlari	382-386
5.	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	387-389
6.	Oraliq nazoratlari savollari	390-393
7.	Testdan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar	394
8.	Testlar	395-418
9.	Baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar	419
10.	Glossariy	420-424
11.	Adabiyotlar ro'yxati	425-429

O'quv-uslubiy majmuada Falsafa (Etika, estetika va mantiq) fanini o'tish bo'yicha metodik materiallar, fanga oid jadval va testlar, fan Yuzasidan nazorat tizimi, fanning asosiy tushunchalari va eng muhim atamalari, fanning rivojida ulkan hissa qo'shgan mutafakkirlar to'g'risidagi ma'lumotlar, foydali va qiziqarli ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, kursantlari va tinglovchilari, Shuningdek Falsafa (Etika, estetika va mantiq) faniga qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТ

“ТАСДІКЛАЙМАН”

ЎзМУ ректори



2018 йил



“КЕЛТИРИЛАДИ”

Олий ва урта махсус таълим вазирлиги

2018 йил



Рўйхатга олинди: № БД-

2018 йил 18.08

ФАЛСАФА
ФАН ДАСТУРИ

(барча бакалаврият таълим йўналишлари учун)

Тошкент - 2018

Фан дастури Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими йўналишлари бўйича Ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашининг 2018 йил "18" 08 даги 4-сонли баённомаси билан маъқулланган.

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2018 йил "25" 08 даги 744 - сонли буйруғи билан маъқулланган фан дастурларини таянч олий таълим муассасаси томонидан тасдиқлашга розилик берилган.

Фан дастури Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилган.

Тузувчилар:

Ш.О. Мадаева	Ўзбекистон Миллий университети "Фалсафа ва мантик" кафедраси мудир, фалсафа фанлари доктори;
Н.А. Шермухамедова	Ўзбекистон Миллий университети "Фалсафа ва мантик" кафедраси профессори, фалсафа фанлари доктори;
Д.А. Пулатова	Тошкент давлат шарқшунослик институти «Шарқ фалсафаси ва маданияти» кафедраси мудир, фалсафа фанлари номзоди, доцент;
Д.Э. Файзихўжаева	Ўзбекистон Миллий университети "Фалсафа ва мантик" кафедраси доценти, фалсафа фанлари номзоди;
Х.П. Тўхтаев	Ўзбекистон Миллий университети "Фалсафа ва мантик" кафедраси доценти, фалсафа фанлари номзоди;
Б.Э. Хусанов	Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти проректори, ф.ф.н., доц.

Такризчилар:

И. Саифназаров	Тошкент давлат Иқтисодиёт университети "Фалсафа" кафедраси профессори, фалсафа фанлари доктори.
Ж.Я. Яхшиликков	Самарканд давлат университети "Миллий ғоя, фалсафа ва маънавият асослари" кафедраси мудир, фалсафа фанлари доктори, профессор.

Фан дастури Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Кенгашида кўриб чиқилган ва тасвир этилган (2018 йил 13.07 даги 3-сон баённома).

I. Ўқув фанининг долзарблиги ва олий касбий таълимдаги ўрни

Фалсафа фанининг долзарблиги бугунги глобаллашув даврида маънавий соҳасида вужудга келаётган долзарб муаммоларни ҳал этиш, халқимиз маънавий меъросини асраш ва янада юксалтириш, ёшларнинг фалсафий тафаккурини шакллантириш, онгини турли зарарли ғоялардан сақлаш, уларни фалсафий билимлар билан қуроллантириш зарурлиги билан белгиланади.

Ушбу фан барча бакалаврият таълим йўналишларида ўтилиши белгиланган бўлиб, ўзида турли даврларнинг ижтимоий-сиёсий, маънавий қарашларини мужассамлаштириб, воқеа ва ҳодисаларнинг моҳиятини англашни, унга муносабат билдиришни шакллантиради ҳамда аналитик, синтетик, креатив тафаккурни ҳосил қилади. Шунинг учун фалсафа фани ёш мутахассисларни тайёрлашда муҳим аҳамият касб этади.

II. Ўқув фанининг мақсади ва вазифаси

Фани ўқитишнинг мақсади – ёшларни замонавий фан ютуқларига асосланган фалсафий билимлар билан қуроллантириш ҳамда уларда ўз-ўзини англаш ва тўғри фикрлаш маҳорати, кўникма ва малакаларини шакллантиришдан иборат.

Фани ўқитишнинг вазифалари – табиат, жамият ва инсон тафаккурининг ривожланишига оид фалсафий билимлар, қонунлар ва категориялар мазмун-моҳиятини билиш, уларга нисбатан шахсий муносабатни шакллантириш орқали инсоннинг ҳаётдаги ўрни ва аҳамиятини очиқ бериш;

– фалсафа ривожланишининг асосий босқичлари ва йўналишлари, диннинг келиб чиқиши ва унинг функциялари, табиат ва жамият борлиги тўғрисида тасаввурларини шакллантириш;

– жамият ҳаётидаги ижтимоий жараёнларга фалсафий тафаккур ва шахсий-таҳлилий танқид нуқтаи назаридан ёндашиш, ўз-ўзини маънавий-ахлоқий тарбиялаш туйғуларини ҳосил қилиш;

– ёшларда жамиятни демократлаштириш ва модернизациялаш жараёнида фаол иштирок этиш ҳиссини тарбиялаш.

Фан буйича талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларига қуйидаги талаблар қўйилади. **Талаба:**

- Фалсафий тафаккур хусусияти ва қонуниятлари, уларнинг жамият таракқиётига таъсири, мантикий, этик, эстетик маданиятнинг инсон ҳаёт тарзи ва маданиятини такомиллаштиришдаги роли ва аҳамияти, Шарқ ва Ғарб фалсафасининг етакчи ғоялари, илмий ва маънавий мероси, дунёнинг ягоналиги қонуниятлари ва унда қонунот ҳамда инсон борлигининг алоқадорлиги, касбий фаолиятда фалсафанинг методологик аҳамияти, глобал жараёнларда аналитик ва синтетик, мантикий тафаккурнинг роли.

Ўзбекистонда олиб борилаётган ислохотларнинг моҳияти ҳақида *тасаввурга эга бўлиши*;

– фаннинг предмети, назарий-методологик асослари, манбалари ва унинг жамият тараккиётида тутган ўрни, Қадимги ва Ўрта асрлар Шарқ ва Ғарб фалсафаси, Янги ва Энг давр фалсафасининг хусусиятлари, таълимот ва гоёлари;

– табиат ва жамиятда юз бераётган жараёнлар фалсафий қонуниятлари, тафаккур ва борлик, субстанция ва материя муаммоси, макон ва вақт, табиат фалсафаси ва экологияси, энергия, инсон борлиги;

– фалсафа метод, қонун ва категориялари, ривожланиш ва тараккиёт фалсафаси, ҳақиқатни англашда назария ва амалиёт бирлиги, билиш методологияси;

– Ўзбек миллий фалсафасини ва бу борадаги буюк аждодларимизнинг мероси, инсоннинг атроф муҳитга бўлган муносабатини тартибга солувчи ҳуқуқий ва ахлоқий меъёрлар, глобаллашув жараёнлари ҳақида *билишга эга бўлиши ва ундан фойдалана олиши*;

– фалсафани ўрганиш орқали жамият ҳаётидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар моҳиятини тушуниш, уларга фалсафий, тизимли тафаккур нуқтаи-назаридан баҳо бериш;

– жамият тараккиётинга оид ахборотларни тўплаш, сақлаш ва улардан фойдаланиш, мантикий таҳлил этиш, ўзининг касбий фаолиятига оид маълумотларни аналитик ва синтетик фикрлаш асосида қабул қилиш, мушоҳадавий тафаккурга асосланган мустақил қарорлар қабул қилиш;

– янги билимларни мустақил ўзлаштириш олиш, такомиллаштириш ва ўз меҳнатини илмийлик ва бунёдкорлик асосида тизимли ташкил қилиш;

– фикр ва қарашларини оғзаки ва ёзма равишда адабий тил қодалари асосида конструктив, мантикий ифода этиш *қўникмаларига эга бўлиши керак*.

III. Асосий назарий қисм (маъруза машғулотлари)

I-маъруза. Фалсафа фанининг предмети, мазмуни ва жамиятдаги роли

Фалсафа тушунчасининг келиб чиқиши. Фалсафа шаклланишининг асосий босқичлари. Дунёқарашнинг тузилиши. Дунёқарашнинг тарихий шакллари: миф - дастлабки дунёқараш шакли. Мифологик ва диний дунёқарашнинг ўзаро алоқаси ва фарқи. Диний дунёқарашнинг шаклланиши. Диннинг асосий функциялари. Дунёни идрок этишда фалсафий дунёқарашнинг ўзига хос роли. Фан илмий дунёқараш шакли. Фаннинг функциялари ва тараккиётининг асосий босқичлари. Фалсафа ва фаннинг ўзаро муносабати, фарқи. Фалсафа фанининг предмети функциялари. Ҳозирги даврда миллий фалсафани ривожлантириш ва халқаро алоқаларни ташкил этишнинг аҳамияти.

2-мавзу. Фалсафий тафаккур тараккиёти боскичлари:

Шарқ фалсафаси

Қадимги Шарқда асотирий тасаввурлар ва фалсафий билимларнинг пайдо бўлиши. Миср ва Бобил фалсафий мактаблари. Қадимги Ҳиндистонда фалсафий мактаблар. Марказий Осиёда “Авесто” таълимотидаги фалсафий фикрлар. Конфуций ва Лао Цзи таълимоти.

Ислом динининг вужудга келиши ва фалсафий таълимоти. Илк ўрта аср Шарқ фалсафаси ва уйғониш даври. Шарқ пантеизми ва перипатетизми Шарқ мутафаккирлари (Абу Райхон Беруний, Абу Наср Форобий, Ибн Сино)нинг ижтимоий-сиёсий, маънавий-ахлоқий таълимотлари. Илк ўрта асрда тасаввуф ва илоҳиётшунослик мактаблари таълимотлари.

Темурийлар сулоласи даври. Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоий ижодида гуманизм гоялари.

XIX аср охири ва XX аср бошларида Марказий Осиёда илғор фалсафий, ижтимоий-сиёсий фикрлар. Шарқ истилоси билан боғлиқ уйғониш ҳаракатлари, осиецентризм, пантуркизм, панисломизм, маърифатпарварлик ва жадидчилик таълимотлари. XX-XXI аср ўзбек фалсафаси.

3-мавзу. Фалсафий тафаккур тараккиёти боскичлари:

Ғарб фалсафаси

Қадимги Юнон-Рим фалсафий мактаби. Милет мактаби, унинг Миср-Бобил, Ҳинд фалсафай илдиэлари билан боғлиқлик хусусиятлари. Сукротгача бўлган фалсафий тизим ва Сукрот мактаблари. Антик фалсафада Демокрит, Гераклит, Афлотун ва Аристотель оқимлари хусусиятлари. Эллинизм даври.

Христианлик ва Аврелий Августин фалсафий таълимотининг вужудга келиши. Илк ўрта аср Ғарб фалсафаси ривожланишининг умумий белгилари. Илк ўрта асрлар фалсафий тафаккур ривожда апологетика ва патристика, схоластика. Номинализм ва реализм. Фома Аквинский таълимоти. Ғарб Уйғониш даври ва фалсафий тафаккурнинг ривожланиш хусусиятлари.

Янги ва энг янги давр фалсафасининг устувор йўналишлари. Янги давр Ғарб фалсафасидаги асосий муаммолар. XVIII аср Европа фалсафасининг маърифий хусусиятлари. XX-XXI аср Ғарб фалсафасининг оқимлари. XX-XXI аср Ғарб файласуфлари ижодида фан фалсафасининг ривож.

4-мавзу. Борлик - фалсафа категорияси

Борлик тушунчасининг таҳлили. Фалсафа тарихида борлик муаммоси. Борлик ва йўқлик диалектикаси. Борлик шаклларининг таснифи: табиат борлиги, ижтимоий борлик, маънавий борлик, инсон борлиги, виртуал борлик. Энергия борлик шакли. Субстанция ва субстрат тушунчаси. Материя тушунчаси ва унинг ташкил топиш даражалари. Оламнинг пайдо бўлиши ва эволюцияси. Инъикос назарияси ва унинг даражалари, шакллари. Дунёнинг бирлиги чеклилиги ва чексизлиги.

Геоцентрик ва ноеоцентрик моддий тизимлар. Кенгаювчи олам гипотезаси. Қизил силжиш ва торсион майдонлар. Универсал космик галограмма. Ҳаракат, макон ва вақт - материянинг яшаш шарти. Абдий ҳаракат, ўзгариш ва ҳаракатсизликнинг ўзаро нисбати. Ҳаракатнинг типлари ва шакллари. Ҳаракат мутлаклиги ва сокинликнинг нисбийлиги. Макон ва вақт борликнинг фундаментал шакллари. Фалсафа тарихида макон ва вақтга субстанционал ва реляцион ёндашувлар. Ижтимоий макон ва ижтимоий вақтда тарих вақти ва давр руҳининг мутаносиблиги. Индивидуал вақт инсон мавжудлик вақти сифатида.

5-мавзу. Билиш назарияси, йўналишлари ва асосий муаммолари

Билиш назариясининг предмети ва ўзига хос хусусиятлари. Гносеологиянинг мазмуни ва моҳияти. Эмпиризм, рационализм ва эпистемологиянинг уйғунлиги. Билимнинг асосий турлари ва шакллари. Ноилмий билим шакллари. Билишда субъект ва объектнинг ўзаро алоқаси. Ҳиссий, эмпирик, назарий, мантикий ва интуитив билиш даражалари. Онг-тафаккур ва борликнинг бирлиги. Тафаккур услубининг асосий жиҳатлари. Тафаккур услуби инерцияси тафаккурнинг хоссаси сифатида. Ҳиссий, эмпирик ва рационал билишнинг бирлиги ва фарқлари. Билишда ҳақиқат ва амалиёт уйғунлиги. Ҳақиқатнинг асосий шакллари ва концепциялари. Ҳақиқатни англашда исботлаш ва рад этиш эмоция, идеал, ирода, ишонч ва шубҳанинг роли. Амалиётнинг таркибий қисмлари.

6-мавзу. Фалсафанинг метод, қонун ва категориялари

Фалсафада метод ва методология, методика тушунчалари. Методларнинг таснифи. Фалсафа методлари. Фан методлари: умумилмий, хусусий илмий ва фанлараро тадқиқот методлари. Ижтимоий-гуманитар фанлар методларининг ўзига хос хусусияти. Ҳозирги замон методологияси.

Фалсафа тарихида ривожланиш ҳақидаги қарашлар эволюцияси. Шаклланиш, ўзгариш ва ривожланиш тушунчалари. Барқарорликнинг ўзгарувчанлиги. Барқарорлик ва беқарорлик нисбати. Ривожланишнинг типлари. Очик тизимларнинг эволюцияси. Қонун тушунчаси. Қонуларнинг турлари. Базис ва локал қонулар. Фалсафанинг асосий қонулари. Қарама-қаршилик ва зиддият қонуни. Миқдор ва сифат ўзгаришлари диалектикаси. Инкорни-инкор қонуни ва ворисийлик. Категория тушунчаси ва уларнинг турлари. Фан ва фалсафа категорияларининг таснифи. Онтологик ва муносабатдош категорияларнинг таснифи.

7-мавзу. Тарихий жараёнда жамиятнинг маданий ва маънавий қадриятлари.

Жамият ва тарих фалсафаси

Жамият ва тарихнинг ўзгарувчанлигининг фалсафий жиҳатлари. Тарих фалсафасининг тузилиши ва функциялари. Тарихга формацион ва

цивилизацион ёндашувлар. Тарихда шахснинг роли. Жамият ривожланувчи тизим сифатида. Жамиятнинг сиёсий ҳаётида давлатнинг ўрни ва роли. Демократик давлат ва фуқаролик жамиятида нодавлат ташкилотларнинг тутган ўрни.

Цивилизация тушунчасининг таҳлили ва турли ёндашувлар таснифи. Цивилизация ривожининг асосий босқичлари. “Маданият” тушунчаси, унинг моҳияти, структураси ва функциялари Шарқ ва Ғарб маданиятларининг ўзаро бир-бирига таъсири. Жаҳон цивилизацияси тарихида Шарқ маданиятининг ўрни ва уни ўрганишнинг аҳамияти.

Қадрият тушунчасининг тавсифи ва моҳияти. Моддий ва маънавий қадриятларнинг ўзаро алоқадорлиги ва турлари. Эҳтиёжлар ва қадриятлар мутаносиблиги. Қадрлилик ва қадрсизланиш, уларнинг ижтимоий характери.

8-мавзу. Фалсафий антропология (Инсон фалсафаси)

Инсон борлигининг ўзига хос хусусиятлари. Жон ва онгнинг табиати, структураси ва функциялари. Онгсизликнинг табиати. Антроп тамойил - инсон борлигига оид замонавий концепция.

Шарқ ва Ғарб фалсафасида инсон муаммоси. Фалсафий антропологиянинг пайдо бўлиши ва ривожланиши, предмети ва вазифалари. Инсонга интровертив ва экстрове́ртив ёндашувлар, биологизаторлик ва социологизаторлик концепциялари. Пассионар, суб пассионар ва мувофик одамлар ҳақидаги таълимот. Ҳаётнинг мазмуни ва унда инсоннинг вазифаси. Ҳаётни тарқ этиш босқичлари. Суицид ва парасуициднинг олдини олишда тарбиянинг роли. Инсон борлигида ўзликни англашнинг намоён бўлиши.

Инсон борлигида фаолиятининг тузилиши ва атрибутлари. Инсон фаолиятини тартибга солиш механизмлари ва унинг аҳамияти. Фаолиятни ташкил қилишда ҳуқуқ ва ахлоқ уйғунлиги.

9-мавзу. Глобаллашув ва глобал муаммоларнинг фалсафий жихатлари

Глобаллашув – янги фалсафий мавзу. Глобаллашув ҳодисаси ва глобалистика. Глобал жараёнларнинг шаклланиш тарихи. Глобал муаммоларнинг турли даражалари. 2017-2021 йиллардаги Ўзбекистонни янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида глобал муаммоларнинг тавсифи. Ҳозирги даврнинг асосий глобал муаммоларининг таснифи. Глобал муаммоларни ҳал қилишда фалсафанинг роли. Глобал муаммоларни ҳал қилишда хусусий ва умумий манфаатлар уйғунлиги. Глобал муаммоларни ҳал қилишда халқаро кучлар бирлашуви; умумий ва хусусий манфаатлари. Глобал жараёнларни башорат қилишнинг аҳамияти. Башоратнинг турлари ва методлари. Келажакни башорат қилишнинг ўзига хос хусусиятлари.

Коррупция шаклланишининг тарихи. БМТ Кодексида коррупцияга муносабат. Ўзбекистонда коррупцияга оид қонунлар ва қарорлар таснифи, коррупцияга қарши курашнинг аҳамияти.

Техника ва технология тушунчаларининг моҳияти. Технологик тараққиётнинг истикболлари. Нанотехнологиялар ва биологик идентификация технологияларининг ижтимоий жараёнларга таъсири. Интернет ва ижтимоий тармоқлардаги виртуал мулоқотнинг ижобий ва салбий жиҳатлари. Сунъий интеллект тушунчаси ва унинг таҳлили. Техноген цивилизацияда тил ва коммуникация диалектикаси.

10-мавзу. Мантиқ илмининг предмети, асосий қонунлари.

Тушунча тафаккур шакли сифатида

Мантиқ илмининг асосий масалалари ва уларни тадқиқ этиш йўналишлари. Тафаккурнинг мантикий шакллари ва қонунлари. Формал мантиқнинг предмети ва структураси. Мантиқ илмининг фанлар тизимидаги ўрни.

Тушунчаларнинг шаклланиши ва қўлланиши. Тушунчаларнинг тилда ифода қилиниши: ном ва термин. Тушунчанинг таърифи, тузилиши ва турлари. Тушунчалар ўртасидаги муносабатлар. Тушунчалар билан бажариладиган мантикий амаллар: тушунчаларни чегаралаш ва умумлаштириш; тушунчани таърифлаш (дефиниция); тушунчаларни бўлиш ва таснифлаш. Фикр юритишда тушунчалар билан боғлиқ ҳатоликлар.

11-мавзу. Мулоҳаза. Хулоса чиқариш

Мулоҳаза тафаккур шакли ва хулоса чиқаришнинг таркибий қисми сифатида. Мулоҳазанинг комплекс таҳлили: таркиби, ифодаланиши, қийматлиги, турлари. Оддий ва мураккаб мулоҳазалар ва уларнинг турлари. Мураккаб мулоҳазаларнинг қин бўлиш шартлари.

Хулоса чиқаришнинг умумий мантикий тавсифи: тузилиши, турлари ва умумий қонунлари. Фикрнинг ҳаракат йўналишига кўра хулоса чиқариш: дедукция, индукция ва аналогия; уларнинг ўзаро алоқадорлиги. Мураккаб мулоҳазалардан хулоса чиқариш. Фикр юритишда мулоҳазаларни қуриш ва хулоса чиқариш билан боғлиқ ҳатолар.

12-мавзу. Аргументлаш ва билимлар тараққиётининг мантикий шакллари

Асосли муҳокама юритиш шартлари. Ишботлаш ва рад этишнинг умумий тавсифи. Ишботлаш ва рад этишнинг турлари. Фикрни асослашда учрайдиган ҳатолар. Паралогизм. Софизм. Парадокс. Аргументлаш назариясининг асосий тушунчалари. Коммуникатив моделларда аргументлаш: диалог, баҳс, полемика. Аргументлашнинг стратегияси ва тактикаси

Билимлар тараққиётининг мантикий шакллари: муаммо, гипотеза, назария. Муаммони аниқлаш ва ечимини топишда саволнинг ўрни. Савол ва жавобнинг муҳокама юритишдаги аҳамияти.

Мантик илмининг назарий ва амалий аҳамияти.

13-мавзу. Этика:

“Этика” фанининг предмети ва жамият ҳаётидаги аҳамияти

“Этика” фанининг предмети, моҳияти ва тузилмаси. Гедонизм ва эвдемонизм таълимотининг ахлокий аҳамияти. Ахлоқнинг пайдо бўлишига оид диний, илмий қарашлар таснифи. ХХI асрда глобал этосфера (ахлокий муҳит)ни яратишнинг зарурияти. Этиканинг категориялари, тамойиллари, меъёрларининг шахс ва жамият муносабатларида намоён бўлиши. Ихтиёр эркинлиги ва ахлокий танлов.

14-мавзу. Никоҳ ва оиланинг ахлокий асослари, унинг ёшлар тарбиясидаги ўрни

Никоҳ - энг қадимги ахлокий муносабат шакли. Никоҳнинг қонуний ва диний жиҳатлари. Оиланинг психологик, ижтимоий-маънавий муҳитининг фарзанд тарбиясига таъсири. Оила номуси ва шаънини сақлашда ота-она ва фарзандлар масъулияти.

Ўзбекистон Республикаси Президент қарорида (ПҚ-3827) оилавий маиший зўрлик ишлатишнинг олдини олиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари масалалари. Маиший зўрлик ва хотин кизларга нисбатан зўрлик ишлатиш ҳақидаги БМТ декларация ва резолюциясининг фалсафий-ахлокий таҳлили.

Миллий маънавиятимизда никоҳ ва оилага доир ахлокий қадриятлар. Ўзбекистонда ёшлар тарбияси, маънавий-ахлокий қамолотида никоҳ ва оила ҳақидаги миллий ахлокий қадриятларининг ўрни. Ёшлар психологиясида оилага муносабатнинг маънавий, ахлокий тамойилларини шакллантириш. Ажралиш ва унинг ахлокий қамолотга салбий таъсири. Оилавий муносабатларга ноанъанавий ёндашувларнинг оқибатлари. Давлатнинг оила тинчлиги ва барқарорлигини таъминлашдаги ўрни. Оила шартномасини тузишнинг ахлокий жиҳатлари.

15-мавзу. Ахлоқий маданият ва қадриятлар

Муомала маданияти – ахлоқий маданиятнинг таркибий қисми ва унинг ижтимоий-тарихий аҳамияти. Асосий ахлоқий қадриятлар. Қасбий одобнинг ахлоқий маданият билан уйғунлиги. Тиббий ва экологик тарбиянинг ахлоқий асослари. Соғлом турмуш тарзининг барқамол авлод ахлоқий тарбиясидаги аҳамияти. Санъатнинг шахс ахлоқий тарбиясига таъсири. Замоनावий ахлоқий тарбиянинг ютуқлари ва қамчиликлари. “Оммавий маданият”нинг ёшлар дунёқарошига таъсири. Замоनावий ахлоқий тарбияда космополитизмга мойиллик. Юқсак ахлоқни тарбиялашда технологиянинг ижобий ва салбий таъсири. Биоэтика – амалий этиканинг назарий асоси.

16-мавзу. Эстетика:

Эстетиканинг предмети, мақсади ва вазифалари

“Эстетика” фанининг объекти ва фалсафий моҳияти. “Эстетика” ҳақидаги қарашлар тарихи. Эстетика категорияларининг анъанавий ва замонавий таснифи. Гузаллик ва унинг муқобиллари. Улуғворлик категориясининг фалсафий моҳияти. Фожеавийлик (трагедия) категорияси. Кулгилilik категорияси. Эстетика категорияларининг ўзаро алоқадорлиги.

17-мавзу. Табиат ва техноген цивилизация эстетикаси

Жамият ривожидида табиатга эстетик муносабатнинг шаклланиши. Табиатнинг эстетик жиҳатлари. Экологик эстетиканинг қадриятли мақоми. Табиатни эстетик идрок этишнинг анъанавий ва ноанъанавий усули. Экоэстетиканинг ХХI аср илмий-техник тараққиётдаги ўрни. Техноген цивилизациянинг ишлаб чиқариш эстетикаси ва фан тараққиётига таъсири. Маиший турмуш эстетикаси. Замонавий шаҳарсозлик эстетикаси. Дизайннинг эстетик хусусиятлари. Халқ амалий санъати ва дизайн.

18-мавзу. Эстетиканинг замонавий муаммолари

Эстетик тарбиянинг турлари ва йўналишлари. Шахсни эстетик тарбиялашда фан, таълим ва маданиятнинг ўзаро боғлиқлиги. Меҳнат-турмуш эстетикасининг муҳим омили. Инсоннинг табиий, аҳоқий ва эстетик дидининг мутаносиблиги. “Оммавий маданият”нинг ёшлар эстетик дидига таъсири. Спорт ва унинг маънавий-эстетик жиҳатлари. Воқеъликка эстетик муносабатни миллий ва умумбашарий аҳамияти. Оламни эстетик англашда технологияларнинг роли. Рекламанинг эстетик жиҳатлари ва гайриэстетик ҳолатлар.

IV. Семинар машғулотларни бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Семинар машғулотлари учун қуйидаги мавзулар тавсия этилади.

1. Фалсафа: унинг предмети, мазмуни ва жамиятдаги роли.
2. Фалсафий тафаккур тараққиёти босқичлари: Шарқ фалсафаси
3. Шарқ ва Ғарб мутафаккирлари ижодида олам ва одам муаммоси
4. Онтологик қонуи ва категорияларнинг фалсафий таҳлили.
5. Ўзаро алоқадорлик ва ривожланиш қонулари ва категориялари.
6. Билиш методологияси: асосий тушунчалар.
7. Тил ва коммуникация тушуниш воситаси.
8. Жамият тараққиётининг фалсафий таҳлили.
9. Фалсафий антропология (Инсон ҳақидаги таълим).
10. Глобаллашувнинг фалсафий муаммолари.
11. Тушунчаларни шакллантирувчи мантикий усуллар.
12. Мулоҳаза ва ҳулоса чиқариш.
13. Аргументлаш ва билимлар тараққиётининг мантикий шакллари.

14. Эстетик тарбиянинг турлари ва йўналишлари.
15. Табиат ва техноген цивилизация эстетикаси.
16. "Этика" фанининг предмети ва жамият ҳаётидаги аҳамияти
17. Никоҳ ва оиланинг ахлокий асослари, унинг ёшлар тарбиясидаги ўрни
18. Ахлокий тарбия ва маданият уйғунлиги.

Семинар машғулоти мультимедия қурилмалари билан жиҳозланган аудиторияда бир академ гуруҳга бир ўқитувчи томонидан ўтказилиши лозим. Машғулотлар фаол ва интерактив усуллар ёрдамида ўтилиши, мос равишда муносиб педагогик ва ахборот технологиялар қўлланилиши мақсадга мувофиқ.

V. Мустақил таълим ва мустақил ишлар

Мустақил таълим учун тавсия этиладиган мавзулар:

1. Фалсафий дунёқарашнинг ўз-ўзини англашдаги роли.
2. Дунёнинг ҳозирги замон илмий манзарасининг таҳлилида фалсафий тафаккур
3. Инсонинг маънавий камолотида фалсафий дунёқарашнинг роли
4. Фан илмий дунёқараш шакли
5. Билим инсон маънавий камолоти омили.
6. Тарих фалсафаси ва фалсафа тарихи уйғунлиги.
7. Инсон, унинг ҳуқуқ ва экринликлари олий кадрият.
8. Глобаллашув шароитида антропологик инкирознинг олдини олишнинг зарурияти.
9. Илмий ва ижтимоий башоратнинг ўзаро алоқадорлиги.
10. Онтологик ва муносабатдош категорияларнинг уйғунлиги.
11. Миллий ва умуминсоний кадриятлар диалектикаси.
12. Диний маданий анъаналарнинг жамият тараккиётига таъсири.
13. Соғлиқ олий кадрият.
14. Оила ва оилавий кадриятлар маънавий маданиятнинг бош омили.
15. Шахс маънавиятининг шаклланишига ижтимоий муҳит ва давр руҳининг таъсири.
16. Шарқ ва Ғарб фалсафасида инсон масаласи.
17. Табиатни ўрганишга оид қарашлар тарихи.
18. Рим клуби фаолиятининг фалсафий таҳлили.
19. Жамиятнинг ижтимоий, сиёсий ва маънавий тизими.
20. Таълим глобал муаммо сифатида.
21. Фалсафа қонун ва категорияларининг ижтимоий жараёнлар диалектикасидаги роли.
22. БМТ Кодексида коррупцияга муносабат.
23. Ўзбекистонда коррупцияга оид қонунлар ва қарорлар таснифи, коррупцияга қарши курашнинг аҳамияти.
24. Ҳуқм тафаккур шакли сифатида.
25. Ҳуқмнинг таркиби ва хусусиятлари.
26. Хулоса чиқаришнинг умумий мантикий тавсифи.

27. Хулоса чиқаришнинг тузилиши.
28. Хулоса чиқариш турлари.
29. Билимлар тараккиётининг мантикий шакллари.
30. Илмий муаммоларнинг вужудга келиши ва мантикий тузилиши, уларнинг турлари ва ҳал қилиниши.
31. Этика категорияларининг ўзига хос хусусиятлари.
32. Буюк мутафаккирлар этика категориялари ҳақида.
33. Эстетик тарбиянинг турлари ва йўналишлари.
34. Табиат ва техноген цивилизация эстетикаси
35. Этиканинг замонавий муаммоларига диний ва илмий ёндашувлар.
36. Онланинг психологик, ижтимоий-маънавий муҳитининг фарзанд тарбиясига таъсири.
37. Оила номуси ва шаънини сақлашда ота-она ва фарзандлар масъулияти.
38. Миллий маънавиятимизда никоҳ ва оилага доир ахлокий кадрятлар.

Мустақил ўзлаштирилган мавзулар бўйича талабалар томонидан рефератлар тайёрлаш ва уни тақдимот қилиш тавсия этилади.

VI. Асосий ва қўшимча адабиётлар ҳамда ахборот манбалари:

Асосий адабиётлар:

1. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. -T.: UFMJ, 2006.
2. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
3. Шермухамедова Н.А. Фалсафа. -Т.: Ношир, 2012. -1207 б.
4. Шермухамедова Н.А. Гносеология-билиш назарияси. -Т.: Ношир, 2009.
5. Шермухамедова Н.А. Фалсафага кириш. -Т.: Ношир, 2012. 320 б.
6. Шермухамедова Н.А. Борлик ва ривожланиш фалсафаси. -Т.: Ношир, 2013, 720 б
7. Шермухамедова Н.А. Инсон фалсафаси. -Т.: Ношир, 2017. 460-б.
8. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия. -Т.: Шарқшунослик, 2012. 340-б
9. Шарипов М. Файзихўжаева Д. Мантик. -Т.: Университет, 2007.

Қўшимча адабиётлар:

- 1 Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон. демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016. -53 б.
- 2 Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамыз. Т.: Ўзбекистон, 2017 -484 б.
- 3 Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараккиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: 2017. - 28 б.

- 4 Каримов И.А. Асарлар тўплами. 1-24 жилдлар.- Т.: Ўзбекистон, 1996-2016.
- 5 Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. 2-нашр –Т.: Маънавият, 2016, -176 б.
- 6 Gunnar Skirbekk, Nils Gilge. A history of Western Thought. Scandinavian University Press. 11 New Fetter Lane, London, EC4P 4EE. 2001. P-1-4
- 7 K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. P – 341.
- 8 Jaspers. The origin and goal of history, New Haven and London. Yale University Press. 1965. P – 77. (P – 19)А.Фитрат. Танланган асарлар –Т.: Маънавият, 2010 -301 б.
- 9 Абу Наер Форобий. Фозил одамлар шаҳри.–Т.:Янги аср авлоди, 2016.-318 б.
- 10 Ж. Румий. Ичингдаги ичингдадур.-Т.: Янги аср авлоди, 2016.-272 б.
- 11 А.Маманов. Миллий менталитет: хусусиятлар ва омиллар, С.: «Зарафшон»-2015.-155 б.
- 12 Аристотель. Сочинения В 4-х томах. -М.: 1975, ч.1.
- 13 Асмус В. Античная философия. -М.: 1999.
- 14 Абу Али ибн Сино туғилган кунининг 1000 йиллигига бағишланган маколалар тўплами. -Т.: Фан нашриёти, 1980.198 б.
- 15 Аллаярова С. Бадиий ижод герменевтикаси – Т.: Университет, 2011.
- 16 Аллаярова С.Н. Фалсафий герменевтиканинг методологик жиҳатлари. Фалс.фан. номз. Дисс. –Т.: Университет, 2010.
- 17 Ахборотлашув ва жамият маънавияти. Илмий маколалар тўплами – Т.: “Иктисодиёт” – 2013 136 б.
- 18 Бекмуродов М. Ўзбек менталитети –Т.: Янги аср авлоди, 2004.-23 б.
- 19 Бозаров Д. Синергетик парадигма. -Т.: Тафаккур, 2010. -160б.
- 20 Ёкубова М. Жамият ахборотлашувнинг фалсафий асослари. Фалс.фан. номз. Дисс. –Т.: Университет, 2007.
- 21 Ёкубова М. Фан ахборотлашувининг жамият ривожигаги ўрни-Т.:“Стар - Полиграф”, 2010. -180 б.
- 22 Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. - Т.: Маънавият, 2008. -560 б.
- 23 Мадаева Ш. Миллий менталитет ва демократик тафаккур. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007.
- 24 Мамашокиров С., Усманов Э. Барқарор тараккиётнинг экологик ҳавфсизлик масалалари. -Т.: Фан, 2009.
- 25 Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий ҳуқуқий асослари. -Т.: Ўзбекистон, 2007.
- 26 Отамуродав С. Глобаллашув ва миллат. - Т.: Янги аср авлоди, 2008.
- 27 Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. - Т.: Ўзбекистон, 2004.

- 28 Очилова Б. Миллий-маънавий юксалишда мерос, кадрятлар ва ворисийлик. -Т.: Истиклол, 2009.
- 29 Плутарх. Сайланма. З.Аълам ва Урфон Отажон таржимаси. - Т.: Янги аср авлоди, 2006.
- 30 Соифназаров И. Курс лекций по философии. - Т.: ТДИУ, 2004.
- 31 Сирожиддинов И. Мирзо Улугбек дунёси.-Т.: "Шарк"-2015.108 б.
- 32 Қаххорова Ш. Глобал маънавият-глобаллашувнинг гоъвий асоси.- Т.:Тафаккур, 2009. -670 б.
- 33 Қурбонова Л. Борлик фалсафаси. -Андижон: АДУ, 2009
- 34 Қурбонова Л. Инсон фалсафаси. -Андижон: АДУ, 2009
- 35 Хайитов Ш., Хайитова К., Зияутдинова Х. Фалсафа асослари. Альбом схема. -Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.
- 36 Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O'FMJ, 2006.
- 37 Ўзбекистон : динлараро ҳамжихатлик – тинчлик гарови.-Т.:2005.
- 38 Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi - Т.: Axborot texnologiyalari, 2008.
- 39 Шермухамедова Н.А. Фан фалсафаси. -Т.: Ношир, 2017. -360б
- 40 Шермухамедова Н.А. Техника фалсафаси. -Т.: Университет, 2017. -420 б

Интернет сайтлари:

- 41 [www. Ziyo net.uz](http://www.Ziyo.net.uz)
- 42 www.faylasuf.uz

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY Gvardiyasi
HARBIY - TEXNIK INSTITUTI**

**“FALSAFA”
FANINING ISHCHI O‘QUV DASTURI**

Toshkent

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GWARDIYASI
HARBIY - TEXNIK INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi MG
Harbiy - texnik instituti boshlig‘i
polkovnik**

M.X.Rustambayev

2019 yil “ _____ ” _____

**“FALSAFA”
FANINING ISHCHI O‘QUV DASTURI**

Toshkent-2019

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy - texnik instituti Kengashining 2019 yil “___”_____ kungi yig‘ilishida muhokama qilingan va ma’qullangan (___- sonli bayonnoma)

“Falsafa” fanidan ishchi o‘quv dasturi. -T.: MG HTI, 2019. 23 bet.

Tuzuvchilar:

Kadirov M.B.		O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Harbiy-texnik instituti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi M.B.Kadirov
Xudoyqulov Y.A.		O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Harbiy-texnik instituti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti falsafa fanlari nomzodi Y.A.Xudoyqulov
Taqrizchilar:		
Po‘latova D		Toshkent davlat sharqshunoslik instituti “Sharq falsafasi” kafedrasida mudiri f.f.d. prof
Bozarov D.M.	-	O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti, f.f.n.

1. KIRISH

Mustaqillikning taraqqiyot yo'li mamlakatimizda fan rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Fanning barcha sohalaridagi kabi falsafada tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zero, eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan falsafa o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, nafaqat anglash, balki ularga munosabat bildirishni shakllantiradi. Modomiki Shunday ekan, bugungi kunda falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni falsafiy dunyoqarash, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega".

Falsafiy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyat xalqining ijtimoiy ongini o'zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan.

Dasturning birinchi bo'limi falsafiy bilim evolyutsiyasining g'oyalar xilma-xilligiga ta'siri, ular asosida bilish jarayonining takomillaShuvi, borliqning bilim ob'ekti ekanligi, insonning o'z-o'zini va jamiyatning umumiy mafkurasini anglashida tushunish va tushuntirishning roli, axborot manbai bo'lmish olamga hozirgi davr nuqtai-nazaridan turli yondashuvlarning ahamiyati, globallashtirish dunyoda global muammolarni hal qilish yo'llarini bevosita o'rganishga bag'ishlangan.

Dasturning ikkinchi bo'limi bevosita mantiqiy tafakkur shakllari va qonunlari, ularning fikrni to'g'ri qurish va haqiqatga erishishning me'yoriy qoidalarini yoritishni nazarda tutib, ular bilan tanishish kursantlarda erkin, mustaqil fikr yuritish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga, chin fikrni xato fikrdan ajratishga yordam beradi.

Dasturning uchinchi va to'rtchi bo'limlari axloq va nafosat falsafasi masalalarining muhokamasiga tegishli bo'lib, u insonning ma'naviy kamolotga erishishi jarayonida axloqiy normalarning tutgan o'rni, axloq va nafosat falsafasi mezoniy tushunchalarining mazmunini anglash kabi masalalari bilan tanishtiradi.

Har bir inson hayotining turli bosqichlarida muayyan maqsadlarni belgilaydi, ularga erishish jarayonida o'z erkinligini namoyon qiladi. Falsafa insonga o'z maqsadlarini to'g'ri qo'yishga, unga erishish uchun zarur vositalarni tanlashga hamda o'zining "Men"ini anglashda dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Dasturda ilk marotaba falsafiy fanlar muvofiqlashtirilgan bo'lib, unda azaliy falsafiy muammolarga Yangicha falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashilgan, xususan nazariya va amaliyot uyg'unligiga e'tibor qaratilgan.

1.1. Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad ta'lim oluvchilarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafa va falsafiy fanlarning paydo bo'lishi, mohiyati, shakllanish bosqichlari, hozirgi holati, insonning hayotdagi o'rni, Shuningdek, globallashtirish jarayonida ma'naviy Yangilanish va o'zlikni anglashning zarurligi haqida bilim berishdan iborat. Zero, falsafiy fanlar insonda dunyoqarashning shakllanishi, millatning o'zligini anglash jarayonida g'oya va mafkuraning ijtimoiy zarurligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

- falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalarni o'rganish orqali hayotda o'z o'rnini topish;
- o'zining eng oliy maqsadini topish va unga erishish yo'lida maqsadli faoliyat olib borish;
- jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashish, voqealarga shaxsiy, ijodiy tanqidiy baho berish;
- o'z-o'zini ma'naviy axloqiy tarbiyalash;
- jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash kabi vazifalar belgilangan

1.2. Fan bo'yicha kursantlarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

“Falsafa” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida mutaxassislar:

-olamning moddiy birligi va xilma-xilligi, materiya, makon va zamon masalalariga turli yondashuvlar; o‘zgaruvchanlik va harakat, o‘zgarimaslik va barqarorlikning mohiyati; gnoseologiya, epistemologiya, kriteologiya tushunchalarining o‘zaro aloqadorligi va farqi; agnostitsizm, skeptitsizm, optimizm va pessimizm; kundalik-amaliy ong va ilmiy-nazariy bilim, uning strukturasi, ilmiy bilim, badiiy bilim, ijtimoiy bilimning o‘zaro nisbati; antik davr falsafasining predmeti va vazifalari; Qadimgi Xitoy va Hindistondagi falsafiy fikr, Qadimgi Yunon va Rimdagi falsafiy ta’limotlar; Yangi davr G‘arb falsafasi, uning rivoji, yo‘nalishlari; Sharq va G‘arb falsafasining uyg‘unlashuvi mantiqning predmeti, ob’ekti va vazifalari; tafakkurning asosiy belgilari; falsafa tarixida dialektik mantiq genezisi va taraqqiyoti xususiyatlari; axloq falsafasi-axloqning kelib chiqishi, mohiyati taraqqiyoti hamda oila va jamiytdagi axloqiy munosabatlarni o‘rganadigan qadimiy falsafiy fan ekanligi; axloq va axloqiy tafakkurning paydo bo‘lishi; nafosat falsafasi nafosatning mohiyatini o‘rganuvchi qadimiy fan ekanligi;

- nafosat falsafasi tafakkur tarixida hayotiy zaruriyati **haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak;**

- borliqda barqarorlik va beqarorlik, o‘zaro ta’sir tushunchalari, ayrimlik, umumiylik va xususiylilik; hozirgi davr gnoseologiyasining muammolari; bilish nazariyasi va ontologiyaning o‘zaro aloqadorligi: bilishda sub’ekt va ob’ektning o‘zaro aloqasi, antik falsafa va adabiyot namoyondalarining asosiy g‘oyalari, o‘rta asr sxolastikasining tahlil metodi; Yangi davr falsafasining asosiy tushuncha va yondoshuvlari, zamonaviy G‘arb falsafasi vakillari asarlari, mantiq metodlari va mantiqqa doir adabiyotlardan ilmiy-amaliy faoliyatda foydalana olish, noklassik mantiqda matematik aksiomalarning talqini, dialektik mantiqda tafakkur uslubi, axloq falsafasi tushunchalarining axloqiy hissiyotga borib taqalishi, axloqiy me’yorlarning axloqiy talablar shakl sifatida namoyon bo‘lishi, ularning juftlik xususiyati va bir-biriga o‘tib turishi, tarixiy haqiqatning ob’ektiv mezonlarini **bilishi va ulardan foydalana olishlari keraki;**

- kundalik va nazariy bilimlar, ilmiy bilishning mohiyati va tuzilishi; metodologik tamoyillar va yondoshuvlar, mantiq metodlari, dunyoning ilmiy manzarasini kompleks muammo sifatida o‘rganish, mifologik, diniy va falsafiy oqimlarning kelib chiqishi, rivoji va yo‘nalishlari to‘g‘risida falsafiy ta’limotlarni tahlil qila olishi, ilmiy xulosalar chiqarish, G‘arbiy Evropa Yangi davr faylasuflarining manbalariga, to‘g‘ri va haqqoniy yondashish va ilmiy tahlil qilingan adabiyotlar, zamonaviy G‘arb falsafasi masalalarining qo‘yilishi va ularni o‘rganish uslublari, mantiq ilmi mazmuni va tarixi, Shu jumladan Markaziy Osiyo mutafakkirlarining mantiq ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi, mantiqiy metodlar va mantiqqa doir adabiyotlardan ilmiy amaliy faoliyatida foydalana olish; axloqning milliy va umumbashariy xususiyatlarini tahlil etish, uning ma’naviyat tizimidagi yuksak mavqei; axloqiy tanlov tushunchasi; shaxs axloqiy hayotining ma’naviy, ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni, axloqiy tamoyillar va mezoniy tushunchalar nafosat falsafasi tarixida san’at turlarini o‘rganish, inson-tabiati-jamiyat munosabatlarida estetik tamoyillarning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, estetik ravnaqning estetik ehtiyoj va estetik did bilan dialektik aloqadorligi, estetik ravnaqning san’at ravnaqi bilan uzviy bog‘liqligi, sog‘lom turmush tarzi haqida ilmiy tasavvurga va e’tiqodga ega bo‘lishi, o‘zini jismonan takomillashtirish bo‘yicha **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.**

1.3. Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jixatdan uzviy ketma-ketligi

“Falsafa” fani o‘quv rejadagi inson va jamiyat hayoti hamda faoliyatini o‘rganuvchi-tarix, psixologiya sotsiologiya, pedagogika kabi ijtimoiy - gumanitar fanlar, Shuningdek, tabiiy jarayonlar dialektikasini o‘rganuvchi fizika, matematika, biologiya, astronomiya, kimyo kabi tabiiy ilmiy fanlar bilan aloqador. Umuman falsafa tabiiy va ijtimoiy fan bilimlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi olam va odam haqidagi eng umumiy bilimlar majmui.

1.4. Fanning ishlab chiqarishdagi o'rnini

“Falsafa” fanini o‘qish va o‘zlashtirish natijasida ta’lim oluvchilar falsafaning yo‘nalishlari, uslublari, oqimlari, ularning o‘zaro munosabatlari va rivojlanish qonuniyatlari, etika va estetikaning asosiy kategoriyalari, tamoyillar va me‘yorlari, tafakkur shakllari va qonunlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga o‘z kasbiy faoliyatlari davomida qo‘llay olishlari va foydalanishlari mumkin. Chunki dunyoqarashi keng, fikrlashi teran insongina yuksak cho‘qilarga erisha oladi va davlatimiz ravnaqiga o‘z hissasini qo‘sha oladi.

1.5. Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Falsafa fanini o‘qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, ob‘ektivlik tamoyillariga amal qilingani holda an‘naviy usullar, davra suhbat, klaster, bahs-munozara, aqliy hujum, prezentatsiya kabi zamonaviy pedagogik texnologiya vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

1.6. Fanning umumiy va o‘quv ishlari turlari bo‘yicha hajmi

Umumiy o‘quv soati	– 130soat.
Shu jumladan:	
ma‘ruza	– 36 soat;
seminar	– 36 soat;
mustaqil ta’lim	– 58soat.

Fanni o‘rganish bo‘yicha mavzularga ajratiladigan soatlarning taxminiy taqsimoti

T/r	Bo‘lim, mavzular	Umumiy o‘quv soati	Auditoriya mashg‘ulotining turlari						Mustaqil ta’lim
			jami	ma‘ruza	amaliy	guruh	seminar	kurs ishi	
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>	<i>8</i>	<i>9</i>	<i>10</i>
1.	Falsafa	54	36	18			18		18
1.1	Falsafa faning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli	6	4	2			2		2
1.2	Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq falsafasi	8	4	2			2		4
1.3	Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G‘arb falsafasi	6	4	2			2		2
1.4	Borliq – falsafaning fundamental kategoriyasi.	6	4	2			2		2
1.5	Olamning universal aloqalari va rivojlanish. Falsafaning qonun va kategoriyalari.	8	4	2			2		4
1.6	Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo‘nalishlari	6	4	2			2		2
1.7	Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma‘naviy qadriyatlarini. Jamiyat va tarix falsafasi	8	4	2			2		4
1.8	Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)	8	4	2			2		4

1.9	Globallashuv va global muammolarning falsafiy jixatlari	6	4	2			2		2
2.	Mantiq	30	20	10			10		10
2.1	Mantiq ilmining predmeti, asosiy konunlari.	6	4	2			2		2
2.2	Tushuncha tafakkur shakli sifatida	6	4	2			2		2
2.3	Mulohaza	6	4	2			2		2
2.4	Xulosa chiqarish	6	4	2			2		2
2.5	Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari	6	4	2			2		2
3.	Etika	12	8	4			4		4
3.1	“Etika” fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati. Axloqiy madaniyat va qadriyatlar	8	4	2			2		4
3.2	Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni	6	4	2			2		2
4.	Estetika	12	8	4			4		4
4.1	Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari	8	4	2			2		4
4.2	Tabiat va texnogen tsivilizatsiya estetikasi. Estetikaning zamonaviy muammolari	6	4	2			2		2
Jami		130	72	36			36		58

2. ASOSIY QISM

I-bo‘lim. Falsafa

1.1-mavzu. Falsafa faning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli

Falsafa atamasining kelib chiqishi. Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari. Dunyoqarashning tuzilishi. Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Mif - dastlabki dunyoqarash shakli. Mifologik va diniy dunyoqarashning o‘zaro aloqasi va farqi. Diniy dunyoqarashning shakllanishi va mohiyati. Dunyoni idrok etishda falsafiy dunyoqarashning o‘ziga xos roli. Fan - ilmiy dunyoqarash shakli. Fanning funktsiyalari va taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Falsafa va fanning o‘zaro mutanosibligi va farqi. Falsafa fanining predmeti, funktsiyalari. Falsafada milliylik va umuminsoniylik. Hozirgi davrda milliy falsafani rivojlantirish muammolari, uning xalqaro aloqalarni tashkil etishdagi ahamiyati.

1.2-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq falsafasi

Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo‘lishi. Misr va Bobil falsafiy maktablari. Qadimgi Hindistonda falsafiy maktablar. Markaziy Osiyoda “Avesto” ta’limotidagi falsafiy fikrlar. Konfutsiy va Lao Tszi ta’limoti.

Islom dinining vujudga kelishi va falsafiy ta’limoti. Ilk o‘rta asr Sharq falsafasi va uyg‘onish davri. Sharq panteizmi va peripatetizmi Sharq mutafakkirlari (Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino)ning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ahlokiy ta’limotlari. Ilk o‘rta asrda tasavvuf va islom ilohiyotshunoslik ta’limotlari. Ularning dunyoqarash mazmuni.

Temuriylar sulolasi davri. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodida gumanizm g‘oyalari.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg‘or falsafiy ijtimoiy siyosiy fikrlar. Sharq istilosi bilan bog‘liq uyg‘onish harakatlari: osiyotsentrizm, panturkizm, panislomizm, ma’rifatparvarlik va jadidchilik ta’limotlari. XX-XXI asr o‘zbek falsafasi

1.3-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G'arb falsafasi

Qadimgi Yunon-Rim falsafiy maktabi. Milet maktabi, uning Misr- Bobil, Hind falsafasi ildizlari bilan bog'liqligi. Suqrotgacha bo'lgan falsafiy tizim va Suqrot maktablari. Antik falsafada Demokrit, Geraklit, Aflotun va Arastu ta'limotlari. Ellinizm davri falsafasi.

Xristianlik va Avreliy Avgustin falsafiy ta'limotining vujudga kelishi. Ilk o'rta asr G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari. Ilk o'rta asrlar falsafiy tafakkur rivojida appologetika va patristika sxolastika. Nominalizm va realizm. Foma Akvinskiy ta'limoti. G'arb Uyg'onish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari.

Yangi va eng Yangi davr falsafasining ustuvor yo'nalishlari. Yangi davr G'arb falsafasidagi asosiy muammolar. XVIII asr Evropa falsafasining ma'rifiy xususiyatlari. XX-XXI asr G'arb falsafasining oqimlari. XX-XXI asr G'arb faylasuflari ijodida fan falsafasining rivoji.

1.4-mavzu. Borliq – falsafaning fundamental kategoriyasi.

Borliq tushunchasining tahlili. Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq va yo'qliq dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi: tabiat borlig'i va ma'naviy borliq. ijtimoiy borliq va inson borlig'i. Virtual borliq tushunchasi. Energiya - borlik shakli. Olamning birligi, chekliligi va cheksizligi. Substantsiya va substrat tushunchasilari. Materiya tushunchasi va uning tashkillaShuv darajalari. Olamning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi. In'ikos nazariyasi va uning darajalari, shakllari.

Moddiy ob'ekt tizim sifatida. Geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar. Kengayuvchi olam gipotezasi. Qizil siljish va torsion maydonlar. Universal kosmik galogramma. Harakat - materiyaning yashash sharti. Abadiy harakat, o'zgarish va harakatsizlikning o'zaro nisbati. Harakatning tiplari va shakllari. Harakatning mutlaqligi va sokinlikning nisbiyligi. Makon va vaqt - borliqning fundamental shakllari. Falsafa tarixida makon va vaqtga substantsional va relyatsion yondashuvlar. Ijtimoiy makon va ijtimoiy vaqtda tarix vaqti va davr ruhining mutanosibliigi. Individual vaqt inson mavjudlik vaqti sifatida. O'z-o'zidan tashkillaShuv - materiyaning atributi

1.5-mavzu. Olamning universal aloqalari va rivojlanish. Falsafaning qonun va kategoriyalari.

Falsafa tarixida rivojlanish xaqidagi qarashlar evolyutsiyasi. Rivojlanish kontseptsiyalari. Shakllanish, o'zgarish va rivojlanish tushunchalari. Barqarorlikning o'zgaruvchanligi. Barqarorlik va beqarorlik nisbati. Rivojlanishning tiplari. Ochik tizimlarning evolyutsiyasi. Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari. Bazis va lokal qonunlar. Falsafaning asosiy qonunlari Qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni. Miqdor va sifat o'zgarishlari dialektikasi. Inkorni-inkor qonuni va vorisiylik. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari. Fan va falsafa kategoriyalarining tasnifi. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalar.

1.6-mavzu. Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari

Bilish nazariyasining predmeti va o'ziga xos xususiyatlari. Gnoseologiya (epistemologiya)ning mazmuni va mohiyati. Bilishning asosiy turlari va shakllari. Noilmiy bilish shakllari. Bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari, ularning o'ziga xosligi va aloqadorligi. Ong-tafakkur va borliqning birligi. Tafakkur uslubining asosiy jihatlari. Tafakkur uslubi inertsiyasi tafakkurning xossasi sifatida. Bilishda haqiqat va amaliyot uyg'unligi. Haqiqatning asosiy shakllari va kontseptsiyalari. Haqiqatni anglashda isbotlash va rad etish emotsiya, ideal, iroda, ishonch va Shubhaning roli. Amaliyotning tarkibiy qismlari.

Fapsafada metod va metodologiya, metodika tushunchalari. Metodlarning tasnifi. Falsafa metodlari. Fan metodlari: umumilmiy, xususiy ilmiy va fanlararo tadqiqot metodlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyati. Hozirgi zamon metodologiyasi

1.7 -mavzu. Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlarini. Jamiyat va tarix falsafasi

Jamiyat va tarixning o'zgaruvchanligining falsafiy jihatlari. Tarix falsafasining tuzilishi va funktsiyalari Tarixga formatsion va tsivilizatsion yondashuvlar. Tarixda shaxsning roli. Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida. Ijtimoiy hayot sferalari. Jamiyatning siyosiy hayotida davlatning o'rni va roli. Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatida nodavlat tashkilotlarning tutgan o'rni.

Tsivilizatsiya tushunchasining tahlili va turli yondashuvlar tasnifi Tsivilizatsiya rivojining asosiy bosqichlari. "Madaniyat" tushunchasi, uning mohiyati, strukturasi va funktsiyalari Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro bir-biriga ta'siri. Jahon tsivilizatsiyasi tarixida Sharq madaniyatining o'rni va uni o'rganishning ahamiyati.

Qadriyat tushunchasining tavsifi va mohiyati. Moddiy va ma'naviy kadriyatlarining o'zaro aloqador. Ehtiyojlar va kadriyatlar mutanosibligi Qadrilik va kadrsizlanish, ularning ijtimoiy xarakteri.

1.8-mavzu. Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)

Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari. Ongning tabiati, strukturasi va funktsiyalari. Ongsizlikning tabiati. Antrop tamoyil - inson borlig'iga oid zamonaviy metodologik vosita.

Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi. Falsafiy antropologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, predmeti va vazifalari. Insonga introvertiv va ekstrovertiv yondashuvlar, biologizatorlik va sotsiologizatorlik kontseptsiyalari Passionar, subpassionar va muvofik odamlar haqidagi ta'limot. Hayotning mazmuni va unda insonning vazifasi. Hayotni tark etish bosqichlari. Suitsid va parasuitsidning oldini olishda tarbiyaning roli. Inson borlig'ida o'zlikni anglashning namoyon bo'lishi.

Inson borlig'ida faoliyatining tuzilishi va atributlari. Inson faoliyatini tartibga solish mexanizmlari va uning ahamiyati. Faoliyatni tashkil qilishda huquq va ahlok uyg'unligi.

1.9-mavzu. Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari

Globallashuv - Yangi falsafiy mavzu. Globallashuv xodisasi va globalistika. Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Global muammolarning turli darajalari. 2017-2021 yillardagi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida global muammolarning tavsifi. Hozirgi davrning asosiy global muammolarining tasnifi. Global muammolarni hal qilishda falsafaning roli. Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg'unligi. Global muammolarni hal qilishda xalqaro kuchlar birlashuvi; umumiy va xususiy manfaatlari. Global jarayonlarni bashorat qilishning ahamiyati. Bashoratning turlari va metodlari. Kelajakni bashorat qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

Korruptsiya shakllanishining tarixi. BMT Kodeksida korruptsiyaga munosabat. O'zbekistonda korruptsiyaga oid konunlar va qarorlar tasnifi korruptsiyaga qarshi kurashning ahamiyati.

Texnika va texnologiya tushunchalarining mohiyati. Texnologik taraqqiyotning istiqbollari. Nanotexnologiyalar va biologik identifikatsiya texnologiyalarining ijtimoiy jarayonlarga ta'siri. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi virtual muloqotning ijobiy va salbiy jihatlari. Sun'iy intellekt tushunchasi va uning tahlili. Texnogen tsivilizatsiyada til va kommunikatsiya dialektikasi.

II-bo'lim. Mantiq.

2.1-mavzu. Mantiq ilmining predmeti, asosiy konunlari.

Mantiq ilmining asosiy masalalari va ularni tadqiq etish yo'nalishlari. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Formal mantiqning predmeti va strukturasi. Mantiq ilmining fanlar tizimidagi o'rni.

Mantiq ilmining nazariy va amaliy ahamiyati. Mantiq ilmining fikrlash madaniyatini o'stirishdagi, Shu jumladan, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdagi ahamiyati. Tafakkurning ilmiy ishonch-e'tiqodning shakllanishidagi tutgan o'rni. Mantiq ilmining fan va texnika taraqqiyotiga ta'siri. Mantiq ilmining milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, milliy mafkurani yaratishdagi ahamiyati.

2.2-mavzu. Tushuncha tafakkur shakli sifatida

Tushunchalarning shakllanishi va qo'llanishi. Tushunchalarning tilda ifoda qilinishi: nom va termin. Tushunchaning ta'rifi, tuzilishi va turlari. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. Tushunchalar bilan bajariladigan mantiqiy amallar: tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish; tushunchani ta'riflash (definiitsiya); tushunchalarni bo'lish va tasniflash. Fikr yuritishda tushunchalar bilan bog'lik xatoliklar.

2.3-mavzu. Mulohaza tafakkur shakli sifatida

Hukm tafakkur shakli sifatida. Hukmning tarkibi va asosiy xususiyatlari. Hukm va gap. Oddiy va murakkab hukmlar. Murakkab hukm, uning turlari. Modallik turlari va modallik hukmlari. Mantiqiy va ontologik modalliklar. Me'yor hatti-harakat qoidalarini ifoda qiluvchi fikr sifatida. Me'yor va hukm. Me'yorning voqelikka bo'lgan munosabatining mantiqiy ifodalanishi. Savol fikrning maxsus shakli sifatida. Mantiqan to'g'ri va noto'g'ri qo'yilgan savollar. Hukmlar o'rtasidagi munosabatlar. Sig'ishadigan va sig'ishmaydigan hukmlar.

2.4-mavzu. Xulosa chiqarish

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumii qoydalari. Fikrning harakat yo'nalishiga ko'ra xulosa chiqarish deduktsiya, induktsiya va analogiya: ularning o'zaro adoqadorligi Murakkab mulohazalardan xulosa chiqarish. Fikr yuritishda mulohazalarni qurish va xulosa chiqarish bilan bog'lik xatolar.

2.5-mavzu. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari

Asosli muhokama yuritish shartlari. Isbotlash va rad etishning umumiy tavsifi. Isbotlash va rad etishning turlari. Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar. Paralogizm. Sofizm. Paradoks. Argumentlash nazariyasining asosiy tushunchalari. Kommunikativ modellarda argumentlash: diadog, bahs, polemika. Argumentlashning strategiyasi va taktikasi.

Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari: muammo, gipoteza, nazariya. Muammoni aniqlash va echimini topishda savolning o'rni. Savol va javobning muhokama yuritishdagi ahamiyati.

Mantik ilmining nazariy va amaliy ahamiyati.

III-bo'lim. Etika

3.1-mavzu. "Etika" fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati. Axloqiy madaniyat va qadriyatlar

"Etika" fanining predmeti, mohiyati va tuzilmasi. Gedonizm va evdemonizm ta'limotining axloqiy ahamiyati. Axloqning paydo bo'lishiga oid dinni ilmiy qarashlar tasnifi. XXI asrda global etosfera (axlokiy muhit)ni yaratishning zaruriyati. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, me'yorlarining shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo'lishi. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov.

Muomala madaniyati axloqiy madaniyatning tarkibiy qismi va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati. Asosiy axloqiy kadriyatlar. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi. Tibbiy va ekologik tarbiyaning ahlokiy asoslari. Sog'zom turmush tarzining barkamol avlod axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati. Sa'atning shaxs ahloqiy tarbisiga ta'siri. zamonaviy ahloqiy tarbining yutuqlari va kamchiliklar. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik. Yuksak axloqni tarbiyalashda texnologiyaning ijobiy va salbiy ta'siri. Bioetika amaliy etikaning nazariy asosi.

3.2-mavzu. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni

Nikoh - eng kadimgi axloqiy munosabat shakli. Nikohning qonuniy va diniy jihatlari. Oilaning psixologik, ijtimoiy-ma'naviy muhitining farzand tarbiyasiga ta'siri. Oila nomusi va sha'nini saqlashda ota-ona va farzandlar mas'uliyati.

Milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy kadriyatlar. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy kamolotida nikoh va oila hakidagi milliy axloqiy kadriyatlarining o'rni. Yolshlar psixologiyasida oilaga munosabatning ma'naviy, axloqiy tamoyillarini shakllantirish. Ajralish va uning axloqiy kamolotga salbiy ta'siri. Oilaviy munosabatlarga noan'anaviy yondashuvlarni oqibatlar. Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Oila shartnomasini tuzishning axloqiy jihatlari.

IV-bo'lim. Estetika

4.1-mavzu. Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari

“Estetika” fanining obekti va falsafiy mohiyati. “Estetika” hakidagi qarashlar tarixi. Estetika kategoriyalarining an'anaviy va zamonaviy tasnifi. Go'zallik va uning muqobillari. Ulug'vorlik kategoriyasining falsafiy mohiyati. Fojeaviylik (tragediya) kategoriyasi. Kulgililik kategoriyasi. Estetika kategoriyalarining o'zaro aloqadorligi.

4.2-mavzu. Tabiat va texnogen tsivilizatsiya estetikasi. Estetikaning zamonaviy muammolari

Jamiyat rivojida tabiatga estetik munosabatning shakllanishi. Tabiatning estetik jihatlari. Ekologik estetikaning kadriyatli maqomi. Tabiatni estetik idrok etishning an'anaviy va noan'anaviy usuli. Ekoestetikaning XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o'rni. Texnogen tsivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga ta'siri. Maishiy turmush estetikasi. Zamonaviy shaharsozlik estetikasi Dizaynning estetik xususiyatlari. Xalq amaliy san'ati va dizayn.

Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari. Shaxsni estetik tarbiyalashda fan, ta'lim va madaniyatning o'zaro bog'likligi. Mehnat- turmush estetikasining muhim omili. Insonning tabiiy, ahoqiy va estetik didining mutanosibli. “Ommaviy madaniyat”ning yoshlar estetik didiga ta'siri. Sport va uning ma'naviy-estetik jihatlari. Voqe'likka estetik munosabatni milliy va umumbashariy ahamiyati. Olamni estetik anglashda texnologiyalarning roli. Reklamanning estetik jihatlari va g'ayriestetik holatlar

2.1. Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda kursantlar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulot jarayonida yanada boyitadilar Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida kursantlar bilimlarini mustahkamlashga erishish uchun tarqatma materiallardan foydalaniladi, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali kursantlar bilimi oshirilib, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlanadi.

Seminar mashg'ulotlarida kursantlar falsafa fanining nazariy asoslarini o'rganib, uning amaliy hayot bilan bog'liqligini tahlil qiladilar.

2.2. Seminar mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Falsafiy dunyoqarashning o'z o'zini anglashdagi roli.
2. Falsafa va fan mutanosibli.
3. Stsientizm va antistsientizm.
4. Bilish inson ma'naviy kamoloti omili.
5. Tarix falsafasi va falsafa tarixi.
6. Inson oliy qadriyat.

7. Globallashuv sharoitida antropologik inqirozning oldini olishning zaruriyati.
8. Ilmiy va ijtimoiy prognozlashtirishning o'zaro aloqadorligi.
9. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalarning uyg'unligi
10. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar
11. Inson qadr-qimmatining mazmuni.
12. Axloqning umuminsoniy, mintaqaviy va milliy xususiyatlari.
13. Or-nomus, qadr-qimmat, sharm-hayo axloqiy me'yorlari sifatida.
14. Oila axloqi.
15. Xushmuomalalik xulqiy go'zallik sifatida.
16. Muhabbatning turlari va uning axloqiy jihatlari.
17. Shaxsning axloqiy fazilatlarini.
18. Etika fanini ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liqligi.
19. Tasavvufning axloq falsafasi sifatida namoyon bo'lishi.
20. Axloqning global muammolari.
21. Axloq va demokratiya.
22. Arastuning "Axloqi Kabir" asarida axloqiy muammolarning yoritilishi.
23. Shaxs ma'naviy kamolotida axloqiy qadriyatlar uyg'unligi
24. Mantiq ilmining predmeti va ahamiyati
25. Mantiq fani rivojlanishining asosiy bosqichlari
26. Tilning mantiqiy tahlili
27. Formal mantiqning asosiy qonunlari
28. Tushuncha
29. Hukm (mulohaza)
30. Xulosa chiqarish
31. Dalillashning mantiqiy asoslari
32. Muammo. Faraz. Nazariya

2.3. Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

O'quv rejada ushbu fandan laboratoriya ishlari bajarilishi ko'zda tutilmagan.

2.4. Kurs loyhasi (ishi)ni bajarish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

O'quv rejada ushbu fandan kurs ishlari bajarilishi ko'zda tutilmagan.

2.5. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor ta'lim oluvchilarning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va Shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Ta'lim oluvchi mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- mustaqil ishlar bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- ta'lim oluvchining o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

2.6. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning taxminiy mavzulari

“Falsafa” fanidan ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlarini referat, seminar, doklad tayyorlash, konspektlashtirish va boshqa shakllarda tashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashda ma’ruza va seminar mashg’ulotlari mavzularini to’ldirishga harakat qilinishi lozim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ish mavzulari:

1. Falsafiy dunyoqarashning o‘z o‘zini anglashdagi roli.
2. Falsafa va fan mutanosibligi.
3. Stsientizm va antistsientizm.
4. Bilish inson ma’naviy kamoloti omili.
5. Tarix falsafasi va falsafa tarixi.
6. Inson oliy qadriyat.
7. Globallashuv sharoitida antropologik inqirozning oldini olishning zaruriyati.
8. Ilmiy va ijtimoiy prognozlashtirishning o‘zaro aloqadorligi.
9. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalarning uyg‘unligi
10. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar
11. Inson qadr-qimmatining mazmuni.
12. Axloqning umuminsoniy, mintaqaviy va milliy xususiyatlari.
13. Or-nomus, qadr-qimmat, sharm-hayo axloqiy me’yorlari sifatida.
14. Oila axloqi.
15. Xushmuomalalik xulqiy go‘zallik sifatida.
16. Muhabbatning turlari va uning axloqiy jihatlari.
17. Shaxsning axloqiy fazilatlar.
18. Etika fanini ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liqligi.
19. Tasavvufning axloq falsafasi sifatida namoyon bo‘lishi.
20. Axloqning global muammolari.
21. Axloq va demokratiya.
22. Arastuning "Axloqi Kabir" asarida axloqiy muammolarning yoritilishi.
23. Shaxs ma’naviy kamolotida axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi
24. San’atning axloqiy xususiyatlari.
25. Ommaviy madaniyat va yoshlarning axloqiy qarashlari.
26. Estetikaning qadimiy fan sifatidagi mohiyati.
27. Modernizatsiya jarayonida hayot sifati va mamlakat qiyofasi o‘zgarishining estetik jihatlari.
28. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotida estetikaning ma’naviy ehtiyojga aylanishi.
29. Atrof-muhitni go‘zallashtirishning zamonaviy ko‘rinishlari.
30. Xalqaro global tarmoq -tizimi va estetik dunyoqarash.
31. F.Shillerning "Estetik tarbiya haqida maktublar" asarining mohiyati.
32. Estetik qadriyatlarning qadsizlanishiga olib keluvchi omillar.
33. Shaxs ma’naviy kamolotida estetik qadriyatlar uyg‘unligi.
34. Davlat ramzlarining estetik xususiyatlari.
35. O‘zbek milliy qadriyalarining estetik xususiyatlari.
36. San’atda estetika muammolarining in’ikosi.
37. O‘zbekistonda sport estetikasi rivojining asosiy tamoyillari.
38. Haqiqat, ezgulik va go‘zallikning oliy estetik qadriyat sifatidagi mohiyati.
39. Estetik madaniyatning ko‘rinishlari.
40. Ulug‘vorlik va bunyodkorlik o‘rtasidagi aloqadorlikning milliy me’morchilikdagi in’ikosi.
41. XXI asrda estetika ilmiga yondashuv.
42. Estetik dunyoqarashni shakllantirishda kino san’atining o‘rni.
43. Estetikani targ‘ib qilishda jamoat birlashmalarining o‘rni.
44. Qadimgi dunyoda mantiq ilmining shakllanishi.
45. O‘rta asrlarda mantiq ilmi.

46. Yangi davrda mantiq ilmi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari.
47. Savol va javob-mulohazalarini hosil qilish vositalari.
48. Murakkab hukmlar yordamida sillogistik xulosa chiqarish.
49. Tanqid va rad etish.
50. Bahs yuritishning mantiqiy asoslari

3. DASTURNING INFORMATSION-USLUBIY TA'MINOTI:

Falsafa fanini o'qitishda zamonaviy (xususan interfaol) metodlar, axborot kommunikatsiya (ananaviy ta'lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron-didaktik) texnologiyalarining qo'llanishi nazarda tutiladi. Falsafa fani kursida elektron darslikdan, mavzuga oid slaydlardan va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

3.1. Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.:Ўзбекистон, 2018
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураамиз. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008
7. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шаротида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. –Т.: Ўзбекистон, 2009
8. Каримов И.А. Асосий вазиғамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. –Т.: Ўзбекистон, 2010. -78 б.
9. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Т.: Ўзбекистон, 2010.
10. Каримов И.А. Асарлар тўплами. 1-18 жилдлар.-Т.:Ўзбекистон, 1996-2010
11. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. - 370 б.
12. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш - энг олий саодатдир. Т.: “Ўзбекистон”, 2015.
13. Каримов И.А. Озодлик ҳавосидан тўйиб нафас олган халқ ўз йўлидан ҳеч қачон қайтмайди. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
14. Каримов И.А. Ҳаёт синовларида тобланган Қашқадарё эли ҳар қандай юксак маррани эгаллашга қодир. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги Фармони. Т.: “Адолат”, 2017.
16. Аристотель. Никомахова этика // Аристотель Сочинения в 4-х томах, том 1, Москва «Мысль» 1983.
17. Соколов В.В.Европейская философия XV-XVII веков [Matn]: Учебное пособие. Москва: Высшая школа, 1984.
18. Зотов А.Ф. Буржуазная философия середины XIX-начала XX века [Matn] : Учебное пособие. -Москва: Высшая школа, 1988.
19. Умаров Э. Эстетика [Matn]: Учебное пособие / Э.Умаров, И.Пал; тағризчи Е.Я.Басин . - Ташкент: Ўқитувчи, 1990.

20. Ахлоқ-одобга оид. Ҳадис намуналари. – Т.: Фан, 1990.
21. Кэрролл Л. Логическая игра. М. 1991 г.
22. Современная западная философия [Matn]: Словарь tuzuvchi В.С. Малахов, В.П. Филатов. - Москва: Политиздат, 1991.
23. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992.
24. Кайковус. Қобуснома. Форсчадан Муҳаммад Ризо Огохий таржимаси. “Мерос” нашриёти. Т.: 1992.
25. Розанов В.В. Религия. Философия. Культура. Москва: Республика, 1992.
26. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
27. Сафаров Р. Правила хорошего тона [Matn] Р.Сафаров. -Ташкент: Правда Востока, 1993.
28. Рахимов И.Р. Мантиқ. Тошкент. 1994 йил.
29. Каримов С. Мантиқ [Matn] С.Каримов, taqrizchi С.С.Комилова, Н.Э.Муҳаммадиев. - Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1995.
30. Ватан туйғуси. – Т.: Ўзбекистон. 1996.
31. Амир Темур ва темурийлар даврида маънавият ва санъат. Т.: 1996.
32. Донишмандлар одоб-ахлоқ тўғрисида. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
33. Авесто. Аша алқови. “Соғлом авлод учун” журнали. 1996 йил, 5-6 сонлар.
34. Туленов Ж. Фалсафа. Дарслик. Т.:Ўқитувчи, 1997.
35. Конфуций панд-ўғитлар. “Соғлом авлод учун” журнали 1997 й, 5-6 сонлар.
36. Каримов Ш., Шамсудинов Р. Ватан тарихи. “Ўқитувчи”, Т-1998.
37. Имомназаров М. Миллий маънавият назариясига чизгилар. Т.: “Шарқ” концерни, 1998.
38. Рахимов И.Р. Фалсафа [Matn]: (қисқача конспект). -Тошкент: Университет, 1998.
39. Никиморов. Словар по логике. М. 1998 г.
40. Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. Маърузалар матни. Т.: “ЎАЖБНТ” маркази, 2000.
41. Алиев А. Маънавият, Қадрият ва бадиият. Т.: Академия, 2000.
42. Фалсафа [Matn] : Маърузалар матни / taqrizchi Б.Тўйчиев, Б.Каримов, А.Мўминов . - Тошкент, 2000.
43. Нурмухамедов Н. Маънавият, этика ва эстетика тарбияси. -Т.: Абу Али ибн Сино, 2000.
44. Каримов С. Мантиқ. 2000 йил.
45. Закруллаев А. “Ғоялар кураши”. Т.: “Мовароуннахр”, 2000.
46. Шарипов М. Мантиқ. Тошкент. 2001 йил.
47. Сиддиқова Ш. Эстетика [Matn]: (қисқача курс) Ш.Сиддиқова, taqrizchi Н.Наҳангов. - Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.
48. Ҳакимова О. Мантиқ ва нутқ маданияти [Matn]: (қисқача курс) / О.Ҳакимова, taqrizchi У.Шарипова, О.Тожиев, Н.Наҳангов . -Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.
49. Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. Маърузалар матни. Т.: 2003.
50. Основы философии [Matn]: Учебник / М. А. Ахмедова [и др.]. -Ташкент: Мехнат, 2004.
51. Соифназаров И. Курс лекций по философии.-Т.: 2004.
52. Шарипов М. Мантиқ [Matn]: Ўқув қўлланма М.Шарипов, Д.Файзихўжаева; taqrizchi М. М.Хайруллаев. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004.
53. Назаров Қ.Аксиология – қадриятлар фалсафаси. –Т.: ЎФМЖ, 2004.
54. Назаров Қ.Н. Билиш фалсафаси. –Т.: Университет, 2005.
55. Фалсафа асослари [Matn]: Ўқув дастурлари, дарсликлар ва ўқув қўлланмаларини қайта кўриб чиқиш ва янгиларини яратиш бўйича Республика мувофиқлаштириш комиссияси нашрга тавсия этган / taqrizchi Б.Тўйчиев, А.Мўминов.–Тошкент.:Ўзбекистон, 2005.
56. Falsafa. Мамашокиров С. таҳрири остида. -Т.: Шарқ, 2005
57. Фалсафа асослари. Назаров Қ.таҳрири остида. –Т.: Шарқ, 2005.
58. Шермухамедова Н.А. Фалсафа ва фан методологияси -Т.: Университет, 2005.
59. Билиш фалсафаси [Matn]: Гносеология. -Тошкент: "Университет", 2005.
60. Falsafa. Ахмедова М. таҳрири остида.-Т.: УФМЖ, 2006

61. Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. Т.: Шарқ, 2006.
62. Абдулла Шер. Эстетика. Маърузалар матни. Т.: 2008.
Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. Т.: Ўзбекистон, 2008.
63. Илалов И.Н. Философия и методология истории [Matn] : Учебное пособие. -Ташкент: Aloqachi, 2008.
64. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари [Matn] / Н. Жўраев. Тошкент : Маънавият, 2008.
65. Маънавий юксалиш йўлида. Т.: “Маънавият”, 2008.
66. Хайитов Ш., Хайитова К., Зияутдинова Х. Фалсафа асослари. Альбом схема. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.
67. Тўйчиев Б.Т. Социальная философия. Альбом схема –Т.: 2009
68. Мантиқ ва мулоҳаза [Matn] /taqrizchi М.М. Ҳайдарова, Н.М. Муллабоева -Тошкент : Sharq, 2010.
69. Sher A. AxloqShunoslik [Matn]: Darslik / A. Sher, taqrizchi Н. А. Aliqulov, L. Muhammadjonova. -Toshkent: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
70. Бахронов Д.Д., Игамбердив И.Р., Кубаев Ф.С., ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. “Ўз. Рес. ИИВ” Т.: 2011.
71. Жакбаров М.. Комил инсон ғоясининг тарихий-фалсафий негизлари. “Тафаккур” нашриёти. Т.: 2011.
72. Азимова Д., Г.М.Эргашева “Маънавият асослари” ўқув-услубий қўлланма. “Ўз. Рес. ИИВ ТОҲТБЮ” Т.: 2012.

3.2. Қўшимча адабиётлар

1. Аль-Фараби. Логические трактаты. Алма-Ата. 1975.
2. Аристотель. Сочинения В 4-х томах. -М.: 1975. ч.1.
3. Ибн Сина. Избранные философские произведения. –М.,1980.
4. Логико-гносеологические идеи мыслителей Средней Азии. –Т.: «Фан», 1981.
5. Рахимов И. Логикадан амалий машғулотлар ва методик тавсиялар. -Т.: «Ўзбекистон», 1988.
6. Войшвилло Е.К. Символическая логика: классическая и релевантная. — М.: Изд- во МГУ, 1989.
7. Войшвилло Е.К. Понятие как форма мышления.-М.: Изд-во МГУ, 1989.
8. Ивин А.А. Искусства правильно мыслить.-М., 1990.
9. Логика и компьютер. Моделирование рассуждений и проверка правильности программ. –М.: Наука, 1990.
10. Рахимов И. Мантик.- Т., ТошДУ, 1994 й.
11. Ёкубов Т., Каллибеков С. Математик мантиқ элементлари — Т.: Ўқитувчи, 1996.
12. Асмус В. Античная философия. -М.: 1999.
13. Туленов Ж. Диалектика назарияси.-Т.,2000.
14. Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация под редакцией О.Файзуллаева -Т.: Шарқ, 2000.
15. Новейший философский энциклопедический словарь, -М.: 2001.
16. Гуревич П.С. Основы философии -М.: 2002.
17. Хотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан.-Т.: “Минхож”, 2003.
18. Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар. Назаров Қ. таҳрири остида. –Т.: Шарқ, 2004
19. Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. –Т.: Ўзбекистон, 2004.
20. Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O`FMJ, 2006.
21. Ёкубова М. Жамият ахборотлашувнинг фалсафий асослари. Фалс.фан. номз. Дисс. –Т.: Университет, 2007.
22. Мусаев Ф. Демократик давлат куришининг фалсафий ҳуқуқий асослари. –Т.: Ўзбекистон, 2007
23. Қурбонова Л. Ижодий тафаккурнинг фалсафий методологик таҳлили. Фалс.фан. номз. Дисс. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007.

24. Ҳақиқат манзаралари. С.Жўраева таржимаси. –Т.: Янги аср авлоди, 2007
25. Цицерон. Нотиклик санъати ҳақида икки рисола. Таржимон Урфон Отажон. –Т.: Янги аср авлоди, 2007.
26. Мадаева Ш. Миллий менталитет ва демократик тафаккур. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007.
27. Ёқубова М. Ахборот технологияларининг фалсафий асослари. –Т.: Университет, 2008
28. Отамуродав С. Глобаллашув ва миллат. –Т.: Янги аср авлоди. 2008.
29. Юнусов А. Ҳуқуқ маънавияти. –Т.: Адолат, 2008.
30. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Т.: Маънавият, 2008.
31. Комилов Н. Тафаккур карвонлари: Шарқу Ғарбнинг цивилизациявий алоқалари. –Т.: Шарқ, 2009.
32. Очилова Б. Миллий-маънавий юксалишда мерос, кадрятлар ва ворисийлик. –Т.: Истиклол, 2009.
33. Сафаров О. Оила маънавияти. –Т.: Маънавият, 2009.
34. Қаҳҳорова Ш. Глобал маънавият – глобаллашувнинг ғоявий асоси. Т.:Тафаккур, 2009.
35. Қурбонова Л. Борлиқ фалсафаси. –Андижон: АДУ, 2009.
36. Қурбонова Л. Инсон фалсафаси. –Андижон: АДУ, 2009.
37. Мамашокиров С., Усманов Э. Барқарор тараққиётнинг экологик хавфсизлик масалалари. –Т.: Фан, 2009.
38. Ёқубова М. Фан ахборотлашувининг жамият ривожигаги ўрни- Т.:”Стар -Полиграф”, 2010.
39. Бозаров Д. Синергетик парадигма. –Т.: Тафаккур, 2010.
40. Аллаярова С.Н. Фалсафий герменевтиканинг методологик жиҳатлари. Фалс.фан. номз. Дисс. –Т.: Университет, 2010.
41. Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси .- Т.: Академия, 2011
42. Фалсафа энциклопедик луғат. Назаров Қ.таҳрири остида. –Т.: Шарқ, 2011.
43. Жакбаров М. Комил инсон ғоясининг тарихий-фалсафий негизлари. –Т.: Tafakkur, 2011.
44. Айдарбек Тулепов. Ислом [Matn]: ва ақидапараст оқимлар / Тулепов. Айдарбек. -Тошкент : "Шарқ", 2013.
45. Айдарбек Тулепов. Ишид фитнаси [Matn]. -Тошкент: "RUTA-PRINT", 2015 й.

3.3. Интернет сайтлар ва даврий нашрлар

Интернет тизими учун қуйидаги сайтлардан фойдаланиш тавсия этилади:
www.mgimo.ru: www.ziyonet.uz: www.pacademy.edu.: www.rags.ru: www.ssu.runnet.ru:
www.pedagog.uz: www.psychology.uz: www.MVD.uz: www.Lex.uz: www.philosophy.ru:
www.philosophy.nsc.ru: www.history.ru: www.gov.uz: www.edu.uz: www.performance.edu.uz:
www.tseu.uz: www.filosofiya.ru: philosophy.albertina.ru: www.philosophy.com: www.press-service.uz: www.ziyo.edu.uz: www.tseu.fan.uz: www.teuphil.narod.ru.

MA'RUZA MATNLARI

I-BO'LIM. FALSAFANING MOHIYATI, RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI VA YO'NALISHI

1.1-MAVZU. FALSAFA: UNING PREDMETI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI ROLI

1. Falsafa tushunchasining kelib chiqishi.
2. Dunyoqarashning mohiyati va tuzilishi. Dunyoqarashning tarixiy shakllari.
- 3 Falsafaning predmeti va asosiy mazmuni. Falsafa va fanning mutanosibli va farqi

«Falsafa» tushunchasining kelib chiqishi. Har qanday noma'lum so'z mazmunini uning etimologiyasidan, ya'ni u qachon, qanday va nima uchun Yuzaga kelganini aniqlashdan boshlash o'rinli bo'ladi. «Falsafa» tushunchasi yunoncha *phileo* – sevaman va *sophia* – donolik so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, mazkur atamaning dastlabki ma'nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin. Falsafa so'zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan avlodga o'tuvchi bilim bilan inson o'z aqliga tayanib, mushohada yuritish va tanqidiy fikrlash yo'li orqali olishi mumkin bo'lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, Pifagor ham, qadimgi davrning boshqa faylasuflari ham dastlab «falsafa» tushunchasiga uning keyinchalik paydo bo'lgan va mohiyat e'tibori bilan, falsafani «barcha fanlar podshosi» darajasiga ko'targan ma'nosidan boshqacharoq ma'no yuklaganlar. Ammo ilk faylasuflar o'zlarini donishmand deb hisoblamaganlar va donolikka da'vo ham qilmaganlar, zero, o'sha davrda keng tarqalgan tasavvurga ko'ra, *haqiqiy donishmandlik ajdodlardan meros qolgan, asrdan asrga o'tib kelayotgan afsonalar, din va rivoyatlarda mujassamlashgan*. Donishmandlar deb, asrlar sinovidan, eng so'nggi haqiqat manbai sifatidagi bilimlarga ega bo'lgan bashoratgo'ylar, kohinlar va oqsoqollar e'tirof etilgan. Ularning so'zlari birdan-bir to'g'ri deb qabul qilingan. Faylasuf esa, qadimgilar fikriga ko'ra donishmandlik muxlisi bo'lishi, e'tiqod sifatida qabul qilingan tayyor haqiqatlarga emas, balki o'z aqliga tayanib, ijodiy yo'l bilan, Shuningdek boshqa faylasuflar tomonidan olingan bilimlar va tajribadan foydalangan holda maqsadga intilishi lozim bo'lgan.

Biroq, insonning dunyo va o'ziga bunday munosabati darhol Yuzaga kelgani yo'q. Insonning tabiatga qarshilik ko'rsatish, ishlab chiqarish vositalarini yaratish va ko'paytirish qobiliyatlari rivojlangunga va o'sgunga, buning natijasida etarli tajriba va bilimlar to'plangunga, odamlar aqli ko'p sonli savollarga javob izlash uchun etarli darajada yuksalgunga qadar insoniyat uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Shu bois falsafaning mohiyatini, Shuningdek uning paydo bo'lish sabablari va sharoitlarini tushunish uchun gapni inson dunyoqarashidan boshlash lozim. Nima uchun? Shuning uchunki, falsafa dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllaridan biri hisoblanadi. Falsafa haqida gapirish – inson dunyoqarashi, uning oqilona fikrlash qobiliyati haqida, binobarin, uning mohiyati va Erda hayot paydo bo'lish tarixi haqida gapirish demakdir. Bu erda biz hali kam o'rganilgan murakkab muammolarga duch kelamiz, zero insonning kelib chiqishi odamlar doim javobini topishga harakat qilgan buyuk jumboqlardan biri hisoblanadi. Ammo bilimning bu sohasida echilmagan muammolar bugungi kunda ham bisyor. Xususan, inson nima uchun, qaerdan, qaysi sabablarga ko'ra paydo bo'lgan, degan savolga aniq, umumiy e'tirof etilgan javob hanuzgacha mavjud emas. Shuningdek, aql faqat insonga xosmi yoki uning inson borlig'ida mavjudligi ob'ektiv borliqning bir parchasi, ayrim hodisasimi?, degan savol ham hali o'z javobini topganicha yo'q.

Binobarin, insoniyat tarixi haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar nuqtai nazaridan ayrim masalalar mavjud bo'lib, ular xususida olimlar va mutaxassislar ma'lum bir to'xtamga kelganlar. Xususan, boy tarixiy material, arxeologiya fani olgan daliliy ma'lumotlari, Shuningdek boshqa fanlarning metodlari bilan olingan natijalar (masalan, jinlar, foydali qazilmalar yoshini aniqlash va sh.k.)ni e'tiborga olgan holda, ishonch bilan inson sayyoramizda hayotning tadrijiy (evolyusion) rivojlanishi mahsulidir, deb qayd etish mumkin. Hozirgacha mavjud bilimlar oddiy mehnat

qurollarini yasagan insonsimon mavjudotlarning (lot. homo habilis – uquvli odam) qadimgi manzilgohlari taxminan 3-5 mln yil oldin paydo bo‘lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Arxeologik va ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, qaddini tik tutib yuradigan odam yoshi taxminan 1,5 mln yilni tashkil etadi. Homo sapiens, ya'ni aqlli odamlar tipi atigi 40-60 ming yil oldin vujudga keldi. Mutaxassislar fikricha, insonda ong paydo bo'lib, ijtimoiy mavjudot sifatida uzil-kesil shakllanganidan beri, uning asosiy xususiyatlarida jiddiy o'zgarishlar Yuz bergani yo'q, ya'ni u hozirgi odamlardan deyarli farq qilmaydi. Ong paydo bo'lishi esa, ilmiy tasavvurlarga muvofiq, inson tarixiy rivojlanishining odam miyasi o'sib borayotgan mehnat faolligi va verbal (nutq orqali) muloqot ta'sirida o'ta rivojlanib, murakkab mavhumliklarni tuShunadigan darajaga etgan davri bilan bog'lanadi. Shunday qilib, inson tushunchalarga ta'rif berish, mulohazalar bildirish va mushohadalar yuritish yo'li bilan sodda, lekin tom ma'noda aqliy ish olib bora boshladi.

Dunyoqarashning mohiyati. Ayni Shu davrdan boshlab insonning ancha rivojlangan dunyoqarashi shakllangani haqida va umuman to'plangan bilimlar, amaliy ko'nikmalar, vujudga kelgan qadriyatlar, o'zi va o'zini qurshagan dunyo haqidagi tasavvurlar majmui sifatidagi odamlar dunyoqarashi to'g'risida ishonch bilan so'z yuritish mumkin.

Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash oddiy dunyoqarash deb ataladi va insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining tizimsiz majmui sifatida amal qiladi. U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi va odamlarga kundalik hayoti, faoliyatida yo'l ko'rsatib, ularning xulq-atvori, aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim regulativ funksiyani bajaradi.

Keng ma'noda, *dunyoqarash – insonning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga nisbatan yondashuvlar tizimi, Shuningdek uning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e'tiqodlari., bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo'ljallaridir.*

Shu tariqa ta'riflanadigan dunyoqarash faqat insonga xos bo'lib, bu unda shakllangan ong va oqilona faoliyat mavjudligi bilan bog'liqdir. Bunda inson nafaqat tushunchalar yaratish va mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish va qoidalarni ta'riflash qobiliyatini kasb etadi, balki tayyor bilimdan Yangi bilim olish uchun foydalana boshlaydi. Insonning bunday faoliyatini, uning ijodiy faolligini tavsiflovchi aql odamzot va jamiyat evolyusiyasini jadallashtirishning qudratli omiliga aylanadi hamda pirovardda insonni hayvondan ajratish imkonini beruvchi asosiy belgi sifatida amal qiladi.

Dunyoqarashda ijtimoiy muhitning roli. Aql paydo bo'lishi bilan inson o'zini fikrlovchi mavjudot sifatida anglay boshlaydi, unda o'z «meni» va o'zgaralar haqida tasavvuri shakllanadi va rivojlanadi. Shu tariqa u o'zini va o'zini qurshagan borliqni anglaydi, o'zi va boshqa odamlarni, o'zi va tashqi muhitni farqlaydi, ilgari o'ziga ma'lum bo'lmagan dunyoning Yangi va Yangi jihatlarini idrok etadi. Bunday qarashlar insonning o'zi va o'zini qurshagan borliq haqidagi tasavvurlari majmui sifatida shakllanadigan dunyoqarash negizini tashkil etadi. Bunda inson o'ziga ma'qul va noma'qul narsalarni farqlaydi, baholar beradi, ustuvorliklar tizimini yaratadi va muayyan maqsadlarga erishishda tegishli tarzda ish ko'radi.

Demak, **dunyoqarashda bilish, qadriyatlarga munosabat va xulq-atvorni belgilash funksiyalari** mujassamlashadi.

Dunyoqarashning bilish funksiyasi insonda qiziqish uyg'otuvchi barcha savollarni, Shuningdek muayyan yo'l bilan topuvchi javoblarni o'z ichiga oladi. Bilish odamlar dunyoqarashini boyitadi va kengaytiradi, u jamiyatning rivojlanishiga qarab yanada teranroq va mazmunan boyroq bo'lib boradi.

Dunyoqarashning qadriyatlarga munosabat funksiyasi – insonning hayotni va o'zini oliy qadriyat deb hisoblagan holga shakllanadi. Zero, o'z qadrini bilmagan inson o'zgaralar qadrini bilmaydi va hayotda o'z o'rnini topa olmaydi.

Dunyoqarashning xulq atvorni belgilash funksiyasi – insonda o'z-o'zini tarbiyalash, ma'naviy madaniyatini takomillashtirish va faqat o'zining ma'naviy dunyosiga munosib muhit tanlash malakalarini shakllantiradi..

Ammo dunyo juda rang-barang bo'lib, muttasil o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi, qoniqarli javoblarga ega bo'lmagan savollar esa, uzil-kesil javob berish mumkin bo'lgan savollarga

qaraganda, ko'proqdir. Shu bois, muammolarga nisbatan muayyan tarzda yondashadigan har bir odamning dunyoqarashi, savollari va javoblari doim shaxsiy o'ziga xoslik bilan ajralib turadi va hech bo'lmasa Shu sababga ko'ra boshqa odamlar dunyoqarashiga hech qachon o'xshamaydi.

Dunyoqarashda intellektual, emotsional va ruhiy asoslar uzviy bog'liq bo'lib, ular jamuljam holda har bir inson uchun mutlaqo muayyan, individual xususiyatlar sifatida amal qiladi.

Intellektual, emotsional va ruhiy asoslar iroda bilan uyg'unlikda e'tiqodlar – odamlar faol qabul qiladigan, ularning ong darajasi va hayotdagi mo'ljallariga mos keladigan qarashlarni Yuzaga keltiradi.

Dunyoqarashga sub'ektning yoshi, jismoniy va ruhiy holati, fe'l-atvori xususiyatlari, odatlari va e'tiqodlari, Shuningdek milliy madaniyat tipi, etnos xususiyatlari va ijtimoiy-madaniy omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Dunyo haqidagi tasavvurda ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarni ajratish ham o'rinli bo'ladi.

Dunyoqarashning shakllanishi natijasi o'laroq sub'ektning e'tiqodlari, qilmishlari va harakatlari majmui vujudga keladi. Dunyoqarashda inson va insoniyat o'z o'zligini namoyon etadi. Dunyoqarash inson xulq-atvori, uning barcha harakatlari va qilmishlari uchun fon sifatida amal qiladi. Dunyoqarashning mental mezon sifatida ongning mujassamlaShuvini aks ettiruvchi ishonch va e'tiqod maydonga chiqadi. Dunyoqarash umumiy va shaxsiy ahamiyatga molik mo'ljal tarzida namoyon bo'lishi mumkin.

Dunyoqarash serqirra hodisa hisoblanadi. Ko'p qavatli uyda bo'lganidek, uning turli qavatlaridan o'z ratsional-irrational elementlariga ega bo'lgan hayotga oid, mifologik, diniy, badiiy, siyosiy, ilmiy qarashlar o'rin oladi. *Dunyoqarashning amaliy darajasi stixiyali tarzda shakllanadigan dunyoqarashdir (unga misol tariqasida oddiy, kundalik dunyoqarashni keltiradilar).* Unda dunyoning manzarasi rolini hayot haqidagi tipik tasavvurlar to'plami o'ynaydi. Bu to'plam ko'pincha kundalik hayotda ayniqsa ko'p uchraydigan vaziyatlardan, mazkur muhitga xos bo'lgan ko'nikmalar, munosabatlar va odatlardan tarkib topadi. Bunday dunyoqarashga uning egasiga xos bo'lgan kasbiy mo'ljallar ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatadi. Xulq-atvor reaksiyalari tipining shakllanishida sub'ektning kasb-kori (amaldor, savdo xodimi, ofitser, uy bekasi, shifokor va h.k.) hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oddiy dunyoqarash egasi dunyoga munosabatning o'z muhitiga ayniqsa xos bo'lgan andozalarini umumlashtirib, ularni harakatlar va qarashlarning o'zgartirish oson bo'lmagan muayyan mezoniga aylantiradi. «Oddiy dunyoqarash» kategoriyasining sinonimlari sifatida «kundalik dunyoqarash», «amaliy dunyoqarash», «noilmiy dunyoqarash» tushunchalari amal qiladi. *Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash oddiy dunyoqarash deb ataladi va insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining tizimsiz majmui sifatida amal qiladi.* U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi va odamlarga kundalik hayoti, faoliyatida yo'l ko'rsatib, ularning xulq-atvori, aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim reguliyativ funksiyani bajaradi.

Falsafa borliq va inson tafakkurining asosiy tamoyillarini ifodalash orqali dunyoni anglab etish barcha shakllarining ma'naviy asosi sifatida maydonga chiqadi. Hozirgi zamon fundamental falsafasi dunyoqarashning eng oliy, nazariy darajasidir, desak, aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Nazariy dunyoqarash asrlar osha davom etgan individning ijtimoiylaShuvi jarayoni mahsuli hisoblanadi. Bunda individ o'zining voqelikka bo'lgan munosabatida jamiyatdan olinadigan ne'matlarni bevosita o'zlashtirishdan tarixiy bunyodkorlik va insoniy qadriyatlar mazmunini tushunishga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tadi.

Dunyoqarashning nazariy darajasini voqelikning bevosita in'ikos sifatida tasavvur qilish to'g'ri bo'lmaydi. Uning tarkibiga ideallar va konseptual modellar kiradi. Aynan ideallarning mavjudligi dunyoqarashni oddiy in'ikos sifatida emas, balki ildam in'ikos sifatida, hali mavjud bo'lmagan hodisa – kelajakni shakllantiruvchi va belgilovchi ideal kuch sifatida tavsiflaydi.

Dunyoqarashni shakllantirish muammosining mohiyati Shu bilan belgilanadiki, nazariy darajaning izchil rivojlanishi serqirra mavjudot sanalgan insonda amalda mavjud bo'lgan dunyoqarashning boshqa qatlamlarini, xususan mifologik dunyoqarash qoldiqlari yoki kundalik dunyoqarash unsurlarini bekor qilmaydi.

Shunday qilib, dunyoqarashning har bir darajasi inson hayot faoliyatida o'z vazifalarini hal qiladi. Ularning ahamiyati va o'ziga xosligi ham Shundadir. Tanqid faqat u yoki bu (diniy, oddiy, pragmatik yoki ssientistik) dunyoqarash universallikni asossiz ravishda da'vo qilgan holda o'rinli bo'ladi.

Dunyoqarashning muhim elementi Shubha bo'lib, u insonni dogmatizm, ya'ni biryoqlama, notanqidiy fikrlash, u yoki bu qoidani shak-Shubhasiz haqiqat deb qabul qilishdan asraydi. Dogmatizmning qarama-karshisi skeptitsizm bo'lib, bunda Shubha mutlaqlashadi, fikrlashning asosiy omiliga aylanadi, bilish va borliqni idrok etishning bosh tamoyili sifatida amal qiladi.

Dunyoqarashning tuzilishi - *dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat.*

Dunyoni sezish – *bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etishdir.* Bunda tuyg'ular, kayfiyat dunyoni go'yoki ranglarga bo'yaydi, uning obrazini sub'ektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorug' bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan nur, sog'lom odam uchun normal bo'ladi; daltonik ranglar gammasini, ko'rish qobiliyati normal bo'lgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan optimistik, pessimistik, fojeaviy tiplari kelib chiqadi.

Dunyoni idrok etish – *bu atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishdir.* Dunyoni idrok etish to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi, ya'ni borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq noto'g'ri tasavvur qilinadi yoki illYuziyalar, suv parilari, alvastilar, kentavrlar haqidagi tasavvurlarga o'xshash fantaziyalar paydo bo'ladi.

Dunyoni tushunish – *insonning va uni qurshagan dunyoning mohiyatini aniqlash, Shuningdek tabiatda Yuz beruvchi voqea va jarayonlarning o'zaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyatidir.*

Dunyoni sezish va qisman (elementar shakllarda) dunyoni idrok etish nafaqat insonga, balki hayvonlarga ham xos bo'lsa, dunyoni tushunish esa faqat odamlarga xos xususiyatdir.

Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Turli davrlar bilishni yanada teranlashtirdi va inson dunyoqarashini kengaytirdi. Shunga mos ravishda oddiy (empirik) dunyoqarash ham boyib bordi, uning negizida o'zini o'zi tashkil etish qonunlariga muvofiq yanada murakkabroq tuzilmalar asta-sekin shakllandi va bu pirovard natijada dunyoqarashning alohida shakllari yoki, tarixiy tiplari farqlanishiga olib keldi.

Tarixan dunyoqarashning dastlabki shakllari mif va din, falsafa va fan bo'lib, bu hol insoniyat tadrijiy rivojlanishining umumiy mantiqi bilan mushtarakdir. Ko'nikmalar, tajriba va oddiy bilimlar to'planishiga qarab, nafaqat ularni avloddan avlodga o'tkazish muammosi Yuzaga kelgan, balki ibtidoiy odamlarning dunyoqarashi ham murakkablashib borgan. Bu dunyoqarash rivojlanishining muayyan bosqichida, to'plangan bilimlarning «yuqori bosqichiga» etilgach, boshqa har qanday murakkab tizimda bo'lganidek, dunyoqarashda ham o'zini o'zi tashkil etish qonunlari amal qila boshlagan.

Masalan, bu hodisaning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun shaxsiy kutubxonada kitoblar yig'ilishi bilan bog'liq misolga murojaat etish o'rinli bo'ladi. Mazkur kutubxonada kitoblar bir nechta bo'lsa, ularni tizimga solish talab etilmaydi, ular qaerda yotgani va ularning o'zaro munosabati qandayligi ham ahamiyat kasb etmaydi. Kutubxona hajmi o'nlab kitoblar bilan o'lchangan taqdirda esa, ulardan foydalanishga qulaylik yaratish uchun kitoblarni muayyan tarzda joylashtirish, tizimga solish talab etiladi. Kitoblar soni qancha ko'p bo'lsa, ular bilan ishlash Shuncha oson va qulay bo'lishi uchun ularni tasniflash, tartibga solish, ruknlarga ajratish tizimi Shuncha murakkab bo'ladi.

Ibtidoiy odamlarning ancha rivojlangan dunyoqarashida o'zini o'zi tashkil etish qonunlariga muvofiq ayni Shunday tartiblilik dastavval mif hamda dinning ilk shakllari ko'rinishida vujudga keldi.

Mifologik dunyoqarash. «Mif» tushunchasi yunoncha mythos so'zidan kelib chiqqan bo'lib, afsona, rivoyat degan ma'noni anglatadi. *Mif –turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimga solingan dunyoqarashdir.*

Mifda bilimlar, diniy e'tiqodlar, ma'naviy madaniyatning turli elementlari, san'at, ijtimoiy hayot kurtaklari birlashgan bo'lib, Shu tariqa ibtidoiy odamlar dunyoqarashi ma'lum darajada tartibga kelgan, ularning dunyo haqidagi qarashlari esa muayyan tizimga solingan. Mazkur tizimga solishning muhim shakllari epos, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar bo'lib, miflar avvalo ular orqali ifodalanadi. Shu tariqa to'plangan bilimlar va tajriba keyingi avlodlarga o'tishi ham ta'minlanadi.

Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati Shundan iboratki, bu oddiy rivoyat emas, balki og'zaki «muqaddas» matnning arxaik ongdagi voqea-hodisalarga, insonga va u yashayotgan dunyoga ta'sir ko'rsatuvchi muayyan borliq sifatidagi in'ikosidir. Mif, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida, odamlar xulq-atvori va o'zaro munosabatlarini tartibga solish funksiyasini bajargan, chunki unda axloqiy qarashlar, insonning borliqqa estetik munosabati o'z ifodasini topgan. Mifologiyaga Shu narsa xoski, unda hamma narsa bir, yaxlit, ajralmasdir; tabiat narsalari va hodisalari inson bilan ayni bir qonunlarga muvofiq yashaydi, inson bilan bir xil sezgilar, istaklar, mayllarga ega bo'ladi.

Shunday qilib, mif kimningdir uydirmasi yoki «o'tmish sarqiti» emas, balki Shunday bir o'ziga xos tilki, inson uning yordamida qadim zamonlardan oq dunyoni tavsiflagan, o'zining o'sib borayotgan tarqoq bilimlarini umumlashtirgan, talqin qilgan, tasniflagan va muayyan tizimga solgan.

Mifda ota, oqsoqol hukmi va qaror topgan an'analar muhim rol o'ynaydi. Rivoyat va uning mazmuniga nisbatan bunday munosabat zamirida e'tiqod, borliqni bevosita, emotsional idrok etish yotadi. Mifologik dunyoqarash dunyoni yaxlit tushunish bo'lib, unda Shubhaga o'rin yo'qdir.

Mifologiya (miflar majmui sifatida) qadimgi odamlar dunyoqarashi bilangina uzviy bog'liq emas. Oddiy ongda yashaydigan din, falsafa, siyosat, san'atda aniq-ravshan yoki pardalangan ko'rinishda mavjud bo'lgan miflar bugungi kunda ham (kim uchundir ko'proq, kim uchundir kamroq darajada) odamlar hayoti va ijodida faol rol o'ynab, har qanday inson dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Jamiyatning axborotlaShuvi jadal sur'atlarda o'sib borayotgan sharoitda mif televidenie, radio, vaqtli matbuot, hozirgi saylov texnologiyalari vositasida ba'zan ijtimoiy ong bilan manipulyasiya qilish, oldindan belgilangan jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida qo'llanilmoqda.

Diniy dunyoqarash dunyoqarashning tarixan ikkinchi shakli dindir. (Din so'zi arabchadan tarjimada e'tiqod, ishonch, ishonmoq degan ma'nolarni anglatadi.) Mif kabi, din zamirida ham e'tiqod, tuyg'ular va emotsiyalar yotadi. Garchi din kurtaklari «aqli odam» dunyoqarashi shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya'ni taxminan 40-60 ming yil muqaddam paydo bo'lgan bo'lsa-da, umuman olganda u dunyoqarashning mustaqil shakli sifatida keyinroq, jumladan mif ta'sirida insonning mavxum fikrlash qobiliyati sezilarli darajada kuchaygan davrda vujudga kelgan.

Diniy dunyoqarash odamlarning g'ayritabiiy narsalar (xudolar, «oliy aql», qandaydir absolyut va sh.k.)ga bo'lgan e'tiqodiga asoslanuvchi tegishli xulq-atvori va o'ziga xos harakatlaridir. Agar mifologiyada an'anaga, rivoyat qiluvchining, ya'ni oqsoqolning obro'siga e'tiqod kuchli bo'lsa, dinda g'ayritabiiy narsalarga e'tiqod birinchi o'rinda turadi, oliy kuchlar nomidan rivoyat qiluvchi ruhoniylar obro'si esa ikkinchi darajali rol o'ynaydi.

Xullas, din murakkab ma'naviy tuzilma va ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, unda e'tiqod muqarrar tarzda birinchi o'ringa qo'yiladi va hamisha bilimdan ustun turadi.

Dinning asosiy funksiyalari. Mif bilan taqqoslaganda, din funksiyalari murakkabroqdir. Din funksiyalari orasida quyidagilarni farqlash mumkin:

- **dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi** butun borliq qachon va nima uchun paydo bo'lgan va bunda g'ayritabiiy kuchning roli qanday namoyon bo'lgan, degan savollarga javob beradi;
- **kommunikativ funksiyasi** muloqot va shaxslararo aloqalarning muayyan tipini ta'minlaydi, jamiyatning jipslaShuvi va yaxlitligiga ko'maklashadi;
- **tartibga solish funksiyasi** odamlar xulq-atvorini tartibga soluvchi tegishli me'yorlar va qoidalarni belgilaydi;

• **kompensatorlik funksiyasi** *etishmayotgan axborot, diqqat-e'tibor, g'amxo'rlik o'rnini to'ldiradi, hayot ma'nosi, istiqbollari va Shu kabilarning yo'qligini sezdirmaydi, ya'ni insonning kundalik hayotda qondirilmagan ehtiyojlari o'rnini to'ldiradi.*

Dinning asosiy ildizlari. Din qonuniy hodisa sifatida vujudga kelgan bo'lib, u insonning g'ayritabiiy narsalar va hodisalarga bo'lgan e'tiqodini to'yintiruvchi chuqur ildizlarga egadir.

Dinning psixologik ildizi avvalo inson tabiatida mavjud bo'lib, u inson intellektining rivojlanish darajasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatidan qat'iy nazar, nafaqat tushunish, anglash, balki e'tiqod qilish istagi va hattoki ehtiyojining hamisha namoyon bo'lishidir.

Dinning gnoseologik ildizlari oqilona bilim nuqtai nazaridan dunyo o'z rang-barangligida insonga cheksiz murakkab bo'lib tuyulishida namoyon bo'ladi. Forobiy fikricha "Din nazariy va amaliy qonunlar tuzilgan paytdagina odamlar e'tiqodi, ta'limi tarbiyasi yo'llari ishlab chiqilgandagina paydo bo'ladi va mustahkamlanadi. Ana Shunday din tufayli omma baxt saodat uchun etarli bilim olishi mumkin".¹ Odamzot o'zini qurshagan borliqni faqat qisman anglab etadi. Ayni Shu sababli olam inson uchun sirlar va mo'jizalarga to'ladir. Odamzot o'zi e'tiqod qiladigan ko'p narsalarni faqat aqlga tayanib isbotlashga ham, rad etishga ham qodir bo'lmaganidek, yuqorida zikr etilgan sirlar va mo'jizalarga javob topishga ham (balki hozircha) qodir emas. Psixologlar qayd etganidek, «o'ta mushkul vazifa aqlni o'tmaslashtiradi», inson echimsiz muammolar qarshisida o'zini ojiz his qiladi va aql dalillarini uydirma, g'ayritabiiy narsalar bilan osongina to'ldiradi.

Dinning ijtimoiy ildizlari jamiyatda doimo mavjud bo'lgan tengsizlik, qashshoqlik va adolatsizlikni, odamlar qancha urinmasin o'zgartira yoki engi olmaganligi bilan bog'liq. Adolatsizlik va foniy dunyoning nomukammalligi tuyg'usi chorasizlik va umidsizlikni Yuzaga keltiradi, so'nggi zikr etilgan tuyg'ular osongina u dunyoda hayotning mavjudligiga bo'lgan ishonchga aylanadi. Vaholanki, har qanday din haqiqiy hayot u dunyodadir, deb o'rgatadi. Muammolar, qiyinchiliklarga duch kelgan va real hayotda o'ziga tayanch topa olmagan inson g'ayritabiiy kuchlarga umid bog'lab, narigi dunyoga murojaat etadi. Ularga e'tiqod qilib, odamzot taskin, tasalli topadi va oxir-oqibatda taqdirga tan beradi.

Dinning siyosiy ildizlari turli siyosiy kuchlarning dindan o'z mayda-chuyda manfaatlarida foydalanish imkoniyati va Shu tariqa uni bevosita yoki bilvosita qo'llab-quvvatlashi orqali, uning jamiyatdagi roli va ta'sirini kuchaytirishida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda din va siyosat o'rtasida ham uzviy va doimiy aloqa mavjud.

Dinning yashovchanligi Shu darajada mustahkamki, hatto hozirgi zamon fanining muhim yutuqlari ham uning negiziga putur etkaza olgani yo'q, ilmiy bilimning o'sishi esa hatto olimlar orasida ham dindorlar va Xudoga ishonmaydiganlarning foiz nisbatini deyarli o'zgartirmaydi. Masalan, tabiatshunoslik insoniyatga dunyoni bilish borasida cheksiz imkoniyatlar yaratayotgani keng e'tirof etilgan 1916 yilda Jeyms Lyuba o'z tadqiqotlarida AQSH olimlarining 40% Xudoga ishonishini asoslagan. 90-yillarning oxirida amerikalik tarixchilar E.Larson va I.Uitxem tomonidan o'tkazilgan Yangi tadqiqotlarda XX asrda amalga oshirilgan buyuk kashfiyotlar va fan yutuqlari ta'sirida olimlar dunyoqarashi qay darajada o'zgarganini aniqlashga qaror qildilar. Shu bois ularning AQSHda tasodifiy tanlangan ijtimoiy fanlar namoyandalari va tabiatshunoslik vakillari orasida o'tkazgan so'rovi olimlarning 40% avvalgidek Xudoga va narigi dunyoda hayot mavjudligiga ishonishini ko'rsatdi. Bunda Xudoga ishonmaydiganlar va ateistlar (Xudoning borligini inkor etuvchilar) soni ham deyarli o'zgargan emas va bugungi kunda, avvalgidek, taxminan 45 va 15% ni tashkil etadi.

Davr, mamlakatlar va qit'alardan qat'iy nazar, diniy dunyoqarashning yashovchanligi haqidagi umumiy xulosa O'zbekistonda ham mavjud. XX asrda qariyb 80 yil dinni «fosh qilish» uchun mavjud barcha dalillardan foydalangan kurashchan ateizm sharoitida yashagan O'zbekistonliklar orasida mamlakat aholisining uchdan ikki qismi o'zini dindor deb hisoblagan.

Diniy e'tiqodlarning tarixiy shakllari. Insoniyat tarixiga ko'p sonli turli-tuman dinlar ma'lum. Xususan, madaniyat va bilimlar darajasi juda past bo'lgan inson o'ziga qudratli, yot va sirli

¹ Ал –Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Т.: Шарк, 1999 –Б.93-94.

bo‘lib tuyulgan tabiatning favqulodda kuchlariga qarshilik ko‘rsata olmagan ibtidoiy jamoa davrida dinning ancha sodda shakllari: fetishizm, animizm, totemizm, magiya va boshqalar Yuzaga kelgan.

Fetishizm u yoki bu predmetni mo‘jizakor xislatlarga, odamlar hayotiga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega deb hisoblaydi. Bunday predmet ilohiylashtiriladi, sig‘inish va topinish ob’ektiga ay lanadi.

Animizm (lot. anima – jon) – nafaqat odamlar, balki hayvonlar, predmetlar va borliq hodisalarini ham ruh, jon boshqarib turishiga ishonishdir. Animizm nuqtai nazaridan butun dunyo ruhli va jonli.

Totemizm negizini muayyan odamlar guruhining totem, ya’ni sig‘inish ob’ekti sanalgan ajdod deb e’lon qilinadigan u yoki bu hayvon, o‘simlik, predmet bilan umumiy kelib chiqishiga bo‘lgan ishonch tashkil etadi, zero totem mazkur jamoa yoki urug‘ning qudratli homiysi, himoyachisi hisoblanadi, uni oziq-ovqat va Shu kabilar bilan ta’minlaydi. (Hindistonda Xonumon maymuni, sigir, Avstriyada kenguru, turli qabilalarda u yoki bu ilohiy predmet)

Magiya (yunon. mageia – sehrgarlik) ham ibtidoiy din shakllaridan biri bo‘lib, uning zamirida tabiiy kuchlar yordamisiz sirli tarzda, rasm-rusumlar, o‘ziga xos amallar majmui bilan narsalar, odamlar, hayvonlar va hatto g‘ayritabiiy kuchlar – ruhlar, insu jinlar va Shu kabilarga ta’sir ko‘rsatish mumkinligiga bo‘lgan ishonch yotadi.

Dinning ushbu qadimgi shakllari keyingi diniy e’tiqodlar negizini tashkil etdi va politeizm (ko‘pxudolik)da ham, monoteizm (yakkaxudolik)da ham u yoki bu darajada o‘z aksini topdi. Ular hozirda ham qisman mustaqil holda mavjuddir.

Taxminan 10 ming yil muqaddam, inson chorvachilik va ziroatchilik bilan Shug‘ullanib, o‘troq hayot kechirishga o‘tgach, neoletik inqilob Yuz berdi. Jamiyat rivojlanishining ayni Shu bosqichida **politeizm** Yuzaga keldi, chunki mehnatning ijtimoiy taqsimoti, hukmronlikka bo‘ysunish ruhlar va sanamlarga bo‘lgan ishonchga emas, balki xudolarga bo‘lgan e’tiqodga ko‘proq mos kela boshladi.

Keyingi davrlarda davlatchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi, qadimgi buyuk madaniyatlarining paydo bo‘lishi, quldorlik munosabatlarining shakllanishi, monarxiyalar tashkil topishi va Shundan kelib chiqadigan yakkaboshchilikning Yuzaga kelishi natijasida diniy dunyoqarashda ham bir xudoga sig‘inish tendensiyasi paydo bo‘ldi. Odamlar ko‘p sonli xudolar orasida kuch-qudratda yagona bir xudoni farqlab, Shu tariqa dunyoviy podsho hukm suruvchi real hayot haqidagi o‘z tasavvurlarini yagona va qudratli xudo yashaydigan narigi dunyo bilan go‘yoki muvofiq holatga keltirdilar. Shu tariqa **monoteistik dinlar (yunon. mono – bir va theos – xudo): iudaizm** (mil. av. VII asr), **buddizm** (mil. av. VI-V asrlar), **xristianlik** (I asr) va **islom** (VII asr) vujudga keldi. Xullas har bir din ma’lum falsafaga asoslanadi. Haq dinning asosi to‘g‘ri (analitik) falsafadir, haq bo‘lmagan dinning asosi esa yolg‘on falsafadir, yoki yolg‘on muhokamalar ustiga qurilgan qarashlardir¹.

Falsafiy dunyoqarash. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarga kelib asosan mif va din ta’sirida odamlar dunyoqarashi nafaqat kengaydi, balki ancha murakkablashdi. U mavxum nazariy fikrlash qobiliyati va (to‘plangan bilimlar ko‘rinishida) real asoslarga ega bo‘lishi natijasida o‘z rivojlanishining butunlay Yangi darajasiga ko‘tarildi. Bunga, hech Shubhasiz, mehnat taqsimotiga olib kelgan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma’lum miqdorda ortiqcha mavjudlik vositalari, bo‘sh vaqtning paydo bo‘lishi ham imkoniyat yaratdi. Bularning barchasi muayyan shaxslar doirasiga intellektual faoliyat bilan professional darajada Shug‘ullanish imkonini berdi.

Shunday qilib, taxminan 2500 ming yil muqaddam dunyoqarashning uchinchi shakli –falsafa paydo bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit Evropa va Osiyoda deyarli bir vaqtda Yuzaga keldi. *Dunyoqarashning avvalgi shakllari – mif va dindan farqli o‘laroq, falsafa dunyoni e’tiqod va tuyg‘ularga tayanib emas, balki aql va bilimlarga tayangan holda tuShuntiradi.*

Falsafa Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va qadimgi Yunonistonda taxminan bir vaqtda avvalo dunyoni oqilona anglash usuli sifatida vujudga keldi. Bu vaqtga kelib mif va din o‘zlarining tayyor va uzil-kesil javoblari bilan insonning bilimga nisbatan tinimsiz kuchayib borayotgan

¹ Каранг Хотамий С.М.Ислom тааккури тарихидан.-Т.:Минож, 2003. –Б.77.

qiziqishini qondira olmadi. Shuningdek ular sezilarli darajada o'sgan va murakkablashgan tajriba va bilimlarni umumlashtirish, tizimga solish va avlodlarga qoldirish vazifasining ham uddasidan chiqolmay qoldi.

Taniqli nemis faylasufi Karl Yaspers ta'бири bilan aytganda, bu davrda (uni faylasuf «dunyoviy vaqt» deb ataydi) insoniyat o'z rivojlanishida katta burilish yasagan. Osoyishtalik va barqarorlik ruhi bilan yo'g'rilgan mifologiya davri nihoyasiga etdi, oqilonalik va oqilona tekshirilgan tajribaning mifga qarshi kurashi natijasida u asta-sekin chekina boshladi. «Jahon tarixi o'qini taxminan miloddan avvalgi 500, 800 va 200 yillar oralig'ida Yuz bergan ma'naviy jarayon bilan bog'lash o'rinli bo'lsa kerak, - deb yozadi K.Yaspers. – Shu davrda tarixda eng katta burilish yasaldi. Hozirgi tipdagi inson va ilk faylasuflar paydo bo'ldi. Inson ayrim individuum sifatida o'z-o'zida tayanch izlashga jur'at etdi. Xitoy zohidlari, Sharq mutafakkirlari, Hindiston tarki dunyochilari, Yunoniston faylasuflari va Isroil avliyolari e'tiqodi o'z ta'limotining mazmuni va ichki tuzilishiga ko'ra bir-biridan qay darajada farq qilmasin, o'z mohiyatiga ko'ra yaqindir. Endi inson botiniy darajada o'zini dunyoga qarshi qo'yishi mumkin bo'ldi. Inson o'zida unga dunyodan va o'z-o'zidan yuksakroq ko'tarilish imkonini beruvchi ichki salohiyatni kashf etdi»¹¹.

Yuz bergan o'zgarishlarning yana bir sababi Shundaki, mifologiya olish, rivojlantirish va tushuntirish uchun navbatdagi miflar emas, balki tabiiy qonuniyatlar va tabiiy-sababiy bog'lanishlarga murojaat qilish talab etilgan ilmiy bilim kurtaklari bilan to'qnashdi. Pirovardida odamlar dunyoqarashida nisbatan qisqa vaqt ichida tub o'zgarishlar Yuz berdi; unda bilim, tafakkur, tahliliy fikrlash tobora muhimroq rol o'ynay boshladi, ular sirdan olingan axborotni sezgilar va emotsiyalar darajasida idrok etishga asoslangan har xil e'tiqodlarni chetga chiqarib qo'ydi. *Faqat so'zlariga ishonish kerak bo'lgan ota, kohin, ruhoni, savollar beruvchi va anglashga chorlovchi muallim faylasuf egalladi. U Shubha urug'ini sochib, qiziqish uyg'otdi va: «Ishonma, balki o'zing fikr qil!»*, deya da'vat etdi.

Faylasuf tafakkurni xurofot va bid'atlardan tozalab, uni erkinlashtirdi va mifologik yoki diniy dunyoqarashga mutlaqo xos bo'lmagan tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi. *Ajdodlardan meros qolgan «donishmandlik» manbai sanaluvchilar, tayyor bilimlar va shak-Shubhasiz haqiqatlarni e'tiqod sifatida qabul qilishga chorlovchilardan farqli o'laroq, faylasuf savollarni ta'riflashni va avvalo sog'lom fikr va o'z aql-zakovatining kuchiga tayanib, ularga javob qidirishni o'rgatadi.*

Dunyoni falsafiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati, dunyoni bilish, sezish, ko'rish va tushunishning butunlay Yangi sohasi – falsafa vujudga kelishida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat falsafa – bu nafaqat u yoki bu odam dunyoqarashining shakli, balki ijtimoiy ong shakli, odamlar borlig'i va bilishining umumiy tamoyillari, ularning dunyoga munosabati aks etuvchi, tabiat, jamiyat, tafakkurning eng umumiy qonunlari kashf etiluvchi va ta'riflanuvchi ma'naviy faoliyatdir. YA'ni bu dunyoga va insonning undagi o'rniga nisbatan qarashlarning umumiy tizimidir. Bunday qarashlar zamirini savollar va insonning ularga javob topish istagi yotuvchi oqilona yo'l bilan olingan bilimlar majmuini tashkil etadi. Ammo bilish Shunday bir tabiatga egaki, bir savolga javob ko'pincha boshqa bir talay savollarni Yuzaga keltiradi va ba'zan muammoga nafaqat oydinlik kiritmaydi, balki uni yanada chigallashtirib, insonning qiziquvchanligini oshiradi va Yangi tadqiqotlarga da'vat etadi. Xullas, bunda ijod, tinimsiz izlanish, Yangilikka intilish muhim o'rin egallaydi.

Agar mifologiya va dinda javobga urg'u berilsa, bilishning butun mazmuni unda mujassamlashsa, falsafada savol, masala birinchi o'rinda turadi. U to'g'ri va yaxshi ta'riflangan bo'lsa, muammoning mohiyati aniq aks etadi. Savol, masala insonni ijodga rag'batlantiradi, toki unga qoniqarli javob olinib, haqiqatning tagiga etilganiga ishonch paydo bo'lmagunicha insonni izlanishga da'vat etadi. Bunda savolning o'zi, muammoning qo'yilishi javobdan kam ahamiyat kasb etmaydi, ba'zan undan ham muhimroq deb qaraladi.

Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, falsafa, garchi muayyan natijalarga, mukammal ta'riflarga, uzil-kesil xulosalarga intilsa-da, lekin Shuning o'zi bilan kifoyalanmaydi. Falsafani

¹ Ясперс К. Смксл и назначение истории. – М., 1991. – С.32-34.

avvalo inson madaniyati sohasida Yuz berayotgan, turli qarama-qarshiliklar va o'zaro ta'sirlar bilan uzviy bog'liq va ayni vaqtda o'zga sohalarga o'tish va ularda gavdalanish qobiliyatiga ega bo'lgan ma'naviy jarayon sifatida tushunish lozim.

Bundan xulosa Shuki, *falsafiy mushohada yuritish savol berish, Shubha qilish, javoblar izlash va kuni kecha echilgan deb hisoblangan, shak-Shubhasiz bo'lib tuyulgan masalalarga qaytish demakdir*. Falsafa uchun «boqiy», uzil-kesil aniqlangan haqiqatlar, «noqulay», «ilmoqli» savollar yoki man etilgan mavzular mavjud emas. *Falsafa savollar berish, narsalar va hodisalar mohiyatini anglashga urinish orqali bilish doirasini kengaytirishga harakat qiladi*.

Xullas, *falsafa haqiqat qanday bo'lsa, uni Shunday ifodalab ko'rsatishdir, din esa –uning ramziy, timsoliy aks etishi. Falsafa asos va mohiyat bo'lsa, din timsol va shakl*. Dialektik munozara usuli jamiyatning kam sonli ayonlari uchun kerak. Vahiy yo'lidagi ifoda – xalq ommasining idroki, tarbiya va ta'limi uchun kerak.

Falsafaning mazmuni va bosh vazifasi haqidagi qarashlar. *Falsafani odatda davrning fikrlardagi in'ikosi, o'z davrining ma'naviy kvintessensiyasi deb ataydilar*. Falsafaning mazkur tavsifidan uning olamShumul vazifasi – o'z davrining jarchisi sifatida amal qilish, ma'naviy-tarixiy o'zgarishlar bilan hamqadam va hamnafas bo'lish kelib chiqadi. Bu erda falsafaning hayot bilan chambarchas aloqasi ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Voqelikni tushunish va tushuntirish falsafaga qo'yiladigan asosiy talabga aylanadi. Davrning haqqoniy manzarasini yaratish kelajakning spekulativ sxemalarini yaratishga barham beradi, borliqning mazmun va mohiyatini anglab etishga keng yo'l ochadi.

Falsafa o'z davri ma'naviy madaniyatining markazi vazifasini bajarish orqali koordinatalar abadiy tizimini yaratishga yordam beradi, davr saboqlarini aniqlash va tushuntirish yo'li bilan inson tafakkuriga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Qadim zamonlarda **Platon** Shunday degan edi: «Toki davlatlarda faylasuflar podsholik qilmas ekanlar yoki hozirgi shohlar va podsholar oqilona falsafiy mulohaza yuritishni o'rganmas va davlat hokimiyati bilan falsafaning mushtarakligi qaror topmas ekan, davlat yovuzliklardan xalos bo'la olmaydi»².

Boesiy poetik intuitsiyasida falsafa o'ng qo'lida kitob, chap qo'lida esa saltanat hassasi – skipetr tutgan Iloha obrazida gavdalanadi. Bu timsollarning mavjudligi tasodifiy bir hol emas. Falsafa bilim berish bilan bir qatorda, dunyoni oqilona boshqaradi va skipetr bu fikrni tasdiqlaydi.

Yangi davrda fransuz olimi **Rene Dekart** (1596–1650) har qanday mamlakat aholisining grajdanlik va o'qimishlilik darajasi bu erdagi falsafiy tafakkur darajasi bilan belgilanadi, degan fikrni ilgari surgan³. Ingliz faylasufi **David Yum** (1711–1776) falsafaga bo'lgan munosabat asosida millatga «tashxis» qo'yish mumkinligini isbotlashga harakat qilgan. Mutafakkirning fikricha, falsafiy bilimga qiziqishning yo'qligi millat tafakkurining cheklanganligi alomatidir.

Qadimgi yunon falsafasida bilim va xulq-atvor oliy ideali **donishmandlik** tushunchasi bilan bog'lanadi. U inson aqliga abadiyat va cheksizlik sari yo'l ochadi, o'tkinchi narsalarga sabr-toqatlilikni o'rgatadi. Aynan donishmandlik yordamida inson munosib va to'laqonli hayotga erishishi mumkin. Donishmandlikka intilayotgan odam har doim narsalar va hodisalar tabiatiga mos ravishda ish ko'rish lozim.

Platon inson tanasi haqida gap borganda tabiblarni, o'simliklar to'g'risida so'z yuritilganda esa – ziroatchilarni donishmandlar deb ataydi. U o'zining «ideal davlat» haqidagi nazariyasida jamiyatni uch tabaqaga: davlat arboblari – faylasuflar; soqchilar (harbiylar); dehqonlar va hunarmandlarga ajratadi, bunday davlatda donolik, jasorat, sabr-bardoshlilik va adolat kabi to'rt tamoyil ustuvor bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Aristotel insonning qadr-qimmatini uning aqliy faoliyatida ko'zga tashlanadi, deb hisoblaydi. O'z davrining eng dono kishilaridan biri bo'lgan Sitseron falsafaning mohiyatini quyidagicha tushuntiradi: «Falsafa (donishmandlik), qadimgi faylasuflar ta'biri bilan aytganda, ilohiy va insoniy qilmishlarni ularning sabablari va mohiyatlari nuqtai nazaridan bilishdir»⁴.

² Платон. Соч.: В 3 т. – М., 1968- 1971. Т. 1. – 275-б.

³ Каранг: Декарт Р. Избранные произведения. – М., 1950. – 412-б.

⁴ Иктибос куйидаги манбадан олинди: Платон и его эпоха. – М., 1979. – 105-б.

Sofistlar falsafani dunyoviy donishmandlik, mulohaza yuritish san'ati sifatida tuShungan bo'lsalar, stoiklar donishmandlikning «amaliy maqsadlari»ga, ya'ni o'z hayotini oqilona tashkil etishga qaratganlar. Faylasufning so'zlari insonni azob-uqubatlardan forig' etishiga Epikurning ishonchi komil bo'lgan.

Qadimgi xitoy falsafasida donishmand-faylasuf «szi», ya'ni o'g'il, bola deb atalgan. «Tyan sze» - «Osmon o'g'li» degan ism ostida Yangi podsho paydo bo'lishi bilan donishmand-faylasufning unga mos keladigan, «szyun szi» - «podsho o'g'li» g'oyalarini targ'ib qiluvchi tipi ham paydo bo'lgan. qadimgi xitoy falsafasining muhim mezoni – «ideal munosabatlar qonuni»ga odamlar o'rtasida, oilada, jamiyatda, davlatda rioya qilish inson hayotining mazmuni hisoblangan; bunga jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, qoidalar, rasm-rusumlar va Shu kabilarga izzat-ikrom bilan yondashish imkoniyat yaratgan. Boshqacha aytganda, inson o'z shaxsiy hayotini doim jamiyat ravnaqi, kamoloti bilan o'lchashi lozim, xususan, u keyinchalik oila va davlatni takomillashtirishga harakat qilish uchun o'zini kamol toptirishi darkor⁵. qadimgi xitoy falsafasining buyuk namoyandasi **Konfutsiy** (miloddan avvalgi 551-479 yillar) Shunday deb saboq beradi: «qilmishlarning asoslari va tamoyillarini o'rgansang, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlaring (axloqiy bilimlar) barkamollikning eng so'nggi darajasiga etadi. Niyatlar sof va xolis bo'lsa, qalb rostgo'y va samimiy bo'ladi. qalb rostgo'y va samimiy bo'lsa, inson to'g'ri yo'lga kiradi, kamol topadi. Inson to'g'ri yo'lga kirs va kamol topsa, oilada tartib o'rnatiladi. Oilada tartib hukm sursa, xalqlarni boshqarish osonlashadi. Xalqlarni boshqarish osonlashsa, butun dunyo tinch-totuv yashaydi»¹. qadimgi xitoy faylasuflaridan yana biri – **Lao szi** (miloddan avvalgi VI asr boshlarida yashagan): «Boshqalarni biluvchi – oqil, o'zini biluvchi – donishmanddir», deb o'rgatadi.

Donishmandlikning tarixan shakllangan gnoseologik, axloqiy va ekzistensial xususiyatlari hozirgi vaqtda ham saqlanib qolmoqda va e'tibordan soqit etilishi mumkin emas. Donishmandlik fenomeni haqida umumiy tasavvur hosil qilish yo'lidagi izlanishlar quyidagi natijalarga olib keladi. Donishmandlik kundalik hayotdagi mulohazakorlikka qarama-qarshi qo'yiladi. U mutlaqo go'zal va mutlaqo adolatli dunyoning mohiyatini intellektual anglab etishga intilish sifatida, haqiqatni qaror toptirish yo'lida beg'araz xizmat qilish sifatida tuShuniladi. Bu nainki to'liq bilim, balki ma'naviy barkamollik, ruhning ichki yaxlitligi hamdir. Bu Shunday bir e'tiqodki, unga erishishda insonning butun mohiyati ishtirok etadi. Donishmandlik belgisi sifatida me'yor hissi amal qiladi. Uni intuitiv aniqlash «hayot haqiqati»ni anglab etish sifatida namoyon bo'ladi. Etuklik donishmandlikning zaruriy sharti hisoblanadi. qisqa va lo'nda hikmatlarda o'z ifodasini topuvchi donishmandlik har bir xalq hayotida mavjud bo'ladi, maslahatlar va pand-nasihatlarning keng to'plami vositasida uni g'amxo'rlik bilan qo'llab-quvvatlaydi. qadimgi afsonalar, rivoyatlar va hikmatlar ko'rinishida u avloddan-avlodga o'tadi va ulardan har birining hayot yo'lini engillashtiradi.

Falsafani ko'pincha «tafakkur maktabi» deb ataydilar. U bir qolipda fikrlash uslubi tugagan, oydek ravshan bo'lgan narsa Shubha va taajjub uyg'otgan joyda boshlanadi. Inson hayot mazmuni bilan bog'liq masalalar (Immanuil Kant tilida ular quyidagicha yangraydi: «Men nimani bilishim mumkin?», «Men nima qilishim kerak?», «Men nimaga umid qilishim mumkin?», «Inson nima?») ustida bosh qotira boshlagani zahoti u darhol falsafaga «asir» tushadi, borliqni falsafiy anglab etish sohasiga kirib qoladi. Ingliz faylasufi **Tomas Gobbs** (1588–1679): «Falsafa sening tafakkuring farzandi... va sening o'zingda yashaydi»⁶, deganida, bizningcha, to'la haq bo'lgan. Darhaqiqat, falsafiy mulohaza yuritish har bir insonga xos xususiyat. Zero hayotning mazmuni, erkinlik, adolat va umrboqiylik haqida mulohaza yuritishni biron-bir insonga taqiqlash mumkin emas.

Falsafa borliqni bilish, asoslar va birinchi tamoyillarni tadqiq etish bilan Shug'ullanadigan alohida soha sifatida, his etish, mushohada yuritish va tasavvur qilish tarzida amal qiladigan oddiy ongdan farqli ravishda, tushunchalar vositasida bilishni nazarda tutadi. Tushunchalar bilan ish ko'rish san'ati zaruriy aloqalar va sababiy bog'lanishlarni aniqlashni, hayot taassurotlarining xaotik tasodifiy oqimini tartibga solishni talab qiladi. Mulohaza kuchini tarbiyalash e'tiborni jamlash, uni predmetga qaratishni nazarda tutadi. Tafakkur intensional, ya'ni u muayyan predmetga qarab

⁵ Каранг: Лукьянов А.Е. Становление философии на Востоке. Древний Китай и Индия. – М., 1989. – 109-б.

¹ Будда. Конфуций. Жизнь и учение. – М., 1995. – 139-б.

⁶ Гоббс Т. Избранные произведения: В 2 т. – М., 1964. Т. 1. – 49-б.

mo'ljal oladi. Tafakkur predmetning tabiati haqidagi tasavvurga mos ravishda mulohaza yuritadi. Predmetni o'zida «idrok etgan» kishigina mazkur predmet o'zi haqida so'zlovchining tili bilan gapirishiga umid qilishi mumkin.

Falsafaning predmeti. Falsafa predmeti uning rivojlanish davri mobaynida uzluksiz o'zgarib turgan, asosiy masala esa o'zgarishsiz qolgan, degan fikr real asoslardan xoli emas. Falsafa muammolari uning predmeti bilan belgilanadi. Ma'lumki, falsafa predmeti tarixiy rivojlanish jarayoni mobaynida sezilarli darajada o'zgargan. Falsafiy fanlarning har biri: ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika, mantiq, siyosatshunoslik, falsafa tarixi ham o'z alohida predmetiga ega. Shu tufayli ham falsafa predmetini faqat o'ta abstrakt tushunchalar yordamida belgilash mumkin. Shu ma'noda «dunyo – inson» munosabatlari tizimidagi umumiylik falsafaning predmeti hisoblanadi, degan fikr mazkur talablarga javob beradi.

Endi «Falsafa nimani o'rganadi?», degan savolni berishimiz mumkin. Insonda bilishga qiziqish uyg'otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o'ziga ma'lum bilimlar va tajribaga, muayyan e'tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug'diradigan har qanday ob'ektiv va sub'ektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi. Boshqacha aytganda, inson o'z qiziqishi ob'ekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo'lishi mumkin bo'lgan hamma narsa falsafaning predmetidir. Shu munosabat bilan u yoki bu odamning falsafiy qarashlari haqida va hatto uning falsafasi to'g'risida so'z yuritish mutlaqo o'rinli bo'ladi va bunga biz kundalik hayotda tez-tez duch kelamiz.

Biroq ayni holda bizni fan sifatidagi, ayrim insonning emas, balki butun jamiyatning rivojlanish mahsuliga aylangan ijtimoiy hodisa sifatidagi falsafa qiziqtiradi va ayni Shu sababli yuqorida keltirilgan ta'rifda «inson» tushunchasi yig'ma ma'noda qo'llanilgan. Bu erda Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, garchi falsafaning predmetiga biz umumiy nuqtai nazardan ancha keng ta'rif bergan bo'lsak-da, ayrim tarixiy davrlarda odatda u yoki bu sabablarga ko'ra muayyan masalalar doirasi falsafiy tadqiqotlarda birinchi o'ringa chiqadi.

Masalan, qadimgi Yunonistonda kosmotsentrizm ilk falsafiy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bunda asosiy e'tibor «kosmos», «tabiat»ni anglab etishga qaratilgan. Keyinchalik, qadimgi yunon shahar-polislari ravnaq topgan davrda faylasuflar diqqat markazidan ijtimoiy muammolar, axloq, davlat qurilishi masalalari o'rin oldi. Evropada xristianlikning, Sharqda islom dinining vujudga kelishi va mustahkamlanishi natijasida o'rta asrlar falsafasi teotsentrik (yunon. theos – markazdan o'rin olgan xudo) xususiyat kasb etdi, ya'ni Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmetiga aylandi. Uyg'onish davrida falsafa san'at (estetika)ga va ko'p jihatdan insonga murojaat qilindi.. Yangi davr deb nomlanuvchi XVII-XVIII asrlarda falsafa tobora kuchayib borayotgan fan bilan uzviy bog'landi, natijada falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan bilish va ilmiy metodlar masalalari o'rin oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan «klassik falsafa» va ratsionallik inqirozi irratsionallik, intuitivlik, ongsizlik muammolarini namoyon etdi, XX asrning birinchi yarmida ular «noklassik falsafa» tahlilining asosiy predmetiga aylandi, bu esa, o'z navbatida, matnlar mantig'i, tili, ularni talqin qilish va sharhlashga alohida qiziqish uyg'onishiga olib keldi. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida hozirgi madaniyatdagi inqiroz hodisalarini va Yangi axborot texnologiyalarining, Shuningdek ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan belgilangan muammolarni kun tartibiga qo'ygan postnoklassik falsafa shakllandi. Bu falsafa vakillari «tarixiy rivojlanishning tugallanganligi», barcha ma'nolar va g'oyalar «aytib bo'linganligi» haqida mushohada yuritib, inson o'ziga yog'ilayotgan axborotga ishlov berishga qodir emasligiga e'tiborni qaratar ekan, notizimlilik, Evropa an'anaviy falsafiy bilimining negizlari, qadriyatleri va chegaralarini o'zgartirish g'oyasini ilgari surdilar.

Nihoyat, XX-XXI asr chegarasida eng Yangi falsafada birinchi o'ringa chiqqan va eng muhim mavzular qatoridan o'rin olgan yana bir mavzu globallashuv jarayonlarining mohiyatini va ularning rivojlanish yo'nalishini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayonlar hozirgi vaqtda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi va davrimizning olamshumul muammolarini Yuzaga keltirdiki, ularning nazariy va amaliy echimini topish bu muammolarni shu jumladan

falsafiy darajada anglab etishni ham nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda alohida e'tibor berish va kelishilgan harakatlarni taqozo etuvchi eng muhim muammolar qatoriga ekologiya, demografiya, xavfsizlik, xalqaro jinoyatchilik, energetika resurslari, qashshoqlikka chek qo'yish muammolarini kiritish mumkin.

Ko'rib turganimizdek, falsafaning predmetini qandaydir bitta, qat'iy cheklangan, muayyan masalalar doirasi bilan bog'lash mumkin emas. U vaqt omiliga va ob'ektiv sabablar to'plamiga qarab, doim u yoki bu muammo yoki ularning muayyan majmui tarzida birinchi o'ringa chiqadi. Ammo bu boshqa mavzular, masalalar va muammolar o'z ahamiyatini yo'qotadi va falsafa chegarasidan chetga chiqadi, uning tahlil predmeti bo'lmay qoladi, degan ma'noni anglatmaydi. Bosh mavzularni ikkinchi, uchinchi yoki undan ham keyingi o'ringa surib qo'yadi, ular muayyan davrda va tegishli sharoitda falsafiy diqqat markazidan o'rin olish yoki falsafiy muammolarning ustuvorliklar yunalishi bo'ylab yuqoriga ko'tarilish uchun o'z vaqtini «kutib», go'yoki panada turadi, desak, to'g'riroq bo'ladi. Ayni Shu sababli biz falsafa tarixida qiziqishlardagi ustuvorliklarning muttasil o'zgarishini, u yoki bu masala bosh masalaga aylanishi, falsafiy hamjamiyatning asosiy e'tibori ma'lum vaqt mobaynida unga qaratilishini ko'ramiz.

Falsafaning strukturasi. Falsafa o'z shakllanishi va rivojlanishining qadimgi davridayoq, tabiat, inson, jamiyat va ma'naviyatni, Shuningdek sababiy bog'lanishlar, qonunlar va Shu kabilarni bilish sohasida yuksak natijalarga erishdi va ratsionallik nuqtai nazaridan odamlarning dunyo haqidagi umumiy tasavvuriga aylandi. Ammo olamning cheksiz darajada rang-barangligi va serqirraligi tufayli o'sha davrdayoq parchalanmagan falsafiy bilimlar va tasavvurlardan ayrim bo'limlar ajralib chiqa boshladi, vaqt o'tishi bilan rivojlanib, ancha aniq shakl-shamoyil kasb etdi va Yangi bilimlar bilan to'ldirildi. Pirovard natijada ular falsafiy bilimning tuzilishini (strukturasi) tashkil etdi.

Falsafaning asosiy masalasi strukturasi ikki tomon ajratiladi. Ruh birlamchimi yoki tabiatmi, degan savol mazkur masalaning ontologik tomonini tashkil qiladi. Dunyoni bilish imkoniyati to'g'risidagi masala, «inson tafakkuri dunyoni haqqoniy bilishga qodirmi, u o'zining haqiqiy dunyo haqidagi tasavvurlarida voqelikni to'g'ri aks ettirishga qodirmi», degan savol falsafa asosiy masalasining gnoseologik tomonini o'zida ifodalaydi.

«Dunyo – inson» tizimidagi munosabatlarning rang-barangligi predmetli-amaliy, gnoseologik, akseologik, estetik, axloqiy va boshqa xil munosabatlar bilan belgilanadi. Quyidagilar falsafiy bilimning strukturasi hisoblanadi:

- ontologiya – mavjudlik, borliq haqidagi bilim;
- gnoseologiya (boshqa bir terminologiyaga ko'ra – epistemologiya) – bilish nazariyasi;
- ijtimoiy falsafa – jamiyat haqidagi ta'limot;
- etika – axloq haqidagi ta'limot;
- aksiologiya - qadriyatlar haqidagi ta'limot;
- falsafiy antropologiya – inson haqidagi ta'limot va boshqalar.

Falsafa ularning muhim xususiyatlari, birinchi sabablari va asoslarini aniqlashdan manfaatdor. U yoki bu munosabatni dunyoga yondashuv mezoni sifatida tanlash (masalan, dunyoga uyg'unlik, go'zallik, mutanosiblik nuqtai nazaridan yondashish) u yoki bu falsafiy fanni (ayni holda estetikani) belgilaydi. Dunyoga uni bilish imkoniyatlari va qonuniyatlari nuqtai nazaridan yondashish bilish nazariyasi – gnoseologiyani vujudga keltiradi. «Inson – dunyo» tizimiga hokimiyat munosabatlari nuqtai nazaridan yondashish siyosatShunoslikning predmetini tashkil etadi. Munosabatlar o'zagini axloqiy me'yorlar tashkil qilgan taqdirda esa tadqiqotchi etika sohasiga qadam qo'yadi.

Shunday qilib, falsafaning asosiy masalasi strukturasi falsafaning o'z strukturasi aks ettiradi, falsafa esa o'z asosiy masalasining keng nazariyasi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, falsafaning asosiy masalasi xususida mulohaza yuritish jarayonida biz borliq nima, tafakkur nima degan savollarga turli xil javoblar olamiz. Vaqt o'tishi bilan bu javoblar o'z dalillar tizimi, metodologik tamoyillarini shakllantiradi va falsafiy yo'nalishlarga aylanadi. Masalan, *borliqda eng avvalo faqat fan doirasida aniqlanishi va til tizimida belgilar yordamida ifodalanishi mumkin bo'lgan aloqalar va qonuniyatlarni ko'rish maxsus yo'nalish – pozitivizm, aniqroq aytganda, uning oxirgi bosqichi – analitik falsafa nuqtai nazari bilan muvofiq keladi. Bu erda*

borliq nima degan masala u yoki bu bilimlarni to'g'ri ifodalash muammosiga, til tahliliga borib taqaladi. Analitik falsafa doirasida «lingvistik burilish» amalga oshirilgan va til falsafasi butun falsafaning asosi sifatida qabul qilingan.

Pozitivizm falsafani konkret fanlarga qarama-qarshi qo'yadi va ilmiy bilimni dunyoni o'zlashtirishning birdan-bir ijobiy shakli deb e'tirof etadi. Metafizika falsafaning sinonimi sifatida eng avvalo til mantiqiy me'yorlari nuqtai nazaridan mazmundan xoli deb e'lon qilinadi. Neopozitivistlar fikriga ko'ra, falsafaning hayot mazmuni, cheklilik va cheksizlik, borliqning birinchi asoslari, universumning atributivligi kabi azaliy muammolari soxta tushunchalar sanalgan atamalar yordamida shakllantiriladi, zero ularga berilgan ta'riflarni tekshirish mumkin emas.

Ayni Shu darajada **fan falsafasi** ham amal qiladi va ilmiy bilish faoliyati muammolarini tadqiq etadi. Avvaliga unda ilmiy faoliyatni muayyan metodologik tamoyillar va normativ-mantiqiy ideallar bilan muvofiq holatga keltirish, aniqroq aytganda fanni fizika tili negizida unifikatsiya qilish vazifasi qo'yilgan edi. U fizikalizmga qarab mo'ljal olardi. Keyinchalik bilishning ijtimoiy-madaniy omillariga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Bilish jarayoniga normativ yondashuvning imkoniyatlari tor ekanligi namoyon bo'lganidan so'ng ilmiy bilish faoliyati me'yorlarining relyativligi g'oyasi tug'ildi. Fan falsafasiga ijtimoiy-madaniy bilim (sotsiologiya, psixologiya, lingvistika, antropologiya va kulturologiya) natijalari va metodlari kirib kela boshladi.

Borliq nima, degan savolga javob izlar ekan, falsafa borliqni eng avvalo inson mavjudligi dunyosi sifatida qayd etuvchi nuqtai nazarda to'xtaydi. Bu o'ziga xos tushunchalar apparatiga ega bo'lgan ekzistensial falsafa vujudga kelganini anglatadi. Ikkinchi jahon urushidan, insoniyat sivilizatsiyasida Yuz bergan tub o'zgarishlardan so'ng borliq insoniyat ko'z o'ngida metafizik dahshat, qo'rquv, tashvish, zerikish va hatto behuzurlik tarzida namoyon bo'ladi. Ekzistensial falsafa ikki yo'nalishda – ham diniy, ham ateistik falsafa sifatida rivojlanadi. Diniy ekzistensial falsafa borliqni e'tiqod sifatida tuShunadi, e'tiqodni va ayni paytda uning inson borlig'i ufqida paydo bo'lishini «haqiqiy mavjudlik»ka erishish usuli deb e'lon qiladi. Ateistik ekzistensializm esa butunlay boshqacha kayfiyat hukm suradi. Ta'riflarda ko'p sonli ziddiyatlar mavjudligi tufayli Xudoning borligi inkor etiladi. Mustaqil va anonim tarzda o'z-o'zida mavjud bo'lgan borliq onggaga ega bo'lishi mumkin emas, u insonga nisbatan rahmsizdir, bu esa amalda Xudo yo'qligini anglatadi, degan xulosaga kelinadi.

Borliq hayot fenomeni sifatida, materiya va ruhning ajralishidan oldin Yuz bergan yaxlit organik jarayon sifatida talqin qilinganda hayot falsafasi Yuz ko'rsatadi. Bu erda birlamchi hayot voqeligi o'zini turli xil ko'rinishlarda namoyon etadi. Nitsshening volyuntarizmida u «hokimiyatga intilish» sifatida namoyon bo'ladi. Bergson tasavvurida hayot kosmik yuksalish bo'lib, uning mohiyati ong va o'ta yuksak ong bilan belgilanadi. Diltey va Zimmel hayotni madaniy-tarixiy xususiyatga ega bo'lgan kechinmalar oqimi sifatida tavsiflaydi. Biroq taklif qilingan talqinlarning barchasida hayot ijodiy shakllanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Harakat, eng avvalo – oqilona unumli harakat sifatida tuShunilgan borliq bizni AQSHda ayniqsa keng tarqalgan pragmatizm sohasiga olib kiradi. Ushbu falsafiy konsepsiyaga ko'ra har qanday harakat kelajakka qaratilgandir. Amerikalik faylasuf Ch.Pirs (1839–1914)ning: «Narsa g'oyasi uning hissiy oqibatlari g'oyasidir», degan tezi pragmatizmning manifesti sifatida qaralishi mumkin. Haqiqat u yoki bu g'oyaning samaraliligi va ish qobiliyati, uning maqsadga erishish uchun foydaliligi demakdir.

Borliqqa intuitiv tarzda anglab etiladigan sir sifatida yondashuv, intuitivizm deb nomlanadi. Intuitsiya intellektga qarama-qarshi turadi va predmetning mohiyatiga biron-bir manfaatni ko'zlamasdan, xolisona nazar tashlashni, sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi masofani qisqartirishni nazarda tutadi. Intuitivizmida bilim kechinma tarzida amal qiladi.

Borliq vaziyatlardan tarkib topsa va ularni talqin qilish usuli birinchi darajali ahamiyat kasb etsa, demak, bu erda gap germenevtika haqida boradi. Uning doirasida tushunuvchi talqin qilish borliqni gavdalantirishning asosiy modusi hisoblanadi. Biror narsani tushunish uchun uni tushuntirish kerak, tushuntirish uchun esa – tushunish zarur.

Falsafiy muammolar mohiyatini tushunib etish, ularning eng muhimlarini aniqlash va nihoyat, falsafiy bilimlar bilan oshno bo'lish – ko'rsatilgan bo'limlarni sinchiklab o'rganish, bunda ularga

yaxlit bir butunning tarkibiy qismlari sifatida yondashish demakdir. Pirovardida biz falsafaning o'ziga xos tili, o'z yondashuvlari va metodlari, nihoyat, tabiat, jamiyat va tafakkurga oid eng muhim aloqalar, xossalari va qonunlarni o'zida aks ettiruvchi umumiy tushunchalar – kategoriyalar tizimi vujudga kelganining guvohi bo'lamiz. Bunda falsafadagi har bir bo'lim yoki yo'nalish ham o'z tushunchalar apparatiga, ya'ni bilimning faqat Shu sohasiga xos bo'lgan va uning asosiy mohiyatini yoritib beradigan kategoriyalar tizimiga egadir.

Falsafada ko'rib chiqilgan mavzular bilan bir qatorda shunday bilim sohalari ham mavjudki, ular qolgan barcha bilim sohalariga kirib boradi, ular bilan uyg'unlashadi va ularni to'ldiradi. Masalan, tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkurida yuz beruvchi harakat, rivojlanish va o'zgarishlar haqidagi falsafiy ta'limot – dialektika ana Shunday bilim sohalaridan biri hisoblanadi.

Ob'ektiv sabablarga ko'ra falsafiy bilimning ayrim sohalari sezilarli darajada rivojlandi va vaqt o'tishi bilan mustaqil falsafiy fanlarga aylandi. Bunday bilim sohalari qatoriga, masalan, insonning bilishni amalga oshirish shakllari, qonunlari va usullarini o'rganadigan fan - mantiqni; ma'naviyat va axloq haqidagi ta'limot – etikani; go'zallik qonunlariga muvofiq ijodning mohiyati va shakllari haqidagi fan – estetikani kiritish mumkin.

Shu ma'noda falsafa tarixi fani alohida diqqatga sazovordir, zero u, mohiyat e'tibori bilan, nafaqat falsafiy, balki tarixiy fan hisoblanadi. Ayni vaqtda u falsafiy bilim tarkibiga ham kiradi, chunki falsafiy tafakkurning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini, falsafiy g'oyalar evolyusiyasi va xususiyatini turli faylasuflar, yo'nalishlar, oqimlarning ta'limotlarida qanday tavsiflangani nuqtai nazaridan o'rganadi. Falsafa tarixi fanida falsafiy ta'limotlarni tizimga solish va tasniflashga, matnlar, tarixiy sanalarni tahlil qilishga, daliliy material, biografik ma'lumotlar yig'ishga alohida e'tibor beriladi. Shu munosabat bilan dunyoqarashni kengaytirish va teranlashtirishga, o'z falsafiy yondashuvlarini yaratishga qaratilgan falsafani o'rganish, uning tarixi, asosiy namoyandalari va eng muhim falsafiy asarlari bilan albatta tanishishni nazarda tutadi.

Falsafaning yangi sohalari. Falsafiy bilimning tuzilishi o'zgarimas, uzil-kesil shakllangan emas. Falsafaning rivojlanishi va u hal qilayotgan muammolar doirasi kengayishiga qarab falsafiy bilim tuzilishida ham o'zgarishlar yuz beradi. Ilmiy nazariyalar yoki falsafiy g'oyalar inqirozga uchragan yoki o'zining asossizligini namoyish etgan taqdirda, ularning bilim tizimidagi o'rni va rolini qayta baholash amalga oshiriladi, bu esa ba'zan ularning nazariy va amaliy ahamiyati yo'qolishiga olib keladi. Masalan, flogiston nazariyasi, «falsafa toshi»ni izlash, empiriokrititsizm falsafasi va o'z ahamiyatini yo'qotib, tarix mulkiga aylangan boshqa ko'pgina g'oyalar bilan Shunday bo'lgan. Bugungi kunda falsafa bilan ham shunga o'xshash hodisa yuz beryapti, degan fikr mavjud. Hatto falsafa o'lyapti deb hisoblaydiganlar ham yo'q emas.

Darhaqiqat, o'zini oqlamagan g'oyalar, yo'nalishlar va konsepsiyalar bisyor, ularning aksariyati hozir juda og'ir ahvolda, ayrimlari esa kuchli inqiroz holatini boshdan kechirmoqda. Ammo *falsafa o'zining birinchi ma'nosida – «donolikni sevish» sifatida, haqiqatning tagiga etish usuli sifatida, jon holati sifatida va nihoyat, dunyoqarashning alohida shakli sifatida insoniyat turguncha mavjud bo'ladi.*

Buni falsafiy bilimning ayrim nisbatan yangi sohalari ham tasdiqlaydi (ba'zan ular mustaqil falsafiy fanlar maqomiga da'vogarlik qiladi). Ular falsafa yondashuvlari va metodlari jamiyat hayotining ayrim jabhalari, murakkab ob'ektlar, muayyan fanlar va Shu kabilarni o'rganishga nisbatan qo'llanilishi natijasida yuzaga keldi. Ularning aksariyati falsafaning eng yangi tarixi bilan bog'liq bo'lib, asosan XX asrga tegishlidir. Bu erda avvalo tabiat falsafasi, huquq, fan, tarix, siyosat, san'at, din, texnika falsafasi, tanatologiya, gerontologiya va boshqalar nazarda tutilmoqda. O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida tadqiqotning yana bir yangi va o'ta muhim sohasi – globallashuv va u yuzaga keltirayotgan global muammolar falsafasi paydo bo'ldiki, uni o'rganish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Falsafaning asosiy masalalari. Falsafani o'rganayotgan har bir odamda falsafada qolgan barcha muammolarga nisbatan ustunroq ahamiyat kasb etadigan, ya'ni muhimroq, asosiyroq hisoblanadigan masalalar, muammolar mavjud yoki mavjud emasligiga qiziqish ertami, kechmi albatta yuzaga keladi. Bu mavzu nafaqat boshlovchi, balki professional faylasuflar uchun ham diqqatga sazovordir. Ularning orasida kimdir bu mavzuga jiddiy e'tibor beradi, kimdir esa,

aksincha, uni muhim deb hisoblamaydi. Falsafaning uzoq tarixiga umumiy nazar tashlasak, olam va insonning kelib chiqishi, rivojlanishi va mohiyatiga, shuningdek, hayotning ma'nosi, inson bilishining tabiatiga tegishli «boqiy» falsafiy muammolar deyarli barcha falsafiy ta'limotlarda u yoki bu tarzda mavjudligini, turli falsafiy asarlarda, ular aynan kimga qarashliligi va qaysi davrga mansubligidan qat'iy nazar, qisman yoki, aksincha, atroflicha muhokama qilinishining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Darhaqiqat, ong, tafakkur, ruh, ideallik va ularning materiya, tabiat, borliq bilan o'zaro nisbati masalalariga o'z munosabatini bildirmagan yoki, o'z mulohazalari va xulosalarida Shubha qilmagan faylasufni topish mushkul. Bu hol o'z vaqtida olimlar tomonidan «falsafaning asosiy masalasi»ni ta'riflashiga turtki bergan bo'lib, unda ikki jihat alohida ajralib turadi.

Birinchi jihat moddiylik va ideallikning o'zaro nisbatiga tegishli. Savol shunday qo'yiladi: «Materiya birlamchimi yoki ruh (ongmi)?» yoki, «Tafakkur va borliqning nisbati masalasi butun, ayniqsa, eng Yangi falsafaning buyuk asosiy masalasidir».

Ikkinchi jihat birinchi jihat bilan uzviy bog'liq bo'lib, quyidagicha ta'riflanadi: «Dunyoni bilish mumkinmi?» Boshqacha aytganda: «Biz haqiqiy dunyo haqidagi o'z tasavvurlarimiz va tushunchalarimizda borliqni to'g'ri aks ettirishga qodirmizmi?» Bu masalada materialistlar va idealistlarning qarashlari ziddiyatli xarakterga egadir.

Materialistlar va idealistlar. U yoki bu faylasuflar savolning birinchi qismiga qanday javob berishiga qarab, *-dunyo azaldan moddiy, ong esa bu materiyaning mahsulidir, deb hisoblovchilar materialistlar* va *-dunyo zamirida materiyadan oldin paydo bo'lgan va uni yaratuvchi ideal narsalar va hodisalar yotadi, degan fikrni himoya qiluvchi idealistlarga* ajratiladi.

Bunda idealizmning ikki turi – ob'ektiv va sub'ektiv idealizm farqlanadi. *Ob'ektiv idealistlar - qandaydir nomoddiy va inson ongiga bog'liq bo'lmagan (ya'ni ob'ektiv mavjud bo'lgan) narsalar va hodisalarni (Xudo, dunyoviy aql, g'oya, ruh va Shu kabilari) butun borliqning asosi deb e'tirof etadilar.* Falsafa tarixida Platon, Avliyo Avgustin, Foma Akvinskiy, G.Gegel, , N.Berdyayev kabi mutafakkirlar ob'ektiv idealizm namoyandalari. *Sub'ektiv idealistlar - dunyo faqat individual (sub'ektiv) ong mahsulidir deb hisoblaydilar.* J.Berkli, D.Yum, I.G.Fixte sub'ektiv idealizmning yorqin namoyandalari hisoblanadi.

Falsafa tarixida materialistik yo'nalishlar va oqimlar ham anchaginadir. *Sodda materializm materiyani yaratish va yo'q qilish mumkin emasligi haqidagi ta'limotdir.* Sodda materializm vakillari :qadimgi xitoy faylasuflari – Lao szi, Yan Chju;

- Qadimgi hind faylasuflari – lokayata yo'nalishi namoyandalari;
- Qadimgi davrning mashhur faylasuflari – Geraklit, Empedokl, Demokrit, Epikur va boshqalar.

- Qadimgi Markaziy Osiyo faylasuflari- Zardo'sht Sepitoma kabilardir.

Klassik mexanika vujudga kelgan va faol rivojlangan Yangi davrda mexanistik materializm (P.Golbax, P.Gassendi, J.Lametri) ayniqsa keng tarqaldi.

XVIII-XIX asrlarda falsafiy materializmning yo'nalishlari:

- antropologik materializm (L.Feyerbax);

- vulgar materializm (Fogt, Byuxner, Moleshott);

- dialektik materializm (K.Marks, F.Engels) shakllandi.

Biroq, yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, mazkur tasnifga muvofiq materialistlar yoki idealistlar deb nomlanuvchi u yoki bu faylasuflar bunday farqlashga asossiz sxemalashtirish va soddalashtirish deb qarab, o'zini bu yo'nalishlarning birortasiga ham mansub deb hisoblamasligi mumkin. Bunday qarashlar Shu bilan izohlanadiki, to'g'ridan-to'g'ri va uzil-kesil tarzda, bu muammoni tushunishga nisbatan boshqacha yondashuvlarni e'tiborga olmasdan ta'riflangan «falsafaning asosiy masalasi» muqarrar tarzda barcha faylasuflarni ikki katta qarama-qarshi lagerga – materialistlar va idealistlarga ajratadi va bu hodisaning ayrim ko'rinishi sifatida faqat moddiy va ma'naviy substansiyalarni teng huquqli asoslar deb hisoblovchi *dualistlarnigina* (masalan, R.Dekart) farqlaydi.

Ammo falsafiy tafakkur tarixida u yoki bu faylasuflar fikriga ko'ra eng muhim deb qaraladigan boshqa muammolar ham mavjud. Ayni shu sababli aksariyat faylasuflar substansiya

(dunyoning birinchi asosi) haqida mulohaza yuritar ekan, mazkur masalaning qo'yilishini «falsafaning asosiy masalasi» bilan bog'lashga moyil emas. Masalan;

ilk antik faylasuflar uchun falsafaning asosiy muammosi: «Dunyo nimadan yaratilgan?», degan savol bilan bog'langan. O'sha davrda bu savol eng muhim, asosiy, birinchi darajali hisoblangan.

O'rta asrlar sxolastikasi nuqtai nazaridan «falsafaning asosiy masalasi» quyidagicha ta'riflanishi mumkin: «Xudoning borligini qanday qilib oqilona asoslash mumkin?» Hozirgi diniy falsafiy konsepsiyalar, xususan neotomizm uchun u hozir ham bosh masala bo'lib qolmoqda. Ibn Sino fikricha, falsafaning asosiy masalasi – mavjudotni barcha mavjud narsalarni kelib chiqishi, targ'iboti o'zaro munosabati, biridan-ikkinchisiga o'tishni har tomonlama tekshirish uchun zaruriy imkoniyat, voqelik sabab tamoyillarini asos qilib olishdan iborat¹.

Yangi davrda I.Kant yondashuvi diqqatga sazovor bo'lib, u «Inson nima?» degan savolni mohiyat e'tibori bilan falsafaning asosiy masalasi deb hisoblaydi. Uning fikricha, inson ikki dunyo – tabiiy zarurat va ma'naviy erkinlikka mansub bo'lib, ularga muvofiq odamzot, bir tomondan, tabiat mahsuli hisoblanadi, boshqa tomondan esa, u «erkin harakat qiluvchi mavjudotning o'z-o'zidan yaratish» natijasidir².

Ekzistensializm falsafasida esa har bir individ o'zi uchun o'zi hal qilishi lozim bo'lgan «Hayot yashashga arziydimi?», degan muammo asosiy masala sifatida e'tirof etiladi, zero, mazkur yo'nalish namoyandalarining fikriga ko'ra, bu savolga javobsiz qolgan hamma narsa o'z ma'nosini yo'qotadi. Fransuz ekzistensialist faylasufi A.Kamyu ta'biri bilan aytganda: “Hayot yashashga arzishi yoki arziyasligi masalasini hal qilish, falsafaning asosiy masalasiga javob topish demakdir”¹. Masalan, pragmatizm asosiy e'tiborni haqiqat tushunchasiga va uni aniqlash muammosiga qaratadi. Bu yo'nalish vakillarining fikriga ko'ra, falsafa avvalo ayni Shu muammo bilan Shug'ullanishi va insonga amalda foyda keltirishi lozim.

Falsafani siyosiyashtirish va sxemalashtirishning oqibatlarini. Falsafani o'ta siyosiyashtirish ma'lum ma'noda zararlidir. Chunki sobiq sovet tuzumi davrida ayni falsafiy bilimni mutlaqlashtirish, uni siyosiy bilim doirasi bilan chegaralash oqibatida falsafa siyqalashdi, uning asl mazmuniga putur etkazildi. Shuningdek, falsafaning barcha vaqtlarda va har qanday sharoitda o'z ahamiyatini saqlab qolishi mumkin bo'lgan, qolgan barcha masalalarni istisno etadigan birdan-bir to'g'ri asosiy masalasi bormi? Bizningcha, mazkur uzil-kesil ta'rif kontekstida bunday masala mavjud emas. Birinchidan, ayni holda tarixiy davrni ham, falsafiy bilimning plyuralistik tabiatini ham hisobga olish talab etiladi. Ikkinchidan, qandaydir bitta muammoni faqat u yoki bu muayyan vazifani echish maqsadida murakkab masalalarni sxemalashtirish, ataylab soddalashtirish to'g'risida so'z yuritilayotganini tuShungan holda, ma'lum darajada shartlilik bilan mutlaqlashtirish mumkin.

Masalan, falsafaning «borliq» va «substansiya» kabi ayniqsa keng tarqalgan asosiy kategoriyalari haqida so'z yuritar va muayyan faylasuflarning ularga bo'lgan munosabatini aniqlashga harakat qilar ekanmiz, «falsafaning asosiy masalasi»ni uzil-kesil echish tarafdorlari ilgari surgan mantiqqa muvofiq, barcha faylasuflarni ma'lum darajada shartlilik bilan materialistlar, idealistlar va dualistlarga ajratishimiz mumkin. Umuman olganda, agar, falsafada ayniqsa ko'p muhokama qilinadigan muammolar doirasini aniqlashga harakat qilinayotgan yoki falsafa tarixini, u yoki bu falsafiy g'oyalar, yo'nalishlar, oqimlarning vorisiyligini yaxshiroq tushunish vazifasi qo'yilayotgan bo'lsa, bunday ajratish mutlaqo o'rinlidir.

Shuningdek, muammoga nisbatan yangicha yondashuvni yoki masalaning yangicha talqinini taklif qilishi mumkin bo'lgan boshqacha yondashuvlar paydo bo'lishi va mavjudligiga yo'lni berkitmaslik uchun har qanday sxemalashtirish cheklangan xususiyatga ega bo'lishini unutmaslik kerak.

Ayni bir masalaga boshqacha nuqtai nazardan, g'ayritabiiy yoki mutlaqo kutilmagan tomondan yondashish taklif qilingan, pirovardda esa avvalgi qarashlar nuqtai nazaridan erishish

¹ Ибн Сино Донишنامه.-М.: 1957, -С. :7

² Кант И. Соч.Т.6 –М.: Наука, 1997.-С351

¹ Камю А.// Всемирная энциклопедия.Философия. –М.: Современные тетради, 2001. –С.344.

mumkin bo'lmagan kashfiyotlar olingan hollarga tarixda misollar bisyor. Masalan, geotsentrik qarashlar o'rnini geliotsentrik qarashlar egallashi, nisbiylik nazariyasining paydo bo'lishi, Rim klubiga taqdim etilgan «O'sish chegaralari» ma'ruzasi va hokazolar ko'pchilik uchun tabiiy, o'z-o'zidan ravshan bo'lib tuyulgan narsalarga nisbatan noan'anaviy, g'ayritabiiy yondashuv mahsulidir. Mazkur misollar falsafada «qat'iy», uzil-kesil ta'riflarga nisbatan ancha ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim, zero bu ba'zan yanglishishlarning mustahkamlanishiga, oxir-oqibatda esa – turg'unlik va dogmatizmga olib keladi, degan fikrni faqat tasdiqlaydi.

Dunyoni bilish mumkinmi, degan savolga faylasuflar tomonidan berilgan javoblar orasida ham ikki qarama-qarshi yondashuv ajralib turadi. Bu yondashuvlardan biri *gnoseologik optimizm* deb ataladi. Unga muvofiq insonning bilish imkoniyatlari umuman olganda cheklanmagan va u o'zini qiziqtirayotgan tabiat va jamiyat qonunlarini kashf etish, narsalar mohiyatini aniqlash va dunyoning haqiqiy manzarasini yaratishga ertami, kechmi albatta muvaffaq bo'ladi, deb hisoblanadi. Bunda G.Gegelni, va u yaratgan ta'limotning ko'p sonli tarafdorlarini tilga olib o'tish o'rinli bo'ladi.

Ikkinchi yondashuv *agnostitsizm* (yunon. a – inkor va gnosis – bilim) deb ataladi. Bu yondashuv namoyondalari dunyoni, narsalar va hodisalar mohiyatini to'la (yoki hatto qisman) bilish amalda mumkin emas, deb hisoblaydi. Bunday qarashlar ayniqsa D.Yumga xosdir. Odatda, agnostitsizm namoyandalari qatoriga I.Kant ham kiritiladi, ammo bu yondashuv ancha bahsli bo'lib, faylasuflar orasida munozaralarga sabab bo'lib keladi.

Falsafada shubhaning roli. Yuqorida keltirilgan ikkala gnoseologik yondashuvni taqqoslash va ularga baho berishda Shubha muhim rol o'ynaydi. U nafaqat o'rinli, balki ijodiy yo'naltirilgan har qanday bilishning zaruriy elementi hisoblanadi. Shuningdek, falsafiy mulohazalar har qanday shak-Shubhadan xoli bo'lsa, notanqidiy idrok etiladigan o'tmish va qadimda o'zlashtirilgan qonun-qoidalarga so'zsiz bo'ysunish me'yorga aylanib qolsa, bu, dogmatizm, turg'unlik va tanazzulga eltadi.

Bunga qadimdayoq antik faylasuflar: elladalik Pirron, Arkesilay va shubhani fikrlashning asosiy tamoyili, inson bilimni esa – nisbiy deb e'lon qilgan falsafiy yo'nalish – skeptitsizmning boshqa asoschilari e'tiborni qaratgan. *Skeptitsizm haqiqatga shak-shubhasiz egalik va narsalarni to'g'ri tushunishga da'vogar bo'lgan falsafiy ta'limotlar hukmronligiga munosabat sifatida vujudga keldi va shu ma'noda, ijobiy rol o'ynadi.*

Falsafaning asosiy funksiyalari. Falsafa u yoki bu muammolarni hal qilar, qonunlar, muayyan tamoyillarni ta'riflar yoki gipotezalar, g'oyalar va nazariyalarni ilgari surar ekan, ayni vaqtda (ba'zan shu tariqa) har xil funksiyalarni bajaradi. Falsafaning muhim funksiyalaridan dunyoqarashni shakllantirish, bilish, metodologik, integrativ, madaniy, aksiologik, axloqiy va tarbiyaviy funksiyalarni qayd etish mumkin. Ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bu funksiyalarning roli va ahamiyati falsafaning amal qilish sohasi, u hal qilayotgan vazifalar darajasi va xususiyati bilan belgilanadi.

Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi *insonning o'z-o'zini va o'zini qurshagan borliqni tushunishi, shuningdek turli voqealar, hodisalarni va o'z burchini qanday talqin qilishida namoyon bo'ladi.* Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, inson dunyoqarashida e'tiqodlar va bilimlar, tuyg'ular va emotsiyalar, oqilonalik va irratsionallik, tajriba, intuitsiya va hokazolar chambarchas bog'lanadi. Ayni shu sababli falsafasiz dunyoning yaxlit manzarasini yaratish mumkin emas, chunki, «hamma narsaga aralashadigan» falsafagina dunyoqarashning o'zaro bog'lanmagan turli «parchalari»ni birlashtirib, shu tariqa odamlarning butun borliqqa nisbatan umumiy, izchil va mantiqan to'g'ri munosabatini yaratish imkonini beradi. Bunda falsafa ayrim ikir-chikirlar, ahamiyatsiz tafsilotlarni mavhumlashtiradi va umumiy aloqalarga, turli narsalar va hodisalar xossalari birligiga e'tiborni qaratadi va Shu tariqa o'zining bosh funksiyasi – dunyoqarashni shakllantirish funksiyasini bajaradi.

Falsafaning gnoseologik funksiyasi *tajribada sinash, tavsiflash yoki shak-shubhasiz inkor etish mumkin bo'lmagan, ya'ni fan ochib berish, tadqiq etish va tahlil qilishga qodir bo'lmagan narsalar va hodisalarni oqilona yo'l bilan tushuntirishga harakat qilishdir.* Falsafa u yoki bu mohiyati aniqlanmagan yoki kam o'rganilgan hodisalarni tushuntirishga nisbatan o'z yondashuvlari,

nazariyalari va gipotezalarini taklif qilish ekan, ularni bilishga bo'lgan qondirilmagan qiziqish o'rnini muayyan darajada to'ldiradi, shu tariqa mifologik va diniy fantaziyalarga kamroq o'rin qoldiradi. Falsafa gnoseologiyada hal qiladigan boshqa bir muhim vazifa «Haqiqat nima?», «Uning mezonlari qanday?», degan masalalar bilan bog'liq, zero har qanday bilish jarayoni oxir-oqibatda, u yoki bu tarzda haqiqatning tagiga etishga qarab mo'ljallanadi, bu esa eng muhim masaladir.

Metodologik funksiyasi u yoki bu maqsadga erishishning muayyan usulini, shuningdek borliqni nazariy va amaliy o'zlashtirishga qaratilgan usullar yoki amallar majmuini anglatadi. (bu tushuncha yunoncha methodos – yo'l, tadqiqot, tekshirish so'zidan kelib chiqqan). Boshqacha qilib aytganda, bu faylasuf yoki olim o'zi o'rganayotgan predmetning tadqiqot yo'lidir. Odatda metodologiya muammolari falsafa doirasida o'rganilgan, biroq ayrim fanlar vujudga kelishi bilan falsafiy (umumiy) metodlar bilan bir qatorda muayyan, ayrim ilmiy metodlar ham rivojlana boshladi. Falsafaning boshqa bir muhim metodologik funksiyasi falsafada ham, ayrim fanlarda ham muhim rol o'ynaydigan har xil kategoriyalarni ishlab chiqishdan iborat. Kezi kelganda yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, falsafa o'ta keng tushunchalar, ya'ni kategoriyalar bilan ish ko'rar, ularni ta'riflar ekan, metodologik funktsiya bilan bir vaqtda dunyoqarashni shakllantirish funksiyasini ham bajaradi.

Falsafaning integrativ funksiyasi real borliqning Yangi ob'ektlari va hodisalari insonning nazariy tadqiqotlari sohasidan o'rin olishi, Shuningdek ilgari ma'lum darajada anglab etilgan narsalar va hodisalarni yanada chuqurroq o'rganish uchun birlashtirishga ehtiyoj. Ilmiy bilimlarning integratsiyasi Shuvi va u yoki bu muammolarni echish uchun kuch-g'ayratni birlashtirish jarayoni yakkalanish xavfining oldini olish imkonini beradi. Zero, ayrim fanlar paydo bo'lib, ular nafaqat o'z tadqiqot ob'ekti va predmetini ajratdi, balki o'zining faqat mazkur fanga xos bo'lgan tili, kategoriyalar apparati va hokazolarni yaratdi. Ammo bu yo'lda jiddiy xavf ham mavjud bo'lib, u shundan iboratki, fanlarning ajralishi natijasida ular o'rtasidagi aloqalar susayadi, ular murakkab kompleks vazifalarni echishda faol o'zaro aloqa qilish qobiliyatini yo'qotadi. Bu esa ilmiy bilimning o'sishiga salbiy ta'sir qiladi.

Murakkab kompleks muammolarni tadqiq etuvchi hozirgi zamon fanida ba'zan ayrim ilmiy fanlarning vakillari boshqa fanlarning vakillarini faqat ular turli tillarda, ya'ni har biri o'z fanining tilida gapirgani bois tuShunmaydi. Bu jihatdan falsafa ular uchun amalda bog'lovchi bo'g'inga, birlashtiruvchi asosga aylanadi, chunki u o'z tahlilida fanlararo muloqotga va mazmuni ayni bir kontekstda turli fanlar tomonidan qabul qilinadigan va qo'llaniladigan fundamental tushunchalarni yaratishga qarab mo'ljallanadi.

Murakkab ob'ektlarni kompleks tadqiq qilishda har bir muayyan fan o'z predmetidan kelib chiqadi. Bu predmet doirasi unga o'rganilayotgan ob'ektni yaxlit ko'rish, uning aloqalarini aniqlash imkonini bermaydi. Bu vazifani hal qilishga ham faqat falsafa qodir bo'lib, u butun vaziyatni yaxlit ko'rish imkonini beradi va bu jihatdan nafaqat fanlar o'rtasida, balki inson faoliyatining ayrim jabhalari, masalan, o'tkazilayotgan tadqiqotlar bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy, siyosiy, axloqiy faoliyat o'rtasida ham bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi.

Falsafaning madaniy funksiyasi odamlar dunyoqarashini kengaytirish, ularda bilishga qiziqish uyg'otish, nazariy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. U dunyoni o'zlashtirish va bilishning universal shakli sifatida, insoniyatning eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi va ularni butun insoniyat mulkiga aylantiradi. Turli mamlakatlar va xalqlarning falsafa tarixini o'rganish ularning o'tmishdagi va hozirgi madaniyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, g'oyalar almashinuvi va madaniy an'analarning o'zaro ta'siriga ko'maklashadiki, bu madaniy meros bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolarni echishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafaning aksiologik funksiyasi (yunon. *axia* - qadriyat) hayotning ma'nosi, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yish, u yoki bu harakat, voqea, hodisaga "yaxshi", "yomon", "muhim", "foydali", "foydasiz" kategoriyalari bilan baho berish orqali namoyon bo'ladi U uzoq muddatli tendensiyalarni qisqa muddatli tendensiyalardan farqlash, yuzaki jarayonlarni fundamental jarayonlardan, muhim narsalar va hodisalarni ikkinchi darajali narsalar va hodisalardan ajratish orqali insonning qadriyatlarga munosabati bilan uzviy bog'liq bo'lgan tegishli

ehtiyojlarini shakllantiradi. shu tariqa insonning muayyan qadriyatlarini, mo'ljallari va ustuvorliklari belgilanadi, ya'ni tegishli qadriyatlar tizimi tarkib topadi. Bu tizim odamlarning muhim xususiyati hisoblanadi, ularning hayotga munosabatini aks ettiradi va jamiyatdagi xulq-atvorini ko'p jihatdan belgilaydi.

Falsafaning axloqiy funksiyasi odamlarning u yoki bu jamiyatda qaror topgan munosabatlar ta'sirida shakllanuvchi xulq-atvori. Bunda, masalan, axloqiy qadriyatlar, ularning tabiati, asoslari va jamiyatdagi amaliy roli falsafaning tadqiqot predmeti hisoblanadiki, bu jamiyatda yuzaga keladigan va tabiiy yo'l bilan, ya'ni real hayot amaliyotida o'rnatiladigan me'yorlar va qoidalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday me'yorlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim dastak hisoblanadi va odamlarning o'zaro aloqalari, ularning munosabatlari, o'zaro til topish darajasida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa doimo axloqda, jamiyatning barcha a'zolari xulq-atvorida namoyon bo'ladi va shu tariqa yana bir muhim funksiya – axloqiy funksiyani bajaradi.

Falsafaning tarbiyaviy funksiyasi insonning o'z-o'zini tarbiyalash va o'zi mansub bo'lgan jamiyatning axloqiy normalariga rioya qilishdir. Bu masalaning xalqaro darajadagi keng va har tomonlama muhokamasi natijalarini hisobga olgan holda so'z yuritish o'rinli bo'ladi. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati o'z-o'zini anglab etishga yo'naltirilgan falsafaga muhtojdir. Buni 2002 yildan Yunesko qaroriga binoan, butun dunyoda har yili noyabr oyining uchinchi payshanbasida o'tkaziladigan "Jahon falsafa kunlari" ham, hozirgi kunda dunyo uchun eng muhim masalalarga e'tiborini qaratadigan Jahon falsafa Kongresslari ham tasdiqlaydi. Darhaqiqat bunday kongress birinchi marta 1900 yilda Fransiyada o'tkazilgan, 1948 yildan boshlab uni har besh yilda bir marta o'tkazish an'anaga aylangan. Xususan, 1998 yilda Boston shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan XX jahon falsafa kongressi "Paydeyya: insoniyatni tarbiyalashda falsafa" mavzusiga bag'ishlangan bo'lsa, Turkiyaning Anqara shahrida o'tkazilgan XXI Jahon falsafa kongressida "Falsafa jahon muammolari bilan yuzma-yuz" mavzusi atroflicha muhokama qilindi. XXII jahon falsafa kongressi birinchi marta Osiyo mamlakati bo'lmish Koreya respublikasining Seul shahrida "Hozirgi davrda falsafani qayta anglash" degan umumiy mavzu ostida bo'lib o'tdi. Kongresslarning mavzularidan ko'rinib turganidek, falsafa real hayot bilan uzviy bog'liq va eng muhim muammolarni anglab etishga xizmat qilib keldi. Shunday muammolardan biri – *insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol toptirishda falsafaning roli va ahamiyati masalasidir.* Buning uchun esa, albatta, qadimgi davr mutafakkirlarining asarlariga yana bir bor murojaat etish taqozo etiladi.

Qadimgi mutafakkirlar har tomonlama ta'lim va tarbiyani, ya'ni o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan jismoniy va ma'naviy jihatdan komil insonni voyaga etkazishni «paydeyya» (yunon. pais – bola) atamasi bilan ifodalaganlar. O'sha vaqtlarda paydeyya aristokratiyaning o'ziga xos belgisi hisoblangan; endilikda faylasuflar ta'lim va tarbiya muammolarini yana birinchi o'ringa qo'yib, ularni hal qilishda falsafaning rolini aniqlashga harakat qilar ekanlar, bu tushunchani yana esga oldilar. Xususan, Boston kongressidagi asosiy ma'ruzalarning mualliflaridan biri fransuz faylasufi Per Obenk: «Insonning vahshiyona tabiatidan ma'rifatli tabiatga o'tish imkoniyati qay darajada mavjud?», degan savolni o'rta tashlaydi. Uning fikricha, insonning yagona tabiati ikki ma'noli bo'lib, faqat ma'rifat (paydeyya) odamzotni to'la ma'noda insonga aylantiradi yoki, Platon ta'biri bilan aytganda, paydeyya uning ko'zini ochadi.

Biroq, *ma'rifatning vazifasi ko'zga ko'rish qobiliyatini berishdan emas, balki unga to'g'ri qarashni o'rgatishdan iboratdir. Demak, Platon, Demokrit, Zardo'sht va boshqa mashhur faylasuflar fikriga tayanib, ma'rifat yordamida, ta'lim va tarbiya jarayonini zo'rlikka qarshi yo'naltirish va odamzot aql-idrokini kamol toptirish orqali insonning boshqacha tabiatini yaratish mumkin.* «Paydeyya» tushunchasi bolani tarbiyalab komil insonga aylantiruvchi ta'lim jarayoniga e'tiborni qaratadi. Qadimgi yunonlar «texne» va «paydeyya» kabi tushunchalarni farqlaganlar; birinchi atama bilimni, ya'ni o'rganish mumkin bo'lgan narsani anglatadi, ikkinchi atama bilim berish manbaini emas, balki to'g'ri fikr manbaini anglatadi. Bunda paydeyya, Aristotel ta'biri bilan aytganda, insonni o'zini o'zi kamol toptirishga rag'batlantirishi lozim. Shu bois Protagor, Suqrot va

Platon aytganidek, *falsafadan saboq berishda ishonirish mahoratini emas, balki to'g'ri fikrlash mahoratini o'rgatishga e'tibor qaratish muhim.*

Falsafaning jamiyatdagi ahamiyati va roli yoki amaliy falsafa. Odatda falsafa kundalik hayot va amaliyotdan ancha uzoq bo'lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o'rganadi, degan fikr mavjud. Ammo bu fikrga qo'shilish mushkul, zero umumiy nazariyalar, agar ularga kengroq ma'noda va uzoqroq istiqbol nuqtai nazaridan yondashilsa, ba'zan bilimning tor sohalariga taalluqli bo'lgan ko'pgina muayyan g'oyalardan yaxshiroq samara beradi.

Albatta, falsafa doim kundalik hayotdan ma'lum darajada uzoq bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Uning o'ziga xos xususiyati, betakrorligi ayni shu omilda namoyon bo'ladi. Biroq, boshqa tomondan, falsafa oddiy ijtimoiy borliq, kundalik ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy hayot amaliyoti deb nomlash mumkin bo'lgan narsalardan ham o'zini olib qochmaydi. *Falsafiy refleksiya va u bilan mushtarak bo'lgan harakatlarning mazkur yo'nalishi XX asrda hatto butun bir yo'nalish – amaliy falsafa vujudga kelishiga sabab bo'ldi.* Bunda falsafa siyosiy, ijtimoiy va boshqa qarorlar qabul qilishga muqarrar tarzda va bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb aytish mumkin emas, ammo bu holni butunlay istisno etish ham o'rinli bo'lmaydi. Biroq shu narsa aniqki, falsafa odamlar dunyoqarashini shakllantirish orqali ularning xulq-atvorini, yuqorida zikr etilgan qarorlarni ishlab chiqish jarayonida ularning yondashuvlarini ham ko'p jihatdan belgilaydi, faylasuflarning o'zlari esa ba'zan odamlar hayotini butunlay o'zgartiruvchi muhim, g'oyalar tashabbusi bilan chiqadilar.

Faylasuflar jamiyatdagi ma'naviyat va axloqning holati uchun ham sezilarli darajada javobgardirlar, zero ular nafaqat ijtimoiy me'yorlar va tamoyillarni rivojlantiradilar, ulardan dars beradilar yoki kitoblar, maqolalar orqali ijtimoiy ongini ular bilan oshno etadilar, balki aksariyat hollarda keng jamoatchilik fikrini uyg'otadigan, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy muammolar, madaniyat va ma'naviyat masalalariga doir muhokama va munozaralar tashkil etadilar.

Falsafaning ijodiy xarakteri insonning o'z qobiliyatini dunyoni bilishga va uni o'zlashtirishga yo'naltirishida namoyon bo'ladi. Falsafa jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan holda, ayni vaqtda fan bilan doim yaqin aloqada ish ko'radi. U yoki bu fan qanday muayyan muammolarni hal qilishidan qat'iy nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun vaziyatga, shu jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo zaruriy shart hisoblanadi. Muayyan fan predmetiga va uning oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng bilimning boshqa sohalarida erishilgan eng so'nggi yutuqlarni ham aks ettiradigan yaxlit yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishiga erishish ham mumkin emas.

O'z vaqtida dunyoga nisbatan (odatdagi, «klassik» fizika doirasida uzoq yillar hukm surgan yondashuvlarga qaraganda) kengroq yondashuv, masalan, A.Eynshteyn (1879-1955)ga dunyoning manzarasini tushunishga nisbatan butunlay yangicha yondashuvni taklif qilish va avvalgi fizikaning aksariyat qoidalari muayyan darajadagina haqiqiy bo'lib qolgan sharoitda klassik (Nyuton) mexanikasini ham o'z ichiga olgan «Nisbiylik umumiy nazariyasi»ni ta'riflash imkonini berdi. Ammo tabiiy bir savol tug'iladi: bu erda falsafa chindan ham ijodiy rol o'ynadimi? Agar ijodiy rol o'ynagan bo'lsa, bu nimada va qay tarzda namoyon bo'ldi?

Umumiy dalillarga to'xtalmay, Shuni qayd etishni o'rinli deb hisoblaymizki, Eynshteyn ongida o'zidan oldingi va o'zi yashayotgan davrdagi falsafa g'oyalari to'qnashdi. Ular mutafakkirning butun ijodiy faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, zero u ratsionalistik falsafaning vakillari, ularning o'tmishdoshlari va izdoshlari bilan talabalik yillaridayoq tanishgan edi. "Biz Eynshteyn ijodiga XX asr o'rtalarining fizika konsepsiyalari va kelajakka prognozlar nuqtai nazaridan, retrospektiv nazar tashlar ekanmiz, uni insoniyat ma'naviy hayoti katta bir bosqichining yakuni deb hisoblash mumkin. – Bu bosqich faqat Nyuton mexanikasi bilan boshlangani yo'q. Butun ratsionalistik fan va XVII asr falsafasi uning negizi hisoblanadi. Eynshteyn asarlari bilan tanishar ekansiz, Galiley, Dekart, Spinoza, Gobbs, Nyuton satrlarini beixtiyor eslaysiz – ba'zan g'oyalarning ajabtovur o'xshashligiga duch kelasiz. XVII asr ratsionalistik tafakkurining

nomuayyan farazlari va izlanishlari qanday qilib ijodiy, izchil shakl-shamoyil kasb etayotganining guvohi bo'lasiz. Bu erda tadrijiy aloqa mavjudligi shak-Shubhasizdir"¹.

Falsafiy tasavvurlar va tabiiy-ilmiy qarashlarni farqlash oson ish emas. Biroq falsafiy tasavvurlar tabiiy-ilmiy qarashlarga ta'sir ko'rsatgani, xuddi Shuningdek Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ibn-Sino, Mirzo Ulug'bek, I. Nyuton, A.Eynshteyn kabi buyuk olimlarning ilmiy g'oyalari zahirida ularning keng va teran falsafiy bilimlari yotishi shak-shubhasizdir. Ayni shu sababli ushbu mutafakkirlarning yaxlit falsafiy ta'limoti haqida bo'lmasa ham ularning jiddiy falsafiy qarashlari haqida to'la asos bilan so'z yuritish mumkin.

Falsafa va fan. Falsafa nafaqat fan, balki ijtimoiy hayotning boshqa, sohalari: iqtisod, siyosat, ijtimoiyot, huquq, kabilar bilan ham uzviy bog'liq. Biroq, biz falsafa va fan munosabatlarining genezisi haqida ularning birligi va farqlarini aniqlash maqsadida so'z yuritamiz. Mazkur masalani mufassalroq o'rganishga kirishar ekanmiz, avvalo ko'rsatilgan tushunchalarning asosiy ma'nolari va mazmunlarini aniqlab olamiz.

Fanning mohiyatini tushunishga nisbatan ikki asosiy yondashuv, uning keng va tor talqinlari shakllangan.

Keng (yig'ma) ma'nodagi fan – bu butun inson faoliyati sohasi bo'lib, uning vazifasi borliq haqidagi ob'ektiv bilimlarni o'rganish va ilmiy nazariy tizimga solishdan iboratdir. Bu erda "fan", "olim" tushunchalari muayyanlashtirilmaydi va umumiy, yig'ma tushunchalar sifatida talqin qilinadi. "Fan" tushunchasi falsafaga tatbiqan ko'pincha ayni shu kontekstda qo'llaniladi, faylasuflar esa olimlar deb ataladiki, bu qisman o'rindir.

Muayyan ilmiy fanlar, masalan, fizika, kimyo, biologiya, tarix, matematikani ifodalash uchun «fan» tushunchasiga torroq, binobarin, izchilroq ma'no yuklanadi. Bu erda fanga aniq ta'rif berilgan, olim esa tor mutaxassis, muayyan bilim ifodachisi hisoblanadi. U shunchaki olim emas, balki doim va albatta yo fizik, yo ximik, yo tarixchi, yo boshqa fan vakilidir. Ayni holda fan muqarrar tarzda tabiat, jamiyat, tafakkurning u yoki bu ob'ekti (hodisasi) haqidagi ilmiy bilimlarning qat'iy tartibga solingan, izchil tizimidan tashkil topadi.

Bunday fanlarning har biri faqat ularning o'zigagina xos bo'lgan maxsus qonunlar va metodlarga, mazkur fan uchun yagona bo'lgan til, kategoriyalar apparati va hokazolarga ega bo'ladiki, bu yuz bergan jarayonlarni to'g'ri tavsiflash va tushuntirish, hozirgi davrni to'g'ri tushunish va bilimlarning tegishli sohasida albatta yuz beradigan yoki muayyan sharoitda yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar yoki jarayonlarni ma'lum darajada aniq bashorat qilish imkonini beradi. U yoki bu fanning mazmuni ham, u erishgan natijalar ham barcha madaniyatlar va xalqlar uchun yagona bo'lib, ayrim olimning yondashuvi, nuqtai nazari yoki dunyoqarashiga mutlaqo bog'liq emas. Ular mazkur sohada olg'a siljish uchun o'zlashtirish lozim bo'lgan, vaqt va amaliyot sinovidan o'tgan bilimlar yig'indisi sifatida avloddan-avlodga o'tadi.

Falsafada esa qadimda donishmandlik muxlislarining son-sanoqsiz savollariga tajriba yo'li bilan olingan ba'zi bir oqilona javoblar mavjud bo'lgan. Bu javoblarni haqqoniy, ya'ni amaliyot sinovidan o'tgan, kundalik hayotda o'z tasdig'ini topgan, aniq bilim deb nomlash mumkin. Bunday javoblar masala «yopilishi», kun tartibidan chiqarilishiga sabab bo'lgan, boshqacha aytganda, aniq ta'riflangan va boshqa javoblarni istisno etgan.

Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, har qanday uchburchak burchaklarining yig'indisi 180 gradusga tengligi yoki suyuqlikka solingan jismga siqib chiqarilgan suyuqlik og'irligiga teng kuch ta'sir ko'rsatishi aniqlangani zahoti bu masalalar o'zining «ochiq» xususiyatini yo'qotgan, ya'ni ular o'zining boshqa variantlarni istisno etadigan aniq echimini topgan. Bu mazkur masalalar atrofida har qanday qo'shimcha mushohada yuritish foydasizligi tufayli o'zining har qanday ahamiyatini yo'qotganligini anglatgan. Echilgan masalalar va muammolar esa aniq, ishonchli bilim darajasiga o'tgan va shu davrdan e'tiboran o'zining falsafiy tusini yo'qotgan. XX asrda taniqli nemis faylasufi K.Yaspers bu muhim qoidani ta'riflar ekan, shak-shubhasiz asoslardan birini har kim e'tirof etgudek bo'lsa, u shu tariqa ilmiy bilishga aylanadi va

¹ Кузнецов Б.Г. Альберт Эйнштейн. Жизнь, смерть, бессмертие. – М., 1980. – 414-б.

bundan buyon falsafa hisoblanmaydi, balki bilimning muayyan sohalariga tegishli bo'radi, deb qayd etdi.

Shunday qilib, *azaldan yaxlit va bo'linmas dastlabki bilim sifatida amal qilgan falsafa zaminida o'sha zamonlardayoq amaliy xususiyat va tegishli yo'nalishga ega bo'lgan bilim sohaları faol shakllana boshladi. Shu tariqa asta-sekin tabiatshunoslik vujudga keldi, muayyan fanlar (matematika, geometriya, fizika, tibbiyot, astronomiya, tarix va boshqalar) shakllanib, o'z shaklshamoyilini kasb etdi va mustaqil tus oldi.* Ayni Shu ma'noda falsafa barcha fanlarning asosi hisoblanadi. Bu fanlar falsafadan ajralib chiqqach, keyinchalik ilmiy bilimning tabaqalanishi jarayonida ba'zan parchalanib, o'z tadqiqot predmetini yanada toraytiradi va mufassallashtiradi. Ular tahlilining teranligi va narsalar mohiyatini anglash darajasi ortsa, ayni vaqtda o'rganilayotgan masalalar doirasi torayadi.

Fan dunyoqarash shakli. Fan bilimning mustaqil sohasi, dunyoqarashning alohida shakli sifatida faqat XVII-XVIII asrlarda to'la shakllandi. Muayyan darajada shartlilik bilan Shuni aytish mumkinki, bu I.Nyuton klassik mexanikaning asosiy qonunlarini ta'riflab, Shu tariqa tabiatshunoslikning bo'limi – asoslari asrlar mobaynida shakllangan, bosh tamoyillari esa bundan Yuz yilcha muqaddam, avvalo Galileo Galiley tomonidan ta'riflangan klassik mexanikaning shakllanishiga yakun yasaganidan keyin Yuz berdi.

Fan rivojlanishining asosiy bosqichlari. *Miloddan avvalgi I ming yillikdan XVI asrgacha bo'lgan davr ilk fan davridir.* Bu davrda asrlar mobaynida avlodan-avlodga o'tib kelgan, hayot tajribasi va mehnat faoliyati jarayonida olingan amaliy bilimlar bilan bir qatorda juda umumiy va mavhum mushohadalarga asoslangan nazariyalar xususiyatiga ega bo'lgan tabiat haqidagi dastlabki falsafiy tasavvurlar (naturfalsafa) vujudga kela boshlagan. Ilmiy bilim kurtaklari naturfalsafa doirasida uning elementlari sifatida shakllangan. Matematik, astronomik, tibbiy va boshqa masalalarni echishda foydalaniladigan ma'lumotlar, usullar va metodlar jamlanishi bilan falsafada tegishli bo'limlar vujudga kelgan va keyinchalik asta-sekin shakllanayotgan ayrim fanlar: matematika, astronomiya, tibbiyot va hokazolarga ajralib chiqqan.

Jumladan, Aristotelning falsafiy asarlarida fizika, zoologiya, embriologiya, mineralogiya, geografiya kabi fanlarning kurtaklariga duch kelish mumkin. Miloddan avvalgi III-II asrlarda falsafiy bilim tarkibida statistik mexanika, gidrostatika, geometrik optika (xususan, ko'zgular haqidagi alohida fan – «katoptrika») farqlanadi va nisbatan mustaqil ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari al-Xorazmiy matematika, al-Farg'oniy astronomiya, al-Beruniy mineralogiya va geografiya, Ibn Sino tibbiyot, Mirzo Ulug'bek astronomiya, Alisher Navoiy adabiyot ilmi rivojiga munosib hissa qo'shdi va ular ijodi mahsullari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Biroq bu fanlarda ayrim tasodifiy kuzatishlar va amaliyot ma'lumotlari umumlashtiriladi-yu, lekin eksperimental metodlar hali qo'llanilmaydi, aksariyat nazariy qoidalar esa asossiz va tekshirib bo'lmaydigan spekulyasiyalar mahsuli hisoblanadi. Ammo ko'rib chiqilayotgan davrda vujudga kelgan ilmiy fanlar bu davr mobaynida falsafiy bilim qismlari sifatida talqin qilinishda davom etgan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, hatto XVII asr oxirida Nyuton o'zining fizika asoslarini yaratgan «Natural falsafaning matematik asoslari» deb nomlangan asarini e'lon qilgan. Shunday qilib, falsafadan alohida faoliyat sohasi sifatidagi fan hali mavjud bo'lmagan: u asosan falsafa doirasida, ilmiy bilimlarning boshqa manbai – hayot amaliyoti va hunarmandchilik san'ati bilan bir vaqtda va u bilan juda zaif aloqada rivojlangan.

Xullas, bu davrda Qadimgi Yunonistonda "Platon akademiyasi", Markaziy Osiyoda "Ma'mun akademiyasi" tashkil etilgan, ilmiy bilim rivojida muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsada, madaniyatning alohida shakli sifatida fan paydo bo'lishidan oldingi «embrional» davri hisoblanadi.

2. XVI-XVII asrlar – 1 ilmiy inqilob davri bo'lib, u klassik fan davri deb nomlanadi va XIX asrgacha davom etadi. U Kopernik va Galiley tadqiqotlaridan boshlanib, Nyuton va Leybnitsning fizika va matematika sohasidagi fundamental asarlari bilan o'z cho'qqisiga ko'tarilgan. Galiley vafoti (1642 yil 8 yanvar)dan so'ng oradan bir yil o'tgach Nyuton tug'ilgani (1643 yil 4 yanvar) ramziydir. Fanning bu buyuk ijodkorlari yashagan davr –kashfiyotlar hamda Yangi ilmiy

g'oyalarning mualliflari sxolastika va diniy dunyoqarash dogmatizmiga qarshi kurash olib borgan romantik davrdir.

Bu davrda hozirgi vaqt tabiatshunosligining asoslari yaratilgan. Hunarmandlar, tabiblar, alximiklar tomonidan qo'lg'a kiritilgan ayrim dalillar tizimli tahlil qilinib, umumlashtirila boshlagan. Ilmiy bilim tuzishning tabiat qonunlarini matematik ta'riflash, nazariyalarni tajribada sinash, tajribada asoslanmagan diniy va naturfalsafiy dogmalarga tanqidiy qarash bilan bog'liq bo'lgan Yangi me'yorlari va ideallari vujudga kelgan. Fan o'z metodologiyasini yaratgan va amaliy faoliyat ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni echishga tobora faolroq yo'naltirilgan.

Biroq fan o'zining Yangi metodologiyasini yaratib, amaliyot ruhi bilan sug'orilgani sari u o'z tarixiy vatani – falsafa qirg'oqlaridan uzoqlasha boshlaydi. Ko'rib chiqilayotgan davr oxiriga kelib u falsafiy, diniy, teologik aqidalardan qat'iy nazar rivojlanishi mumkin bo'lgan bilimlar tizimi sifatida tuShunila boshlaydi. Natijada fan faoliyatning alohida, mustaqil sohasiga aylanadi. Professional olimlar paydo bo'ladi, ularni tayyorlash amalga oshiriluvchi universitet ta'limi tizimi rivojlanadi. O'z faoliyati, muloqot va axborot ayirboshlashning alohida shakllari va qoidalarga ega bo'lgan ilmiy hamjamiyat vujud keladi.

XVII asrda dastlabki ilmiy akademiyalar: London qirollik jamiyati (1660), Parij Fanlar akademiyasi (1666) tashkil topadi. Keyinroq Berlinda (1700), Sankt-Peterburgda (1724), Stokgolmda (1739) va Evropaning boshqa poytaxt shaharlarida ilmiy akademiyalar ta'sis etiladi. Bu akademiyalarning eng yirigi - London qirollik jamiyati bo'lib, u tashkil etilgan paytda 55 a'zodan iborat bo'lgan. Parij Fanlar akademiyasi 21 kishidan iborat tarkibda ish boshlagan. Sankt-Peterburg akademiyasining a'zolar shtatida dastlab 11 kishi belgilangan. Evropa mamlakatlarida XVIII asr boshiga kelib olimlar soni bir necha ming kishiga etgan bo'lsa kerak, chunki ilmiy jurnallarning (bu davrda bir necha o'n ilmiy jurnallar nashr etilgan) tirajlari ming nusxagacha borgan.

3. XIX asr oxiri XX asrning 70 yillar fani noklassik fan davri deb ataladi. Bu davrda ko'plab ayrim ilmiy fanlar vujudga keladi, ularda ulkan faktik material to'planadi va tizimga solinadi. Matematika, fizika, kimyo, geologiya, biologiya, psixologiya va boshqa fanlarda fundamental nazariyalar yaratiladi. Texnika fanlari vujudga keladi va moddiy ishlab chiqarishda yanada sezilarliroq rol o'ynay boshlaydi. Fanning ijtimoiy roli ortadi, uning rivojlanishi o'sha davr mutafakkirlari tomonidan ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

XVIII asrning o'rtalarida jahonda fan bilan Shug'ullanuvchi kishilar 10 ming kishidan oshmagan bo'lsa, XIX asr oxiriga kelib olimlar soni 100 ming kishiga etadi. XVI asrda «olim odamlar»ning yarmidan ko'prog'i diniy ma'lumot olgan kliriklar edi. XIX asrda fan ijtimoiy mehnatning mustaqil tarmog'iga aylanadi va u bilan universitetlar va institutlarning maxsus fakultetlarini tamomlagan «dunyoviy» professional olimlar Shug'ullanadi. 1850 yilda jahonda mingga yaqin ilmiy jurnallar nashr etiladi, 1950 yilga kelib esa ularning soni 10 mingdan oshadi. 1825 yilda nemis kimyogari YU. Libix ilmiy laboratoriya tashkil qiladi va u olimga ko'p miqdorda daromad keltira boshlaydi. XIX asr oxiriga kelib bunday laboratoriyalar soni ko'payadi. Fan tijoratchilar, tadbirkorlar e'tiborini o'ziga tobora ko'proq torta boshlaydi. Ular olimlarning ishlab chiqarish, sanoat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarini mablag' bilan ta'minlay boshlaydilar.

4. XX asrning 70 yillarida fan rivojlanishida Yangi bosqich boshlanadi. Bu davr fani postnoklassik deb ataladi, chunki mazkur asr bo'sag'asida fanda inqilob Yuz beradi va buning natijasida u oldingi davrning klassik fanidan sezilarli darajada farq qila boshlaydi. XIX-XX asrlar chegarasida amalga oshirilgan inqilobiy kashfiyotlar bir qancha fanlarning asoslarini larzaga soladi. Matematikada to'plamlar nazariyasi va matematik tafakkurning mantiqiy asoslari tanqidiy tahlil qilinadi, bir qancha Yangi fanlar vujudga keladi. Fizikada klassik fizikaning falsafiy asoslarini qayta ko'rishga majbur qilgan fundamental nazariyalar – nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasi yaratiladi. Biologiyada genetika rivojlanadi. Tibbiyot, psixologiya hamda inson haqidagi boshqa fanlarda Yangi fundamental nazariyalar paydo bo'ladi. Ilmiy bilimning shakl-shamoyilida, fan metodologiyasida, ilmiy faoliyatning shakl va mazmunida, uning me'yorlari va ideallarida olamShumul o'zgarishlar Yuz beradi.

XX asrning ikkinchi yarmi fanni Yangi inqilobiy o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'zgarishlar adabiyotlarda ko'pincha fan-texnika inqilobi sifatida tavsiflanadi. Bu o'zgarishlar Shu bilan

bog‘liqlik, Ikkinchi jahon urushidan keyin iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda fan yutuqlari ilgari misli ko‘rilmagan miqyosda amaliyotga – sanoat, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, kundalik hayotga joriy etiladi. Fan energetikada (atom elektrostansiyalari), transportda (avtomobilsozlik, aviatsiya), elektronikada (televidenie, telefoniya, kompyuterlar) ayniqsa ulkan o‘zgarishlar yasaydi. Fanning rivojlanishi eng Yangi harbiy texnikani yaratishning asosiy omiliga aylanadi va «ikki lager»ning urushdan keyingi qarama-qarshiligi sharoitida avj olgan qurollanish poygasi yirik davlatlarni ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarga ulkan mablag‘larni sarflashga majbur qiladi.

XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida fan texnika taraqqiyoti *axborot (kompyuter) inqilobi* bosqichiga qadam qo‘ydi. Bu bosqichning o‘ziga xos xususiyati Shundaki, axborot jamiyat rivojlanishining muhim resurslaridan biriga aylandi. Shu tariqa fan bilan bog‘liq yuksak texnologiyalar, ular bilan mushtarak ta‘lim endilikda har qanday jamiyatning sivilizatsion rivojlanish darajasini belgilamoqda. Ilmiy kashfiyotlar va ularning amalga tatbiq etilishi o‘rtasidagi masofa mumkin qadar qisqaradi. Ilgari fan yutuqlaridan amalda foydalanish usullarini topish uchun 50-100 yil vaqt sarflangan bo‘lsa, endilikda bunga 2-3 yilda yoki hatto bundan ham qisqaroq vaqt ichida muvaffaq bo‘linmoqda.

Davlat ham, xususiy firmalar ham fan rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlashga katta xarajatlar qilishi tabiiy bir hol bo‘lib qoldi. Natijada XX asrning oxirida fan jadal sur‘atlarda o‘tib, ijtimoiy mehnatning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. «Katta fan» davri boshlandi. Ko‘p sonli ilmiy muassasalar ishiga son-sanoqsiz odamlar ommasi jalb qilindi. Olim kasbi kam uchraydigan kasb bo‘lmay qoldi. Hozirgi vaqtda ilmiy faoliyat o‘zlarini qiziqtirgan muammolarni echishga buning butun xavf-xatarini o‘z bo‘yniga olib qo‘l urgan ayrim mutafakkirlarning mashg‘uloti emas, balki buyurtmaga, rejali topshiriqqa binoan ishlaydigan, uni belgilangan muddatda bajarish va o‘z ishi haqida hisobot berishga majbur bo‘lgan yirik jamoalarning ishi. Hozirda ilmiy mehnat – industrial mehnatning bir turi. Fan bilan Shug‘ullanuvchi kishilar hozir «ilmiy xodimlar» deb atalishi bejiz emas.

Shuni alohida qayd etish lozimki, mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O‘zbekistonda fanning barcha sohalari rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, O‘zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi (O‘zFA) mamlakatimizning bosh ilmiy tashkiloti bo‘lib, uning tarkibida 38 ta ilmiy tadqiqot muassasalari, 4ta davlat muzeyi, 3 ta hududiy bo‘lim: Xorazm Ma‘mun akademiyasi, Qoraqolpog‘iston va Samarqand bo‘limi, 4 ta Andijon-Namangan, Buxoro, Farg‘ona, Qashqadaryo va Surxondaryo ilmiy bo‘limlari kiradi, bugungi kunda ularning moddiy texnika bazasi Yangi texnologiyalar bilan ta‘minlandi.

2007 yilning 2 oktyabrida O‘z FA “Astronomiya” institutining olimlari Maydanak baland tog‘ observatoriyasida (Qashqadaryo vil.) B.Xafizov hamda A.Sergeevlar tomonidan topilgan kichik sayyora Prezidentimiz Islom Karimovning taklifiga ko‘ra fan, jumladan, astronomiya ilmida olimu fuzalolarga doimo boy bo‘lib kelgan qadimiy shahar “Samarqand” nomi bilan ataldi va u AQSHning “Garvard kichik sayyoralar” forumida “210271” raqami bilan ro‘yxatga olindi, hamda O‘zbekistoniya, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Beruniy, al-Xorazmiy kabi kichik sayyoralar qatoridan o‘rin oldi.

(Astronom G. Neyman tomonidan 1934 yil 5 oktyabrda Silize (Qrim) shaxrida kashf etgan Yangi kichik sayyora o‘zining ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarini Mirzo Ulug‘bek nomidagi Astronomiya instituti bo‘limi bo‘lgan Kitob xalqaro kenglik stansiyasida olib borganligi uchun O‘zbekistoniya nomini bergan.

1973 yil 26 sentyabrda Qrimlik astronom Lyudmila CHernix tomonidan kashf etilgan Yangi sayyora buyuk olim, tabib, faylasuf Abu Ali ibn Sino nomi bilan atalgan.

1977 yil 21 avgust kuni Qrimlik astronom Nikolay CHernix tomonidan kashf qilingan kichik sayyora davlat arbobi va Yuzduzlar ilmining bilimdoni Mirzo Ulug‘bek nomi bilan atalgan.

1986 yil 8 avgustda Bolgariya Milliy astronomik observatoriyasida Valter hamda Violeta Ivanovlar tomonidan topilgan sayyora minerolog, tarixchi, geograf, matematik, faylasuf Beruniy nomi berilgan.

1997 yil 31 dekabrda Louella observatoriyasining (Prescott, Arizona shtati, AQSH) raxbari astronom Pol Komba tomonidan kashf qilingan sayyora esa ilm fan oldidagi buyuk xizmatlari uchun matematik asoschisi Al – Xorazmiy nomi bilan atalgan.

Fan va falsafaning mutanosibliigi. *Fan rivojlanishning yuksak darajasiga erishgan bo'lsa-da, lekin amalda falsafa bilan uzviy bog'liq bo'lib qolmoqda. Ular faol o'zaro ta'sirga kirishib, bir-birining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Bu hol Shu bilan izohlanadiki, falsafa daliliy materialga, sinovdan o'tgan ilmiy ma'lumotlarga tayanib, o'zining mavhum g'oyalarini borliq bilan taqqoslash imkoniyatiga ega, fan esa, dalillarni qayd etish va tavsiflash bilan cheklanmay, yanada asosliroq xulosalar chiqarish imkoniyatini qo'lga kiritadi. XXI asr boshiga kelib jahonda olimlar soni qariyb olti millionga etdi, taxminan Shuncha odam fanga xizmat ko'rsatuvchi mehnat bilan band (laborantlar, texniklar, nashriyotlarning xodimlari va h.k.). Erda qadim zamonlardan boshlab to XXI asrning boshiga qadar yashagan olimlarning umumiy sonini olsak, ularning o'ndan to'qqiz qismi bizning zamondoshlarimiz ekanligi ayon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy xodimlar soni mehnatga qobiliyatli aholining qariyb 10% ni tashkil qiladi, fanni ta'minlashga milliy daromadning 5% dan ko'prog'i sarflanadi.*

Hozirgi zamon fani jamiyat, texnika, iqtisodiyot, madaniyat, turmush va kundalik hayotni yo'lga soluvchi qudratli kuchga aylandi. Ayni vaqtda odamlar bugun fanning qudratinigina emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan xavflarni ham yaxshi anglaydilar. Hozirgi dunyo o'z yutuqlari va o'zining jo'shqinligi uchun fan oldida mas'uliyatli. Ammo ilmiy haqiqat o'z holicha odamlarning ehtiyojlariga befarq. U beparvo va rahm-shafqatsiz, chunki u uchun inson omili ikkinchi darajali. Ammo, I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda, “Kuch – bilim va tafakkur”⁷¹ da bo'lsa, bu kuch ortib borgan sari insoniyatga ziyon etkazmaslik uchun undan yanada ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur.

Shuni tan olish lozimki, hozirgi zamonda jamiyat ko'p jihatdan fanning ulkan yutuqlari tufayli o'zini o'zi yo'q qilish yoqasiga kelib qoldi. Bu ilmiy taraqqiyotni to'xtatish kerak, degani emas. Ammo ilmiy izlanishni insoniy, axloqiy munosabatga bo'ysundirish va balki uning qaysidir yo'nalishlarini cheklash zarurligi to'g'risidagi masala kun tartibiga qo'yilmoqda. Ilmiy izlanishning insonparvarlaShuvi, uning yo'llari va oqibatlariga axloqiy munosabat – bu davrimizning muhim muammolaridir.

Ayni shu hol falsafa bilan ham, undan muayyan fanlar ilgari falsafiy tusga ega bo'lgan tadqiqot predmetlari bilan ajralib chiqqanida Yuz berishini taxmin qilish o'rinli bo'ladi. Biroq, bunday hol Yuz berayotgani yo'q. Tarix fan falsafadan qancha ko'proq ajralsa, unda Shuncha ko'proq masala va muammolar paydo bo'lishini, ya'ni falsafa nafaqat kamaymasligi, balki, aksincha, ko'payishini ko'rsatadi. Buning sababi nimada? Bu savolga javobni fan va falsafaning o'ziga xos xususiyatlaridan, ularni alohida-alohida tavsiflovchi masalalar va ularning echimlari o'rtasidagi tafovutdan qidirish, o'rinli bo'ladi.

Fan faqat o'zi olgan haqqoniy bilimlarga va muayyan natijalarga tayanishi unda o'z muammolari va «ochiq» masalalari mavjud emasligini anglatmaydi. Biroq aniq, shak-Shubhasiz javoblarga ega bo'lmagan falsafiy masalalardan farqli o'laroq, ilmiy masalalar bilimdonlik qilishni emas, balki puxta o'ylashni talab qiladi, zero ular pirovardida dastlabki taxminlarni rad etuvchi yoki ishonchli bilimlar doirasini kengaytirib tasdiqlovchi muayyan echimlar olish real yoki potensial imkoniyatiga egadir. Shu tariqa vujudga keladigan fanlar qaynayotgan suvdagi ko'piklar kabi kattalashib, falsafiy mushohada yuritish jabhasini, anglab etilgan narsalar anglanmagan narsalar bilan Yuzma-Yuz keluvchi sohani ham kengaytiradi, chunki tabiatShunoslik doirasida javob berishning iloji bo'lmagan Yangi masalalarni Yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda eski falsafiy muammolardan Yangi falsafiy jumboqlar sari o'tilmoqda. “Xudo bormi?”, “Haqiqat nima?”, “Ruhning tabiati qanday?” qabilidagi falsafiy masalalarni aniq va uzil-kesil echish mumkin emas, balki ularni echishning umuman iloji yo'qdir, shu bois bu savollar ham javobsiz qolmoqda.

⁷ Каримов И. А. Жамиятимиз мафкуриси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. 7-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –Б.98

Nima uchun “balki”? kabi savollar shuning uchunki, qadimda donishmandlarni bugungi kun nuqtai nazaridan mutlaqo falsafiy bo‘lmagan va tom ma’nodan falsafiy sanalgan masalalar qiziqtirgan. Misol uchun: “Yulduzlar kunduzi, quyosh esa – tunda qaerga yo‘qoladi?”, “Nima uchun ayrim jismlar suvda cho‘kadi, ba’zi jismlar esa suvda suzadi?”, “Chopqir Axilles sudralib borayotgan toshbaqaga qanday etishi mumkin, basharti har safar ularning o‘rtasidagi masofani bosib o‘tish uchun u mazkur masofaning teng yarmidan o‘tishi lozim bo‘lsa?” va h.k. va sh.k. Biroq bu va Shunga o‘xshash masalalar falsafadan tabiatshunoslik sohasiga o‘tgach, ko‘pincha Yangi va Yangi falsafiy muammolarni Yuzaga keltiradi. Masalan: Er va boshqa sayyoralarni, ayni bir yo‘nalishda aylantirgan kuch qaerda? Agar bizning quyoshimiz o‘rtacha kattalikdagi yulduz bo‘lsa, unga o‘xshagan milliardlab yulduzlarning hech bo‘lmasa ayrimlari bizning Erimizdagiga o‘xshash hayot mavjud bo‘lgan yo‘ldoshlarga ega bo‘lishi mumkinmi? Inson hatto eng yaqin yulduzlarga etishi uchun nafaqat inson hayoti, balki uning sivilizatsiyasi tarixidan ham ko‘proq vaqt talab etilar ekan, buni qanday qilib isbotlash yoki rad etish mumkin? Nihoyat, biz kuzata oladigan olam kengayib borayotgan bo‘lsa, bu harakat zamirida qanday sabablar va kuchlar yotadi? Bu va boshqa ko‘pgina Shunga o‘xshash muammolar odamlarni falsafaga qayta va qayta murojaat etishga majbur qiladi, chunki fan hozircha bunday savollarga aniq javob berishga qodir emas. *Aksildunyolar va aksilgravitatsiya, qora materiya va qora energiya, boshqa makon va vaqt o‘lchovlaridagi dunyolar haqidagi har xil falsafiy g‘oyalarning mavjudligi ayni Shu hol bilan izohlanadi.*

Shunga qaramay, fan va falsafaning roliga baho berishda ayrim qarama-qarshiliklar mavjud. Xususan, ba’zi bir ilmiy va falsafiy davralarda fanning roli va ahamiyatini mutlaqlashtiruvchi yondashuv mavjud bo‘lib, u “ijobiy”, “foydali” bilim sifatida fanni “mavhum” va “tajribaga asoslanmagan” falsafaga qarshi qo‘yadi. Bunday qarashlar ssientistik deb, nazariy tafakkur yo‘nalishi esa – ssientizm (lot. scientia va ingl. science – fan, bilim) deb ataladi. **Csientizm fan texnika taraqqiyotining ijobiy jihatlarini mutlaqlashtiradi. Antissientizm falsafiy bilishni ilmiy bilishdan ajratadi, uni ilmiy bilish bilan muvofiq emas, deb e’lon qiladi, u oqilonalikni kamsitadi va mistika, intuitsiya, iroda va Shu kabilarni mutlaqlashtiradi.**

Falsafa va fanning umumiy jihatlari shundaki, ular:

-avvalo aqlga tayanadi va oqilona bilimni yaratishga harakat qiladi;
-o‘rganilayotgan ob’ektlar va hodisalarning qonunlari va qonuniyatlarini aniqlashga qarab mo‘ljalladi;

-kategoriyalar apparatini (o‘z tilini) yaratadi, o‘zlari ilgari surgan qoidalarni asoslaydi, ularga dalil-isbot keltiradi va yaxlit tizimlarni yaratishga harakat qiladi.

Falsafa va fan o‘rtasidagi farq shunda namoyon bo‘ladiki:

falsafa doim u yoki bu faylasuf nomi bilan bog‘lanadi, bunda uning g‘oyalari, asarlari bo‘lishi va ularga boshqa faylasuflar qo‘shilishi yoki qo‘shilmasligiga bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Fan esa, mohiyat e’tibori bilan, jamoa mehnati mahsulidir;

-falsafada (muayyan fanlardan farqli o‘laroq) yagona til va yagona tizim mavjud emas. Bu erda fikrlar rang-barangligi me’yor sanaladi. Fanda esa monizm hukm suradi, chunki hech bo‘lmasa fanning u yoki bu muayyan sohasidagi asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi (til)ga nisbatan yondashuvlar birligi albatta mavjud bo‘ladi;

-falsafa ilmiy bilimlar va dalillardan keng foydalanadi, biroq uning uzil-kesil xulosalari ishonchli deb hisoblanishi mumkin emas, zero ular asosan faylasuflarning sub’ektiv fikrlari va mulohazalariga asoslanadi. Fan esa mohiyat e’tibori bilan isbotlangan va sinashta bilimlar olishga harakat qiladi, bunda olingan bilimlarni tekshirish yoki rad etish imkoniyatining mavjudligi bu bilimlar haqiqiyliги va ilmiy jihatdan asosligining muqarrar sharti hisoblanadi;

-falsafiy bilimlarni tajribada sinash mumkin emas (aks holda ular ilmiy bilimlarga aylanadi);

-falsafa aniq prognoz bera olmaydi, ya’ni u ishonchli bilimlarni kelajakka tatbiq etishga qodir emas, zero unda bunday bilimlar yo‘q. Ayrim faylasuf falsafiy qarashlarning muayyan tizimi yordamida faqat bashorat qilishi mumkin, lekin u olim kabi prognoz qilish yoki modellashtirishga qodir emas.

Falsafaga milliylik xos, fan esa jamoa mehnati mahsuli sifatida dunyoviy ahamiyatga ega.

Hozirgi dunyoda falsafaning ahamiyati. Bugungi kunda, tezliklar va yuksak texnologiyalar asrida falsafa kerakmi, u eskirgani yo‘qmi? Uzluksiz axborot oqimi va surunkali vaqt tanqisligi sharoitida muayyan bilim falsafani siqib chiqarmaydimi? Bunday savollar mutlaqo o‘rinlidir, lekin ularga javobni hayotning o‘zi beradi, u hozirgi zamon odami oldiga ko‘p sonli, shu jumladan ilgari hech qachon mavjud bo‘lmagan, butunlay Yangi falsafiy muammolarni qo‘yadi.

Jahon hamjamiyati III ming yillikning boshlanishini, biosfera holati va Erda hayotning davom etishi uchun o‘z javobgarligini tobora teranroq anglagan holda qarshi oldi. Ayni shu sababli insonning barkamol rivojlanishi, odamlar, xalqlar o‘rtasida, Shuningdek jamiyat va tabiat o‘rtasida insoniy, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatish masalalari azaliy falsafiy mavzular bilan bir qatorda falsafiy tadqiqotlarda birinchi o‘ringa chiqmoqda. Shu munosabat bilan faylasuflar avvalo Er yuzida ta‘limning holati va rivojlanish darajasidan qattiq tashvishda ekanliklarini bildirmoqdalar. Ko‘pgina faylasuflar fikriga ko‘ra, hozirgi muammolarning aksariyati zamirida aynan qoniqarsiz ta‘lim va lozim darajadagi tarbiyaning yo‘qligi yotadi. Bu muammolarni echishda falsafa ham o‘z rolini o‘ynashi lozim.

Falsafa dunyoni anglash usuli sifatida. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati falsafaga, o‘zining hayotdagi o‘rni va vazifasini falsafiy anglab etishga ayniqsa muhtojdir.

Falsafa real hayot bilan uzviy bog‘liq va doim inson borlig‘ining eng muhim muammolarini anglab etishga qarab mo‘ljal oladi. Ayni shu sababli hozirgi davrning muhim muammosi – globallashuv va uni falsafadagi butunlay Yangi mavzu sifatida falsafiy anglab etish muhim ahamiyatga ega. Falsafa predmeti va muammolarini muhokama qilishda alohida diqqatga loyiq bo‘lgan boshqa bir mavzu insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol toptirishda falsafaning roli va ahamiyatidir.

Hozirgi zamon faylasuflari bunday muammolarni echish ustida ishni davom ettirar ekanlar, “Falsafa nima? U kimga va nima uchun kerak?”, “Falsafaning vazifasi nimadan iborat?”, “Falsafadan qanday, qaysi yoshdan va nima maqsadda tahsil berish lozim?” qabilidagi bir qarashda allaqachon o‘z echimini topgan masalalarni yana kun tartibiga qo‘ymoqdalar. Bu haqda ko‘p va atroflicha so‘z yuritilgan jahon kongresslari dunyoda falsafa predmetiga, Shuningdek u ijtimoiy rivojlanishga izchil ta‘sir ko‘rsatishga qodir yoki qodir emasligiga, agar qodir bo‘lsa, buni u qay tarzda amalga oshirishi mumkinligiga nisbatan yagona yondashuv avvalgidek mavjud emasligini tasdiqlaydi. Fikrlarning bunday rang-barangligi, yuqorida qayd etib o‘tilganidek, falsafaning o‘ziga xos xususiyati, ya‘ni u fikrlar plyuralizmi, har xil fikrlash imkoniyati bor joydagina mavjud bo‘lishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Falsafaning unga yaxlit ta‘limotga aylanish va tilning birligiga, umumiy qonunlar va metodologiyaga tayanish imkonini bermaydigan bu kamchiligi ayni vaqtda, u fanlararo kompleks muammolarni echish talab etiladigan murakkab tizimlar bilan ish ko‘rgan holda uning afzalligiga aylanadi.

Quyidagilar hozirgi vaqtda insoniyat uchun eng muhim fanlararo kompleks muammolar hisoblanadi: barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash; ekologiya muammolari; jamiyat hayoti barcha jabhalarining globallashuvi. Bu muammolarni falsafiy nuqtai nazardan anglab etish alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy yondashuvlardan farqli o‘laroq, muammoga nisbatan falsafiy yondashish dalillarni talqin qilishda ko‘proq erkinlik berilishi, ilgari surilayotgan qoidalarni isbotlashga nisbatan engilroq talablar qo‘yilishi, mushohadaga asoslangan ta‘riflar berish, sub‘ektiv baholash huquqi va Shu kabilar bilan tavsiflanadi. Bunday tadqiqotlar bir qarashda uncha katta ahamiyatga ega emasdek bo‘lib tuyulishi ham mumkin. Lekin amalda bunday emas.

Birinchiidan, falsafiy tadqiqot oqilona bilishning fanda olingan natijalarni tekshirish (verifikatsiya qilish) yoki rad etish (falsifikatsiya qilish) imkoniyati yo‘qligi tufayli lozim darajada samara bermagan yoki umuman ojiz bo‘lib chiqqan sohasida amalga oshiriladi. Insoniyat oqilona bilishning bundan boshqa usullariga ega emas.

Ikkinchiidan, falsafiy refleksiya muammoni ko‘rish ufqini kengaytiradi, uni tadqiq etishga nisbatan Yangicha, o‘ziga xos yondashuvlarni taklif qiladi, Shu jumladan fanga bunday yondashuvlarni ilgari surishga ko‘maklashadi. Zero, aniq ta‘riflar va ishonchli dalillarga

tayanadigan fan o'z fikrlari va xulosalarida bunday erkinliklarga yo'l qo'ya olmaydi. Vaholanki, falsafiy tafakkur mulohaza yuritish va baholashlarga nisbatan erkin yondashuvsiz o'zining betakrorligini yo'qotadi.

Hamonki plyuralizm falsafada me'yor hisoblanar, har bir alohida miyada esa monizmga, ya'ni qarashlarning tartibga solingan, yaxlit va nisbatan ziddiyatlardan xoli tizimiga kelish lozim ekan, falsafani qanday o'zlashtirish, undan qanday saboq berish mumkin?

Butun dunyoda aksariyat faylasuflarni birinchi navbatda ayni shu masala qiziqtiradi. Xususan Suqrot, Seneka va o'tmishning boshqa mutafakkirlari tajribasiga tayangan holda: *Falsafa faktlarni eslab qolishni o'rgatmasligi, balki mulohaza yuritish va savollarga javob berish qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Falsafadan saboqlar inson har bir masala Yuzasidan mutafakkirlar fikriga murojaat etmasdan, o'zi mustaqil o'ylashni va o'z aqliga quloq solishni o'rganishini nazarda tutmog'i darkor. Ayni Shu sababli falsafaning vazifasi insonga muloqot qilishni o'rgatish, u o'z shaxsiyatining ahamiyatini ko'rsatishga emas, balki haqiqatning tagiga etishga harakat qilishiga erishishdan iborat. Bu, o'z navbatida, barcha odamlar o'ziga atrofdegilar quloq solishiga loyiq ekanligini nazarda tutadi.*

Bu juda topib aytilgan so'zlar falsafani fan sifatida o'rganish, uni *bilimlar, tayyor qoidalar va ta'riflarning muayyan yig'indisi sifatida o'zlashtirish mumkin emas, degan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Insonga ta'lim berishda paydeyya yo'lini tanlash – unga «nimani ko'rish lozimligi»ni emas, balki «qaerga va qanday qarash kerakligi»ni o'rgatish lozim.* O'z-o'zidan ravshanki, mazkur vazifani ijodiy yondashuvsiz, o'quvchi va o'qituvchining qiziquvchanligi va intiluvchanligisiz hal qilib bo'lmaydi, falsafa esa o'zining sof ko'rinishida yo'qoladi, «havoga sovuriladi», pirovardda kimdir bayon etadigan, kimdir “o'tishi”, o'rganishi va qolaversa, imtihon topshirishi lozim bo'lgan “fan”gina qoladi. Boshqacha aytganda, falsafadan ta'lim berish va uni o'zlashtirish zamirida ham, albatta ijod yotishi lozim.

Xulosalar. Dunyoqarash bu insonning dunyoga, undagi voqealarga munosabatlari, undagi o'rni va hayot mazmuni haqidagi eng umumiy qarashlari tizimi.

Insoniyat tarixida dastlab mifologik dunyoqarash shakllangan bo'lib, unda inson atrof muhit bilan birlashadi hamda na tabiat va na o'z urug'idan ajralmagan holda namoyon bo'ladi. Diniy dunyoqarashga olamni bu dunyo, u dunyo va g'ayri tabiiy dunyoga bo'lish xos. Dinning asosi g'ayritabiiy kuchlarga ishonch bilan yo'g'rilgan.

Falsafa mifologik va diniy dunyoqarashdan o'zining atrof muhitga tanqidiy munosabati asosidagi dunyoqarashli funksiyasini bajaradi, gnoseologik va ontologik kategoriyalarga murojaat qilib mantiqiy xulosalar chiqaradi.

Falsafa nazariy asoslangan dunyoqarash, umumiy kategoriyalar, insonning olamga fanning tabiat va jamiyat haqidagi yutuqlariga tayanilgan nazariy munosabati .

Falsafaning ahamiyati, uning insonni o'z- o'zini, olamni anglashga, ijodiy barkamollikka yo'naltira olishidadir.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qanday muammolar falsafiy muammolar deb ataladi?
2. Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos jihatlarini ayting.
3. Dinning asosiy funksiyalari qaysilar?
4. Falsafiy dunyoqarashning mifologik va diniy dunyoqarashdan asosiy farqi nimada?
5. Falsafa nimani o'rgatadi?
6. Falsafa va fanning o'zaro nisbati qanday?
7. Dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllarini ta'riflang.
8. Falsafa tarixini o'rganish qanday maqsadni ko'zlaydi?

1.2 - Mavzu: Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari:

Sharq falsafasi

1. Qadimgi Misr, Bobil, Xindiston va Xitoyda falsafiy qarashlarning rivojlanishi.
2. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy qarashlari. Avesto va Zardo'shtiylilik.
3. IX – XII asrlar Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri falsafasi va tabiiy – ilmiy bilimlarning rivojlanishi. Islom dini va tasavvuf.
4. Amir Temur va temuriylar davri falsafiy qarashlari.
5. O'rta Osiyo honliklar davri va Chor Rossiyasi, Sobiq Ittifoq davrida falsafiy qarashlar. Jadidchilarning Turkistonni rivojlantirishga bo'lgan falsafiy qarashlari.
6. Mustaqillik davri O'zbekistonda falsafa ilmini rivojlanishi

1. Sharq - insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'chog'i va jahon sivilizatsiyasining beshigi deya bejiz ta'riflanmagan. Farb madaniyati tarixini o'rganish jarayonida Ovrupotsentrizm nazariyasiga og'ib ketish g'ayriilmiy bo'lgani kabi, masalaning Sharq bilan bog'liq jihatini tahlil etganda ham Osiyosentrizm g'oyalari ta'siriga tushmaslik lozim.

Shu bilan birga, Sharqning o'ziga xosligi, unga mansub bo'lgan madaniy taraqqiyot jahon sivilizatsiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo'shilgan munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Qolaversa, Vatanimiz sivilizatsiyasining Sharq sivilizatsiyasi quchog'ida voyaga etgani va uning qadriyatlarini o'zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta'sir ko'rsatganini doimo esda tutish darkor.

Sharq madaniyati taraqqiyotining ilk davrlari deganda, ko'pgina mutaxassislar bizning Vatanimiz o'tmishini, Misr, Bobil va insoniyat tarixining eng qadimgi sivilizatsiyalaridan biri bo'lgan Shumer davrlarini esga oladi. Bularning har biri insoniyat tarixida jamiyat hayoti, qadriyatlar tizimining o'ziga xosligi, boshqarish va iqtisodiy jarayonlarning muayyan tarzda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu madaniyat o'choqlari haqida maktab ta'limi jarayonida «Eng qadimgi tarix» darsliklari orqali ma'lumot berilgan. Zukko kursanlar o'sha davrlarda qanday siyosiy jarayonlar kechgani, qanday podsholik va imperiyalar bo'lganini yaxshi biladi. Biz bugun o'sha davrlardagi falsafiy dunyoqarash, qadimgi ajdodlarimizning fikr-mulohazalari, o'ziga xos ta'limotlarining asosiy tamoyillari bilan yaqinroq tanishmoqchimiz. Ko'hna Sharq sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lgan Misr, qadimgi zamonda ilk o'troq hayot va o'ziga xos dehqonchilik an'analari boshlangan Nil daryosi bo'ylaridagi madaniyat dunyo olimlari diqqatini tortib keladi.

Qadimgi Misr va Bobil falsafasi. Eramizdan avvalgi to'rtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar, ya'ni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar birmuncha rivoj topgan. Tabiiy-ilmiy, diniy-falsafiy fikrlarning Yuzaga kelishi ikki yo'nalishda borgan. Birinchi yo'nalish olam haqidagi tasavvurlarning astronomiya, kosmologiya, riyoziyot fanlari rivoji bilan bog'liq ekanini, ikkinchi yo'nalish esa, bu tasavvurlarning mifologiya bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Birinchi holda, asosan, tabiiy bilimlarga tayanilgan, kundalik hayotda duch kelinadigan voqea-hodisalar aniq dalillar asosida tahlil etilgan, o'rganilgan, ulardan tegishli xulosalar chiqarilgan. Bu - o'sha davr uchun tabiiy hol edi, ya'ni u - davrning inson ongida aks etishi, kundalik turmush hodisalarining oddiy bir tarzda ifodalanishi edi. Aynan ana Shu hol tabiiy bilimlar rivojiga, garchand sodda tarzda bo'lsa-da, aksariyat hodisalarning falsafiy asosda izohlanishiga sabab bo'lgan.

Ikkinchi holatda esa, hali tabiat kuchlarining qarshisida nihoyatda ojiz bo'lgan odamzod, albatta, tevarak atrofdagi voqea-hodisalarni mifologik izohlashi tabiiy bir hol edi. Shu bilan birga, odamning mavjudlik xossalarini va olam qonuniyatlarini ilmiy tushunish ko'nikmasi hali shakllanib ulgurmagani o'sha qadim zamonlarda, afsona hamda rivoyatlarga asoslanib fikr yuritmaslikning imkoni ham yo'q edi. Bu - o'sha davrlardan qolgan yozma manbalarda, xususan, «Xo'jayinning o'z quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbat», «Arfist qo'shig'i», «O'z hayotidan hafsalasi pir bo'lgan kishining o'z joni bilan suhbat» kabi bitiklarda yaqqol namoyon bo'lgan. Ularda hayotning, umrning mazmuni, o'sha davrdagi odamlarga xos tuyg'ular bayon qilingan.

Qadimgi Misr va Bobilda shakllangan falsafaning eng asosiy xususiyati Shundan iborat ediki, ularda, bir tomondan, xudolarga ishonch, ilohiy kuchlarning tabiat va jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirini mutloqlashtirish xususiyati ustuvor bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, afsona va rivoyatlar tarzida bo'lsa-da, dunyoviy bilimlar, ilmiy qarashlar ham asta-sekin shakllana boshlagan. umuman, bunday xususiyatni, qadim zamondagi barcha sivilizatsiyalarga xos deyish mumkin.

2. Qadimgi Sharq falsafasi va uning milliy yo'nalishlari.

Yahudiylik dini. O'sha davrda eng qadimgi Sharq xalqlaridan biri yahudiylarning milliy mafkurasi — iudaviylik shakllana boshlagan. Bu din, asosan, ana Shu millatga mansub kishilar o'rtasida yoyilgan bo'lib, eramizdan avvalgi ikki minginchi yillar boshida Falastinda vujudga kelgan. «**Zabur**» va «**Tavrot**» kabi muqaddas kitoblar bu dinning asosiy manbalaridan hisoblanadi.

Yahudiylik yahudiy va *Falastin xalqlarining ba'zi e'tiqodlarini o'zida aks ettirgan dindir. Eramizdan avvalgi X-VI asrlarda yahudiylik monoteistik (yakka xudolikka ishonish) dinga aylanib*, olamni yaratuvchi **YAhve** xudosa e'tiqod qilish uning asosiy tamoyili hisoblangan. Bu dinda **Muso alayhissalom** — *payg'ambar, «Tavrot» xudo tomonidan unga yuborilgan ilohiy kitob ekani*, qiyomat kunida barcha birdek tirilishi, jannat va do'zaxning mavjudligi, gunohkorlar jazosiz qolmasligi, savobli ishlarni qilganlar u dunyoda rag'batlantirilishlari haqidagi qarashlar ilgari surilgan.

Ko'p yillik tadqiqotlar Shuni ko'rsatadiki, yahudiylik Sharq xalqlaridan biri — yahudiylarning milliy dini bo'lgani bois, ana Shu qit'ada yashovchi boshqa xalqlarga xos bo'lgan ko'pgina diniy qarashlari bilan ham bir qadar mushtarakliklarga ega. CHunonchi, uning zardo'shtiylik bilan o'xshash jihatlari ham yo'q emas. Masalan, «Tavrot» va «Avesto»dagi aksariyat qonunlar, diniy-falsafiy kategoriyalar o'rtasida yaqinlik ko'zga tashlanadi. Umuman olganda esa, barcha dinlar orasida ilohiy qadriyatlarini mutloqlashtirish, xudo g'oyasini muqaddaslashtirish, bu dunyo va u dunyo bilan bog'liq qarashlarga ko'proq e'tibor berish kabi o'xshash jihatlari uchraydi.

Hindiston falsafasi. Qadimgi Hindistonda falsafaning vujudga kelishi taxminan uning hududida quldorlik davlatlari shakllana boshlagan miloddan avvalgi I ming yillikda Yuz bergan. Qadimgi Hindiston ham insoniyat madaniyatining beshiklaridan biridir. Unga xos dastlabki ta'limotlar yozma manba — «Veda»larda o'z aksini topgan. «Veda»lar eramizdan bir yarim ming yil oldin yozilgan bo'lib, *mutaassib dindor hindu uchun oliy muqaddas ilm va bashorat kitobidir.* Hindular «Veda»ni oliy tangri **Braxma** tomonidan aytilgan so'zlar deb biladi. «Veda»da hindularning qadimgi tarixi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, axloq va nafosatiga oid fikrlari aks etgan. «Veda»lar bizgacha to'rtta to'plam (samxitlar) shaklida etib kelgan. Bular — «**Rigveda**», «**Samaveda**», «**Yajurveda**», «**Adxarvaveda**»dir.

«**Rigvedalar**» taklif qilgan aksariyat kategoriyalar: *in* – ayollik asosi va *yan* – erkaklik asosi, ularning *efir* bilan birikmasi – *si*; yoki narsalarga besh moddiy birinchi asos – **er, suv, havo, olov** va daraxtning birikmasi sifatida yondashish tabiiy bir hol sifatida qaraladi. Hayot va o'lim, jon va jismoniy tana, jon materiyasi, ong va uning holatlari kategoriyalari ayniqsa ko'p muhokama qilinadi. **Sansara** – jonning qayta gavdalanishi, o'zga shakl-shamoyilda namoyon bo'lishi, **karma** – inson o'limidan keyin tiriklik paytida qilgan ishlariga yarasha mukofot yoki jazo olishi yoki insonning individual taqdiri, **askeza** – o'zini o'zi cheklash yo'li bilan g'ayritabiiy qobiliyatlarga erishish, **nirvana** – eng yuksak holat, inson erishishni ko'zlagan oliy maqsad, *«materiya kishanlaridan xalos bo'lgan jon holati»* kabi tushunchalar kiritilgan. Albatta, Sharq falsafasi **harakat, qarama-qarshilik, birlik, materiya, ong, makon, vaqt, dunyo, substansiya** kabi odatdagi falsafiy kategoriyalardan ham foydalanadi.

Hind falsafasi asoslari «**Upanishadalar**» nomi bilan mashhur bo'lgan manbalarda ham o'z aksini topgan. «Upanishadalar» sirli bilim degan ma'noni anglatib, «Veda»larning falsafiy qismini tashkil etadi. «Upanishadalar» yaxlit kitob yoki falsafiy risola bo'lmay, balki turli vaqtda turli mavzuda ijod etgan noma'lum mualliflarning matnlaridan iboratdir. Ularning mazmuni va uslubi har xil va turlicha falsafiy qarashlar mahsulidir. «Upanishadalar»dagi falsafiy mavzular, asosan, insonni o'rab turgan borliq, uning hayotdagi o'rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiati, uning

hayoti va ruhiyatining mohiyati, bilish imkoniyatining chegaralari, axloq me'yorlari haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniy-mifologik nuqtai nazardan bayon etilgan.

«**Upanishada**»da deyarli har qanday hodisa harakat va qarama-qarshilik nuqtai nazaridan qaraladi. Braxman ikki qiyofa: jismoniy va jismsiz, o'ladigan va o'lmas, harakatsiz va harakatchan ko'rinishlarga ega. «Upanishada»da Atman – bu ham tana, ham individual jon. Braxman va atman bir-biri bilan o'zaro bog'liq «Hamma narsa Braxman, Braxman esa atmandir», deyiladi. Atman o'zgaruvchan, uning turli holatlari mavjud: uyg'oqlik; tushli uyqu; tushsiz uyqu; turiya (atman hech narsani his qilmaydigan, o'z-o'ziga teng bo'ladigan holat).

Qadimgi hind falsafiy maktablar ikki guruhga bo'linadi. Hindistonlik faylasuflar bu guruhlarni astika va nastika deb ataydi. Vedanta, sankxya, yoga, vaysheshika, n'yaya va mimansa — astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablar. Ushbu maktablarning tarafdorlari «Veda»ning muqaddasligini tan olib, birdan-bir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. CHorvaka-lokayata, buddizm va jaynizm — nastika guruhiga kiradi.

CHorvaka-lokayata tarafdorlari materialistik ta'limotni ilgari surganlari uchun «Veda»ning muqaddasligini tan olishmaydi hamda olam ilohiy kuch tomonidan yaratilmagan, «Veda» haqiqiy bilim bermaydi, deb ta'kidlashadi. Buddizm va Jaynizm diniy-falsafiy maktablar bo'lishiga qaramay, ular ham «Veda»ning muqaddasligini tan olmagan. Sankxya qadimgi Hindistondagi dualistik falsafiy maktab bo'lib, olam asosida moddiy unsur (prakriti) modda va ruh (purusha) yotadi, deb hisoblaydi. Bu yo'nalishga, asosan, olamdagi barcha narsalar ikki unurning turli teng miqdorda (proporsiyada) birikishidan Yuzaga keladi, olam sababiyat orqali rivojlanadi, olamda uchta sabab mavjud, deyiladi. Ular quyidagilardir: moddiy sabab, yaratuvchi sabab, aloqador bo'lmagan sabab. Bu falsafiy maktab haqida buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» asarida atroflicha fikr yuritgan.

Qadimgi Xitoy falsafasi. Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o'ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo'jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa, urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo'liga o'tgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda tuShuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Xitoyda falsafa jamiyatning sinfiy tabaqalanish jarayoni boshlangan, chunonchi: jamoalar kasodga uchrab, Yangi er mulkdorlari va shahar boylarining iqtisodiy va siyosiy qudrati osha boshlagan miloddan avvalgi VI-V asrlarda vujudga kelgan

Miloddan avvalgi V asrda vujudga kelib, Xitoydagina emas, balki boshqa Sharq mamlakatlarida ham keng tarqalgan konfutsiychilik diqqatga sazovordir. Uning ayrim konsepsiyalari hanuzgacha tirik. Masalan, «syao» yoki ota-onani hurmat qilish, kattalarga izzat-ikrom ko'rsatish konsepsiyasi yosh jihatidan ham, ijtimoiy ierarxiya bo'yicha ham kattalarga nisbatan o'z xulq-atvorini barcha fazilatlar mohiyatini anglab etish asosida yo'lga qo'yishni taklif qiladi.

Bunday ruhdagi falsafiy g'oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy (551-479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlari», ya'ni aforizmlari juda mashhur. Konfutsiy ta'limotida umuminsoniy qadriyatlarining xitoy xalqi turmush tarzida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, bu xalqqa xos ma'naviy mezonlar aks etgan. Bu ta'limot bir necha asrlar davomida ushbu hududda milliy g'oyalar majmui, millatning mafkurasi sifatida odamlarning ma'naviy ongi va qiyofasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. u hozirgi Xitoyda ham o'zining muayyan ahamiyatini saqlab qolgan.

Konfutsiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi — taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtai nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «Li» tushunchasi belgilaydi. u, ya'ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib — insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfutsiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi uchun emas balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Konfutsiy ta'limotida insonning hayotdagi ijtimoiy o'rni

nihoyatda ulug‘, u o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko‘rmasligi, o‘ziga ravo ko‘rgan narsani boshqalariga ham ravo ko‘rishi lozim.

Qadimgi Xitoyda konfutsiychilik maktablari – Men-szi va Syun-szi ham dialektikaga qarshi chiqqan. Bu maktablarning vakillari qarshisida narsa qarama-qarshiliklar birligida namoyon bo‘lmaydi, inson tabiati yo tug‘ilgandan boshlab faqat yaxshilik bilan bog‘langan (Men-szi), yo inson o‘z tabiatiga ko‘ra azaldan yovuz (Syun-szi). Albatta, tabiat inson tabiatini tarbiya yo‘li bilan o‘zgartirishi mumkin, lekin bu endi unga madaniyatni olib kirishdir.

Konfutsiyning qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik g‘oyalari takomilida muhim o‘rin tutgan. Bu ta‘limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko‘tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

• Qadimgi Xitoyning ko‘zga ko‘ringan faylasuflaridan biri Lao-Szidir (VI-V asrlar). Uning ta‘limotiga ko‘ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo‘ysunmog‘i lozim. Daosizm ta‘limoti ana Shu tariqa shakllangan. (Daosizm (qadimgi Xitoy maktablaridan biri)da dao haqidagi ta‘limot Geraklitning Logos haqidagi ta‘limotiga o‘xshab ketadi. Dao – bu «hayot yo‘li», tabiat qonuni. Bu dunyoning vujudga kelishi va rivojlanishining tabiiy abadiy qonuni). **Dao qonuni** — tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg‘unligi abadiyligining e‘tirof etilishidir. Bu qonunga ko‘ra, olamning asosini tashkil etuvchi «**Si**», **ya’ni beshta unsur** — olov, suv, havo, er va yog‘och yoki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning Yuzaga kelishini ta‘minlaydi. Lao-Szining ta‘kidlashicha, olamda hech bir narsa doimiy va o‘zgarmas, harakatsiz holda bo‘lishi mumkin emas.

Daosizmga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib turadi. Qarama-qarshi kuchlar o‘rtasidagi kurash, ya’ni in va Yan’ orasidagi munosabat — bizni o‘rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaidir. In va Yan o‘rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonida turishi, o‘zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko‘rsatishi lozim. Bo‘lmasa, Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia Yuz beradi. Lao-Szi bu o‘rinda ekologik falokatni nazarda tutgan. «Kishilar Dao qonunini buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan albatta o‘ch oladi», degan edi Lao-Szi. Buni ekologik falokatlar avj olib borayotgan bugungi kun voqeligi ham tasdiqlaydi.

Umuman, tabiat, jamiyat va insonga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo‘lish, Ona zamin va Vatanni asrab-avaylash, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda yaxshilik tomonida turish — qadimgi xalqlarga xos bo‘lgan falsafaning bosh g‘oyalaridir. O‘sha, hamma narsa oddiy tuShunilgan qadim zamonlardayoq buyuk aql egalari odamlarni tabiatni asrashga, insonni qadrlashga chaqirgani bejiz emas. Ular insoniyat hayotiga xavf soladigan darajaga etmay turib, u boradagi muammolarning oldini olish to‘g‘risida juda ibratli o‘gitlar bergan. Qadimgi dunyo falsafasini chuqurroq o‘rgangan odam o‘sha davr mutafakkirlari hozirgi zamon sivilizatsiyasi qarshisida turgan barcha umumbashariy muammolardan odamlarni ogohlantirganligining guvohi bo‘lishi mumkin. Gap bu ogohlantirishni eshitish, ularni o‘zlashtirish va hayotning qonuniga aylantirishda edi, xolos. Afsuski, odamzod nasli o‘zi yaratgan buyuk daholarning barcha o‘gitlariga hamma vaqt ham quloq solavermagan. Ilm va fanda necha-necha kashfiyotlar qilingan, ammo ulardan o‘z vaqtida kerakli tarzda foydalanilmaganiga ko‘hna tarix guvoh. Bugun ham ajdodlarimizning Vatan, tabiat, jamiyatni asrash, undagi tartib va qoidalarni buzmaslik to‘g‘risidagi da‘vatlari eskirgani yo‘q. Yillar, asrlar o‘tishi ularning qadrini tushirmaydi. Zero, bu ta‘limotlar insoniyatning o‘tda yonmas va suvda cho‘kmas umuminsoniy qadriyatlarini to‘g‘risidadir

Markaziy Osiyodagi eng qadimgi falsafiy qarashlar. Ilk o‘rta asrlar falsafasini mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari

Biz mamlakatimiz tarixida muayyan iz qoldirgan ayrim falsafiy qarashlar va ta‘limotlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.....

Zardo‘shiylik ta‘limoti. Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo‘lgan davr mahsuli bo‘lgan diniy-falsafiy ta‘limotlardan biri zardo‘shiylikdir.

Bu ta‘limotga Zardo‘sh asos solgan bo‘lib, Sharq va garbda Zaratushtra, Zoroastr nomlari bilan mashhurdir. Manbalarga ko‘ra, Zardo‘sh eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida yashagan. Lekin uning tarixiy yoki afsonaviy shaxs ekanli haqida aniq bir to‘xtamga kelingani yo‘q. U o‘zini

payg‘ambar deb e‘lon qilgan. Lekin uning payg‘ambarligi ilohiy asosga ega emas. Ya‘ni bu haqiqat ilohiy kitoblarda o‘z tasdig‘ini topmagan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu ta‘limot Vatanimiz hududida, xususan, Xorazm zaminida paydo bo‘lgan. U o‘z davrida xalqni ezgulik va adolat g‘oyalari da‘vat etish, hayotbaxsh an‘analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, uning g‘oyalari bilan bog‘liq qadriyatlar bugungi kungacha yashab kelmoqda va xalqimiz turmush tarzining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashda ulkan qimmat kasb etmoqda.

Zardo‘shiylikning bosh kitobi «Avesto»dir. unda qadimgi xalqlarning dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlari, o‘ziga xos qadriyat va urf-odatlar aks etgan. Unda olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari- yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va o‘lim borasidagi qarashlar o‘z ifodasini topgan. «Avesto»da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma‘lumotlar ham berilgan.

Qadimgi manba “Avesto”da ko‘rsatilgani kabi “qanday qilib yaxshi fikrlash, yaxshi so‘zlash va yaxshi ish ko‘rish mumkin”, degan savolga javob topishga harakat qiladi. Bu noyob mevalardan bahramand bo‘lish uchun inson falsafiy donishmandlikni o‘zlashtirishi lozim: u dunyoni anglab etish, inson va tabiat, inson hayotining mazmuni va boshqa Shunga o‘xshash muammolarda mo‘ljal ola bilishi kerak.

Zardo‘sh ta‘limotida “Axriman” va “Axuramazda” yaxshilik va yomonlikning abadiy kurashi va bunda yaxshilikning g‘alabasini ifodalaydi. Zardo‘shiylik falsafasiga ko‘ra, yaxshilik va yomonlik kishilarning botinida-ichki dunyosida yashaydi. Inson Axriman yoki Axuramazda tarafida bo‘lishi mumkin, chunki Ezgulik farishtasi uni hamisha yaxshilik qilishga, lekin yovuz Axriman uni yomonlik qilishga undaydi va bu tortiShuv inson hayotining oxirigacha davom etadi.

*Sharq falsafasi asosiy e‘tiborni inson muammosiga qaratadi. Jumladan “Avesto”da farzand ko‘rish, bolalarni bilimli, odobli, jamiyat uchun foydali insonlar qilib tarbiyalash, kelajakni o‘ylab ish tutish umuminsoniy ma‘naviyat ekanligi ta‘kidlanadi. Zardo‘sh Axuramazdadan, serfarzand xonadonga nima berasan, deb so‘raganda u “**Bunday odamlarni o‘z himoyamga olaman, hayotini farovon, risqini mo‘l qilaman**” deb javob bergan. Sharq falsafasi insonni amaliyot, odamlar hayot faoliyati, ularning turmush tarzi nuqtai nazaridan o‘rganadi. Shu sababli unda insonning o‘zligi, uning shakllari va holatlari, odob-axloq, hukmdorlarga, turli yoshdagi odamlarga, Shuningdek jamiyatdagi ijtimoiy holati turlicha bo‘lgan kishilarga amaliy nasihatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim muammolar ko‘p. Masalan “Avesto”da keltirilgan “**Zabardast va qudratli bo‘lish uchun hamisha haqiqat va rostglikka muvofiq amal qilsang, zabardast va qudratli bo‘lasan**”, “**Haq so‘zdan o‘zga hech narsa bilan Shug‘ullanma**”, “**Dunyoni taraqqiyot va kamolot sari harakatga soladigan kishilar bo‘lmog‘i lozim**”, “**YOlg‘on gapirib tirik qolgandan ko‘ra, rost gapirib o‘lgan yaxshi**”, “**O‘z nafsini engib, jilovlab olmagan kishi, hech narsa ustidan g‘olib chiqa olmaydi**”⁸ kabi fikrlar hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.*

“Avesto”da insonning haq-huquqlari, burch va mas‘uliyati haqida fikr bildirilgan. Jumladan, agar odam olgan qarzini o‘z vaqtida qaytarib bermasa, u tunda bironing uyiga o‘g‘irlikka kirgan odam bilan barobardir. Shuningdek, unda qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi taqiqlangan, avlodlarning sog‘lom, benuqson tug‘ilishiga e‘tibor qaratilgan. Bordi-yu erkak zurriyot qoldirishga qobiliyati bo‘lib, so‘qqa bosh bo‘lib yursa, uning peshonasiga tamg‘a bosish yoki beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur ekanligi belgilangan. Sharq falsafasida qonun muammosiga ham ko‘p e‘tibor beriladi. Ayrim faylasuflar uni rad etgan, ayrimlari esa unga tayangan. Xalq va podsho muammosi ham Sharq falsafasining muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Jumladan, “Avesto”da huquqiy masalalar: jinoyat va jazo, oila va nikoh, mulk bilan bog‘liq masalalarni tartibga soluvchi qoidalar o‘z ifodasini topgan. Oilaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qoidalarda er xotinning bir-biriga xiyonati yoki nikohsiz er-xotinlik munosabatlarida bo‘lgan kishilar tan jazosini olgan. “Venidat” (Devlariga qarshi kurash qonuni) ning 13, 14 boblarida suvni tejash, uni qadrlash, undan unumli foydalanish haqidagi qoidalar bitilgan. Unda har kuni ekinni

⁸ Умарзода М. Овесто сирлари // Жаҳон адабиёти. 1997 №4 –Б.19-20

*ikki marta sug'orish mumkinligi, har bir kunda ekuvchi bir belkurak kenglik va chuqurlikdagi ariqqa sig'adigan suv olishga haqli ekanligi, suvni taqsimlash bilan kohinlar Shug'ullanishi, suvni ifloslantirishni taqiqlovchi qoidalar belgilagan. Bu qoidalarni buzganlarga nisbatan majburiy mehnatga jalb qilish jazosi belgilangan*⁹.

Falsafa tarixida makedoniyalik Aleksandr (eski o'zbek tilida Iskandar deyilgan) istilosi va Grek-Baqtriya davri falsafasi ham xalqimizning taraqqiyot tarixida muhim o'rin tutgan. Manbalarda Aleksandr qo'shini mahalliy xalqlarning qattiq qarshiligiga uchragani, u «Avesto»ning ko'pgina qismini yondirib yuborgani haqida ma'lumotlar bor. Bugungi kungacha ham ayrim tarixchilar Aleksandr «Avesto»ning tilini bilmagani, uni o'qiy olmagan sababli bu kitobning qadr-qimmatini tuShunmagan va uni yoqish to'g'risida ko'rsatma bergan, degan fikrlarni bayon etadilar. Aslida unday emas. Bu — tarixiy haqiqatni, garchand u kimlar uchundir achchiq va kimlar uchundir ibratli bo'lsa-da, xaspo'shlashga urinishdan boshqa narsa emas. Negaki, Aleksandr o'z zamonida fanlarning otasi deb nom olgan falsafani fan darajasiga ko'targan, buyuk donishmand sifatida etti iqlimda tan olingan Arastudan 20 yil mobaynida muttasil ta'lim olgan edi. Binobarin, SHoh Filippning o'g'li Aleksandrni savodsiz, kitobning qadrini tuShunmaydigan bir kimsa deb ta'riflash tarix haqiqatiga to'g'ri kelmaydi.

Chunki, Aristotel ham shoh Iskandarga nasihatida “Shuni bilgilki, o'zing buzuq va fosih ersang, raiyatu fuqaroni isloh qilolmaysan. O'zing adashgan, gumroh ekansan, ularga yo'l boshchilik qilolmaysan. Axir o'zi ko'r odam qanday qilib o'zgalarga rahnamo bo'lsin? O'zi qashshoq o'zgani boy qila oladimi? Kimki o'zi xoru zalil bo'lsa, o'zgani qanday qilib mashhuru aziz eta olsin. Bilgilki, isloh etishni istagan hech kimsa o'zini isloh etmaguncha o'zgalarni ham isloh eta olmaydi. Agar o'zi buzuq fosid bo'lmasa, boshqa kishini fasod ishga olmaydi. Qo'l ostingdagilarni isloh etishni istar ekansan, islohni o'zingdan boshla. O'zgalar aybini yo'qotishni hohlasang, avvalo o'zingni ayblardan va xunuk xulq atvordan pokla. O'ylagan fikring senga hech qachon firib bermasligi lozim. Agar so'zlaring go'zalu qilmishlaring esa xunuk bo'lsa, ishlari gaplariga teskari, zohiri botinini aks ettirmaydigan va'zxon bo'lasan”¹⁰ deb uqtiradi.

To'g'ri, u «Avesto»ni o'tda kuydirgan bo'lishi mumkin. Lekin buni kitobning qadrini tuShunmagani uchunmas, balki erli xalqlarni birlashishga da'vat etib turuvchi, ular e'tiqod qo'ygan milliy g'oyalar timsoli bo'lgan va o'z saltanatiga qarshi muttasil kurash olib boruvchi vatanparvarlarni tarbiyalaydigan manba ekanini nazarda tutib, Shu ishni amalga oshirgan. Qolaversa, o'zini dunyodagi eng rivojlangan hudud madaniyatini jahonga yoyish uchun mas'ul deb bilgan, to'g'rirog'i, o'sha madaniyatdan boshqasini tan olmagan mashhur jahongir uchun zabt etilgan xalqning «Avesto»dek buyuk kitobi bo'lishi kutilmagan hol edi. U, yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur kitob omon tursa, u ushbu zamin farzandlari uchun o'zlikni anglash, binobarin, kuch-qudrat manbai bo'lib qolaverishini nihoyatda yaxshi tuShungan. Aleksandrdan keyin yashagan Rim imperatorlari ham Misr va Vizantiyaga qarshi urush qilib, yahudiylarning erini bosib olganida tub aholining madaniy boyliklarini yo'q qilgani, «Zabur» va «Tavrot»ning qadimgi nusxalarini kuydirib yuborgani yuqoridagi misolning tasodifiy emasligidan dalolat beradi.

Umuman, har qanday sharoitda ham istilochilarning birinchi ishi xalq va millatlarni zo'rlik bilan bosib olish, boyliklarini talash bo'lsa, keyingi asosiy faoliyati — millatni o'z tarixi va an'analaridan uzib qo'yish, madaniy merosini talon-taroj qilish, uning ma'naviyatini yo'qotishdan iborat bo'ladi. Tarixning bu achchiq sabog'i mustamlakadan ozod bo'lgan, o'z mustaqilligini saqlab qolish va mustahkamlashga intiladigan har qanday xalq taraqqiyoti uchun eng muhim xulosa bo'lib xizmat qiladi.

Iskandarga qarshi kurashda xalqimizning milliy qahramoni Spetamen beqiyos mardlik va jasorat ko'rsatadi. U Iskandarga qarshi ayovsiz qarshilik ko'rsatgan vatanparvar lashkarboshilardan biridir. Aslida, uning qahramonligi millatimizning o'sha davrdagi o'z davlatchiligini, o'zi yashaydigan hudud dahlsizligini saqlab qolish uchun olib borilgan kurashning yaqqol timsolidir. Albatta, bu lashkarboshi ortidan xalq ergashsa, elning ozodlik va mustaqillikka intilish tuyg'usi kuchli bo'lmasa, Spetamenning

⁹ Каранг Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. -Т.: Ўзбекистон, 1997. -Б.25-26.

¹⁰ Каранг Аликулов Х. Караматов Х. Арастунинг Искандарга насихати. Форс тилидан таржимаси // Ўзбек педагогика онтологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1995.-Б 39-46..

nomi bu qadar mashhur bo'lib ketmas edi. Negaki, inson naqadar kuchli, tadbirkor va omadli bo'lmasin, agar xalq bilan birga bo'lib, uning dardlariga darmon izlamasa, hurriyat g'oyalari bayroq qilib ko'tarmasa, haqiqiy milliy qahramon bo'lolmaydi. Spetamen esa o'sha xalqimizning ruhi, orzu-umidlari, mustamlakachilarga qarshi matonati ramzi sifatida tariximiz qatiga mangu muhrlanib qolgan.

Markaziy Osiyoda buddaviylik ham o'z o'rniga ega. U diniy-falsafiy ta'limot sifatida qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi VI asrning oxiri va V asr boshlarida vujudga kelgan. U jahonda keng tarqalgan dinlardan biridir. Bu ta'limotga asos solgan donishmand Sidxarta urug'idan chiqqan Gautama hisoblanadi. Keyinchalik u «Budda», ya'ni nurlangan degan laqabga ega bo'lgan. Buddaviylik islomga qadar O'rta Osiyoda tarqalgan qadimgi dinlar orasida mavqe jihatidan juda katta o'rin tutadi. Bu ta'limot O'rta Osiyoga eramizdan avvalgi II-I asrlarda kirib kelgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, uni Toxaristonga balxlik savdogarlar olib kelishgan. Kushonlar davrida buddaviylik dini hukmron dinga aylangan edi. «Xalqchil bo'lganligi uchun O'rta Osiyoga keng yoyilgan. Buddaviylikning O'rta Osiyoga yoyilishi quyidagi to'rt bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich. Kushonlardan oldingi davr. Bu eramizdan avvalgi I asrga to'g'ri keladi. Bu davrga oid yozma manbalar bizgacha etib kelmagan.

Ikkinchi bosqich. Kushonlar davri (eramizning II-IV asrlari) Bu davrda buddaviylik O'rta Osiyoga keng tarqalgan edi. Ayniqsa, uning axloqqa oid masalalar, halq ommasini sabr-qanoat va bardoshga da'vat etuvchi g'oyalarni ilgari surganligi muhim ahamiyat kasb etgan.

Uchinchi bosqich. Bu davrda O'rta Osiyoda buddaviylik ta'limotining manbalari yoyilgan.

To'rtinchi bosqich. (IX-XIV asrlar) islom O'rta Osiyoda hukmron dinga aylanishi bilan bu din siqib chiqarilgan va juda zaiflashib ketgan.

Buddaviylikning O'zbekiston va Hindiston xalqi o'rtasida o'z davrida ma'naviy ko'priklar bo'lib xizmat qilganligi aniq. Xalqlarimiz orasidagi do'stlik va birodarlikning ildizlari ham o'sha davrga borib taqaladi va bugungi kunda aksariyat kishilar, ayniqsa, yoshlarimizning hind xalqi, uning madaniyati va san'atiga qiziqishi tasodifiy emas.

Moniy ta'limoti yurtimizda buddaviylikdan keyin keng tarqalgan edi. u zardo'shtiylik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan. Moniy fors va arab tillarida bir necha risolalar yozgan. Lekin ular bizgacha etib kelmagan. Moniy hatto «Moniylik yozuvi» nomli alifbo ham tuzgan. uning ta'limoticha, hayotda dastavval nur dunyosi - yaxshilik va zulmat dunyosi-yovuzlik bo'lgan. Ular o'rtasida abadiy kurash boradi, inson ikki unsurdan (ruh — nur farzandi, jism — zulmat mahsuli) iborat. Moniylik xalq ommasi manfaatlarini himoya qiluvchi ta'limot bo'lgani sababli hukmron mafkura qarshiligiga duch kelgan.

Moniylik ta'limoti asosida **Mazdak ta'limoti** Yuzaga kelgan. U eramizning V-VI asrlarida keng tarqalgan edi. Uning asoschisi Mazdak (470-529 yillar) bo'lgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o'z qarashlarida halq ommasiga suyangan. Xalqning ozodlik, erkinlik, hurlik yo'lida olib borgan harakatlariga rahnamolik qilgani uchun tez fursatda ularning maslakdoshlari, izdoshlari ko'payib ketgan. Mazdakiylik ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish yo'lida kurashga da'vat etuvchi mafkura sifatida xizmat qilgan. Unda asosiy yovuzlik-boylikka hirs qo'yish va o'ta kambag'allik qoralanadi. Bu insonparvar harakatdan cho'chigan shoh Mazdakni turli hiylalar bilan o'limga mahkum etadi. Mazdakiylar harakati, eramizning VI asrida bostirilganiga qaramay, turli mamlakatlarda muayyan darajada davom etgan. O'rta Osiyoda Muqanna, Ozarbayjonda Bobak boshliq dehqonlar va shahar kambag'allarining zulmga qarshi kurashlari bunga misol bo'ladi.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan qadimgi falsafiy ta'limotlar, ular ilgari surgan g'oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatiga ega. Sanab o'tilgan qadimgi diniy-falsafiy ta'limotlar, ya'ni zardo'shtiylik, uning bosh kitobi — «Avesto», Moniy ta'limoti, «Moniy yozuvi», mazdakiylik harakati jamiyatda adolat, erkinlik, teng huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishiga da'vat etgan. Vatan ozodligi yo'lida jon fido etgan Muqanna boshchiligidagi harakat nafaqat O'rta Osiyoda, balki jahonning boshqa o'lkalarida ham aks-sado bergan. Vatanimizning o'sha davrda shakllangan va rivojlangan boy madaniyati, milliy ma'naviyatimiz, falsafamiz jahon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan.

2. Islom dini vafalsafasi. Tasavvuf va uning oqimlari.

Sirasini aytganda, mamlakatimiz tarixi islom dini yurtimizga kirib kelgan davrdan boshlanmaydi. U islomga qadar ham ming yillar mobaynida rivojlanib kelgan shonli tarixiga ega. Lekin, afsuski, Vatanimizning ana Shu davr tarixi nihoyatda kam o'rganilgan. Bu davrga oid manbalarning aksariyati esa yo'q qilib yuborilgan. Bu vayronkorlikning boshida miloddan avval makedoniyalik Aleksandr turgan bo'lsa, mamlakatimizni zabt etgan keyingi bosqinchilar ham ana Shu yo'ldan borgan. Ular xalq ongidan mustaqillik va erkin hayot to'g'risidagi maqsad-muddaolarni butunlay yo'qotib yuborishga urinishgan. Buning natijasida ma'naviy qashshoq va tarixiy xotirasiz kishilar tarbiyalanishi lozim edi. Bosqinchilar Movarounnahrda nihoyatda boy madaniyat shakllanganini e'tirof etgan. Ammo uning bosqinchilik g'oyalariga mos kelmaydigan juda ko'p namunalarini ayovsiz yo'q qilishgan. Ayniqsa, ma'naviy qadriyat va madaniy boyliklarni shafqatsizlarcha g'orat qilish asosiy o'rinda turgan. YUrtimizda arablar istilosiga qadar ustuvor bo'lgan ma'naviy va madaniy durdonalar qadrini yaxshi angelaydigan va ularning ahamiyatini to'g'ri tuShunadigan kishilar birinchi navbatda yo'q qilib yuborilgan. Bu to'g'rida Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida quyidagilarni yozgan: «Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib va butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi»¹¹. Ushbu asarning boshqa sahifasida ulug' vatanparvar olim yuqoridagiga o'xshash yana bir fikrni quyidagicha ifoda etgan: «Qutayba xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli ular savodsiz bo'lib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo'ldilar»¹².

Beruniy zamonida islom yagona hukmron diniy mafkura bo'lib turganini e'tiborga olsak, zikr etilgan asar va undagi teran fikrlarni bunday o'ktamlilik bilan aytish g'oyat ulkan jasoratni talab etgani ayon bo'ladi. Istilochilarning bunday vayronkor siyosati keyin ham davom etgan. Xususan, mustabid sho'rolar mafkurasi hukmronlik qilgan davrda ham ana Shunday hol ro'y bergan. Nihoyatda boy qadriyatlarimiz, falsafiy ta'limotlarimiz, umuman o'z merosimizdan bebahra bo'lib qoldik.

Istiqlol tufayli ajdodlarimiz yaratgan boy va o'lmas madaniy merosni o'rganish imkoni tug'ildi. Tarixiy xotirani tiklash, xalqimiz qalbida milliy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish hozirgi kunda ma'naviy hayotning ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Mazkur mavzuga asos bo'lgan davr falsafasi arab istilosi va mamlakatimizda islom dinining taraqqiy etishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu falsafa, ba'zi chet ellik mutaxassislar aytgani kabi, faqat arablar madaniyatining bir qismi emas. Balki bizning Vatanimiz farzandlari ulug' bobokalonlarimizning islom diniga, islom falsafasiga, butun arab dunyosi va jahon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan ta'limotlari dunyoga kelgan davr falsafasi hamdir.

Shu bilan birga, bu ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi kurashini aks ettirgan, xalqimiz madaniyati va ma'naviyati nihoyat darajada rivojlanganini butun jahonga yaqqol namoyon qilgan davr falsafasidir.

Bu Muqanna kabi milliy qahramonlarimiz keng xalq ommasiga bosh bo'lib ozodlik kurashi olib borgan paytlarda elning ruhini ko'tarib, ilhomlantiruvchi ezgu g'oyalar shakllangan davr falsafasidir.

Bu Amu va Sirdaryo bo'ylarida yashagan xalqning dahosi eng yuksak darajaga ko'tarilgan, uning atoqli namoyandalari jahon madaniyati sahifalariga o'zlarining o'chmas nomlarini muhrlab ketgan davr falsafasidir. Bu falsafaning xususiyatlari o'sha davrda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Mazkur mavzuni o'rganishdan maqsad, Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, yosh avlod qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantrish, «Yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar

¹¹ Абу Райхон Беруний. «Танланган асарлар». 1-жилд. Т. «Фан», 1968, 72-бет.

¹² Абу Райхон Беруний. «Танланган асарлар». 1-жилд. Т. «Фан», 1968, 82-бет.

etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish»dan iborat¹³.

Arab bosqini va islom dini. Movarounnahr arablar tomonidan zabt etilishi arafasida Turk qog'onoti tizimiga kirar edi. U mayda amirliklardan iborat bo'lib, ular o'rtasida tinimsiz to'qnaShuvlar ro'y berib turar edi. Ayniqsa, Turk qog'onoti bilan sosoniylar Eroni o'rtasidagi to'qnaShuvlar o'ta shiddatli tusda Yuz berar edi. XII asrning oxiri va XIII asrning boshlarida bu hudud arab xalifaligi tomonidan bosib olindi. Bunga Movarounnahr hududida yashovchi halqlar, ijtimoiy kuchlar orasida siyosiy hamjihatlikning yo'qligi, o'zaro qirg'in-barotlarning avj olishi sabab bo'ldi.

Movarounnahrda arablar bosqini bilan birga islom dini ham kirib keldi. Islom so'zi arabcha tangriga o'zini topshirish, itoat, bo'ysunish, tinchlik kabi ma'nolarni anglatadi. Islom dini bayrog'i ostida keng hududda arab qabilalari birlashgan, mavjud tarqoqlikka chek qo'yilgan, yagona markazlashgan arab xalifaligi tashkil topgan.

Qur'on va hadislarda islomiy ta'limotning asosi bayon qilingan. Qur'on — muqaddas kitob. Unda islom qonun-qoidalari, iymon-e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlar o'z ifodasini topgan. U 114 sura va ular tarkibidagi oyatlardan tashkil topgan.

«Sunna» esa hadislar majmui bo'lib, Qur'ondan keyin turadi va uni to'ldiradi. Unda Muhammad payg'ambarning so'zlari, xatti-harakatlari naqlar va hadis shaklida jamlangan.

Qur'on va sunnadan keyingi muhim manba — shariatdir. Shariat (to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l demakdir) — islomda huquqiy, axloqiy me'yor va amaliy talablar tizimidir. Islomdagi asosiy yo'nalishlar — sunniylik, shialik va xorijiylik. Ular diniy ta'limot, marosimchilik, axloqiy-huquqiy me'yorlarga oid masalalarda o'zaro farqlanib turadi.

Xorijiyalar yo'nalishi o'rta asrlar davrida ko'pgina oqimlarga bo'linib, keyinchalik yo'qolib ketgan. Faqat ibodiyalar (abodiyalar) oqimi saqlanib qolgan.

Sunniylik va shialik hokimiyat masalasida (sunniylik xalifalik hokimiyati, shialik esa imomat hokimiyati tarafdori), ayrim diniy marosim va an'analarda bir-biridan farq qiladi.

Islomdagi oqimlar aqidaviy ta'limot va marosimchilik masalalarida bir-biridan ajralib turadigan diniy guruhlardir. Shialikdan qarmatlar, ismoiliylar, zaydiylar, nusayriylar, aliilohiylar va boshqalar ajralib chiqqan.

Sunniylikdan ravshaniylar, ahmadiya, jangari vahhobiylar, mahdiylar ajralib chiqqan. Mazhabchilik ilohiyot masalalari bo'yicha yuzaga kelgan o'zaro kelishmovchiliklar natijasidir.

Islomda hanafiylik, ash'ariylar, jabariylar, qadariylar, sifatiylar, murji'iyalar, mu'taziliylar kabi mazhablar mavjud. Qadariylar inson iroda erkinligini yoqlab chiqib, uni tan olmagan jabariylarga qarshi chiqqan. Mutakallimlar aristotelchilik falsafasi usul va vositalaridan foydalanib, islomning diniy-aqidaviy ta'limotini asoslab berishga uringan.

Abu Mansur Moturidiy (melodiy 944 yilda vafot etgan) kalom ilmining aql maqomiga alohida e'tibor qaratgan Samarqandda Moturidiya maktabini yaratgan. Mu'taziliylar (ajralib chiqqanlar) yakka xudolikning adolatli ekanini, Qur'onning tangri tomonidan yaratilganligini, iroda erkinligini yoqlab chiqqan. Uning asoschisi Vosil ibn Atodir (699-748 yillar). Uning oxirgi vakillaridan biri Zamahshariydir.

Kalom islom ilohiyotining o'ziga xos falsafiy ta'limotidir. U diniy aqidalarni asoslab berishga uringan. U Qur'onga tayanib, jannat va do'zaxning azaliy ekanligini, insonda iroda erkinligining yo'qligini, lekin insonning Oллоh oldida o'z qilmishlari uchun mas'ul ekanligini asoslab berishga xarakat qilgan.

Bunday ma'naviy jarayonlar bilan yonma-yon islomda **mashshoiyunlar va tabbiiyunlarning** (Arastu falsafasi va tabiatni o'rganishga ahd qilganlarning) falsafiy qarashlari shakllana borgan. Bu islomiy ma'naviyatning dunyoviy va diniy masalalarda, jahon falsafiy tafakkurida ro'y berayotgan jarayonlarga nisbatan tashabbuskor bir kuch ekanini ko'rsatib turibdi.

Qadimgi YUnon falsafasi an'alarida siyosiy faoliyat va donishmandlik ko'p hollarda bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan bo'lsa, islom falsafasida siyosatga, aksincha, inson faoliyatining yuksak bir shakli sifatida qaraladi. Islomda davlatni boshqarish — bu san'at, ammo u ijtimoiy adolat

¹³ Ислам Каримов. «Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман». - «Фидокор» газетаси, 2000 йил 8 июн.

taomiliga amal qilmog‘i zarur, ijtimoiy adolat esa teng huquqiylikka amal qilish tufayli barqaror bo‘la oladi, deb hisoblanadi.

Islom falsafasiga ko‘ra, insoniyat istiqboli komil insonni shakllantirish orqali Yuzaga keladi, axloq-odob esa inson tafakkurining ajralmas tarkibiy qismidir. Musulmon Sharqi mutafakkirlarini aql maqomi, mantiq ilmi avvaldan qiziqtirib keladi, chunki mantiqqa tayanmagan xar qanday bilim ishonchli va samarali bo‘la olmaydi. Bu masala ham islom falsafasida o‘z o‘rniga ega.

Tasavvuf va uning tariqatlari. Tasavvuf falsafiy oqim va diniy-ma’naviy hodisa sifatida islom dini doirasida (ko‘pgina ichki sabablar va ba’zi tashqi unsurlar — buddaviylik va hindiylikning ilk diniy tasavvurlari, Sharqiy xristian tarkidunyochiligi, neoplatonizm kabilarning ta’siri ostida) paydo bo‘ldi. Tasavvuf uchun vahdoniyat — Ollohning birligi, Olloh va olamning porlab turishi, fano bo‘lish, orif shaxsining tangri taolo bilan ruhan birlashib ketishi kabi mushohadalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oqim namoyandalari va tarafdorlarini so‘fiylar, deb ataganlar va «so‘fizm» atamasi Shundan paydo bo‘lgan. Ilk so‘fiylar aholining kambag‘al toifasi orasida shakllangan. Ularning qarashlari istilochilar zulmi, adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi norozilik belgisi sifatida ham Yuzaga kelgan.

So‘fizm falsafasi. Bilish muammosi so‘fizmning eng muhim tomonini tashkil etadi. *Mo‘tadil so‘fizm ta’limotiga ko‘ra gnostik (orif)ning asosiy vazifasi oliy maqsadga erishish – haqiqatni bilishdan iborat.* Bu maqsadga o‘zini o‘zi takomillashtirish va o‘zini o‘zi bilish yo‘li bilan erishiladi. O‘z mohiyatini bilish jarayonida inson o‘zida ilohiy unsurlar mavjudligini, Allohni bilishning birdan-bir to‘g‘ri usuli o‘zini o‘zi bilish, ya’ni o‘zlikni anglash ekanini tuShuna boshlaydi.

Biroq bilishning bu darajasiga etish uchun odam o‘zini butunlay o‘z o‘zligini anglashga baxshida etishi lozim. U so‘fiycha turmush tarzini tanlashi, Shuningdek haqiqat sari yo‘l tutgan kishilarga qo‘yiladigan ayrim boshqa talablarni bajarishi darkor. Mo‘tadil so‘fizm vakillari qatoriga Xorisi Muhosibiy, Abulqosim Kushayriy, Abu Homid G‘azzoliy va boshqalar kiradi. Ular so‘fiy shariat chizig‘idan chetga chiqmasligi, uning barcha so‘zlari va ishlari Qur’oni karim aqidalari va Muhammad payg‘ambar hadislariga muvofiq bo‘lishi lozim, deb hisoblaydilar.

«Vahdati vujud» (borliqning birligi) nuqtai nazarida turuvchi so‘fiylar so‘fizmning ashaddiy tarafdorlari hisoblanadi. Ular Haqiqat (Alloh) va tabiatni bir deb qaraydilar. Tabiat ilohiy emansipatsiya oqibatidir. Inson bu emansipatsiya zanjirida oxirgi bo‘g‘inni egallaydi. U nafaqat Haqiqat (Alloh)ni bilish darajasiga etadi, balki o‘zi ham Haqiqat – «Alloh»ga aylanadi. So‘fiylikning bu tariqat vakillari yashirin, sirli narsalarni bilishni afzal ko‘rib, shariat aqidalari va me’yorlarini tan olmaganlar.

So‘fizm Allohni tabiat bilan uzviy deb qaraydi. Uni insonni qurshagan tashqi dunyoda mavjud har bir narsa bilan tenglashtiradi va ularda Allohning siy mosi, mohiyatini ko‘rib, tabiat, atrof muhit sari, uning sirlarini ochish tomon, bu yashirin hodisalarning har birida ilohiy haqiqat belgisi, mohiyatini topish va bilish maqsadida muayyan qadam tashlaydi.

So‘fizmdagi Allohni bilishda bilish usullari va vositalari sifatida vahiy va ilhom amal qiladi. Bu erda sezgilar va aql bilish vositalari sifatida ishlaymaydi. Borliqning birligi tarafdorlari sanalgan so‘fiylarda panteistik an’analar ustunlik qiluvchi ta’limotlarda Allohni bilish nazariyasi bilan bir qatorda dunyoni bilish nazariyasi ham mavjud bo‘lib, unda bilish ob’ekti sifatida moddiy dunyoning o‘zi, bilish vositalari va usullari sifatida esa – sezgilar, aql, kuzatish, taqqoslash, so‘zning tor ma’nosidagi tajriba amal qiladi. Garchi ular bilishning turli shakllarini tan olsalar-da, mohiyatlar mohiyati (Alloh)ni bilish darajasi to‘g‘risida so‘z yuritilgan hollarda bilish shakllarining ahamiyatini cheklaydilar. Allohni bilishga faqat Uning karami va nuri yordamida muvaffaq bo‘linadi.

Mutlaq haqiqatning tagiga etish yo‘lidan boruvchi odam (orif) o‘z oldiga haqiqatni bilish vazifasini qo‘ygan faol individga aylanadi va uzoq izlanishlar, turli mistik bosqichlar, maqomlardan o‘tish va o‘zlikni anglash natijasida o‘zida mutlaq haqiqat (Alloh)ni topadi va etuk insonga aylanadi.

So'fizm ta'limotiga ko'ra, haqiqatning tagiga etish uchun odam o'z ichki dunyosi, qalbini har xil dunyoviy qusurlardan forig' etishi lozim. Bunga erishish uchun u bir qancha ma'naviy bosqichlar yoki so'fiylar ta'biri bilan aytganda maqomlardan o'tishi darkor.

Bilish va ma'naviy sayohat yo'lida odamga uning tafakkuri yo'l ko'rsatadi. Ko'rsatilgan bosqichlarning har biridan o'tish natijasida odam axloqiy va ma'naviy jihatdan takomillashadi va haqiqatni bilishga yaqinlashadi.

Abu Homid G'azzoliy so'fizmni panteizmdan tozalashga harakat qildi va u bunga muvaffaq bo'ldi. G'azzoliy fikriga ko'ra, «har qanday ma'naviy poklanishlardan qat'i nazar, inson hech qachon Xudoga aylana olmaydi». Bu bilan u so'fizm va panteizm o'rtasida o'ziga xos «xitoy devori»ni o'rnatdi.

So'fizm vakili Ibn Arabiy falsafasi Evropa falsafiy an'anasiga yaqin bo'lgan tilda yaratilgan filosofema. Uni ayni holda ratsionalistik filosofema deb nomlash mumkin (u birlik, ko'plik, sabab, oqibat, birinchi asos, jism, makon, vaqt kabi kategoriyalar va atamalardan foydalanadi); tilini badiiy til deb belgilash mumkin bo'lgan, biroq nafaqat estetika jabhasini, balki ontologiya va naturfalsafaning ratsionalistik tili bilan bir borliqni tavsiflovchi filosofema (uning kategoriyalari – muhabbat, intilish, ehtiros, muhtojlik, go'zallik va sh.k.); nihoyat, «mistik» tilda yaratilgan filosofema (kategoriyalari: zavq, hol, fano, baqo, jon, ro'yo va h.k.).

Ibn Arabiyda har bir filosofema, bilishning alohida usuliga tayanadi. Shu sababli echimlarning har biri bo'yicha tegishli bilish usulining qisqacha tavsifini keltirish o'rinli bo'ladi deb o'ylaymiz.

1. *Bilishning birinchi usuli – oqilona-mantiqiy bilish.* Uning vositasi – aql, amalga oshirish usuli – sillogizmlar yoki dalillar orqali chiqarilgan xulosalar tarzidagi mantiqiy mulohazalar. Ko'rib turganimizdek, Ibn Arabiy Aristotel mantiqi bilan tanish: u to'g'ri sillogizmni tuzish uchun zarur shartlarni tavsiflaydi¹⁴, mantiqan to'g'ri mulohaza yuritish uchun dalillar va xulosalar zanjiri izchil bo'lishi, biron-bir bo'g'inda uzilmasligi lozimligini ko'rsatadi va o'zi isbotlashning mantiqiy metodlarini ko'p karra qo'llaydi.

Ibn Arabiy fikriga ko'ra, oqilona bilim inson tanasini boshqaruvchi inson joniga kerak: u jonning dunyo haqidagi bilimi muqarrar unsuridir¹⁵. Oqilona bilim (ilm)ning qimmati Ibn Arabiyda Shubha uyg'otmaydi: «Narsani bilish, hech Shubhasiz, uni bilmaslikdan ma'qulroqdir»¹⁶. Sillogizmlar orqali oqilona bilish bizga dunyo haqida to'g'ri bilim beradi: u, masalan, rangli oyna orqali o'tgan yorug'lik oyna rangini kasb etsa-da, o'z holicha rangsiz ekanligini, Quyosh ko'zga kichkina bo'lib ko'rinsa-da, aslida Erdan bir necha marta kattaligini aniqlash imkonini beradi. To'g'ri sillogizm tuzib, dunyoning borlig'i zamirida sabab yotishini aniqlaymiz¹⁷.

Bilishning oqilona-mantiqiy metodidan faylasuf bizni qiziqtiruvchi muammoni echish uchun foydalanadi, biroq uning uchun mantiqiy mulohazalar zanjirida mutlaqo boqiy ilohiy mohiyat tushunchasi «boshlang'ich nuqta», dunyoda bo'lib turgan o'tkinchi nomukammal mohiyat kategoriyasi esa – «pirovard nuqta» hisoblanadi yoki aksincha. Xudodan dunyoga yoki dunyodan Xudoga bunday mantiqiy harakat qilish natijasida muammoning ratsionalistik echimi topilishi lozim: dunyoga nisbatan transsendent ilohiy mohiyat ayni vaqtda unga ichdan xos bo'lishi, uning borlig'i substansional asosini tashkil etishi darkor. Bu biz yo dunyoni tavsiflovchi muhim kategoriyalarni transsendent ilohiy mohiyat tushunchasidan chiqarishimiz, yo dunyoda mavjud o'tkinchi mohiyat kategoriyasini asos qilib olib, transsendent ilohiy mohiyat borlig'ini keltirib chiqarishimiz lozimligini anglatadi. Shunday qilib, muammoning echimi oqilona-mantiqiy metodlar yordamida topilishi mumkin.

2. *Bilishning ikkinchi usuli – muammoni mushohada yuritish yo'li bilan echish:* (echimdan shartlar sari). Mushohada yuritishni bilish usuli sifatida o'rganar ekanmiz, dunyo va ilohiy mohiyatning uzviy birligi va ayni vaqtda ilohiy mohiyatning transsendentligi uning uchun muqarrar holdir, deb aytishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, bu birlik ayniylik emas: boshqacha

¹⁴ Қаранг: Ибн Араби. Гемма мудрости. – М.: -Бейрут, 1980. – С.116-117.

¹⁵ Там же, – С.198.

¹⁶ Там же, – С.20.

¹⁷ Ибн Араби. Мекканские откровения. – М.: -Бейрут, 1989. – Б.105

aytganda, bu dunyo va ilohiy mohiyatning farqlangan birligidir. Har qanday narsa va hodisada mushohada yuritish seziluvchi va idrok etiluvchi tashqi – zohir jihatlarni va sezgilarga ham, aqlga ham yashirin ichki (botin) ma’noni aniqlash imkonini beradi. Bu yashirin ma’no borliqning birinchi asosi, ilohiy mohiyatning dunyoga ichdan xosligining negizi va ayni vaqtda mushohada ob’ekti hisoblanadi. Yashirin ma’noni anglash - narsalarda, dunyoda Xudoni bevosita ko’rish demakdir.

Mushohada yuritish jarayonida bilish sub’ekti o’zining bilish ob’ektidan ontologik mustaqilligini saqlagan holda u bilan birikadi, uni butun vujudi bilan anglab etadi. Bunga bilish sub’ekti bo’lgan insonda ham «yashirin ma’no» mavjudligi imkoniyat yaratadi. U yagona va uzviy bo’lgani uchun bilish ob’ekti bilan «ichki mohiyat» jihatidan birikish imkoniyati Yuzaga keladi, «tashqi mohiyat»da esa sub’ekt va ob’ektning alohidaligi saqlanib qoladi¹⁸.

Mushohada yuritish yo’li bilan olingan bilim ratsionalistik tildan farq qiluvchi alohida tilda bayon etiladi. Mushohada yuritish, mohiyat e’tibori bilan, butundan qism sari harakatdan iborat bo’lgani uchun bu tilni badiiy til deb atash mumkin. Bu tilda yozilgan matnda qismning mazmunini anglab etish uchun (har qanday badiiy asarda bo’lganidek) avval butunning mazmunini anglab etish lozim. Vaholanki, fan tilida yozilgan matnda qismlarni tuShunmasdan butunni tushunish mumkin emas. Ibn Arabiy filosofemasi «badiiy» tilda yozilgan bo’lib, mushohada yuritishga asoslanadi va u estetik filosofema deb ataladi..

3. Bilishning uchinchi usuli – muammoni mistik yo’l bilan echishdir. (shartlar va echim ayniydir). Bu erda bilish oqilona-mantiqiy va mushohada yuritish yo’li bilan bilishdan mutlaqo boshqacha shartlardan kelib chiqadi. Bu bilish sub’ekti va ob’ektining ayniylik shartidir. Bilish sub’ekti bu ayniylikka erishgach, o’zining sub’ektlik mohiyatini yo’qotadi; sub’ekt va ob’ekt o’rtasidagi tafovut yo’qoladi, biluvchi bilinuvchiga aylanadi, biluvchi ham, bilinuvchi ham yo’qolib, faqat yagona universal qoladi. Bu holat «fano» holati, sub’ektiv o’zlikning «halok bo’lish», yo’qolish holati deb ataladi.

Mistik bilish jarayonini tavsiflar ekan, Ibn Arabiy girdob (xiro) obrazidan foydalanadi. «Xiro» so’zi «sarosimalik» degan ma’noni ham anglatadi. Bu o’ziga xos sarosimalik, hamma narsada Allohni ko’ruvchi, YAgonani ko’plikda, ko’plikni YAgonada, «aniqni yashirin, yashirinni aniq, Shuningdek boshqa ziddiyatli narsalarni» ko’ruvchi so’fiyning sarosimaligidir. «Biroq bu yo’qotgan yoki tuShunmaydigan odamning sarosimaligi emas»¹⁹. Bu sarosimalik mistik bilish yo’liga endigina kirayotgan odamni qamrab oladi; so’ngra, mistik bilish jarayonida sarosimaga tushgan odam, Ibn Arabiy tavsifiga ko’ra, «qutb atrofida aylana harakat qiladi va undan uzoqlashmaydi»²⁰. Bu qutb – Xudo: girdob obrazining ma’nosi Shundan iboratki, bu girdob harakatining boshi yo’q, aniqrog’i, qayd etilgan aniq bir boshlanish joyi mavjud emas: istalgan nuqtadan, dunyoning har qanday narsasidan boshlash mumkin, biroq oxiri bor, bu - qutb, borliq girdobining markazi: bilish doiralari muqarrar tarzda yagona Xudoga olib keladi. Girdob butun borliqni o’z komiga tortadi. Uning ichida, markazda turib biz yo’limiz mo’ljaldan farq qilmasligini, yo’lni qaerda boshlagan bo’lsak, o’sha erda – Xudoda tugatganimizni ko’ramiz²¹.

Demak, Ibn Arabiy ijodida ilohiy mohiyatning dunyoga nisbatan transsendentligi va immanentligi muammosi echimining uch varianti mujassam.. Birinchi yo’l qismdan butun sari harakat, mantiqiy mulohaza yuritishdan boshlanuvchi yo’l. Bunda ilohiy mohiyat yoki dunyo «qism» deb, muammoning izlanayotgan echimi esa – «butun» deb olinishi mumkin.

Ikkinchi yo’l butundan qism sari harakatdan iborat: biz echim mavjudligini faraz qildik, u qanday bilishi lozimligini («butun»ni) ko’rsatdik va so’ng uni tahlil qildik, transsendent-immanent muammo echilgan sharoitda ilohiy mohiyat va dunyo qanday bo’lishi lozimligini ko’rishga harakat qildik.

Nihoyat, echimning uchinchi yo’li qismlar va butunning ayniyligini, mutlaqo va barcha yo’nalishlarda ayniylikni: qismlarning bir-biri bilan, ularning har biri va ikkalasining butun bilan ayniyligini qayd etadi. Birinchi holda transsendentlik va immanentlik muammosining echimi

¹⁸ Қаранг: Ибн Араби. Гемма мудрости. – М.-Бейрут, 1980. – Б.88.

¹⁹ Ибн Араби. Гемма мудрости. – М.-Бейрут, 1980. – С.140.

²⁰ Там же, – С.73.

²¹ Ибн Араби. Гемма мудрости. – М.-Бейрут, 1980. – С.74.

topilmadi, ikkinchi holda u o'z echimini topish uchun dualizmni qabul qilishni talab etdi, uchinchi holda esa u echilmaydi, balki o'z asosini yo'qotadi.

Tasavvufning muhim jihatlari yirik musulmon ilohiyotchisi Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-Fazzoliyning (1059-1111) «Diniy ilmlarning tiriltirilishi» asarida bayon etilgan. Ul zot dunyo qonuniyatlarini aql orqali bilishni e'tirof etgan, lekin Ollohni aql bilan anglash mumkin emasligini ta'kidlaganlar. U faqat qalb, maxsus ruhiy harakatlar — iltijo-ibodatlar ko'magida bilib boriladi. Mantiq, tabiatni bilish Ollohni tanishga xalal bermasa, ular ahamiyatlidir, agar aksincha bo'lsa, ularning maqomi chegaralanadi.

Rasmiyatchilik, aqidachilikni tasavvuf ahli qabul qilmagan. Ularning fikricha, iymon-e'tiqodning mohiyati Ollohdan boshqa narsaga muhtoj bo'lmaslik, hech qanday mulkning quliga aylanmaslik, boriga sabr-qanoat qilib yashashdir. Ollohga etishish uchun qalbn poklash, nafs balosidan ozod bo'lish darkor. Ana Shundagina inson dili nur bilan to'ladi, nuqsonlarni boshqalardan emas, o'zidan izlaydigan darajaga ko'tariladi, Haq sari yaqinlashadi, bema'ni qarash va tushunchalarning qullik kishanidan o'zini ozod qiladi, chunki inson qalbi hurdir.

Tasavvufda **kubraviya, yassaviya, naqshbandiya** tariqat-suluklari keng tarqalgan.

Kubraviya tariqatining asoschisi **Najmiddin Kubro**dir (1154-1226). Xevada tug'ilgan, yozgan asarlari orasida «SHarhus-sunna val-masolih», «Usuli ashara», «Favoihul-jamol» kabilar mashhurdir. Kubraviya tariqatining mohiyati o'nta usulda mujassamlashgan. Bular — tangriga o'z xohishi bilan Yuzlashish, zuhd fi dunyo — har qanday lazzatdan o'zini tiyish, tavakkul — Ollohga e'tiqodi pokligi uchun barcha narsalardan voz kechish, qanoat, uzlat — xilvatni ixtiyor qilish, mulozamat az-zikr — uzluksiz zikr, tavajjuh — Haqqa muhabbat qo'yish, sabr — nafs balosidan ozod bo'lish, muroqaba — tafakkurga g'arq bo'lish, rizo — tangri xushnudligini qozonishdan iborat.

Kubro mo'g'ullar bilan bo'lgan janglarda jasorat ko'rsatgan va shahid bo'lgan. Mo'g'ullar Kubroning nomi ulug'ligi, obro'si balandligini hisobga olib, unga ozod bo'lishi, omon qolishi mumkinligini, buning uchun esa qamal qilingan qal'adan chiqib ketishi kifoya ekanini bildirgan. Ammo Kubro bunday jon saqlagandan ko'ra, o'z xalqi bilan birga yurt himoyasi yo'lida jon berishni afzal ko'rgan. Rivoyat qilishlaricha, ul zot qartayib qolganiga qaramay, jangchilarga faol ko'mak bergan. Buni ko'rgan shogirdlaridan biri «Ustoz, anchadan beri bayroq ko'tarib charchadingiz, uni menga bering», deganida, u «Agar kuchim bo'lganida qilich yoki kamon olgan bo'lar edim. Bayroqni bizga qo'yingda, siz yo qilich yoki nayza bilan yog'iyga qarshi kurashing», degan ekan. U bayroqni Shunchalik mahkam ushlagan ekanki, xalok bo'lganidan keyin qo'lidan bayroqni olishning iloji bo'lmaganidan, bir mo'g'ul Kubroning qo'lini kesib olgan ekan.

YAssaviya tariqatining asoschisi **Xoja Ahmad YAssaviy**dir (1166 yilda vafot etgan). U Turkistonning Sayram muzofotida tug'ilgan, mashhur mutasavvif YUsuf Hamadoniyning (1140 yilda vafot etgan) ta'lim-tarbiyasi bilan voyaga etgan, orif maqomiga erishgan. YAssaviy ustozining vafotidan keyin muayyan bir muddat uning maqomida turgan, so'ng esa bu maqomni Abduxoliq Fijduvoniya qoldirib, YAssi — Turkiston shahriga qaytadi va o'z tariqati, yo'l-yo'riqlarini tashviq etish bilan mashg'ul bo'ladi.

YAssaviyning oddiy xalq tuShunadigan uslubda yozilgan, tasavvufiy qarashlarini aks ettirgan hikmatlari devonida o'z aksini topgan. Unda ilohiy ishq, Haq vasliga etishish, uning ishqida parvona bo'lish, undan boshqa narsaga ko'ngil qo'ymaslik haqida fikr yuritilgan. YAssaviy riyozat, chilla, zikrga alohida ahamiyat berib, hayotining aksariyatini chillaxonada o'tkazgan. YAssaviy tariqati Turkiston o'lkasi, Ozarboyjon, Turkiya, SHimolda — Qozongacha, Farbda — Bolqongacha keng tarqalgan.

Bahouddin Naqshband (1318-1389 yillar) naqshbandiya tariqatining asoschisidir. Bu ta'limotning mohiyati «Dil — ba yoru dast — ba kor» shiorida yaqqol ifodasini topgan. Inson Olloh inoyati natijasi bo'lib, bu dunyoni unutib qo'ymasligi lozim, uning qalbi doimo Ollohda, qo'li esa mehnatda bo'lmog'i lozim. U tasavvufning barcha tariqatlari singari shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlarini e'tirof etadi.

Naqshbandning ta'kidlashicha, shariat — ahdga vafo, islomning beshta asosiy talabiga rioya qilish, dil va til birligi. Tariqat esa, o'zidan kechish, fano bo'lishdir. Haqiqat — behuda ishlardan

uzoqlashish, haq ishlarga bog'lanish. Demak, shariat — qonun, tariqat — yo'l. Qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi. Yo'l esa ko'ngilni poklab, ruhni ilohiy quvvatdan bahramand qiladi.

Kubraviya, yassaviya va naqshbandiya ta'limotlari ma'naviyatimiz tarixida juda katta o'rin tutgan. Ular ma'naviy taraqqiyotda muhim ahamiyatga molik bo'lib, o'z ta'sirini haligacha yo'qotmagan.

Vatanimiz sivilizatsiyasining Sharq xalqlari, arab madaniyati va islom falsafasi rivojiga ta'siri nihoyatda katta bo'lgan. Uning hududida arab xalifaligidan nisbiy mustaqillikka erishgan davlatlarning tashkil topishi, xalqimizning bag'rikengligi tufayli Yangi marralarga erishildi. Dunyoviy va diniy sohalaridagi madaniy-ma'naviy yuksalish mazkur uyg'onish davrining yorqin timsolidir. «Avesto» an'analari, tabiatni o'rganishdagi yutuqlar, gumanitar sohadagi ijobiy siljishlar, Sharq xalqlari, arab madaniyati va islom falsafasi rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi. O'sha davrda jahon miqyosida Vatanimizning ma'naviy-intellektual nufuzi ortib bordi. U jahondagi yirik madaniyat va ilm-fan markaziga aylandi.

Bahouddin Naqshband asos solgan so'fiylik ta'limotining nazariy asoslaridan birini Xudo, dunyo va insonning o'zaro nisbati muammosi tashkil etadi. Bu bosh muammo talqinida so'fiylarni ikki yo'nalish – teistik va panteistik yo'nalishlarga ajratish mumkin. Alloh hamma narsaning yaratuvchisi deb e'tirof etilgan, insondan tashqarida turgan, dunyo uzra yuksalgan va bilish mumkin emas deb e'lon qilingan bo'lsa, so'fiylar ta'limoti monoteizm shakl-shamoyilini kasb etgan, dunyo va Xudo tushunchalari tenglashtirilgan taqdirida bunday ta'limot panteistik deb hisoblangan²².

Bahouddin Naqshband hayotning mazmunini Haqiqat (Alloh)ga erishishga intilishda ko'rgan va Haqiqat (Alloh)ga erishish tashqi narsalar haqidagi bilim – shariatga asoslanadi va ichki narsalar haqidagi bilim – tariqat jarayonida Yuz beradi, deb hisoblagan. U shariat Qur'oni karim va hadislarni bilishdan kelib chiquvchi diniy qonun-qoidalar to'plami ekanligidan kelib chiqqan. Tariqat odam Haqiqatga erishish uchun qaysi bosqichlardan o'tishi, Allohni anglash va u bilan birikish uchun qanday to'siqlarni engishi lozimligini belgilaydi. Bunda bilish jarayonida shariatdan tariqatga o'tish darhol Yuz bermaydi. Faqat shariatni o'zlashtirish va uning talablarini bajarish orqali Haqiqat yo'lidan jadalroq va samaraliroq borish mumkin.

Odam bilishning har bir bosqichi (mistik yo'l manzillari)dan oldinma-ketin o'tib o'z maqsadiga yaqinlashadi. So'fizm nazariyasi va amaliyoti ongning tashqidan ichkiga, ochiqdan yashiringa sayohatini nazarda tutadi. Bahouddin Naqshband tariqat ezoterik (yashirin, mistik) fan, u hammaga ochiq emas, uni faqat o'zini Haqiqatga baxshida etgan odamlar anglab etishi mumkin, deb hisoblagan.

So'fizmda mistik bilish zahirida «O'zini bilgan odam o'z Allohini biladi» degan tamoyil yotadi. O'zini o'zi bilish orqali Allohni bilish maqsadga erishishning eng qisqa yo'lidir. Bahouddin Naqshband yaratgan ta'limotning asosida «Dil ba yor-u, dast ba kor», ya'ni «Ko'ngil yorda, qo'l – ishda», degan shior yotadi.

3. Dunyoviy bilimlar rivoji va falsafiy tafakkur

O'rta asrlar Sharq falsafiy tafakkurining rivojlanish xususiyatlari. Markaziy Osiyo – sivilizatsiyaning qadimgi o'choqlaridan biri. VIII-IX asrlarda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirgan. Bu davrda xalifalik markazlari – Bag'dod va Damashqda madaniyat va fan ravnaq topdi.

Xalifalar al-Mansur (754-776), Horun ar-Rashid (786-809), Ma'mun (813-833) hukmronligi davrida hind va yunon adabiyotlarining tarjimalariga qiziqish ayniqsa kuchaydi, Aristotel, Galen, Gippokrat, Arximed, Evklid kabi yunon faylasuflarining ilmiy merosi o'rganildi. IX asr boshida Bag'dodda «Dor ul hikmat» - «Bilim uyi» tashkil etildi. Bu dargohda xalifalikning turli shaharlaridan taklif qilingan olimlar astronomiya, tibbiyot, tarix, geografiya, kimyo, falsafa va boshqa fanlarni sinchiklab o'rgandilar.

IX asrda boshlangan arab istilosiga qarshi kurash mustaqil davlat qurish va xalifalikka qaramlikdan xalos bo'lish uchun kurashga aylandi. Natijada Markaziy Osiyo mo'g'ullar istilosini boshdan kechirdi va unga qarshi kurash jarayonida XIII asr boshlarida bir necha davlatlar –

²² Қаранг: Шайх Баховуддин Накшбанд: его значение для религиозного мировоззрения, влияние его учения на этику и политику. – Т.: Мовароуннахр, 1997. – С 13

Tohiriylar, Somoniylar, Saljuqiylar va G'aznaviylar davlatlari paydo bo'lib, ular keyinchalik tor-mor qilindi.

IX asr boshlarida dastlab Somoniylar davlati vujudga kelgan bo'lsa, XIII asrning 20-yillarida Xorazmiylar davlati mo'g'ullarning uzluksiz hujumi ostida qoldi. Biroq, ko'p asrlik urushlarga qaramay, Markaziy Osiyoda madaniyat, fan, san'at va adabiyot rivojlanishda davom etdi.

Bu davrda al-Xorazmiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, va boshqa buyuk allomalar yashab ijod qildilar. Ular yaratgan asarlar ahamiyatiga ko'ra o'sha davrni Markaziy Osiyoda uyg'onish davri deb nomlash mumkin. Uyg'onish davri fani va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. barcha odamlarni ma'rifatli qilishga intilish, bu yo'lda o'tmish merosidan va qo'shni mamlakatlarning fan, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, tabiiy-falsafiy va ijtimoiy fanlarni rivojlantirish;

2. tabiatni o'rganish, tabiiy-ilmiy bilimlarni oqilonalikka tayanib rivojlantirish, aqlning kuchiga ishonish, asosiy e'tiborni haqiqatni bilishga qaratish, haqiqatni inson bilimining negizi deb bilish;

3. insonga xos tabiiy, badiiy, ma'naviy fazilatlarini yuksaltirish, insonparvarlikni ulug'lash, barkamol avlodni tarbiyalashda oliy ma'naviy qonunlarga rioya qilish;

4. universalizm – borliq va ijtimoiy hayotning barcha muammolariga qiziqish, bu davr madaniyatining muhim jihatlari.

Bu davr madaniyati umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishiga xizmat qilgan. Savdo-sotiqning rivojlanishi, iqtisodiy aloqalarning kengayishi, xalifalikning turli viloyatlari o'rtasida madaniy qadriyatlar almashinuvi va uning boshqa mamlakatlar bilan aloqalarining kuchayishi, tabiiy va madaniy boyliklar, turli xalqlarning an'analari, tili va tarixini o'rganish bilishning eng to'g'ri yo'llari va usullarini yaratish, bilish jarayonining butun apparatini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Fanning optika, matematika, astronomiya kabi tarmoqlarining jadal rivojlanishi tabiatni chuqur o'rganish va tadqiqot metodlarini kengaytirishga imkoniyat yaratdi. O'rta asrlarda Sharq falsafasi mifologiya va din qo'ynidagina emas, balki fan qo'ynida ham rivojlanadi. Sharq olimlari matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, tarix, alximiya sohasida qo'lga kiritgan yutuqlar ma'lum. Odatda tabib, munajjim, sayyoh bo'lgan Sharq faylasuflari asbtrakt mulohazalardan ko'ra ko'proq tabiatshunoslik va tajribaga tayanganlar.

Sharq falsafiy tafakkurining yirik namoyandalari orasida Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf, qomuschi-olim, YAqin va O'rta Sharqda aristotelizm asoschilaridan biri Forobiy, buyuk faylasuf va tabib Ibn Sino (Avitsenna), atoqli astronom, matematik, shoir va mutafakkir Umar Xayyom, tabib va faylasuf Ibn Rushd (Averroes) bor.

Diniy bag'rikenglik va dunyoviy bilimlar takomili. Musulmon Sharqi, jumladan islom joriy etilganidan keyin Vatanimiz hududidan etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar ijodida Olloh, inson va tabiat masalalari ilohiyot va dunyoviy falsafaning muhim muammolaridan biri bo'lib kelgan. Bironta buyuk alloma va mutafakkir islomiy qadriyatlar mavzuini chetlab o'tmagan.

Diniy ilmlar sohalarida imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Abu Hanifa, imom Moturidiy va imom Burhoniddin Marg'inoniylar peshqadamlik qilganlar.

Imom Buxoriy (810-870yillar) yirik ilohiyotchi, muhaddis sifatida 60 mingga yaqin hadis to'plagan, ulardan ishonchli deb topganlarini maxsus to'plam holiga keltirgan. Bu to'plam «Sahihi Buxoriy» nomi bilan mashhurdir.

Imom iso Termiziydan (824-892) «Payg'ambarning alohida fazilatlarini», «Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola», «Tarix» va boshqa asarlar meros bo'lib qolgan. Imom Termiziy hadislarni muntazam ravishda to'plab, muayyan tartibga solgan va yaxlit bir kitob shakliga keltirgan.

Abu Hanifa an-Nu'mon hanafiya mazhabiga asos solgan, barcha islom tarqalgan hududlarda o'z mavqeiga ega bo'lgan. Bu mazhabning muhim jihatlari kalam va ilohiyot sohalarining piri Abu Mansur Moturidiy (vafoti 944 y.) ning «Tavhid» va «Ta'vilot» asarlarida va Burhoniddin al-Marg'inoniy (1123-1197) ning «Hidoya» to'plamida o'zining yorqin ifodasini topgan. Ularning asarlarida aql maqomi va mantiq ilmiga, ilm va dalilga keng o'rin berilgan.

Muhammad al-Xorazmiy (783-850) va Ahmad al-Fargʻoniy (taxm. 797-865) butun musulmon Sharqi va jahonda tabiiy va aniq fanlar rivojiga salmoqli hissa qoʻshgan buyuk allomalardir. Muhammad al-Xorazmiy arab xalifaligining poytaxti Bagʻdodda «Donishmandlik maskani» («Bayt ul-hikma») ga rahbarlik qilgan. Uning «Astronomiya jadvali», «Hind hisobi toʻgʻrisida risola», «Quyosh soati toʻgʻrisida risola», «Musiqqa haqida risola», «Tiklash va qarshi qoʻyish hisobiga oid muxtasar kitob» kabi asarlarida algebra sohasiga asos solindi.

Sharq xalqlari orasida «Buyuk matematik» unvoniga sazovor boʻlgan Ahmad al-Fargʻoniy (taxm. 798 y. da Quvada tugʻilgan) astronomiya va matematika sohalarda nom taratdi. Uning «Samoviy jismlar harakati va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob», «Astronomiya asoslari», asarlarida koinot xaritasi tuzildi. Er va fazoviy sayyoralar hajmi, iqlimlar, joʻgʻrofiy kengliklar toʻgʻrisida kuzatuvchilar orqali asoslangan Yangi maʼlumotlar berilgan, ilm-fanning Yangi yoʻnalishlariga asos solingan. Qoʻlga kiritilgan maʼlumotlarni umumlashtirish, tadqiqotda hissiy va aqliy mushohada mushtarakligi allomaga xos xususiyatlar sifatida dunyoqarashni shakllantirishning muhim omillari boʻlib keldi va undan keyin yashagan ilm ahliga taʼsiri sezilib turdi.

Falsafa, tabiatshunoslik va tibbiyot tarixini Forobiy, Beruniy va Ibn Sinosiz tasavvur qilib boʻlmaydi. **Abu Nasr Forobiy (873-950)** - musulmon Sharqida Arastudan keyin «ikkinchi ustoz» unvoniga muyassar boʻlgan yirik mutafakkir va alloma. Uning qalamiga 160 dan ziyod asar mansub boʻlib, ular asosan qadimgi yunon olimlari asarlaridagi tabiiy-ilmiiy va falsafiy muammolar sharhlash hamda bu sohalarning dolzarb masalalarini tahlil qilishga bagʻishlangan. Mutafakkir olamni ikki koʻrinishda: «Vujudu vojib» (olloh) va «vujudi mumkin» (barcha moddiy va ruhiy narsalar) misolida talqin qiladi, barcha narsalar «vujudi vojib» tufayli yashash huquqiga ega boʻladi. Ular oʻzaro bir-biri bilan sababiy tarzda bogʻlanadi. Sababsiz oqibat boʻlmaganidek, oqibatsiz sabab ham boʻlmaydi, deydi Forobiy.

Olam sifat, miqdor, javhar, aksidensiya (muhim boʻlmagan xossa), imkoniyat, zaruriyat va tasodifiyat, makon va zamon, harakat va rivojlanish kabi tushunchalarda ifodalanadi. Ular fazoviy jismlar, aqlli mahluq (inson), aqlsiz jonivorlar, oʻsimliklar, minerallar va toʻrtta unsur-suv, olov, havo va tuproq kabi oltita koʻrinishda namoyon boʻladi.

Bilish jarayoni aql va sezgilar orqali Yuzaga keladi. Bilishda aql va mantiq ilmining maqomi beqiyosdir. Aql vositasida inson ilm-fanni yaratadi. Fan tufayli hodisalar mohiyati ochib beriladi. Har bir fan insonning muayyan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Mutafakkir oʻz asarlarida komil inson, fozil fuqaro, odil hukmdor, baxt-saodat, unga erishish yoʻllari, davlatning xususiyatlari, ahloqiy va aqliy tarbiya, ijtimoiy istiqbol toʻgʻrisida ilgʻor gʻoyalarni ilgari surgan. Forobiyning Sharq xalqlari falsafiy tafakkuri rivojiga boʻlgan taʼsiri sezilarli boʻlgan.

Abu Nasr Muhammad ibn Tarxon al Forobiy (870-950, asarlari: Kitob-ul xuruf, Fozil odamlar shahri, Ehsoul ulum, Siyosat falsafasi, Fuqarolik siyosati) falsafa va tabiiy fanlar tarixiga oid Yuzga yaqin asar muallifidir. U fanlar bilish vositalari ekanligidan kelib chiqqan. Bunda mutafakkir nazariy (mantiq, falsafa, tabiiy fanlar) va amaliy (axloq, siyosat) fanlarni farqlagan. Fanlar tizimida u insonga haqiqiy bilimni soxta bilimdan farqlash imkonini beruvchi mantiqni birinchi oʻringa qoʻygan. Ayni Shu sababli faylasuf inson tafakkuriga alohida eʼtibor bergan. Aynan falsafa insonga borliqning mohiyatini tushunish imkonini beradi. Borliq «yagona» va ayni vaqtda «koʻp»dir. Borliqning mazkur holati emanatsiya, yaʼni «yagona» muhitdan borliqning turli muhitlari kelib chiqishi mahsulidir. Forobiy asarlarida dunyo bir-biriga kiruvchi toʻqqiz gumbaz koʻrinishida namoyon boʻladi. Bu gumbazlarda ularning Er atrofida aylanishi sababi hisoblangan jonlar yashaydi. Gumbazlar oʻz harakatini dastlabki turtkidan boshlagan. Forobiy dunyoning rang-barangligini tushuntirish uchun Aristotelning shakl va materiya haqidagi taʼlimotidan foydalangan. U jonning umrboqiyliги haqidagi masalada Platon fikriga qoʻshilmagan, chunki uning paydo boʻlishi va oʻlimi tananing paydo boʻlishi va oʻlimi bilan bir vaqtda Yuz beradi, deb hisoblagan. Ayni Shu sababli Forobiy ijodida bilish nazariyasi Platondagi kabi xotirlash nazariyasi emas, balki dunyoni sezgi va aql birligi sifatida anglab etish nazariyasidir. Bunda aqlli jon narsalar tabiatini sezgilar idrokidan foydalanib anglab etadi. Narsalarning mohiyati aql bilan anglab etiladi. Bunda aql avvalo mantiqqa tayanishi, lekin sezgi aʼzolari beruvchi materialdan foydalanishi lozim.

Forobiy borliqning birinchi sababi va harakat manbai sifatida Xudo mavjud deb hisoblagan bo'lsa-da, uning falsafasi bilish va borliqning murakkab masalalarini echishga intilish bilan tavsiflanadi. Ayni Shu sababli faylasuf borliqning holatlarini, uning shakllarini: oddiy elementlar – havo, olov, er, suvni; Shuningdek minerallar, o'simliklar, hayvonlar, inson va osmon jismlarini sinchiklab o'rganadi. Shu tariqa u tashqi dunyoning ob'ektiv mavjudligiga urg'u beradi. Forobiyning falsafiy qarashlari Sharq falsafasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Forobiyning gnoseologiyasi tabiatshunoslik, matematika, musiqa, tilshunoslik va boshqa fanlar sohasidagi bilimlarga asoslanadi. U tabiat insondan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir, deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, ob'ekt sub'ektga qadar mavjud bo'lgan. Seziladigan narsalar sezgilardan oldin paydo bo'lganidek, bilish mumkin bo'lgan narsalar ham bilishdan oldin paydo bo'lgan²³.

Forobiy fikricha, inson bilimlarni tashqi dunyodagi hodisalarni bilish jarayonida o'zlashtiradi. Bu jarayon sezish, idrok etish, xotirlash, tasavvur qilish va eng muhimi – mantiqiy mulohaza yuritish, tafakkur kabi usullarni qamrab oladi. Bu vositalar yordamida inson fanni o'rganadi. Forobiy «Fan va san'atning o'ziga xos xususiyatlari» asarida tabiatni bilishning uzluksizligini, bilish – bu bilishdan bilimga, sababni bilishdan oqibatni bilishga, hodisani bilishdan mohiyatni bilishga eltuvchi yo'l ekanligini qayd etadi.

Forobiy fikricha, inson paydo bo'lganidan so'ng avvalo «oziqlantiruvchi kuch» paydo bo'ladi, uning yordamida oziqlanish jarayoni Yuz beradi. So'ngra sezgi organlari paydo bo'ladi, ular insonga sezish, tasavvur qilish qobiliyati va xotirani beradi. Shundan keyingina inson «orzu kuchi» yordamida bilim va hunarlarni o'zlashtiradi, foydali narsalarni foydasiz narsalardan farqlaydi, o'z xulq-atvorini tartibga soladi. Forobiy insonning barcha kuchlari ma'lum sezgi organlari bilan moddiy sabab orqali bog'lanadi, bu kuchlarning birortasi ham moddiy sababsiz mavjud bo'la olmaydi²⁴, deb hisoblaydi.

Forobiy inson ruhining bir tanadan boshqa tanaga o'tishini qat'iy rad etadi va ruh ham, tana kabi substansiyalarning individual birligidan iborat, deb hisoblaydi. Uning bu fikri noizchil bo'lgan. Bunday noizchilik Aristotelning bilish nazariyasida ham kuzatiladi.

Aristotelga ergashib Forobiy ham ayrim narsalar birlamchi, mavjud tushunchalar va g'oyalari – ikkilamchidir va ular aqlda muayyan narsalarning mavhumlashishi natijasida paydo bo'ladi, deb hisoblaydi. Forobiyning bu g'oyalari universalialar va umumiy tushunchalar haqidagi qarashlarida yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Universalialar mavjud bo'lgani uchun ham umumiy tushunchalar mavjuddir,²⁵ deb hisoblaydi buyuk mutafakkir.

Bilish bosqichlari o'rtasidagi farqlarni tushunish Forobiyga bilish yo'llari to'g'risida mulohaza yuritish imkonini beradi. Bilishning fiziklar foydalanuvchi birinchi yo'li sezishdan boshlanishi lozim, chunki tana sezgiga yaqinroqdir. Bu hol sezgilar muayyan narsalarni aks ettirishi bilan izohlanadi. Narsalar sezgi organlarida aks etgach, jismni va uning Yuzasi, chiziqdari va nuqtalarini mavxum o'rganishga o'tishi lozim. Matematiklar jismning u yoki bu jihatlarini teranroq bilish uchun foydalanuvchi bilishning ikkinchi yo'li mavhumlashtirishdan boshlanishi darkor. Bilishni mavhum nuqtadan boshlagan aql muayyan jism bo'ylab harakatlana boshlaydi, mavhum chiziq, Yuza, jismni ang'laydi va so'ngra muayyan jismni tushunib etadi.

Ilmiy bilim va falsafiy tafakkurning rivojlanishi bilish yo'llariga boshqacha nazar tashlash imkonini beradi, biroq Forobiy ilgari surgan g'oya Hegel falsafasida o'zining yanada barkamolroq ifodasini topadi. «Vazifa bilishdan iborat bo'lgani tufayli, kuzatish bilan taqqoslash haqidagi masala undan voz kechish ma'nosida echilgandir. Endilikda masala faqat bilish doirasida nima birinchi bo'lishi va undan keyin nimalar ang'lab etilishi lozimligi haqida bo'lishi mumkin. Endi tabiatga muvofiq yo'l emas, balki bilishga muvofiq yo'l talab etiladi. Bilish fikrning muayyan mazmunidan ko'ra, mavhum mazmuni ang'lab etishi osonroqdir»²⁶. Binobarin, bilish masalasi

²³ Каранг: Фароби. Комментарий к категориям Аристотеля // Избранке произведения мкслителей стран Ближнего и Среднего Востока. – М., 1961. – 191-б.

²⁴ Каранг: Фароби. Фуус ал-Хикам. Мажему аль-Фараби. – Каир, 1997. – 150-152-б

²⁵ Фароби. Китаб ал-Хуруф. – Душанбе: Илм, 1972. – 25-б

²⁶ Ўша манба, –Б. 36

borliqning qaysi jihati biluvchi sub'ektning ob'ekti hisoblanishidan kelib chiqib hal qilinadi. Umuman, Forobiy g'oyalari nafaqat Sharq fanining, balki G'arb ijtimoiy-falsafiy tafakkurining rivojida ham muhim rol o'ynadi.

Abu Rayhon Beruniy (973 — 1048) deyarli barcha fan sohalarida ijod etgan buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkirdir. U yaratgan 152 ta asardan 28 tasi bizgacha etib kelgan. Uning tabiatni o'rganishdagi xizmati kattadir. Alloma jismlarning o'zaro tortiShuvi, Quyosh va Oyning tutilishi, zarra, inersiya va sun'iy tanlanish, rivojlanish anomaliyasi, Er qa'rida ro'y beradigan geotektonik siljishlar, Er qiyofasining tadrijiy tarzda o'zgarib turishi, xilma — xil olamlar to'g'risida ilmiy bashoratlarni ilgari surgan. Uning falsafiy qarashlari tabiiy-ilmiy qarashlari ta'sirida shakllandi. U modda va zamon, qonuniyat, zaruriyat va tasodifiyat, harakat va rivojlanish, ziddiyat, sabab va oqibat kabi falsafiy muammolarga katta e'tibor bergan.

Beruniyning asarlarida bilish masalalari muhim maqomga egadir. Bilishga bo'lgan qiziqishning ikkita sababi bor. Birinchidan, bu o'ziga xos lazzatdir. Ikkinchidan, bilishdan maqsad odamlar ehtiyojlarini qondirishdir. Bilish sezgilar etkazib bergan ma'lumotlardan boshlanadi. Ular bilishning yuqori bosqichi aqliy bilish uchun o'ziga xos ko'makchi va asos bo'lib xizmat qiladi. Bilimning chinligi kuzatuv va sinov — tajriba orqali belgilanadi. Ular tufayli ashjolarning muhim jihatlari o'rganiladi, ularning miqdoriy tomonlari aniqlanadi, bilish jarayonining samaradorligi oshib boradi.

Beruniyga ko'ra, inson qiyofasi tabiat ta'sirining natijasidir. Uning ichki qiyofasiga kelsak, uni inson cheksiz sa'y-harakatlar oqibatida tubdan o'zgartirishi mumkin. Har bir kishi o'z xulq-atvorining sohibidir. Jamiyat tadrijiy o'zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Adolat, fuqaro uchun g'amxo'rlik, zulmni bartaraf etish, jamiyatni aql va adolat tug'i ostida boshqarish mutafakkirning idealidir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yillar, asarlari: "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Minerologiya"), tabiat va uning ob'ektiv qonunlari mavjudligiga Shubha qilmagan. U tabiat muttasil o'zgarish va rivojlanishda bo'ladi, materiya narsalar shaklini o'zi yaratadi va o'zgartiradi, jon (tafakkur, ma'naviy hodisalar) tananing muhim xossasidir, deb ta'kidlagan.

Ma'lumki, tajriba, eksperiment borliqni bilish usullaridan biri hisoblanadi. Beruniy Shunday deb yozadi: «Mendagi ishtibohni faqat tajriba va takroriy sinov bartaraf etishi mumkin, ...so'zlovchilarning yakdilligiga qaramay, buning haqiqiyliigi tajribada o'z tasdig'ini topmagan»²⁷.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, «Beruniyni etarli asos bilan o'rta asr fanida empirik metod yaratuvchilaridan biri deb hisoblash mumkin. U metallar va minerallarning xossalari va solishtirma og'irligini aniqlash bo'yicha bir qancha tajribalar o'tkazdi»²⁸. Tajribada olingan bilimni mutafakkir ayrim me'yorlarga muvofiq ishonchli bilim deb talqin qiladi. Ularning orasida ob'ektlarning kuzatuvchanligi, tajribalarning qayta o'tkaziluvchanligi va kuzatishlarning tekshiriluvchanligini qayd etish mumkin.

Bu mulohazalar tajriba, bilim olish va uning haqiqiyliigini tekshirish metodi sifatida, o'rta asr sharoitida ham ancha keng tarqalgan, deb aytish imkonini beradi.

G'oya ilgari surilgani va ishonchli bilimning olinishi tajriba bilan bog'lanishi, bilimning haqiqiyliigi tajribada sinalishi muhimdir.

Beruniyning ijodida kuzatish muhim o'rin egallaydi. Tabiatni ilmiy o'rganishda kuzatish bilishning boshqa shakllari bilan o'zaro bog'langan.

Beruniy fikricha, kuzatuvchi kuzatilayotgan hodisani u Yuz berayotgan joyda idrok etadi²⁹. Binobarin, kuzatish u yoki bu hodisani uning muayyan ko'rinishida qayd etadi³⁰. Kuzatishlarning eski ma'lumotlari ob'ektning haqiqiy ko'rsatkichini ancha buzib ifodalashi mumkin.

Beruniy tadqiqotchi o'tkazgan tajriba va uning natijasi amalda ishonchli ekanligini qayd etadi. U «Sinovdan boshqa ustuvor dastur, tajribada tekshirishdan o'zga muvaffaqiyatga eltadigan dasturilamal yo'q»³¹, deb yozadi.

²⁷ Abu Rayhon al-Biruni. Избранные произведения в 6 т. - Т. 3. - Т.: 1963. - С. 44.

²⁸ Хайруллаев М. Философское наследие народов Средней Азии и борьба идей. - Фаргона, 1988. - С.39.

²⁹ Каранг: Abu Rayhon Beruni. Избранные произведения. В 6-т. Т. 3. - Т.: 1963. - 57-б.

³⁰ Abu Rayhon Beruni. Избранные произведения. В 6-т. Т. 3. - Т.: 1963. - Б.260.

Beruniy astronomik kuzatishlar vositasida Oy va Quyoshning tutilishi, ularning Erdagi hayotga ta'siri, iqlim, tabiiy va sun'iy tanlanish, saqlanish, rivojlanish anomaliyasi kabi murakkab muammolarni Yangi ilg'or metod va nazariy tamoyillar yordamida echishga harakat qildi.

Beruniy Sharqda astronomiya kuzatish asboblari yaratish texnikasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixida ham etakchi o'rinlardan birini egallaydi. U o'sha davrda ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanilgan eski asboblarni takomillashtirish va Yangilarini yaratishga alohida e'tibor bergan. Olimni o'ta aniqligi va mukammalligi bilan ajralib turuvchi kuzatish asboblari yaratish imkoniyati masalasi qiziqtirgan.

Shunday qilib, samo jismlarining holatlarini nafaqat asboblari vositasida, balki o'rganilayotgan ob'ekt xususiyatiga muvofiq amalga oshirishni allomaning ulkan xizmatlaridan biri deb hisoblash mumkin. Bunday metodologik mo'ljal, ilmiy tadqiqotlar jabhasi cheklanganligiga qaramay, ilmiy bilishning Yangi yo'llari va vositalarini topish borasidagi izlanishlarda muhim rol o'ynadi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) buyuk alloma va mutafakkir. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, Hamadon shahrida vafot etgan. Ibn Sinodan qolgan ma'naviy me'ros taxminan 280 nomdan ziyodroqdir. Ular tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, axloq, musiqa, farmakologiya va boshqa sohalarga bag'ishlangan. Olimning «SHifo kitobi» «Tib qonunlari», «Bilimlar kitobi», «Tabiat durdonasi» kabi asarlari mashhurdir. Borliqni talqin etishda Ibn Sino Forobiy izidan borib, uni «vujudi vojib» va «vujudi mumkin»dan iborat, deb e'tirof etadi. «Vujudi vojib» birinchi sabab vazifasini bajaradi. «Vujudi mumkin» esa uning oqibatidir. Yaratilishi doimiy bo'lganligi uchun yaratilgan «vujudi mumkin» ham abadiydir. Olimning sababiyatga oid mulohazalari e'tiborga molikdir. Unga ko'ra, sabablar moddiy (muayyan holatni keltirib chiqaruvchi sabab), faol (muayyan holatni o'zgartiruvchi sabab), shakliy (turli xil quvvatlar bilan bog'langan sabab) va tugallovchi (barcha sabablarning pirovard maqsadi) sabablardan iboratdir.

Ibn Sino Zakariyo ar-Roziy va Beruniy kabi jahon falsafiy tafakkuri tarixida birinchilardan bo'lib kuzatuv va tajribaga muhim e'tibor qaratdi. Masalan, alloma ular ko'magida xastaning holati, kelajakda kutilayotgan kayfiyati, dori-darmonlar tarkibi, inson va atrof-muhit o'zaro munosabati muammolarini hal etishga urinadi.

Mutafakkir o'z asarlarida ilm va axloq-odob uyg'unligi, inson kamoloti, baxt-saodat, ijtimoiy adolat, kishilarning o'zaro hamkorligi, hukmdorning burchi to'g'risida qiziqarli g'oyalarni ilgari surgan. Uning ta'kidlashicha, barchani bir xil ijtimoiy mavqega erishtirib bo'lmaydi. Aslida ular uchun muayyan sharoit yaratib bermoq lozim. Barchaning boy va mansabdor bo'lishi yoki hammaning qashshoq bo'lishi jamiyatning tanazzuli va inqirozidir. Lekin inson o'zgalarga mehr-oqibatli, g'amxo'r bo'lmog'i, kerak vaqtda saxovat va muruvvat qo'lini nochorlarga uzatishi zarurdir.

Abu Ali ibn Sino (980-1037 Buxorolik Ibn Sino (Avitsenna) 300 dan ortiq asar muallifidir Ularning orasida «Tib qonunlari» va «Bilim kitobi», "Donishnoma", "Xay ibn YAkzon" ayniqsa keng dovruq qozongan.). O'rta Osiyoning mashhur qomusiy allomasi va faylasufidir..

Ibn Sino merosining tahlili uning ilmiy qiziqishlari doirasi benihoyat keng, u tom ma'noda qomusiy bilimlar egasi bo'lganidan dalolat beradi. Ibn Sino fanlarning tadqiqot ob'ektlariga ko'ra ajratishga asoslangan tasnifini taklif qilgan.

Ibn Sino tabiat azaliy va abadiydir, uning qonunlari o'z-o'zidan o'zgarmaydi va inson ularni anglab etishga qodir, jon tana faoliyati bilan belgilanadi va uning individual umrboqiyliigi mumkin emas, degan fikrni ilgari surgan.

O'sha davrda u Shug'ullanmagan fanning o'zi bo'lmagan. Tibbiyot bilan bir qatorda, Ibn Sino falsafa, xususan bilish nazariyasini ham faol tadqiq etgan.

Ibn Sino moddiy dunyo predmetlarini sezgilar manbai deb hisoblab, ularning ob'ektiv tabiatini tashqi moddiy dunyo in'ikosi sifatida yoritadi. Bundan tashqari, u sezgini materiyaning xossalariidan biri deb e'tirof etadi. Alloma sezgini materiyaning oliy shakllari bilan bog'laydi. Ibn

³¹ Ўша манба, -Б. 340.

Sino mavjud narsalarni tasniflar ekan, sezgi hayvonlar deb ataluvchi jismlarga xosligini qayd etadi³².

Ibn Sino neoplatoniklarning jon hissiy narsalarni tananing biron-bir a'zosisiz idrok etadi, degan ta'limotini asossiz deb hisoblaydi. «Qadimda ayrim olimlar (neoplatoniklar) jon hissiy idrok etiluvchi narsalarni hech qanday organlarsiz bevosita sezadi, deb faraz qilganlar. Muhitga kelsak, bu, masalan, ko'rish uchun muhit bo'lib xizmat qiluvchi havo, organlarga kelsak, bu, ko'rish organi bo'lib xizmat qiluvchi ko'zdir. Biroq ular haqiqatdan uzoqdir, chunki hissiy idrok etish jonning o'zida bu organlarsiz Yuz berganida, mazkur organlar behuda yaratilgan bo'lib chiqar, ulardan hech qanday naf bo'lmas edi», deb yozadi va so'zining davomida neoplatoniklarning qarashlari asossiz ekanligini ta'kidlab, haqiqat sezgilar tana a'zolariga muhtojligidadir,³³ degan xulosaga keladi.

Ibn Sino sezgilar va sezgi organlari haqida gapirar ekan, u yoki bu sezgining Yuzaga kelish mexanizmini ilmiy tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, hech qanday jism o'z holicha ovozga ega bo'lmaydi. Ovoz ikki jism to'qnashganda havo va harakatning tebranishi natijasida Yuzaga keladi. Bu to'lqinlar juda tez tarqaladi. Ular quloqqa etgach, tebranuvchi havo eshitish nervlariga tegadi va ular bundan jonni xabardor etadi³⁴. Bu tavsif ancha sodda bayon etilgan bo'lsa-da, hozirgi tasavvurlarga mos keladi. Shuningdek, Ibn Sino sezgilarni hali ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazi sifatida idrok etmaganidan dalolat beradi. Sezgilarni tashqi ta'sirning organizmdagi harakati sifatida tushuntirar ekan, Ibn Sino uni mexanik talqin qiladi.

Ibn Sino ko'rish haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Ko'rish jarayonini tushuntirar ekan, u ayni vaqtda Platonning bu boradagi ta'limoti asossiz ekanligini ko'rsatadi. Ibn Sino yorug'likni ko'rishning asosiy vositasi sifatida alohida qayd etadi³⁵.

Alloma sezgilarni va tuyg'ularning barcha shakllarini o'rganib, ularning fiziologik asoslarini, ya'ni miya tuzilishida sezgi markazlarining joylashuvini tushuntirishga harakat qildi. Miyani aks ettirish faoliyatining bosh apparati deb talqin qilib, Ibn Sino hissiy bilish shaklini miya bilan bog'ladi va uni idrok etish va sezish asosi³⁶ deb e'tirof etdi.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, in'ikos faqat aks ettiruvchi tizimga bog'liq emas. Sezish markazi miyaning old qismida, tasavvur qilish markazi – miyaning o'rta qismida, eslab qolish qobiliyati – miyaning orqa qismida joylashgan. «Kitob un-najot» asarida Ibn Sino har bir sezgining fiziologik asoslarini tadqiq etar ekan, hissiy bilish jarayonida asablar muhim rol o'ynashini qayd etadi. Uning fikricha, miya asablar vositasida sezgilar va harakatlarni insonning boshqa a'zolariga uzatadi. Asablar miya uchun o'tkazgichlar bo'lib xizmat qiladi³⁷. Umumiy ma'lum tasavvurga ko'ra, asablar bosh miyada boshlanadi va ularning tarmoqlari terining Yuza tomonida tugaydi³⁸. Ko'rib turganimizdek, Ibn Sino hissiy bilishning fizik va fiziologik asoslarini ilmiy yo'l bilan tushuntirishga harakat qiladi.

Ibn Sino O'rta Osiyoning boshqa mutafakkirlari kabi tasavvurni ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Ibn Sinoning falsafiy merosini qiyosiy o'rganish tabiatni hamda tasavvurning gnoseologik funksiyasini tushunishda u asosan yagona yondashuvga tayanganini ko'rsatadi. Ibn Sino tasavvurning kuchi Shundaki, umumiy sezgiga kiruvchi hamma narsa bizning sezgilarimizgacha etib boradi,³⁹ deb qayd etadi.

Shunday qilib, Ibn Sino fikriga ko'ra, tasavvurning gnoseologik funksiyasi Shundan iboratki, u tashqi narsalarning obrazlarini gavalantiradi, hissiy idrok etiluvchi narsalar yo'qolganidan keyin ham ularni xotirada saqlab qoladi.

Ibn Sinoning fikricha, mohiyat uch tarzda namoyon bo'ladi. Birinchidan – narsa sezgilarda ularni kuzatish jarayonida aks etadi. Bu erda narsalarning sezgi organlarida bevosita aks etishi

³² Қаранг: Ибн Сино. Трактат о разделении существующих вещей. – Т.: Шарк, 1983. – 128-б.

³³ Ибн Сина. Книга исцеления. – Т.: Фан, 1967. – 265-266-б.

³⁴ Қаранг: Ибн Сина. Канон врачебной науки. Кн. 1. – Т.: Фан, 1996 – С 260-261.

³⁵ Қаранг: Ибн Сина. Книга спасения. – Т.: Шарк, 1986. – С 224.

³⁶ Қаранг: Ибн Сина. Канон врачебной науки. Кн. 1. – Т.: Фан, 1986. С– 38.

³⁷ Ибн Сина. Канон врачебной науки. Кн. 1. – Т.: Фан, 1986. –С.41

³⁸ Ўша манба, –Б. 99.

³⁹ Қаранг: Ибн Сино. Донишнома. – Т.: Фан, 1976. – 264-б.

nazarda tutilmoqda. Ibn Sino in'ikos konsepsiyasini bilish jarayoni sifatida qayd etar ekan, bilish darajalari to'g'risidagi masalani ko'taradi. Ma'lumki, bu mo'ljal Yangi davr falsafasida ishlab chiqilgan va nemis klassik falsafasida o'zining tadrijiy yakunini topgan.

Ikkinchidan – ob'ektiv borliqda amalda mavjud bo'lmagan narsaning mohiyati anglanadi⁴⁰. Bu erda formal ahamiyat kasb etuvchi va moddiy borliq bilan bog'lanmaydigan ideallashtirilgan ob'ektlar mohiyatini bilish nazarda tutiladi. Bu mohiyat inson aqlining ijodiy qobiliyatini namoyon etadi.

Uchinchidan – narsa obrazi muayyan sharoitlarda biluvchining jonida aniq aks etishi mumkin. Bu tamoyilda narsani sezgi bog'liq bo'lgan aloqalardan mavhumlashtirish imkonini beruvchi abstraksiyaning kuchi qayd etiladi. Bunda narsaning obrazi uning substrati mavjud emasligiga qaramay aks etishi mumkin. Shundan kelib chiqib, Ibn Sino oqilona bilishda mavhumlashtirish muhim rol o'ynashini qayd etadi. «Bilish narsa obrazini mavhumlashtirishning ayrim o'zaro bog'langan bosqichlaridan iborat jarayon bo'lib, uning natijasida biluvchining ongida predmetning mohiyati va xususiyatlarini ifodalovchi tushuncha vujudga keladi. Bunday mavhumlashtirish bosqichlari to'rtta».⁴¹

Ibn Sino «umumiy sezgi»ni ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Uning fikricha, umumiy tuyg'u – bu miyaning old qismida joylashgan kuch bo'lib, u besh sezgida aks etuvchi barcha shakllarni va ular uzatuvchi kuchni mustaqil qabul qiladi⁴². Binobarin, Ibn Sino fikriga ko'ra, sezgi organlari yordamida olingan tuyg'ular umumiy sezgi vositasida birlashtiriladi va narsaning hissiy obrazi yaratiladi.

Obraz deganda alloma narsaning tashqi xususiyatlari va xossalari, materiyaning aksidental tomonlari yig'indisini tuShunadi. Masalan, inson va uning obrazi haqida so'z yuritar ekan, u Shunday deb yozadi: «Uning obrazi bu uning uzunligi, kengligi, sifati, miqdori va uning holati, ya'ni inson bilan bog'liq barcha narsalardir»⁴³.

Ibn Sinoning yuqorida bayon etilgan g'oyalari ilmiy tafakkur shakllanishining keyingi davrlarida rivojlantirildi va Yangi natijalar bilan boyitildi.

Shunday qilib, bilish jarayonining pirovard maqsadi ob'ektlar mohiyatini bilishdan iborat bo'lgan murakkab jarayondir. O'rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari asosan bilish bilinayotgan ob'ektning in'ikosidir, degan nuqtai nazardan kelib chiqdilar. Bunda insonning sezgi organlari bevosita bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi, ya'ni sezgilar yordamida bilinuvchi ob'ektiv dunyo bilish manbai sifatida amal qiladi.

Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida keng tarqalgan tasavvuf ta'limotidagi komil inson maqomi, nafsni tiyish, bag'rikenglik, diniy donishmandlik, Muso al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg'oniy tadqiqotlarida ilgari surilgan tabiiy-ilmiy g'oyalar, Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari, fandagi Yangi yo'nalishlar birinchi galda musulmon Sharqi, qolaversa, butun jahon tabiiy-ilmiy va falsafiy tafakkurining ravnaqiga hayotbaxsh ta'sir o'tkazib keldi.

XIV asrning oxiri-XV asrning boshlarida Amir Temur amalga oshirgan harbiy yurishlar natijasida o'lka mustaqilligi qo'lga kiritildi. Temur va temuriylar davrida uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi boshlandi. Bu ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnash bosqichi bo'ldi. Ma'naviyatga homiylik harakati avj oldi. Bunga Samarqandda Ulug'bek astronomiya maktabining vujudga kelishi, rasadxonaning qurilishi, mashhur olimlar Qozizoda Rumiy, al-Koshiy, Ali Qushchi va boshqalarning fandagi jonbozligi yaqqol misoldir. Bu masala keyingi ma'ruza uchun mavzu bo'lib hisoblanadi.

Afsuski, bu madaniy uyg'onish mo'g'ul bosqini tufayli tanazzulga Yuz tutdi. Amir va sultonlar o'rtasidagi o'zaro ixtiloflar, noahillik CHingizxon bosqiniga qo'l keldi. Bu bosqin mo'g'ullarning 1218 yilda O'tror shahrini bosib olishi, uning hokimi, Xorazmshohning qaynog'asi, Inolchiqni bandi qilishi va qulog'iga qaynab turgan kumushni quyib yuborishdek xunrezlikdan boshlandi. Mo'g'ullarning hukmronligi davrida ana Shunday qonxo'rlik tinimsiz davom etdi.

⁴⁰ Қаранг: Ибн Сино. Избранные философские произведения. – М.: Наука, 1980. – Б.30.

⁴¹ Ибн Сина. Книга спасения. – Т.: Шарк, 1986. – Б.31.

⁴² Қаранг: Ибн Сино. Донишнома. – Т.: Фан, 1976. – 266-б

⁴³ Ибн Сино. Донишнома. – Т.: Фан, 1976. – 267-б.

Ko'rkam shahar va qishloqlar vayronaga aylandi, iqtisodiyot tanazzulga Yuz tutdi. Ilm-fan, madaniyat, jumladan falsafa ilmi ham inqirozga uchradi.

Xalqimiz mo'g'ul bosqinini qattiq qarshilik bilan kutib oldi. Garchand uquvsiz hukmdor Muhammad Xorazmshoh saltanatni saqlab qola olmagan bo'lsa-da, xalqimizning bosqinchilarga qarshi kurashi aslo to'xtagani yo'q. Ba'zi tarixiy manbalarga ko'ra, o'sha davrda nihoyatda katta hududdan 600 mingga yaqin qo'shin to'plash mumkin edi. Bu qo'shin to'planganida va tajribali lashkarboshiga topshirilganida CHingizxon saltanatni bosib olishi gumon edi. Insoniyatning o'tmishini yaxshi biladigan ba'zi olim va mutaxassislarining fikricha, agar shoh o'zining yovqur o'g'li Jaloliddinni avval boshdanoq taxt vorisi etib tayinlaganida va qo'shinning ixtiyorini unga topshirganida, nafaqat Osiyo tarixi, balki jahon tarixi boshqacharoq yo'ldan ketishi mumkin edi.

Afsuski, tarix «Agar unday bo'lmaganida edi...» qabilidagi tamoyillarni tan olmaydi. CHingiziyalar bosqini Vatanimiz madaniy taraqqiyotini bir necha asrlar orqaga surib yubordi. O'sha davrda bosqinchilarga qarshi kurashning eng atoqli vakili Jaloliddin Manguberdi esa millatimiz o'z ozodligi uchun olib borgan kurashning timsoli sifatida tariximiz sahifalarida abadiy qoldi. Bu milliy qahramonimizning tavallud kuni 1999 yilda keng nishonlangani uning ruhini shod qilish va Jaloliddin Manguberдини kurashga otlantirgan ezgu g'oyalar bizning kunlarimizda amalga oshganligining ramzidir.

Ma'ruza nihoyasida, alohida ta'kidlash lozimki, Prezidentimizning «Olooh qalbimizda, yuragimizda» tamoyili o'rta asrlar falsafasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk ajdodlarimizning bag'rik engligi, mazhabparastlikka berilmaganligi, ular dunyoqarashida dunyoviy va diniy ilmlarning mushtarakligi, sabr-qanoatliligi barchamizga namuna — ibratdir. Bu boy ma'naviy xazina yoshlar ongiga milliy g'oya va istiqlol mafkurasini singdirishga xizmat qiladi, ularni mustaqil fikrlash, do'stni dushmandan farq qilishga undaydi, yurtim deb, elim deb yashashga chorlaydi.

XX-XXI asr o'zbek falsafasi. XX asr o'zbek falsafasi kam o'rganilgan ziddiyatli davrni qamrab oladi. CHunki hozirgi davr tanqidchilarida sovet davrida falsafa bo'lmagan, u davrda intellektual hayot o'lgan va uzoq muddatga qotib qolgan, faqat ayrim hollarda ba'zi mardlargina o'zlarining g'oya va qarashlarini ayta olganlar degan fikr shakllangan. Biroq bu noto'g'ri. CHunki aynan XX asr boshlarida shakllangan jadidchilar harakati “jamiyatni ma'rifat orqali Yangilash” g'oyasini ilgari surganlar, Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat kabilar bir guruh yoshlarni chet elga o'qishga yuborib, Yangi avlod ziyolilarini tarbiyalashga o'zlarining munosib hissasini qo'shganlar.

Shu bois, 1917 yilda bolsheviklar partiyasi g'alaba qozonib, dunyo xaritasini katta Sovet ittifoqi degan mamlakat egallab, unda partiyaviylik mafkurasini hukmronlik qilsada, O'zbekistonda falsafiy fikr rivoji to'xtab qolgan emas.

Falsafaning fidoyilari Yangi qaror topgan siyosiy tizimda yashash, ishlash va juda ko'p sinovlardan o'tishlari lozim bo'ldi. Ayrim ziyolilar chet elga qochib ketdilar, ko'pchilikda esa marksizm g'oyasining haqiqiy insonparvarligiga qat'iy ishonch shakllandi va Shu bois, Shu yo'nalishda faoliyat olib bordilar. Biroq muayyan darajada sovet mafkurasini ta'siri bo'lsada, o'tgan asrda o'zbek falsafasi to'rt yo'nalishda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti falsafa fakulteti, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining falsafa va huquq instituti, viloyatlar oliy o'quv yurtlari falsafa bo'limlari, O'zbekiston falsafa jamiyati va O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati faoliyatida namoyon bo'ldi va olimlar o'z falsafiy qarashlarida inson omilining ma'naviy ruhini ifoda eta oldilar. Darhaqiqat, I.A.Karimov aytganlaridek, “Odam qancha chuqur bilimga ega bo'lsa, dunyoni yaxshi bilsa, yon atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglay olsa, Shundan keyingina unda g'urur-iftixor bo'ladi. Shundagina, juda murakkab, tahlakali davlarda ham ko'pchilik unga murojaat qilib, maslahatlashadi. Maslahat kimdan so'raladi — avvalombor, salohiyatli odamdan, katta falsafiy bilim va intellektual bilimga ega bo'lgan kishidan.”⁴⁴. Shunday ekan, O'zbekistondagi ijtimoiy siyosiy jarayonlarni tushunishda va ularning mohiyatini tushuntirishda yurtimiz faylasuf-olimlarining xizmati ham katta.

⁴⁴ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий кадрият. 14-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2006. –Б.108-109.

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti falsafa fakulteti. 1922 yilda Oʻrta Osiyo davlat universiteti (hozirgi OʻzMU) ijtimoiy gumanitar fanlar fakultetida falsafa fanidan oʻquv mashgʻulotlarining olib borilishi, bu boradagi dastlabki qadam boʻldi.

1935 yilda birinchi «Dialektika va tarixiy materializm» kafedrasini tashkil qilindi. 1944 yilda Dialektika va tarixiy materializm kafedrasini tarkibidan «Falsafa» kafedrasini ajralib chiqqan. Aynan «Falsafa» kafedrasini negizida 1962 yilda «Ilmiy kommunizm», 1967 yilda «Tabiiy va gumanitar fakultetlar falsafa» kafedralari tashkil qilingan. Kafedralar tarkibi milliy kadrlar bilan boyib borgan.

1960 yillarda «Falsafa» kafedrasida 45 ta professor-oʻqituvchi faoliyat olib borgan. Bu davrda falsafa mutaxassisligi boʻyicha universitetning oʻzida milliy kadrlar tayyorlash imkoniyati paydo boʻlgan. Professor A.Ayupov, H.Umarov saʼy harakatlari bilan oliy taʼlim vazirligida bu masalaga ijobiy yondoshilib, universitetning tarix fakultetida 1963-1964 oʻquv yilidan boshlab «Falsafa» boʻlimi tashkil qilingan va unga H.Umarov rahbar etib tayinlangan. Oʻquv jarayoning respublikaning yirik olimlari jalb qilinib, falsafa boʻyicha mutaxassis kadrlar tayyorlash faoliyati boshlangan.

Shu yillarda ilmiy ishlar rivoj topib yuqori malakali kadrlar etishib chiqib boshlagan. 1962-1967 yillarda 18 ta falsafa fanlari nomzodi tayyorlangan. 1962-1992 yillar davomida gumanitar fakultetlar «Falsafa» kafedrasini boshqargan professor A.T.Ayupov boshchiligidagi dotsentlar Gʻ.S.Hoyusupova, A.I.Abdusamedov, K.S.Sadykov, K.I.Ivanova, I.Rahimov, V.S.Nikitichenko va boshqalar dastlab falsafa boʻlimi, keyin falsafa fakultetida milliy kadrlarni tayyorlash ishida katta rol oʻynadilar. Oʻsha yillarda falsafa boʻlimi professor-oʻqituvchilari nafaqat oʻquv jarayoni, balki ilmiy bilish sohasida faol ishtirok qilganlar. 1974 yilda K.I.Ivanovanning «Ilmiy bilishda sababiylik tamoyili» nomli monografiyasi, professor L.E.Garber, A.T.Ayupov, U.Xaydarov, B.Toʻychiev, V.G.Chernyxlarning «Ilmiy bilish mantigʻi va metodlari» (1986) mavzusidagi turkum asarlari nashr qilingan.

Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi E.YU.YUusupov, professorlar M.V.Vohidov, I.R.Rahimovlar 1980-2005 yillarda Oʻzbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy taraqqiyotining falsafiy muammolari boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish bilan birga, darslik va oʻquv qoʻllanmalari yozganlar, yosh kadrlarni tayyorlashga oʻzlarining munosib hissasini qoʻshganlar. Shu yillar davomida J.Babaevning «Falsafa asoslari» oʻquv qoʻllanmasi, E.YUusupovning tahririda «Falsafa» (1985) darsligi, I.Raximovning «Mantiq fanidan seminar mashgʻulotlari» (1984) oʻquv qoʻllanmalari nashr qilingan.

Falsafa boʻlimida oʻqitiladigan fanlarning differensial Shuvi natijasida «Mantiq», «Falsafa tarixi» va «Dinshunoslik» kafedralari tashkil qilingan. Oʻsha yillarda falsafa boʻlimi professor-oʻqituvchilari nafaqat oʻquv jarayoni, balki ilmiy ishlar sohasida ham faol ishtirok qilganlar.

Mustahkam poydevor yaratilgach, 1979 yilda tarix fakulteti tarkibidan «Falsafa, iqtisod va psixologiya» boʻlimlari ajratilib, uchta mutaxassislikni birlashtiruvchi Yangi «Falsafa-iqtisod» fakulteti tashkil qilingan va falsafa fanlari nomzodi, professor G.S.Hoyusupova (1979-1985) dekan lavozimiga tayinlandi.

Bu esa oʻsha davrda falsafa fanining yanada chuqur va keng oʻrganilishi yoʻlidagi dadil qadam boʻldi. Yangi kafedralar tashkil qilinib, falsafani oʻqitishga differensial yondoshuv shakllandi. Shu yillarda fakultetda professorlar: - M.Xayrullaev, M.Baratov, L.E. Garber, V.N. Moroz, M. Nurmatov f.f.n dotsentlar M.Q. Aripov, M.Daliev, E.N. Abramyan, Z.Moʻminova, T.M.Ramazanov, I.R.Ramazanov, R.Nosirov, SH.B.Qahharova, M. Usmonov, I.L. Turchaninov, Shuningdek fakultetning bitiruvchi yoshlari M. SHaripov, B.Toʻychiev, E.Moʻminov, A.Oʻtamurodov, I.Ergashev, oʻrindoshlik asosida f.f.d. professorlar: M.N. Abdullaeva, H.Aliqulov va boshqalar ilmiy pedagogik faoliyat olib borganlar.

1990 yilda universitetning Yangi Nizomi qabul qilinib, uning keyingi taraqqiyot yoʻllari, vazifalari, huquqlari, xalq hayotidagi mavqei Yangi dunyoqarash nuqtai nazaridan belgilab olindi. Shu bois 1991 yilda fakultet tarkibidan «Iqtisod» boʻlimi ajraldi, hamda Falsafa, sotsiologiya va psixologiya boʻlimlari va 9 kafedradan iborat «Falsafa» fakulteti yoshlar ongiga mustaqillik mafkurasi mazmun va mohiyatini singdirish, Yangi dunyoqarashni shakllantirish yoʻlida fidokorona mehnat qildilar.

1989-2007 yillarda “Falsafa tarixi va mantiq” kafedrasining mudiri lavozimida ishlagan professor S.A.Yo‘ldoshev kafedra a‘zolari bilan hamkorlikda Sharq va G‘arb xalqlari tarixi, Markaziy Osiyo xalqlari falsafasi va ijtimoiy axloqiy qarashlarini o‘rganish bilan bir qatorda, mantiq fanining keng qamrovli o‘rganilishiga ham alohida e‘tibor qaratib kelgan. Pokiston va Eron falsafasini O‘zbekistonda chuqur o‘rganilishiga munosib hissa qo‘shgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2000 yil 28 yanvardagi farmoniga ko‘ra, Toshkent Davlat universitetiga “Milliy” maqomi berilishi, fakultet professor o‘qituvchilariga mas‘uliyat yuklashi bilan bir qatorda Yangi faoliyatga chorladi. Ular falsafiy bilimlarni, Yangilangan tafakkur nuqtai nazaridan yoritish bo‘yicha faol ish olib bordilar.

2002 yilda Yangi “Falsafa va fan metodologiyasi” kafedrasining tashkil qilinishi falsafadagi ijtimoiy muammolar bilan bir qatorda, fundamental masalalarning o‘rganilishiga keng imkoniyatlar yaratdi. “Falsafaning umumnazariy masalalari” ilmiy maktabiga asos solindi. Bugungi kunda ushbu maktab tadqiqotchilari tomonidan “gerontologiya”- qarilik muammosi, “fenomenologiya”- insonning individual ijtimoiy ongiga ta‘sir qiluvchi omillar muammosi, “germenevtika” - tushunish va tushuntirish muammosi, “tanatologiya” - o‘lim va barhayotlik muammosi, “epistemologiya”, “fan falsafasi”, “Ijtimoiy vaqt”, “Sinergetika”, “Dialog tushunish vositasi” kabi muammolarning falsafiy tahliliga qiziqishning kundan kunga ortib borishi Yangi avlod faylasuflarining yuqori intellektual salohiyatga egaligi va ayni paytda ularni ilmga yo‘naltiruvchi munosib ustozlar borligidan dalolat beradi.

O‘tgan yillar davomida fakultet bitiruvchilari nafaqat pedagogik faoliyati, balki ilmiy salohiyati bilan falsafiy fanlar bo‘yicha Yangi o‘quv adabiyotlarini yaratish jarayonida ham faol ishtirok qildilar. I.Saifnazarov muallifligida “Kurs leksiy po filosofii” (2001), “Ilmiy ijod metodologiyasi” (2004), “Fanlarning falsafiy masalalari” (2007), I.Rahimov A.O‘tamurodov hamkorligida “Fanlarning falsafiy masalalari” (2005), D.Fayzixo‘jaeva va M.SHaripovlar hammuallifligida “Mantiq” (2004) o‘quv qo‘llanmalari, S.Mamashokirov tahriri ostida Falsafa (2005 lotin tilida), “O‘zbekistonda Yangi jamiyat qurilishining g‘oyaviy-mafkuraviy masalalari” (2005), “Erkin va farovon hayot qurilishining g‘oyaviy mafkuraviy masalalari” (2007) o‘quv qo‘llanmalari, Q.Nazarov tahriri ostida “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” (2001), “Falsafa qomusiy lug‘at” (2004), “G‘arb falsafasi” (2004), “Jahon falsafasi tarixidan lavhalar” (2005), “Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillari lug‘ati” (2005), “Milliy g‘oya va rahbar mas‘uliyati” (2008) kitoblari, yakka muallifligida “Bilish falsafasi” (2005), “Qadriyatlar falsafasi” (2004) o‘quv qo‘llanmalari, N.A.SHermuxamedova muallifligida “Filosofiya i metodologiya nauki” (2003) o‘quv qo‘llanmasi, “Falsafa va fan metodologiyasi” (2005), “Gnoseologiya” (2007), Gnoseologiya – bilish nazariyasi (2011) darsliklari, A.Ochildievning “Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar” (2004), Madaniyat falsafasi (2010), E.Emirovaning “Metodika prepodavaniya filosofii” (2004), Shuningdek A.Strelsova bilan hamkorlikdagi “Vvedenie v spetsialnost» (2008) o‘quv qo‘llanmasi, Parmanov S.A., Noumenko O.A ning “Традиционные i альтернативные философские взгляды о познании” (2007) o‘quv uslubiy qo‘llanmasi kabi qator Yangi adabiyotlarining nashr qilinishi fakultetning katta ilmiy salohiyatga egaligidan dalolat beradi.

O‘zMUning 90 yillik tarixida Falsafa bo‘limining 45 yillik, falsafa fakultetining 30 yillik faoliyati o‘z o‘rniga ega. Zero, bugungi kunda Yangilangan tafakkur egalari o‘zbek falsafasining nomini dunyoga tanitmoqdalar. Azaliy falsafiy muammolarga Yangicha yondoshmoqdalar. “Ustoz va shogird” maktabining Yangi avlodi shakllanmoqda, Yangi ilmiy maktablarga asos solinmoqda. Fakultetning 1500 mingdan ortiq bitiruvchilari orasida Shu yillar davomida 40 ta fan doktorlari va 200 dan ortiq fan nomzodlari ilmiy darajasiga ega bo‘ldilar.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining I.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. O‘zbekistonda falsafa fanining rivojiga nafaqat falsafa fakulteti professor o‘qituvchilari, balki 1957 yilda I.M.Mo‘minov tashabbusi bilan tashkil qilingan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining “Falsafa va huquq” institutining ilmiy xodimlari ham munosib hissa qo‘shdilar. Ilmiy tadqiqot institutida dastlab “TabiatShunoslik”, “Falsafa tarixi” bo‘limlari faoliyat olib bordi. Keyinchalik institut tarkibi Yangi yosh milliy kadrlar bilan boyib bordi, hamda “Dialektika va

bilish nazariyasi”, “Ijtimoiy falsafa”, “Etika” kabi bo‘limlar tashkil qilindi. Institutning asosiy faoliyati falsafa, fan va madaniyat tarixini ob‘ektiv o‘rganish, ma‘naviyatning Yangi milliy qirralarini izlash, xalq ma‘naviyatini Yangi bilimlar bilan boyitish, millatning ma‘rifiy ruhini ko‘tarishga yo‘nalgan edi. Bu sohada Ibrohim Mo‘minov, Muzaffar Xayrullaev, Mo‘bin Baratov, Erkin YUsupov, Karim Sodiqov, Mirahmad Abdullaev, Haydar Aliqulov, Rasul Nosirov, Muhammadjon Boltaev, Anvar SHaripov, Gulchehra Navro‘zova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari e‘tiborga sazovordir.

Ijtimoiy falsafa, etika, estetika, madaniyatShunoslik falsafasi sohasida Rustam va Telman AbduShukurovlar, Haydar Po‘latov, Abdulxay Valiev, Oysara Umrzoqova, Naim G‘oyibov, Abduvosid Yo‘ldoshev, Maxmud Abdullaev, Mnazura Xolmatova, Said SHermuxamedov, Qo‘chqor Xonazarov, Xotima SHayxova, Abdulxafiz Jalolov, Jo‘ravoy YAxshilikov, Zuhra Qodirova, Qiyom Nazarov, Viktor Alimasov, U Oblekovlar samarali ishladilar va ishlamoqdalar.

Ontologiya va bilish nazariyasi, tabiatShunoslik falsafasi, fan metodologiyasi bo‘yicha Jondor Tulenov, Bahrom Ismoilov, Omonulla Fayzullaev kabilar boshlagan an‘analarni, Mahbuba Abdullaeva, Baxtiyor Karimov, Baxtiyor To‘raev, Ra‘no Imomalieva, E‘tibor Hoshimova, Shuhrat Qo‘shoqov, Hakima Salomova, Oqil Fayziev, Ziyodullo Davronov, Nigina SHermuxamedova, Alima Berdimurodova, Nariman Eshmetov, SHavkat Mamadaliev, Karima Tulenova, Emina Izzetova va boshqalar davom ettirmoqdalar.

2002 yilda Qiyom Nazarovning tashabbusi bilan “Falsafa va huquq” jurnalining tashkil qilinishi institut xodimlarining ilmiy faoliyati samaradorligini yanada oshirishga hamda yosh olimlarning ilmiy izlanishlari haqida keng jamoatchilikning xabardor bo‘lishi va falsafiy muloqotlar olib borilishidagi dadil qadam bo‘ldi.

Birgina 2003 yilda institut xodimlari 31 ta turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot loyihasiga ega bo‘ldilar. Bugungi kunda “Falsafa va huquq” instituti Yangi yosh kadrlar bilan boyib bormoqda.

Falsafa tarixi va tarix falsafasini tahlil qilishda I.A.Karimov aytganlaridek, “Sharq falsafasini teran o‘rganish, Shu asosda ulug‘ madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish, yaqin o‘tmishdan qolgan mafkuradan xalos bo‘lish, o‘zimizning asrlar sinovidan o‘tgan, ulug‘ ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaviy – umumbashariy ruh bilan boyitish xalqimizning dolzarb vazifasidir”⁴⁵. Shu ma‘noda, o‘zbek falsafasining etakchi vakillari Sharq falsafasi tarixini o‘rganish va undagi gumanistik g‘oyalarni “... halqimiz soddagina qilib, “o‘zbekchilik” deb ataydigan, mehr-oqibat, o‘zaro chidam va hurmat, o‘zgalarning dardiga hamdard bo‘lish kabi oliyjanob fazilatlarini”⁴⁶ kelgusi avlodga etkazish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib bordilar. Quyida ko‘p sonli o‘zbek falsafasining eng yirik vakillari ta‘limotlari bilan tanishamiz.

I.Mo‘minov (1908-1974) akademik, falsafa fanlari doktori, professor. I.Mo‘minov tomonidan 1956 yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnaliga asos solinishi ilmiy tadqiqot ishlari tarkibi va mavzulari doirasining nisbatan kengaytirilishi, ijodiy erkinlikka yo‘l ochdi. 1957 yilda I.Mo‘minov tashabbusi bilan O‘zFA huzurida “Falsafa va huquq instituti” tashkil qilingan, O‘zbek ensiklopediyasining birinchi mas‘ul muharriri bo‘lgan.

I.M. Mo‘minov o‘zbek faylasuflaridan birinchi bo‘lib, sovet tuzumining millatni ma‘naviy qadriyatlardan mahrum etish, milliy ongni buzish va o‘z-o‘zini anglashga yo‘l qo‘ymaslikka intilib, kommunistik mafkurani shakllantirishga jon-jahdi bilan harakat qilayotgan bir paytda, tarixiy va ma‘naviy merosni, o‘zbek xalqi va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari yaratgan boy ma‘naviy qadriyatlarni har tomonlama o‘rgandi.

I.M Mo‘minovning Abu Rayxon Beruniy tavalludining 1000 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada “Beruniy – ensiklopedist olim” mavzusidagi ma‘ruzasi va “Xorazmlik buyuk ensiklopedist” monografiyasining o‘zbek, rus, ingliz va fransuz tillarida nashr qilinishi olamShumul voqea bo‘ldi. Xususan u “Biz buyuk xorazmlik olim Beruniyga vatanparvarligi,

⁴⁵ Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. -Б.260.

⁴⁶ Ўша манба, -Б.296.

insonparvarligi uchun, olimning quvonchi va baxtini umuminsoniylik va milliylik, umumiylik va xususiylik birligida ko'ra olgani uchun buyuk hurmat bilan qaraymiz. Beruniyda vatanparvarlik izchil insonparvarlik bilan uzviy bog'lanib ketadi"⁴⁷, deb e'tirof etadi. O'sha davrda o'tmish mutafakkirlari va olimlarining insonparvarlik salohiyati, qarashlari va ta'limotlaridagi nodir milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida hech narsa deyilmagan yoki ular inkor qilingan bir vaziyatdagi bu sa'y harakat milliy falsafa rivojidadagi dastlabki uchqun bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Olim turli manba va ilmiy adabiyotlardan foydalangan va ularni sharhlagan holda Amir Temurning shaxsi va faoliyatini ob'ektiv tahlil qilishga va baholashga harakat qildi. I.Mo'minov o'sha davrdagi ilm ahlini Amir Temurning milliy davlatchilikni shakllantirishdagi roliga to'g'ri baho berishga chaqirdi va 1969 yilda YUNESKO homiyligida Samarqand shahrining 2500 yilligi, Temur va Temuriylar davridagi O'rta Osiyo san'atini o'rganishga bag'ishlangan konferensiyada "Amir Temurning O'rta Osiyoda tutgan o'rni va roli" mavzusida ma'ruza qildi, jiddiy muhokamalardan so'ng ma'ruza o'zbek va rus tillarida nashr qilindi. U "Bunday shaxsning Yuzaga kelishi davrning, zamonning taqozosi, CHig'atoy ulusining zulmi, mayda feodal beklarni vahshiyona ezishi, mo'g'ul xonlari, Oltin O'rda beklarining Movaraunnahrdagi to'xtovsiz bosqinchilik yurishlari, azoblangan, xonavayron bo'lgan, 150 yil davomida chet el hukmronligidan tinkasi qurigan mamlakatning, xalqning mustaqillikka erishish talabi edi. Bu tarixiy zaruriyat Temurda, uning lashkarboshilarida ravshan ko'rindi. Temur davlat arbobi sifatida ma'lum darajada bu ehtiyojni, talabni, zaruriyatni o'zida aks ettirdi, ya'ni Movanaunnahrda mustaqil markaziy birlashgan davlat tuzdi, mamlakat ehtiyojlariga javob berdi. Mulkdor sinflar, savdogarlar, karvonsaroy egalari hamda ma'lum ma'noda aholi talablariga peshvoz chiqib, mamlakatning ko'p joylarida qurilishlar qildirdi, kamida Yuz yigirma yil davomida nisbatan osoyishtalik o'rnatdi. Bu Shubhasiz, mamkalakatda iqtisod, madaniyat, fan, adabiyot va san'atning o'sishida muhim omil bo'ldi. Temurning O'rta Osiyo tarixidagi xizmati, bizningcha ana Shulardan iboratdir"⁴⁸ deb ta'kidladi.

I.Mo'minov "Amir Temur O'rta Osiyoni birlashtiribgina qolmasdan, balki Rusga va boshqa Evropa xalqlariga, Shuningdek SHimoliy Afrika xalqlariga, birinchi navbatda Misr xalqiga yordam ko'rsatdi"⁴⁹ deb ta'kidladi. Bu asari bilan I.Mo'minov ba'zi tarixchilarning "Amir Temur o'zidan vayrona va kuldan boshqa hech narsa qoldirmadi", "Temur va CHingizxon bir tarzda ish ko'rdi" degan uydirma da'volarning asossiz ekanligini isbotladi. Bu totalitar mafkura hukmronlik qilgan davrdagi buyuk jasorat namunasi edi. Shu bois, I.Mo'minov ma'muriy –buyruqbozlik tizimi mafkurasining keskin tanqidi va adolatsiz tazyiqiga uchradi. CHunki marksistik mafkura uchun millatning o'z –o'zini angalashga asos bo'ladigan ilmiy tarixiy dalillar emas, balki millatlar va xalqlarni tarixiy ildizlaridan va qadriyatlaridan uzib qo'yadigan kommunistik ongni shakllantirish muhimroq edi. Shunday bo'lsada, 1976-1977 yillarda uning 4 jildlik "Tanlangan asarlari" nashr qilindi. Ushbu kitoblarga I.Mo'minovning nafaqat O'rta Osiyo mutafakkirlari, (Mirzo Bedil, A.Beruniy, YU.Qoshg'ariy, A.Navoiy, A.Jomiy), balki g'arb falsafasi namoyondalari (Gegel, Kant, YUm, Fixte) ijodiga bag'ishlangan asarlari jamlangan.

Mustaqillikka erishgach Mo'minovning ijodi va jamoatchi arbob sifatidagi faoliyatiga munosabat o'zgardi. U fan, falsafa ravnaqiga qo'shgan hissasi uchun "Buyuk xizmatlari" ordeni bilan taqdirlandi. "Falsafa va huquq instituti" uning nomi bilan ataldi. I.Mo'minov yaratgan ilmiy maktabning dastlabki qaldirg'ochlari o'z maktablarini yaratishga muyassar bo'ldilar va ustoz ishini davom ettirdilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda nafaqat falsafa tarixi, balki dialektika va bilish nazariyasi masalalarini o'rganishga ham e'tibor qaratilgan. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Falsafani o'zagini tashkil etadigan dialektika fani bo'yicha hozir oliy o'quv yurtlarimizda qanday darsliklar bor? Dunyoni dialektik nuqtai nazardan baholashda, bugungi o'ta murakkab va shiddatli

⁴⁷ Каранг.Шермухамедов С. Халқ маънавияти ва маърифатига бахшида этилган умр. -Т.: Фан, 2004. –Б. 4.

⁴⁸ Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тугган ўрни ва роли. 2 нашр. -Т.: Фан, 1993. –Б.54-55.

⁴⁹ Ўша асар. –Б.52-53.

jarayonlarni anglash, ularga munosabat bildirishda qaysi yoʻnalishlar sizga maʼqul?”⁵⁰. Darhaqiqat, shoʻrolar davrida ilmiy bilim marksizm gʻoyalari bilan sugʻorilgan boʻlsa-da, baʼzi faylasuflar ijodida bilim oʻzining haqiqiy maʼnosida ifodasini topa oldi. Shunday olimlardan biri Jondor Tulenovdir.

Tulenov Jondor (1927-2002) akademik, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ijodi dialektika va bilish nazariyasi, ilmiy tafakkur uslubi masalalariga bagʻishlangan.

XX asrning 70-80 yillarida falsafani oʻrganishda nisbatan erkinlik shakllandi va Shu bois dialektik mantiqning rivojiga yoʻl ochildi. Oʻzbekistonda J.Tulenovning dialektika maktabi shakllandi. Qozogʻistonlik oʻzbek olimi 1971 yildan Oʻzbekistonda ilmiy faoliyatini davom ettiradi. U 350 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi. J.Tulenov oʻzining “Qonun falsafiy kategoriya sifatida” (Zakon kak filosofskaya kategoriya 1959) asarida qonunlar tuzilishi jihatidan uch asosiy komponentlardan iborat deb koʻrsatadi: Ular 1) obʻektiv asosga ega, yaʼni predmet va hodisalarning umumiy nisbatan barqaror zaruriy aloqalarini ifodalaydi; 2) harakatning oʻziga xos usuliga ega, yaʼni voqealar xarakteri va yoʻnalishini aniqlaydi; 3) yuqorida koʻrsatilgan ikki komponent oʻrtasida bogʻlovchi element vazifasini bajaruvchi muayyan sharoitlar mavjudligida namoyon boʻladi. Demak *qonun- bu predmet va hodisalarning zaruriy, nisbatan barqaror munosabatlari majmui boʻlib, ular voqealarning yoʻnalishi va xarakterini aniqlaydi.* Qonun namoyon boʻlishining turli shakllari bilan xarakterlanadi. Qonunning namoyon boʻlish shakllariga quyidagilar kiradi: 1) qonunning stixiyali anglanilgan kuch sifatida namoyon boʻlishi; 2) qonunning hukmron tendensiya va aniq shaklda namoyon boʻlishi (dinamika va statika qonunlari); 3) qonunning katta va kichik kuch bilan harakati.

Obʻektiv qonunlar tizimi ham turli tumanligi bilan xarakterlanadi. 1) Qonun qamrab olgan obʻektiv jarayonlar nuqtai nazaridan tabiiy va ijtimoiy qonunlar farqlanadi; 2) Jarayonlarga taʼsir darajasi nuqtai nazaridan asosiy va asosiy boʻlmagan qonunlar; 3) harakat sharoitlari nuqtai nazaridan xususiy, umumiy va eng umumiy qonunlar farqlanadi. Ushbu qonunlar ijtimoiy taraqqiyotda oʻz ifodasini topadi.

J.Tulenovning kategoriyalar haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u a) dialektika kategoriyalari obʻektiv dunyoning umumiy qonuniyatlarini ifodalaydi va ontologik mazmunga ega; bu inson ongiga bogʻliq boʻlmagan holda mavjud boʻlgan voqelik rivojlanishi va harakatining aloqadorligi bilan bogʻliq umumiy qonun; 2) dialektika kategoriyalari umumiy tushunchalar sifatida inson fikrining shaklidir va bilishning tayanch nuqtasi hisoblangan mantiqiy mazmunga ega; 3) dialektika kategoriyalarining shakllanishi va rivojlanishining asosi boʻlgan amaliyot insonning moddiy maʼnaviy faoliyati majmui sifatida namoyon boʻladi, Shuning uchun dialektika kategoriyalari ijtimoiy amaliyotning mahsuli ham deyiladi; 4) dialektika kategoriyalari amaliyotda paydo boʻlib, amaliyotga xizmat qiladi; 5) dialektika kategoriyalarining muhim xususiyati ularning oʻzgaruvchanligi va egiluvchanligidir - ⁵¹ deb eʼtirof qiladi. Muallif “Dialektika kategoriyalarining egiluvchanligi” (Problema gibkosti kategoriy, 1981), Dialektika kategoriyalarining oʻzaro aloqadorligi (Vzaimosvyaz kategoriy dialektiki 1986) asarlarida birinchi boʻlib, dialektika kategoriyalarining ziddiyatliligi, ularning rivoji, oʻzaro aloqadorligi va oʻzaro bir-biriga oʻtishini, kategoriyalar egiluvchanligining fan va amaliyot uchun ahamiyatini asoslagan. J. Tulenov dialektika qonun va kategoriyalarining ayniyligi va farqlari masalasi haqida ham toʻxtaladi. U oʻzining ”Dialektika va ilmiy tafakkur uslubi” (Dialektika i stil nauchnogo myshleniya, 1983) asarida birinchi marta, inson ijodiy faoliyatida tafakkur uslubining oʻrni va rolini yoritib beradi. Insonning kundalik tafakkur uslubidan ilmiy tafakkur uslubiga oʻtishiga taʼsir qiluvchi omillarni, dialektik, metafizik, sofistik, eklektik tafakkur uslublarining tarixiy rivojlanish bosqichlarini yoritish bilan bir qatorda, ilmiy tafakkur uslubiga taʼrif bergan. Sovet davrining qaqshatqich tazyiqi ostida J.Tulenov 3 marta “Dialektika va bilish nazariyasi” (1984, 1986, 1989) mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya oʻtkazdi va bu bilan oʻzbek falsafasining rivojiga oʻz hissasini qoʻshdi..

⁵⁰ Каримов И.А. Ёшларга ишонч билдириш, уларнинг ташаббус ва салоҳиятини рўёбга чиқариш – бугунги куннинг устувор вазифасидир \\
Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий кадрят. –Т.: Ўзбекистон, 2006. –Б. 280.

⁵¹ Туленов Ж.Т. Взаимосвязь категорий диалектики – М.: Мысль, 1986

Mustaqil O‘zbekistonda J.Tulenov ijodining Yangi qirralari namoyon bo‘ldi. Bu davrda u ijtimoiy dialektika masalalariga alohida e‘tibor qaratadi. Hayot falsafasi (1993) asarida falsafiy bilimning o‘ziga xos xususiyatlari, uning siyosat bilan bog‘liqligi, mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy Yangilanish jarayonlarini tushunish uchun falsafiy madaniyat va siyosiy tafakkurni shakllantirish lozimligini ta‘kidlaydi. “Mustaqillik va milliy tiklanish” (1996) asarida O‘zbekiston mustaqilligining tarixiy ahamiyati, Yangi siyosiy tizim, ko‘pukladli iqtisod va bozor munosabatlariga o‘tishda, mustaqil davlatning ma‘naviy, madaniy va axloqiy asoslarini rivojlantirish va mustahkamlash, milliy mustaqillik mafkurasining maqsadi va yo‘nalishlarini aniq anglash va ularni hayotga tadbiiq etish masalalari yoritilgan. “Qadriyatlar falsafasi” (1998) asarida qadriyatlarining mohiyati, ularning turlari (tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, estetik va h.k) ma‘muriy buyruqbozlik hukmronlik qilgan tuzumda milliy qadriyatlarining qadrsizlanganligi, mustaqillik davrida qadriyatlarga munosabatning o‘zgarganligi, milliy tiklanish, millatning o‘z-o‘zini anglashi mustaqillikni saqlashning asosiy omili bo‘lishini e‘tirof etgan.

Tulenovning so‘nggi asari “Dialektika nazariyasi”(2001) bo‘lib, unda olim dialektikani sinergetika bilan almashtirishga, dialektikani o‘ldiga chiqarishga harakat qilgan ba‘zi soxta olimchalarga qaqshatqich zarba beradi. Dialektikaning fan va ta‘limot sifatidagi tarixiy taraqqiyotini, uning eng qadimgi va hozirgi zamon bilishining metodlaridan biri ekanligini, buyuk mutafakkirlar al-Forobiy, al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn-Sino, Ulug‘bek, Mirzo Bedil asarlari asosida dialektikaning ijtimoiy jarayonlarni bilishdagi ahamiyati, uning global xarakterini yoritgan. J.Tulenov talabalar uchun qator darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratgan, umrining oxirigacha xalqqa xizmat qilgan buyuk olim edi.

I.A.Karimov aytganlaridek, “SHaxs imkoniyatlari bizda juda chuqur irsiy asoslarga egadir. Respublikamizda jahon fani va texnikasi, falsafa va huquq yutuqlarini egallab olgan va Shu bilan birga o‘z xalqiga yaqinlikni saqlab qolgan kishilar juda ko‘pdir”⁵². Ular o‘zlarining halol mehnati bilan ajdodlar ishini davom ettirgan hamda hozirgi kunda ham mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiyalashtirish jarayoniga munosib hissasini qo‘shmoqdalar. Quyida mamlakatimizda ijtimoiy falsafa va madaniyat falsafasi fani ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan faylasuf olimlar haqida so‘z yuritamiz.

Valiev Abdulkay (1929-2002) akademik, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ijodi jamiyat taraqqiyotida milliy ziyolilarning roli masalalariga bag‘ishlangan. U bu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini, O‘zbekistonda milliy ziyolilar faoliyatini takomillashtirish zarurligini asoslagan. Sovet tuzumi hukmronligi avj olgan 1966 yilda A.Valiev “O‘rta Osiyoda milliy ziyolilarning shakllanishi” asarida ishchi dehqonlar orasidan iqtidorlilarini tanlab, milliy rahbar kadrlarni tayyorlash lozimligi haqidagi g‘oyani ilgari surgan. U turli toifadagi ziyolilar dunyoqarashi, ongi, psixologiyasi, kayfiyatidagi ziddiyatlarni ochib berishga harakat qilgan. A.Valiev 30 yillarda qatag‘on qilingan mashhur davlat arboblari, milliy ziyolilar F.Xo‘jaev va T.Risqulovning mash‘um taqdiri haqida ochiq fikr yuritgan. 1969 yilda esa O‘rta Osiyodagi milliy ziyolilarning davlat boshqaruvidagi roli masalasiga bag‘ishlangan asarida 1917-1960 yillardagi ziyolilarning ijtimoiy evolyusiyasi, ishlab chiqarish sohasidagi ziyolilarning xalq xo‘jaligini tiklashdagi roli, ilmiy texnikaviy taraqqiyotda ilmiy ziyolilar faoliyatining o‘rni, milliy ziyolilarning jamiyat ma‘naviy hayotiga ta‘siri haqida fikr yuritadi. Ilmiy faoliyat bilan bir qatorda A.Valiev jamoat ishlarida ham faol ishtirok qilgan. 1961-65 yillarda u “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnali bosh muharriri o‘rinbosari, va “O‘zbek ensiklopediyasi”ning bosh muharriri birinchi o‘rinbosari lavozimida ishlagan. O‘zbek ensiklopediyasining birinchi 8 jildligini nashrga tayyorlashda faol ishtirok qilgan.

Mustaqillik yillarida A.Valiev mustaqillik buyuk ne‘mat ekanligi, va uni asrash, avaylashda o‘zbek ziyolilarining roli muhim ekanligini anglagan holda, umrining oxirigacha Yangi avlod milliy kadrlarini tarbiyalashga munosib hissa qo‘shdi.

YUsupov Erkin (1928-2003) akademik, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ijodi ijtimoiy falsafa va madaniyat nazariyasi sohasi bilan bog‘liq. U mustaqillikning dastlabki

⁵² Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б.82-83.

kunlaridayoq millatlararo munosabatlar sohasida mamlakatda uzoq yillar davomida to'planib qolgan hal etilmay kelgan qator muammolar, ularning paydo bo'lish, rivojlanish va keskinlashish sabablari, ob'ektiv omillari va sub'ektiv zaminlarini tahlil etgan. Shuningdek E.YUsupov milliy manfaatlar va milliy munosabatlarning dialektik aloqadorligi, millatlar rivojlanishining ijtimoiy iqtisodiy muammolariga e'tibor bergan. E.YUsupov o'zining "Inson kamolotining ma'naviy asoslari"(1998) asarida inson ma'naviy kamolotining jamiyat taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liqligi, axloq, odob, imon, vijdon, e'tiqod, madaniyat, ma'rifat kabi omillarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, ular yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy yo'llaridan biri ekanligini tahlil etgan. Xususan, u "Axloqning mezonlari jamiyat taraqqiyotining umumiy imkoniyatlari va ehtiyojlari alohida etnik guruhlar yashayotgan, mehnat qilayotgan sharoitlar ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Barcha insoniyatga xos bo'lgan ruhiy boylik-axloq turli konkret tarixiy sharoitlarda, turli mamlakatlar va xalqlarda o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi"⁵³ deb ta'kidlaydi. "Oila ma'naviyat bulog'i" asarida E.YUsupov mustaqillik yillarida O'zbekistonda oilani mustahkamlash, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoyalash, ma'naviy etuk, jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash borasida ko'rilayotgan tadbirlar haqida fikr yuritadi, Shuningdek oilada ota-ona ibrati, farzandlik burchi, farzand tarbiyasiga xos bo'lgan axloqiy qadriyatlar, oilaviy munosabatlarning diniy va milliy jihatlariga e'tibor qaratadi. Uning fikricha "Ahil oilada hal qiluvchi so'zni ota aytadi, bu so'zdan oldin u albatta oila a'zolarining fikr va manfaatini e'tiborga oladi, Shu sababli ham milliy an'analarimizda otadan oldin so'zlash yoki ota o'rniga so'zlash, uning so'zini bo'lish ham beodoblikning belgisi hisoblanadi"⁵⁴. E.YUsupovning so'nggi "Falsafa – bahs va munozaralar maydoni"⁵⁵ maqolasida "Falsafa Shunday fanki uning muammolari tahlilida davrning ildamlab borayotgan ziddiyatli ruhi to'la va to'g'ri aks etishi kerak. Falsafa har qanday kashfiyotni, fan sohasidagi Yangilikni mutlaq haqiqat deb tan olmaydi, har bir muammo tahlilidan oldin bu nima uchun Shunday?, boshqacha bo'lishi mumkin emasmi? deb savol qo'yadi... Falsafa tarixida jamiyat va fan taraqqiyoti oldiga bunday savollar qo'yilmagan davr bo'lmagan va bo'lmaydi ham, Shu sababli falsafiy muammolar tahlili doim keskin bahs va munozaralar maydoni bo'lgan"⁵⁶ deb ta'kidlaydi. E.YUsupov milliy kadrlar tayyorlash masalasiga ham jiddiy yondoshgan. Olim umrining oxirigacha O'zMU falsafa fakultetida talabalarga falsafa ilmidan dars bergan.

M.M.Xayrullaev (1931-2004) akademik, falsafa fanlari doktori, professor. XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek falsafasi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan etuk olim, jamoat arbobi. Asosiy faoliyati Abu Nasr al Forobiyning ilmiy ijodini o'rganish va sharhlashga bag'ishlangan. U "Buyuk siymolar"(1996 2 jild) va "Ma'naviyat yulduzlari" (1999) asarlarining mas'ul muharriri. M.Xayrullaev Forobiy ijodini qayta kashf etgan olim. U Forobiy ijodidagi materializm va idealizmni bir-biri bilan aralashmaslik kerak deb hisoblaydi. Uning fikricha, Forobiy tomonidan Xudoning tan olinishi idealizm bo'lsa, astronomiya, matematika, mantiq sohasidagi kashfiyotlari materializmdir. Chunki bu sohalarida narsalar yo'qdan bor bo'lmaydi, bordan yo'q bo'lmaydi. Masalan, Er, Quyosh, Oy, sayyoralar harakatlari orasidagi munosabatlarning ob'ektivligi doimo bir xildadir⁵⁷. M.Xayrullaev kommunistik mafkura hukmron bo'lgan davrda, Forobiy idealizmini tan ola oldi va uning ijodidagi idealistik va materialistik g'oyalarni sharhladi. M. Xayrullaev etuk olim bo'lish bilan bir qatorda jamoatchi ham edi. U uzoq yillar davomida O'zFA "SharqShunoslik" institutida direktor lavozimida va "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnalining mas'ul muharriri lavozimida ishlagan.

Baratov Mo'bin (1934-2005) akademik, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ishlari Markaziy Osiyo mutafakkirlarining falsafiy merosini o'rganishga bag'ishlangan. Jumladan, uning "Ibn Sino falsafasi" asarida buyuk mutafakkir ijodining Yangi qirralari ochib berilgan. Mo'bin Baratov har qanday jamiyatni harakatlantiruvchi kuch ma'naviy omil deb ta'kidlaydi va

⁵³ Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. -Т.: Университет, 1997.-Б.37.

⁵⁴ Юсупов Э. Оила маънавият булоғи. -Т.: УАЖБТ маркази, 2003.-Б.37

⁵⁵ Юсупов Э. Фалсафа баҳс ва мунозаралар майдони // Жаҳон адабиёти, 2003.№8.-Б.157.

⁵⁶ Юсупов Э. Фалсафа баҳс ва мунозаралар майдони // Жаҳон адабиёти, 2003.№8.-Б.157.

⁵⁷ Қаранг. Файзуллаев О. XX аср зиёлилари. -Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2008.-Б.97-98.

o‘zbek xalqida tarixan ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik shakllangan, hozirgi kunda ularni davr ruhiga moslashtirish lozim, deb hisoblagan.

Po‘latov Xaydar Po‘latovich (1929-1994) akademik, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ishlari ijtimoiy falsafa, axloq va madaniyat nazariyasi muammolariga bag‘ishlangan.

Bazarbaev Djumanazar (1933) akademik, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ishlari ijtimoiy falsafa va madaniyat nazariyasi muammolariga bag‘ishlangan.

Tursunmuhamedov Sattar Pozilxaqovich (1929) akademik, falsafa fanlari doktori, professor. Asosiy ilmiy ishlari sanoat va qishloq xo‘jalik mehnati, ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, mulkdorlar sinfining shakllanishi, ijtimoiy jarayonlar, jamiyatning siyosiy tizimi, mustaqillik yillarida esa, bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida kuchli ijtimoiy siyosatning ahamiyati masalalariga bag‘ishlangan.

S.Hermuxamedov Said (1930) akademik, falsafa fanlari doktori, professor. O‘zbekistonda madaniyat nazariyasi va tarixi ilmiy maktabining asoschi. Shuningdek u “Ijtimoiy falsafa”, “Pedagogika tarixi va nazariyasi”, “Siyosatshunoslik”, “Sotsiologiya”, “Etika”, “Estetika”, “Madaniyatshunoslik” kabi yo‘nalishlarda jami 570 yaqin ilmiy va ilmiy ommabop ishlarning muallifi. O‘zining “O‘zbek xalqi madaniyatining milliy shakli”(1961) monografiyasida o‘zbek xalqi madaniyati qadimiy ildizlarga egaligi va har qanday madaniyat zamon ruhiga moslashib, Yangilanib borishi va ayni paytda milliy ruhi saqlanib qolishini ta’kidlaydi. S.Hermuxamedov nafaqat o‘zbek millati, balki boshqa millat madaniyatini ham o‘rganish asosida milliy madaniyatlarda o‘zaro uyg‘unlik va o‘zaro aloqadorlik bor, biroq har bir millatning milliy o‘ziga xosligi millatlarni bir-biridan farqini ko‘rsatadi, deb hisoblaydi. Olim madaniyatning gumanistik asoslari, zamonaviy madaniyatning shakllanishida milliy va umuminsoniy madaniyat uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratadi.

Sovet tuzumi davrida S.Hermuxamedov tashabbusi bilan jami to‘rtta (1978, 1980, 1982, 1984,) milliy madaniyat masalalariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyalar o‘tkazildi. Ularda jahon hamjamiyati vakillari ishtirok etdilar.

Mustaqillik yillarida S.Hermuxamedov milliy istiqlol g‘oyasi, Yangilanayotgan jamiyatning asl mohiyatini aholi turli qatlamlari, ayniqsa yoshlar ongiga singdirishning ahamiyatini chuqur anglagan holda, “Yangilanayotgan jamiyatga - Yangilangan falsafa” (1993), “Madaniyat va sivilizatsiya” (1996), “Davrimiz allomasi” (1998), “Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz” (1999), “Istiqlol quyoshi” (2002), “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi va falsafaning ravnaqi” (2005), “Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot” (2005), Inson falsafasi (2009) kabi asarlar yaratdi va ular ilmiy jamoatchilik tomonidan munosib baholandi. Olim, ushbu asarlarida sovet tuzumi davrida falsafa fanini siyosiy lashtirish oqibatlarini haqida fikr yuritadi va Yangilangan falsafaning eng avvalo gumanistik, so‘ngra dunyoqarashli, tarbiyaviy, qadriyatli, integrativ, axloqiy funksiyalariga ta’rif beradi. “Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz” asarida u milliy mustaqillikning ahamiyati, jamiyatning demokratiyalaShuvi jarayonida Yangilangan tafakkurni shakllantirishning zaruriyatini asoslaydi. S.Hermuxamedov S.Mirzaev bilan hamkorlikda yaratgan “Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti tarixi”, “Oybek va o‘zbek adabiyoti”, “Komil YAshin ijodi”, “Adabiyotning hamkorligi hayot taqozosi”, “Abadiyot va san’atda prinsiplar” kabi kitob va risolalari, uning nafaqat faylasuf olim, balki o‘zbek adabiyotining haqiqiy ixlosmandi ekanligidan dalolatdir. Xususan “Hozirgi o‘zbek adabiyoti tarixi” (1985) qo‘llanmasida olim zamon zaylidan cho‘chimasdan, har bir adib, shoir va umuman adabiy muhit haqida xolisona fikr bildirgan. Olim barcha asarlarida inson omilini birinchi o‘ringa qo‘yadi va shogirdlarini Bedilning “Garchi dushmani do‘st qilolmasang, do‘stni dushman qilmagin” degan naqliga amal qilishga chorlaydi.

S.Hermuxamedov ustozga sadoqatli shogird va shogirdparvar ustoz hamdir. U ustoz I. Mo‘minovning 80, 85, 90, 95, 100 yillik yubileylarini o‘tkazish, tug‘ilgan yurtida muzey tashkil qilishda faol ishtirok qildi, ustozining boy ilmiy merosi, ijodi va faoliyati haqida qator risolalar yaratdi.

S.Hermuxamedov “Madaniyat falsafasi va tarixi” ilmiy maktabida 130 dan ortiq shogirdlar tayyorladi, ular bugungi kunda respublikamiz Oliy o‘quv yurtlari, davlat tashkilotlarida turli

lavozimlarda ishlab, yurt tinchligi va farovonligi yo'lida mehnat qilmoqdalar. Ustoz hozirgi kunda ham yoshlarning ma'naviy axloqiy tarbiyasiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

O'zbekiston falsafa jamiyati. 1973 yilda O'zbekiston falsafa jamiyati tashkil qilingan va uning raisi etib Ibrohim Mo'minov saylangan. I.Mo'minov vafotidan so'ng, 1974-1980 yillarda Muzaffar Xayrullaev, 1980-1986 yillarda Q.Xonazarov, 1988-1990 yillarda Erkin YUsupov kabilar O'zbekiston falsafa jamiyati raisi lavozimida ishlar ekanlar, asosiy e'tiborni O'zbekistonda yashab ijod qilayotgan faylasuflarning ijodiy hamkorligini ta'minlash, ularning ajdodlarga munosib avlod ekanligini dunyo hamjamiyatiga tanishtirishga qaratdilar. Shu bois, o'zbek faylasuflari muntazam xalqaro konferensiyalar va jahon falsafa Kongresslarida ishtirok etganlar.

1990 yildan buyon Said SHermuxamedov rahbarligida O'zbekiston falsafa jamiyati huzurida «Falsafa fanining dolzarb muammolari» bo'yicha doimiy respublika ilmiy nazariy seminari tashkil etilgan. Unda respublikamizning taniqli faylasuflari Shuningdek, boshqa fan vakillari XXI asr fanining dolzarb muammolari bilan bir qatorda, ma'naviy yuksalish, jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashning ustivor yo'nalishlari haqida fikr almashadilar. 2001 yilda YUNESKO qaroriga binoan har yili noyabr oyida nishonlanadigan "Jahon falsafa kuni" arafasida Falsafa jamiyati rahbariyatining sa'y harakatlari bilan, falsafa fani rivojiga hissa qo'shayotgan etakchi olimlar va yosh tadqiqotchilar munosib taqdirlanib kelmoqda. YOshlarda falsafiy mushohada yuritishni takomillashtirish maqsadida "Aql mashqi", "Tafakkur shaydolari" kabi to'garaklar tashkil qilingan. Shu bilan birga respublika falsafa kafedralari faoliyatini o'rganish bo'yicha "Eng yaxshi kafedra", "Eng yaxshi darslik", "Eng yaxshi talaba referati" nominatsiyalari bo'yicha tanlovlar e'lon qilinib, munosib topilgan nomzodlar taqdirlanmoqda.

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 1998 yilda tashkil qilingan, 2001 yilgacha uning raisi Inomjon Rahimov bo'lgan. 2001 yildan O'FMJ raisi Q.Nazarovdir. Jamiyat qoshida tashkil etilgan nashriyotda uning a'zolari falsafa, milliy g'oya va mafkuraga oid Yangi turkum adabiyotlarni yaratish, nashr qilish va ular orqali aholi turli qatlamlari ongida dunyoni falsafiy idrok etish, o'z-o'zini anglash, hayotning maqsadini ko'rish hamda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda faol ishtirok etish bilan Shug'lullanmoqdalar.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida falsafa fani yanada ravnaq topdi. Falsafa ilmini rivojlantirish maqsadida viloyatlarda, xususan, Qoraqalpog'iston Davlat universiteti, Buxoro Davlat universiteti, Samarqand Davlat universiteti, Toshkent Davlat SharqShunoslik institutida "Falsafa" bo'limlari tashkil qilingan va unda etakchi mutaxassislar faoliyat olib bormoqdalar.

Xulosalar. Insoniyat taraqqiyotida har bir davr an'anaviy falsafiy muammolarni ilgari surgan va ularni o'z davri dunyoqarashi ta'sirida hal qilishga harakat qilgan.

Falsafa tarixini Yangi shoxchalari paydo bo'ladigan daraxtga qiyoslash mumkin, har bir shox o'z shakliga va yaproqlarining rangiga ega bo'lib, ular boshqalarini takrorlamaydi. Biroq daraxt shoxlari kabi falsafiy yo'nalishlar qancha ko'p bo'lmasin, ularni umumiy ildiz - inson va olamning o'zaro aloqadorligi, inson va jamiyat hayotining uzviyligi birlashtiradi. Ushbu umumiy ildiz inson madaniyatining dunyoqarashli asosi sifatida falsafaning ahamiyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

XX asr turli davrlardagi falsafiy yo'nalishlarni o'zida birlashtirdi va o'tmish tajribasiga tayangan holda, juda murakkab ijtimoiy siyosiy vaziyatda olam va odam masalasiga ziddiyatli, Yangi falsafiy qarashlar shakllandi.

Hozirgi zamon falsafasining o'ziga xos xususiyati uning dunyoqarashli va metodologik jihatdan turli tumanligidir

Takrorlash uchun savollar

1. Qadimgi Misr, Bobil, Xindiston, Xitoyda falsafiy qarashlar.
2. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy qarashlari
3. Al-Xorazmiy, Al-Fargoniy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sinoning jaxon fanidagi o'rni
3. Tasavvuf va uning tariqatlari .
- 4.Najmiddin Kubro, Axmad YAssaviy, Naqshbandlarning, Abu Mansur Moturudiy qarashlari tasavvuf falsafasi

5. Imom Buxoriy va at-Termiziyning diniy-falsafiy merosi.
6. A.Temur va temuriylar davri falsafasi.
7. Xonliklar davrida falsafiy bilimlar
7. Sobiq mustabid tuzum davrida falsafaga munosabat.
8. XX-XXI asr o'zbek falsafasi

1.3-Mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G'arb falsafasi.

1. Antik davr Yunonistonda falsafiy qarashlarning vujudga kelishi..Ellinizm davri falsafasi
3. Ilk o'rta Asr G'arb xristian – sxolastik falsafasining rivojlanishi.
3. G'arb Uyg'onish davri va falsafiy tafakkurining hususiyatlari.
4. Yangi va eng Yangi davr falsafasining ustuvor yo'nalishlari va muammolari.
5. G'arb falsafasida ingliz, nemis va fransuz faylasuflarining qarashlari va ta'limotlari. Yangi davr ingliz va fransuz falsafasi. Nemis mumtoz falsafasi. I.Kant, Gegel, Feyerbax
6. XX – XXI asr g'arb falsafasidagi falsafiy oqimlar, yo'nalishlar va muammolar.

1. Antik davr Yunonistonda falsafiy qarashlarning vujudga kelishi. Ellinizm davri falsafasi

Yunonistonda antik falsafa miloddan avvalgi VII-VI asrlar chegarasida shahar-davlatlar («polislar»)da avval Kichik Osiyoning G'arbiy qirg'og'ida (Ioniyada), so'ngra – Sitsiliya orolining yunonlar yashaydigan shaharlarida va nihoyat, Yunonistonda – Afinada (miloddan avvalgi V asr) paydo bo'lgan va qadimgi dunyo madaniyati ravnaq topishi uchun shart-sharoitlar yaratgan sinfiy, quldorlik jamiyatining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan.

Qadimgi davr falsafasining yana bir silsilasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar — antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Suqrot, Pifagor, Aflotun, Arastu va boshqalarning falsafiy, tabiiy — ilmiy, ijtimoiy — ahloqiy ta'limotlari o'rganiladi.

Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlar o'rtasida Milet shahrida Yuzaga kelgan va rivojlangan. **Milet maktabi** vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimendardir. Uning asoschisi Fales (eramizdan avvalgi 624 — 547 yillarda yashagan). U Yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z davrining etuk siyosiy arbobi, jo'g'rofi, faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido — suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimo o'zgarishda bo'ladi. Anaksimandr (Falesning shogirdi) eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI o'rtalarida yashab ijod etgan. U «Tabiat haqida» asarini yozgan, biroq asar bizgacha yotib kelmagan. Fales olamning asosiga suvni qo'ygan bo'lsa, Anaksimandr dunyo — cheksiz, gazsimon apeyrondan iborat, issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik apeyrondan ajralib chiqib, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotini zamondoshi, shogirdi Anaksimend davom ettirdi. Anaksimend (eramizdan avvalgi 588-525 yillar) havo — olamning asosi, deb bilgan. Uningcha, havoning quyulashishidan suv, er, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishidan esa olov paydo bo'lgan.

Qadimgi dunyo falsafasi rivojlangan sharoitda bu metodlar faylasuflar tomonidan ongli ravishda idrok etilmagan. Ular stixiyali, aniqroq aytganda, falsafiy ta'limotlar, tizimlar va qarashlarga ichdan xos bo'lgan metodlar sifatida amal qilgan. Faylasuflar, odatda, hodisalarning umumiy o'zaro aloqasini, ularning ziddiyatligini, harakati va rivojlanishini, dunyoning yagonaligi va rang-barangligini, «umumiy yo'l» yoki Logosni muayyan tabiiy qonun sifatida anglab etadilar. Yana bir yunon faylasufi **Geraklit** (eramizdan avvalgi 520-460 yillar) Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'idagi Efes shahrida zargar oilasida dunyoga kelgan. U stixiyali dialektikaga asos solgan, olov

— olamning asosi, deb bilgan. uning fikricha, olamda hamma narsa harakatda. «Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada Yangilanib turadi». Olamda turg'unlik yo'q. Harakat butun tabiatga, barcha jism va hodisalarga xosdir. Abadiy harakat — abadiy o'zgarishdir. Harakat qarama-qarshilik asosida sodir bo'ladi. «Kurash hamma narsaning otasi, hamma narsaning podshosidir», degan ekan Geraklit. Bundan Geraklit kishilar o'rtasida urushlarni targ'ib qilgan ekan-da, deya xulosa chiqarish noto'g'ri. Geraklitning fikricha, doimiy o'zgarish, harakat va o'zaro qarama-qarshi tomonlarga o'tish — jismlar sifatining nisbiyligi bilan bog'liq. Masalan, dengiz suvi inson iste'moli uchun yaroqsiz bo'lsa, baliqlar uchun ayni muddaodir.

Geraklit fikriga ko'ra, tabiat (olov) uzluksiz o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi. U rivojlanish va o'zgarishlar manbaini ko'radi: «Hamma narsa kurash orqali va zaruriyat tufayli Yuz beradi. Har qanday hodisa o'zining qarama-qarshiligiga o'tadi: sovuq narsa issiq narsaga aylanadi, issiq narsa sovuq narsaga aylanadi, ho'l narsa quruq narsaga aylanadi, quruq narsa ho'l narsaga aylanadi». Quyosh har lahzada Yangilangani kabi, barcha hodisalar ham o'zgaradi. «Ayni bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas: ikkinchi marta suvga tushayotgan odamga Yangi suvlar oqadi». Geraklit sifat jihatidan bir-biriga zid bo'lgan hodisalar va jarayonlarni ko'radi: hayot va o'lim, uyg'oqlik va uyqu, yoshlik va qarilik va sh.k. «Eng toza va eng iflos dengiz suvi: baliqlar uchun u to'yimli va xaloskor, odamlar uchun esa u ichishga yaroqsiz va hayot uchun xavflidir». Ko'rib turganimizdek, qadimgi yunon faylasufi o'zgarishning umumiyliги va har bir xossaning qarama-qarshi holatga o'tishi narsalarning barcha sifatlariga nisbiy tus berishini, ya'ni muayyan holatlarga bog'liq qilib qo'yishini qayd etadi. Geraklitning qarashlari falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Pifagor (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan. u qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha erda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideallashgan raqamlar yotadi; narsa va hodisalar aynan ana Shu raqamlar mahsulidir. Pifagorchilar birinchi bo'lib Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi. Pifagor zodagonlar oilasiga mansub bo'lgani bois aristokratiyani himoya qilgan. U «tartib» to'g'risidagi ta'limotini yaratib, faqat aristokratlar o'rnatgan tartib ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi, degan. Uning fikricha, demokratiya bu tartibotning buzilishidir.

Eley falsafiy maktabi namoyandasi Ksenofan (eramizdan avvalgi YI — V asr) shoir va faylasuf bo'lgan. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilm olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sayohat qilib, umrining so'nggi yillarini Eley shahrida o'tkazgan. Tarixchi Diogen Laertskiyning yozishicha, Ksenofant «Tabiat haqida» asarining muallifidir. Afsuski, ushbu asarning yarmigina omon qolgan, xolos. u ko'pxudolikka hamda insonlarga xos sifatlarni hayvonlarga, o'simlik dunyosiga daxldor deb biluvchi ta'limotga qarshi chiqib, mifologiyani rad etishga harakat qilgan. uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, tabiat - o'zgarmas va harakatsizdir, «Hamma narsa erdan unib chiqadi va pirovardida yana erga qaytadi». Biz hammamiz erdan tug'ilganmiz va erga aylanamiz». Ksenofan qadimgi yunon faylasuflaridan birinchi bo'lib, bilishning imkoniyati va chegarasi haqida fikr yuritgan. Bu qadimgi yunon gnoseologiyasining rivojiga turtki bo'ldi.

Ksenofant ilgari surgan g'oyalar uning shogirdi Eley falsafiy maktabining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri, eramizdan avvalgi 504 yili tug'ilgan Parmenid tomonidan rivojlantirilgan. Eley falsafiy maktabining namoyandalaridan biri Parmenidning shogirdi va do'sti Zenon (490-430 yillar) o'z ustozining ta'limotini himoya qildi va uni rivojlantirdi.

Qadimgi Yunon madaniyatida **sofistlar falsafasi** katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muammolari bilan Shug'ullangan. Sofistlar Yangi kasblarning mohir ustalari, ya'ni o'qituvchilar, diplomatlar, notiqalar, sud mahkamalarida ishlovchi mutaxassislardan iborat bo'lib, haqiqat, osoyishtalik, adolat o'rnatishga xizmat qilgan. ularning ta'limoti Suqrot falsafasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Suqrot (eramizdan oldingi 469-399 yillar.) (asli — Sokrat) — qadimgi YUnon faylasufi. «Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan Shug‘ullangan, hurfikrli inson, kambag‘aldan chiqqan, tosh yo‘nuvchining o‘g‘li, o‘ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo‘lgan.

Uning hayoti fojiali tugagani to‘g‘risidagi misol falsafiy afsonaga aylanib ketgan. O‘z davrida Afinadagi hukmron tuzum tartib-qoidalariga qarshi chiqib, Yangi fikrlarni ilgari surgani uchun ruhoniylar uni dahriylikda hamda yoshlarni axloqan buzishda ayblaganlar. Unga Shunchaki ayb emas, siyosiy ayb qo‘yilgan. Garchand qutilish imkoni bo‘lsa-da, qonun va jamiyat tartiblarini nihoyatda qattiq hurmat qilganligi bois, u jazodan qochishni istamagan va bir qadah zahar ichib o‘lgan. Suqrot va uning tarafdorlari jamiyat qonunlariga, ular qanday bo‘lishidan qat’i nazar, so‘zsiz itoat etishni targ‘ib etganlari g‘oyatda ibratlidir. Holbuki, Suqrot va uning shogirdlari Afinada amal qilgan qonunlarni noto‘g‘ri va adolatsiz deb hisoblagan hamda ularni qattiq tanqid qilgan, ammo, Shunday bo‘lsa-da, ularga bo‘ysungan. Shu ma‘noda, Suqrot o‘zini aybdor deb topgan sud hukmiga itoat etgan va o‘zini uning ixtiyoriga topshirgan. «Aflotun mening do‘stim, ammo qonun do‘stlikdan ustun turadi» degan hikmatli ibora o‘sha davr ma‘naviyatining yaqqol ifodasidir.

«Dialektika» so‘zini ilk bor Suqrot ishlatgan. Bu so‘z bilan u samarali bahslashish, fikrlar qarama-qarshiligi orqali haqiqatning tagiga etishga qaratilgan muloqot olib borish mahoratini ifodalagan

Suqrot o‘z ta‘limotini og‘zaki ravishda ko‘cha-ko‘yda, maydonlarda, xiyobonlarda shogirdlari va izdoshlari bilan birga shakllantirgan va xalq ongiga singdirishga harakat qilgan, lekin bironta ham asar yozmagan. Uning falsafiy, axloqiy ta‘limotlari mohiyatini shogirdlari Ksenofant, Aristofan va Aflotunlarning asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Ksenofant «Suqrot haqida esdaliklar» asarida o‘z ustozini haqida iliq so‘zlar aytib, uni olijanob, axloq-odob borasida haqqoniy fikr yuritgan inson sifatida ta‘riflagan. YOshlarning axloqini buzgan deb unga siyosiy ayb qo‘yish — tuhmat ekanini alohida ta‘kidlagan. Aflotun esa uni chuqur mulohazali, insonni ulug‘lovchi donishmand, deya ta‘riflagan, uning falsafiy qarashlarini o‘z asarlarida Suqrot nomidan bayon etgan. Suqrotning fikricha, falsafaning markazida axloq masalalari turmog‘i lozim. Jamiyatning ravnaqi, tinchlik va osoyishtaligi, farovon hayoti axloq va odobning ahvoliga bog‘liq. Bu masalalar Sharq falsafasida ham katta o‘rin tutganli bois xalqimiz, buyuk allomalarimiz Suqrot nomini benihoya hurmat bilan tilga olgan, uning axloq-odob haqidagi pand-nasihatlariga amal qilgan.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrot o‘z e‘tiqodlarini himoya qilish yo‘lida hayotini tikkan. U davlatni boy va zodagon kishilar emas, balki ishning ko‘zini biladigan, oqil odamlar boshqarishlari lozim deb hisoblagan va o‘z shogirdlariga o‘sha davrda mavjud bo‘lgan siyosiy an‘analarda mo‘ljal olishni o‘rgatgan. Ayni Shu fikri uchun ustidan chiqarilgan hukmga e‘tiroz bildirmay, Suqrot o‘z o‘limini ixtiyoriy ravishda tanlagan va bir qadah sikut (zahar) ichib o‘lgan.

Suqrotning shogirdi **Aflotun** “asli — Platon (427- 347)” jahon falsafasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf olim, balki san‘atkor, shoir va dramaturg bo‘lgan, o‘z g‘oyalarini dialoglar tarzida bayon qilgan. Aflotun 428(7) yil 21 mayda Delos orolida tug‘ilgan. O‘zidan keyin 35 dan ziyod dialog shaklidagi asarlar yozib qoldirgan. Arastuning u haqdagi ma‘lumotlarini birdan-bir to‘g‘ri dalil deb qarash mumkin. CHunki Arastu Aflotunning eng yaqin do‘sti va shogirdi bo‘lgan.

Platon ikki dunyo – “g‘oyalar dunyosi” va “narsalar dunyosi” mavjudligi haqida saboq beradi. “G‘oyalar dunyosi” umumiy tushunchalardan iborat, “narsalar dunyosi” esa “g‘oyalar dunyosi”ning in‘ikosidir: “g‘oyalar dunyosi”da ideal mohiyatlar mavjud, “narsalar dunyosi” esa bu mohiyatlar mahsuli bo‘lgan ayrim narsalardan iborat. Platonning g‘oyalar haqidagi ta‘limoti uning “Bazm”, “Fedon”, “Fedr”, “Davlat” asarlarida o‘z aksini topgan, mutafakkirning “Teatet”, “Parmenid”, “Sofist”, “Kritiy” asarlari esa g‘oyalarning moddiy dunyoga bo‘lgan munosabati muammosiga bag‘ishlangan. Platon fikriga ko‘ra, materiya - g‘oyaning sof “aksi”, uning “aksilmohiyati”. Materiyaning mohiyati esa - g‘oya. Haqiqiy borliq - bu piramidani eslatadigan ideal borliq. Uning zamirida “bilish va harakat asosining mohiyati” sifatida amal qiluvchi go‘zallik g‘oyasi yotadi. Uning yonidan yaxshilik g‘oyasi va oqillik (haqiqat) g‘oyasi o‘rin oladi. Shunday qilib, Platon “g‘oyalar dunyosi” “narsalar dunyosi”ni vujudga keltirishini nazarda

tutuvchi ob'ektiv idealizm falsafiy tizimini yaratgan. Platon g'oyalar va narsalarni bir-biridan ajratib bo'lmashini qayd etsa-da, lekin buyuk mutafakkir uchun "g'oyalar dunyosi" birlamchidir.

Platon dialektika muammolarini ham o'rgangan. U dialektika deganda nisbiy «borliq» va «haqiqiy borliq»ni bilishni tuShungan. U ko'p sonli asarlarini antik dialektika namunalarini o'zida mujassamlashtirgan dialoglar shaklida yozgan hamda, harakat va harakatsizlik, tafovut va ayniyatni tahlil qilgan. Platon har bir narsani o'z-o'ziga va boshqa barcha narsalarga ayniy deb hisoblagan

Aflotun «Foyalar dunyosi va soyalar dunyosi» ta'limotining asoschisidir. Uningcha, g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo esa uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiyot g'oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi harakat esa uning aksidir. Foyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bilolmaydi. Ularni biladigan zotlar nihoyatda kam uchraydi, ular ulkan aql egasi bo'ladi va tarixda chuqur nom qoldiradi. Aksariyat kishilar esa, soyalar dunyosi bilan kifoyalanadi.

Platon ham ijtimoiy muammolarni tahlil qilgan. U davlatning mohiyati va shakllarini shaxs, ayniqsa podshoni shaxsi nuqtai nazaridan o'rgangan. Uning fikricha, podsho haqiqatparvarlik, oqillik, mardlik, adolatparvarlik kabi fazilatlariga ega bo'lishi lozim; umuman olganda, podshoda insonning barcha qobiliyatlari mavjud bo'lishi darkor. Platon insoniyat tarixida birinchi ideal davlat nazariyasini yaratadi. U davlatning uch shaklini tan oladi: monarxiya, aristokratiya va demokratiya. Bu shakllarning har biri ikki ko'rinishda: qonuniy va noqonuniy yoki zo'rlik ishlatishga asoslangan ko'rinishlarda amal qiladi. Platon davlatning qonuniy shaklini ma'qul ko'radi. Uning fikricha, davlatni faylasuflar hammadan yaxshiroq boshqara oladilar. Platon o'zining «Davlat» asarida bu haqda Shunday deb yozadi: «Agar qashshoq va yo'qsillar o'z shaxsiy manfaatlarini qondirishni ko'zlab, jamiyatni boshqarish imkoniyatini qo'lga kiritgan bo'lsalar, bundan yaxshi ish chiqmaydi: hokimiyat bellaShuv maydoniga aylanadi va bunday ichki urush uning ishtirokchilarini ham, qolgan fuqarolarni ham halokatga mahkum etadi. Hokimiyat uni sevguvchi kishilar qo'lga o'tishi ham yaramaydi. Aks holda ular bilan bu sevgida raqiblar bellashadi...»⁵⁸.

Aflotunning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti uning dunyoqarashida markaziy o'rinlardan birini tashkil etadi. U faqat antik davr falsafasi — ontologiya va gnoseologiyaning klassigi bo'lib qolmay, mumtoz antik siyosiy nazariya va pedagogikaning bilimdoni ham bo'lgan. Aflotun ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir «Davlat», «Qonunlar», «Siyosat» va «Kritiy» nomli asarlar yozib qoldirgan. «Davlat» asarida jamiyat haqida, uning ideal siyosiy tuzumi to'g'risidagi qarashlarini markaziy ta'limoti — g'oyalar nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ilgari surgan. Uning fikricha, davlatning to'rtta shakli mavjud: teokratiya; oligarxiya; demokratiya; tiraniya. Aflotunning ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Aflotun aytganidek, jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir. Platonning «Dialoglar» asarida taqdir, qarilik, fazilatlar, oqillik, adolat, sabr-toqatlilik, sovuqqonlik, vijdonlilik, erkinlik, kamtarlik, olijanoblik, tinchlikparvarlik, engiltaklik, do'stlik, mehr-muruvvatlilik, e'tiqod, teran fikrlash kabi tushunchalarga ta'rif berilgan

Aflotunning shogirdi va safdoshi Arastu (384 — 322 yillar) (asli — Aristotel) qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi, o'zining betakror, jahonni lol qoldirgan ilmiy merosi bilan mashhurdir. O'n etti yoshida o'z ilmini oshirish maqsadida Afinaga kelib, Aflotun asos solgan akademiyaga o'qishga kirgan va 20 yil davomida (Aflotunning o'limiga qadar) Shu erda tahsil olgan. Keyinchalik Makedoniya podshosi Filippning II taklifiga binoan, uning o'g'li Aleksandrda 3 yil muntazam ustozlik qilgan. Binobarin, keyinchalik dunyoni zabt etib, jahongirlik maqomiga ko'tarilgan iskandarning kamolotida Arastuning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Filippning o'limidan keyin Aleksandr taxtga o'tirgach, Arastu Afinaga qaytib kelib, 50 yoshlarida «Likkey» nomli maktab ochgan. Ilmiy faoliyatining samarali bo'lishida, umuman, Yunonistondagi ilm-fan rivojida Aleksandr tomonidan ko'rsatilgan himmat va rag'batlar muhim ahamiyat kasb etgan. Iskandar vafotidan keyin

⁵⁸ Платон // Всемирная энциклопедия. —М.: Современный литература, 2001. —С. 782.

unga qarshi kuchlar bosh ko'tarib, Arastuni dahriylikda ayblashgan va sudga tortishgan. Suddan oldin Evbey oroliga ko'chib ketgan Arastu ko'p o'tmay o'sha erda vafot etgan.

Arastu zabardast olim bo'lib, mantiq, psixologiya, falsafa, axloq, notiqlik san'ati, tabiiy fanlar bo'yicha o'lmas, bebaho asarlar yozib qoldirgan. Uning barcha asarlari borliqni o'rganishga qartilgan. Mantiqqa oid asarlarining barchasini «Organon» («Qurol») nomli asariga jamlagan. Faylasuf barcha fanlarni ikki turga — nazariy va amaliy fanlarga bo'lgan. Amaliy fanlar shogirdlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishga, biror bir foydali ishni amalga oshirishga yo'naltirilgan. U nazariy fanlarni uch qismga - falsafa (metafizika), matematika va fizikaga ajratgan.

Aristotel "Metafizika" asarida Platonning narsalarning vujudga kelish asosi sifatidagi g'oyalar haqidagi ta'limotini rad etadi. U mohiyat-g'oyalar hissiy idrok etiladigan narsadan tashqarida mavjud emas, degan tezisni ilgari suradi. Platon fikrlariga e'tiroz bildirar ekan, Aristotel umumiylik faqat ayrim narsada mavjud deb hisoblaydi: "Ayrim narsa bo'lmasa, umumiylik ham bo'lmas edi". "Metafizika"da Aristotel falsafa borliq va uning atributlarini, borliqning oliy tamoyillari yoki sabablarini o'rganishini qayd etadi. Bular "umumiy metafizika" muammolaridir. Ammo "xususiy metafizika" ham mavjud bo'lib, u "harakatsiz substansiya yoki birinchi boqiy dvigatel"ni o'rganadi

Aristotel fikricha, bahslashish yoki qarama-qarshi fikrlarni talqin qilish orqali haqiqatning tagiga etish san'ati sifatidagi dialektika Zenonning «Bahslar» deb nomlangan asarida tahlil qilingan

Aristotel sababiy bog'lanishlarning rang-barangligi muammosini ilgari surib, dialektikani yanada rivojlantirgan. Uning to'rt sabab: moddiy, formal, harakatlantiruvchi va yo'naltiruvchi sabablar «Narsalar va hodisalar vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omil (materiya, substrat) – moddiy sabab»; «narsaning mohiyatini belgilovchi omil – formal sabab»; «harakat asosi – harakatlantiruvchi sabab»; «biror narsani amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad – yo'naltiruvchi sabab» haqidagi ta'limoti ma'lum. Aristotel shakl va mazmun (materiya) dialektikasini tahlil qilishning o'z usulini taklif qildi. Narsa – bu shakl va materiyaning birligi. Narsalarning vujudga kelishi va ularning takomillaShuvi shaklga bog'liqdir. SHakl o'z mohiyatiga ko'ra faol, materiya esa passivdir. SHakl – narsaning tashqi ko'rinishi, u dunyoning rang-barangligi va borlig'ini belgilaydi.

Aristotel e'tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, halollik, ezgulik, bironing haqiga xiyonat qilmaslik, ota-onalarga mehr oqibatli bo'lish, hushyorlik, ziyraklik, adolatlilik kabi ma'naviy axloqiy fazilatlariga ega bo'lish har qanday jamiyat, davlat va xalqning eng katta boyligi, kuch-qudrati manbalaridan biri deb hisoblaydi. Uning fikricha, biron bir narsaga ega bo'lishdan maqsad undan foydalanishdir. Ko'zga ega bo'lgan odam ko'zini yumib yashamaydi, balki undan olamni ko'rish uchun foydalanadi, quloq va Shu kabilar haqida ham Shu fikrni aytish mumkin. U inson uchun biror narsaga ega bo'lish muhimmi yoki undan foydalanishmi, degan savolni o'rta tashlab, albatta muhimi foydalanishdir, chunki foydalanish va faoliyat ko'rsatish maqsadida u biror bir narsaga ega bo'lishni istaydi,⁵⁹ deb hisoblaydi.

Faylasuf olamdagi narsa va hodisalar to'rtta sababga ega. Bular — moddiy sabab, ya'ni modda (materiya); shakliy sabab yoki shakl; yaratuvchi sabab; pirovard sabab yoki maqsad sabablardir. Yaratuvchi sabab, Arastu talqinicha, harakat manbaidir. Masalan, ota va ona bolaning ulg'ayishi sababchisidir. Arastu pirovard sabab (maqsad sabab) vositasida insonga xos bo'lgan maqsadni tabiat hodisalariga ham tatbiq etmoqchi bo'lgan. Harakat olam singari abadiydir. Ayni paytda, olam o'zining abadiy sababi, ya'ni harakatlantiruvchi kuchiga ega.

Tizim sifatidagi kategoriyalar haqida ilk bor Aristotelning «Kategoriyalar» risolasida so'z yuritilgan. U o'zidan oldingi falsafiy tafakkurni o'rganish asosida kategoriyalar jadvalini tuzgan. Bu jadval quyidagi kategoriyalarni o'z ichiga olgan: mohiyat (substansiya), miqdor, sifat, munosabat, joy, vaqt, o'rin, holat, harakat, azob-uqubat. Aristotelning kategoriyalar jadvali falsafa va muayyan fanlar erishgan yutuqlar munosabati bilan uning tarkibini o'zgartirishni taklif qilgan Yangi davrga qadar kategoriyalar haqidagi ta'limotning rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatib

⁵⁹ Каранг Бобоев Х, Гофуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маънавий –маърифий таълимотлар тараққиёти. -Т.: Янги аср авлоди, 2001. –Б.85.

Aristotel ham o'zining «Siyosat» asarida o'z davlat nazariyasini bayon etgan. U: «Davlat nima uchun vujudga kelgan va insonni uning jamiyatdagi hayotida boshqaruvchi hokimiyatning nechta turi bor?», degan savolni o'rtaga tashlaydi va o'zining bu savoliga Shunday javob beradi: «Davlat yashash uchun yaratilmaydi, balki asosan baxtli yashash uchun yaratiladi... Davlat oilalar va jamoalar o'rtasida yaxshi hayot kechirish uchun aloqalar o'rnatilganda, farovon va o'ziga to'q mavjudlik maqsadida vujudga keladi»⁶⁰. Davlat hokimiyati masalasiga kelsak, Aristotel uning «uch yaxshi» va «uch yomon» shaklini qayd etadi. Davlat hokimiyatining «yaxshi» shakli deganda u jamiyatga xizmat qiluvchi hokimiyat shakllari: monarxiya, aristokratiya, «politiya», ya'ni o'rta sinf hokimiyatini tuShunadi. Davlat hokimiyatining «yomon» shakllari qatoriga Aristotel tiraniya, sof oligarxiya va ashaddiy demokratiyani kiritadi.

Arastuning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti «Davlat», «Siyosat» kabi asarlarida bayon etilgan. Uning fikricha, davlat boshqaruvi jamiyatning erkin va farovon hayoti uchun xizmat qilishi lozim. Baxtli hayot mazmuni faqat moddiy mo'l-ko'lchilik bilan belgilanmaydi, balki seroblik ma'naviy boylik bilan uyg'un bo'lgandagina, jamiyat baxtli hayot kechiradi. Davlatning boyligi, asosan, o'rtacha mulkka ega bo'lgan fuqarolarning mehnati bilan ta'minlanadi. Arastuning bu boradagi qarashlari bugungi kunda Vatanimizda kichik va o'rta biznes sohasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar mohiyatiga juda hamohangdir.

YUnon falsafasida **Demokrit**ning qarashlari ham muhim o'rin tutadi. U haqiqiy borliq — moddiy dunyo, abadiy va poyonsiz, cheksiz-chegarasiz reallikdir, olam mayda moddiy zarrachalardan, ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deya ta'lim beradi. Atomlar va bo'shliq o'zaro yaxlit abadiy ibtidodir. Atomlar — bo'linmas va o'zgarmas, sifat jihatdan bir xil, uning miqdori shakli singari behisobdir. Harakat, degan edi Demokrit, atomlardan iborat moddaning abadiy, tabiiy holatidir. Demokrit tasodifiyatni inkor etgan. U «na tabiatda na jamiyatda xech bir narsa tasodifan paydo bo'lmaydi», deb yozgan. Demokritning falsafiy qarashlarida axloqiy ta'limot muhim o'rin tutadi. Uning bu boradagi qarashlari siyosiy qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. Yaxshi boshqarilayotgan davlat — buyuk qo'rg'ondir. Davlat manfaatlari qolgan barcha narsalardan ustun turmog'i lozim.

Demokrit dunyo atomlar va bo'shliqdan iborat deb hisoblagan. Uning fikricha, atomlar – sifatga ega bo'lmagan mayda zarralar. Sifatlar atomlarning shakl, o'rin va tartib jihatidan uyg'unligidan paydo bo'ladi. Demokrit, nima uchun sut oson ichiladi?, degan savolga, Shuning uchunki, sut, «yumaloq atomlar»dan iborat, nima uchun xantalni sutday ichish mumkin emas? Shuning uchunki, xantal atomlari «ilmoqsimon»dir, deb javob beradi. U narsalar sifati va ularning rang-barangligini ham Shunday tuShuntirgan. Demokritning atomistikasida sababiyatning sodda izohlari bilan bir qatorda ayni Shu sababiyatni narsalarning o'zida, aniqrog'i – atomlarda ko'rishga bo'lgan intilishga ham duch kelish mumkin. Sharq falsafasida esa, materiyaning diskretligi, uning tuzilishi muammosi qo'yilmaydi. Unda materiyaga asosan jonga «xalaqit» beruvchi muayyan omil yoki shakl bilan birlikda yoki muayyan substansional asos sifatida yondashiladi.

Demokritdan boshlab, qadimgi dunyoning deyarli barcha faylasuflari davlat, qonun, mehnat, boshqaruv, urush va tinchlik, mayllar, manfaatlar, hokimiyat, jamiyatning mulkiy tabaqalanishi muammolariga murojaat etganlar.

Ikkinchidan, bu ijtimoiy-falsafiy muammolarni tadqiq etish jarayonida insonni jamiyatga bog'lab o'rganish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Demokrit Shunday deb yozadi: «Umumiy muhtojlik ayrim insonning xususiy muhtojligidan og'irroqdir. Zero umumiy muhtojlikda yordamga hech qanday umid qolmaydi»; «qonun odamlarning hayotini tartibga solishni xohlaydi, bunga u faqat odamlar o'zlariga yaxshi bo'lishini istagan taqdirda erishishi mumkin. Zero qonun o'ziga bo'ysunadigan kishilargagina ijobiy ta'sir ko'rsatadi»; «Oqil odamga butun dunyo ochiq. Zero yaxshi qalb uchun butun dunyo vatandir»⁶¹.

⁶⁰ Аристотель // Всемирная энциклопедия. –М.: Современный литература, 2001. –С. 69

⁶¹ Демокрит // Всемирная энциклопедия. –М.: Современный литература, 2001. –С.105.

Me'yor, deydi faylasuf, axloqning tabiat insonlarga in'om etgan kuch va qobiliyatga mos kelishadadir. Donolik uchta hosil keltiradi: yaxshi fikrlash; yaxshi so'zlash; yaxshi harakat qilish. Demokritning axloqiy qarashlari o'z davridagi amaliy ma'naviy munosabatlarning umumlashmasidir. Uning ta'limoti bugungi kunda insonlarni axloq-odobga, diyonatga da'vat etadi.

Epikur (341-270 yillar) — qadimgi YUnon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog'onaga ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limoticha, olam — moddiy, abadiy va cheksiz. Atomlar — bo'linmas, olam — jism va bo'shliqdan iborat, deb yozgan edi u. Barcha jismlarni Epikur ikki guruhga bo'lgan. Birinchi guruhga jismlarni tashkil etuvchi atomlarni kiritgan bo'lsa, ikkinchi guruhga atomlarning birlashishidan tashkil topgan jismlarni kiritgan. Epikur ichki harakat qonuniyatini kashf etib, Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotiga ulkan hissa qo'shgan. Epikurning falsafiy-axloqiy ta'limoti o'z zamonasida ilg'or ahamiyatga ega bo'lgan. Rohat-farog'at, xursandchilik deganda, kayf-safo, maishat, shohona hayotni emas, balki jismoniy ezilish hamda ruhiy tashvishlardan xalos bo'lishni, ozodlikni tuShunamiz, deydi Epikur. uning fikricha, davlat kishilarning o'zaro keliShuvi asosida tuzilishi lozim. Epikur ilgari surgan ijtimoiy keliShuv g'oyasi keyinchalik XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari hamda XX asr faylasuflari tomonidan davom ettirilgan.

Epikur ta'limotini rimlik **Lukreitsiy Kar** (eramizdan avvalgi 99-55 yillar) davom ettirgan. U «Narsalarning tabiati to'g'risida» nomli asari bilan mashhur bo'lgan. YAshashdan maqsad, deb yozgan Lukreitsiy, baxtli hayot kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham, xuddi tabiat singari, o'z qonunlariga ega hamda tabiat qonuniyatlariga tayangan holda rivoj topadi, deydi u. Uning falsafiy qarashlari o'z davri va o'rta asr falsafasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Uning fikricha, modda (materiya) — abadiy, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib, shaklini o'zgartirib yashash — uning xossasi. Olamdagi barcha narsalar ikkiga — oddiy va murakkab turga bo'linadi. Lukreitsiy Kar atom harakatining uchta turini sanab o'tgan. Bular — narsaning og'irlikka ega bo'lgani uchun to'g'ri chiziqli harakati, narsaning o'zicha og'ish harakati, narsaga turtki bo'lgan asosga qaratilgan harakat. Lukreitsiyning nazariyasi mohiyatan sodda bo'lsa-da, tabiatShunoslikka ulkan ta'sir ko'rsatgan.

1. Evropada Qadimgi YUnon va Rimdan o'rta asrlar falsafasigacha, ya'ni miloddan ilgarigi 1 asrdan milodning XIV asrigacha, bir yarim ming yil davomida bir qancha oqimlar paydo bo'ldi va amal qildi. Bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko'rish mumkin:

2. Xiristianlikning shakllanib davlat dini va mafkurasiga aylanishi;

3. O'rta asrlarga kelib inkvizitsiyaning ustivor yo'nalishga aylanishi. Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o'sha davr falsafasining qiyofasini belgilaydi.

Evropa falsafasida materializm o'rta asrlarda Sharqdagidek keng tarqalmagan va madaniyatga kuchli ta'sir ko'rsatmagan. U sxolastikada realizm bilan bir qatorda paydo bo'lgan nominalistik falsafa ko'rinishida rivojlangan va avval ayrim narsalar va hodisalar, so'ngra ularning in'ikoslari narsalarning nomlari sifatida talqin qilinuvchi umumiy tushunchalarda mavjud, degan g'oyadan kelib chiqqan. Ammo falsafani ilohiyotga qaram qilishga harakat qilgan din mafkuraning hukmron shakli sanalgan.

Gnostiklar. Bu davr falsafasida o'z o'rniga ega bo'lgan gnostitsizm eramizning 150 yillarida o'zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular Shunday falsafiy ta'limot yaratdilar, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o'z tabiatinnig ruhiy jihati bilan xudoga moslashgan. Bu masalada gnostitsizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar. Agar bu urinishda gnostitsizm g'alaba qilsa, xristianlik qadimgi dunyoning navbatdagi falsafiy dini bo'lib qolar edi va Shunday bo'ldi ham. 354 yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e'lon qildi.

Dualizm — gnostitsizmning asosiy yo'nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o'rtasida mustahkam chegara mavjud deb ta'kidlaydilar. Ular ta'limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular xudo hech mahal moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Gnostiklar tomonidan e'lon qilingan darveshlik (asketizm) o'rta asrlarda monaxchilikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Apologetlar xristianlik tarixida I va III asrlarda vujudga keldi. Apologetika soʻzining lugʻaviy maʼnosi «himoya qilish», — demakdir. Apologetlar hukumatning xristianlikka boʻlgan dushmanligini bartaraf qilishga, Rim davlatining xristianlikni taʼqib qilishi hech qanday oqlashga loyiq emasligini isbotlashga harakat qilganlar, oʻz asarlarida mushriklik (koʻp xudolik) adabiyotlaridan olingan bahslashish (dialog) shaklidan, yoki apologetikaning mumtoz shaklidan foydalanganlar.

Apologetlar asarlarida ikki anʼana yaqqol sezilib turadi. YAʼni inkor qilish va tasdiqlash. Ular eng avval mushriklar tomonidan xristianlikka qoʻyilgan ayblar — gʻayriodatiy harakatlar, dabdababozlik kabilarni inkor qilganlar. Xristianlikning sofligini esa tasdiqlaganlar. Bu sohada YUstinning «Birinchii apologeya», «Ikkinchi apologeya» asarlarini, Tulean va Anaksagor kabi faylasuflar faoliyatini taʼkidlash lozim.

«Patristika»- soʻzi «ota» («padre») soʻzidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda Farbda episkoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Sharqda mashhur boʻlgan cherkov otalaridan biri Ioan Zlatoust (347-407) edi. Uning 640ta daʼvatlaridan koʻpchiligi avliyo Pavel nomalarining sharhi edi. Uning asarlarida injilni amaliy qoʻllash sof ahloqiy masalalar bilan qorishib ketgan.

Farbda eng yirik cherkov otalaridan biri «Pok» degan unvonga sazovor boʻlgan Avreliy Avgustin (354-430) boʻlib hisoblanadi. U faylasuf va islohiyotchi boʻlgan. Avgustin oʻz hayotini episkoplikka, tadqiqotchilikka, adabiyotga bagʻishlaydi. U 100 ga yaqin kitob, 500 ta daʼvat va 200 ga yaqin nomalar yozadi. Uning oʻsha davrdagi eng mashhur asarlaridan biri «Sigʻinish» 401 yilda yozilgan. Bu asarda u oʻzining xristianlikkacha boʻlgan hayotini yozadi. Muqaddas kitob «Bibliya» oyatlari ramziy — timsoliy bayon qilinadi. U mushriklik falsafasini qoralaydi. Uningcha, bu falsafa insonni xristian dinichalik hech mahal haqiqatga olib kelmaydi. Avgustin bahs shaklida boshqa (dialog) falsafiy asarlar yozgan.

Apologetika ortidan «cherkov otalari»ning falsafiy taʼlimoti – patristika (lot. pater – ota) paydo boʻlgan. Patristikaning eng yorqin vakili Gippon (SHimoliy Afrika)dagi episkop Avliyo Avgustin (354-430)dir. U oʻrta asrlar falsafasiga, Shuningdek falsafiy ijodning keyingi davrlardagi koʻpgina vakillariga kuchli taʼsir koʻrsatgan.

Avgustin «haqiqiy falsafa va haqiqiy din»ni bir deb hisoblagan. Xristianlik asoslarini u Platon falsafasidan topishga harakat qilgan. Uning fikricha, Platon gʻoyalari – «bu ijodkor ijodga kirishish oldidan yuritgan mulohazalar»⁶²dir. Xudo dunyoni yoʻqlikdan yaratgan. Inson panoh topishining asosiy yoʻli uning xristian cherkoviga mansubligidir. Xristian cherkovi «ilohiy shahar»ning Erdagi vakilidir. Avgustin inson faoliyatining ikki qarama-qarshi turini tahlil qiladi: birinchi – «dunyoviy shahar», yaʼni «Xudoga nisbatan nafrat darajasiga koʻtarilgan oʻz-oʻziga boʻlgan muhabbatga» asoslangan davlatchilik; ikkinchi – «oʻz-oʻziga nisbatan nafrat darajasiga koʻtarilgan Xudoga boʻlgan muhabbat»ga asoslangan «ilohiy shahar». Avgustinning eng mashhur: «Ilohiy shahar», «Insoniy shahar», «Tavba» kabi asarlari mavjud.

Avgustin ikki muhim muammo: shaxs dinamikasi va kishilik tarixi dinamikasi muammolarini echishga harakat qiladi. U «Tavba» asarida shaxsning oʻzligini, uning ruhiy holatlarini oʻrganadi. Avgustin shaxsning ichki dunyosini uning goʻdaklik yillaridan boshlab inson xristian sifatida shakllanadigan davrgacha tavsiflaydi. U shaxsga nisbatan zoʻrlik ishlatishning har qanday shakllarini (maktabda bolaga zoʻrlik ishlatishdan davlat darajasida zoʻrlik ishlatishgacha) qoralaydi. Avgustin shaxs erkinligi muammosini ilgari suradi. Oradan bir necha asrlar oʻtgach, ayni Shu muammo ekzistensializm vakillarida Avgustin falsafasiga nisbatan qiziqish uygʻonishiga sabab boʻldi. Avgustin inson subʼektiv tarzda erkin harakat qiladi, lekin uning barcha harakatlarini u orqali Xudo bajaradi, deb hisoblagan. Xudoning borligʻini insonning oʻzligidan, inson tafakkurining oʻz-oʻzi uchun ishonchliligidan keltirib chiqarish mumkin. Avgustin shaxs uchun oʻzlikning rolini koʻrsatib berdi. Zero «Men» - tashqi dunyodan ajralib chiqadigan va hatto undan «berkinib» oladigan intim mavjudot. Avgustin inson oʻz «Meni»ni qanday kashf etadi, degan savolga javob topishga harakat qiladi.

⁶² Августин \\\ Всемирная энциклопедия. –М.: Современный литература, 2001. –С. 11.

Tarix falsafasini ishlab chiqish ham, garchi atamaning o'zini Volter taklif qilgan bo'lsa-da, Avliyo Avgustinidan boshlangan. Antik faylasuflarda «tarixiylik» tushunchasi mavjud bo'lmagan: yunonlar dunyoni estetik jihatdan, mukammal koinot sifatida idrok etganlar. Avgustin esa o'tmish – hozirgi davr – kelajakning o'zaro aloqasini falsafiy jihatdan anglab etishga harakat qilgan. Hozirgi davr – bir lahza, zero u o'tmishga chekinadi va kelajak sari harakat qiladi. «Insoniy shahar» (jamiyat) hayoti buni tasdiqlaydi.

Avliyo Avgustin asarlari sxolastik falsafaning yaratilishiga asos bo'lgan va uzoq vaqt mobaynida antik falsafani, asosan Platon, Aristotel hamda neoplatoniklar – Plotin, Porfiriy, Prokl asarlarini o'rganish manbalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Plotinning universal triadasi – «yagona – aql – jon» sxolast-faylasuflar e'tiborini o'ziga tortgan.

«Sxolastika»- so'zi yunoncha «shkola»dan («shola») olingan bo'lib, «o'qish joyi», «maktab» ma'nolarini anglatadi. Buyuk Karl saroyida o'qituvchilik qilganlarni, yoki umuman saroy maktabidagi o'qituvchilarni sxolastlar deb ataganlar. Shuningdek, dinni o'rganishda falsafani tatbiq qilgan o'rta asr olimlarini ham sxolastlar deb ataganlar. Sxolastikani ma'lum darajada ilohiyotni aqlga moslashtirish, dinni tafakkur yordamida quvvatlashga bo'lgan intilish deb ham baholash mumkin. O'sha davrda ilohiyotni muqaddas kitoblar aqidalari asosida emas, balki falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilish toqozo qilinardi. Sxolastlarning maqsadi e'tiqod aqlga muvofiqmi degan savolga javob berish bo'lgan.

Sxolastika (yunon. *scholē* – maktab) – maktab ta'limida hukmronlik qilgan va ilohiyotga to'la bog'liq bo'lgan o'rta asrlar xristian falsafasi. XI asrda sxolastik falsafa doirasida nominalizm va realizm o'rtasida kurash avj olgan. Dastavval: «Xudo bir, lekin siymolarda uchta: Xudo-ota, Xudo-o'g'il va Xudo-muqaddas ruh, degan fikrni qanday tushunish kerak?», degan sof sxolastik savol o'rta tashlangan. Ammo bu savol atrofida avj olgan bahs-munozara uning chegarasidan chetga chiqqan va tom ma'noda falsafiy xususiyat kasb etgan: amalda yakkalik va umumiylik dialektikasining muhokamasiga aylangan. Realistlar «umuman inson», «umuman uy» kabi umumiy tushunchalar – «universalialar» mavjudligi to'g'risida so'z yuritganlar. Ular ayrim narsalarning mohiyati sanalgan universalialar narsalargacha amalda mavjud bo'ladi va narsalarni vujudga keltiradi, deb hisoblaganlar. Bu ashaddiy realizm zamirida Platonning «g'oyalar dunyosi» va «narsalar dunyosi» haqidagi ta'limoti yotadi.

Nominalistlar «universalialar narsalardan keyin vujudga kelgan nomlardir», degan fikrni ilgari surganlar. Ayrim narsalar, masalan, odamlar, uylargina realdir, «umuman inson» yoki «umuman uy» esa faqat so'zlar yoki nomlar bo'lib, ularning yordamida odamlar ayrim predmetlarni umumlashtiradilar. Mo'tadil nominalistlar insoniy tushunchalarda ayrim narsalardagi o'xshash jihatlarning in'ikosi sifatida umumiylik mavjudligini taxmin qilganlar.

Realizm umumiylikka narsadan oldin paydo bo'luvchi ideallik sifatida yondashgan, ya'ni amalda umumiy va yakkaning aloqasi to'g'risidagi idealistik konsepsiyani ishlab chiqqan bo'lsa, nominalizm bu muammoni materialistik yo'l bilan echishning o'ziga xos timsoli bo'lgan.

Shunday qilib, realistlar va nominalistlar o'rtasidagi bahs falsafiy tus olgan, chunki unda umumiy va yakkaning tabiati muammolari, ularning dialektikasi amalda muhokama qilingan.

Realizm. Uning yirik vakillaridan biri Angelm Ketterberiyaskiy (1038-1109) dir. U SHimoliy Italiyada tug'ilgan, 1093 yilda Ketterberiyask shahrining arxiepiskopi etib tayinlanadi. Angelm o'zining ikki asari bilan mashhur.

Birinchisi «Monopoliya» — xudoning borligini sabab oqibat munosabatlari tizimida isbot qilish. Bu isbot — kosmologik isbotning shakli sifatida Shunday talqin qilinadi: inson hayotda ko'p ne'matlardan foydalanadi. Bu ne'matlar esa eng oliy ilohiy ne'matlarning aksidir. Ular orqali hamma narsalar mavjuddir. Uzluksiz tanazzulni tasavvur qilib bo'lmagani sababli, hamma narsaning bir sababchisi bo'lishi kerakki, biz uni xudo deb ataymiz.

Angelmning ikkinchi asari «Prologion» xudo borligining deduktiv isbotidir. Uning ta'kidlashicha, har bir odam uchun oliy va komil mohiyat haqida g'oya mavjuddir. Bu g'oya esa ob'ektiv mavjudlikka ega bo'lgan reallikka mos keladi. CHunki agar borliq mavjud bo'lmaganda

edi, narsa komil bo'lmaz edi. Agar xudodan yuqoriroq oliy narsani tasavvur qilish mumkin emas ekan, demak, xudo reallikda mavjuddir.

Arastu ta'limotining ko'p tomonlarini qabul qilgan o'rta asr sxolastlari mo'tadil realistlar deb atalganlar. Ularning yirik vakillari Per Abelyar va Foma Akvinskiylar bo'lgan.

Britaniyada tug'ilgan **P. Abelyar** (1079-1142) juda yoshligidanoq o'z bilimi bilan mashhur edi. Abelyar — mo'tadil realistdir. Uning ta'kidlashicha, reallik yoki universal yoki dastlab xudo aqlida mavjuddir, undan keyin narsalarning o'zida mavjuddir va nihoyat, odamlarning ongida mavjuddir. Abelyar «Men e'tiqod qilish uchun bilaman» degan g'oyani ilgari surgan. YA'ni bilmaydigan, bilimsiz kishidan ko'ra, din va uning asosiy tamoyillarini yaxshi o'rgangan kishi abzal. Bunday kishi aqidaparast emas, balki o'zi bilgan narsaning qadrini biladigan insondir.

Abelyar haqiqatni topishda tafakkurning xizmatini ta'kidlab, unga hamma vaqt murojaat qiladi. Uning ta'kidlashicha, Shubha hamma vaqt tadqiqotga yo'llaydi, tadqiqot esa haqiqatni topadi. Uning fikricha, insonning o'limi xudoni rozi qilish uchun emas, balki odamlarni xudoga bo'lgan muhabbat bilan taajjubga solish va odamlarga ahloqiy ta'sir ko'rsatish maqsadida sodir bo'ladi. Bu bilan odamlar o'z hayotini xudoga bo'yso'ndiradilar. Bu qarash ahloqiy ta'sir qilish nazariyasi deb ataladi.

Foma Akvinskiy (1224-1292) mo'tadil realizmning yana bir yirik vakili bo'lib hisoblanadi. Foma o'sha davr uchun Arastu natur falsafasini ilohiyot bilan birlashtirishga harakat qilgan. Bunda u mo'tadil realizm pozitsiyasida turgan va sxolastikaning eng yirik namoyandasi bo'lgan. Uning fikricha, natural falsafada tafakkur va Arastu mantiqiy ta'limoti yordamida xudo mavjudligi haqidagi haqiqatga erishishi mumkin.

Fomaning «Ilohiy summalar» asari 3000 maqoladan iborat bo'lib, 600 masalani yoritishga bag'ishlangan. U ilohiyotning sistemali bayon qilinishi vazifasini bajaradi. «Ilohiy summalar»ning birinchi qismi xudoning mavjudligi va borlig'i masalasida bahs yuritadi. Ikkinchi qismi «xudoga qarab harakat» haqida hikoya qiladi.

Akvinskiy ta'limoticha, dunyo ierarxik narvondan iboratdir. Uning eng quyi qismida er va 4 elementdan iborat bo'lgan hamma narsalar mavjuddir. Odam ruhi xudo va moddiy dunyo o'rtasidagi joyni egallaydi. Dunyoviy jamiyat tepasida esa, papa boshchiligidagi ilohiy davlat turadi. Erdan uzoqlashgan sari u ilohiylashib boradi. Sayyoramiz dunyosinning tepasida farishtalar dunyosi mavjuddir. Butun koinot tuzilishi uch shaxsni birlashtirgan yagona xudo tomonidan boshqarilib turadi. Akvinskiy ta'limotidan keyinchalik «tomizm» oqimi shakllandi va u «neotomizm» tarzida g'arbda hozir ham saqlanib qolgan.

Foma Akvinskiy (1225-1274) katolik teologiyani yaratgan va sxolastikani tizimga solgan mutafakkir sifatida e'tirof etiladi. Uning eng mashhur asarlari: «Teologiya yig'indisi», «Falsafa yig'indisi», «Majusiylarga qarshi yig'indi». Ularda muallif asosan Aristotel asarlariga tayanadi. Foma Akvinskiy Aristotel ijodi bilan Sharqqa salb yurishi chog'ida tanishadi. Uning ontologiyasida borliq ham ehtimol tutilgan, ham amalda mavjud deb qaraladi. Borliq - ayrim narsalarning mavjudligi, ya'ni substansiyadir. Foma Akvinskiy imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalar bilan bir qatorda materiya va shakl kategoriyalarini ilmiy muomalaga kiritadi. Bunda materiya imkoniyat sifatida, shakl esa – voqelik sifatida qaraladi.

Foma Akvinskiy Aristotelning shakl va materiya haqidagi asosiy g'oyalaridan foydalanib, din haqidagi ta'limotni ularga to'la bo'ysundiradi. Materiya shaklsiz mavjud bo'lmaydi, shakl esa oliy shaklga yoki «shakllarning shakli» - Xudoga bog'liqdir. Xudo esa sof ma'naviy mavjudot. SHaklning materiya bilan birikuvini moddiy dunyo uchungina zarur. Boz ustiga materiya (Aristoteldagi kabi) passivdir. Unga shakl faol tus beradi. Foma Akvinskiy «ilohiy borliq», hamonki u o'z-o'zidan ravshan narsa emas ekan, tafakkurimiz anglashga qodir bo'lgan narsalar orqali isbotlanishi lozim. U Xudo borligining hozirgi zamon katolik cherkovi ham foydalanuvchi o'z dalil-isbotini taklif qiladi.

Foma Akvinskiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ham diqqatga sazovor. U shaxs - «oqilona tabiatdagi eng olijanob» hodisa, deb hisoblagan. Uning fikricha, shaxs aql-zakovat, sezgilar va iroda bilan tavsiflanadi. Aql-zakovat irodadan ustun turadi. Ammo Xudoni bilishni Foma Akvinskiy Xudoga bo'lgan muhabbatdan keyingi o'ringa qo'yadi, ya'ni sezgilar, agar ular oddiy narsalarga emas, balki Xudoga qaratilgan bo'lsa, aqldan ustun bo'lishi mumkin.

Foma Akvinskiy o'zining «Podsholar boshqaruvi haqida» asarida insonga avvalo ijtimoiy mavjudot sifatida, davlatga esa xalq farovonligi haqida g'amxo'rlik qiluvchi tashkilot sifatida yondashadi. Hokimiyatning mohiyatini u axloq, xususan yaxshilik va adolat bilan bog'laydi va hatto xalqning adolatsiz podsholarga qarshi bosh ko'tarish huquqi to'g'risida so'z yuritadi.

Foma Akvinskiy ikki qonun: Xudo odamlar ongi va qalbiga joylagan «tabiiy qonun» va cherkovning davlat va fuqarolik jamiyatidan ustunligini belgilovchi «ilohiy qonun» haqidagi muammoni ham muhokamaga kiritadi. Uning fikricha, dunyoviy hayot bo'lg'usi ma'naviy hayotga tayyorgarlikdir. Podshoning hokimiyati oliy – ma'naviy hokimiyatga bo'ysunishi lozim. Bu hokimiyatni osmonda – Iso Masih, Erda – Rim Papasi boshqaradi. Foma Akvinskiy siyosiy hokimiyat shakllarini muhokama qilar ekan, Aristotel kabi monarxiyani afzal ko'radi.

Foma Akvinskiy falsafasi XIV asrdan boshlab dominikan sxolastlarining bayrog'iga aylandi, XVI asrdan e'tiboran iezuitlar tomonidan targ'ib qilina boshladi. Iezuitlarning mafkurachilari Foma Akvinskiy falsafiy tizimini sharhladi va takomillashtirdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab uning ta'limoti hozirgi zamon falsafiy tafakkurining qudratli oqimlaridan biri sanalgan neotomizm negiziga aylandi.

O'sha davrning mashhur faylasuflaridan biri **Vilyam Okkam**dir (1309-1349). Uning fikricha, ilohiyot aqidalari ratsional (aql) yo'l bilan isbotlanishi mumkin emas. Ular faqat Muqaddas kitob nufuzi tufayligina qabul qilinishi mumkin. Bu qarash e'tiqod va tafakkurni bir-biridan ajratardi, ularni omuxta qilishni qoralardi. Okkam, Shuningdek, universaliylarning ob'ektiv mavjudligini inkor qiladi. Uningcha, universaliylar tafakkur tushunchalari uchun faqat ismdirlar. Bu tushunchalarni odam o'z ongida yaratgan. Uningcha, alohida odam insonga nisbatan realroq va muhimroqdir.

Rodjer Bekon (1214-1292) ham Okkam mansub bo'lgan oqim vakillaridandir. U o'z hayotini ilmiy tajribalarga bag'ishlagan. Ular yordamida u tajribaviy fanga asos soldi. Bunday metodni XYII asrda Frensis Bekon ishlab chiqdi. Haqiqatni topishda tabiatni tajribaviy o'rganish metodini qo'llash nominalistlar qarashlariga to'liq mos kelardi. Nominalistlar va realistlar o'rtasidagi qarama-qarshilik o'rta asr sxolastikasining muhim muammolaridan biri edi. Butun o'rta asrlarda sxolastikaning bu ikki oqimi o'rtasida kurash ketgan. Sxolastikaning avjga chiqqan davri — 1150 va 1300 yillarda — Foma Akviniyskiyning mo'tadil realizmi nominalizm ustidan g'alaba qozondi. Lekin 1300 yildan keyin cherkov ilohiyotchilari tafakkurida nominalizm yuqori mavqeni egallay boshladi. Bu ko'p jihatdan uyg'onish davri falsafasiga ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, haqiqatga erishishning tajribaviy metodini (ratsionalizm) vujudga kelishida katta xizmat qildi.

1. Evropada uygonish davri va undagi falsafiy tafakkur takomili.

Evropa falsafasining rivojida universitetlar muhim o'rin tutadi. Ular bilim va ma'rifatning o'chog'i sifatida 1200 yillarda vujudga keldi. 1400 yillarga kelib, Evropada 23 ta universitet mavjud bo'lgan. Universitet dasturining juda katta qismini sxolastika bilan Shug'ullanish tashkil etar edi.

Universitetlarning vujudga kelishining sababi mashhur olimlarning faoliyatidir. XII asrda Iteriy Rim huquqining buyuk tadqiqotchisi sifatida mashhur bo'ladi va talabalar uni eshitish uchun Bolonya shahriga oqib kela boshlaydilar. Natijada Bolonya shahri universiteti muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata boshlaydi. Abelyarning o'qituvchi sifatidagi Shuhrati ko'p jihatdan Parij universitetining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Universitetlar, Shuningdek, talabalarining chiqishlari natijasida ham vujudga kelgan. Masalan, XII asrda Angliya va Fransiya qirollari orasidagi nizo oqibatida, Angliya talabalariga yaxshi munosabat bildirilmaganligi ularning Parijdan Angliyaning Oksford shahriga ko'chib o'tishlariga sabab bo'ldi. Buning natijasida mashhur Oksford universiteti tashkil topdi. Kembridj universiteti esa Oksford universiteti talabalarining qo'zg'olon ko'tarishi va 1209 yilda ularning Oksforddan Kembridjga ko'chib o'tishlari natijasida vujudga keldi.

Universitetlar Qadimgi Yunoniston va Rimda, Shu bilan birga bizning mamlakatimizda ham mashhur bo'lgan ustoz va shogirdlar to'planib ilm o'rganadigan, o'rgatiladigan va ilmiy bahslar olib

boriladigan maktablar tarzida shakllangan bo'lsalar-da, ammo fan sohalarning ko'pligi tufayli alohida ilm o'chog'iga aylanib qoldilar. Ularning tajribasi keyinroq butun dunyoga tarqalib ketdi.

Uyg'onish davri falsafasi. Bu insoniyat tarixida Yuz bergan eng buyuk ilg'or taraqqiyot davrlaridan biri edi. Uyg'onish davrida hayotning hamma tarmog'ida muhim, ilg'or, hatto aytish mumkinki, inqilobiy o'zgarishlar Yuz berayotgan edi.

Uyg'onish davrida Evropada falsafaning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlardan biri nemis **Nikolay Kuzanskiy**dir (1401-1464). Kuzanskiy ta'limoticha, xudo hamma narsalarda mavjud, Shuningdek, hamma narsalar xudoda mavjud. Eng oliy haqiqatlarni bilish, sxolastik fikrlash bilan emas, balki, tajriba asosida amalga oshadi.

U xudoni borliqning oliy va yagona asosi deb hisoblaydi. Bu masalada Kuzanskiy Shunday muhim kosmologik fikrlarni bayon qiladiki, hatto ma'lum darajada uni Kopernik va Brunolarning o'tmishdoshi deb hisoblash mumkin. Ikkinchi masala esa bilish nazariyasiga nisbatan uning butunlay Yangicha yondoshishidir. Ushbu masalalar bo'yicha Kuzanskiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar ayrim hollarda XVIII asr oxiri va XIX asr boshidagi nemis filsoflari tomonidan bayon qilingan fikrlarning debochasi edi.

Filosofiya va fan rivojlanishiga eng katta hissa qo'shgan uyg'onish davrining mutafakkirlaridan biri polyak olimi **Nikolay Kopernik**dir (1473-1543). Ma'lumki, fan tarixida Kopernik o'zining fanda tub o'zgarish yasagan geliotsentrik ta'limoti bilan mashhur bo'lgan. Uning ta'limoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan quyosh va yulduzlarning harakatlari aslida Erning o'z o'qi atrofida kundalik aylanishidan va quyosh atrofida yillik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi Er emas, quyoshdir. Kopernikning buyuk kashfiyoti dunyoga teologik qarashga zarba berib, tabiatshunoslikda to'ntarish yasadi. Bu kashfiyot Bibliyaning dunyo tuzilishi haqidagi va o'zgarmas deb tanilgan ta'limotiga zarba berdi. Agar er olamning markazi emas, balki Quyosh atrofida aylanuvchi planetalarning biri bo'lsa, unda dunyoni, koinotni maqsadga muvofiq xudo tomonidan odamlar uchun yaratilganligi haqidagi talimot asossiz bo'lib qolardi.

Kopernikning geliotsentrik nazariyasidan chuqur ilmiy xulosalar chiqargan mutafakkirlardan biri italiyalik **Jordano Brunodir** (1548-1600). U Neapol yaqinida tug'ilgan. O'zining ilg'or fikrlari uchun Bruno dahriylikda ayblanadi va cherkovdan haydaladi. Italiyadan qochishga majbur bo'ladi. Uzoq vaqt SHvetsariya, Fransiya, Angliya va Germaniyada quvg'inda yuradi. 1592 yilda Bruno Italiyaga qaytib keladi, lekin cherkov inkvizitsiyasi tomonidan ushlanib turmaga solinadi. Qiynoqlarga qaramasdan, u o'zining ta'limotidan voz kechmaydi, natijada qatl etishga hukm qilinadi, 1600 yil 17 fevralda Rimda Gullar maydonida yoqib o'ldiriladi.

Bruno geliotsentrik nazariyani himoya qilish va targ'ib qilish bilan cheklanib qolmaydi. U tabiatshunoslik tajribalarini hisobga olib, bir necha muhim nazariy xulosalar qildiki, ular filosofiyani yana ham boyitdilar. Bruno ta'limoticha, haqiqiy filosofiya ilmiy tajribaga suyanishi kerak, sxolastikani tugatish kerak. uning ta'limoticha, koinot yagona, moddiy, cheksiz va abadiy. Juda ko'p dunyolar bizning quyosh sistemasidan tashqarida mavjuddir. Biz ko'rib turgan narsalar koinotining eng kichik bir qismidir. Yulduzlar — bu boshqa planeta sistemalarining quyoshi. Er — cheksiz dunyoning kichik bir zarrasi. Demak, Bruno tabiiy — ilmiy qarashlarida Kopernikdan ilgarilab ketib, koinotning cheksizligi haqidagi fikrni aytadi, Kopernik esa koinotni chekli deb hisoblagan edi. Bruno Kopernik ta'limotini quyosh sistemasining tuzilishi haqidagi Yangi qarashlar bilan boyitdi.

Uyg'onish davrining natijasi sifatida namoyon bo'lgan Farbiy Evropa mamlakatlaridagi tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar Niderlandiyada XVI asrning 60-70 yillarida, Angliyada XVII asrning 40-50 - yillarida bo'lib o'tdi. Bu davrga kelib, Evropada alohida millatlarning shakllanishi Yuz berdi, milliy davlatlar paydo bo'ldi. Endi monarxiya tuzumi jamiyatning ilg'or tabaqalari nazarida faqat tarixan o'z umrini o'tab qolmasdan, balki g'ayritabiiy, g'ayriaqliy bo'lib ko'rinishga boshladi. O'sha davrning ideologlari ilgari tan olinmagan insonning tabiiy huquqlari masalasini o'rta qo'yidilar. Ular ijtimoiy tartiblar inson tabiatiga mos kelishini talab qila boshladilar. Bor-yo'g'i 50-60 yil ilgari inkvizitorlar Jordano Brunoni yoqib yuborganlarida lom-mim demagan Evropa, endi o'zining hayotida markaziy o'rinni inson huquqlari egallashi kerakligini his eta boshladi. Hatto xudoning nomidan bo'lsa-da, inson umriga zomin bo'lishga hech kimning haqqi yo'qligi,

odamzodning yashash, fikr yuritish erkinligining tabiiyligi anglab olina boshladi. Albatta, bungacha inkvizitsiya bir necha asrlar bu hududni aqidaparstlik changalida ushlab turgan, ne-ne aqlli kishilarni o'z domiga tortib ulgurgan edi.

Ma'naviy uyg'onayotgan millat va hududda hech qachon aqidaparastlik o'z ta'sirini to'la — to'kis saqlab qola olmaydi. Evropada ham xuddi Shunday bo'ldi. Ma'nan kamolga etgan, milliy davlatchiligiga ega bo'lgan va endi ana Shu mustaqil davlatlarini kamolga etishi uchun qarzdor ekanligini anglab olgan Evropa millatlari o'zlarining komil insonlarini endi inkvizitsiyaning, aqidaparastlarning hukmiga topshirishga sira ham haqlari yo'q ekanligini angladilar.

Evropada Rim imperiyasidan keyin bir necha asrlar o'tib, aynan ana Shu davrda ilgari, butun mintaqa hayoti uchun xristianlik va uning xilma-xil oqimlari umumiy mafkura rolini o'tab kelgan davr tugadi. Endi diniy oqimlararo kurash, xristianlikning sofligini saqlashga urinishning mutlaqlashtirilishi natijasida vujudga kelgan inkvizitsiya ham o'z davrini o'tab bo'ldi. Butun Evropani boshqarib kelgan qon-qardosh va bir-biriga dushman qirollar davri ham o'tmishga aylana boshladi. **Evropa uyg'ondi.** Ilm-fan sohasida chuqur o'zgarishlar ro'y berdi. Odamlarning dunyoqarashi keskin o'zgara boshladi. Endilikda milliy davlatlarning har biri uchun muhim bo'lgan mafkuraning shakllanishi zaruriyatga aylanib qoldi. Albatta bunda biz sanab o'tgan omillar, ya'ni qirollik an'analari, xristianlik va uning oqimlari ta'siri, umumevropaga xos xususiyatlar, Rim imperiyasi davrida bir oila bo'lib yashagan xalqlar o'rtasidagi hududiy va ma'naviy yaqinlik o'z ta'sirini o'tkazdi. Ammo, asosiysi, bu davrda milliy g'oyalar to'la-to'kis amalga oshishi uchun ijtimoiy sharoit etildi, italiya, ingliz, fransuz va boshqa xalqlar o'z davlatchilik an'analarni to'la-to'kis tikladilar. Bu davlatlarda shakllangan falsafiy maktablar faqat milliy qobiqqa o'ralib qolmadilar, balki umumevropa va butun jahon taraqqiyotining umumbashariy muammolarini falsafiy jihatdan izohlash, ilmiy o'rganish va asoslashga harakat qila boshladilar. ushbu davr falsafasi ham oldingiga nisbatan katta qadam tashladi. Fanda qo'lga kiritilgan yutuqlarning falsafiy izohlanishi, kashf etilayotgan ilmiy usul va uslublarning falsafaga tadbiiq etilishi, falsafiy qonunlarni fanning turli sohalarida sinab ko'rilishi o'sha davr faylasuflari uchun odatiy holga aylandi. Bu tamoyillar esa milliy chegaralarni bilmaydigan, umuminsoniy qadriyatlar xususiyatiga egadir. Uyg'onish davri Evropa fani va falsafasi ham insoniyat tarixida eng buyuk ko'tarilish davrlaridan biri bo'lib qoldi.

***Yangi davr falsafasining tabiiy-ilmiy asoslari.** XVII asrdan boshlab tabiatshunoslik jadal sur'atlarda rivojlanadi. Dengizlarda kemalarning yurishiga ehtiyojning ortishi astronomiyaning rivojlanishini, shaharsozlik, kemasozlik, harbiy ish — matematika va mexanikaning rivojlanishini belgilaydi. Yangi fan avvalo moddiy ishlab chiqarish amaliyotiga: to'qimachilik sanoatida mashinalar ixtiro qilinishiga, ko'mir va metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish qurollarining takomilla Shuviga tayanadi. E.Torrichelli havo bosimi mavjudligini eksperimental yo'l bilan aniqladi, simobli barometr va havo nasosini ixtiro qildi. I.Nyuton mexanikaning asosiy qonunlarini, Shu jumladan butun olam tortishish qonunini ta'rifladi. R.Boyl kimyoda mexanikani qo'lladi va kimyoviy element tushunchasini ishlab chiqdi. Ingliz fizigi U.Gilbert magnit xossalarini va uning amalda qo'llanilishini o'rgandi. V.Garvey qon aylanishini kashf etdi va uning rolini empirik usulda tadqiq etdi. R.Dekart va G.Leybnits matematika, mexanika, fizika va fiziologiyaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Ijtimoiy fanlarda tabiiy huquq nazariyasi ishlab chiqildi (Angliyada T.Gobbs, Gollandiyada G.Grotsiy). Sharqda esa fan va falsafa sohasida deyarli Yangilanish bo'lmadi.*

Fanning bunday rivojlanishi o'z davrining falsafasiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Falsafada sxolastika va dindan uzil-kesil ajralish Yuz berdi: diniy aqidalarning hukmronligiga, cherkovning ta'siri va tazyiqiga qarshi kurashda aqlning har narsaga qodirligi va ilmiy tadqiqotning cheksiz imkoniyatlari haqidagi ta'limot vujudga keldi.

Yangi davr falsafasiga avvalo tabiatshunoslikdan kelib chiqadigan kuchli materialistik tendensiya xos.

XVII asrda Evropaning yirik faylasuflari qatoriga F.Bekon, T.Gobbs va J.Lokk (Angliya), R.Dekart (Fransiya), B.Spinoza (Gollandiya), G.Leybnits (Germaniya) kiradi.

Yangi davr G'arb falsafasidagi asosiy muammolar (ontologiya va gnoseologiya). Yangi davr, avvalo XVII asr falsafasida ontologik kategoriyalar borliq va substansiya haqidagi ta'limotga katta e'tibor beriladi (ayniqsa harakat, makon va vaqt to'g'risida so'z yuritilganda).

Fan va falsafaning vazifasi – insonning tabiat ustidan hukmronligini kuchaytirishga, inson sog'lig'i va go'zalligiga ko'maklashish, hodisalarning sabablarini, ularning muhim kuchlarini o'rganish zarurligi anglab etilishiga olib kelgan. Shu sababli substansiya va uning xossalari muammolari Yangi davrning deyarli barcha faylasuflarini qiziqtirgan.

Bu davr falsafasida «substansiya» tushunchasini tavsiflashga nisbatan ikki xil yondashuv paydo bo'lgan: birinchi yondashuv substansiyani borliqning chegaraviy asosi sifatida ontologik tushunish bo'lsa, ikkinchi yondashuv – «substansiya» tushunchasining, ilmiy bilim uchun zarurligini gnoseologik jihatdan anglab etish bilan bog'liq.

Ingliz falsafasi. O'sha davr falsafasining asosiy vakillaridan biri **F. Bekon (1561-1626)** yuqoridagi masala haqida Shunday degan edi: «Moddiy dunyo, mamlakatlar, dengizlar, planeta juda keng bo'lgani holda insonlarning ma'naviy dunyosini eski chegaralar bilan o'rab qo'yilishi sharmandalikdan boshqa narsa emas» («Yangi Organon» kitobi). Bekon ingliz falsafasining o'rta asrlardagi taraqqiyotiga eng katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning ta'limoticha, fanning Yangi binosini ko'rish uchun, to'g'ri fikrlashga o'rganish kerak. Bekon ta'limoticha, tabiatni bilishda bir necha «idollar» insonga halaqit beradi. Ular inson aqlini o'rab tashlaydi. Ular asosan to'rtta. Birinchisi urug' idollari, bular inson zotiga, butun odamlarga xosdir. Masalan, Bekon Shunday deydi: «insonning aqli qiyshiq ko'zguga o'xshaydi. U narsalarning tabiati bilan o'z tabiatini aralastirib yuborib narsalarni qiyshiq, buzuq ko'rsatadi. Ikkinchisi, g'or idollari. Bu har bir odamning o'z spetsifik xususiyatlari natijasida yanglishishi. Ular fikrlash ufqining cheklanishidan tug'iladi. Bu narsa hamma narsani o'z nuqtai-nazari bilan ifodalash, o'zinnig tor doirasi bilan o'lchash natijasida vujudga keladi. Uchinchisi, maydon idollari, bo'lib, u ma'lum bo'lgan tasavvurlarga tayanish odati, noto'g'ri yoki noaniq termonologiyalarga tanqidiy yondoshmaslik oqibatida vujudga keladi. Bu masalaga Bekon juda ham katta ahamiyat beradi. Masalan, u Shuni ta'kidlaydiki, real borliqni ifodalamaydigan yoki uni noaniq, mavhum ifodalaydigan so'zlar soxta tushunchalarni tug'diradiki, ular tafakkurga teskari ta'sir qiladi. To'rtinchisi, teatr idollari: ular avtoritetlar fikriga ko'r-ko'rona ergashib qadimgilarning falsafiy sistemalarini davom ettiraveradilar.

Bekon tomonidan sxolastikaga qarshi qaratilgan idollarning tanqidi katta metodologik ahamiyatga egadir. Bekon bilish nazariyasining birinchi bosqichi esa tajribadir, ikkinchi bosqichi aqldir. U tajriba ma'lumotlarini ratsional qayta ishlaydi va umumlashtiradi. Bekon ta'limoticha, olim chumoliga o'xshab faqat yig'ish va yig'ilganlar bilan kifoyalanmasligi kerak, o'rgimchakka o'xshab hayotdan ajrab, faqat o'zining shaxsiy aqli bilan o'zining makrli falsafasini to'qimasligi kerak. Bekon ta'limoticha, olim asalariga o'xshab gullardan olib keyin ularni asalga aylantirishi lozim.

Bekon o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari bo'yicha kuchli markazlashgan davlat tarafdori bo'lgan. Jamiyat hayotida asosiy rolni Bekon fikricha san'at va savdo rivojlanishi o'ynaydi.

Frensis Bekon (– ingliz faylasufi 1561-1626) birinchi yondashuv asoschisi substansiya shakllarining xususiyatlariga tavsif bergan va substansiyani muayyan narsalar shakli bilan ayniylashtirgan. Uning fikricha, materiya sariqlik, moviylik, qoramtirlik, iliqlik, og'irlik va boshqa Shunga o'xshash xossalarga ega. Bular materiyaning eng sodda xususiyatlaridir. Bu xossalarning turli birikmalaridan tabiatning rang-barang narsalari vujudga keladi.

Materiyaning sifat jihatidan har xilligi haqidagi ta'limotni F.Bekon o'zining shakl va harakat haqidagi ta'limoti bilan rivojlantirgan. Uning talqinida shakl – bu narsaga xos bo'lgan xususiyatning moddiy mohiyati. U Platon va Aristotelning shakl haqidagi mushohadalari bilan bahsga kirishadi. Bekon fikriga ko'ra, shakl – jismni tashkil etuvchi moddiy zarralar harakatining turi. Ammo bu zarralar atomlar emas. F.Bekon qadimgi faylasuflarning materiyaning atomistik tuzilishi haqidagi va ayniqsa bo'shliqning mavjudligi haqidagi ta'limotiga tanqidiy yondashadi. U makonni bo'shliq deb hisoblamagan: Bekon uchun makon materiyaning doimiy o'rni bilan bog'liq bo'lgan. Amalda u makonni moddiy ob'ektlarning ko'lamliligi bilan ayniylashtirgan.

Vaqtning Bekon moddiy jismlar tezligining ob'ektiv o'lchovi sifatida tavsiflagan. Vaqtning mohiyatini tushunishga nisbatan mazkur yondashuv diqqatga sazovor, zero vaqt materiyaning moddiy jismlarda Yuz beruvchi o'zgarishlarning davomlilikidan iborat bo'lgan va bu o'zgarishlarning sur'atini tavsiflaydigan ichki xossasi sifatida e'tirof etiladi. Shunday qilib, vaqt harakat bilan uyg'un bog'lanadi.

Bekon fikriga ko'ra, harakat – materiyaning tug'ma xossasi. Materiya qanday abadiy bo'lsa, harakat ham Shunday abadiydir. U harakatning tabiatdagi 19 turini qayd etgan: tebranish, qarshilik, inersiya, intilish, kuchlanish, hayot ruhi, azoblanish va b. Bu shakllar amalda o'sha davrda fanda ayniqsa mukammal o'rganilgan materiya harakati mexanik shakllarining xususiyatlari bo'lgan. Ayni vaqtda F.Bekon moddiy dunyoning ko'p sifatlilikini o'rganish va tushuntirishga harakat qilgan.

F.Bekon bilishning empirik metodi asoschisi hamdir. U tajribaga asoslangan fanlar, kuzatish va eksperimentga alohida e'tibor bergan. Bilimlar manbai va ularning haqiqiyliги mezonlarini tajribada ko'rgan. Bilishga tashqi dunyoning inson ongidagi in'ikosi sifatida yondashar ekan, u bilishda tajriba hal qiluvchi rol o'ynashini qayd etgan. Ammo faylasuf bilishda aqlning rolini ham inkor etmagan.

Uning ta'limotini **Tomas Gobbs** (1588-1679) takomillashtirgan va rivojlashtirgan. Gobbs moddiylikni asosiy substansiya deb hisoblagan, materiyaning abadiyligi, harakatning esa mexanistik tarzda amalga oshirishining tarafdori bo'lgan olimdir. U matematik sifatida borliqning namoyon bo'lishini geometriya fani nuqtai nazaridan tushuntirgan. Bilish nazariyasida Gobbs ko'proq empirik jihatlarga o'z e'tiborini qaratgan, sezgilarning bilimlar hosil qilish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Jamiyat taraqqiyoti va unda davlatning o'rni hamda kelib chiqishi masalasida Gobbs ko'proq xususiy mulkchilikka asoslanadi. Shu bilan birga uning fikricha davlatning monarxiya shakli maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Tomas Gobbs (ingliz faylasufi 1588-1679) tomonidan F.Bekonning materialistik qarashlari tizimga solingan va rivojlantirilgan. Gobbs materiyaga birdan-bir substansiya sifatida yondashgan, barcha hodisalar, narsalar, jarayonlarni bu substansiyaning namoyon bo'lish shakllari deb hisoblagan. Materiya – abadiy, jismlar va hodisalar – o'tkinchi: ular vujudga keladi va yo'q bo'ladi. Fikrlashni materiyadan ajratib bo'lmaydi, zero materiyaning o'zigina fikrlaydi. Jisimsiz tana bo'lmaganidek, jisimsiz substansiya ham bo'lishi mumkin emas. Aynan materiya barcha o'zgarishlar sub'ekti hisoblanadi.

Barcha moddiy jismlar ko'lamlilik va shakl bilan tavsiflanadi. Ularni o'lchash mumkin, chunki ular uzunlik, kenglik va balandlikka ega. F.Bekondan farqli o'laroq, Gobbsda materiya sifat ko'rsatkichlariga ega emas, u materiyani matematik va mexanik sifatida miqdor jihatidan o'rganadi. Unda materiya dunyosi rang, hid, ovoz kabi xossalardan mahrum. T.Gobbs talqinida materiya go'yo geometrik tus oladi va sifat jihatidan bir jinsli, rangsiz narsa tarzida, miqdoriy kattaliklarning muayyan tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Harakatni u faqat mexanik nuqtai nazardan tushunadi. Makon va vaqt muammolarini o'rganishga nisbatan Gobbs materialistik nuqtai nazardan yondashadi.

T.Gobbs o'zining dunyo haqidagi falsafiy qarashlarida deist sifatida ish ko'radi. Ammo uning asarlarida ateistik xususiyatga ega bo'lgan fikrlarga ham duch kelish mumkin. Masalan, u Xudo – inson tasavvurining mahsuli, degan fikrni ilgari suradi. «Tabiiy va siyosiy qonunlarning elementlari» asarida, «Falsafa asoslari» trilogiyasi («Jism haqida», «Inson haqida», «Fuqaro haqida»)da, Shuningdek «Leviatan» asarida Gobbs tabiiy aloqalar va qonuniyatlar rolini takror qayd etadi. Biroq, T.Gobbs Xudoni odamlar hayotidan butunlay chiqarmaydi: uning fikricha, Xudo «hamma narsani ko'rguvchi va hamma narsani boshqaruvchi», «u barcha sabablarning birinchisi»dir. Gobbs Xudo voqealarning tabiiy oqimiga aralashmasligini qayd etadi.

F.Bekon kabi T.Gobbs ham gnoseologiyada asosan empirik va sensualist bo'lgan (hissiy bilishni bilishning asosiy shakli deb hisoblagan). Insonga moddiy jism ta'siri natijasida vujudga kelgan sezgini u bilishning birinchi bosqichi deb hisoblagan. Fikrlashni u tushunchalarni qo'shish yoki ayirish deb hisoblagan, unga o'z matematik metodini to'la tatbiq etgan.

Ingliz falsafasida **Jon Lokk** (1632-1704) qarashlari alohida o‘rin tutadi. U tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydi. Bunda ichki va tashqi tajriba ajratib ko‘rsatiladi. 1690 yilda Lokk tomonidan yozilgan «Inson aqli haqida tajriba» nomli asarida R. Dekartning «tug‘ma g‘oyalar» to‘g‘risidagi qarashlariga qarshi chiqadi. Lokkning fikricha bilish tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlardan iborat bo‘lib, haqiqatlar esa kishilarning bu jarayonda hosil qilgan tushunchalari, g‘oyalari va xulosalarining olamga mos kelishidan iboratdir.

Ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ko‘ra Lokk davlatning o‘ziga xos quyidagi tamoyillarini ta’riflaydi:

1. Hokimiyatni qonun chiqaruvchi tizimi;

2. Hokimiyatning ijro etuvchi organlari;

3. Ittifoq federativ hokimiyati. Ana Shu tamoyillar uyg‘un bo‘lganida davlatning faoliyati samarali amalga oshadi.

Jon Lokk (ingliz faylasufi 1632-1704) *substansiya tushunchasini tahlil qilishga nisbatan gnoseologik yondashuvga asos solgan. U g‘oyalar va tushunchalarning manbai tashqi dunyo, moddiy narsalardir, degan tezisini isbotlashga harakat qilgan. Uning fikricha, moddiy jismlarga sof miqdor xususiyatlarigina xos. Materiya sifat jihatidan rang-barang emas: moddiy jismlar bir-biridan kattaligi, shakl-shamoyili, harakati va osoyishtaligi bilangina ajralib turadigan «birlamchi sifatlar»dir. «Ikkilamchi sifatlar» esa - hid, ovoz, rang, ta‘m. Ular narsalar bilan uzviy bo‘lib tuyuladi, lekin amalda bunday emas: narsalarda bunday sifatlar yo‘q. Ular, Lokk fikriga ko‘ra, sub‘ektida «birlamchi sifatlar» ta‘sirida vujudga keladi.*

«Birlamchi» va «ikkilamchi» sifatlarini ajratish hozirgi zamon bilimi nuqtai nazaridan sodda va noilmiy hisoblanadi. Ammo u sub‘ektiv idealizm namoyandalari tomonidan o‘zlashtirilgan va o‘zining tadrijiy yakuniga etkazilgan: «birlamchi sifatlar», «ikkilamchi sifatlar» bilan bir qatorda, sub‘ektga bog‘liq bo‘lmagan, ob‘ektiv mazmunga ega emas, deb e‘lon qilingan.

Bilish nazariyasida J.Lokk inson ongining mazmunini hissiy tajribadan keltirib chiqarishga harakat qilgan. Lokk sensualizmining noizchilligidan Berkli foydalangan va tashqi tajriba omilidan butunlay voz kechgan

Jorj Berkli (ingliz faylasufi, episkop har 1685-1753) *materializm, ateizm va deizmga ochiq-oydin qarshi chiqqan, har qanday sifatning ob‘ektiv asosini rad etgan va amalda ularni inson sezgilariga tenglashtirgan. Berkli fikriga ko‘ra, amalda avvalo «jonlar», ularni yaratgan Xudo, Shuningdek Xudo odamlar joniga joylagan «g‘oyalar» yoki sezgilar mavjud. Berkli tashqi dunyodagi ob‘ektivlikni sub‘ektivlik bilan bog‘laydi: u barcha narsalarni sezgilarning «uyg‘unligi» da ko‘radi. Berkli uchun idrok etish mumkin bo‘lgan narsalargina mavjud, barcha narsalar Xudoning aqlida zohirdir.*

Devid YUm (ingliz faylasufi 1711-1776) ham, J.Berkli kabi, *substansiyaning materialistik talqiniga qarshi chiqib, ontologiya muammolarini echishga harakat qilgan. U moddiy va ma‘naviy substansiyaning amalda mavjudligini inkor etgan, lekin substansiya «g‘oyasi» mavjud, deb hisoblagan. Substansiya «g‘oyasi» deganda u ilmiy bilimga emas, balki oddiy bilimga xos bo‘lgan inson «idroklari majmui»ni tuShungan.*

Xullas, Yangi davr falsafasi bilish nazariyasi (gnoseologiya)ning rivojlanishida ulkan qadam tashladi. Falsafa ilmiy metodi, insonning tashqi dunyoni bilish metodologiyasi, tashqi va ichki tajriba aloqalari bosh muammolarga aylandi. Olinayotgan barcha bilimlar tizimining o‘zagi hisoblangan haqqoniy bilimni olish vazifasi qo‘yildi. Bu vazifani hal qilishning turli yo‘llarini tanlash gnoseologiyaning ikki asosiy yo‘nalishi – empirizm va ratsionalizm paydo bo‘lishini belgiladi.

3. XVII-XIX-asrda Evropa falsafasidagi okimlar va falsafiy maktablar

Fransuz falsafasi. O‘rta asrlardagi Evropa falsafasi taraqqiyotida Fransiyada shakllangan milliy falsafa maktabi nihoyatda katta o‘rin tutadi. Bu borada R. Dekart, Lametri, Gelvetsiy, Didro, Golbax va Russolarning qarashlari nihoyatda muhim.

R. Dekart (1596-1650) falsafasida dualizm asosiy o‘rin tutadi. Uning fikricha materiya va ruh borliqning asosida yotadi va xudoga bo‘ysunadi. Olam, Dekart fikricha cheksiz va abadiy, u inson tafakkuriga bog‘liq bo‘lmagan holda rivojlanadi va takomillashadi. R. Dekartning «Men fikr qilayapman, demak men mavjudman» degan fikri faylasuflar orasida mashhur bo‘lib hisoblanadi. Bilishda fikr va sezgilarning ahamiyatini nihoyatda ortiqcha deb bilgan R. Dekart ratsionalizm ta‘limotining asoschisi bo‘lib hisoblanadi. Uningcha insonning fikrlashi va mulohaza qilishi Shubha ostiga olib bo‘lmaydigan jarayondir, undan boshqa hamma narsani tekshirish Shubha ostiga olish mumkin. Dekart o‘sha zamonning eng buyuk matematiklaridan biri bo‘lib, o‘z davrida aniq fanlar sohasida katta ahamiyat kasb etgan deduksiya usulini falsafaga kiritgan olim bo‘lib hisoblanadi.

Rene Dekart (fransuz faylasufi va matematigi 1596-1650) *substansiyaning bekoncha va gobbscha monistik talqiniga o‘zining dunyoning dualistik talqinini qarshi qo‘yadi.*

Dekart bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ikki birinchi asos: nomoddiy yoki «fikrlovchi» substansiya va moddiy yoki «ko‘lamli substansiya» mavjudligini taxmin qiladi. Bu ikki substansiya parallel mavjuddir. Ularni o‘rganish bilan metafizika va fizika Shug‘ullanadi. Metafizika avvalo ma‘naviy substansiyani, u bilan bog‘liq bo‘lgan bilish va borliq tamoyillarini o‘rganadi. Fizika tabiat falsafasini tadqiq etadi. U dunyoning vujudga kelishi, Erda hayotning rivojlanishi (tabiat qonunlariga muvofiq) haqidagi ta‘limotni o‘z ichiga oladi, hayvonlar va inson tanasining tuzilishini mexanika qonunlariga bo‘ysinuvchi murakkab mashinalar sifatida o‘rganadi (R.Dekart asarlaridan biri «Hayvon – mashina» deb ataladi).

Dekart ilgari surgan kosmogoniya haqidagi ta‘limot zamirida quyosh tizimsining tabiiy rivojlanishi g‘oyasi yotadi. Uning fikricha, bu rivojlanish materiya va uning turli jinsli zarralari harakati bilan belgilanadi. Dekart materiya mustaqil ijodiy kuchga ega deb hisoblaydi. Harakatni Dekart mexanik jarayon – jismlarning makonda ko‘chishi sifatida tuShunadi. Shunday qilib, R.Dekart o‘z-o‘zi bilan ziddiyatga kirishadi: u makonni jismning ko‘lamligi sifatida tan oladi, lekin harakatni jismlarning boshqa jismlarga nisbatan ko‘chishi sifatida tuShunadiki, bu makonni bo‘shliq sifatida tan olishni anglatadi.

R. Dekartning bilish haqidagi ta‘limoti ham diqqatga sazovor. R.Dekart o‘zining «Metod haqida mulohazalar» asarida bilimlar manbai va ularning haqiqiyliги mezonini tashqi dunyodan emas, balki inson aqlidan qidirish lozim, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, intellektual intuitsiya yoki sof mushohada – bilishning tayanch nuqtasi. Barcha g‘oyalarni Dekart ikki guruhga ajratadi: sezgilar ta‘sirida tug‘ilgan g‘oyalar va tug‘ma g‘oyalar. Tug‘ma g‘oyalar mutlaqo ishonchlidir. Ularning qatoriga Dekart Xudo g‘oyasi, matematik aksiomalar va Shu kabilarni kiritadi. Masalan, barcha mavjud narsalarga Shubha bilan qarash kashfiyotga yo‘l ochuvchi mutlaqo ishonchli asos, metod yoki vosita hisoblanadi. Ayni Shu sababli Dekart hissiy narsalar, matematik haqiqatlar va hatto «hamma narsaga qodir Xudo»ning mavjudligiga Shubha bilan qaraydi. Ammo, hamma narsaga Shubha qilgan va hamma narsani inkor etgan holda, u Shubhalanuvchi fikrning mavjudligiga Shubha qilmaslik kerak, degan xulosaga keladi. Shu tariqa u fikrlash birdan-bir ishonchli dalildir, deb xulosa chiqaradi: «Men fikrlayapman, demak, yashayapman».

Lametri va Gelvetsiy, Didro va Golbax o‘z davrida fransuz hayotida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lgan milliy davlatchilik, inson erkinligi va haq-huquqlari muammolariga alohida e‘tibor qaratganlar. Fransuz millatini ma‘naviy jihatdan yuksaklikka ko‘tarish va ma‘rifatli xalqqa aylantirish uchun o‘z asarlarida ana Shu qadriyatlarga erishishning yo‘llari va usullarini ko‘satib berganlar.

Ular tomonidan yaratilgan ko‘p tomlik «Ensiklopediya» o‘sha zamonning ma‘naviy muammolarini ma‘rifatli yo‘l bilan hal qilish usullari va imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan «Evropa qomusi» darajasiga ko‘tarilgan edi. Bu kitobni yaratishda boshqa ko‘pgina ma‘rifatparvar fransuz olim va mutaxassislari ham qatnashgan bo‘lib, o‘zining ahamiyati, muammolarining umuminsoniy nuqtai nazaridan echilishi, xalqchilligi va tilining fransuz millati hayot tarziga yaqinligi bilan ensiklopediya XVIII asr Evropasining tengi yo‘q kitobi edi. Aynan ana Shu kitob mualliflari o‘zlarining boshqa asarlari va faoliyatlari bilan 1789-1884 yillardagi Fransuz inqilobi qabul qilgan

«Inson va grajdanlar huquqlar deklaratsiyasi»da ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlarni jamiyat taraqqiyotining eng ustivor ma'naviy mezonlariga aylantirdilar.

Benedikt (Barux) Spinoza (gollandiyalik faylasuf 1632-1677) R.Dekartning substansiya haqidagi dualistik ta'limotiga zid o'laroq, dunyo haqidagi monistik ta'limotni yaratdi. Uning monizmi panteizm ko'rinishida namoyon bo'ladi: o'z ontologiyasida Spinoza Xudo va tabiatni ayniylashtiradi, bunda Xudo yaratuvchi tabiat va yaratilgan tabiat sifatida amal qiladi. Ayni vaqtda B.Spinoza birgina moddiy substansiya mavjud bo'lib, uning asosiy atributlari ko'lamlilik va fikrlashdir, degan fikrni ilgari suradi. Shunday qilib, butun tabiat u Xudo bo'lgani uchun emas, balki unga fikrlash xos bo'lgani uchun ham jonli hisoblanadi. Spinoza butun tabiatni jonlantirib, Shu tariqa gilozist-faylasuf sifatida ham namoyon bo'ladi.

U moddiy substansiya atributlari ham materiya kabi abadiy: ular hech qachon vujudga kelmaydi va yo'q bo'lmaydi deb hisoblagan. Faylasuf substansiyaning konkret holatlari – moduslarga ko'p e'tibor beradi. U moduslarni ikki guruhga ajratadi: abadiy, cheksiz moduslar va muvaqqat, chekli moduslar. Cheksiz moduslar substansiya atributlari – fikrlash va ko'lamlilik bilan, chekli moduslar esa - qolgan barcha narsalar va hodisalar bilan belgilanadi.

Spinoza harakat hech qanday ilohiy turtki mahsuli emasligini isbotlashga harakat qiladi. Uning fikricha, tabiat «o'z-o'zining sababi» bo'lib, harakat uning mohiyati va manbai hisoblanadi. Ammo harakat Spinozada atribut emas, balki modusdir. Bunda harakat muayyan narsalarda kuzatiladi, substansiya esa harakatlanish va o'zgarish qobiliyatidan mahrum va vaqtga mutlaqo bog'liq emas.

Ayni zamonda Spinoza – izchil determinist. U hodisalarning Yuz berishi, mavjudligi va yo'q bo'lishi zamirida ob'ektiv sabablar yotadi, deb hisoblagan. Uning fikricha, sababiyat ikki xil: ichki (immanent) va tashqi (mexanik) bo'ladi. Ichki sababiyat substansiya, tashqi sababiyat – moduslarga xos. Spinoza sababiy bog'lanishlarnigina emas, balki tasodif, zaruriyat va erkinlik munosabatlarini ham determinizm nuqtai nazaridan o'rganadi. O'zining «Etika» asarida u tasodifni zaruriyat bilan bir qatorda mavjud bo'lgan ob'ektiv hodisa sifatida e'tirof etadi.

B.Spinoza bilishning uch turini farqlaydi: faqat mujmal va haqiqiy bo'lmagan tasavvurlar beruvchi hissiy bilish; moduslar haqida bilim olish uchun imkoniyat yaratuvchi aql yordamida bilish; bilishning eng oliy shakli – haqiqatga yo'l ochuvchi intuitsiya. Intuitiv yo'l bilan aniqlangan haqiqatlar (aksiomalar)dan deduktiv yo'l bilan – matematika metodlari yordamida qolgan barcha xulosalar chiqariladi.

Spinoza ilgari surgan g'oyalar o'sha davrda fanda hukm surgan teleologizm (tabiatda Xudo ato etgan maqsadga muvofiqlik)ga qarshi qaratilgan.

XVIII asr Evropa falsafasining ma'rifiy xususiyati. Evropada XVIII asr falsafasi XVII asr g'oyalarini davom ettiradi va rivojlantiradi. Bu davrda falsafiy tafakkur fan va ijtimoiy amaliyot sohasida erishilgan yutuqlarni umumlashtiradi. Falsafiy g'oyalar yanada kengroq targ'ib qilinadi, chunki XVII asrda falsafiy asarlar faqat lotin tilida yozilgan va ular bilan tanishish imkoniyatiga ega kishilar doirasi ancha tor bo'lgan; XVIII asrda faylasuflarning asarlari ular qaysi mamlakatda yashasa, Shu mamlakat tilida yozilgan va nashr etilgan.

XVIII asr falsafasida tabiat hodisalarini tushuntirishga nisbatan qarashlarda materializm sezilarli darajada rivojlanadi. Fransuz materializmi tarixiy ahamiyat kasb etadi: u o'rta asrlar sxolastikasiga qarshi chiqibgina qolmasdan, balki o'z dunyoqarashi va dunyoviy manfaatlarini ham asoslashga harakat qiladi.

Albatta, XVIII asr falsafasi o'ziga xos xususiyatlarga ega: unda materialistik dunyoqarash mo'ljallari ham, idealistik dunyoqarash mo'ljallari ham, ateistik va deistik qarashlar ham mavjud. Aksariyat hollarda idealizm va materializm, din va fan yonma-yon turadi.

Shuni qayd etish lozimki, XVIII asr falsafasi avvalo ma'rifat falsafasi sifatida rivojlangan; qomuslar va lug'atlar, pamfletlar va boshqa nashrlarda ilmiy va falsafiy g'oyalar keng ommaga taShunarli tarzda atroflicha bayon etilgan.

Ma'rifat davri falsafasiga **P.Gassendi** (1592-1655) asarlari, uning atomistik materializmi, Epikur g'oyalari, etikasi, sxolastikaning tanqidi, R.Dekart, P.Beyl (1647-1706) asarlaridagi diniy dogmatizmning tanqidi zamin yaratdi.

XVII-XVIII asrlar Evropa falsafasiga ingliz ma'rifatchilari J.Lokk va D.YUm, XVII asr nemis ma'rifatchisi G.Leybnits, Shuningdek buyuk olim I.Nyuton falsafasi ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. XVIII asr Ma'rifat falsafasida ikki yo'nalish: Volter, Russo, Volf, Monteske va boshqalarning deistik materializmi hamda Mele, Didro, Golbax, Gelvetsiy, Lametri kabi olimlarning asarlarida Nyuton, Galiley, Dekartning materialistik tabiatshunosligi negizida deizm nazariy asoslarining tanqidi farqlanadi.

Fransua Mari (Arue) Volter (1694-1778) fransuz ma'rifatchilarining atoqli namoyandasi falsafa tarixi bo'yicha otashin publitsist, Nyuton fizikasi va mexanikasi hamda Angliyadagi konstitutsiyaviy tartib va muassasalarning targ'ibotchisi, cherkov, iezuitlar, inkvizitsiya tajovuzlaridan shaxs erkinligining himoyachisi sifatida o'rin oldi. Uning «Kandid», «Orlean qizi» asarlari, «Falsafiy lug'at», «Ensiklopediya»dagi maqolalari butun Evropada keng tarqaldi.

Jan Jak Russo (1712-1778) Evropa inqilobiy mafkurasining vujudga kelishiga mashhur «Ijtimoiy shartnoma» asari bilan ulkan ta'sir ko'rsatdi. Erkinlik hamda huquqlarning so'zsiz tengligiga asoslangan fuqarolik jamiyatining nazariy asosi hisoblangan bu asar Buyuk fransuz inqilobi davrida yakobinchilar uchun o'ziga xos dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

SHarl Lui Monteske (1689-1755) geografik determinizm asoschilaridan biri jamiyatda tartib va axloqni saqlash uchun zarur bo'lgan dinning funksional roli konsepsiyasini rivojlantirdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida ma'rifatchilik harakati keng demokratik qamrov kasb ketdi. Fransiyada bosh muharriri va tashkilotchisi D.Didro bo'lgan «Ensiklopediya» nashri atrofida jipslashgan ilg'or mutafakkirlar, olimlar va yozuvchilardan iborat «faylasuflar partiyasi» paydo bo'lgani to'g'risida so'z yuritila boshladi. Bu «faylasuflar partiyasi»da Didro bilan bir qatorda Gelvetsiy va Golbax, Shuningdek Lametri etakchi rol o'ynadi. Ular materializmning faylasuflar va falsafiy maktablarning keyingi avlodlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan ancha rivojlangan shaklini yaratdilar.

Jyulen Ofre de Lametri (1709-1751) o'z davrida katta shov-Shuvga sabab bo'lgan «Inson – mashina» asarining muallifi. Moddiy dunyo «o'z holicha mavjud» ekanligiga, uning boshi ham, oxiri ham yo'qligiga ishonchi komil bo'lgan. Lametri materializmi Epikurning atomistik materializmi, Spinozaning materialistik ta'limoti va Lokk sensualizmi ta'sirida vujudga kelgan. Lametri jonni aql faoliyati funksiyasi va ko'rinishi deb hisoblagan hamda Dekartning umrboqiy nomoddiy jon haqidagi g'oyasi asossiz ekanligini isbotlashga harakat qilgan.

Pol Genrix Ditrix Golbax (1723-1789) ning «Tabiat tizimi» asari «XVIII asr materializmi va ateizmi kodeksi» degan nom olgan. 1770 yilda nashr etilgan bu asarda muhim ontologik muammolar, chunonchi: materiya, tabiat, harakat, makon, vaqt, sababiyat, tasodif, zaruriyat muammolari bayon etilgan. Golbax uchun tabiat barcha narsalar va hodisalar sababidir, zero u Xudo tufayli emas, o'zi tufayli mavjud. Tabiat – harakat sababi. Golbax harakatni tabiat mavjudligining zaruriy natijasi sifatida tavsiflaydi. Tabiat deganda u o'z energiyasi ta'sirida harakat qiluvchi moddalar yig'indisini tuShunadi. Golbax fikriga ko'ra, barcha jismlar bo'linmas va o'zgarimas elementlar – atomlardan tashkil topadi. Materiya tushunchasini u modda tushunchasi bilan ayniylashtiradi.

Ayni vaqtda Golbax tabiatda barcha aloqalar va harakatlar zaruriyat bilan belgilanadi, deb hisoblagan. Uning fikricha, olam bir-biridan uzluksiz kelib chiqadigan sabablar va oqibatlarining uzilmas zanjiridir. Shu sababli Golbax tasodifni tabiatdan ham, ijtimoiy hayotdan ham chiqaradi. U insonni ham zaruriyat quli deb hisoblaydi: u o'z hayotida bir daqiqa ham erkin emas, uning xatti-harakatlari amalda qanday namoyon bo'lsa, Shunday bo'lishi mumkin. Bu oldindan belgilanganlik Golbax determinizmining fatalistik xususiyatini belgilaydi.

Deni Didro (1713-1784) o'zining «Materiya va harakatning falsafiy tamoyillari», «Tabiatni tushuntirish haqida mulohazalar», «D'Alamburning tushi» asarlarida sub'ektiv idealizmga qarshi chiqadi va muhim ontologik muammolarning o'ziga xos talqinini taklif qiladi. Uning fikricha, mavjud bo'lgan hamma narsalar moddiydir. Didro, dunyo uzluksiz paydo bo'ladi va o'ladi, har bir lahzada tug'ilish va o'lish holatida bo'ladi; o'zga dunyo hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi. Ko'rib turganimizdek, Didro borliq muammolarini o'rganish sohasiga dialektikani tatbiq etadi. Uning fikricha, butun materiya his qiladi (bu gilozoizm nuqtai nazari) va «inert

hissiylik» va «faol hissiylik»ni farqlaydi. «Faol hissiylik» muayyan tarzda uyushgan materiyadagina namoyon bo'ladi.

Fransuz materializmi tabiatshunoslikda hukm surgan tabiat «saltanati» - o'simliklar, hayvonot dunyosi bilan inson o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga harakat qildi.

Didro, Golbax, Lametri, Gelvetsiy va Kondilyak falsafasida gnoseologiya muammolari ontologik muammolar bilan bir qatorda turadi. Insonning ichki va tashqi dunyosi bilimlar manbai deb e'lon qilinadi. Bu dunyolarni anglab etish mumkin. Inson bilimlarining nomukammalligi avvalo ular rivojlanishining mazkur bosqichi bilan belgilanadi. Fransuz materialistlari hissiy va aqliy omillarning bilishdagi rolini shunda ko'radilarki, sezgilar guvohlik ko'rsatkichini bersa, aql bu ko'rsatkichlarning to'g'riligini tekshiruvchi hakam vazifasini bajaradi. Aql hissiy ko'rsatkichlardan uzoqlashishi mumkin emas, lekin u mazkur ko'rsatkichlarga haddan tashqari ishonishi ham yaramaydi. Aqlning sezgidan ajralishi bilishni amalga oshirib bo'lmaydigan ishga aylantiradi. Kuzatish va eksperiment bilish metodlaridir. Ular mushohada qilish, mulohaza yuritish, tushunish va idrok etish, shuningdek aql uchun juda zarur.

Eten Bonno de Kondilyak (1714-1780) ishlab chiqqan bilish nazariyasi falsafa tarixida ayniqsa muhim rol o'ynadi. U o'zining «Inson bilimlarining kelib chiqishi haqida tajriba», «Sezgilar haqida risola», «Tizimlar haqida risola», «Hayvonlar haqida risola» deb nomlangan asarlarida Lokkni sensualizm va empirizm tamoyilini amalga tatbiq etishda noizchilikda ayblab, bilishning sensualistik nazariyasini asoslashga harakat qiladi. Kondilyak fikriga ko'ra, inson dunyoga kelganda, u nafaqat hech narsani bilmaydi, balki sezish qobiliyatiga ham ega bo'lmaydi. Bularning barchasini u tajriba orqali o'zlashtiradi. Kondilyak sezgi azaldan biron-bir mazmunga ega emas, lekin u lazzatlanish va azob-uqubatni aks ettirishga qodir, shu bois, u yoqimli va ko'ngilsiz bo'ladi va xotirada saqlanib qoladi, deb hisoblaydi.

Hissiyotdan mavxum fikrlashga o'tish, Kondilyak fikriga ko'ra, uzluksiz jarayon sifatida yuz beradi: mayl, xotira izidan taqqoslash va mulohaza yuritish keladi. Kondilyak g'oyalarga borliqqa bog'liq bo'lmagan holda mavjudlik xossasini yuklashga bo'lgan har qanday urinishlarga qarshi chiqadi. Borliqni u g'oyalardan qat'iy nazar mavjud bo'lgan hodisalar sifatida tasavvur qiladi.

Nemis falsafasi. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Germaniya boshqa Farbiy Evropa mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy va siyosiy jihatdan qoloq edi. Ammo fransuz inqilobining kuchli ta'siri ostida shunday falsafiy ta'limot vujudga keldiki, uning shakllanishida tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning rivoji asosiy o'rinni egalladi. Fizika va ximiya fanlari yutuqlarga erishdi, tabiatni o'rganishga katta e'tibor berila boshlandi. Matematika fanida yangi ixtirolar qilindi. Bu ixtiro va yutuqlar hamda insoniyat jamiyatining rivoji haqidagi nazariyalar borliqni o'rganishning uslubi va nazariyasi bo'lib xizmat qiladigan rivojlanish haqidagi g'oyalarni ishlab chiqishni tarixiy bir zaruriyat qilib qo'ydi. Mana shunday tarixiy sharoitlar taqazosi bilan XVIII asrning II yarmi va XIX asr boshlarida nemis falsafasi vujudga keldi.

Gotfrid Vilgelm Leybnits (nemis olimi va faylasufi 1646-1716) substansiya tushunchasiga faol kuch yoki «tashabbuskorlik» tamoyilini kiritgan. O'zining «Monadologiya» asarida u moddiy hodisalarni bo'linmas, sodda ma'naviy birliklar – monadalarning namoyon bo'lishi deb e'lon qilgan. Bo'linmas monada ko'lamlilik xususiyatiga ega emas va makonda joylashmaydi, chunki makon cheksiz darajada bo'linuvchandir. Monada – faol kuchning nomoddiy, ma'naviy markazi. Monadalar umrboqiy va yo'q bo'lmasdir, ular tabiiy yo'l bilan vujudga kelishi yoki halok bo'lishi mumkin emas. Ular tashqi ta'sir ostida ham o'zgarmaydi. Har qanday ayrim monada –jon va tananing birligi. Monada ma'naviy mohiyatining tashqi ifodasi sondir.

Faoliyat, harakat – monadaning xossasi. Leybnits tabiatni mexanika qonunlari bilangina tushuntirish mumkin emas, shu bois, maqsad tushunchasini ham kiritish lozim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, har bir monada o'zining barcha harakatlari asosi va ayni zamonda ularning maqsadidir. Jon – jismning maqsadi, ya'ni u erishishga harakat qiluvchi mo'ljal.

Leybnits monadalarni uch toifaga ajratadi: hayot monadalari, jon monadalari va ruh monadalari. Shundan kelib chiqib u barcha murakkab substansiyalarni uch guruhga ajratadi: hayot monadalaridan noorganik tabiat vujudga keladi; jon monadalaridan hayvonlar yaraladi; ruh monadalaridan odamlar paydo bo'ladi.

Leybnits falsafasida ratsionalizm va empirizmning uyg'unligi namoyon bo'ladi. «Inson aqli haqida Yangi tajribalar» asarida u Lokkning ilgari sezgilarda mavjud bo'lmagan narsa aqlda mavjud emas, aqlning o'zi bundan mustasno, degan tezisini tanqid qiladi. Barcha haqiqatlarni u zaruriy haqiqatlar (aql haqiqatlari) va tasodifiy haqiqatlar (fakt haqiqatlari)ga ajratadi. Aql haqiqatlari qatoriga Leybnits substansiya, borliq, sabab, harakat, ayniyat tushunchalarini, mantiq tamoyillari, matematika tamoyillari va axloqiy tamoyillarni kiritadi. Uning fikricha, bu haqiqatlar manbai faqat aqldir.

Nemis falsafasining asoschilaridan biri **Immanuil Kant** (1724-1804) faqat mashhur faylasufgina bo'lib qolmasdan, yirik tabiatshunos olim hamdir. Kant tomonidan yaratilgan gaz holatidagi ulkan tumanlikdan quyosh sistemasining kelib chiqishi haqidagi nazariya hozirgi davrda ham astronomiya sohasidagi eng muhim ta'limotlardan biridir. Kantning tabiiy-ilmiy qarashlari tabiat hodisalarini metafizik ruhda tushuntiruvchi ta'limotlarga zarba berdi. Kant o'z davri tabiatshunosligi erishgan yutuqlarni faqat Koinot tuzilishi masalasiga emas, Shu bilan birga Koinot genezisi va rivojlanishi masalalariga ham tatbiq qildi. Kantning inson irqalarining tabiiy kelib chiqishi haqidagi nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Kant ta'limoti bo'yicha, falsafaning eng muhim muammolari bo'lmish — borliq, axloq, degan masalalarini tahlil qilish uchun eng avvalo, inson bilimining imkoniyatlari va chegaralarini aniqlamoq kerak. Bizning bilimlarimiz narsaning hodisasini, ya'ni bizga qanday holatda namoyon bo'la olishini (fenomen) bila oladi. Ular bizning tajribamiz mazmunini tashkil qiladi. «Narsa o'zida»ning bizning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasida sezgilar xaosi vujudga keladi. Bu kaos bizning aqlimiz quvvati bilan tartibga solinadi va bir butunga aylantiriladi. Biz tabiat qonunlari deb bilgan narsalar aslida aql tomonidan hodisalar dunyosiga kiritilgan aloqadir. Boshqacha qilib aytganda, bizning aqlimiz tabiatga qonunlar kiritadi. Lekin hodisalar dunyosiga inson ongiga bog'liq bo'lmagan narsalarning mohiyati, ya'ni «narsa o'zida» mos keladi. Ularni mutlaq bilish mumkin emas. «Narsa o'zida» biz uchun faqat aql bilan bilish mumkin bo'lgan, lekin tajribadan kelib chiqmaydigan mohiyatdir. Kant inson aqlining cheksiz qudratiga ishonchsiz qaraydi. Inson bilimining nisbatan cheklanganligiga u ma'lum axloqiy ma'no beradi. Uningcha, agar inson mutlaq bilimga ega bo'lsa, unda axloqiy burchni bajarishi uchun kurash ham, intilish ham bo'lmadi.

Kant ta'limoti bo'yicha, makon va zamon g'oyalari insonga uning tasavvurlaridan oldin ma'lumdir. Makon va zamon real emas, balki faqat tushunchada, g'oyalardadir.

Bilish nazariyasida Kant dialektikaga katta o'rin beradi. Qarama-qarshilikni bilishning zaruriy omili sifatida qaraydi.

Immanuil Kant (1724-1804) nemis klassik falsafasining asoschisi.

Kant konsepsiyasi: «Sof aql tanqidi» (1781), «Amaliy aql tanqidi» (1788), «Mulohaza yuritish qobiliyatining tanqidi» (1790) asarlarida, Shuningdek faylasuf ijodining o'ziga xos sarhisobi sanaluvchi – «Sof aql chegaralarida din» (1793) kabi kitoblarida bayon etilgan. Kant bilish nazariyasining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat. Kant fikricha bilish jarayoni uch bosqich: 1) sezgilar darajasida bilish, 2) idrok, 3) aqldan o'tadi.

Bilishning birinchi bosqichi -sezgilar darajasida inson narsaning mavjudligini biladi, idrok yordamida uni fikrlaydi. Narsani haqiqiy bilish aynan Shu ikki bosqichni sintez qilishni talab etadi. Idrok darajasidagi bilishning quroli – kategoriyalar. Ular idrokka ichdan xos. Hodisalar rang-barangligi kategoriyalar tizimida aks etadi. Kategoriyalar yordamida inson bilimi tasodifiy empirik emas, balki umumiy zarur, ya'ni ilmiy xususiyat kasb etadi. Ilmiy bilim kategorial bilimdir. Biroq Shundan so'ng Kant sub'ektiv idealist sifatida mulohaza yuritadi: idrok tabiat qonunlarini ochmaydi, balki ularni tabiat uchun belgilaydi. Kant fikriga ko'ra, kategoriyalar birligi va ularning bilish (sintez qilish) qobiliyati zamirida dunyoning ob'ektiv moddiy birligi emas, balki o'zlikni anglashning transsendental birligi yotadi.

Idrok etish – bilishning ikkinchi bosqichi. Idrokning kuchi uning sintez qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Biroq bu to'liq, cheksiz qobiliyat emas. Idrok tajriba chegarasidan tashqariga chiqq olmaydi. Biroq idrok o'z chegaralarini o'zi bilmaydi. U doim bu chegaralardan chetga chiqadi, ya'ni hodisalar dunyosidan o'zidagi narsalar dunyosiga kirishga harakat qiladi. Biroq

tajriba chegaralarini tark etgach (Shu tariqa idrok emas, balki aqlga aylangach), u echib bo'lmaz ziddiyatlar sohasiga tushib qoladi, uning mulohazalari esa muqarrar tarzda xom xayolga aylanadi.

Aql – bilish jarayonining uchinchi, oliy bosqichi. U hissiyot bilan bevosita emas, balki bilvosita – idrok orqali bog'lanadi. Aql bilishning oliy bosqichi bo'lsa-da, idrokka ko'p jihatdan yutqizadi. U tajribaning mustahkam zaminidan ajralgach, dunyoqarash darajasidagi savollarning birortasiga ham uzil-kesil – ha yoki yo'q deb javob bera olmaydi. Dunyo vaqtda va makonda boshlanadimi yoki u cheksiz va boqiyimi? Inson joni boqiyimi yoki foniymi? Iroda erkinligi mavjudmi yoki dunyoda hech qanday erkinlik mavjud emas, hamma narsa tabiiy zarurat qonuniga ko'ra Yuz beradimi? Xudo bormi yoki yo'qmi? Idrok bunday savollarni bera olmagan bo'lardi. Aql esa bunday savollarni beradi, biroq ularga javob topa olmaydi. Uning da'volari imkoniyat darajasida emas. Sof nazariy aql o'z mag'lubiyatini tan olishi lozim, chunki u o'zidagi narsalarni bila olmaydi.

Ammo nima uchun u Shunga qaramay bilishning oliy bosqichi deb e'tirof etiladi? Shuning uchunki, aqlning sof g'oyalari (Kant ularni tamoyillar deb nomlagan) bilishda oliy tartibga solish vazifasini bajaradi. Ular idrokka yo'l ko'rsatadi. Aql g'oyalarni ufq chizig'iga o'xshatish mumkin: garchi bu chiziqqa etib bo'lmasa-da, u insonga makonda mo'ljal olish, ko'zlangan maqsad sari to'g'ri harakatlanish imkonini beradi. Shunga qaramay, Kant bilish nazariyasida metafizik bo'lib qoldi: u aqlning ziddiyatliliigi (ya'ni cheksizlikning ziddiyatliliigi)ni uning o'zligi, narsalar mohiyatini anglashga qodir emaslik belgisi sifatida talqin qildi. Holbuki, bu amalda, Gegel keyinroq ko'rsatganidek, aqlning qudratli kuchidan dalolat beradi.

Sof aql tanqidida Kant falsafa o'zidagi narsalar, ya'ni dunyoning oliy qadriyatlarini haqidagi emas, balki faqat bilish chegaralari haqidagi fan bo'lishi mumkin, degan xulosaga keladi. Oliy mohiyatlar va oliy qadriyatlar – bu Xudo, ruh va erkinlik bo'lib, ularni biz biron-bir tajribada ko'ra olmaymiz, ular haqida oqilona fan bo'lishi mumkin emas. Biroq ularning borligini isbotlashga qodir bo'lmagan nazariy aql, buning aksini isbotlashga ham qodir emas, ya'ni u Xudoning borligiga, ruhning o'lmasligiga va iroda erkinligiga ishonishni taqiqlamaydi. Insonga e'tiqod va ishonmaslik o'rtasida yo'l tanlash imkoniyati berilgan. U e'tiqodni tanlashi lozim, chunki vijdon ovozi, axloq ovozi undan Shuni talab qiladi. Ammo bu endi nazariy aql dan amaliy aqlga, gnoseologiyadan axloqqa o'tishdir.

Kant falsafada o'ziga xos to'ntarish yasadi va falsafani alohida fan sifatida tushunish asoslarini yaratdi. Yangi bilish nazariyasini asoslashga harakat qilib, u XVII-XVIII asrlarning bilishni borliqdan ko'chirilgan andoza sifatida talqin qiluvchi empirik nazariyalarini tanqid qildi. Kant muammoni boshqa zaminga ko'chirdi va falsafada gnoseologiyaning bilish jarayoniga sub'ekt – ob'ekt munosabati sifatida qaraydigan yo'nalishga asos soldi.

Biluvchi sub'ekt – bu muayyan individ emas, balki insonning bilish qobiliyatlari va bilim manbalarinigina o'zida mujassamlashtiruvchi qandaydir mavxum tasavvur. Inson ongida mavjud bo'lgan mazkur qobiliyatlar majmui unga o'zini qurshagan dunyoni sezgilar va aqlning aprior shakllari yordamida tartibga solishga yordam beradi. Bu inson individual, shaxsiy xususiyatlarga ega emas, degan ma'noni anglatmaydi, biroq ular bilish jarayonida etakchi rol o'ynamasligi kerak.

Sub'ekt qandaydir narsa, predmet yoki hodisaning ta'sirini sezgilar darajasida idrok etadi. Bu mushohada yuritishning aprior shakllari yordamida tartibga solinuvchi tuyg'ular rang-barangligini Yuzaga keltiradi. Biroq bu bosqichda bilim sub'ektiv bo'lib qoladi. Shundan so'ng idrok ishga kirishadi va mavjud bilimlarni tushunchalar shakliga soladi, ya'ni ularda qandaydir umumiy jihatlarni aniqlaydi. Shu sababli pirovard natijada idrok va aqlni birlashtirgan biluvchi sub'ektgina bilim deb hisoblash mumkin bo'lgan birlikni yaratadi.

Binobarin, bilimning turli shakllariga muayyan tavsif berish mumkin. Masalan, matematika hissiylikning makon va vaqt kabi aprior (ya'ni tajribada ko'rilmagan) shakllariga tayanadi. Boshqacha aytganda, biluvchi sub'ekt dunyoga makon va vaqtda mavjudlik nuqtai nazaridan qaraydi. Ayni holda makon – tashqi sezgining aprior shakli, vaqt esa – ichki sezgining aprior shakli. Bunday apriorlik matematik haqiqatlarning, demak, fan sifatidagi matematikaning ham mavjudlik imkoniyatini belgilaydi.

Fizika (va boshqa tabiiy fanlar) ham o'z apriorligi jihatidan «sof» bo'lgan va tajribada «ifloslanmagan» bir qancha mushohadalarga tayanadi. Tabiatshunoslik aprior mushohadalar va idrok kategoriyalarining sintezi sifatida amalga oshiriladi.

Inson bilimlari, fan va madaniyat dunyosi bizning tajribamiz, tuyg'ularimiz va aqlimiz ma'lumotlariga asoslanadi. F.Bekon va R.Dekart fan va madaniyatning yanada rivojlanish yo'llarini tuyg'ularimiz va mulohaza yuritish qobiliyatimizning takomilla Shuvi bilan bog'laganida, to'la haq edi. Biroq ular bizning tajribaga asoslangan bilimimiz har qancha rivojlanmasin va takomillashmasin, u hech qachon bizga faqat sezgilar, aql va tajribaga asoslanib dunyoni oxirigacha tushunish imkonini bermasligini hisobga olmagan.

Bu bilim bizga tabiatan berilgan. U bizning tajribamizdan kelib chiqmaydigan makon, vaqt, sababiyat, cheksizlik, Xudo kabi kategoriyalarda mujassamlashgan. Bu insonga oldindan berilgan tajribada olingan materialga ishlov berish asboblaridir. Insonning tajribada olingan bilimi doirasidan chetga chiquvchi bu transsendent (lotincha o'tish, bosib o'tish so'zidan) kategoriyalar bilish chegarasi, imkoniyatlarini biz sezgilar yoki aql yordamida biron-bir narsani bila boshlashimizdan oldinroq belgilab qo'yadi. Shunday qilib, bizning bilimlarimiz dunyosi ikki qismdan: tajribada olingan va tajribadan oldingi bilimdan iboratdir.

Kant ijodining ahamiyati Shundaki, u bilimlarimizning ikki tomonlamaligini, ya'ni ular nafaqat tajribada olingan, aposterior manbalarga, balki aprior, transsendent manbalarga ham tayanishini aniqladi.

I.Kant gnoseologiyasining ontologik xususiyat kasb etuvchi yana bir muhim tamoyili uning transsendent bilish nazariyasidan kelib chiqadi va dunyoning, uni tashkil etuvchi barcha narsalarning umumiy tuzilishini tuShuntiradi. Kant fikriga ko'ra, inson ongi kabi, dunyodagi barcha narsalar ham ikki tomonlamadir. Birinchidan, bu qarshimizda narsaning eng yorqin tomoni sifatida namoyon bo'luvchi, sezgilarimiz uni Shunday idrok etuvchi «biz uchun narsa» yoki hodisa sifatidagi narsa. Ikkinchidan, bu biz sezgilarimiz bilan idrok etishga qodir bo'lmagan «o'zidagi» narsa, narsaning bizga «qorong'i», yashirin, teran tomoni yoki "noumen" sifatidagi narsa.

Ayni Shu sababli bizning dunyo, narsalar va inson haqidagi bilimimiz hech qachon to'liq, mutlaq bo'lmaydi, balki doim nisbiy, noto'liq bo'lib qoladi. Dunyo va inson nima, degan savollar doim boqiy, falsafiy masalalar bo'lib qoladi. Kant bilish nazariyasining asosiy tamoyillari ana Shulardan iborat.

Shunday qilib, Kant o'z bilish nazariyasida bilim, fan va madaniyatning rolini yanada yuksakroq darajaga ko'tardi. Uning bilish nazariyasidan ong nafaqat dunyoni passiv aks ettiradi, balki insonga tabiatan berilgan sezish va idrok etishning aprior shakllari yordamida uni faol o'zgartiradi, yaratadi, bunyod etadi degan xulosa kelib chiqadi. Kant bilish faoliyatining xususiyatini dunyoni aniq aks ettiruvchi ko'zguga emas, balki chizgan rasmlari nafaqat dunyoning o'zini, balki ijodkorning tabiatini ham aks ettiruvchi rassomga o'xshatish lozim.

Ayni vaqtda, Kant bilishning muayyan chegaralari ham mavjudligini qayd etadi. «Men yaratgan bilish nazariyasi inson aqlini uning imkoniyatlari chegarasi haqida ogohlantiruvchi chegara posboni yoki aqlning dimog'dorligi deb ataluvchi xavfli kasallikka qarshi dori bo'lib xizmat qilishi lozim»,⁶³ deb yozadi.

Kant ta'limotidan inson bilimlari majmui bilishning insonga berilgan aprior shakllari yordamida narsalarning biron-bir qismi, tomoni, jihatinigina o'ziga xos tarzda aks ettiradi, bu narsalar ko'z o'ngimizda doimo namoyon bo'ladi, biroq o'zining asl mohiyatini hech qachon ko'rsatmaydi, «o'zidagi narsa» bo'lib qoladi, degan xulosa kelib chiqadi.

Kant ta'limoti bilishning ijodiy tabiatini yoritib, inson bilimining taraqqiyotini, olimlar, yozuvchilar ijodini rag'batlantirdi, biroq Shu bilan bir vaqtda u inson bilimlarining nisbiyligi, u yoki bu g'oyalar yoki nazariyalarni mutlaqlashtirish, Shuningdek ularning yaratuvchilarini ilohiylashtirish xavfli ekanligi haqida ogohlantirdi.

⁶³ Кант И. Критика чистого разума. Соч. - М.: Эксмо: СП(б): Мидгард, 2007. – С.159.

Kant falsafada katta o‘rin qoldirdi. Uning vafotidan keyin nemis falsafasining rivoji **Hegel** (1770-1831) ijodida o‘zining yuksak cho‘qqisiga erishadi. Hegel dialektikaning qonunlari va kategoriyalari haqidagi ta’limotni rivojlantirdi. Falsafa tarixida birinchi marta bir tizimga solgan holda dialektik logikaning asosiy qoidalarini ishlab chiqdi. O‘sha davrlarda hukmron bo‘lgan metafizik fikrlash uslubini tanqid qildi. Kantning «narsa o‘zida» haqidagi ta’limotiga qarama-qarshi qilib, Shunday ta’limotni ilgari surdi: «Mohiyat namoyon bo‘ladi, hodisa mohiyatdan ajralmasdir». Hegelning ta’kidlashicha, kategoriyalar borliqning ob‘ektiv shakllaridir. Borliqning asosida esa, «dunyoviy aql», «mutlaq g‘oya» yoki «dunyo ruhi» yotadi. O‘z-o‘zini anglash jarayonida dunyoviy aql uch bosqichni bosib o‘tadi:

1. O‘z-o‘zini anglovchi mutlaq g‘oyaning o‘z xususiy qobig‘ida bo‘lish bosqichi; tafakkur jarayonida, ya’ni bu holatda g‘oya dialektika kategoriyalari va qonunlari tizimida o‘z mazmunini, mohiyatini namoyon qiladi. Bu bosqich Hegel falsafasining mantiq bosqichidir;

2. Foyanning o‘zidan «begonalaShuvi» ya’ni tabiat hodisalari shaklida namoyon bo‘lish bosqichi, ya’ni bu bosqichda tabiatning o‘zi rivojlanmaydi, faqat kategoriyalar sifatida rivojlanadi. Bu bosqich Hegelda tabiat falsafa bosqichidir;

3. Foyaning tafakkurda va insoniyat tarixida rivojlanish bosqichi. Bu bosqich Hegel falsafasida ruh falsafasi bosqichidir. Mana Shu yakuniy bosqichda mutlaq g‘oya o‘ziga qaytadi va o‘zining inson ongi va o‘z-o‘zini anglash shaklida o‘z mohiyatiga qaytadi.

Rivojlanish g‘oyasi Hegel falsafasini qamrab olgan. Uning ta’kidlashicha, rivojlanish tor doira ichida emas, doimiy, quyidan yuqoriga qarab boradi. Mana Shu jarayonda miqdor o‘zgarishlarining tub sifat o‘zgarishlariga o‘tishi Yuz beradi. Rivojlanishning manbai esa har qanday o‘z-o‘zidan harakatning sababi bo‘lgan qarama-qarshilikdir. Hegel falsafasida borliq dialektik o‘tishlar zanjiri sifatida bayon qilingan.

Hegel fikricha, tarix dunyoviy ruhning yoki mutlaq g‘oyaning rivoji sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman tarix bu mohiyatan fikrning, aqlning o‘z-o‘zidan rivoji tarixidir. Hegel ta’limoticha, aql tarixda Shunday namoyon bo‘ladiki, unda har bir xalq ruh o‘z-o‘zini anglab, tobora yuqorilab borishiga o‘z hissasini qo‘shish huquqini oladi. Lekin bu jarayon qandaydir tartibsiz (xaotik) amalga oshmaydi. Hegel umumjahon tarixini to‘rt bosqichga bo‘ladi: 1. Sharq dunyosi; 2. Yunon dunyosi; 3. Rumo dunyosi; 4. German dunyosi:

Insoniyat tarixini mana Shunday bosqichlarga bo‘lib, ularga baho berishda Hegel ochiqdan-ochiq irqchilik ruhida ta’limotga Yuz tutadi. Uningcha, Sharq xalqlarida erkinlik bo‘lgan, faqat yagona zo‘ravon hukmronning erkinligi tan olingan. Shuning uchun bu xalqlardagi erkinlik — bir tomondan hukmronning zulmi, hirslarning keng quloqch yoyishi, ikkinchi tomondan ko‘r-ko‘rona, so‘zsiz bo‘ysunish xalq ruhiga xos bo‘lgan bir xususiyat bo‘lgan. U yunon-rumo dunyosida esa, erkinlik bo‘lgan, lekin ular juda cheklangan, faqat ayrim kishilar uchun amal qilgan. Shuning uchun yunon-rumo dunyosining davlatchiligi qullikni inkor qilmagan. Lekin yunon va rumo dunyosi xalq ruhi har xil yo‘nalishda bo‘lgan. Agar yunon dunyosiga xos bo‘lgan narsa «go‘zal shaxslilik» prinsipi bo‘lsa, rumo dunyosiga xos bo‘lgan prinsip mavhum umumiylikdir. Hegelning da’vosicha, faqat german xalqlarida to‘liq erkinlik bo‘lgan. Bu xalqlar o‘z tarixiy rivojlanishlarida islohotchilik (reformatsiya), 1789 yil Fransuz inqilobi mevalaridan bahramand bo‘lganlar. Faqat ulargina umumiy fuqarolik va siyosiy erkinlikka erishganlar. Hegelning ta’kidlashicha, aqlga muvofiq davlatchilikni o‘rnatgan faqat german xalqigina umumjahon — tarixiy jarayonning haqiqiy timsolidir.

Hegel umumiy falsafiy sistemasi ham, uning yaratgan metodi ham boshqa kamchiliklardan, ichki qarama-qarshiliklardan holi emas edi. Chunki uning falsafiy ta’limotida bilimning ob‘ektiv asosi mutlaq ruhdur, maqsadi esa Shu mutlaq ruhning o‘z-o‘zini anglashidir, oxirgi bosqich o‘z-o‘zini anglash bilan yakunlanadi. Hegel falsafasi mana Shu masalani amalga oshirishga qaratilgan. Shunday qilib Hegelning sistemasi va metodi o‘rtasidagi qarama-qarshilik cheklanganlik va cheksizlik o‘rtasidagi qarama-qarshilikdir.

Gegel Georg Vilgelm Fridrix (1770-1831) falsafiy tizimi nemis klassik idealizmining tadrijiy yakuni hisoblanadi. Buyuk faylasufning barcha mashhur asarlari: «Ruh fenomenologiyasi» (1807), «Mantiq fani» (1812-1816), «Falsafa fanlari qomusi» (1817) ayni Shu tizimni ishlab chiqishga

bag'ishlangan. «Ruh fenomenologiyasi» asari Gegel falsafiy tizimiga o'ziga xos debochadir. Bu asarda Gegel inson ongi turli darajalari rivojlanishining izchil qatorini tahlil qiladi.

Gegel falsafiy tizimining birinchi va muhim qismi – «Mantiq» «Ruh fenomenologiyasi»ning yakuni va xulosasidir. Bu sub'ekt va ob'ektga qadar mavjud bo'lgan «sof fikr» sohasidir. Mantiqda uning o'zi va mantiq shakllaridan tashqari hech qanday empirik mazmun mavjud emas. Mantiq tarix va tabiatdan oldin paydo bo'lgan. Mantiq ularni yaratgan.

Mantiq uch qismga: borliq haqidagi ta'limot, mohiyat haqidagi ta'limot va tushuncha haqidagi ta'limotga bo'linadi. Borliq va mohiyat tushuncha o'zini to'liq namoyon etgunga qadar «ko'tariladigan» pillapoyalar sifatida qaraladi. «Mantiq»da mutlaq g'oyaning rivojlanishi mavxum mantiqiy kategoriyalar ko'rinishida Yuz beradi. Uning tayanch nuqtasi – borliq haqidagi sof mavhum fikr. Dastlab mazmunsiz bo'lgan bu «sof borliq» tushunchasi «nimadir» orqali o'z mazmunini kasb etishga harakat qiladi. Bu «nimadir», o'z navbatida, «muayyan borliq»dir. Gegel fikriga ko'ra, mutlaq g'oyaning vujudga kelish jarayoni ayni Shu tariqa boshlanadi. «Muayyan borliq» keyingi bosqichda «qandaydir muayyan borliq» sifatida amal qiladi yoki sifat kasb etadi. Sifat kategoriyasi miqdor kategoriyasi bilan birga rivojlanadi. Sifatli miqdor yoki miqdoriy sifat esa o'lechoy hisoblanadi. Borliq haqidagi ta'limotda Gegel dialektika qonunlaridan biri: miqdordan sifatga va sifatdan miqdorga o'tish, rivojlanish jarayonlari sakrash tarzida Yuz berishini asoslashga harakat qiladi.

Hodisa sifatida tuShuniladigan borliqdan Gegel yanada teranroq, ichki qonuniyatlarga – mohiyatga o'tadi. Bu qismda Gegel qarama-qarshiliklarning bir-biriga o'tishi, ularning birligi, ayniyat va kurash to'g'risidagi qonunni tahlil qiladi. Gegel fikriga ko'ra, ziddiyat – bu qarama-qarshiliklarning o'zaro nisbatidir. Ular bir-birisiz mavjud bo'lmaydi, lekin turli yo'ldan rivojlanadi va bu ular o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo'ladi. Ziddiyatni echish yoki unga chek qo'yish talab etiladi. Gegel ziddiyatni asos va oqibatning, shakl va mazmunning, hodisa va mohiyatning, imkoniyat va voqelikning, tasodif va zaruriyatning o'zaro nisbatida ko'radi. Ziddiyat haqidagi ta'limotni rivojlantirar ekan, Gegel ichdan zarur bo'lgan, har qanday o'zgarish va rivojlanishning manbai sanalgan «o'z-o'zidan harakat» haqida xulosa chiqaradi.

Gegel fikriga ko'ra, ayniyat va tafovutning nisbatini bilish jarayonida ularning zamirida yotgan ziddiyat namoyon bo'ladi. Ziddiyatlar mavjudligi hodisaning rivojlanayotganidan dalolat beradi. Mohiyat haqidagi ta'limotda Gegel voqelikni «mohiyat va mavjudlikning birligi» sifatida tavsiflaydi. Mohiyatning o'zi – «mavjudlik asosi»dir. Mohiyat haqidagi ta'limotning dastlabki boblaridan boshlab Gegel uni bilish mumkin emas degan tasavvurni rad etadi.

Borliq va mohiyat sohasidagi rivojlanish jarayonlarini belgilovchi zaruriyat tushunchada o'z aksini topadi. Bunday zaruriyat erkinlikka aylanadi, «erkinlik esa – bu anglab etilgan zaruriyat»dir. Shu tariqa «Mantiq» tushunchaga o'tadi. Bunda Gegel falsafiy metod sifatidagi formal mantiq va metafizikani tanqid qiladi, umumiylik, alohidalik va yakkalik dialektikasini ishlab chiqadi. Ayni vaqtda u haqiqat tushunchasini fikrning ob'ekt bilan mos kelish jarayoni sifatida tahlil qiladi. Bunga g'oyada erishiladi. Faqat g'oya tushuncha va narsaning shak-Shubhasiz birligi hisoblanadi.

Mantiqdan Gegel mutlag' g'oya rivojlanishining ikkinchi bosqichi- tabiat falsafasiga o'tadi. Unda g'oya tabiat bunyodkori hisoblanadi. Aynan u o'zining «o'zga borlig'i» - tabiatni yaratadi. Tabiatning rivojlanish bosqichlari: mexanizm, ximizm, organizm kabilardir. Gegel o'z dialektik tafakkurining teranligi va kuchi yordamida «Tabiat falsafasi»da noorganik va organik tabiatning ayrim bosqichlari o'rtasidagi o'zaro aloqa hamda dunyodagi barcha hodisalarning qonuniyati haqida bir qancha noyob farazlarni ilgari suradi.

Mutlaq g'oya rivojlanishining uchinchi bosqichi ruh bo'lib, u ham o'z rivojlanish jarayonida uch bosqichdan o'tadi: sub'ektiv ruh, ob'ektiv ruh, mutlaq ruh. Sub'ektiv ruh – bu «jon» yoki «ruh o'zida», ong yoki «ruh o'zi uchun». Ob'ektiv ruh-huquq sohasini belgilaydi. Pirovard natijada u axloqda o'z ifodasini topadi va oilada, fuqarolik jamiyati va davlatda mujassamlashadi. Mutlaq ruh – umrboqiy haqiqat. U o'z rivojlanish jarayonida uch bosqich: san'at, din va falsafa bosqichlaridan o'tadi. San'at, Gegel fikriga ko'ra, mutlaq g'oyani bilishning bevosita shakli. Din o'z manbai – vahiy orqali Xudoni anglab etadi. Falsafa - mutlaq ruh rivojlanishining oliy darajasi.

Bu erda g'oya o'zini o'zi anglab etadi, o'zining «sof ptamoyili» darajasiga ko'tariladi, mutlaq g'oyaning intihosini uning ibtidosi bilan bog'laydi.

Bilish nazariyasida Gegel o'zining tafakkur va borliqning ayniyligi haqidagi g'oyasini asoslashga harakat qiladi. U narsalar haqidagi fikr va narsalarning o'zi mos kelishini, ammo bu ayniyat tafovutni ham o'z ichiga olishini qayd etadi. Bilish rivojlanishining umumiy tamoyili – mavhumlikdan muayyanga yuksalishdir. Bilish jarayonida Gegel uch asosiy bosqich: hissiy aniqlik, idrok va aqlni farqlaydi. Hissiy aniqlik anglashning to'g'riligiga, ya'ni bizning sezgilarimiz narsaning yaxlit obrazini qayd etayotgani va unda hech narsani e'tibordan chetda qoldirmayotganiga ishonch uyg'otadi. Idrok predmetni o'z xossalari ega bo'lgan narsa sifatida tuShunadi. Aql narsaning hissiy qiyofasi ortida uning ichki mazmuni, mohiyatini topishga harakat qiladi. Borliq va tafakkurning ayniyligi g'oyasi Gegelni Aristotel mantig'i amalda to'qnash kelgan ziddiyatga qaytaradi: agar borliq ichdan ziddiyatli bo'lsa, o'z-o'ziga qarshi bormasdan fikrlash mumkin emas. Gegel mazkur ziddiyatni istisno etilgan uchinchi formal-mantiq qonunining yanglishligi haqidagi fikr yordamida echishga harakat qiladi. U ziddiyatlarni fikrlash mumkin emas, deb o'ylash xato ekanligini qayd etadi. Gegel uchun ziddiyatlar – harakat manbai, fikr qarama-qarshiligi – fikrning harakat manbaidir. Gegel bilish ziddiyatlari va ob'ektiv ziddiyatlarni farqlaydi. Shu tariqa u dialektik qarama-qarshilikni asossiz ravishda formal-mantiqiy qarama-qarshilik bilan almastiradi.

Shunday qilib, Gegel falsafiy tizimida mutlaq g'oya rang-barang va murakkab hayot yo'lini bosib o'tadi. Uning tizimi – bu ob'ektiv idealizm: mutlaq g'oya tabiat va insonga qadar «sof fikr» sifatida mavjud bo'ladi, tabiat va jamiyatni vujudga keltiradi. Tizim zamirida «triada»: tezis – antitezis – sintez yotadi. Bu «triada», bir tomondan, Gegel falsafiy tizimiga izchil tus beradi, boshqa tomondan esa, Gegelga dunyo rivojlanishining hujumkor xususiyatini ko'rsatish, qomusiy bilimlardan foydalanish uchun imkoniyat yaratadi.

Dialektika muammolarini ishlab chiqishda ham Gegelning xizmatlari beqiyosdir. U sifat o'zgarishi, quyi shakllardan oliy shakllarga yuksalish, eskining Yangiga o'tishi, har bir hodisaning o'z ziddiga aylanishi sifatidagi dialektik rivojlanish haqidagi ta'limotni yaratdi. Gegel dunyodagi barcha jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqani qayd etdi.

Gegel dialektikaning idealistik shaklini ishlab chiqqan: u kategoriyalar dialektikasini, ularning aloqalari va bir-biriga o'tishini, «sof fikr» - mutlaq g'oyaning rivojlanishini tahlil qiladi. U rivojlanishni o'z-o'zidan harakat sifatida, qarama-qarshiliklar bir-biriga o'tishi natijasida Yuz beruvchi o'z-o'zidan rivojlanish sifatida tuShunadi: hodisa ziddiyatli bo'lgani bois, u harakatlanish va rivojlanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Gegel dialektikasida har bir tushuncha qolgan barcha tushunchalar bilan ichdan bog'lanadi: tushunchalar va kategoriyalar bir-biriga o'tadi. Masalan, imkoniyat rivojlanish jarayonida voqelikka, miqdor – sifatga, sabab – oqibatga aylanadi va ayni vaqtda buning aksi Yuz beradi. Gegel qarama-qarshi kategoriyalar – shakl va mazmun, mohiyat va hodisa, tasodif va zaruriyat, sabab va oqibatning birligini qayd etadi.

Gegel dialektikaning asosiy qonunlari: miqdor va sifat o'zgarishlari qonuni, qarama-qarshiliklarning bir-biriga o'tishi qonuni va inkorni inkor qonunini kashf etdi. U kategoriyalar dialektikasi orqali dialektika asosiy qonunlarining amal qilish mexanizmini o'rganadi.

Gegel dialektikani bilish jarayoniga tatbiq etdi. Gegel uchun haqiqat bir marta va bir umrga berilgan mutlaqo to'g'ri javob emas, balki jarayondir. Gegelda bilish nazariyasi bilish tarixi bilan mos keladi: bilish, fan rivojlanishi tarixiy bosqichlarining har biri u haqda «mutlaq», lekin cheklangan, to'liq bo'lmagan tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Har bir keyingi bosqich o'zidan oldingi bosqichdan boyroq va muayyanroq. U avvalgi mazmunning boyligini o'zida to'liq saqlaydi va oldingi bosqichni rad etadi, lekin uning noyob jihatlarini yo'qotmaydi, «o'zlashtirilgan barcha xossalarni yanada boyitadi».

Shunday qilib, Gegel mutlaq va nisbiy haqiqat dialektikasini ishlab chiqadi. Gegel dialektikasini o'rganish bilish nazariyasiga oid bilimlarni boyitadi, nazariy, ijodiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yo'l ochadi, mustaqil g'oyalarni yaratishga ko'maklashadi.

Gegelning falsafiy tizimi mantiq va tabiat falsafasini, antropologiya va psixologiyani, huquq falsafasi va axloqni, davlat va fuqarolik jamiyati falsafasini, din falsafasi va estetikani, falsafa

tarixi va tarix falsafasini, tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi sifatidagi dialektikani o'z ichiga oladi.

XIX asrning oxiridan boshlab g'arb mamlakatlarida Hegel falsafasi atrofida turli falsafiy maktablar va oqimlar vujudga keladi. Bu falsafiy maktablar ichida ma'lum nufuz va ta'sirga ega bo'lgan oqim «yosh hegelchilar» oqimi edi. Bu oqimning o'sha davrdagi asosiy namoyandalari orasida aka-uka Bruno va Edgar Bauerlar alohida ajralib turar edi.

SHelling Fridrix Vilgelm Yozef (nemis faylasufi. 1775-1854) Bosh asari: «Transsendent idealizm tizimi»ning falsafiy va metodologik ahamiyati Shundaki, bu asarda tarixiylik tamoyillari ilk bor izchil ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Transsendent idealizm tizimi quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi.

1. Nazariy falsafa o'zlikni anglash uchun qarama-qarshi yo'nalishlar (ob'ekt, sub'ekt, ideal va real faoliyat) o'rtasida kurash lozim, degan metodologik qoidadan boshlanadi. SHelling o'zlikni anglash faqat Shu kurash jarayonida Yuz berishini va «Men» mexanizmi to'laligicha faqat o'zlikni anglashni tashkil etuvchi qarama-qarshiliklardan keltirib chiqarilishi mumkinligini qayd etadi. Bunda u ikki holatni: «Men» endigina Yuzaga kelgan va «Men» aniq-ravshan ko'rinib turuvchi holatlarni farqlaydi. Bunda birinchi holat «Men»dan tashqarida, ikkinchi holat – «Men»ning ichida bo'ladi. Shu munosabat bilan ong qaysi holatdan boshlanishini aniqlash va unga mazkur chegaradan, ya'ni ongdan tashqarida yotgan narsalarni aralash-tirmaslik juda muhimdir.

SHelling o'z asarida tarixiylik tamoyilidan foydalanib, o'zlikni anglash tarixida uch asosiy davrni (bosqichni): dastlabki sezishdan samarali mushohada yuritishgacha; samarali mushohada yuritishdan refleksiya gacha; refleksiya dan irodaning mutlaq harakatigacha bo'lgan davrlarni farqlaydi. Bunda SHelling ong, o'zlikni anglash va jamiyatning shakllanish jarayonini odamlarning amaliy faoliyati bilan bog'lashga harakat qildi.

2. Amaliy falsafaning bosh tushunchasi – «tarix», bog'lovchi muhit sifatidagi ob'ektiv dunyoda Yuz beruvchi va aqlli jon-zotlar sifatidagi odamlar erkinligining sharti hisoblanuvchi kishilararo o'zaro aloqasidir. Boshqacha aytganda, bu jahon tarixidagi ob'ektiv qonuniyat haqidagi muhim masalaning qo'yilishidir.

3. Tabiiy maqsadlar falsafasi ko'r-ko'rona kuchlar mahsuli bo'lgan tabiat amalda maqsadga muvofiqlik ruhi bilan sug'orilgandir degan antinomiya ga asoslanadi. Bu antinomiyaning echimini u sub'ekt va ob'ektning dastlabki ayniyligini e'tirof etish yo'lida ko'radi: umuman tabiatda va uning ayrim mahsullarida maqsadga muvofiqlikka faqat mushohada yuritish yo'li bilan erishish mumkin. Bu mushohadada tushuncha haqidagi tushuncha va ob'ektning o'zi dastlabki tarzda va uzviy bog'lanadi – Shunda natija maqsadga muvofiq tarzda namoyon bo'lishi lozim.

4. San'at falsafasi – transsendental idealizm tizimining oxirgi bo'limi. Uning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

a) san'at – umuman bilishning oliy shakli, chunki faqat u insonga oliy bilimga erishish imkonini beradi. San'at amaliy foydaga ham, axloqqa ham, fanga (falsafaga) ham bo'ysunishi mumkin emas, chunki u hamma narsadan oliyroqdir;

b) san'atning ustunligi Shundaki, uning asarlarida ongli va ongsiz faoliyat ayniyati aks etadi. «Bizda mujassamlashgan bu teran ziddiyat»ni aynan va faqat san'at echishga qodir. San'at – bu nazariy va amaliy narsalar o'rtasidagi qarama-qarshilik bartaraf etilib, ongli va ongsiz tabiat va erkinlikning to'la uyg'unligiga, idealga erishiluvchi jabha;

v) san'at o'z rivojlanish jarayonida spiral tashkil etadi: qadimda undan (aniqrog'i poeziya dan) falsafa va boshqa fanlar tug'ilgan;

g) san'at – erkinlik va zaruriyatning yuksak birligi. Insonning ijodiy tabiati to'la davra aylanib san'atda o'zining yakuniy ifodasini topadi. San'at insonga "oliy"ni bilish darajasiga etish imkonini beradi.

SHelling naturfalsafasi XVIII asr oxiriga kelib erishilgan va jamoatchilikda keng qiziqish uyg'otgan Yangi tabiiy-ilmiy natijalarni falsafiy jihatdan umumlashtirishga bo'lgan ehtiyojga javob sifatida vujudga keldi. SHelling o'z davrining barcha kashfiyotlariga yagona asosni topishga harakat qildi: u tabiatning ideal mohiyati, tabiat faolligining nomoddiy xususiyati haqidagi g'oyani ilgari surdi. SHelling naturfalsafasining qimmatini uning dialektikasida namoyon bo'ladi.

Tabiatshunoslik kashf etgan aloqalar haqida mulohaza yuritir ekan, SHelling bu aloqalarni belgilovchi kuchlarning birligi va tabiatning yagonaligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Bundan tashqari, u har qanday narsaning mohiyati qarama-qarshi faol kuchlarning birligi bilan tavsiflanadi, degan xulosaga keladi. Bu birlikni u «qutblilik» deb nomladi. Qarama-qarshiliklarning birligiga misol qilib SHelling magnitni, musbat va manfiy elektr zaryadlarini, kimyoviy moddalarda kislota va ishqorlarni, organik jarayonlarda ta'sirlanish va tormozlanishni, ongda sub'ektivlik va ob'ektivlikni keltiradi. «Qutblilik»ka SHelling narsalar faolligining bosh manbai sifatida qaraydi, uni tabiatning «haqiqiy dunyoviy joni» deb tavsiflaydi. SHelling o'z asarlarida ideal va moddiy narsalarning ayniyligi g'oyasini ilgari suradi. Uning fikricha, materiya mutlaq ruh, aqlning erkin holatidir. Ruh va materiyani bir-biriga qarshi qo'yish mumkin emas; ular ayniydir, chunki ayni bir mutlaq aqlning turli holatlarini aks ettiradi.

Falsafiy kategoriyalarni tadqiq etish va rivojlantirish ishiga F.SHelling salmoqli hissa qo'shdi. Shu ma'noda F.SHellingning naturfalsafasi (tabiat falsafasi) ayniqsa diqqatga sazovordir. Tabiatni tushunishda SHelling panteistdir, u Xudo va tabiatni tenglashtiradi. Tabiatning rivojlanishini SHelling ongning shakllanish jarayoni, ongsizlikdan onglilik sari harakat sifatida tavsiflaydi. Ongning shakllanish mexanizmini SHelling tabiatda qutblilik (qarama-qarshiliklar birligi) va tadrijiylikning mavjudligi bilan izohlaydi. Tadrijiylik, ya'ni tabiat evolyusiyasi bosqichlarini SHelling qutblilikda keskinlikning pasayishi mahsuli sifatida tushuntiradi. U jonli organizmlar noorganik shakllardan vujudga keladi, hayot esa modda sintezi va parchalanishining birligidir, deb hisoblagan.

SHelling o'z naturfalsafasining ta'riflangan muhim tamoyillari – tabiatning dialektik birligi, rivojlanishi va umumiy ikki taraflamaligini insonning tabiatni tushunishiga nisbatan tatbiq etadi. Fixtega ergashib SHelling ham bilishning rivojlanishini bilishning nazariy bosqichlaridan amaliy bosqichlar sari harakat sifatida tahlil qiladi. Ongning shakllanish asosini SHelling insonning dunyoga nisbatan harakatlari bilan bog'laydi. O'zlikni anglash tadrijiylik, ya'ni mushohada yuritishning quyi shakllari - sezish, idrok etishdan tasavvur qilish va refleksiya o'tish sifatida shakllanadi. Nima uchun aynan faoliyat, ong va bilishning rivojlanish manbai hisoblanadi? – degan savolga nisbatan SHelling quyidagicha mulohaza yuritadi: amaliy faoliyatda inson o'zining ma'naviy qobiliyatlarini moddiylashtiradi (ob'ektga aylantiradi), ular inson o'zgartirgan tabiat predmetlarida yashashda davom etadi. Shunday qilib, inson faoliyati natijasida tabiat sof tabiatga va inson tomonidan o'zgartirilgan tabiatga ajraladi. Insonning muhim xususiyatlari moddiylashtirgan ayni Shu o'zgartirilgan tabiat inson ongi va o'zligi rivojlanishiga ko'maklashadi. Ammo individlarning o'zaro aloqasi, ularning muloqoti insonga bundan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda F.SHelling Gegel dialektikasining aksariyat g'oyalari undan oldinroq ilgari suradi va ko'p jihatdan undan o'zib ketadi, chunki Gegel tabiatda rivojlanishning mavjudligini rad etadi, SHelling esa, aksincha, nafaqat inson ruhi, balki tabiat rivojlanishining umumiy tamoyillarini ham ta'riflab berdi, tabiatning tadrijiy rivojlanish jarayoni ong shakllanishi bilan nihoyasiga etishini qayd etdi. SHelling g'oyalari Gegel falsafasida o'zining mukammal ifodasini topdi. SHelling naturfalsafasining paydo bo'lishi Fixte sub'ektiv idealizmi ildiziga bolta urdi va nemis klassik idealizmida ob'ektiv idealizm va uning dialektikasi sari burilish yasadi

*Dastlab mana Shu oqimga mansub bo'lgan **K. Marks (1818-1883) va F. Engels (1820-1895)** keyinchalik materialistik jihat va ateistik tamoyillar ustuvor bo'lgan, qarama-qarshiliklarning kurashi tamoyili mutlaqlashtirilgan o'z ta'limotini ishlab chiqdilar. Uning asosiy nazariyalarini hayotga tatbiq qilishga da'vat qildilar. Ularning ta'limoti marksizm falsafasi degan nom oldi. Keyinchalik bu falsafa sotsialistik lager deb atalgan mamlakatlarda davlatning mafkuraviy doktrinasiga aylandi, «ilmiy kommunizm» g'oyalari asosida insoniyat tarixining tabiiy jarayonini proletariat diktaturasi deb atalgan davlat va hokimiyat yuritish usuli orqali zo'rlik bilan o'zgartirish ta'limotini ko'pchilik ommaga, siyosiy partiyalarga, mafkuraga singdirishga harakat qildi.*

XX asrning boshlaridan 80 — yillarning oxirigacha dunyoning juda katta hududida hukmronlik qilgan bu mafkura sobiq Ittifoq tarqalishi bilan uning hududida o'z ustuvorligini yo'qotdi. Uning katta salbiy oqibati ayniqsa o'tmish madaniy va falsafiy merosiga bo'lgan munosabatda yaqqol namoyon bo'ldi. Bu falsafaning metodologik prinsiplari — sinfiylik va

partiyaviylik xolis xulosalar chiqarishga imkon qoldirmas edi. ularga mos kelmaydigan har qanday ta'limot qoralanar, hatto butunlay inkor qilinardi. O'tmish merosining qay darajada umumbashariy, umumjahon ahamiyatiga ega ekanligi e'tibordan chetda qolardi. Bu nafaqat umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyatini mensimaslikka olib kelardi, Shu bilan birga, ma'lum darajada xalqlarda milliylik ruhini, milliy merosdan g'ururlanish ruhini tugatishga qarshi harakat edi. O'tmish merosiga bunday yondoshishning zararli tomonlaridan yana biri Shunda ediki, oxir-oqibatda o'tmish merosi bir yoqlama talqin qilinardi, ko'pincha esa ochiqdan-ochiq soxtalashtirilardi. Ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, ma'naviy, mafkuraviy sharoitlarni hisobga olmagan holda, o'tmish merosini yuqorida eslatib o'tgan prinsiplar qolipiga solib talqin qilinardi.

So'nggi yillarda sotsialistik lagerning parokandalikka uchrashi, sobiq ittifoq tarkibiga kirgan ko'pgina jumhuriyatlarda, Shu jumladan, O'zbekistonda mustaqil milliy davlatlarning vujudga kelishi, ularning o'z xalqi milliy ruhiga xos va mos mafkura metodologiyasi asosida muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanib borayotganligi marksistik falsafaning hayot talablariga javob beraolmaydigan, xalqlarning ruhiga yot bo'lgan g'ayrimilliy ta'limot ekanligidan dalolat beradi.

Bu ta'limotning ba'zi tarafdorlari Farbda «neomarksizm» oqimiga birlashganlar. Ularning bir qismi marksizmni isloh qilish, zamonga moslashtirishga harakat qilsalar, boshqalari esa yana Marksga qaytish lozim, deb hisoblaydilar. Kezi kelganda ta'kidlash joizki, marksizmga vaqt o'z bahosini berdi. Ana Shu bahoni xolis qayd etish bu ta'limotning mustabid tuzum mafkurasiga aylantirilishi qanday oqibatlarga olib kelganini yaqqol ko'rsatish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mazkur ta'limot to'g'risida umuman gapirmaslik emas, balki uni tanqidiy tahlil etish orqali, mohiyat va mazmunini ochib berish, oqibatlarini yaqqol ko'rsatishga imkon yaratadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Qadimgi Yunoniston va Rim mutafakkirlarining falsafiy qarashlari.
2. Nominalizm va realizm.
2. Patristika va sxolastika.
3. P.Abelyar, F.Akvinskiy, R.Bekon ta'limotlari.
4. Evropa falsafasining rivojida universitetlarning o'rni. Uyg'onish davri falsafasi.
5. N.Kopernik, Bruno, Galileyning geliotsentrik nazariyasining ahamiyati.
6. XVII asr falsafasida ratsionalizm: Volter, Russo, Lametri, Didro, Gelvetsiy, Golbax.
7. Yangi davr ingliz va fransuz falsafasi. Nemis mumtoz falsafasi. I.Kant, Gegel, Feyerbax va boshqalar.
8. K.Marks va F.Engelslar ta'limoti haqida

1.4-Mavzu. Borliq falsafaning fundamental kategoriyasi.

1. Borliq va yo'qlik, mavjudlik va reallik.
2. Harakat, fazo va vaqt, makon va zamon.
3. Tabiat va jamiyat, ularning o'zaro aloqasi.
4. Erdagi hayot va biosotsial evolyusiya. Tabiatni falsafiy tushunishning ahamiyati va ekologik tarbiya.

Borliq falsafa predmeti sifatida. Biz dunyo, materiya tuzilishi, makon, vaqt, harakat, hayot, ong va Shu kabilar haqida tasavvur hosil qilish uchun asosan fizika, astronomiya va biologiya kabi tabiatshunoslik fanlariga murojaat etamiz. Lekin bu falsafada borliq muammolari o'rganilmaydi, degan ma'noni anglatmaydi.

O'quv kurslarida asosiy falsafiy muammolarni o'rganish odatda ontologiyadan boshlanadi. Ontologiya falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo'lib, unda borliq va yo'qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalarning keng doirasi o'rganiladi, Shuningdek mavjudlik sifatiga ega bo'lgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. «Ontologiya» atamasi falsafada faqat

XVII asrdan beri ishlatiladi, lekin u yunoncha o'zaklarga ega bo'lib (ontos – borliq, logos – so'z, ta'limot), borliq haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. Ontologiya falsafada alohida o'rin egallaydi. Ikki yarim ming yillik faol falsafiy izlanishlar natijasida falsafiy bilim tizimida ontologiyadan tashqari falsafaning muhim falsafiy mazmun kasb etadigan gnoseologiya, aksiologiya, ijtimoiy falsafa, axloq, estetika, mantiq kabi tarkibiy qismlari paydo bo'ldi. Lekin ularning barchasi zahirida ontologiya yotadi. O'z navbatida ontologiya har qanday falsafiy dunyoqarashning negizi hisoblanadi va Shu tariqa o'z tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini ko'p jihatdan belgilaydi.

«Borliq» kategoriyasi. Aksariyat falsafiy tizimlarning kategoriyalar apparatini tashkil etadigan ko'p sonli falsafiy kategoriyalar orasida «borliq» kategoriyasi doimo markaziy o'rinni egallaydi. Chunki u har qanday predmet, hodisa, voqea va Shu kabilarning eng muhim xususiyatini, ularning mavjud bo'lish, bevosita yoki bilvosita namoyon bo'lish, o'zaro ta'sirga kirishish qobiliyatini aks ettiradi.

Bu inson o'zligini va o'zini qurshagan borliqni anglashga ilk urinishlaridayoq duch keladigan har qanday ob'ektning, borliq har qanday qismining umumiy xossasidir.

Inson aqlli jonot sifatida shakllanish jarayonining ilk bosqichlaridayoq o'z dunyoqarashining negizini tashkil etadigan muhim savollarga javob topish zaruriyati bilan to'qnash keladi:

1. «Men kimman?»
2. «Meni qurshagan borliqning mohiyati nimada?»
3. «Borliq qanday va qaerdan paydo bo'lgan?»
4. «Dunyoni nima yoki kim harakatlantiradi?»
5. «Dunyoning rivojlanishida biron-bir maqsad, maqsadga muvofiqlik, mo'ljal bormi?»

Inson bunday savollarga javob berishga kirishar ekan, uning ongi avvalo o'zi nima bilan bevosita ish ko'rayotganini qayd etadi. Buni aniq anglamasdan, u o'zining dunyo haqidagi mulohazalarini aniq-ravshan narsalarni qayd etishdan boshlaydi. Shu tariqa inson va uning ongi o'zini qurshagan barcha narsalar avvalo mavjud bo'lish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Shunday qilib, borliq masalasi insonning dunyoni oqilona anglash yo'lidagi ilk urinishlaridayoq duch kelgan barcha masalalarning negizi hisoblanadi. Muayyan narsalar mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasi inson falsafiy mulohaza yurita boshlagani zahotiyoyoq uning diqqat markazidan o'rin oldi. Mifologiyaning bosh vazifasi – «borliqni kim yaratgani» haqida gapirib berishni falsafa «borliqning nimaligi, u qaerdan paydo bo'lgani va qaerga yo'qolishi»ni oqilona tushuntirish bilan almashtirgani tasodifiy emas. Bunday tushuntirishga urinish jarayonida faylasuflar barcha zamonlarda quyidagi savollarga javob topish zaruriyati bilan to'qnash kelganlar:

- falsafiy kategoriya sifatidagi «borliq» nima?
- bu atama nimaga nisbatan tatbiq etilishi mumkin?
- unga qanday falsafiy ma'no yuklanadi?

Bu savollarga keng javob berish falsafa tarixiga ham, mazkur tushunchaning etimologiyasiga ham murojaat etishni nazarda tutadi. Mazkur dastur bo'yicha ta'lim oluvchilar tarixiy-falsafiy kurs bilan tanish bo'lishlari lozimligini hisobga olib, bu erda faqat falsafiy tafakkur tarixiga qisqacha to'xtalamiz va mazkur muammoni anglab etish jarayonidagi muhim bosqichlarinigina qayd etamiz.

Borliq tushunchaning etimologiyasi. «Borliq» falsafiy kategoriyasi nafaqat eng muhim, balki boshqa kategoriyalar orasida ayniqsa ko'p ishlatiladigan kategoriya hisoblanadi. Bu holni Shu bilan izohlash mumkin, uning kelib chiqishi dunyoning ayniqsa keng tarqalgan tillarida ayni bir ma'no – «bo'lish», «mavjud bo'lish», «hozirlik», «hozir bo'lish», «mavjudlik» ma'nolarini anglatadi. Jahonning aksariyat tillarida yuqorida sanab o'tilgan va ma'no jihatidan unga yaqin fe'llar negizini tashkil etadigan «bo'lmoq» fe'li, o'zining bevosita ma'nosidan tashqari, yordamchi fe'l sifatida ham faol ishlatiladi. Bu dalilga izohni inson tafakkuri tabiatidan izlash lozim bo'lib, uning mantig'i va qonunlari fikrni bayon etishning til shakliga bog'liq bo'lmaydi, lekin albatta fikrlash mumkin bo'lgan, universal va o'zgarmas sifatida amal qiladigan va Shu sababli har qanday mulohazaning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan nimagadir tayanishi lozim.

Fikr qaratilgan narsa mavjudligi (yoki mavjud emasligi)ning ayni Shu dalili har qanday tilning ilk jumlaridayoq tom ma'noda universal fe'l (yoki uning modifikatsiyalari) bilan aks ettiriladi: o'zbek tilida - «bo'lmoq», «bor», ingliz tilida – is, nemis tilida – ist va h.k.

Shunday qilib, «borliq» va «yo'qlik» kategoriyalarining o'ziga xosligi, betakrorligi va universal ahamiyati Shundan iboratki, ularning falsafiy ma'nosi tavsiflanadigan turli tillarda ular fe'ldan, aniqroq aytganda, «bo'lmoq» fe'ldan (yoki uning inkoridan) hosil bo'lgan tushunchalar hisoblanadi va narsaning o'zini emas, balki uning mavjudligi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, stol bor, yomg'ir yo'q, oqlik bor, aks yo'q, miya bor, g'oyalar yo'q va h.k.

Borliq tabiiy tillarda otlar, ravishlar yoki ravishdoshlar bilan ifodalanadigan, ya'ni bilishda uning ob'ekti yoki sub'ekti sifatida amal qiladigan tushunchalar bilan tenglashtirilishi mumkin emas. Ayni zamonda bu ob'ektlar yoki sub'ektlarning birortasi ham uning borligi yoki yo'qligini qayd etmasdan fikrlanishi mumkin emas.

Borliq va yo'qlik dialektikasi. «Borliq bor, yo'qlik esa – yo'q», deganida, Parmenid ayni Shu holga e'tiborni qaratgan. Binobarin, yaxshi, yomon, to'g'ri, noto'g'ri, quvnoq, sho'r, oq, qora, katta, kichkina kabi va Shunga o'xshash sifatlar borliqqa nisbatan qo'llanilishi mumkin emas. Borliqni biron-bir koordinatalar tizimsiga joylashtirib bo'lmaydi, uni faqat vaqtda fikrlash mumkin. Muxtasar qilib aytganda, borliqni har qanday voqelik ega bo'ladigan umumiy, universal va betakror mavjudlik qobiliyati, deb tavsiflash mumkin. Bu fikr esa amalda mavjud narsagina borliqqa ega bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

«Yo'qlik» har qanday tilda amalda mavjud bo'lmagan narsa bilan tenglashtiriladi va boshqacha tushunilishi mumkin ham emas. Boshqacha aytganda, yo'qlik borliqni inkor etadi va narsa, jism, hodisa, ong... (ya'ni amalda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan narsalar) o'zligini yo'qotgan holda «yo'qlik» atamasi ayni Shu ma'noda ishlatiladi va ular haqida ular «yo'qlikka chekindi», mavjud emas, deyiladi. Lekin sof falsafiy ma'noda bu fikrni to'g'ri deb bo'lmaydi. Borliq va yo'qlik o'rtasida dialektik o'zaro aloqa mavjud.

Birinchiidan, dunyo haqidagi hozirgi tasavvurlarga ko'ra, biz yashayotgan Olam bo'shliqdan bino bo'lgan. Bo'shliq materiyaning alohida holati. Bo'shliq fizik borliqning eng boy tipi, o'ziga xos potensial borliq sifatida namoyon bo'ladi, zero unda mumkin bo'lgan barcha zarralar va holatlar mavjud, biroq ayni vaqtda unda aktual tarzda hech narsa yo'q⁶⁴.

Yana Shuni ham e'tiborga olish lozimki, fiziklar (D.A.Landau, va boshqalar) nuqtai nazaridan biz yashayotgan Olam ham dunyoda yagona emas, chunki u rivojlanishning turli sikllarini boshidan kechirayotgan turli Olamlarning cheksiz sonidan tashkil topadi. Shu ma'noda borliq va yo'qlikning o'zaro aloqasi ham nisbiy xususiyat kasb etadi.

Ikkinchiidan, amalda mavjud bo'lgan narsaning ob'ektiv borlig'i yo'qlikka chekinadi, lekin, Shunga qaramay u haqda gapirilayotgan, ya'ni u muayyan narsa sifatida fikrlanayotgan bo'lsa, bu narsa ongda mavjud bo'ladi va o'zining «ikkinchi» borlig'ini saqlaydi, ayni holda u dastlabki ob'ektning nusxasi, ideal obrazi bo'lib qoladi.

Shunday qilib, *o'tgan zamondagi borliq yo'qlikdir*, deb aytilish mumkin. *Borliq doim hozirgi zamonda mavjud bo'ladi, u faqat hozirgi zamonda o'zini namoyon etadi*, basharti u dolzarb va amalda namoyon bo'lish imkoniyatiga ega bo'lsa, agar u potensial, ya'ni axborot manbalarida mavjud yoki uning paydo bo'lishi ob'ektiv rivojlanish mantig'i bilan belgilangan bo'lsa. Amalda yo'q bo'lgan narsa haqida ideal obraz sifatida fikrlash mumkin. Boshqacha aytganda, unga ideal obraz tarzidagi ideal borliq shakl-shamoyilini berish mumkin. O'tmishga tatbiqan biz borliq haqida faqat Shu ma'noda so'z yuritishimiz mumkin.

Ayni Shu ma'noda *biz g'oyalar, narsalar, voqealar, tarixiy shaxslar yoki o'zimizga yaqin odamlar to'g'risida so'z yuritimiz, bunda ular yo'qlikka aylanmagani, balki Yangicha mavjudlik, xotira tarzidagi o'zgacha borliq kasb etganini nazarda tutamiz.*

Shunday qilib, *borliq falsafiy kategoriya sifatida dunyoni butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon bo'lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi.* Bunda narsalar, predmetlar, hodisalar o'z xususiyatlari, xossalari bilan jamuljam holda aks etadi. Dunyoni va uning

⁶⁴ Каранг: Малукова О.В. Материя, пространство и время с точки зрения физики XX века / Онтология, гносеология, логика и аналитическая философия. – СПб.: 1997. – С.93.

tarkibiy qismi bo'lmish insonni bilish yo'lidagi bu muhim qadam bilan dunyoning tabiati va mohiyati, uning rang-barangligi, turli darajalari, ko'rsatkichlari, ramz-alomatlari, shakllari va hokazolar haqidagi mulohazalarning asosiy koordinatalar tizimsi belgilanadi. Buning uchun mohiyat, hodisa, substansiya, materiya, ong, makon, vaqt, qonun kabi Yangi falsafiy kategoriyalar muomalaga kiritiladi.

Inson o'zi va umuman dunyo haqida o'ylar ekan, odatda muayyan narsalar va ayrim tabiiy hodisalar bilan ish ko'radi. Ayni vaqtda u o'zini qurshagan dunyoni sinchiklab o'rganish va uning butun rang-barangligini tushunib etish uchun muayyan tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladigan qandaydir asosning shak-Shubhasiz mavjudligini qayd etadi. Falsafa tarixidan biz bunday asos sifatida, masalan, Suqrot dan oldingi qadimgi yunon faylasuflarida tabiat elementlari, o'rta asrlar falsafasida Xudo, Dekartda: «Men fikrlayapman, demak, mavjudman», degan ongli inson amal qilganini ko'ramiz.

Ammo inson bilishning bu birinchi bosqichida to'xtab qolmagan va o'zini qurshagan borliqning ko'p sonli turli-tuman holatlari orasida qolgan barcha narsalardan sezilarli darajada farq qiladigan narsalarni, borliqning ayni Shu shakli voqelikning boshqa shakllari va holatlaridan nima bilan farq qilishini aniqlashga harakat qilgan. Bugungi kunda insoniyat borliqning ko'p sonli turli-tuman shakllaridan ularning ayniqsa aniq bo'lgan bir nechtasini farqlash imkonini beradigan tajriba va bilim to'pladi.

Falsafa tarixida borliq muammosi. Borliq muammosini falsafiy anglab etishga ilk urinishlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikda vujudga kelgan qadimgi hind va qadimgi xitoy falsafalaridayoq kuzatiladi. Xususan, Vedalar (qadimgi hind tafakkurining ilk yodgorliklari) va ularga diniy-falsafiy sharhlar – Upanishadalarda yaxlit ma'naviy substansiya, o'lmas jon haqidagi g'oyalar, Shuningdek dunyo haqidagi materialistik va ateistik tasavvurlar o'z aksini topgan. So'nggi zikr etilgan tasavvurlarga muvofiq butun borliqning negizini tabiiy asoslar – olov, havo, suv, yorug'lik, makon, vaqt tashkil etadi. Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga etishga harakat qilar ekanlar, quyosh tunda qaerga ketadi, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo'qoladi kabi savollarga javob topishga uringanlar va bu tasavvurlarni eng qadimgi kitob – Rigvedalarda aks ettirganlar.

Qadimgi Xitoy falsafasi avvalo ijtimoiy muammolarga qarab mo'ljal olgani bois, unda inson borlig'iga, Shuningdek ijtimoiy borliqqa ko'proq e'tibor berilgan. Ayni vaqtda, tabiatning birinchi asoslari ham e'tibordan chetda qolmagan. Bu qiziqish, xususan, narsalar va hodisalarning butun rang-barangligini belgilovchi besh stixiya (suv, er, daraxt, temir, olov) haqidagi ta'limotda o'z aksini topgan. Keyinroq «O'zgarishlar kitobi»da borliqning butun rang-barangligini tashkil etuvchi bunday birinchi asoslarning sakkiztasi qayd etiladi.

Xudolarning kelib chiqishi, ularning hayoti, ishlari, o'zaro kurashi haqida hikoya qiladigan va Shu tariqa qadimgi odamlarning dunyoning vujudga kelishi va evolyusiyasi haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan kosmogonik miflar Suqrotga qadar avvalo tabiat falsafasi sifatida Yuzaga kelgan va rivojlangan yunon falsafasining birinchi manbai bo'lib xizmat qildi. Ilk yunon faylasuflari o'z asarlarini odatda «Tabiat haqida» deb nomlaganlari, ularning o'zlari esa naturalistlar, «fiziklar» deb atalishi bu fikrni tasdiqlaydi.

Sharq donishmandlari kabi, antik mutafakkirlarni ham borliqning manbalari qiziqtirgan. Qadimgi yunon falsafasi vujudga kelgan paytdan boshlab ular butun borliqning birinchi sababini mavjud voqelikning o'zidan izlaganlar, uni dam suv (Fales) yoki havo (Anaksimend) deb, dam hamma narsani boshqaradigan boqiy va cheksiz asos – «apeyron»(Anaksimandr taxminan mil. av. 611-545 yillar)deb tavsiflaganlar. Anaksimandr hatto jonli mavjudotlarning tabiiy kelib chiqishi g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, mazkur mavjudotlar dengiz suvida vujudga kelgan va suv o'tlaridan paydo bo'lgan. So'ngra baliqsimon mavjudotlar quruqlikka chiqqan va ulardan odamlar rivojlangan. Shunga o'xshash fikrlarni Ksenofan (mil. av. 580-490 yillar) ham ilgari suradi. U hamma narsa er va suvdan vujudga keladi va rivojlanadi, hatto «biz ham er va suvdan paydo bo'lganmiz», deb hisoblaydi.

O'sha davrning bosh falsafiy masalasi – «hamma narsa nima?» degan savolga javob berar ekan, Pifagor (mil. av. 580-500 yillar) «hamma narsa sonidir», degan xulosaga keladi. U Erning

sharsimonligi haqidagi g'oyani birinchi bo'lib ilgari suradi. Keyinchalik bu g'oyani Parmenid (mil. av. 540-480-yillar) qo'llab-quvvatladi va unga yozma ta'rif beradi. Parmenid faylasuflar orasida birinchi bo'lib borliqni kategoriya sifatida tavsifladi va uni maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylantirdi. U haqiqiy borliq mohiyatining o'zgarimasligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Parmenid fikricha, borliq paydo bo'lmagan va u yo'q ham bo'lmaydi, chunki undan boshqa hech narsa yo'q va bo'lishi mumkin ham emas. Borliq yagona (uzluksiz), harakatsiz va barkamoldir. U o'z chegaralariga ega bo'lib, «ulkan mutlaqo yumaloq SHarga» o'xshaydi.

Parmenidning yagona, ajralmas, o'zgarimas va harakatsiz borliq haqidagi ta'limoti ellinlar dunyosida Shuhrat qozondi va eleatlar maktabi vakili bo'lgan (samoslik) Melis «Tabiat yoki borliq haqida» deb nomlangan asarida borliq chegarasiz ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, agar borliqning chegarasi borligini tan olsak, bu borliq yo'qlik bilan chegaradosh ekanligini anglatadi. Biroq, hamonki yo'qlik mavjud emas ekan, borliq ham chegarali bo'lishi mumkin emas.

Shunday qilib, qadimgi yunon falsafasining Suqrotga qadar bo'lgan davrida ontologiya sezilarli darajada rivojlanadi: o'sha davr atoqli faylasuflarining deyarli barchasi borliq muammosini bevosita yoki bilvosita o'rganadi, uni, odatda, boqiy va barkamol kosmos, «yagona tabiat», ya'ni moddiy-hissiy dunyo bilan tenglashtiradi. Masalan, Empedokl (mil. av. 484-421 yillar) «borliq» atamasini bevosita ishlatmagan bo'lsa ham, «barcha narsalarning to'rt negizi» (olov, havo, suv va er) haqida so'z yuritar ekan, dunyo (kosmos) tuxumsimon ko'rinishga ega deb hisoblagan, hayot nam va issiq suv o'tlaridan kelib chiqqani haqida mulohaza yuritgan. Demokrit va Levkip atomlarni muayyan modda sifatida tavsiflab, ularni «bo'shliq» - yo'qlikka zid o'laroq, «to'la» yoki «qattiq» borliq bilan tenglashtirgan.

Shu davrda borliqni tushunishga nisbatan dialektik yondashuv ilk bor namoyon bo'ladi. U butun dunyo muttasil harakat va o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi deb hisoblagan va Shu munosabat bilan «ayni bir narsa mavjud va nomavjuddir» deb qayd etgan Geraklit (mil. av. 544-483 yillar) ta'limotida ayniqsa bo'rtib ko'rinadi.

Borliq tushunchasini Platon (mil. av. 427-347 yillar) sezilarli darajada kengaytirdi. U nafaqat moddiy, balki ideal narsalar ham borliqqa ega ekanligini falsafa tarixida birinchi bo'lib ko'rsatib berdi. Platon «haqiqiy borliq» bo'lishi «ob'ektiv mavjud g'oyalar dunyosi»ni «hissiy borliq»qa qarama-qarshi qo'ydi. Bunda u inson ongida mustaqil mavjud bo'lgan tushunchalar borlig'ini ham ko'rsatib o'tdi va Shu tariqa ilk bor «borliq» tushunchasiga amalda mavjud bo'lgan barcha narsalarni kiritdi.

Markaziy Osiyoning eng qadimiy kitobi «Avesto»da, borliq harakatdagi dunyo, butun jonli va jonsiz narsalarning uyg'unligidagi mavjudlik deb ifodalanadi.

Keyinchalik falsafa tarixida borliqning ko'p sonli har xil talqinlari shakllandi, lekin ularning barchasi borliq haqidagi hissiy va oqilona tasavvurlar atrofida u yoki bu tarzda tiziladi. Bunda fikrlar va yondashuvlar rang-barangligi namoyon bo'ladi.

Xususan, o'rta asrlar Evropa falsafasida «haqiqiy borliq - «Xudoning borlig'i» va «haqiqiy bo'lmagan», ya'ni Xudo yaratgan borliq farqlanadi.

Sharqning buyuk mutafakkiri Forobiy borliq muammosini hal qilishda «vujudi vojib» va «vujudi mumkin»ning o'zaro nisbatiga murojaat qiladi. Uning fikricha «vujudi vojib» barcha mavjud yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarning birinchi sababi. Birinchi sabab sifatida u o'zga turtkiga muhtoj emas. U mutloq borliq va donishmandlik ifodasi. «Vujudi mumkin» esa doimo o'zgarishda, ziddiyatli munosabatlarda bo'lib, unda barcha narsalar oddiydan murakkabga, tartibsizlikdan tartiblilikka qarab harakat qiladi. «vujudi vojib» yaratgan eng buyuk voqelikdan biri inson aqlidir. U «Fuqarolik siyosati» asarida borliqni olti darajaga bo'ladi:

1. Birinchi holatdagi sabab.
2. Ikkinchi holatdagi sabab.
3. Uchinchi holatdagi aqli faol.
4. To'rtinchi holatdagi instinkt.
5. Beshinchi holatdagi shakl.

6. Oltinchi holatdagi materiya. Forobiy bu darajalarning har biriga ta'rif beradi. Keyin u "uchinchi aql" - aqli faolni ta'riflaydi. Unga ko'ra, aynan "aqli faol"ga ko'ra, insonning tabiiy, ma'naviy va ruhiy hayoti shakllanadi.

Ibn Sino fikricha ham borliqning asosi "vujudi vojib" ya'ni Allohdir. Vujudi vojib bu birinchi mohiyat. Uning mavjudligi sababini boshqa narsalardan qidirish noo'rin. Chunki birinchi sabab uning natijasi bo'lgan xilma xil jarayonlarning mohiyatiga bog'liq bo'la olmaydi. Zero vujudi vojibning mavjudligi uning o'ziga bog'liq.

XVII-XVIII asrlarning materialist faylasuflari Golbax, Gelvetsiy, Lametri borliq tushunchasini fizik borliq bilan bog'laydi. Bu faylasuflarning naturalistik qarashlari mexanikaning faol rivojlanishi bilan belgilangan va ularning tabiat haqidagi tabiiy-ilmiy tasavvurlarini aks ettirgan. Bundan borliqni «naturallashtirish» g'oyasi kelib chiqqan.

Yangi davr, va nemis klassik falsafasi davri «substansiya» (dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat), «mutlaq «Men»ning erkin, sof faoliyati» (Fichte), «ob'ektiv rivojlanuvchi g'oya» (Gegel) kabi falsafiy kategoriyalarni qayd etib, borliq muammolari talqiniga yanada teranroq mazmun baxsh etdi.

XX asr borliqni tushunishni tarixiylik, insonning mavjudligi, qadriyatlar va til bilan bog'lab, uning talqinini o'ta kengaytirdi. Neopozitivizm falsafiy yo'nalishi esa, avvalgi ontologiya falsafaning emas, balki ayrim fanlarning predmeti deb hisoblab, falsafadagi borliq muammosini soxta muammo sifatida talqin qildi.

Noklassik borliq. Noklassik falsafa dunyoning aqlga muvofiqligi, Shuningdek inson ongining mustaqilligiga Shubha bildirdi. Pozitivistlar umuman ontologiyani yaratishdan bosh tortdilar. Irratsionalizm, marksizm va ekzistensializm da ontologik konsepsiyalar hayot, jamiyat va inson tushunchalari rivojlantirildi, ular borliqning noyob usullari sifatida tavsiflandi. Quyida noklassik falsafada borliqqa munosabatni tahlil qilamiz.

Borliq va hayot: borliqning irratsionalistik konsepsiyasi. Falsafiy irratsionalizm asoschisi A.SHopengauer olamning aqlga muvofiqligi haqidagi tezisga Shubha ko'zi bilan qaraydi. Uning fikricha, borliqning o'zi emas, balki bizning u haqdagi tasavvurimiz aqlga muvofiqdir, zero tasavvur – bu inson aqlining mahsulidir. Ammo tasavvur – bu hodisa, mohiyat darajasida esa dunyoni aqliy idrok etish mumkin emas. SHopengauer o'zining «Dunyo intilish va tasavvur sifatida» deb nomlangan bosh falsafiy asarida dunyoning borlig'ini ikki tarkibiy qismga – «yashashga intilish sifatidagi dunyo» va «inson tasavvuri sifatidagi dunyo»ga ajratadi. Uning fikricha, yashashga intilish haqiqiy borliqdir. Yashashga intilish ko'r-ko'rona va nooqilonadir, zero uning asosiy niyati – o'z-o'zini asrashdir. O'z-o'zini asrash instinkti – butun tiriklikning tabiiy xossasidir. Ammo SHopengauer romantiklarga ergashib, yashashga intilish dunyoning barcha narsalariga va umuman dunyoning o'ziga xosdir, deb hisoblaydi. Dunyo haqidagi bunday mifopoetik tasavvur hayotda yana ta'riflar va tushunchalar tilida ifodalab bo'lmaydigan o'ziga xos tabiiy stixiyani ko'rish imkoniyatini beradi.

Fan dunyoni umumiy qonunlar va nazariyalar yordamida anglab etishga harakat qiladi. Ammo hayot har doim betakror bo'lib, uni ta'riflar yordamida ifodalash mumkin emas, faqat hayot faoliyati mahsullaridagi moddiy ifodalarnigina o'rganish mumkin. Bu eng avvalo ijodga tegishli, kreativ faoliyatning barcha turlaridan intilishga eng yaqini esa musiqadir (intilishning birinchi moddiy ifodasi). So'zlar va obrazlar hayotga intilishning izlarini ma'lum darajada ko'zdan yashiradi.

SHopengauerning izdoshi F.Nitsshe hayotga intilishning mohiyati hokimiyatga intilishda namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi. Ammo bu nuqtai nazar haqiqiy borliqning anglab etish mumkin bo'lmagan hodisa sifatidagi talqiniga daxl etmaydi. Nitsshe insonda eng avvalo o'z hayoti uchun kurashishi lozim bo'lgan biologik mavjudotni ko'radi. Inson o'z hayot kuchlari va instinktlarini axloqiy taqiqlar va jamiyat me'yorlari hukmiga bo'ysundirish yo'li bilan kurashdan bo'yin tovlamasligi kerak. Axloq insonni o'rtacha andozalarga yaqinlashtiradi va uning qayta tug'ilishiga sabab bo'ladi: inson xavfsizlik hissini saqlash yo'lida to'laqonli, lekin xavfli hayotdan voz kechadi. Bunday qayta tug'ilishning yo'llaridan biri – Iso Masihning diniy axloqi, ikkinchi yo'l – Suqrotning

ratsionalistik axloqi. Ikkala ta'limot ham narigi dunyo g'oyasiga asoslanadi, ularning ikkalasi ham real hayotning qimmatini kamsitishga qaratilgan.

Fridrix Nitsche (1844-1900 – *nemis faylasufi, irratsionalizm vakili, hayot falsafasi asoschisi*. Asosiy asarlari: «Musiqah ruhidan fojining tug'ilishi», «Insoniy, o'ta insoniy», «Zardo'sht tavallosi», «Quvnoq fan», «YAxshilik va yomonlikning narigi tomonida», «Hamma uchun va hech kim uchun», «Hokimiyatga intilish», «Antixrist» va b.) borliqning ikki asosi: dionisiycha hayotiy asos va apolloncha bir yoqlama-intellektual asosni ajratgan va haqiqiy madaniyat bu asoslarni muvozanatga solishga harakat qilishi lozim, deb hisoblagan. Evropa madaniyati mazkur idealni ro'yobga chiqara olmadi va inson borliq deganda stixiyali shakllanishni emas, balki tartibga solinganlikni tushunib, o'z mavjudligining asosiy negizlaridan uzoqlasha boshladi. Vaholanki, hayot abadiy harakat va shakllanishdan iboratdir.

Hayotning mazmun va mohiyati hokimiyatga intilishda namoyon bo'ladi. Bunday intilish butun tiriklikka xosdir. Unga intellektning hukmronligi, o'z yaqiniga muhabbatni targ'ib qiluvchi axloq va tenglikni e'lon qiluvchi sotsializm monelik qiladi. Bularning barchasi qullar axloqini tashkil etadi. To'ralar axloqi esa hayotning qimmati, odamlar o'rtasidagi tengsizlik hamda kuchning hukmronligiga asoslanishi lozim. Nitsche «Xudo o'ldi» degan tezisni ilgari suradi. Ushbu tezis Yangicha axloqni shakllantirish zarurligini anglatadi.

To'ralar axloqining sub'ekti sifatida o'ta qudratli inson amal qiladi. U oliy biologik tur hisoblanadi. Odam maymundan qanday tarqalgan bo'lsa, o'ta qudratli inson ham odamdan Shunday tarqaladi. U tayyor tur sifatidagi inson tabiatiga xos bo'lgan jihatlarni o'zidan soqit etadi. O'ta qudratli inson hayotni kurash sifatida idrok etishga va o'zini tinimsiz o'zgartirish yo'lida harakat qilishga qodir.

O'ta qudratli inson g'oyasiga «abadiy qaytish» konsepsiyasi qarshi turadi. Nitsche fikriga ko'ra, voqealarning ehtimol tutilgan kombinatsiyalari soni cheklangan, vaqt esa cheksizdir, Shu sababli barcha voqealar takrorlanishi lozim. Umuman olganda, Nitschening falsafiy tizimi o'zining ziddiyatlarga to'laligi bilan ajralib turadi, Shu tufayli ham u turlicha tushuniladi va talqin qilinadi.

Nitsche falsafasi XX asr falsafasining turli yo'nalishlari: hayot falsafasi, pragmatizm va ekzistensializmga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Borliqning tarixiy-materialistik konsepsiyasi. XIX asrda ijtimoiy borliq haqidagi ta'limot tarixiy materializm deb nomlagan. Unga ko'ra, ijtimoiy borliq individning borlig'iga nisbatan ham, ijtimoiy ongga nisbatan ham birlamchidir. Shunday qilib, bu davrda jamiyatga fizik borliqqa o'xshash borliq sifatida qaralgan. Ayni Shu sababli jamiyat ham tabiat qonunlariga o'xshash aniq va Shubhasiz qonunlarga bo'ysunishiga bu davr mutafakkirlarining ishonchi komil bo'lgan. Ijtimoiy borliq - bu moddiy borliq. U indvidlarning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati bilan belgilanadi. Ijtimoiy borliq qonunlari uning tarixiy rivojlanish jarayonida namoyon bo'ladi. Jamiyat tarixi bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar: ibtidoiy jamoa, quldorlik, kapitalizm va kommunistik tuzumning tadrijiy va qonuniy ketma-ketligi sifatida talqin qilgan. Unga ko'ra, har bir tuzum ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini o'z ichiga olgan tegishli ishlab chiqarish usuli bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish kuchlari (bazis) – bu o'zini o'zi rivojlantirish va o'z-o'zidan murakkablashishga qodir bo'lgan o'ziga xos borliq. Materialistik evolyusionizm ta'limotlarida materiya, Spinozaning «yaratuvchi tabiati» kabi, mustaqil rivojlanish qobiliyatiga ega, moddiy ishlab chiqarish esa moddiy borliqning eng murakkab darajasi hisoblanadi. Bu erda materiya, moddiy borliq, Shu jumladan moddiy ishlab chiqarish ijtimoiy organizmga o'xshatiladi va unga hayot alomatlari tatbiq etiladi.

Ishlab chiqarish munosabatlari (bazisning ustqurmasi) formal borliq sohasiga kiradi. Ammo shakl tadrijiy rivojlanishga qodir emas, u faqat o'zgarish jarayonida boshqa shakl bilan almashtirilishi mumkin. Shu sababli ishlab chiqarish munosabatlarining almashtirishi «inqilobiy sakrashlar» tarzida kechadi. Bu sakrashlar ishlab chiqarish kuchlari bilan muvofiq kelishi ham (bu hol formatSION o'sish davrida kuzatiladi), ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin. So'nggi zikr etilgan holat ishlab chiqarish munosabatlarining Yangi ishlab chiqarish kuchlariga muvofiq keluvchi yanada barkamolroq shakliga inqilobiy yo'l bilan o'tilishiga olib keladi. Bunda

Yangi ishlab chiqarish kuchlari eskilaridan mustaqil o'sib etiladi. Masalan, feodal tuzumda kapitalistik ishlab chiqarish kuchlari mustaqil o'sib etilgan va eski ishlab chiqarish munosabatlari bilan to'qnashib, burjua inqilobi jarayonida Yangi – kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlariga ega bo'lgan. Ular ishlab chiqarishning kapitalistik usuli va ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkdorlikning kapitalistik shakliga muvofiq keluvchi Yangi qonunlar, Yangi huquq, axloq va Yangicha dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

Borliq va inson: borliqning ekzistensial-germenevtik konsepsiyasi. Ekzistensialistlar mushohada yuritish orqali anglab etish mumkin bo'lgan mohiyat (essensiya)ni amalda mavjudlik (ekzistensiya)ga qarshi qo'yadilar. Ular borliqning mazmuni to'g'risidagi masalaga qaytish lozimligini e'tirof etadilar. Lo'nda qilib aytganda, borliqning oqilona tavsifi uning asl mazmunini yoritib berishga qodir emas. Bunday mazmun hayot tajribasida, ya'ni «Shu erda-borliq» yoki mavjudlik orqali namoyon bo'ladi. Germenevtika borliq sxemasi yoki formulasini aniqlashga emas, balki uning mazmunini bilishga qaratilgan. Falsafiy muammo sifatidagi borliqning mazmuni insonni o'z mavjudligining pirovardligi va tasodifiyligini anglash natijasida Yuz bergan shokdan xalos etishi lozim. Bir so'z bilan aytganda, bu erda aristotelcha analitikaga xaydeggercha germenevtika qarshi qo'yiladi.

Borliq germenevtikasi oqilona-sxematik yoki metafizik bilimga ishonchsizlik ko'zi bilan qarashga asoslanadi. Falsafa tarixida germenevtikaning ayrim tarafdorlari: a) mistik; b) estetik; v) intuitiv; g) irratsional narsalar va hodisalarga qarab mo'ljallanadilar. Dunyoni anglab etish mazkur usulining aks sadolari Pifagor (osmon musiqasiga quloq solish), Platon (g'oyalar xususida mushohada yuritish), Tertullian (absurd orqali haqiqatning tagiga etish), Paskal (aql haqiqatlariga yurak haqiqatini qarshi qo'yish), romantiklar, Kerkegor, SHopengauer va Nitsche metodida mavjud.

Borliq va mavjudlik. Borliq va mavjudlikni ontologik ajratish Xaydegger loyihasining tayanch nuqtasi hisoblanadi. Bu loyihani ishlab chiqish bilan u asosan «Borliq va vaqt», «Fenomenologiyaning asosiy muammolari» asarlarida Shug'ullanadi. So'zning o'z ma'nosidagi borliq, albatta, mavjudlikning borlig'i, lekin borliq mavjudlikdan kelib chiqadigan yo'qlik emas, ya'ni u mavjudlik hisoblanmaydi. Bu erda Xaydegger Kantning borliq predikat emas, degan fikriga qaytadi. Ammo bu holda borliq nima? Keng tarqalgan tasavvurga ko'ra, mavjud narsalarning barchasi ayni bir borliq usuli – mavjudlik bilan tavsiflanadi. Shunga muvofiq tabiat va ruh (g'oya va narsa, res cogitans va res extensia) farqlanadi. Ammo bu farqlash borliqning usullari o'rtasidagi farqni ifodalashga qodir emas. U faqat mavjud narsaning mohiyatini belgilovchi unsurlar o'rtasidagi farqni aks ettiradi.

Xaydegger fikriga ko'ra, borliq usullarini ajratishning haqiqiy yo'li borliqning mohiyati (essentia) va usulining bir-biriga mansubligini mohiyat va usulning borliq g'oyasiga mansubligi nuqtai nazaridan tahlil qilishga asoslanadi. Nemis mutafakkiri borliqning olti usuli: ekzistensiya, birgalikda mavjudlik, qo'l ostidalik, hozirlik, hayot va barqarorlikni farqlaydi. Bu usullarning barchasi bir-biridan Shu darajada farq qiladiki, «borliq» tushunchasining yagonaligini Shubha ostida qoldiradi. Bu erda mavjudlik to'g'risidagi masala Xaydegger qarshisida eng muhim masalalardan biri sifatida ko'ndalang bo'ladi.

Mavjudlik tushunchasining tahlili uning «hozirlik», «dunyo» va «qo'l ostidalik» tushunchalari vositasida ifodalanuvchi fenomenlar bilan ontologik o'zaro aloqasini qayd etishdan boshlanadi. Bunda mavjudlikni borliq turlaridan biri sifatida tushunish mumkin emasligi, mavjudlik muammosini, «uning shartlari va chegarasini» atroflicha o'rganish zarurligi ta'kidlanadi.

Faylasuflar hatto mavjudlik to'g'risidagi masalani qo'yish usulida ham aniq bir to'xtamga kelganlari yo'q. Bu xususda Xaydegger «ongga nisbatan transsendent» bo'lgan narsa mavjudmi, tashqi dunyoning mavjudligini isbotlash mumkinmi, mavjudlikni anglab etish mumkinmi qabilidagi masalalarni va nihoyat, mavjudlikning mazmuni to'g'risidagi masalani aralashtirish odat tusini olganini ta'kidlaydi.

YUqorida zikr etilgan har xil, lekin o'zaro bog'langan masalalar xaydeggercha talqinida mavjudlik muammosi uch qismga ajratiladi: a) borliq hamda «tashqi dunyo»ni isbot qilish mumkinligi muammosi sifatidagi mavjudlik; b) ontologik muammo sifatidagi mavjudlik; v) mavjudlik va tavajjuh.

Martin Xaydegger (1889-1976 – nemis faylasufi, ekzistensializm asoschilaridan biri. Asosiy asarlari: «Borliq va vaqt», «Metafizikaga kirish», «Platonning haqiqat haqidagi ta'limoti», «Qishloq ko'chasida», va b.)

Birinchi muammoni tahlil qilar ekan, Xaydegger tashqi dunyoning mavjudligi yoki uni isbotlash to'g'risidagi masala bir vaqtning o'zida ma'nosiz va ikki ma'noli ekanligini qayd etadi. Masalaning ma'nosizligi Shu bilan izohlanadiki, mazkur masala dunyoda borliq sifatida mavjudlik bilan qo'yilgan. Masalaning ikki ma'noliligi, Xaydegger fikriga ko'ra, bir-biridan farq qiladigan ikki narsa: nimadadir borliq sifatidagi dunyo va ichki mavjudlik sifatidagi «dunyo»ning aralaShuvi tufayli kelib chiqadi. Tashqi dunyoning mavjudligi to'g'risidagi masala bu erda dunyo fenomeniga oydinlik kiritmasdan qo'yiladi. Buning oqibatida amalda isbotlanayotgan narsa yoki hodisaning isbotlash usuli va isbotlashning e'lon qilina yotgan maqsadi bilan aralaShuvi Yuz beradi.

Shunday qilib, Kant falsafadagi janjal deb nomlagan masala – tashqi dunyo mavjudligining dalil-isbotlari yo'qligi Xaydeggerga muammoni noto'g'ri qo'yish bo'lib tuyuladi. U bunday isbotlashni amalga oshirishni ko'zlagan shaxslarning Shu erda hozirligining o'ziniyoq mavjudlikning isboti deb hisoblaydi. Xaydegger fikriga ko'ra, hatto dunyoning mavjudligiga ishonish lozimligini ta'kidlovchilar ham, adashadilar, zero ular bunday dalil-isbotlar idealda mavjud bo'lishi lozimligini tasdiqlaydilar.

Mur va Xaydegger nuqtai nazarlari o'rtasida muayyan o'xshashlik mavjud. Ularning ikkalasi ham bu soxta muammoni o'zidan soqit etishga harakat qiladi. Bunda ular Shu tariqa barcha antirealistlarni kuchli dalildan mahrum etishga umid qiladilar. Ular mazkur masalaning qo'yilishining o'ziyoq mantiqsiz ekanligini ta'kidlaydilar.

Ularning asosiy farqi Shundaki, Xaydegger bahslashish uchun asoslar mavjud emas deb hisoblaydi. U realistlarning nuqtai nazarini ham, idealistlarning qarashlarini ham qattiq tanqid qiladi. Realistlarning qarashlarida u «ontologik tuShunarsizlik»ka, ya'ni mavjudlikni ontologik (borliqning tartibi orqali emas, balki mavjudlikning tartibi orqali) tushuntirish niyatiga e'tiborni qaratadi. Idealistlarni ular o'zlarining borliq haqidagi tasavvurlarini mavjudlik orqali tushuntirishga harakat qilganlari uchun ayblaydi. Idealistlar borliqni mavjudlik orqali tushuntirish mumkin emasligini anglamaydilar. Boz ustiga, idealistlar mavjudlikning ideal borlig'i haqidagi tasavvurdan kelib chiqadigan oqibatlarni, xususan ongning borlig'i haqidagi masalani e'tibordan soqit etadilar.

Bularning barchasi Xaydegger mavjudlik muammosini ontologik tahlil qilish zarur, degan xulosaga kelishiga sabab bo'ladi. U hatto buning uchun mavjudlikni anglab etishning «poydevorlari va ufqlari»ni yorituvchi maxsus ekzistensial-ontologik konseptual bazani ta'riflaydi. Uning yordamida nemis mutafakkiri quyidagi diskursiv sxemani tuzadi. Mavjudlik dunyoda borlik demakdir, dunyoda borlik esa dunyo fenomenining o'ziga asoslanadi. Mazkur fenomen dunyoda-borliqning tarkibiga kiradi, dunyoda-borliq esa borliqning yaxlitligidan tavajjuh yordamida mustahkam o'rin oladi.

Keltirilgan sxema, Xaydegger ijodining boshqa namunalari kabi, u ilmiy muomalaga kiritgan atamalarning ma'nosi xususida bir qancha savollar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Masalan, «tavajjuh» o'zi nima? YAqindagina falsafiy kategoriyasi aylantirilgan bu nometafizik so'z «mavjudlik», «ob'ektiv borliq» yoki «fizik borliq» tushunchalari qatorida mutlaqo noo'rindak bo'lib tuyuladi. Ammo Xaydegger tavajjuh fenomenini borliqning mazmunini anglab etishga eltuvchi yo'llardan biriga aylantiradi. Xaydegger Yangi davrda faqat psixologik yoki hatto biologik jihatdan talqin qilingan narsalar va hodisalarni metafizik nuqtai nazardan talqin qilishga uringanini eslasak, uning niyati oydinlashgandek bo'ladi. Bu erda mavjudlikka eng avvalo qarshilik ko'rsatish, sub'ektning ichki intilishlari ro'yobga chiqishiga monelik qilishga qodir bo'lgan Yuzaki fenomen sifatida yondashgan Diltey va SHeIerning ta'sirini ham e'tiborga olish lozim. Xaydegger mavjudlikning volyuntaristik konsepsiyasi doirasini kengaytirishga va uni hozirlikning tahlili ruhida o'zgartirishga harakat qiladi. Darhaqiqat, intilish voqelik bilan o'zaro ta'sirga kirishish jarayonida qarshilikka duch keladi, lekin mavjudlik va hozirlikning munosabati qarshilik fenomeni bilangina cheklanmaydi, qarshilik ko'rsatish qobiliyati – mavjudlikning xususiyatlaridan biri. «Mavjudlikni anglash»ning o'zi ham dunyoda borlikning muayyan usulidir.

Xaydegger mavjudlik «narsaning sof mavjudligi» ma'nosida emas, balki borliq usuli sifatidagi mavjudlik ma'nosida tuShuniladigan bo'lsa, mavjudlikning moduslari sifatida qo'l ostidalik va hozirlik amal qiladi, deb hisoblaydi. Shunday qilib, aynan tavajjuh fenomeni mavjudlikni kategoriya sifatida aniqlash omili hisoblanadi. Demak, Xaydegger borliq sifatidagi mavjudlik reallik yoki substansiyalilik asosida anglab etilishi mumkin emas, degan xulosaga keladi.

Shuni qayd etish lozimki, Xaydeggerning mavjudlik xususidagi mulohazalari mazkur muammoga doir falsafiy bahs-munozaralardan chetda turadi. Bu hol Xaydegger bahslaShuvchi taraflarni engishga muvaffaq bo'lgani bilan emas, balki uning falsafasi aksariyat masalalar va tushunchalar Yuzasidan muloqot uchun zamin yaratmasligi bilan izohlanadi. Fundamental ontologiya yo to'laligicha qabul qilinadi, yo butunlay rad etiladi. Xaydeggerning noortodoksal izdoshlaridan biri J.Derrida uning ruh haqidagi mulohazalarini bir vaqtning o'zida ham aksiomatik, ham aksiologik, ham aksio-poetik deb tavsiflaydi⁶⁵. Xaydeggerning butun falsafasi haqida ham ayni Shu gapni aytish mumkin.

Xaydegger Gusserlning fenomenologik metodini o'zlashtiradi, lekin uni borliq muammolarining tahliliga tatbiq etadi. Hozirgi dunyoda inson borliq haqidagi tasavvurni deyarli yo'qotgan. Hozirgi hayot moddiy narsalarning mavxum, mantiqiy tilida gapiradi, Shu sababli haqiqiy borliqni faqat insonning mavjudligi (Dasein) orqali tasavvur qilish mumkin. Inson hayoti hayotning boshqa shakllaridan butunlay farq qiladi, chunki o'zini o'zi bilish va borliq haqida mulohaza yuritishga qodir. Inson haqiqiy yoki haqiqiy bo'lmagan mavjudlikni tanlashi mumkin.

«Borliq va vaqt» asarida Xaydegger insonning mavjudligini tahlil qiladi va unga borliqning o'zini tushunishga eltuvchi yo'l sifatida yondashadi. Mavjudlikning insoniy usuli biz o'z hayotimizni amalga oshiruvchi ko'p sonli yo'llarni anglatadi. Inson dunyoda mavjud bo'ladi, u bilan to'qnashadi va kundalik mavjudlik sharoitlariga moslashishi va unga ko'nikma hosil qilishi mumkin. Bunday inson o'z mohiyatidan uzoqlashgan va haqiqiy bo'lmagan hayot kechiruvchi «anonim mavjudot» hisoblanadi.

Inson borlig'ining asosiy tavsifi sifatida «tavajjuh» amal qiladi. Inson dunyoga tashlangan, binobarin, unda ishtirok etadi va manfaatdor hisoblanadi. U o'zi haqida va uning bu dunyodagi hayotini belgilovchi barcha narsalar haqida qayg'urishi (ular uchun mas'ul bo'lishi) lozim. Xaydegger fikriga ko'ra, odamzot jamoa hayotining «anonimligi» ortiga yashirinib, erkinlik va mas'uliyatni idrok etishdan doim o'zini olib qochadi. Tavajjuh bilan «bezovtalik» va «qo'rquv» uzviy bog'liq. Ular inson o'zini o'zi tanlashi mumkinligini tuShunganida namoyon bo'ladi.

Inson mavjudligi (Dasein)ning mohiyati sifatida ekzistensiya – ochiqlik, o'zgacha narsalarga intilish amal qiladi. U yo'qlikka (o'limga) intiladi va o'zining betakrorligini dahshat orqali anglab etadi. Inson aynan borliqning mantiqsizligidan dahshatga tushish orqali o'zining haqiqiy borlig'ini tushunib etadi. Hamonki inson o'zini o'lim dahshati orqali anglab etar ekan, muvaqqatlik inson mavjudligining bosh xossalariidan biri hisoblanadi. Mavjudlikning muvaqqat tuzilishi o'zlikni anglash va harakatning bosh omilidir.

Xaydegger o'z ijodiy faoliyatining so'nggi bosqichida til hamda texnika ekspansiyasi natijasida hozirgi zamon inqirozi mavzulariga qo'l uradi. U texnikaga Yangi Evropa tarixini harakatlantiruvchi kuch sifatida qaraydi. Texnika mavjudlikni unga o'z hukmini o'tkazish uchun predmetga aylantiradi. Bu oxir-oqibat Shunga olib keladiki, insonning o'zi ham texnikaga qaram bo'lib qoladi, predmetga aylanadi.

Xaydeggerning falsafiy g'oyalari ko'pgina mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan. Bu mutafakkirlar orasida Xaydeggerning izdoshlari ham (Gadamer), uni tanqid qiluvchilar ham bor. Mavjudlik tahlili metafizikani borliqni uni moddiylashtirish, ko'lamlashtirish orqali anglab etish sifatida rad etadi. Metafizik fikrlash uslubining tanqidi zamirida uni fikrlash erkinligidan voz kechish sifatida tasavvur qilish yotadi. Metafizik fikrlash uslubining tanqidchilari uni mazkur fikrlash uslubining zamirida borliqni anglab etish, uning mazmun va mohiyatini tushunish mumkin emas, degan g'oya yotganligi uchun tanqid qiladilar. Metafizika zamirida yotuvchi optik metafora bizni borliqqa Yuzaki fenomen sifatida yondashishga majbur qiladi. Bunda borliq narsa sifatida

⁶⁵ Каранг: Derrida J. Of Spirit: Heidegger and the Question. The University of Chicagopress, 1989. – 14-6.

tuShuniladi, uni anglab etish esa uning xossalari, muhim belgilari va Shu kabilarni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Amalda borliq ko‘lamli ob‘ektga aylanadi. Ammo borliq narsa emas. Xaydegger ilmiy tadqiqotning odatdagi tartib-taomillariga qarshi chiqadi, u muayyan masalani qo‘yishda uning mazmunini teran anglab etish lozim, deb hisoblaydi. Muloqotni imitatsiya qilar ekan, tadqiqotchi o‘z suhbatdoshi inson, boz ustiga bilimdon inson emasligini unutmasligi kerak. Javobni savol bergan odamning o‘zi izlashi lozim.

Xaydegger vaqtni anglab etish tajribasi yordamida borliqni anglab etishni taklif qiladi. Bunda Yuzaki tasavvur o‘rniga ichki kechinma birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Birinchi holda inson, uning ongi so‘zlaydi va amal qiladi. Ikkinchi holda esa – dunyoning o‘zi so‘zlaydi va amal qiladi, narsalarning o‘zlari qarshimizda gavdalanadi. Inson ongi, uning o‘zi kabi, dunyoning teran qatlamlaridan o‘rin olgan. Ammo ongda oqilona asosning rivojlanishi bilan u o‘zi yaratgan stixiyaga qaram bo‘lib qolgan. Agar inson boy berilgan dunyo bilan uyg‘unlikni tiklay olsa, u yana borliq ovozi eshitadi. Bu ovozi «borliq uyi» bo‘lgan til orqali eshitish mumkin.

M.Xaydegger «fundamental ontologiyasi»ning o‘ziga xos xususiyati Shundan iboratki, unda falsafa va fan bir-biriga qarshi qo‘yiladi. Xaydegger o‘zining borliq va mavjudlik haqidagi ta’limotida nafaqat hozirgi zamon tabiatShunosligi ma’lumotlariga tayanishga harakat qilmaydi, balki Yangi Evropa fani loyhasini bu narsalarni anglab etishga ojiz deb hisoblaydi. U «nusxa ko‘chiruvchi fikrlash uslubi»ning epistemologik imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni qattiq tanqid qiladi, ilmiy faoliyatni borliqning asl haqiqatini aniqlash yo‘lidagi izlanishlar bilan birga amalga oshirish mumkin emas, deb hisoblaydi.

Xaydegger falsafaning Platonga qadar bo‘lgan holatiga qaytishga, falsafa kategoriyalari tizimini va umuman falsafiy mushohada yuritish tamoyillarini qaytadan va o‘zgacha asoslarda shakllantirishga umid qiladi. Xaydeggerning odatdagi tilga, u orqali esa – arxaik tilga murojaat etgani ayni Shu hol bilan izohlanadi. Xaydegger aynan arxaik tilda o‘zga obrazlar va ma’nolarni aniqlashga va Shu tariqa borliqni, mavjudlikni anglab etishning Yangicha yo‘llarini topishga umid qiladi.

Borliqning mazmuni to‘g‘risidagi masala: borliq va vaqtning aloqasi. Borliqning mazmuni to‘g‘risidagi masala vaqtni anglab etish muammosi bilan uzviy bog‘liq. «Borliq tushunchasi eng mavhum tushuncha bo‘lsa kerak», deb yozadi Xaydegger. Borliq tushunchasi Evropa falsafasini yaratibgina qolmaydi, mazkur atamaning intellektual tarixi falsafa tarixi bilan tengdoshdir, u bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar mazmunining xususiyatlari falsafa va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar mohiyatini ko‘p jihatdan belgilaydi. Faylasuflar o‘z bilimining «mag‘zi»ni «oddiy odamlar»ga odatda borliq haqidagi fikr yoki fikrlar majmui yordamida etkazishga harakat qiladilar. Bunday fikrlardan Koinot tamoyillari va qonunlari, narsalar tabiati haqidagi, yaxshilik va yomonlik, maqsadlar va qadriyatlar, o‘tmish, hozirgi zamon va kelajak haqidagi ta’limotlar kelib chiqadi.

Ayni Shu sababli faylasuflar borliqning xossalari va munosabatlari xususida bahslashadilar. Borliq birlamchi, borliq oldindan belgilanmagan, borliq yaratadi, borliq abadiy, mukammal va o‘zgarmas, borliq yagona, qo‘shaloq yoki ko‘p sonli. Borliq nimaga qarshi turadi: yo‘qlik, shakllanish va onggami? U moddiy yoki idealmi? Bir so‘z bilan aytganda, borliq o‘z-o‘zidan ravshan tushunchadir. Faqat borliqning xossalari va munosabatlari ko‘rsatilgan borliq nazariyasini yaratish talab etiladi. Borliq haqida hamma narsani bilsak, dunyo, inson, o‘tmish va kelajak haqida ham hamma narsadan xabar topamiz.

Borliqning mazmun va mohiyati nimada, degan savolga javob topish Xaydegger uchun juda muhimdir. «Borliq nima?», deb so‘rasak, u mazkur «nima»ning mazmuni bizga ma’lum, deb hisoblaydi. Parmenid ta’biri bilan aytganda, borliq bor va bo‘lmasligi mumkin emas. Demak, borliq bor va faqat uning qandayligini aniqlash talab etiladi. Xuddi Shuningdek, «quyon nima», degan savol ham quyonning borligini nazarda tutadi va uning jinsini aytish, belgilarini sanab o‘tish, balki u yashaydigan muhitni ko‘rsatish va tavsiflash talab etiladi. Quyon – sut emizuvchi o‘txo‘r hayvon, kemiruvchilar oilasiga kiradi, uzun quloqlari bor va sh.k. «Quyon» so‘zi bilan biz ko‘rish, suratini chizish, tavsiflash mumkin bo‘lgan predmetni ataymiz. Bu so‘z bilan biz bitta predmetni emas, balki mazkur turga mansub bo‘lgan ko‘p sonli predmetlarni ataymiz. Ammo borliq quyon emas va

umuman, u hech qanday narsa emas. Xuddi sezgilar, fikrlar, tushunchalarni ko'rish, suratini chizish yoki tavsiflash mumkin bo'lmaganidek borliqni ko'rish ham, tavsiflash ham, suratini chizish ham mumkin emas. Sezgilarni his etish, fikrlarni ta'riflash, tushunchalarning mazmuniga tavsif berish mumkin. Ammo borliq sanab o'tilgan fenomenlarning birortasiga mansub bo'lsa, u qanday qilib hamma narsaning avvalida turishi, hamma narsaning asosi bo'lishi mumkin.

Falsafa fikrlashning Yangicha uslubini kashf etdi. Bu fikrlash uslubi yordamida biz aslida narsa bo'lmagan fenomenlarga ham narsa sifatida yondashishimiz mumkin. Masalan, narsalarning xossalari, narsalar o'rtasidagi munosabatlar. So'ngra fikrlar, sezgilar, so'zlar, nomlar, qilmishlar. Nihoyat, mazmunning o'zi. Mazmunni o'rganish bilan XX asrda pragmatistlar, fenomenologlar, neopozitivistlar Shug'ullandilar. Natijada pragmatistlar semiotikani, fenomenologlar – hermenevtikani, neopozitivistlar esa – tilning mantiqiy tahlili va harakatning lingvistik tahlilini yaratdilar. Ammo bu yondashuvlarning barchasi aslida nomoddiyini moddiylashtirishga tayanadi. So'zlar, fikrlar, sezgilar va qilmishlar tahlil predmetiga aylanishi uchun o'ziga xos narsalarga aylantiriladi. Qadimgi tahlilning maxsus vositasi – mantiq ularni teng huquqli tushunchalar sifatida birlashtiradi, faqat «yakka – umumiy» va «mavhum – konkret» yo'nalishlari bo'yichagina ularni ajratadi.

Oradan Yuz yilliklar o'tdi va faylasuflar falsafiy tushunchalarning mazmunini go'yoki ularning moddiy tabiatiga hech kim Shubha qilmagandek muhokama qila boshladilar. Platonning mazkur g'aroyib mohiyatlar mavjud bo'lgan alohida dunyo haqidagi fantastik ta'limotiga ehtiyoj qolmadi. Bu ta'limotsiz ham eng teran aql egalari zamirida borliqqa o'xshash «kuzatilmaydigan mohiyatlar» yotuvchi nazariy tizimlarni yaratish bilan Shug'ullana boshladilar. Faylasuflar borliq nimaga o'xshashi va uning tabiati qandayligi xususida bahsga kirishdilar. Ayrimlar borliq moddiy va idealga bo'linadi, degan fikrni ilgari suradilar, ayrimlar uni faqat ideal, ma'naviy yoki ilohiy fenomen sifatida tasavvur qiladilar, yana bir guruh faylasuflar borliqning yagonaligi to'g'risidagi masalani kun tartibiga qo'yadilar. Xaydegger buni g'arb metafizikasi deb nomladi va unga Parmenid yashagan zamondan boshlab Kant va Gegel zamonigacha bo'lgan davrdagi barcha falsafiy ta'limotlarni kiritdi. Ulardan farqli o'laroq Xaydegger borliq haqida boshqa tilda so'zladi: u so'zning yoki harakatning mazmuni haqida qanday so'rasalar, borliqning mazmuni haqida ham Shunday so'radi.

Xaydeggerning javobi – bu borliqning mazmuni nimada, degan savolga javob emas, balki savolning mazmuniga oydinlik kiritishdir. Borliq haqida Shunday bir tilda gapira boshlashdiki, u mazmunning tagiga etish imkoniyatini bermaydi, deb hisoblaydi Xaydegger va bu fikrda u yaratgan ta'limotning fenomenologik ildizlari ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi.

Borliq mohiyatini tushunib etishda eng Yangi qarashning o'zagini insonning ijtimoiy ijodi tashkil etadi. Bunda borliq hayot faoliyati jarayoni sifatida tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining sur'atlari tobora jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda mazkur dunyoqarash ko'pincha texnokratik dunyoqarash deb ataladi.

XX asrda Borliq– dunyo miqyosidagi tartibsizlik, absurd va intiho asri - bunyod etgan Yangi postmodernistik shaklini e'lon qilgan postmodern instinkt, boshboshdoqlik, va yurish-turishlarning rang-barangligi, spontanlik hamda tartibsizlik tomon Yuz tutgan. San'at va borliq orasidagi masofa tobora qisqarib, mutlaqo yo'qolish darajasiga yaqinlashgan. Ko'chadagi narsalar badiiy asarlar ahamiyatini kasb etgan. Postmodern hayotdagi haqiqiy qarama-qarshiliklardan kelib chiqishga harakat qilib, borliqdan «nusxa» ko'chirgan va «o'z tartibi»ni taklif qilgan. Odatdagi narsalarning oddiy bog'lanishlarini neytrallashtirib, ularni obrazli-badiiy dunyoqarash maqomiga da'vogar bo'lgan Yangi ma'nolar tizimiga kiritishga intilish ijodning mohiyatiga aylangan.

Borliq haqidagi o'ta keng, falsafiy tasavvurlar dunyoning yaxlit tabiiy-ilmiy manzarasini yaratishga harakat qilayotgan hozirgi zamon fanining xulosalari va qoidalariga asoslanishi lozim. Ammo ayrim fanlardan iborat fan o'z holicha borliqning umumiy talqinini bermaydi, zero bu vazifa avvalo falsafiy darajada hal qilinadi.

Borliq shakllari. Inson barcha jonli narsalar jonsiz narsalardan butunlay farq qilishiga qadimdayoq e'tibor bergan, lekin buni ancha keyin tushunib etgan. Jonli narsalar dunyosida inson alohida o'rin egallaydi. U barcha jonli narsalardan butunlay farq qiladi. Insonning bu asosiy farqi

uning ongida, ideal obrazlar bilan ish ko'rish, ya'ni mavxum fikrlash va o'zini fikrlovchi jonzot sifatida anglash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, borliqning umumiy manzarasini yaratish zaminidan notirik tabiat o'rin oladigan o'ziga xos piramida hosil bo'ladi. *Borliqning shakllari notirik tabiat, tirik tabiat, ijtimoiy borliq va inson borlig'i kabilardir.* So'nggi yillarda virtual borliq shakli haqida fikr yuritilmoqda. Borliqning bu umumiy shakllari o'ziga xos xususiyatga, o'zining betakror mohiyatiga egadir. Borliqning turli shakllarini jonsiz tabiatdan boshlab mufassalroq ko'rib chiqamiz, zero u hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan jonli va ijtimoiy tabiatning negizi hisoblanadi.

Tabiat borlig'i birlamchi (ya'ni inson va uning faoliyatidan qat'i nazar mavjud bo'lgan narsalar va jarayonlar borlig'i) va ikkilamchi (yoki odamlar tomonidan yaratilgan narsalar va jarayonlar borlig'i) tabiat borlig'iga bo'linadi. Birlamchi tabiat notirik tabiat narsalari va jarayonlarining borlig'i – butun tabiiy va sun'iy dunyo, Shuningdek tabiatning barcha holatlari va hodisalari (yulduzlar, sayyoralar, er, suv, havo, binolar, mashinalar, aks sado, kamalak, ko'zgudagi aks va sh.k.)dir. Birlamchi tabiat borlig'i ikki darajani o'z ichiga oladi.

Birlamchi daraja jonli ruhsiz jismlardan, ya'ni ko'payish qobiliyatiga ega bo'lgan, atrof muhit bilan moddalar va energiya almashinuvini amalga oshiradigan, lekin ongga ega bo'lmagan barcha narsalar, ya'ni sayyoramiz hayvonot va o'simliklar dunyosini o'z ichiga olgan butun biosferadan iborat.

Ikkilamchi daraja – bu inson va inson ongining borlig'i bo'lib, bu inson yaratgan yoki o'zgartirgan tabiatdir. Tabiat makon va vaqtda cheksiz hamda abadiydir. Ikkilamchi yoki inson tomonidan yaratilgan tabiat birinchi tabiatga bog'liq. Bir tomondan, ikkilamchi tabiatda birlamchi tabiat materiali, boshqacha aytganda ob'ektiv birlamchi borliq mujassamlashgan, boshqa tomondan esa – unda insonning mehnati, irodasi va bilimlari, uning qalbi o'z ifodasini topgan. Ikkilamchi tabiat – bu mehnat qurollari va sharoitlari, aloqa vositalari, inson ruhining ehtiyojlari, ma'rifatli borliq, moddiy va ma'naviy madaniyatni belgilovchi barcha narsalar va jarayonlardir.

Inson borlig'ining tahlilida uning tabiatning bir qismi sifatida jismoniy mavjudligini va alohida inson borlig'ini farqlash o'rinli bo'ladi.

Inson tabiatning bir qismi hisoblanadi va Shu ma'noda uning qonunlariga bo'ysunadi. Tananing mavjudligi inson o'limga mahkum ekanligini belgilaydi. Inson borliq va yo'qlik dialektikasi bilan bog'lanadi, barcha tabiat jismlari kabi vujudga kelish, shakllanish va halok bo'lish holatlaridan o'tadi. Barcha tabiat jismlari kabi, inson tanasiga ham modda va energiyaning saqlanish qonunlari o'z ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni uning tarkibiy qismlari tabiatning boshqa holatlariga o'tadi. Inson tanasi mavjud bo'lishi uchun uni muttasil quvvatlash (ovqatlanish, sovuqdan va boshqa xavf-xatarlardan saqlash) talab etiladi. Fikrlash uchun inson tanasining tirikligini ta'minlash zarur. Bundan hayotni saqlash, insonning o'z-o'zini saqlashi va insoniyatning yashovchanligini ta'minlash zaruriyati kelib chiqadi, bu oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar joy, sof atrof muhitga ega bo'lish ehtiyojida o'z ifodasini topadi;

Ma'naviy borliq sub'ektiv individuallashgan va ob'ektiv (noindividual) ma'naviy borliq sifatida mavjud. Individuallashgan ma'naviy borliq - bu insonning ichki dunyosi, u onglilik va ongsizlikni qamrab oladi. Bunday yondashuvga ko'ra, ruh – individual ong bilan ayniy tushuncha, tor ma'noda esa u tafakkurdir. Ong – inson bosh miyasining dunyo borlig'ini izchil aks ettirish, uni obrazlar va tushunchalarga aylantirish qobiliyati. U taassurotlar, sezgilar, kechinmalar, fikrlar, Shuningdek g'oyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar, mo'ljallar, andozalarning ko'rinmas jarayoni sifatida mavjud. Ong tez oqadigan va bir xil bo'lmagan orqaga qaytmaydigan xususiyatga ega. SHaklan bu jarayon tartibsiz, lekin Shu bilan bir vaqtda unda muayyan tartib, barqarorlik, struktura, muayyan darajada intizom va iroda mavjud.

Inson ongi ayni vaqtda uning o'z-o'zini anglashi, ya'ni o'z tanasi, fikrlari va tuyg'ularini, o'zining boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini va o'zining jamiyatdagi o'rnini anglab etishi, ya'ni o'zini o'zi bilishdir. O'zlikni anglash – bu ongimizning o'ziga xos asosidir.

Individual ong o'zining o'limga mahkumligi bilan tavsiflanadi, lekin uning ayrim qismlari noindividual ma'naviy shakl-shamoyil kasb etadi, Shuningdek boshqa kishilar mulkiga aylanadi. Xatti-harakatlarda inson ongining fragmentlari moddiylashadi, ularga qarab odamlarning niyatlari,

mo'ljallari, maqsadlari, g'oyalari haqida xulosa chiqariladi. Noindividual ma'naviy borliqning o'ziga xos xususiyati Shundaki, uning elementlari saqlanadi, takomillashadi va ijtimoiy makon va vaqtda erkin harakatlanadi;

Ijtimoiy borliq ayrim insonning jamiyatdagi borlig'i va jamiyatning borlig'iga bo'linadi. Har bir inson boshqa odamlar bilan muttasil aloqa qiladi, turli ijtimoiy guruhlar: oila, ishlab chiqarish jamoasi, millatning a'zosi hisoblanadi. U boshqa individlar bilan yaqin aloqa qilib yashaydi. Odamlarning barcha faoliyati mazkur sotsiumga xos bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, chunonchi: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy va boshqa munosabatlar doirasida amalga oshiriladi.

Virtual borliq texnologiyasi zahirida birinchi marta XX asr 60-yillarining o'rtalarida paydo bo'lgan kompyuterlar yordamida dunyolar modelini yaratish mumkin, degan g'oya yotadi. Virtual (lotincha Virtualis – mumkin bo'lgan) – narsalar va hodisalarning vaqt va makonda moddiy mavjudligiga qarama-qarshi o'laroq, ob'ektiv narsalar yoki sub'ektiv obrazlar mavjudligining nomoddiy turi.

«Virtual borliq» atamasi 1970 yillarning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jeron Lener tomonidan o'ylab topilgan. U 1984 yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g'oyasini ifoda etadi. «Virtual borliq» atamasi muomalaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko'ra tabiiy yo'l bilan amalga oshirib bo'lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik shaklda sun'iy amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani Shu nom bilan chiqarganlar.

Virtual borliq - inson real borliqda harakat qilayotgani illYuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya. Bunda ob'ektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o'rnini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun'iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi. Virtual borliq amalda yo'q narsa, uni qo'l bilan tutish, uning ta'mi va hidini his qilish mumkin emas. Shunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega bo'ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o'zgartira oladi. *Virtual olam – inson borlig'ining o'ziga xos shakli va odamlar ma'naviy aloqasining alohida madaniy ifodasidir.*

Ammo virtual borliq real fizik borliqdek lazzat baxsh eta olmaydi, chunki bu borliq ta'sirida vujudga keluvchi his-tuyg'ular ko'p jihatdan uning o'zi bilan emas, balki uni biz qanday idrok etishimiz bilan belgilanadi. Biz virtual dengizda cho'milishimiz mumkin, ammo bunda paydo bo'luvchi his-tuyg'ularimiz bu dengizni biz qanday idrok etishimizga bog'liq bo'ladi. Virtual tarvuz haqiqiy tarvuzdan shirin emas, virtual kolbasa haqiqiy kolbasa o'rnini bosa olmaydi va h.k.

Virtual borliqni odamlar yaratadi. Shu bois virtual borliqda mavjud barcha narsalarning manbai inson ongidir. Binobarin, virtual borliq ong, ong osti sohasi va fantaziya chig'irig'idan o'tuvchi fizik borliqdan shakllanadi. Virtual borliq ob'ektiv tarzda, ya'ni inson miyasida emas, balki kompyuterda mavjud bo'ladi. Ayni vaqtda, u inson ongining mahsulidir. Inson tomonidan yaratilganidan keyin u inson ongidan qat'iy nazar yashashda davom etadi, bu ongga har xil ta'sir ko'rsatadi, mazkur ongning mazmuniga – bilimlar, emotsiyalar, kayfiyat hamda ongning boshqa unsurlariga qarab, har xil idrok etiladi.

Bugungi kunda virtual borliq inson madaniy faoliyatining turli sohalarida qo'llanilmoqda. Virtual borliqdan eng avvalo u vujudga kelgan sohada, fanda – fizikada suyuqlik va gazlar dinamikasini modellashtirishda, kimyoda kimyoviy reaksiyalar modelini tuzishda, geologiya va geografiya fanlarida foydalanilmoqda.

Muhandislik sohasida, ayniqsa, xavfli sharoitlarda: ochiq kosmosda, dengiz va okeanlarning chuqur joylarida, yadro muhandisligida robotlarni masofadan turib boshqarishda virtual borliq keng qo'llanilmoqda. Muhandislik dizaynini avtomatlashtirish jarayonida virtual borliq texnologiyasi ayniqsa qo'l kelmoqda. Kompyuter dizayni va uning ajralmas hamrohi – kompyuter ishlab chiqarishi raketalar va samolyotlar, avtomobillar katta binolar konstruksiyalarini sinovdan o'tkazishda yagona jarayonga birlashtirildi.

Virtual borliq texnologiyasidan harbiylar ham keng foydalanmoqdalar. Masalan, AQSH armiyasida harbiy xizmatchilarda merganlik ko'nikmalarini shakllantirishda imitatorlardan, jang

sharoitida tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish uchun esa harbiy doktorlardan foydalaniladi. Juda qimmatga tushadigan va atrof muhitga katta zarar etkazadigan harbiy mashqlar imitatsiya qilinmoqda. Tank qismlarida tankdan o'q uzishni hamda tank jangida askarlar va ofitserlarning shaxsiy ishtirokini imitatsiya qiluvchi harbiy o'yinlardan foydalanilmoqda. Loyihalashtirilgan, lekin hali yasalmagan qurol-aslaha turlari sinovdan o'tkazilmoqda. Harbiylar olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va ularga baho berish uchun ham kompyuter imitatsiyasidan foydalanmoqdalar.

Ta'lim sohasida mashq trenajyorlarini yaratishda virtual borliq texnologiyasidan foydalanilmoqda. YAqinda virtual kutubxonalar va muzeylar tashkil etish konsepsiyasi taklif qilindi. Masalan, virtual kutubxonalarda foydalanuvchi kompyuter yordamida kitob javonlarining vizual tasviri bo'ylab harakatlanishi, kerakli adabiyotlarni topishi va olib ko'zdan kechirishi, zarur holda esa ulardan nusxa ko'chirishi mumkin.

Virtual muzey konsepsiyasi bir qadar boshqacha. Virtual muzey foydalanuvchilarga kolleksiyadagi istalgan eksponatni uning tabiiy, uch o'lchovli ko'rinishida ko'rish imkonini beradi. Ammo bu tasviriy echish qobiliyati ancha yuqori bo'lgan displeylarni taqozo etadi.

Shunday qilib, virtual borliq nazariy izlanishlardan ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalar ajralmas qismi bo'lgan hozirgi zamon madaniyatining tarkibiy qismiga aylandi.

Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga intilish bizga rivojlangan jamiyatlarda tobora katta rol o'ynayotgan Yangi tajribaning cheksiz imkoniyatlarini qo'lga kiritish imkonini beradi, degan umid bilan bog'liqdir. *Virtual borliq tizimlari bu tajribadan va insonning «Yangi o'ziga xos xususiyati»dan foydalanish imkonini amalda ta'minlaydi.* Inson faqat o'z tasavvuri bilan cheklanadigan sun'iy tarzda yaratiluvchi virtual olamlar orasida yashay boshlaydi. Bunday dunyoni yaratish mumkinmi? Biz o'zimizda kiborglarni kashf etamizmi yoki faqat ongning kompyuterlar modellashtiruvchi muhit doirasidagi hozircha ifodalash mumkin bo'lmagan holatlarining tajribasini - buni kelajak ko'rsatadi.

Bu yaqinlashayotgan va kompyuter ekranlari yorug'i bilan o'ziga chorlayotgan holatlarni qanday baholash hamda tavsiflash mumkin? Hozirgi zamon odamining haqiqiy bo'lmagan, g'ayriinsoniy zombi holatidagi mavjudligi borliqni inkor etish demakdir. U shaklan boshqacha borliq, mazmunan esa yo'qlik sifatida amal qiladi.

Borliqning yuqorida sanab o'tilgan turli shakllari bugungi kunda fanga aniq ma'lum bo'lgan, kuzatish, o'rganish, tahlil, nazorat va hokazolar predmeti bo'lishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni o'z ichiga oladi. Ayni vaqtda dunyo fan va inson aqli anglab etmagan jumboqlar va mo'jizalarga to'ladir. Ammo bu hol borliq haqidagi hozirgi tasavvurlar o'z kuchini yo'qotadigan qandaydir o'zga dunyolar mavjudligidan dalolat beradi, deb aytilish uchun etarli asoslar mavjud emas.

Xullas, «borliq» kategoriyasi o'ta umumiy falsafiy abstraksiya bo'lib, u turli-tuman tabiat hodisalari va jarayonlarini, odamlar jamoalari va ayrim kishilarni, ijtimoiy institutlarni, inson ongining darajalari, shakllari va holatlarini mavjudlik belgisiga ko'ra birlashtiradi. Garchi bu hodisalar va jarayonlar borliqning turli sohalariga taalluqli bo'lsa-da, ularning barchasini umumiy asos birlashtiradi. Ammo cheksiz darajada rang-barang dunyoning yagonaligi to'g'risida so'z yuritish mumkinmi? Bu savolga «ha» deb javob berish orqali biz butun borliqning umumiy asosi haqida tasavvur hosil qilamiz. Bu haqda quyida so'z yuritiladi.

Olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Notirik tabiat o'z shakllari va holatlarining sanoqsizligi va rang-barangligi bilan aqlni lol qoldiradi. U turli jismlar, predmetlar, zarralar, gazlar, maydonlar, xossalar, hodisalar ko'rinishida amal qilar ekan, muttasil harakat va o'zgarishlar jarayonini boshdan kechiradi.

Dunyoning paydo bo'lishi va evolyusiyasi haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar so'nggi 400 yil ichida vujudga keldi, galaktikalar va ularning to'dalari, makro va mikro dunyoning hayratomuz rang-barangligi haqida odamlar XX asrdagina xabar topdilar. Olamning cheksiz bo'shlig'i qarshisida bizning dunyo haqidagi tasavvurlarimiz hozir ham dengizdan bir tomchi bo'lib tuyuladi. Lekin, Shunga qaramay, bugungi kunda biz bilgan va tuShungan narsalar butun Olam va uning ayrim qismlari evolyusiyasi va muttasil o'zgaruvchanligi haqida ancha asosli xulosa chiqarish

imkonini beradi. Boshqacha aytganda, dunyo u yoki bu bosqichda ma'lum narsalar vujudga kelib, o'z borlig'ini kasb etadigan va qachondir yo'q bo'ladigan, ya'ni o'zining avvalgi borlig'ini yo'qotib, modda va energiyaning saqlanish qonuniga binoan boshqa narsaga aylanadigan muttasil davom etuvchi jarayondir.

Notirik tabiatning hozirda mavjud bo'lgan butun rang-barangligi o'z asosiga ega, ya'ni u qachondir vujudga kelgan. Bu fikrni kengayib borayotgan Olam haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar ham tasdiqlaydi. Biroq, olimlar fikriga ko'ra, biz yashayotgan Olam tarixi boshlanishiga asos bo'lgan Katta portlash nazariyasi dunyoning mohiyati va uning tuzilishi xususida Yangi va Yangi masalalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Tabiiy fanlarning ma'lumotlari taxminan 15 milliard yil muqaddam *ayrim osmon jismlari mavjud bo'lmagani, bizning Olam deyarli bir jinsli kengayib borayotgan plazmadan tashkil topganidan dalolat beradi*. Endilikda bir-biridan uzoqlashayotgan galaktikalar tarkibiga kiruvchi yulduzlar, sayyoralar, asteroidlar va boshqa ko'plab kosmik jismlar mavjud bo'lib, bu galaktikalarning to'dalarida vaqti-vaqti bilan fanga ma'lum bo'lmagan sabablarga ko'ra ulkan tadrijiy va inqilobiy o'zgarishlar Yuz beradi.

Er tarixi. Ilmiy tasavvurlarga ko'ra biz yashayotgan sayyora taxminan 4,5 milliard yil muqaddam Quyosh tizimsida sochilib yotgan gazsimon-changsimon moddadan paydo bo'lgan, muayyan moddiy jism sifatida o'z borlig'ini kasb etgan, oradan yana bir milliard yilcha vaqt o'tgach, Erning geologik tarixi boshlangan. Hozirgi zamon fani aniqlagan eng qadimgi tog' jinslarining yoshi Shundan dalolat beradi. Shunday qilib, Er jonsiz tabiatining moddiy dunyosi o'zining aniq geologik yil hisobiga ega va uning borlig'i sayyoramizning umumiy evolyusion jarayonlari bilan bog'liq. Erning tabiiy kosmik jism sifatidagi evolyusiyasini esa nafaqat tog' jinslari yoki qit'alar tarixi, balki minerallar, foydali qazilmalar, keyinroq esa – oliy shakllar darajasigacha rivojlangan jonli mavjudodlarning paydo bo'lishi ham tasdiqlaydi.

Insonning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Inson faol asos sifatida o'z shakllanish jarayonining ilk bosqichlaridanoq o'zini qurshagan muhitga o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsata boshladi. Arxeologik qazishlarning natijalari va antropologik tadqiqotlar «aqli odam» mehnat qurollari yasab, nafaqat tabiat va uning predmetlaridan foydalangan, balki uni o'z manfaatlari yo'lida o'zgartirishga harakat qilganligi 2-4 million yil muqaddam Yuz berganini ko'rsatadi. Inson o'zini qurshagan dunyoga bungacha tabiatda mavjud bo'lmagan predmetlarni olib kira boshladi. Avvaliga bu mehnat, ro'zg'or va turar joy predmetlari edi. So'ngra ariqlar, to'g'onlar, binolar, inshootlar va inson faoliyatining Shunga o'xshash natijalari paydo bo'ldi.

Endilikda, uchinchi ming yillikda inson butun sayyora bo'ylab joylashib, o'zining o'zgartiruvchi imkoniyatlarini ko'p karra ko'paytirib, tabiatda ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan Yangi narsalar va hodisalarning katta bir dunyosini yaratdi. U shiddat bilan, shaharlar va aholi yashaydigan joylar, sanoat korxonalari va texnik qurilmalar, yo'llar, mashinalar, aerodromlar va Shu kabilardan iborat infratuzilma tarmog'ini yaratib, Erning tabiiy shakl-shamoyilini tanib bo'lmaydigan darajada o'zgartirdi. Bularning barchasi ham jonsiz tabiatdir, ammo inson tomonidan yaratilgani bois, u tabiiy emas, balki sun'iy xususiyat kasb etadi. Shu bois, u tadrijiy rivojlanadigan, insonning xohish-istagi va aralaShuvidan qat'iy nazar mavjud bo'lgan «birlamchi» tabiatdan farqli o'laroq, «ikkilamchi tabiat» sifatida talqin qilinadi.

Inson yaratgan narsalar borlig'i ko'p jihatdan insonning o'z borlig'i bilan bog'lanadi, zero u bunyod etgan «ikkilamchi tabiat» avvalo uning turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Shu sababli «ikkilamchi tabiat»ning aksariyat predmetlari borlig'i odamzot borlig'i kabi o'tkinchidir. Umuminsoniy ahamiyat kasb etadigan muhim asarlar, odamlarning ko'plab avlodlari uchun qimmatli bo'lgan moddiy madaniyat mahsullarigina o'z borlig'ini ma'lum darajada uzaytirish imkoniyatiga egadir.

Ammo tarix «birlamchi tabiat»ga xos bo'lgan vayronkor jarayonlar parchalanish, emirilish, oksidlanish va sh.k., Shuningdek tez-tez takrorlanib turadigan tabiiy ofatlar va ijtimoiy tangliklar bu oz sonli imkoniyatni yanada kamaytiradi. Shunga qaramay insonning Yangi narsalar yaratish jarayoni ularning yo'q bo'lish jarayonidan ildamroq kechmoqda. Shuningdek, kuni bitgan eski narsalar o'zining avvalgi borlig'ini yo'qotib, asosan chiqindi, axlatga va tabiiy muhitga yot bo'lgan o'zga lash-lushlarga aylanadi.

Pirovardda sun'iy muhit tinimsiz Yangilanib, hajman ko'payadi va kengayadi, tabiiy muhitni chetga chiqarib, uning o'rnini egallay boshlaydi. Erda odamlar soni o'sgani sari bu jarayon tobora faollashib boradi.

Ammo Er, ayniqsa uning inson yashashi uchun yaroqli hududlari sayyoraning olti milliarddan ortiq aholisi uchun torlik qilmoqda. Holbuki, ko'rsatilgan vaziyatga qaramay, Er aholisi soni jadal sur'atlarda o'sishda davom etmoqda. Bu nomutanosiblik so'nggi vaqtda «birlamchi» va o'ta kattalashgan «ikklamchi» tabiat o'rtasida Yuzaga kelgan ziddiyatni yanada kuchaytirmoqda.

Tirik tabiat yoki hayotning paydo bo'lishi. Tirik tabiat borlig'i hayot bilan bevosita aloqada qaralishi lozim. Jonli mavjudot uchun bo'lish – yashash, bo'lmaslik – hayotdan mahrum bo'lish, o'lish, ya'ni jonli organizm sifatida boshqa mavjud bo'lmaslik demakdir. Erda hayotning paydo bo'lishi muammosi doimo insonning diqqat markazida bo'lgan va odamzot uchun ulkan jumboqlardan biri bo'lib qolgan. U mazkur jumboqning tagiga etish uchun barcha zamonlarda o'z aqli va tasavvuri kuchidan to'la foydalangan. Ammo insonning tadqiqotchilik imkoniyatlari behad oshgan, biologiya fanlari esa o'z rivojlanishida ancha olg'a siljigan bugungi kunda ham bu muammo o'zining to'la echimini topgan deb aytish mushkul. Ayni Shu sababli jonli modda jonsiz moddadan evolyusiya yo'l bilan paydo bo'lgani haqidagi ilmiy tasavvurlar bilan bir qatorda hayot kelib chiqishining o'z ildizlari bilan tarixga, xususan falsafa tarixiga bog'lanadigan turli nazariyalar ham amal qilishda davom etmoqda.

Ibtidoiy jamoa davridayoq odamlar hayotni har xil ruhlar, jonlarning mavjudligi bilan tushuntirishga harakat qilganlar. Ularning fikricha, bunday ruhlar va jonlarga nafaqat odamlar, balki hayvonlar, Shuningdek atrof borliqning barcha narsalari va hodisalari ham ega bo'lgan. Tegishli e'tiqodlar animizm degan nom olgan (bu haqda birinchi mavzuda to'liq ma'lumot berilgan).

Aristotel (mil. av. 384-322 yillar) asarlarida, keyinchalik o'rta asr sxolastikasida va Leybnits (1646-1716) asarlarida faol asos, harakatlantiruvchi kuch sifatida talqin qilinadigan «entelexiya» (yunon. entelechia – o'z-o'zida maqsadga ega bo'lgan) atamasiga duch kelamiz. *Jonli moddaning mavjudligini va uning jonsiz moddadan farqini butun tiriklik zamirida yotuvchi qandaydir jimsiz, irratsional sabab, «hayot kuchi» mavjudligini tan olish orqali tushuntiradigan falsafiy ta'limot – vitalizm (lot. vitalis – jonli) zamirida ayni Shu tushuncha yotadi.* Hayot paydo bo'lishining ilohiy asoslari, «hayot hujayralari» Erga kosmosdan kelgani, go'yoki Erda tajriba o'tkazayotgan o'zga sayyoralik kelgindilar va hokazolar haqida juda ko'p har xil g'oyalar ilgari surilgan.

Shu bois, Koinotda bizning sayyoramizdan boshqa joyda ham hayot bormi, degan savol mutlaqo o'rinlidir. Quyosh kabi yulduzlar Koinotda son-sanoqsiz ekanligi, ularning atrofida ham sayyoralar aylanishi mumkinligi haqidagi fikrning o'ziyoq Erdan boshqa joyda ham hayot mavjudligini taxmin qilish uchun asos bo'ladi. Shuningdek, Koinot miqyosida juda kichkina va hozirgi inson o'rganishi uchun imkoniyat mavjud bo'lgan Quyosh tizimsi xususida ham hayotning biron-bir shakllari mavjudligi yoki mavjud emasligini qayd etish uchun etarli axborot hozircha yo'q. Mazkur vazifa faqat mushohada yuritish yo'li bilan hal qilinishi mumkin emas va eksperimental tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi. Inson ilmiy-texnika imkoniyatlarining o'sish sur'atlariga qaraganda, Quyosh tizimsida Erdan boshqa joyda hayot mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasi yaqin kelajakda o'z echimini topsa kerak. Ammo butun koinotga nisbatan (u inson bilishi uchun cheksizligi tufayli) bu masala saqlanib qoladi. Shuningdek, hayot u Erda va faqat Shunday usulda mavjud bo'lishi mumkin, deb aytish uchun biron-bir asos mavjud emas.

Hayotning paydo bo'lishi haqidagi falsafiy optimizm. Hayotning paydo bo'lishi muammosi ustida bosh qotirar ekan, inson ortiqcha optimizm namoyish etishi va o'zining haqiqatning tagiga etish qobiliyatiga haddan ortiq ishonishi ham, muammoning murakkabligi qarshisida o'z ojizligini tan olishi ham mumkin. Bunday sharoitda XX asr boshida Amerika pragmatizmining taniqli namoyandasi Uilyam Jems (1842-1910) ta'riflagan yondashuv o'rinli bo'lsa kerak. Uning ta'biri bilan aytganda, «biz qor bosgan, quyunlar charx urayotgan tog'lar orasida turibmiz. Qarshimizda ba'zan tuman pardasi osha so'qmoqlar namoyon bo'ladi. Ular ishonchsiz bo'lishi mumkin. Lekin biz bu erda harakatsiz turadigan bo'lsak, muzlab qolishimiz ham hech gap emas; bordiyu soxta yo'lni tanlasak, yiqilib o'lishimiz mumkin; biz hatto chin yo'l bor-

yo'qligini ham bilmaymiz. Xo'sh, biz nima qilishimiz kerak? Tushkunlikka tushmasligimiz kerak! Hammasi yaxshi bo'lishiga umid qilib, dadil harakat qilishimiz kerak!»⁶⁶.

Agar biz cheksizlik hamda hal qilinayotgan vazifaning o'ta murakkabligi qarshisida hafsalasizlik va harakatsizlikdan yuqorida zikr etilgan tamoyilni, mistika va ko'r-ko'rona ishonchdan aql dalillari va bilishning ilmiy yo'lini ustun qo'ysak, hayot hodisasini falsafiy anglab etish yo'lidagi birinchi ishimiz, jonli deb nomlash mumkin bo'lgan barcha narsalarning jonsiz narsalardan tubdan farqini aniqlash bo'lishi lozim.

Jonli narsalarning jonsiz narsalarga bog'liqligi. Bugungi kunda biz tushunishga qodir bo'lgan barcha jonli narsalar umumiy holda jonsiz narsalar dunyosi bilan taqqoslaganda dengizdan bir tomchidir. Ammo, jonli narsalar borlig'i to'g'risida so'z yuritganda, u jonsiz narsalar borlig'i bilan uzviy bog'liq ekanligini, uning yuqoriroq bosqichi hisoblanishini qayd etib o'tish lozim.

Jonli narsalar jonsiz (qotib qolgan) tabiat negizida vujudga keladi va yo'qlikka chekinar ekan, ayni Shu qotib qolgan tabiat bag'riga qaytadi. Qadimgi yunon faylasuflari butun tiriklik er, suvdan paydo bo'lgan va ularga qaytib boradi, deganida, ayni Shu aloqani nazarda tutganlar.

Fan, ayniqsa biologiyaning rivojlanishi bilan XIX asr boshlaridan organik dunyo evolyusiyasi haqidagi yaxlit ta'limotlar vujudga keldi. Dastlab J.Lamark (1744-1829), va CH.Darvin (1809-1882) ta'limoti, keyinchalik esa genetika kashfiyotlari, biologiya, kimyo va geologiyaning rivojlanishi jonli narsalar jonsiz narsalardan abiotik (nobiogen, tabiiy) yo'l bilan vujudga kelgan aminokislotalar atrof muhitning muayyan sharoitida birikishi jarayonida tabiiy yo'l bilan Yuzaga kelgan, deb qayd etish uchun zamin hozirladi.

Masalan, CH.Darvin hayotning vujudga kelishi va uning tabiiy tanlanish natijasida tadrijiy rivojlanishi zamirida yotuvchi o'sish, nasl qoldirish, irsiyat, o'zgaruvchanlik, ko'payish progressiyasi, yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish kabi qonunlarni qayd etdi.

Jonli narsalarning o'ziga xos xususiyatlari. Hozirgi ilmiy tasavvurlar har qanday jonli organizmni ochiq tipdagi o'z-o'zini tashkil etuvchi, ya'ni atrof muhit bilan moddalar, energiya va axborot almashinuvini amalga oshiruvchi tizim sifatida tavsiflash imkonini beradi. Jonli narsalarning yana bir o'ziga xos belgisi Shundaki, ular ko'payish qobiliyatiga ega. Barcha jonsiz narsalardan farqli o'laroq, faqat jonli organizmlargina o'ziga o'xshash organizmlarni yaratishi, sirtidan o'sish va hayotni quvvatlash uchun zarur moddalarni olib, o'z faoliyati chiqindilarini atrof muhitga chiqarib, o'sishi, rivojlanishi mumkin. Boshqacha aytganda, jonli organizmlar borlig'i funksionaldir, u jarayon sifatida Yuz beradi, ya'ni muayyan jonli narsa mavjud bo'ladi yoki, u faoliyat ko'rsatayotgani uchun ham unda hayot mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, jonli organizmlar mavjudligi uchun tegishli va mutlaqo muayyan fizik va kimyoviy muhit talab etiladi, zero ularning hayot faoliyati faqat muayyan sharoitda: joiz harorat, havo, namlik, oziq va Shu kabilar mavjud bo'lgan holda Yuz berishi mumkin.

Qayd etilgan omillar aniq va ularni tekshirish mumkin bo'lsa-da, jonli va jonsiz narsalar o'rtasida uzil-kesil chegara o'tkazish oson ish emas. Masalan, virusli zarralar jonli organizm hujayralaridan tashqarida moddalar almashinuvini amalga oshirmaydi, ko'paymaydi va h.k. Bu ayrim olimlar ularni jonli narsalar qatoriga, ayrimlarning esa – jonsiz narsalar dunyosiga kiritishiga asos bo'ladi. CHuqurlikda muzlatilgan taqdirda quritilgan urug'lar yoki o'ta sodda organizmlarda ham yashash jarayonlari nomuayyan vaqtga to'xtaydi, ammo ular avvalgi (normal) sharoitga qaytarilgach, mazkur jarayonlar tiklanadi.

Xulosalar. Borliq bizning mavjudligimiz asosi, notirik, tirik tabiatning yashash usulidir. Borliq yo'qdan bor bo'lmaydi bordan yo'q bo'lmaydi. Dunyodagi barcha narsalar biri ikkinchisining mavjudligini taqozo qiladi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ontologiya nimani o'rganadi?
2. Nima uchun «borliq» falsafaning asosiy kategoriyasi hisoblanadi?

⁶⁶ Джемс У. Зависимость верк от воли. – СП(6):. 1994. –С. 35.

3. Falsafa tarixida borliq muammosiga munosabatlar xilma-xilligini asoslang?
4. Borliqning asosiy shakllari qaysilar?
5. Borliqning turli shakllari o'zaro bog'lanadimi?
6. Virtual borliq nima?

1.4-Mavzu. Olamning universal aloqalari va rivojlanishi. Falsafaning qonun va kategoriyalari.

1. Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyusiyasi
2. Falsafada harakat, o'zgarish, ziddiyat, qarama – karshilik, rivojlanish va taraqqiyot tushunchalarining mohiyati.
3. Qonun va qonuniyat tushunchalari. Tabait, jamiyat va inson tafakkurining qonunlari.
4. Borliqda amal qiluvchi falsafaning universal qonuniyatlari. Miqdori o'zgarishlarini sifat o'zgarishlariga o'tishi. Ziddiyatlar birligi. Inkorni inkor qonuniyati.
5. Falsafiy kategoriyalar.

1. Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyusiyasi

Axborot sivilizatsiyasi davrida dunyoning yaxlit nazariy obrazini yaratish – og'ir va mashaqqatli vazifa. Uni echishning falsafiy yo'li ikki yarim ming yil muqaddam boshlangan bo'lib, Shundan beri o'tgan davr mobaynida rivojlanish falsafasi shakllangan va bosqichma-bosqich atroflicha ishlab chiqilgan. Falsafaning mazkur bo'limi rivojlanish muammosini turli nuqtai nazarlardan o'rganuvchi konsepsiyalarni o'z ichiga oladi. Ularning orasida dialektika, metafizika va sinergetika alohida o'rin egallaydi. Ularning ayniqsa keng e'tirof etilgani va mufassal ishlab chiqilgani dialektikadir. Shu sababli bu bo'limda unga asosiy e'tibor qaratiladi. Dialektikani bilish, uning tamoyillari, qonunlari va kategoriyalaridan ijodiy foydalanish har qanday soha mutaxassisi dunyoqarashining muhim sharti hisoblanadi.

Dialektika nima, uning mazmuni nimadan iborat, rivojlanishning dialektikaga muqobil qanday konsepsiyalari mavjud?

«Dialektika» (yunon. dialektike – suhbat qurish san'ati) so'zining «dialog» (yunon. dialogos – ikki yoki bir nechta suhbatdoshlar so'zlashuvi) so'zi bilan umumiy jihatlari bisyor. Dastlab dialektika bahslashish, munozara qilish san'ati sifatida tushunilgan, bunda fikrlar, qarashlar qarama-qarshiligi vositasida haqiqatning tagiga etish maqsadida muammoni o'zaro manfaatdor muhokama qilishga qaratilgan munozara nazarda tutilgan. Dialektik – bu savol berish va javob qaytarishga usta odam, deb hisoblangan.

Stixiyali dialektika. Qadimgi mutafakkirlar ziddiyatlilik va o'zgaruvchanlik fikr-mulohazalaridagina emas, balki real borliqda ham mavjud ekanligini payqaganlar. Bu dalilning tagiga etgan ilk mutafakkirlardan biri efeslik Geraklit bo'lgan. U dunyoni «jonli olov» yoki «ikki marta kirish» mumkin bo'lmagan daryo oqimi sifatida tasavvur qilgan. Harakatchan dunyoda zamon o'tishi bilan hamma narsa o'zining dastlabki shakl-shamoyilini yo'qotadi va asta-sekin o'zining qarama-qarshiligiga o'tadi: ho'l narsa quriydi, quruq narsa esa nam tortadi; bir narsa boshqa narsaga: sovuq issiqqa, tirik o'likka o'tadi. Bu mulohazalarda hozirgi talqindagi dialektikaning asoslari mujassamlashgan. Shu sababli qadimgi faylasuflarning stixiyali dialektikasi dialektikaning tarixan birinchi shakli deb hisoblanadi. Stixiyali dialektika borliq va bilishning jarayonlar mohiyatini anglab etishga asoslanmagan sodda dialektikadir.

O'rta asrlarda metafizika falsafadan dialektikani siqib chiqargan. Natijada dialektika odamlar ongiga diniy dunyoqarashni singdirish va mustahkamlash uchun hukmron sinflar faol foydalangan sofistika va sxolastikaga aylangan.

Idealistik dialektika. Metafizika unsurlarini o'z ichiga olgan dialektikaga qaytish Yangi davr falsafasi (Rene Dekart, Benedikt Spinoza, Deni Didro va b.)da Yuz bergan. Shunga qaramay

dialektikaning eng yaxlit konsepsiyasini klassik nemis falsafasida Georg Hegel ta'riflagan. Bu konsepsiya dialektikaning ikkinchi shakli deb ataladi.

Hegel ilk bor dunyoni quyidan oliyga qarab boruvchi umumiy rivojlanish jarayoni sifatida tasvirlagan, rivojlanish manbai - qarama-qarshiliklar kurashini ko'rsatib bergan, dialektikaning asosiy qonunlari va kategoriyalarini ta'riflagan. Ammo Hegel dialektikasi idealistik xususiyat kasb etgan. Zero, idealistik dialektikaning andozasi bo'lib ob'ektiv borliq emas, balki uni aks ettiruvchi tafakkur xizmat qilgan. Bu nazariya chuqur dialektika g'oyalari: geologiyaga tatbiqan rivojlanish nazariyasi (CH.Loyel), Lamarkning evolyusion g'oyalari, Kant – Laplasning kosmologik g'oyalari va boshqalar ilgari surgan tabiatshunoslik asoslariga zid bo'lgan.

Materialistik dialektika. Hegel dialektikasi materialistik dialektikaning shakllanishiga zamin hozirlagan. Materializm dialektik mantiq bilan bog'langan. Buning natijasi o'laroq dialektikaning uchinchi tarixiy shakli yaratilgan (XIX asrning ikkinchi yarmi). Unga amalda ilmiy bilishning rivojlanishi yo'l ochib bergan. XIX asrning 40-yillarigacha fanning turli sohalarida Yangi kashfiyotlar paydo bo'lgan va ular tabiatni tushuntirishga nisbatan dialektik-materialistik yondashuvni tabiatshunoslik nuqtai nazaridan asoslagan. Ularning orasida uch kashfiyot: fizikada – materiya harakati shakllarining o'zaro aloqasini asoslab bergan energiyaning saqlanish va o'zgarish qonunining aniqlanishi; biologiyada – butun jonli tabiatning (o'simliklar, hayvonot dunyosining ham) tarkibiy jihatdan yagonaligini yoritib bergan hujayra nazariyasining yaratilishi; rivojlanish g'oyasini jonli tabiatga tatbiqan ishlab chiqqani Darvinning evolyusiya nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Bu sharoitda materialistik dialektika borliqning o'xshashi, ya'ni borliqni uning o'ziga mos ravishda fikrlash va bilish imkoniyati sifatida falsafiy tafakkurning fanga ayniqsa mos keluvchi shakliga aylangan.

Materialistik dialektikaning shakllanishida tarixni materialistik tushunish ayniqsa muhim rol o'ynagan. Bu kashfiyot yordamida dialektikaning nafaqat materializm, balki gumanizm bilan ham sintezi amalga oshirilgan. Dialektika insonga bog'lanmasdan, o'z holicha emas, balki inson hayot faoliyatining konkret-tarixiy muammolari nuqtai nazaridan qarala boshlagan.

Klassik dialektika. Klassik dialektikaning o'ziga xos xususiyatlarini qayd etib o'tamiz. Birinchidan, klassik dialektika dunyoni tushunishning Shunday bir usuliki, bunda borliq narsalar va hodisalarning umumiy o'zaro aloqasi, ularning bir-birini taqozo etishi va muttasil o'zgarishi nuqtai nazaridan anglab etiladi. Ammo Shuni yodda tutish kerakki, dialektika har qanday o'zgarish, har qanday harakat nazariyasi emas, balki o'zgarishlarning faqat bir shakli – rivojlanish nazariyasi hisoblanadi. Dialektika rivojlanishning teran, to'laqonli va mazmunan boy nazariyasidir. U o'zgarish holatida bo'lmagan biron-bir narsa tabiatda ham, jamiyatda ham, tafakkurda ham mavjud emas, chunki barcha mavjud narsalar o'z ichki ziddiyatlariga ega va ular bu narsalarni o'zgarishga, Yangi shakl-shamoyil kasb etishga, rivojlanishga majbur qiladi, deb o'rgatadi.

Ikkinchidan, dialektika ob'ektiv va sub'ektiv dialektikaning mavjudligini tan oladi.

Ob'ektiv dialektika – bu tabiiy va ijtimoiy hodisalarning o'zaro aloqasi va rivojlanishi. U sub'ektdan, inson va insoniyatdan qat'iy nazar mavjuddir. Sub'ektiv dialektika – bu sub'ektning fikrlash dialektikasi va uning ob'ektiv dunyoni bilishi. Ob'ektiv va sub'ektiv dialektikaning o'zaro nisbati qanday? Materialistik davr nuqtai nazaridan sub'ektiv dialektika ob'ektiv dialektikani aks ettiradi. Ob'ektiv va sub'ektiv dialektika mazmunan bir-biriga mos keladi (ularning umumiy jihati mazmun – borliq rivojlanishining yagona dialektik qonuniyati). Biroq, Shu bilan bir vaqtda, ular shaklan bir-biridan farq qiladi, chunki tafakkur, borliqning boshqa sohalar bilan taqqoslaganda, rivojlanishning o'z ichki mantiqiga ega. Ob'ektiv dialektika tafakkurda, sub'ektiv va ideal shakllarda aks etadi.

Ob'ektiv va sub'ektiv dialektika-qarama-qarshiliklar, lekin bu qarama-qarshilik ijtimoiy-tarixiy amaliyotda «yo'qoladi». Hamonki sub'ektiv dialektika ob'ektiv dialektikani aks ettirar ekan, inson ob'ektiv dialektikani bilish va Shunga muvofiq o'zining izchil amaliy faoliyatini tashkil etish, bu faoliyat jarayonida ob'ektiv dunyoni va o'zini o'zi o'zgartirishga qodir. Inson va jamiyat amaliyotida bilimlar in'ikos shaklidan faoliyat shakliga aylanadi.

Uchinchidan, fan sifatidagi dialektikaning ichki mazmuni va mantiqiy «poydevori» uning tamoyillari, qonunlari va kategoriyalarini yaratadi. Dialektika jamuljum holda ob'ektiv dunyoni va

uni uzluksiz o'zgarish va rivojlanish jarayonida bilishni aks ettiruvchi tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi sifatida tavsiflanadi. Bunda tamoyillar deganda umumiy va universal, asosiy g'oyalar tizimida boshqa barcha elementlarning roli va mazmunini belgilovchi mezonlar tuShuniladi. Dialektikaning hozirgi konsepsiyalarida aloqa tamoyili va rivojlanish tamoyili ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Dialektika qonunlari rivojlanish jarayonidagi umumiy muhim aloqalarni aks ettiradi. Ular dialektikaning nazariyasini yaratishda muhim metodologik funksiyani bajaradi. Dialektikada umumiy qonunlar uchta: dialektik ziddiyatlilik qonuni, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni hamda inkorni-inkor qonuni. Dialektika kategoriyalari – bu eng fundamental, asosiy tushunchalar bo'lib, ularda va ularning yordamida falsafiy fikrlash amalga oshiriladi. (Dialektika tamoyillari, qonunlari va kategoriyalarini biz quyida atroflicha ko'rib chiqamiz.)

To'rtinchidan, dialektikaning o'ziga xos xususiyati Shundaki, u nazariya vazifasini ham, metodologiya vazifasini ham bajaradi. Dialektika qonunlari, kategoriyalarining mazmuniga va bilish jarayonining amal qilish va rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq fikrlovchi sub'ektga qo'yiladigan tegishli talablar shakllantiriladi va Shu tariqa unga bilish faoliyatida yo'l ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan sub'ekt borliqni bilish va amalda o'zgartirish masalalarida amal qilishi lozim bo'lgan tegishli normalar va qoidalar ham ishlab chiqiladi. Dialektika bergan metodologik jihatdan to'g'ri mo'ljallar tadqiqotning to'g'ri yo'lini tanlashga, ko'p sonli xatolarni chetlab o'tishga, ortiqcha ish, keraksiz harakatlarga kuch va qimmatli vaqtni behuda sarflamaslikka yordam beradi.

Shunday qilib, hozirgi talqindagi dialektika-bu:

a) hodisalarning ularga xos bo'lgan ziddiyatlar vujudga kelishi, o'zaro ta'sirga kirishishi va echilishiga muvofiq rivojlanishidan iborat bo'lgan ob'ektiv jarayon;

b) tabiat, jamiyat va tafakkurning harakat va rivojlanish universal qonunlari haqidagi falsafiy konsepsiya; dunyoni bilish va o'zgartirish metodi. Uning tizimiga kiruvchi rivojlanishning umumiy qonunlarini bilish o'tmishni anglab etish, hozirgi dunyoda Yuz berayotgan jarayonlarni to'g'ri tushunish va kelajakni bashorat qilish imkonini beradi.

Noklassik dialektika. So'nggi yillarda ayrim tadqiqotchilar Gegel dialektikasi va materialistik dialektikani klassik dialektika sifatida tavsiflab, dialektikaning to'rtinchi, noklassik shaklini ham farqlamoqdalar. Hozirgi zamon G'arb falsafasida dialektikaning ko'rsatilgan shaklining eng muhim elementlari falsafiy mushohada yuritishning unga xos bo'lgan germevntik usulida namoyon bo'lmoqda. Ammo bu erda dialektik metod avvalo mazmunni talqin qilish vositasida aniqlash uchun (P.Riker), Shuningdek anglab etilayotgan ob'ektni vaziyat nqtai nazaridan tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Ammo XX asrda dialektikaning bir qancha noklassik konsepsiyalari vujudga keldi. Ularning qatoriga quyidagilar kiradi:

a) «**fojeiy dialektika**». Uning muallifi fransuz faylasufi Raymon Aron (1905-1983) hozirgi zamon dialektikasini tahlil qilib, hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotdan insoniyat manfaatlarida foydalanishga qodir emas, degan xulosaga keladi;

b) «**dialektik teologiya**» yoki «inqiroz teologiyasi». (shveysariyalik protestant teolog va faylasufi Karl Bart 1886-1968 va nemis-amerika xristian teolog Maul Tillix 1886-1965) kreationsistik ta'limot bo'lib, dunyoning rivojlanishi zamirida bu dunyoni qandaydir g'ayritabiiy qurilish materiali – materiyadan yaratgan ilohiy substansiya yotadi, degan g'oyaga asoslanadi. Shu sababli dunyo «Xudo kabi boqiy» emas, uning boshi va oxiri bor. Ammo bu yaratilgan dunyo Xudo bilan biron-bir umumiy jihatga ega emas, degan ma'noni anglatmaydi. Ularning o'rtasida muayyan o'xshashlik mavjud bo'lib, u pirovard, yaratilgan narsalarning rivojlanish yo'llarini tushunib etish imkonini beradi;

v) «**salbiy dialektika**». Teodor Adorno 1903-1969 – nemis faylasufi, sotsiologi, Frankfurt maktabining vakili, ko'p sonli falsafiy asarlar, Shu jumladan «Salbiy dialektika» (1966) kitobining muallifi. Jan Pol Sartr 1905-1980 - fransuz faylasufi va yozuvchisi, ateistik ekzistensializm vakili. U falsafa muammolariga bag'ishlangan bir qancha asarlar, Shu jumladan «Dialektik aql tanqidi» (1960) kitobining muallifi. Sartr talqinida dialektika ikki – «tanqidiy» va «dogmatik» shakllarda mavjud bo'lishi mumkin. Birinchisi «salbiy dialektika»dir.

«Salbiy dialektika» bir yoqlama, sub'ektiv konsepsiya bo'lib, u inkorni mutlaqlashtirishdan, butun borliqning umumiy buzilishidan, yalpi tanqidiylikdan, har qanday ijobiylikni rad etishdan, o'zini o'zi inkor qilishdan kelib chiqadi va Shu bois metafizika chegarasidan chetga chiqmaydi. «Salbiy dialektika» - bu, mohiyat e'tibori bilan, aksildialektikadir.

Dialektikaning muqobillari. Odatda rivojlanishning dialektikaga zid bo'lgan yoki unga o'xshamaydigan konsepsiyalari, bilish metodlari, dunyoni ma'naviy o'zlashtirish usullari, ya'ni dialektikadan farq qiluvchi dunyoqarashga doir va metodologik mo'ljallar nazarda tutiladi. Dialektikaning Shunday muqobillaridan biri metafizika, sofistika, eklektika, sinergetika metodlaridir (ular haqidagi ma'lumot "Metod va metodologiya: asosiy tushunchalar" mavzusida berilgan).

Umumiy o'zaro aloqa va rivojlanishning dialektik tamoyillari. Har qanday konsepsiyaning mazmunini yoritishda uning tamoyillarini tahlil qilish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Dialektika ham bundan mustasno emas. Tamoyillar nima?

Falsafiy ma'noda «tamoyil»(prinsip) tushunchasi fundamental qoida, birinchi asosni, biron-bir konsepsiya yoki nazariyaning eng muhim asosini anglatadi. Falsafiy nazariya sifatidagi dialektikaga tamoyillar yaxlit tus beradi, uning qonunlari va kategoriyalarini izchil tizimga soladi. Dialektikaning hozirgi konsepsiyalarida umumiy aloqadorlik va rivojlanish, tarixiylik, sababiylik, tizimlilik kabi tamoyillar muhim rol o'ynaydi. Quyida bu tamoyillarni tahlil qilamiz.

Umumiy aloqadorlik tamoyili. Rang-barang dunyoda har bir ob'ekt ko'p sonli xossalarga ega bo'lib, ular boshqa ob'ektlar bilan o'zaro aloqa jarayonida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, har qanday tuzilma boshqa tuzilmalar bilan aloqaga kirishish orqali namoyon bo'ladi. Shunday qilib, har bir ob'ekt o'zga ob'ektlar bilan qonuniy bog'lanadi va bu ob'ektlar bilan o'zaro ta'sirga kirishish jarayonida ishtirok etadi.

Aloqa. Falsafada aloqa deganda makon yo vaqtda bir-biridan muayyan masofada uzoqlikda joylashgan ikki yoki bir necha hodisa yoki ob'ektning o'zaro aloqa jarayoni tuShuniladi. Ob'ektlar diskretlik, shakllanganlik va nisbatan mustaqillikdan mahrum bo'lgan joyda aloqalar mavjud bo'lishi mumkinmi? O'z-o'zidan ravshanki, shakllangan, nisbatan mustaqil narsalar mavjud bo'lmagan joyda aloqa mavjudligini taxmin qilish ham mumkin emas. Shu sababli umumiy aloqa kategoriyasi «narsa», «uzluklilik», «uzluksizlik», «cheksizlik», «tuganmaslik» tushunchalari bilan tavsiflanadi. Hozirgi ilmiy bilimga tayanuvchi borliqning falsafiy talqini olamning universal yaxlitligini, dunyoning birligini ochib beradi. Dialektika kategoriyalari borliqning universal aloqalarini bilish shakli hisoblanadi.

Aloqalarning universalligi ularning tiplari va turlarining rang-barangligida namoyon bo'ladi. Aloqalarni tasniflash turli asoslarga ko'ra amalga oshiriladi. Xususan, bir tomonlama va o'zaro aloqalar, to'g'ri va egri aloqalar, bevosita va bilvosita aloqalar, ichki va tashqi aloqalar farqlanadi. Hajm jihatidan aloqalar umumiy, alohida va xususiy bo'lishi mumkin. Mazmun jihatidan genetik, funksional, strukturaviy, energetik, moddiy, informatsion va boshqa aloqalar farqlanadi. Aloqalarning butun rang-barangligi fanning qaysidir bir tarmog'i doirasida tadqiq etilishi mumkin emas. Ularning muayyan turlari maxsus fanlarning predmeti hisoblanadi. Dialektika borliqning barcha jarayonlariga xos bo'lgan umumiy, muhim, universal aloqalarni o'rganadi. Fan borliqning universal qonunlarini tashkil etadigan ichki, zaruriy, muhim, barqaror, takrorlanuvchi aloqalarga alohida e'tibor beradi. Umumiy aloqalar dialektika kategoriyalarida yoritiladi.

O'zaro aloqa. Real voqelikda har bir muayyan ob'ekt ko'p sonli sababiy zanjirlarning murakkab «tuguni» hisoblanadi. U boshqa ob'ektlardan ta'sirlanish bilan bir vaqtda o'zi ham ularga aks (reaktiv) ta'sir ko'rsatadi. «Tashqi» va «ichki» sababiy zanjirlar unda uyg'unlashadi, kesishadi va tarmoqlanadi. Ular bir-biri bilan o'zaro aloqaga kirishadi va bu o'zaro aloqa ob'ektda Yuz beruvchi barcha jarayonlarning negiziga aylanadi.

Ob'ektni bilish uchun pirovard natijada unda vujudga kelgan sababiy aloqalar «tuguni»ni echish talab etiladi. Barcha hodisalar mohiyatiga izohni o'zaro aloqadan izlash kerak. U hodisalarning barcha xossalari va xususiyatlarini belgilaydi, amalda mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlar, tasodiflar va zaruriyatlarning manbalarini o'zida mujassamlashtiradi. O'zaro aloqani tushunish – umuman ob'ektni tushunish demakdir.

Ammo har qanday ob'ekt boshqa ob'ektlar bilan o'zaro aloqa qilgani bois, uning barcha o'zaro aloqalarini bilish uchun undan boshqa ob'ektlarni o'rganishga, ulardan – uchinchi ob'ektlarga o'tishga to'g'ri keladi va h.k. Ayrim ob'ektning tabiatini belgilovchi o'zaro aloqani bilish jarayoni cheksizdir. Paskal ta'biri bilan aytganda, to'g'nag'ich kallagini bilish uchun butun Olamni bilish talab etiladi.

Aloqa uchun asos. Aloqa, aloqa uchun asos va aloqa shart-sharoitlari tushunchalarini farqlash lozim. Aloqa Yuzaga kelishiga imkoniyat yaratuvchi ayrim xossa, belgi yoki munosabat aloqa uchun asos bo'ladi. Asosning mavjudligi aloqa o'rnatish uchun zarur, lekin etarli emas, chunki uning o'rnatilishi doim emas, balki muayyan sharoitdagina Yuz beradi. SHart-sharoitlar – bu avvalo predmet mavjud bo'lgan muhitdir. U aloqa o'rnatish uchun qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. SHart-sharoitlar o'z holicha aloqa o'rnatish omili bo'lishi mumkin emas, ular faqat aloqa Yuzaga kelishiga ko'maklashadi yoki monelik qiladi.

Narsalar o'rtasida aloqa biron-bir muayyan asosga ko'ra Yuzaga keladi. Umumiy asos ayrim umumiy asosga ega bo'lgan turli ob'ektlar o'rtasida umumiy aloqa yo'lini ham vujudga keltiradi. Masalan, muayyan manfaat guruhlari o'z manfaatlarini himoya qilish uchun siyosiy guruhlariga birlashadilar, mamlakatdagi siyosiy muhitga kuchli ta'sir ko'rsatadilar. Ammo boshqa, masalan, etnik, diniy va boshqa asoslarga ko'ra ular o'zaro bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Shunday qilib, mazkur misolda aloqa yo'li aloqa Yuzaga kelishi uchun asos, boshqa belgilar – buning shartlaridir. O'zaro aloqa umumiy xususiyat kasb etadi, u butun borliqqa xosdir. Shu sababli aloqa tushunchasi dialektikada eng umumiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Boshqa barcha kategoriyalar o'zaro aloqaning muayyan turlari bilan tavsiflanadi.

Munosabat. Aloqa tushunchasi o'zaro aloqa, harakat, munosabat tushunchalari orqali yoritiladi. «Hozirgi zamon falsafa lug'ati»da⁶⁷ munosabat tushunchasi «narsalarning o'zaro mavjudlik usuli, ularda yashirin xossalarning namoyon bo'lish omili» sifatida ta'riflangan. Bu ta'rifda munosabatni tavsiflovchi quyidagi jihatlar farqlanadi: birinchidan, narsalarning o'zaro mavjudligi, yaqinlaShuvi, birlaShuvi. Ikkinchidan, munosabat narsaning xossalari namoyon etish, ya'ni harakatga keltirish usuli sifatida amal qiladi. Uchinchidan, narsalarning birlaShuvi sifatidagi munosabat ta'sirida kooperativ effekt, ya'ni narsalar holatlarining bir-birini o'zgartirishi Yuz beradi. Bunda munosabat Yuzaga kelgunga qadar yashirin holda mavjud bo'lgan narsalarning xossalari bir-biriga o'tadi va namoyon bo'ladi.

Xullas, munosabat, bir tomondan, narsalarning o'zaro aloqasini, boshqa tomondan esa – ularning alohida-alohida mavjudligini nazarda tutadi.

O'zaro ta'sir narsalarning o'zaro aloqadorligini, ular bir-biriga ta'sir ko'rsatishi va bir-birini o'zgartirishini anglatadi. Ammo o'zgarish – harakat falsafiy tushunchasining sinonimidir. Binobarin, umumiy aloqaning tan olinishi bizni muqarrar tarzda borliqning o'zgaruvchanligi umumiy xususiyatini tan olishga olib keladi. Umuman o'zgarish sifatida tuShuniladigan harakat butun olamni qamrab oladi, dunyoda hamma narsa muayyan paytda vujudga keladi, tadrijiy rivojlanadi, o'zgaradi va g'oyib bo'ladi (o'ladi, halok bo'ladi, barham topadi). Demak, har qanday hodisa o'z tarixiga ega. Ayni Shu sababli tabiat va jamiyat hodisalarini o'rganishga nisbatan tarixiy yondashuv zarur.

O'zgarishlar o'z xususiyati va yo'nalishiga ko'ra tartibsiz o'zgarishlar, aylanma harakatlar, jismlarning makonda bir joydan boshqa joyga mexanik ko'chishida namoyon bo'lishi mumkin. Rivojlanish o'zgarishning alohida tipi hisoblanadi.

2. Umumiy o'zaro aloqa va rivojlanishning dialektik tamoyillari

Dialektika kategoriyalari umumiy aloqalarning o'zgarish va rivojlanish manbai sifatidagi tavsifini to'ldiradi, harakatlanayotgan, tadrijiy rivojlanayotgan dunyoning keng manzarasini yaratish imkonini beradi. Biron-bir aloqalar va o'zaro ta'sirlarsiz mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan ob'ektlar amalda mavjud emas. Dialektikaning muhim belgilaridan biri va umumiy aloqa

⁶⁷ Каранг: Современный философский словарь / Под ред. В.Е.Кемерова. – М.: 2004. – С.497.

tamoyilining mazmuni aynan ob'ektlarning har tomonlama o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlarini hisobga olishdan iborat.

Shunday qilib, dialektika moddiy dunyoda hukm suruvchi umumiy aloqani aniqlashni talab qiladi.

Aloqalarning tasnifi va xususiyati

Aloqalarning asosiy turlari		Aloqalarning xususiyatlari		
Materiyaning asosiy turlariga va uning harakat shakllariga xos bo'lgan aloqalar		Materiya mavjudligining asosiy shakllariga xos bo'lgan aloqalar	Qonun, hodisani belgilaydigan aloqalar	Qonun, hodisani belgilamaydigan aloqalar
Ijtimoiy	Moddiy-energetik	Makonga doir	Ichki	Tashqi
Biologik		Vaqtga doir	Muhim	Ahamiyatsiz
Kimyoviy		Strukturaviy	Zaruriy	Tasodifiy
Fizik	Informatsion	Genetik	Barqaror	Beqaror
Mexanik		Sababiy Funksional	Umumiy	Yakka

Aloqalar quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, ular ob'ektiv xususiyat kasb etadi, ya'ni odamlar ongidan qat'iy nazar, ob'ektiv qonuniyat sifatida mavjud bo'ladi.

Ikkinchidan, aloqalar universaldir, chunki hamma joyda va har doim, barcha hodisalarda, barcha darajalar va bosqichlarda namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, o'zaro aloqa o'zining mohiyati va tabiatiga ko'ra serqirradir, zero har bir predmet, har qanday hodisa boshqa hodisalar bilan minglab rishtalar vositasida bog'lanadi, bu aloqa moddiy va ma'naviy dunyo hodisa va jarayonlari o'rtasidagi munosabatlarning oxiri ko'rinmaydigan tarmog'i bilan tavsiflanadi.

To'rtinchidan, real aloqalar o'z xususiyati, chuqurlik va murakkablik darajasi, namoyon bo'lish shakllariga ko'ra cheksiz darajada rang-barangdir. Dialektika borliqning rang-barang aloqalarini tahlil qilishga nisbatan differentsiyalashgan yondashuvni nazarda tutadi. Bunda u quyidagi aloqalarni farqlaydi:

- materiyaning asosiy turlariga va uning harakat shakllariga xos bo'lgan aloqalar (mexanik, fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy bog'lanishlar);

- materiya mavjudligining asosiy shakllariga xos bo'lgan aloqalar (makonga doir, vaqtga doir, strukturaviy, genetik, sababiy, funksional bog'lanishlar).

Ammo aloqalarning ko'p sonli konkret shakllari orasida dialektikani borliqning barcha hodisalari va jarayonlarida namoyon bo'luvchi o'ziga xos aloqalar (bog'lanishlar xususiyati) qiziqtiradi. Aloqalarning bunday shakllari qatoriga ichki va tashqi aloqalar; muhim va ahamiyatsiz aloqalar; zaruriy va tasodifiy aloqalar; barqaror va beqaror aloqalar; umumiy va yakka aloqalar kiradi.

Rivojlanishda bu aloqalarning roli bir xil emas: ularning ayrimlari yordamida predmet o'z tabiatini ro'yobga chiqaradi, ya'ni ular bosh rol ni o'ynaydi, boshqa aloqalar esa ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Shunga muvofiq «qonun aloqa demak» degan ibora paydo bo'lgan. Bu to'g'rimi? To'g'ri, agar qonun – bu har qanaqangi aloqa emas, deb qo'shimcha qilinsa. Qanday aloqa qonun hisoblanadi? Qonun deb, bir qancha zaruriy belgilarga ega bo'lgan o'zaro aloqaga aytiladi.

- **Aloqaning ob'ektivligi.** Bu erda gap bugun qabul qilinib, ertaga bekor qilinadigan yuridik qonunlar haqida borayotgani yo'q. Energiya va moddaning saqlanish qonunlari yoki butun olam tortishish qonuni haqida gapiradigan bo'lsak, biz ularni bekor qilishimiz yoki ularning amal

qilishini ongli ravishda to'xtatishimiz mumkin, deb aytish aqlga sig'maydi.. Demak, qonunning muhim belgisi narsalarning ob'ektiv holatini, narsalar va hodisalar o'rtasidagi ob'ektiv aloqani aks ettirishida namoyon bo'ladi.

- **Aloqaning muhimligi.** Muhim aloqa – bu narsaning mavjudligini, uning harakati va rivojlanishini belgilovchi bog'lanish. Aytaylik, elementlarning davriy qonuni atom og'irligi, atom o'zagingining zaryadi va elementlarning kimyoviy xossalari o'rtasidagi muhim aloqani aks ettiradi;

- **Aloqaning zaruriyligi.** Zaruriy aloqa – bu muayyan sharoitda zaruriy tarzda namoyon bo'luvchi bog'lanish. Masalan, fizikada ma'lum bo'lgan o'tkazgich qarshiligining o'tkazgich tarkibi, uning uzunligi va ko'ndalang kesimining Yuziga bog'liqligi qonuni o'tkazgichda elektr toki o'tgan har bir holda zaruriy tarzda namoyon bo'ladi, chunki u o'tkazgich qaysi moddadan yasalgan bo'lsa, Shu moddaning tabiati, unga xos bo'lgan ob'ektiv xususiyatlar bilan belgilanadi;

- **Aloqaning barqarorligi.** Barqaror aloqa – bu ishonchli tarzda saqlanadigan aloqa. U materiya harakatining tegishli shakli (materiya rivojlanishining muayyan bosqichi) yoki tafakkur mavjud bo'lgan davr mobaynida, toki bu narsalar va hodisalar mavjud ekan, amalda mavjud bo'ladi;

- **Aloqaning umumiyli.** Aloqaning umumiyli Shunda namoyon bo'ladiki, unga ob'ektiv dunyoning aksariyat yoki hatto barcha narsalari, hodisalari va jarayonlari bo'ysunadi.

Tarixiylik tamoyili. Har qanday, narsa, jarayon mavjudligi paydo bo'lish, rivojlanish va yo'qolish bosqichlarida namoyon bo'ladi. Masalan Er taxminan 6 milliard yil ilgari issiq gazzimon tumanlikdan paydo bo'lib, hozirgi holatiga etgan. Ayni paytda olimlar qachonlardir Erning sovib, oysimon, sovuq planetaga aylanishini e'tirof etganlar.

Materialistlar tarixiylik tamoyilini "olamning moddiy birligi haqidagi monistik tamoyilga" mosligi uchun reallikning barcha sohalarida mavjud deb hisoblaydilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tarixiylikni mutloqlashtirish to'g'ri emas. Chunki, ilgari Oy oddiy planeta bo'lgan, hozir esa sovuq kosmik jism, qutb yulduzining konfiguratsiyasi 50 ming yil ilgari hozirgidan boshqacha bo'lgan, insonning jismoniy tipi 40-50 ming yil ilgari to'liq shakllangan. Bunda tarixiylik to'liq namoyon bo'layotgandek. Biroq, aslida, tabiat, materiya abadiy, biz uning faqat muayyan fragmentlarini, tabiat fragmentlarining tarixini qo'ramiz xolos. Shuning uchun tarixiylik tamoyili haqida emas, balki evolyusiya tamoyili haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi.

Tarixiylik tamoyilining shakllari turlicha. Tarixiylikning ijtimoiy jihati ijtimoiy tarixning qonuniyatligi, uning taraqqiyoti qaytarilmas ekanligidan dalolatdir. Yangi ijtimoiy tuzilma va tizimlarning paydo bo'lishi muqarrar. Ijtimoiy hayotni o'rganishda tarixiylik tamoyili g'oyasi Ibn Xaldun, ar-Roziy, Gegel, SHmoller ijodida aks etgan. Metodologik jihatdan tarixiylik tamoyili jamiyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichidagi yaxlitlikni, rivojlanishning istiqbollarini baholash imkonini beradi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirdi. Bu ta'lim tizimining ilgarigi holatidan butunlay Yangi holatga o'tishini ta'minladi. Mulk sohasidagi islohotlar esa kishilarning mulkka ongli munosabatini shakllantirishga zamin tayyorladi. Jamiyatning tarixiy rivojlanishida va tarixiylik tamoyilining amal qilishida tarixiy taraqqiyotni bilish yoki bilmaslik muhim ahamiyat kasb qiladi. Zero, bilish orqali Yangi jamiyatning nazariy asoslari yaratiladi, bilmaslik esa ko'r ko'rona faoliyat natijasida jamiyatni navbatdagi boshi berk ko'chaga olib kiradi.

Sababiyat tamoyili. Sababiyat aloqalarning genetik tipi, zero unda bir hodisa muqarrar Yangi bir hodisani yaratadi. Yangi sifatning paydo bo'lishi sababga ega. Masalan, O'zbekistonda mudofaa sohasidagi islohotlar ilgarigi mudofaa xizmatining hozirgi davr talablariga javob bermasligi davlat manfaatlariga mos emasligi bilan belgilanadi. Hodisa va jarayonlarning o'zaro aloqadorlikda biri ikkinchisini keltirib chiqaruvchi jarayondir. Masalan: 1997 yilda O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi, unda belgilangan vazifalarni tizimli amalga oshirishni taqozo qiladi.

Tizimlilik tamoyili. Tizimlilik tamoyili va u bilan bog'liq tizimli yondoShuv o'zida dialektika nazariyasining kompleks g'oyalarini mujassamlashtirgan hozirgi zamon fani va amaliyotida muhim metodologik ahamiyat kasb qiladi. Tizimlilik tamoyilining asosiy omili yaxlitlik tamoyilidir. Bu ob'ektlarni ikki yoqlama: bir tomondan ob'ektlarning muhit bilan

mutanosibli, ikkinchi tomondan tizim elementlari, xossalari va funksiyalarining butun doirasida ichki bo'linishi nuqtai nazaridan o'rganishni talab qiladi. Bunda butunning xossalari uning elementlarini nazarda tutadi va aksincha. Tizimning yaxlitligi haqidagi tasavvurlar aloqa orqali konkretlashtiriladi. (Aloqalar haqida yuqorida aniq ma'lumot berilgan)

Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turishi, rivojlanishi, ular o'rtasidagi aloqadorlik va o'zaro ta'sir kabi masalalar qadimdan mutafakkirlar, olimlar, faylasuflar o'rtasida turli bahs, munozara, tortishuvlarga sabab bo'lgan. Chunki ular to'g'risida aniq bilimga ega bo'lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbai, harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risida hamda, eng asosiysi, kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish qiyin.

Atrofimizdagi jamiki narsa-hodisalar, ya'ni eng mayda zarrachalardan tortib to Er, Quyosh, Koinotgacha barchasi, Shu jumladan, kishilik jamiyati ham, doimo harakat, o'zgarish va rivojlanishdadir. Ular o'rtasida abadiy o'zaro bog'liqlik, o'zaro ta'sir va aloqadorlik mavjud. Olamda o'z-o'zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o'zgarish ham Yuz bermaydi.

Bog'lanishlarning turlari. Biz narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi va rivojlanishiga ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlik, ta'sir va aks ta'sir asos bo'ladi, deymiz. Albatta, olamdagi har qanday bog'lanish ham rivojlanishga sabab bo'lavermaydi. Chunki bu bog'lanishlarning ko'lami, mohiyati, ta'sir kuchi va doirasi turlicha. Bog'lanishlarning ana Shu xususiyatlariga qarab, zaruriy va tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo'lmagan va hokazo bog'lanishlarga ajratish mumkin.

Shuningdek, olamda boshqa voqea yoki hodisalardan alohida, ular bilan bog'liq, o'zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo'lmagan birorta ham voqea yoki hodisa mavjud emas. Demak, o'zaro bog'lanish va ta'sir natijasida narsa-hodisalarda o'zgarish sodir bo'ladi. Lekin, barcha o'zgarishni har doim ham birdaniga, yaqqol sezish mumkin emas. Chunki olamning namoyon bo'lishi turli darajada bo'lganligi sababli, o'zgarishlar ham turlichadir.

Masalan, Yangi tug'ilgan chaqaloqning bir hafta, bir oy, yarim yil mobaynidagi o'zgarishini, ya'ni ulg'ayishini yoki bo'lmasa, tabiatdagi qish faslidan bahor fasliga o'tishdagi o'zgarishlarni oddiy ko'z bilan yaqqol sezish mumkin. Lekin biron jonsiz predmet, masalan, Er qariydagi ichki jarayonlarni ma'lum davrdan keyin sezish mumkin. Ana Shu sababdan ham odamlar zilzilalar, vulqonlar otilishi kabi ofatlar qarshisida lol, gohida esa g'aflatda qolib kelmoqdalar. YA'ni tashqi faktorlar (inson faoliyati, yorug'lik, issiqlik, namlik, atmosfera bosimi) natijasida ro'y bergan o'zgarishlarni ko'z ko'radi, quloq eshitadi. Xullas, ular oson anglab olinadi, ochiq-oydin namoyon bo'ladi. ulardagi o'zaro bog'liqlikni ham oson ko'rish, ilg'ash mumkin. Ana Shunday oson ko'rish va ilg'ash mumkin bo'lgan, ochiq-oydin ro'y beradigan voqea, hodisa, natijaga nisbatan «zohiriylik» tushunchasi, mohiyatini ilg'ash qiyin bo'lgan va murakkab ichki sabablar natijasida kechadigan jarayonlar va o'zgarishlarga nisbatan «botiniylik» tushunchasi qo'llaniladi. O'rta asrlarda, ayniqsa tasavvuf falsafasida bu ikki tushunchaga alohida e'tibor berilgan.

«Harakat» tushunchasi «Borliq falsafasi» mavzuida yoritilganligi sababli, bu erda uning quyidagi qisqa ta'rifi bilan cheklanamiz: harakat deb olamdagi har qanday o'zgarishga aytiladi. Rivojlanish tushunchasi esa quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi harakatni ifodalaydi. Lekin bu jarayon goh to'g'ri chiziqli, goh asta-sekin kengayib boradigan spiralsimon shakldagi harakatdan iborat bo'lishi mumkin.

Bunda doimiy bir tomonga, masalan, vaqtning o'tmishdan kelajakka tomon o'tishi ham, lekin makonda voqea va hodisalarning takrorlanishi, zamonda orqaga qaytishlar ham sodir bo'lib turadi. Ba'zida taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida oldingi bosib o'tilgan davr takrorlangandek bo'ladi, ammo bu ilgarigidan farq qiladigan, boshqacharoq tarzidagi takrorlanishdir.

Hech qachon bir xil tong o'tmaydi, deb bejiz aytmaydilar. Holbuki, har kuni tongda o'sha Quyosh chiqadi, o'sha tog'u toshlarni, bog'u biyobonlarni, biz yashayotgan zaminni yoritadi. Odamlar ham, ish va tashvishlar ham hamon o'sha-o'shadek. Kimdir ishga shoshadi, kimdir o'qishga, kimdir yana ilgarigi kundek bekorchilikdan zerikadi... Ammo dunyo o'zgarmadimi bu bir kunning ichidagi unda minglab bolalar tug'ilmadimi, son-sanoqsiz jarayonlar ro'y berib, Er sayyorasining turli burchaklaridan boshqa joylarga qanchadan-qancha axborotlar tarqatilmadimig' Ona zamin o'z o'qi va

Quyosh atrofida aylanishini davom ettirmadimig' Bularning barchasi bir kunu-tunda ro'y bergan botiniy va zohiriy o'zgarishlarning namoyon bo'lishidir.

3. Falsafiy qonun va kategoriyalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari

Rivojlanishning umumiy qonunlari. Hodisalarni tavsiflashdan ularning mohiyatini anglab etishga o'tish hodisalarda umumiy jihatlarni topishni talab etadi. Bunda vazifa turli hodisalar o'rtasida umumiy jihatlarni topishdangina iborat emas. Hodisalarni birlashtiruvchi va ularning birligini belgilovchi asosni tushunib etish zarur. Bu asos – hodisalarni «birlashtiruvchi» va ularni bir-biriga yo'ldosh bo'lish, uyg'unlashish va muvofiqlashishga majbur qiluvchi amalda mavjud bo'lgan barqaror aloqani aks ettiruvchi qonundir.

Qonunlarni bilishga hodisalarni ilmiy o'rganish natijasida erishiladi. Odatda, bu olimlarning tafakkurdan uzoq zahmat chekishni talab etuvchi juda og'ir ishdur. Voqelikning biron-bir qonunini aniqlash uchun olim o'rganilayotgan hodisalar haqidagi dastlabki ma'lumotlarning ko'p sonli to'plamlariga tayanishiga to'g'ri keladi. Bu ma'lumotlar Shunday tartibga solinishi va umumlashtirilishi lozimki, hodisalarning mazkur sohasi asosiy elementlar va munosabatlarni farqlash imkonini beradigan tizim sifatida namoyon bo'lsin. Shundan so'ng elementlarning rang-barang munosabatlari orasida tizimning va tizim ayrim elementlarining har qanday o'zgarishlarida saqlanib qoluvchi umumiy, o'zgarmas, invariant aloqalarni aniqlash talab etiladi.

Qonun – tizim elementlari o'rtasidagi umumiy va invariant aloqa. Ularning uchta turi mavjud.

Voqelik qonunlari *bizning ongimizdan, biz ularni bilish-bilmasligimizdan qat'iy nazar mavjud va amal qiladi.*

Fan qonunlari *odamlar tomonidan anglab etilgan voqelik qonunlarining ongimizdagi in'ikosi.* Har bir fan voqelikning muayyan sohasini o'z predmeti sifatida o'rganar ekan, mazkur sohada amal qiluvchi qonunlarni aniqlaydi. Ilmiy nazariya bilan qamrab olingan soha qancha keng bo'lsa, uning qonunlari Shuncha umumiy bo'ladi. Fanda qonunlarning umumiylik darajasiga ko'ra murakkab ierarxiyasi mavjud. Umumiylik darajasi pastroq bo'lgan qonunlar umumiyroq qonunlarning ayrim ko'rinishlari sifatida amal qiladi va so'nggi zikr etilgan qonunlardan ularning oqibatlarini sifatida keltirib chiqariladi.

Masalan, geometrik optikada yorug'likning aks etish va sinish qonunlari elektromagnit to'lqinlar tarqalishining umumiyroq qonunlaridan, ular esa, o'z navbatida, elektromagnit maydoni nazariyasining yanada umumiyroq qonunlaridan kelib chiqadi.

Har qanday qonun muayyan sharoitda amal qiladi. Qonun amal qilishining bazis va lokal sharoitlarini farqlash lozim. *Bazis sharoitlar qatoriga qonunning amal qilish sohasini belgilovchi sharoitlar kiradi.* Mazkur sharoitlardan tashqarida qonun amal qila olmaydi (ular yo'q bo'lgan taqdirda ularda amal qilayotgan tizim ham yo'q bo'ladi). *Lokal sharoitlar qatoriga qonunning amal qilish sohasidagi sharoitlar kiradi.* *Qonun bu sharoitlarning har qanday variatsiyasida o'z kuchini saqlab qoladi, lekin ularning o'zgarishlari qonunning amal qilish natijalarining o'zgarishlariga sabab bo'ladi.* Qonun lokal sharoitlarga nisbatan invariant, lekin u bazis sharoitlarga nisbatan invariant emas.

Masalan, Arximed qonuni uchun suyuqlik va unga solingan jism, og'irlik kuchining mavjudligi bazis sharoitlar hisoblanadi. Bu sharoitlarga nisbatan Arximed qonuni noinvariantdir: ular mavjud bo'lmasa, qonun amal qilmaydi. Bu erda suyuqlikning tarkibi va solishtirma og'irligi, jismning fizik tuzilishi va shakli lokal sharoitlar hisoblanadi. Ularga nisbatan qonun invariantdir. Ammo uning amal qilishi turli natijalarda aks etishi mumkin: ayrim hollarda jism suvda suzadi, ayrim hollarda esa – u cho'kib ketadi.

Odamlar qonunlarning amal qilish sharoitlarini o'zgartirib, ulardan o'zlari istagan natijalarga erishish uchun foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Yangi bazis sharoitlarni yaratish yo'li bilan esa ular ayrim qonunlarning amal qilishini to'xtatish va boshqa qonunlarni amalga kiritishga qodirlar.

Hodisalarning muntazamligi, takroriyligida qonunlarning amal qilishi (Shuningdek fenomenologik qonun, empirik bog'lanish) qonuniyat-deb ataladi. Qonuniyatlar – bu qonunlarning namoyon bo'lishidir.

Falsafa qonunlari tabiat va jamiyatda insonning ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan biri ikkinchisini taqozo qiluvchi qonunlardir. Falsafa qonunlari tizimida dialektik ziddiyatlilik qonuni markaziy o'rinni egallaydi. Qonunning muhim jihatlarini aniqlash uchun uning asosiy kategoriyalarini ko'rib chiqish kerak. Tahlilni qarama-qarshilik tushunchasidan boshlaymiz.

Qonun tushunchasi. Dunyoning mavjudligi ana Shunday botiniy va zohiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o'z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Masalan, biz Nyuton tomonidan kashf etilgan butun olam tortishish qonunini o'rganganimizda ana Shunday holni idrok etganmiz. Bu qonunning asosiy mohiyati butun olamdagi narsalarning bir-biri bilan aloqadorligi tamoyilining doimiy takrorlanishi, har soniya va har daqiqada bu holatning sodir bo'lib turishini isbotlaydi.

Xo'sh, qonun o'zi nima? U kishi va umuman, jamiyat hayotida qanday ahamiyatga egag' Qonunni bilmasdan, o'rganmasdan turib yashash mumkinmig' Qonun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki kimyo qonunlari deymiz, tabiat qonuni yoki bo'lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h. k. Bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillarining uchinchisi ham qonun to'g'risida bo'lib, unda barcha sohada qonunning ustuvorligi ta'minlanishi ta'kidlanadi. YUqoridagilarni birlashtirib turadigan, barchasi uchun ham umumiy bo'lgan xossa, xususiyatlar bormig'

Eng avvalo, Shuni aytish kerakki, olamdagi barcha narsa — tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ma'lum qonunlar asosida amalga oshadi. Fanlarning (ijtimoiy, gumanitar, tabiiy va h. k.) asosiy vazifasi har bir soha bo'yicha tadqiqot o'tkazib, qonunlarni kashf qilish yoki ularning amal qilish xususiyatlarini o'rganish va ochib berishdan iborat.

Qancha ko'p qonun kashf qilinsa, taraqqiyot Shuncha tez bo'ladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish qiyin. YAqin o'tmishda iqtisodiyotning o'ziga xos qonunlarini pisand qilmay, turli xil s'ezd, plenum, konferensiya qarorlari asosida eksperimentlar o'tkazib, barcha uchun farovon hayot — kommunistik jamiyatini barpo qilmoqchi bo'lishganini va bunday siyosat qanday oqibatlariga olib kelgani barchaga ma'lum.

Hozir mustaqil O'zbekiston barcha rivojlangan mamlakatlar singari ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo qilish yo'lidan bormoqda. Bunda umumbashariy qonunlar va mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan.

Endi Shunday savol: **Nima uchun inson qonunni bilishi kerak?** Bunda oddiy misollarga murojaat qilamiz: yoz oylarida barcha odamlar issiq kiyimlar (etik, palto, qo'lqop va h. k.) sotib olishadi, o'tin yoki ko'mir g'amlab qo'yishadi va h. k. Nima uchung' CHunki ular tabiatning bitta qonunini, ya'ni fasllarning o'zgarishi, yozdan keyin kuz, undan keyin qish kelishini juda yaxshi bilishadi.

YOki yana bir, jo'nroq bo'lsa-da, misol: sizga birov uyning 5-qavatidan tashlasang, falon pul beraman desa, rozi bo'lmaysiz. Nima uchun? CHunki siz I. Nyuton kashf qilgan «Butun olam tortishish qonuni»ni yaxshi bilasiz. Balki bilmassiz ham, havoning o'z jismingizdan zichligi kamligiga e'tibor qilmassiz ham, deylik. Ammo siz bu holda omon qolishingiz qiyinligini, mayib bo'lishingizni yaqqol tasavvur qilasiz.

Inson qonunlarni bilishi, ularga amal qilishi doirasida erkindir. Erkinlik nima. Erkinlik anglab olingan zaruriyatdir. Har qanday qonunga xos belgilardan biri zaruriylik, ya'ni ob'ektiv tarzda amalga oshish, o'z-o'zidan namoyon bo'lishdir. Erkinlik esa ana Shu zaruriylikni anglab olish va unga amal qilishdan iborat faoliyatni anglatadi.

YUristlarda Shunday ibora bor: «Qonunni bilmaslik javobgarlikdan xolos qilmaydi». Ana Shu tufayli siz yuridik qonunlarni qancha yaxshi bilsangiz, o'zingizning faoliyatingizni Shunga moslab olib borasiz. Demak, Shuncha erkin bo'lasiz. Bu holda siz nima qonuniy, nima esa qonuniy emasligini yaxshi bilasiz, qonunga xilof qadamlar qo'yaysiz.

YUqoridagi fikrlarni xulosa qilib, qonunga qo'yidagicha ta'rif berish mumkin: **Qonun** olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo'lishidir. Endi qonunning belgilariga to'xtalamiz:

- qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog'lanishlardan faqat muhimlarini, ya'ni Shunday bog'lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi, o'zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo'ladi;

- qonun zaruriy bog'lanishlarni ifodalaydi, ya'ni tasodifiy bog'lanishlar, goh paydo bo'lib, goh yo'qolib ketadigan bog'lanishlarga asoslanmaydi.

- qonun narsa va hodisalarning umumiy bog'lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog'lanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi, ya'ni bir safar Yuz berib, ikkinchi safar Yuz bermaydigan bog'lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2001 yili qishdan keyin bahor kelib, 2002 yilda qishdan keyin birdaniga yoz kelishini tasavvur qilib bo'lmaydi. CHunki, bu tabiat qonuni — fasllar o'zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi.

Tabiat qonunlarining yana bir eng muhim xususiyati — u ob'ektiv xarakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bog'liq emas. Biror kishi, hatto millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o'zgartirish kiritish yoki uni butunlay yo'q qilish mumkin emas. CHunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog'lanishlar, munosabatlar ob'ektiv xususiyatga ega.

Olamdagi har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiladigan va Shu bilan birga, bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo'lishi ham odatiy hol. Masalan, issiq va sovuq, oq va qora, kecha va kunduz, elektrning musbat va manfiy zaryadlari, yaxshilik va yomonlik, adolat va jaholat va h. k. Qarama-qarshi tomonlar bir-birini inkor etadi va Shu bilan birga biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Faraz qilaylik, magnitning manfiy zaryadi bo'lmasa, u holda ushbu narsa magnit bo'lolmaydi.

Borliq narsa, voqea-hodisalarning turli-tumanligidan iborat. Lekin narsalar qanchalik xilma-xil, turli-tuman bo'lmasin, ular o'rtasida yaqinlik, aynanlik mavjuddir. Masalan, stol va stul sifat jihatidan turli narsalardir. Lekin baribir ular o'rtasida o'xshash tomonlar, belgilar bor. Aytaylik, ularning yo rangi yoki bir xil materialdan yasalganligi yoki bo'lmasa, vazni o'xshash bo'lishi mumkin va h.k.

Ayniyat tushunchasi narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshash tomonlarni ifodalaydi. Shu bilan birga narsa-hodisalar bir-biridan farq qiladigan tomonlar, xususiyatlar, belgilarga ham egadir. Aynan bir xil bo'lgan narsaning o'zi yo'q. Hatto daraxtning bir shoxida yonma-yon turgan 2 barg xam bir-biridan farq qiluvchi ba'zi jihatlarga ega. Hech bo'lmaganda, ular bir-biridan makondagi o'rni bilan farq qiladi.

Hayotdan misol keltiradigan bo'lsak, bir-biriga tashqi tomondan tamomila o'xshash bo'lgan Hasan va Husanlarda ham juda ko'p farq qiluvchi xususiyatlar bor. Masalan, ularda fe'l-atvor, qiziqish turi, dunyoqarashlar har xil bo'lishi, ya'ni ularning ichki dunyolari farq qilishi mumkin. Demak, **tafovut** narsa — hodisalarning farq qiluvchi tomonlarini ifodalovchi tushunchadir.

Qarama-qarshilik deb esa, narsa, voqea-hodisalarning bir-birini taqozo etuvchi va Shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlari, kuchlarining o'zaro munosabatiga aytiladi.

Qarama-qarshiliklar o'rtasidagi munosabatni **ziddiyat** degan tushuncha ifodalaydi. Ko'p hollarda ayniyat va tafovutning zidligi va ularning bir maxrajga kelishi, me'yoriy o'zgarishlar tufayli rivojlanish, taraqqiyot, Yangilanish jarayonlari amalga oshadi. Taraqqiyot Shu ma'noda ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal qilinishidan iborat bo'lgan abadiy va azaliy murakkab jarayondir.

Sobiq Ittifoqning mafkurasi darajasiga ko'tarilgan marksizmda asosan ziddiyatga ko'proq e'tibor berilar edi. U mutlaqlashtirililar va jamiyatga ko'chirilib, asosan, antagonistik ziddiyatlar to'g'risida gapirilar va ularning echilishi insoniyatni baxtli hayotga olib boradi, deya xayol qilinardi. Holbuki, insoniyat paydo bo'libdiki, uning hayotida ayniyat va tafovut ham, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'lib kelmoqda. Odamzod ziddiyatlar kamroq bo'lgan, kishilarning xilma-xil intilish va maqsadlari, bir-biridan farq qiladigan g'oyalari uyg'unlashgan, barqarorlik ustuvor bo'lgan jamiyatni qurish uchun bosh qotirib kelmoqda.

Anu Shunday intilishlar fanda «**Konfliktologiya**» (konflikt — ziddiyat, logos- ta'limot) deb ataladigan falsafiy yo'nalish paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu soha bilan Shug'ullanadigan olim va mutaxassislar konfliktologlar deb ataladi. Ular konfliktlarni keltirib chiqarish emas, balki ularning oldini olish va jamiyat uchun foydali tarzda hal qilish yo'llari va usullari ustida bosh qotirishadi.

Har bir ziddiyatning aniqlanishi, hal qilinishi o'zgarishga, Yangilanishga, bir sifatdan ikkinchi sifatga, eskidan Yangiga o'tishga sabab bo'ladi. Olam turli-tuman bo'lganligi uchun ziddiyatlar ham xilma-xildir. Masalan, ichki va tashqi ziddiyatlar, asosiy va asosiy bo'lmagan ziddiyatlar mavjud. Ular o'rtasida farq bo'lgani bilan birga, mutlaq chegara ham yo'q. Chunki amalda, hayotda ular bir-biriga o'tishi, birgalashib ketishi va taraqqiyotda turli xil o'rin tutishlari mumkin.

Qarama-qarshiliklar birligi qonuni. Qarama-qarshilik – narsalar va hodisalardagi bir-birini taqozo qiluvchi va bir-birini istisno etuvchi tomonlar, xossalar, tendensiyalar, jarayonlarni aks ettiruvchi falsafiy kategoriya (assimilyasiya – dissimilyasiya, o'zgaruvchanlik – tug'malik, ishlab chiqarish – iste'mol qilish, yaxshilik – yomonlik va sh.k.). Qarama-qarshiliklar – o'zaro bog'lanishli bo'lgan tushunchalar. Turli jihatlardan olingan taqdirda, ular o'zaro birlikni tashkil etmaydi va bir-biriga zid bo'lmasligi mumkin.

Qarama-qarshiliklar o'rtasida ikki xil munosabat mavjud: yagonalik munosabati va qarshi harakatga doir munosabat. (qonunning klassik ta'rifida «kurash» atamasi ishlatiladiki, u qonunning mohiyatini soddalashtiradi, chunki mazkur atama ko'proq jamiyatga tegishlidir.)

Qarama-qarshilik birligi nima? Birinchidan, qarama-qarshiliklar birligi – bu ularning uzviyligi. Har bir qarama-qarshilik boshqa bir qarama-qarshilikning mavjudlik sharti hisoblanadi. Ular alohida-alohida mavjud bo'lishi mumkin emas (agar qarama-qarshiliklardan biri yo'q bo'lsa, ularning ikkinchisi ham yo'q bo'ladi). Ikkinchidan, qarama-qarshiliklar birligi ular bir-birini taqozo etgan va bir-biriga o'tgan holdagina muayyan mazmun kasb etadi. Har qanday qarama-qarshilik o'zida mavjud bo'lmagan, lekin boshqa qarama-qarshilikda mavjud bo'lgan jihatga muhtoj bo'ladi. Ular bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Qarama-qarshiliklar bir-biriga ta'sir ko'rsatish orqali bir-biriga o'tadi. Bu qarama-qarshiliklar makonda bir-biridan ajratilgan, turli jinsli hodisalar sifatida mavjud bo'lmasligini, ularning har biri o'zida boshqasining muayyan jihatini mujassamlashtirishini anglatadi (masalan, o'quv jarayoni o'qituvchi va talablar mavjudligini nazarda tutadi).

Qarama-qarshiliklarning qarshi harakat («kurash»)ga doir munosabati nima? Qarama-qarshiliklar bir-birini taqozo etar va rivojlanar ekan, biri boshqasiga «beparvo» bo'lmaydi, balki bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Ularning o'rtasida qarshi harakat, kurash boradi. Uning mohiyati yagonalikka barham berishdan iborat. Qarama-qarshiliklarning har biri ikkinchisini o'zidan itarib chiqaradi, undan xalos bo'lishga harakat qiladi. Shunday qilib, qarama-qarshiliklar kurashi qarama-qarshiliklar bir-birini inkor etgan, bir-birini istisno qilgan holda Yuz beradi.

Qarama-qarshiliklar birligi narsaning barqarorligini aks ettiradi va nisbiy, o'tkinchi hisoblanadi. Qarama-qarshiliklarning kurashi mutlaq xususiyat kasb etadi, u hech qachon to'xtamaydi.

Ziddiyatlar – narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarining bir-birini istisno etish va bir-biriga o'tish munosabatlaridir. Ziddiyatlar borliqning barcha hodisalari va jarayonlariga xos bo'lib, o'zgarish va rivojlanishning manbai, harakatlantiruvchi kuchi sifatida amal qiladi. Ayni Shu sababli ziddiyat dialektik ziddiyatlilik qonunining mohiyatini yoritib beruvchi bosh kategoriya hisoblanadi. Ziddiyat – bu qarama-qarshiliklar munosabatigina emas, balki ularning tarqalish jarayoni hamdir. Shu tufayli ham, Gegel g'oyalari asoslanib, ziddiyat tarqalishining quyidagi bosqichlari (fazalari) farqlanadi: ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik, ziddiyat va asos (ya'ni ziddiyatning echilishi).

Dialektik ziddiyat – bir-birini istisno etuvchi qarama-qarshiliklarning bilvosita birligidir. Qarama-qarshiliklar – ziddiyatlarning negizi, bog'lovchi bo'g'inlar esa – ularni echish mexanizmidir. Quyidagi dalillar bog'lovchi bo'g'inlar roli va qarama-qarshiliklar tushunchasiga misol bo'lishi mumkin: Irsiyat va o'zgaruvchanlik qutblarida nafaqat organizmning avvalgi holati, balki o'zlashtirilgan Yangi belgilari ham saqlanishini ta'minlovchi genetik kod bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda jamiyatning o'ta boy va o'ta qashshoq qatlamlari qarama-qarshiliklari o'rtasida bog'lovchi bo'g'in vazifasini o'rta sinf bajaradi. O'rta sinf mamlakat aholisining aksariyat qismini tashkil etishi lozimligi, aks holda jamiyat holati doimo beqaror bo'lishini Aristotel qadim

zamonlardayoq qayd etgan. Zero, mayda mulkdorlar olgan daromadining bir qismini o'z ishini rivojlantirishga yo'naltiradi, bozor kon'yunkturasini o'rganadi va unga juda tez moslashadi, bozorni zarur tovarlar va xizmatlar bilan boyitadi. Yana bir misol – shaxs va jamiyat munosabatlari. Ma'lumki, shaxs va jamiyat qarama-qarshiliklar hisoblanadi, shaxs a'zo bo'lgan ijtimoiy guruhlar ularning o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida amal qiladi. Bu va boshqa dalillar bilishda ichki qarama-qarshiliklar mavjudligini ham, bog'lovchi bo'g'inlarni ham hisobga olish muhim ekanligini ko'rsatadi. XX asr 30-yillarining boshida ingliz fizigi Pol Dirak pozitronlar, ya'ni elektronlarga o'xshash, lekin musbat zaryadga ega bo'lgan zarralar mavjudligini bashorat qildi. Garchi olim o'z nazariyasida biron-bir xato topmagan bo'lsa-da, aksilzarralar mavjudligiga uning ishonchi yuq edi.

Shunday qilib, qarama-qarshiliklar aloqasi va ziddiyatlarni echishning bir-biri bilan bilvosita bog'liqligi umumiy xususiyat kasb etadi, aloqa usuli esa bog'lanish xususiyati bilan belgilanadi. Bog'lovchi bo'g'inlarning o'zi ziddiyat qarama-qarshi a'zolari xossalarining uyg'unligidan tashkil topadi.

Tafovut - *avvalgi holatdan saqlanib qolgan xossalar ustunlik qilgani holda, ayni bir predmet xossalarining mos kelmasligidir.* «Tafovut» - har xillik, o'z-o'ziga, boshqa narsalar, hodisalar, jihatlariga mos kelmaslik munosabati. Tafovut kuchli yoki ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. *Kuchli tafovut – predmetning o'z-o'zi bilan ziddiyatga kirishish omili.* Bu qarama-qarshilik bosqichi bo'lib, uning echilishi predmetning butunlay o'zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, ziddiyatlarning kuchayishi va o'z echimini topishi rivojlanish manbai hisoblanadi.

Rivojlanish manbai va rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchni farqlash lozim. Rivojlanish manbai – ichki hodisa, predmetning ichki ziddiyatlaridir. Vaholanki, tashqi ziddiyat ham rivojlanishni harakatlantiruvchi kuch bo'lishi mumkin. Masalan, siz shamollab qoldingiz. Ayni holda tashqi muhit sizning holatingiz o'zgarishini harakatlantiruvchi kuch bo'ldi. Dialektik ziddiyat tarkibida asosiy tomon manfiy xususiyatga ega, chunki u mazkur ziddiyatni bartaraf etish, inkor qilishga qaratilgan. Musbat tomon mazkur ziddiyatni saqlashga qaratilgan.

Ayniyat - *predmet umumiy belgilarning muayyan davrda o'z-o'ziga mosligi.* Predmetning rivojlanishi va ziddiyatlarning echilishi bir necha bosqichdan o'tadi. Dastlabki bosqich – predmetning o'z-o'zi bilan nisbiy ayniqlik holati. Tabiatda mutlaq ayniyat mavjud emas. Masalan, har bir organizm hatto oqsil molekulasining tuzilishi darajasida ham o'ziga xos belgilarga egadir. Har qanday predmet hech qachon o'z-o'zi bilan ayniy bo'lmaydi. Masalan, ko'zguga kelar ekansiz, siz o'z qiyofangizda hech qanday farq ko'rmaysiz. O'z do'stingiz bilan oradan besh yil o'tib uchrashgach, ikkalangiz ham: «U juda o'zgarib ketibdi!», deb o'ylasangiz kerak.

Shu bois, «ayniyat» tushunchasi ziddiyat tarqalishining dastlabki bosqichini anglatadi. Bu bir xillik, narsa, hodisa, jihatning o'z-o'ziga yoki boshqa narsalar, hodisalar, jihatlariga o'xshashlik munosabati. Ziddiyatning vujudga kelishi yagonaning ikkilanishi sifatida, yagonaning o'z-o'zini qarama-qarshiliklarga differentsiatsiya qilishi sifatida Yuz beradi. Ikkilanish chog'ida bir vaqtning o'zida ayni Shu munosabatda qarama-qarshiliklar birligi ham, ularning kurashi ham vujudga keladi. Ziddiyatning shakllanish jarayonida qarama-qarshiliklar kurashi birinchi o'ringa chiqadi va rivojlanishning ichki, teran manbaiga aylanadi. Ziddiyatning o'zida qarama-qarshiliklar har xil rol o'ynaydi. Faolroq, harakatchanroq qarama-qarshilik ziddiyatning etakchi tomoni hisoblanadi. Qarama-qarshiliklar kurashi oxir-oqibatda Yangi sifat holatiga olib keladi. Paydo bo'luvchi Yangi hodisalar o'zlariga xos bo'lgan Yangi ziddiyatlarga ega bo'ladi. Bu ziddiyatlar mazkur hodisalar rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ziddiyatlarning rivojlanish jarayoniga yanada chuqurroq kirish uchun ularning tarqalish bosqichlari (fazalari)dan tashqari, ularning holatlarini ham farqlash zarur. Predmetli-moddiy, «etilgan» ziddiyatning holati deganda qarama-qarshiliklarning amal qilish usuli, «birligi va kurashi»ning namoyon bo'lish xususiyati tushuniladi. Ayni Shu xususiyat bu qarama-qarshiliklarning rivojlanish xususiyati va faollik darajasini belgilaydi. Ziddiyatning rivojlanish jarayonida bosqichlarni yoki tarqalgan, «etilgan» ziddiyatni tavsiflovchi holatlarni ham farqlash mumkin. Ijtimoiy tizimlarga tatbiqan ziddiyatlarning rivojlanish bosqichlariga nisbatan bunday yondashuv ularning quyidagi holatlarini aniqlash imkonini beradi: garmoniya, disgarmoniya, konflikt.

Shuni qayd etish muhimki, ziddiyatlar rivojlanayotgan har qanday tizimda mazkur tizim mavjudligining boshidan oxiriga qadar mavjud bo'ladi. Holatlar, miqdor ko'rsatkichlari, qarama-qarshiliklarning o'zaro aloqasi xususiyati, ularning tizimdagi roligina o'zgaradi.

Ziddiyatlarning turlari. Ziddiyatlarning butun rang-barangligi turli asoslarga ko'ra tasniflanadi. Xususan,

- 1) namoyon bo'lish shakliga ko'ra – ichki va tashqi ziddiyatlar;
- 2) rivojlanishdagi roliga ko'ra – asosiy va ikkinchi darajali ziddiyatlar;
- 3) vujudga kelish xususiyatiga ko'ra – zaruriy va tasodifiy ziddiyatlar;
- 4) jamiyatdagi tipiga ko'ra – antagonistik va noantagonistik ziddiyatlar farqlanadi.

Asosiy ziddiyatlar strukturaning qarama-qarshi tomonlari o'rtasida, ikkinchi darajali ziddiyatlar esa – bog'lovchi bo'g'inlar o'rtasida Yuzaga keladi. Asosiy ziddiyatlar sifatli, muhim va zarurdir. Asosiy ziddiyatlarsiz predmet, uning sifat jihatidan muayyanligi va yaxlitligi mavjud bo'lmaydi. Ikkinchi darajali ziddiyatlar tasodifiy xususiyat kasb etadi, ularning borligi yoki yo'qligi predmetning sifatini o'zgartirmaydi. zaruriy ziddiyatlar – bir lahzalik ziddiyatlardir: ular ichki yoki tashqi, asosiy yoki ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Masalan, inson hayoti qil ustida turadigan avtomobil halokati Yuz bergan paytda barcha ichki ziddiyatlar (psixologik konfliktlar, stresslar va fiziologik patologiyalar) ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Borliqning ichdan ziddiyatligi – ob'ektiv hodisa, tabiat va jamiyatning asosiy va umumiy xossasidir. Har bir inson hayotiga kelsak, u ziddiyatlar bilan har kuni to'qnash keladi, qarorlar qabul qiladi, baholar beradi, o'z qilmishlaridan pushaymon bo'ladi, ko'pincha yo'l qo'ygan xatolaridan afsus chekadi. Har qanday voqea, vaziyat, taxminning ichki ziddiyatlarini ko'rib, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning ijobiy va salbiy tomonlarini taroziga solish tafakkurning etuklik belgisidir.

Bizni qurshagan dunyoda ziddiyatlar juda serqirra; ularni turli asoslarga ko'ra tasniflash odat tusini olgan

YUqorida aytilganlardan kelib chiqib Shuni qayd etish mumkinki, dialektik ziddiyatlilik qonuni barcha narsalar, tizimlar, hodisalar va jarayonlar ichki ziddiyatlar, qarama-qarshi tomonlar va tedensiyalar bilan tavsiflanishini nazarda tutadi. Ularning o'zaro aloqasi, ular o'rtasidagi «kurash» o'zgarish va rivojlanish manbai hisoblanadi, ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Bu ziddiyatlar oxir-oqibatda muayyan bosqichda eskining yo'qolishi va Yangining vujudga kelishi bilan echiladi.

Dialektika tizimida bu qonunning markaziy o'rni nima bilan belgilanadi? Birinchidan, bu qonun har qanday harakat va rivojlanish manbaini yoritadi, ya'ni rivojlanish nazariyasining eng muhim savollariga javob beradi. Ikkinchidan, bu qonun dialektikaning qolgan barcha qonunlari va kategoriyalarining asosi hisoblanadi. Ko'rsatilgan qonunlar va kategoriyalarning har birida biz birlik va kurash munosabati bilan bog'liq bo'lgan qarama-qarshiliklarga duch kelamiz. Uchinchidan, dialektik ziddiyatlilik qonuni yagonani tafakkurda ikkilantirish va uning qarama-qarshiliklarini ularning tahlilini sintez bilan birlashtirish orqali o'rganishni talab qilib, bilish dialektik metodining bosh mazmunini belgilaydi.

Olamning mavjudligi — miqdor va sifat voqeligi tarzida ham namoyon bo'ladi. Buning mohiyati Shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'plana borib, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida me'yorni buzadi va sakrash yo'li bilan tub sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o'z sifati bilan ajralib turadi. **Sifat** — narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bo'lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligini ifodalaydi. Sifat narsa qanday bo'lsa, uni Shundayligicha ko'rsatib beradi, jismning barcha tashqi xossalarni bog'liqlikda namoyon qiladi.

Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga o'xshashligi yoki o'xshamasligini ifodalaydi. U keng ma'noda narsalarning turli-tuman xossalari yig'indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma'nodagi tushunchalar emas. Sifatning o'zgarishi, muqarrar sur'atda, xossaning o'zgarishiga olib keladi. Biroq xossaning o'zgarishi har doim sifatning o'zgarishiga ta'sir etavermaydi, ayrim xossalarni narsalarning sifatiga ta'sir etmasdan yo'q bo'lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Narsalar sifat muayyanligidan tashqari, bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. **Miqdor** predmetning hajmi, o'lchovi, og'irligi, harakat tezligi va Shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. CHunonchi, suv o'z solishtirma og'irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega. Bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidagina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, mehnat unumdorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat miqdorga yoki sifatga ega bo'lgan, ya'ni sifati bo'lib miqdori, miqdori bo'lib aksincha, sifati bo'lmagan narsaning o'zi yo'q.

Miqdor va sifatning birligi, o'zaro bog'liqligi **me'yor** tushunchasida ifodalanadi. Me'yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo'lmagan holatga olib keladi.

Har qanday narsa va hodisaga miqdor va sifat o'zgarishlari xosdir. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'rtasida qat'iy qonuniyat mavjud bo'lib, bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: miqdoriy o'zgarishlar sifat o'zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan tub sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi va Shu holatda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi sodir bo'ladi. Olamdagi barcha o'zgarishlar asta-sekin sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlaridan boshlanadi. Miqdor o'zgarishlari muayyan chegarada sifatning barqarorligiga ta'sir etmaydi. Miqdoriy o'zgarishlar chegaradan chiqishi bilan sifatning barqarorligi buziladi. Natijada sifat yo'qolib, Yangi sifat Yuzaga keladi. Taraqqiyot jarayonida miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga o'tishi bilan birga sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga ham o'tadi. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lishiga qaramay, ular ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. CHunonchi:

- birinchidan, miqdor o'zgarishlari doimo Yuz berib turadi. Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin Yuz beradi. Sifat o'zgarishlariga o'tish faqat ma'lum bir davrda boshlanadi;

- ikkinchidan, miqdor o'zgarishlari ma'lum vaqtgacha narsalarga muhim ta'sir ko'rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100° gacha suyuqlik holatini yo'qotmaydi, keyin esa bug'ga aylanadi, sifatini o'zgartiradi. Demak, sifat o'zgarishlari hodisalarni tubdan o'zgartirib, uning boshqa hodisaga aylanishini taqozo qiladi;

- uchinchidan, miqdor o'zgarishlari asta-sekin amalga oshadi va ko'p hollarda sezilmasdan o'tadi. Sifat o'zgarishlari esa ancha tez, ayrim holatda to'satdan sodir bo'ladi;

- to'rtinchidan, sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga qaraganda tub o'zgarish bo'lib hisoblanadi.

Rivojlanish manbaini yorituvchi dialektik ziddiyatlilik qonunidan farqli o'laroq, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni rivojlanish jarayonining mexanizmini yoritadi, u qay tarzda va qanday shakllarda amalga oshirilishini ko'rsatadi (Bu qonunning xususiyatini, u qanday namoyon bo'lishi va amal qilishini aniqlash uchun uning asosiy tushunchalari: sifat, miqdor, me'yor, sakrashning mazmunini yoritish talab etiladi.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni. Hodisalarga makon-vaqt mezoni nuqtai nazaridan tavsif berish jarayonida «qaerda?» va «qachon?» savollari birinchi o'ringa chiqadi. Ularni bilishga nisbatan boshqa bir yondashuv «nima?» savoli bilan bog'liq. Ma'lum joyda va ma'lum vaqtda mavjud bo'lgan mazkur hodisa nimadan iborat? U qanday xossalari bilan tavsiflanadi? Boshqa hodisalardan uning farqi nimada va qay jihatdan ularga o'xshash? Bunday savollarga javob hodisalarni sifat va miqdor jihatidan tavsiflash orqali beriladi. Mazkur tavsif predmeti sifat va miqdor kategoriyalari bilan ifodalanadi. Eng sinchkov tahlil ham hodisada sifat yoki miqdor jihatidan tavsiflash mumkin bo'lmagan narsani aniqlash imkonini bermaydi. Binobarin, sifat va miqdor – hodisaning qoldiqsiz «parchalanuvchi» ikki tomonidir.

Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni rivojlanish jarayonining mexanizmini yoritadi, u qay tarzda va qanday shakllarda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Bu qonunning xususiyatini, u qanday namoyon bo'lishi va amal qilishini aniqlash uchun uning asosiy tushunchalari: sifat, miqdor, me'yor, sakrashning mazmunini yoritish talab etiladi.

Sifat narsalarga xos va ularning borlig'i bilan ayniy bo'lgan hamda ularni muayyan aloqalar tizimidagi boshqa narsalardan farqlash imkonini beradigan o'ziga xos xususiyatni aks ettiradi.

Narsalarning sifati ularning chekliligi bilan uyg'un bog'liq, zero mazkur sifat yo'q bo'lishi bilan narsaning o'zi ham yo'q bo'ladi, u boshqa narsaga aylanadi. Sifat – narsaning ichki xususiyati, predmetni mazkur jihatdan farqlash uchun zarur va etarli bo'lgan xossalar majmui. Sifat – xossalarning oddiy majmui emas, balki ularning muayyan yaxlitlikdan o'rin olgan va predmetning alohida mohiyat sifatida mavjudligini belgilovchi tizimidir. Predmetlarning munosabatlari va aloqalarining rang-barangligi ayni bir predmetda qarama-qarshi xossalar va sifatlar mavjudligini izohlaydi. Bir jihatdan engil narsa boshqa bir jihatdan og'ir bo'ladi, bir aloqada oq narsa boshqa bir aloqada qora bo'ladi va h.k. Masalan, suv va bug' bir-biridan sifat jihatidan farq qiladimi yoki miqdor jihatidanmi? Moddaning agregat holatini taqqoslaydigan bo'lsak, suv va bug' sifat jihatidan farq qiladi. Taqqoslash suv va bug'ning kimyoviy tarkibini aniqlashni nazarda tutsa, ularning o'rtasida miqdoriy farq mavjud bo'ladi. Ammo har qanday narsa bir jihatdan bitta sifatga va turli jihatlardan ko'plab sifatlariga ega bo'ladi

Xossa-predmetning jihati bo'lib, uning boshqa predmetlardan farqi yoki ular bilan o'xshashligini belgilaydi va ular bilan o'zaro aloqada namoyon bo'ladi. Xossalar muhim va ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Muhim xossalar predmetning sifatini belgilaydi. Ularning yo'qolishi mohiyatini mazkur xossalar tashkil etgan predmetning ham yo'qolishini anglatadi. Ikkinchi darajali xossalar o'zlashtirilishi yoki predmetning sifatini o'zgartirmasdan yo'qolishi mumkin. Har qanday xossa (temperatura, hajm, energiya va sh.k.) muayyan miqdor va sifatga ega bo'ladi. Har qanday predmet o'zining mavjudligini belgilovchi barcha xossalar majmuidir.

Miqdor-predmet muayyan xossasining namoyon bo'lishi, intensivligi darajasi. Barcha narsalar, jarayonlar, hodisalar sifat bilan bir qatorda muayyan miqdorga ham ega. Ular muqarrar tarzda muayyan o'lcham, hajm, massa va Shu kabilar bilan tavsiflanadi. U sifat jihatidan o'xshash xossalar yoki butunning qismlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Miqdoriy munosabatlar sifatga bog'lanmasdan aniqlanishi mumkin. Shuningdek, miqdor turli predmetlarning ayrim umumiy xossasi sifatida, predmetlarni sifat jihatidan tenglashtiradi. Shu ma'noda miqdor sifatning ziddidir. Ammo predmetning sifat xususiyatini mavhumlashtirish sifat jihatidan har xil tuzilmalarni o'rganishga tadqiqotning miqdoriy metodlarini jalb qilish imkonini beradi. Masalan, o'lchash taqqoslashning o'rganilayotgan ob'ektning miqdor ko'rsatkichlarini aniqlovchi ayrim ko'rinishi sifatida, sifat haqida aniqroq xulosa chiqarish imkonini beradi. Matematikada miqdoriy munosabatlar son, qiymat, funksiya, to'plam tushunchalarida ifodalanadi. Hozirgi zamon fani matematik apparatdan foydalanib, mikro dunyoning teran qatlamlariga kiradi, Olamning cheksiz makonlarini tadqiq etadi. Matematika tabiat va jamiyatni o'rganishning samarali vositalaridan biriga aylangan.

Har qanday predmet miqdor va sifat qarama-qarshiliklarining muayyan sintezidir. Uning borlig'i ob'ektga xos bo'lgan muhim xossalarni saqlashni nazarda tutadi. Olamning ko'p sifatliligi uning elementlari nisbatan barqarorligi va mustaqilligi bilan ta'minlanadi. Ammo olam, Shu jumladan har qanday predmet muttasil o'zgarishda bo'ladi. Hech narsa boqiy emas. Butun borliq qachondir paydo bo'lgan va qachondir halok bo'ladi. Dunyo o'zgaradi va ayni zamonda o'zligini saqlab qoladi, o'z-o'ziga nisbatan ayniy bo'ladi.

Me'yor - predmet borlig'ining chegarasi. U *miqdor va sifatning Shunday bir birligiki, bunda muayyan sifat faqat muayyan miqdor bilan bog'liq.* Me'yor – bu miqdor ko'rsatkichlari yoki o'zgarishlarining tegishli sifat mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan oralig'i hamdir. Me'yor – bu Shunday bir chegaraki, unda miqdor o'zgarishlari narsaning sifatiga putur etkazmaydi. Gegel fikricha, «Hamma narsa o'z me'yoriga ega, ya'ni miqdor jihatidan aniqdir»⁶⁸. Masalan, vodorod peroksidi va suv bir-biridan molekullardagi kislorod atomlarining miqdoriga ko'ra farq qiladi. Huquqiy, axloqiy va estetik hodisalar tavsifida me'yor tushunchasi normativlik xususiyatini kasb etadi. «Aynan «ko'proq» va «kamroq» orqali engiltaklik me'yori buziladi va butunlay boshqa narsa – jinoyat namoyon bo'ladi, aynan «ko'proq» va «kamroq» orqali adolat haqsizlikka, fazilat nuqsonga o'tadi»⁶⁹. Masalan, huquqda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi va jazo chorasi

⁶⁸ Гегель Г.В. Энциклопедия философских наук. Соч. Т. 1. -М.: – С.145

⁶⁹ Гегель Г.В. Наука логики. Т. 1. – М.: 1970. – С. 467.

o'rtasidagi muvofiqlikka rioya etiladi. Me'yor tushunchasida miqdor va sifat xossalari o'zaro aloqasi aks etadi. Tabiatda kuzatiladigan narsalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi dunyo evolyusiyasining muhim va keng tarqalgan mexanizmlaridan birini aks ettiradi. Me'yor tushunchasi evolyusiyaga tendensiyalarini aniqlash, turli tizimlarning o'tmishi va kelajagi xususida gipotezalar tuzish imkonini beradi. Miqdor sifat jihatidan bir jinsli hodisalarning muayyan ob'ektiv ko'rsatkichi bo'lib, u mazkur hodisalarning kattaligini, mavjudlik muddatini va umuman hodisa yoki uning ayrim tomonlari rivojlanishining faollik darajasini tavsiflaydi.

Shunday qilib, narsa va hodisalar sifat va miqdor xususiyatlariga ega bo'ladi. Ammo narsalar va hodisalarning bu tomonlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud emasdek, ularning biri ikkinchisiga bog'liq emasdek bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin amalda bunday emas. Miqdor va sifat o'rtasida dialektik aloqa mavjud: muayyan sifatni aks ettirmaydigan miqdor mavjud emas va Shu bilan bir vaqtda miqdorsiz sifat ham yo'q. Mazkur sifatga qo'shimcha tarzda doim qandaydir emas, balki muayyan miqdor javob beradi. Biz, masalan, uzunligi Amudaryo ustida qurilgan ko'prikning uzunligiga teng bo'lgan stolni ko'rmaganmiz. Shuningdek oyoqlarining uzunligi 5 m bo'lgan odamni tasavvur qilish ham qiyin. Shunday qilib, har qanday sifat falsafada me'yor deb ataladigan miqdor chegarasiga ega bo'ladi. Miqdorning me'yor doirasida o'zgarishi sifatning o'zgarishiga sabab bo'lmaydi, lekin me'yordan oshganda narsa o'zining avvalgi mohiyatini yo'qotadi. Miqdor va sifat o'zgarishlarining bunday o'zaro ta'siriga ko'p sonli dalillarni keltirish mumkin. Masalan, jismning tezligi sekundiga 1000, 2000, 7910 metr bo'lsa, u erga yiqiladi. Agar jismning tezligi atigi bir birlikka oshirilsa va u sekundiga 1911 metrga etkazilsa, jism Erdan ko'tariladi va uning yo'ldoshiga aylanadi. Demak, miqdor o'zgarishlari, agar ular me'yor doirasida Yuz bersa, sifatni butunlay o'zgartirmaydi. Biroq, agar bu o'zgarishlar me'yor chegarasidan chetga chiqsa, o'zining muayyan miqdori va o'z me'yoriga ega bo'lgan Yangi sifat vujudga keladi.

Miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi qoida umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va hodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi: *miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni narsaning miqdor va sifat tomonlarining Shunday bir o'zaro aloqasini aks ettiradiki, uning ta'sirida miqdor o'zgarishlari me'yor chegarasidan chetga chiqib, albatta tub sifat o'zgarishlariga sabab bo'ladi, bu sifat o'zgarishlari esa, o'z navbatida, Yangi miqdor ko'rsatkichlariga olib keladi.* Bu qonunga muvofiq rivojlanish bir-biridan farq qiladigan, lekin o'zaro bog'langan ikki bosqich – uzluksizlik va uzluksizlikning birligi sifatida Yuz beradi. Rivojlanishda uzluksizlik – bu juda sust, ko'zga ko'rinmas miqdor o'zgarishlari bosqichi. Rivojlanishda uzluksizlik sakrash deb ataladi.

Sakrash nima. Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo'lib, taraqqiyotning uzluksiz ko'inishiga qaraganda ancha tez o'tadigan jarayondir.

Sakrash miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrash narsa va hodisalarning uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, Shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo'lishi bilan zaruriy ravishda Yuz beradi. Sakrash birdaniga, to'satdan bo'ladigan holatgina emas, balki Yangi sifat elementlari ko'payishi orqali Yuz beradigan tadarriy jarayon hamdir.

Sakrashning turlari o'z harakteriga ko'ra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo'lib, ular bir-birlaridan farq qiladilar. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlarning o'ziga xos tomoni Shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo'q qilish va Yangi ijtimoiy tuzumni o'rnatadigan ijtimoiy jarayonlar, tadarriy rivojlanish orqali amalga oshadi. Bunday sakrashlarni ikki turga bo'lish mumkin: birinchisi — portlash yo'li bilan bo'ladigan sakrashlar, ikkinchisi sekin-asta, tadarriy yo'l bilan bo'ladigan sakrashlar. Birinchi tur sakrashlarning o'ziga xos xususiyati Shundan iboratki, bunda narsa va hodisalarning Yangi sifatga o'tishi nihoyatda tezlik bilan Yuz beradi va kutilmagan natijalarni, tasodifiy jarayonlarni boshlab yuborishi, hatto salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Sakrashning ikkinchi turida esa, eski sifat elementlarining asta-sekin yo'qolib borishi va Yangi sifat elementlarining asta-sekin to'planishi natijasida Yangi sifat paydo bo'ladi.

Shunday qilib sakrash quyidagi jihatlariga ega:

- birinchidan, sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan ob'ektiv va qonuniy jarayondir;
- ikkinchidan, sakrash tadrijiylikning uzilib, miqdor o'zgarishlaridan tub sifat o'zgarishlariga o'tishidir;

- uchinchidan, sakrash eskini tugatish va Yangi sifatga mos keladigan holatlarning vujudga kelishi tufayli paydo bo'ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir;

- to'rtinchidan, sakrash olamning rivojlanib, ilgarilab borishidir.

Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bog'liq ravishda eski sifatdan Yangi sifatga o'tish turli shakllarda sodir bo'ladi. Har bir narsa, hodisa o'zining aniq inkor qilish usuliga, o'z navbatida aniq sakrash shakliga egadir.

Sakrash-bu bir sifatning boshqa sifatga aylanish vaqti, shakli, usuli, miqdor o'zgarishlarining uzluksizligi, bosqichma-bosqichligidagi uzilishdir. Masalan, sakrash-bu Erda hayotning paydo bo'lishi, hayvonlar dunyosidan insonning ajralib chiqishi, bir ijtimoiy tuzum o'rniga boshqa ijtimoiy tuzum kelishi, buyuk ilmiy va texnikaviy kashfiyotlardir. Har qanday sakrash rivojlanishda o'tish davrini tavsiflaydi. O'z tabiatiga ko'ra u doim ziddiyatlidir, chunki Yangining tug'ilishidan ham, eskining qarshiligidan ham dalolat beradi.

Sakrashlarning shakllari rang-barang bo'lib, rivojlanayotgan hodisaning tabiati, Shuningdek unda sifat o'zgarishlari Yuz berayotgan konkret sharoit bilan belgilanadi. Sakrashlar:

1) o'zgarishning davomlilikiga ko'ra (*judal, sust*);

2) o'zgarish shakliga ko'ra (*bir karra, ko'p karra*);

3) o'zgarishning chuqurlik darajasiga ko'ra (*qisman, to'liq*);

4) o'zgarishning yo'nalishiga ko'ra (*progressiv, regressiv, yo'nalishsiz*) farq qiladi.

Sakrashlarni tahlil qilish chog'ida «evolyusiya», «inqilob», «islohot» kabi atamalar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. «Evolusiya» tushunchasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'nodagi «evolyusiya» asta-sekin rivojlanish jarayoni bo'lib, u miqdor o'zgarishlarinigina emas, balki sifat o'zgarishlari, Shu jumladan inqiloblarni ham o'z ichiga oladi. Tor ma'noda «evolyusiya» deganda inqilobdan, uning tayyorlanishidan oldingi davr tushuniladi. «*Inqilob*» tushunchasi ijtimoiy hodisalarni tavsiflash uchun ishlatiladi va jamiyatni asta-sekin emas, balki tubdan o'zgarish yasaydigan sakrashdir. *Islohot jamiyat hayotining biron-bir muhim tomonini o'zgartirish bo'lib, bunda uning iqtisodiy va davlat tartibi asoslari saqlanib qoladi.*

Shunday qilib, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni, rivojlanishning umumiy qonuni sifatidagi mazmuni haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradigan «sifat», «miqdor», «me'yor», «sakrash» kategoriyalari yordamida muayyanlashtiriladi. Mazkur qonun butun borliqning rivojlanishi, harakati va o'zgarishi qanday, qay tarzda Yuz beradi, degan savolga javob berib, ob'ektiv voqelikning har qanday sohasida Yangi sifatga o'tishning ichki mexanizmini yoritadi. Ko'rib chiqilgan qonunlar rivojlanish manbai va uning mexanizmini yoritib bersa, inkorni-inkor qonuni – rivojlanishning umumiy tendensiyasini, uning yo'nalishini aks ettiradi.

Demak, har qanday o'zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bir-biriga o'tishi orqali sodir bo'ladigan jarayonlardan iborat. Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, Yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo'lib turadi. Bunday eskining Yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

O'zgarish va rivojlanish jarayonida **o'z-o'zini inkor etish tamoyili** nihoyatda muhim. Bunda **vorislik** - eskining inkori va Yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo'ladi. Ana Shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi **inkorni inkor qonunining** mohiyatini bildiradi.

Mazkur qonunga muvofiq ob'ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining Yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq, aksariyat hollarda, eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi.

Inkor tushunchasi kundalik ongda «yo'q», so'zi bilan qo'shib ketadi, inkor qilmoq — «yo'q» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to'g'ridan-to'g'ri «yo'q» degani emas, ya'ni narsani mavjud emas, deb e'lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo'qotib tashlamoq emas.

Inkorni dialektik tushunish Yangining eski bilan oddiy almaShuvi bo'lmasdan, balki eskining bag'rida vujudga kelib, undan foydalanib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning

muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o'rniga Yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u Yangini eski bilan vorisiy bog'liq ekanligini ham ifodalaydi.

Inkorni inkor qonunini tushunish uchun uni nega Shunday deb atalishini izohlamoq lozim. Falsafaning bu ta'limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi olamdagi narsa va hodisalarning doimiy ravishda o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi.

Bu qonunga ko'ra, har bir mavjud bo'lgan narsa va hodisa o'zigacha bo'lgan sifat va miqdor inkor etilishining mahsuli, Shu bilan birga, ana Shu narsa va hodisalarning o'zi ham sharoitning o'zgarishi, vaqtning o'tishi bilan inkor etilishga mahkumdur. Demak, har bir narsa va hodisaning o'zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko'proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Insoniyat tarixi - avlodlar almashinuvi tarixidir, deyilganida ham ana Shunday hol nazarda tutiladi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi Shuki, taraqqiyotdagi davriylikning muayyan halqasida, ya'ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi ba'zi belgilar takrorlanadi. Masalan, don o'simlikdan yana donlarga aylanadi, keyinroq yana o'simlikka va hokazo.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to'g'ri chiziq shaklida emas, doira shaklida bo'ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang'ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo'lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo'lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega bo'ladi. Bu spiralning har bir Yangi o'rami oldingi o'ramiga nisbatan yuqoriroq bosqichda Yuzaga keladi.

Dialektik inkor Yangi bilan eski o'rtasidagi bog'lanishni butkul rad qiladi, deb tuShunmaslik kerak. Yangi qanchalik ilg'or bo'lmasin, u yo'q joydan paydo bo'lmaydi, balki eskining qobig'ida asta-sekin shakllanadi. Shuning uchun ham ko'p hollarda eskidan Yangiga o'tilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, balki uning ijobiy tomonlari saqlanib qoladi va rivojlanish davom ettiriladi. Demak, Yangi bilan eski o'rtasida vorislik mavjuddir. Inkorni inkor qonuni taraqqiyotda vorislik va qaytariluvchanlikning birligini tavsiflaydi. Dialektik inkorning muhim xususiyati ana Shundan iborat.

Inkorni inkor qonuni mustaqillik va bozor iqtisodiyoti jarayonida ro'y berayotgan hodisalar mohiyatini ilmiy anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi jamiyatni barpo etishga qaratilgan o'zgarishlar hamma narsani butunlay yo'q qilishni bildirmaydi. Aksincha, bu — xalqimiz taraqqiyoti jarayonida erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yutuqlarni saqlab qolib, ularni yanada boyitib, rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur jarayonning asosiy tamoyili Islom Karimovning Yangisini qurmasdan, eskini buzmaslik lozimligi to'g'risidagi xulosasida yaqqol o'z asosini topgan.

Har qanday fanning o'ziga xos qonunlari va asosiy tushunchalari bo'ladi. Masalan, fizikada fizik qonunlar, og'irlik, tezlik, kuch kabi tushunchalarga juda ko'p duch kelish mumkin. Ularning aksariyati bu fan tarixida chuqur iz qoldirgan mashhur olimlarning nomi bilan bog'langan. Masalan, fizikada Nyuton, Faradey, Avagadro va hokazo. Matematikani esa Pifagor, al-Xorazmiy, Karl Gausning qonunlarisiz tasavvur qilish qiyin. Xuddi Shunday falsafaning fanlik maqomini belgilaydigan asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi ham bor. Ularni o'rganishdan avval, qonun va kategoriya tushunchalarining mazmunini aniqlab olish zarur. An'anaviy tavsiflarga ko'ra, «Qonun» falsafiy kategoriya sifatida narsa va hodisalar rivojlanishi jarayonidagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, doimiy takrorlanib turuvchi, ichki o'zaro bog'lanishlar, aloqalar, munosabatlarning mantiqiy ifodasi ekanligini ko'rib o'tdik. Endi kategoriyalarning mohiyati va mazmuni bilan qisqa tanishaylik.

Inkorni-inkor. Inkorni-inkor qonunining mohiyati nimadan iborat? Ayni bir atama bunday ketma-ket qo'llanilishining ma'nosi nimada? Inkor kategoriyasi rivojlanayotgan ob'ekt tarixidagi bir lahzanigina tavsiflaydi. Bitta inkor harakati o'zgarish qaysi yo'nalishda Yuz berayotgani, oldingi va keyingi voqealar oqimida u qanday ahamiyatga ega ekanligini, Yuz bergan voqeaning mazmunini aniqlash uchun doim ham imkoniyat yaratavermaydi. Boshqacha aytganda, inkorni-inkor tushunchasi rivojlanish jarayonining muhim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

«Inkor» va «inkorni-inkor» kategoriyalari dialektikaga Hegel tomonidan kiritilgan bo‘lib, ayni Shu mutafakkirning sa’y-harakatlari bilan ular umumiy falsafiy kategoriyalar maqomini olgan. Inkori va inkorni-inkor kategoriyalaridan Hegel rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish vositasi sifatida foydalangan. Hegel, Shuningdek uning o‘tmishdoshlari va izdoshlari ko‘rsatib bergan ba’zi bir o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘rib chiqamiz.

Birinchidan, inkorni-inkor rivojlanish yo‘nalishini ko‘rish uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur hodisa taraqqiyot yoki tanazzul alomati ekanligini bir inkor harakatining o‘zidan aniqlash mushkul. Shu bois, masalan, qabul qilingan muayyan qonun, saylov natijalari va Shu kabilar haqida xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak.

Ikkinchidan, inkorni-inkor rivojlanish shaklining tavsifi bo‘lib xizmat qiladi. Ma’lumki, Hegelning dialektika tizimida rivojlanish mantiqiy ziddiyatning Yuzaga kelishi va uning bartaraf etilishi sifatida tavsiflanadi. Bu jarayon «tezis – antitezis – sintez» formulasiga muvofiq Yuz beradi. Dialektika kontekstida rivojlanishning uch bosqichi ijtimoiy va tabiiy tizimlar rivojlanishining ko‘p sonli ssenariylaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo Hegel qayd etgan rivojlanishning siklligi, uning chiziqsizligi tabiat va jamiyatda jarayonlar kechishining ancha keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Uchinchidan, tabiiy va ijtimoiy sikllarda rivojlanish ham, tanazzul ham bo‘lmazligi mumkin: o‘zgarish aylanma harakat qiladi. Inkorni-inkorda rivojlanish quyi bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari yuqoriroq bosqichda takrorlanishi Yuz beradi. Avvalgi holatlarga qaytish imkoniyati, ya’ni o‘tilgan holatlarning ayrim xossalari rivojlanishning yuqoriroq bosqichida takrorlanishi bilish va tarixning rivojlanishini tushunish uchun o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Demak, inkor rivojlanishni Yangi sifat paydo bo‘lishiga olib keladigan aniq yo‘naltirilgan, qaytmas o‘zgarish sifatida tavsiflanadi.

SHaklan rivojlanish bir chizikli ham, aylanma ham emas, balki rang-barangroq va murakkabroq, chunonchi: bir chizikli va ko‘p chizikli, to‘g‘ri chizikli va zigzagsimon, umumiy va xususiy, uyg‘un va nouyg‘undir.

Yo‘nalish jihatidan rivojlanish progressiv va regressiv bo‘ladi. Rivojlanish tizim ayrim elementlarining tanazzuli bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Butun tizim tanazzulga uchrashi, uning ayrim elementlari esa taraqqiy etishi mumkin emas. Ob’ektga nisbatan tashqi kuchlar ta’sirida Yuz berishi mumkin bo‘lgan harakatdan farqli o‘laroq, rivojlanish o‘z-o‘zidan harakat, ichki jarayon bo‘lib, ziddiyat, bir-birini istisno etuvchi tomonlar, tendensiyalar uning manbai hisoblanadi.

YUqorida aytib o‘tilganidek, Hegel falsafasida rivojlanish tushunchasi inkor va inkorni-inkor kategoriyalarida yoritiladi. Mazkur terminologiya mutafakkirning mantiq tizimi negiziga aylantirilgan ob’ektiv-idealistik falsafasi kontekstida tasodifiy bir hol emas. Avval «inkor» kategoriyasining mazmunini aniqlaymiz. Inkori nima? Unga ikki xil – metafizik va dialektik munosabat mavjud.

Metafizik «inkor» asosiy e’tiborni eskining yo‘q bo‘lishiga qaratadi, Yangining saqlanishi va uni yaratish jarayonlarini deyarli e’tiborga olmaydi. Shunday qilib, metafizik inkor - inkor qilish rad etish, yo‘q qilishni anglatadi.

Dialektik inkor eski sifatdan Yangi sifatga o‘tish bo‘lib, bunda eski sifatning muayyan tomonlari, mazmuni va funksiyasining elementlari o‘zgargan ko‘rinishda Yangi sifatga o‘tadi. Dialektik inkor – bu narsani butunlay yo‘q qilish emas, balki eski sifatning ba’zi bir jihatlarini saqlagan va o‘zgartirgan holda uni Yangi narsaga aylantirishdir. U Yangi va eski sifat o‘rtasida aloqa mavjudligidan dalolat beradi. *Dialektik inkor uch muhim jihat bilan tavsiflanadi:*

- 1) eskini vayron qilish, buzish;
- 2) eskining elementlarini saqlash (vorisiylik);
- 3) Yangini yaratish, tuzish.

Biz inkor kategoriyasi metafizik va dialektik talqinining mohiyatini aniqladik. Endi qo‘sh inkor nimadan iborat ekanligini ko‘rib chiqamiz.

«Qo‘sh inkorni - inkor» da rivojlanish jarayoni eski sifatni inkor qilishdan boshlanadi, uni esa oradan ma’lum vaqt o‘tgach Yangi sifat inkor etadi. Ammo rivojlanish qanday Yuz beradi? To‘g‘ri (yuksalib boruvchi) chiziq bo‘ylabmi yoki egri chiziq bo‘ylabmi? Bu masala quruq gap

emas, balki u muhim ahamiyatga ega. Chunki rivojlanish jarayonida eski va Yangining aloqasi bo'lmaganda, vorisiylik ham bo'lmasdi, eski butunlay yo'q bo'lar, rivojlanishni grafik ko'rinishda Yangi eskidan farq qiladigan, eski esa Yangida takrorlanmaydigan to'g'ri (yuksalib boruvchi) chiziq sifatida tasvirlash mumkin bo'lardi. Biroq amalda Yangida eski saqlanadi, uning elementlari Yangida takrorlanadi. Ammo bu takrorlanish yuqoriroq darajada Yuz beradi. Eskining jihatlari, elementlari yuqoriroq asosda takrorlanishi biz muhokama qilayotgan qonunning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bundan qonunning boshqa bir xususiyati kelib chiqadi. Hamonki eskining oliy asosda qaytarilishi mavjud ekan, rivojlanish to'g'ri chiziq bo'ylab emas, balki spiralsimon chiziq bo'ylab Yuz berishi, sikldan-siklga eskiga yaqinlashishi (chunki takrorlanib turishlik mavjud) va undan uzoqlashib borishi (chunki bu Yangi) ayon bo'ladi.

Nima uchun bu takrorlanib turishlik muqarrar?

Gap Shundaki, inkor ziddiyat bilan uzviy bog'liq, u mazkur ziddiyatning echilishi bilan belgilanadi. O'ziga xos ziddiyat bilan vujudga kelgan har qanday Yangi narsani olaylik. Ziddiyatning rivojlanish jarayonida narsa o'zining qarama-qarshiligiga aylanadi. Ammo inkorning mazkur bosqichida dastlabki narsada mujassamlashgan ziddiyat faqat qisman echiladi. Bu to'liqsizlik narsa o'zini inkor qilishda davom etishini belgilaydi. Birinchi inkor o'rniga ikkinchi inkor keladi va ikkinchi narsaga qarama-qarshi bo'lgan Yangi, uchinchi narsa vujudga keladi, u ikkinchi narsaning inkori, ya'ni birinchi narsaning inkorining inkori hisoblanadi. Ikkinchi inkor bosqichida birinchi narsaga xos bo'lgan ziddiyat to'la echiladi.

Qo'sh inkor natijasida, dastlabki nuqtaga qaytilishi bilan rivojlanishning yuqoriroq darajasiga erishiladi, rivojlanishning boshlang'ich, lekin boyitilgan shakli tiklanadi. Rivojlanish chizig'i go'yo «spiral o'rami» aylanasini tashkil etadi, lekin uning boshi oxiri bilan tutashmaydi. Shunday qilib, rivojlanish harakatning bosqichma-bosqichligi va siklliligi jihatlarini o'zida birlashtiradi. Bu qoida ham umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va hodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi.

Inkorni-inkor qonuni – bu Shunday bir qonunki, unga muvofiq rivojlanish jarayoni Yangining eskini dialektik inkor etish cheksiz zanjiridan iborat bo'ladi, bunda rivojlanish avvalgi bosqichlarining barcha muhim jihatlari Yangida saqlanadi va umuman bu jarayon hujumkor, yuksalib boruvchi yo'nalishga ega bo'ladi. Ayni vaqtda rivojlanish jarayonida uning oliy bosqichlarida avvalgi bosqichlarning ayrim jihatlari va tomonlari sifat jihatidan Yangicha asosda takrorlanadi va ayni hol to'g'ri chiziq, tutash doira bo'ylab emas, balki spiralga yaqinlashuvchi egri chiziq bo'ylab yuksalishni belgilaydi. Harakatning spiralsimonligi rivojlanishning siklligini aks ettiradi.

Falsafa qonunlarining o'zaro aloqadorligi. Dialektikaning asosiy qonunlari yagona rivojlanish jarayonining turli jihatlarini tavsiflab, alohida-alohida emas, balki uzviy dialektik birlikda amal qiladi. Masalan, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi va buning aksi ziddiyatni ham, dialektik inkorni ham o'z ichiga oladi. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi miqdor-sifat munosabatlarini va inkorni-inkorni o'z ichiga oladi. Xuddi Shuningdek inkor jarayonida yagonaning eski va Yangiga ikkilanishi, ularning o'rtasida qarama-qarshilik, Shuningdek miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi Yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, moddiy dunyoning yagonaligi qonunlar amal qilishining umumiyiligini nazarda tutadi. Ammo Shuni e'tiborga olish lozimki, dialektika qonunlari bir vaqtda amal qilganda, ularning har biri nisbatan mustaqil bo'ladi, zero rivojlanish mohiyatining muayyan jihatini (manba, mexanizm, yo'nalish) aks ettiradi, rivoshlanishning zaruriy sharti sifatida tavsiflanadi, o'z mavjudligining avvalgi shakllarini inkor etmaydigan rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Inkor harakatida rivojlanishga monelik qiladigan narsalarning rad etilishi, yo'q qilinishi Yuz beradi. Umuman olganda inkor – ob'ektiv jarayon. Masalan, hozirgi zamon fani ma'lumotlariga ko'ra, kengayib borayotgan plazmani yo'q qilib tashlagan Katta portlashsiz biz yashayotgan Olam, uning galaktikalari, yulduzlari va sayyorolari ham, inson ham bo'lmas edi. Ammo inkorni sof yo'q bo'lish sifatida talqin qilishdan ehtiyot bo'lish lozimligini Hegel ham, boshqa faylasuflar ham qayd etadi. Bunday inkor «behuda», metafizik inkor deb e'tirof etiladi. U tabiatda ham, jamiyatda ham mavjud.

Lekin oddiy yo‘q bo‘lish jamiyatni ortga uloqtirib tashlaydi, xolos. Vaholanki, tarix kul tepasida jo‘yali bir narsa Yuzaga kelishi mushkul.

Dialektik inkor rivojlanish omili hisoblanadi, chunki u bartaraf etishni o‘z ichiga oladi. Gegel fikricha, bartaraf etish «ikki xil ma’no kasb etadi: u asrash, saqlab qolishni va ayni vaqtda to‘xtatish, chek qo‘yishni anglatadi»⁷⁰. Gegel talqinida inkor rivojlanish omili sifatida yashash qobiliyatini yo‘qotgan narsani yo‘q qilish va erishilgan rivojlanishni saqlashni nazarda tutadi. Masalan, A.Eynshteyn Yangi va eski nazariyalarning o‘zaro nisbatini Shunday tavsiflaydi: «Yangi nazariya eski nazariya yutuqlarini chetga chiqarib tashlaydi, deb hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Yangi nazariya eski nazariyaning afzalliklarini ham, kamchiliklarini ham namoyon etadi va bizga eski tushunchalarga teranroq nuqtai nazardan baho berish uchun imkoniyat yaratadi. Biz eski nazariya o‘rinli bo‘lgan sohada dalillar o‘rganilayotganda har safar undan foydalanishimiz mumkin»⁷¹. Ammo har qanday hodisa yaxlit bo‘lgani bois, bartaraf etish haqidagi masalaning qo‘yilishi mavxum xususiyat kasb etadi. XIX asr falsafiy ta’limotlarida bartaraf etishning tabiat va tarixdagi ko‘rinishlarini erishilgan yutuqlarni o‘zgartirilgan holda saqlash sifatida yoritib, bu tushunchani to‘ldiradi. Yangilik va eskilikning ichki ziddiyatlariga chek qo‘yish sifatidagi o‘z-o‘zini inkor dialektik inkorning muhim xususiyati bo‘lib, bu rivojlanishning hujumkorligini belgilaydi. Bu qonun dialektikaning boshqa qonunlarini umumlashtiradi, ularni sintez qiladi.

Xulosalar. Dialektika rivojlanish falsafasining puxta ishlab chiqilgan konsepsiyasidir. Hodisalar rivojlanishining umumiy nazariyasi sifatida u rivojlanishning mohiyatini anglab etishga yo‘l ochadi, tabiat, jamiyat va tafakkurdagi real jarayonlarni ular amalda qanday bo‘lsa, Shunday aks ettiradi.

Dialektika narsalar va hodisalarni o‘rganishga ularning vujudga kelishi, harakati va rivojlanishi nuqtai nazaridan yondashadi, Shu sababli u ob’ektiv jarayonlarni konkret, har tomonlama o‘rganishga yo‘l ko‘rsatadi.

Dialektika bilan bir qatorda rivojlanishning metafizik konsepsiyasi, sofistika, eklektika, ekzistensial dialektika, sinergetika va boshqa konsepsiyalar mavjud. Ayrim falsafiy maktablar dialektikani sxolastika sifatida rad etadi. Bu dialektika yanada chuqurroq o‘rganish va anglab etishni talab qilishini anglatadi.

Dialektika qonunlari ob’ektiv dunyoning eng muhim aloqalari va munosabatlarini aks ettiradi. Ular birlikda va o‘zaro aloqada amal qilib, murakkab serqirra jarayon – ob’ektiv borliqning rivojlanishini tavsiflaydi.

Dialektika qonunlarining amal qilish mexanizmini chuqur bilish, ulardan mohirona foydalanish yangilish va xatolardan qutqaradi, kishilarning amaliy faoliyatiga yanada izchilroq va samaraliroq tus beradi.

Kategoriya o‘zi nima. Bu so‘z qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko‘rsatish», degan ma’nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardanoq ilmiy tadqiqot yo‘nalishiga aylangan.

Falsafa tarixida ularni birinchi bo‘lib, Arastu ta’riflab bergan. U o‘zining «Kategoriyalar» degan asarida ularni ob’ektiv voqelikning umumlashgan in’kosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilgan. Xususan, uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: «mohiyat» (substansiya), «miqdor», «sifat», «munosabat», «o‘rin», «vaqt», «holat», «mavqe», «harakat», «azob-uqubat». Bu turkumlashtirish, o‘z vaqtida ilmiy bilishda juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Keyinchalik Arastu «Metafizika» asarida «mohiyat», «holat» va «munosabat» kategoriyalarini ham izohlagan.

Umuman, kategoriyalarni falsafa tarixida ilmiy mavzu sifatida o‘rganishni aynan Arastu boshlab berganligi e’tirof qilinadi. Ma’lumki, ungacha Yunonistonda ko‘proq politika va ritorika (notiqlik san’ati) fanlari sistemalashgan, ya’ni fan sifatida tizimga tushirilgan edi. Chunki o‘sha davrda qo‘shinni, mamlakatni va odamlarni boshqarish uchun siyosat va nutq madaniyati sirlarini bilish katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ammo o‘sha davrlarda falsafaning qonunlari, kategoriyalari va asosiy tayanch tushunchalari muayyan tizimga tushirilmagan, izchil bayon qilingan bilimlar

⁷⁰ Гегель Г.В. Соч. Т. 5. – М.: 1997. – С.99.

⁷¹ Эйнштейн А., Инфельд Л. Эволюция физики. – М.: 1956. – С.156.

sistemasi sifatida shakllantirilmagan edi. Hatto Yunonistonning mashhur olimi va mutafakkiri Suqrotni ham ana Shunday, hali go'yoki shakllanmagan fan bilan Shug'ullangani va yoshlarni bu ilm yo'lga boshlab, ularning noto'g'ri tarbiyasiga sabab bo'lganlikda ayblagan ham edilar. Bu hol Suqrotning buyuk shogirdi Arastuning mazkur fanni aniq sistema tarzida ifodalashga kirishishi uchun turtki bo'lgan. Olim falsafaning qonun va kategoriyalarini birinchi marta sistemalashtirgan, ta'riflagan va falsafani fan darajasiga ko'targan. O'sha davrdan boshlab falsafa o'z qonunlari, tamoyillari, kategorial tushunchalariga ega bo'lgan fanga aylangan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va ibn Sinolar ham katta ahamiyat berganlar.

XVII-XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida Yangi davr vujudga keldi. Xususan, I. Kant qarashlarida kategoriyalar «sifat» (reallik, inkor, chegaralash), «miqdor» (birlik, ko'plik, yaxlitlik), «munosabat» (substansiya va xususiyat, sabab va harakat, o'zaro ta'sir), «modallik» (imkoniyat va imkoniyatsizlik, voqelik va novoqelik, zaruriyat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli o'laroq, Hegel esa mantiqiy kategoriyalarni: «borliq» (sifat, miqdor, me'yor), «mohiyat» (asos, hodisa, mavjudlik), «tushuncha» (ob'ektiv, sub'ektiv, absolyut g'oya) tarzida izohlagan.

Falsafa fanining kategoriyalari haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflari bor: 1) ob'ektiv voqelikning in'ikosi; 2) narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli; 3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o'zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha; 4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy — mantiqiy bilish darajalaridan biri. Ko'pchilik mutaxassislar kategoriyalar olam, undagi narsa va voqealar, ularning asosiy va takrorlanib turuvchi aloqadorligini ifodalaydigan keng mazmundagi tushunchalardir, degan fikrga qo'shiladilar. Bu ma'noda borliq, voqelik, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat va boshqalar falsafaning ana Shunday kategoriyalaridir.

Falsafada o'z xususiyatlariga ko'ra, «**juft kategoriyalar**» deb ataladigan; umumiy bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalar ham bor. Ular narsa va hodisalarning muayyan yo'nalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan umumiy qonuniyat tarzida vujudga kelgan.

Alohidalik, xususiylik, umumiylik. Ular narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon-zamon munosabatlarini konkret tarzda namoyon qiladi. Umumiylik - olamdagi alohida, individual tarzda namoyon bo'layotgan narsa - hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashtiruvchi xossa hamda xususiyatlarning mushtaraklashgan holda namoyon bo'lishidir. Alohidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabat «xususiylik» kategoriyasi orqali ifodalanadi. Birinchidan, bu kategoriyalarning mazmuni olamning birligi, ularning mantiqiy ifodasi konkretlik bo'lib hisoblanadi. Ikkinchidan, «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalarning makon-zamon konkretligini ifodalaydigan, nisbatan mustaqil mantiqiy tushunchalar tarzidagina namoyon bo'lishi mumkin. Zero, ularning nisbatan mustaqilligi, ichki birligining namoyon bo'lish shaklidir.

Falsafiy adabiyotlarda, bilishning umumiy tendensiyasini alohidalikdan xususiylikka va Shu bosqich orqali umumiylikka o'tish tarzida yoki aksincha, izohlash keng tarqalgan. Vaholanki, falsafiy bilishning asosiy xususiyati va maqsadi har qanday alohidalikning individual xususiyatlarini umumiylikdan farqlashdan iboratdir. Masalan, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyati bo'lsa ham, bu jarayon turli ijtimoiy-tarixiy makon va zamonda har bir davlat uchun o'ziga xos bo'lgan modelni taqozo qiladi. Alohidalikning umumiylikdan farqini aniqlash asosida, maxsus usul va vositalarini qo'llash bozor strategiyasi va taktikasining milliy xususiyatlarini belgilashga yordam beradi.

Alohidalik yoki, ba'zi falsafiy adabiyotlarda ko'rsatilganidek, yakkalikni muayyan xossa hamda xususiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalarning makon va zamondagi chegaralangan konkret holati, boshqacha kilib aytganda, har qanday hodisa va narsaning ichki sifat muayyanligi, individualligi deyish mumkin.

Antik falsafada alohidalik kategoriyasining mazmuni muayyan turg'unlikka ega bo'lgan birlik sifatida qaralgan (Aflotun, Arastu). Hegel, alohidalikni voqealarning zaruriy shakli, makon va zamondagi tafovutlarning namoyon bo'lish momenti sifatida qaraydi.

Falsafada milliylik va umuminsoniylik masalasida alohidalikning umumiylikdan farqini mutlaqlashtirish natijasida muayyan qarashlar vujudga kelishi mumkin (Bu haqda «Osiyosentrizm» va «Evropatsentrizm» to'g'risida eslash kifoya).

Vaholanki, umuminsoniyat sivilizatsiyasining tadrijiy rivojlanishida muayyan ichki birlik mavjud bo'lib, madaniyat tarixida har bir xalq, millat o'z o'zini va ahamiyatini namoyon qiladi. Shuning uchun umuminsoniyat sivilizatsiyasi tarkibidagi milliy madaniyatni mutlaqlashtirish, muayyan siyosiy manfaatlarga asoslangan bo'lib, buyuk davlatchilik, shovinistik qarashlardan boshqa narsa emas. Bu XX asrning 30-yillarida fashizm mafkurasini shakllantirgan asosiy sababalardan biri edi.

Alohidalikni, umumiy qonuniyatlar tarkibidagi, elementlarning individual rivojlanish jarayoni sifatida olib qarash kerak. Chunki har qanday umumiylik, dastlab voqelikning alohidaligi tarzida vujudga keladi. Shunga ko'ra, har qanday sistema o'z tarkibidagi nisbatan Yangi, alohida hodisalarning individual rivojlanishisiz sodir bo'la olmaydi. Shunday qilib, alohidalik voqelik rivojlanishining xilma-xil shakllarini vujudga keltiradi.

Narsa va hodisalarda alohidaliklarning konkret xususiyatlari o'rtasidagi bog'lanishlar, bir tomondan, umumiylikni namoyon qilish bilan bir qatorda, ularning muayyanligi va mazmunini ham belgilaydi. Ikkinchi tomondan esa, umumiylikning konkretligi alohidaliklar sistemasi tarzida namoyon bo'ladi. Bu sistemaga strukturali yondashish bilishning nisbatan to'laqonli bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, muayyan jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy munosabatlari o'ziga xos bo'lgan yo'nalishlarini vujudga keltirgan. YA'ni, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, diniy ekologik va boshqa Shu kabi ijtimoiy munosabatlar umumiy madaniyat tarkibida «iqtisodiy madaniyat», «huquqiy madaniyat», «siyosiy madaniyat», «ekologik madaniyat» va boshqa nisbatan mustaqil yo'nalishlarga asos bo'lgan. Bu madaniyat yo'nalishlari nisbatan mustaqil bo'lsa ham, bir-birini taqozo qiladi. Ularning ichki birligi va rivojlanish tendensiyasi umuminsoniyat sivilizatsiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan bo'lib, umumiy taraqqiyot darajasiga mos keladi.

Falsafaning bu kategoriyasi bilan «butun», «qism», «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari o'rtasida uzviy bog'liqlik va muayyan farqlar mavjud. YA'ni «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalar rivojlanish jarayonidagi bog'lanish, aloqadorlik munosabatlarining yaxlitligini nisbatan mustaqil ifodalash bo'lsa, «butun», «qism», «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari esa, ularning makon va zamondagi bog'lanish munosabatlarini jarayon tarzida ifodalashdir. Shu nuqtai nazardan, butunni - umumiylik, qismni yoki elementni - alohidalik tarzida olib qarash holatlari uchraydi. Shuningdek, muayyan o'xshashlik bo'lishiga qaramasdan, sistemani umumiylik tarzida qabul qilish mumkin emas. Bunda sistema turli darajadagi umumiyliklarning majmui ham bo'lishi mumkin. Umuman, narsa va hodisalarni tarkibiy jihatdan «butun», «qism», elementlarga ajratish bilishga xos nisbiy hodisa bo'lib, uning samaradorligini ta'minlaydigan zaruriy shartdir. Shunga ko'ra, yuqorida aytilgan har ikkala kategoriyalar tizimi bilishning bosqichi sifatida emas, balki usuli sifatida olib qaralishi kerak.

Sistema, struktura, element falsafaning muhim kategoriyalaridan bo'lib hisoblanadi. Sistema - grekcha so'z bo'lib, mantiqiy ma'nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma'nolarni anglatadi.

Sistema kategoriyasining mazmuni, uni tashkil qilgan elementlarning strukturaviy munosabatlariga mos keladi. Shu nuqtai nazardan, bilish jarayonidagi sistemalashtirish, nazariy faoliyat sifatida, ularning tashkil qilingan tarkibiy elementlarini tarixiy-mantiqiy izchil tartibga keltirish bilan izohlanadi. Xususan, bu elementlarning funksional faoliyatini, ahamiyatiga ko'ra turkumlashtirish, muhim metodologik ahamiyatga ega, chunki insonning borliqni bilish faoliyati sistema strukturasidagi elementlarning mavjudlik holati va rivojlanishi ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish asosida, ularni maqsadga muvofiq tashkil qilishga qaratilgan. YA'ni, insonning ob'ektiv reallikni nazariy bilishga asoslangan: tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish faoliyatlari samaradorligi va maqsadga muvofiqligi turli kategoriyalardan unumli foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Sistema — narsa va hodisalarning bog‘lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Struktura esa, narsa hodisalar bog‘lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta‘minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. Umuman, struktura (lotin tilida tuzilish, tartib degan ma‘noni anglatib), sistemani tashkil qilgan elementlarning nisbatan turg‘un bog‘lanish, aloqadorligi va munosabatidir. Hozirgi mavjud falsafiy qarashlarda strukturani sistemaning aspekti sifatida qarash ustuvordir. Sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy tuzilishi uning mavjudlik holatini hamda rivojlanish istiqbollari belgilab turadi. Masalan, tabiatdagi atomlarning tarkibiy tuzilishlari xususiyatlariga qarab, moddiy olamning xilma-xil ko‘rinishlari, DNK yoki RNK larning o‘zaro ichki munosabatlari, xromosomalar xilma-xilligi, tirik organizmlar turli-tumanligi aniqlangan. Ular umumlashgan xolda, moddiy olamning ob‘ektiv realligi tarzida mavjud bo‘lsa ham, moddiylikning konkret strukturasi ega bo‘lgan sistemalaridir. Borliqni tashkil qilgan elementlarning munosabatlariga, makon va zamon xususiyatlariga qarab, ularni «ichki struktura» va «tashqi struktura» ga ajratish mumkin.

Element sistemani tashkil qilgan strukturaning o‘zaro bog‘lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlari ta‘minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir. Jamiyatda element ijtimoiy munosabatlarning konkret ko‘rinishlari tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, jamiyatni yaxlit sistema deb oladigan bo‘lsak, undagi element alohida individlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalarning ongli munosabatlari tarzida ko‘zga tashlanadi. YA‘ni, jamiyatning axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlari strukturaviy tuzilishni tashkil qilgan. O‘z navbatida, sistemani to‘laligicha bilish, uning strukturaviy tuzilishidagi har bir elementning funksional faoliyatini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta‘kidlash keraki, insonlarning narsa hamda hodisalarga muayyan manfaatlari va ehtiyojlariga ko‘ra yondashishiga qarab, har bir elementni nisbatan mustaqil sistema sifatida olib qarash mumkin. Masalan, ma‘naviyat jamiyat strukturasi, uni tashkil qiluvchi muhim elementlarning biri hisoblanadi, lekin ma‘naviyatni, maxsus ijtimoiy hodisa sifatida alohida olib tahlil qiladigan bo‘lsak, uning ichki elementlardan iborat mustaqil sistemaligini ko‘ramiz. Shunga ko‘ra, sistema, struktura va element nisbiy tushunchalar bo‘lib, kategoriyalar sifatida, unga bo‘lgan munosabat doirasida konkretlashadi.

Shuning uchun «sistema», «struktura», «element» kabi falsafiy kategoriyalar narsa va hodisalarni bilishga sistemali yondashish, strukturaviy tahlil usullarining umummetodologik asosi bo‘lib hisoblanadi.

Elementlarni sistemani tashkil qilishdagi strukturaviy ahamiyatiga ko‘ra: muhim va muhim bo‘lmagan, asosiy va asosiy bo‘lmagan elementlarga ajratib o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki har qanday konkret element, muayyan sistemada makon-zamon xususiyatlariga ko‘ra, o‘z ahamiyatiga ega bo‘ladi. Biroq, ularning ahamiyatini, yuqorida ko‘rsatilganidek, turkumlashtirish mutlaqo nisbiy hamda shartli xarakterga ega bo‘lib, muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishdan kelib chiqadi. Shunga ko‘ra, konkret makon va zamonda sistemani tashkil qilishdagi elementlarning ahamiyati strukturaviy funksiyasida muqobilliklar vujudga kelib turishi bilan izohlanadi. YA‘ni, sistemadagi uning xarakterini belgilab turgan muhim element, ma‘lum vaqtga kelib muhim bo‘lmagan elementga aylanishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin.

Umuman, falsafaning sistema, struktura, element kategoriyalari narsa va hodisalarning mazmunini, shaklini ochib berishda metodologik asos bo‘ladi.

Falsafa fanidagi an‘anaviy tarzda yozilgan darsliklar, o‘quv qo‘lanmalaridan farqli o‘laroq, bu kategoriyalarni qiyosiy tahlil qilishimizdan maqsad, boshqa juft kategoriyalarning mazmunini ochib berish imkoniyatini yaratishdir. Chunki, «mohiyat va hodisa», «mazmun va shakl», «sabab» va «qibat», «zaruriyat va tasodif», «imkoniyat va voqelik» kategoriyalarining mazmuni, yuqorida ko‘rsatilgan «alohidalik», «xususiylik» «umumiylik», «butun», «qism», «struktura», «element», kategoriyalari mazmuni bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun biz falsafa kategoriyalarini bir-birini taqozo qiluvchi, nisbatan mustaqil bilish usullarining yaxlit sistemasi tarzida olib qarashni lozim topdik. Lekin, buning uchun har bir kategoriyaning mazmunini alohida tahlil qilish zarur.

«**Mohiyat va hodisa**» kategoriyasini olib ko‘raylik. Mohiyat-o‘zida alohidalik, maxsuslik, umumiylikning mazmunini, sababini, zaruriyatini, imkoniyatini, butun, qism, sistema, struktura,

element tarzida namoyon qiladi. Hodisa esa, ularning bog‘lanishi, aloqadorlik va munosabatlarining namoyon bo‘lishidir. Mohiyatni alohidalik, maxsuslik, umumiylik, butun, qismga mos kelishiga qarab, turkumlashtirib o‘rganish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, sub’ekt nazarida ahamiyatiga va funksiyasiga ko‘ra, asosiy va asosiy bo‘lmagan, nisbatan barqaror yoki o‘zgaruvchan mohiyatlarga ajratib, ularning rivojlanishi jarayonida o‘rnini almashtirib turishlarini e‘tiborga olish zarur.

Narsa va hodisalarning mohiyatini bilish ularning inson ehtiyojlarini qondirish vazifasi va maqsadlarini konkretlashtirishdan iborat. Masalan, jamiyat ustqurmasining siyosiy elementi bo‘lgan davlatning maqsadi va vazifasi, ularni amalga oshirish usul hamda vositalari mamlakat hududida yashayotgan kishilarning muayyan hayot sharoitlarini ta‘minlashdan iborat bo‘lib, uning mohiyatini tashkil qiladi. Shunga ko‘ra, har qanday mohiyatni odamlarning manfaatlari va ehtiyojlariga, sivilizatsiya kelajagiga bog‘lab tahlil qilgandagina, u ahamiyatga ega bo‘ladi.

Narsa va hodisalarni bilish hamda o‘zgartirishga inson muayyan ehtiyojlar asosida yondoshadi. Bu yondoshish sub’ektiv harakterga ega bo‘lib, uning konkret ehtiyojlari va manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi. Masalan, chanqagan kishi uchun suv uning chanqog‘ini qondirish, fizik uchun-agregat holati, elektr tokini o‘tkazishi yoki optik xususiyatlari, ximik uchun, uning N₂O kimyoviy birikma sifati, tegirmonchi uchun-tegirmon parragini aylantirish xususiyatlari asosiy mohiyat hisoblanadi.

Narsa va hodisalarning mohiyat va hodisa tarzida bog‘lanishlari makon va zamondagi muayyan konkretligi bilan ajralib turadi. Mohiyat va hodisa o‘z xususiyatlariga ko‘ra sistema, struktura va elementlarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun har qanday hodisani va mohiyatni tahlil qilishda aniq tamoyillarga asoslanish lozim.

Mazmun va shakl. Falsafada mazmun va shakl kategoriyasi narsa, hodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazmun - narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog‘lanishi bo‘lib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorliklar va munosabatlarini ifodalaydi.

SHakl esa - sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog‘lanishlari, aloqadorliklari, munosabatlarining ifodalanishidir. Hozirgacha falsafiy adabiyotlarda mazmun va shakl o‘rtasidagi bog‘lanishlarni bir-biridan ajratib tahlil qilish an’anaviy xarakterga ega. YA’ni, mazmunning o‘zgarishi shaklning o‘zgarishiga olib keladi, degan xulosa ustuvor bo‘lgan. Vaholanki, sistemaning elementlari strukturaviy bog‘lanishlarsiz, aloqadorliklarsiz mavjud bo‘lish mumkin bo‘lmaganligidek mazmun va shakl ham bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi. Biz faqat nisbatan mustaqil bo‘lgan mazmun va shaklni bilish xususiyatiga qarab, Shunday mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakldagi har qanday juz’iy o‘zgarish ham bir-biridagi o‘zgarishlarni taqozo qiladi, faqatgina biz ularni bilib olgan yoki bilmagan bo‘lishimiz mumkin. Masalan, suvning agregat holati, shakli o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgaradi. YA’ni, suv bug‘ holatida chanqoqni qondirmaydi, o‘simliklarni sug‘orish uchun yaramaydi. Bundan tashqari, elementlarning strukturaviy bog‘lanishlari sistemaning xarakterini belgilashidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, strukturaviy bog‘lanishlar shakl sifatida sistemaning mazmunini ham belgilab turadi. Shunga ko‘ra, shaklni mazmunga nisbatan «ikkilamchi» deyish noo‘rindir. Bunga ijtimoiy hayotdan misol keltiradigan bo‘lsak, demokratiya boshqarishning shakli sifatida jamiyatning mazmunini belgilab turadi.

Falsafada mazmun va shakl kategoriyasini boshqa kategoriyalar tizimidan ajratib olib, nisbatan mustaqil tahlil qilganda, unga insonlarning muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishlarini alohida e‘tiborga olish kerak. Bu umuman mazmun va shaklning ob’ektiv xarakteriga putur etkaza olmasa ham, ularni baholashdagi sub’ektiv, muqobil qarashlarda o‘z ifodasini topadi.

Sabab va oqibat. Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadrijiy rivojlanish tamoyiliga ko‘ra, ularning mazmuni va shakli o‘zgarib turadi. O‘z navbatida, har qanday sistemaning elementlari o‘rtasidagi strukturaviy bog‘lanish konkret mazmunga ega bo‘lib, unga mos mazmunlarda o‘z ifodasini topadi. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakl o‘rtasidagi aloqadorlik, bog‘lanish,

munosabatning xarakteri muayyan sababga asoslanadi. YA'ni, narsa va hodisalarning sistema shaklida namoyon bo'lishi, muayyan sabab oqibatidir. Demak, narsa va hodisalarning tadrijiy rivojlanishi sabab-oqibat munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, sabab - biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonidagi sabab va oqibat munosabatlarini bilishda, ularning makon va zamondagi tarixiy va mantiqiy izchilligi muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, har qanday sabab avvalgi hodisalar yoki ularning rivojlanish oqibati tarzida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, bu oqibat keyingi rivojlanishning sababi bo'lib hisoblanadi.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi asos bo'lgan sabablar tizimi mavjud. Ularni shartli ravishda: asosiy va asosiy bo'lmagan, muhim va muhim bo'lmagan sabablarga ajratish mumkin.

Sababning mohiyati avvalgi hodisalarning oqibati sifatida vujudga kelayotgan hodisalar uchun sababligidadir. Shunga ko'ra, sababni bir vaqtning o'zida oqibat tarzida qarash mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, har qanday oqibat sabab tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, sababni narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon va zamondagi davriy takrorlanishdan farqlash kerak. Chunki, sabab mavjudlikning genetik bog'lanishlarini, aloqadorliklarini ifodalashi bilan birgalikda, ularning istiqbollari ham belgilab beradi. Hegel tili bilan aytganda, sabab-mohiyatning harakatdagi mavjudlik holatidir. Sabab falsafiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1) uning ob'ektiv xarakteri narsa va hodisalarning ichki, tarkibiy elementlari munosabatlariga xos bo'lib, mohiyatning real mavjudlik holatini ifodalaydi;

2) sababning konkretligi narsa-hodisalarning xususiyatlaridan kelib chiqadi, hamda uning individualligini ta'minlaydi;

3) sabab umumiy xarakterga ega bo'lib, hech qanday narsa va hodisaning rivojlanishi sababsiz sodir bo'lmaydi;

4) sabab zaruriy bo'lib, muqarrar ravishda, muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi;

5) sababning uzluksizligi, bir tomondan, turli sabablarning izchil bog'lanishlarini, munosabatlarini, ikkinchi tomondan, har bir sababning oqibat tarzida oldingi sabab bilan bog'liqligini xarakterlaydi.

Zaruriyat va tasodif. Ob'ektiv olamni bilishda zaruriyat va tasodif kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. Zaruriyat - narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. Tasodif esa - zaruriyatning namoyon bo'lish shaklidir.

Zaruriyat va tasodif kategoriyasi olamni falsafiy bilishning mushtarakligini va samaradorligini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, zaruriyatni turkumlashtirganda, uning makon va zamondagi strukturaviy tuzilishini tashkil qilgan elementlarini sistemali-strukturali tahlil qilish lozim. Shuningdek, zaruriyatni sabab-oqibat munosabatlari tarzida tushunish lozim. Zaruriyat narsa va hodisalarning muqarrar rivojlanish qonuniyatdan kelib chiqadi hamda ob'ektiv sabablar tizimiga asoslanadi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi tarixiy ob'ektiv zaruriyatdir, uning «o'zbek modeli» asosida amalga oshirilishi zaruriyatning konkret namoyon bo'lishidir. Bunda tasodif «sub'ektivlashtirilgan» jarayon sifatida ko'zga tashlansa ham, ob'ektiv hodisadir. Chunki, O'zbekistonning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishining milliy xususiyatlari, bozor munosabatlariga o'tishning xarakterini belgilab beradi.

Zaruriyatlar tabiiy-tarixiy rivojlanishning ob'ektiv qonuniyatlaridan kelib chiqib, doimiy o'zgarib turadi. Zaruriyatlar tasodiflar tarzida namoyon bo'lishi, o'z navbatida, boshqa hodisalar uchun zaruriyat maqomiga ega bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, zaruriyat va tasodif o'rtasidagi bog'lanishlar sabab-oqibat munosabatlari xarakteriga mos keladi.

Zaruriyat va tasodif, kategoriyasiga boshqa kategoriyalar kabi, uni aniqlash va baholashga muayyan sub'ekt ehtiyojlari, manfaatlari nuqtai nazaridan yondashiladigan bo'lsa, muqobil qarashlar vujudga keladi. Masalan, sobiq Ittifoqning parchalanib, mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, ayrim nazariyotchilar tomonidan tasodifiy hodisa deb baholanib, uning zaruriy, ob'ektiv

qonuniy xarakteri inkor etilmoqda. Vaholanki, jamiyat taraqqiyotida hech qanday imperiyaning abadiy bo'lmashligini tarixiy tajribalar doimiy isbotlab kelgan. Demak, bunda biz zaruriyatni ko'rib turibmiz.

Zaruriyat va tasodifning aloqadorligi, bog'lanishi Shundaki, ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi, ya'ni zaruriyatning muqarrarligi tasodifga ham xosdir. Shuning uchun falsafiy adabiyotlarda tasodiflarning muqarrarligi, tarixiyli, sababiyiligini, qonuniyiligini inkor qiluvchi qarashlar g'ayriilmiydir.

Imkoniyat va voqelik - falsafaning muhim kategoriyalaridir. Imkoniyat narsa va hodisalarning makon va zamondagi rivojlanish tendensiyasini ta'minlaydigan, muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Voqelik esa, Shu qonuniyatlarga asoslangan rivojlanishning namoyon bo'lishidir. Imkoniyat va voqelik kategoriyasini ham, bilishning umumiy mantiqiy tamoyillariga ko'ra, boshqa kategoriyalar bilan bog'liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Imkoniyat narsa va hodisalar rivojlanish jarayonining ichki birligini ifodalaydi va ularning rivojlanish shart-sharoitlarini, sabablarini, zaruriy qonuniyatlarini, mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan.

Xulosa, imkoniyatning voqelikka aylanishi qonuniy hodisadir. Uning real, formal, mavhum imkoniyat deb ataladigan shakllari bor. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin demokratik huquqiy jamiyat qurishi uchun real imkoniyatlar vujudga keldi. Bunday imkoniyatlar I.A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ko'rsatib berildi.

Imkoniyat kategoriyasini, uning shart-sharoiti bilan aralashtirmaslik kerak. SHart-sharoitlar oqibat, tasodif, hodisa sifatidagina imkoniyatga ta'sir qiladigan omillar majmuasidan iborat. Mavjud voqelik tarixiy genezisiga ko'ra, o'zida boshqa voqelikning imkoniyatlarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Masalan, bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichi real voqelik sifatida, uning keyingi rivojlanish imkoniyatlarini namoyon qiladi.

Takrorlash uchun savollar

- 1.Taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari. Tabiiy, ijtimoiy va ilmiy taraqqiyot.
- 2.Dialektika va metafizika tushunchasi.
- 3.Ayniyat va ziddiyat, tafovut, qarama-qarshilik tushunchalari.
- 4.Miqdor va sifat tushunchalari.
- 5.Inkorni inkor dialektikasi.
- 6.Mohiyat va hodisa, mazmun va shakl, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif kategoriyalari.
- 7.Tizim (sistema), tuzilma(struktura), element kategoriyalari. Tizimli(sistemali) tahlil va yondashuv. Butun va bo'lak (qism).

1.6 – Mavzu. Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari.

- 1.Gnoseologiya – bilish nazariyasi sifatida.
- 2.Bilishning bosqichlari va darajalari. Noilmiy bilish shakllari
- 3.Bilish, bilim, adekvatlik va haqiqat, fan tushunchalari. Bilishda ob'ekt va sub'ekt masalasi
- 4.Bilish va metodologiya. Bilish jarayonida qo'llaniluvchi metodlar.
- 5.Fan metodlari: umumilmiy, hususiy ilmiy va fanlararo tadqiqot metodlari.

Bilish va bilim. Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini o'rganish falsafa tarixida muhim o'rin egallab kelmoqda. Inson o'z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va nihoyat, o'z-o'zini o'zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan Shug'ullanuvchi maxsus sohasi — gnoseologiya vujudga keldi.

Inson bilishi nihoyatda ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. **Gnoseologiya** asosan, bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan Shug'ullanadi. Har bir tarixiy davr jamiyatning rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqib, gnoseologiya oldiga Yangi vazifalar qo'yadi. Xususan, XVII asr o'rtalarida evropalik faylasuflar ilmiy bilishning ahamiyati, haqiqiy ilmiy bilishlar hosil qilishning usullarini o'rganish, ilmiy haqiqat mezonini aniqlash bilan Shug'ullandilar. Tajribaga asoslangan bilimgina haqiqiy bilimdir, degan g'oyani olg'a surdilar.

XVIII asr mutafakkirlari ilmiy bilishda inson aqli imkoniyatlariga, ratsional bilishning hissiy bilishga nisbatan ustunligiga alohida urg'u berdilar. Buyuk nemis faylasufi I.Kant bilish natijalarining haqiqiyliги xususida emas, balki insonning bilish qobiliyatlari haqida bahs yuritdi. Gnoseologiya oldida inson olamni bila oladimi, degan masala keskin qo'yildi. Insonning bilish imkoniyatlariga Shubha bilan qaraydigan faylasuflar agnostiklar deb ataldilar.

Bilish nazariyasining predmeti. Gnoseologiyaning mohiyati va mazmuni. «Gnoseologiya» - sof falsafiy kategoriya. Uning nomi yunoncha gnosis – bilim, ilm va logos – ta'limot, fan so'zlaridan kelib chiqqan. So'zma-so'z ma'nosi - «bilish haqidagi ta'limot (fan)», «ong haqidagi ta'limot (fan)». Falsafiy adabiyotlarda, Shu jumladan falsafiy qomuslar va lug'atlarda «gnoseologiya» atamasi «bilish nazariyasi» deb tarjima qilingan. Shu bilan bir qatorda, ayni Shu mazmunni ifodalash uchun falsafiy adabiyotlarda «epistemologiya» so'zi ham qo'llaniladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, gnoseologiyaga tatbiqan bilish nazariyasi va epistemologiya nomlarining qo'llanilishini o'rinli deb bo'lmaydi. Zotan, «episteme» so'zi «pistis» - e'tiqod so'zi bilan uzviy bog'liq. Biroq, biz biladigan (gnosio) va biz ishonadigan (pistio), mavjudligiga e'tiroz bildirmaydigan narsalar – falsafiy va ilmiy bilimlarning hozirgi darajasida mazmunan har xil tushunchalardir. Shu bois G'arbiy Evropa falsafasida epistemologiyaning mazmuni ikki xil, ba'zan esa – uch xil talqin qilinadi.

Umuman olganda, hozirgi zamon falsafasida gnoseologiya bilish jarayonining umumiy, aniqroq aytganda – falsafiy mohiyati hamda umumiy muammolariga e'tiborni qaratadi. Epistemologiya esa, bizning muayyan narsalar haqidagi bilimlarimiz va (yoki) e'tiqodlarimizning ishonchlilik darajasini o'rganadi.

Demak, epistemologiya gnoseologiyaning tarkibiy qismi yoki uning amaliy ifodasidir. Tom ma'nodagi epistemologiya hozirgi kunda ilmiy, haqiqiy bilimning mazmunini, Shuningdek diniy e'tiqodlarning gnoseologik mohiyatini o'rganish bilan Shug'ullanadi. Bunda esa bilish (ong)ning mohiyati to'g'risida bahs yurituvchi falsafiy ta'limot ma'nosidagi «gnoseologiya» atamasidan foydalaniladi. Shu bilan biz avval gnoseologiya muammolari doirasini aniqlab olishga harakat qilamiz.

Gnoseologiya yoki bilish nazariyasi falsafiy bilimlar (falsafa fani) bo'limi bo'lib, unda 1)insonning dunyoni bilish imkoniyati;

2) insonning o'zlikni anglash jarayoni;

3)bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishi,

4)bilimlar tabiati va ularning mazkur bilimlarda aks etuvchi narsalar bilan o'zaro nisbati o'rganiladi.

Shunday qilib, umuman olganda, *gnoseologiya ong, bilish, bilimni o'rganish bilan Shug'ullanadi.*

SHaxsiy va ijtimoiy tajribada biz ongning mavjudligini aniq sezamiz, ongning o'z-o'ziga, boshqa odamlarga va umuman jamiyatga ta'siri natijalarini fiziologik darajada his qilamiz va ko'ramiz. Biroq bu jarayonda ongning o'zi ko'rinmaydi. Moddiy dunyo hodisalaridan farqli o'laroq, ongni kuzatish mumkin emas. U go'yo vaqt va makon chegaralaridan tashqarida turadi. Gnoseologiyaning vazifasi bu ko'rinmas ongni idrok etish, uning moddiy narsa va hodisalar dunyosi bilan o'zaro aloqalarini aniqlash, uni o'z muhokama va tadqiqot predmetiga aylantirishdan iborat.

Gnoseologiyaning asosiy muammosi bizning barcha bilimlarimiz tajribada sinalganmi? degan «oddiy» masalani echishdan iborat: Bu savolga javob izlash va masalaning echimini topishda gnoseologiyada ikki muxolif an'ana: bilimlarimiz tajribada sinalganini qayd etuvchi empirizm va buni inkor etuvchi ratsionalizm to'qnashadi.

Ratsionalizm (ratsionalistlar) insonda tug‘ma g‘oyalar, adolat, insoniylik, uyg‘unlik g‘oyalari va tajribadan olinishi mumkin bo‘lmagan boshqa g‘oyalar mavjudligidan kelib chiqadi. Zotan, tajriba to‘la adolat, yalpi insoniylik mavjud emasligini, bizni qurshagan dunyoda uyg‘unlik ustidan xaos hukm surishini ko‘rsatadi. Bunda ayrim ashaddiy ratsionalistlar (masalan, Platon, Avgustin va ularning hamfikrlari) ko‘rsatib o‘tganidek g‘oyalar inson aqliga xos tug‘ma g‘oyalar bo‘lib, ularni inson faqat o‘z aqlidan olishini qayd etadilar; boshqa, mo‘‘tadil ratsionalistlar (masalan, Leybnits, Volf, Baumgarten) esa, g‘oyalar aqlga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lsa-da, biroq ular faqat aqlda tafakkur va falsafiy mushohada yuritish jarayonida tug‘ilishini ta’kidlaydilar.

Empirizm (empiristlar, F. Bekon, J. Lokk, T. Gobbs, D. YUm, L. Feyerbax), aksincha, inson, insoniyat shaxsiy yoki ijtimoiy tajribaga ega bo‘lgunga qadar biron-bir g‘oya mavjud bo‘lishini inkor etadilar. Ular barcha g‘oyalar inson ongi zamirida yo shaxsiy tajriba, yo boshqalar tajribasi, butun insoniyat tajribasini umumlashtirish orqali tug‘ilishini qayd etadilar va bu tezisni isbotlashga harakat qiladilar. Ularning fikriga ko‘ra, tajriba inson ongida uning sezgilari va o‘zini qurshagan dunyoni idrok etishi orqali aks etadi. Falsafada idrok etishni persepsiya (lotincha «perception» - idrok etish) deb atash odat tusini olgan. *Persepsiya o‘zini qurshagan dunyodagi narsalar va hodisalarni sezgilar orqali idrok etishga aytiladi, appersepsiya borliqni aql bilan anglash, bilish, ularni g‘oyalarda ifodalashdir.*

Gnoseologiya inson bilimining chegaralari to‘g‘risidagi masalani echishni ham o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina empiriklar (masalan, David YUm, Dyubua Raymond, agnostiklar) va ratsionalistlar (masalan, Kant va uning hamfikrlari) inson nafaqat umumiy narsa va hodisalarni, balki muayyan, konkret narsalarni ham bilishi mumkin emas, degan fikrga qo‘shiladilar. Ayrim narsalar, hodisalar va konsepsiyalar borki, ular persepsiyamizning chegaralariga ham, tafakkurimiz, refleksiya (lotincha «reflexes» - orqaga qaytish) doirasiga ham sig‘maydi. Masalan, Kant Koinot ibtidosi yoki ibtidosizligi, Xudoning borligi yoki yo‘qligi, jonning boqiyliigi yoki foniyligi, axloqning sababiyliigi yoki sababsizliigi aqlning bilish chegaralariga sig‘maydigan, oqilona o‘rganib bo‘lmaydigan transsendental (lotincha «transcendentalism» - chegaraga sig‘maydigan) masalalardir, deb hisoblagan. XX asr pozitivistlari, empirizm g‘oyalarini himoya qilgan yirik olimlar: Moris SHlik, Rudolf Karnap kabilar Kantning transsendental muammolarini mantiqsiz deb e‘lon qildilar.

Gnoseologiya inson bilimi va bilishga doir juda ko‘p muammolar bilan Shug‘ullanadi. U bizning bilimlarimiz qay darajada e‘tiqod, qay darajada ko‘r-ko‘rona ishonch va qay darajada real borliqning haqiqiy in‘ikosi ekanligini aniqlashga harakat qiladi. So‘nggi o‘n yilliklarda gnoseologiyada bilimlar o‘rtasidagi farq, «nimani bilaman», «qanday bilaman», «shaxsiy tajribamdan bilaman», «dalilga ko‘ra bilaman» kabi iboralar mazmunining o‘zaro nisbati masalalari muhokama qilinmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, gnoseologiya borliqni to‘liq qamrab olib, unda biron-bir tafsilotni nazardan qochirmaslikka harakat qiladi. Demak gnoseologiya falsafaning eng muhim omilidir.

2. Optimizm. Skeptitsizm. Agnostitsizm. Ilmiy va ijtimoiy bilim

Bilish jarayoni rivojlanish qonuniyatlarining shakllari, haqiqatning tagiga etish imkoniyatlari nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Uning har xil modellari, yondashuvlari mavjud. Materialistik modellar zamirida dunyoning inson ongida aks etish tamoyillari: Demokritda – obrazlar (eydoslar), Yangi davr faylasuflarida – sensor signallari, Berklida – sub‘ektning sezgilari yotadi. Leybnits bilishni ilohiylashtirilgan g‘oyaning inson tug‘ma tushunchalariga ta’siri deb hisoblagan. Gegel taklif qilgan modelning zamirida mutlaq g‘oyani anglash yotadi. Max, Avenarius va boshqa sub‘ektiv idealistlarda (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) bilish jarayoni – bu sezgilarning bo‘sh va tejamlil aloqasini amalga oshirishdir.

Inson aqli bilish pillapoyasidan yuqoriga ko‘tarilar ekan, har bir Yangi pog‘onada qayta-qayta quyidagi savolga javob topishga harakat qiladi: dunyoni bilish mumkinmi?, bilishning chegaralari bormi? Falsafada bu savollarga javob beruvchi uch asosiy yo‘nalishni farqlash mumkin: optimizm, skeptitsizm va agnostitsizm (Kant va boshqalar). *Optimistlar dunyoni bilish mumkinligini ta’kidlaydilar, agnostiklar, aksincha, buni rad etadilar* (I.Kant – «narsa o‘zida»). *Skeptiklar dunyoni bilish mumkinligini inkor etmaydilar* (XVIII asrda D.YUm), biroq bilimning haqiqiyliigiga

Shubha bildiradilar. Odatda, skeptitsizm paradigmalar, qadriyatlar, ijtimoiy tizimlar va hokazolar o'zgarayotgan davrda (yoki uning arafasida), ilgari haqiqiy deb hisoblangan xulosalar fan va amaliyot olgan Yangi ma'lumotlar nuqtai nazaridan soxta, asossiz bo'lib chiqqan holda ravnaq topadi. Skeptitsizm psixologiyasiga xos xususiyat Shundan iboratki, u darhol nafaqat eskirgan, balki Yangi, shakllanayotgan fikrlar, g'oyalarni ham toptay boshlaydi. Bu psixologiya zamirida tadqiqotchining Yangilikka tashnaligi va inson tafakkurining kuchiga bo'lgan ishonch emas, balki qachondir qabul qilingan «qulay» tamoyillarga tayanish yotadi. Skeptitsizm ta'limot sifatida, hech Shubhasiz, zararlidir, chunki u insonning bilish borasidagi deyarli barcha imkoniyatlarini kamsitadi.

Bilimga chanqoq bo'lgan, bilishga harakat qilayotgan odam optimist: «Men buning nimaligini bilmayman, biroq bilishga umid qilaman», deydi. Agnostik esa, «Men buning nimaligini bilmayman va hech qachon bila olmayman», deb ta'kidlaydi. Yuzaki skeptitsizm, ko'r-ko'rona fanatizm kabi, dunyoqarashi tor odamlarda ko'p uchraydi. F.Laroshfuko ta'biri bilan aytganda, kaltabin odamlar odatda o'z dunyoqarashi doirasidan chetga chiqadigan hamma narsani qoralaydi. Biroq oqilona darajadagi skeptitsizm foydali va hatto zarur. Bilish usuli sifatida skeptitsizm Shubha shaklida amal qiladi, bu esa haqiqatning tagiga etish sari tashlangan qadamdir. Shubha eskirgan, qotib qolgan aqidalardan voz kechadi, ularga putur etkazadi. U – rivojlanayotgan fanning muhim unsuri. Bilimsizlik qayd etadi va inkor qiladi, bilim – Shubhalanadi.

Biroq bu uch yo'nalishni farqlash, bizningcha, masalani soddalashtirishdan boshqa narsa emas. To'g'ri, agnostiklar dunyoni bilish mumkinligini inkor etadilar, ammo bu ko'r-ko'rona, hech narsaga asoslanmagan inkor etish emas. Ular ko'rsatayotgan ko'pgina savollarga chindan ham hali javob topilmagan. Agnostitsizmga olib keluvchi asosiy muammo Shundan iboratki, narsa yoki hodisani bilish jarayonida bu narsa yoki hodisa albatta bizning tafakkur va sezgi a'zolarimizda aks etadi. Bu narsa yoki hodisa bizning tafakkur va sezgi a'zolarimizda aks etish natijasida qanday ko'rinish kasb etgan bo'lsa, biz ular haqida Shunday ma'lumotga ega bo'lamiz. Narsalar va hodisalar aslida qanday ekanligini biz bilmaymiz va bilishimiz mumkin ham emas. Qarshimizda bosh-adog'i yo'q dunyo yastanib yotadi, biz esa unga o'z formulalarimiz, modellarimiz va tushunchalarimiz bilan yaqinlashib, cheksizlikni o'z tasavvurlarimiz bilan ilg'ab olishga harakat qilamiz. Tushunchalar, kategoriyalar va nazariyalar «tugunlari»ni qay darajada qattiq qilib tugmaylik, dunyoni tushunib etishga Shu yo'sinda da'vogar bo'lishimiz to'g'rimi? Bundan chiqdi, biz o'z bilish usullarimiz bilan chegaralangan dunyoda yashaymiz va olam haqida haqqoniy bir gap aytishga qodir emasmiz.

Biroq bilish fanining rivojlanishi agnostitsizmning bu amaliy xulosasini har qadamda rad etadi. Masalan, pozitivizm asoschisi O.Kont insoniyat Quyoshning kimyoviy tarkibini aniqlashga qodir emas, deb ta'kidlagan edi. Biroq keyinchalik spektral analiz yordamida Quyosh tarkibi aniqlandi. XIX asr fanining ba'zi bir namoyandalari atomlar amalda mavjud emas, ular faqat tafakkur mahsuli, deb hisoblar edi. Biroq E.Rezerford atomlar amalda mavjud ekanligini isbotlab berdi, oradan yarim asr o'tgach, genlarning keng kimyoviy tarkibi aniqlandi.

Shunga qaramay, bugungi kunda ham agnostik xulosalarni neopozitivizm, fenomenologiya, ekzistensializm, pragmatizm va hokazolarda kuzatish mumkin. Ularning agnostitsizmi nafaqat gnoseologik xususiyatga ega bo'lgan sabablar, ichki mantiq bilan, balki ma'lum darajada D.YUm va O.Kont falsafasi boshlab bergan an'ana bilan ham belgilanadi. Agnostizm haqida so'z borar ekan biz beixtiyor I. Kantga murojaat qilamiz.

Kant agnostitsizmning qisqacha mazmuni quyidagicha: biz biladigan narsa (fenomen) va o'z holicha mavjud bo'lgan narsa (noumen) mutlaqo har xildir. Biz hodisalar mohiyatini qay darajada teran anglamaylik, bizning bilimimiz baribir o'zicha mavjud bo'lgan narsalardan farq qiladi. Shunday qilib, I. Kant fikricha, bizning ongimiz, hissiyotimiz, tafakkurimizga bog'liq bo'lmagan narsalar olami mavjud. Uni faylasuf «narsa o'zida» sifatida ta'riflaydi. I.Kantning fikricha, bilish jarayoni «narsa o'zida»ning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'siri ostida his-tuyg'uning uyg'onishidan boshlanadi. Vaholanki, his-tuyg'ular, tushuncha va hukmlar o'z holicha «narsa o'zida» haqida muayyan nazariy bilim berishga qodir emas. Lekin bundan ishonchli bilim yo'q ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Matematika va tabiatshunoslik aynan Shunday ishonchli bilim manbaidir. Ammo ular qay darajada ishonchli bo'lmasin, «narsa o'zida» haqidagi haqiqiy bilim

bo'la olmaydi. Kant bizning tafakkurimizda shakllangan tushunchalar «narsa o'zida»ni qay darajada to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettira oladi, degan savolga aniq javob mavjud emas, deb ta'kidlaydi.

Gnoseologik relyativizm – borliq hodisalari va voqealarini bilish o'zgaruvchanligi, o'tkinchiligini mutlaqlashtiruvchi agnostitsizmning yo'nalishlaridan biridir. Relyativizm tarafdorlari dunyoda hamma narsa o'tkinchi, haqiqiy dunyoviy darajada ham, hattoki ilmiy darajada ham bizning olam hodisalari haqida olgan faqat Shu paytdagi bilimlarimizni ifodalaydi, kecha haqiqat deb hisoblangan narsa bugun ishtiboh, xato sifatida tan olinadi: xuddi dori kabi, haqiqatning ham saqlanish muddati bor. Nisbiy mushohadalar bundan ham omonatroq. Bu ijtimoiy hayotda, axloq normalari va estetik didlarda ayniqsa yaqqol seziladi. YAqindagina shak-Shubhasiz deb e'tirof etilgan narsa endi do'zaxdan chiqqan balo sifatida inkor etiladi. Baholar kaleydoskopdagi rangli dog'lar kabi o'zgaradi. Bundan go'yo bilish jarayoni – muvaffaqiyatsizlikka uchrashi tayin bo'lgan haqiqat ketidan «quvish», degan umumiy xulosa chiqariladi. Bizning barcha bilimlarimiz go'yo noaniqlik va nohaqiqiylik dengizida suzadi, u faqat – va faqat – nisbiy, shartli konvensial (lotincha «conventional» - shartnomaga muvofiq) va sub'ektivdir.

Skeptiklarga xos bo'lgan bu yondashuv antik davrdayoq Yuzaga kelgan. Dunyoda hamma narsa Shu qadar tez o'zgaradiki, unda mutlaqo o'zgarmas bo'lgan hech narsa mavjud emas, deb hisoblagan Kratil ta'limoti ashaddiy relyativizmga misol bo'lishi mumkin.

Barcha bilimlarimizni faqat nisbiy deb hisoblash, mohiyat e'tibori bilan, bilishda o'zboshimchalik hukm surishini tan olish bilan barobardir. Bu holda bilish nisbatan o'zgarmas, ishonchli narsalar mavjud bo'lmagan, haqiqat bilan ishtiboh o'rtasida farq qolmaydigan, har qanday qoida va tamoyilga ishonch yo'qoladigan, binobarin, hayotda hech narsaga amal qilib bo'lmaydigan uzluksiz oqimga aylanadi. Bilish nazariyasida mutlaq relyativizm – bu tafakkur «boyli»ning namoyon bo'lish shakllaridan biri. Unga quyidagi mushohada xos: haqiqat albatta mutlaq bo'lishi kerak, agar haqiqat mutlaq bo'lmasa, u haqiqat emas. Bu fikr zamirida nafaqat nisbiy, balki mutlaq haqiqatga ham ishonchsizlik yotadi. Relyativizm namoyandalari odatda haqiqiy deb hisoblangan qoidalar keyinchalik soxta deb inkor etilgan va aksincha, soxta deb hisoblangan qoidalar fan rivojlanishi jarayonida haqiqiy deb e'tirof etilgan hollar fan tarixida ko'p ekanligiga ishora qiladilar. Ilmiy bilishning harakat yo'li – amalda to'g'ri chiziq emas, balki kesimlarida yanglishish hollari Yuz berishi mumkin bo'lgan egri chiziqdan iborat. Biroq bu bizning barcha bilimlarimiz safsata ekanligini isbotlamaydi. Relyativist «bilimda nisbiylik unsuri mavjud» degan to'g'ri qoidani «bilim doimo nisbiydir», binobarin, bilim kerak emas, degan yanglish qoidaga almashtiradi. «Bu eng yomon fikr: agar men hamma narsani bila olmasam, men hech ish qilmayman»⁷².

Bilish nima? Bilish insonning tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turidir. Inson o'zini qurshab turgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli Shug'ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo'lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro'y beradi. Shuningdek, bilish insongagina xos bo'lgan ma'naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir.

Insoniyat ko'p asrlar davomida orttirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o'zi uchun qator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyatining har qanday turi muayyan ilmga tayanadi va faoliyat jarayonida Yangi bilimlar hosil qilinadi.

Kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilish butun insoniyatga xos bo'lgan bilish usulidir. Bilimlar bevosita hayotiy ehtiyojdan, farovon hayot kechirish zaruratidan vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyatning ancha keyingi taraqqiyoti davomida ilmiy faoliyat bilan bevosita Shug'ullanadigan va ilmiy nazariyalar yaratuvchi alohida sotsial guruh vujudga keldi. Bular — ilm-fan kishilari bo'lib, ilmiy nazariyalar yaratish bilan Shug'ullanadilar.

Bilimning asosiy turlari. Bilim nima? Bilim tushunchasiga aniq ta'rif berish qiyin, balki hatto mumkin ham emas. Gap Shundaki, birinchidan, bu tushuncha eng umumiy tushunchalardan biri hisoblanadi, umumiy tushunchalarga esa doim aniq ta'rif berish qiyin. Ikkinchidan, bilimning juda ko'p turlari mavjud va ularning hammasini yonma-yon qo'yib bo'lmaydi. Shuni e'tiborga olib,

⁷² Толстой Л.Н. Воспоминания. – М.: Прогресс, 1991. – С.3.

bilim nima ekanligini aniqlashga harakat qilib ko'ramiz. Odatda, biz nimanidir bilishimiz haqida gapirganimizda, o'zimiz bu «nimadir» haqida ancha to'g'ri tasavvurga egamiz, deb hisoblaymiz. Shuningdek, bizning tasavvurimiz xom xayol yoki faqat o'z shaxsiy fikrimiz emasligiga ham ishonchimiz komil bo'ladi. Nihoyat, biz bu ishonchni mustahkamlovchi qandaydir dalillar keltirishimiz mumkin. Shunday qilib, o'z shaxsiy hayotimizda biz amaldagi holatga mos keladigan va ma'lum asoslarga ega bo'lgan ishonch, e'tiqodni bilim deb hisoblaymiz.

Teran ma'no bilan sug'orilgan bu bilim talqinining umumiy ruhi gnoseologiyada ham saqlanib qolgan. Ayni zamonda, gnoseologiya bu talqin zamirida mujassam ba'zi bir holatlarni aniqlaydi va ularga oydinlik kiritadi. «S sub'ekt qandaydir P predmetni biladi» degan standart gnoseologik talqin quyidagi uch shartni o'z ichiga oladi:

○ *Haqiqiylik (muvofiqlik) sharti* – «*agar P haqiqiy bo'lsa, u holda S P ni biladi*». Biz CHimyon Toshkentdan shimolroqda joylashganligini bilaman, basharti CHimyon chindan ham Toshkentdan shimolroqda joylashgan bo'lsa. Agar biz Amudaryo Tinch okeaniga quyiladi, deb aytsek, bizning bu fikrimiz bilim emas, balki yanglish fikr, xato bo'ladi.

○ *Ishonchlilik (e'tiqod, maqbullik) sharti* – «*agar S P ni bilsa, u holda S P ga ishonadi (uning mavjudligiga e'tiqodi komil bo'ladi)*. Masalan, agar biz O'zbekistonda dengiz bor desak, biz uning amalda mavjudligiga ishonamiz. Odatda bilim Shunday ishonch yoki Shunday e'tiqod hisoblanadi va ularni ajratish mumkin emas. Shunday bir vaziyatni tasavvur qiling: siz oyna oldiga kelib, tashqarida yomg'ir yog'ayotganini ko'rasiz. Siz: «YOmg'ir yog'yapti, lekin men bunga ishonmayman», deysiz. Bu iboraning anoto'g'riligi bilimimiz bizning e'tiqodimiz ekanligini ko'rsatadi.

○ *Asoslilik sharti* «*S P ni biladi, basharti u o'zining P ga bo'lgan ishonchini asoslab bera olsa*». Bu shart bilimni to'g'ri chiqadigan taxminlar yoki tasodifan mos kelish hollaridan farqlash imkonini beradi. Aytaylik, siz besh yashar bolakaydan: «Quyosh tizimsida nechta sayyora bor?», deb so'ratingiz va «To'qqizta», degan javobni eshitdingiz. Siz bola sayyoralar sonini tasodifan to'g'ri aytdi deb hisoblaysiz. Agar u o'z javobini hech bo'lmasa buni onasidan eshitganini aytib, asoslab bera olmasa, siz bolakayda bu dalil haqida haqiqiy bilim mavjud emas, degan to'xtamga kelasiz.

Shunday qilib, bu «uch qismli» talqinga muvofiq, quyidagi muxtasar ta'rifni berish mumkin: *bilim – bu haqiqatga mos keladigan va asoslangan ishonchdir.*

Bu ta'rif ancha sodda bo'lib, uni bilimning barcha turlariga nisbatan tatbiq etish mumkin. Bu so'zlar zamirida muayyan muammo yotadi. Masalan, biz Nyuton mexanikasi haqiqatga etarli darajada muvofiq emas va uning o'rnini Eynshteynning aniqroq nazariyasi egalladi, deb hisoblaymiz. Biroq buning natijasida Nyuton nazariyasi o'zining bilim xususiyatini yo'qotgani yo'q-ku? Eynshteynga qadar, uning haqiqiylikiga ko'pchilikning ishonchi komil bo'lgan davrda u bilim edimi? Shunga o'xshash so'zlarni hozirda fan tarixidan o'rin olgan minglab nazariyalar sha'niga aytish mumkin. Bilimni qanday qilib asoslash mumkin va etarli asoslar mavjudmi? Bu savol ham ancha mavhum. Gipoteza, faraz odatda bilim shakli sifatida qaraladi, biroq olimlar o'zlari ilgari surayotgan gipoteza yoki farazlarning to'g'riligiga ba'zan ishonchi komil bo'lmaydi.

Balki bilimni standart tushunish haddan tashqari taxminiy va nisbiydir? Qisman Shunday, biroq bilim-bir ta'rif chegaralariga sig'dirish juda qiyin bo'lgan rang-barang hodisa ekanligi muhimroq. Agar «bilmoq» so'zi tilimizda qanday qo'llanilishiga nazar tashlasak, bilim turlari juda rang-barang ekanligini ko'rishimiz mumkin. Quyidagi gaplarni ko'rib chiqamiz. Men bu mashinani qanday qilib tuzatish mumkinligini bilaman. Men gitara chalishni bilaman. Men Po'latni o'n yildan beri bilaman. Men Toshkentni yaxshi bilaman. Men uchburchak burchaklarining yig'indisi ikki to'g'ri burchakka teng ekanligini bilaman. Men kit sut emizuvchilar oilasiga mansub ekanligini bilaman.

Bu bir qarashda o'xshash gaplarda «bilaman» so'zi har xil ma'nolarda keladi. Dastlabki ikki gapda bilish nimanidir bajara olishni anglatadi. Gnoseologiyada u «*bilim-ko'nikma*» deb ataladi. Keyingi ikki misolda bilish – bu «*bilim-taniShuvlik*» demakdir. U inson yoki qandaydir ob'ekttni tanish qobiliyatini anglatadi. So'nggi gaplarda bilim «*nimanidir bilish*»ni ifodalaydi, chunonchi: u narsalarda qandaydir xossalar, nisbatlar, qonuniyatlar va Shu kabilarning mavjudligini tavsiflaydi. Bilim bu erda ma'lum axborot ko'rinishida keladi deb aytish mumkin.

Ko'rib turganimizdek, «bilim-ko'nikma» va «bilim-taniShuvlik» bilimning standart talqiniga uncha mos kelmaydi. Umuman olganda, ularga nisbatan haqiqiylik va asoslanganlik tushunchalarini tatbiq etish mumkin emas. Po'latni yaxshi yoki orqavarotdan bilish mumkin, biroq biz uni «to'g'ri» yoki «ishonchli» bilishimiz mumkinmi? Biroq, bu erda Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida zikr etilgan bilim turlari o'rtasidagi chegaralar aniq emas. Masalan, sizning Toshkent haqidagi bilimingiz siz shaharning kattaligi, aholisining soni, u O'zbekiston poytaxti ekanligi va hokazolar haqida ma'lum axborotga ega ekanligingizni nazarda tutadi. Biroq bu bilim – avvalo shahar bilan tanishlik, unda yaxshi mo'ljal ola bilish demak.

Gnoseologiyada asosiy e'tibor muayyan narsalar haqidagi bilimni tahlil qilishga qaratiladi. Zero, faqat Shunday bilimni asosli va asossiz, ishonchli va ishonchsiz, haqiqiy yoki soxta bilim sifatida aniq baholash mumkin. Bilimni asoslash usullari, uning ishonchliligi, haqiqiylikni aniqlash mezonlarini izlash qadimdan bilimni falsafiy tahlil qilishning asosiy omili bo'lib keladi.

Biroq, hatto bilimning Shu turini falsafiy tushunishda ham muammolar bisyor. O'ttiz yilcha muqaddam epistemologlar Shunday misollarni o'ylab topdilariki, ularda ishonch, e'tiqod bilimning yuqorida zikr etilgan uchala xususiyatiga ega, biroq, Shunga qaramay, ular bilim hisoblanmaydi. Mana, Shunga o'xshash oddiy misollardan biri. Masalan, o'qituvchi falsafadan yozilgan referatlarni tekshirayotib, talabalardan biri – Valiev o'z ishini kompyuterda terganini ko'rdi. O'qituvchi darsda bu guruhda o'qiydigan talabalarning qaysi birida uyida kompyuter borligini so'rashga qaror qiladi. Valiev o'zida chindan ham yaxshi kompyuter borligini va bu kompyuterda u ishlashni o'rganganligini aytdi. Qolgan talablarning birortasi ham o'zida bunday buyum borligini aytmedi. Shunga asoslanib o'qituvchi guruhda bir talabada kompyuter bor ekan, degan xulosaga keldi. O'qituvchining bunga ishonchi komil va u o'zining bu e'tiqodiga etarli darajada asoslangan va ishonchli bilim sifatida yondashadi. Biroq, endi faraz qilaylikki, Valievda kompyuter aslida yo'q va u yolg'on gapirib, yoqtiradigan bir talaba qizning e'tiborini o'ziga qaratmoqchi bo'lgan. Ammo boshqa talaba – Alievning uyida kompyuter bor, biroq u muayyan sabablarga ko'ra buni oshkor etmaslikni lozim topgan. Natijada o'qituvchi o'zi dars beradigan guruhda kamida bir talabada kompyuter bor deb hisoblar ekan, u asoslangan va o'z nuqtai nazaridan haqiqatga mos keladigan ishonch, e'tiqodga ega bo'ladi. Biroq bu e'tiqodni bilim deb hisoblash mumkin emas, chunki uning haqiqiyliги zamirida faqat tasodifiy haqiqatga muvofiqlik yotadi.

Albatta, bunday misollarni bor-yo'g'i tafakkur o'yini deb hisoblash mumkin. Biroq, haqqoniy tasavvurlar soxta fikrlardan kelib chiqqan yoki ularga asoslangan hollar hatto fanda ham uchraydi.

Ammo bunday qarshi misollarga yo'l qo'yimaslik uchun bilimga yanada qattiqroq talablar qo'yish, masalan, bilim roliga da'vogar e'tiqodlar faqat ishonchli va xatosiz deb qarash mumkin bo'lgan fikrlar va ma'lumotlarga tayanishini talab qilish mumkin.

Bilim zamirida aniq, ishonchli va xatosiz asoslar yotishi lozim, degan tasavvur bilish nazariyasidagi eng nufuzli yondashuv hisoblanadi. Unga antik faylasuflarning asarlaridayoq duch kelish mumkin, eng aniq ko'rinishda va dasturilamal sifatida u Yangi davrda mashhur faylasuflar F.Bekon, R.Dekart va J.Lokk tomonidan ta'riflab berilgan. Bu yondashuvni klassik fundamentalizm deb nomlash, uning barcha muqobillarini esa, hozircha undan ma'lum darajada chetga chiqish sifatida tavsiflash mumkin.

Bilim shakllari - Inson o'zini qurshagan olamni anglab etadi, uni har xil usullar yordamida o'zlashtiradi. Bu usullardan ikkita eng muhimini qayd etish mumkin. Birinchi – moddiy-texnikaviy usul – tirikchilik vositalarini ishlab chiqarish, mehnat, amaliyot. Ikkinchi – ma'naviy (ideal) usul; uning doirasida sub'ekt va ob'ektning bilishga doir munosabatlari ular o'rtasidagi ko'p sonli munosabatlarning biridir. O'z navbatida, bilish jarayoni va unda olinadigan bilimlar amaliyot va bilishning tarixiy rivojlanishi mobaynida tabaqalanadi va o'zining har xil shakllarida mujassamlashadi. Bilishning bu shakllari, garchi o'zaro bog'liq bo'lsa-da, lekin bir-biriga o'xshamaydi va har bir biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Bilish, ma'naviy faoliyat shakli sifatida, jamiyat paydo bo'lgan davrdan va jamiyat bilan birga muayyan rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda. Bu bosqichlarning har birida bilish jarayoni insoniyat tarixi mobaynida Yuzaga kelgan rang-barang va o'zaro bog'langan ijtimoiy-madaniy shakllarda amalga oshiriladi. Shu bois yaxlit hodisa sifatidagi bilishni biron-bir shaklga, hatto

soʻzning oʻz maʼnosidagi bilishni toʻliq «qoplamaydigan» ilmiy shaklga ham bogʻlash mumkin emas. Shu sababli gnoseologiya umumlashtirish uchun faqat bir soha – ilmiy bilimdan va hatto yuksak darajada rivojlangan tabiatshunoslikdan material olib, oʻz xulosalarini chiqara olmaydi.

Kundalik amaliy bilim. *Tabiat haqida, Shuningdek odamlarning oʻzlari, ularning yashash sharoiti, ijtimoiy aloqalari va hokazolar toʻgʻrisida elementlar bilimlar beruvchi kundalik-amaliy bilimlar bilishning tarixan eng birinchi shakli hisoblanadi.* Bilishning bu shakli kundalik hayot, odamlar amaliy tajribasidan kelib chiqqan. Shu asosda olingan bilimlar garchi mustahkam boʻlsa-da, biroq tartibsiz, tarqoq xususiyatga ega boʻladi, maʼlumotlar, qoidalar va Shu kabilarning oddiy majmuini tashkil etadi. Kundalik bilish sohasi juda rang-barang. U sogʻlom fikr, eʼtiqodlar, belgi-alomatlar, shaxsiy tajribadan chiqarilgan dastlabki xulosalar, ularning anʼanalari, rivoyatlar, oʻgitlar va hokazolarda ifodalangan koʻrinishlari, intuitiv ishonch, sezgilar va Shu kabilarni oʻz ichiga oladi.

Kundalik bilim – bu har xil faoliyat shakllari – jumladan ishlab chiqarish faoliyati, estetik faoliyat, siyosiy faoliyat va hokazolarning taʼsirida shakllanadigan turmush bilan bogʻliq tushunchalar majmui avlodlar toʻplagan jamoa kollektiv tajribasi mahsuli hisoblanadi.

Shaxsiy darajada kundalik bilim muayyan shaxsning emotsional kechinmalari va oʻz hayot tajribasini anglab etishi bilan bogʻliq. Inson dunyoni nafaqat ilmiy oʻrganish, balki oʻz hayoti, kundalik amaliyotida oʻzlashtirish jarayonida ham tushunib etadi. Bunday oʻzlashtirishning universalligini hozirgi zamon nemis faylasufi Gadamer «dunyoni sinash» deb nomlagan. Kundalik bilim zamirida odamlar faoliyatining rang-barang shakllari yotadi. Bu faoliyat turlari urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramlar, marosimlar, jamoa harakatlari (oʻyin, raqs va h.k.), axloqiy qoidalar va taqiqlar bilan tartibga solinadi. Ular odamlarni jamoaviy ijtimoiy, madaniy tajribaga jalb etish vositalari boʻlib xizmat qiladi, odamlarning tabiatga va bir-biriga munosabatini tartibga soladi, Yangi bilimlarning shakllanishiga xizmat qiladigan boshlangʻich bilim sifatida amal qiladi.

Oʻyin vositasidagi bilim nafaqat bolalar, balki kattalar faoliyatining ham muhim unsuri hisoblanadi. *Oʻyin jarayonida shaxs qizgʻin bilish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarning katta hajmini oʻzlashtiradi, madaniy boylik – ishga doir oʻyinlar, sport oʻyinlari, aktyorlarning oʻyinlari va Shu kabilarni qon-qoniga singdiradi.* Oʻyin bolalarning qiziquvchanligini qondirish, ularning maʼnaviy dunyosi va maʼlum bilimlari, oʻzaro til topish koʻnikmalari va Shu kabilarni shakllantirishda muhim ijtimoiy rol oʻynaydi.

Hozirgi zamonda oʻyin tushunchasidan matematika, iqtisodiyot, kibernetika va boshqa fanlarda keng foydalanilmoqda. Bu erda murakkab jarayonlar kechishining har xil variantlari, ilmiy va amaliy muammolarning echimlari koʻrib chiqiladigan maxsus oʻyin modellari va oʻyin ssenariylari tobora koʻproq qabul qilinmoqda. Hozirgi zamon falsafiy va ilmiy tafakkurining bir qancha nufuzli yoʻnalishlari oʻyinni mustaqil oʻrganish sohasi sifatida ilgari surmoqdalar. Germenevtika (Gadamer), falsafiy antropologiya Shunday fanlar jumlasidan. Masalan, Xaydegger oʻyinni madaniyat shakllanishining umumiy tamoyili, har qanday davrda kishilik jamiyatining negizi deb hisoblaydi. Gadamer fikriga koʻra, oʻyin – sanʼat asarlarining mavjudlik usuli, mazkur asarlarning mavjudligi esa, oʻz navbatida, haqiqatni aniqlashning muhim usulidir.

Mifologik bilim insoniyat tarixining dastlabki bosqichida muhim rol oʻynagan. *Mifologik bilimning oʻziga xos xususiyati Shundan iboratki, u borliqning fantastik inʼikosi hisoblanadi.* Mifologiya doirasida tabiat, koinot va odamlar, ular mavjudligining shart-sharoitlari, aloqa shakllari va hokazolar haqidagi muayyan bilimlar shakllangan. Soʻnggi vaqtda (ayniqsa strukturalizm falsafasida) mifologik tafakkur – bu Shunchaki fantaziyaning tiyiqsiz oʻyini emas, balki ajdodlar tajribasini qayd etish va keyingi avlodlarga berish uchun imkoniyat yaratadigan dunyoni oʻziga xos tarzda modellashtirish ekanligi aniqlandi.

Mifologik tafakkurga uning emotsiyalar sohasi bilan uzviyligi, bilish obʼekti va subʼektini, predmet va belgini, narsa va soʻzni, hodisaning kelib chiqishi (genezisi) va mohiyatini aniq farqlamaslik xos. Unda tabiiy va ijtimoiy hodisalarni, Shuningdek butun dunyoni tushuntirish ularning kelib chiqishi va yaralishi haqidagi hikoyalarga bogʻlangan (germetizm).

Ayrim hozirgi tadqiqotchilarning fikricha, bizning davrimizda mifologik bilishning ahamiyati pasayayotgani yoʻq. Masalan, P.Feyerabend dunyo yutuqlari madaniyatga asos solgani, ratsionalistlar esa faqat uni doim yaxshi tomonga oʻzgartirishganiga ishonchi komil.

Mif – ibtidoiy odam tafakkurining tabiat hodisalarini tushunish va tushuntirishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Mif narsa va obraz, jism va xossa, «asos» va tamoyillarni farqlamaydi. Voqealar o‘xshashligi yoki ketma-ketligini sabab va oqibat bog‘lanishi sifatida talqin qiladi. Mif oliy darajada universal voqealar, chunonchi: inson o‘limi va uning mangu barhayotligi, dunyoning vujudga kelishi, qahramonona qilmishlar, madaniyat yutuqlari (masalan, olovning o‘g‘irlanishi haqidagi mif) va Shu kabilar haqida hikoya qiladi. Mifning mazmuni ramziy tilda ifodalanadi, natijada uning xulosalari keng va ko‘p ma‘noli tus kasb etadi. Ko‘p sonlilik tamoyilini, aks ettirish, muayyanlik va antropomorflik (ya‘ni inson xususiyatlarini tabiat ob‘ektlariga o‘tkazish), obraz va ob‘ektning tenglashtirish kabilar mifologik bilishning o‘ziga xos xususiyatlaridir. Borliqni anglab etish usuli sifatida mif inson, jamiyat, dunyoni modellashtiradi, tasniflaydi va talqin qiladi.

SHaklan mif muayyan voqeani tabiatda yoki muayyan xalqlar tarixida bo‘lib o‘tgandek ifodalovchi rivoyatdir. Kosmogonik miflarda Logos yoki Aql harakatga keltiradigan va boshqaradigan, ierarxik tuzilishga ega bo‘lgan yagona va yaxlit kosmos haqidagi tasavvur shakllangan. Shu sababli kosmos oliy barkamollikka ega deb tasavvur qilingan. Bu tasavvurlar kosmosning o‘zgarishlarida tabiat hodisalarining uzluksiz aylanishini hosil qiluvchi er, havo va olov stixiyalari podsholigi sifatidagi talqinida muayyanlashgan.

Miflarda qat‘iy rioya qilish lozim bo‘lgan amaliy tavsiyalar ham ifodalangan. Garchi mifologiyaning amaliy tavsiyalari isbotlanmagan va qoida sifatida belgilangan bo‘lsa-da, ular odamlarning juda ko‘p avlodlari tajribasini umumlashtirish mahsuli hisoblanadi.

Badiiy bilim borliqni tushunib etish refleksiyaning o‘ziga xos shakli bo‘lib, u san‘at borlig‘ining barcha bosqichlarida – asar g‘oyasidan boshlab uning odamlar tomonidan qabul qilinishigacha – o‘ziga xos tarzda ro‘yobga chiqadi. Badiiy ijodni ijodkorning fikrlari va kechinmalarini anglab etish ob‘ekti – butun dunyoga uzviy bog‘lagan holda san‘at tilida moddiylashtirish deb ta‘riflash mumkin. SHaklan badiiy faoliyat ob‘ektga qarab mo‘ljalladi, mazmunan esa, u shaxs o‘zligining ifodasi, inson ma‘naviy hayotining intim tomoni, ijodkor ideallari va didining majmui hisoblanadi.

Borliqni badiiy idrok etishning o‘ziga xos xususiyati ko‘p jihatdan san‘at tilining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Uning tarjimoni – ijtimoiy aloqalar tizimiga kiruvchi madaniyatning belgilar tizimlaridir. San‘at madaniyat tillarini badiiy tafakkur va aloqa vositalariga aylantiradi. Bunda san‘at tili ikki xil ma‘noda: dastlabki, madaniy (asarni idrok etishda u aynan tuShunilishi mumkin) va shartli, badiiy ma‘noda keladi. «Ma‘nolar o‘yini» asl borliqdan chalg‘itmaydi, biroq uni mutlaqo kutilmagan tomondan ko‘rish imkonini beradi. San‘atni idrok etishda muttasil kashfiyotlar Yuz beradi. Ularning orasida eng muhimi qalbmizning xilvat burchaklarini yorituvchi yashin chaqiniga o‘xshaydigan o‘zlikni kashf etishdir. Ongning kutilmagan kashfiyotlar xos bo‘lgan bunday holati psixologiyada «insayd» deb ataladi. San‘atni idrok etish o‘zlikni anglash bilan bog‘liq cheksiz va tengsiz lazzat baxsh etadi. San‘atni idrok etish mexanizmi sifatida empatiya, ya‘ni o‘zini obraz bilan tenglashtirish amal qiladiki, bu kuchli emotsional ta‘sirilanishga sabab bo‘lishi mumkin. Ijodiy va salbiy emotsional holatlarning bir-biriga o‘tishi bilan bog‘liq murakkab jarayon shaxsni o‘z tajribasini qayta tushunishga majbur qiladi va uning qadriyatlar tizimida to‘ntarish yasashga qodir.

Shunday qilib, san‘atning bilishdagi ahamiyati Shundan iboratki, u bilish va o‘zlikni anglashning o‘ziga xos birligidir. San‘at – shaxsni ma‘naviy boyitish manbai. U insonning ijodiy imkoniyatlarini faollashtiradi, uning madaniyat dunyosi va umuman jamiyatdagi xulq-atvorni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. San‘atni idrok etishda ob‘ekt va sub‘ekt mushtarakdir. SHaxs san‘at asarining mazmuniga o‘zining daxldorligini his qiladi va uni o‘zida kashf etadi. Shu sababli san‘atni idrok etish orqali bilish faolligi namoyon bo‘ladi.

Bilishning mifologiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan qadimgi shakllari diniy bilishdir.

Diniy bilim insoniyat to‘plagan tajribaga tayanib, inson hayotining muhim ko‘rinishlari, chunonchi: oila va turmushdagi xulq-atvor, axloqiy qoidalar, mehnat, tabiat, jamiyat va davlatga munosabatni tartibga soladi. Dinning asosiy vazifasi – inson hayoti, tabiat va jamiyat borlig‘ining mazmunini aniqlashdan iborat. Din universumning pirovard mazmunlari haqidagi o‘z tasavvurini asoslab, dunyo va insoniyatning birligini tushunishga ko‘maklashadi. U inson hayotini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan haqiqatlar tizimidan iborat. Diniy ta‘limotlarning o‘ziga xos xususiyati

Shundan iboratki, ular jamoa tajribasini ifodalaydi va Shu bois nafaqat har bir dindor odam, balki dinga sig'inmaydiganlar uchun ham qadrlidir.

Diniy ta'limotlarning vazifasi Xudo bormi, uni qanday qilib bilish mumkin, umuman, Xudoni bilish mumkinmi, degan savollarga javob berishdan iborat. Din o'z dunyoqarashini Muqaddas Kitob matnlarida, Shuningdek diniy rasm-rusum va urf-odatlarda ifoda etadi. Diniy rasm-rusumlarning bir unsuri ramziy ahamiyatga egadir. Diniy ramzlar g'oya va obraz muvozanatini o'zida mujassamlashtiradi.

Ongning o'ziga xos shakli sifatida din e'tiqod, ishonch va bilish mexanizmlari (hayot tajribasi)ga tayanadi. Diniy e'tiqod refleksiya bilan qo'llab-quvvatlanadi, shaxsning fojeaviy tajribasi (o'lim xavfi yoki yaqinlarini yo'qotishi)ni anglab etish orqali Yuzaga keladi yoki mustahkamlanadi, bu tajriba shaxsni o'z hayoti va tafakkur tarzini tubdan o'zgartirishga da'vat etadi. Dindorlar fikricha, diniy e'tiqod diniy vahiy kelishi natijasida tug'ilishi mumkin.

Din dunyo va insonni intuitiv-mistik yo'l bilan anglashning o'ziga xos usullarini yaratgan. Bunday usullar jumlasiga vahiy va meditatsiyani kiritish lozim. Vahiy tushunchasi diniy tasavvurlarning tadrijiy rivojlanishi jarayonida shakllangan. Dastlab u oliy kuchlar tanlagan ayrim shaxslarning transsendent holatida Shu kuchlar nomidan so'zlash qobiliyati sifatida qaralgan (valilar, shamanlar va sh.k.). Muqaddas Kitob matnlariga doimiy murojaat etish dindorga ularda Yangi haqiqatlarni kashf qilish, o'z hayotini solishtirish va uni qayta tushunish imkonini beradi.

Meditatsiya – o'z tafakkurini bir ob'ektga qaratish, inson e'tiborini chalg'ituvchi barcha begona omillarni chetga chiqarish yo'li bilan fikr yuritish, narsa, g'oya, dunyoni idrok etishdir. Dinda meditatsiya shaxsiy ongning Absolyut bilan birikuvini anglatadi. Xristianlikda meditatsiya inson shaxsi va ilohiy shaxsning muayyan oqibati sifatida talqin qilinadi. Meditatsiya, odatda, tabiiy refleksiya jarayoniga aylanadigan harakatlarning muayyan ketma-ketligi bilan bog'liq. U ayrim psixotexnik usullardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunda dindor mazkur usullar yordamida o'zini boshqarish, o'zlikni yoki tabiatni anglashga ko'maklashuvchi g'ayritabiiy ruhiy kuchlardan foydalanayotganiga ishonchi komil bo'ladi. Meditatsiyaning bilish usuli sifatidagi samaradorligini fan tan oladi; davolash uchun mo'ljallangan psixotexnika va autogen mashq tizimlari diniy-mistik g'oyalar bilan bog'liq emas.

Diniy bilishning o'ziga xos xususiyatlari Shu bilan belgilanadiki, u odamlarning o'zini boshqaruvchi dunyoviy (tabiiy va ijtimoiy) kuchlarga munosabatining bevosita emotsional shakli bilan bog'liq. Bu kuchlarning xayoliy in'ikosi bo'lgan diniy tasavvurlar borliq haqidagi muayyan bilimlarni ifoda etadi. Odamlar asrlar va ming yilliklar mobaynida to'plagan diniy va boshqa bilimlar xazinasini sifatida, masalan, Injil va Qur'onni qayd etish mumkin. Biroq din (mifologiya kabi) bilimni izchil va nazariy shaklda ifodalagan. U umumiy, yaxlit va isbotlangan ob'ekt sifatida bilim ishlab chiqarish vazifasini bajarmagan va bajarmaydi.

Agar diniy bilishga dunyoga emotsional munosabatning g'ayritabiiy narsalar va hodisalarga ishonch bilan birikuvini xos bo'lsa, falsafiy bilishning zamirida emotsiyalar va e'tiqodni o'ziga bo'ysundiruvchi oqilonalik yotadi.

Falsafiy bilim. Falsafa san'at va din kabi, bilish vazifalarini echish bilangina kifoyalanmaydi. *Uning bosh vazifasi san'at va din bilan uyg'un holda – insonning dunyoda ma'naviy mo'ljallanishiga ko'maklashishdan iborat.* Falsafiy bilish ayni Shu maqsadga bo'ysundirilgan. Falsafa umuman dunyo, uning «birinchi» asoslari, hodisalarning universal o'zaro aloqasi, borliqning umumiy xossalari va qonunlari haqida umumiy tasavvurni shakllantiradi. Falsafa dunyoni insonga bog'lab o'rganadi. Me'yorlar va ideallar, ilmiy bilimlar va san'at yutuqlari, insonning tashvihlari, ehtiyojlari, hayot mazmunini anglash yo'lidagi izlanishlari faylasufning dunyoqarashini, falsafiy mushohada yuritish shaklini belgilaydi. Falsafa jamiyat ongi, jamiyat madaniyatining nazariy ifodasi sifatida amal qiladi. U tafakkur tarzi, qadriyatlar, ideallar, falsafiy muammolar va ularni ko'rib chiqish xususiyatini belgilaydigan madaniyat bilan uzviy bog'liqdir. Falsafa umuman dunyoga va madaniyat sub'ekti sifatidagi insonga murojaat etadi. Falsafiy bilim donishmandlik sifatida tavsiflanadi. Donishmandlik – dunyoni va insonning undagi o'rnini yaxlit tushunish andozasi. Falsafa barcha odamlar uchun muhim bo'lgan haqiqatlarning tagiga etish uchun (ilmiy va noilmiy) bilimdan foydalanadi. Kant falsafa inson aqlining boshqa bilimlarga oliy qadriyat tusini

beruvchi eng so'nggi maqsadlarini anglab etishni tushunishga, bu bilimlarning inson uchun ahamiyatini aniqlashga yordam beradi deb hisoblagan. Falsafa inson faoliyatini yo'lga soluvchi tamoyillar, yondashuvlar, qadriyatlar va ideallar tizimini, uning dunyoga va o'z-o'ziga munosabatini belgilaydi. Dunyoning inson bilan mushtarak holdagi obrazini yaratib, falsafa muqarrar tarzda qadriyatlar dunyosiga murojaat etadi. Etika, estetika, aksiologiya – falsafiy bilimning qadriyatlar dunyosini o'rganuvchi maxsus sohalaridir. Falsafa san'atda o'zining yorqin va ishonarli ifodasini topishi bejiz emas. Ko'pgina faylasuflar uning metaforalarga boy obrazli tilidan o'z g'oyalari ni ifodalash uchun foydalanadi.

Din kabi, falsafiy bilimning ham bosh maqsadi – insonni kundalik tashvishlar sohasidan olib chiqish, unda yuksak ideallarga qiziqish uyg'otish, uning hayotiga chin mazmun baxsh etish, eng zamonaviy qadriyatlar sari yo'l ochishdir. Biroq *din – ommaviy ong bo'lsa, falsafa – nafaqat iste'dod, balki kasbiy bilim va ko'nikmalarni ham talab qiluvchi elitar ongdir.*

Falsafiy bilimda ikki asos – ilmiy-texnikaviy va nazariy-ma'naviy asoslarning uyg'unlashishi uning ongning betakror shakli sifatidagi o'ziga xos xususiyatini belgilaydi. Bu falsafa tarixida – tarixan vaqtda bir-biri bilan tasodifiy emas, balki muqarrar tarzda bog'langan falsafiy ta'limotlarning g'oyaviy mazmunini meros qilib olish, rivojlantirish jarayonida ayniqsa bo'rtib ko'rinadi. Bu ta'limotlarning barchasi – yaxlit bir butunning qismlari, xolos. Oqilonalikning boshqa sohalarida (masalan, fanda)gi kabi, falsafada ham Yangi bilim o'zining avvalgi darajasidan voz kechmaydi, balki uni o'zining ayrim ko'rinishi sifatida o'z tarkibida qoldiradi. Gegel tafakkur tarixida biz taraqqiyotni, mavhum (nomukammal, biryozlama) bilimdan yanada aniqroq (mukammal, serqirra) bilim sari muttasil yuksalishini kuzatamiz, deb ta'kidlagan edi. Falsafiy ta'limotlarning ketma-ketligi ham g'oya mantiqiy ta'riflarining ketma-ketligi bilan asosan bir xil, ya'ni bilish tarixi anglab etilayotgan predmetning ob'ektiv mantig'iga mos keladi.

Biroq falsafiy bilimning ma'naviy (qadriyatlar va mo'ljallar) qismi yuksalish qonuniga ham, hokimiyat va vaqtga ham bo'ysunmaydi. U tarixiga «yuksak», «tuban» mezonlari bilan yondashish mumkin bo'lmagan san'atga yaqinroq. Nyuton ta'biri bilan aytganda, olimlar o'z o'tmishdoshlarining «elkalari»da turadi: ular o'z ijodi bilan bir umumiy ishni davom ettiradi, rivojlantiradi. San'atkorlar esa bu safga kirmaydi. Zero, ularning har biri – alohida dunyo, alohida olam (lekin bu davrlar va avlodlarning badiiy tajribasida vorisiylikni istisno etmaydi). Buyuk san'atkor o'z davrining buyuk ifodachisi bo'lib, ayni Shu ma'noda uning ijodi odamlar uchun olamShumul ahamiyat kasb etadi.

Biroq falsafiy bilimning nazariy qismi, ya'ni uning ichki mantiqi ancha murakkabdir. Bu falsafiy g'oyaning serma'noliligi, u rivojlantirilishi, har xil, hatto qarama-qarshi yo'nalishlarda davom ettirilishi mumkinligi bilan izohlanadi. Masalan, Lokk (XVII asr ingliz faylasufi) falsafasidan uning izdoshlari (idealist Berkli va fransuz ma'rifatchi materialistlari Didro, Golbax) bir-birini mutlaqo istisno etuvchi xulosalar: Berkli – sub'ektiv-idealistik, fransuz mutafakkirlari – esa ma'rifatchilik bilan bog'liq xulosalar chiqarganlar. Kant, va Gegelning falsafiy g'oyalari hozirgi zamon tafakkuriga asos soldi. Biroq har bir kantchi, gegelchining o'z Kanti, o'z Gegerli bor, ularning har biri o'z o'tmishdoshlarini o'zicha talqin qiladi. Boz ustiga, biron-bir yirik faylasuf o'z g'oyalari ni bitta yagona manbadan olmagan. Kant Leybnits va YUmga, Forobiy Aristotel va Platonga tayangan va hokazo. Bularning barchasi Yangi falsafiy bilimning vujudga kelishiga asos bo'ladi. SHakllangan bu Yangi falsafiy bilimda esa ijodiy tanqid muhim rol o'ynaydi.

Har qanday bilim singari, falsafiy bilim ham haqiqat va ishtiboh birligidir. Biroq gnoseologiyada bu tushunchalar alohida mazmun kasb etadi. Bu mazmun ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-ma'naviy xususiyatga ega bo'lib, u muqarrar tarzda nafaqat bizning tafakkurimizni, balki unga bog'liq bo'lgan, unga asoslangan bizning harakatlarimizni ham baholashni o'z ichiga oladi. Biroq, insonning oliy maqsadlari – uning universal, jismoniy, aqliy va ma'naviy kuchlarini rivojlantirishga mos keladigan harakat (qilmish, qaror, niyat)gina haqiqiydir. Haqiqat, chin hayot kabi, insonning yuqorida zikr etilgan kuchlari va ijodiy qobiliyatini cheklamaydigan, toraytirmaydigan, balki ularni kengaytiradigan va rivojlantiradigan tamoyillar va qadriyatlarga rioya qilish demakdir. O'z navbatida, ishtiboh ham oddiy sub'ektiv mantiqiy xato, yanglishish yoki dushmanlarning kirdikorlari mahsuli emas, balki tarix yangliShuvining muqarrar natijasidir. Masalan,

kommunistlarning barcha yo'llar bizning asrimizga, jamiyatni erkinlik, tenglik va birdamlikka etaklaydi, degan umid va ishonchlarini xatoga yo'yish mumkin, chunki ularning birontasi ham o'z tasdig'ini topmadi. Biroq xatolar zahirida teran mazmun yotadi. Axloqiy imperativ (ideal, orzu) borliq emas, biroq u mazkur borliqning darakhchisi. Jamiyatda axloqiy tushunchalar, qadriyatlarga munosabatning o'zgarishi insoniyat millionlab kishilar hayotida olamShumul o'zgarishlar Yuz berishi arafasida turganining eng aniq ko'rsatkichidir. Zotan, g'oyalar yo'q joydan paydo bo'lmaydi, osmondan tushmaydi. Ilmiy bilim ma'nolar, maqsadlar, qadriyatlar va insonning qiziqishlariga befarq bo'lsa, falsafiy bilim insonning dunyodagi o'rni va roli haqidagi bilimdir.

Ilmiy bilim. Bilishning eng oliy shakli fandır. Ayrim fanlarning vakillari fanni ta'riflar ekanlar, uni muayyan tadqiqotlar sohasi bilan bog'laydilar. Ilmiy bilim boshqa bilim turlaridan o'zining aniqligi bilan ajralib turadi.

Ilmiy bilim, ma'naviy ishlab chiqarishning barcha shakllari kabi, pirovardida inson faoliyatini tartibga solish uchun zarur. Bilishning har xil turlari bu vazifani turlicha bajaradi va mazkur farqning tahlili ilmiy bilimning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning birinchi va muhim sharti hisoblanadi.

Fan amaliy faoliyat predmetlarining (boshlang'ich holatdagi ob'ektning) tegishli mahsulotlarga (pirovard holatdagi ob'ektga) aylanish jarayonini oldindan ko'ra bilishni o'z oldiga pirovard maqsad qilib qo'yadi. Bu o'zgarish har doim ob'ektlarning o'zgarish va rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi, faoliyat Shu qonunlarga muvofiq bo'lgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu sababli fanning asosiy vazifasi ob'ektlarning o'zgarish va rivojlanish qonunlarini aniqlashdan iborat.

Tabiatning o'zgarish jarayonlariga tatbiqan bu vazifani tabiiy fanlar va texnika fanlari bajaradi. Ijtimoiy ob'ektlarning o'zgarish jarayonlarini ijtimoiy fanlar o'rganadi. Hamonki faoliyat jarayonida har xil ob'ektlar – tabiat predmetlari, inson (va uning ongi holatlari), jamiyatning kichik tizimlari, madaniyat hodisalari sifatida amal qiluvchi belgilar ko'rinishidagi ob'ektlar va hokozolar o'zgarishi mumkin ekan, ularning hammasi ilmiy tadqiqot predmetlari bo'lishi mumkin.

Fanning faoliyatga jalb qilinishi mumkin bo'lgan ob'ektlarni o'rganish va ularni faoliyat va rivojlanishning ob'ektiv qonunlariga bo'ysunuvchi ob'ektlar sifatida tadqiq qilishga qarab mo'ljal olishi ilmiy bilimning birinchi eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Ilmiy bilim o'zining ayni Shu xususiyati bilan inson bilish faliyatining boshqa shakllaridan ajralib turadi. Masalan, borliqni badiiy o'zlashtirish jarayonida inson faoliyatiga jalb qilingan ob'ektlar sub'ektiv omillardan ajratilmaydi, balki ularga o'ziga xos tarzda bog'lanadi. Ob'ektiv dunyo predmetlarining san'atdagi har qanday in'ikosi ayni vaqtda insonning predmetga munosabatini aks ettiradi. Badiiy obraz – bu ob'ektning Shunday bir in'ikosiki, unda inson shaxsi, uning qadriyatlarga munosabati aks etadi, bu xossalar aks ettirilayotgan borliq tavsifidan o'rin oladi. Bu mushtaraklikni istisno etish – badiiy obrazni buzish demakdir. Fanda esa, bilim yaratayotgan shaxs hayot faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, uning mushohadalari yaratilayotgan bilim tarkibiga bevosita kirmaydi (Nyuton qonunlari Nyutonga nima yoqqani va yoqmaganligi haqida xulosa chiqarish imkonini bermaydi, vaholanki, masalan, Rembrandt mo'yqalamiga mansub portretlarda Rembrandt esse, uning dunyoqarashi va o'zi tasvirlayotgan ijtimoiy hodisalarga shaxsiy munosabati o'z ifodasini topadi; buyuk musavvir tomonidan yaratilgan portret doim uning avtoportreti sifatida ham amal qiladi).

Ilmiy bilim borliqni moddiy va ob'ektiv o'rganishga qarab mo'ljal oladi. Biroq bu olimning shaxsiy xususiyatlari, uning qadriyatlarini belgilashda, ilmiy ijodida rol o'ynamaydi va uning natijalariga ta'sir ko'rsatmaydi, degan ma'noni anglatmaydi. Ilmiy bilim nafaqat o'rganilayotgan ob'ektning o'ziga xos xususiyatlari, balki ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan ko'p sonli omillar bilan ham belgilanadi.

Ilmiy bilimning tarixiy rivojlanishi madaniyatning o'zgarishi ilmiy bilimni bayon etish andozalari, fanda borliqqa yondashish usullari va tafakkur uslublarining o'zgarishiga bog'liq. Bu andozalar, usullar va uslublar madaniyat kontekstida, uning har xil hodisalari ta'sirida shakllanadi. Bu ta'sirni ilmiy bilimning rivojlanish jarayoniga har xil ijtimoiy-madaniy omillarning qo'shilishi sifatida tavsiflash mumkin. Biroq har qanday bilish jarayonida ob'ektiv va sub'ektiv narsalar va

hodisalarning aloqalarini qayd etish hamda fanni inson ma'naviy faoliyatining boshqa shakllariga bog'lab o'rganish zarurligi fan bilan bu shakllar (kundalik bilish, badiiy tafakkur va sh.k.) o'rtasidagi farq masalasini kun tartibidan chiqarmaydi. Ilmiy bilimning ob'ektivligi va moddiyligi bunday farqning birinchi va eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Fan inson faoliyatida faqat uning moddiy tuzilishini farqlaydi va hamma narsani Shu tuzilish nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Qadimgi afsonada podsho Midas nimaga qo'l tekkizmasin, hammasi oltinga aylanganidek, fan ham nimaga murojaat etmasin, hamma narsa uning uchun ob'ektiv qonunlarga ko'ra yashaydigan, faoliyat ko'rsatadigan va rivojlanadigan predmetdir.

Fan nafaqat hozirgi amaliyot jarayonida o'zgartiriladigan, balki kelajakda amalda ommaviy o'zlashtirish predmetiga aylanishi mumkin bo'lgan ob'ektlarni o'rganishga qarab mo'ljallanishi ilmiy bilimning ikkinchi o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu xususiyat ilmiy va odatdagi, stixiyali-empirik bilimni farqlash va fanning tabiatini tavsiflovchi ayrim tushunchalarni ta'riflash imkonini beradi.

SHaxsiy bilim. Bilim shakllari to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, M.Polani tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy bilim konsepsiyasini chetlab o'tishimiz mumkin emas. Olim o'z konsepsiyasini tuzishda bilim – anglash mumkin bo'lgan narsalarni faol o'zlashtirish, alohida mahorat va alohida vositalarni talab qiluvchi harakat, degan tamoyildan kelib chiqqan. Madomiki fanni odamlar yaratar ekan, bilish faoliyati jarayonida olinadigan bilimlarni (xuddi Shu jarayonning o'zi kabi) odamlardan ajratish mumkin emas. Demak, odamlarni (aniqrog'i, o'z qiziqishlari, maqsadlari va mo'ljallariga ega bo'lgan olimlarni) ular yaratayotgan bilimlardan ajratib yoki boshqa odamlar bilan almashtirib bo'lmaydi.

Polani fikriga ko'ra, *shaxsiy bilim muqarrar tarzda intellektual salohiyatni talab qiladi. Unda nafaqat bilish borlig'i, balki bilishga harakat qilayotgan shaxs, uning bilimga qiziqishi, bilimni talqin qilish va undan foydalanishga nisbatan shaxsiy yondashuvi, uni o'ziga xos tarzda anglab etishi mujassamlashadi.*

SHaxsiy bilim nafaqat qandaydir fikr-mulohazalar majmui, balki shaxsning kechinmalari hamdir. SHaxs bilimni Shunchaki qayd etmaydi, balki u bilan birga yashaydi.

Ijtimoiy bilim asosan o'zi o'rganayotgan borliqning sifat tomonini tavsiflashga qarab mo'ljallanadi. Bu erda hodisalar va jarayonlar miqdor va umumiylik nuqtai nazaridan emas, balki sifat va xususiylik nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shu sababli miqdor metodlarining ulushi bu erda tabiiy-matematik siklga mansub fanlarga qaraganda kamroq. Biroq bilimning matematikalaShuvi, kompyuterlaShuvi jarayonlari bu erda ham tobora kengroq tus olib bormoqda.

«Inson borlig'i», ijtimoiy bilim predmeti sifatida, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi tufayli, unda matematik apparatdan foydalanish ancha mushkul. Bu sohaga matematik metodlarni tatbiq etishga ijtimoiy ob'ektlarning o'ta individualligi (va hatto betakrorligi), sub'ektiv (Shu jumladan sof irratsional) jihatlar doimo mavjudligi, nazorat qilib bo'lmaydigan, tasodifiy munosabatlarning ko'pligi, ma'nolarning mujmalligi, nomukammalligi va hokazolar xalaqit beradi.

Biroq bu ijtimoiy fanlarni matematikalashtirish mutlaqo mumkin emasligidan dalolat bermaydi. Bu borada toq to'plamlar nazariyasiga katta umid bog'lanmoqda. Toq to'plamlar deganda chegaralari aniq bo'lmagan to'plamlar tuShuniladi, bunda elementlarning mazkur to'plamga mansubligidan unga mansub emasligiga o'tish keskin emas, balki asta-sekin Yuz beradi.

Ijtimoiy fanlarda miqdor metodlaridan foydalanish tobora keng va samarali tus olib bormoqda. Ularning ayrimlari (iqtisodiyot, sotsiologiya)dan miqdor metodlari mustahkam o'rin olgan, ayrimlari (tarix, san'atShunoslik va boshqalar)ga esa ular ehtiyotkorlik bilan kirib bormoqda. Masalan, tarix fani doirasida matematik metodlar tarixni o'rganishning asosiy vositasi bo'lgan alohida fan – kiometriya (so'zma-so'z ma'nosi – tarixni o'lchash) Yuzaga keldi va shakllanmoqda. Biroq, ijtimoiy fanlarda matematik metodlar qay darajada keng qo'llanilmasin, ular bu fanlar uchun asosiy emas, balki yordamchi metodlar bo'lib qolayotir.

Ijtimoiy bilimda empirik va nazariy unsurlarning o'ziga xos uyg'unligi kuzatiladi. Ijtimoiy bilimda empirik metodlarning imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, ular bu erda tobora kengroq va o'ziga xos tarzda qo'llanilmoqda. Bular, avvalo, ko'rib chiqilayotgan hodisalarning sof ob'ektiv

xossalarini emas, balki ularning insoniy ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan so'rovlar, anketalash, testlash, modelda eksperiment o'tkazish va hokazolardir.

Bilishning ikki shakli: **kundalik (empirik) bilish va nazariy (ilmiy) bilish** bir-biridan farqlanadi.

Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o'ziga xos bo'lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keyingi avlodlarga berish ancha mushkuldir. Hozirgi zamon g'arb sotsiologiyasida xalqlarning kundalik bilim hosil qilish usullarini o'rganuvchi maxsus soha — etnometodologiya fani vujudga keldi. Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish bilan Shug'ullanadi. Nazariy bilishning ob'ekti, sub'ekti va predmetini bir-biridan farqlash muhim.

Bilish – *inson qo'lga kiritadigan axborotning eng oliy darajasi*. Bu axborotni u bilish muammolari va vazifalarini qo'yish va echish yo'li bilan, izchil anglab etadi. Axborot miyaning muvohimlashtiruvchi faoliyati yordamida belgi shaklini ($2 + 2 = 4$) kasb etadiki, bu unga ishlov berish, saqlash va keyinchalik undan foydalanish uchun qulaydir.

Bilish inson izchil va ijodiy faoliyatining ijtimoiy jarayoni bo'lib, unda tashqi dunyoning ideal obrazlari Yuzaga keladi va bilish maqsadi bo'lgan bilim shakllanadi.

Bilishga insonning sezgilari, uning ehtirosi dunyosi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan K.Gelvetsiy: «...ehtiroslar bo'lmasa, buyuk artistlar ham, buyuk sarkardalar ham, buyuk vazirlar ham, buyuk shoirlar ham, buyuk faylasuflar ham bo'lmas edi»⁷³, deb yozgan edi. Ehtiroslar tadqiqotchiga kuch-g'ayrat beradi va bilish jarayonini ilgari suradi. Inson ehtirosisiz haqiqatni izlash mumkin emas.

Bilish doimo qandaydir Yangi, ilgari noma'lum bo'lgan narsani yaratishga yo'nalgan ijoddir. Ijodning bosh mezoni (ko'rsatkichi) – olingan natijalarning Yangiligi va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi. U juda katta aqliy va jismoniy harakat («ijod mashaqqatlari» deb bejiz aytmaydilar), ba'zan fuqarolik jasorati va hatto jonbozlik talab qiladi.

Bilishning maqsadi ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniyashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Fan — fan uchun emas, balki inson manfaatlarini uchun xizmat qilishi lozim. Inson ilmiy bilimlar vositasida ma'naviy barkamollikka erisha borгани sari ilm-fan qadriyat sifatida e'zozlana boshlaydi. Fanning har tomonlama rivojlanishi bilan turli ilm sohalarining hamkorligi kuchayadi, butun ilmiy jamoalar bilish sub'ekti, Yangi ilmiy kashfiyotlar ijodkoriga aylanadilar.

Bilish predmeti sub'ektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish ob'ektining ayrim sohalarini va tomonlaridir. Fanning o'rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografiya, ixtiologiya va boshqa sohalarini vujudga kelgandir. Tadqiqot predmeti fanlarni bir-biridan farqlashga imkon beradigan muhim belgidir.

Bilish darajalarini shartli ravishda: quyi, yuqori va oliy darajaga ajratish mumkin. Bilishning quyi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lib, **hissiy bilish** deyiladi. Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

Insonning sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo'lgani singari uning narsalarga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muhitga moslashish va himoyalani uchun yordam beradi. Bilishning quyi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xayol tashqi olam to'g'risida muayyan bilimlar hosil qilishga yordam beradi.

Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo'lib, **aqliy bilish** (ratsional bilish) deyiladi. Agar inson o'z sezgilari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham hodisa aldamchi va chalg'ituvchidir. Binobarin, inson sezgilarining biron bir narsa yoki hodisa to'g'risida bergan ma'lumotlari hech qachon uning butun mohiyatini ochib bera olmaydi.

⁷³ Гельвеций // История философии: Энциклопедия. – Минск: Книжнқй дом, 2002. – С.310

Tushuncha. Aqliy bilish yoki tafakkur vositasida bilish hissiy bilishni inkor etmaydi, balki sezgilar vositasida olingan bilimlarni umumlashtirish, tahlil qilish, sintezlash, mavhumlashtirish orqali Yangi hosil qilingan bilimlardan tushunchalar yaratiladi.

Tushunchada insonning hissiy bilish jarayonida orttirgan barcha bilimlari mujassam-lashadi. Tushuncha aqliy faoliyat mahsuli sifatida vujudga keladi. Narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib borishda tushuncha muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Aqliy bilish hissiy bilishga nisbatan ancha murakkab va ziddiyatli jarayondir. Aqliy bilishda narsa va hodisalarning tub mohiyatini bilish uchun ulardan fikran uzoqlashish talab etiladi. Masalan, insonning mohiyati uning sezgi a'zolarimiz qayd etadigan kelishgan qaddi-qomati, chiroyli qo'shu ko'zi, ijodkor qo'li, oyoqlari bilan belgilanmaydi. Insonning mohiyati avvalo, uning aql va tafakkurga, yaratish qudratiga, mehr-shafqat hissiga, mehnat qilish, so'zlash qobiliyatiga ega ekanligida namoyon bo'ladi.

Inson tushunchasi o'zida insoniyatning ko'p asrlar davomida orttirgan bilimlarining mahsuli sifatida shakllandi.

Har bir fan o'ziga xos tushunchalar apparatini yaratadi va ular vositasida mohiyatni bilishga intiladi. I. Kantning fikricha, narsalarning mohiyati so'z va tushunchalarda mujassamlashadi. YA'ni biz so'z va tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida biron bir bilimga ega bo'lamiz. Har bir inson dunyoga kelar ekan, tayyor narsalar, munosabatlar bilan bir qatorda tayyor bilimlar olamiga ham kirib boradi.

Hukm. Aqliy bilish narsa va hodisalarga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni tasdiqlash yoki inkor etishni taqozo etadi. Tafakkurga xos bo'lgan ana Shu tasdiqlash yoki inkor etish qobiliyatiga hukm deyiladi. Hukmlar tushunchalar vositasida shakllanadi. Hukmlar Yangi bilimlar hosil qilishga imkoniyat yaratadi, ular vositasida narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib boriladi. Shunday qilib, hukm narsa va hodisalarning tub mohiyatini ifodalovchi eng muhim belgi va xususiyatlar mavjudligini yo tasdiqlaydi yoki inkor etadi. Masalan, «inson aqli mavjudotdir», degan hukmda insonga xos eng asosiy belgi - aqlning mavjudligi tasdiqlanayapti. Biroq inson Shunday murakkab mavjudotdirki, uning mohiyati faqat aqli mavjudot ekanligi bilan cheklanmaydi. Chunki qirg'inbarot urushlar, ekologik inqirozlar aqli mavjudot bo'lgan inson tomonidan amalga oshirildi. «Inson axloqli mavjudotdir». Inson to'g'risidagi hozirgi zamon fanining muhim xulosasi ana Shu.

Xulosa — aqliy bilishning muhim vositalaridan biri, Yangi bilimlar hosil qilish usulidir. Xulosa chiqarish induktiv va deduktiv bo'lishi, ya'ni ayrim olingan narsalarni bilishdan umumiy xulosalar chiqarishga yoki umumiylikdan alohidalikka borish orqali bo'lishi ham mumkin.

Binobarin, tushuncha, hukm va xulosalar chiqarish ilmiy bilishning muhim vositalaridir. Bunday bilish insondan alohida qobiliyat, kuchli irodani tarbiyalashni, narsa va hodisalardan fikran uzoqlashishni, diqqatni bir joyga to'plashni, ijodiy xayolni talab etadi.

Bilishning oliy darajasi **intuitiv bilish, qalban bilish, g'oyibona bilish**dir. O'zining butun borlig'ini fan, din, siyosat va san'at sohasiga bag'ishlagan buyuk kishilar ana Shunday bilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. **Intuitiv** bilish **hissiy** va **aqliy** bilishga tayanadi. Buyuk shaxslarning g'oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, echimini kutayotgan umumbashariy muammolar bilan bog'liqdir.

Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gnoseologiyada muhim o'rin egallab keldi. Har bir fan o'ziga xos bilish usullaridan foydalanadi.

Ilmiy bilish fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dalillar to'plashning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.

Ilmiy bilish metodlarini o'rganadigan maxsus soha — **metodologiya** deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o'z xarakteriga ko'ra:

- 1) eng umumiy ilmiy metodlar;
- 2) umumiy ilmiy metodlar;
- 3) xususiy ilmiy metodlarga bo'linadi.

Eng umumiy ilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo'lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida kuzatish,

eksperiment, taqqoslash umumilmiy metodlar bo'lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik umumilmiy metodlar hisoblanadi.

Xususiyl ilmiy metodlar har bir fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, suhbatlashish, anketa so'rovi, hujjatlarni o'rganish sotsiologiya faniga xos bo'lgan xususiyl ilmiy metodlardir. Bir fanda yaxshi samara beradigan ilmiy bilish metodi boshqa fanda Shunday samara bermasligi mumkin. Ilmiy bilishda to'g'ri metodni tanlash bilishda muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy tadqiqotda nimani o'rganish kerak, degan masala fan predmetini aniqlashga imkon bersa, qanday o'rganish kerak, degan masala esa ilmiy bilish metodini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Ilmiy bilish metodlari va ilmiy nazariya bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ilg'or ilmiy nazariya fanning butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo'lib, u ilgari ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, o'sha yutuqlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash orqali vujudga keladi. Fan mohiyatan o'zi erishgan yutuqlarga Shubha bilan qarashni taqozo qiladi.

Fan, falsafa sohasida erishilgan yutuqlarni mutlaqlashtirish, ularga ko'r-ko'rona sig'inish muqarrar ravishda dogmatizmni keltirib chiqaradi. Fan erishgan yutuqlar hamisha nisbiydir. Lekin bunday nisbiylkni mutlaqlashtirish relyativizmni, fan yutuqlariga ishonchsizlik bilan qarash esa, skeptitsizmni vujudga keltiradi. Fan taraqqiyoti uchun dogmatizm, relyativizm va skeptitsizm jiddiy xalaqit beradi.

Ilg'or ilmiy nazariyalar ma'lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yo'nalishini o'zgartirishi, ilmiylkning o'ziga xos mezonini bo'lishi ham mumkin. Masalan, CHarlz Darvinning evolyusion nazariyasi, A. Eynshteynning nisbiylk nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Bilishdagi qarama-qarshiliklar. Bilish jarayonining ichki mantig'i (izchilligi) qanday?

Bilish jarayoni ma'lum qarama-qarshiliklardan ham xoli emas. Ular bilishning murakkab muammolarga to'la xususiyatini aks ettiradi. Bilish jarayonida mavjud qarama-qarshiliklarning ayrimlarini aytib o'tamiz.

Sub'ekt va ob'ekt (ya'ni inson va tashqi dunyo) o'rtasidagi qarama-qarshilik mangu va mutlaqo tabiiydir. U insonning dunyoni amalda o'zgartirish ehtiyoji bilan bu dunyo haqidagi bilimlarning kamligi (yoki umuman mavjud emasligi) o'rtasidagi nomuvofiqlikni ifodalaydi. Aslida bilish jarayoni doim ayni Shu nomuvofiqlikdan boshlanadi.

Ba'zan bilishga sezgi a'zolari ma'lumotlari bilan tashqi dunyoning fikr va tushunchalardagi in'ikosi o'rtasidagi qarama-qarshilik xosdir. Ma'lumki, Quyoshning chiqishini faqat Quyosh harakatsiz Er atrofida aylanishini taxmin qilib, sezgi a'zolari yordamida tushuntirish mumkin. Biroq bu hodisani ilmiy mushohada yordamida, ikkala osmon jismining harakatchanligini isbotlash yo'li bilan ham tushuntirish mumkin. Bu qarama-qarshilik taxminlarimizning mantiqiy dalillar va mulohazalar tizimi yordamida tajribada sinash yo'li bilan echiladi.

SHakllangan nazariya bilan olingan Yangi ilmiy dalillar va eksperimental ma'lumotlar o'rtasidagi qarama-qarshilik ham bilish uchun tabiiy bir holdir. Bunda mazkur dalillar yordamida nazariyaga aniqlik kiritish yoki, aksincha, uni eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan deb topish talab etiladi.

Bilish jarayonida fandagi oqimlar, maktablar va ayrim nazariyalar o'rtasida qarama-qarshiliklar Yuzaga keladi. Bunday qarama-qarshilik falsafada ham, masalan, «Demokrit yo'nalishi» va «Platon yo'nalishi» o'rtasida mavjud. Insonning tashqi dunyoni to'liqroq va aniqroq bilishga intilishi bilan buning uchun sub'ektiv va ob'ektiv chegaralar (inson qobiliyatining cheklanganligi, fan va texnika rivojlanish darajasining etarli emasligi va boshqalar) mavjudligi o'rtasidagi nomuvofiqlik odatdagi hol hisoblanadi. Faol va rivojlanuvchi jarayon bo'lgan inson bilishi uchun qarama-qarshiliklarning mavjudligi tabiiy bir holdir. Ularning umumiy negizini amaliyot, ijtimoiy hayot tashkil etadi. Qarama-qarshiliklar amaliyot jarayonida Yangi metodlar va dalillarni izlash, bilish sub'ektining intellektual qobiliyatini takomillashtirish yo'li bilan echiladi.

3. Haqiqat tushunchasi va uning shakllari.

Gnoseologiyada **haqiqat** tushunchasi muhim o‘rin tutadi. **Haqiqat** inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni ochish yoki ilmiy haqiqatga erishish har qanday ilmiy bilishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat o‘zining mazmuniga ko‘ra mutlaq va nisbiy bo‘lishi mumkin. Fan haqiqati hamisha nisbiy xarakterga ega bo‘lib, ularning majmuasidan mutlaq haqiqat vujudga keladi.

Haqiqat o‘z mazmuniga ko‘ra hamisha ob‘ektivdir. YA’ni uning mavjudligi ayrim kishilarning xohish-irodasiga bog‘liq emasdir. Masalan, O‘zbekistonning milliy mustaqilligi ob‘ektiv haqiqatdir. Ayrim kishilarning bu mustaqillikni tan olish yoki olmasligidan qat’i nazar, bu haqiqat o‘z mazmunini saqlab qolaveradi. Haqiqatni atayin buzish yoki soxtalashtirish oxir-oqibatda fosh bo‘ladi va o‘z qadrini yo‘qotadi. Shuningdek, haqiqat hech qachon mavhum emasdir. U hamisha konkretidir. Hegel so‘zlari bilan aytganda, nimaiki voqe bo‘lsa, u haqiqatdir, haqiqat — voqelikdir. Haqiqat mazmunining konkret xarakteri joy, vaqt va sharoitni e‘tiborga olishni talab etadi.

Gnoseologiyada tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilishning o‘ziga xos xususiyatlarini anglash muhim ahamiyatga egadir. Uzoq yillar davomida tabiatshunoslik fanlariga xos bo‘lgan ob‘ektivlik, xolislik ilmiylikning muhim mezoni deb hisoblab kelindi. Biroq XX asr o‘rtalarida fan-texnika inqilobi insoniyat oldida paydo bo‘lgan muammolar tabiatshunoslik fanlari oldiga qadriyatli yondashuv vazifasini qo‘ya boshladi. Aqlli mavjudot bo‘lgan inson har qachon tabiatni o‘rganishda hamisha o‘z manfaatlarini ko‘zlaydi. Tabiat resurslari cheksiz va bitmas-tuganmasdir, degan bir yoqlama qarash oxir-oqibatda inson tomonidan tabiatga nisbatan shafqatsiz munosabatni vujudga keltirdi. XX asr oxirlariga kelib tabiatga nisbatan insonlarcha, qadriyatli munosabatda bo‘lish zaruriyati chuqurroq anglana boshladi.

Ijtimoiy fanlar hamisha mavjud siyosiy tuzum, davrning talab va ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq ravishda rivojlanadi. Ijtimoiy bilishda jamiyat ham bilish ob‘ekti, ham bilish sub‘ekti sifatida namoyon bo‘ladi: insoniyat o‘z tarixini yaratuvchi va o‘z-o‘zini biluvchidir.

Tabiatshunoslikda nisbatan barqaror sistemalar bilish ob‘ekti hisoblanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalar tadqiqotchiga hech qanday qarshilik ko‘rsatmaydilar. Ijtimoiy bilishda esa, nisbatan tez o‘zgaruvchi sistemalar bilish ob‘ekti hisoblanadi. Ijtimoiy bilishga xos bo‘lgan muhim xususiyat shundaki, u moddiy ishlab chiqarish sohalarinigina emas, balki jamiyatning ancha murakkab ma’naviy hayotini, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni, qarashlar va g‘oyalarni ham o‘rganadi. Ijtimoiy fanlar milliy g‘oya va milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Gnoseologiyaning maqsad va vazifalari, bilishning mohiyati va mazmuni to‘g‘risida zarur bilimlarga ega bo‘lish mamlakatimizda bilimdon, har jihatdan etuk barkamol inson shaxsini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Bilish nazariyasi bo‘ljak mutaxassis-kadrlarda muayyan ilmiy layoqat va qobiliyatlarni shakllantirishga ko‘maklashadi. Milliy mustaqillik yillarida gnoseologiya oldiga qo‘yilayotgan eng muhim vazifalardan biri, ilmiy bilimlarning jamiyatimiz taraqqiyoti, tinchligi va farovonligi uchun xizmat qilishini ta‘minlaydigan omil va mexanizmlarni o‘rganish, ulug‘ ajdodlarimizning ilmiy bilimlarni rivojlantirish borasida orttirgan tajribalarini keng ommalashtirishdir.

Haqiqat – bilish nazariyasining bosh kategoriyasi. U borliqning bilishdagi ideal ifodasi, chunki haqiqat ongdan, bilayotgan sub‘ektdan tashqarida va undan qat’iy nazar mavjuddir. Haqiqat – bilimlarning ob‘ektiv borliqqa muvofiq bo‘lgan mazmuni. U bilish jarayoni, bilish in‘ikosining natijasidir. Haqiqat ilmiy nazariyada mujassamlashgan anglab etilgan tasdiqlovchi mulohazalar ko‘rinishida o‘z ifodasini topadi. Har qanday ilmiy nazariya rivojlantirilishi, ba‘zan boshqa, yanada haqiqiyroq nazariya bilan almashtirilishi lozim. Shu ma’noda haqiqat – bilish rivojlanishining yakuni va omilidir.

Ob‘ektiv haqiqat – *bilimlarimizning inson insoniyatga bog‘liq bo‘lmagan mazmuni*. Bizning bilimlarimizda doim yo muayyan odamga, yo muayyan ijtimoiy guruhga bog‘liq bo‘lgan unsur mavjud bo‘ladi. Binobarin, o‘z bilimlarimizda sub‘ektiv unsurlarga bog‘liq bo‘lmagan va shu sababli ob‘ektiv hisoblanadigan mazmunni qayd etishimiz lozim. Ob‘ektiv haqiqat rivojlanib, ikki shakl: nisbiy va mutlaq haqiqat shakllarida amal qiladi.

Mutlaq haqiqat – *predmetni kelajakda to‘ldirilishi yoki unga aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lmagan tarzda to‘la, mukammal bilishdir*. Olam vaqt va makonda cheksizligi tufayli bunday

bilimga amalda erishish mumkin emas. Haqiqat tushunchasini mutlaq haqiqat tushunchasi bilan tenglashtirib, biz unga erishib bo'lmazligi, demak, umuman bilish mumkin emasligi haqida gapiramiz. Biroq fanning haqiqiy tarixi buning teskarisidan dalolat beradi: fan rivojlanadi, chunki u nisbiy va mutlaq bilimning birligi sifatida tushuniladigan haqiqatni bilishga qodir. Boshqacha aytganda, ob'ektiv haqiqat to'la va mukammal ko'rinishdagi mutlaq haqiqatdir. Ayrim hollarda, agar haqiqat vaqt o'tishi bilan o'zgarib, ya'ni vaqt shart-sharoitlariga bog'liq bo'lmasa, u boqiy haqiqat deb ataladi.

Nisbiy haqiqat – *borliqni asosan to'g'ri aks ettirsa-da, obraz ob'ektga uncha mos emasligi bilan ajralib turadigan bilim.* Nisbiy haqiqat to'g'ri, biroq noto'liq, taxminiy, vaqt va joyning muayyan tarixiy shart-sharoitlari bilan cheklangan haqiqatdir.

Nisbiy va mutlaq haqiqat bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Nisbiy haqiqatlar bilish taraqqiyoti jarayonida rivojlanib, o'z chegarasi bo'lgan mutlaq haqiqatga yaqinlashadi.

Biroq bilishning tarixiy rivojlanish jarayoni nafaqat nisbiy haqiqatlarning mutlaq haqiqatga aylanish jarayoni, balki ayrim mutlaq haqiqatlarning Yuzaga kelish jarayoni hamdir. Bu fikrni fizikada atom va uning tuzilishi haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi misolida ko'rish mumkin. Yuz yil muqaddam fiziklar va kimiklar atomlar amalda mavjud va ajralmas sharchalar ko'rinishida, deb taxmin qilar edilar. Bu tasavvur zamirida mutlaq haqiqat unsurlari mavjud edi. Bundan: «Kimyoviy elementlarning atomlari amalda mavjud», degan xulosa kelib chiqadi. Fizika va kimyoning keyingi rivojlanishi mutlaq haqiqatning bu elementini bekor qilmadi. Biroq bu tasavvurlarda xatolar mavjudligi (taranglik, ajralmaslik va h.k.) aniqlandi.

XIX asr oxirida elektronlar kashf etilishi natijasida atom tuzilishining Yangi manzarasi yaratildi. Tomson musbat zarralar va manfiy zaryadli elektronlardan tashkil topgan atom modelini yaratdi. Atomning bu nisbatan haqiqiy manzarasida mutlaq haqiqatning Yangi unsurlari paydo bo'ldi: Darhaqiqat atom musbat zaryadli zarralardan iborat.

Atom haqidagi tasavvur rivojlanishining uchinchi bosqichi Rezerford-Bor modeli bilan bog'liq. Bu modelda atom yadro va uning atrofida aylanuvchi elektronlardan tashkil topadi. Umuman olganda, avvalgi modellardan aniqroq bo'lgan bu modelda mutlaq haqiqat unsurlari mavjud. Hozirgi zamonda atom tuzilishi haqidagi tasavvurlar zamirida kvant mexanikasi va atom yadrosini o'rganish natijalari yotadi. Hozirda elektronlarning atom yadrosi atrofidagi harakatini zichligi notekis bo'lgan bulut harakatiga o'xshatish mumkinligi, chunki elektronlar korpuskulyar va to'lqin xossalari ega ekanligi, yadro esa protonlar va neytronlardan iborat tizim hisoblanishi va hokazolar ma'lum. Hozirgi zamon fizikasida atom manzarasi N. Bor nazariyasidagiga qaraganda to'liqroq va aniqroq, unda mutlaq haqiqat unsurlari ko'proq. Biroq atomning hozirgi manzarasi kelajakda o'zgarishi, unga aniqlik kiritilishi, unda Yangi haqiqat va xatolar aniqlanishi Shubhasiz. Haqiqatda nisbiy va mutlaq jihatlar uzviy, o'zaro bog'langan: bir tomondan, nisbiy haqiqatda doim mutlaq haqiqat unsurlari mavjud bo'lsa, boshqa tomondan, inson bilimlarining rivojlanishi jarayonida nisbiy haqiqatlardan mutlaq haqiqat Yuzaga keladi.

Nisbiy va mutlaq haqiqat dialektikasi bizning bilimimiz atrofimizdagi olamni har tomonlama va aniq qamrab olishga intilib, qarama-qarshiliklarni echib, ob'ektiv borliqni yanada teranroq va mukammalroq aks ettirishini ko'rsatadi.

Haqiqatning korrespondent, kogerent va pragmatik konsepsiyalari mavjud. Ularning har biri fanda rivojlanish jarayonida katta qiyinchiliklarga duch keladi.

Haqiqatning korrespondent konsepsiyasi nazariyaning tajribada olingan ma'lumotlarga muvofiq bo'lishini talab qiladi. Bu talab fanda qabul qilinadi, u taklif qilinayotgan gipoteza fan sohasiga taalluqli yoki taalluqli emasligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kogerent (nazariy) konsepsiya eksperimentga muvofiq bo'lishi, unga zid kelmasligi, uning natijalarini bashorat qilish imkonini berishi lozim. Masalan, neopozitivistlar eksperimentni nazariya to'g'ri ekanligining mukammal tavsifi deb hisoblaganlar. Nazariya eksperimentda tekshiriladi, verifikatsiya qilinadi: u yo mazkur sinovdan muvaffaqiyat bilan o'tadi, yo o'tmaydi; u yo to'g'ri, yo noto'g'ri. K. Popper bu fikrda kamchilik topdi: hamonki nazariyalar ertami, kechmi inkor etilar, falsifikatsiya qilinlar ekan, ularning eksperimentga avvalgi muvofiqliklari amalda haqiqiy sinov hisoblanmaydi. Popperga e'tiroz bildirish mumkin: agar nazariya eksperimentda

olingan ayrim ma'lumotlar bilan ziddiyatga kirishgan bo'lsa, bu nazariyadan mazkur ma'lumotlarni sharhlash uchun foydalanish mumkin emas, biroq u boshqa eksperimental ma'lumotlar uchun o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Fanda Yangi nazariya eskisini doim ham istisno etavermaydi. Fizikada ba'zi bir fizik hodisalarni talqin qilish uchun Nyuton mexanikasidan hozirgacha foydalaniladi. Vaholanki, u eng Yangi fizik nazariyalar bilan rad etilgan. Nyuton mexanikasi nisbiylik nazariyasi va kvant fizikasining ayrim, nisbatan sodda ko'rinishi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Nazariyaning eksperimentga nomuvofiqligini oddiy vositalar yordamida, xususan eski nazariyani takomillashtirish yo'li bilan bartaraf etish mumkin. Bunday hollarda ish ilmiy inqilobgacha etib bormaydi. Lakatos fikriga ko'ra, nazariyaning eng muhim qoidalari muhimligi ikkinchi darajali qoidalardan tashkil topgan himoya qobig'i bilan o'ralgan bo'lib, u eksperimental ma'lumotlarning dastlabki «zarbalari»ni o'ziga qabul qiladi. Nazariyaning o'zagi uning himoya qatlamidan o'tilganidan keyingina buzilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, eksperimentda nazariyaning u yoki bu ayrim qoidasi emas, balki umuman nazariya sinovdan o'tadi yoki rad etiladi. Har qanday muayyan qoida umuman nazariya mahsulidir. Shu sababli eksperiment butun nazariyaga nisbatan tatbiq etiladi.

Haqiqatning pragmatik konsepsiyasida amaliyot mezoni ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri eksperiment tushunchasi bilan bog'lanadi. Biroq ilmiy amaliyot faqat eksperimentdan iborat emas, u fanda qo'llaniladigan butun maydonni, uning inson uchun hayotiy ahamiyatini qamrab oladi. Shuni hisobga olganda, insonning butun hayoti, uning fandan amalda foydalaniladigan barcha jabhalari fanning haqiqiylikini sinash maydoniga aylangan, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Fanning sertarmoq, murakkab xususiyati uni talqin qilishga jiddiy talablar qo'yadi. Fanning kuchi nimada? U qanday ideallarga ega? Fandan «Hodisalar qanday Yuz beradi?» yoki «Ular nima uchun aynan Shunday Yuz beradi?» degan savolga javob berishni talab qilishning o'zi kifoyami? Fan san'at, dinga, inson hayotining boshqa sohalariga zid emasmi? Fan insoniyatni pirovard natijada halokatga olib kelmaydimi?, degan savollar fanning haqiqatni bilish jarayonida shakllangandir.

Isbotlash va rad etish. Fanning u yoki bu qoidasining haqiqiyliги yoki soxtaligi, aniq-ravshan ko'rinib turmaydi. Faqat eng sodda mulohazalar o'zining haqiqiylikini tasdiqlash uchun sezgi idrokidangina foydalanishni talab qiladi: ko'rsatish mumkin bo'lgan narsani isbotlashning hojati yo'q.

Fanning aksariyat qoidalari sezgi a'zolari orqali bilish darajasida va boshqa haqiqatlardan alohida emas, balki mantiqiy tafakkur darajasida, boshqa haqiqatlarga bog'langan holda, ya'ni isbotlash yo'li bilan haqiqiy deb qabul qilinadi. Isbotlash – ilmiy tafakkurning muhim vositasi.

Har qanday isbotda tezis, isbotlash uchun asoslar (dalillar) va isbotlash usuli mavjud. *Haqiqiyliги yoki soxtaligi isbotlash yo'li bilan aniqlanayotgan qoida tezis deb ataladi. Tezisning soxtaligini aniqlash rad etish deb ataladi. Isbotlashda foydalanilayotgan va isbotlanayotgan tezisning haqiqiylikini ko'rsatayotgan barcha qoidalar asoslar yoki dalillar deb ataladi. Asoslar va dalillar ishonchli dalillar haqidagi qoidalar, ta'riflar, aksiomalar va ilgari isbotlangan qoidalardan tashkil topadi.*

Qoidaning haqiqiylikini isbotlash u yaxshi tekshirilgan dalillar haqidagi qoidalardan bevosita kelib chiqishini ko'rsatish demakdir. Biroq hayot Shu darajada murakkabki, amalda juda ko'p, hatto aqlga mutlaqo zid qoidalarni tasdiqlash uchun ham ayrim dalillar to'plash mumkin. Bunda ayni Shu qoidalarni rad etuvchi dalillar ham mavjudligi bir-biridan va atrof muhitdan ajratib olingan ayrim dalillar o'zicha hech narsani isbotlamasligidan dalolat beradi. Dalillar haqidagi fikrlar o'zaro bog'liq holda qaralgan taqdirdagina isbotlash uchun asos bo'lish mumkin. Isbotlash uchun asoslar jumlasiga mazkur fan asosiy tushunchalarining ta'riflari kiradi. Bu mazkur fanning barcha tushunchalari ta'riflanishi lozim degan ma'noni anglatmaydi. *Ta'riflash – noma'lumni ma'lumga, murakkabni soddaga bog'lash demak.*

Isbotlanayotgan tezis tayanadigan isbotlash uchun asoslar qatoriga fanning asosiy tushunchalari ta'riflari va aksiomalardan tashqari tezisni asoslash uchun zarur bo'lgan fanning ilgari isbotlangan qoidalari ham kiradi. Fan o'z qoidalarining dalil-isbotlarini qancha ko'p rivojlantirsa, har bir Yangi qoidani isbotlash uchun oldingi asoslar soni Shuncha ko'payadi.

V.F.Asmus fikriga ko'ra, *asoslar va ulardan chiqarilgan xulosalarning aloqasi, agar u isbotlanayotgan tezisning haqiqiyliги tan olinishiga olib kelgan bo'lsa, isbotlash usuli deb ataladi.* Fanning ayni bir qoidasini isbotlash har xil, masalan, deduksiya, induksiya, analogiyadan foydalanishga, modellashtirishga asoslangan bo'lishi mumkin.

Emotsiyalar. iroda, ishonch, ideal. Ilgari sezgilar hodisalarning muhim jihatlariga nisbatan neytral deb qaralar edi. Odatda bu neytrallik mavjud bo'lmaydi. Bu holda sezgilar sub'ektga Yuz berayotgan voqeaning shaxsiy ma'nosini tushunish imkonini beruvchi kechinmalar sifatida amal qiladi. *Hodisalar va holatlar ahamiyatini bevosita his etish emotsiyalar deb ataladi. Ijobiy emotsiyalar – lazzatlanish, quvonch, hayrat, muhabbat va sh.k. Salbiy emotsiyalar - qo'rquv, hayiqish, nafrat, qayg'u va sh.k.* Insonning emotsiyalar dunyosi juda murakkab bo'lib, uni psixologiya atroflicha o'rganadi. Falsafiy jihatdan emotsiyalarni ekzistensializm ko'proq o'rgangan bo'lib, bu erda ekzistensial deganda ko'pincha vaziyatli emotsiyalar (kuchli ruhiy hayajonlanish, ehtiros) emas, balki inson borligining barqaror strukturalari tuShuniladi. Inson emotsiyalariga uning butun hayot tajribasi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan bir so'z bilan ifodalangan qisqacha xabar inson o'limiga sabab bo'lgan hollar ma'lum.

Iroda inson ruhiyatining har xil shakllari orasida – sub'ektning o'z faoliyatini o'zi tartibga solishi muhim ahamiyatga ega. Kant va Fixte uchun iroda axloqiy tamoyillarni ro'yobga chiqarish manbai, inson amaliy faoliyatining negizi hisoblanadi. SHopengauer va Nitsshe uchun iroda – borliqning irratsional impulsi. Bu erda iroda ruhiyat doirasidan butunlay chiqariladi.

Ishonch insonning qadriyatlari va mo'ljallari dunyosida biron-bir narsa yoki hodisani haqiqiy deb qabul qilishida muhim ahamiyatga ega. Ishonchga Shubha zamin hoziraydi, u bir qancha ruhiy holatlar natijasida ishonchga aylanadi. Ilohiyotchilardan farqli o'laroq, faylasuflar Shubha va ishonchning o'zaro nisbatiga ko'proq e'tibor beradilar. Diniy e'tiqod odatda vahiyning bevosita mahsuli sifatida isbotlashga muhtoj emas deb qaraladi. SHveysariyalik taraqqiyparvar ilohiyotchi Karl Bart e'tiqodning isboti uning o'zida deb hisoblagan. Faylasuf Karl YAspers uchun falsafiy e'tiqod – falsafiy mushohada yuritish natijasidir.

Ideal – pirovard kelajakning muayyan obrazi emas, balki qayta ko'rilishi mumkin bo'lgan har xil nazariy va boshqa tasavvurlarning kelajakka qaratilgan majmui. Ideal doim ham pirovard maqsadning ustunligiga bog'lanmaydi. Muayyan pirovard maqsadning ustunligi, ayniqsa, agar u olis kelajakda bo'lsa, utopiyaga olib keladi. Ayrim utopistlar erkinlikning ustunligini tan oladi, boshqa utopistlar bu o'ringa adolatni qo'yadi, utopistlarning uchinchi toifasi faqat ijtimoiy mulkni tan oladi, to'rtinchi toifasi esa, aksincha, xususiy mulkni hamma narsadan ustun qo'yadi. Xullas, ideal yaratish, agar unga etarli darajada mas'uliyat bilan yondashilmasa, utopiyaga olib keladi. Ayni vaqtda, ideal yaratish – inson yutuqlarining muhim negizi. Agar insoniyat ideal yaratish bilan Shug'ullanmaganida, o'zining hozirgi taraqqiyotiga erisha olmagan bo'lar edi. Biroq ideal yaratish jarayoni oqilona kechishi uchun rivojlangan, zamonga hamohang falsafa bo'lishi lozim. To'g'ri falsafiy mo'ljallar utopizmdan saqlaydi. Asosan XX asrda shakllangan noklassik falsafa ideallar bilan juda ehtiyot bo'lib muomala qiladi.

Bilish natijalarini baholash. Erishilgan natijani baholash – bilishning zarur unsuridir. *Baholash yo'li bilan inson olingan bilimning haqiqiyliги yoki soxtaligi, undan amaliy faoliyatda foydalanish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlanadi.* U olingan bilim keyingi bilish jarayonida ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligini belgilaydi, uning insonga va shaxsning ma'naviy faoliyatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini aniqlaydi. Shu sababli baholash uchun asos sifatida nafaqat gnoseologik, balki amaliy, mafkuraviy va axloqiy mezonlar amal qiladi.

Olim o'z faoliyatida nafaqat o'zining metodlari va ilmiy faoliyati natijalarini baholaydi, balki ularga ilmiy jamoatchilik, hokimiyat, din namoyandalarining munosabatiga qarab mo'ljol oladi. Umuman olganda, har qanday bilish haqiqatni izlashdir. Bu inson aqlining azaliy vazifasidir. Bilimlarimizning haqiqiyliги muammosi bilish faoliyatining har qanday turlarida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bilimning haqiqiyliги uning muhim asosi hisoblanadi. Haqiqat – bilishning mutlaq qadriyati.

Bilishning ma'naviy qadriyatlari. Har qanday ilmiy tadqiqotda ma'naviy qadriyatlar va me'yorlar mavjuddir. Ilmiy metod negizini ob'ektivlik va oqilonalik kabi an'anaviy ma'naviy

qadriyatlar tashkil etishi lozim. Ob'ektivlik olim tadqiqot me'yorlarini tanlashga nisbatan vijdonan yondashishi, shaxsiy manfaatdorlikni siqib chiqarishi, haqiqatni guruh manfaatlaridan ustun qo'yishini nazarda tutadi.

Ayrim ilmiy konsepsiyalar eskirishiga qarab o'ziga xos «timsol» belgilarini kasb etadi. Eskirgan konsepsiyalardan voz kechish ko'pincha ularni yaratuvchilarning qarshiligini bartaraf etish bilan bog'liq. Olim ba'zan fanda inqilobga yo'l ochuvchi Yangi g'oyalarni afzal ko'rishga o'zida kuch topa olmay, eskicha yondashuvlar asiri bo'lib qolishi mumkin.

Bilim va haqiqat amalda ayniy tushunchalardir. Bilish – narsalarning haqiqiy holatiga mos keluvchi ishonchli axborotga ega bo'lish demak. Haqiqiy bilimga erishish mumkinmi? Qanday bilimni haqiqiy deb hisoblash mumkin? Bilim haqiqiylikining ob'ektiv va mutlaq mezonlari mavjudmi? Bu savollarga javoblar fan va falsafaning rivojlanishiga doimo yo'ldosh bo'lgan. Masalan, Aristotel haqiqatni borliq bilan tenglashtirgan. Uning fikricha, o'zgarmas narsalargina haqiqiydir, haqiqat borliqning oliy shaklidir.

Skeptitsizm vakillari, aksincha, bilimning predmetga muvofiqligi masalasi bahsli bo'lib, uni isbotlash mumkin emas, chunki bilishni chalg'ituvchi yoki unga monelik qiluvchi omillar mavjud, deb hisoblaganlar. Bilimning nomuvofiqligi sabablari bilish ob'ektining tarkibida bo'lishi mumkin. Dunyo Shu darajada cheksizki, inson o'z tafakkuri bilan uni qamrab olishga qodir emas. Haqiqiy bilimga erishishga biluvchi sub'ektning xossalari ham monelik qilishi mumkin. Inson sezgi a'zolarining aldanchiligi va ishonchsizligi antik davrdayoq qayd etilgan edi. Keyinchalik YUm, Berkli va uning izdoshlari insonning sezgilar dunyosini mutlaqo sub'ektiv deb ko'rsatdilar va Shu yo'l bilan insonning sezgi a'zolariga ishonchsizlik bildirdilar.

Bilishning taraqqiyoti jarayonida olimlar bilimlar haqiqiylikining ishonchli mezonlarini topish yo'lida ham izlanishlar olib bordilar. Haqiqatning mutlaq mezonlari mavjudmi? Bu mezonlarni bilimning barcha turlariga nisbatan tatbiq etish mumkinmi yoki u faqat ilmiy bilimga nisbatan amal qiladimi? Falsafada bilimning barcha turlariga nisbatan tatbiq etilishi mumkin bo'lgan mezonlar, Shuningdek faqat ilmiy bilim talablariga javob beradigan mezonlar yaratilgan. Ular orasida quyidagilar qayd etilgan: umumiy ahamiyatga moliklik mezoni (ko'pchilik qabul qiladigan narsa haqiqiydir); g'oyaning foydaliligi, amaliy samaradorligi va ishga yaroqliligi, uning u yoki bu maqsadga erishish uchun foydaliligi mezoni (pragmatizm). Odamlar ishonadigan narsalar, olimlar o'rtasidagi shartli keliShuvga mos keladigan narsalar va hodisalar (konvensionalizm), mavjud nazariyaga muvofiqlik mezoni talablariga javob beruvchi narsalar va hodisalar haqiqiy deb atalgan.

Verifikatsiya tamoyiliga binoan dunyo haqidagi har qanday fikrning haqiqiyliги pirovard natijada uni sezgi a'zolari orqali olingan ma'lumotlarga taqqoslash yo'li bilan aniqlanishi lozim. Shu nuqtai nazardan parapsixologiyaning «energiya», «biomaydon» kabi tushunchalari mantiqqa ega emas, chunki ular verifikatsiyalanmaydi. Bu tamoyilni e'lon qilgan pozitivistik falsafa go'yoki bilishda ahamiyatga ega bo'lmagan falsafiy tushunchalarni ilmiy muomaladan chiqarishga harakat qilgan. Biroq mazkur tamoyil izchil qo'llanilgan holda sezgi a'zolari orqali olingan ma'lumotlar bilan tasdiqlanmaydigan ko'pgina nazariy qoidalarni ham ilmiy muomaladan chiqarish kerak bo'ladi.

Falsifikatsiya tamoyiliga ko'ra amalda sinash va rad etish mumkin bo'lgan nazariyalar ilmiy hisoblanadi. Nazariy tizimlarning falsifikatsiyalanish mezonini Karl Popper taklif qildi. U verifikatsiya bilan falsifikatsiya o'rtasida nomutanosiblikning mavjudligini mezon sifatida qaragan: agar verifikatsiya qilish uchun oqibatlarning cheksiz soni tasdiqlanishi lozim bo'lsa, falsifikatsiya qilish uchun bitta qarshi misolning mavjudligi kifoya. Amalda falsifikatsiyalanish talabi inson bilimi natijalariga nisbatan tanqidiylik talabining muayyanlashtirilishidir. Krititsizm fan ruhini eng oqilona ko'rinishda ifodalaydi.

Yolg'on haqiqatning qarama-qarshisi. *Yolg'on odatda noto'g'riligi ayon bo'lgan tasavvurlarni bila turib haqiqat darajasiga ko'tarish sifatida tuShuniladi.*

Yolg'on kundalik va ijtimoiy hayotda keng tarqalgan bo'lib, odamlar o'zaro aloqa qiluvchi hamma joyda uchraydi; u individlar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarining «uchraShuvi» Yuz beradigan har qanday insoniy munosabatlar funksiyasidir. Gap yolg'on mavjud yoki mavjud

emasligida emas (oddiy hayot tajribasi uning mavjudligidan dalolat beradi), balki har bir muayyan holda uning ulushi qanchaligidadir.

Beruniy fikricha "Shunday kishilar bo'ladiki, ularning tabiatiga yolg'on xabar tarqatish o'rnatilib qolib, go'yo unga Shu vazifa yuklatilgandek bo'ladi va yolg'on xabar tarqatmasdan turolmaydi...Ba'zan kishi yolg'on xabar tarqatuvchiga taqlid qilib, bilmasdan yolg'on xabar tarqatadi. Bu xabarchilar birinchi marta ataylab yolg'on xabar tarqatgan kishi bilan eng keyin yolg'on xabarni eshituvchi oralig'ida vositachi bo'ladilar. Yolg'onchilik kishini adolatdan Yuz o'girtiradi, zulm, yolg'on guvohlik, omonatga xiyonat qilish, boshqalar mulklarini hiyla bilan bosib olish, o'g'irlik, dunyo va xalqning buzilishiga sabab bo'ladigan boshqa yomon xulqlarni kishilar yaxshi qilib ko'rsatadilar"⁷⁴. Beruniy insonni rostgo'ylik qolib, yolg'onchilik yo'lidan yurmasligi, boshqalarga yaxshilik qilish, yaxshilik qilish imkoniyati bo'lmasa, yaxshi tilaklar izhor qilishga chorlaydi. Rostgo'ylik, odillik Beruniy fikricha, yuksak ma'naviyat, go'zal odob – axloq belgisidir.

Insonning individual rivojlanish jarayonida yolg'on bolada jazodan qutulib qolishga harakat qilish, kattalar o'rni va Shu kabilar orqali shakllanadi. Keyinchalik bunga jamiyat kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Insonni bu tomonga itaruvchi omillar majmui orasida ehtiroslar, Shu jumladan muhabbat tobora kengroq o'rin egallay boshlaydi. Muhabbat «son-sanoqsiz yolg'onni vujudga keltiradi. Oshiq odam o'zining narxini oshirish uchun yolg'on so'zlaydi, o'z raqibining obro'sini tushirish uchun, rashk o'tini yoqish uchun... sovib borayotgan muhabbat otashini qayta o't oldirish uchun aldaydi, nihoyat, muhabbat yo'qolgan holda yolg'on gapiradi»⁷⁵. Yolg'on takabburlik, irodasizlik, muvaffaqiyatga intilish, pulga, hokimiyatga o'chlik va hokozolar zaminida Yuzaga keladi.

Yolg'on individlar uchun ijobiy ma'noda ham muhimdir (bu jihatdan o'layotgan odam to'shagi oldida yolg'on gapirish hollari diqqatga sazovor). Lekin yolg'on ko'pincha o'zgaralar hisobidan va ularning manfaatlariga zid ravishda qandaydir afzalliklarni qo'lga kiritish bilan bog'liq. Yolg'onni yashash uslubiga aylantirgan odamlar ham bor.

Shunga qaramay, halol, vijdonli odamlar ko'proq. Ularni yolg'onchilardan qanday farqlash mumkin? CHinakam samimiyat ikki asosiy belgi: «achchiq haqiqat bilan birovga ozor etkazishga va o'z xatolarini ochiq-oydin tan olishga qodirlik» bilan ajralib turadi. «Xayrixoh bo'lgan holda, yolg'on gapirmay sizga ozor etkazishi mumkin bo'lgan odamni, siz xohlagan va kutgan javobni berish o'rniga, sizni xafa qilishdan cho'chimay, haqiqatni Yuzingizga aytgan odamni samimiy deb hisoblash mumkin. Lekin samimiy odamni uning o'z xatolarini tan olish jasoratiga ko'ra farqlash mumkin, ya'ni rostgo'y odam o'zining nomaqbul qilmishiga hech qanday vaj-korsonlarsiz iqrar bo'ladi, deb aytish mumkin. Yolg'onga bunday iqrar bo'lishni afzal ko'rish – rostgo'ylikning shak-Shubhasiz mezonidir»⁷⁶.

Yanglishish – o'z predmeti bilan mushtarak bo'lmagan, unga mos kelmaydigan bilim. Haqiqat yoyilishi va teranlaShuvining barcha bosqichlarida uning doimiy va zaruriy hamrohi yanglishishdir. Haqiqat nima va uni yanglishishlardan (Bekon ta'biri bilan aytganda, «tafakkur butlari»dan) qanday qilib xalos etish mumkin, degan savollar odamlarni (faqat fan sohasidagina emas) doim qiziqtirib kelgan. Haqiqat va yanglishish kategoriyalari bilish nazariyasidagi yagona bilish jarayonining ikki qarama-qarshi, lekin bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki tomonini ifodalovchi asosiy kategoriyalardir. Bu tomonlarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularni quyida ko'rib chiqamiz.

Bilimning noto'g'ri shakli bo'lgan yanglishishning bosh manbai ijtimoiy-tarixiy amaliyot va bilishning cheklanganligi, norasoligi yoki zaifligidir. Yanglishish o'z mohiyatiga ko'ra borliqning ayrim jihatlarini bilish natijalarining mutlaqlashtirilishi natijasi sifatida Yuzaga keluvchi borliqning noto'g'ri in'ikosidir. Masalan, «nazariy astrologiya», garchi unda haqiqatning ayrim unsurlari mavjud bo'lsa-da, umuman olganda yanglishish hisoblanadi. Xuddi Shuningdek ilmiy astronomiyada ham yanglishishlar mavjud, lekin umuman olganda bu kuzatishlar jarayonida o'z tasdig'ini topgan haqiqiy bilim tizimidir.

⁷⁴ Беруний А. Хиндистон. -Т.: Фан, 1966 –Б. 25.

⁷⁵ Милитан В. Психология лжи. -М.: АСТ,1993. –С.39

⁷⁶ Там же, –С.39.

Yanglishishlar haqiqatning tagiga etishni qiyinlashtiradi, biroq ular muqarrardir, bilishning haqiqat sari harakatining zaruriy unsuri, mazkur jarayonning mumkin bo'lgan shakllaridan biridir. Masalan, moddalar haqidagi fan – kimyoning shakllanishi «ulkan yanglishish» - alximiya shaklida Yuz bergan.

YAnglishishlar o'z shakllariga ko'ra rang-barangdir. Ilmiy va noilmiy, empirik va nazariy, diniy va falsafiy yanglishishlarni farqlash lozim. Xususan, falsafiy yanglishishlar orasida empirizm, ratsionalizm, sofistika, eklektika, dogmatizm va relyativizm mavjud.

YAnglishishni yolg'ondan – haqiqatni g'arazli maqsadlarda ataylab buzib ko'rsatish va bu bilan bog'liq bo'lgan soxta bilim berish, dezinformatsiyadan farqlash lozim. YAnglishish bilim xususiyati bo'lsa, xato – individning inson faoliyati muayyan jabhasidagi noto'g'ri harakatlari natijasidir: hisoblashdagi, siyosatdagi, turmushdagi xatolar va h.k. Mantiqiy xatolar – (formal yoki dialektik) mantiq tamoyillari va qoidalarini buzish va predmetni, ishlarning asl holatini bilmaslik bilan belgilanuvchi haqiqiy xatolar farqlanadi.

4. Metod, metodologiya tushunchalari. Falsafa metodlari

Metod" va "metodologiya" tushunchalari. Metod (yunon. *metods* — usul) keng ma'noda yo'l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma'nolarni anglatadi. Metodologiya tushunchasi ikki asosiy mazmunga ega — faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san'atda va h.k.); tizim haqidagi ta'limot yoki metod nazariyasi.

Hozirgi davrda metodologiya faqat ilmiy bilish sohasi bilan cheklanishi mumkin emasligi ayon bo'ldi va y albatta, bilish chegarasidan chiqishi va o'z sohasida amaliyotda ham qo'llanishi zarur. Bunda bilish va amaliyotning uzviy aloqadorligiga e'tibor qaratmoq kerak.

Metodologiya faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta'minlovchi boshqa vositalarni ham o'rganadi. Tamoyil, qoida va ko'rsatmalar, Shuningdek, kategoriya hamda tushunchalar mana Shunday vositalar jumlasiga kiradi. Nomuvoziy, beqaror dunyo sharoitlarida voqelikni metodologik o'zlashtirishning o'ziga xos vositalarini ajratish fan rivojlanishining «postnoklassik», deb nomlangan hozirgi bosqichida ancha dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo'llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmlari va shakllarini o'rganadi. Shuningdek, metodologiya metodlar yig'indisi va faoliyat turi haqidagi ta'limotdir.

Metod u yoki bu shaklda ma'lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig'indisi hamdir. U tamoyillar, talablar tizimi bo'lib, sub'ektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning Shu sohasida ma'lum natijalarga erishish sari yo'naltiradi. U haqiqatni izlashda vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo'l bilan etishishga yordam beradi.

Metodning asosiy vazifasi faoliyatning bilish va boshqa shakllarini boshqaruvdan iborat. Biroq:

-birinchidan, metod va metodologik muammolarning rolini inkor qilish yoki to'g'ri baholamaslik ("metodologik negavizm");

-ikkinchidan, metodning ahamiyatini bo'rttirish, mutlaqlashtirish, uni barcha masalalarning kaliti, ilmiy Yangiliklarni yaratishning eng qulay vositasi (metodologik eyforiya), deb tushunish noto'g'ridir.

Har qanday metod muayyan nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Har bir metodning samaradorligi uning chuqur mazmun va mohiyatga egaligi, nazariyaning fundamentalligi bilan asoslanadi. O'z navbatida, metod mazmuni kengayib boradi, ya'ni bilimning chuqurlashishi va kengayishi, tajribaga tatbiq etilishi bilan metodning ko'lami ham o'zgaradi.

Ilmiy bilishda nafaqat ilmiy natija (bilimlar majmui) va predmetning mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo'l, ya'ni metod ham haqiqiy bo'lmog'i lozim. Shunga ko'ra, predmet va metodni bir-biridan ayri holda tushunish mumkin emas. Har qanday metod u yoki bu darajada real hayotiy jarayonlarda shakllanadi va yana unga qaytadi. Metod har qanday tadqiqot boshlanishida to'la holda namoyon bo'lmasa-da, ma'lum darajada predmetning sifat o'zgarishi bilan har safar Yangidan shakllanadi.

Metod bilish predmeti va harakatni sun'iy ravishda bog'lamaydi, balki ularning xususiyatlari o'zgarishi bilan o'zgarib boradi. Ilmiy tadqiqot predmetga daxldor dalil va boshqa belgilarni jiddiy bilishni talab qiladi. U ma'lum materialning harakati, uning xususiyatlari, rivojlanish shakllari va h.k.larda namoyon bo'ladi. Demak, metodning haqiqiyligi, eng avvalo, tadqiqot (ob'ekt) predmetining mazmuni bilan bog'liq.

Metod sub'ekt bilan chambarchas bog'liqdir. Boshqacha qilib aytgan-da, "inson umum metodologiyaning markazidir" (Feyerbax). Ikkinchidan, har qanday metod y yoki bu darajada boshqaruv quroli vazifasini bajaradi.

Metod sub'ekt va ob'ektning murakkab dialektikasi acosida rivojlanadi va bunda oxirgisi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu ma'noda, har qanday metod, eng avvalo, ob'ektiv, mazmunli va konkret bo'lsada, ayni paytda, sub'ektiv hamdir. Biroq u faqat mavjud qoidalar tizimi emas, balki ob'ektiv ilmiylikning davomi sifatida namoyon bo'ladi.

Metod metodikada konkretlashadi. Metodika daliliy materiallarni yig'ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir. U metodologik tamoyillardan farq qilsada, ularga asoslanadi.

Metodlar xilma-xilligiga qarab, turli mezonlar asosida klassifikatsiya qilinadi. Eng avvalo, ma'naviy, g'oyaviy (Shuningdek, ilmiy) moddiy va amaliy faoliyat metodlarini ajratmoq lozim.

Fan tarixida metodlar Yangi nazariyalarni yaratish jarayonida shakllanadi. Yangilik yaratish san'ati Yangiliklar jarayonida kamol topadi. Dastlabki tadqiqot tajribada shakllanar ekan, metod tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi, amaliyot bilan nazariyani bog'lovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Metod va nazariyaning uzviy aloqasi ilmiy qonunlarning metodologik rolida o'z aksini topadi. Har qanday fanga oid qonun insonni voqeliqdagi narsa va hodisalarni Shu fanga mansub sohaga mos fikrlashga undaydi. Masalan, energiyaning saqlanish qonuni bir vaqtning o'zida metodologik tamoyil bo'lib, y oliy nerv faoliyatining reflektorlik nazariyasi, hayvonlar va inson axloqini tadqiq qilishning metodlaridan biri hamdir.

Ilmiy tadqiqot jarayoni tarixan ishlab chiqilgan metodlar asosida amalga oshiriladi. Hech kim hech qachon haqiqatni yo'qdan bor qila olgan emas. Albatta, olim izlanishlar, xatolar qurshovida harakat qiladi. Ba'zi hollarda bir narsani izlash jarayonida butunlay boshqa narsa yaratiladi.

Metod o'z-o'zidan tadqiqotning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlay olmaydi, chunki nafaqat yaxshi metod, balki uni qo'llash mahorati ham muhimdir. Ilmiy bilish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Umumiy darajasiga ko'ra, ular keng yoki tor ko'lamda qo'llaniladi. Har qanday fan o'z predmetini o'rganishda y yoki bu ob'ektning mohiyatidan kelib chiquvchi turli xususiy metodlardan foydalanadi. Masalan, ijtimoiy jarayonlarni o'rganish metodi olamning ijtimoiy shakli, uning qonuniyatlari, mohiyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Metodlar umumiylik darajasi va amal qilish doirasiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi. Ular: fan metodlari xususiy ilmiy metodlar umumilmiy tadqiqot metodlari Fanlararo tadqiqot metodlari, falsafa metodlari, Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari kabilardir. Quyida ularning mazmunini tahlil qilamiz.

Fan metodlari – ma'lum fan tarmog'iga kiruvchi yoki fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan muayyan fan sohasida qo'llaniladigan usullar tizimi. Har bir fundamental fan, mohiyat-e'tibori bilan, o'z predmetiga va o'ziga xos tadqiqot usullariga ega bo'lgan sohalar majmuidir. Fanda, ko'p hollarda tanlangan metod tadqiqotning taqdirini hal qiladi. Aynan bir daliliy materialni turli metodlar asosida o'rganish ziddiyatli xulosalarga olib kelishi mumkin. Ilmiy bilishdagi to'g'ri metodni xarakterlar ekan, F.Bekon uni yo'lovchining yo'lini yorituvchi chiroq bilan qiyoslaydi. Noto'g'ri yo'ldan bora turib, y yoki bu masalani hal qilishda muvaffaqiyatga erishishga umid qilish mumkin emas. Zepo nafaqat natija, balki unga eltuvchi yo'l ham to'g'ri bo'lmog'i lozim.

Fan metodlarining guruhlarga bo'linishi bir nechta asoslarga ega. Bilish jarayonida uning roli va o'rni nuqtai nazaridan: formal, empirik, nazariy tadqiqot, izohlash, Shuningdek, boshqa metodlarga ajratish mumkin. O'z navbatida, bilishning sifat va son, bilvosita va bevosita original hamda faoliyatli metodlari ham mavjud. Metodlarni tanlash va turli metodik tadqiqot faoliyatida qo'llash o'rganilayotgan hodisa tabiati va qo'yilgan vazifalar bilan xarakterlanadi.

Xususiy ilmiy metodlar – materiya harakatining asosiy shakliga mos bo'lgan muayyan fanda qo'llaniladigan bilish usullari, tamoyillari, tadqiqot usullari va tartib-taomillari majmui. Mexanika,

fizika, kimyo, biologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodlari Shular jumlasidandir. Xususiy fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari moddiy ifodasini topgan bilish vositalari: mikrofizikada zarralarni tezlatgichlar, tibbiyotda a'zolar faoliyatini qayd etuvchi turli o'lchagichlar va Shu kabilar hozirgi zamon metodologik tadqiqotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Umumilmiy tadqiqot metodlari falsafa bilan maxsus fanlarning fundamental nazariy-metodologik qoidalari o'rtasida o'ziga xos «oralik metodologiya» bo'lib xizmat qiladi. Umumilmiy tushunchalar qatoriga ko'pincha «axborot», «model», «tuzilma», «funksiya», «tizim», «element», «oqilonalik», «ehtimollik» singari tushunchalar kiritiladi.

Birinchiidan, bir qancha xususiy fanlar hamda falsafiy kategoriyalarning alohida xossa, belgi va tushunchalari umumilmiy tushunchalarning mazmuniga «singdirib» yuborilganligi, ikkinchiidan, (falsafiy kategoriyalardan farqli o'laroq) matematik nazariya va simvolik mantiq vositalari bilan ularni formallashtirish, ularga aniqlik kiritish mumkinligi umumilmiy tushunchalarning o'ziga xos jihatlari.

Agar falsafiy kategoriyalar umumiylikning mumkin bo'lgan eng yuqori darajasi – muayyan umumiy darajani o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, umumilmiy tushunchalarga ko'proq umumiy mavxum (bir xil) daraja xoski, bu ularni mavxum-formal vositalar yordamida ifoda etish imkonini beradi. Falsafaning asosiy masalasini (to'la hajmda) echishda «ishtirok etish» sharti muayyan «tafakkur shaklini yaratish»ning «falsafiyligi», «dialektikligi» darajasini aniqlashning muhim mezonidir.

Umumilmiy tushuncha va konsepsiyalar asosida bilishning tegishli metodlari, tamoyillari ta'riflanadi, ular esa, o'z navbatida, falsafaning maxsus ilmiy bilim va uning metodlari bilan oqilona o'zaro aloqasini ta'minlaydi. Umumilmiy metodlar qatoriga tizimli va strukturaviy-funksional, kibernetik, ehtimoliy yondashuvlar, modellashtirish, formalizatsiya hamda boshqalar kiradi.

Umumilmiy tushunchalarning muhim roli Shundan iboratki, ular o'zining «oralik xususiyati» bilan falsafiy va alohida ilmiy bilimning (Shuningdek tegishli metodlarning) o'zaro o'tishini ta'minlaydi. Gap Shundaki, birinchi bilim ikkinchi bilimga sof Yuzaki tarzda, bevosita o'tmaydi. Shuning uchun ham maxsus ilmiy mazmuni darhol falsafiy tushunchalar tilida ifodalashga urinishlar, qoida tariqasida, nokonstruktiv va samarasiz bo'ladi.

Fanlararo tadqiqot metodlari—asosan fan sohalari tutashgan joyda amal qiladigan (metodologiyaning turli darajasi elementlarini birlashtirish natijasida Yuzaga kelgan) bir qancha sintetik va integrativ usullar majmui. Mazkur metodlar kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi.

Falsafa metodlari. Falsafa metodlarining asoslari bevosita amaliy faoliyat bilan bog'liq. Turli konkret vazifalarni hal qilishning zaruriy shartlaridan biri universal xususiyatga ega bo'lgan umumiy falsafiy metodlarga murojaat qilishdir. Bu metodlar haqiqatni anglashda umumiy yo'lni ko'rsatadi. Mazkur metodlarga falsafaning qonun va kategoriyalari, kuzatish va tajriba, taqqoslash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya va h.k.lar taalluqli. Agar maxsus metodlar ob'ektning qonuniyatlarini o'rganishning xususiy usullari sifatida namoyon bo'lsa, falsafiy metodlar Shu ob'ektlarda namoyon bo'ladigan, alohida xususiyatlardagi harakat, taraqqiyotning eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aynan Shu o'rinda tajriba hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir metod ob'ektning alohida tomonini bilishga imkoniyat yaratadi. Falsafaning eng qadimgi keng tarqalgan metodlardan biri dialektika bo'lsa, ikkinchisi metafizikadir. Biroq falsafa metodlari bular bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda uning sofistika, eklektika, analitik, (hozirgi zamon analitik falsafasi), intuitiv, fenomenologik, sinergetik, germevistik (tushunish) va boshqa turlari ham mavjud. Endilikda turli metodlarni birlashtirish jarayoni ham ro'y bermoqda (masalan, Gadamer germevistikani ratsional dialektika bilan birlashtirishga harakat qiladi).

Dialektika (yunon. dialektika — bahs, suhbat) tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti qonuniyatlari hamda ularning asosida shakllanadigan umumiy tafakkur uslubi va amaliy faoliyat haqidagi ta'limotdir. U grek tilida bahs va suhbatlashish san'ati, degan ma'noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo'li va usuli sifatida talqin etganlar. Hozirgi davrga kelib dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, o'zaro aloqadorlik va bog'liklikda, taraqqiyot va rivojlanishda, deb tushunishga asoslanadi. Unga ko'ra, olamda o'z o'rniga va joyiga,

yashash vaqti va harakat yunalishiga ega bo'lgan barcha narsalar va voqealar bir-birlari bilan bog'liq va aloqador tarzda, bir-birlarini taqozo etadigan, doimiy va takrorlanib turadigan bog'lanishlar orqali namoyon buladi.

"Metafizika" (yunon.— fizikadan keyin) - dialektika kabi universal metoddir. Bu so'z ilmiy muomalaga er. av. I asrda Aristotelning shogirdi, uning she'rlari sharhovchisi Rodoskiy tomonidan kiritildi. Mutafakkir asarlarini bir tizimga solar ekan, u borliq va bilish haqidagi umumiy masalalarni fizikadan so'ng "birinchi falsafa"ning (mohiyat, sabab va boshqa) ikkinchi falsafadan farqli xususiy-ilmiy bilimlarni o'rganadigan qismi sifatida talqin qilgan.

Ko'p hollarda, dialektikaga qarama-qarshi deb talqin etiladigan metafizika olamdagi narsa va hodisalarni o'rganishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o'zgarmasdan, alohida turgan holatiga diqqatni ko'proq qaratadigan usuldir. Bu usul qo'llanganida olamning namoyon bo'lish shakllari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning alohida qismi yoki holatiga asosiy e'tibor beriladi. Voqea, hodisa va jarayonlarni doimiy o'zgarish holatida o'rganish nihoyatda kiyin bo'lganligidan, nafaqat faylasuflar, balki barcha fan mutaxassislari uning nisbatan tinch va o'zgaray turgan holatini o'rganadilar, tadqiq etadilar.

Aslini olganda, olam garchand dialektik o'zgarish va harakatda bo'lsada, bu jarayon doim ham nihoyatda tez sodir bo'lavermaydi. Biz esa dunyodagi narsa, hodisa va odamlarga Shunchalik metafizik tarzda o'rganib qolganmizki, go'yo kechadan bugunning farqi yo'qdek, kecha ko'rgan kishiga bugun duch kelganimizda unda hech qanday o'zgarishlar bo'lmaganday tuyuladi. Shu ma'noda, hayotda ko'p hollarda metafizik usulda fikr yuritimiz, nimalargadir ana Shunday munosabatda bo'lamiz. Aclida esa, ular ham azaliy o'zgarishlar jarayoniga tushgan narsa va kishilar ekanligini juda kamdan-kam hollarda o'ylab ko'ramiz. Xuddi Shunday, bizning umrimiz ham kechadan ertaga qarab oqib turadigan dialektik jarayondir. Biz ham ana Shunday o'zgarib boramiz, ammo ko'p hollarda bunga unchalik ko'p e'tibor berilavermaydi. Shu tariqa maktabni tugatib qo'yganimizni, ulg'ayganimizni, bolalikning ortda qolganini go'yoki bilmay qolamiz...

Alohida ta'kidlash lozimki, metafizik usulning hayotda, ilmiy izlanishlar va falsafiy tadqiqotlarda ham o'z o'rni bor. Bizda haligacha metafizikaning tushunchalari, kategoriyalari, tamoyillari va ilmiy mohiyati izohlangan yoxud tadqiq etilgan asarlar, tadqiqotlar yo'k. Qolaversa, uni dialektika bilan butunlay qarshi qilib qo'yish va bu farqni mutlaq ziddiyat darajasiga ko'tarish ham maqsadga muvofiq emas. Aynan ana Shunday yondashuv sobiq ittifoqda dialektikani mutlaqlashtirishga, metafizikani esa quruq va o'lik ta'limot sifatida qarashga, uning imkoniyatlaridan foydalanilmasligiga sabab bo'ldi.

Hozirgi davr fanida metafizika uch asosiy ma'noga ega:

1. Falsafa umumiy hodisalar haqidagi fandır. Bu ta'limotning asoschisi Aristotel bo'lib, u "narsaning birinchi turi" haqidagi ta'limotdir. Bu ma'noda, "metafizika" tushunchasini XX acpning yirik nemis faylasufi M. Xaydegger ham o'rganadi. Uningcha, bu kategoriya bilishning ob'ekti va sub'ektini bir vaqtda ifodalovchi tushunchadir.

2. Maxcyc falsafiy fan ontologiya, umuman, borliq haqidagi ta'limot bo'lib, nazariya bilish mantig'i va uning xususiy ko'rinishlaridan mustasnodir. Shu ma'noda, bu tushuncha G'arb falsafasida o'tmishda ham (Dekart, Leybnits, Spinoza va h.k.), hozirda ham keng qo'llaniladi.

3. U bilish (tafakkur) va harakatni falsafiy tushunish ma'nosida dialektikaga qarama-qarshi qo'yiladi. Bunda Shu ma'nodagi tushuncha, ya'ni antidialektika haqida so'z boradi. Uning eng asosiy xususiyatlaridan biri bir tomonlamalik bilish jarayonining faqat bir qismini mutlaqlashtirishdir.

Falsafa tarixida metafizika (dialektika kabi) hech qachon o'zgarmasdan qolmagan. U turli tarixiy shakllarda namoyon bo'lgan.

Eski metafizika XVII—XIX acp falsafasi va fanida ayniqsa kamol topdi (metafizik materializm, naturfalsafa, falsafa tarixi va h.k.) Metafizikaning bu shakliga xoc xususiyat umumiy o'zaro aloqadorlik va taraqqiyotni inkor qilish, olamga bir butun tizimli yondashuvning yo'qligi, tafakkurning ikkilanuvchanligi, umumiy dunyoviy aloqadorlikning tugaganligiga ishonishdir.

Eski metafizik tafakkur uslubi shakllanishining ob'ektiv asoslari butunning alohida elementlari xususiylikni, alohida tomonlar (fikran) nima uchun bir butunlikdan ayri holda bo'lishi va bir-biri

bilan bog‘liq bo‘lmagan holda rivojlanishini tushuntirish zaruriyatidir. Bu usul kundalik turmushda, aql darajasida, predmet taraqqiyotidagi munosabatlarda zarur va to‘g‘ridir. Shuning uchun metafizikaning bu shakli predmetlardagi barqarorlikni, ulardagi o‘zgarishlarni tizimli o‘rganish, taraqqiyotning manbalari va mexanizmlarini aniqlash bilan bog‘liq.

XIX—XX asrlarda eski metafizikadagi keskin kurashda taraqqiyot g‘oyasining Yangi dalillar bilan mustahkamlanishi ikki muhim natijaga olib keldi: dialektik tafakkurning Yangi uslublari paydo bo‘ldi; XX asrda eski metafizikaning ilmiy dalillarini inkor qiluvchi Yangi metafizika shakllandi.

Yangi metafizika eski metafizikadan farqli o‘laroq, narsalarning umumiy aloqadorligini va ular taraqqiyotini inkor qilmaydi. Bu fandagi va jamiyatdagi buyuk kashfiyotlar davrida absurdidir. Antidialektika Yangi shaklining asosiy xususiyati — taraqqiyotni izohlashning turli variantlari va yo‘llarini izlashdan iborat.

Buni quyidagi yo‘nalishlarda tushunish mumkin:

a) eng umumiy, abadiy o‘shish, o‘zgarish yoki aksincha kichrayish (tekis evolyusionizm) tarzida;

b) xuddi sifat o‘zgarishlari kabi sakrashlar zanjiri (katastrofizim) shaklida;

v) takrorlash sifatida qat‘iy liniyalik yo‘nalishga ega bo‘lgan doimiy jarayon (to‘g‘ri chiziqli rivojlanish) holatida;

g) hech qanday Yangiliklarsiz aylana doirasidagi abadiy harakat ko‘rinishida;

d) mohiyatidan ziddiyat kelib chiquvchi harakat sifatida;

e) progress sifatida, ya‘ni oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga intilish tarzida. Taraqqiyotning o‘zaro aloqadorlik va ta‘sirning boshqa aralash izohlari ham bo‘lishi mumkin.

Metafizikaning turlari har xil asoslar, mezonlar bilan farqlanishi mumkin. Bilishning metafizik metodi — byurokratizm, konservatizm, volyuntarizm va h.k. amaliy faoliyatning boshqa bir tomonlama harakatlari tarzida namoyon bo‘lishi ham mumkin.

Bilimning metafizik usullari turlicha bo‘lib, idealizm, sensualizm, ratsionalizm, empirizm, dogmatizm, relyativizm va boshqa shakllarda namoyon bo‘lib, bilimning alohida shakllari natijalarini mutlaqlashtirish jarayonida paydo bo‘ladi.

Sofistika. Sofistika falsafiy metodlar jumlasidan bo‘lib, qadimgi Yunonistonda mil. av. V va IV asrning birinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy hayotda xususiy bir yo‘nalish sifatida paydo bo‘lgan. Sofistika namoyandalari Protakor, Gorgiy, Gippiy, Antifont va boshqalardir. Sofistikaning paydo bo‘lishi antik Yunonistonda iqtisodiy taraqqiyotga bo‘lgan ehtiyoj bilan bog‘liq. Bu oila urug‘ an‘analaridagi turg‘unlikni bartaraf qilish, Yangi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga ehtiyoj davri edi. Sofistikaning inqirozi eramizdan avval IV asr o‘rtalarida boshlandi. Eramizning II asrida klassik yunon sofistlarining g‘oya va uslublari qayta ishlashga intiluvchi Yangi oqim paydo bo‘ldi.

Sofistika mavjud nazariya va ma‘lumotlarni saqlashga intiladi. U Yangi fikr eski fikrning bir qismi ekanligini asoslashga yoki mantiq qonunini tuzib, mavjud bilimlar tizimini barcha ziddiyatlardan tozalashga harakat qiladi. Bu metoddan semantik va mantiqiy qonunlarda istalgan narsani isbotlash uchun foydalaniladi. Ko‘pgina darslik va qo‘llanmalarda bu ibora yunon tilidagi "sopism" so‘zi asosida, ya‘ni ataylab xilma-xil ma‘noga ega bo‘lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, ko‘chma ma‘no-mazmunga erishish usuli, deb ta‘kidlanadi. Bu usul qo‘llanilganda fikrning mazmuni ko‘chma ma‘noda bayon qilinadi, ya‘ni "Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit ", deganga o‘xshash holat nazarda tutiladi. U, nafaqat, kadimgi Yunoniston, balki o‘pta asrlarda Evropada ham keng tarqalgan. Agar bu usul yolg‘on xulosalarga olib kelsa, nega o‘z davrining ko‘pgina dono kishilari undan foydalanganlar, degan savol tug‘ilishi mumkin. Ma‘lumki, insoniyat tarixida hurfikrlilik va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabatni to‘g‘ri ifodalashning iloji qolmagan zamonlar ko‘p bo‘lgan. Bunday holni inkvizitsiya hukmron bo‘lgan o‘pta asrlar Evropasiga ham tatbiq etish mumkin. O‘sha davrda ham ko‘pgina ziyolilarning ana Shu usulga suyanmasdan iloji yuq edi. Umuman olganda, falsafada "do‘ppi tor kelib qolgan" ana Shunday zamonlarda fikrni Gulxaniyning mashhur "Zarbulmasal" acapi kabi ifodalash hollari uchrab turadi. Buni o‘rta asrlar Evropasiga nisbatan olsak, unda Servantesning "Don Kixot" acapi nima sababdan Shunday yozilganligi, uning bosh qahramoni esa nima uchun

shamol tegirmonlariga qarshi jang qilganligi va bu lavhalar zamirida qanday botiniy mazmun yashiringani aniq bo'ladi.

Sofistika — qarama-qarshi fikrlar asosida ixtiyoriy tanlangan foydali mulohaza bo'lib, uning yordamida har qanday narsa yoki fikrni isbotlay olish mumkin. Masalan, Aristotelning yozishicha, bir afinalik ayol o'g'liga, jamoa ishlariga aralashma, chunki agar to'g'ri gapirsang, seni odamlar; yolg'on so'zlasang — Xudolar yomon ko'radi, degan ekan. Sofizmga ko'ra afinalik ayolga Shunday rad javobi berish mumkin: sen jamoa ishlarida ishtirok qilishing kerak, chunki to'g'ri so'zli bo'lasan va buning uchun seni Xudolar ham, odamlar ham yaxshi ko'radi.

Sofistika mavjud bilimlar tizimidan ziddiyatlarni siqib chiqaradi, bu bilan eski va Yangi bilimlarni murosaga keltiradi. Sofistika inson bilimi doirasida cheksiz relyativizmni ulug'laydi. Predmet haqida har narsa deyish mumkin. Qanday maqsad ko'zlanmasin, so'zlar ifodasida hech qanday chegara yo'q (masalan, asal — shirin; asal — achchiq; qo'rg'on — aylanasimon, qo'rg'on — to'rtburchak va h.k.) Shunga ko'ra sofist — mohir usta, so'zamol donishmand ma'nolarini anglatadi.

Sofistikaga faqat salbiy munosabatda bo'lish noo'rindir. U odatda Yangi g'oya, nazariya va turmush sharoitining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Sofistika bilish tizimidagi mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash, eski bilim tizimini qayta qurishda zaruriy element sifatida namoyon bo'ladi. Sofizm muayyan, yaxlit xususiyatga ega, chunki hodisaga ta'sirchan bo'lib, eski narsa xavf ostiga olinadi. Shuning uchun har qanday sofizm o'ziga xosdir.

Sofistika qadimgi Evropa tafakkur uslubining asosi bo'lib xizmat qildi. Ammo sofistika tanqid qilish orqali antik davr falsafasi dunyoning Yangicha konsepsiyasiga erishdi. Bu konsepsiya fikr va borliq ayniyligiga asoslanadi. U Aristotel falsafasida o'zining nihoyasiga etdi va nasroniylikda mustahkamlandi. Shu ma'noda, sofistika insoniyat tafakkurining umumiy taraqqiyotida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega.

Eklektika. Eklektika hech qanday bilim faoliyati bilan bog'lanmagan, bir-biriga zid dalillarga asoslanadi va olamni buzib yolg'on aks ettiradi. U bilim tizimi rivojidadagi yo'nalish, u hech qanday yagona nazariy asosga ega emas va ba'zida ob'ektni o'rganishning ziddiyatli jihatlarini xarakterlovchi bilim elementlaridir.

Metodologik usul sifatida eklektika birinchi marta qadimgi yunon falsafasida paydo bo'ldi va iqtiboslarga asoslangan o'rta asr sxolastik bahslarida, Yangi davr XV-VIII asrlar falsafiy bahslarida keng foydalanildi. U hozirgi davrda ham reklama va tashviqotda, ommaviy kommunikatsiya tizimida qo'llanilib, inson psixikasidagi an'analar, ko'nikmalar, intilishlarni bo'rttiradi. Bunday usulning bema'niligini Suqrot va Aristoteldan boshlab, hozirgi davr mutafakkirlarigacha tanqid qiladilar. Ammo bu undan foydalanilmaslikni anglatmaydi. Eklektika olam, narsa va hodisalarning bir butunligini, umumiy asoslarini parchalab tashlash uslubiga tayanadi.

Sinergetika. Hozirgi zamon fanida sinergetika metodi keng qo'llanilmokda. Sinergetika so'zi yunoncha ("sinergena") bo'lib, keliShuv, hamkorlik, o'zaro ta'sir kabi ma'nolarni anglatadi. German Xakenning fikricha, sinergetika ko'p qismlardan iborat bo'lgan, o'zaro murakkab aloqadorlikdagi komponentlar tizimini o'rganadi. Xaken fikricha sinergetika hamkorliqdagi harakat bo'lib, butunning tizim sifatida aks etuvchi qismlarining kelishilgan faoliyati ma'nosida talqin qilinadi.

Barcha ta'limotlar paydo bo'ladi, rivojlanadi va, nihoyat, eskiradi. Xaken sinergetikasi ham vorisiylikka asoslangan. Uning davomi bo'lgan I.S.Herringtonning sinergetik uslubi, C.Ulamning sinerjiyasi, I.Zabuskiyning sinergetik yo'nalishlari ana Shular jumlasidandir.

I.S.Herrington sinergetik yoki integrativ tafakkurni muskullar harakatining boshqaruvida (orqa miya) asab tizimidadagi kelishilgan ta'sirni izohlash usulidir, deb tuShunadi. S.Ulam esa, EHMning birinchi avlodi vakillaridan biri bo'lib, u sinerjiyaning, ya'ni mashina va uning operatori orasidagi uzluksiz hamkorlikning foydaliligi, ahamiyatining hozirgi davrdagi ta'siriga e'tiborni qaratadi.

I.Zabuskiy 60-yilning o'rtalarida liniyasizlik masalalarini hal qilishda analitik jihatdan cheklanganlik bir yoklamalikka yo'l ochganligini ta'kidlaydi. Liniyasiz matematika va fizika masalalarida sinergetika usulining tatbiq etilishini odatdagi matematika hisoblash mashinasining faoliyatini tahlil qilish bilan qiyoslaydi.

Hozirgi davrda I. Prigojinning sinergetika to'g'risidagi fikrlari ham ko'pchilikning e'tiborini tortmokda.

YUqoridagi barcha holatlarda uzluksiz harakat haqida so'z boradi. Sinergetika orqali sodda tizimlardan murakkablarini yaratuvchi o'lik tabiatdagi o'z-o'zidan harakatning tamoyili shakllandi. Sinergetika bilan fizikada evolyusion yo'nalish paydo bo'ldi va fan ijodkorlikdan Yangilik yaratish tushunchasi tomon rivojlandi. Sinergetika fanning makroskopik darajalariga tasodifiylikni kiritdi va bu bilan mexanika metodlarini makroskopik darajaga, ya'ni mikroduyo masalalariga tatbiq qildi. Sinergetika nisbiylik nazariyasidagi energiya va narsaning o'zaro bir-biriga o'tishini tasdiklaydi va narsalarning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda izoxlaydi. U biz yashayotgan makrotizimlar qanday paydo bo'lganligi masalasini hal etishga harakat qiladi.

Sinergetika nazariyasida energiya kristall sifatida qotib koladi va kinetiklikdan potentsiallikka aylana boshlaydi, deb talqin qilinadi. Bunga ko'ra, narsa qotib qolgan energiyadir. Energiya faoliyatning ishlab chiqarish qobiliyatini xarakterlovchi tushuncha, lekin hozirda energiya nafaqat mexanik faoliyat, balki Yangi strukturalarni yaratuvchisi sifatida ham o'rganilmoqsa. Sinergetika tabiatdagi evolyusiya nimaning hisobiga sodir bo'lishi mumkinligini asoslaydi. Barcha Yangi strukturalar yaratilayotgan joyda energiyaning kuchli to'lqini va muhit bilan almashinuv zarur (evolyusiya hayot kabi), metabolizmi talab qiladi. Agar osmon jismlari evolyusiyasida biz ishlab chiqarishning natijasini kuzatsak, sinergetika tabiatni yaratish jarayonini o'rganadi. Sinergetika nisbiylik nazariyasining xulosalarini tasdiklaydi: energiya olamning yanada yuqoriroq darajalarini yaratadi.

Xullas, sinergetika — olamning o'z-o'zini tashkil etishi, makon va vaqtda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Bu ta'limotni dialektika asosida shakllangan va uni to'ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi deyidiganlar ham bor. Ularga qarshi o'laroq, dialektika endi kerak emas, uni sinergetika bilan almashtirish lozim, deb hisoblovchilar ham yo'q emas.

Sinergetikada bifurkatsiya, fluktuatsiya, tartibsizlik, dissipatsiya, g'alati attraktorlar, chiziqsizlik singari tushunchalar mashhur. Ulardan tizimlar barcha turlarining, jumladan old organizmik, organizmik, ijtimoiy, etnik, ma'naviy va boshqa tizimlarning xulq-atvorini tushuntirish uchun foydalaniladi.

Bifurkatsiya ikkilanish nuqtalarining mavjudligini hamda rivojlanish davomining har xilligini nazarda tutadi. (Masalan bitta oila negizida Yangi oila paydo bo'ladi va Yangi oila o'zining rivojlanish tamoyillariga ega bo'ladi). Ularning faoliyati natijalarini oldindan bashorat qilish qiyin. I. Prigojinning fikriga ko'ra, bifurkatsiya jarayonlari tizimning murakkablaShuvidan dalolat beradi. N. Moiseevning fikricha, «ijtimoiy tizimning har bir holati bifurkatsiya holatidir».

Fluktuatsiyalar umumiy holda ta'sirlantirishni anglatadi. Ularning ikki katta turkumi: tashqi muhit yaratadigan fluktuatsiyalar va tizimning o'zida vujudga keladigan fluktuatsiyalar farqlanadi. Ba'zan fluktuatsiyalar juda kuchayib, tizimni to'la egallab olishi va mohiyat e'tibori bilan uning mavjudlik tartibini o'zgartirib yuborishi mumkin. Ular tizimni unga xos bo'lgan «tartib turi»dan olib chiqadi, ammo kaosga olib chiqadimi yoki yo'qmi – bu masalaning boshqa tomoni.

Dissipativ tizim ta'sirlar tarqaladigan tizim hisoblanadi. Umuman olganda, bu fluktuatsiyalar to'la qamrab olgan tizim xulq-atvorining xususiyatidir. Har xil ta'sirlarga o'ta ta'sirchanlik va buning natijasida haddan tashqari nomuvoziylik – dissipativ tizimning asosiy xossasidir.

Attraktorlar to'plamlarni o'ziga tortuvchi, elementlar intiladigan markazlarni hosil qiluvchi tuzilma. Masalan, bir erga olomon to'planganida, o'z yo'nalishida harakatlanayotgan odam unga e'tibor bermasdan o'tib keta olmaydi. Uning traektoriyasi olomon tomonga buriladi. Kundalik hayotda bu qiziquvchanlik, deb ataladi. O'z-o'zini tashkil etish nazariyasida mazkur jarayon «to'planish nuqtasiga siljish» deb nomlanadi. Attraktorlar o'z atrofiga stoxastik elementlarni to'playdi, Shu tariqa muhitni tuzilmalarga ajratadi va tartib o'rnatish ishtirokchisiga aylanadi.

Dunyoning postnoklassik manzarasida tartiblilik va tuzilmalarga ajratilganlik tartibsizlik va stoxastiklik singari voqelikning ob'ektiv, universal xususiyatlari e'tirof etilgan. Ular rivojlanishning barcha strukturaviy darajalarida namoyon bo'ladi. Nomuvoziy tizimlarning nomuntazam xulq-

atvori muammosi sinergetikaning diqqat markazida turadi. Xullas, sinergetika – strukturogenezning eng umumiy qonuniyatlarini aniqlashni o‘z predmetiga aylantirgan o‘z-o‘zini tashkil etish nazariyasidir.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda kuzatish natijalari ko‘p jihatdan kuzatuvchining shaxsiga, uning hayotiy qarashlariga va boshqa sub’ektiv omillarga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur fanlarda oddiy (faktlar va hodisalar chetdan turib qayd etiladi) kuzatish va ishtirokchilikka asoslangan ichdan turib (bunda tadqiqotchi ma’lum ijtimoiy muhitga qo‘shiladi, unga moslashadi va hodisalarni «ichdan» tahlil qiladi) kuzatish farqlanadi. Psixologiyada kuzatishning o‘z-o‘zini kuzatish (introspeksiya) va empatiya (boshqa odamlarning ruhiy kechinmalariga kirib borish, ularning ichki dunyosi–sezgilari, fikrlari, xohish-istaklarini tushunishga intilish va h.k.) farqlanadi.

Etnometodologiya ichdan turib kuzatishning turlaridan biri bo‘lib, u ijtimoiy hodisa va voqealarni tavsiflash hamda kuzatish natijalarini ularni tushunish g‘oyalari bilan to‘ldirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv hozirda etnografiya, ijtimoiy antropologiya, sotsiologiya va kulturologiyada tobora keng qo‘llanilmoqda.

Ijtimoiy eksperimentlar ular ijtimoiy tashkil etish va jamiyatni boshqarishni oqilonlashtirishning Yangi shakllarini amalga tatbiq etishga ko‘maklashmoqda. Ijtimoiy eksperiment ob’ekti odamlarning ma’lum guruhi eksperimentning bevosita ishtirokchilaridan biri bo‘lib, ularning manfaatlari bilan hisoblashishga to‘g‘ri keladi, tadqiqotchi esa o‘zi o‘rganayotgan vaziyatga bevosita qo‘shiladi. Ijtimoiy eksperimentlar tadqiqotchidan axloqiy va yuridik norma va tamoyillarga qat’iy rioya etishni talab qiladi. Bu erda (tibbiyotda bo‘lgani singari) «ziyon etkazma!» tamoyili muhim ahamiyatga ega. Insonning intim dunyosiga kirish quroli bo‘lib xizmat qilish - ijtimoiy eksperimentlarning asosiy xususiyati.

SHakllantiruvchi eksperimentda muayyan ruhiy faoliyat qanday shakllanishini aniqlash uchun tajriba o‘tkazilayotgan shaxs turli eksperimental sharoitlarga qo‘yiladi va unga ma’lum masalalarni hal qilish taklif etiladi. Bunda murakkab ruhiy jarayonlarni shakllantirish va ularning tuzilishini yanada chuqurroq tadqiq qilish mumkin. Mazkur yondashuv pedagogik psixologiyada qo‘llaniladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda falsafiy va umumilmiy vositalar, metod va amallardan tashqari, mazkur fanlarning predmeti bilan bog‘liq maxsus vositalar, metod va amallardan ham foydalaniladi. Ularning jumlasiga quyidagilar kiradi:

Ideografik metod–alohida tarixiy faktlar va hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflash.

Dialog «savol-javob metodi» ikki va undan ortiq kishilr orasidagi muloqot.

Tushunish va oqilona (intensional) tushuntirish (bu haqda ushbu bobning keyingi paragrafida batafsil so‘z yuritiladi).

Hujjatlarni tahlil qilish–son va sifat jihatidan tahlil qilish (kontent-analiz).

So‘rovlar o‘tkazish– maxsus tayyorlangan savollar yordamida u yoki bu masalaga oid ijtimoiy fikrni aniqlash. «Yuzma-Yuz» so‘rov (intervyu) yoki sirdan (so‘rovnoma yordamida, pochta, telefon orqali va sh.k.) so‘rov o‘tkazish, ommaviy va maxsus so‘rovlar farqlanadi. Maxsus so‘rovlarda professional ekspertlar axborot olishning bosh manbai hisoblanadi.

Proektiv metodlar (psixologiyaga xos)–insonning produktiv faoliyati natijalariga qarab, uning shaxsiy xususiyatlarini bilvosita o‘rganish usuli.

Testlash (psixologiya va pedagogikada)–standartlashtirilgan topshiriqlar bo‘lib, ularni bajarish natijalari ayrim shaxsiy xususiyatlar (bilim, ko‘nikma, xotira, zehn va sh.k.)ni o‘lchash imkonini beradi. Testlarning ikki asosiy guruhi farqlanadi–intellekt testlari (mashhur Q koeffitsienti) va erishilgan (kasbda, sportda va h.k.) natijalar testlari. Testlar bilan ishlashda axloqiy jihat muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, layoqatsiz yoki g‘irrom tadqiqotchining qo‘lida testlar jiddiy zarar keltirishi mumkin.

Biografik va avtobiografik metodlar yordamida u yoki bu kishining hayot yo‘li o‘rganiladi..

Sotsiometriya metodi–ijtimoiy hodisalarni o‘rganishda matematika vositalaridan foydalanishdir. Undan ko‘pincha «kichik guruhlar»ni va ulardagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishda foydalaniladi.

O'yin metodlari–boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda qo'llaniladi. Imitatsion o'yinlar (ishbilarmonlik o'yinlari) va ochiq o'yinlar (ayniqsa, nostandart) vaziyatlarni tahlil qilishda farqlanadi. O'yin metodlari orasida psixodrama va sotsiodrama alohida o'rin tutadi. Ularda ishtirokchilar muayyan individual va gruppaviy vaziyatlarni ko'rib chiqadilar.

Hozirgi zamon metodologiyasi. «Kumatoid», «case studies», «abduksiya» tushunchalari an'anaviy metodologik tushunchalar ruhida tarbiyalangan odamga erish tuyulishi mumkin. Ammo, aynan ular metodologiyaning hozirgi rivojlanish bosqichining o'ziga xos xususiyati ilmiy muomalaga mutlaqo Yangi tushunchalarni kiritish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Mazkur tushunchalarning aksariyati muayyan (xususiy) fanlar sohasi bilan bog'liq. Bunday tushunchalar qatoriga hozirda ancha mashhur bo'lgan bifurkatsiya, «fluktuatsiya», «dissipatsiya», «attraktor» tushunchalarini, Shuningdek, «kumatoid» (yunoncha–to'liqin) degan innovatsion tushunchani kiritish mumkin.

Kumatoid - suzayotgan ob'ektni anglatadi va ob'ektlarning tizimli xususiyatini aks ettiradi. U vujudga kelishi, hosil bo'lishi, Shuningdek yo'qolishi, parchalanishi mumkin. U o'zining barcha elementlarini birvarakay emas, balki o'ziga xos «hissiy-o'ta hissiy» tarzda namoyon etadi. Masalan, tizimli ob'ekt–o'zbek xalqini ma'lum vaqt, makon bo'lagida ifoda etish va mahalliyashtirish mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, ob'ektni yaxlit ifoda etish uchun o'zbek xalqining barcha vakillarini yig'ish mumkin emas. Shu bilan birga, mazkur ob'ekt soxta emas, realdir. Uni kuzatish, o'rganish mumkin. U butun sivilizatsion-tarixiy jarayonning yo'nalishini ko'p jihatdan belgilab beradi. Yana bir misol–talabalar guruhi. U dam paydo bo'ladigan, dam ko'zdan yo'qoladigan suzuvchi ob'ekt sifatida o'zaro aloqalarning deyarli barcha tizimlarida namoyon bo'ladi. Masalan, o'quv mashg'ulotlari tugaganidan keyin guruh yaxlit ob'ekt sifatida mavjud bo'lmaydi, ammo institutsiyaviy belgilangan ma'lum vaziyatlar (guruh raqami, talabalar soni, guruh tuzilishi, umumiy xususiyatlari)da u ob'ekt sifatida namoyon bo'ladi va o'z-o'zini identifikatsiya qiladi. Bundan tashqari, mazkur kumatoid guruh a'zolari o'rtasidagi do'stlik, raqobat va boshqa munosabatlar bilan ham qo'llab-quvvatlanadi.

Kumatoidning o'ziga xos xususiyati Shundaki, u vaqt va makonda mahalliyashtirishga befarq bo'libgina qolmay, substrat–o'zini tashkil etuvchi materialga ham qattiq bog'lanmagan. U tizimli xususiyatlarga ega emas. Binobarin, mazkur xususiyatlar uning tarkibiy qismlariga mavjud yoki mavjud emasligiga, ayniqsa, ularning rivojlanish yo'nalishi yoxud xulq-atvor tarziga bog'liq. Kumatoidni moddiy tarzda mustahkamlangan ma'lum bir xususiyat yoki bunday xususiyatlar to'plami bilan aniq identifikatsiya qilish mumkin emas. Butun ijtimoiy hayot suzuvchi ob'ektlar–kumatoidlar bilan to'lib-toshgan.

«Case studies», ya'ni vaziyatli tadqiqotlar o'tkazish hozirgi zamon metodologiyasidagi muhim Yangilikdir. Mazkur tadqiqotlarni o'tkazishda fanlararo tadqiqotlar o'tkazish metodologiyasiga tayaniladi, ammo individual sub'ektlarni, mahalliy gruppaviy dunyoqarashlar va vaziyatlarni o'rganish nazarda tutiladi. «Case studies» atamasi pretsedentning, ya'ni kuzatish ostida bo'lgan va tushuntirishning mavjud qonunlari doirasiga sig'maydigan individuallashtirilgan ob'ektning mavjudligini aks ettiradi. Vaziyatli tadqiqot metodologiyasi neokantiantlar Baden maktabining idiografik metodi bilan bog'liq.

Vaziyatli tadqiqotlarning ikki tipi: matnli va maydondagi tadqiqotlar farqlanadi. Ularning ikkalasida ham mahalliy determinatsiya birinchi darajali ahamiyatga ega. Mahalliy determinatsiya «ichki ijtimoiylik» tushunchasi bilan muayyanlashadi va ayni guruh yoki vaziyatga xos bo'lgan faoliyat, muloqot shakllari ta'sirida shakllanadigan bilimning noaniq shartlarining tutash tizimi deb, alohida so'zlar va harakatlarning ma'no-mazmunini belgilaydigan ijtimoiy-madaniy kontekst deb tuShuniladi. Vaziyatli tadqiqotlarning ustunligi Shundaki, ularda bilim tizimining mazmuni shartlarning pirovard to'plami, hayotiy vaziyatlarning muayyan va alohida shakllari nuqtai nazaridan ochib beriladi.

Hozirgi zamon metodologiyasi o'z an'anaviy metodlarining universalligi cheklanganligini tuShunadi. Masalan, gipotetik-deduktiv metod ishni tayyor gipotezalardan boshlab, «dalillarni eng yaxshi tushuntirish» bosqichidan sakrab o'tganligi uchun tanqid qilinadi.

Abduksiya fikr yuritish orqali empirik faktlardan ularni tuShuntiruvchi gipotezaga yuksalishni nazarda tutadi. Bunday fikr yuritish turmushda va amaliyotda ko'p uchraydi. Har bir inson tushuntirish yo'llarini izlashda beixtiyor abduksiyaga murojaat etadi. Masalan, vrach kasallik alomatlariga qarab, uning sababini, detektiv esa jinoyat izlariga qarab jinoyatchini qidiradi. Xuddi Shuningdek, olim ham sodir bo'layotgan hodisani tushuntirishda abduksiya metodidan foydalanadi. Mazkur atama induksiya va deduksiya singari mashhur, keng e'tirof etilgan bo'lmasa ham, u Yangi hamda samarali metodologik strategiyani ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Evrastika. Evrastika yunoncha heurisko–topaman, kashf etaman, degan so'zdan kelib chiqqan. «Evrastika» atamasining qo'llanilishi qadimgi yunon olimi aleksandriyalik Papp (miloddan avvalgi III asr) nomi bilan bog'lanadi. Bu nuqtai nazardan evrastika matematika masalalarini echishni o'rganishni istaganlarga mo'ljallangan qoidalarining maxsus to'plami sifatida namoyon bo'ladi. «Mahorat sirlari» hamisha qat'iy sir tutilgan va tavsiflanmagan. Evrastikani kashfiyotlar to'g'risidagi fan sifatida tavsiflash barcha zamonlarda ham juda murakkab vazifa hisoblangan. G. Leybnitsning «Kashfiyot san'ati» g'oyasi amalga oshmadi. B. Spinoza to'g'ri metod oqilona tanlashni ta'minlashi, noma'lumni bilish qoidalariga ega bo'lishi, foydasiz imkoniyatlarni chetlatish tartibini belgilashi lozimligini qayd etgan bo'lsa-da, buni asoslovchi nazariyani yaratmadi.

Muayyan ilmiy bilimdagi barcha ikkilamchi, noaniq metodologik qoidalar evrastika sohasini to'ldiradi. Shuning uchun ham evrastika ba'zan qayg'urish, ilhomlanish, insayt bilan bog'lanadi. Metodologik tafakkurning izchil tizimida evrastikaga ko'pincha etarli darajada anglab bo'lmaydigan, ammo izlash va topish salohiyati katta bo'lgan soha deb qaraladi. Formal mantiqiy metodlar evrastik metodlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Barcha mumkin bo'lgan hollarda evrastikadan bilim mazmunini kengaytirish, ilgari ma'lum bo'lmagan Yangilikni yaratish kutiladi.

Ko'pincha «evrastika» tushunchasini tafakkurga bog'lab, «evrastik tafakkur» tarzida qo'llaniladi. Aytish mumkinki, bunday hollarning barchasida tafakkurning yaratuvchi funksiyasi to'g'risida so'z yuritiladi. G'arb falsafasida evrastik tafakkurni tushuntirishga harakat qiluvchi nazariyalarning uch turkumi farqlanadi: «tinch oqar suv» yoki o'rtacha hisobga keltirilgan mehnat nazariyasi; blitskrig yoki insayt nazariyasi; yaxshi qopqon yoki oqilona metodologik qoida nazariyasi.

Evrastika metodologiyaning bo'limi sifatida hali rasman e'tirof etilgani yo'q. Ammo, o'z-o'zidan ayonki, ilmiy bilimning har bir sohasida u eng tez, samarali va o'ziga xos echim topishning strategiyasi hisoblanadi, evrastik usul va qoidalar noan'anaviy yo'llarni izlash, ulardan foydalanishga turtki beradi. Evrastika fanlararo xususiyatga egaligi mazkur sohaning o'ziga xos belgisidir. Ammo evrastik xususiyat fan ichidagi bilimda ham mavjud. Evrastik sezgi ilmiy izlanishning deyarli har bir qadamiga hamroh bo'ladi. Reduksiya, metodlarini o'zlashtirish, gumanitar va texnika fanlarining usullarini birlashtirish, muayyan ilmiy ishlovlarni amalga tatbiq etishni tanlash, hal qiluvchi eksperimentning o'zi ma'lum darajada evrastik farazlarga asoslanadi. Evrastika ilmiy va noilmiy bilim, oqilonalik va nooqilonalik o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. U xulq-atvor taktikasini tanlashga va rivojlanish jarayonida to'g'ri yo'l topishga ko'maklashadi. Ilmiy tavakkalchilik mezoni sifatida evrastika ilmiy bilimni rivojlantirishning tarkibiy qismi sifatida hamisha olqishlangan, dunyoning postnklassik manzarasida esa nazariyaning evrastik xususiyati bilim berish jarayonini o'zgartirish, uni ijodiy, muammoli, o'yin tarzida o'tkazish imkonini beradigan ilmiy bilim mezoni darajasiga ko'tarildi.

Evrastika sirlariga yaqinlashishga bo'lgan eng so'nggi urinishlardan A.F.Osbornning «miyaga hujumi»ni qayd etish mumkin. Unda kashfiyotchilikning o'rindoshlik, o'tkazish, birlashtirish va ajratish bilan bog'liq an'anaviy usullari bilan bir qatorda, xayolni rag'batlantiruvchi usullar: tig'iz muddatlar tizimi, muammoni tanqidsiz vaziyatda erkin muhokama qilish, tortiShuvlik muhitini yaratish, Shuningdek hazil taxminlar qilish qayd etiladi. Ammo, evrastika yo'nalishining vakili D. Poyya ilgari surgan ijodning (yoki muammolarni samarali hal qilishning) muqarrar tarzda amal qiladigan qoidalarini ishlab chiqish amalga oshirib bo'lmaydigan vazifa, degan g'oyasi yanada an'anaviyroq hisoblanadi.

Darhaqiqat, evrastika o'ziga xos metodologiya, ya'ni ijodiy faoliyat metodlarining majmui sifatida ma'lum talablar qo'yadi:

– u oddiy tanlash usullariga emas, balki muammoni hal qilish vaqtini qisqartirish imkonini beradigan usullarga tayanadi;

– qo‘llaniluvchi usullar an’anaviy qabul qilingan va eskirgan usullardan jiddiy farq qilishi mumkin;

– usullardan foydalanishga tadqiqot ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan tashqi cheklashlar qarshilik ko‘rsatadi;

– izlanish modellari jiddiy darajada individuallashtirilgan bo‘lib, bilish sub’ektining ruhiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq.

Xulosalar. Shunday qilib, metodologiya muayyan bir, hatto, «eng muhim metod»ga ham bog‘liq bo‘lmaydi. «Olim hech qachon faqat bitta ta’limotga tayanib qolmasligi, hech qachon o‘z tafakkur metodlarini faqat bitta falsafa bilan cheklab qo‘ymasligi kerak». Metodologiya alohida metodlarning oddiy yig‘indisi, ularning «mexanik birligi» ham emas. Metodologiya – turli darajadagi usul va tamoyillarning faoliyat sohalari, yo‘nalishlari, evristik imkoniyatlar, mazmunlar, tuzilmalar va hokazolarning murakkab, yaxlit hamda muvofiqlashtirilgan tizimi.

Ilmiy bilishda turli darajalarda, faoliyat sohalari va yo‘nalishlarda turli-tuman metodlarning murakkab, dinamik va muvofiqlashtirilgan tizimi faoliyat ko‘rsatadi. Mazkur metodlar har doim tadqiqotning muayyan shartlari va predmetidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Gnoseologiya nimani o‘rganadi?
2. Bilish nima?
3. Hissiy va ratsional bilishning o‘ziga xosligi nimada?
4. Bilish ob’ekti, sub’ekti, predmeti tushunchalarini izohlang.
5. Ilmiy bilishning asosiy usul (metod) larini ko‘rsating.
6. Bilishning yoshlarni tarbiyalash va kamol toptirishdagi ahamiyat nimada?

1.7 – mavzu. Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma’naviy qadriyatlari.

Jamiyat va tarix falsafasi

Reja:

1. Jamiyat tushunchasining mohiyati va mazmuni.
2. Jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi turli nazariyalar
3. Sivilizatsiyalashgan jamiyatni barpo etish va barkamol insonni shakllantirish vazifalari.
4. Qadriyat tushunchasi va uning umumiy tavsifi. Qadriyat kategoriyasining mazmuni.

1.Jamiyat tushunchasining mohiyati va mazmuni.

Jamiyat nima? Insoniyat azal-azaldan jamoa bo‘lib yashaydi. Er sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana Shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma’noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o‘tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog‘liq barcha o‘zgarish va jarayonlarni ifoda etadi.

• Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo‘llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo‘lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a’zosi deb ataladi.

Jamiyat — tabiatning bir qismi, ya’ni ijtimoiy borliq bo‘lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o‘rtasida amal qiladigan juda ko‘plab munosabatlar yig‘indisi, degan turlicha ta’riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir Yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini Yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Prezident Islom Karimovning qator asarlarida jamiyat mohiyatini Yangicha tushunishning uslubiy asoslari yaratildi.

Jamiyat moddiy va ma’naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma’naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar edi. Moddiy hayot tadqiqiga ko‘proq e’tibor berilar.

Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma'naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa ziddir. Prezident Islom Karimov asarlarida jamiyatning moddiy va ma'naviy manfaatlarini uyg'unlashtirish ijtimoiy taraqqiyot asosi ekani ta'kidlangan. Inson ma'naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Shuning uchun ham hozirgi davrda aholi ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy g'oya va mafkura asoslarini shakllantirishga katta e'tibor berilyapti. Zero, kishilar iqtisodiy jihatdan qashshoq bo'lgani uchun ilmsiz bo'lmaydi, balki, aksincha — ilmsiz bo'lgani uchun qashshoq bo'ladi. Shuning uchun yurtimizda xalq ma'naviyatini yuksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga katta e'tibor berilyapti.

Jamiyat tushunchasi. Jamiyat fanga ma'lum tizimlar orasida eng murakkabi bo'lib, uni o'rganish jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Jamiyat hayoti juda faol bo'lib, har bir xalq o'zining alohida, betakror tarixiga ega. Jamiyat hayotining barcha jarayonlari bir-biri bilan Shu darajada uzviy bog'liqlik, ba'zan turli vaziyatlarda belgilovchi va belgilanuvchi jarayonlar o'rin almashadi. Tarixiy jarayonda tasodiflar va sub'ektiv omil ayniqsa muhim rol o'ynaydi.

Jamiyat hayoti asrlar osha olimlar va faylasuflarning tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqda. U turli fanlar, chunonchi: sotsiologiya, tarix, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, etnografiya, iqtisodiy nazariya va hokazolar doirasida o'rganiladi. Fanning vazifasi – jamiyat tuzilishini o'rganish, tarixiy jarayonda takrorlanuvchi, umumiy xossalar, jihatlar, omillar va qonuniyatlarni aniqlashdan iborat. Ilmiy bilim tarixiy jarayondan taqqoslab bo'lmaydigan darajada qashshoqroq bo'lsa-da, u jamiyatga zarur, chunki uning haqiqiy tarixini o'rganish, uning o'tmishda va hozirgi davrda rivojlanishining muqobil imkoniyatlarini aniqlash, bugungi kunning muhim vazifalarini hamda hozirgi zamon va kelajakka ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash imkonini beradi.

Muayyan fanlardan farqli o'laroq, falsafaning vazifasi tarixiy jarayonning umumiy jihatlarini o'rganishdan iborat. Falsafa muayyan hodisalarning sabablari nimada degan savolga javob topish vazifasini o'z oldiga qo'ymasada, tarix fanining metodologik asoslarini yaratadi, mazkur sabablarni aniqlashga nisbatan qanday yondashish kerak, degan savolga javob beradi. U dunyoqarashga doir o'z mo'ljallariga tayanadi, ijtimoiy va gumanitar fanlarning kategoriyalar apparatini ishlab chiqishda ishtirok etadi. O'z kategoriyalarining ijtimoiy mazmunini yoritarkan, falsafa shunga asoslanib muayyan-tarixiy jarayonlarni tahlil qilishni amalga oshiradi. Tarix falsafasining muammolaridan biri bu tarixiy jarayonning birligi muammosi va tarixni davriylashtirish tamoyillarini belgilashdir. Falsafaning vazifasi jamiyat hayotining asosiy negizlarini, uning tizim tashkil etadigan omillarini aniqlashdan iborat. Tarix falsafasida dunyoqarashga doir mo'ljallarining rang-barangligi bilan ajralib turadigan ko'plab oqimlar va yo'nalishlar mavjud bo'lgan. Shu sababli har bir faylasuf, odatda, o'z mo'ljallariga amal qiladi, nafaqat dunyoni, balki jamiyatni ham o'ziga xos tarzda tushuntiradi.

Madaniy-tarixiy tiplar g'oyasi. XIX asrda madaniy-tarixiy tiplar nazariyasi vujudga kelgan bo'lsada, aslida bu haqdagi dastlabki qarashlar Forobiy ijodiga mansub. Forobiy insonlar jamiyatini ikki madaniy-tarixiy tiplarga ajratadi: Birinchisi to'liq jamiyat bo'lib, u o'zida a) er Yuzidagi jami insonlarni qamrab oluvchi yirik jamiyat, b) Erning muayyan qismida yashovchi bir millat yoki bir dinga mansub kishilarning o'rta jamiyati v) muayyan qavm yoki dinga mansub bir shahar jamiyatini qamrab oladi. Ikkinchisi bir qishloq, ovul, yoki bir oiladan iborat bo'lgan to'liqsiz jamiyat.¹ Forobiy fikricha "Eng yaxshi fazilat va oliy darajadagi komillikni kichik birligi shahar hisoblanadigan madaniy jamiyat ichidagina qo'lga kiritish mumkin. To'liqsiz jamiyatlar insonni takomillashtirishga qobil emaslar".² Forobiyning bu fikrlari Platon va Aristotelning jamiyatga oid qarashlaridan farq qiladi, chunki u jamiyatdagi o'zgarishlarni inobatga olgan. Jamiyatni to'liq va to'liqsizga ajratarkan, Forobiy shahar to'liq jamiyatning birinchi bosqichidir deb e'tirof etadi. Platon va Aristotel esa to'liq jamiyatni shahar bilan chegaralaganlar va shahar insoniyat jamiyati takomilining oxirgi darajasi, jamoaviy baxt saodatning bosh markazi deb ta'kidlaganlar. Forobiy

¹ Форобий Фозил шаҳар аҳолиси.-Т.: Шарқ, 1999. –Б.82-83

² Форобий Фозил шаҳар аҳолиси.-Т.: Шарқ, 1999.-Б..69

esa, butun dunyodagi jamiyat haqida fikr yuritib, uning xukmdori qandaydir alohida olingan xalq, qavm yoki jamoa boshlig'i emas, balki butun madaniy dunyodir deb ta'kidlaydi va bu fikri bilan yunon faylasuflaridan ilgari ketadi.

Madaniy-tarixiy tiplar tushunchasi sotsiologiyaga N.YA.Danilevskiy tomonidan kiritilgan bo'lib, u tarixni «o'ziga xos sivilizatsiyalar»ning o'zaro munosabatlari sifatida tasavvur qilgan. Bu sivilizatsiyalarning rivojlanishi etnik guruhlarning til jihatidan birligi va sivilizatsiyani tashkil etadigan xalqlarning siyosiy mustaqilligi; (ular bir tipning asoslarini boshqa tipga o'tkazmaydilar, lekin boshqa o'tmishdagi va hozirgi sivilizatsiyalar ta'sirini his qiladilar); barcha sivilizatsiyalarning etnik jihatdan rang-barangligi va rivojlanish jarayonining birligi (ular o'sish, qisqa muddat ravnaq topish va tanazzul bosqichlarini boshdan kechiradi) kabi qonunlar bilan belgilanadi. N.Danilevskiyning g'oyalari keyinchalik SHpengler va Toynbi konsepsiyalarida rivojlantirildi, lekin ularning ilmiy asoslarini P.A.Sorokin taklif qildi.

P.A.Sorokin (1889-1968). Taniqli faylasuf P.A.Sorokin tarix falsafasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. U jamiyatga individlar va ijtimoiy guruhlarning o'z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati bilan belgilanadigan bir-biri va jamiyat bilan o'zaro munosabatlari natijasida vujudga keladigan integral yaxlitlik sifatida qaragan. P.A.Sorokin jamiyatni gorizontol, vertikal yo'nalishlarda va fluktuatsiya (tebranish) tarzida murakkab harakatda bo'lgan ijtimoiy-madaniy tizimlarning rang-barangligini tan olish nuqtai nazaridan tavsiflagan. P.A.Sorokin sotsiologiyasida o'tmish va hozirgi sotsiologiya fanining muhim g'oyalari uyg'un birlikda jamlangan va ifodalangan.

Jamiyatning vujudga kelishi. Kishilarni oila bo'lib, jamoa bo'lib uyushishga nima majbur qilgan, degan masala qadim zamonlardan o'z mutafakkirlar e'tiborini jalb etgan. Bu masalani diniy tushunish — uni ilohiy kuch, xudo bilan bog'lab izohlashdir.

Dunyoviy qarashlarga ko'ra, odamlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda yashashga, jamoa bo'lib birlashishga ko'nikkan. Kishilar hayotiy tajriba, aql va tafakkur tufayli jamiyat bo'lib yashashning qulay, afzal va zarurligini tushungan. Bu jarayonda o'zaro munosabatlarga kirishgan kishilar ana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivojlantirish orqali ma'naviy kamolotga erishgan. Bu kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtirgan, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini bergan.

Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari — oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o'rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi bir so'z bilan ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta'lim-tarbiya, mahalla, Vatan kabi qadriyatlar inson va jamiyat o'z mohiyatini yo'qotadi.

Jamiyatning vujudga kelishiga doir qarashlar. Jamiyatning vujudga kelishi haqida ajdodlarimiz hayotining arxeologlar topgan va odamlarning ko'plab avlodlari bosib o'tgan murakkab va fojialarga to'la tarixiy yo'ldan dalolat beradigan izlarga qarab xulosa chiqarish mumkin. Shunga qaramay inson va jamiyat kelib chiqishining to'liq manzarasi fanda hanuzgacha yaratilmagan. Jamiyat kelib chiqishining diniy talqini ham (u o'z mifologiyasini haqiqat deb tan olishni talab qiladi), idealistik konsepsiya (o'zining spekulativligi tufayli) va materializm (ilmiy dalillar etarli emasligi bois) ham asosli e'tirozlar uyg'otadi. Kant materializmdan inson ruhining tabiatini tushuntiruvchi tamoyil sifatida foydalanish hech qachon mumkin emas, deganida, ma'lum ma'noda haq edi. Ammo, daliliy ma'lumotlar ozligiga qaramay, biz jamiyatning vujudga kelish manzarasini ancha aniq yaratish imkonini beradigan ilmiy dalillarga ishonch bilan qarash lozim, deb hisoblaymiz.

Jamiyatning kelib chiqishini ilmiy tavsiflash borasidagi qarashlar. Bunday qarashlar mehnat va mehnat qurollari markscha nazariyasi doirasida amalga oshirilgan. Bu nazariyaga ko'ra mehnat, so'ngra burro nutq inson jamiyatini yaratgan. Inson hayotida mehnat qurollarining ahamiyatini rad etmagan holda, bu farazni tasdiqlovchi aniq ilmiy dalillarga duch kelmadik. Z.Freyd inson vijdonini uning kelib chiqish manbai deb hisoblagan. Etnografik tadqiqotlar bu

farazni umuman tasdiqlamaydi. Y.Xeyzinga o'yin va o'yin faoliyatiga madaniyatning insonni shakllantiruvchi asosiy tamoyil sifatida qaraydi. Ernst Kassirer (1875-1945) ilgari surgan farazga ko'ra, simvolik shakllar, ya'ni inson va uning ongi paydo bo'lishini belgilagan ramzlar va belgilar madaniyatning turli shakllarini birlashtiruvchi oliy va universal tamoyil hisoblanadi. Kassirer fikriga ko'ra, qadimgi ajdodlarimiz ularning yashab qolishini ta'minlovchi etarli tabiiy kuchga ega bo'lmagan. Inson o'zining hayvonlar xulq-atvorini kuzatish va ularga taqlid qilish qobiliyati bilan yashab qolish imkoniyatini qo'lga kiritgan. O'z navbatida taqlidga asoslangan xulq-atvor ramziy belgilar, keyinchalik esa nutq vujudga kelishiga asos bo'lgan.

To'plangan tajribani belgilar tizimida qayd etish va avloddan-avlodga o'tkazish qobiliyatining shakllanishi hayvonlar to'dasi kishilik hamjamiyatiga aylanishining muhim omili bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Bunday qobiliyatga hayvonlarning biron-bir turi ega emas. Namoyish etish, o'rnak ko'rsatish, taqiqlar va cheklashlar tizimi muloqotning nafaqat noverbal, balki asta-sekin shakllangan verbal vositalarida ham o'z ifodasini topgan. Muloqot mehnat ko'nikmalarini mustahkamlash, ovqat topish va unga ishlov berishni tartibga keltirish, o'z jamoa harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini bergan. Etnografik ma'lumotlar tajribani avloddan-avlodga o'tkazish va jamoa faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish shakli sifatida o'yin ulkan ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi.

Ma'lum taqiqlar orasida ovqatga doir xulq-atvor bilan bog'liq taqiqlar, Shuningdek seksual cheklashlar, avvalo yaqin qarindoshlar jinsiy aloqaga kirishishi – inestning taqiqlanishi ayniqsa ajralib turadi. Ular insoniyat kelajagi uchun olamshumul ahamiyat kasb etgan. Zero tartibsiz jinsiy aloqalar naslning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan. Aslida, olingan tajriba yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohning taqiqlanishiga sabab bo'lgan. Bu nikoh aloqalari tizimini tartibga solish, ularni qat'iy qayd etish, ayollar, qizlar, singillarni ayirboshlash, so'ngra bu bilan o'xshashlik bo'yicha – oziq-ovqat, buyumlar, so'z-belgilar ayirboshlashni yo'lga qo'yish imkonini bergan. Mazkur jarayonlar odamlar o'rtasida muloqot, munosabatlar va xulq-atvor me'yorlari o'rnatilishi va ularga rioya etish zarurligi anglab etilishiga turtki bo'lgan. Me'yorlarning mustahkamlanishiga mifologik va ilk diniy tasavvurlar hamda taqiqlar tizimi ko'maklashgan. Jamoadan tashqarida yashab qolish imkoniyati mavjud emasligini anglagan jamoaning har bir a'zosi unda o'rnatilgan kundalik xulq-atvor me'yorlariga rioya qilgan. Shunday qilib, jamiyat ishlab chiqarish va ko'payish ehtiyojlari bilan belgilangan odatlar, me'yorlar va qadriyatlar bilan tartibga solinadigan odamlarning birgalikdagi faoliyati va ularning o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi sifatida vujudga kelgan. Me'yorlar inson hayot faoliyatining barcha sohalariga nisbatan tatbiq etiladi, hamda madaniyat va sivilizatsiya vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. Jamiyatda qanday o'zgarishlar Yuz bermasin, u odamzot bilan birga vujudga kelgan mazkur muhim tarkibiy elementlarni saqlab qoladi.

Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari, o'zini himoyalash, zuriyot qoldirish kabilardan iboratdir. Ma'naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o'zlikni anglash, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san'at, g'oya, mafkura go'zallik bilan, ma'naviy kamolot yo'lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma'naviy olamni uyg'unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o'z maqsadlariga mos ravishda o'zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Inson yuksak ma'naviyat tufayligina o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'laroq qoldirish imkoniga ega bo'ladi.

Mamlakatimizda ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor berilayotganining sababi ham ana Shunda. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda vujudga keldi.

Jamiyatning moddiy hayotiga quyidagilar kiradi:

- kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlar;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i, kommunikatsiya vositalari;

- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish;
- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui;

- moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar.

Jamiyatning ma'naviy hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, g'oyalari, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta'lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini boshqarish, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar, turli uyushmalar) muhim o'rin tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jihatlari ham muhimdir. Kishilar tamonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishida mehnat, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi beqiyos ahamiyatga ega. Mehnatning kishilarning qobiliyatiga qarab ijtimoiy taqsimlanishi natijasida muayyan kasb-kor bilan Shug'ullanadigan toifalar, guruh, qatlam va sinflar vujudga keladi va ular jamiyat strukturasi o'ziga xos o'rin egalaydi, jamiyat taraqqiyotiga muayyan hissa qo'shadi.

Ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. *Xodimlar, ularning mehnati va ishlab chiqarish vositalari – mehnat qurollari va vositalari ishlab chiqarishning muhim omillari hisoblanadi.* Ishlab chiqarish moddiy-texnika vositalari va ularni ishga solishga qodir bo'lgan odamlar majmui jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida odamlar o'rtasida turli-tuman munosabatlar Yuzaga keladi. Ularning orasida tashkiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish-texnologik munosabatlar texnika va ishlab chiqarish texnologiyasining xususiyati rivojlanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lsa, tashkiliy-iqtisodiy va ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosan ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulk shakllari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarish natijasida yaratiladigan ne'matlar va xizmatlarni ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida Yuzaga keluvchi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur munosabatlar tizimi ijtimoiy normalar va huquq normalari bilan tartibga solinadi va ijtimoiy ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulk huquqining xususiyati bilan belgilanadi.

Mulk. *Mulk – xo'jalik jabhasi, iqtisodiy jabhada vujudga keladigan institut. U nafaqat ishlab chiqarish vositalari, balki iste'mol predmetlari va ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ham tatbiq etiladi.* Ijtimoiy boylikning barcha elementlari – ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, er va er osti boyliklari, moddiy ishlab chiqarish, ma'naviy ijodiy va o'zga aqliy faoliyat mahsullari va hokazolar mulk bo'lishi mumkin. Mulk iqtisodiy hokimiyatga kim ega bo'lishini, xo'jalik faoliyatidan olingan foyda kimga tegishini va u qanday moddiy mulkiy manfaatlarni Yuzaga keltirishini belgilaydi. Mulk shakllari ishlab chiqarish ijtimoiylaShuvining amaldagi darajasi bilan belgilanadi, unga esa, o'z navbatida, umumiy texnologik taraqqiyot ta'sir ko'rsatadi. Mulkning davlat mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk jamoa mulki kabi shakllari mavjud.

2.Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi turli nazariyalar

Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi Hegel jamiyatning shakllanishi va rivojlanish sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, L. Feyerbax din bilan bog'lagan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Fransuz mutafakkiri O. Kont jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma'naviy taraqqiyotining uch bosqichi (teologik, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izohlagan. K. Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'lagan, barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tuShuntirgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlaqlashtirgan va ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida

ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etgan. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning bir yoqlama va xato ekanini ko'rsatdi.

Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekani to'g'risidagi qarashlar AQSH faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko'ra jamiyatlar taraqqiyotiga binoan, agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

Jamiyat hayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi, jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi.

Barqarorlik - jamiyat taraqqiyotining tadrriy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir. U turg'unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg'unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashib turishi ham mumkin. Jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach, ijtimoiy imkoniyatlar ruyobga chiqarilib bo'lgach, uning bundan keyingi taraqqiyoti yo'lida Yangi muammolar tug'iladi va ularni hal etish vazifasi paydo bo'ladi. Jamiyat a'zolarining ma'naviy salohiyati, milliy psixologiyasi, tabiiy ravishda mavjud siyosiy tuzum kishilarni boshqarishning o'ziga xos usullarini hayotga tadbqiq etadi. Insoniyat hayoti tarixida jamiyat barqarorligini ta'minlashning monarxiyaga asoslangan, aristokratik, totalitar va demokratik usullari tajribadan o'tgan.

Beqarorlik ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa bir ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrida keskinlashishi mumkin. Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo'qolishida, g'oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarning paydo bo'lishida, ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o'z ifodasini topadi.

Jahon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o'z taraqqiyot yo'lini tanlash huquqiga ega bo'lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash garovi ekanini ko'rsatdi. O'zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o'z milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanlash, rivojlanishning o'zbek modelini yaratish imkoniga ega bo'ldi.

Individual ijtimoiy ong. *Individual ong – ayrim insonda uning yashash sharoiti va ruhiy xususiyatlari ta'sirida shakllanadigan dunyoning sub'ektiv obrazi.* U shaxsning ichki borlig'iga ega bo'ladi, aksariyat hollarda hammadan yashirin ong oqimini tashkil qiladi. *Ijtimoiy ong ijtimoiy birliklar va guruhlar tashqi omillar – jamiyat hayotining moddiy sharoitlari va uning ma'naviy madaniyati ta'sirida shakllantiradigan kollektiv tasavvurlarni tavsiflaydi.*

Individual va ijtimoiy ongning farqi faqat ijtimoiy ongning sotsial xususiyat kasb etishini anglatmaydi. Individual ong – jamiyat ongining ajralmas qismi. Jamiyatda asrlar mobaynida shakllangan madaniyat shaxsni ma'naviy jihatdan boyitadi va individual ongning uzviy qismiga aylanadi. Har bir individ o'z xalqi, etnosining, o'zi istiqomat qiladigan joyning vakili bo'lib, uning ongi jamiyat bilan chambarchas bog'liq. Ayni vaqtda ijtimoiy ong faqat individual ong bilan muttasil o'zaro ta'sirga kirishish orqali rivojlanadi.

Ijtimoiy ong tuzilishi. *Ijtimoiy ong murakkab tuzilishga ega. U ikki daraja: kundalik ong va nazariy ongni o'z ichiga oladi.* Kundalik ong o'z tuzilishiga ko'ra turli jinlidir. U ajdodlar to'plagan mehnat faoliyati tajribasini, axloqiy me'yorlar, odatlarni, kundalik turish-turmush qoidalarini, tabiatni kuzatish natijasida shakllangan tasavvurlarni, dunyoqarashga doir ba'zi bir mo'ljallarni, xalq og'zaki ijodi (folklor) va hokazolarni o'z ichiga oladi. Kundalik ong asosan

mehnatga, kundalik turish-turmushga va odamlarning ular bilan bog'liq bo'lgan yashash sharoitlari va munosabatlariga qarab mo'ljallanadi. Kundalik hayot, ya'ni faoliyat, odatlar va munosabatlarning uzluksiz takrorlanadigan shakllari kundalik ong mazmunini tavsiflovchi asosiy tushuncha hisoblanadi. U o'zining sinkretik xususiyati, mazmunan qashshoqligi, emotsiyalarga boyligi, stixiyaliligi va amaliyotga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Kundalik ongning bilish imkoniyatlari cheklangan: u hodisalar mazmunini teran anglashga, dalillarni tizimga solishga qodir emas. Nazariy ong kundalik ongga tayanadi, lekin uning tor doirasidan tashqariga chiqadi.

Mazkur darajalar ijtimoiy ong tuzilishini bilish harakatidagi uning ob'ektga muvofiqlik darajasi bilan farq qiladigan jihatlari sifatida tavsiflaydi. Ayni vaqtda ijtimoiy birliklar va guruhlar ma'naviy faoliyatining mahsuli sanalgan ijtimoiy ong ularning sub'ektiv qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ijtimoiy ong manbalarining o'ziga xos xususiyatlari ta'siri ijtimoiy psixologiya va mafkurada aks etadi.

Ijtimoiy psixologiya. *Ijtimoiy psixologiya tushunchasida o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'lgan inson ruhiyatining namoyon bo'lish shakllari aksini topadi.* Ammo ijtimoiy psixologiya ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida kishilarning ommaviy xulq-atvori xususiyatlarini, ijtimoiy birliklar va guruhlarining ijtimoiy hayot hodisalariga bo'lgan munosabatlarining muayyan tipini tavsiflaydi. Ular e'tiqodlar, ijtimoiy mo'ljallar, tuyg'ular, odatlar, stereotiplar va hokazolar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy psixologiya ruhiyat tarzini, muayyan ijtimoiy guruhga xos bo'lgan jamoa xulq-atvorining ruhiy xususiyatlari va shakllari barqaror majmuini ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy birliklar va guruhlarini tushunishda ijtimoiy fe'l-atvorni hisobga olish muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy psixologiyada u yoki bu guruhga yoki butun jamiyatga mazkur jamiyat tarixining muayyan davrida xos bo'lgan ijtimoiy tuyg'ular muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy tuyg'ular juda faol va o'ta ta'sirchandır. Ular aks etish va tarqalish xususiyati va usullariga ko'ra farq qiladi. O'zaro ruhiy induksiya, taqlid, ijtimoiy nazorat, ta'sir ko'rsatish, emotsiyalarni yuqtirish va hokazolar Shular jumlasidandır.

Mafkura. Ong doim hayotning mazmuni muammolarini u yoki bu tarzda hal qiladi, ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari va istiqbollari bilan bog'liq bo'lgan hayotiy muhim savollarga javob beradi. Mazkur savollar mafkura doirasida qo'yiladi va hal qilinadi.

Mafkura ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarining tizimga solingan, nazariy ko'rinishda aks etradigan va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash yoki o'zgartirishga xizmat qiladigan g'oyalar, qarashlar majmuidan iborat. Mafkura mazmunini ijtimoiy rivojlanishning etilgan, muhim, dolzarb va echishni talab qiladigan ziddiyatlari tashkil etadi. Shunga muvofiq Yuz berayotgan jarayonlar mazmuniga va ijtimoiy muammolarni echish yo'llariga nisbatan alohida yondashuvni aks ettiruvchi ayrim nazariy mulohazalar Yuzaga keladi. Bu mafkuraning shakli hisoblanadi. Uning mazmuni esa muayyan ijtimoiy guruh – sinf, etnik guruh, hukmron elita yoki uning muxolifati va hokazolarning manfaatlarini ifoda etishdan iborat. Mafkura shaklan ob'ektiv, lekin mazmun jihatidan sub'ektivdir. U nazariy jihatdan tizimga solingan ko'rinishda ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga bo'lgan munosabatini aks ettiradi va ularning ijtimoiy-siyosiy natijalarini nazariy jihatdan asoslash va oqlashga harakat qiladi.

A.Ochildiev istibdod mafkurasi, istiqloq mafkurasi, va jamiyat mafkurasi kabilarni farqlaydi. Istibdod mafkurasidan farqli o'laroq "istiqloq mafkurasi millat, jamiyat, davlatni mustaqil taraqqiyot yo'liga boshlaydigan, uni belgilab beradigan, erkin va ozod rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan g'oyalar, qarashlar tizimidir"¹. Uning fikricha, har qanday davlat o'z faoliyatida yagona etnosotsial birlik sifatida chiqadigan millat manfaatini himoya qilishga qaratilishi, uning jipsligi, taraqqiyotini ta'minlaydigan milliy mafkuraga tayanmog'i lozim. Zero milliy mafkura davlat organlari, ijtimoiy institutlar faoliyatini tashkil qiluvchi, yo'naltiruvchi qurol vazifasini o'taydi.

Ijtimoiy ong shakl va mazmun jihatidan rang-barangdir. Ijtimoiy ongning ilmiy, diniy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, falsafiy turlari farqlanadi. Ular o'zi aks ettiruvchi hodisalar mazmuni, moddiy-Shuv shakli va ijtimoiy funksiyalariga ko'ra farq qiladi. Ijtimoiy ong turlari

¹ Очиддиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. –Т.: Ўзбекистон, 2004. –Б.28

yoki shakllari ko'p darajali tuzilmalar bo'lib, o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan oddiy va nazariy darajalarni, ijtimoiy psixologiya va mafkurani o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ong holatlari. Ijtimoiy ongning yaxlit tavsifi ijtimoiy ong holati, ommaviy ong, jamoatchilik fikri kabi tushunchalarda ifodalanadi. Ijtimoiy ong holati mazkur tarixiy davrda qaysi g'oyalar va qarashlar etakchilik qilayotgani, ijtimoiy ongning qaysi shakllari jamoatchilik fikri va kayfiyatiga ayniqsa samarali ta'sir ko'rsatayotgani, jamoatchilik fikrini shakllantirishning qaysi mexanizmlari ustuvor ahamiyatga ega ekanligi (u mafkuraviy majburlov mahsulimi yoki stixiyali tarzda shakllanadimi), jamoatchilik fikrini shakllantirish vositalari orasida fan, din, siyosat va huquq qanday o'rin egallashi bilan belgilanadi. Ijtimoiy ong holatlarini tavsiflashda ilmiy va noilmiy tasavvurlarning o'zaro nisbatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ijtimoiy bo'hronlar va tangliklar davrida o'ta xurofiy aqidalar tiklanadi, sarosimalik kayfiyatlar, ijtimoiy ongning beqaroligi kuchayadi. Ijtimoiy ong madaniyatda o'zining amaliy ifodasini topadi.

Ijtimoiy birliklar va guruhlar. *Ijtimoiy birliklar va guruhlar ijtimoiy tuzilmaning muhim elementi hisoblanadi. Ular kishilarning umumiy ijtimoiy belgilari mavjudligi bilan ajralib turadigan birlashmalaridir.* Mazkur belgilar qatoriga guruh uchun umumiy sanalgan ehtiyojlar va manfaatlar, qadriyatlar va me'yorlar, turmush tarzi, ijtimoiy mehnat taqsimotidagi o'rin va ular bilan bog'liq ijtimoiy rollar kiradi. Ijtimoiy guruh xususiyati va tipi uning xulq-atvorini va jamiyatning ijtimoiy kichik tizimidagi o'rnini ham belgilaydi. Ehtiyojlar va manfaatlarining birligi ijtimoiy birliklar va guruhlarni birlashtiruvchi asosiy belgi hisoblanadi. Mazkur ehtiyojlar va manfaatlar ijtimoiy birliklar va guruhlarning jamiyatdagi mavqei bilan belgilanadi. Ijtimoiy birliklar va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy bir jinslilik va barqarorlik darajasiga ko'ra farq qiladi. Ijtimoiy guruhlarga taqqoslaganda ijtimoiy birliklar ijtimoiy jihatdan turli jinsliliigi va tashkiliy jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy birliklarga jumladan etnik va konfessional birliklar, ekologik, siyosiy harakatlar, sport yoki havaskorlarning uyushmalari kabi jamoat birlashmalari misol bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy birliklar va guruhlar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi. Jumladan, katta va kichik ijtimoiy guruhlar farqlanadi. Kichik guruh a'zolarining yaqinligi, aloqalarning mustahkamligi, munosabatlarning norasmiyligi, bevosita shaxsiy aloqalar o'rnatilgani, umumiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari amal qilishi bilan tavsiflanadi. Kichik guruhga korxonalar, muassasaning mehnat jamoasi, oila misol bo'lishi mumkin. *Jamoa – umumiy faoliyat, manfaatlar va xulq-atvor qoidalari birligi belgisiga ko'ra uyushgan kichik ijtimoiy guruh (masalan, mehnat, o'quv, harbiy, sport jamoalari).* Oila – jamiyatning nikohga yoki qon-qarindoshlikka asoslanadigan muhim instituti. Oilaviy munosabatlar nasl qoldirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadigan va bolalarni tarbiyalash, ularga jamiyatning madaniy an'analarini singdirishga qulay zamin hozirlaydigan shaxslararo o'zaro aloqalarning norasmiyligi bilan ajralib turadi. Oilaviy munosabatlar qarindoshlik aloqalari bilangina cheklanmaydi: ular oila a'zolarining bir-biri oldida o'zaro ma'naviy javobgarligi, birgalikdagi mehnat va turish-turmush hamda ular bilan bog'liq bo'lgan va huquq bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlar bilan mustahkamlanadi.

Katta ijtimoiy guruhlar – *tarixiy rivojlanish jarayonida vujudga keladigan sinfiy, etnik, hududiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa guruhlardir.* Ular shaxs va jamiyat hayotida juda muhim rol o'ynaydi.

Etnik birliklar. *Etnik birliklar ijtimoiy hayot xo'jalik, hudud, til, odatlar, an'analar, rasm-rusumlar, e'tiqodlarning birligi belgisiga ko'ra tarkib topadigan va etnik birliklarning har xil turlarini tashkil etadigan kishilarning ayrim muayyan-tarixiy jamoalari doirasida kechadi. Urug' mazkur birliklarning ilk shakli. U qon-qarindoshlik belgisiga ko'ra uyushgan odamlar birlashmasi bo'lib, ibtidoiy jamoaning asosiy, ishlab chiqaruvchi va etnik bo'g'ini hisoblangan.* Qabila ikki yoki undan ortiq urug'ning bir necha Yuzdan bir necha minggacha bo'lgan odamlardan iborat birlashmasidir. Qabila umumiy mulk, umumiy boshqaruv, turish-turmushning umumiy jihatlari va ayrim umumiy xo'jalik faoliyatiga ega bo'lgan.

Bir hududda yashaydigan, umumiy xo'jalik faoliyati, til, ruhiyat tarzining xususiyatlari, turish-turmush, madaniyat va hayot tarzining odatlar va an'analarda mustahkamlangan ba'zi bir jihatlari elat va millatni tavsiflaydi. Ammo ularning o'rtasida jiddiy farqlar ham mavjud.

Qabilalarning uyushmalari, aholi migratsiyasi, tilning yaqinligi elat vujudga kelishining omillari hisoblanadi. Ular qon-qarindoshlik, urug'doshlik aloqalarini buzuvchi omillardir. Ammo elatni birlashtiruvchi aloqalar ham ancha shartlidir. Elatni tashkil etadigan qabilalar yashaydigan hudud muhim birlashtiruvchi asos hisoblanadi.

Millatning asosiy o'ziga xos xususiyati – muayyan yaxlit tuzilmaga birlashgan va assimilyasiyalashgan elatlarning faol iqtisodiy aloqalari negizida shakllanadigan moddiy va ma'naviy madaniyatning o'ziga xosligi. Millatga uni tashkil etadigan elatlar uchun umumiy sanalgan til; ruhiyat tarzining umumiyligi; madaniyatning o'ziga xos jihatlari; shakllangan barqaror hayot tarzi; an'analar; tarixiy taqdirning birligi va rivojlangan etnik o'zlikni anglash tuyg'usi meros bo'lib o'tadi. Madaniy rivojlanish, til, umuman milliy o'ziga xoslik muammolariga millatning ta'sirchanligi ayni Shu omillar bilan belgilanadi.

Tabaqalar va sinflar. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishida tabaqalar va sinflar salmoqli o'rin egallaydi. *Tabaqalar – sanoatlashish bosqichidan oldingi jamiyatlarda vujudga kelgan, yuridik yoki odatga asoslangan va avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan huquqlar va burchlarga ko'ra farq qiladigan ijtimoiy guruhlar.* Tabaqaviy bo'linish jamiyatning murakkab ierarxiyaviy tuzilishining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Yirik guruhlar orasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-psixologik maqomiga ko'ra farqlanadigan sinflar alohida o'rin egallaydi. Iqtisodiy belgi sinfning bosh belgisi hisoblanadi, zero sinfiy bo'linish shakllari ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabat hamda mulk shakllari bilan belgilanadi. Hozirgi zamon sotsiologiyasida sinflarni farqlashning boshqa asoslari ham mavjud. Masalan, ijtimoiy guruhlar ega bo'lgan ijtimoiy boyluk ulushiga ko'ra ular oliy, o'rta va quyi sinflarga bo'linadi. Bunda daromad manbai hisobga olinmaydi, Shu bois oliy sinf vakillari orasidan mashhur kinoaktyorlar, estrada yulduzlari va bankirlar ham o'rin olishlari mumkin. Bu hol o'rta va hatto quyi sinflarda ham kuzatiladi. Shuningdek ijtimoiy mehnatni tashkil etishdagi rolga ko'ra boshqaruvchilar sinfi farqlanadi.

Hozirgi zamon jamiyatida yuqori malakali aqliy mehnat bilan professional tarzda Shug'ullanadigan kishilarning katta ijtimoiy guruhi – ziyolilar alohida rol o'ynaydi. Ziyolilar soni tinimsiz ko'payib, ularning jamiyat hayotidagi roli ortib bormoqda. Bu avvalo fan-texnika taraqqiyoti, Shuningdek hozirgi jamiyatda ma'naviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liq. Ziyolilar guruhi o'z kelib chiqishiga ko'ra ham, ijtimoiy maqomiga ko'ra ham turli jinslidir. Tegishli ravishda uning siyosiy mo'ljallari ham har xildir.

Institutlar. Jamiyatning rivojlanish jarayoni alohida muhim vazifalarni bajaradigan va aniq tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan ijtimoiy va siyosiy tashkilotlar – institutlarning tarmoqlangan tizimi yaratilishi bilan tavsiflanadi. *Institutlar jamiyat normal faoliyatining zaruriy omili sanalgan ijtimoiy muhim faoliyatni amalga oshiradi.* Bunday institutlar qatoriga davlat va uning institutlari, partiyalar va harakatlar, ommaviy axborot vositalari, diniy muassasalar, ta'lim va madaniyat muassasalari, sog'liqni saqlash va sanitariya xizmati tizimlari, bozor, banklar va hokozolar kiradi. Ijtimoiy institutlar faoliyati ijtimoiy hayotning barcha jabhalari: oila va ishlab chiqarish, tovarlar va pullar harakati, ishlab chiqarish, iste'mol va hokozolarga nisbatan tatbiq etiladi. Institutlar turli birliklar va guruhlarning manfaatlarini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, ularning samarali o'zaro aloqasini ta'minlaydi, vujudga kelgan ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlaydi va Yangilarini yaratadi.

Hududiy guruhlar. Aksariyat mamlakatlarda hududiy guruhlarining o'zaro munosabatlarida jiddiy muammolar Yuzaga keladi. Bu ma'naviy hayot an'analari va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra farq qiladigan viloyat va markaz, poytaxt va chekka o'lka hamda yirik mintaqalarning munosabatlari bo'lishi mumkin (masalan, AQSH yoki Italiyada SHimol va Janub munosabatlari). Etnik yoki diniy farqlar, bir ma'muriy birlikning boshqa ma'muriy birliklarga hududiy e'tirozlari hududiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirishi mumkin.

Jamiyat rivojlanishiga qarab uning ijtimoiy tuzilmasi murakkablashib boradi. Bu miqdor va sifat jihatidan har xil ijtimoiy guruhlarning o'zaro aloqasi va manfaatlarini muvofiqlashtirishni talab etadi. Ijtimoiy birliklar va guruhlarning turlari ularning o'rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy aloqalar xususiyatini ham belgilaydi. Aloqalar uzoq yoki qisqa muddatli, mustahkam yoki bo'sh va zaif, bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin. Aloqalar xususiyatining shakllanishida manfaatlar

muhim rol o'ynaydi, ularni muvofiqlashtirish vazifasini esa jamiyatning maxsus institutlari, avvalo siyosiy tizim hal qiladi.

Ijtimoiy makon. Moddiy borliq makoni kabi, ijtimoiy makon ham moddiy ob'ektning tuzilishi bilan belgilanadi. Tegishli ravishda ijtimoiy tuzilma va ijtimoiy o'zaro aloqalar ijtimoiy makon xususiyatini belgilaydi. Makondagi aloqalar o'zaro aloqaga kirishayotgan sub'ektlar o'rtasida ma'lum masofa mavjudligi bilan ajralib turishi mumkin. Biz mazkur masofa xususiyatini o'zimiz uchun botiniy tarzda aniqlaymiz va yo uni saqlab qolishga, yo o'zgartirishga harakat qilamiz. Odamlar o'rtasidagi aloqalar ham makon mezoni bilan o'lchanadi. Ular vizual, yo bevosita, yo bilvosita, yo doimiy, yo nomuntazam bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy makon o'zining serdarajaliligi bilan ajralib turadi. Bu ayni bir inson turli birliklarda har xil maqomga ega bo'lishida namoyon bo'ladi (masalan, o'zi mehnat qiladigan ishxonada u xizmat pillapoyasida eng past o'rinni egallaydi, oilada esa boshliq hisoblanadi).

Insonning ijtimoiy makondagi o'rni uning butun umri mobaynida o'zgarib turadi. Bu hol «ijtimoiy mobillik» kategoriyasi bilan tavsiflanadi.

Siyosat. *Jamiyatni boshqarishni amalga oshiruvchi davlat faoliyati va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va muassasalarning o'z ijtimoiy muhim manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun xalq hokimiyati institutlaridan foydalanish borasidagi faoliyati siyosat sohasini tashkil qiladi.* Davlat siyosatining asosiy vazifasi – jamiyatning yaxlitligini ta'minlash, aholini jipslashtirish, qarama-qarshi manfaatlarni ilgari suruvchi ijtimoiy birliklar va guruhlarining munosabatlarini oqilonlashtirish, mazkur vazifalarni hal qilish uchun huquqdan foydalanishdir. Davlat jamiyatning xo'jalik, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jabhalarini mazkur jamiyat normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan darajada tartibga soladi.

Partiyalar va harakatlar siyosatining asosiy vazifasi – xalq hokimiyati institutlariga izchil ta'sir ko'rsatishdir. O'z siyosati bilan ular hokimiyat tuzilmasini yaratishda ishtirok etadilar, ularni qo'llab-quvvatlaydilar yoki vayron qiladilar. Jamiyat rivojlanishining inqirozli davrlarida siyosatning asosiy vazifasi – hokimiyat uchun kurashish va uni turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida taqsimlashdan iborat. Shunday qilib, siyosat boshqaruvchilar va boshqariluvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqa shakli sifatida amal qiladi. Davlat va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyati huquq bilan, Shuningdek jamiyatda hukm suruvchi odatlar va an'analar bilan tartibga solinadi.

Siyosat – ongli yoki stixiyali harakatlar sohasi. U ijtimoiy guruhlar o'z manfaatlarini, hokimiyat esa – o'z siyosiy vazifasini anglab etishini nazarda tutadi. Siyosiy jarayon mazmuni va yo'nalishi asosan fuqarolarning siyosiy mentaliteti bilan belgilanadi. Shu sababli siyosiy ong siyosiy tizimning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U fuqarolarning hokimiyat institutlari bir-biri bilan jamiyat va davlatni boshqarishda o'z ishtirokiga doir aloqalari haqidagi hissiy va oqilona, qadriyatlarga doir va normativ, oqilona va intuiitiv tasavvurlarini qamrab oladi. U fuqaro o'zining muayyan guruhga mansubligini va bundan kelib chiqadigan manfaatlarni anglab etishini, hokimiyatga, o'z fuqarolik maqomiga, o'z huquqlari, erkinliklari va burchlariga nisbatan siyosiy nuqtai nazarini anglab etishini nazarda tutadi. *Siyosiy ong ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini va ularning ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari tizimidagi ahamiyatini anglash sifatida mafkurani o'z ichiga oladi.* Siyosiy mafkura nazariy, dasturiy-siyosiy va empirik darajalardan tarkib topadi. Xususan, empirik daraja jamiyatning ayrim guruhlari siyosiy dasturlarni qay darajada o'zlashtirganini tavsiflaydi. *Siyosiy psixologiya siyosiy ong elementi sifatida ommaning siyosiy xulq-atvorini, ularning kayfiyati, mo'ljallari va odatlarini tavsiflaydi.* Ijtimoiy guruhlarining siyosiy psixologiyasi ommaning siyosiy xulq-atvorida onglilik va stixiyalilikning, oqilona va nooqilona harakatlarning o'zaro nisbati bilan ajralib turadi.

Siyosiy ong ommaning siyosiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U stixiyali tarzda shakllanishi ham, izchil shakllanishi ham mumkin. Shu sababli davlat o'z vazifalariga mos keladigan siyosiy ong shakllanishidan manfaatdor. Siyosiy ongning shakllanishida ommaviy axborot vositalari ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Ular «to'rtinchi hokimiyat» deb nomlanishi bejiz emas.

Kommunikatsiya – siyosiy tizimning zaruriy elementi. U, birinchidan, siyosiy tizim institutlari o'rtasidagi aloqa vositalarini, ikkinchidan, hukumatga axborot uzatish yo'llarini,

uchinchidan, ommaviy axborot vositalarini o'z ichiga oladi. Mazkur axborot tizimlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Ommaviy axborot vositalari nafaqat aholiga axborot beradi, balki hokimiyat vakillari, partiyalar va harakatlarning u yoki bu siyosiy bayonotlarini sharhlaydi, ularga baho beradi, informatsion materiallarni tegishli tarzda saralaydi, fuqarolarning kayfiyati va siyosiy mo'ljallarini shakllantiradi. Umuman olganda siyosiy tizim ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. U o'z vazifalarini bajarish uchun nafaqat o'zining huquq va davlat majburlari institutlaridan foydalanadi, balki jamiyatda vujudga kelgan qadriyatlar va me'yorlar tizimiga tayanadigan va o'z fuqarolarining siyosiy va huquqiy ongini shakllantiradigan ishontirish vositalarini ham ishga soladi.

Taraqqiyotning o'zbek modeli - jamiyatning tadrijiy rivojlanish konsepsiyasi sifatida. *Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg'or tajribasiga, milliy davlatchilik tajribalarimizga va xalqimiz mentalitetiga tayanadi.*

Ijtimoiy rivojlanish borasida xalqlar odatda ikki yo'ldan — inqilobiy va tadrijiy yo'ldan borgan. Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o'zgarishlar yo'li nomaqbul va yaroqsiz ekanini, jamiyatning tadrijiy (evolyusion) taraqqiyoti barqaror — tabiiy rivojlanish yo'li ekanini ko'rsatdi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy yo'li mohiyatini Shunday izohlaydi: «Soxta inqilobiy sakrashsiz, evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir. Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inqilobiy o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchilik bilan — bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilishi lozim bo'lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo'lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bog'liqdir»⁷⁷.

O'zbek modelning asosiy tamoyillari quydagilardir:

- iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi;
- qonun ustuvorligi;
- kuchli ijtimoiy himoyalash;
- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich, tadrijiy yo'l bilan o'tish.

O'zbek modelining o'ziga xos xususiyatlari davlatchilik asoslarining, milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarining tiklanishi va rivojlanishi, demokratik qadriyatlarning rivojlantirilishi va inson huquqlarining kafolatlanishi va boshqalarda o'z ifodasini topmoqda.

O'zbek modelining hayotiyligi jahon jamoatchiligi tamonidan e'tirof qilindi. O'zbekiston tajribasi qator mamlakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. O'zbekona taraqqiyot yo'li ma'naviy hayot va iqtisodiy rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirishda, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyatga bo'lgan e'tiborning kuchayishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'naviy salohiyatning kuchayishi, inson intellektual va axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun puxta zamin yaratadi. Kishilarda Yangicha iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya asoslarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati. Davlat - jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan alohida bir muassasadir. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim yutug'idir.

Jamiyat ma'naviy salohiyatining yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. O'zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalariga Yangicha yondashish zarurati vujudga keladi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an'alarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati Yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Prezident I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning o'zbek modeli konsepsiyasining amalga oshirilishida davlat hal qiluvchi o'rin tutadi. Mamlakatimizning siyosiy,

⁷⁷ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. - Т.: Ўзбекистон, 1992. 41 - бет.

huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy demokratik jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishga qaratilgandir.

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat va nodavlat tashkilotlariga ajratish mumkin. Ularga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg'armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo'mitalari va boshqalar kiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgandir.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish — O'zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. **Fuqarolik jamiyati** kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'pqirrali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilib bajaruvchi jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro keliShuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o'ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O'zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari qo'liga o'ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kuchaytirilishi xalqimizning o'z-o'zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarini kamol toptirish, o'z-o'zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ro'yobga chiqarish maktabidir.

YUrtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O'z navbatida, ma'naviy etuk avlod jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shadi. Shunday etuk kishilarni tarbiyalashda jamiyat to'g'risidagi falsafiy bilim va qarashlarni o'zlashtirish va hayotga tatbiq *etish alohida ahamiyatga egadir.*

Fuqarolik jamiyati, davlat, demokratiya. Hozirgi zamon jamiyati o'ta murakkab va faol ijtimoiy tizimdir. Umuman olganda, uni quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan jamiyat sifatida tavsiflash mumkin:

- u spontan tarzda vujudga keladi va biron-bir boshlang'ich g'oyani o'zida mujassamlashtirmaydi, jamiyatning barcha a'zolari uchun muqarrar bo'lgan olamShumul maqsadga ega bo'lmaydi;
- u o'z hayotining barcha tomonlarini yagona markazdan nazorat qilmaydi;
- unda muvofiqlashtirishga muayyan umumiy maqsad va yagona markazga bo'ysunish hisobiga emas, balki xulq-atvor umumiy qoidalariga rioya etish hisobiga erishiladi;
- mazkur jamiyatning iqtisodiy asosi xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik, markazlashtirishdan chiqarilgan bozor tizimi va raqobatdir;
- uning individlari erkin va mustaqil bo'lib, qonun bilan muhofaza etiladigan shaxsiy hayot sohasiga egadirlar, bu hayot doirasida ular o'zlari istagan har qanday qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilishga haqlidirlar;
- individlar shak-Shubhasiz va uzviy fundamental huquqlar va erkinliklarga, Shu jumladan fikrlash va so'z erkinligi, uyushmalar va tashkilotlar tuzish erkinligi, vijdon erkinligi, bir joydan boshqa joyga ko'chib yurish erkinligi, o'zi istiqomat qiladigan mamlakatni tanlash erkinligiga egadirlar;
- bu ko'ppartiyaviy jamiyat bo'lib, unda siyosiy partiyalar hech qanday bevosita ommaviy-hokimiyat vakolatlariga ega emaslar;
- davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakillik organlari aholi tomonidan saylanadi;
- hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari bir-biridan ajratilgan.

Zamonaviy jamiyatning umumiy tavsifida quyidagi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi: fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, ko'ppartiyaviylik, demokratiya, hokimiyatning bo'linishi, xususiy mulk, bozor, shaxs erkinligi va suvereniteti.

Fuqarolik jamiyati – davlat hokimiyati organlarining to'g'ridan-to'g'ri aralaShuvidan qonunlar bilan muhofaza etilgan ixtiyoriy uyushmalar va tashkilotlar majmui.

Zamonaviy jamiyatda davlat odamlarning shaxsiy hayotiga aralashmaydi, ularni yagona mafkura va qadriyatlar yagona tizimini qabul qilishga majburlamaydi. Kishilarning rang-barang manfaatlari ularning hamkorlikdagi harakatlari orqali ro'yobga chiqariladi, bunga erishish uchun ular davlat oldida hisobdor bo'lmagan ixtiyoriy birlashmalar va uyushmalarga birlashadilar. Odamlarning manfaatlarini aks ettiradigan nodavlat, nohukumat tashkilotlari fuqarolik jamiyatini tashkil etadi. Ular rasmiy statistikaga kirmaydi va ularning hisobini yuritish ancha qiyin ish. CHunonchi, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, AQSHda Yuz minglab bunday tashkilotlar faoliyati 25 mingdan ortiq xayriya fondlaridan mablag' bilan ta'minlanadi. Norvegiyada bu mamlakat fuqarosi hisoblangan har olti kishidan biriga bitta nohukumat tashkiloti to'g'ri keladi.

XIX asr fransuz sotsiologi A.de Tokvil Amerikada demokratiyani qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy sharoitlar to'g'risida mulohaza yuritarkan, amerikaliklarning fuqarolik va siyosiy tashkilotlar tuzishga bo'lgan moyilligiga alohida e'tiborni qaratgan: «Turli yosh, mavqe va qiziqishlarga ega bo'lgan amerikaliklar turli xil uyushmalarga ixtiyoriy ravishda birlashadilar. Bular tijorat yoki ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan, amerikaliklarning barchasi ishtirok etadigan birlashmalargina emas, balki boshqa xil turdagi minglab birlashmalar: diniy-ma'naviy uyushmalar, jiddiy va ahamiyatsiz, ochiq va berk, ko'p kishilik va atigi bir nechta a'zodan iborat birlashmalardir... Shunday qilib, odamlar o'zlarining umumiy xohish-istaklariga muvofiq bo'lgan maqsadga bahamjihat erishish san'atida oliy barkamollikka erishdilar va jamoa harakatining mazkur usulini boshqalarga qaraganda ko'proq qo'llay boshladilar».¹

Fuqarolarning birlashmalari o'z a'zolarida hamkorlik, hamjihatlik va jamiyatga sadoqat tuyg'ulari rivojlanishiga ko'maklashadi. Keng maqsadli guruhga ixtiyoriy qo'shiladigan individlar nafaqat hamjihatlik ko'nikmalarini va kollektiv harakatlar uchun fuqarolik mas'uliyati hissini kasb etadilar, balki o'zini o'zi boshqarish, sabr-toqatlilikni va boshqalar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar.

Davlat doim fuqarolar hayotining barcha tomonlarini o'z nazorati ostiga olishga, ularning tartibga solinmagan faoliyati doirasini toraytirishga, ularni bir-biridan ajratish va tarqatishga harakat qiladi. Fuqarolik jamiyati davlatga o'z faoliyat sohasini kengaytirish va uni kishilarning axloqiy, ma'naviy, diniy, milliy va boshqa munosabatlariga tatbiq etishga yo'l qo'ymaydi. Davlat fuqarolik jamiyatini «yutib yuborishi» totalitarizmga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir.

Fuqarolik jamiyati davlatga muttasil ta'sir ko'rsatadi. Bu Shunday bir ta'sirki, usiz davlat o'z vakolatlari doirasini toraytirishga hech qachon bormagan bo'lur edi. Davlatga fuqarolik jamiyati ta'sirining bosh mexanizmi demokratiya (yunon. «demos» - xalq va «kratos» - hokimiyat) – vaqti-vaqti bilan boshqariluvchilar boshqaruvchilarga o'z hukmini o'tkazishidir. Davlat va fuqarolik jamiyatining bu qarama-qarshiligi va ayni vaqtda o'zaro bog'liqligi erkinlikning muhim shartidir.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining shakllanishi demokratik o'zgarishlarning negizidir. Kishilarni ijtimoiy tartibni ixtiyoriy ravishda, cho'chimasdan qabul qilishga majbur etadigan sharoitlar faqat fuqarolik jamiyatida mavjuddir.

Siyosiy erkinlik – fuqaroning davlatni boshqarishda ishtirok etish huquqi. Bu erkinlik faqat demokratiya sharoitida, ya'ni hamma o'z xohish-irodasini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lgan sharoitlarda ro'yobga chiqarilishi mumkin. «Formal demokratiya, ya'ni erkin, teng huquqli va yashirin ovoz berish huquqi erkinlikning kafolati emas, balki aksincha, unga tahdidir»¹, deb yozadi K.Y.Aspers.

¹ А.де Токвиль. Избранные произведения. –М.: 2003. –С 45.

¹ Ясперс К. Смысл и назначение истории. –М.: 1991. –С 124

Demokratiya mexanizmi samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy shartlaridan biri qonunga zid aralaShuvlardan muhofaza etilgan barqaror fuqarolik jamiyatining mavjudligidir. Shunday shartlardan yana biri huquqiy davlat - qonunlar faqat huquqiy yo'l bilan qabul qilinadigan va hammaga teng tatbiq etiladigan davlatdir. Bunday davlat insonni zo'ravonlikdan himoya qilish orqali unga o'z qarashlari va xohish-irodasini ifoda etish yoki demokratiya uchun imkoniyat yaratadi.

Demokratiya ochiq va hech narsa bilan cheklanmagan bahs-munozara imkoniyatini nazarda tutadi. Bunga erishish uchun matbuot, yig'ilishlar, so'z erkinligi talab etiladi. Demokratiya siyosiy partiyalar mavjudligini ham talab qiladi.

Demokratiyaning samaradorligini ta'minlashning yana bir muhim sharti jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yuksak darajasiga erishishdir. So'nggi ikki Yuz yillik mobaynida sanoat inqilobi g'arb jamiyati hayotining muhim omiliga aylandi. U shahar aholisi sezilarli darajada o'sishiga, sinfiy tuzilishning o'zgarishiga, hayot andozalari, ta'lim va sog'liqni saqlash sezilarli darajada yuksalishiga olib keldi.

Demokratiya siyosatni iqtisoddan va dunyoqarashga oid muammolardan ajratishni, hokimiyatning bo'linishini, samarali faoliyat olib boradigan sud tizimini talab qiladi.

Demokratiya erkin jamiyat qo'lida samarali qurol bo'lib qolishini belgilaydigan omillar ro'yxati u doim muayyan ijtimoiy kontekstda amalga oshirilishini va hokimiyatni saylovda g'alaba qozongan ko'pchilikka beradigan umumiy saylov huquqidangina iborat emasligini ko'rsatadi.

Sivilizatsiya. Sivilizatsiya (lot. *civilis* – fuqarolik, davlatga doir) atamasi har xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, *sivilizatsiya* – *insoniyat rivojlanishida varvarlikdan keyin boshlangan va sinflar, davlat vujudga kelishi, urbanizatsiya va yozuv paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan tarixiy bosqich*. Mazkur talqinda «sivilizatsiya» atamasi «jamiyat» tushunchasi bilan qisman mos keladi va jamiyat hayotini tashkil etishning ijtimoiy shaklini tabiiy vujudga kelgan urug'doshlik shakllariga qarama-qarshi qo'yishga xizmat qiladi. Hozirgi adabiyotlarda «sivilizatsiya» atamasi o'zining varvarlikka qarama-qarshi sifatidagi dastlabki ma'nosini saqlab qolmoqda.

Ikkinchidan, *sivilizatsiya* – *barcha madaniyatlar yaxlitligining tavsifi, ularning umuminsoniy birligi sifatida («jahon sivilizatsiyasi», «ma'rifatli hayot tarzi» va sh.k.)namoyon bo'ladi*.

Uchinchidan, *sivilizatsiya* – *«moddiy madaniyat» atamasining sinonimi sifatida: qulay narsa, texnika yaratadigan qulaylik (turar joy, ro'zg'or texnikasi, transport va aloqa, xizmatlar ko'rsatish va sh.k.)ni ifodalaydi*.

To'rtinchidan, *sivilizatsiya* – *tarixiy jarayon birligining tavsifi sifatida xarakterlanadi*. Bu tushuncha ijtimoiy boylik rivojlanishi munosabati bilan tarixning muayyan bosqichlariga qiyosiy baho berish mezonini bo'lib xizmat qiladi. Ayni holda jamiyatning rivojlanishi «ma'rifatlilik», «sivilizatsiya rivojlanishining quyi bosqichi», «sivilizatsiyaning umumiy darajasi», «sivilizatsiyaning oraliq bosqichlari» tushunchalari bilan tavsiflanadi. Ammo sivilizatsiyaning mazkur talqini to'liq emas, chunki uning rivojlanish darajasi yoki bosqichini aniqlash imkonini beradigan mezon yo'q.

Ibn Xaldun (1332-1406) o'z davrida birinchi bo'lib, sivilizatsiyalarning Yuzaga kelishi, rivojlanishi va tanazzuli haqida ilmiy asoslangan g'oyalarni ilgari suradi. Jumladan madaniyatlar va davlatlarning paydo bo'lishi, yashashi va inqirozi muayyan tarixiy qonuniyat ekanligini, unga tabiiy geografik va iqtisodiy omillar, turmush tarzi va dunyoqarashlar jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aytadi.

XVIII asr o'rtalarida sivilizatsiya tushunchasidan inson «tabiiy» holatining ziddi sifatida foydalanilgan, sivilizatsiya taraqqiyotining mezonini sifatida esa ijtimoiy farovonlik g'oyasi turli ko'rinishlarda ilgari surilgan. Kant sivilizatsiya va madaniyat o'rtasida farq mavjudligini qayd etgan. SHpengler sivilizatsiyaning madaniyatning rivojlanishidagi bir bosqich sifatida tavsiflab, bu farqni mutlaqlashtirgan. Uning (keyinchalik P.Sorokin, A.Toynbi va boshqa mutafakkirlarning) konsepsiyasida sivilizatsiya madaniyatning zavol topish bosqichi sifatida, madaniyatda mujassamlashgan tabiiy-hayotiy asosni siqib chiqaradigan texnik-mexanik elementlar saltanati sifatida tavsiflanadi.

XIX-XX asrlarda amalga oshirilgan etnografik tadqiqotlar sivilizatsiyaning mazmunini tushunishga muhim hissa qo'shdi. Ular turli xalqlar ma'naviy dunyosi, hayoti, odatlari, iqtisodiyoti va madaniyatining ulkan boyligi va rang-barangligini yoritib berdi. XIX asrning mashhur etnograflaridan biri CH.Teylor madaniyat va sivilizatsiya odamlar tarix jarayonida o'zlashtiradigan bilimlar, e'tiqodlar, ma'naviy-axloqiy konsepsiyalar, yuridik qoidalar, odatlar va amaliy ko'nikmalar majmuini ifodalaydi deb hisoblab, bu tushunchalar aynidir degan xulosaga keldi.

I.A. Karimov "Har qanday sivilizatsiya ko'pdan ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali tar'sirining mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda ko'chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi"¹ deb ta'kidlaydi.

Sivilizatsiya odamlar mavjudligi va ijtimoiyligining xususiyati va yo'nalishini belgilaydi. Ijtimoiy normalarning muhimligi ularni uzatishning tegishli usullari (kommunikatsiya vositalari)ni va ularni mustahkamlovchi institutlarni shakllantirishni taqozo etgan. Har bir sivilizatsiya ijtimoiy normalarda o'ziga xos ifodasini topgan ijtimoiy tajribani aniqlash, saqlash va avloddan-avlodga qoldirish alohida tizimini yaratgan. Jazolar tizimi, Shuningdek jamoa, ommaviy ong shakli sifatida din va uning nomidan ish ko'ruvchi ijtimoiy institutlar ijtimoiy normalarni saqlash va ijro etish kafili hisoblangan. Din va cherkov ta'sirida sivilizatsiya qiyofa kasb etgan. Huquqiy normalarning tarmoqlangan tizimini o'z ichiga olgan davlatdan iborat oliy hokimiyat sivilizatsiyaning uni saqlashni kafolatlaydigan oliy birlashtiruvchi asos sifatida amal qilgan. Turli sivilizatsiyalar davlat hokimiyatining turli: teokratik, tabaqaviy, huquqiy, siyosiy tizimlarini yaratgan.

Markaziy Osiyoda sivilizatsiya axloq shaklida Yuzaga kelgan. U o'zida yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat o'rtasidagi kurashda yaxshilik va muhabbat g'alabasi bilan bog'liq ma'naviy axloqiy me'yorlarni mujassamlashtirgan. Inson mohiyatida aks etuvchi bu me'yorlar Sharq sivilizatsiyasining asosini tashkil qilgan.

Ijtimoiy munosabatlar, odamlar faoliyati va xulq-atvorini tartibga soluvchi normalar universal tizimining ta'sirini o'rganish sivilizatsiyalarning rang-barangligini tushuntirish imkonini beradi. Ular, birinchidan, hukmron diniy va dunyoqarashga doir mo'ljallarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayondagi o'rni bilan; ikkinchidan, ularning texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan; uchinchidan, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar sur'ati, Shuningdek ularning manbalari, mexanizmlari xususiyati va uyg'unlik darajasi bilan farq qiladi. Sivilizatsiyaning har bir tipi siyosiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari va o'z huquqiy qoidalarining xususiyati bilan tavsiflanadi. Sivilizatsiyalar axborotni kodlashtirish, saqlash va avloddan-avlodga qoldirish usullari bilan ham bir-biridan farq qiladi.

Jamiyatning sivilizatsion asoslari sivilizatsiyalar tipologiyasida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Bunda sivilizatsiyalarning evropacha va noevropacha tiplarini farqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu farqlar Shu darajada kattaki, evropacha sivilizatsiya qadriyatlar uzoq vaqt oliy qadriyatlar sifatida tavsiflangan. Xo'sh, evropacha va noevropacha sivilizatsiyalar o'rtasidagi farq nimada?

Sivilizatsiyalarning tiplari. Noevropacha sivilizatsiyalar ancha katta guruhni tashkil etadi (A.Toynbi tasnifiga ko'ra, bunday sivilizatsiyalar 21 ta). Bu sivilizatsiyalarning aksariyati betakror tarzda o'ziga xos va ayni vaqtda umumiy tipologik jihatlarga ega. Bular evropacha sivilizatsiyadan ancha oldin vujudga kelgan an'anaviy sivilizatsiyalardir. An'anaviy jamiyat juda sust rivojlanadi va mavjud hayot tarzini asrlar va hatto ming yilliklar osha saqlashga qodir. Noevropacha sivilizatsiyalarning xo'jalik faoliyati qishloq xo'jalik-hunarmandchilik ishlab chiqarishi va texnologiyasining hukmronligiga asoslanadi. An'anaviy sivilizatsiyaning ma'naviy sohasida diniy-mifologik tasavvurlar hukm suradi, ilmiy bilimlarning dastlabki shakllari asosan mavjud faoliyat turlari uchun retseptura vazifasini bajaradi. Noevropacha sivilizatsiyalar evolyusiyasi siklliligi va o'ziga xos institutlar va normalarga ega bo'lgan davlat vaqti-vaqti bilan dam kuchayib, dam zaiflashib turishi bilan tavsiflanadi. Bunday jamiyat halokati sivilizatsiya tipini o'zgartirmaydi, u ijtimoiy vorisiylik mexanizmlari yordamida avloddan-avlodga o'tadi.

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.-Т.: Шарк, 1998.-Б.21

Evropacha sivilizatsiya ijtimoiy va madaniy rivojlanishning alohida tipi bo'lib, u Evropada taxminan XV-XVII asrlarda shakllangan. Uning o'tmishdoshlari antik dunyo madaniyatlari va Evropa xristiancha an'anasidir. Uyg'onish davrida bu ikki an'ana sintezi texnogen sivilizatsiyaning teran o'ziga xosligini va uning texnika va texnologiya jadal sur'atlarda rivojlanishini, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar tubdan o'zgarishini ta'minlagan madaniyatini shakllantirdi. Uning zamirida huquqiy davlatning vujudga kelishi, shaxs o'z tashabbuskorligi, faolligi va mustaqilligi bilan oliy qadriyat sifatida ijtimoiy hayot markazidan o'rin olishi yotadi. Odamlar o'rtasida muloqotning faollaShuvi va samarali kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi texnogen sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Madaniyatda ilmiy oqilonalik alohida o'ziga xos qadriyat sifatida hukm suradi. Inson tabiatni faol va oqilona tarzda o'zgartirishiga imkoniyat yaratgan qonunlarning kashf etilishi fanning ustunligini tasdiqlaydi. Unda Yangilik va unumdorlik, biluvchi sub'ektning bilimi, erkinligi va mustaqilligini tinimsiz oshirish talablari shakllanadi.

Sivilizatsiyaning «evropacha» va «noevropacha» tiplari tushunchalari umumiy, muhim, jins bildiruvchi belgilarni qamrab oladi. Mazkur tiplar doirasida mavjud turga oid farqlar pirovard natijada jahon tarixida evropacha sivilizatsiyaning betakrorligini e'tirof etish bilan bog'liq. Ayrim mutaxassislar fikriga ko'ra, u an'anaviy jamiyat madaniyatining mutatsiyasi natijasida vujudga kelgan va insoniyat tarixida uning o'xshashi mavjud emas. Shunga qaramay sivilizatsiyalar tipologiyasi evropacha va noevropacha rivojlanish xususiyatlari bilan cheklanmaydi, chunki insoniyat tarixida ozmi-ko'pmi o'xshash bo'lgan ko'p sonli sivilizatsiyalar mavjud.

Jumladan, *madaniy-tarixiy birlik belgisiga ko'ra G'arbiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Evropa mamlakatlarini, Shuningdek evropacha sivilizatsiyaga mansub bo'lgan, lekin o'z madaniyatining xususiyatiga ko'ra farq qiladigan AQSH va Kanadani farqlash mumkin.*

Vujudga kelish va halok bo'lish davriga ko'ra hozirgi zamon sivilizatsiyalari va o'lik sivilizatsiyalar (masalan, meksika, xaldeylar yoki qadimgi somiylar sivilizatsiyasi) farqlanadi.

Sivilizatsiyalar tipologiyasida madaniy-diniy birlik belgisi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. A.Toynbi, S.Xantington va boshqa olimlar taklif qilgan sivilizatsiyalar tasnifida diniy omil muhim rol o'ynaydi. *A.Toynbi tasnifiga ko'ra hozirgi vaqtda G'arb-xristian, pravoslav-xristian, islom, hind, Uzoq Sharq sivilizatsiyalari mavjud.*

O.Toffler, D.Bell, K.Pekka ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini tasniflash uchun asos qilib olib, *quyidagi sivilizatsiyalarni farqlaydilar:*

- *ilk sivilizatsiya (arxaik, an'anaviy yoki ibtidoiy jamoa);*
- *qishloq xo'jalik-hunarmandchilik sivilizatsiyasi;*
- *industrial (sanoatlashgan) sivilizatsiya;*
- *hozirgi postindustrial yoki informatsion sivilizatsiya.*

Ijtimoiy-siyosiy hayot xususiyatiga ko'ra an'anaviy, liberal va oraliq sivilizatsiyalar farqlanadi.

Liberal sivilizatsiya yoki *G'arb sivilizatsiyasi madaniy va siyosiy plyuralizm hamda jamiyatning asosiy qadriyati – huquq tizimining vujudga kelishi bilan bog'liq.* Uning ildizlari xususiy mulk va erkin bozor hukm surgan davrda vujudga kelgan antik sivilizatsiyaga borib taqaladi. O'z navbatida, bozor va xususiy mulk individ uchun kafolatlarni, mulkdor imtiyozlarini, mulkdorlar guruhining ma'muriyatdan ustunligini, shaxs erkinligi va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish tamoyillarini o'z ichiga olgan huquqiy tamoyillar va institutlar tizimi vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

An'anaviy sivilizatsiyalar *ijtimoiy hayotning varvarlikka chek qo'yish bilan bog'liq dastlabki shaklidan iborat.* Bular barcha a'zolari bevosita emotsional muloqot jarayonida bo'lgan nisbatan kichkina lokal hamjamiyatlardir. Ular jamoa qadriyatlarining ustunligi, qabila oqsoqollariga nisbatan hurmat, o'tmishga qarab mo'ljal olishga asoslangan. An'anaviy sivilizatsiyaning o'ziga xos jihatlari – past malakali, lekin ancha keng byurokratiyaga tayanuvchi jabr-zulmga asoslangan hokimiyat, tabaqalarning huquqsizligi, jamoaviy tuzilma, huquqning norasoligi, individning kamsitilishi kabilardir.

Oraliq sivilizatsiya yoki *o'tish davri sivilizatsiyasi ulkan inshootlar (to'g'onlar, kanallar va sh.k.) barpo etish, Yangi hududlarni bosib olish yoki o'z hududini tashqi dushmandan himoya qilish*

(masalan, *Buyuk Xitoy devori*) zaruriyati tufayli vujudga keladi. Natijada an'analari va qadriyatlariga ko'ra har xil lokal hamjamiyatlarning mexanik birlashuvi Yuz beradi. Mazkur birlashuv rasmiy xususiyat kasb etadi va idrok etish ancha qiyin bo'lgan normativ-huquqiy qoidalarga muvofiq va jamiyatni tashkil etishning lokal hamjamiyatlar ko'nikkan hayot tarziga zid bo'lgan shakllarida amalga oshiriladi. Aksariyat hollarda jamiyatni birlashtirish vazifasi davlat tomonidan va asosan kuch ishlatish yo'li bilan hal qilinadi. Ayni Shu sababli normalar tizimi asosan birlashtiruvchi mexanizm sifatidagi davlat ehtiyojlarini aks ettiradi. Bundan o'tish davri sivilizatsiyalariga xos bo'lgan huquqiy nihilizm kelib chiqadi. Davlat qadriyatlari va lokal hamjamiyatlarning qadriyatlari asosan bir-biriga zid bo'lgani bois ularning o'rtasida to'qnashuv Yuz berishi mumkin. Qattiq davlat intizomi, ko'p sonli soliqlar to'lash, amaldorlarning o'zboshimchaligi, rekrut majburiyati, urushlarda ishtirok etish zaruriyati kabi davlatning bu talablari aholining aksariyat qismida norozilik uyg'otadi.

Shunday qilib, jamiyatning muhim xususiyatlari ijtimoiy hayotni tashkil etishning keng ko'lamli shakli sanalgan sivilizatsiyaga asoslanadi. Sivilizatsiyalar vaqtda va makonda o'ta barqaror bo'ladi, individlar va ijtimoiy guruhlarning aloqalarini tartibga soladigan va jamiyatning moddiy asoslarini ham, ma'naviy asoslarini ham belgilaydigan umumiy normalarga asoslanadi. Ular madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning umumiy shakllarini yaratib, jamiyat hayotining tizim tashkil etadigan muhim asosi sifatida amal qiladi. *Sivilizatsiya – avlodlar vorisiyiligini ta'minlovchi tarixiy tajriba manbaidir.*

Sivilizatsiya ijtimoiy hayotning barcha omillarini: madaniyat va madaniyatsizlikni, yutuqlar va kamchiliklarni o'zida birlashtiradi. Ma'lumki, jamiyat rivojlanishiga qarab uning normalari eskirib boradi. Ular mazkur sotsiumning o'zgargan yashash sharoitlari bilan to'qnashib, uning mavjudligiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid soladi. Ammo muhimi Shundaki, normalar o'z holicha jamiyatning saqlanishini kafolatlamaydi, ular mazkur normalarga amal qilishga, ulardan o'z faoliyatida foydalanishga, ularni o'ziga xos tarzda talqin qilishga qodir bo'lgan odamlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu sababli madaniyat sivilizatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

4. Qadriyat tushunchasi va uning umumiy tavsifi. Qadriyatlar va baholar.

Atrof borliqda odamlar e'tiboridan chetda qoladigan, ular qadriyat sifatida qaramaydigan hodisalar juda kam. Shu sababli qadriyatlar tabiat hodisalari, jamiyatdagi jarayonlar, insoniy xatti-harakatlar va tuyg'ular kabi ko'pdir. Ammo bu fikr biz ayrim insonni emas, balki butun insoniyatni nazarda tutgan taqdiridagina o'rindir. Ayrim insonda qadriyatlar, ya'ni uni qiziqtirgan hodisalar doirasi juda tor, cheklangan bo'lishi ham mumkin. Inson shaxsiyatining torligi uning hayot qadriyatlari, qiziqishlari sonining ozligi va ularning xususiyatida namoyon bo'ladi.

Jamiyatda mavjud qadriyatlarning rang-barangligi ularni tasniflash zaruriyatini belgilaydi. Shuni qayd etish lozimki, hozirgi zamon aksiologiyasida bu muammoni echishga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Shu sababli, turli konsetsiyalar doirasida ilgari surilgan bu muammoni echishga nisbatan yondashuvlarni umumlashtirib, qadriyatlarni ijtimoiy hayot sohalariga ko'ra; qadriyatlarining sub'ektlari yoki manbalariga ko'ra; qadriyatlarining jamiyatdagi roliga ko'ra tasniflash mumkin. Quyida ularni tahlil qilishga harakat qilamiz

Qadriyatlar haqidagi ta'limot yaqinda vujudga kelgan deb hisoblash odat tusini olgan. Ammo bu noto'g'ri. Falsafa tarixida ildizlari ilk falsafiy tizimlarga borib taqaluvchi ancha kuchli qadriyatlarga doir an'anaga duch kelish mumkin. Qadimgi davrdayoq faylasuflarni qadriyatlar muammosi qiziqtirgan. Ammo o'sha davrda qadriyat borliq bilan ayniylashtirilgan, qadriyatga xos bo'lgan xususiyatlar esa uning mazmuniga kiritilgan. Masalan, Zardo'sht, Moniy, Suqrot va Platon uchun yaxshilik va adolat kabi qadriyatlar haqiqiy borliqning bosh mezonlari hisoblangan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar qadriyatlarni tasniflashga harakat qilganlar. Xususan, Moniy zulmat va ziyo dunyosi mavjud, birinchi dunyoda adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik, ikkinchisida esa abadiy, engilmas doimiy qadriyatlar hukm suradi deb xisoblaydi Aristotel o'ziga to'q qadriyatlarni (ular jumlasiga faylasuf inson, baxt, adolatni kiritgan) va anglab etish imkoniyati insonning oqilligiga bog'liq bo'lgan nisbiy qadriyatlarni farqlaydi.

Turli falsafiy davrlar va ularda mavjud bo'lgan falsafiy maktablar qadriyatlar tushunchasining shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan. Masalan, O'rta asrlarda g'arbda ham Sharqda ham qadriyatlar diniy xususiyat kasb etgan va ilohiy mohiyat bilan bog'langan. Uyg'onish davrida A.Navoiy, A.Jomiy, Rumi, Leonardo da Vinche ijodida insonparvarlik va hurfiylik qadriyatlari birinchi o'ringa chiqqan. Jumladan A.Navoiyning odil jamiyat qurish haqidagi g'oyasida umuminsoniy qadriyatlar tizimi, komil inson ta'limotida esa eng etuk inson qiyofiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ifodalangan.

Yangi davrda qadriyatlar haqidagi ta'limotga nisbatan yondashuvlar ratsionalizm nuqtai nazaridan tavsiflana boshlanganki, bu hol fanning rivojlanishi va Yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan izohlanadi. Bu davrda qadriyatlar va ularning mezonlari muammosi Rene Dekart, Benedikt (Barux) Spinoza, Klod Adrian Gelvetsiy, Pol Anri Golbax, A. Avloniy, A.Donish, Furqat, Muqumiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Jumladan A.Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asarida "yaxshi xulqlar- muhabbat, yaxshilik, adolat, haqiqat, shijoat, ibrat kabi ijobiy qadriyatlarni va razolat, g'iybat, jaholat, adovat kabi "yomon xulqlar"ni farqlaydi. Keyinroq XX asrda o'zbek faylasufi S.Shermuxamedov Avloniy g'oyasini davom ettirib insonga tabiat 36 ta ijobiy fazilat va 36 ta salbiy illat ato etganligini, ularning qay darajada namoyon bo'lishi inson o'z hayotining qadriga etishida ko'rinishini e'tirof etadi.

Immanuil Kant falsafasi qadriyatlar haqidagi ta'limotning rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi. Kant mavjudlik va joizlik, voqelik va ideal, borlik va yaxshilik tushunchalarini birinchi bo'lib farqladi, erkinlik sifatidagi axloqiylik muammosini zaruriyat qonuni ta'siri ostida bo'lgan tabiat sohasiga qarama-qarshi qo'ydi va h.k.

Qadriyatlar nazariyasi falsafiy bilimlarning ilmiy tizimi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida Vilgelm Vindelband, Rudolf Lotse, German Kogen, Genrix Rikkert kabi nemis faylasuflarining asarlarida shakllana boshladi. Ayni Shu davrda

R. Lotse va G.Kogen ob'ekt ma'nosidagi qadriyat tushunchasiga ilk bor falsafiy ta'rif berdi. XX asrning boshida fransuz faylasufi P.Lapi qadriyatlar nazariyasini ifodalash uchun «aksiologiya» (yunon. axios - qadriyat, logos – fan, ta'limot) atamasini muomalaga kiritdi. Keyinchalik aksiologiya muammolari fenomenologiya, germevtika, ekzistensializm va boshqa falsafiy yo'nalishlarning vakillari tomonidan tadqiq etildi.

Mamlakatimizda aksiologiya qadriyatlar haqidagi fan sifatida sho'ro davrida, uning nazariy asosini idealistik falsafa tashkil qilgani uchun rad etildi. XX asrning 80-yillaridan e'tiboran bu nazariya rivojlana boshladi. Bu dastlab X. SHayxova, Q. Nazarov ijodida milliy qadriyatlarning asosiy shakllari, inson qadri va shaxsiy qadriyatlarning tahlilida, so'ngra bir qancha yosh olimlar ijodida o'z ifodasini topdi. Xususan, Q.Nazarov inson qadri haqida fikr yuritarkan, "Qarilik iborasini insonga nisbatan biologik ma'noda ishlatish mumkin, ammo bu tushunchani inson qadriga va qadriyatlariga nisbatan ishlatish nojoiz. Zero, qarilik qadrsizlanish bo'lmagani kabi yoshlik ham beqadrlik degani emas"¹ deb ta'kidlaydi. Binobarin o'z shaxsi va boshqalarning qadriyatini anglash uchun insonning ma'naviy dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatarga ega bo'lishi, uning o'zi esa hayotning bebaho ne'mat ekanligini anglaydigan darajada tarbiyalangan bo'lmog'i lozim.

Demak, qadim zamonlardan boshlab hozirgi vaqtgacha falsafada qadriyat muayyan narsaning atributimi yoki u shaxs va jamiyat ehtiyojlari bilan belgilangan baholash mahsulimi, degan masala atrofida turli falsafiy maktablar va yo'nalishlarning vakillari o'rtasida muhokama qilingan va u hozir ham davom etmoqda. Birinchi holda qadriyat insondan qat'iy nazar mavjud bo'lgan ob'ektiv narsa yoki hodisa sifatida talqin qilinadi. Ikkinchi holda qadriyat tushunchasi erkin xususiyatga ega bo'lgan sub'ektiv nisbiy mulohazalar bilan bog'lanadi. Qadriyatlar mazmuni ob'ektlardan emas, balki insonning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bu ikki qarama-qarshi nuqtai nazar qadriyat tushunchasining ba'zi bir xususiyatlarini aks ettiradi, lekin u haqda aniq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi.

¹ Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). -Т.: ЎФМЖ. 2004.-Б.109

Qadriyat voqelikning, ya'ni tabiat, jamiyat yoki madaniyat hodisalarining xossasi, degan fikrga qo'shilsak, haqiqat va qadriyatning ayniylashtirilishi muqarrardir. Ammo aksiologiyaning: «Baxt-saodat nima?», degan asosiy masalasini birinchi bo'lib ta'riflagan Suqrot haqiqat va qadriyat o'rtasida jiddiy farqlarni ko'rsatib bergan. Bilim baxt-saodatga erishishning muhim sharti, lekin u mazkur qadriyatga erishishning birdan-bir sharti emas. Bu hol Shu bilan izohlanadiki, tabiat va jamiyat predmetlari va hodisalari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni anglab etish yo amalda nima mavjudligi haqidagi bilim shaklida, yo bu borliq qanday bo'lishi lozimligi, inson tabiatga va boshqa odamlarga nisbatan o'zini qanday tutishi kerakligi haqidagi tasavvur ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holda predmet haqidagi bilim uning haqiqiyliги yoki soxtaligi nuqtai nazaridan, ikkinchi holda – predmetning qimmatı, ya'ni uning inson uchun ahamiyati nuqtai nazaridan tavsiflanadi.

Xo'sh aksiologiya nimani o'rganadi? *Aksiologiya – falsafaning qadriyatlarni o'rganish bilan Shug'ullanuvchi alohida bo'limi (yunon. axios - qadriyatlar, logos – bilim: qadriyatlar haqidagi fan).* Qadriyatlar ulkan falsafiy ahamiyatga ega. *Qadriyatlar tushunchasi insonning dunyoga bo'lgan munosabatining alohida jihatini namoyon etadi. Ular inson faoliyati, jamiyat va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini yanada teranroq anglab etish imkonini beradi.* Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi, chunki insonning hayot tarzini, uning hayvonot dunyosidan ajralish darajasini aynan qadriyatlar tavsiflaydi. Qadriyatlar shaxsning hayot faoliyatida fundamental ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar odamlarni jipslashtirish, ularni hamjamiyatlarga birlashtirishning muhim omili hisoblanadi. Umumiy qadriyatlarning mavjudligi fuqarolar, ijtimoiy birliklar va guruhlarning tinch-totuvligini ta'minlaydi. Qadriyatlar muammosi jamiyat rivojlanishining o'tish davrlarida, tub ijtimoiy o'zgarishlar jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar tizimlarida o'zgarishlar yasab, odamlarni yo o'zlari ko'nikkan eski qadriyatlarni saqlash, yo turli partiyalar, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar, harakatlarning vakillari tomonidan taklif qilinayotgan, hatto majburiy tarqatilayotgan Yangi qadriyatlarga moslashishga majbur etuvchi davrlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar va mo'ljallarni yo'qotish yoki vujudga kelgan qadriyatlar tizimidan voz kechish esa muqarrar tarzda jamiyatning tanazzulga Yuz tutishi va parchalanishiga olib keladi. Qadriyatlar – madaniyatning tizim yaratuvchi muhim omili. Qadriyatlar mazmuniga qarab butun jamiyat haqida hukm chiqarish mumkin. Shu sababli qadriyatlar nima, qadriyat va bahoning o'zaro munosabati qanday, qaysi qadriyatlar inson uchun eng muhim va qaysilari ikkinchi darajali, degan savollar bugungi kunda olamShumul ahamiyat kasb etadi. Aksiologiyaning predmetini barcha turdagi qadriyatlar, ularning tabiati, turli qadriyatlarning bir-biri, ijtimoiy va madaniy omillar hamda shaxs strukturasi bilan aloqasi tashkil etadi. Aksiologiya ta'limotiga ko'ra, qadriyatlar muayyan normativ kategoriya bo'lib, ular maqsad, ideal, mayl, intilish, qiziqish predmeti sanalgan hamma narsani qamrab oladi. Quyidagilar bu nazariyaning asosiy tushunchalari va kategoriyalari hisoblanadi: yaxshilik, qadr-qimmat, foyda, ahamiyat, baho, g'alaba, hayotning mazmuni, baht, hurmat va h.k.

Qadriyatning tabiati va mohiyatini tushunishga nisbatan bir necha yondashuv mavjud bo'lib, ular aksiologiya falsafiy tadqiqotlarning mustaqil sohasi sifatida vujudga kelganidan so'ng paydo bo'lgan. Quyida ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

1. **Naturalistik psixologizm** (Aleksius fon Meynong, Ralf Barton Perri, Jon Dyui, Klarens Irving Lyuis) qadriyatlarga manbai insonning biologik va psixologik ehtiyojlarida mujassamlashgan ob'ektiv omillar sifatida qaraydi. Mazkur yondashuv inson o'zining muayyan ehtiyojlarini qondirish jarayonida foydalanuvchi har qanday predmetlar va harakatlarni qadriyatlar qatoriga kiritish imkonini beradi.

2. **Personalistik ontologizm.** Mazkur yo'nalishning eng taniqli namoyandasi Mark SHeler ham qadriyatlarning ob'ektiv xususiyatini asoslashga harakat qilgan. Ammo, SHeler konsepsiyasiga binoan, muayyan predmetlar, hodisalar qadriyatini ularning empirik tabiati bilan ayniylashtirish mumkin emas. Aytaylik, rang o'zi tegishli bo'lgan predmetlardan qat'iy nazar mavjud bo'lishi mumkin bo'lganidek, qadriyatlar ham (go'zallik, ezgulik, fojeaviylik) o'zlari tavsiflovchi narsalardan qat'iy nazar idrok etilishi mumkin.

SHeler fikriga ko'ra, qadriyatlar dunyosi muayyan ierarxiyaga ega. Bu ierarxiyaning quyi pog'onasini hissiy mayllarni qondirish va moddiy ne'matlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar egallaydi; yuksakroq qadriyatlar – bu «go'zallik» qadriyatlari va «ma'rifiy» qadriyatlar; «ilohiylik» va Xudo g'oyasi eng oliy qadriyat hisoblanadi. Bu qadriyatlar dunyosining realligi ilohiy shaxsning qadriyatiga asoslanadi. Inson shaxsining tipi esa unga xos bo'lgan qadriyatlar ierarxiyasi bilan belgilanadi. Ayni Shu ierarxiya mazkur shaxsning ontologik asosi hisoblanadi.

3. **Aksiologik transsendentalizm** (Vilgelm Vindelband, Genrix Rikkert) qadriyatlarni ob'ektiv borliq sifatida emas, inson ehtiyojlari va mayllariga bog'liq bo'lmagan ideal borliq sifatida tuShunadi. Bunday qadriyatlar qatoriga mustaqil mazmun kasb etadigan va ideal me'yorlar tarzida mavjud bo'lgan qadriyatlar – haqiqat, yaxshilik, adolat, go'zallik kiradi. Shunday qilib, mazkur konsepsiyada qadriyat borliq emas, balki manbai muayyan transsendental, ya'ni g'ayrioddiy ong sanalgan idealdir.

4. **Madaniy-tarixiy relyativizm.** Aksiologiyaning bu yo'nalishi asoschisi Vilgelm Diltey bo'lgan. Uning ta'limoti zamirida aksiologik plyuralizm g'oyasi yotadi. Aksiologik plyuralizm deganda Deltey tarixiy metod yordamida farqlanuvchi va tahlil qilinuvchi teng huquqli qadriyatlar tizimlarining ko'p sonliligini tuShungan. Mohiyat e'tibori bilan bu yondashuv real madaniy-tarixiy kontekstni mavhumlashtirib, qadriyatlarning birdan-bir to'g'ri, mutlaq konsepsiyasini yaratish yo'lidagi urinishlarni tanqid tig'i ostiga olgan.

5. **Qadriyatlarning sotsiologik konsepsiyasi.** Bu konsepsiyaning asoschisi qadriyatlar tushunchasini sotsiologiyaga kiritgan va undan ijtimoiy harakat va ijtimoiy bilimni talqin qilish uchun foydalangan Maks Veberdir. Veber fikriga ko'ra, qadriyat – ijtimoiy sub'ekt uchun muayyan ahamiyatga ega bo'lgan me'yor.

Keyinchalik Veberning bu yondashuvini amerikalik sotsiolog Uilyam Tomas va polyak sotsiologi Florian Znanetskiy rivojlantirdi. Bu olimlar qadriyatlarni ularning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridagina emas, balki ijtimoiy mo'ljallar orqali ham tavsiflay boshladilar. Ularning fikriga ko'ra, tavsiflash mumkin bo'lgan mazmunga va muayyan ijtimoiy guruh a'zolari uchun ahamiyatga ega bo'lgan har qanday predmet qadriyat hisoblanadi. Mo'ljallar esa guruh a'zolarining qadriyatga bo'lgan sub'ektiv munosabatini anglatadi.

Hozirgi zamon falsafiy va sotsiologik adabiyotlarida ham qadriyatlarning tabiati va mohiyatini tushunishga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim tadqiqotchilar qadriyatga insonning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yoki unga muayyan foyda keltirishga qodir bo'lgan predmet sifatida; ayrimlar – ideal, me'yor sifatida; yana bir guruh olimlar – biron-bir narsaning inson yoki ijtimoiy guruh uchun ahamiyati sifatida yondashadilar. Zikr etilgan yondashuvlarning har biri mavjud bo'lish huquqiga ega, chunki ularning barchasi qadriyatlarning muayyan jihatini aks ettiradi; ularga bir-birini istisno etuvchi yondashuvlar sifatida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar sifatida qarash kerak. Mazkur yondashuvlar sintezi hozirgi zamon qadriyatlar umumiy nazariyasini tashkil etadi.

Qadriyat kategoriyasining mazmuni. Qadriyatlar umumiy nazariyasi muammolariga va uning eng muhim kategoriyalariga batafsilroq to'xtalamiz. Avvalo mazkur nazariyaning asosiy tushunchasi - qadriyat kategoriyasining mazmuniga oydinlik kiritamiz. Bu so'zning etimologik ma'nosi ancha sodda bo'lib, atamaning o'ziga mos keladi: qadriyat – odamlar qadrlaydigan narsa. Narsalar yoki buyumlar ham, tabiat hodisalari ham, ijtimoiy hodisalar ham, insonning xatti-harakatlari ham, madaniyat hodisalari ham qadriyat bo'lishi mumkin. Ammo «qadriyat» tushunchasining mazmuni, uning tabiati oddiy ong tasavvur qilganidek sodda emas. Qadriyat, xuddi haqiqat kabi, xossa emas, balki fikr va voqelik o'rtasidagi munosabatdir. Inson o'zining individual tajribasiga asoslanib, o'zi uchun muhim bo'lgan ob'ekt bilan o'z ehtiyojlari va manfaatlari o'rtasida aloqa mavjudligini anglab etadi.

Inson uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan narsa yoki hodisa qadriyat hisoblanadi. Muhimlik narsaning o'zidagi xossalari bilan emas, balki ularning inson hayotidagi ahamiyati bilan belgilanadi. Kant tafakkur qadriyatlarning manbalarini va ularni maqbul narsaga aylantiruvchi qadriyatlar o'lchovini anglab etishga qodir ekanligini qayd etadi. Tabiat va madaniyat predmetlari sanalgan manbalar bo'lmasa, qadriyatlar ham bo'lmaydi. Qadriyatlar o'lchovi esa, ayrim

mezonlarning mavjudligini nazarda tutadi. Muayyan predmetning mazkur mezonlarga muvofiqligi uni shaxs yoki jamoa uchun qadriyatga aylantiradi. Maqbullik sub'ektiv darajada baholash, ya'ni turli hodisalarning inson uchun ahamiyatini aniqlash tarzida amal qiladi. Mazkur hodisalarning inson uchun ahamiyati uning ijtimoiy pozitsiyasi, dunyoqarashi, madaniyat, aql-zakovat va ma'naviyat darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli qadriyatning borlig'i intellektual darajadagina emas, balki emotsional darajada ham anglab etiladi. O'z-o'zidan ravshanki, sub'ektiv maqbul narsa yoki hodisa bilan qadriyat o'rtasida to'qnaShuv Yuz berishi mumkin. Masalan, inson uchun muhim madaniy hodisa – o'yinni ko'pchilik faqat bolalikdagina kechishi mumkin bo'lgan behuda va befoyda faoliyat deb hisoblaydi. SHiller, aksincha, o'yinning inson uchun ahamiyatini qayd etib, : «Inson so'zning to'liq ma'nosida inson bo'lgan holdagina o'ynaydi va u faqat o'ynayotgan paytdagina to'laqonli inson bo'ladi»⁷⁸ deb yozadi.

Ammo baholargina emas, balki qadriyatlar dunyosi ham insoniyatga bog'liq bo'lib, uning rivojlanish darajasi, faoliyat sohasining kengayishi, madaniyat va sivilizatsiyaning xususiyati bilan belgilanadi. Tabiat aksiologik jihatdan neytral bo'lib, u qadriyat sifatida insoniyat bilan bir kontekstda, insoniyat mavjudligi va rivojlanishining muayyan tarixiy sharoitlaridagina aktuallashadi. Turli sivilizatsiyalarga xos bo'lgan me'yorlarni taqqoslash qadriyatlar dinamikasi haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Masalan, qadimgi Yunonistonda inson hayoti to'laqonli tarzda uyg'un namoyon bo'lishi, Misrda esa – inson hayotining o'limga bo'ysunishi oliy qadriyat hisoblangan.

Qadriyatlar individual bo'lib, ular anglanishi yoki anglanmasligi yoki noto'g'ri anglanishi mumkin. Ammo qadriyatlarni sub'ektiv darajada maqbul hodisa sifatida anglashning har qanday varianti baholash ko'rinishida amal qiladi. Haqiqatdan farqli o'laroq, baholash narsalarning haqiqiy holatiga bilimning muvofiqligiga erishishdan emas, balki narsalarni va ularning xossalarni inson uchun zarur va muhim deb anglab etishdan iborat. Predmetning ob'ektiv mazmuni (ahamiyati) bilan sub'ekt baholash jarayonida eksplikatsiya qiluvchi shaxsga doir mazmun o'rtasida kuchli tafovut mavjud. Shu sababli baholashda dunyoni anglab etishning shaxsiy xususiyati bilan izohlanuvchi sub'ektiv omil ustunlik qilishi mumkin. Bu tafovutga qaramay, haqiqat va qadriyat o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Ma'lumki, haqiqiy bilim baholash predmeti bo'lishi, qadriyat sifatida tavsiflanishi mumkin. O'z navbatida, hodisalar dunyosining inson uchun ahamiyatini faqat ular haqidagi bilimlar yordamida aniqlash mumkin. Narsaning ahamiyati haqida xulosa chiqarish u sub'ektga zarur bo'lgan sifatlariga ega ekanligi haqida tasavvurga ega bo'lish demakdir. Qadriyatlar sub'ektning ehtiyojlari, manfaatlari, mayllari, maqsadlari va ideallari bilan ob'ektning amaldagi aloqasini aks ettiradi. Shu sababli qadriyatlar haqidagi mulohazalar to'g'risida ularning haqiqiyliigi yoki soxtaligi nuqtai nazaridan so'z yuritish mumkin. Shunga qaramay, qadriyatlar haqidagi mulohazalar, ular haqiqiy bilimga yoki xurofiy aqidalarga, fanga yoki bid'atga, hayot tajribasiga yoki uning mavjud emasligiga asoslanganidan qat'iy nazar, qadriyatlarni aniqlaydi, ularni qayd etadi. Haqiqat va baholashning farqi ularni anglab etish usullarida ham, ifodalash shakllarida ham, qadriyatlarni bilish jarayonida ishtirok etuvchi ong strukturalarida ham namoyon bo'ladi. Haqiqat sub'ektivlikni cheklash yo'li bilan anglab etiladi, bilish o'rganilayotgan narsaga nisbatan tasodifiy va sirtqi xususiyatga ega bo'lgan narsalarni mavhumlashtirishni nazarda tutadi. Haqiqatda dunyo insondan qat'iy nazar qanday bo'lsa, Shunday ko'rinishda namoyon bo'ladi. (Ammo haqiqatda sub'ektivlik omilini butunlay istisno etish mumkin emas.) Baholash etakchi omil sifatida sub'ektiv asosni o'z ichiga oladi, unda predmetning o'z xossalari emas, balki (garchi bilim baholash omili sanalsa-da) uning inson uchun ahamiyati namoyon bo'ladi.

Haqiqat va baholashni aks ettirish shakllari ham bir-biridan ancha farq qiladi. Haqiqat tabiat, jamiyat va tafakkur qonunlarini ochib beruvchi oqilona, mantiqiy jihatdan ziddiyatsiz bilim ko'rinishiga ega bo'ladi. Baholash emotsiyalar, mayllar, iroda sohasiga qarab mo'ljal oladi. Garchi baholash bilim omilini ham o'z ichiga olsa-da, lekin bu bilim ancha mavhum obrazli shakl-shamoyil kasb etishi, dalil-isbotsiz bo'lishi, intuitsiyaga tayanishi mumkin.

⁷⁸ Шиллер М. Статьи по эстетике. – М.: 1935. – Б. 302, 303.

Qadriyatlar san'at va din, axloq va huquq, siyosiy va madaniy hayot sohasida etakchi o'rinni egallaydi. Ularni ilmiy tushunchalar tiliga o'girish mumkin emas va aksariyat hollarda ular badiiy-obrazli mifologik yoki diniy shakl-shamoyilga solinadi.

Qadriyatlar haqidagi mulohazalarning muhim xususiyati Shundan iboratki, ular baholash yoki ichki holat orqali, avvalo qadriyatni emotsiyalar darajasida his qilish orqali harakatga da'vat etishdir. Ilmiy bilishning vazifasi to'laqonli aniq bilimga mumkin qadar yaqinlashishdan iborat bo'lsa, qadriyatlarga munosabat bizni «mazmun podsholigi»ga, muhimliklar dunyosiga olib kiradi.

Xo'sh, «**qadriyat**» tushunchasining falsafiy mazmuni nimada?

qadriyat mohiyati va tabiatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat

1. Qadriyat o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiydir va ob'ekt-sub'ektili xususiyat kasb etadi. Ma'lumki, jamiyat bo'lmagan joyda qadriyatlar mavjudligi haqida gapirishning o'zi behudadir. Zero narsalar, voqealar ularning inson bilan, sotsium hayoti bilan aloqasiz, o'z holicha qadriyatlar bilan bog'lanmaydi. Xullas, qadriyatlar doim insoniy qadriyatlar hisoblanadi va ijtimoiy xususiyat kasb etadi. Bu insoniylik tabiatga, ya'ni butun sivilizatsiyagagina emas, balki hatto ko'p sonli tabiat ob'ektlariga ham taalluqli. Masalan, kisloroddan iborat bo'lgan atmosfera Erda inson paydo bo'lishidan ancha oldin mavjud bo'lgan, lekin kishilik jamiyati vujudga kelganidan keyingina atmosferaning odamlar hayoti uchun ulkan ahamiyati haqida so'z yuritish imkoniyati tug'ilgan.

2. Qadriyat insonning amaliy faoliyati jarayonida vujudga keladi. Insonning har qanday faoliyati muayyan maqsadni belgilashdan boshlanadi va mazkur faoliyat ayni Shu maqsadga erishishga bag'ishlanadi. Maqsad – individga o'zining muayyan ehtiyojlarini qondirish imkonini berishi mumkin bo'lgan faoliyatning pirovard natijasi haqidagi insonning tasavvuri. Shunday qilib, individ o'z faoliyatining mo'ljallangan natijasiga avval-boshdanoq qadriyat sifatida qaraydi. Shu sababli inson natijaga erishishga qaratilgan faoliyat jarayonining o'ziga ham o'zi uchun muhim, qadrlil bo'lgan jarayon sifatida yondashadi.

Albatta, insonning har qanday faoliyati va uning har qanday natijalari emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy ehtiyojlarga va odamlarning manfaatlariga mos keladigan faoliyat va natijalargina qadriyatlarga aylanadi. Qadriyatlar qatoriga narsalargina emas, balki g'oyalalar, munosabatlar, faoliyat usullari ham kiradi. Biz moddiy ne'matlarni ham, insoniy xatti-harakatlar ezguligini ham, davlat qonunlarining odilonaligini ham, olamning go'zalligini ham, aqlning ulug'vorligini ham qadrlaymiz.

3. «Qadriyat» tushunchasini «muhimlik» tushunchasidan farqlash lozim. qadriyat «muhimlik» tushunchasi bilan nisbatlashadi, lekin u bilan ayniy emas. Muhimlik qadriyatga bo'lgan munosabatning faollik, qizg'inlik darajasini tavsiflaydi. Nimadir bizni ko'proq, nimadir kamroq ta'sirlantiradi, nimadir bizni o'ziga nisbatan butunlay befarq qoldiradi. Shuningdek, muhimlik qadriyat xususiyatigagina emas, balki «aksilqadriyat», ya'ni ziyon xususiyatiga ega bo'lishi ham mumkin. Yomonlik, ijtimoiy adolatsizlik, urushlar, jinoyatlar va kasalliklar jamiyat va shaxs uchun ulkan ahamiyatga ega, lekin bu hodisalarni qadriyatlar deb nomlash odat tusini olmagan.

Binobarin, «muhimlik» tushunchasi «qadriyat»ga qaraganda kengroq. Demak qadriyat – ijobiy muhimlik. Ijtimoiy rivojlanishda salbiy rol o'ynaydigan hodisalar salbiy ahamiyatga molik deb talqin qilinishi mumkin. Shunday qilib, har qanday muhimlik emas, balki inson, uning birlashmalari yoki butun jamiyat hayotida ijobiy rol o'ynaydigan muhimlikkina qadriyat hisoblanadi.

4. Har qanday qadriyat ikki xossa: funksional ahamiyat va shaxsga doir mazmun bilan tavsiflanadi. Bu qanday xossalalar?

Qadriyatning funksional ahamiyati – bu narsa yoki g'oyalarning ularni mazkur jamiyatda qadriyatga aylantiruvchi ijtimoiy muhim xossalari, funksiyalarining majmui. Masalan, muayyan g'oyaga ma'lum informatsion mazmun va uning haqqoniylik darajasi xos.

Qadriyatning shaxsga doir mazmuni – bu uning inson ehtiyojlariga bo'lgan munosabati. Qadriyatning shaxsga doir mazmuni, bir tomondan, qadriyat funksiyalarini bajaruvchi ob'ekt bilan belgilanadi, boshqa tomondan esa, insonning o'ziga bog'liq bo'ladi. Inson narsaning mazmun va mohiyatini anglab etish jarayonida o'zining mazkur narsaga bo'lgan sof tabiiy ehtiyojidan emas, balki o'zi mansub bo'lgan jamiyat tarbiyalagan ehtiyojdan, ya'ni jins bildiruvchi ijtimoiy ehtiyojdan

kelib chiqadi. U narsaga go‘yo boshqa odamlarning, jamiyatning ko‘zi bilan qaraydi va unda mazkur jamiyat doirasida o‘z hayoti uchun muhim bo‘lgan narsani ko‘radi. Inson jins bildiruvchi mavjudot sifatida narsalarda ularning jins bildiruvchi mohiyatini, narsaning g‘oyasini izlaydi va bu g‘oya inson uchun mazmun kasb etadi.

Ayni vaqtda Shuni qayd etish lozimki, qadriyatlar odamlar uchun bir xil mazmun kasb etmaydi, u odamlarning jamiyatdagi mavqeiga va ular hal qilayotgan vazifalarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, shaxsiy avtomobil harakatlanish vositasi, qo‘shimcha pul topish vositasi yoki shaxsning mavqeidan dalolat beruvchi buyum bo‘lishi mumkin. So‘nggi zikr etilgan holda avtomobil uning egasi boshqa odamlar ko‘z o‘ngida muayyan nufuz kasb etishi uchun imkoniyat yaratuvchi egalik ob‘ekti sifatida muhimdir. Ko‘rsatilgan holatlarning barchasida ayni bir predmet turli ehtiyojlar bilan bog‘liq.

5. Qadriyatlar o‘z tabiatiga ko‘ra ob‘ektivdir. Bu qoida e‘tiroz uyg‘otishi mumkin. Zero sub‘ekt mavjud bo‘lmagan joyda qadriyat to‘g‘risida so‘z yuritish behuda ish ekanligi yuqorida qayd etilgan. Qadriyat insonga, uning tuyg‘ulari, mayllari, emotsiyalariga bog‘liq bo‘ladi, ya‘ni qandaydir sub‘ektiv narsa yoki hodisa sifatida qaraladi. Bundan tashqari, individning buyumga bo‘lgan qiziqishi yo‘qolgani, buyum uning ehtiyojlarini qondirmay qo‘ygani zahoti individ uchun buyum o‘zining qadriyat sifatidagi ahamiyatini yo‘qotadi. Boshqacha aytganda, sub‘ekt bilan bog‘liq bo‘lmagan holda, uning ehtiyojlari, mayllari, manfaatlari bilan buyumning aloqasiz qadriyat mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Shunga qaramay qadriyatni sub‘ektivlashtirish, uni inson ongiga bir tomonlama bog‘liq bo‘lgan narsaga aylantirish o‘rinli emas. Qadriyat, xuddi muhimlik kabi, ob‘ektivdir. Sub‘ektning moddiy-amaliy faoliyati zahirida qadriyatning ayni Shu xossasi yotadi. Aynan Shunday faoliyat jarayonida kishilar o‘zini qurshagan dunyoga qadriyat sifatida qaray boshlaydi. Boshqacha aytganda, moddiy-amaliy faoliyat buyumlar, atrof borliq predmetlari, odamlarning o‘zi, ularning munosabatlari inson, jamiyat uchun muayyan ob‘ektiv ahamiyat kasb etishi, ya‘ni qadriyatga aylanishini belgilovchi omildir.

Yana Shuni ham hisobga olish lozimki, qadriyatlarga munosabat sub‘ekti sifatida avvalo jamiyat, katta ijtimoiy guruhlar amal qiladi. Masalan, ozon «tuynuklari» muammosiga u yoki bu individuum befarq qarashi mumkin, lekin jamiyat unga befarq qaray olmaydi. Bu qadriyat ob‘ektiv tabiatga ega ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Qadriyat tushunchasining yuqorida keltirilgan umumiy tavsifidan kelib chiqib unga quyidagi ta‘rifni berish mumkin. Qadriyat – bu borliq rang-barang elementlarining ob‘ektiv ahamiyati bo‘lib, ularning mazmuni jamiyat sub‘ektlarining ehtiyojlari va manfaatlari bilan belgilanadi.

5. Baholash va baholash strukturasi

Baholash. Aksiologiyaning asosiy kategoriyalari qatoriga qadriyat bilan bir qatorda hajman juda keng tushuncha – «baholash» ham kiradi. Baholash – buyumning inson faoliyati, uning ehtiyojlarini qondirish uchun ahamiyatini anglab etish vositasi. Baholash sub‘ektning o‘z hayoti va faoliyati uchun hodisalarning ijtimoiy ahamiyatini aniqlashidir. U insonga hodisalar dunyosida mo‘ljall olish imkonini beradi, uning faoliyatini yo‘lga soladi. Baholash universaldir: u sezgilar va aql-idrok darajasida, emotsiyalar va tuyg‘ular, tasavvurlar, idroklar, mulohazalar, mayllar, istaklar, intilishlar, afzalliklar va, albatta, faoliyat ko‘rinishida ro‘yobga chiqib, inson hayot faoliyatining barcha turlariga ta‘sir ko‘rsatadi.

Baholashning mohiyatini teranroq anglab etish uchun uni «qadriyat» bilan solishtirish o‘rinli bo‘ladi. Baholash va qadriyat – bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tushunchalar, lekin ularning o‘rtasida jiddiy farq ham mavjud. Xo‘sh, bu farq nimalarda ko‘rinadi?

Birinchiidan, qadriyat biz baho berayotgan narsa, ya‘ni baholash predmeti bo‘lsa, baholash – bu baho berish jarayoni, ya‘ni aqliy faoliyat bo‘lib, uning natijasi o‘laroq borliqning muayyan predmeti biz uchun qanday qimmatga ega ekanligi aniqlanadi. Predmetni yoki uning xossasini foydali, yoqimli, yaxshi, chiroyli deb topib, biz baholashni amalga oshiramiz.

Ikkinchiidan, faqat ijobiy ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlardan farqli o‘laroq («salbiy qadriyatlar» bo‘lishi mumkin emas), berilgan baho ijobiy bo‘lishi ham, salbiy bo‘lishi ham

mumkin. Biz muayyan predmetni yoki uning xossasini foydali emas, balki zararli deb topishimiz, muayyan xatti-harakatni yomon, axloqqa zid deb baholashimiz, ko'rilgan filmni mantiqsiz deb qoralashimiz mumkin. Bunday fikrlarning barchasi baholash hisoblanadi.

Uchinchidan, qadriyat amaliy munosabat mahsuli sifatida ob'ektiv hisoblanadi. Baholash esa sub'ektivdir. U ob'ektiv qadriyatning sifatigagina emas, balki baholovchi sub'ektning ijtimoiy va individual fazilatlariga ham bog'liqdir. Ayni Shu sababli ayni bir hodisa ayni bir davrda yashayotgan odamlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin.

Bu erda haqiqiy va soxta baholar to'g'risidagi masala Yuzaga kelishi mumkin.

Baholash ilmiy bilimlarga tayanishi ham, odatdagi bilimlarga, an'analarda, odatlarda mujassamlashgan ijtimoiy tajribaga va hatto turli xurofiy aqida va bid'atlarga tayanishi ham mumkin. Kezi kelganda Shuni qayd etib o'tish lozimki, baholashning fanga oddiy mansubligi uning muqarrar tarzda haqqoniyligidan dalolat bermaydi, xuddi Shuningdek oddiy ong darajasida baholash o'z-o'zidan uning soxtaligini anglatmaydi.

Berilgan bahoning haqqoniyligi sub'ekt qadriyatning ob'ektiv ahamiyatini qay darajada aniq anglab etgani bilan belgilanishini tushunish muhimdir. Haqiqat to'g'risidagi masalada bo'lganidek, bu erda ham amaliyot bosh mezon hisoblandi.

Baholash strukturasi. Baholash strukturasi ikki tomonni shartli ravishda farqlash mumkin.

Baholashning birinchi tomoni narsalar, xossalar, jarayonlar va hokazolarning ayrim ob'ektiv xususiyatlarini qayd etish bo'lsa, ikkinchi tomoni sub'ektning ob'ektga bo'lgan munosabati: ma'qullash yoki qoralash, xayrixohlik yoki yomon ko'rish va hokazolardir. Birinchi tomonning baholashi bilimga yaqinroq bo'lsa, ikkinchi tomonning baholashi me'yorga yaqinroqdir.

Baholashning funksiyalari ham uning ichki ziddiyatlarga to'la tabiati bilan belgilanadi. Hozirgi zamon qadriyatlar nazariyasida odatda baholashning quyidagi funksiyalari farqlanadi

Dunyoqarashga doir funksiya. Mazkur funksiyaga muvofiq baholash sub'ekt o'zligining shakllanishi, amal qilishi va kamol topishining zaruriy sharti hisoblanadi, chunki har doim uning uchun atrof borliqning ahamiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Gnoseologik funksiya borliqning in'ikosi, ob'ektlarning ijtimoiy ahamiyatini anglab etish omili sanalgan baholash va bilishning o'ziga xos jihati hisoblanadi.

Baholashning faollashtiruvchi funksiyasi. Baholash bilishning bilimlardan foydalanishga qaratilganini aks ettiradi, amaliy faoliyatga faol intilish va munosabatni shakllantiradi.

Variativ funksiya. Baholash tanlashni, sub'ekt muayyan ob'ektlarni, ularning xossalari, munosabatlarini afzal ko'rishini nazarda tutadi. Baholash hodisalarni taqqoslash va ularning jamiyatda mavjud me'yorlar, ideallar bilan o'zaro nisbatini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, qadriyatning mohiyatini va uning baholash bilan o'zaro aloqasini o'rganish qadriyatlarining tasnifiga o'tish imkonini beradi. Qadriyatning borlig'i baholash bilan uzviydir. Baholash yo'li bilan individ ayrim qadriyatlarni aktuallashtiradi, ba'zi bir qadriyatlarni esa rad etadi, ularning ierarxiyasini o'rnatadi. Baholash strukturasi, baholash predmeti, sub'ekt va asosi kiradi.

Baholash predmeti. Baholashning ob'ektiv mazmuni uning predmeti bilan belgilanadi. Shu sababli baholash bilish bilan bevosita bog'liq, zero predmetning ahamiyati haqida xulosa chiqarishdan oldin uning ob'ektiv xossalari haqida bilimga ega bo'lish lozim. Haqiqiy, ishonchli bilimning o'zi baholash uchun asos bo'lishi mumkin.

Haqiqatning amaliy jihatdan foydaliligi uni ijobiy tavsiflash imkonini beradi. Ammo haqiqatga berilgan salbiy baholar ham yaxshi ma'lum: behuda, shafqatsiz, befoyda va sh.k. Bu tasodifiy bir hol emas: ilmiy bilish o'z oqibatlarini mavhumlashtiradi va aksariyat olimlar fan va axloqning aloqasini rad etadi. Ayrim universal aloqani xolisona tavsiflashga qarab mo'ljal oluvchi ilmiy bilimdan farqli o'laroq, baholash bu aloqaning mazmunini tushunish, uning ahamiyatini tafakkur va emotsiyalar darajasida anglab etish va boshdan kechirishdir. Baholashga doir mulohazalarning o'ziga xos xususiyati Shundaki, bilim borliq hodisalarini erkin baholashga monelik qilmaydi. Bilishga doir mulohazalar intersub'ektiv hamda nuqtai nazarlarga bog'liq bo'lmasa, baholashga doir mulohazalar sub'ektiv bo'lib, har xil asoslarga ega. Biz estetik, siyosiy,

axloqiy, dunyoqarashga doir, mafkuraviy qadriyatlarda erkin baholashlarga ayniqsa ko'p duch kelamiz. Ma'lumki, natijalar, metodlar va vositalarni baholash – bilish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi. Bu xususiyat gipotezalar, konsepsiyalar, kashfiyotlarning amaldagi qimmati va ularga ilmiy hamjamiyat, zamondoshlar bergan baholarning nomuvofiqligini tuShuntiradi. YAnghlish tasavvurlar, gipotezalarning ilmiy ahamiyatini baholash ham muhim muammodir. Bilimning haqiqiyliigi uning ob'ektiv borliqqa bo'lgan munosabati bilan belgilansa, uning bilim sifatidagi qimmati fanning rivojlanish jarayonida aniqlanadi va uning bilish jarayoniga ta'sirining ahamiyati bilan belgilanadi. Masalan, o'tmishning ko'pgina soxta konsepsiyalari (astrologiya, alximiya va sh.k.) hozirgi zamon fanining shakllanishiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu soxta tasavvurlarning evristik imkoniyatlari ularning bilim sifatidagi mazmunidan boyroq bo'lib chiqqan.

Shuni qayd etish lozimki, baholashga doir mulohazalar ham haqiqiylik yoki soxtalik, adolat yoki adolatsizlik kategoriyalarida baholash predmeti bo'lishi mumkin. Baholashga doir mulohazalarning «haqiqiylik – soxtalik» tushunchalarida tavsiflanuvchi turkumlari mavjud. «Adolat – adolatsizlik» kategoriyalarida tavsiflanuvchi baholashga doir mulohazalar katta bir turkumni tashkil etadi. Bular siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik munosabatlar, xatti-harakatlar, qilmishlar sohasiga taalluqli bo'lgan baholashlardir.

Masalan, sud qarori, tergov xulosasi va Shu kabilarda ifodalangan mulohazalarning xususiyati qanday? Ular «haqiqiylik – soxtalik» yoki «adolat – adolatsizlik» kategoriyalarida baholanadimi? Bu mulohazalar baholashga doirmi yoki bilish sohasiga taalluqli va haqiqiylik mezonini qanoatlantirishi lozimmi? Sud u yoki bu qilmishni inqilobiy maqsadga muvofiqlik nuqtai nazaridan tavsiflasa, bu erda, odatda, haqiqat emas, balki baholash mavjud bo'ladi. Ba'zan haqiqat va baholash o'rtasidagi ziddiyat o'zining cho'qqisiga etadi. Garchi huquq o'z tabiatiga ko'ra me'yoriy va, binobarin, qadriyat sifatida mazmunga ega bo'lsa-da, har qanday qilmishni huquqiy tavsiflash haqiqiylik mezonini qanoatlantirishi lozim. Huquqiy tavsiflashdan baholash elementini butunlay ajratish mumkin bo'lmasa-da, u mazkur tavsiflashda ikkinchi darajali o'rin egallaydi, haqiqatning hosilasi hisoblanadi. Ayni holda haqiqat baholashning birdan-bir asosi bo'lishi lozim.

Baholashga doir tavsifiy mulohazalar ham mavjud. Ular haqiqat sifatida ahamiyatga ega bo'lgan tavsiflashni ham, qadriyat sifatida mazmun kasb etuvchi baholashni ham o'z ichiga oladi. Sudning ko'pgina qarorlarini baholashga doir tavsifiy mulohazalar sifatida tavsiflash mumkin. Shunday qilib, baholash bilish omilini, bilimning haqiqiyliigi talabini o'z ichiga oladi, lekin birgina unga bog'liq emas. O'z navbatida, bilim baholashning asosi ham, predmeti ham bo'lishi mumkin.

Baholash sub'ekti. Bahoning shakllanishiga baholash sub'ekti: individ, ijtimoiy guruh, jamiyat, insoniyat ancha kuchli ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, ehtiyojlarning boyligi, inson ma'naviy hayotining murakkabligi bilan izohlanuvchi baholash asoslarini tanlash sub'ektivdir. Ma'lum hollarda sub'ekt shaxsiy (gruppaviy) manfaatni, o'tkinchi egoistik mayllarni baholashning birdan-bir asosi sifatida tanlaydi. Bu tasodifiy bir hol emas. Individ ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarining ko'p sonliligi va ierarxiyaviyligi uning borliq voqealarini baholashga nisbatan yondashuvlarining serqirraligini nafaqat tuShuntirdi, balki buni nazarda tutadi. Ayni vaqtda psixologiya va sotsiologiyada mazmun va ahamiyat jihatidan har xil bo'lgan hodisalarga ayni bir sub'ekt tomonidan berilgan baholarda barqarorlik, o'zgarimaslik, takroriylik qayd etiladi. SHaxs ijtimoiy-madaniy va shaxsiy qadriyatlarining ancha batartib tizimiga amal qilgan holda o'zini yaxlitlik sifatida namoyon etadi. Ehtiyojlardan kelib chiquvchi mazkur tizim inson o'zini qurshagan borliq: tabiat dunyosi, ma'naviy madaniyat va o'z-o'zini baholashining teran asosi sifatida amal qiladi. Shunga qaramay shaxsning yo'l tanlashini belgilovchi qadriyat va mo'ljallari insonning yashash sharoitlari va ehtiyojlari kabi o'zgaruvchandir. Natijada baholashlarda o'zboshimchalik, sub'ektivizmga yo'l qo'yilishi xavfi Yuzaga keladi.

Baholashga doir mulohazalarda inson madaniyati, uning to'g'ri tushunish va his qilish qobiliyati namoyon bo'ladi. O'zining moddiy ifodasini topgan qadriyatlar barqaror va nisbatan o'zgarimas, shaxs ehtiyojlari va manfaatlari esa o'zgaruvchan bo'lib, bundan qadriyatlarini muntazam ravishda qayta baholash zaruriyati kelib chiqadi. Mazkur zaruriyat madaniyat qadriyatlariga nisbiy yondashuv, ularning ayrimlarini aktuallashtirish va boshqalariga e'tiborsizlik bilan bog'liq.

Maqsadlarni qo'yish ba'zan kishibilmas tarzda an'analar, me'yorlar va qoidalar bilan tartibga solinadi. Ular qadriyatlarni tizimga solish va ierarxialashtirishni, qadriyatlar «piramidasi»ni yaratishni belgilaydi. Bunda piramida cho'qqisidan aktual, lekin o'tkinchi va hatto soxta qadriyatlar o'rin olishi ham mumkin. Masalan, sotsiologlar yoshlarning hayot mo'ljallarini o'rganish jarayonida ular ko'pincha o'zlari aniq tasavvur qilmaydigan kasbni tanlashlari, o'zlari hech qachon bo'lmagan joyga ketishga harakat qilishlari, yaxshi ma'lum bo'lmagan narsalarni tanlashlarini aniqlaganlar. Iste'mol mollari va xizmatlarning taqchilligi Shu paytda taqchil bo'lgan narsaga kuchli qiziqish uyg'otadi. Individ o'z ehtiyojlarini qondirishdan ham ko'ra ko'proq u mazkur ehtiyojlarni qondirishga qodir ekanligini atrofdegilar tan olishiga erishishga harakat qiladi. Ehtiyoj o'rnini jamiyatda obro'-e'tibor topishga intilish egallaydi. qadriyatlarga erkin sub'ektivistik baho berish moda, mishmishlar, xurofiy qarashlar va Shu kabilarning natijasi bo'lishi mumkin. Mayllarimizning predmeti sanalgan bu aktual qadriyatlar, agar ularning asosi yo'qolsa, barbod bo'ladi. Baholashdagi sub'ektivizm zamirida shaxs, jamiyat, tabiat va hokazolar uchun og'ir oqibatlar Yuz berish xavfi yashirilib yotadi. Inson o'tkinchi Shubhali qadriyatlar hukmiga bo'ysunib, fundamental ijtimoiy qadriyatlar va shaxsiy hayot qadriyatlari barbod bo'lgan holatga tushib qolishi mumkin (ekologik halokat, diktatura o'rnatilishi, shaxs huquq va erkinliklarining yo'qotilishi, sog'liqni yo'qotish, oiladan ajralish, do'stlarni, o'zi yoqtirgan ishni yo'qotish va h.k.).

Baholash asosi. Ob'ektiv asosning mavjudligi baholashda sub'ektivizm yo'lida muayyan g'ov-to'siq hisoblanadi. Baholash asosi – sub'ektga hodisani uning mazkur davrdagi yoki kelajakdagi ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan tavsiflash, borliq narsalari va hodisalarini saralash, tanlashni amalga oshirish va o'z faoliyatining strategiyasini belgilash imkonini beruvchi mezon. Baholashga doir mulohazalarda baholash asosi aniq aks ettirilishi ham, implitsit tarzda, ya'ni aniq bo'lmagan ko'rinishda ifodalanishi ham mumkin. Ammo asos – baholashning muqarrar elementi.

Baholash asosi sifatida shaxs yoki ijtimoiy guruhning bevosita ehtiyojlari, manfaatlari, mo'ljallari amal qilishi mumkin. Ammo baholash zamirida andozalar, qoidalar, standartlar, ijtimoiy imperativlar yoki taqiqlar, me'yorlar ko'rinishida ifodalangan maqsadlar yoki loyihalar yotishi ham mumkin. Me'yoriy tartibga solish sohasi inson faoliyati sohasi bilan deyarli mos keladi. U huquqiy va axloqiy me'yorlardan tashqari qoidalar, komandalar, buyruqlar, standartlar, texnik me'yorlar, xizmat tartibi va Shu kabilarni ham o'z ichiga oladi. Me'yorlarning o'ziga xos xususiyati Shundaki, ular bir vaqtning o'zida qadriyat sifatida ham, baholash asosi sifatida ham amal qiladi. Bu ikki yoqlamalik baholashga doir mulohazalar ikki yoqlamaligining sabablaridan biri hisoblanadi. Xulq-atvorni baholashda, maqsaddan qat'i nazar, qoidalar va me'yorlarga formal muvofiqlik birinchi o'ringa chiqqan holda, me'yor mustaqil qadriyat sifatida ko'pincha odatga aylanadi. SHaklan me'yorlar va qoidalarga muvofiq bo'lgan Yuzaki faoliyat ba'zan jamoatchilik fikrida ijobiy baho olishi, ish manfaatlarida sermazmun faoliyat esa salbiy baholanishi mumkin.

Har qanday baholash o'z predmetini ham, baholash sub'ektining ehtiyojini ham tavsiflaydi. Sub'ekt u yoki bu hodisani baholar ekan, o'zining unga bo'lgan munosabatini ham, o'z ehtiyojini ham ifoda etadi. Bundan sotsiologlar tomonidan kuzatiluvchi baholarning variativligi kelib chiqadi. Baholar haqiqiy bo'lishi, ya'ni predmetning ob'ektiv qimmatini aniq aks ettirishi va haqqoniy bo'lishi, ya'ni baholash sub'ektining shaxsiy fikrini aks ettirishi mumkin. Baholar haqqoniy bo'lishi, lekin haqiqiy bo'lmasligi; haqiqiy bo'lishi, lekin haqqoniy bo'lmasligi; haqqoniy ham, haqiqiy ham bo'lmasligi mumkin. Masalan, manzaraning go'zalligi haqidagi mulohaza haqiqiy bo'lishi, lekin haqqoniy bo'lmasligi mumkin, chunki individ o'z mulohazalari bilan suhbatdoshiga o'zini nozik didli shaxs qilib ko'rsatmoqchi bo'lishi, manzaraning go'zalligi esa amalda uni qiziqtirmasligi mumkin.

Har bir baholashda faoliyatning turli tomonlari asos bo'lishi mumkin:

- me'yoriy (muayyan me'yorga muvofiq) baholash;
- ijtimoiy-madaniy (muayyan jamiyatning madaniy o'ziga xosligi bilan mushtarak) baholash;
- professional (mazkur kasb andozalari va qoidalarga muvofi-) baholash;
- operatsional baholash (muayyan maqsadga erishish imkonini beruvchi operatsiyalarning maqsadga muvofiq majmui va ketma-ketligi).

Har bir muayyan holda yuqorida zikr etilgan asoslardan biri yoki ularning muayyan uyg'unligidan foydalanilishi mumkin bo'lib, bu ayni bir hodisaga berilgan bahoning mazmunini sezilarli darajada o'zgartiradi.

Masalan, huquq bilan tartibga solinuvchi qilmish huquqiy me'yor nuqtai nazaridan baholanuvchi yuridik fakt hisoblanadi. Ayni Shu qilmish operatsion (operatsiya qay darajada muvaffaqiyatli amalga oshirilgani) yoki axloqiy (qilmish sub'ekti qaysi axloqiy prinsiplarga amal qilgani) nuqtai nazaridan baholanishi mumkin.

Baholash asosi sanalgan me'yorlar uning predmeti bo'lishi ham mumkin. Ular faoliyatning hayot sinovidan o'tgan usullarini mustahkamlash vositasi sifatida vujudga keladi. Ayni vaqtda ijtimoiy me'yorlar allaqachon eskirgan va shaxs o'z-o'zini qadriyat sifatida erkin anglab etishiga monelik qiluvchi taqiqlar va qoidalarning manbalari bo'lishi mumkin. Ijtimoiy me'yorlar ijtimoiy amaliyotdan oqsashi ular birdan-bir maqsadga aylanishiga zamin yaratadi. Bunda insonning maqsadga muvofiq faoliyati o'rnini me'yorga ko'r-ko'rona amal qilish egallaydi, ayrim qadriyatlardan namoyishkorona ramziy foydalanish vujudga keladi. Individning ijtimoiy jihatdan nufuzli va me'yoriy jihatdan maqbul guruhdagi o'rnini aks ettiruvchi timsol o'rinning o'zidan muhimroq tus oladi. Masalan, avtomobildan transport vositasi sifatida emas, balki uning egasi (uning jamiyatdagi haqiqiy o'rni qanday ekanligidan qat'i nazar) jamiyatning «oliy» sinfiga mansubligidan dalolat beruvchi timsol sifatida foydalanilishi mumkin.

Shunga qaramay aynan me'yorlar har bir baholashda umuminsoniy va muayyan tarixiy, ob'ektiv va sub'ektiv, umumiy va xususiy omillarning mushtarakligini ta'minlaydi. Individ yoki ijtimoiy guruhning ob'ektiv holatini aks ettirgan, kishilarning amaliy faoliyati asosida vujudga kelgan holda, me'yorlar tabiat va jamiyat hodisalarini baholashda o'zboshimchalikning mavjud emasligini ta'minlashga qodir. Me'yor – inson faoliyatini yo'lga soluvchi va boshqaruvchi, uning jamiyat yoki odamlar ayrim guruhlarining manfaatlari va qadriyatlariga muvofiqligini nazorat qiluvchi umum e'tirof etilgan qoida. Me'yor jamiyatda joizlik haqida mavjud tasavvurlardan kelib chiqib muayyan harakatlarni buyuruvchi yoki taqiqlovchi talab sifatida amal qiladi. Binobarin, me'yor joizlik haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Jamiyatda vujudga kelgan me'yorlar nisbatan barqarorlik kasb etadi va, o'z navbatida, baholash faoliyati jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Sub'ekt ob'ektning amaldagi ahamiyati haqidagi tasavvuridangina emas, balki o'z hayotida amal qiluvchi me'yorlardan ham kelib chiqib baholashni amalga oshiradi. Jamiyatning rivojlanish jarayonida hodisalar ijtimoiy ahamiyatining o'zgarishi va tegishli ravishda baholarning o'zgarishi eski me'yorlar tanqid tig'i ostiga olinishiga va Yangi me'yorlarning shakllanishiga olib keladi.

Ehtiyojlar va qadriyatlar. Insonga nima muhim? Muhimliklar dunyosi qadriyatlar dunyosi bilan ayniymi? Inson faoliyatining birinchi manbai va harakatlantiruvchi kuchi ehtiyojlardir. Inson ehtiyojlari uning hayotini, xususan jismoniy, aqliy, ma'naviy, ishlab chiqarishga doir, oilaviy hayotni saqlash yoki o'zgartirish zaruriyatining ifodasi sifatida vujudga keladi. Ijobiy yoki salbiy aloqalar va munosabatlarning butun rang-barangligi tegishli ehtiyojlarni u yoki bu tarzda vujudga keltiradi. Inson bu ehtiyojlarni anglashi yoki anglamasligi yoinki noto'g'ri anglashi mumkin. Ammo har qanday sharoitda ehtiyojlar insonni faoliyatga da'vat etadi. Bu faoliyat samarali yoki samarasiz, puxta o'ylangan yoki spontan va tartibsiz bo'lishi mumkin. Ehtiyojlar tashqi muhit predmetlari va sharoitlariga yoki ichki, ma'naviy uyg'unlikka erishishga muhtojlik sifatida anglanadi. Ular tashqi dunyo bilan muayyan munosabatlarda namoyon bo'lib, ob'ektlarni, o'zlari yo'naltirilgan mavjud borliqni ham, o'z manbai sanalgan sub'ektning muhim xususiyatlarini ham tavsiflaydi. SHaxs faolligining teran asosi sanalgan ehtiyojlar inson faoliyatini ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiruvchi mo'ljallar, mayllar va manfaatlarda o'z rivojini topadi. Aynan ehtiyojlar inson ongingning nisbiy mezoni, uning mayllari, manfaatlari, didlari va ideallarining poydevori hisoblanadi.

Inson ehtiyojlari o'zgaruvchan, harakatchan, o'zaro bog'langan va bir-birining o'rnini bosishga qodir. Ularning ayrimlari vujudga keladi, ba'zilar yo'q bo'ladi, ayrimlari aktuallashadi, ba'zilar ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Inson ehtiyojlari sifat jihatidan cheksiz va kengayishga qodir, zero ularning shakllanishi indvidlarning bir-biri va jamiyat bilan ijtimoiy aloqalarining ko'p sonliligi va intensivligini aks ettiradi. Ijtimoiy hayotning, ijtimoiy munosabatlar

majmuining murakkablaShuvi va differentsiyalanishi, moddiy va ma'naviy hayotning o'z me'yorlari va qadriyatlari bilan rivojlanishi, inson ma'naviy hayotining jo'shqinligi – bularning barchasi uning ehtiyojlari o'zgarishi va rivojlanishini belgilaydi.

Garchi qadriyatlar ehtiyojlar bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, lekin ular bilan uzviy emas. Ehtiyojlar harakatchan, qadriyatlar nisbatan barqarordir; ehtiyojlar ierarxiyaviy bo'lib, ularning ierarxiyasi muntazam ravishda o'zgaradi, qadriyatlar esa nisbatan o'zgarmas va individ tomonidan uning ijtimoiylaShuvi jarayonida o'zlashtiriladi. Bu hayotning har qanday sohasida Yuz bergan Yangiliklarga nisbatan ancha keng tarqalgan muxolifatni izohlaydi. Masalan, rim imperatorlari xristian dinining qimmatini tan olgunlariga qadar xristianlar asrlar mobaynida quvg'in qilinganlar. Belorusiyalik mashhur rassom Mark SHagalning o'ziga xos ijodi, garchi butun dunyoda yuksak baholangan bo'lsa-da, o'z vatanida hanuzgacha tan olinmagan va uncha ma'lum emas. Sezann ijodi rassomning o'limidan keyingina tan olingan, uning tiriklik paytida esa mazkur buyuk musavvirning asarlari Parijdagi zamonaviy san'at ko'rgazmalarida biror marta ham namoyish etilmagan, chunki nufuzli hay'at uning asarlarini diqqatga sazovor deb hisoblamagan va sh.k. Ayni hol Shu bilan izohlanadiki, ehtiyojlar anglanishi yoki anglanmasligi yoinki noto'g'ri anglanishi mumkin. Shu sababli amalda muhim hodisalar qadriyatlar sifatida idrok etilmasligi, amalda qimmatga ega bo'lmagan narsa esa yanglish tarzda qadriyat sifatida tasavvur qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ehtiyojlarni qondirishga yo ko'maklaShuvchi, yo monelik qiluvchi hodisalar mavjud. Binobarin, ahamiyatga ega bo'lgan hamma narsalar ham qadriyat sanalavermaydi, balki ijobiy ahamiyatga molik hisoblanadi.

Shunday qilib, qadriyat deganda biron-bir ob'ektning ijobiy ahamiyati tuShuniladi. Ammo ayrim hollarda biron-bir ob'ektning ijobiy ahamiyati foydalilik chegarasidan chetga chiqmasligi mumkin (masalan, quyosh nuri o'simliklar uchun foydali). Muhimlikni ob'ektiv talqin qilish mumkin. qadriyat esa inson uchun muhim bo'lgan hodisaning mazmunini aniqlashni nazarda tutadi. Shu sababli qadriyat tabiat hodisalarining insonga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv aloqasi sifatidagi foydalilik ayrim ko'rinishi sanalgan hodisalarning moddiy predmetli borlig'i bilan mos kelmaydi.

Qadriyat borliqning insonning ma'naviy ehtiyojlariga bo'lgan munosabatidir. Bunda ijtimoiy manfaatlar va ehtiyojlargina emas, balki gruppaviy va shaxsiy manfaatlar va ehtiyojlar mavjudligini ham hisobga olish muhimdir. Ayrim guruhlar yoki individlar uchun qadriyat sanalgan narsa boshqalar uchun yovuzlik, adolatsizlik, o'zboshimchalik yoki axloqsizlik hisoblanishi mumkin. Ayni bir hodisalarning turli sub'ektlarga funksional munosabati har xil va hatto qarama-qarshi bo'lishi mumkin: muhimliklar dunyosi qadriyatlar dunyosi bilan ayniy emas.

Qadriyatlar haqida mulohazalarning shakllanishida insonning ehtiyojlarini ijtimoiy shaklshamoyilga soluvchi me'yorlar ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Qadriyatning borlig'i baholash bilan uzviydir. Baholash yo'li bilan individ ayrim qadriyatlarni aktuallashtiradi, ba'zi bir qadriyatlarni esa rad etadi, ularning ierarxiyasini o'rnatadi.

6. Qadriyatlarning turlari. Qadriyatlar ierarxiyasi.

Qadriyatlarning turlari. SHaxs va jamiyat ehtiyojlari va manfaatlarining rang-barangligi qadriyatlarning murakkab tizimida o'z aksini topadi. Bu qadriyatlar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi.

Mazmun jihatidan jamiyatning kichik tizimlari haqidagi tasavvurlarga mos keluvchi qadriyatlar, chunonchi: moddiy (iqtisodiy), siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar farqlanadi. Kichik tizimlarning har biri o'z tasnifini nazarda tutuvchi tarkibiy qismlarga bo'linadi. Masalan, moddiy qadriyatlar ishlab chiqarish-iste'molga doir (utilitar) qadriyatlarni, mulkiy, maishiy munosabatlar bilan bog'liq qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy qadriyatlar axloqiy, ma'rifiy, estetik, diniy g'oyalar, tasavvurlar va bilimlarni o'z ichiga oladi.

Qadriyatlar muayyan tarixiy xususiyat kasb etadi. Ular jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichiga mos keladi yoki turli demografik guruhlar (yoshlar, keksa avlod vakillari)ning, Shuningdek kasbiy, sinfiy, diniy, siyosiy va boshqa birlashmalarning qadriyatlarini aks ettiradi. Jamiyat ijtimoiy tuzilishining bir jinsli emasligi qadriyatlarning va qadriyatlarga munosabatning bir

jinsli emasligini va hatto ziddiyatligini vujudga keltiradi. Shu ma'noda qadriyatlar ijtimoiy munosabatlar mavjudligining moddiy shaklidir.

Mavjudlik shakliga ko'ra moddiy va ideal (ma'naviy) qadriyatlar farqlanadi. Ijtimoiy hayotning asosiy sohalariga muvofiq odatda qadriyatlarning uch guruhi farqlanadi: moddiy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va ma'naviy qadriyatlar.

Moddiy qadriyatlar – bu qadriyat ahamiyatiga molik bo'lgan tabiiy ob'ektlar va predmetlar, ya'ni mehnat vositalari va bevosita iste'mol buyumlaridir. Tabiiy qadriyatlar qatoriga tabiiy boyliklarda mujassamlashgan tabiiy ne'matlar kiradi. Moddiy qadriyatlar jumlasiga inson mehnati natijasida yaratilgan moddiy dunyo predmetlari, Shuningdek o'tmish madaniy merosi predmetlari kiradi. Moddiy qadriyatlar – bu tabiiy ne'matlar, mehnat mahsullarining iste'mol qiymati, ijtimoiy hodisalarda mujassamlashgan ijtimoiy ne'matlar, tarixiy voqealar, madaniy meros, axloqiy ezgulik, go'zalik mezonlarigani qanoatlantiruvchi estetik hodisalar, diniy ibodat predmetlari yoki o'zining muayyan ramziy ifodasini topgan diniy g'oyalar va sh.k. Moddiy qadriyatlar ongda emas, balki odamlar hayot faoliyatida amal qiluvchi muayyan narsalar, hodisalar dunyosida mavjud bo'ladi. Moddiy qadriyatlarning asosiy sohasi – shaxs va jamiyatning barkamollik haqidagi tasavvurlarini gavdalandiruvchi inson maqsadga muvofiq faoliyatining mahsullari. Bunda o'zining moddiy ifodasini topgan qadriyat sifatida faoliyat natijasi ham, faoliyatning o'zi ham amal qilishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar – bu ijtimoiy va siyosiy hodisalar, voqealar, siyosiy aktlar va harakatlarning qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qatoriga, odatda, siyosiy va ijtimoiy harakatlarda mujassamlashgan ijtimoiy imtiyozlar, Shuningdek jamiyatning ravnaq topishi, xalqlar o'rtasida tinchlik va hamkorlikning mustahkamlanishiga ko'maklashuvchi tarixiy voqealarning progressiv ahamiyati kiradi.

Ma'naviy qadriyatlar – bu ijtimoiy ong hodisalarining tegishli shakllarda namoyon bo'lgan me'yoriy-nisbiy tomoni. Fan, axloq, san'at, falsafa, huquq qadriyatlarini ma'naviy qadriyatlar deb hisoblash odat tusini olgan.

Ma'naviy qadriyatlar qatoriga baxt-saodat, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, adolat va adolatsizlik, huquqiylik va nohuquqiylik, tarixning mazmuni va insonning vazifasi va hokazolar haqidagi me'yoriy tasavvurlar ko'rinishida ifodalangan ijtimoiy ideallar, mo'ljallar va baholar, me'yorlar va taqiqlar, harakat prinsiplari kiradi. Moddiy qadriyatlar inson ehtiyojlari va manfaatlari ob'ektlari sifatida amal qilsa, ma'naviy qadriyatlar ikki xil funksiyani bajaradi: ular qadriyatlarning mustaqil sohasi va moddiy qadriyatlarni baholash asosi, mezonidir.

Qadriyatlar borlig'ining ideal shakli yo barkamollik, joizlik va zaruriyat haqidagi aniq tasavvurlar ko'rinishida, yo botiniy mayllar, xohish-istaklar, intilishlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Barkamollik haqidagi tasavvurlar yo muayyan andoza, ideal ko'rinishida (masalan, estetik faoliyatda) namoyon bo'lishi, yo til vositalari bilan ifodalanishi mumkin.

Ma'naviy qadriyatlar mazmun jihatidan, funksiyalariga ko'ra va ularni ro'yobga chiqarishga qo'yiladigan talablarga ko'ra rang-barangdir. Faoliyat maqsadlari va usullarini qat'iy belgilovchi qoidalarning butun bir turkumi mavjud. Bular standartlar, qoidalar, qonunlar, andozalar. Madaniyat algoritmi sifatida xizmat qiluvchi me'yorlar, didlar, ideallar qadriyatlarni ro'yobga chiqarishda ko'proq erkinlik beradi. Me'yor – faoliyatning yagona va barqaror shartlar bilan belgilanuvchi optimalligi va maqsadga muvofiqligi haqidagi tasavvur. Me'yorlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: xatti-harakatlarning yagona ko'rinishi (invarianti)ni; xulq-atvorning boshqa ko'rinishlariga nisbatan taqiqni; mazkur ijtimoiy sharoitlarda xatti-harakatlarning maqbul varianti (andozasi)ni; me'yordan chetga chiqish mumkin emasligi haqida ogohlantirish maqsadida ayrim shaxslarning xulq-atvorini baholashni (ba'zan ayrim sanksiyalar ko'rinishida). Me'yoriy tartibga solish inson faoliyati va munosabatlari tizimini to'la qamrab oladi. Ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlash tizimi ularni amalga oshirishning sharti hisoblanadi. Mazkur tizim xatti-harakatni ijtimoiy ma'qullash yoki qoralashni, o'z faoliyatida me'yorga rioya qilishi shart bo'lgan shaxsga u yoki bu sanksiyalarni tayinlashni nazarda tutadi. Shunday qilib, ehtiyojlarni anglash bilan bir qatorda ularni ijtimoiy me'yorlar nuqtai nazaridan anglash ham mavjud. Garchi me'yorlar ijtimoiy amaliyot va hayot sinovidan o'tgan faoliyat usullarini mustahkamlash vositasi sifatida vujudga kelsa-da, ular undan ortda qolishi,

allaqachon eskirgan va shaxs o'z imkoniyatlarini erkin ro'yobga chiqarishiga monelik qilayotgan, ijtimoiy taraqqiyot yo'lga to'g'anoq bo'layotgan taqiqlar va qoidalarning manbalari bo'lishi mumkin.

Ideal – barkamollikning oliy me'yori haqidagi tasavvur, insonning inson va tabiat, inson va inson, shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga solish, barkamollashtirish va uyg'unlashtirishga bo'lgan ehtiyojining ma'naviy ifodasi. Ideal tartibga soluvchi funksiyani bajaradi, u inson ro'yobga chiqarishga butun umrini bag'ishlashga tayyor bo'lgan strategik maqsadlarni aniqlash imkonini beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Idealga amalda erishish mumkinmi? Aksariyat mutafakkirlar bu savolga rad javobini bergan: ideal barkamollik va tugallanganlik timsoli sifatida empirik yo'l bilan kuzatiluvchi borliqda o'z o'xshashiga ega emas, u ongda transsendentallik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Shunga qaramay ideal ma'naviy qadriyatlarining jamuljam ifodasi hisoblanadi

Moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qadriyatlar o'rtasida mavjud tafovutlarga qaramay, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq va qadriyatlarining har bir turida boshqa bir turning muayyan jihati mavjud. Ayni paytda, Shunday qadriyatlar ham borki, ularni moddiy qadriyatlar qatoriga ham, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qatoriga ham, ma'naviy qadriyatlar qatoriga ham kiritish mumkin. Bu avvalo umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlaridir. Ularning orasida inson hayoti, sog'lig'i, erkinligi va Shu kabilarni qayd etish mumkin.

Qadriyatlarini tasniflashning ikkinchi asosi – sub'ektlarga ko'ra individual shaxsiy (sub'ektiv-shaxsiy), gruppaviy, umuminsoniy qadriyatlar farqlanadi - (gruppaviy, milliy, sinfiy, umuminsoniy) qadriyatlar farqlanadi.

Individual yoki shaxsga doir qadriyat – bu narsa, hodisa, g'oyaning muayyan inson uchun qadriyat sifatidagi ahamiyati. Har qanday qadriyat o'z mohiyatiga ko'ra individualdir, zero narsa, hodisa, g'oyani faqat insongina baholashga qodir. SHaxsiy qadriyatlar ta'lim va tarbiya, individ hayot tajribasini to'plashi jarayonida shakllanadi SHaxsiy qadriyatlar individning ehtiyojlari va manfaatlarini ta'sirida vujudga keladi. Ular kishilarning mayllari, didlari, odatlari, bilim darajasi va boshqa individual xususiyatlari bilan belgilanadi.

Gruppaviy qadriyatlar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, biz bu bilan mazkur narsa, hodisani bir individ emas, balki ularning muayyan majmui ijobiy baholashiga urg'u beramiz. Gruppaviy qadriyatlar – bu narsalar, hodisalar, g'oyalarning odamlar muayyan birligi (sinf, millat, mehnat jamoasi va sh.k.) uchun qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Gruppaviy qadriyatlar muayyan jamoaga kiruvchi indvidlarni yagona manfaatlar, qadriyatlar va mo'ljallar bilan birlashtirib, mazkur jamoaning hayot faoliyatida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar – bu narsalar, hodisalar, g'oyalarning jahon hamjamiyati uchun qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Umuminsoniy qadriyatlar qatoriga, birinchidan, jahon hamjamiyati aholisining aksariyati amal qiladigan ijtimoiy-siyosiy va axloqiy tamoyillar kiradi. Ikkinchidan, umuminsoniy qadriyatlar jumlasiga umuminsoniy ideallar, umumxalq maqsadlari va ularga erishishning asosiy vositalari (ijtimoiy adolat, insonning ha'ni va qadr-qimmatini, fuqarolik burchi va sh.k.) kiradi. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar qatoriga tabiiy boyliklar hamda o'z mohiyati va ahamiyatiga ko'ra olamShumul xususiyat kasb etuvchi qadriyatlar: tinchlikni saqlash, qurolsizlanish, xalqaro iqtisodiy tartib muammolari ham kiradi. Umuminsoniy qadriyatlar – jamiyat va madaniyatning rivojlanishi mahsuli.

SHaxsiy, gruppaviy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan ijtimoiy nuqtai nazardan uzviy bog'liq. Falsafa uchun quyidagi savollar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi: shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarining o'zaro nisbati qanday, qaysi qadriyatlar ustunroq - ijtimoiy qadriyatlarini yoki shaxsiy qadriyatlarini, shaxsiy qadriyatlar ijtimoiy qadriyatlar ta'sirida shakllanadimi yoki, aksincha, ijtimoiy qadriyatlar indvidlarning ehtiyojlari va manfaatlarini muvofiqlashtirilishi natijasida vujudga keladimi?

Falsafa tarixida bu savollarga aniq va uzil-kesil javob berilmagan. Masalan, relyativistik aksiologiya qadriyatlarini va ularga mos keluvchi baholarni insonning individual borlig'i bilan belgilanuvchi manfaat yoki vaziyatdan keltirib chiqaradi. Relyativizmga qarama-qarshi o'laroq, naturalistik yo'nalish qadriyatlarini sub'ekt tafakkuriga va uning nisbiy mulohazalariga bog'liq emas, baholovchiga nisbatan birlamchi deb tasavvur qiladi. Freyd va ekzistensialistlar umumiy

qadriyatlarining ta'sirini tan oladi, lekin ijtimoiy qadriyatlar tazyiqi individual qadriyatlar bilan to'qnashuvga sabab bo'ladi va ularni chetga surib qo'yadi, deb hisoblab, bu ta'sirga salbiy baho beradi. Freyd fikriga ko'ra, ijtimoiy nazorat nevrozlarning turli shakllarini vujudga keltirib, shaxsning moslashuvchanligi yo'qolishiga olib keladi. Freyd individning botiniy mayllari jamlangan ruhiyati bilan uning ongidan jamiyat talablariga zid bo'lgan g'oyalarni siqib chiqaruvchi madaniyat o'rtasida konflikt mavjudligini ko'radi. Tabiiy asoslar va madaniyat qadriyatlarining to'qnashuvi inson baxtining kamayishiga, individning o'z tabiiy mayllarini cheklashga qodir emasligi bilan bog'liq bo'lgan jamiyat oldida aybdorlik hissining kuchayishiga olib keladi.

Ekzistensializm ham ijtimoiy talablar individual motivatsiyaga qarshi turishini qayd etadi. Ijtimoiy qadriyatlarining tazyiqi shaxs jamiyatdan uzoqlashishi va o'z individualligini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Hukmron qadriyatlar ko'r-ko'rona qabul qilinishi natijasida shakllanuvchi konformistik ong individual o'zlikning chegarasi kengayishiga monelik qiladi. Ekzistensializm fanni, rasmiy huquq va axloqni ham tanqid tig'i ostiga oladi.

Individual va ijtimoiy qadriyatlar o'zaro nisbatining yuqorida keltirilgan talqiniga qo'shilish mushkul. Ijtimoiy qadriyatlar individning tafakkuri uchun oldindan belgilangan, u tug'ilgunga qadar shakllanadi, mavjud bo'ladi va uning o'limidan keyin mavjudlik bo'lishda davom etadi. Shu ma'noda ular individ uchun muayyan ob'ektiv borliq sifatida mavjud bo'ladi va idrok etiladi. Ammo ijtimoiy qadriyatlar barkamolroq ham, mutlaq ham emas. Ular jamiyat hayotining muayyan sharoitlari ta'sirida vujudga keladi, bu sharoitlarning sub'ektiv ifodasi hisoblanadi. Shu sababli ijtimoiy qadriyatlarining individual qadriyatlarga ta'siri ijobiy bo'lishi ham, salbiy bo'lishi ham mumkin. Ammo shaxs o'zining yaqin va uzoq maqsadlari va vazifalarini erkin belgilovchi, o'z ehtiyojlarini anglovchi va hayotni o'z tajribasiga muvofiq baholovchi ongli va faol ish ko'ruvchi sub'ekt hisoblanadi.

Shu tufayli ham ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar shaxs strukturasi qanday o'rin egallaydi, ularning o'zaro nisbati qanday, degan savolga javob ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bu savolga javob Shuning uchun ham muhimki, qadriyatlar shaxs o'zagini belgilovchi, uning yaxlitligi va mayyanligini ta'minlovchi asos hisoblanadi. O'z-o'zidan ravshanki, ijtimoiy qadriyatlar shaxsning kamol topishida birlamchi ahamiyatga ega, ular shaxsga ijtimoiy sharoitlarga moslashish, jamiyatda muayyan o'rinni egallash, qoniqarli shaxsiy maqomga ega bo'lish imkonini beradi. Shaxs o'zining ijtimoiylaShuvi jarayonida asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtiradi. Psixologiya ijtimoiy qadriyatlarining individ ruhiy hayotining barqaror ichki elementlariga aylanish mexanizmlari qanday, degan savolga ham javob beradi. Bunday mexanizm **interiorizatsiya**, ya'ni tashqi dunyoning ayrim jihatlarini insonning shaxsiy ruhiy hayotiga kiritishdir. Buning natijasida tashqi dunyoning ichki omillari inson tafakkuri va xulq-atvoriga, uning ruhiyati ichki strukturalarining shakllanishiga ijtimoiy faoliyatning tashqi strukturalarini o'zlashtirish orqali ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi zamon psixologiyasida **tarixiy interiorizatsiya** g'oyasi ham ilgari suriladi: muayyan tarixiy davrda odamlar ommaviy xulq-atvorining shakli hisoblangan mexanizmlar keyinchalik ongning ichki mexanizmlariga aylanadi. Bunga rasm-rusumlar, teatr, cherkov, o'yin qabilidagi kollektiv harakatlar, hozirgi sharoitda esa – maktab, televidenie, ommaviy axborot vositalari misol bo'lishi mumkin.

Ammo individual qadriyatlarining shakllanishida faoliyatning rang-barang shakllari (mehnat, bilish, muloqot, o'yin)gina ishtirok etmaydi. Bunday vosita sifatida umuman ijtimoiy tuzilmalar amal qiladi. Bozor va kundalik turmush, reklama va moda, siyosat va huquq, ta'lim va tarbiya, ommaviy axborot vositalari va san'at, hukmron madaniy me'yorlar va ijtimoiy-siyosiy institutlar tomonidan rasmiy darajada andoza sifatida e'tirof etilgan ayrim shaxslarning obro'si, ijtimoiy-psixologik stereotiplar, andozalar, axloq va tabu – bularning barchasi jamiyat ma'naviy hayotining shaxsning qadriyatlarga munosabatini shakllantiruvchi omillaridir.

Shaxsning shakllanishi o'ziga xos qadriyatlar majmuiga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlar, birliklar va birlashmalar doirasida Yuz beradi. Ko'rsatilgan guruhlariga shaxsning mansubligi Shunda namoyon bo'ladi, shaxs ularning ideallari va qadriyatlarini qabul qiladi. Ammo shaxs, odatda, bir emas, balki bir nechta ijtimoiy guruhlar (millatlar va sinflar, oila va o'quv yurti, do'stlar davrasi va ishlab chiqarish jamoasi va sh.k.)ga qo'shiladi. Turli guruhlarda har xil va hatto qarama-

qarshi qadriyatlar ustuvor bo'lishi mumkin. Bu guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar shaxs tafakkurida qadriyatlarining to'qnashuvi Yuz berishiga olib kelishi mumkin. Ayni hol shaxs ustuvor qadriyatlarni mustaqil izlashiga turtki beradi. Shunday qilib, shaxsning individuallashtirilgan, o'ziga xos va betakror xususiyatlari vujudga kelishi, uning alohida hayot tajribasi muqarrar tarzda ijtimoiy qadriyatlarga zid bo'lmagan, balki ularni to'ldiradigan alohida individuallashtirilgan qadriyatlarining shakllanishi bilan bog'liqdir.

Qadriyatlar shaxs xulq-atvorini tartibga solish vositalari sifatida u yoki bu hodisalar qadriyatlar sifatida idrok etilishi yoki idrok etilmasligidan qat'i nazar shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. qadriyatlar tizimi haqidagi ongli tasavvurlar, qadriyatlar va mo'ljallar majmui shaxsning qadriyatlarga munosabatini belgilaydi. Bu munosabat davr hamda shaxs -qo'shilgan ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy me'yorlari va talablarini o'zlashtirishi jarayonida shakllanadi.

Qadriyatlarga munosabat individning hayot tajribasi va shaxs kechinmalarining butun majmui bilan mustahkamlanadi va tartibga solinadi. Ular individga muhimni nomuhimdan ajratish imkonini beradi, motivlarning barqarorligini hamda shaxs xulq-atvori va tafakkurining vorisiyligini belgilaydi. Shunga qaramay botiniy mayllar, xohish-istaklar va intilishlar ham, ayniqsa, ular shaxsning ongli qadriyatlarga munosabati bilan to'qnashganda, o'z ta'sirini ko'rsatadiki, bu ongli ravishda e'lon qilingan va amalda e'tirof etilgan qadriyatlar o'rtasida ziddiyatlarga olib keladi. Ko'rsatilgan ziddiyatlar inson aktual qadriyatlarni afzal ko'rib, haqiqiy qadriyatlar haqida o'z tanasiga o'ylab ko'rmagani bilan izohlanishi mumkin. Ustuvor qadriyatlarni tanlash jarayonida o'z-o'ziga munosabat va haqiqiy shaxsiy maqom o'rtasidagi ziddiyat, Shuningdek yaz individuallashtirilgan qadriyatlari bilan nufuzli ijtimoiy guruhlar tomonidan e'tirof etilgan qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni anglash ham o'z ta'sirini ko'rsatadi

Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roli. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Inson va jamiyat uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar. Bu Shunday qadriyatlarki, ularsiz jamiyat va insonning normal faoliyati izdan chiqmaydi.

2. Kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar. Bu guruhga aksariyat moddiy va ma'naviy qadriyatlar kiradi. Bular insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, jamiyatning normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qadriyatlardir.

3. Oliy qadriyatlar – bu o'z ahamiyatiga ko'ra eng yuksak darajada turuvchi, odamlarning fundamental munosabatlari va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlardir. Oliy qadriyatlarsiz nafaqat inson shaxs sifatida kamol topa olmaydi, balki jamiyat ham normal hayot kechira olmaydi. Oliy qadriyatlarining mavjudligi doimo individning shaxsiy hayoti chegarasidan chetga chiqish bilan bog'liq. Ular individni uning o'zidan yuksak bo'lgan, uning hayotini belgilaydigan, uning taqdiri uzviy bog'liq bo'lgan narsalar bilan oshno etadi. Ayni Shu sababli oliy qadriyatlar odatda umuminsoniy xususiyat kasb etadi.

Moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qadriyatlarining bir qismi oliy qadriyatlar qatoriga kiradi. Bular avvalo: tinchlik, insoniyat hayoti; adolat, erkinlik, odamlarning huquqlari va burchlari, do'stlik va mehribonlik haqidagi tasavvurlar; qarindoshlik aloqalari; faoliyat qadriyatlari (mehnat, ijod, bunyodkorlik, haqiqatni anglab etish); o'z-o'zini asrash qadriyatlari (hayot, sog'liq); o'z shaxsiyatini namoyon etish, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish qadriyatlari; shaxsiy fazilatlarini tanlashni tavsiflovchi qadriyatlar (halollik, dovyuraklik, sadoqat, adolat, yaxshilik) va h.k.

Qadriyatlarni turli asoslarga ko'ra tasniflash dialektik xususiyat kasb etadi, ya'ni u qotib qolgan va harakatsiz emas. Birinchidan, sharoitlar o'zgarishi bilan qadriyatlar bir turdan, bir muhimlik darajasidan boshqa turga, boshqa muhimlik darajasiga o'tishi mumkin. Ikkinchidan, jamiyat rivojlanishi bilan Yangi qadriyatlar vujudga kelishi mumkin va aksincha, avvalgi qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotadi yoki umuman yo'q bo'ladi. Uchinchidan, qadriyatlar bir-biri bilan muayyan tur doirasidagina emas, balki turlar o'rtasida, guruhlarda va guruhlar o'rtasida ham yaqin aloqa qiladi va o'zaro ta'sirga kirishadi. Nihoyat, qadriyatlar har bir turida ko'p sonli tur xillarini farqlash lozim. Masalan, ma'naviy qadriyatlar guruhida axloqiy qadriyatlar, estetik qadriyatlar, bilishga doir (gnoseologik) qadriyatlarni aniq farqlash mumkin.

Oliy qadriyatlar guruhida qadriyat sifatidagi hayot (hayot qadriyatlari), qadriyat sifatidagi sog'liq va qadriyat sifatidagi erkinlik alohida farqlanadi.

Hayot eng oliy qadriyatlar qatoriga kiradi, zero hayotsiz inson bo'lmaydi va qadriyatlar ham bo'lishi mumkin emas. Individ uchun hayot boshqa biron-bir narsaga bog'liq bo'lmagan holda eng yuksak qadriyat, ne'mat sifatida amal qiladi. O'z navbatida, hayotning qimmati boshqa barcha qadriyatlar uchun o'ziga xos zamin va cho'qqi hisoblanadi. Hayotning qimmati qanday tushunilishiga qarab odamlar o'rtasidagi munosabatlar va jamiyatning insonga bo'lgan munosabati ham shakllanadi.

Birinchi holda hayotning qimmatiga individual nuqtai nazardan yondashilsa, ikkinchi holda – ijtimoiy nuqtai nazardan yondashiladi, ya'ni bu erda hayotning ahamiyati individning o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun belgilanadi.

Insonning o'zi qadriyat hisoblanadimi, degan savolning ikki tomoni bor 1) inson uchun boshqa odamning va umuman insonning qimmati nimada? 2) uning o'z hayotining qimmati nima bilan o'lchanadi? Tafsilotlarga berilmay Shuni qayd etamizki, bu savollarga javoblar aniq va uzil-kesil bo'lishi mumkin emas. Gap Shundaki, individning boshqa odamlarga qiziqishi odamlar qandayligigagina emas, balki uning o'zi qandayligiga ham bog'liq bo'ladi. Bunga yana Shuni qo'shimcha qilish joizki, inson hayotining va insonning qimmati to'g'risidagi masalaning qo'yilishi tarixiy sharoitlar bilan bevosita bog'liq. Masalan, O'rta asrlarda feodal o'z krepostnoyini o'ldirishi jinoyat hisoblanmagan va jazoga tortilmagan. Hozirgi vaqtda har bir kishining yashash huquqi tan olingan va odam o'ldirish u yoki bu tarzda jazolanmaydigan mamlakat mavjud emas. Xullas, inson – alohida, mutlaq qadriyat. Qolgan barcha qadriyatlar inson manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi.

Sog'liq qadriyat sifatida. Inson sog'lig'i - qadriyatlar pillapoyasida eng yuksak pog'onalaradan birini egallaydigan tabiiy, mutlaq va boqiy qadriyat. Insonning barcha ehtiyojlarini qondirish darajasi uning sog'lig'i qay darajada ekanligi bilan belgilanadi. Sog'liqqa bo'lgan ehtiyoj yalpi xususiyat kasb etadi, u ayrim individlarga ham, butun jamiyatga ham xos. Shu sababli individual (shaxsiy) sog'liq va jamiyat sog'lig'i yoki aholi salomatligi farqlanadi.

Sog'liqning holati inson va jamiyat hayotining barcha sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, muayyan inson hayotining to'laqonliligi va faolligi uning sog'lig'i darajasiga, «sifat» xususiyatlariga bevosita bog'liq. O'z navbatida, aholi salomatligi mehnat resurslarining sifatiga, ijtimoiy mehnatning unumdorlik darajasiga va Shu tariqa jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi dinamikasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Erkinlik qadriyat sifatida inson uchun ulkan ahamiyatga ega. Bu kategoriyaning falsafiy talqini quyidagi ta'rifda o'zining ayniqsa aniq ifodasini topgan: erkinlik – bu insonning ob'ektiv zaruriyatni bilishga tayangan holda o'z manfaatlari va maqsadlariga muvofiq ish ko'rish qobiliyatidir.

Erkinlik doim va hamma joyda eng buyuk qadriyat hisoblanadi. Boshqa hollarda bo'lganidek, erkinlik uni inson anglagan taqdiridagina qadriyatga aylanadi. Erkinlikning qimmati anglab etilmagan, inson o'zini boshqa odamlar bilan teng jonzot sifatida idrok etmagan joyda o'ziga qadriyat sifatida yondashish ham, insonning qadr-qimmati ham mavjud bo'lmaydi. O'zining erksizligini tushunish va erkinlikning qimmatini anglab etish tub ijtimoiy o'zgarishlar davrida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi.

Erkinlik – barcha odamlarning sivilizatsiya yutuqlaridan teng darajada foydalanish va o'z mehnati mevalarini va o'z taqdirini tasarruf etish huquqi. Erkinlik yo'l tanlash imkoniyatidir. Ongli ravishda amalga oshiriladigan har qanday yo'l tanlash kabi, erkinlik ham shaxs uchun muqobil imkoniyatlardan birini afzal ko'rish va boshqasidan voz kechish bilan bog'liq. Yo'l tanlash shaxsning keyingi faoliyatini cheklovchi omilga aylanmasligi uchun u muhim qoidaga amal qilishi lozim: har safar yo'l tanlashni amalga oshirayotganda keyingi yo'l tanlashlar istiqboli toraymasligiga, balki insonga o'zining Yangi kasbiy, axloqiy va intellektual imkoniyatlarini aniqlash imkonini berib, kengayib borishiga erishishga harakat qilish kerak.

Shunday qilib, biz ko'p sonli rang-barang qadriyatlar mavjudligini aniqladik va ularni tasniflashni amalga oshirdik. Endi barcha real qadriyatlar inson ongining omiliga aylanadimi, degan savolga javob topishimiz lozim.

Yo'q, hamma qadriyatlar ham amalda inson ongining omiliga aylanavermaydi. Ba'zan bu insonning o'ziga bog'liq bo'lgan ob'ektiv sabablarga ko'ra Yuz beradi. Individ tomonidan anglab etiladigan va uning e'tiqodlari qatoridan o'rin oladigan qadriyatlar uning harakatlari tarzini belgilovchi mo'ljallarga aylanadi. Boshqacha aytganda, anglab etilgan qadriyatlar shaxsning qadriyatlarga bo'lgan munosabatiga aylanadi.

SHaxsning qadriyatlarga bo'lgan munosabati. Mazkur tushuncha ilmiy muomalaga XX asrning 20-yillarida sotsiologlar U.Tomas va F.Znanetskiy tomonidan kiritilgan. Ular qadriyatlarga munosabatni shaxsning uning xulq-atvorini tartibga soluvchi ijtimoiy mo'ljali sifatida yondashgan. Shu tariqa qadriyatlarga munosabat tadqiqotlar predmetiga aylangan. Bu tushunchaning ko'p sonli turli talqinlari paydo bo'lgan. Biz quyidagi ta'rifga qarab mo'ljal olamiz.

Qadriyatlarga munosabat – bu shaxsning hayot tajribasi, uning barcha kechinmalari majmui bilan mustahkamlangan va shaxs uchun muhim ahamiyatga molik bo'lgan narsalarni ikkinchi darajali, ahamiyatsiz narsalardan ajratuvchi muhim elementlari.

Vujudga kelgan, keng tarqalgan qadriyatlarga munosabatlar majmui ongning shaxsning barqarorligini, muayyan turdagi xulq-atvor va faoliyatning vorisiyiligi ta'minlovchi, individning ehtiyojlari va manfaatlariga yo'l ko'rsatuvchi o'ziga xos o'zagini tashkil etadi. Ayni Shu sababli qadriyatlarga munosabat shaxs motivatsiyasini tartibga soluvchi, belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Rivojlangan qadriyatlarga munosabat – shaxsning etuklik belgisi, uning ijtimoiylik darajasi ko'rsatkichi. Vatanparvarlik, insonparvarlik, ijod shaxsning muhim qadriyatlarga munosabatlari hisoblanadi.

Qadriyatlarga munosabatlarning barqaror va ziddiyatlardan xoli majmui shaxsning muayyan tamoyillar va ideallarga sodiqlik, bu ideallar va qadriyatlarga erishish yo'lida g'ov-to'siqlardan oshib o'tishga qodirlik, hayot pozitsiyasining faolligi, maqsadga erishish yo'lida tirishqoqlik kabi fazilatlarini belgilaydi. Qadriyatlarga munosabatlarda ziddiyatlilik xulq-atvorda noizchillikni vujudga keltiradi. Qadriyatlarga munosabatlarning norasoligi – infantilizm (bolalik yoshi xossalari), shaxsning ichki strukturasi tashqi stimullarning ustunligi belgisi.

4. Qadriyatlar ierarxiyasi. Qadriyatlar shaxs va jamiyat ehtiyojlari, manfaatlar bilan belgilangan bo'ls, ular murakkab tuzilishga va alohida ierarxiyaga ega bo'ladi. Qadriyatlar ierarxiyasi zamirida tirik mavjudot sifatidagi inson hayoti uchun zarur bo'lgan fundamental qadriyatlar (tabiiy boyliklar, moddiy yashash sharoitlari – turar joy, oziq-ovqat mahsulotlari, sog'liqni saqlash va sh.k.) va insonning ijtimoiy mohiyatiga, uning ma'naviy tabiatiga bog'liq bo'lgan oliy qadriyatlar yotadi. Birinchi guruhga moddiy (utilitar) qadriyatlar, ikkinchi guruhga esa ma'naviy qadriyatlar kiradi. qadriyatlarining birinchi guruhi insondan tashqarida yotuvchi maqsad bilan belgilanadi, ikkinchi guruh ichki asosga ega. Moddiy, utilitar qadriyat vositaning qimmatidir, zero narsaning foydaliligi u nimaga xizmat qilishga mo'ljallangan bo'lsa, Shu vazifa bilan belgilanadi. O'z vazifasini bajargach, bu narsa qadriyat sifatida o'z ahamiyatini yo'qotadi. Moddiy, utilitar qadriyatdan farqli o'laroq, ma'naviy qadriyat o'ziga to'q xususiyat kasb etadi va o'zidan tashqarida yotuvchi motivlarga muhtoj bo'lmaydi. Utilitar pragmatik qadriyatlar faoliyat maqsadini belgilasa, ma'naviy qadriyatlar inson faoliyatining mazmunini belgilaydi.

Shunga mos ravishda shaxsning ma'naviy dunyosi ham o'z ierarxiyasiga ega bo'ladi. Inson ma'naviyati uchta: ma'rifiy, axloqiy va estetik asoslarni o'z ichiga oladi. Ularga ma'naviy ijodkorlarning uch tipi: donishmand (biluvchi), taqvodor (avliyo) va san'atkor mos keladi. Bu asoslarning o'zagi ma'naviyatdir. Bilim bizga haqiqatning tagiga etish uchun imkoniyat yaratib, to'g'ri yo'l ko'rsatsa, axloqiy va estetik asos insonning o'z egoistik «Meni» chegarasidan chetga chiqib, ezgulik urug'ini sochish qobiliyati va ehtiyojini nazarda tutadi.

Ma'naviy qadriyatlarining o'ziga xos xususiyati Shundaki, ular nouutilitar va noinstrumental xususiyat kasb etadi: ular boshqa biror narsaga xizmat qilmaydi, aksincha, boshqa barcha narsalar ularga bo'ysunadi va oliy qadriyatlar bilan bog'liq holdagina muayyan mazmun kasb etadi. Oliy

qadriyatlarining yana bir xususiyati Shundan iboratki, ular muayyan xalq madaniyatining o'zagi hisoblanadi. Madaniyatda odamlarning fundamental umuminsoniy qadriyatlari: tinchlik, salomatlik va insoniyat hayoti mujassamlashadi. Madaniyatda muloqot qadriyatlari (do'stlik, mehribonlik, ishonch, oila), turmush tarzi qadriyatlari (ijtimoiy adolat, erkinlik, inson huquqlari va Shu kabilar haqidagi tasavvurlar) o'z ifodasini topadi. Oliy qadriyatlar yo'l tanlash vaziyatlarining cheksiz to'plamida ro'yobga chiqadi.

Shunday qilib, qadriyatlar tushunchasi shaxsning ma'naviy dunyosi bilan uzviy bog'liq. **Aql-idrok, oqilonalik, bilimlar** insonning maqsadga muvofiq faoliyatini belgilovchi ongning eng muhim elementlari hisoblansa, ular negizida shakllanuvchi ma'naviyat o'z hayot yo'lini, o'z faoliyatining maqsadlari va mazmuni hamda ularga erishish vositalarini tanlash to'g'risidagi masalani u yoki bu tarzda echayotgan inson hayotining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar qatoriga kiradi.

Xulosalar. Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida o'z holicha emas, balki vujudga kelgan qadriyatlarga munosabatlar tizimi zaminida muhim o'rin egallaydi,

Qadriyatlarining butun rang-barangligini uch asos: ijtimoiy hayot sohalariga, sub'ektlarga, qadriyatlarining jamiyat hayotidagi rolga ko'ra tasniflash mumkin.

Quyidagilar inson uchun eng oliy qadriyat hisoblanadi: qadriyat sifatidagi hayot, qadriyat sifatidagi sog'liq va qadriyat sifatidagi erkinlik.

Takrorlash uchun savollar

1. Jamiyat nima?
2. Jamiyatning vujudga kelish tarixi.
3. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti.
4. Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi nazariyalar
5. Barqarorlik va beqarorlik tushunchalari.
6. Ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning "O'zbek modeli". O'zbekistonni rivojlantirishning xarakteristik strategiyasi.
7. Jamiyat va oila.
8. Fuqarolik jamiyati

1.8 – Mavzu. Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)

Reja:

1. Inson – falsafaning bosh mavzusi.
2. Inson, odam, shahs, individ va individuallik tushunchalari.
3. Insonni vujudga kelishi haqidagi yondashuvlar.
4. Insonga bo'lgan yondashuvlar: ekstrovertiv va introvertiv. Konsepsiyalar: biologizatorlik va sotsiologizatorlik.

1. Inson – falsafaning bosh mavzusi.

Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o'rni falsafiy muammolar tizimida muhim o'rin tutadi. Turli falsafiy ta'limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo'lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir Yangi tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro'yobga chiqarishga intilaveradi.

Suqrotning «O'zligingni bil» degan hikmatli so'zi har bir tarixiy davrda Yangicha ahamiyat kasb etadi. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug' mutasavvuf Abdulxoliq Fijduvoni insonni «kichik olam» deb hisoblagan. Falsafada baxs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldordir. Umuman olganda, insonga daxldor bo'lmasa, unga foyda keltirmasa, jamiyatning og'irini engil qilmasa, unday fanning keragi bormikang? Shu ma'noda, inson, avvallo, o'zi uchun zarur bo'lgan fanlarni, ilmlar va bilimlar tizimini yaratgan.

Tabiat, madaniyat, siyosat, sivilizatsiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo'lish shakllaridir. Ularning barchasi inson tabiati va mohiyati bilan bog'liqdir.

Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Inson Shunday murakkab va ko'p qirrali mavjudotki, uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin va ma'nodosh bo'lsa ham, bir-biridan farqlanadi.

Inson falsafiy muammo sifatida. Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma'naviy borlig'ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo'nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid o'laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga etish borliq jumbog'ining tagiga etish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab etganlar. Zero Forobiy aytganidek -"Odamlar o'zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko'ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi"¹. O'z-o'zingni angla va Shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtidan bilishga bo'lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat Yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab harakat qiladigan bo'lsak, narsalar mohiyatini hech anglay olmaymiz, zero bu mohiyat insonning o'zida mujassamlashgan.

Bu fikr qadimgi mutafakkirlargayoq yaxshi ma'lum bo'lgan. Unga turli ko'rinishlarda Sharqda ham, yunon-rim falsafiy an'anasida ham duch kelish mumkin. Xususan, antik davrda Delfidagi Apollon ibodatxonasiga kiraverishda ustunga o'yib yozilgan, rivoyatlarga qaraganda Suqrot takrorlashni yaxshi ko'rgan «O'z-o'zingni angla», degan ibora ayniqsa mashhur bo'lgan. Ajablanarlisi Shundaki, oradan ikki yarim ming yil vaqt o'tgach, hozir ham bu fikr o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U nafaqat narsalar dunyosini, balki inson borlig'ining mohiyatini, inson va ijtimoiy munosabatlarning asl tabiatini tushunishga harakat qilayotgan har bir odam uchun o'z-o'zini anglashga chorlovchi fikr bo'lib qolmoqda. Buni faqat Shu bilan izohlash mumkinki, ayni holda har bir Yangi avlod o'z davri hamda tabiiy-ilmiy va falsafiy tasavvurlarning tegishli darajasi nuqtai nazaridan echishga harakat qiladigan o'ta murakkab, «boqiy» falsafiy masalalardan biri to'g'risida so'z yuritiladi.

Tarixga boshqa ko'p sonli iboralar ham ma'lum bo'lib, ular vaqt, madaniyat va diniy e'tiqoddan qat'iy nazar, inson barcha zamonlarda butun dunyo mutafakkirlarining diqqat markazida bo'lgani va hozir ham Shunday ekanligi, tayanch nuqtasi va hatto bilish mezonini bo'lib xizmat qilishidan dalolat beradi. Xususan, qadimgi xitoy faylasufi Lao Szi fikriga ko'ra, «boshqalarni biluvchi – oqil, o'zini biluvchi – donishmanddir». Protagorning: «Inson barcha narsalar mezonidir», degan fikri ham juda mashhur. «Tangri saltanati bizning ichimizdadir», deb o'rgatgan Iso Masih. Buddaviylarning: «O'zligingga nazar tashla, sen Buddasan», degan chorlovi ham yuqoridagi fikr bilan hamohangdir. Islomda «Kimki o'zini bilsa, u Allohni ham bilgaydir», deyiladi.

Demak, inson o'zini dunyodan oldinroq va ko'proq biladi, ayni Shu sababli u dunyoni o'zidan keyin va o'zi orqali anglab etadi. Falsafa dunyoni inson orqali ichdan bilishdir, fan esa insondan tashqaridagi dunyoni Yuzaki bilish demakdir. Insonda mutlaq borliq, insondan tashqarida esa – nisbiy borliq namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat, antik davrdan boshlab insonga bo'lgan qiziqish dam kuchayib, dam ma'lum vaqt pasayib turgan, lekin hech qachon yo'qolmagan. «Inson nima?», degan savol bugungi kunda ham avvalgidek jahon falsafasidagi o'ta muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda, insoniyatning eng o'tkir aql-zakovat sohiblari e'tiboridan tushmay va ayni vaqtda o'zining uzil-kesil, umumiy e'tirof etilgan echimini topmay kelmoqda.

Inson har safar mutafakkirlar diqqat markazidan o'rin olar ekan, uning mohiyatini Yangi tarixiy sharoitda va Yangicha nuqtai nazardan anglab etishga harakat qilib, uni qayta va qayta

¹ Ал-Фаробий Философия политики. – М.: 1989. – С.529.

Yangidan kashf etganlar. Pirovardida, falsafa fanida insondan murakkabroq va ziddiyatliroq predmet yo‘q, desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Inson barcha yaxshi fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan o‘ziga xos, betakror va barkamol mavjudot – cheksiz mikrokosm sifatida ham, inson tabiatining norasoligi va buzuqligi tufayli halokatga mahkum bo‘lgan tabiat xatosi sifatida ham, Xudo yaratgan banda sifatida ham, boshqa odamlar faoliyatining mahsuli sifatida ham talqin qilinadi. Xususan, Sharq mutafakkiri A.Beruniy jahon fanida birinchi marta inson va tabiat, odam va olam o‘rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtai nazaridan o‘rganadi. U “odamlar tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va erning, odam yashaydigan joylarning turlichaligi hamdir. Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli hoxishlarni ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘zlarga ehtiyoj tug‘ilishidir. Uzoq zamonlar o‘tishi bilan bu iboralar ko‘payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan”⁷⁹, deb hisoblaydi. Demak, Beruniy fikricha, insonning fe‘l-atvori va ma‘naviy qarashlari, surati va siyrati bevosita tabiiy muhit ta‘sirida shakllanadi. Zero, aynan Shu tabiiy muhit, geografik sharoit xalqlar, millatlar shakllanishining muhim asosi bo‘la oladi. “Inson o‘z tabiatiga ko‘ra murakkab tanaga egadir. Insonning tanasi bir-biriga qarama-qarshi qismlardan iborat bo‘lib, bu qismlar tobelik kuchi asosida birlashgan”⁸⁰. Beruniy fikricha, hamma odamlarda o‘zaro bir-biriga o‘xshash va ayni paytda farq qilib turadigan jihatlar mavjud. Ibn Sino, “Inson boshqa barcha hayvonot olamidani so‘zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Inson aqli turli fanlarni o‘rganish yordamida boyiydi”⁸¹, deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, inson o‘z tabiatiga ko‘ra hayotini tartibga keltirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun boshqa insonlarga muhtoj bo‘ladi. YAKka holda hech kim buning uddasidan chiqa olmaydi. “Inson Shunday maxluqotki, u faqat jamiyatda o‘z ehtiyojlarini qondirishi va oliy ma‘naviy darajaga ko‘tarilishi mumkin”⁸². Inson o‘z hayotining me‘mori, ijodkori bo‘lmog‘i, o‘zida fozila xislatlar, iste’dodlarni tarbiyalashi lozim. Bunga esa u jamiyatda yashab faoliyat ko‘rsatgandagina erishadi. Inson ijtimoiy mavjudot. YOlg‘izlik uzlat uni qashshoqlashtiradi, insoniy qiyofasini va baxtga olib boradigan iste’dodini yo‘qotadi. Ibn Xaldun insonga ijtimoiy voqelik sifatida qaraydi. Undan ijtimoiy mohiyat izlaydi. Inson jonzot sifatida ezgulik va yovuzlik olamidir. Shunga ko‘ra, u umrining har daqiqasida yovuzlikdan ko‘ra ezgulikka, yomonlikdan ko‘ra yaxshilikka, nafratdan ko‘ra muhabbatga intilib yashashga mahkum etilgan aql sohibi, bebaho ne‘matdir.

Inson barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir, degan fikr insonga mexanistik nuqtai nazardan yondashgan Ma‘rifat davri mutafakkirlari, xususan «Inson-mashina» deb nomlangan asar muallifi fransuz J.Lametri (1709-1751) ilgari surgan g‘oyalar bilan to‘qnashadi.

Boshqa bir mashhur fransuz faylasufi – R.Dekart (1596-1650) asarlarida inson mohiyati masalasiga nisbatan butunlay o‘zgacha yondashuvga duch kelamiz. U «inson fikrlovchi narsadir», deb hisoblaydi.

«Inson, u uzoq vaqt o‘ylaganidek, dunyoning statik markazi emas, balki evolyusiyaning o‘ziga va cho‘qqisi bo‘lib, bu ancha go‘zalroqdir»⁸³, deb qayd etadi atoqli fransuz faylasufi va teolog P.T. de SHarden (1881-1955).

Unga zid o‘laroq, A.SHopengauer (1788-1860) inson nuqsonli mavjudot ekanligini ta‘kidlaydi, uni «tabiat xalturasi» deb ataydi.

Fransuz yozuvchisi va faylasufi J.P.Sartr (1905-1980) bu fikrni butunlay rad etadi. Uning fikricha, inson kelajakka qarab intiladi va Shu tariqa o‘zini o‘zi yaratadi. U «Inson – odamzot kelajagidir», deb ta‘kidlaydi.

⁷⁹Беруний А. Танланган асарлар. 1 жилд. –Т.: Фан, 1968.-Б.16-17.

⁸⁰ Қаранг: Ирисов А. Абу Райхон Беруний хикматлари. -Т.: Ёш гвардия, 1973. –Б.40-43

⁸¹Ибн Сина. Данишнамэ. -Душанбе.: 1957.-С..59

⁸²Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –Б.69

⁸³Тейяр де Шарден П. Феномен человека. -М.: 1987.-С.40

Shunday qilib, falsafaning ikki yarim ming yillik tarixi mobaynida insonga juda ko'p ta'riflar va tavsiflar berildi, u ko'p sonli sinonimlar orttirdiki, falsafiy tahlilning boshqa biron-bir ob'ektida bunday holga duch kelish mushkul. Zero, falsafa tarixida inson:

- «aqli mavjudot»;
- «siyosiy hayvon»;
- «tabiat gultoji»;
- «hayotning boshi berk ko'chasi»;
- «hayotning soxta qadami»;
- «mehnat qurollari yasovchi hayvon»;
- «o'zlikni anglash qobiliyatiga ega mavjudot»;
- «ma'naviy va erkin mavjudot» va hokazolar sifatida talqin qilingan.

Fikrlarning bunday rang-barangligi sababini, avvalo, insonning o'z tabiatidan izlash lozim. Inson tabiatining siri, hech Shubhasiz, «boqiy muammolar»dan biri bo'lib, falsafa o'z predmetining mohiyati va xususiyatiga ko'ra unga qayta-qayta murojaat etgan va Shunday bo'lib qoladi. Bu erda mazkur sohadagi barcha fikr-mulohazalarga mo'ljal beruvchi insonning kelib chiqishi haqidagi masala ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qaerdan va qanday paydo bo'lgani haqidagi ko'p sonli g'oyalar orasidan eng muhimlarini ajratib olsak, ularning barchasini ma'lum darajada shartlilik bilan ikki asosiy konsepsiya – *insonning tabiiy va g'ayritabiiy kelib chiqishi haqidagi konsepsiyalar* doirasida birlashtirish mumkin.

Insonning kelib chiqishi haqidagi birinchi yondashuv insonning paydo bo'lishiga olib kelgantabiatning qonuniy rivojlanishi g'oyasidan kelib chiqadi. Bunda inson jonsiz, keyinchalik esa – jonli moddaning tabiiy evolyusiyasi mahsuli sifatida qaraladi. Mazkur konsepsiya 1859 yilda inson kelib chiqishining tabiiy-ilmiy talqiniga asos bo'lgan CH.Darvinning «Hayvon va o'simlik turlarining kelib chiqishi haqida» deb nomlangan mashhur asarini e'lon qilgan evolyusion nazariyasiga tayanadi va hozirgi vaqtda molekulyar biologiya va gen injeneriyasi sohasida erishilgan eng so'nggi yutuqlar ta'sirida o'z shakl-shamoyilini sezilarli darajada o'zgartirib, aksariyat olimlar uchun ularning ilmiy faoliyatida o'ziga xos dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

YAna Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, insonda nafaqat o'ta rivojlangan tirik jonzotlar, balki o'ta sodda mavjudotlar bilan ham kuchli genetik o'xshashlik mavjud. Xususan, shimpanze bilan bunday o'xshashlik 98% ni, kalamush bilan – 80% ni va hatto banan bilan – 50% ni tashkil etadi.

Biroq, Shuni ta'kidlash lozimki, «tabiiy» yondashuv tarafdorlari inson kelib chiqishining dunyoviy konsepsiyasiga ham (masalan, darvinchilar bilan bog'liq holda bo'lganidek), kosmik konsepsiyasiga ham tayanishlari mumkin.

Ikkinchi yondashuv insonga, Xudo yoki kosmik Aql mehnatining mahsuli sifatida qarab, uni g'ayritabiiy asosdan keltirib chiqaradi. Garchi bu konsepsiya isbotlanganlik jihatidan birinchi ta'limotga hozirgi zamon tabiatshunosligi nuqtai nazaridan yon bersa-da, lekin falsafiy nuqtai nazardan u insonning tabiiy-ilmiy kelib chiqishi konsepsiyasi kabi mavjudlik huquqiga egadir, zero birinchi yondashuv ham, ikkinchi yondashuv ham oqilona asoslangan va uzil-kesil dalil-isbotlar keltirmaydi.

Inson, shaxs va individ tushunchasi. Antropologiya.

Inson — o'zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarnimujassamlashtirgan ongli mavjudot. Insonning biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalanih, zurriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilar xos.

Inson boshqa mavjudotlardan sotsial xususiyatlari bilan ajralib turadi. CHunonchi, til, muomala, ramziy belgilar, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste'mol qilish, boshqarish, o'z-o'zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar, tabu (ruxsat va ta'qiqlash) Shular jumlasidandir.

Insonning psixik xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g'am-tashvish, qayg'u, iztirob chekish, zavqlanish, kayfiyat kabilar kiradi.

Inson Shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi. U yaxlit mavjudot sifatida o'z ehtiyojlarini qondiradi va insoniyat davomiyligini ta'minlaydi. Insonga xos bo'lgan biologik xususiyatlarni ijtimoiy xususiyatlardan ustun qo'yish yoki psixologik xususiyatlarni bo'rttirish uning mohiyatini buzib talqin etishga, bir yoqlamalikka olib keladi.

Falsafa tarixida inson to'g'risidagi ta'limotlarda biologizm, sotsiologizm, psixologizm kabi yo'nalishlar vujudga kelgan. Biologizm insonning tabiiy-biologik xususiyatlariga, sotsiologizm insonning ijtimoiy xususiyatlariga, psixologizm esa, ma'naviy, ruhiy, psixologik xususiyatlariga bir yoqlama yondashishga asoslangan edi.

Inson mohiyatini falsafiy jihatdan chuqurroq tahlil qilishda shaxs, individ, individuallik tushunchalarining mohiyatini bilish va ularni bir — biridan farqlash muhimdir. **SHaxs** o'zida sotsial sifatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Kishilar shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo'lib shakllanadi va rivojlanadi. Chunki insonga xos ijtimoiy sifatlari, fazilatlar avloddan-avlodga irsiy yo'l bilan o'tmaydi. Inson dunyoga kelgan vaqtida jamiyat, siyosiy tuzum, madaniyat, ishlab chiqarish, oila, ommaviy axborot vositalari, mafkura kabi ijtimoiy tuzilmalar mavjud bo'ladi.

Inson ta'lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar, siyosiy g'oya, milliy mafkura kabi omillar ta'sirida yashaydi, ularni o'zlashtiradi va Shu jarayonda ijtimoiylashadi, ya'ni shaxs bo'lib shakllanadi. Natijada insonda Yangicha fazilat va sifatlari paydo bo'ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi.

O'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash, yuksak mas'uliyatni his etish, g'oya uchun kurashish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsiga xos belgilardir. SHaxsning maqsad, g'oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g'oya va mafkura bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanadi. Milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish, ezgu ideallar yo'lida hatto hayotini qurbon qilish shaxs hayotining bosh maqsadiga aylanadi.

SHaxs mustahkam imon-e'tiqod, g'oya va insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, Vatan, millat tuyg'usi bilan yashaydigan, o'zida davr xususiyatlarini ifoda etadigan insondir.

Jamiyat o'z taraqqiyoti davomida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun shaxsning muayyan tarixiy namunalarini yaratadi. Har bir o'zgargan tarixiy sharoitda shaxs mohiyatini va mazmunini Yangicha tushunish zaruriyati vujudga keladi. Bugungi adabiyotlarda harizmatik, Shuhratparastlik, tajovuzkorlik va boshqa shakldagi shaxslar timsoli aks ettirilmoqda.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fozil va barkamol inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z oldiga ana Shunday shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi.

Inson tarixning yaratuvchisi sifatida tabiat taraqqiyotidagi uzluksizlikni ta'minlaydi. U o'z bilimi, tajribasi va yutuqlarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi; tabiat va jamiyatni qayta quradi va takomillashtiradi. Inson o'z aqli tufayli butun koinot, tabiat taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, o'z tarixini yaratadi, uni avaylab-asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomilla Shuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Tabiat va jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, yaratuvchilik mohiyati, oliy mavjudot ekani, vorislikning davomiyligini ta'minlashi barcha ijobiy va foydali yutuqlarni saqlashi va targ'ib etishi kabi xususiyati va qobiliyati tufayli inson muqaddas va tabarruk qadriyat hisoblanadi.

Antropologiya insondagi insoniylikning namoyon bo'lishi va rivojlanishini ruh bilan bog'laydi. Ayrim tadqiqotchilar insonga xos bo'lgan biror-bir xususiyatga alohida urg'u bergan va Shu orqali insoniy mohiyatni ochib berishga harakat qilgan. Masalan, I. Kant insondagi axloqiy jihatlarga ko'proq e'tibor bergan va uni ezgulikni yovuzlikdan farqlovchi mavjudot sifatida ta'riflagan. Vladimir Solovev insonning boshqa mavjudotlardan farqini uyalish, achinish va oliy kuchlarga sig'inish kabi xususiyatlarda, deb bilgan. Uning fikricha, inson o'zining tuban mayllari va gunohlaridan uyalish qobiliyatiga ega. Faqat odamlarga emas, balki butun tirik jonga achinish va muqaddas kuchlarga sig'inish insonning xos.

Inson tabiati — g‘oyat murakkab. Unda hayvoniy va ilohiy sifatlar mujassamlashgan. Lekin u — hayvon ham, farishta ham emas. Insoniy ruh va ma’naviyat uni boshqa mavjudotlardan yuqori darajaga ko‘taradi.

Insonga fan nuqtai nazaridan yondashuv. Tabiat haqida bilimlar to‘planishi va ularning rivojlanishiga qarab, odamzotning o‘z-o‘ziga bo‘lgan qiziqishi ham kuchayib bordi, inson borlig‘ining bu sohadagi tadqiqotlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratuvchi Yangi va Yangi o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Odatda, jamiyat hayotida tarixan qisqa vaqt ichida jiddiy va teran o‘zgarishlar Yuz bergan, insoniy munosabatlar negizini tashkil etuvchi eskicha tasavvurlar va qarashlar ta’sirida butunlay o‘zgargan davrlarda insonga bo‘lgan falsafiy qiziqish ayniqsa kuchaygan. Bunday davrlarda falsafada insonning mohiyati, uning burchi, vazifasi va Yuz berayotgan voqealar uchun javobgarligi haqidagi azaliy masalalarga bo‘lgan qiziqish yana kuchaygan. Shunday qilib, falsafaning ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika kabi bo‘limlari bilan bir qatorda, inson haqidagi bilimlar sohasi asta-sekin shakllanib bordi. Bu erda inson nafaqat turli tomonlardan tahlil qilindi, balki uning ijtimoiy, tabiiy va kosmik jarayonlar bilan o‘zaro aloqalari ham o‘rganildi.

Xo‘sh, bilimning bu sohasida asrlar mobaynida qanday ijobiy bilimlar to‘plangan? Insonni tushunish borasida taraqqiyotga erishildimi? Falsafa va fan sohasida erishilgan insonning mohiyatini tavsiflovchi, uning muhim xususiyatlarini yoritib beruvchi qanday shak-Shubhasiz yutuqlarni qayd etish mumkin?

Insonni bilish borasidagi ko‘p asrlik sa’y-harakatlarni bir erga jamlab, ularning orasidan uzil-kesil echilgan deb hisoblash mumkin bo‘lganlarini ajratib olsak, shak-Shubhasiz yutuqlar soni uncha ko‘p bo‘lmaydi. Ular orasida avvalo Shu dalilni qayd etish lozimki, insonning paydo bo‘lishi Erda hayotning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u o‘z ibtidosi va muayyan tarixiga egadir. Xususan, 1982 yil Vatikandagi Rim Papasi fanlar akademiyasi tashkil etgan kongress ishtirokchilari – dunyoga mashhur antropologlar, bioximiklar va genetiklar hozirgi zamon tabiatShunosligiga tayanib, inson va hayvonot dunyosi o‘rtasida yaqin aloqa mavjud, degan umumiy xulosaga keldilar.

Inson va uni qurshagan dunyo tadrijiy rivojlanishini isbotlangan deb hisoblash mumkin. Bu nafaqat arxeologiya va Er geologik tarixi bilan tasdiqlanadi, balki Erdagi hayotga doir hozirgi tasavvurlardan va umumiy e’tirof etilgan «kengayib boruvchi Olam» nazariyasi tuShuntiradigan dunyodagi evolyusion jarayonlardan ham kelib chiqadi.

Biroq fan, ayniqsa genetika ba’zan bizning avvalgi tasavvurlarimizni butunlay o‘zgartiradigan Yangi kashfiyotlar qilishda davom etmoqda. Xususan, jonli mavjudotlarning biologik nusxalarini yaratish imkoniyatini beruvchi klonlash ketidan genetiklar, shov-Shuvga sabab bo‘lgan eng so‘nggi xabarlariga ko‘ra, qadimgi faylasuflarning ilgari faqat odatdagi tajribaga tayangan o‘lmaydigan odam yo‘qligi haqidagi taxminiy (induktiv) xulosani jiddiy Shubha ostida qoldirishga qodir natijaga yaqinlashdilar. Jumladan, italyan olimlari sut emizuvchilarning qarish jarayonini P66SHC sifatida ma’lum bo‘lgan alohida gen boshqarishini aniqladilar. Ular mazkur genni «nazorat osti»ga olish va Shu tariqa sinalayotgan hayvonlar umrini populyasiya bo‘yicha umrning o‘rtacha uzunlik ko‘rsatkichiga nisbatan 35% ga uzaytirishga muvaffaq bo‘ldilar.

Shunga qaramay, bugungi kunda jismoniy umrboqiylik ilmiy nuqtai nazardan biologiyaning fundamental qonunlariga zid hisoblanadi. Bu qonunlarga muvofiq hujayralarning bo‘linish yo‘li bilan ko‘payish qobiliyatining susayib borishi inson hayotini cheklaydi. Xususan, insonning etuk organizmi taxminan 50 000 milliard hujayradan iborat ekanligi aniqlangan. «Odamda uning umri mobaynida bir hujayra avlodida ketma-ket bo‘linishlar soni elliktagacha bo‘ladi. Bo‘linish jarayonlari maromini hisobga olganda, Shuni taxmin qilish mumkinki, inson umrining uzunligi (ba’zi bir istisno hollardan tashqari) 110 yoshdan oshishi mumkin emas»¹.

Biroq fan bir joyda to‘xtab turgani yo‘q va Shu bois matbuotda vaqti-vaqti bilan paydo bo‘layotgan genetik olimlarning hujayra qarishini to‘xtatadigan moddani topish, Shuningdek organizmda mazkur moddaning ajralishini boshqaradigan genni aniqlash borasidagi urinishlari haqidagi xabarlar o‘ziga jiddiy e’tibor berishni talab qiladi.

¹ Годфруа Ж. Что такое психология. – М.: 1996. Т. 2. – С.10.

Inson nima va uning mohiyati qanday degan savollarga javob topish uchun yo‘l ochadigan ba’zi bir muammolarning ta’riflanishini ham ilmiy tadqiqotlarning shak-Shubhasiz natijasi deb hisoblash lozim. Ularning eng muhimi – insonning kelib chiqishi, Shuningdek ong, til, ijod, axloq, ma’naviyat va Shu kabilarning tabiatini aniqlashdir.

Ko‘rsatilgan muammolarni anglab etishga ahd qilgan har qanday odam,

- hayot nima?
- birinchi odam qaerda va qachon paydo bo‘lgan?
- inson ma’naviyatining tabiati qanday?
- Erda inson paydo bo‘lishining sababi nimada?
- bunda muayyan mantiq, qonuniyat, azaldan belgilangan muqarrarlik mavjudmi yoki bunga qandaydir tasodif, anomaliya, kimningdir xohish-istagi sabab bo‘lganmi?
- hayot kosmik hodisami yoki faqat bizning sayyoramizda mavjudmi?
- inson butun Koinotdagi birdan-bir aqlli mavjudotmi?, kabi masalalarni e’tibordan chetda qoldirishi mumkin emas.

Bu va boshqa Shunga o‘xshash masalalar echimini topish ustida falsafiy tafakkur ham, ilmiy tafakkur ham tinimsiz izlanadi. Ammo tabiatShunoslik uchun ularning aksariyati nafaqat mushkul, balki echib bo‘lmaydigan, ba’zi bir hollarda esa umuman ochiq masalalar hisoblanadi, chunki ular xususida mavjud bilimlar Shu qadar oz, Yuzaki va muammolarga to‘laki, bunday bilimlarga asoslangan mulohazalar (boshqacha mulohazalar umuman mavjud emas) o‘zining ishonchlilik darajasiga ko‘ra taxminiy xususiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Ammo fan o‘z kuchini yo‘qotgan, yoki, hali kuchga to‘lmagan joyda aniq ta’riflar, bir xillashtirilgan til, yagona metodologiya va ishonchli dalillar bilan cheklanmagan falsafa o‘zini erkin his qiladi. Bu muayyan soha – antropologiyada o‘z ifodasini topadi.

Falsafa «boqiy» masalalarni o‘rganar va butun borliqning dastlabki asoslari va muhim qadriyatlarini aniqlashga harakat qilar ekan, u uzil-kesil echimlar va shak-Shubhasiz javoblar olishga da’vogarlik qilmaydi. Sinovdan o‘tkazilgan dalillar va isbotlangan asoslarning yo‘qligi uni xijolatga solmaydi, zero falsafa intuitsiya, g‘oyibona ta’sir, ilhom, mantiqiy kuchga asoslangan farazlar, taxminlar, to‘ldirishlar bilan kifoyalanadiki, bu unga mavjud bilimlar va shakllangan tasavvurlar doirasidan chetga chiqib, aniq isbotlangan ilmiy echimga ega bo‘lmagan narsa yoki hodisani o‘zgacha tarzda, erkin tushuntirish imkonini beradi. Shu tariqa falsafa insonni bilish chegaralarini kengaytirib, uni nafaqat yuqoriroq darajaga ko‘taradi, balki Yangi muammolarni qo‘yish imkonini beruvchi Yangicha yondashuvlar, o‘zgacha nuqtai nazarlar va eng muhimi – eski muammolarning Yangicha talqinlari bilan boyitadi.

Shu ma’noda S.SHeroziyning «Inson nimadan boshlanadi?», degan savolga hech ikkilanmasdan: «Inson marhumga motam tutishdan boshlanadi», deb javob beradi⁸⁴. Dunyoga keldimu, bozorga bordim, kafanni oldimu, mozorga bordim⁸⁵.

Shunday qilib, haqiqiy falsafada muayyan masalalar, ayniqsa inson bilan bog‘liq murakkab masalalar xususida bir xil fikrlash hollari kuzatilmaydi. Bundan farqli o‘laroq, fanda bir fikrlilik u yoki bu muammoning uzil-kesil echimi topilganidan dalolat beradi. Masalan, «abadiy dvigatel»ni yaratish masalasi xususida olimlar orasida to‘la bir fikrlilik hukm suradi: hozirgi zamon tabiatShunosligi qonunlariga muvofiq bunday dvigatelni yaratish mumkin emas. Ammo fandan farqli o‘laroq, falsafaning o‘ziga xos xususiyati Shundan iboratki, u har qanday hodisani o‘rganish va tushunishda tayaniladigan qadriyatlar va mo‘ljallar tizimidan tashkil topadi. Ayni Shu sababli bu erda u yoki bu faylasufning dunyoni qanday tushunishi, uning hayotga munosabati, ayniqsa, muhim rol o‘ynaydi. U qaysi aksiomalarni ilgari surishi, qaysi ustuvorliklarni qayd etishi, nimani muhim deb hisoblashi, nimaga ishonishi yoki ishonmasligidan faylasufning boshqa narsalarga bo‘lgan tegishli munosabati, uning umumiy va xususiy masalalarga doir falsafiy pozitsiyasi kelib chiqadi.

Shunday qilib, bilimni umumiy maxrajga keltirish an’anasi uzoq vaqt hukm surgan fandan farqli o‘laroq, falsafa har xil, Shu jumladan bir-birini istisno etadigan nuqtai nazarlarni ilgari suradi,

⁸⁴Каранг: Саъдий Шерозий. Рубойилар. –Т.: Шарк, 1995. –Б.26

⁸⁵ Саъдий Шерозий. Рубойилар.–Т.: Шарк, 1995. –Б. 26

ayni bir hodisalar va ob'ektlarni tushunishga nisbatan har xil yondashuvlarni ta'riflaydi. Insonni tushunishga doir turli-tuman falsafiy konsepsiyalarning ko'pligi ayni Shu hol bilan izohlanadi. Bu konsepsiyalarda inson azaldan dam umumiy obraz sifatida, dam o'z individual borlig'idagi muayyan odam sifatida, dam boshqa odamlar, jamoa, jamiyat, insoniyat bilan, nihoyat, tabiat, kosmos bilan uzviy bog'liq bo'lgan aqlli mavjudot sifatida talqin qilinadi.

Insonning ko'p o'lchovliligi. Insonni o'rganishga nisbatan «*introvertiv*» va «*ekstrovertiv*» yondashuvlar ayniqsa ajralib turadi.

Introvertiv yondashuv insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish, anglab etishni nazarda tutadi. Bunda insonning jismoniy va ma'naviy mohiyati haqidagi falsafiy mulohazalar aksariyat hollarda tabiiy fanlarning empirik ma'lumotlariga, avvalambor biologiya va psixologiya yutuqlariga tayanadi, lekin ba'zan mistika, ezoterika, okkultizm bilan belgilanadi. Bunday yondashuvlar ayniqsa nemis antropologlari M.S.Heler (1874-1928) va A.Gelen (1904-1976), avstriyalik faylasuf K.Lorens (1903-1989) ijodiga xosdir.

Ekstravertiv yondashuv insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go'yoki «sirtidan» amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o'rin oladi; tegishli mo'ljallarga muvofiq insonning Xudo, kosmos, universum va Shu kabilar bilan aloqasi tahlil qilinadi. Bu erda falsafa ko'pincha tarix, sotsiologiya, ekologiya, teologiya bilan ittifoq tuzadiki, bu hol diniy falsafa vakillari N.A.Berdyayev, S.N.Bulgakov, S.L.Frank, N.O.Loskiy kabi vakillariga ko'proq xosdir.

Shunday qilib, insonni falsafiy tushunish uchun yagona asos mavjud emas, xuddi Shuningdek bunday asos yaqin kelajakda paydo bo'lishiga umid qilish uchun ham asoslar yo'q. Hozircha faqat Shuni qayd etish mumkinki, diqqat markazidan yuqorida sanab o'tilganlardan qaysi biri, chunonchi: kosmos, tabiat, Xudo, jamiyat yoki bevosita inson o'rin olganiga qarab, falsafa tarixida insonni tushunish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda asos bo'ladigan turli falsafiy nuqtai nazarlar farqlanadi. Ularning orasida kosmotsentriзм, teotsentriзм, sotsiotsentriзм va antropotsentriзм ayniqsa keng tarqalgan bo'lib, turli davrlarda ularning har biri har xil ko'rinishda namoyon bo'lgan, lekin inson muammolarini o'rganuvchi falsafiy konsepsiyalarda doim u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan.

Sharq falsafasida inson.*Qadimgi Sharq, xususan Xitoy falsafiy tizimlari asosan sotsiotsentrik konsepsiyalardan iborat bo'lib, ularda inson, odatda, jamiyat, sotsium bilan uzviy bog'liq deb qaraladi.* «Ideal munosabatlar qonuni»ga odamlar o'rtasida, oila, jamiyat, davlatda rioya qilish inson hayotining muhim ma'nosi hisoblanadi; bunga jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, qoidalar, rasm-rusumlar va Shu kabilariga izzat-ikrom bilan yondashish imkoniyat yaratadi. Boshqacha aytganda, inson o'z shaxsiy hayotini doim jamiyat ravnaqi, kamoloti bilan o'lchashi lozim, xususan, u keyinchalik oila va davlatni takomillashtirishga harakat qilish uchun o'zini kamol toptirishi lozim. Shu ma'noda mashhur qadimgi xitoy faylasufi Konfutsiy (mil. av. 551-479 yillar)ning fikrlari diqqatga sazovor bo'lib, u Shunday deb saboq beradi: «qilmishlarning asoslari va tamoyillarini o'rgansang, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlaring (axloqiy bilimlar) barkamollikning eng so'nggi darajasiga etadi. Niyatlar sof va xolis bo'lsa, qalb rostgo'y va samimiy bo'ladi. qalb rostgo'y va samimiy bo'lsa, inson to'g'ri yo'lga kiradi, kamol topadi. Inson to'g'ri yo'lga kirs va kamol topsa, oilada tartib o'rnatiladi. Oilada tartib hukm sursa, xalqlarni boshqarish osonlashadi. Xalqlarni boshqarish osonlashsa, butun dunyo tinch-totuv yashaydi»¹.

Qadimgi hind falsafasiga dunyoning ichki dunyosini birinchi o'ringa qo'yish, ya'ni antropotsentriзм xosdir. Masalan, buddizmda nirvanaga erishish inson barcha niyatlarining pirovard maqsadi deb e'lon qilinadi. Nirvana jonning Shunday bir holatiki, bunda har qanday mayllar yo'qoladi va ichki uyg'unlik Yuzaga keladi, mutlaqo erkinlik va tashqi dunyoga qaram emaslik tuyg'usi paydo bo'ladi.

¹ Будда. Конфуций. Жизнь и учение. – М.: 1995. – С.139.

Qadimgi hindlarning boshqa bir diniy-falsafiy ta'limoti – jaynizm nuqtai nazaridan inson o'zining ma'naviy mohiyati bilan moddiy mohiyatni nazorat qilish va boshqarishga erishish uchun uzoq va og'ir yo'l – jonning erkinlashuvi yo'lini bosib o'tishi lozim.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari qarashlarida insonni nazariy aql boshqaradi. Jumladan al-Forobiy fikricha “Inson shaxsini shakllantiradigan, uni boshqa maxluqotlardan ajratib turadigan va unda insoniy xislatlarni rivojlantiradigan narsa uning faol aqlidir. Bu kuch avval- boshda faqat qobiliyatdir, bu quvvat o'ylash, mulohaza yuritishga qobil, ammo hayotga tadbiiq etish, ya'ni joriy qilishga qobil emas”⁸⁶. Aqlni hayotga tadbiiq etish uchun, unga tashqi kuch ta'sir etishi kerak, bu esa faol aqlidir. Faol aql - mustaqil quvvat bo'lib, o'z mohiyati, Birinchi va ikkinchi va boshqa sabablar mohiyati haqida fikrlay oladi. Aynan Shu faol aql odam imkoniyatlarining tashqi voqealarga ta'sir etishi va uni rivojlantirishga turtki beradi. Forobiy ta'biri bilan “moddiy aqldan amaliy aqlning yuqoriroq pillapoyasiga ko'tariladi va uning faol aqlga munosabati quyosh bilan ko'zni solishtirilgan bo'ladi”⁸⁷. Agar quyosh bo'lmasa, inson narsalarni ko'ra olmaydi. Faol aql quyoshi inson ruhi da paydo bo'lganidan keyin, aqliy quvvat faol aqlga qaraydi. Inson tabiat gulto'ji, ya'ni aqlli mavjudod. YUSuf Xos Xojib fikricha inson dunyoda abadiy emas, bu dunyoga kelgan har qanday odam vaqti etgach ketadi. Inson umrining qimmatini necha yil yashagani bilan emas, qanday ezgu ishlarni amalga oshirganligi, hayotda qoldirgan izi bilan belgilanadi. U kishi olamdan o'tgandan so'ng, bu dunyoda undan ikki xil, biri yomon, ikkinchisi yaxshi degan nom qoladi. Inson iloji boricha o'zidan yaxshi nom qoldirishi, yaxshi olqish olishi lozim deb ta'kidlagan.

Umuman olganda, barcha zamonlarda insonda umumiy asosni izlash bilan band bo'lgan Sharq tafakkuriga hozir ham insonni va uning tashqi dunyo bilan aloqasini tushunishga nisbatan G'arb falsafasidagidan o'zgacha yondashuv xosdir. XX asr boshida hind mutafakkiri S.Vivekananda Shunday deb yozgan edi: «Inson tabiatni o'ziga bo'ysundirish uchun tug'iladi va bu o'rinlidir, ammo G'arb «tabiat» deganda faqat moddiy, tashqi dunyoni tushunadi. Bu tashqi tabiat o'zining barcha tog'lari, okeanlari, daryolari, o'zining cheksiz kuchlari, cheksiz rang-barangligi bilan juda ulug'vor, lekin undan ham ulug'vorroq dunyo borki, bu insonning ichki dunyosidir. U quyosh, yulduzlar, er va butun moddiy Koinotdan yuksakroq, bizning shaxsiy jajji hayotlarimizning tor chegarasiga sig'maydigan dunyodir. G'arb odami tashqi dunyoda «o'ziniki» bo'lganidek, bu ichki dunyoda Sharq odami ham xuddi Shunday «o'ziniki»dir. Shu bois... G'arb ma'naviy dunyo nima ekanligini, xudo nima ekanligini, inson joni nima ekanligini bilmoqchi, dunyoning siri va mazmuni nimada ekanligini anglab etmoqchi bo'lsa, u Sharq oyoqlari ostiga cho'kib quloq solishi kerak. Hamonki dunyo hozir ma'lum ma'naviy uyg'onishga muhtoj ekan, bunda u kuchni Sharqdan oladi»⁸⁸.

Ibn Xaldun fikricha, inson tabiatida ezgulik va yovuzlik mavjud. Agar odamlar o'z holiga qo'yilsa va insoniylik ruhida tarbiyalanmasa, unda Xudo ne'matini qo'lga kiritish kamdan –kam kishiga muyassar bo'ladi. Xayr va shayor oralig'ida qolib, har ikkisidan birini tanlash lozim bo'lganida, unda sharrni tanlaydi, zero inson tabiatida sharrga moyillik ko'proq. Adolatsizlik va boshqalarga hujum qilish insonlarga xos xislat. Shuning uchun jamiyatda kishilarning bir-birlariga jabr qilmasliklari uchun ma'xriyatga erishmoq zarur.

Keltirilgan so'zlar nafaqat teran ma'noga ega, balki hozirgi dunyoning globallashuvi va yagona insoniyatning shakllanishi nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

G'arb falsafasida inson. Sharq tafakkurida insonga nisbatan yuqorida qayd etilgan yondashuvlar bilan bir qatorda tabiat, kosmos muammolari ham qadimdan muayyan o'rin egallab keladi. Bunda insonga ulkan dunyodagi bir zarra sifatida qaraladi. Ammo dunyoga nisbatan kosmotsentrik yondashuv antik falsafa rivojlanishining ilk bosqichlariga ko'proq xosdir. Dunyoning mazkur talqiniga muvofiq birinchi o'ringa Suqrot davridayoq falsafaning diqqat markazidan o'rin olgan inson haqida mulohaza yuritish uchun ham tegishli zamin hozirlovchi dunyo va kosmos muammolari chiqadi.

⁸⁶ Ал-Форобий. Фозил шаҳар аҳолиси. -Т.: Шарқ, 1999.- Б. 69

⁸⁷ Ал-Форобий Фозил шаҳар аҳолиси. -Т.: Шарқ, 1999 –Б.73.

⁸⁸ Вивекананда Свами. Философия йога. – Магнитогорск, 1992. – С.488-489.

Kosmotsentrizm nuqtai nazaridan inson avvalo kosmosning bir qismi sifatida, «kichkina dunyo» sifatida (Demokrit), baʼzan jonli organizm sifatida tasavvur qilinadigan makrokosm bilan uzviy bogʻliq boʻlgan mikrokosm sifatida idrok etiladi. Antik faylasuflar Koinotni va unda mavjud tartibni tushunish orqali insonning oʻzini ham anglab etish mumkin deb hisoblaganlar (Platon, Aristotel). Bunda tafakkur, bilim, aql-zakovat va donishmandlik muhim rol oʻynagani bois, ular doim kosmotsentristlar tomonidan yuksak baholangan, inson va uning qobiliyatlariga baho berishda birinchi oʻringa qoʻyilgan.

Bunday qarashlar Evropa falsafiy anʼanasida V asrgacha, ularning oʻrnini teotsentrizm konsepsiyasi egallagunga qadar kuzatiladi. Bu konsepsiyaga muvofiq hamma narsani Xudo belgilaydi. Xristianlikning mohiyatini aks ettiruvchi turli kreasionistik nazariyalarga koʻra butun dunyo, Shu jumladan jonli dunyo (oʻsimliklar, hayvonlar, inson) darhol va oʻzining mukammal koʻrinishida yaratilgan. Injilning dunyo olti kunda yaratilgani haqidagi rivoyatiga asoslangan bu nuqtai nazar evropaliklar tafakkurida Darvinning evolyusion nazariyasi paydo boʻlgunicha, yaʼni XIX asrning oʻrtalariga qadar hukm surdi. Xristianlar dunyosida dindor odamlar orasida u bugungi kunda ham amal qilmoqda.

Teotsentrizm nuqtai nazaridan insonning mohiyatini anglab etish, masalan, qadimgi yunon faylasuflari yoki keyingi materialistik falsafiy konsepsiyalardagi kabi oqilona fikrlash yoʻli bilan emas, balki MuqaddasKitobda taʼriflangan vahiyilar yordamida amalga oshiriladi. Bu vahiyilarni faqat Injil aqidalariga eʼtiqod qilish orqali tushunib etish mumkin. Teotsentrizm nuqtai nazaridan eʼtiqod nuridan charogʻon boʻlgan aql dunyodagi ilohiy tartibning tarkibiy qismi sanalgan va «Xudoning timsoli» sifatida amal qiladigan insonning oʻzini emas, balki uning baʼzi bir jihatlarinigina aniqlashga yordam beradi. Ayni Shu sababli xristianlik, Xudoni oliy mohiyat deb eʼtirof etadigan va insonga U yaratgan banda sifatida qaraydigan boshqa teotsentrik falsafiy tizimlar kabi, insonni Xudoning oʻzi singari tagiga etish mumkin boʻlmagan sir, jumboq deb eʼlon qiladi.

Teotsentrizm falsafasini boshqa falsafiy nuqtai nazarlar – antropotsentrizm va kosmotsentrizm siqib chiqara boshlagan Uygʻonish davrida insonga doir qarashlarda jiddiy oʻzgarishlar Yuz berdi. Oʻrta asrlarda inson u yoki bu korporatsiya vakili sifatida amal qilgan boʻlsa, Uygʻonish davrida u oʻzlikni anglash tuygʻusi va ijtimoiy nuqtai nazari oʻsishi natijasida oʻz manfaatlarini ifoda eta boshladi. Inson shaxs sifatida kamol topdi. U oʻzini oʻz shaxsiy hayoti va taqdirining bunyodkori sifatida tobora kuchliroq anglay boshladi. Inson mustaqillikka va tabiatni oʻziga boʻysundirishga harakat qildi, oʻz ijodiy imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishona boshladi. Mazkur qarashlar italyan faylasufi Piko della Mirandolaning «Inson qadr-qimmatini haqida soʻz» deb nomlangan mashhur asarida oʻz aksini topdi. Tasviriy sanʼat, meʼmorchilik, axloq, estetika, adabiyot va pedagogikani yaxshi tushunadigan har tomonlama komil inson oʻsha davrning idealiga aylandi. Uygʻonish davri bu idealga toʻla mos keladigan Leonardo da Vinchi, Alberti Bottichelli, Rafael kabi atoqli shaxslarni dunyoga berdi.

Oʻsha davr falsafasida insonga boʻlgan qiziqishning kuchayishi bilan bir qatorda tabiatga boʻlgan qiziqish ham tiklandi. N.Kuzanskiy, J.Brunoning panteistik konsepsiyalari xristianlar Xudosini siqib chiqara boshladi. Yunonlarning kosmotsentrizmi tabiiysentrizm sifatida qayta anglab etildi. Bunda antik faylasuflarning markazida Er joylashgan pirovard kosmos haqidagi tasavvurlari cheksiz va markazsiz kosmosga oʻrin boʻshatdi.

Bunday kosmos umumiyroq va kengroq tushuncha – «tabiat» bilan tenglashtiriladi. Shundan beri u turli falsafiy tizimlarda faol oʻrganiladi. Xususan, Maʼrifat davri falsafasida fundamental tushunchaga aylanadi, SHelling ijodida markaziy oʻrin egallaydi, Shuningdek ekologiyaga qarab moʻljal oluvchi ayrim hozirgi falsafiy konsepsiyalarda dunyo va insonni tushunishda tayanch nuqtasi hisoblanadi. Mazkur yondashuvga koʻra inson tabiatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bunday qarashlarning izchil tarafdorlari, masalan, XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan ijtimoiy ekologiya namoyandalari eʼtiborni haddan tashqari keng qaratadigan tabiatdan uning muayyan qismiga – inson oʻz hayot faoliyatini amalga oshiradigan biosferaga qaratish lozimligini qayd etadilar va bunda antropotsentristik qarashlardan voz kechib, ularni biosferotsentrizm bilan almashtirishni talab qiladilar. *Biosferotsentrizm*da falsafiy tadqiqotlar markaziga inson oʻrniga tabiatni qoʻyish taklif qilinadi va Shu tariqa tabiat inson ehtiyojlari nuqtai nazaridan qaralmaydi,

inson mohiyati va uning ehtiyojlari esa tabiiy qonunlarni va biosferaning tadrijiy rivojlanish tendensiyalarini bilish nuqtai nazaridan tadqiq etiladi.

Yangi davrda insonga qiziqish asosan, ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki bilan bog'landi. Yangi davrda insonga biluvchi sub'ekt sifatida yondashildi. Masalan, Dekart insonning mohiyati, o'ziga xos xususiyatini uning tafakkuri, fikrlash qobiliyatida ko'rdi. XVIII asr fransuz materialist faylasuflari (Didro, Golbax, Gelvetsiy, Lametri) tabiatshunoslik va mexanika sohasida erishilgan hayratomuz yutuqlar ta'sirida insonning jonini ong bilan, tanasini esa – avtomat, mashina bilan tenglashtirib, uni mexanistik talqin qildilar.

Buyuk nemis faylasufi I.Kant (1724-1804) insonni tushunish yo'lida muhim qadam tashladi. U inson betakror mavjudot va u haqda alohida falsafiy mulohaza yuritish mumkin, deb hisoblar edi. Ayni vaqtda, u «inson uchun maktab bo'lib xizmat qiladigan madaniyat sohasidagi barcha muvaffaqiyatlarning maqsadi o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amalga tatbiq etishdan iboratdir. Ammo bu bilimlar tatbiq etilishi mumkin bo'lgan dunyodagi eng muhim predmet insondir, zero u o'zi uchun pirovard maqsaddir»¹, deb qayd etadi.

Dunyoning butun rang-barangligi orasida I.Kant tabiatning turli, lekin bir-biri bilan uzviy bog'langan uch darajasi: notirik tabiat, tirik tabiat va inson tabiatini farqladi. Uning fikricha, bu darajalarning har birida tabiat o'z qonunlariga, chunonchi: notirik tabiat – mexanika qonunlariga, tirik tabiat – maqsadga muvofiqlikka bo'ysunadi, inson tabiati esa erkinligi bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda u inson tabiatini qolgan ikki tabiatga bog'lash va ular orqali bilish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Inson tabiatini faqat uning erkinlikdan kelib chiqadigan o'z qonunlariga muvofiq anglab etish mumkin. Shunday qilib, I.Kant inson tabiatning undagi boshqa jonli va jonsiz ob'ektlar kabi o'ziga to'q ob'ekti hisoblanishi haqidagi fikrni ilgari surish orqali insonni o'rganish uchun Yangi imkoniyatlar yaratdi va Shu tariqa falsafiy bilimning mustaqil bo'limi sifatida falsafiy antropologiyani yaratilishiga yo'l ochdi.

I.Kantdan keyin nemis klassik falsafasida inson asosan madaniyat dunyosini yaratuvchi ma'naviy faoliyat sub'ekti sifatida, umumiy ideal asos – ruh, aql manbai sifatida tushundirildi. L.Feyerbax (1804-1872) bu yondashuvga qarshi chiqdi. O'sha davrda ob'ektiv idealizm falsafasida hukm surgan tushunchalar («g'oya», «ruh»)ga zid o'laroq, u «inson» kategoriyasini ilgari surdi. Feyerbax insonga tarixiy ma'naviy rivojlanish mahsuli sifatida emas, balki avvalo biologik, hissiy-jismoniy mavjudot sifatida yondashib, undagi tabiiy-biologik asosga murojaat etdi. Unda inson Xudo yaratgan banda emas, balki tabiatning bir qismi bo'lib, fransuz faylasuflari qayd etganidek mexanizm emas, balki organizmdir.

Ayni Shu sababli Feyerbax falsafasi «antropologik materializm» degan nom oldi. Uning insonga nisbatan yondashuvi Shu bilan tavsiflanadiki, insondagi tabiiylik va ijtimoiylik materialistik monizm nuqtai nazaridan tushuntiriladi. Bu inson bir vaqtning o'zida notirik va tirik tabiatning tadrijiy rivojlanishi mahsuli sanalgan biologik mavjudot sifatida ham, mohiyati ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadigan ijtimoiy mavjudot sifatida ham qaralishini anglatadi.

XIX asrdan boshlab Evropa falsafiy tafakkuri F.SHelling, A.SHopengauer, M.SHTirner, S.Kerkegor, F.Nitsshe, N.Berdyayev, A.Bergson kabi faylasuflarning sa'y-harakatlari bilan inson mavjudligini individual va tarixiy muayyanlashtirish sari Yuz burdi. Hayot, sezgilar, xohish-iroda, irratsionallik tushunchalari maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylandi va keyinchalik ekzistensializm, intuitivizm va personalizm falsafasida rivojlantirildi.

Xususan, ekzistensializm nuqtai nazaridan ob'ektiv dunyo – bu avvalo «inson borlig'i» bo'lib, insondan tashqarida dunyo haqida biron-bir gap aytish mumkin emas. Inson borlig'i to'g'risida so'z yuritish o'rinli bo'ladi, chunki inson borliq xususida savollar beradi, uning mazmunini tashkil etgan holda uni boshdan kechiradi, anglab etadi.

Inson muammosiga qisqacha tarixiy-falsafiy nazar tashlash XX asr boshiga kelib falsafada bilimning Yangi mustaqil sohasi – inson haqidagi ta'limot, ya'ni falsafiy antropologiya vujudga kelishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganini ko'rsatadi.

Insonni o'rganadigan fan — antropologiya deb yuritiladi.

¹ Кант И. Соч. Т. 6. – М., 1966. – С.351.

Antropologiya inson mohiyatini, uning tabiat va jamiyatdagi o'rnini, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan Shug'ullanadi. Antropologiyada inson mohiyatini to'laroq ochish uchun «men», «ong», «shaxs», «ruh» tushunchalari qo'llanadi. «Men» — insonning o'zligini tashqi olamdan, real borliqdan farqlashidir. «Men» ong tufayligina o'zini boshqa borliqdan farqlaydi. Boshqa narsalar insonga begona voqelik bo'lib tuyuladi. SHaxs insonning mustaqilligini ifoda etadi.

Inson o'z hayoti davomida tana va ruh ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Tana ehtiyojlarini qondirish inson borlig'ining birlamchi sharti hisoblanadi. Biroq hayotning ma'nosi faqat moddiy ne'matlardan bahramand bo'lish, tanparastlik, lazzatlanish, boylikka ruju qo'yishdan iborat emas. Inson ruhi ham o'ziga xos oziqqa ehtiyoj sezadi. Shu bois unda ma'rifatparvarlik, odamiylik, odillik, rahm-shafqat, diyonat, vijdon, olihimmatlik, vatanparvarlik kabi ma'naviy fazilatlar shakllanadi. YUksak ma'naviyat insonni ruhan poklaydi, iymon-e'tiqodini mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonni ma'naviy-ruhiy jihatdan kamol toptirishga qaratilgan.

Insonning ma'naviy ehtiyojlarini uning tabiiy-moddiy manfaatlaridan ajratish, unga faqat ilohiy mavjudot sifatida qarash ham biryoqlamalikka olib kelishi, etilgan ijtimoiy muammolar mohiyatini to'g'ri tushunishga xalaqit berishi mumkin.

Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy g'oya va milliy mafkura insonga biryoqlama qarashlarga zid ravishda, undagi moddiylik va ma'naviylikni uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti kishilarning farovon, boy — badavlat, mulkdor, barcha qulayliklarga ega bo'lishini inkor etmaydi. Aksincha, ularni tadbirkor, uddaburon va mehnatsevar bo'lishga rag'batlantiradi. YUksak ma'naviyatgina inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijtimoiy adolat o'rnatib, saxiy va olihimmat bo'lishga undaydi.

Antropologiya insonning ma'naviy olamiga chuqurroq kirib borish orqali olam mohiyatini bilish mumkin, degan g'oyani ilgari suradi. Islom Karimov ta'rifiga ko'ra, ma'naviyat (ruh) insonni axloqan poklaydigan, iymon-e'tiqodini mustahkamlaydigan, ezgulikka undaydigan botiniy kuchdir. YUksak ma'naviyatda haqiqiy insoniy mohiyat mujassamdir. Insonning olijanob fazilatlarini etuk shaxslar timsolida o'z aksini topadi. Insonga xos bo'lgan barcha xususiyatlar shaxs faoliyatida, uning jamiyatda tutgan o'rnida, uning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishida, muayyan mafkurani amalga oshirishida yaqqol ko'rinadi.

SHaxsning shakllanishi va rivojlanishida tarixiy shart-sharoit, ayniqsa, g'oya va mafkura muhim o'rin tutadi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida vujudga kelgan muammo va vazifalar Yangi barkamol insonni voyaga etkazishni taqozo etdi. Unga xos fazilat va sifatlar Prezident Islom Karimov asarlarida asoslab berilgan.

Bozor iqtisodiyoti inson ehtiyojlarini to'laroq qondirish, uning qobiliyati, ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bular quyidagilardir:

- mehnatni tashkil etish usul va shakllarining o'zgarganligi;
 - mehnatga Yangicha munosabatni rag'batlantirishga yordam beruvchi omillar;
 - o'z qobiliyati, qiziqishlariga mos bo'lgan faoliyat turlarini tanlash imkoniyatining yaratilganligi;
 - shaxs tadbirkorligi va ishbilarmonligining qo'llab-quvvatlanishi;
 - turli mulk shakllarining vujudga kelganligi;
 - shaxs erki va huquqlarining kengayganligi;
 - davlat va jamoat ishlarida qatnashish imkoniyatlarining yaratilganligi;
 - demokratik qadriyatlar rivoji;
 - ma'naviy meros va madaniyat yutuqlaridan erkin foydalanish imkoniyatining yaratilganligi
- kabilardir.

Ular shaxsning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda, uning komil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson manfaatlarini, uning ezgu maqsadlari ro'yobga chiqishini ta'minlashga, uning barkamol sifatlar kasb etishiga qaratilgan. SHaxs islohot natijalaridan bahramand bo'luvchigina emas, balki ularni

sobitqadamlik bilan amalga oshiruvchi kuch sifatida ham Yangilanish jarayonida o'zgaradi, yuksaladi, qadr-qimmat topadi va e'zozlanadi.

Insonning jamiyatidagi o'rni, qadr-qimmatini borasida milliy istiqlol o'z oldiga quydagilarni maqsad va vazifa qilib qo'yadi:

- insonning qadr-qimmatini joyiga qo'yish;

- inson uchun baxtli hayot sharoitlarini yaratish;

- insonning o'zligini anglashi, ijtimoiy burch va vazifalarini ado etishi, sog'lom avlodlar uzluksizligini ta'minlashi, kelgusi avlodlarga yaxshi xotiralar qoldirishi va iymon-e'tiqodi butun bo'lishi uchun qulay sharoitlar yaratish.

Bunday imkoniyatlarni amalga oshirishga xalaqit beradigan nuqsonlar ham inson tabiati bilan bog'liqdir. Hozirga qadar inson to'g'risidagi falsafiy ta'limot va qarashlarda, asosan, uning ijobiy xususiyatlariga, yaratuvchanligiga ko'proq e'tibor berib kelindi. Keyingi vaqtlarda inson borligining salbiy jihatlari ham tahlil qilina boshlandi.

Mustaqillik yillarida inson tabiatini chuqurroq o'rganish va undagi salbiy mayllarni bartaraf etishga yordam beradigan falsafiy qarashlarga ehtiyoj vujudga keldi. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim kishilar millat, Vatan, xalq manfaatlariga zid ravishda jamiyatdagi mavjud qonun-qoida va me'yorlarni poymol etib, ko'proq g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga va turli ixtiloflarni keltirib chiqarishga harakat qiladi. Shunday niyatlar yo'lida hatto jinoiy guruhlariga birlashadilar, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlat dasturlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladilar. Shuningdek, ular milliy totuvlik, tinchlik va barqarorlikka raxna soladi, ma'naviy-axloqiy muhitni buzadi, kishilarning ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchini susaytiradi, barkamol insonni voyaga etkazishga qarshilik ko'rsatadi. Ular turli ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi firibgarlar, hokimiyatga intiluvchi ekstremistlar, korrupsiya va jinoyatchilik olami vakillari, giyohvand, poraxo'r, terrorchi va Shuhratparastlar kabi jamiyat uchun noxush odamlardir.

Insonni falsafiy bilish va tahlil etishda ana Shunday kishilar mavjudligini e'tiborga olish muhimdir. Demokratik jamiyat inson huquqlarini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, bunday kishilarni tarbiyalashga, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga, kishilar ongida milliy manfaat va ijtimoiy qadriyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor beradi.

3. Erkinlik va inson huquqlarining ijtimoiy qadriyat sifatidagi talqini.

SHaxs erkinligi va tarixiy zarurat bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir. Mamlakatimizning taraqqiyot yo'lida paydo bo'lgan qiyinchilik va muammolar mohiyatini anglash shaxsni o'z bilimi va mahoratini oshirishga, yuksak g'oyalarga sodiq bo'lib yashash va ularni jadal amalga oshirishga undaydi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida inson qobiliyatlari to'laroq namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tabaqalanish jarayonida kishilarning boy va qashshoq guruhlariga ajralishi tabiiy qonuniy jarayondir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim xususiyati — aholining muayyan qismining ijtimoiy himoyalashida, ko'p bolali oilalar, nafaqaxo'rlar, talabalar va nogironlarning davlat tomonidan himoyalashida, ijtimoiy adolatning qaror topishida yaqqol namoyon bo'lyapti. Kishilarning boqimandalik kayfiyati, tafakkur turg'unligidan ozod bo'lishlari, o'zgargan Yangi iqtisodiy sharoitga moslashishlari, o'z bilimi va mahoratini oshirishlari uchun g'amxo'rlik qilish iqtisodiy islohotlarning insonparvarlik yo'nalishiga ega ekanligidan dalolat beradi. Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash tamoyili Prezident I. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan o'zbek modelining muhim jihatlardan biridir.

Inson mohiyatini falsafiy bilish ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Inson falsafasi har bir Yangi tarixiy davrda inson mohiyati, uning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Insonga xos xususiyat va fazilatlarini bilish orqali talaba o'zida Shunday sifatlarini shakllantirishga intiladi.

Bunday fazilatlar falsafa va boshqa ijtimoiy fanlarni o'rganish va umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarini egallash orqali

O'zbekistonda ozod va obod jamiyat qurish vazifalari uyg'unligini ta'minlashga erishish butun ta'lim-tarbiya ishimizning bosh mezonini va uning oldida turgan muhim vazifadir.

Falsafiy antropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi. YUnoncha sophia – donishmandlik, anthropos – inson va logos – ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan «falsafiy antropologiya» atamasi etimologik jihatdan inson haqidagi falsafiy ta'limotni anglatadi. Falsafiy antropologiya insonning alohida borliq manbai sifatida kelib chiqishi, tadrijiy rivojlanishi va mavjudligining o'ziga xos xususiyatlariga doir falsafiy qarashlarni aks ettiradi.

YUqorida qayd etilganidek, inson haqidagi falsafiy ta'limotlar qadimda vujudga kelgan va butun falsafa tarixi orqali o'tadi. Konfutsiy, Suqrot, Geraklit, stoiklar, kiniklar, Avgustin, Foma, Forobiy, Ibn Sino, A.Navoiy, A.Jomiy, Dekart, Russo, Kant, Feyerbax, Nitsshe va boshqalar insonning falsafiy, nazariy obrazini yaratib, falsafiy antropologiya falsafiy bilimning mustaqil bo'limi sifatida vujudga kelishi uchun zamin hozirladi.

Shu ma'noda falsafiy antropologiyaning ilk ildizlariga XVIII asr fransuz materialistlarining asarlarida duch kelish mumkin. Ammo Kant, Shuningdek, insonning mohiyati muammosini falsafaning «birdan-bir, universal va oliy» predmeti darajasiga ko'taruvchi antropologik tamoyillarni falsafaga kiritgan va asoslab bergan Feyerbax sa'y-harakatlari bilan falsafiy antropologiya mustaqil falsafiy fan sifatida shakllana boshladi.

Falsafiy antropologiya XX asrning 20-yillarida asosan M.SHeler, A.Gelen, X.Plesner asarlari ta'sirida uzil-kesil vujudga keldi. Xususan, M.SHelerning «Insonning kosmosdagi o'rni» asarida inson haqida fundamental fan yaratish lozimligi qayd etiladi va uni falsafiy bilish dasturi taklif qilinadi. Muallif fikriga ko'ra, insonni yaxlit falsafiy bilish inson borlig'ining turli jabhalariga nisbatan olingan muayyan ilmiy natijalar bilan birikishi lozim.

M.SHeler falsafiy antropologiya insonning yaxlit konsepsiyasini yaratib, uni muayyan ilmiy, falsafiy va diniy jihatdan anglab etishda birlashtiruvchi rol o'ynashi lozim, deb hisoblaydi. U «Falsafiy antropologiyaning vazifasi insonning barcha o'ziga xos monopoliyalari, ishlari va amallari: til, vijdon, asboblar, qurol... davlat, rahbarlik, mif, din, fan... inson borlig'ining asosiy strukturasi qanday kelib chiqishini aniq ko'rsatib berishdan iboratdir»¹, deb qayd etadi.

Maks SHeler o'zining bir qator asarlarida G'arbiy Evropa madaniyatining rivojlanish jarayoni inqirozga Yuz tutganligini qayd etadi va bu holatdan chiqish yo'llarini topishga harakat qiladi.

Jamiyat inqirozi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va boshqa ziddiyatlarni M.SHeler inson, uning shaxsiyati inqirozining alomatlarini deb hisoblaydi. U inson Shu paytgacha (XX asrgacha) hali hech qachon bu darajada «muammoli» bo'lmaganligini ta'kidlaydi. Buning asosiy sababini SHeler insonni o'rganish antropologik tafakkurning bir-biri bilan uncha bog'liq bo'lmagan turli yo'nalishlari – teologik, falsafiy, tabiiy-ilmiy antropologiya doirasida amalga oshirilishida ko'radi. Masalan, teologik antropologiya insonni faqat iudeycha-xristiancha an'analar nuqtai nazaridan o'rganadi. Falsafiy antropologiya asosiy e'tiborni insonning o'zligini o'rganishga qaratadi, tabiiy-ilmiy antropologiya (tabiatshunoslikning barcha tarmoqlari va genetik psixologiya) esa faqat Er rivojlanishining eng so'nggi mahsuli sifatidagi, hayvonot dunyosidagi o'zidan oldingi shakllardan energiya va qobiliyatlar birikmasining murakkablik darajasi bilangina farq qiluvchi mavjudot sifatidagi inson haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Inson muammosini o'rganish jarayonida uni antropologiya fanining turli tarmoqlari bilan bog'lash, uning qaysidir xulosalarini mutlaqlashtirish M.SHelerga xos emas. U Evropa falsafasini I.Kant tomonidan qo'yilgan, butun falsafiy bilimni sintezlovchi xususiyatga ega bo'lgan «Inson nima?», degan savolni unutilganlikda ayblaydi. Inson haqidagi sintezlovchi ta'limotning yo'qligi, M.SHeler fikriga ko'ra, inson borlig'ining beqarorligini belgilaydi. Shu tufayli ham u inson borlig'ining turli sohalarini konkret o'rganishni uni falsafiy nuqtai nazardan yaxlit anglab etish bilan birlashtirishga qodir bo'lgan insonshunoslik ilmiy tizimi – falsafiy antropologiyani yaratish zarur, deb hisoblagan.

¹ Шелер М. Избранные произведения. – М.: 1994. –С. 187.

M.SHeler fikriga ko'ra, falsafiy antropologiyaning vazifasi inson borlig'i strukturasi insonning barcha ishlari va amallari, Shu jumladan til, fan, mif, san'at, din, jamiyat, davlat, tarix, g'oyalar, vijdon va insonni tavsiflovchi boshqa omillar qanday kelib chiqishini ko'rsatib berishdan iborat. Shu nuqtai nazardan inson falsafasi barcha fanlar fani maqomini kasb etadi.

M.SHeler falsafiy antropologiyaning predmetiga ta'rif beradi. Uning fikricha, *falsafiy antropologiya – bu inson mohiyati va uning strukturasi haqidagi fandır.*

M.SHeler G'arbiy Evropa jamiyatini axloqiy, falsafiy va diniy qadriyatlar odamlar uchun ikkinchi darajali ahamiyat kasb etayotgani uchun tanqid qiladi va ularga bu qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'yishni tavsiya etadi. Jamiyatni chulg'ab olgan inqirozdan chiqish yo'lini M.SHeler aynan Shunda ko'radi.

Shunday qilib, inson ongli mavjudot sifatida M.SHeler falsafasida markaziy o'rinni egallaydi, inson borlig'ining asosiy tamoyillari sifatida qudratli, biroq kelajakni oldindan ko'rolmaydigan yashashga intilish, hamma narsani anglab eta oladigan, ammo hayotni belgilashga ojiz bo'lgan ong amal qiladi.

SHeler ta'limoti hayot falsafasi va ekzistensializmning rivojlanishiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning negizida keyinchalik alohida falsafiy-antropologik ta'limotlar – biologik, psixologik, madaniy, diniy va boshqa nazariyalar vujudga keldi.

Falsafiy antropologiya fanining mohiyati. Inson haqidagi bilimlarni birlashtirish lozimligi xususida SHelerdan oldinroq ham so'z yuritilgan edi. XIX asr o'rtalariga kelib inson o'ta murakkab struktura ekanligi, uni faqat falsafa yoki boshqa biron-bir muayyan fan metodlari bilan to'la anglab etish mumkin emasligi, ya'ni inson jamuljam holda aniq bilim predmeti bo'la olmasligi aniq-ravshan bo'lib qoldi. Shuningdek, ayrim tabiiy fanlar, har biri o'z sohasida, vaqt o'tishi bilan umumiyroq xulosalarga kelishni talab etuvchi salmoqli material to'pladi.

Bunday umumlashtirishga ehtiyoj Darvinning evolyusion nazariyasi paydo bo'lishi bilan ayniqsa bo'rtib ko'rina boshladi. Bu nazariya insonga oid tabiiy-ilmiy tadqiqotlarga kuchli turtki berdi, Shuningdek materialistik falsafiy konsepsiyalar rivojlanishi uchun qo'shimcha asos bo'lib xizmat qildi.

Mazkur yondashuv tarafdorlari inson ko'p o'lchovli va muttasil o'zgaruvchi mavjudot ekanligidan kelib chiqadi. Garchi uning muhim xususiyatlari ming yillar mobaynida o'zgarishsiz qolayotgan bo'lsa-da, ular insonning mohiyatini to'la namoyon etmaydi. Bu yondashuv tarafdorlari inson o'z oldiga Yangi va Yangi jumboqlar qo'yayotgan, tashqi dunyoni, o'zining undagi o'rnini aniqlashga harakat qilayotgan, atrof muhitni o'rganish orqali uni o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartiradigan faol asos sifatida amal qiladigan mikrokosm hisoblanishiga ham e'tiborni qaratmoqdalar.

Boshqacha aytganda, inson bunyodkor va ayni vaqtda madaniyat mahsuli, o'zini qolgan jonli dunyodan farqlash imkonini beruvchi ma'naviyat manbaidir.

Falsafiy antropologiya tarafdorlari insonning mazkur talqinidan kelib chiqib, bu fan izchil ilmiy qarashlarni ilgari surishga da'vogar bo'la olmasligini va ayrim fanlar: psixologiya, sotsiologiya, biologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning turli yondashuvlari va xulosalarini sintezlovchi inson haqidagi bilimlar tizimini yaratishga qaratilishi lozimligini qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, bu fan o'z predmeti sifatida inson borlig'ini belgilaydi, uning mohiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etib, Shu tariqa insonning o'zini ham, uni qurshagan dunyoni ham falsafa nuqtai nazaridan anglab etishga harakat qiladi. «Antropologiya yoki aniqroq aytganda – antropologik ong nafaqat ontologiya va kosmologiyaga, balki gnoseologiya va bilish falsafasiga, har qanday falsafa va har qanday bilishga zamin yaratadi»¹.

XX asrning 60-70-yillarida falsafiy antropologiya Shunday bir g'oyaviy harakatga aylandiki, uning doirasida olimlar insonning hozirgi holatini nazariy jihatdan anglab etish va talqin qilish, uning tabiatiga nisbatan Yangicha yondashuvni ilgari surishga harakat qildilar. Bu davrda Yuz bergan fan-texnika taraqqiyoti va insonning o'z ilmiy va amaliy faoliyati natijalari uchun javobgarlik tuyg'usining kuchayishi falsafiy antropologiyaning rivojlanishiga qo'shimcha turtki

¹ Бердяев Н.А. Смысл творчества. – М., 1989. – С.293.

berdi. Shunday qilib, u endi inson haqidagi bilimlarning umumiyroq majmui – umumiy antropologiyaning tarkibiy qismiga aylandi. Bu fan turli-tuman ta'limotlar, konsepsiyalar va yo'nalishlarni o'z ichiga oladiki, ularning orasida falsafiy yo'nalishdan tashqari biologik, teologik (diniy), sotsiologik, psixologik, madaniy (etnografik), strukturalistik, pedagogik va boshqa yo'nalishlarni qayd etish mumkin.

Ularning har biri, falsafiy yo'nalishdan farqli o'laroq, insonning muayyan bir tomonini yoritadi. Masalan, biologik antropologiya anatomiya, fiziologiya, irq haqidagi ta'limot va Shu kabilarga tayanib, insonning qolgan barcha tirik mavjudotlardan farqini uning jismoniy tuzilishi nuqtai nazaridan aniqlaydi. Teologik antropologiya inson haqidagi tegishli tasavvurlarni uni Xudo yaratgani nuqtai nazaridan shakllantiradi. Falsafiy antropologiya esa butunlay boshqa vazifani hal qiladi – u vaziyatga yaxlit yondashadi va fanlararo xususiyatga ega bo'lgan xulosalar chiqaradi.

Falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida falsafiy antropologiya ijtimoiy falsafa, axloq, sotsiologiya va psixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bilan birgalikda inson haqidagi fanlar majmuini tashkil etadi.

Falsafiy antropologiyaning predmeti va vazifalari. *Falsafiy antropologiya izlanishlarining bosh mo'ljali va o'zagini inson va faqat inson tashkil etadi. Shu ma'noda falsafiy antropologiyani antropotsentristik falsafiy ta'limot deb nomlash mumkin, chunki unda inson atrofida borliqning boshqa barcha muammolari aylanuvchi o'ziga xos «markaziy o'q» hisoblanadi.*

Falsafiy antropologiyaning antropotsentrizmi falsafaning tadqiqot markazida inson turishi bilangina emas, balki uning barcha maktablari uchun inson dunyoning markazi hisoblanishi bilan ham belgilanadi. Mazkur yondashuv zamirida antik falsafaning Protagor ta'riflab bergan «Inson hamma narsalar mezonidir», degan tamoyili yotadi. Falsafiy antropologiyaning antropotsentrizmi Evropa madaniyati asoslaridan biri sanalgan xristianlik mafkurasidan ham kelib chiqadi. Aynan xristianlik dunyoviy hayot markaziga insonni qo'yadi, uni Xudo o'ziga o'xshatib yaratgan, degan g'oyani ilgari suradi.

Shu nuqtai nazardan xristiancha madaniyat vakilining mentaliteti asosida shakllangan falsafiy antropologiyani Sharq falsafiy maktablari bilan taqqoslash o'rinli bo'ladi. Shu narsa diqqatga sazovorki, Sharq falsafasida inson hech qachon dunyoning markazi hisoblanmaydi, zero u tabiatning tarkibiy qismi, uning uzviy elementi, Koinotning ko'p sonli darajalaridan biri sifatida qaraladi. Sharq falsafasida antropotsentrizm yo'q, umuman olganda falsafiy antropologiya ham mavjud emas. Bu falsafada inson dunyoning tabiiy bir bo'lagi, tabiatning ajralmas elementi hisoblanadi. Tabiatning o'zi esa mukammal bo'lib, inson unga qarshi turmasligi, balki uning izmiga bo'ysunishi lozim.

Shunday qilib, ko'pgina faylasuflar tomonidan qo'yilgan «Inson nima?», degan savol Evropa falsafiy antropologiyasi uchun uning falsafiy muammolari majmuini belgilovchi bosh masala hisoblanadi (va u falsafiy tafakkurning boshqa yo'nalishlaridan ayni Shu jihatdan farq qiladi). Falsafiy antropologiya insonning borlig'i nuqtai nazaridan inson haqidagi ta'limotdir. Inson va uning borlig'i to'g'risidagi mulohazalar muammolarning keng doirasini qamrab oladi. Bularning barchasi antropologizm, ya'ni insonning mohiyati muammolarini izchil o'rganuvchi tadqiqotlarning alohida yo'nalishi – tor ma'nodagi falsafiy antropologiya to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Keng ma'noda esa falsafiy antropologiya Shu jumladan inson, uning tabiat va jamiyatdagi borlig'i haqidagi ta'limotni ham o'z ichiga oluvchi falsafiy qarashlar tizimi sifatida maydonga chiqadi.

Insonning bioijtimoiy mohiyati. Falsafiy antropologiya echadigan muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o'zaro nisbati to'g'risidagi masala alohida o'rin egallaydi. Inson jonli tabiatning bir qismi, Shuningdek biologik evolyusiya mahsuli ekanligi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanida nafaqat olimlar va mutaxassislar, balki ma'rifatli odamlarning keng doirasi uchun ham aniq-ravshan va deyarli shak-Shubhasiz dalilga aylandi. Har bir inson o'z biologik xususiyatlari: genetik kodi, vazni, bo'yi, mijozi, terisi va sochining rangi, yashash muddati va Shu kabilarga ko'ra betakroridir. Biroq ayni vaqtda inson ijtimoiy mavjudot ekanligi, uning o'ziga xosligi va betakrorligi odamzotning ijtimoiy tabiati, u kamol topgan, ta'lim-tarbiya olgan, madaniy va axloqiy qadriyatlar va mo'ljallarni o'zlashtirgan ijtimoiy muhit bilan belgilanishi ham shak-Shubhasizdir.

Ayni Shu sababli inson individi nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudot sifatida ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, insonning kamol topishi jamiyatda va faqat jamiyatda Yuz beradi.

Insonning mohiyati.*Insonning mohiyatini tushunishga harakat qilish jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki, pihona xususiyatlarga ham ega ekanligini, ular jamuljam holda insonning individ, individuallik, shaxs kabi tushunchalarda aks etadigan muayyan obrazini shakllantirishini ham hisobga olish lozim.* Boshqacha aytganda, insonning mohiyatini uning ichki va tashqi borlig'i birligida, uning dunyoga faol munosabatida izlash kerak.

Shunday qilib, *individ muayyan insonning umumiy obrazi sifatida amal qilsa, individuallik uni muayyan o'ziga xos xususiyatlar sohibi sifatida tavsiflasa, «shaxs» tushunchasiga yanada torroq ma'no yuklanadi, chunki ayni holda inson uning barcha ijtimoiy sifatleri bilan jamuljam holda olinadiki, bu faqat ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu tizimini nazarda tutgan holda shaxs to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi.* YA'ni keng talqinga yo'l qo'yadigan «individ» va «individuallik» tushunchalari nafaqat insonga nisbatan, balki individual xususiyatlarga ega bo'lgan ayrim tirik mavjudot, hayvonga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin. «SHaxs» tushunchasi esa doim ijtimoiy mavjudot sifatidagi inson bilangina bog'liq bo'lib, faqat Shu ma'noda, ayrim insonni uning jamiyatdagi o'rni, «ijtimoiy qiyofasi» nuqtai nazaridan tavsiflaydi.

Kezi kelganda yana Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, har qanday shaxs zamirida oqilona faoliyat yotuvchi ongli-ixtiyoriy faollik tavsiflanadi. Shuningdek inson Yangi moddiy va ma'naviy boyliklar yaratib, o'z ijodiy imkoniyatlarini izchil ro'yobga chiqarish orqali shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon fanida shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi uch muhim omil: irsiyat, madaniy muhit va yashash sharoiti farqlanadi. Bu omillar o'zaro ta'sirga kirishishi natijasida inson shaxs sifatida o'ziga xos xususiyatlar majmui: tegishli ehtiyojlar, qiziqishlar, mijoz, qobiliyatlar, maqsadlar, mo'ljallar, ma'naviyat va Shu kabilarga ega bo'ladi. Insonning mazkur betakror individual xususiyatlari asosan u yashayotgan muhitdagi ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar ta'sirida shakllanadiki, bu shaxsning shakllanishi va kamol topishida jamiyat juda muhim rol o'ynashini qayd etish imkonini beradi. Ayni vaqtda shaxs umumiy e'tirof etilgan me'yorlarga muvofiq yoki ularga zid shakllanishi va kamol topishi mumkin. Bu ma'noda ijobiy shaxslar to'g'risida ham, salbiy shaxslar to'g'risida ham so'z yuritish mumkin.

Hozirgi vaqtda aksariyat olimlar va faylasuflar inson evolyusiyasidagi ijobiy jarayonlarni va ijtimoiy o'zgarishlar imkoniyatlarini ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlaShuvi, odamlar ongidan umuminsoniy me'yorlar mustahkam o'rin olishi bilan bog'lamoqdalar. Bunda inson o'zining butun umri mobaynida, bir tomondan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga harakat qilib, boshqa tomondan esa – o'zini qurshagan ijtimoiy va tabiiy muhit ta'sirini his etib, yaxlit bir butun hodisa sifatida, uzluksiz tadrijiy rivojlanishini e'tiborga olish lozim. Boshqacha aytganda, o'zining kamol topish jarayonida u doim ham sub'ekt, ham ob'ekt hisoblanadiki, bu shaxsning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va hayot mazmunini izlashi bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim falsafiy muammo Yuzaga kelishini belgilaydi.

Insonni tushunishda dualizm va monizm. Odamlar o'rtasidagi biologik va ijtimoiy farqlarni va ularni betakrorligini tan olishdan inson tabiatining yaxlitligini tushunishga nisbatan ikki muhim yondashuv: dualistik va monistik yondashuvlar kelib chiqadi.

Qadim zamonlarda vujudga kelgan insonga nisbatan dualistik yondashuv Shundan iboratki, odamzot, bir tomondan, moddiy organizmdan, boshqa tomondan esa – mustaqil mohiyat sanaladigan va bu organizmni boshqaradigan nomoddiy jondan tashkil topgan mavjudot sifatida qaraladi. Bu yondashuv, masalan, boqiy g'oyalar dunyosida yashaydigan o'lmas jon inson tug'ilayotgan paytda uning tanasiga xuddi zindonga tushgandek kirib o'rtnashadi, uning o'limidan keyin esa vujudni tark etib, yana g'oyalar dunyosiga qayta, deb hisoblagan Platon falsafasida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Jonlarning o'lmasligi g'oyasi Sharq falsafiy an'anasiga ham xosdir.

Hozirgi olimlarning aksariyati qo'llab-quvvatlaydigan inson talqinining monistik konsepsiyasi inson ruhiyati, uning tuyg'ulari, fikrlari, emotsiyalari va kayfiyati inson organizmining

tarkibiy qismi sanalgan bosh miya nerv hujayralari hayot faoliyatining mahsulidan o'zga narsa emas, degan tushunchadan kelib chiqadi. Bu yondashuv tarafdorlarining fikriga ko'ra, ruhiy hodisalar qandaydir nomoddiy asosga ega, deb hisoblash uchun etarli dalillar mavjud emas, Shu sababli ruhiyat tabiatini tushuntirishda inson organizmida Yuz beradigan moddiy jarayonlar chegarasidan chetga chiqishning hojati yo'q.

Shunday qilib, tavsiflangan muammo inson o'z tabiatiga ko'ra faqat biologik mavjudotmi yoki faqat ijtimoiy mavjudotmi, degan masala bilan bog'lanmaydi. U, hech Shubhasiz, ham biologik, ham ijtimoiy mavjudotdir.

Ammo bu ikki asosning o'zaro nisbati qanday, ularning biri ikkinchisidan ustunroqmi va inson mohiyatini nima belgilaydi – bu endi qizg'in bahs-munozaralar predmetidir. Mazkur masalalar hanuzgacha o'zining uzil-kesil echimini topgani yo'q, hozirda mavjud turli biologik, psixologik va falsafiy maktablar bu savollarga har xil javoblar beradi.

YUqorida zikr etilgan muammoning echimiga nisbatan mavjud yondashuvlar orasida insonning bioijtimoiy tabiatini tushunishga nisbatan qarama-qarshi nuqtai nazarlar ifodasi sanalgan biologizatorlik va sotsiologizatorlik konsepsiyalari alohida o'rin egallaydi. Bunda ularning har biri boshqasini butunlay rad etmaydi, ammo insonning muayyan bir (biologik yoki ijtimoiy) tabiatini ustunroq qo'yadi yoki hatto mutlaqlashtiradi.

4. Biologizatorlik va sotsiologizatorlik konsepsiyalari

Biologizatorlik konsepsiyalari. *Biologizatorlik konsepsiyalarining tarafdorlari insonni uning tabiiy, biologik asosidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladi.* XVIII asr oxirida jamiyat hayotiga ayrim odamlarning o'z mavjudligi uchun kurash maydoni sifatida qarashni taklif qilgan T. Maltus nazariyasini bunday tushuntirishga bo'lgan birinchi jiddiy urinish deb hisoblash mumkin. Maltus fikricha, bu kurashda kuchlilar g'olib chiqadi, kuchsizlar esa halok bo'lishga mahkumdur. Mazkur kurashga tabiiy omillar turtki beradi. Xususan, aholi soni geometrik progressiya bo'yicha ko'payib boradi, tirikchilik vositalari taklifi esa faqat arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi, bu esa muqarrar tarzda ocharchilik, epidemiyalar, urushlar va boshqa ijtimoiy tangliklarga olib keladi. Mazkur omillarga Maltus kuchlilarning yashab qolishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarning «tabiiy», muqarrar va hatto zarur tartibga solish vositalari sifatida qaraydi.

Demografik muammolarning echilmagani, Shuningdek ular XX asrda yanada keskinroq tus olishi Shunga sabab bo'ldiki, Maltus g'oyalari neomaltuzchilar deb nomlangan o'z davomchilarini topdi va topishda davom etmoqda.

Biologizatorlik yondashuvlari XIX va XX asrlar chegarasida Darvinning tabiiy tanlanish haqidagi ta'limotini mutlaqlashtirib, nafaqat insonning kelib chiqishi, balki uning mohiyatini, pirovard natijada esa – butun ijtimoiy munosabatlar tabiatini tushuntirishga harakat qilgan sotsial-darvinistlarga ham xosdir. Hozirgi vaqtda bu yo'nalishni odamlarga ham, hayvonlarga ham teng darajada xos bo'lgan irsiyatga urg'u beruvchi sotsiobiologiya davom ettirmoqda. Sotsiobiologlar fikriga ko'ra, inson xulq-atvori ham, hayvon xulq-atvori ham irsiy omillar bilan belgilanadi va hech kim o'z irsiyati ta'sirini – u xoh yaxshi bo'lsin, xoh yomon – engishga qodir emas.

Inson tabiati xususida Shunga o'xshash qarashlarga ayrim odamlarning boshqa odamlardan ustunligini faqat ularning «oliy» yoki «past» irqqa mansublik belgisiga ko'ra e'lon qiluvchi irqchilik konsepsiyalarida ham duch kelish mumkin. Bu, xususan, «irqiy tozalik» uchun kurash olib borgan va «irqiy tanlanish»ni amalga oshirish g'oyasini faol ilgari surgan fashistik mafkurada ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Mazkur g'oyalar zamirida asosan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keng tarqalgan «inson irsiyatining oliy sifati»ga qanday vositalar bilan va qay tarzda erishish mumkinligi haqidagi ta'limot – evgenika yotadi.

XX asr boshlarida bu ta'limot Shu darajada keng tarqaldiki, ayrim mamlakatlarda davlat siyosati bilan uzviy bog'landi. Xususan, 1920-1930-yillarda Daniya, SHvetsiya va Norvegiyada jamiyatda tabiiy tanlanishni ijtimoiy mustahkamlovchi irqiy qonunlar qabul qilindi.

Sotsiologizatorlik konsepsiyalari. *Biologizatorlik yondashuviga zid o'laroq, sotsiologizatorlik yondashuvi inson tabiatini ijtimoiy munosabatlarda ko'rishga harakat qiladilar.*

Bunda ular ba'zan nafaqat insonning ijtimoiy asosini uning biologik asosiga qarama-qarshi qo'yadilar, balki so'nggi zikr etilgan asosni hayvoniy va hattoki tuban, Shu bois jiddiy e'tiborga loyiq emas, deb hisoblaydilar. Asosiy e'tibor ijtimoiy munosabatlar tahliliga va individ, shaxsning shakllanishida jamiyat qanday rol o'ynashini aniqlashga qaratiladi. Pirovardida ijtimoiy asos individual asosga qaraganda ustunroq ahamiyat kasb etadi, uni o'ziga bo'ysundiradi va qamrab oladi. Mazkur yondashuv total ijtimoiy tizimlarga va ularni asoslashga harakat qiluvchi falsafiy ta'limotlarga, xususan, Platon falsafasi ayniqsa xosdir. Umuman olganda, bu individualizm va kollektivizm muammosidir.

Hayotning mazmuni va insonning vazifasi. Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi, odamzot hayotining bebaholigi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmasligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G'arb falsafiy an'anasida ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. Shundan beri o'tgan ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o'zgarish Yuz bergani yo'q, zero, avvalgidek, odamzotning hayot yo'li tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralanadi. Shuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo'lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo'lib qoladi.

Ayni Shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko'ndalang bo'ladi va u o'ziga aniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo'lmagan savollarni beradi. «Bu dunyoda nima uchun yashayapman?», deb so'raydi o'zidan inson va agar bu savolga o'zi javob bermasa, o'z hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning o'rniga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqt o'tishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, o'lim qarshisida har kim oxir-oqibatda o'zi bilan o'zi tanho qoladi.

Albatta, jamiyatda inson o'zini bu darajada yolg'iz his etmaydi, biroq, ekzistensialistlar fikriga ko'ra, bu hol toki inson boshqalarning ham o'z hayoti borligi va ular ham o'z hayotining mazmuni va o'zining vazifasi haqidagi o'ta shaxsiy muammolarni mustaqil echish zaruriyati qarshisida turganini anglab etgunga qadar davom etadi.

Bundan ekzistensializm falsafasida yolg'izlik muammosi kelib chiqadi. Aslida, mazkur muammo falsafiy antropologiyada ham inson borlig'i tahlilidagi bosh muammolardan biri hisoblanadi.

Hayotni tark etish bosqichlari. Biologik mavjudot sifatida har bir inson o'limga mahkumdir. Buni qadimgi mutafakkirlar ham yaxshi tuShungan. Xususan, o'z muxoliflaridan birining: «O'ttiz tiran seni o'limga hukm etdi», degan gapiga Suqrot: «Ularni esa o'limga tabiat hukm etgan», deb javob bergan. Ammo odamzot ijtimoiy mavjudot sifatida ham o'limga mahkumdir.

Hozirgi zamon fanida o'lish jarayonining to'rt bosqichi farqlanadi. Bu bosqichlarga organizmda Yuz beradigan va uning qarishini tavsiflaydigan orqaga qaytarib bo'lmaydigan biologik o'zgarishlar sabab bo'ladi.

Xususan, 25 yoshdan boshlab va ayniqsa 45 yoshdan keyin insonda har kuni u tug'ilgan paytga qadar «jamlangan» va boshqa hech qachon Yangilanmaydigan o'n minglab nerv hujayralari (neyronlar) halok bo'ladi. Ammo bosh miya qobig'ida bunday hujayralar soni 40 milliardga etadi va Shu sababli «qariyotgan normal miya uchun bu jiddiy oqibatlarga sabab bo'lmaydi, chunki unda yana o'n milliardlab neyronlar normal faoliyat ko'rsatishda davom etadi»¹.

Amalda insonning hayotni tark etishi u odamlardan o'zini olib qochib, jamiyatdan uzoqlashishi bilan tavsiflanadigan **ijtimoiy o'lim** Yuz berganida boshlanadi. Surunkali giyohvand moddalarini iste'mol qilish, kashandalik, ichkilikbozlik, o'z hayotidan doimiy norozilik ijtimoiy o'limni bildiradi. So'ngra **ruhiy** o'lim Yuz beradi, bunda inson hayot tugagani va o'limning muqarrar ekanliginiva o'z hayoti davomida hech narsaga erisha olmaganini anglaydi. **Miya o'lishi** bilan bosh miya faoliyati butunlay to'xtaydi, organizmning turli funksiyalarini boshqarish barham topadi. Bu jarayon **fiziologik o'lim** bilan yakunlanadi. Bunda insonning uni tirik organizm sifatida tavsiflovchi barcha funksiyalari uzil-kesil to'xtaydi.

¹ Годфруа Ж. Что такое психология. -Т. 2. – М.: 1996. – С.11.

Xulosalar. Muayyan inson o'z hayoti so'nishining yuqorida sanab o'tilgan bosqichlarini anglamasligi ham mumkin (aksariyat hollarda Shunday bo'ladi), ammo u o'z hayot yo'lidan ilgari ekan, bu dunyoda nima uchun yashayapman, degan savolga o'z harakatlari, qilmishlari bilan javob beradi. Agar inson ularni hali to'la anglab etmagan bo'lsa, mazkur vazifani echish o'z hayot yo'lini endigina tanlayotgan odam uchun ham, umrining shomida ortga nazar tashlab, o'z hayotini sarhisob qilayotgan odam uchun ham teng darajada mushkul ish bo'lib qoladi.

Inson o'z tabiatiga ko'ra o'limga mahkum, ammo, buni tuShungan holda, u o'zi bilan bog'liq hamma narsa o'zining tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralangan qisqa vaqt oralig'ida jamlanganini tan olishni istamaydi. U o'z taqdirini ijtimoiy muhim maqsadlar, ma'naviy uyg'onish bilan bog'lashga harakat qilishi ayni Shu hol bilan izohlanadi.

YAna bir yo'lni din taklif qiladi. Bu erda u yoki bu e'tiqodlarga qarab, hayotning mazmuni va shaxsiy umrboqiylikka erishish haqidagi savolga shaklan har xil, lekin mazmunan juda o'xshash javoblar beriladi. Ularda asosan u dunyo chin dunyo ekanligi, bu dunyoda bajarilgan ishlarga haqiqiy baho u dunyoda berilishi va Shu kabilar to'g'risida so'z yuritiladi.

YAna bir imkoniyat – bu dunyoda o'z hayotini odamlarga, ezgulik, haqiqat va adolatga xizmat qilishga bag'ishlashdan iborat. Shu tariqa inson o'z ishlari, g'oyalari va qilmishlari bilan kelgusi avlodlar xotirasida qolish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Inson bu yo'llarning qaysi birini tanlashi faqat uning o'ziga bog'liq. U o'z hayotida bu erda ko'rsatilganidan butunlay boshqa yo'lni tanlashi ham mumkin. Lekin ertami-kechmi har bir inson hayotda o'zi tanlagan yo'lning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida mulohaza yuritishi muqarrardir.

Takrorlash uchun savollar

1. Inson – falsafaning bosh mavzusi.
2. Inson tarixning yaratuvchisi.
3. Antropologiya tushunchasi.
4. SHaxs erkinligi. I. Kant va Gegelning shaxs erkinligi to'g'risidagi fikrlari.
5. Kishilarning boqimandalik kayfiyati va tafakkur turg'unligidan ozod bo'lishi.
6. Inson falsafasining Yangi tarixiy davrdagi mohiyati.

1.9 – Mavzu. Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari

1. Globallashuv tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni. Fundamental globallashuv jarayoni.
2. Globallashuv jarayoni va globalistika. Futurologiya
3. Globallashuv va global muammolar. Global muammolarning klassifikatsiyasi.
4. XXI – asr global muammolarni hal etishga qaratilgan yondashuvlar.

1. Globallashuv tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni. Fundamental globallashuv jarayoni.

Falsafa nafaqat insonning azaliy muammolari va g'am-tashvishlarini, balki uning so'nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida tobora jadalroq sur'atlarda, Shu jumladan dunyo miqyosida o'zgarayotgan real hayoti kundalik amaliyotini ham aks ettiradi. Shu munosabat bilan Yuzaga kelayotgan Yangi hodisalar, g'ayrioddiy qiyinchiliklar va alohida sharoitlar olimlarning ham, faylasuflarning ham e'tiborini tortmoqda.

Bunda falsafaning fandan ustunligi Shundaki – u o'z xulosalarida tafsilotlar va muayyan dalillarga mahkam yopishib olmaydi, ayrim, uzuq-yuluq va o'tkinchi narsalarni osongina chetlab o'tadiki, bu unga asosiy e'tiborni ishning mohiyatiga qaratish, rivojlanishning eng muhim omillari va asosiy jarayonlarini qayd etish imkonini beradi. Falsafaning mazkur fazilatlarini insonning ijtimoiy munosabatlar tizimida yoki «jamiyat-tabiat» tizimida Yuzaga kelayotgan murakkab, kompleks vazifalarni hal qilishga majbur bo'layotgan hozirgi sharoitlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan falsafiy tahlilning, muhim narsalarni ikkinchi darajali narsalardan, qonuniy narsalarni tasodifiy narsalardan farqlash, tarixiy

rivojlanishda ob'ektiv jarayonlarning sub'ektiv omillardan farqi kabi usullari va metodlari hozirgi zamonda insoniyat duch kelgan olamShumul muammolarni nazariy anglab etish va amalda bartaraf etish uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv hodisasi va globalistika.. Hozirgi davr haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun XX asr boshigacha jahon tarixi asosan mustaqil rivojlangan va bir-biriga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan sivilizatsiyalardan iborat bo'lganini nazarda tutish muhimdir. Hozirgi zamonda dunyo so'nggi Yuz yillik ichida Yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integratsiyalaShuvi natijasida sezilarli darajada o'zgardi va yaxlit bir butun organizmga aylandi. Buning oqibati o'laroq, ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida global jarayonlar va ularning ta'sirida Yuzaga kelgan umumiy (dunyo miqyosidagi) muammolar bilan belgilangan jiddiy o'zgarishlar Yuz bera boshladi. Jahon hamjamiyati o'z rivojlanishining Yangi bosqichiga qadam qo'ygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o'zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo'ldi.

Bu o'zgarishlarning butun majmui, Shuningdek ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv (lot. globus – er kurrasi) deb nomlandi. *Globallashuv jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Er sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallaShuv jarayonidir.* Shuningdek globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik o'zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va Shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Jahon rivojlanishining eng Yangi tendensiyalarini anglab etish borasidagi ko'p sonli sa'y-harakatlar globallashuv jarayonlarining mohiyati, tendensiyalari va sabablarini, ular ta'sirida Yuzaga kelayotgan global muammolarni aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarini anglab etishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi – globalistika paydo bo'lishiga olib keldi. Kengroq ma'noda «*globalistika*» *atamasi globallashuvning turli jihatlarini va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan ularning natijalarini, Shuningdek ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy etish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo'llaniladi.*

Shuni ta'kidlash lozimki, globalistika odatda ilmiy bilimning tabaqalanishi natijasida yoki turdosh fanlar tutashgan joyda paydo bo'ladigan ayrim fanlar qatoriga kirmaydi. Uning vujudga kelishi zamirida qarama-qarshi jarayonlar – hozirgi zamon faniga xos bo'lgan integratsiyalaShuv jarayonlari yotadi. Globalistika tadqiqotlar va bilishning Shunday bir jabhasiki, bu erda turli fanlar bir-biri bilan uzviy aloqada, har biri o'z predmeti va metodi nuqtai nazaridan, globallashuvning turli jihatlarini tahlil qiladi, global muammolarni bir-biridan alohida va yaxlit tizim sifatida o'rganib, ularning echimlarini taklif qiladi.

Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot sohasi sifatida 1960-yillarning oxirlarida shakllana boshladi, lekin uning paydo bo'lishi uchun ob'ektiv asoslar ancha oldin Yuzaga kelgan edi.

Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalariga XV asr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin, XIX asr boshiga kelib esa u amalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Bu pirovardida yagona geografik, ma'lum darajada iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan Buyuk geografik kashfiyotlar Yuz bergan davr edi. Ayni Shu davrda dunyoni tushunishga nisbatan geotsentrik yondashuvlar geliotsentrik yondashuvlarga o'rin bo'shatdi, insoniyat esa, nihoyat, kun va tunning almashishini to'g'ri talqin qilishga muvaffaq bo'ldi. Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to'planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi Yuz berishiga sabab bo'ldi. So'nggi zikr etilgan voqealar pirovard natijada insonning tabiatni o'zgartiruvchi imkoniyatlari va uning atrof muhit bilan munosabatini butunlay o'zgartirdi.

Er kurrasi shar (globus) ko'rinishida ekanligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlab insoniyat o'z tarixida birinchi bo'lib savdo-sotiq sohasida dunyo darajasiga chiqdi va dunyo miqyosida xalqaro munosabatlarga asos soldi. Ayni Shu davrda ilk transmilliy savdo kompaniyalari vujudga keldi. Tez orada ularning faoliyati sof savdo chegarasidan tashqariga chiqdi va ular qullarni qo'lga kiritish va ularni ekspluatatsiya qilish, bosib olingan hududlarda plantatsiyalar va manzilgohlar barpo etish jarayonida ishtirok eta boshladi, nihoyat, o'z davlatlari amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatining asosiy ijrochisiga aylandi.

Bularning barchasi jiddiy migratsiya jarayonlari Yuz berishiga ham sabab bo'ldi; xususan, mustamlakachilar qora tanli qullarni Afrikadan Amerikaga ommaviy tarzda tashib keltira boshladilar va Shu tariqa uning demografik tarkibini butunlay o'zgartirdilar. Shuning o'ziyoq globallashuv turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti bilan avvalboshdan uzviy bog'liq bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

XVII asr boshlariga kelib Sharq va g'arb savdogarlari ulkan hududlarni o'zlashtirdilar va deyarli butun dunyo bo'ylab joylashdilar. Shu tariqa ular insoniyat tarixida birinchi bo'lib yagona global iqtisodiy va siyosiy tizimning zaruriy asoslarini yaratdilar va mazkur tizim shakllanishi uchun zamin hozirladilar.

Shunday qilib, XV-XVI asrlarda Yuz bergan buyuk geografik kashfiyotlar jahon tarixining rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi va «Evropa siyosatining keskin, misli ko'rilmagan darajada kengayishiga olib keldi. Dunyo chegaralari muayyan darajada kengaydi. Endilikda Evropa mamlakatlari o'rtasidagi turli ziddiyatlarga mustamlakalar uchun kurashda raqobat ham qo'shildi»⁸⁹. Shu tariqa Yangi xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarga, turli madaniyatlarning o'zaro ta'siriga va G'arbiy Evropa dengiz davlatlarining o'zlari kashf etgan er kurrasining turli hududlaridagi ekspansiyasiga asos solindi.

Fundamental globallashuv dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar Yuzaga kelishi bilan bog'liq. Mazkur jarayonlar natijasida dunyo o'zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlarini XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, XX asr o'rtalariga kelib esa u to'la darajada borliqqa aylandi.

Ayni Shu davrda dunyoni iqtisodiy bo'lib olish yakunlandi va buning natijasida turli mamlakatlar va xalqlarning kuchayib borayotgan o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadigan mutlaqo Yangicha tUSDagi keskin xalqaro muammolar Yuzaga keldi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotni, balki aloqa va kommunikatsiya vositalarini, Shuningdek ma'naviy jabha – madaniyat, fan va falsafani ham qamrab oldi. Turli-tuman xalqaro tashkilotlar, forumlar, s'ezdlar, kongresslar vujudga kela boshladiki, bunga o'sha davrda aloqa va ommaviy kommunikatsiya vositalarining faol rivojlanishi ham imkoniyat yaratdi.

Shunday qilib, amalda butun dunyo kuchli davlatlar va yirik monopoliyalar o'rtasida keskin kurash va ta'sir doiralarini bo'lib olish maydoniga aylandi va bu pirovardda Birinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu urushda jahonning ko'p sonli xalqlari bevosita yoki bilvosita ishtirok etdi, chunki Shu davrgacha dunyo miqyosida Yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy bog'liqlik sayyoraning birorta ham yirik davlatiga urushdan yoki hech bo'lmasa uning ta'siri va oqibatlaridan butunlay chetlashish imkonini bermas edi. Bu mazkur davrdan e'tiboran tarix faqat Evropa tarixi yoki, aytaylik, alohida Xitoy, Rossiya, Amerika, G'arb, Sharq tarixi bo'libgina qolmasdan, insoniyat tarixiga, ya'ni tom ma'nodagi jahon tarixiga ham aylanganidan dalolat beradi.

1918 yilda Birinchi jahon urushining tugashi xalqaro maydonda kuchlarning Yangicha nisbati Yuzaga kelishiga sabab bo'ldi va turli davlatlarning urushdan keyingi munosabatlari, manfaatlari va qarama-qarshiliklarini yanada tarangroq tugunga bog'lagan oqibatlarga olib keldi, Shu tariqa butun dunyoni barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha jahon hamjamiyatiga aylantirdi. Pirovardda Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrda globallashuv jarayonlari yanada bo'rtibroq namoyon bo'ldi. Bu davrda, *globallashuvning asosiy belgilari:*

- a) biosferaga antropogen ta'sirning kuchayishi va insonning real «geologik kuch»ga aylanishi;
- b) ommaviy madaniyat, avvalo kino, musiqa, adabiyot, keng iste'mol mollari ishlab chiqarish sohasida faol rivojlana boshlashi;
- v) televizorning ixtiro etilishi, vaqt o'tishi bilan u ommaviy madaniyatning asosiy targ'ibotchisiga va globallashuv ramziga aylanishi;
- g) makon va vaqtni ilk bor insonning kundalik hayoti ko'rsatkichlariga qadar uzil-kesil «qisqartirgan» havo kemalarida qit'alararo qo'nmay, to'g'ri uchib o'tishlarida namoyon bo'ldi.

Ammo echilmagan ziddiyatlar va umumiy bog'liqlikning kuchayishi insoniyat tarixidagi eng katta va davomli urush – Ikkinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu safar dunyo miqyosidagi urushda Er aholisining to'rt dan uch qismi ishtirok etdi, Birinchi jahon urushiga qaraganda bir necha baravar ko'proq qurbonlar berildi.

Dunyo miqyosidagi jarayonlarning globallashuvi nuqtai nazaridan bu urushlarning ikkalasi ham amalda ayni bir global urushning turli bosqichlari edi. Ularning o'rtasidagi farq faqat miqdor ko'rsatkichlarida ko'rinadi. *Mohiyat e'tibori bilan, ikkala urush ham ayni bir masalalarni echish – XX asr boshida bo'lib olingan, yaxlit va o'zaro bog'langan dunyoni qayta bo'lib olishga qaratilgan edi.* Urush olib borish usullari ham deyarli bir edi, farqi esa, texnik jihozlanish darajasi va miqyosi Ikkinchi jahon urushida bir necha

⁸⁹ Харенберг Б. Хроника человечества. – М.: Слово, 2000. – С.387.

baravar yuqori, mafkuraviy ta'sir esa avvalgi urushda yo mavjud bo'lmagan radio, telefon, yo hali yaxshi rivojlanmagan aviatsiya, dengiz, temir yo'l, avtomobil transporti aloqa va kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish bilan ko'p karra kuchaytirilishida namoyon bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi ham, xuddi avvalgi jahon urushidek, urushdan keyingi dunyoviy tartibning o'ziga xos xususiyatiga aylangan bir qator olamShumul oqibatlariga olib keldi. Ularning orasida eng muhimi Shu bo'ldiki, urush mutlaqo Yangi qurol turi (atom va reaktiv qurol) yaratish borasidagi tadqiqotlar va amaliy ishlarni rag'batlantirdi. Mazkur davrda ularning ilk namunalari jangovar sinovdan o'tkazildi va insoniyatga butun dunyoni xarobazorga aylantirish va barcha tirik mavjudotlarni qirib tashlash uchun cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Fan-texnika taraqqiyotining ayni Shu yutuqlari keyinchalik «sovuq urush» davrida avj olgan qurollanish poygasining mohiyati va mazmunini belgilab berdi va sayyoramizning nozikligi va makonda tutashligini amalda namoyish etdi.

Ikkinchi jahon urushining boshqa bir oqibati jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida Yuzaga keldi va u turli-tuman xalqaro tashkilotlarning mislsiz darajada o'sishida namoyon bo'ldi. Ularning orasida *Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), hech Shubhasiz, ajralib turadi.* Evropadagi integratsiya jarayonlari ham urushning tugashi bilan bog'liq bo'lib, Buyuk Britaniya bosh vaziri U.Churchill Evropa qo'shma Shtatlarini tuzishga chaqirgan 1946 yilni ularning sanoq boshi deb hisoblash mumkin.

Bosh harbiy jinoyatchilar guruhi va natsistlarning asosiy tashkilotlari ustidan o'tkazilgan Nyurnberg sud jarayoni yana bir muhim tadbir va ayni vaqtda xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasida dunyo miqyosidagi hamkorlikning ilk tajribasi bo'ldi. Bu jarayon 1945 yil 8 avgustda g'olib mamlakatlar – SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan tashkil etilgan tarixdagi birinchi Xalqaro harbiy tribunal tomonidan amalga oshirildi va hozirgi xalqaro sud tizimini tashkil qilish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Ayni Shu davrda liberalizm va demokratiya g'oyalari dunyo miqyosida keng tarqala boshladi, ijtimoiy borliq asoslarini, jamiyatning axloqiy negizlari va ijtimoiy rivojlanishning asosiy tamoyillarini qayta anglab etishga qaratilgan jiddiy tadqiqotlar va nazariy ishlovlar majmui paydo bo'ldi.

Globalashuvning serqirraligi. *Dunyo miqyosidagi tahdidlar va globalashuv jarayonlarini aholining keng qatamlari anglab etishi, Shuningdek jahon hamjamiyati va unga mos keluvchi qadriyatlarga munosabat, madaniyat, turmush tarzining shakllanishi gldoballaShuv serqirraligi bosqichiga xos xususiyat hisoblanadi.* 1970-yillardan globalashuv o'z rivojlanishining Yangi bosqichiga ko'tarildi va serqirra tus oldi. Ayni Shu davrda axborot-texnologiya inqilobining rivojlanishi jadallashdi, mif, din, falsafa, fan, ekologiya bilan bir qatorda global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi.

Globalashuvningserqirragi jahon bozorini sezilarli darajada o'zgartirdi, jahon xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etib, milliy xo'jaliklardan kuchliroq va muhimroq tus olishiga imkoniyat yaratdi. Quyidagilar *globalashuv serqirraligining muhim xususiyatlari hisoblanadi:*

a) «rezonans effekti»ning paydo bo'lishi, bunda iqtisodiy yuksalishlar yoki tangliklar bir mamlakatdan u bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa mamlakatlar va mintaqalarga o'tadi;

b) turli tovarlar va xizmatlar jahon bozorlarining yaratilishi;

v) ko'rsatilgan tovarlar va xizmatlarga jahon narxlarining shakllanishi, ular mazkur tovarlar va xizmatlar milliy ishlab chiqaruvchilarining siyosatini ko'p jihatdan belgilashi.

Iqtisodiyotning internatsionallaShuvi va pul rolining unifikatsiyalaShuvi bilan bir qatorda ommaviy jamiyat va unga mos keluvchi ommaviy madaniyatning shakllanishi serqirra globalashuvning o'ziga xos xususiyatiga va muayyan darajada uning qonuniy mahsuliga aylandi.

Zamonaviy transport va aloqa vositalari sharofati bilan makon va vaqt omillari amalda muhim ahamiyatga ega bo'lmay qolgan globalashuv sharoitida, til turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, maishiy va hokazo aloqalari va muloqoti yo'lidagi oxirgi jiddiy to'siq bo'lib qoldi. Umumiy qabul qilingan tilga ob'ektiv ehtiyoj doimo mavjud bo'lgan, lekin jahon savdosi va kapitallarni bir joydan boshqa joyga o'tkazish hajmlari ko'p karra o'sgan, siyosiy munosabatlar global darajagacha kengaygan, xalqaro jamoat tashkilotlari, sport musobaqalari, turistik industriya va Shu kabilar paydo bo'lgan serqirra globalashuv davrida u ayniqsa kuchaydi. Bugungi kunda ingliz tili bir qator ob'ektiv sabablarga ko'ra madaniyatlararo muloqot tiliga aylandi.

1991 yilda Internet paydo bo'lganidan so'ng dunyo informatsion jihatdan ham uzil-kesil tutashdi. Kompyuter inqilobi va Internet tarmog'ining rivojlanishi chegaralardan boshqa hamma narsa mavjud bo'lgan Yangi axborot maydonini vujudga keltirdi.

Globallashuvning serqirraligi siyosatning ham sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi. 1990-yillargacha «sovuq urush» holatida bo'lgan ikki harbiy-siyosiy blokning qattiq qarama-qarshiligi bilan tavsiflangan ikki qutblilik xalqaro munosabatlarning asosiy xususiyati sanalgan bo'lsa, sotsialistik tizim parchalanishi bilan vaziyat butunlay o'zgardi.

So'nggi yillarda milliy davlatlar faoliyati bilan bir qatorda xalqaro munosabatlarning Yangi, «noan'anaviy» sub'ektlarining faolligi va ta'siri ham ancha o'sdi. Bu sub'ektlar o'z soni, moliyaviy imkoniyatlari va siyosiy ta'siriga ko'ra ayrim davlatlar bilan bema'lol bellasha oladi. Xalqaro munosabatlarning mazkur sub'ektlari orasida eng muhimlari hukumatlararo tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro nohukumat tashkilotlar hisoblanadi. «YAshillar», «muqobillar», antiglobalistlar kabi ijtimoiy harakatlar ham keng dovruq qozondi.

Globallashuvningserqirraligi madaniyat, xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq sohasida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yasash bilan bir qatorda axloq, xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlarga munosabat va mo'ljallarda ham muhim o'zgarishlarga kuchli ehtiyojni Yuzaga keltirdi. *Mutlaqo Yangi hodisa – jahon jamoatchilik fikri Yuzaga keldi va sayyoramizda o'zini jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlar soni ko'paydi.*

Jahon hamjamiyati Yangi ming yillik chegarasidan o'tib, o'z tarixiy rivojlanishining butunlay Yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqich jahon ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy aloqalarining tarqoqligi va parokandaligidan ularning birligi, yaxlitligi, yagonaligi va globaligiga o'tish bilan tavsiflanadi.

Global muammolar globallashuvning oqibati sifatida. Ko'rib chiqilgan globallashuv jarayonlari odamlarga Yangi g'am-tashvishlar va ijtimoiy hayotning internatsionallaShuvidan kelib chiqadigan Yangi (global) muammolar keltirdi. YUqorida qayd etib o'tilganidek, ular ijtimoiy rivojlanishda, Shuningdek «jamiyat-tabiati» tizimida uzoq vaqt mobaynida Yuz bergan miqdor va sifat o'zgarishlari mahsuli bo'ldi.

Shuni ta'kidlash lozimki, jahon hamjamiyati nafaqat yanada rang-barang, balki avvalgidan ham ziddiyatliroq shakl-shamoyil kasb etgani bilan tavsiflanadigan hozirgi vaziyat tarixda hech qachon bo'lmagan.

Bir tomondan, u bir-biriga o'xshamaydigan, katta va kichik, rivojlangan va qoloq, tinchliksevar va urushqoq, yosh va qadimgi ko'p sonli madaniyatlar, millatlar va davlatlardan iborat. Boshqa tomondan esa, insoniyat uchinchi ming yillikka yagona organizm sifatida, bir «umumiy uy», aniqroq aytganda, yashash sharoitlari nafaqat tabiiy ko'rsatkichlar, ya'ni yashash uchun yaroqli hudud bilan, balki hayot faoliyati uchun zarur resurslar mavjudligi bilan ham chegaralangan Er deb atalmish katta va odamga to'lib ketgan «kommunal kvartira» aholisi sifatida qadam qo'ydi. Bu to'la anglab etish jarayoni so'nggi o'n yilliklardagina Yuz bergan va endilikda u bilan barcha mamlakatlar va xalqlar hisoblashishga majbur bo'lgan borliqdir.

Ayni vaqtda Shuni ta'kidlash lozimki, *global muammolarning paydo bo'lishi qandaydir yanglishish, kimningdir xatosi yoki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning ataylab tanlangan strategiyasi natijasi emas. Bu tarix injiqligi yoki tabiiy anomalialar mahsuli ham emas.* Ushbu muammolarning ildizlari ancha chuqur bo'lib, industrial jamiyat, umuman texnokratik yo'naltirilgan madaniyatning keng miqyosdagi inqirozini Yuzaga keltirgan hozirgi sivilizatsiyaning vujudga kelish tarixiga borib taqaladi.

Mazkur inqiroz odamlarning bir-biri bilan, jamiyat va tabiat bilan o'zaro aloqalarining butun majmuini qamrab oldi va deyarli butun jahon hamjamiyatiga, rivojlanayotgan mamlakatlarga va rivojlangan mamlakatlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Insonning atrof muhitga salbiy ta'siri aynan rivojlangan mamlakatlarda, asosan bu erda jadal sur'atlarda va stixiyali tarzda rivojlangan iqtisodiyot bilan bog'liq sabablarga ko'ra oldinroq va bo'rtibroq namoyon bo'ldi. Shu ma'noda 2008 yilda boshlanib, butun dunyoni larzaga solgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozinafaqat rivojlangan sanoat mamlakatlari, balki rivojlanayotgan, ayniqsa bozor munosabatlari qaror topayotgan davlatlarda ham o'z salbiy oqibatini o'tkazmasdan qolmadi. Ayni paytda global moliyaviy inqiroz jahon moliya bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va uni tubdan isloh qilishning zarurligini ko'rsatib berdi. Ushbu moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qanday davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari ko'p jihatdan bir qator omillarga, xususan, mamlakat moliya valyuta tizimi nechog'lik mustahkam ekanligi, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallaShuvi va likvidligi, oltin valyuta zahirasi hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati, Shuningdek, iqtisodiyotning barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatbardoshlik darajasi bilan bog'liq. Darhaqiqat, I.A.Karimov aytganlaridek "mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2010 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi

O‘zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi”¹. Bu esa respublikamiz moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining barqaror va ishonchligi, ularning himoya mexanizmlarini kuchaytirish uchun, xalqaro moliya inqirozining mamlakat bank tizimiga ta’siri darajasini e’tiborga olgan holda, Markaziy bankning pul-kredit siyosati dastaklari, likvidligini tartibga solish instrumentlarini yanada takomillashtirish, bank xizmatlaridagi innovatsiyalarni hisobga olgan holda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni yanada takomillashtirishni talab qiladi. Hozirgi kunda bu vazifa bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy rivojlanishning jadallaShuvi. Bunday rivojlanish, avvalo, atrof muhitning tanazzuliga olib keldi va tez orada insonning o‘zi ham tanazzulga Yuz tutganini namoyon etdi. Zero inson xulq-atvori, tasavvurlari va fikrlash tarzi uning atrofida Yuz bera boshlagan o‘zgarishlarga muvofiq o‘z vaqtida o‘zgarishga qodir bo‘lmay qoldi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning jadal sur‘atlarda rivojlanishiga esa insonning o‘zi va uning fan va texnika sohasidagi Yangi va Yangi yutuqlar bilan ko‘p karra kuchaytirilgan izchil o‘zgartiruvchi faoliyati sabab bo‘ldi.

So‘nggi o‘n yilliklarning o‘zida fan-texnika yutuqlari o‘sishi natijasida jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida avvalgi Yuz yilliklarga qaraganda ko‘proq o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bunda o‘zgarishlar jarayoni o‘zib boruvchi tezlikda rivojlandi va ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda yanada chuqurroq va jiddiyroq o‘zgarishlar yasadi. Masalan, verbal (og‘zaki) muloqotdan yozuvning yaratilishiga qadar insoniyat taxminan uch million yilga, yozuvdan kitob bosmasi ixtiro qilingunga qadar taxminan besh ming yilga, kitob bosmasidan telefon, radio, televidenie kabi audiovizual vositalar yaratilgunga qadar taxminan besh Yuz yilga teng yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lsa, odatdagi audiovizual vositalardan zamonaviy kompyuterlarga o‘tish uchun ellik yildan kamroq vaqt talab etildi. Misli ko‘rilmagan sur‘atlarda-atigi 10-15 yil ichida odamlar Internet va uyali aloqa yordamida muloqot qilish uchun cheksiz imkoniyatlarni qo‘lga kiritdilar. Yangi ixtirolar yaratilganidan ular amalga joriy etilgunga qadar o‘tadigan vaqt ham yanada qisqardi; ular endi aksariyat hollarda yillar bilan emas, balki oylar va hatto kunlar bilan o‘lchanadi. XXI asrning eng so‘nggi kashfiyotlaridan biri bo‘lmish nanotexnologiyalarning (mitti texnologiyalar) yaratilishi insonning barcha sohadagi imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. (Bu haqda Axborot va axborotlaShuvning falsafiy asoslari mavzusida batafsil ma’lumot berilgan).

Shunday qilib, atigi ikki-uch Yuz yil muqaddam turli millatlar asosan alohida-alohida yashagan, ularning o‘zaro aloqalari yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, endilikda Erda nafaqat «oq dog‘lar», ya’ni inson oyog‘i etmagan joylar qolmadi, balki tabiiy holatiga inson bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatmagan sof hududlar, suv va fazo bo‘shliqlari ham deyarli mavjud emas. Bularning barchasi endi bizning sayyoramizni «umumiy uy», «Koinotdagi orolcha», «qattiq to‘lqinlanayotgan okeandagi qayiq», «dunyoviy qishloq» deb, barcha odamlar uchun umumiy tus olgan muammolarni esa - olamShumul, umuminsoniy, global deb nomlash uchun asos bo‘lmoqda.

Global tendensiyalarni anglashning ahamiyati. Jahonda Yuz berayotgan o‘zgarishlarning ba’zi bir tendensiyalari olimlar va faylasuflar diqqat markazidan bu o‘zgarishlar barchaga ravshan bo‘lishidan oldinroq o‘rin oldi. Masalan, ijtimoiy rivojlanishga turli sivilizatsiyalarning oldinma-кетин almashishi sifatida qaragan ingliz tarixchisi A.Toynbi (1889-1975) kompyuter inqilobidan ancha oldin «XX asrda umumjahon tarixi boshlandi» degan xulosaga keldi. Shu tariqa tub o‘zgarishlar nafaqat jamiyat qurilishi negizlarida, balki dunyo miqyosida Yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarning asosiy tendensiyalarida ham aks etgani ta’kidlandi.

Hozirgi zamon nemis falsafasining atoqli namoyandasi K.YAspers (1883-1969) bu xususda yanada aniqroq fikr bildirdi. U 1948 yilda e’lon qilgan «Tarix kurtaklari va uning maqsadi» asarida, jumladan, Shunday deb yozadi: «Ilk bor olamShumul ahamiyat kasb etgan bizning tarixan Yangi sharoitimiz Erda odamlarning real birligidan iboratdir. Zamonaviy aloqa vositalarining texnik imkoniyatlari sharofati bilan sayyoramiz insonga to‘la ochiq bo‘lgan yagona yaxlitlikka aylandi»⁹⁰.

Bu, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, tarixiy o‘lchovlarga ko‘ra jadal sur‘atlarda emas, balki misli ko‘rilmagan shitob bilan Yuz berdi. Bunda dunyoning yagonaligi tarixiy taraqqiyotni belgilovchi muhim omilga aylandi. Ikkinchi jahon urushi jahon hamjamiyatining parokandaligiga uzil-kesil chek qo‘ydi. Urush

¹Каримов И. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. - Т.: Ўзбекистон, 2009. –Б.30

⁹⁰ Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: 1991. –С. 141.

tugagani zahoti K.Y.Aspers «Shu davrdan e'tiboran yaxlit bir butunning yagona tarixi sifatidagi jahon tarixi boshlanadi, - deb qayd etdi. Endi butun dunyo asosiy muammo va vazifaga aylandi. Shu tariqa tarixning butunlay o'zgarishi Yuz beradi. Dunyo mamlakatlari va xalqlari tutashdi. Er kurrasi yaxlit va yagona tus oldi. Yangi xavflar va imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Barcha muhim muammolar dunyo miqyosidagi muammolarga, vaziyat – butun insoniyat vaziyatiga aylandi»⁹¹.

Borliq, ong, hayotning mazmuni azaliy falsafiy muammolariga va falsafada muttasil muhokama qilinadigan boshqa masalalarga **hozirgi davr Shu tariqa ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan, mutlaqo Yangi mavzu – insoniyatning yagona taqdiri va Erdagi hayotni saqlash** mavzusini qo'shimcha qildi.

XX asrda fan va texnika sohasidagi aqlni lol qoldiradigan natijalar ta'sirida ilk texnokratik ijtimoiy nazariyalar paydo bo'ldi. Shulardan birining muallifi – amerikalik iqtisodchi va sotsiolog T.Veblen jamiyatning rivojlanishida sanoat ishlab chiqarishi va texnika taraqqiyotining etakchi rolini birinchilardan bo'lib falsafiy jihatdan asoslab berdi. Uning fikricha, hozirgi zamon davlati muhandislar va texniklar tomonidan boshqarilishi lozim, chunki ishlab chiqarishni jamiyat manfaatlarida rivojlantirish (bu g'oya T.Veblen texnokratik nazariyasining mag'zini tashkil etadi) faqat ularning qo'lidan keladi va siyosiy hokimiyat ularga ayni Shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun kerak.

Shu davrda Yangi tendensiyalarga nisbatan boshqacha munosabatni ilgari suruvchi yondashuvlar ham paydo bo'ldi. Xususan, tabiat bilan jamiyatning o'zaro munosabati muammolarini anglab etishda V.I.Vernadskiyning roli va u noosferani yaxlit umumbashariy hodisa sifatida tushunishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.. Shunga o'xshash fikrlarni taniqli fransuz faylasufi, teolog P.Teyyar de SHarden ham ilgari suradi. Biosferaning tarkibiy qismi sifatida insonning betakrorligini asoslashga harakat qilar ekan, u insonning tabiat bilan munosabatlarini uyg'unlashtirish konsepsiyasini rivojlantirdi va butun insoniyatning birlashishi yo'lida egoistik niyatlardan voz kechishga chaqirdi⁹².

Shunday qilib, faylasuflar va olimlar XX asrning birinchi yarmidayoq nafaqat Yangi davr – umumbashariy hodisalar davri boshlanayotganini, balki bu Yangi sharoitlarda odamlar tabiiy va ijtimoiy stixiyaga faqat bahamjihat qarshilik ko'rsata olishi mumkinligini ham anglab etdilar.

Texnooptimizm. Ammo qayd etilgan qarashlar 60-yillarning boshlariga kelib texnokratik kayfiyatlarning Yangi to'lqini bilan chetga surib qo'yildi va qariyb ikki o'n yillik mobaynida ommaviy ongga o'z ta'sirini yo'qotdi. Bunga urushdan keyingi davrda jahonning deyarli barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarini qamrab olgan sanoat yuksalishi sabab bo'ldi. 50-60-yillarda ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari G'arbda ham, Sharqda ham aksariyat mamlakatlar uchun porloq bo'lib tuyular edi.. *Ijtimoiy ongda har qanday dunyoviy va hatto koinot muammolarini fan va texnika yordamida hal qilish mumkin degan illYuziyani yaratgan texnooptimistik kayfiyatlar kuchaydi* Bunday qarashlar «iste'mol jamiyati»ni ijtimoiy rivojlanish maqsadi deb e'lon qilgan ko'p sonli nazariyalarda o'z aksini topdi. Ayni Shu davrda «industrial», «postindustrial», «texnotron», «informatson» jamiyatlarning turli konsepsiyalarini yaratish ustida faol ish olib borildi.

1957 yilda taniqli iqtisodchi va sotsiolog J.Gelbreyt «Serobgarchilik jamiyati» kitobini e'lon qildi va uning asosiy g'oyalarini keyinchalik o'zining «Yangi industrial jamiyat» deb nomlangan boshqa asarida rivojlantirdi. Uning asarlarida inson fan va texnika sohasida erishayotgan yutuqlarga yuksak va faqat ijobiy baho beriladi, mazkur yutuqlar ta'sirida jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarida chuqur o'zgarishlar Yuz berayotganiga e'tibor qaratiladi.

Taniqli fransuz faylasufi R.Aron asarlarida, Shuningdek, uning 1956-1959 yillarda Sorbonna universitetida o'qilgan ma'ruzalarida, amerikalik siyosatshunos U.Rostouning 1960 yilda chop etilgan va o'z davrida shov-Shuvga sabab bo'lgan «Iqtisodiy o'sish bosqichlari. Nokommunistik manifest» kitobida «industrial jamiyat» nazariyasi yanada to'laroq asoslab berildi.

Bu olimlar fikriga ko'ra, fan-texnika inqilobi ta'sirida «odatdagi» agrar jamiyat o'rnini sanoat jihatidan taraqqiy etgan «industrial» jamiyat egallaydi va bu erda bozor sharoitida ommaviy ishlab chiqarish birinchi o'ringa chiqadi. Sanoatning rivojlanish va texnika yutuqlaridan foydalanish darajasi bunday jamiyat progressivligining bosh mezonlariga aylanadi.

Jamiyat hayotining barcha sohalariga kompyuterlarning keng joriy etilishi Yangi nazariyalar, chunonchi: «postindustrial», «informatson» (D.Bell, G.Kan, J.Furaste, A.Turen), «texnotron» (Z.Bjezinskiy,

⁹¹ Там же, –С. 142

⁹²Қаранг: П.Т. де Шарден. Феномен человека. – М.: 1987. – С.194

J.J.Servan-SHrayber), «o'ta industrial», «kompyuter» (A.Toffler) jamiyati nazariyalari Yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ularda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy mezonini sifatida texnika yutuqlari, aniqrog'i faqatgina ular emas, balki fan va ta'limning rivojlanishi amal qiladi. Kompyuter texnikasi negizida yaratilgan Yangi texnologiyalarning amalga joriy etilishi taraqqiyotning muhim mezonini hisoblanadi.

Amerikalik taniqli faylasuf va sotsiolog D.Bell bo'lg'usi ijtimoiy qurilish shakl-shamoyillarini belgilar ekan, hali Internet paydo bo'lishidan ancha oldin Shunday degan edi: «Shunga ishonchim komilki, axborot va nazariy bilim postindustrial jamiyatning strategik resurslaridir. Bundan tashqari, o'zining Yangi roliga ular hozirgi tarixning tub burilish nuqtalaridir»⁹³.

D.Bell birinchi burilish nuqtasi sifatida hozirgi jamiyatda «umumiy bilim» sifatida asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga aylangan fan xususiyatining o'zgarishini qayd etadi. Ikkinchi burilish nuqtasi Yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ular, sanoat inqilobi davri texnologiyalaridan farqli o'laroq, o'ta moslashuvchan va osongina qayta ixtisoslashtirilishi mumkin. U «Hozirgi texnologiya betakror va ayni vaqtda rang-barang natijalarga erishish uchun ko'p sonli muqobil yo'llar ochadi, bunda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish mislsiz darajada o'sadi. Bular – imkoniyatlar, hamma gap ularni ro'yobga chiqarishda»⁹⁴, deb qayd etgan edi.

Texnopessimizm fan texnika yutuqlari insoniyatni boshi berk ko'chaga olib kiradiva pirovardda u halok bo'ladi deb hisoblaydi. Ko'rib chiqilayotgan nazariyalarning ayrim tarafdorlari fan-texnika inqilobining salbiy oqibatlariga, xususan atrof muhitning ifloslanishi muammolariga ma'lum darajada e'tibor bergan bo'lsalar-da, lekin, umuman olganda, ularning hech biri bundan 1980-yillarning o'rtalarigacha jiddiy tashvishga tushmadi. Chunki, fan-texnika taraqqiyoti hamma narsaga qodir ekanligiga ishonch haddan tashqari katta edi.

Ayni zamonda 1960-yillarning oxirlaridan ekologik qiyinchiliklardan tashqari aksariyat davlatlar va hatto qit'alarga tahdid solgan boshqa muammolar: aholining nazoratsiz o'sishi, turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining notekisligi, xom ashyo resurslari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va boshqalar tobora bo'rtibroq namoyon bo'la boshladi. Tez orada ular fan va falsafa diqqat markazidan o'rin olib, qizg'in bahs va munozaralar predmetiga aylandi.

Ko'rsatilgan muammolarni falsafiy tahlil qilish borasidagi dastlabki urinishlarning o'ziyoq texnokratik tendensiyalarga zid bo'lgan, keyinchalik «texnologik pessimizm» deb nomlangan qarashlarni namoyon etdi. «ekopessimizm», asosiy e'tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni echish imkoniyatlari salbiy tusda ko'rilgan holdir.

Ko'pgina taniqli olimlar va faylasuflar, xususan G.Markuze, T.Rozzak, P.Gudmen va boshqalar o'z o'tmishdoshlarini shafqatsiz ssientizm⁹⁵, insonni fan va texnika quliga aylantirishga urinishda ayblab, fan-texnika taraqqiyotiga qarshi chiqdilar. Fan-texnika taraqqiyotiga va umuman ijtimoiy taraqqiyotga qarshi norozilikning Yangi to'lqini Yuzaga kela boshladi. Bu to'lqin ta'sirida paydo bo'lgan g'oyalar «aksiliste'mol» jamiyatini asoslashga harakat qilar va «o'rtacha odam»ni ozginaga qanoat qilish lozimligiga ishonitirishga qaratilgan edi. Global muammolar paydo bo'lishining aybdorini topishga urinish jarayonida asosiy ayb «zamonaviy texnologiya»ga qo'yildi. Nafaqat fan yutuqlari, balki taraqqiyot g'oyasi ham Shubha ostiga olindi. O'z davrida J.J.Russo ilgari surgan «tabiat bag'riga qaytish»ga chorlovlar paydo bo'ldi, iqtisodiy rivojlanishni erishilgan darajada «to'xtatish» taklif qilindi.

Rim klubi. YUqorida qayd etilgan qarashlardagi tub burilish asosan Rim klubi faoliyati ta'sirida Yuz berdi. 1968 yil Rimda o'zining birinchi majlisiga yig'ilgan olimlar, faylasuflar va jamoat arboblarning bu nufuzli xalqaro tashkiloti hozirgi davrning eng muhim umuminsoniy muammolari bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash va e'lon qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Bu tashkilotning 1972 yilda e'lon qilingan «O'sish chegaralari» deb nomlangan birinchi ma'ruzasiyoq juda katta shov-Shuvga sabab bo'ldi, chunki insoniyat o'zi anglamagan holda «poroxli bochka ustida o'tirib, gugurt o'ynayotgani»ni ko'rsatib berdi. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti Aurelli Pechchei mazkur tadqiqotga yozgan so'zboshisida Shunday deb qayd etgan edi: «Endilikda ona-Erimiz har qanday o'sish sur'atlariga dosh berishga, insonning har qanday

⁹³ Белл Д. Социальные рамки информационного общества / Новая технократическая волна на Западе. – М., 1986. – С.342

⁹⁴ Там же, – С.342

⁹⁵ Сциентизм (ингл. science – фан) – фаннинг жамият ҳаётидаги ролини мутлақлаштирувчи концепция

erkaliklarini ko'tarishga qodir ekanligiga sog'lom fikrlaydigan odamlarning birortasi ham ishonmaydi. O'sish chegaralari borligi ravshan, lekin ularning qandayligi va qaerdaligini hali aniqlash lozim»⁹⁶.

Mazkur ma'ruza mualliflari Shunday aniqlash bilan Shug'ullandilar. Olingan natijalarning muxtasar mazmuni Shundan iborat ediki, sayyoramiz hajmining chegaralari muqarrar tarzda inson imkoniyatining chegaralarini ham nazarda tutadi; moddiy o'sish cheksiz darajada davom etishi mumkin emas; ijtimoiy rivojlanishning haqiqiy chegaralari moddiy omillar bilan emas, balki ekologik, biologik va hatto madaniy omillar bilan belgilanadi. Ular jahon rivojlanishi asosiy tendensiyalarining kompyuter modelini tuzib, mazkur tendensiyalar saqlangan holda uchinchi ming yillik boshidayoq insoniyat voqealar ustidan nazoratni butunlay yo'qotishi va natijada halokatga Yuz tutishi mumkin, degan to'xtamga keldilar. Bundan ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish, tobora ko'payib borayotgan aholi sonini esa tegishli ijtimoiy siyosat yordamida barqarorlashtirish lozim, degan xulosaga kelindi.

Ma'ruza jahonning ko'plab tillariga o'girildi va dunyo bo'ylab keng tarqaldi, ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish g'oyasi tarafdorlari va muxoliflari o'rtasida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. So'ngra navbatdagi ma'ruzalar majmui (bugungi kunda ular yigirmatadan oshib ketdi) paydo bo'ldi. Bu ma'ruzalar umuminsoniy muammolarning ko'pgina jihatlarini yoritib berdi va ularga nafaqat olimlar va faylasuflar, balki siyosatchilar, jamoat arboblari, umuman jahon hamjamiyati e'tiborini qaratdi.

Global muammolarni echishda falsafaning roli. Og'ir va murakkab vazifalarni echishda insonga fan doim yordam bergan. Bir paytlar erishib bo'lmaydigan, inson imkoniyatlari darajasidan tashqarida bo'lib tuyulgan narsalarning aksariyatiga aynan fan yordamida erishilgan. Ayni Shu sababli global muammolar xavf solayotgani haqidagi ilk ogohlantirishlarning o'ziyoq odamlarni fanga o'z e'tiborini qaratishga, olimlarni esa bu muammolarni echish yo'llarini izlashga majbur qildi.

Yuzaga kelgan vaziyatning o'ziga xosligi va Yangiligi Shundan iboratki, har qanday muayyan muammolarni ayrim fan yoki bir necha fanlar majmui doirasida o'rganish mumkin bo'lsa, inson, jamiyat va tabiatni ularning ko'p sonli o'zaro aloqalari va o'zaro bog'liqliklarida qamrab oluvchi murakkab tizimdan iborat global muammolarni tadqiq etishga ayrim fanlar qodir emas. Zero o'z tadqiqoti ob'ekti – u yoki bu ayrim muammoni boshqa global muammolar kontekstida talqin qilishga muayyan fanlar doirasi torlik qiladi. Shu sababli u yoki bu fan qaysi muayyan vazifalarni echishidan qat'iy nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun vaziyatga, Shu jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo tadqiqotning zaruriy sharti hisoblanadi.

Har qanday ayrim fanlar muayyan bosqichda o'z tadqiqot predmetini falsafiy jihatdan anglab etishga u yoki bu darajada muhtoj bo'ladi. Muayyan fan predmetiga va insoniyat oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishi ham mumkin emas.

Shunday qilib, ayni holda, bir tomondan, masalalarning falsafiy echimi to'g'risida, boshqa tomondan esa – falsafa fanlarning keng doirasi o'zaro aloqa qilishini rag'batlantirishi, bunda ularning fanlararo birlashuvi muhim o'rin tutishi to'g'risida so'z yuritiladi.

Garchi falsafa odamlarning kundalik hayoti va amaliyotidan ancha uzoqda bo'lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o'rganadi, degan fikr mavjud bo'lsa-da, u (falsafa) global muammolarni echishda muhim rol o'ynaydi. Zero, umumiy nazariyalar ba'zan bilimning aksariyat muayyan sohalariga qaraganda ko'proq samara berishi mumkinligi yaxshi ma'lum.

Albatta, falsafa siyosiy va boshqa qarorlar qabul qilish jarayoniga muqarrar tarzda va bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb aytish uncha o'rinli bo'lmaydi. Zero, uning bosh vazifasi dunyoqarashni shakllantirish va Shu tariqa amaliy qarorlar ishlab chiqish jarayoniga bilvosita ta'sir ko'rsatishdan iborat. Uning vazifasi global muammolarning tabiiy-ilmiy va texnikaviy jihatlarini bevosita o'rganishdan emas, balki boshqa fanlar taklif qiladigan tegishli echimlarning falsafiy, metodologik, madaniy va axloqiy negizini ta'minlashdan iborat.

Falsafiy tadqiqot muayyan fanlarning mazkur sohadagi yutuqlariga tayanib, masalaning ayrim jihatlarini mavhumlashtiradi va global muammolarni ular bir-birini qay darajada taqozo etishi nuqtai nazaridan o'rganadi. Boshqacha aytganda, falsafiy yondashuv global muammolarni ularning ijtimoiy ahamiyati va ijtimoiy belgilanganligi nuqtai nazaridan yaxlit o'rganishni nazarda tutadi. Bunday tadqiqot avvalo global

⁹⁶ Печчеи А. Человеческие качества. – М.: 1980. – С. 123, 124.

muammolarning mohiyatini aniqlashni nazarda tutadi, chunki ularning asl tabiati va genezisini aniqlash bu muammolarning ilmiy va amaliy echimini topish yo'llarini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Global muammolarni falsafiy anglab etishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflar ekanmiz, falsafaning asosiy funksiyalaridan kelib chiqadigan va bilishning Shu shakligagina xos bo'lgan xususiyatlarni qayd etib o'tamiz.

Birinchidan, falsafa, dunyoqarashni shakllantirar ekan, inson faoliyati yo'nalishini ko'p jihatdan belgilaydigan muayyan mo'ljallar beradi. Shu tariqa falsafa o'zining dunyoqarashni shakllantirish va aksiologik funksiyalarini bajaradi.

Ikkinchidan, turli fanlar doirasida o'rganiladigan murakkab tizimlar haqida yaxlit tasavvur mavjud emasligi bu fanlarning o'zaro hamkorligi yo'lida jiddiy to'siq hisoblanadi. Shu ma'noda falsafaning mazkur fan doirasida Yuzaga keladigan nazariyalarni umumlashtiruvchi metodologik funksiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ilmiy bilimning integratsiyala Shuviga ko'maklashadi.

Uchinchidan, falsafa ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tarixiy kontekstda tushuntirish imkonini beradi. U jamiyat va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlarini ta'riflaydi va Shu sababli global muammolarni o'rganishda ularni ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan qonuniy hodisa sifatida tushunishga yo'l ko'rsatadi. Shunday qilib, global muammolarning paydo bo'lishi tasodif yoki insoniyatni halokatga oldindan mahkum etuvchi taqdirning hukmi sifatida emas, balki qarama-qarshiliklarga to'la insoniyat tarixi ob'ektiv rivojlanish jarayonining mahsuli sifatida qaraladi.

To'rtinchidan, falsafa global muammolar rivojlanishining umumiy tendensiyasini, ularning o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo etish darajasini falsafiy nuqtai nazardan anglab etish imkonini beradi.

Beshinchidan, falsafa nazariy fikrlash madaniyatini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish orqali ma'naviy - madaniy funksiyani bajaradi. Turli xalqlarning falsafa tarixini o'rganish, ularning madaniyati bilan ham tanishish imkonini beradi. Muayyan xalqlar oldida turgan muammolarning birortasini ham ularning madaniyatiga bog'lamsdan echish mumkin emas.

Oltinchidan, global muammolarga oid ilmiy axborotning shiddat bilan o'sib borayotgan oqimida yanada aniqroq mo'ljall olish imkoniyati tabiiy-tarixiy jarayonni yaxlit ko'rish va uni talqin qilishga nisbatan dialektik yondashuv mahsuli hisoblanadi.

Etinchidan, falsafa inson hayotining mazmuni, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yadiki, bu insoniyatga global muammolar tahdid solayotgan sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, falsafaning yana bir muhim metodologik funksiyasi Shundan iboratki, u insoniyatning hozirgi muhim muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan va bashariyat rivojlanishining ob'ektiv tendensiyalarini tushunish va anglab etishda ulkan rol o'ynaydigan «tabiat», «jamiyat», «sivilizatsiya», «ijtimoiy taraqqiyot», «fan-texnika inqilobi» kabi boshqa kategoriyalarni ishlab chiqadi.

Hozirgi davrning global muammolarini o'rganishga nisbatan falsafiy yondashuv haqida muayyan tasavvur hosil qilgach, endi globallashuv jarayonlari kuchayishiga qarab ahamiyati oshib borayotgan muammolarning o'zini Shu nuqtai nazardan ko'rib chiqamiz.

2. Global muammolarning mohiyati

«Hozirgi davrning global muammolari» tushunchasi 1960-yillar oxiri – 1970-yillarning boshlarida keng tarqaldi va Shundan beri ilmiy va siyosiy muomala(leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi. Aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan qo'llaniladigan atama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariy ahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular «global» deb nomlangan holda duch kelish mumkin.

Falsafada bu vazifani echish uchun tegishli mezonlar belgilangan bo'lib, ularga muvofiq u yoki bu muammo global deb belgilanadi va Shu tariqa bunday xususiyatga ega bo'lmagan boshqa ko'p sonli muammolardan farqlanadi.

Etimologik jihatdan «global» atamasi, «globallashuv» atamasi kabi, er kurrasi bilan bog'liq. Ayni Shu sababli *butun insoniyat manfaatlariga daxldor muammolarni ham, dunyoning turli nuqtalaridagi har bir ayrim insonga tegishli bo'lgan, ya'ni umuminsoniy xususiyat kasb etadigan muammolarni ham «global» deb nomlash odat tusini olgan.* Ular jahon iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim ob'ektiv omili sifatida

ayrim mamlakatlar va mintaqalarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularni echish aksariyat davlatlar va tashkilotlarning kuch-g'ayratini xalqaro darajada birlashtirishni nazarda tutadi. Ayni vaqtda global muammolarning echilmay qolishi butun insoniyat kelajagi uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Muammolarning turli darajalari. Global muammolar butun dunyogagina tegishli bo'lmay, uning mintaqalari va hatto ayrim mamlakatlar darajasida namoyon bo'lgani bois, ilmiy adabiyotlarda ularning umuminsoniy ahamiyatini tan olish bilan bir qatorda, ularni mohiyati o'zgacha, ta'sir doirasi esa torroq bo'lgan ayrim, mahalliy, mintaqaviy muammolardan farqlash ham amalga oshiriladi. Turli darajadagi muammolarni «umumiylilik», «xususiylik» va «yakkalik» falsafiy kategoriyalarining muayyan ifodasi sifatida o'rganar ekanlar, ularni odatda Shunday talqin qiladilarki, xususiy muammolar ayrim muammolar sifatida, mahalliy va mintaqaviy muammolar – xususiy muammolar sifatida, global muammolar esa – umumiy muammolar sifatida amal qiladi. Zikr etilgan muammolarni farqlash zamirida yotuvchi asosiy mezon ham ayni Shu yondashuvni belgilaydi. U geografik deb ataladi, chunki makon omilini yoki, boshqacha aytganda, muayyan muammolar mavjud hududni aks ettiradi.

Xususiy muammolar *davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy ob'ektlarga tegishli bo'lgan muammolardir.* Bular, odatda, turli avariya, nosozliklar natijasida Yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va sh.k.

Mahalliy muammolar *tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi.* Bu erda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Milliy muammolar *tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.*

Mintaqaviy muammolar *ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda Yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi.* Bunday muammolarga Sharqiy Evropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan CHernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchi ancha katta hududlarda Yuz bergan iqlim o'zgarishlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, 1968 yilda Saxel mintaqasida Yuz bergan qurg'oqchilik «asr falokati» degan nom oldi. U Afrika qit'asining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan ko'proq odam halok bo'ldi, taxminan 18 million bosh qoramol nobud bo'ldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari Yuzaga keldi, bu ulkan mintaqahududi esa deyarli to'la sahroga aylandi.

Global muammolar *butun er kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Erning qolgan Yuzasi, er osti bo'shliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi.*

Shunday qilib, global muammolar to'g'risida so'z yuritilganda butun sayyora nazarda tutiladi, uning eng yirik tarkibiy birligi sifatida esa mintaqa qabul qilinadi. Bunda mintaqalar soni va ularning miqyosi ko'rib chiqilayotgan muammolar xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, dunyo miqyosidagi iqtisodiy qoloqlik muammosini tadqiq etishda odatda butun sayyorani ikki mintaqahudud – rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratish bilan kifoyalaniladi. Demografik, energetik muammolar yoki xom ashyo muammolarini o'rganishda esa, mintaqalar soni ko'payadi va har safar tadqiqotning muayyan maqsadlari bilan belgilanadi.

Bunda Shuni qayd etish lozimki, har qanday muammo sayyoraning istalgan mintaqasiga nisbatan muhim sanalgan, ya'ni ularning har birida namoyon bo'lgan holdagina global deb hisoblanishi mumkin. Aks holda bir yoki bir necha mintaqalarning muammolari (yoki bundan ham kichikroq miqyosdagi muammolar) to'g'risida so'z yuritiladi.

Bundan barcha global muammolar ayni vaqtda mintaqaviy ahamiyat ham kasb etadi, lekin mintaqaviy darajada aniqlangan barcha muammolar ham global bo'lavermaydi, degan xulosa kelib chiqadi. O'z-o'zidan ravshanki, global muammolar soni kamroq bo'ladi. Boshqa darajalarga kelsak, global muammolar bevosita mahalliy yoki xususiy ko'rinishga ega bo'lmasligi yoki bu erda uncha sezilmasligi mumkin.

Masalan, Antarktidada yoki sayyoramizning atrof muhit ifloslanadigan asosiy markazlari va manbalaridan ancha uzoqda joylashgan boshqa burchaklarida havo yoki suv havzalarining holati qoniqarli

bo'lishi, tabiiy muhitga antropogen ta'sir esa deyarli sezilmasligi mumkin. Shunga qaramay bu keskinlik darajasi tabiiy muhitga antropogen ta'sirning notekisligiga bog'liq bo'ladigan ekologik muammoning global xususiyatiga shak-Shubha tug'dirmaydi. O'z navbatida, barcha mahalliy yoki xususiy muammolar global muammolar bilan bog'lanavermaydi, zero ularning soni taqqoslab bo'lmaydigan darajada ko'proqdir.

Keltirilgan mulohaza global va mintaqaviy muammolarni nafaqat ilmiy balki, amaliy jihatdan ham farqlash imkonini beradi, chunki barcha global muammolar o'z miqyosida o'zgarmaydigan yagona tizim – butun sayyora tegishlidir. Shu sababli mazkur tizim uchun ularning soni ma'lum tarixiy bosqichda muayyan hisoblanadi. Ayni vaqtda boshqa darajadagi muammolar sonining aniq hisobini yuritish mumkin emas, zero mintaqalarning va turli hududlarning chegaralari tadqiqotning maqsad va vazifalariga qarab shartli olinadi.

Globallik mezonlari. Fan va falsafada global muammolarni yanada aniqroq tavsiflash uchun yuqorida zikr etilgan «geografik» mezondan tashqari bu muammolarni boshqa tomondan – ularning sifati, va muhim xususiyatlari nuqtai nazaridan tavsiflovchi qo'shimcha mezonlar qo'llaniladi.

Birinchi, *global muammolar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ayrim kishilarning manfaatlariga, balki butun insoniyat taqdiriga daxldordir.*

Ikkinchi, *ularni bartaraf etish uchun butun sayyora aholisi hech bo'lmasa aksariyat qismining kuch-g'ayratini birlashtirish va ular bahamjihat, izchil ish ko'rishi talab etiladi.*

Uchinchi, *bu muammolar dunyo rivojlanishining ob'ektiv omili hisoblanadi va biron-bir mamlakat ularni e'tiborga olmasligi mumkin emas.*

To'rtinchi, *global muammolarning echilmagani kelajakda butun insoniyat va uning yashash muhiti uchun jiddiy, balki tuzatib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin.*

Qayd etilgan mezonlardan tashqari ba'zan global muammolarning boshqa bir qator xususiyatlari ham ko'rsatiladi. Xususiy, mahalliy va mintaqaviy muammolardan farqli o'laroq, global muammolar nisbatan turg'unroqdir. Ular globallikning yuqorida sanab o'tilgan barcha mezonlariga mos kelishdan oldin zimdan va uzoq shakllanadi, echilishiga qarab esa (nazariy jihatdan) quyiroq darajaga tushib, dunyo miqyosida o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Ammo tendensiyalarni teskari yo'nalishda o'zgartirish kamida butun jahon hamjamiyatining izchil harakatlarini talab etuvchi o'ta og'ir ish bo'lib, hali bunga erishilganicha yo'q. Global muammolar mavjudligining nisbatan qisqa tarixiga nafaqat ularning quyiroq darajaga tushishi, balki susayish hollari ham ma'lum emasligining sababi ana Shundadir.

Global muammolarning boshqa bir muhim xususiyati – ularning barchasi bir-biriga Shu darajada bog'liqlik, ulardan birini echish hech bo'lmasa unga boshqa muammolarning ta'sirini hisobga olishni nazarda tutadi.

3.Global muammolarning klassifikatsiyasi

Global muammolarning tasnifi. Global muammolarning keltirilgan mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari asosan mazkur sohadagi aksariyat tadqiqotchilarning qarashlarini aks ettiradi va global muammolarni boshqa barcha muammolardan farqlab, aniq aytish imkonini beradi. Bunda u yoki bu muammoning keskinlik va muhimlik darajasini belgilash, uning boshqa muammolar bilan o'zaro nisbatini aniqlash uchun odatda turli tasniflashlar amalga oshiriladi, ular alohida guruhlariga ajratiladi.

Tasniflash birdan-bir maqsad hisoblanmaydi, balki hozirgi davrning o'ta keskin ziddiyatlarini kompleks o'rganishning muhim elementi sifatida amal qiladi va mazkur muammolarni ularning o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo etishi nuqtai nazaridan o'rganish imkonini beradi. U muhim aloqalarni farqlash, ustuvorliklarni va ob'ektiv mavjud global muammolarning keskinlaShuv darajasini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, tasniflash global muammolarning tizimli o'zaro aloqasini yanada teranroq tushunishga ko'maklashadi va amaliy qarorlar qabul qilish ketma-ketligini belgilashga yordam beradi.

Izchil va aniq amalga oshirilgan tasniflash bilishning mazkur sohasidagi avvalgi tadqiqotlarni ma'lum darajada sarhisob qiladi va ayni vaqtda bunday tadqiqotlarning rivojlanishida Yangi bosqich boshlanganini qayd etadi.

Hozirgi zamondaglobal muammolarni tasniflashga nisbatan har xil yondashuvlar orasida ayniqsa keng e'tirof etilgan tasnifga muvofiq global muammolarning barchasi ularning keskinlik darajasi va echimining

ahamiyatiga, Shuningdek real hayotda ularning o'rtasida qanday sababiy bog'lanishlar mavjudligiga qarab uch katta guruhga ajratiladi.

Birinchi guruh eng katta umumiylik va muhimlik darajasi bilan tavsiflanadigan muammolar.

Ular turli davlatlar o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Ayni Shu sababli ular *interijtimoiy global muammolar deb ataladi*. Bu erda jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va adolatli dunyoni ta'minlash; Yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish kabi ikki o'ta muhim muammo farqlanadi:

Ikkinchi guruh jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri natijasida Yuzaga keladigan muammolar bo'lib, ular odamlarni energiya, yonilg'i, chuchuk suv, xom ashyo resurslari va Shu kabilari bilan ta'minlash kabilardir. Bu guruhga ekologik muammolar, Shuningdek Jahon okeani va kosmik fazoni o'zlashtirish ham kiradi.

Uchinchi guruhni «inson – jamiyat» tizimi bilan bog'liq muammolar ya'ni demografiya muammosi, sog'liqni saqlash, ta'lim, xalqaro terrorism tahdidi ma'naviyat masalalari va Shu kabilardir.

U yoki bu muammoning muayyan guruhga kiritilishi ma'lum darajada shartli xususiyat kasb etadi va muhim omillarga, ularni ajratish asoslariga bog'liq bo'ladi. Shu sababli har qanday tasnif masala echimining uzil-kesil varianti sifatida emas, balki murakkab tizimni qayta tuzishning global muammolar o'zaro aloqasi tabiatini yaxshiroq tushunishga ko'maklashadigan usullaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Endi butun insoniyatga jiddiy xavf tug'dirayotgan eng muhim muammolarga qisqacha tavsif beramiz.

Asosiy global muammolar tizimi. Hozirgi davrning global muammolari o'z holatini zamonda tinimsiz o'zgartiradigan yagona, faol va ochiq tizim hisoblanadi, chunki unga umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan Yangi muammolar kirishi, avvalgi muammolar esa, ularning echilishiga qarab, yo'qolishi mumkin. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti A.Pechchei bu holatga e'tiborni qaratib, insoniyat qarshisida ko'ndalang bo'lgan aksariyat muammolar «bir-biri bilan mahkam chirmashib oldi, ulkan sprut changali yanglig' butun sayyorani o'z iskanjasiga olmoqda... echilmagan muammolar soni o'sib bormoqda, ular yanada murakkabroq tus olmoqda, ularning chirmaShuvi yanada chigallashmoqda, ularning «iskanjasi» esa sayyoramizni o'z changalida tobora qattiqroq siqmoqda»,¹ deb yozgan edi.

Ammo global ziddiyatlar tuguni qanchalik chigal bo'lmasin, uni fan va falsafa yordamida echish, ya'ni sababni oqibatdan, muhim tafsilotlarni ikkinchi darajali tafsilotlardan, ob'ektivni sub'ektivdan farqlash uchun nazariy jihatdan anglab etish lozim. Dunyo miqyosidagi jarayonlarga ta'sir ko'rsatish uchun odamlarning imkoniyatlari va resurslari cheklanganini hisobga olib, muammolarning qaysi biri darhol echishni talab qilishi va qaysi biri ikkinchi darajali ahamiyat kasb etishini ham farqlash muhimdir.

Demografik muammo. *Hozirgi zamonda insoniyatning eng muhim muammolari orasida, aksariyat davlatlar va mintaqalarda aholi haddan tashqari ko'payishiga sabab bo'layotgan aholining nazoratsiz o'sishi qayd etiladi.* Ayrim mutaxassislarning baholashlariga ko'ra, sayyorada mavjud energetika, xom ashyo, oziq-ovqat va boshqa resurslar Erda faqat bir milliardga yaqin kishi («oltin milliard») munosib hayot kechirishini ta'minlashi mumkin. Vaholanki, oxirgi ming yillik mobaynida sayyoramiz aholisi 15 baravar ko'paydi va bugungi kunda 6 milliard kishidan oshib ketdi. Bunda nafaqat miqyos, balki aholining o'sish sur'atlari ham aqlni lol qoldiradi. Xususan, birinchi ikki baravar ko'payish 700 yil ichida, ikkinchisi – 150 yil ichida, uchinchisi – 100 yil ichida va oxirgisi – 40 yildan kamroq vaqt ichida Yuz berdi. Shuni aytishning o'zi kifoyaki, 1956 yil Erda 2,8 milliard kishi yashagan bo'lsa, XX asr oxiriga kelib bu raqam 6 milliardga etdi.

XX asrda er kurrasi aholisining «demografik portlash» deb nomlangan mislsiz darajada o'sishi biologik qonunlarning emas, balki stixiyali, notekis ijtimoiy rivojlanish va insoniyat katta mashaqqatlar bilan bartaraf etishga harakat qilayotgan chuqur ijtimoiy ziddiyatlar mahsuli bo'ldi. Bu avvalo rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bo'lib, ularga jahon aholisi o'sishining o'ndan to'qqiz qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Bu erdagi vaziyat rivojlangan mamlakatlarga XX asr boshidayoq xos bo'lgan o'lim darajasining yuqoriligi va butun insoniyatga XVIII asrga xos bo'lgan tug'ilish darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda mehnat unumdorligi darajasi va aholi jon boshiga olinadigan daromad miqdoriga, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorlik darajasi va qishloq xo'jaligining samaradorligiga, aholining savodxonlik darajasi va umumiy madaniy saviyasiga ko'ra bu mamlakatlar xalqlarining aksariyati hali XIX asrda yashamoqda.

¹ Печчеи А. Человеческие качества. – М.: 1980. – С.7

Demografik muammolar juda murakkab va o'ta turg'un bo'lib, ularni tez bartaraf etish mumkin emas. Ularni echish kechga surilgani sari, yanada murakkabroq va chigalroq tus oladi. Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlarda barcha hukumatlar tug'ilish darajasini pasaytirishga qaratilgan demografik siyosatni amalga oshirishga harakat qilmoqda. Jumladan O'zbekistonda 1995 yilda "Oilani rejalashtirish" davlat dasturi qabul qilindi. Bu dasturda har bir oilada farzand tug'ilishini rejalashtirishning ona va bola sog'ligini asrashga yo'naltirilgan sa'y harakatlardan biri bo'lishi bilan bir qatorda, mamlakatda demografik portlashning oldini olish vazifasini bosqichma-bosqich amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bu borada barcha viloyatlarda, qishloq va ovullarda reproduktiv salomatlik bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholining o'rtacha yoshi erkaklar orasida 73, ayollar orasida 75 yoshga teng.

Mazkur muammo rivojlangan mamlakatlarda ham keskinlashdi, lekin bu erda uning aks ko'rinishiga duch kelish mumkin. Umr uzunligining va keksa odamlar sonining o'sishi jarayonida hatto aholining oddiy ko'payishini ham ta'minlamaydigan tug'ilish darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Ayni holda depopulyasiya, ya'ni aholi sonining kamayishi to'g'risida so'z yuritiladiki, (Rossiya aholisi o'rtacha 54 yoshni tashkil qiladi,) bu ham milliy manfaatlar, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, pensiya ta'minoti va Shu kabilarga tegishli qo'shimcha qiyinchiliklarni Yuzaga keltiradi. Rossiyadagi so'nggi 20 yillikdagi demografik jarayonlar bunga yorqin misol bo'ladi. Biroq, keyingi besh yilda bu masalada ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan aholi soni ortishi va o'rtacha umrguzaronlik 4 yilga oshdi.

Ta'lim muammosi. Demografik portlash sabablari ta'lim muammosi bilan uzviy bog'liq. So'nggi yillarda jahonda savodsizlar soni foiz hisobida kamaygan bo'lsa, mutlaq hisobda o'sishda davom etmoqda. Bunda ma'lumotsiz odamlarning hayoti amalda ko'p bolalikni xurofiy aqidalar bilan oqlaydigan arxaik oilaviy an'analarga bo'ysunadi. Pirovardda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovut bu jihatdan ham ortishda davom etmoqda. Hozirgi vaqtda ajabtovur vaziyatni kuzatish mumkin: savodxonlik mutlaq raqamlarda o'sayotgan bir paytda, savodsizlar, ya'ni o'qish, yozish, oddiy arifmetik amallarni bajarishni bilmaydigan odamlar soni ham o'sib bormoqda (Hindiston aholisining 70%, Pokiston aholisining 60%, Afrika mamlakatlari aholisining 80% savodsiz).

Shu bilan bir qatorda aksariyat odamlarning ma'lumot darajasi Yangi texnologiyalar va kompyuter texnikasidan keng foydalanuvchi hozirgi jamiyatda to'laqonli yashash va mehnat qilish imkonini bermasligi bilan bog'liq *funksional savodsizlik ham o'sib bormoqda*.

Bu muammoning boshqa bir jihati Shundan iboratki, jahonning aksariyat davlatlarida ta'lim olish imkoniyati barchaga teng darajada ta'minlanmagan bo'lib, bu ijtimoiy keskinlikning qo'shimcha manbai hisoblanadi. Shuningdek hozirgi davrda ta'lim sifatini yaxshilash, uning mazmunini ijtimoiylashtirish masalasi ko'ndalang bo'lib turmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki ta'limning ijtimoiylaShuvi o'quv jarayonida gumanitar fanlarning o'quv soatlari yoki fanlar sonini ko'paytirish emas balki, tabiiy ilmiy fanlar mazmunini gumanitarlashtirish, har qanday ilmiy kashfiyotni inson manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirishi lozim. Shundagina inson o'z mavjudligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda 1997 yilda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida" aynan Shu maqsadlarni o'zida ifodalaydi. "O'zbekistonda har yili ta'lim uchun sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi"¹. Zero, insonning nafaqat bilim olishi, balki kasbiy malakalarga ega bo'lishi ijtimoiy savodsizlikni bartaraf qilishning muhim omili hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash. *Aholi soni va uning yashash sharoiti, Shuningdek atrof muhit holati hozirgi davrning yana bir global muammosi bilan uzviy bog'liq.* Aksariyat kasalliklar va atrof muhitdagi antropogen o'zgarishlar o'rtasida bevosita va bilvosita aloqa mavjud. Hozirgi odamlar avlodiga atrof muhit ifloslanishining hali o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan ko'p sonli fizik (avvalo elektromagnit), kimyoviy va biologik omillari ta'sir ko'rsatmoqda. Avvalo, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar aholisi kasalliklarining tarkibi va xususiyatida Yuz bergan o'zgarishlar ayni Shu hol bilan izohlanadi.

Bu erda yuqumli kasalliklar bartaraf etilgan bo'lib, ular odamlar o'limining asosiy sabablari hisoblanmaydi. Lekin yurak-qon tomir kasalliklari, ruhiy kasalliklar sezilarli darajada ko'paydi, «sivilizatsiya kasalliklari» deb nomlangan butunlay Yangi kasalliklar: rak, OITS va boshqalar paydo bo'ldi.

¹Каримов И.А. БМТ Саммити мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқ. –Т.: Ўзбекистон, 2010

Bunday kasalliklar, xususan yurak-qon tomir kasalliklari o'sishining asosiy sabablari kam harakatchan turmush tarzi, semirish, chekish, ruhiy zo'riqish, stress holatlari ekanligi aniqlangan. Bu hodisalar insonga tabiatning qudratli kuchlarini jilovlash va o'zini jismoniy mehnatdan asosan xalos etish, mazkur ishni mashinalar, texnika vositalariga yuklab, o'ziga asosan aqliy mehnat, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini qoldirish imkonini bergan XX asr sivilizatsiyasining rivojlanish mahsulidir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqacha vaziyatni kuzatish mumkin: bu erda kasalliklardan azob chekayotganlar soni rivojlangan mamlakatlardagidan ko'proq, kasallikning oldini olish yoki davolanish imkoniyati esa sezilarli darajada kamroqdir. Tibbiyot sifatining pastligi, qashshoqlik va antisanitariya tufayli rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar o'limi, bezgak, sil, traxoma, qoqshol bilan kasallanish darajasi, epidemik yuqumli kasalliklarning paydo bo'lish ehtimoli rivojlangan mamlakatlardagi holat bilan taqqoslab bo'lmaydigan darajada yuqoridir.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha yurak qon-tomir kasalliklari kun sayin ortib bormoqda. Bunday kasalliklar aksariyat hollarda o'lim bilan tugaganligi sababli jamiyat uchun katta tahdid sanaladi. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hisobotiga ko'ra, 2005 yilda yurak qon-tomir kasalliklaridan 17,5 million inson vafot etgan. Ushbu ko'rsatgich barcha o'lim holatlarining 30 foizini tashkil qiladi. Shu jumladan, 7,6 million kishi yurak ishemik kasalligidan 5, 7 million kishi insult oqibatida hayotdan ko'z yumgan⁹⁷. Hozirgi vaqtda o'rnatilgan internatsional aloqalar natijasida davlatlar o'rtasidagi ulkan yuk oqimlari, odamlarning faol migratsiyasi va kengaygan iqtisodiy munosabatlar olamshumul xususiyat kasb etdi va ko'pgina yuqumli kasalliklarning tarqalish tezligini oshirdi. Notipik zotiljam, qush grippi, cho'chqa grippi kabi ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan, Yangi kasalliklarning paydo bo'lishi sabablarini ham ayni Shu erdan izlash lozim.

Ayni paytda Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, XX-XXI asrda Yangi kasalliklar soni ko'payib borsada, kasalliklarga qarshi kurash vositalari ham takomillashib bormoqda. Jumladan, XXI asr fanining eng katta yutug'i sifatida 2008 yilda nemis olimi Xareld sur Xauzen (1936) ayollarda bachadan saratoni kasalligini "papiloma" virusi keltirib chiqarishini aniqlagan va unga qarshi emlash vositasini yaratgani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Dunyo bo'yicha umumiy saraton kasalligining 5%ini bachadon raki tashkil qiladi, va har yili ikki Yuz mingga yaqin ayollar Shu kasallikdan bevaqt olamdan ko'z yumar edi. Ushbu kasallikka qarshi vaksinatsiyaning ommalashuvi Yuzlab ayollarning sog'ligi garoviga aylanmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham 2009 yildan 12-14 yoshdagi qizlarda bachadon saratoni kasalligiga qarshi emlash ishlari keng amalga oshirilmoqda. Xareld sur Xauzenning kashfiyoti asr boshining eng buyuk kashfiyotlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda aholining reproduktiv salomatligi bo'yicha davlat dasturi qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra barcha viloyatlarda skrining markazlari tashkil qilindi, ona va bola salomatligining profilaktikasi, "tez yordam" markazlarining faoliyati yo'lga qo'yildi, aholini notipik gripp kasalligiga qarshi emlash ishlari rejali amalga oshirilmoqda. "Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida bolalarning 98 foizidan ortig'i oldini olish mumkin bo'lgan infeksiyalarga qarshi emlanmoqda. Buning natijasida difteriya, qizamiq kasalliklariga chalinish holatlari keskin kamayganini aytish darkor. 2010 yilda yuqumli kasalliklar bilan og'rish holatlari, jumladan, meningokok infeksiyasi 28 foiz, epidemik parotit 27 foiz, virusli gepatit 13 foizga kamaygani ana Shunday tadbirlar samarasidir"². Darhaqiqat, 1997 yilda 1 sonli yuqumli kasalliklar ilmiy tadqiqot institutida Yangi laboratoriyaning tashkil qilinishi O'zbekistonda (gipnotit) odam organizmida sariq kasalligining nafaqat A va V virusi, balki S, D, E viruslarini aniqlash imkonini yaratdi. "Sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish va rivojlantirish, o'ta og'ir yuqumli kasalliklarga barham berish hamda ularni kamaytirish borasida qat'iy choralar ko'rildi. Onalar o'limi darajasi 2 baravardan ko'proq, bolalar o'limi 3 baravar kamaydi....odamlarning o'rtacha umr ko'rish 67 yoshdan 73 yoshgacha, ayollarning umr ko'rish 75 yoshgacha oshdi"¹. Zamonaviy diagnostika texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanishning yo'lga qo'yilishi, surunkali sariq kasalligining oqibati bo'lmish jigar serrozining kamayishiga va aholining umumiy umrguzaronligini oshishiga olib keldi.

⁹⁷Бобожонова Н. "Ёшарган" хавфли тўлқин. -Т.: Ношир, 2008. -Б.23.

²Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш-таракқиётимизнинг муҳим омилidir. -Т.: Ўзбекистон, 2010

¹Каримов И.А. БМТ Саммити мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисдаги нутқ. -Т.: Ўзбекистон, 2010.

Oziq-ovqat muammosi. *Ommaviy kasalliklar va umrning sezilarli darajada qisqarishi sabablaridan biri oziq-ovqat muammosidir.* Xususan, surunkali to'yib ovqat emaslik va nomutanosib ovqatlanish kam rivojlangan mamlakatlar aholisida ommaviy tarzda namoyon bo'layotgan muttasil oqsil ochligi va vitamin taqchilligiga olib kelmoqda. Natijada jahonda har yili ochlikdan bir necha o'n millionlab odamlar, kattalardan ko'ra ko'proq bolalar halok bo'lmoqda.

Oziq-ovqat taqchilligiga duch kelgan mamlakatlar uni import qilishga majbur, lekin bu, odatda, ocharchilikka qarshi kurashda kam samara beradi va bundan tashqari, mazkur mamlakatlarni eksportchilarga qaram qilib qo'yadi. Shu tariqa g'alla ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tazyiq o'tkazishning samarali vositasiga va mohiyat e'tibori bilan, avvalo eng qashshoq mamlakatlarga qarshi «oziq-ovqat quroli»ga aylanadi.

1960-yillarda oziq-ovqat muammosini echish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun «yashil inqilob»ni amalga oshirish bilan bog'langan edi. Bu tadbirning mohiyati bug'doy va sholining o'ta unumli Yangi navlaridan foydalanib, qishloq xo'jalik mahsuldorligini keskin oshirishdan iborat edi. Buning uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini zamonaviy texnologiyalar yordamida modernizatsiya qilish mo'ljallandi. «YAshil inqilob» aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda qabul qilindi, lekin amalda ham ijobiy, ham salbiy oqibatlariga olib keldi. Qishloqni qayta tashkil etish uchun tegishli ijtimoiy shart-sharoitlar va buning uchun zarur mablag'lar mavjud bo'lgan davlatlarda u ijobiy samara berdi. Ammo bunday mamlakatlar uncha ko'p emas, masalan Hindiston, Pokiston Shular jumlasidan. Texnika va o'g'itlar xarid qilish uchun mablag'lar mavjud bo'lmagan, aholining ma'lumot darajasi juda past bo'lgan, turg'un an'analar va xurofiy aqidalar xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini amalga joriy etishga to'sqinlik qilgan o'ta qoloq mamlakatlarda esa «yashil inqilob» samara bermadi. Shuningdek, u odatdagi mayda xo'jaliklarni vayron qila boshladi, qishloq aholisining shaharga migratsiyasini kuchaytirdi. «YAshil inqilob» eski qishloq xo'jaligi o'rnida Yangi, zamonaviy qishloq xo'jaligini barpo eta olmadi, ya'ni eski uyni buzib, uning o'rnida Yangi imorat qura olmadi, bu esa oziq-ovqat muammosini yanada keskinlashtirdi.

O'zbekistonda bu muammoning echimini topishga oqilona yondoshildi. Paxta yakkahokimligiga chek qo'yilib, g'alla, sholi, chorma mollarini etishtirishga alohida e'tibor qaratildi, qishloq infratuzilmasini takomillashtirish, qishloqqa sanoatni olib kirish, g'alla mahsulotlarini ishlab chiqish texnologiyalaridan unumli foydalanish yo'lga qo'yildi.

Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi. Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish va Yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish hozirgi davrning global muammolari orasida alohida o'rin egallaydi, chunki bu erda vujudga kelgan xalqaro munosabatlar tizimi beqarorlaShuvining kuchli omillari yashirilib yotadi. So'nggi yillarda dunyo miqyosida yalpi mahsulot ishlab chiqarish o'sgani holda, boylar va kambag'allar, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi ulkan tafovut yanada oshdi. Bu muammo ba'zan «boy SHimol» va «qashshoq Janub» o'rtasidagi qarama-qarshilik sifatida ham tavsiflanadi.

1960-yillarda aksariyat mamlakatlarning to'g'ridan-to'g'ri mustamlaka qaramligidan xalos bo'lish jarayoni Yangi, lekin o'zgacha tusdagi qaramlik o'rnatilishiga olib keldi. Urushdan keyingi davrda jahon savdosining o'sishi va davlatlararo aloqalarning kuchayishi Yuz berdi. Ayni vaqtda G'arb davlatlari iqtisodiyotida monopoliyalaShuv jarayoni kuchaydi va transmilliy korporatsiyalar paydo bo'la boshladi. Ular arzonroq ishchi kuchi topish va atrof muhitni muhofaza qilishga qo'shimcha xarajatlardan qutulish maqsadida mehnat sarfi katta bo'lgan va ekologik jihatdan iflos ishlab chiqarishlarni rivojlanayotgan mamlakatlarga eksport qila boshladilar. Bu hol, bir tomondan, rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda atrof muhitni himoya qilish uchun ommaviy harakatning faollaShuvi va ekologik qonunchilikning yanada keskinlaShuvi bilan, boshqa tomondan esa, rivojlanayotgan mamlakatlar o'zining qashshoqligi tufayli, qat'iy ekologik me'yorlar va bu bilan bog'liq cheklov choralari joriy etishni o'ziga doim ham ep ko'ra olmasligi bilan izohlanar edi.

So'nggi o'n yilliklarda vaziyat yana rivojlanayotgan mamlakatlar zarariga o'zgara boshladi. Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat hayotining barcha jabhalariga va iqtisodiyotga kompyuterlar va mikroelektronika jadal sur'atlarda joriy etila boshladi. Shuningdek texnologik novatsiyalar va Yangi (yuksak) texnologiyalar roli ham sezilarli darajada oshdi, bu esa ishlab chiqarishga ma'lumotli, malakali ishchi kuchini jalb qilishni taqozo etdi. Shu sababli iqtisodiy o'zaro aloqalar va jahon savdosi asosan iqtisodiy rivojlangan davlatlar o'rtasidagi almashinuv hisobiga amalga oshirila boshladi, rivojlanayotgan mamlakatlar esa, agar ular ko'p miqdorda xom ashyo resurslariga ega bo'lmasa, jahon bozorida siqib chiqarildi.

O'zbekistonda esa, mustaqillik yillarida "...yalpi ichki mahsulot 3,5, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 baravar o'sdi, o'rtacha ish haqi 14 baravar oshdi. Davlatning ijtimoiy soha va ijtimoiy muhofaza uchun sarf xarajatlari 5 baravardan ziyodroq ko'paydi. Har yili davlat byudjetining 50 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda¹.

Energetika va xom ashyo resurslari. Yana bir global muammo – *insoniyatni energetika va xom ashyo resurslari bilan ta'minlash xalqaro maydonda ko'p sonli ziddiyatlar, Shu jumladan harbiy mojarolar manbaiga aylandi.* Bu resurslar moddiy ishlab chiqarishning negizi hisoblanadi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga qarab inson hayotida tobora muhimroq rol o'ynaydi.

Mazkur resurslar tiklanadigan, ya'ni tabiiy yoki sun'iy yo'l bilan tiklash mumkin bo'lgan resurslarga (gidroenergiya, yog'och, quyosh energiyasi va sh.k.) va miqdori mavjud tabiiy zahiralalar bilan chegaralangan tiklanmaydigan resurslarga (neft, ko'mir, tabiiy gaz, har xil rudalar va minerallar) bo'linadi.

Hozirgi iste'mol sur'atlari saqlangan taqdirda tiklanmaydigan resurslarning aksariyati insoniyatga bir necha o'n yillardan bir necha Yuz yillargacha bo'lgan muddat bilan o'lchanadigan yaqin kelajakda foydalanishgagina etishi hisoblab chiqildi. Shuningdek mavjud zaxiralarning anchagina qismi murakkab sharoitda joylashgan konlarda jamlangan yoki nisbatan qashshoq rudalardan iborat.

YAqindagina odamlar aksariyat foydali qazilmalarni ochiq usulda yoki 600 m dan oshmaydigan chuqurlikda qazib olgan bo'lsalar, bugungi kunda vaziyat sezilarli darajada o'zgardi. Qulay joylardagi foydali qazilmalar tugab bormoqda va endilikda 8-10 km chuqurlikda yoki okean tubida joylashgan konlarni ishga solish vazifasi paydo bo'lmoqda. Bu esa nafaqat ko'p miqdorda kapital qo'yilmalarni, balki ularni qazib chiqarish va qayta ishlash uchun Yangi texnika va texnologiyalar yaratishni ham taqozo etadi. Shu sababli chiqindisiz texnologiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda insoniyat ixtiyorida mavjud resurslardan oqilona foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Urush va tinchlik muammosi. Harbiy soha jamiyat hayotining eng isrofgar sohasi hisoblanadi. Ayni *Shu sababli jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va Erda mustahkam tinchlikni ta'minlash butun dunyoda mavjud barcha global muammolar orasida eng muhimi deb e'tirof etiladi.* Uning keskinligi barcha zamonlarda hech qachon pasaymagan bo'lsa-da, XX asrda u nafaqat ayrim kishilar, xalqlar, balki butun insoniyat oldiga «o'lish yo qolish?» degan mudhish savolni qo'yib, alohida, fojeaviy mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Bu hol ilgari mavjud bo'lmagan imkoniyat – Erdagi hayotni yo'q qilish imkoniyatini yaratgan yadro quroli paydo bo'lishi bilan izohlanadi. YAdro quroli 1945 yil avgustda (Xirosima va Nagasaki) ilk bor qo'llanilgan paytdan e'tiboran mutlaqo Yangi davr – inson hayotining barcha jabhalari: siyosat, iqtisod, tafakkurda, jahon maydonidagi kuchlar nisbatida tub o'zgarishlar yasagan yadro davri boshlandi. Ammo muhimi Shundaki, mazkur davrdan e'tiboran nafaqat ayrim inson, balki butun insoniyat o'lishi mumkin bo'lib qoldi. Teyyar de SHarden Yangi vaziyatga baho berar ekan, Shunday deydi: «Bir individ o'lsa, uning o'rnini doim boshqa bir individ egallaydi. Individning o'limi hayotning davom etishiga to'siq bo'la olmaydi. Ammo butun insoniyat o'lsa-chi?...»⁹⁸.

1940-yillarning oxirida ta'riflangan bu masala vaqt o'tishi bilan ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi. Atom bombasi paydo bo'lishi bilan «qiyomat-qoyim» xom-xayol bo'lmay qoldi. O'sha davrda Yangi ixtironing butun xavfini ko'pchilik hali tuShunmagan, ayrim faylasuflar va olimlar yadro urushi tahdid solayotgan sharoitda odamlar o'zining o'zgartirgan holatini anglab etishlari va insoniyat halok bo'lishining oldini olish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishlari lozimligi haqida ogohlantirgan edi.

Albatta, o'zini o'zi qirib tashlash imkoniyati odamlarda darhol paydo bo'lgani yo'q. YAdro qurolini yaratish va uni butun tiriklikni qirib tashlash uchun etarli miqdorda jamg'arish uchun vaqt, juda katta moddiy, moliyaviy va boshqa xarajatlar, Shuningdek jahonning turli mamlakatlaridagi olimlar, muhandislar va ishchilar ko'p millionli armiyasining kuch-g'ayrati talab etildi. Ammo birinchi yadro portlashlaridan so'ng Yuzaga kelgan vaziyatning jiddiyligini jahon hamjamiyatining keng davralari anglab etishi uchun ham qariyb 30 yil vaqt o'tishi kerak bo'ldi.

AQSH va Sovet Ittifoqida bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda ish olib borgan olimlar ikki jamoasi tadqiqotlarining aqlni lol qoldiruvchi natijasi bo'lgan «yadro qishi» konsepsiyasi paydo bo'lgan 1980-

¹Каримов И.А. БМТ Саммитининг мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисдаги нутқ.-Т.: Ўзбекистон, 2010.

⁹⁸ П. Тейяр де Шарден. Феномен человека. – М.: 1987. – С.216.

yillarning boshiga kelibgina insoniyat yadro quroli yaratilishi, Shuningdek global muammolar paydo bo'lishi bilan u o'zining avvalgi «umrboqiyligi»ni yo'qotganini uzil-kesil anglab etdi.

Kompyuterda yaratilgan modellarda ancha aniq hisoblab chiqilgan mazkur konsepsiyaning asosiy mazmuni Shundan iboratki, jahonda Erdagi hayotni butunlay yo'q qilish uchun etarli miqdorda yadro zaryadlari to'plangan. Ular portlatilgan taqdirda to'g'ridan-to'g'ri shikastlantiruvchi ta'sirdan tashqari havoga son-sanoqsiz miqdorda chang, tutun va kul ko'tariladi va ularning qalin pardasi sayyoramizni quyosh nurlaridan butunlay to'sib qo'yadi. Bu atmosfera va Er Yuzasining temperaturasi keskin pasayishiga sabab bo'ladi va uni muz bosishiga olib keladi. «Yadro qishi» konsepsiyasi odamlarni ular Yangi xavf darajasini anglab etishga va sivilizatsiyani qutqarish uchun harbiy kuch ishlatishdan voz kechib, choh yoqasidan uzoqlashishga qodirmi, degan savolga javob berishda muqobildan uzil-kesil mahrum qildi.

Muhokama qilinayotgan muammoning boshqa bir o'ziga xos xususiyati Shundaki, u mohiyati va hozirgi holati «Tabiat falsafasi»mavzusida ko'rib chiqilgan ekologiya bilan uzviy bog'liq. Biz fan-texnika taraqqiyoti darajasi ekologik tanglikni bartaraf etish borasidagi imkoniyatlarni belgilashini qayd etgan edik, ammo qurol-yarog'larning vayronkor imkoniyatlari, ularning shakllari, qo'llash metodlari va usullarining rang-barangligi ham ayni Shu darajaga bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, inson o'z hayotini tabiat bilan uyg'unlikda yo'lga qo'yish imkoniyatlarini qo'lga kiritish bilan bir qatorda butun tiriklikni yo'q qilish qobiliyatini ham ko'p karra oshirdi. Jamiyatning harbiylaShuvi, qurollanish poygasi va harbiy mojarolarning salbiy oqibatlarini atrof muhitning buzilish jarayonlarini yanada jadallashtirmoqda. Yadro quroli bilan bir qatorda urush olib borishning «geografik» vositalari ham oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlardan iborat alohida xavf tug'diradi. Bu oqibatlar inson sun'iy yo'l bilan tabiiy ofatlar, vayrongarchiliklar va Shu kabilarga erishish maqsadida tabiiy jarayonlarga izchil ta'sir ko'rsatishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Urush harakatlari olib borishning bunday usullari, masalan muayyan hudud ustidagi ozon qatlamini ataylab vayron qilish va Shu kabilarda yadro qurolining qo'llanilishi bilan teng oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda harbiy qarama-qarshilik ma'lum darajada susayganiga qaramay, aksariyat mamlakatlarda mudofaa va atrof muhitni muhofaza qilish xarajatlarida ulkan nomutanosiblik hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Bu tafovut mudofaa foydasiga ba'zan ellik baravar va undan ko'proq darajaga etadi. Bu hol «uchinchi dunyo» mamlakatlarida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Bu erga, bir tomondan, qurol-aslaha, boshqa tomondan esa – murakkab ekologik vaziyatni yanada og'irlashtiruvchi eskirgan asbob-uskuna va noekologik texnologiyalar tobora ko'proq etkazib berilmoqda. Natijada ifloslanish va tabiatning zavol topish sur'atlari bu erda rivojlangan mamlakatlardagidan ancha yuqoridir.

Qurollanish poygasi nafaqat ulkan moddiy resurslarni, balki mehnat resurslari, intellektual resurslarni ham behuda sarflamoqda. Butun dunyoda olimlarning to'rtidan bir qismi, odatda, eng malakali kadrlar urushga tayyorgarlik ko'rish borasidagi ishlarga jalb qilingan bo'lib, ularning bilim va ko'nikmalari vayronkorlik vositalarini yaratishga yo'naltirilgan. Ammo olimlarinsoniyat duch kelgan xavf darajasini birinchi bo'lib (ularning eng ilg'or vakillari) anglab etdilar.

Qurollanish poygasi avj ola boshlagan 1955 yilda taniqli ingliz faylasufi B.Rassel tinchlik va qurolsizlanish uchun kurash tashabbusi bilan chiqdi. U A.Eynshteyn bilan hamkorlikda F.Jolio-Kyuri, M.Born, S.Pauell, L.Infeld va boshqa yirik olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan mashhur Manifestni e'lon qildi. Bu Manifestda insoniyat unga tahdid solayotgan xavf haqida ogohlantirildi, Shuningdek yadro asrida sivilizatsiyani asrab qolish uchun «Yangicha fikrlashni o'rganish» lozimligi uqtirildi.

B.Rassel nafaqat xavf-xatarlar haqida ogohlantirdi, balki ularni echish yo'llarini ham taklif qildi. Xususan, u barcha urushlarga chek qo'yishi lozim bo'lgan jahon hukumatini tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, BMT* bunday hukumat negizi bo'lishi mumkin. U Shuningdek davlatlar o'rtasidagi nizoli masalalarni tinch yo'l bilan echish uchun jahon konferensiyasi chaqirishni talab qildi.

Tinchlik, qurolsizlanish va xalqaro xavfsizlik uchun kurash boshlagan jahon ilmiy hamjamiyati bu borada o'z kuch-g'ayratini birlashtirish lozimligini anglab etdi va 1957 yilda Pagoush (Kanada)da o'z tarafdorlarining birinchi konferensiyasini o'tkazdi. *Pagoush harakati* deb nomlangan bu tashkilot tinchlik uchun kurash olib boruvchi nufuzli xalqaro tashkilotlardan biriga aylandi. Endilikda unga hozirgi globallashuv muammolari va nomutanosibliklarini bartaraf etish yo'lida kurash olib borayotgan boshqa ko'p sonli tashkilotlar va harakatlar (Grinpis, Rim klubi, antiglobalistlarning harakatlari va boshqalar) qo'shildi.

*Бирлашган Миллатлар ташкilotи

Tinchlik va qurolsizlantirish, xalqaro terrorizmga qarshi birgalikdagi kurash g'oyasini 1993 yilda I.A. Karimov BMTning 48 sessiyasida taklif qilgan edi. O'zbekistonda 1999 yil 16 fevral voqealari, 2001 yil 11 sentyabrda AQSHning markazida ko'p qavatli savdo uyining portlatishi, Chechenistondagi cheksiz terrorchilik harakati natijasidagi minglab qurbonlar I.A. Karimovning nechog'lik haqligini yana bir karra isbotladi.

Global ongni shakllantirish zaruriyati. Globallashuv jarayonlarini nazariy jihatdan anglab etish va global muammolarni bartaraf etish nafaqat o'ta og'ir va uzoq davom etadigan, balki kutilgan natijalarga qanday erishish mumkinligi xususida hali aniq javoblar va uzil-kesil echimlarga ega bo'lmagan ishdir. Ayni vaqtda aksariyat tadqiqotchilar global tangliklarni bartaraf etish imkoniyatini ommaviy ongda Yangicha axloqning shakllanishi va mustahkamlanishi, madaniyatning rivojlanishi va uning insonparvarlaShuvi bilan bog'lamoqdalar. Buning uchun jiddiy asoslar bor, zero odamlarning fe'l-atvori, xatti-harakatlari, pirovard natijada esa ular erishishga harakat qiladigan natija asosan ularning hayotga munosabati va fikrlash tarzi bilan belgilanadi.

Darhaqiqat, asrlar mobaynida saqlanib qolayotgan dunyo haqidagi tasavvurlarni o'zgartirish, qotib qolgan fikrlash andozalarini bartaraf etish va odamlar ongida insoniylikning Yangicha tamoyillarini shakllantirishning o'zi umuminsoniy muammolar echimi emasligi ham ravshan. Bu mazkur muammolarni bartaraf etish yo'lidagi zarur, lekin faqat birinchi qadam va u muttasil o'zgaruvchi vaziyatga mos bo'lgan va hozirgi davr ruhini aniq aks ettiradigan dunyoqarashning shakllanishi bilan bog'liq. Bunday Yangilangan dunyoqarash zamirida faqat so'nggi Yuz yillikka xos bo'lgan jamiyat hayoti internatsionallaShuvining keskin o'sishi bilan belgilanadigan ijtimoiy munosabatlarning Yangicha mazmuni va shakl-shamoyillarini aks ettiruvchi Yangicha insoniylik yotishi lozim. Mazkur *Yangicha insoniylik global ongni shakllantirishga qaratilishi va uch asosiy negiz: globallik tuyg'usi, zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik va insonning asosiy huquqlarini tan olishdan kelib chiqadigan adolatparvarlikni o'z ichiga olishi darkor.*

Xalqaro kuchlarning birlaShuvi. Odamlar dunyoqarashi nafaqat ularning dunyo haqidagi bilimlarida, balki ular bu bilimni qanday talqin qilishi, qanday xulosalar chiqarishi va qanday ish ko'rishida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli global muammolarni butun dunyo bahamjihat hal qilishi lozimligi to'g'risida so'z yuritir ekanmiz, insoniyat nazariyada muayyan yutuqlarga va ba'zi bir amaliy natijalarga erishgan holda, dunyo rivojlanishining salbiy jarayonlarini to'xtatishga hali muvaffaq bo'lmaganini e'tibordan chetda qoldirishimiz mumkin emas. Xalqaro kuchlarning muayyan darajada birlaShuvi, ularning muvofiqlashtirilgan, izchil va eng muhimi, samarali harakatlari ham hali mavjud emas. Nega Shunday bo'lyapti va bunga nima xalaqit beryapti? Hozirgi rang-barang va ziddiyatlarga to'la dunyoda kelishilgan harakatlarni amalga oshirish mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, bunga qanday asosda erishish mumkin? Bular bugungi kunda ijtimoiy tafakkur, Shu jumladan falsafa echishga harakat qilayotgan bosh masalalardir.

Tarixiy tajriba turli xalqlarning yaqinlaShuvi ularning manfaatlari mos kelgan joyda ayniqsa yaxshiroq Yuz berishini ko'rsatadi. O'zaro manfaatdorlik turli qiyinchiliklarni tez bartaraf etish, savdo-sotiqni faol rivojlantirish, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga ko'maklashadi.

Odatda bu yo'lda engishga to'g'ri keladigan eng katta qiyinchiliklar eskicha qarashlar, qotib qolgan fikrlash uslubi, an'analar bilan bog'liq bo'ladi. Ular o'zgarish xususiyatiga ega, lekin bu juda uzoq, katta qiyinchiliklar bilan tashqi yoki ichki omillar ta'sirida Yuz beradi. Masalan, *tashqi omillar qatoriga ekologik tanglikning kuchayishi, «demografik portlash» oqibatlari, urush xavfi va nafaqat odamlarning turmush tarzini sezilarli darajada o'zgartirgan, balki ularning ongiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan boshqa global muammolar kiradi. Ichki omillar inson manfaati, uning sub'ektiv, shaxsiy asosi bilan bog'liq.* U yoki bu muammolarning keskinlik darajasi, hatto buning uchun zarur shart-sharoit va etarli asoslar paydo bo'lgan hollarda ham, nima uchun pasaymayapti, degan savolga javob topishda yuqorida zikr etilgan omillar, ayniqsa manfaat omili albatta hisobga olinishi lozim.

Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar. Har bir xalq, har bir mamlakat xalqaro munosabatlarning u yoki bu tartibida, davlatlararo savdo oqimlarining yo'nalishi va kapitallarning taqsimlanishida o'z muayyan manfaatiga ega bo'ladi. Ular tabiiy resurslardan foydalanish, atrof muhitni saqlash va Shu kabi masalalarda doim o'z manfaatlarini himoya qiladiki, bu ularning siyosatida umumiy masalalarda ham, xususiy masalalarda ham bevosita aks etadi va boshqa mamlakatlar siyosatiga o'xshamasligiga sabab bo'ladi. Ba'zan ichki manfaatlar umumiy manfaatlardan ustunlik qiladi. Bunday hollarda mazkur siyosat boshqa davlatlarning manfaatlariga zid ravishda amalga oshiriladi. Masalan,

ekologiya nuqtai nazaridan bu qo'shni hududlarda yashovchi xalqlarning qarama-qarshi manfaatlari to'qnashgan hollarda ko'p kuzatiladi.

Ammo hozir, jamiyat hayotining internatsionallaShuvi va iqtisodiy aloqalarning o'sib borayotgan integratsiyalaShuvi sharoitida, sayyoramizning turli burchaklarida jahon hamjamiyatining yadro urushi, ekologik tanglik, demografik keskinlik va resurslar taqchilligini bartaraf etishdan iborat ob'ektiv manfaatlarini o'zlarining umumiy manfaati deb biluvchi odamlar soni tobora ko'payib bormoqda. Ma'rifatli siyosiy va jamoat arboblari yanada aniqroq anglab etayotgan kelishilgan harakatlarga bo'lgan bu ob'ektiv ehtiyoj hozirning o'zidayoq ayrim davlatlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatmoqda va hatto ularning ichki va tashqi siyosatini ma'lum darajada belgilamoqda.

Inqiroz ildizlari. Ayrim mamlakatlarda ham, butun dunyoda ham barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish texnokratik jamiyat tuzilishi va mohiyatidan kelib chiqadigan katta qiyinchiliklar bilan bog'liq. U kompyuter inqilobi ta'sirida o'zgarganiga qaramay, texnogen sivilizatsiyaning asosiy shakl-shamoyillarini saqlab qolmoqda va Shu sababli hozirda mavjud ko'rinishda nafaqat bunday jamiyat tanqidchilarini, balki texnika taraqqiyoti tarafdorlari (texnokratik optimistlar) sobiq izdoshlarining bir qismini ham qanoatlantirmayapti.

Ularning aksariyati fikriga ko'ra, hozirgi G'arb sivilizatsiyasi insoniyat uchun shikastli bo'lgan ko'pgina ziddiyatlarni Yuzaga keltirdi, chunki uning zamirida tabiat va uning resurslariga nisbatan iste'molchilik yondashuvi yotadi. Tegishli qadriyatlar tizimidan mustahkam o'rin olgan bunday tasavvurlar tarixan sanoat inqilobi, keyinroq - fan-texnika inqilobi davrida shakllangan bo'lib, o'z ildizlari bilan inson, xuddi Erdagi Xudo kabi, dunyoni bunyod etadi, uni tabiat imkoniyatlari va o'z imkoniyatlari bilan hisoblashmasdan o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartiradi, degan dunyoqarashga borib taqaladi. Pirovardda nafaqat ekologik va demografik tangliklar, balki ma'naviy inqiroz ham Yuzaga keladi, bunda avvalgi dunyoqarash mo'ljallari ob'ektiv sharoit tazyiqi ostida o'zgarayotgan amaliyot bilan to'qnashadi. Shu bois O'zbekistonda aynan ma'naviy inqirozning oldini olish maqsadida 1994 yilda "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi tashkil qilindi, 1996 yilda markaz faoliyatini takomillashtirish bo'yicha hukumat qarori qabul qilindi va unga ko'ra 1997 yildan barcha ta'lim muassasalarida "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish joriy qilindi. 1999 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzurida Ma'naviyat va ma'rifat markazlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Ma'naviyat kengashi tashkil qilindi. 2008 yilda respublikamiz prezidenti Islom Karimov o'zining "YUksak ma'naviyat engilmas kuch" asarida ma'naviy tahdidlar va ma'naviy yuksalish omillarini nazariy asosladi, zero "Ma'naviyat-insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbaidir"⁹⁹, faqat ma'nau etuk insongina har qanday tahdidga qarshi kurashga o'zida kuch topishi mumkin.

Yangi qadriyatlar tizimi. Ayni Shu sababli qadriyatlar muammosi, ijtimoiy rivojlanishning Yangi ustuvorliklarini va boshqa dunyoqarash mo'ljallarini izlash jamiyatni ma'naviy Yangilashning bosh vazifalariga aylanadi. Bugungi kunda turli mamlakatlarning olimlari boshqa qadriyatlarga muvofiq bunyod etilgan o'zga sivilizatsiyaga o'tish amalga oshirilgan taqdirdagina insoniyat ekologik va boshqa global muammolarni bartaraf eta olishi mumkinligini deyarli yakdillik bilan qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, mazkur qadriyatlar tabiat va uning ehtiyojlarini tabiatdan ustun qo'yuvchi antropotsentrizmga emas, balki hayot fenomenining betakrorligiga va biosferani muvozanat holatida saqlash lozimligiga e'tiborni qaratuvchi biosferotsentrizmga asoslanishi lozim. Inson esa, aqlli mavjudot va mazkur murakkab tizimning tarkibiy qismi sifatida, bu bilan nafaqat hisoblashishi, balki tegishli tarzda ish ko'rishi ham lozim. Uning dunyoga munosabatini o'zgartirish, insonparvarlik va koevoluyusiya, ya'ni tabiat va jamiyatning mushtarak rivojlanishi tamoyillariga tayanib, Yangi qadriyatlar tizimini va ijtimoiy rivojlanish mo'ljallarini yaratishdan boshqa yo'li yo'q.

Dunyo xalqlar o'rtasida o'zaro aloqa va asosli hamkorlik yo'liga yanada ishonch bilan kirishi, odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati esa tabiat bilan ziddiyatga kirishmasligi uchun dunyoda Yuz berayotgan hozirgi jarayonlar haqidagi ilmiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, Shuningdek odamlarning Yuz berayotgan hodisalar va jarayonlarga o'z javobgarligini yanada teranroq tushunishiga erishish lozim. Bu yana Shuning uchun ham muhimki, zamonaviy elektron qurilmalar va hisoblash texnikasi insonning o'z faoliyati natijalarini ham, ular olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini ham chamalash va bashorat qilish qobiliyatini ko'p karra oshiradi. Shu sababli ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonlarini

⁹⁹Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. –Б.18.

boshqarishda olimning roli ortishi bilan bir qatorda uning inson uchun ham, atrof muhit uchun ham muayyan ekologik, tibbiy va boshqa oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan texnik loyihalar bo'yicha qarorlar va tavsiyalar uchun javobgarligini mislsiz darajada oshirish masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda genetika sohasidagi tadqiqotlar va amaliy ishlar o'ziga tobora ko'proq e'tiborni tortmoqda. Bu erda jonli organizmlarni, Shu jumladan insonni ham klonlash imkonini beruvchi gen injeneriyasi uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Bu ko'p sonli axloqiy va psixologik masalalarni Yuzaga keltiradi, chunki inson shaxs sifatida genlar ta'sirida faqat ellik foizga shakllanadi, qolgan jihatdan u ijtimoiy muhit va muayyan yashash sharoitlari bilan belgilanadigan ijtimoiy mavjudotdir.

Umuminsoniy qadriyatlar. Hozirgi sharoitga tatbiqan muayyan *universal asos sifatidagi «Yangi insonparvarlik»ning mohiyati er kurrasida yashovchi barcha odamlarning muhim manfaatlarini aks ettiradigan va Shu sababli butun dunyoda umumiy qadriyatlar sifatida idrok etiladigan borliq me'yorlari va tamoyillarini qaror toptirishdan iborat.* Bunday qadriyatlarning ayrimlari ilk bor jahon dinlarida umuminsoniy qoidalar sifatida ta'riflangan.

Keyinchalik muayyan inson dunyoviy axloq va qadriyatlar umumiy tizimini yaratishning boshlang'ich tayanch nuqtasiga aylandi. Bu odamlar, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarda axloq «oltin qoidasi»ni ro'yobga chiqarish mumkinligi va zarurligini e'lon qilgan Forobiy, Ibn Sino, T.Gobbs, P.Gassendi, M.Volter, J.J.Russo, I.Kant, G.Gerder va boshqa mutafakkirlar etikasida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ldi. Uning bizgacha turli ko'rinishlarda etib kelgan mazmuni Volter bayonida barcha odamlarga qaratilgan insoniy chorlov sifatida yangraydi: «O'zing bilan qanday muomala qilishlarini istasang, boshqalar bilan Shunday muomala qil». Ayni Shu XVII asrda ingliz liberalizmining yorqin vakili J.Lokk (1632-1704) insonning uzviy huquqlari (yashash, erkinlik, mulk huquqi va b.) daxlsiz ekanligi haqidagi g'oyani ilgari surdi. Alisher Navoiy o'zining mashhur «erkinlik», «tenglik», «birdamlik», «adolat» shiorlarini e'lon qilib, odamlarning umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan ishonchini mustahkamladi.

Ular to'la holda BMT Bosh Assambleyasi 1948 yil 10 dekabrda qabul qilgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida o'z ifodasini topdi va 1975 yilda xalqaro Xelsinki bitimi bilan tasdiqlanib, jahon hamjamiyati tan oluvchi umumiy normaga aylandi.

Xulosalar. Insoniyat o'zini o'zi tashkil etuvchi jonli tizim sifatida o'z mavjudligi uchun kurash olib bormoqda, yaxshiroq kelajakka erishishga harakat qilmoqda. Bunda hozirgi globallashuv jarayonlari va ular Yuzaga keltirayotgan turli muammolar insoniyat oldida tarqoqlik va ixtiloflarni engib, o'z birligi sari harakat qilish, ayni vaqtda madaniyatlar, asriy an'analarning o'ziga xosligini, ayrim millatlar va xalqlarning xususiyatlarini saqlashdan boshqa chora qoldirayotgani yo'q. *Bunday birlashuvga esa, faqat umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etish va ularga rioya qilish orqali erishish mumkin.*

Takrorlash uchun savollar.

1. Falsafada Yangi mavzu Yuzaga kelishiga nima sabab bo'ldi?
2. Global muammolar qachon va nima uchun paydo bo'ldi?
3. «Globallashuv», «global muammolar», «globalistika» tushunchalarining o'zaro nisbatiga tavsif bering.
4. Texnooptimizmning mohiyati nimadan iborat?
5. Texnopessimistik falsafiy konsepsiyalar qaysi g'oyalarga asoslanadi?
6. Globallikning mezonlarini ayting. Ularning yordamida qanday vazifalar hal qilinadi?
7. Globallashuv muammolarini echishda falsafa qaysi funksiyalarni bajaradi?
8. Global muammolar tasnifi nima uchun kerak?
9. «Yangi insonparvarlik» tushunchasi nimani anglatadi?
10. «Barqaror rivojlanish konsepsiyasi»ning mazmuni nimada?

2.1 – Mavzu: Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari.

Reja:

1. Tafakkur mantiq ilmining o'rganish ob'ekti sifatida.
2. Tafakkur shakllari va qonunlari haqida tushuncha
3. Formal mantiqning predmeti va vazifalari.
4. Mantiqni o'rganishning ahamiyati.

1. Tafakkur mantiq ilmining o'rganish ob'ekti sifatida

"Mantiq" arabcha so'z bo'lib, ma'nosi bo'yicha "logika" so'ziga muvofiq keladi. "Logika" atamasi esa, grekcha "logos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "fikir", "so'z", "aql", "qonuniyat" kabi ma'nolarga ega. Uning ko'p ma'noqligi turli xil narsalarni ifoda qilishida o'z aksini topadi. Xususan, mantiq so'zi, birinchidan, ob'ektiv olam qonuniyatlarini (masalan, "ob'ektiv mantiq", "narsalar mantigi" kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud bo'lish shakllari va taraqqiotini, Shu jumladan, fikrlar o'rtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig'indisini (masalan "sub'ektiv mantiq" iborasida) va nihoyat uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarni o'rganuvchi fanni ifoda etishda ishlatiladi.

Mantiq ilmining o'rganish ob'ektini tafakkur tashkil etadi. "Tafakkur" arabcha so'z bo'lib, o'zbek tiliga "fikrlash", "aqliy bilish" so'zlarining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan o'rni, bilishning boshqa shakllari bilan bo'lgan munosabatini aniqlab olish zarur.

Bilish voqelikning, Shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida sub'ektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi. Barcha hollarda bilish insonning hayotiy faoliyati bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan, uning ma'lum bir ehtiyojini qondirish mumkin bo'lgan narsalarni tushunib yetishga bo'ysuntirilgan bo'ladi. Bilish jarayonini amalga oshirar ekan, kishilar o'z oldiga ma'lum bir maqsadlarni qo'yadilar. Ular o'rganilishi lozim bo'lgan predmetlar doirasi, tadqiqot yo'nalishi, shakllar va metodlarini belgilab beradi.

Bilish murakkab, ziddiyatli, turli darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Uning dastlabki bosqichini hissiy bilish-insonning sezgi organlari yordamida bilish tashkil etadi. Bu bosqichda predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ya'ni ularning tashqi tamonidan bevosita nomoyon bo'ladigan va Shuning uchun inson bevosita seza oladigan belgilari haqida ma'lumotlar olinadi.

Hissiy bilish 3 ta shaklda: **sezgi, idrok va tasavvur** shaklida amalga oshadi. **Sezgi predmetning birorta tashqi xususiyatini (masalan, rangini, shaklini, ta'mini) aks ettiruvchi yaqqol obrazdir. Idrok predmetning yaxlit yaqqol obrazi bo'lib, u mazkur predmet haqidagi turli xil sezgilarni sintez qilish natijasida hosil bo'ladi. Aloxida olingan sezgilardan farqli o'laroq, idrok berilgan predmetni boshqa predmetlardan (masalan olmani bexidan, nokdan va Shu kabilardan) fark qilish imkonini beradi. Tasavvur esa avval idrok etilgan predmetning obrazani ma'lum bir signallar (berilgan predmet bilan ma'lum bir umumiylikka ega bo'lgan) ta'sirida miyada qayta hosil qilishdan yoki Shu va boshqa obrazlar negizida Yangi obraz yaratishdan iborat hissiy bilish shaklidir.** Masalan, tanishingizga o'hshagankishini uchratganda tanishingizni eslaysiz, yoki ko'rmoqchi bo'lgan imoringizni mavjud imoratlar obrazlari yordamida yaqqol his qilaisiz.

Hissiy bilishning barcha shakllariga xos bo'lgan xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi: *Birinchidan*, hissiy bilish ob'ektning (predmetning yoki uning birorta xususiyatining) bevosita ta'sir etishini taqozo etadi. Tasavvur ham bundan istisno emas. Unda obrazi qayta hosil etilayotgan (yoki yaratilayotgan) predmet emas, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa predmet - signal ta'sir etadi.

Ikkinchidan, hissiy bilish shakllari predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.

Uchinchidan, hissiy obraz predmetning yaqqol obrazidan iborat.

Turtinchidan, hissiy bilish, konkret individlar tamonidan amalga oshirilganligi uchun ham, har bir alohida holda konkret insonning sezish qobilyati bilan bog'liq tarzda o'ziga hos xususiyatga ega bo'ladi.

Beshinchidan, hissiy bilish bilishining dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi. Usiz bilish mavjud bo'la olmaydi. Chunki inson tashqi olam bilan o'zining sezgi organlari orqali bog'langan. Bilishning keyingi bosqichi, boshqa barcha shakllari sezgilarimiz bergan ma'lumotlarga tayanadi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa Shuki, hissiy bilish tafakkur bilan uzviy bog'liq. Xususan, nazariy bilimlarning chinligi oxir-oqibatda empirik talqin qilish yo'li bilan, ya'ni tajribada bunday bilimlarning

ob'ektini qayd etish orqali asoslanadi. O'z navbatida, hissiy bilish, umuman olganda, aql tomonidan boshqarilib turadi, bilish oldida turgan vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi, ijodiy fantaziya elementlari bilan boyitiladi. Masalan, *guvohlarning bergan kursatmalari asosida jinoyatchining portreti yaratiladi, yaqqol xis qilinadi va qidiriladi.*

Bundan tashqari, ba'zi hollarda hissiyotimiz bizni aldab qo'yadi. Masalan, uzoqdan sizga qarab kelayotgan kishini tanishingizga o'xshatasiz, lekin yaqinroq kelganda uning boshqa kishi ekanligi ma'lum bo'ladi. Boshqa bir misol. Endi tanishgan kishingiz haqidagi dastlabki taassurot (bu asosan uning tashqi tamondan ko'rinishiga qarab hosil qilinadi), u bilan muloqotda bo'lgandan keyin ozgaradi. Mana Shu o'rinda "**Kiyimiga qarab kutib olishadi, aqliga qarab kuzatishadi**" degan maqolni hissiy bilish bilan aql o'rtasidagi o'zaro munosabatni, farqni yaxshi ifoda qilishni ta'kidlash lozim.

Predmet va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori - **ratsional** (lotincha ratio - aql) bilish bosqichi bo'lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlar aks ettiriladi. Tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Unda voqelik abstraktlashgan va umumiydagi holda in'ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o'laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilardan abstraktlashgan (fikran chetlashgan, mavhumlashgan) holda, e'tiborimizni uning umumiy, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi. Xususan, turli kishilarga xos individual belgilarni (xulq - atvor, temperament, qiziqish va Shu kabilardagi) e'tibordan chetda qoldirgan holda, ular uchun umumiy, muhim belgilarni, masalan, maqsadga muvofiq holda mehnat qilish, ongga ega bo'lish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish kabi xislatlarni ajratib olib, "inson" tushunchasini hosil qilish mumkin. Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni, bog'lanish usullarini o'rganishni taqozo etadi. Turli xil predmetlarni fikrlash jarayonida o'xshash va muhim belgilariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va Shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarini bilish imkoniyati tug'iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan "inson" tushunchasida barcha kishilar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ular o'rtasidagi muhim bog'lanishlar (masalan, ijtimoiy munosabatlar) bilib olinadi.

2. Tafakkur borliqni bilvosita aks ettiradi. Unda Yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilinadi. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xullq-atvoriga qarab, uning qanday muhitda tarbiya olgani haqida fikr yuritish lozim. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosaviy fikr hosil qilishda aniq namoyonbo'ldi.

3. Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real ***analogiga*** ega bo'lmagan narsalar – yuqori darajada ideallashtirilgan ob'ektlarni (masalan, ***absalyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar***) ni yaratish, turli xil formal sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular yordamida predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4. Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda- moddiy hodisada (***tovush to'liqlarida, grafik chiziqlarida***) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo'lish shaklidir.

Tafakkur uch xil shaklda: **tushuncha**, **hukm(mulohaza)** va **xulosa** chiqarish shaklida mavjud.

Tafakkur shakllari va qonunlari haqida tushuncha

Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi) dir. Fikrlash elementlari deganda, predmetning fikrda ifoda qilingan belgilari haqidagi axborotlar tushiniladi. Tafakkur shaklini tabiatini konkret misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, ayrim predmetlar, ularning sinfi (to'plami) kishilar tafakkurida turli xil mazmunga ega bo'lgan tushunchalarda aks ettiriladi. Masalan, "davlat" tushunchasida o'zining maydoniga, aholisiga, boshqaruv vositalariga ega bo'lgan siyosiy tashkilot aks ettiriladi. "Ilmiy nazariya" tushunchasida esa, predmetlarning birorta sohasiga oid bo'lgan va ular haqida yaxlit tasavvur beradigan, ma'lum bir metod yordamida ko'rilgan tushunchalar sistemasi ifoda etilgan.

Mazmun jixatdan turli xil bo'lgan bu tushunchalar mantiqiy shakliga ko'ra bir xildir: har ikkalasida predmet, uning muhim belgilari orqali fikr qilingan. "O'z maydoniga egaligi", "aholisining mavjudligi", "boshqaruv vositalarga egaligi", "siyosiy tashkilotdan iboratligi" davlatning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Xuddi Shuningdek, "predmetlarning birorta sohasiga aloqadorligi", "predmet haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga imkoniyat berishi", "ma'lum bir metod yordamida ko'rilishi", "tushunchalar sistemasi shaklida bo'lishi" ilmiy nazariyaning muhim belgilari hisoblanadi. Agar tushuncha aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarni, ya'ni fikrlash elementlarini **a, v, s, ..., p** bilan belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasi **A (a,v,s, p)** shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin. Hukmlarda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o'rtasidagi munosabatlar, predmetning mavjud bo'lish yoki bo'lmaslik vaqti haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan "temir- metall" degan hukmda predmet (temir) bilan uning xossasi (metall ekanligi) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. *"Axloq huquqdan ilgari paydo bo'lgan"* degan hukmda ikkita predmet (axloq va huquq) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jixatdan turli xil bo'lgan bu hukmlar tuzilishiga ko'ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (**K**) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (**R**) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan, ya'ni R ning K ga xosligi tasdiqlangan. Umumiy holda hukmning mantiqiy strukturasi (shaklini) K-P formulasi yordamida ifoda etish mumkin.

Xulosa chiqarishda ham yuqoridagi o'xshash xollarni kuzatish mumkin. Masalan, *Daraxt - o'simlik*

Terak - daraxt

Terak - o'simlikva

Har bir ximiyaviy element uz atom o'g'irligiga ega

Mis - kimiyoviy element

Mis o'z atom og'irligiga ega

xulosa chiqarish mazmuni bo'yicha turlicha bo'lishiga qaramasdan bir xil mantiqiy strukturaga ega. Har ikkalasida xulosani tashkil etuvchi tushunchalar xulosa chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qilayotgan hukmlarda uchinchi bir tushuncha (birinchi misolda - "daraxt", ikkinchi misolda - "kimiyoviy element" tushunchasi) Orqali bog'langan. Yuqoridagi keltirilgan misollardan tafakkur shaklining fikrning konkret mazmunida nisbatan mustaqil holda mavjud bo'lishi vao'ziga xos qonuniyatlarga egaligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ham mantiqda, uni alohida o'rganish predmeti sifatida olib qarash mumkin.

Tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish tafakkurning universal shakllari, uning asosiy strukturaviy elementlari hisoblanadi. Muhokama yuritish ana Shular va ularning aloqalarga kirishishi natijasida vujudga keladigan boshqa mantiqiy strukturalar (masalan, muammo, gipoteza, nazariya, g'oya, argumentlash va Shu kabilar) da amalga oshadi.

Muhokama yuritishda ishonchli natijalarga erishishning zaruriy shartlari qatoriga fikrning chin bo'lishi va formal jihatdan to'g'ri qurilishi kiradi. CHin fikr deb o'zi ifoda qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr hisoblanadi (masalan, "temir-metall"). Xato fikr predmetga mos kelmaydigan fikrdir (masalan, "temir-metall emas"). Fikrning chin yoki xato bo'lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatlaridir. Fikrning chin bo'lishi mantiqiy fikr yuritishning zaruriy sharti bo'lsada, o'z holicha yetarli emas. Fikr muhokama yuritish jarayonida formal jihatdan to'g'ri qurilgan ham bo'lishi kerak. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo'lib, tafakkurda hosil bo'ladigan turli xil mantiqiy strukturalarda sodir bo'ladigan har xil mantiqiy amallarda o'z aksini topadi.

Fikrni to'g'ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin. Tafakkur qonuni muhokama yuritish jarayonida fikrlar (fikrlash elementlari) o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat. Tafakkur qonunlari mazmunidan kelib chiqadigan, muhokamani to'g'ri qurish uchun zarur bo'lgan talablar fikrning aniq, izchil yetarli darajada asoslangan bo'lishidan iborat.

Muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq talablar haqida gapirganda, birinchi navbatda, ularning muayyan prinsiplar, koidalari tarzida, ya'ni to'g'ri tafakkur prinsiplari sifatida amal qilishga e'tibor berish zarur. Mazkur koidalarning bo'zilishi muhokamaning noto'g'ri qurilishiga sabab bo'ladi. Bunda xususan, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, "qonun-rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat", "buyruq qonun emas", demak, "buyruq rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat emas") yoki xato kurilgan muhokamadan chin xulosa chiqishi (masalan, "barcha moddiy jismlar - kimyoviy elementlar", "temir-moddiy jism", demak, "temir -kimyoviy element ") mumkin.

Tafakkur ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni turli xil tomondan, xususan, mazmun va shakl (strukturasi) bo'yicha, tayyor holda yoki kelib chiqish va taraqqiyotida olib o'rganish mumkin. Bularning barchasi mantiq

ilmining vazifasini tashkil etadi, uning turlicha metodlardan foydalanishiga, har xil yo‘nalishlar ajralishiga sabab bo‘ladi.

Formal mantiqning predmeti va vazifalari

Formal mantiqning predmeti.

Keng ma‘noda **tafakkur shakllarini va qonunlarini o‘rganadigan fan**, deb atash mumkin. Hozirgi paytda uning formal mantiq va matematika mantiq kabi yo‘nalishlari farq qilinadi. Formal mantiq tafakkurning strukturasi fikrning konkret mazmuni va taraqqiyotidan chetlangan holda, nisbatan mustaqil ravishda olib o‘rganadi. Uning diqqat markazida muhokamani to‘g‘ri qurish bilan bog‘liq qoidalar va mantiqiy amalar yotadi.

Formal mantiq to‘g‘ri tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi falsafiy fan, deb ta‘rif berish mumkin.

Dialektik mantiq, formal mantiqdan farqli o‘laroq, tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida hamda taraqqiyotida olib o‘rganadi. Matematik mantiq esa tafakkurning metodlari yordamida tadqiq etadi. U hozirgi zamon matematikasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tafakkurning hisoblash deb ataladigan darajada abstraktlashgan va formallashgan sistemada tahlil qiladi.

Biz o‘rganayotgan fan formal mantiq bo‘lib, u hozirgi paytda o‘zining maxsus formalashgan tiliga, to‘g‘ri muhokama yuritish uchun zarur bo‘lgan samarali mantiqiy metodlari va usullariga, konseptual vositalariga ega. U tafakkurni o‘rganuvchi boshqa fanlar, xususan, falsafa, psixologiya, fiziologiya bilan hamkorlik qiladi hamda ilmiy bilimlar sistemasida o‘zining munosib o‘rniga ega. Ayniqsa, uning bilish metodi sifatidagi ahamiyati katta.

4. Mantiqni o‘rganishning ahamiyati

Mantiqni o‘rganishning ahamiyati. Tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganish, ulardan ongli ravishda foydalanish fikrlash madaniyatini o‘stiradi, xususan, fikrni to‘g‘ri qurish malakasini rivojlantiradi; bahs yuritishda o‘zining va boshqalarning fikriga tanqidiy munosabatda bo‘lishiga, suhbatdoshining mulohazalaridagi xatolarni ochib tashlashga yordam beradi. Muhokamani to‘g‘ri qurishga, formal ziddiyatlar, xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka erishish, aytish mumkinki, o‘ziga xos san‘at – mantiq san‘ati hisoblanadi. Bu san‘atning nazariy asoslarini chuqur egallagan kishigina uning imkoniyatlarini amaliy muhokama yuritishda namoyish qila oladi. Shu o‘rinda buyuk mutafakkir Forobiyning mantiq ilmining ahamiyati haqida bildirgan quyidagi fikrlarining alohida e‘tiborga loyiq ekanligini ta‘kidlash zarur. U Shunday yozadi: «**Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan barcha hollarda, to‘g‘ri tafakkurga yetaqalaydigan, uning yordamida har safar xulosa chiqarayotganda adashishga qarshi ehtiyot choralarini ko‘rsatadigan san‘atni – mantiq san‘atini o‘rganishdir. Uning asosiy qonun-qoidalarining aqlga bo‘lgan munosabati grammatika san‘ati qoidalarining tilga bo‘lgan munosabatiga o‘xshash; xuddi grammatika kishilarning tilini to‘g‘rilash ehtiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo‘lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo‘l quyish mumkin bo‘lgan barcha hollarda aqlni to‘g‘rilab turadi.**».

Uning ta‘lim sohasidagi vazifalari ham jiddiydir. O‘quv jarayonining samaradorligi ma‘lum bir darajada ishlatiladigan tushunchalarning, terminlarning aniq bo‘lishiga, muammolarning mantiqan to‘g‘ri qo‘yilishi va hal qilinishiga, mavjud gipotezalar strukturasi to‘g‘ri tahlil qila olishga, argumentlash qoidalaridan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq.

Xulosa, fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni yechish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariyaning strukturasi o‘rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tuShuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo‘lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Takrorlash uchun savollar

1. Mantiq so‘zining lugaviy ma‘nosi nima?
2. Tafakkur shakllari va qonunlari nimalardan iborat?
3. To‘g‘ri tafakkur nima?
4. Formal, dialektik va matematik mantiqning bir-biridan farki

2.2 – Mavzu. Tushuncha tafakkur shakli sifatida

1. Tushunchaning umumiy tavsifi.
2. Tushunchaning mazmuni va hajmi, ularning o‘zaro aloqasi.
3. Tushunchalarning turlari.
4. Tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlar.

1. Tushunchaning umumiy tavsifi

Tushuncha predmet va hodisalarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Belgilar deb, predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o‘xshashligini ifoda qiluvchi tomonlarga, xususiyatlarga aytiladi. Har bir predmet olamdagi boshqa predmetlar bilan (bevosita yoki bilvosita) aloqada bo‘lganligi uchun ko‘p belgilarga ega. Ularning ba‘zilari faqat bitta predmetga xos bo‘lgan, uning **individual, yakkalik** belgilarini tashkil qilsa, boshqalari predmetning ma‘lum bir gu-ruxiga tegishli bo‘lib, **umumiy belgilar** hisoblanadi. Masalan, har bir kishi faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ruhiy kechirmalar va Shu kabi individual belgilarga ega. Shuning bilan birga kishilarning ma‘lum bir guruhiga (mehnat jamoasi, millat va Shu kabilarga tegishli) yoki barcha kishilarga (mehnat qilish, fikr yuritish qobiliyatlari, ijtimoiy munosabatlarda ishtirok qilishi va Shu kabilari) xos bo‘lgan umumiy belgilarga ega.

Individual va **umumiy** belgilarning ba‘zilari predmetning mavjud bo‘lishi uchun zarur bo‘lib, uning tabiatini, mohiyatini ifodalaydi. Bunday belgilar predmetning **muhim belgilari** deyiladi. Masalan, *davlatning mavjud bo‘lishi uning o‘z maydoni, aholisi, hokimiyat organlariga ega bo‘lishini taqozo etadi.*

Nomuhim belgilar predmetning mohiyatini tashkil qilmaydi. Ularning yo‘qolishi bilan predmetning tabiati o‘zgarmaydi. Masalan, *qaysi irqqa, millatga, jinsga taalluqli bo‘lishi individning inson sifatida mavjud bo‘lishi uchun muhim emas.*

Shuni ham aytish lozimki, predmet belgisining muhim yoki nomuhim bo‘lishi, bizning predmetga amalda qanday munosabatda bo‘lishimizga qarab ham belgilanadi. Xususan, bir munosabatda muhim bo‘lmagan belgilar, boshqa munosabatda muhim bo‘lishi mumkin. Masalan, *kishining layoqati uning qanday kasbni tanlashi uchun muhim bo‘lsa, inson sifatida mavjud bo‘lishi uchun muhim emas. Bunday muhim belgilar predmetning ma‘lum bir munosabatlardagi muhim belgilari deyilib, ob‘ektiv muhim belgilardan (predmetning mavjud bo‘lishi bilan zaruriy aloqada bo‘lgan belgilardan) farq qiladi.*

Nihoyat, predmet to‘xtovsiz harakatda, taraqqiyotda bo‘lganligi uchun, vaqt o‘tishi bilan uning muhim bo‘lgan belgisi nomuhim bo‘lgan belgiga yoki, aksincha, nomuhim belgisi muhim belgiga aylanishi mumkin.

Masalan, *bevosita kuzatiladigan farqlar empirik bilish bosqichida muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, nazariy bilish bosqichida unga kamroq murojaat qilinadi.*

Demak tushunchada predmet o‘zining muxim belgilari orqali fikr qilinib, bu belgilar predmetning umumiy va individual belgilari bo‘lishi mumkin. Masalan, *«Hamza Xakimzoda Niyoziy» tushunchasida predmetning umumiy belgilari (inson, yozuvchi) bilan bir qatorda, individual muhim belgilari (xususan, «Boy ila xizmatchi» dramasi muallifi) ham fikr qilinadi.*

Tushunchaning **hissiy bilish shakllaridan** tubdan farq qilishiga alohida e‘tibor berish zarur. **Sezgi, idrok** va **tasavvur** predmetning yaqqol obrazlaridir. Biz faqat birorta konkret predmetni, masalan, *o‘zimiz yozib o‘tirgan qalamni idrok qilishimiz yoki u to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin. «Umuman qalam»ni idrok qilib bo‘lmaydi.* Chunki tushuncha predmetning yaqqol obrazi emas, balki abstrakt obrazidir! Qalam tushunchasi o‘zida konkret qalamlarning barchasini qamrab olgani holda, ularning xar biriga xos bo‘lgan individual belgilarni tashlab yuborib, umumiy, muhim belgilarini ifoda qiladi. Ayni paytda bu belgilar qalamni boshqa predmetlardan, masalan, kitobdan farq qildirib turadigan spetsifik belgilar bo‘lib ham xizmat qiladi.

Tushuncha predmetning nomuhim belgilariday chetlashar ekan, demak uni to'raligicha aks ettira olmaydi. Bu ma'nabada u xissiy bilish shakllariga nisbatan borliqdan uzoqroqda turadi. Lekin, tushuncha predmetning muhim belgilarini **in'ikos** qilishi, mohiyatini aks ettirishi bilan hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqni chuqurroq tularoq ifoda etadi.

Tushuncha, xissiy bilish shakllaridan farqli o'laroq, inson miyasida to'g'ridan-to'g'ri aks etmaydi. U ma'lum bir mantiqiy usullardan foydalanilgan holda hosil qilinadi. Bu usullar **taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirishlardan** iborat.

Taqqoslash yordamida predmetlar o'zaro solishtirilib, ularning o'xshash, umumiy tomonlari va bir-biridan farq qildiruvchi individual belgilari aniqlanadi.

Taqqoslash analizni taqazo qiladi. Chunki predmetlarni yaxlit holda solishtirib bo'lmaydi. Ular u yoki bu xossasiga ko'ra taqqoslanishi kerak. Buning uchun u xossalar ajratilishi lozim. Tahlilyordamida predmet fikran uni tashkil qiluvchi qisman, tomonlarga ajratilib, har qaysisi alohida o'rganiladi.

Sintez -analizga teskari usul bo'lib, u analiz davomida ajratilgan qismlar, tomonlarni fikran birlashtirib, predmetni bir butun holiga keltirishdan iborat. **Sintez** bo'lmasa predmet haqida yaxlit fikr xosil qilib bo'lmaydi. Analiz va sintez uzviy bog'liqdir.

Tushuncha hosil qilish uchun predmetning yuqoridagi usullar bilan aniqlangan umumiy va individual belgilarining muhimlari ajratilishi, nomuhimlari chetlashtirilishi lozim. Bu esa **abstraksiyalash** yordamida amalga oshiriladi.

Umumlashtirishda predmetlar ularning ayrim umumiy, muhim xususiyatlariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va Shu tariqa bitta tushunchada bir jinsli predmetlarning barchasini fikr qilish imkoniyati yaratiladi.

Tushunchaning shakllanishi so'z bilan uzviy bog'liq. Ular o'rtasidagi aloqadorlik **tafakkur** va **til** o'rtasidagi bog'lanishning konkret tarzda namoyon bo'lishidir. Tushunchalar so'z va so'z birikmalari yordamida ifoda qilinadi. Masalan «*talaba*», «*tarix fakulteti*», «*O'zbekistan milliy universiteti*» va *Shu kabilari so'zlardan iborat*. Lekin bundan tushuncha va so'z aynan bir xildir, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak bitta tushuncha har xil tillarda, ba'zan bir tilda, ham turli xil so'zlar bilan ifoda qilinadi. Tilimizdagi omonim va sinonim xodisalari so'z va tushunchaning nisbiy mustaqil holda mavjudligidan dalolat beradi.

Shuni ham aytish lozimki, so'zning ko'p ma'noga ega bo'lishi ba'zan fikr yuritish jarayonida tushunchalarni aralashtirib yuborishga olib keladi. Shuning uchun ham fan va texnikada ko'proq terminlardan foydalaniladi. **Termin** qat'iy bitta tushunchani ifoda qiluvchi so'z bo'lib, muayyan ilmiy bilish sohasida bir xil ma'noda ishlatiladi.

2. Tushunchaning mazmuni va hajmi, ularning o'zaro aloqasi

Tushuncha o'zining mazmuni va hajmiga ega. Tushunchaning **mazmunini** unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari yig'indisi tashkil etadi. Masalan, «*fan*» tushunchasining mazmunini *fanning muhim belgilari, ya'ni uning amaliyot bilan aloqada ekanligi, predmetlarning birorta sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, prinsiplar shaklidagi ob'ektiv chin(haqiqiy) bilimlar sistemasidan iborat bo'lishi, dunyoqarashning shakllanishida ishtirok qilishi va Shu kabilartashkil qiladi.*

Tushunchaning **hajmi** esa unda fikr qilinayotgan predmetlar yig'indisidan iborat. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan «fan» tushunchasining hajmi mavjud barcha fanlarni: matematika, fizika, mantiq va hokazolarni o'zida qamrab oladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi uzviy bog'liq bo'lib, u tushunchaning mazmuni va hajmi o'rtasidagi teskari nisbat qonuni yordamida ifodalohadi. Bu qonunga muvofiq tushunchaning **hajmi** kengaytirilsa, **mazmuni** torayadiva aksincha hajmi toraytirilsa, mazmuni kengayadi. Masalan, «*Fan*» tushunchasining mazmuniga «*mantiq*»ga oid bo'lish» belgisini *qo'shish bilan xajm jixatidan undan torroqbo'lgan «mantiqfani» tushunchasiga o'tiladi.*

«**Fan**» tushunchasining hajmini kengaytirish bilan mazmun jihatidan unga nisbatan torroq bo'lgan «**ijtimoiy ong shakli**» tushunchasi hosil qilinadi. Bunda fan fanga xos bo'lib, boshqa

ijtimoiy ong shakllarida, masalan san'atda bo'lmagan spetsifik belgilar tushuncha mazmunidan chiqarib tashlanadi.

Bu qonun tushunchalar bilan olib boriladigan qator mantiqiy amallar asosida yotadi.

3. Tushunchalarning turlari

Mantiqda tushunchalar mazmuni va hajmi bo'yicha birqancha turlarga bo'linadilar. Xususan, hajmiga ko'rayakka va umumiy tushunchalar farq qilihadi.

Yakka tushunchaning hajmida bitta predmet fikr qilinadi. Masalan, «*Er planetasi*», «*O'zMU asosiy kutubxonasi*» va *Shu kabilar yakka tushunchalardir. Umumiy tushunchalar* predmetlar guruhini aks ettiradi. «*Planeta*», «*Kutubxona*» tushunchalari umumiy tushunchalar hisoblanadi. Umumiy tushunchalar aks ettiruvchi predmetlarning miqdori chegaralangan va chegaralanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, «*Kimyoviy element*» tushunchasida fikr qilinayotgan predmetlar soni chegaralangan. Ularni xisobga olish mumkin. «*Yulduz*» tushunchasi hajmini tashkil qiluvchi predmetlar soni esa cheksiz, ularni hisobga olib bo'lmaydi.

Fikr yuritish jarayonida ayiruvchi va to'plovchi tushunchalarni farq qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ayiruvchi tushuncha Shunday umumiy tushunchaki, u aks ettiruvchi belgilar berilgan sinfning har bir predmetiga xosdir. Masalan, «*O'zMU talabalari ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiya materiallarini o'rganmoqda*» degan fikr *O'zMUning har bir talabasiga tegishli. Demaq «O'zMU talabalari» tushunchasi bu yerda ayiruvchi tushunchadir. «O'zMU talabalari ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasi materiallarini muhokama etishmoqda» degan fikrda esa, «O'zMU talabalari» tushunchasi to'plovchi tushuncha sifatida ishtirok qiladi, chunki fikr ularning to'plamiga nisbatan bildirilgan.*

Mazmuni bo'yicha tushunchalar, avvalam bor, **abstrakt** va **konkret** tushunchalarga bo'linadi. **Konkret** tushunchalarda predmet o'zining belgilari bilan birgalikda fikr qilinadi. **Abstrakt** tushunchalarda esa predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi. Masalan «*Inson*», «*Tabiat*» tushunchalari—**konkret** tushunchalar, «*Qahramonlik*» (*insonga xos xususiyatni aks ettiradi*), «*Go'zallik*» (*borliqdagi predmetlarga xos xususiyatni ifoda qiladi*) tushunchalari **abstrakt** tushunchalardir.

Mazmuni bo'yicha yana **nisbatsiz** va **nisbatdosh** tushunchalarni ham ajratish mumkin. **Nisbatsiz tushunchalar** nisbatan mustaqil, alohida mavjud bo'lgan predmetlarni aks ettiradi. «*Davlat*», «*Badiiy asar*» ana Shunday tushunchalardir.

Nisbatdosh tushunchalar esa zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo'lishini taqozo qiladigan predmetlarni aks ettiradi. Masalan, «*O'qituvchi*» va «*O'quvchi*», «*Ijobiyqahramon*» va «*Salbiy qahramon*», «*Sabab*» va «*Oqibat*» tushunchalari **nisbatdosh** tushunchalar qatoriga kiradi.

Ba'zi hollarda ijobiy va salbiy tushunchalar ham farq qilinadi. **Ijobiy** tushunchalarning mazmunida predmet unga xos belgilar orqali fikr qilinsa, **salbiy** tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo'lmagan belgilar orqali fikr qilihadi. Masalan, «*Savodli kishi*», «*Vijdonli kishi*» - **ijobiy tushunchalar**, «*Savodsiz kishi*», «*Vijdonsiz kishi*» **esalbiy tushunchalardir**.

Bizyuqoridatushunchalarningbirqanchaturlaribilantanishibchiqdikuyokibutushunchaningana ShuturlardanqaysilarigamansubekanliginianiqlaShungamantiqiy tavsif berish demakdir. Masalan, «*Talaba*» —umumiy, ayiruvchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiytushuncha; «*A.Navoiy nomli O'zbekiston davlat kutubxonasi*» - **yakka, to'plovchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiy tushunchadir**.

4. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar

Ob'ektiv dunyodagi barcha predmet va hodisalar o'zaro aloqada bo'lganligi uchun, ularni aks ettiruvchi tushunchalar ham o'zaro malum bir aloqalarda, munosabatlarda mavjud. Bu munosabatlar turli xil bo'lib, ularni aniqlash uchun, avvalambor, taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarni farq qilish lozim.

Taqqoslanadigan tushunchalar umumiy belgilarga ega bo'lgan, mazmuni va hajmi jihatidan bir-biriga yaqin turgan tushunchalardir. Masalan, «*Metallurg*» va «*ishchi*» tushunchalari ana Shunday taqqoslanadigan tushunchalar hisoblanadi.

Taqqoslanmaydigan tushunchalar esa, bir-biri bilan uzoq aloqada bo'lgan, ko'p hollarda moddiy yoki ideal bo'lishdan boshqa umumiy belgiga ega bo'lmagan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. «*Ijtimoiy progress*» va «*Zuxro yulduzi*», «*Ideal gaz*» va «*Go'zallik*» tushunchalari taqqoslanmaydigan tushunchalar deb hisoblanadi. Mantiqda taqqoslanmaydigan tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar o'rganilmaydi. Taqqoslanadigan tushunchalar esa hajm jihatidan sig'ishadigan va sig'ishmaydigan bo'ladi.

Sig'ishadigan tushunchalarning hajmi bir-biriga butunlay, to'laligicha yoki qisman mos keladi. Ular o'rtasida uch xil munosabat mavjud: moslik, qisman moslik va bo'ysunish. Moslik munosabatidagi tushunchalar bitta predmetni (predmetlar sinfini) aks ettiruvchi tushunchalar bo'lib, ular bir-biridan faqat mazmuni bilangina farq qiladi. Masalan, «*I.A.Karimov*», «*O'zbekiston Respublikasining Prezidenti*» tushunchalari xuddi Shu munosabatda mavjuddir. Buni qo'yidagi sxema yordamida ko'rsatish mumkin.

A - I.A.Karimov.


V-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

A.

Qisman moslik munosabatidagi qisman umumiylikka ega. Masalan:

A-Sportchi.

V-Talaba.



Doiralarning shtrixlangan qismi bir vaqtning o'zida ham sportchi, ham talaba bo'lganlarni bildiradi.

Bo'ysunish munosabatida tushunchalardan birining hajmi ikkinchisining hajmiga to'liq kirib, uni tashkil qiluvchi qism hisoblanadi. Masalan:

A - Fan.

V - Mantiq.



Bu munosabatdagi tushunchalardan biri bo'ysundiruvchi (A), ikkinchisi (V) bo'ysinuvchi bo'lib, ular jins tur munosabatida bo'ladi. **Jins** tushuncha predmetlarning birorta sinfini, tur tushuncha esa Shu sinfga mansub predmetlarning bir guruhini yoki bittasini aks ettiradi. Mantiqda u yoki bu tushunchaning jins yoki tur ekanligi nisbiy xarakterga egadir. Har bir tushuncha o'zidan umumiyroq tushunchaga nisbatan tur, kamroq umumlashgan tushunchaga nisbatan jinsdir. Masalan, milliy g'oya, fikr tushunchalari o'rtasida quyidagi nisbat mavjud: «*G'oya*» tushunchasi «*Fikr*» tushunchasiga nisbatan tur, «*Milliy g'oya*» tushunchasiga nisbatan jins bo'ladi.


Sig'ishmaydigan tushunchalar hajmi jihatidan umumiylikka ega bo'lmagan tushunchalar hisoblanib, bir sinfga kiruvchi har xil predmetlarni yoki predmetlar guruhini aks ettiradi. Ularning umumiyliigi faqat ana Shunda. Bu tushunchalar o'rtasida ham uch xil munosabat bor: birga bo'ysunish, qarama-qarshilik ziddlik.

Birga bo'ysunish munosabati qo'yidagi tushunchalar o'rtasida mavjuddir.

A-Fan.

V-Mantiq.

S-Fizika.




Bunda «*Mantiq*» va «*Fizika*» tushunchalari hajmlari jihatidan birgalikda «*Fan*» tushunchasining hajmiga bo'ysunadi.

Qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalarning hajmlari bir-birini istisno qiladi. Ular predmetning (predmetlar guruhining) qarama-qarshi belgilarini aks ettiradi, ya'ni biri predmetning ma'lum bir belgisini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiluvchi boshqa belgini aks ettiradi. Qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalar o'zlari bo'ysunadigan tushunchaning hajmini to'liq egallay olmaydi. Masalan, «*Baland bo'yli odam*» va «*Past bo'yli odam*» tushunchalari «*Odam*» tushunchasining hajmini to'liq qoplay olmaydi.

A-Odam.

V-Baland bo'yli odam.

S-Past bo'yli odam.




Zidlik munosabatidagi tushunchalardan biri predmetning birorta xususiyatini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiladi va mazmun jihatidan noaniq bo‘lib qoladi. Zidlik munosabatidagi tushunchalar, qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalardan farqli o‘laroq, bo‘ysundiruvchi tushunchaning hajmini to‘liq qoplaydi. Masalan,^A

A-Odam.

V-Baland bo‘yli odam.

S- Baland bo‘yli emas odam.



Tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash ularning mazmuni va hajmini aniqlashtirishga, ularni bog‘lab, bir fikr shaklidan boshqa fikr shakliga utishga yordam beradi. Masalan «talaba» va «a’lochi» tushunchalari o‘rtasidagi munosabatni aniqlash asosida, «Ba’zi talabalar a’lochilardir» degan mulohaza shaklidagi fikrni hosil qilish mumkin.

Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish tushunchalar ustida olib boriladigan amallar hisoblanadi. Ular tushunchaning mazmuni va hajmi o‘rtasidagi teskari miqdoriy nisbat qonunigamuvofiq holda amalga oshiriladi.

Tushunchani chegaralash hajmi keng tushunchadan hajmiga tor tushunchaga (jins tushunchadan tur tushunchaga) fikran o‘tishdan iborat. Masalan, «Mexanik harakat» tushunchasidan «Aylanma harakat» tushunchasiga o‘tsak uning hajmini chegaralagan bo‘lamiz. **Chegaralashda** berilgan tushuncha — «Mexanik harakat» jins tushuncha, deb qabul qilinib, uning mazmuniga tur tushuncha hosil qiluvchi belgilar qo‘shiladi. Natijada unga nisbatan tur hisoblangan Yangi tushuncha «aylanma harakat» tushunchasi hosil bo‘ladi.

Chegaralash amalini davom ettirib, «Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi» tushunchasiga o‘tish mumkin. Demak chegaralash davomida hosil bo‘lgan har bir Yangi tushuncha avvalgisiga nisbatan tur tushuncha bo‘ladi. Chegaralash amali yakka tushuncha hosil bo‘lguncha davom ettirilishi mumkin. Chunki yakka tushunchaga nisbatan tur bo‘lgan tushuncha yo‘q.


Tushunchani chegaralash amalining sxemasi quyidagicha:

A — Harakat

V— Mexanik harakat

S — Aylanma harakat

D — Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi.



Tushunchani umumlashtirish hajmi tor tushunchadan hajmi keng tushunchaga (tur tushunchadan jins tushunchaga) fikran o‘tishdan iborat. Bunda berilgan tushuncha tur tushuncha deb qabul qilinib, uning mazmunidan tur hosil qiluvchi belgilar chiqarib tashlanadi. Natijada mazmun jihatidan unga nisbatan kengroq, lekin hajmiga ko‘ra torroq bo‘lgan jins tushuncha hosil bo‘ladi. Masalan "Aylanma harakat" tushunchasi mazmunidan faqat ungagina xos bo‘lgan tur belgilarini chiqarib tashlasak, "Mexanik harakat" tushunchasini hosil qilamiz. Umumlashtirish amalining chegarasi eng umumiy tushuncha, ya’ni kategoriyadir. Chunki kategoriyalar uchun jins bo‘lgan tushuncha yo‘q.


Tushunchani umumlashtirish amalining sxemasi quyidagicha:

A - Erning o‘z o‘qi atrofida aylanishi

V - aylanma harakat

S - Mexanik harakat

D – Harakat



Tushunchani chegaralash va umumlashtirish mallari kundalik hayotimiz va ilmiy bilishda keng qo‘llaniladi. Xususan barcha kategoriyalar ular yordamida ifodalanadigan nazariy qonunlar, goyalar, nazariyalar mavjud empirik tushunchalarni empirik qonunlarni umumlashtirish natijasida hosil bo‘ladi.

Umumlashtirish muxokama yuritish jarayonida induktiv xulosa chiqarish usulida yaqqol ifodalangan bo‘ladi. Tushunchalarni umumlashtirishsiz fanning fundamental tushunchalarini yaratib bulmaydi, mavjud bilimlarni sistemaga solish qiyin va umuman, fan taraqqiy eta olmaydi.

Tushunchalarni chegaralash amali esa, yaratilgan umumiy bilimlarni(nazariy tushuncha, g'oya, nazariya va Shu kabilarni) talqin etishda ishlatiladi. Masalan Nyuton mexanikasidagi "Inersiya" tushunchasi Galiley nazariyasidagi "erkin tushish" tushunchasi yordamida tushuntirilishi mumkin.

Tushunchalarni bo'lish. Tushunchaning hajmini unda aks etgan.

Predmetlarni ayrim guruhlariga (ayrim predmetlarga) ajratish yo'li bilan aniqlashga tushunchani bo'lish deyiladi. Bo'lish amalini bo'linuvchi tushuncha (hajmi aniqlanishi lozim bo'lgan tushuncha), bo'lish asosi (predmetning tushunchada fikr qilinadigan birorta umumiy belgisi) va bo'lish a'zolari (bo'lish natijasida hosil qilinadigan tur tushunchalar) tashkil etadi. Masalan "Inson" tushunchasini (bo'linuvchi tushuncha) ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra (bo'lish asosi) "ishchi", "dehqon", " ziyoli" (bo'lish a'zolari) tushunchalariga ajratish yo'li bilan uning hajmi aniqlanadi. Bo'linuvchi tushuncha - jins tushuncha, bo'lish a'zolari - tur tushunchalar bo'lib, ular o'zaro birga bo'ysuniy munosabatidadir.

Tushunchalarni bo'lish amalini predmetlarni qismlarga ajratishdan farq qilish lozim. Masalan, avtomobilni kuzov, shassi, dvigatel va Shu kabilarga ajratsak, uni qismlarga bo'lgan bo'lamiz. Predmetning qismi predmetning umumiy belgilariga ega bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham "Kuzov avtomashinadir" degan mulohaza hosil qilsak, u xato bo'ladi. Agar "avtomobil" tushunchasini "engil avtomobil", "YUK taShuvchi avtomobil tushunchalariga ajratsak, uni bo'lgan bo'lamiz.

Bo'lishning ikkita turi mavjud: asos bo'lgan belgining o'zgarishiga qarab bo'lish va dixotomik bo'lish. Birinchi turida predmetning birorta umumiy belgisi bo'lish uchun asos qilib olinib, uning o'zgarishiga muvofiq holda predmetlarning ayrim guruhlari aniqlanadi Masalan burchakning o'zgarishiga qarab "uchburchak" tushunchasi uchta tur tushunchaga : "to'g'ri burchakli uchburchak", "o'tmas burchakli uchburchak", "o'tkir burchakli uchburchaklarga ajratiladi. Bo'lish asosi qilib bo'linuvchi tushunchaning mazmunida fikr qilinadigan har qanday umumiy belgini olish mumkin. Masalan "uchburchak" tushunchasini tomonlariga qarab "teng tomonli uchburchak", " teng enli uchburchak" "turli tomonli uchburchak tushunchalariga ajratish mumkin.

Dixotomik bo'lish bo'linuvchi tushunchani o'zaro zid bo'lgan ikkita tur tushunchaga ajratishdan iborat. Masalan barcha kishilarni "dindorlar" va "dindor emaslariga" ajratsak, dixotomik tarzda bo'lgan bo'lamiz. Dixotomik bo'lish bir qator qulayliklarga ega. Xususan, bunda biz bo'linuvchi tushunchaning barcha turlarini ko'rsatib o'tirmasdan, o'zimizga kerakligini ajratamiz, qolganlarini unga zid bo'lgan tushunchaga birlashtiramiz. Shu bilan birga dixotomik bo'lish ma'lum bir kamchiliklarga ham ega. Masalan, inkor tushunchaning hajmi noaniq bo'ladi. Undan tashqari dixotomik bo'lishdan faqat bir marta foydalangandagina kutilgan maqsadga erishish mumkin. Agar bo'lish a'zolaridan biri, ayniqsa inkor tushunchani o'z navbatida bo'linvchi tushuncha deb qabul qilib, bo'lish amalini davom ettirsak, xato natijalar kelib chiqishi mumkin. Bo'lish amali to'g'ri borishi uchun ma'lum bir qoidalarga rioya qilish kerak. Ular **bo'lish qoidalari** deb ataladi.

Bo'lish amalito'g'ri borishi uchun ma'lum bir qoidalarga rioya qilish kerak. Ular bo'lish qoidalari deb ataladi.

a) Bo'lish teng hajmli bo'lishi, ya'ni bo'lish a'zolari hajmlarining yig'indisi bo'linuvchi tushuncha hajmiga teng bo'lishi kerak. Bu qoida buzilsa, bo'lish to'liqsiz yoki ortiqcha bo'lib qoladi. Birinchi xil xatoda ba'zi bo'lish a'zolari ko'rsatilmay qoladi. Masalan, *«fe'l zamonlari»* tushunchasini *«o'tgan zamon fe'li»* va *«Hozirgi zamon fe'li»* tushunchalariga ajratsak ana Shunday xato ro'y beradi. CHunki *«kelasi zamon fe'li»* tushunchasi qolib kelgan. Ikkinchi xil xatoda esa ortiqcha bo'lish a'zosi ko'rsatilgan bo'ladi. Masalan *«bilish» tushunchasini «hissiy bilish», «tafakkur», «nazariy bilish» ga ajratib bo'lmaydi. CHunki «nazariy bilish» bu yerda ortiqchadir.*

b) Bo'lish bir asos bo'yicha amalga oshirilishi lozim. Boshqacha aytganda, asos qilib olingan belgi bo'lish davomida boshqa belgi bilan almashtirilmasligi zarur. Masalan *«qonun» tushunchasini «Tabiat qonuni», «jamiyat qonuni», «bilish qonuni», «statistik qonun», «dinamik qonun» tushunchalariga bo'lsak xato qilgan bo'lamiz. CHunki bu yerda bo'lish asosi bir emas,*

ikkita. Birinchi uchta bo'lish a'zosi qonunning amal qilish sohasi bo'yicha, qolgan ikkitasi qonun ifoda qiluvchi hodisalar xarakteri bo'yicha ajratilgan. Bu bilan bo'lishdagi izchillik yo'qolgan.

v) **Bo'lish a'zolari xajmi bo'yicha bir-birini istisno qilishi kerak.** Buning uchun, ular birga bo'ysunish munosabatidagi tushunchalar bo'lishi kerak. Agar «Bino» tushunchasini «Bir qavatli bino», «Ko'p qavatli bino», «Osmono'par bino» tushunchalariga bo'lsak xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Chunki «Ko'p qavatli bino» tushunchasi bilan «Osmon o'par bino» tushunchasi bir-birini hajmi bo'yicha istisno qilmaydi.

g) **Bo'lish uzluksiz holda amalga oshirilishi**, unda «sakrash» bo'lmasligi kerak Buning uchun jins tushunchaga eng yaqin bo'lgan bir tartibdagi tur tushunchalar olinmog'i lozim. Masalan, «Gap» tushunchasini «Oddiy gap», «Ergash gan qo'shma gap», «Bog'lan gan qo'shma gap» tushunchalariga ajratsak bo'lishdagi izchillik yo'qoladi. Bunda oxirgi ikkita bo'lish a'zosi «qo'shma gap» tushunchasining turlaridir. Demak «sakrash» xodisasi ro'y bergan.

Klassifikatsiya (turkumlash) tushunchalarni bo'lishning alohida turidir. Klassifikatsiya predmetlarni ma'lum bir turlarga (kichik sinflarga yoki ayrim predmetlarga) ajratishdan iborat bo'lib, bunda har bir tur boshqalariga nisbatan o'zining aniq va qattiy o'rniga ega. Klassifikatsiya natijalari har xil jadvallar, sxemalar, grafiklar, kodekslar va Shu kabilarda o'zaksini topadi.

Mantiqda **sun'iy** va **tabiiy** klassifikatsiyalar farq qilinadi. **Sun'iy klassifikatsiya** predmetlarning birorta umumiy belgisiga ko'ra amalga oshiriladi. Unga misol qilib kutubxohadagi kitoblar katalogini ko'rsatish mumkin. **Tabiiy klassifikatsiyani** amalga oshirish uchun bo'lish asosi qilib predmetlarning birorta muhim belgisini olish kerak Ana Shuning uchun ham u predmetlarning gayrimuhim xossalari haqida fikr yuritish, qonuniy bog'lanishlarni aniqlash imkonini beradi. Bunga Mendeleevning kimyoviy elementlar davriy sistemasi, Darvinning jonli tabiat predmetlari klassifikatsiyasi misol bo'la oladi.

Klassifikatsiyada tushunchani bo'lish qoidalariga amalqilish zarur.

Klassifikatsiyalar nisbiy turg'un xarakterga ega. Ular bilishda va kundalik turmushda uzoq yillar davomida ishlatiladi. Albatta, bilimlarimizning taraqqiy etishi, Yangi bilimlarning vujudga kelishi ko'p hollarda klassifikatsiyalarga tuzatishlar kiritishni, ba'zan esa butunlay Yangisi bilan almashtirilishini taqozo etadi. Shunga qaramasdan, klassifikatsiya mavjud bilimlarimizni sistemaga solish vositasi sifatida bilishda o'zining muhim ahamiyatiga ega bo'lib qoladi.

Tushunchalarni ta'riflash(definititsiya). Ta'riflash (yoki definititsiya) tushunchaning mazmunini ochib beradigan mantiqiy amaldir. Ta'rif aniqlanuvchi, va aniqlovchi qismlardan tashkil topadi. Aniqlanuvchi qismni mazmuni ochib berilishi lozim bo'lgan tushuncha, aniqlovchi qismni esa aniqlanuvchi tushunchaning mazmunini ochib beruvchi tushunchalar tashkil etadi. Masalan, «Mantiq to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi falsafiy fandir» degan ta'rifda «Mantiq» aniqlanuvchi qismni, qolganlari esa aniqlovchi qismni hosi qiladi. Ta'riflash bilishda quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishda yordam beradi:

- 1) tushunchada aks etuvchi predmetning muhim belgilarini ko'rsatadi;
- 2) tushunchani ifoda qiluvchi so'zning (terminning) ma'nosini ochib beradi;
- 3) termin hosil qilishga imkon beradi. Yuqoridagi vazifalardan qaysi birining hal qilinishiga qarab nominal va real ta'riflar farq qilinhadi.

Nominal ta'riflar yordamida predmetni tasvirovchi murakkab ifodalar Yangi termin bilan almash tiriladi hamda uning ma'nosini aniqlanadi. Masalan, «Mantiq grekcha «logos» so'zidan olingan bo'lib, tushuncha, fikr, so'z, qonuniyat kabi ma'nolarga ega» desak mantiq tushunchasiga nominal ta'rif bergan bo'lamiz. «Til belgilarini o'rganuvchi fan semiotikadir» degan ta'rif ham nominal ta'rifga misoldir.

Real ta'rifda predmetning muhim belgisi aniqlanadi. Masalan, «Atom-moddaning yadro va elektronlardan tashkil topgan zarrachasidir» degan ta'rif real ta'rifdir.

Real ta'rif aniq va noaniq ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. **Aniq real ta'rif** predmetlarning muhim belgilarini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib beradi. **Noaniq real ta'rifda** esa tushunchaning mazmuni yordamchi vositalar orqali ochib beriladi. Masalan, *O'qigan parchamizda notanish terminlar uchrab qolganda, uning ma'nosini lug'atdan foydalanmasdan, boshqa so'zlarning ma'nosiga qarab aniqlashimiz mumkin.*

Aniq real ta'rifning ikkita asosiy turi mavjud:

- 1) yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish orqali, ta'riflash;
- 2) genetik ta'rif.

Yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish orqali ta'riflash real ta'rifning eng ko'p ishlatiladigan turi bo'lib, u ikkita bosqichdan tashkil topadi. Birinchi bosqichda aniqlanuvchi tushunchaning yaqin jinsi topiladi. Shu tariqa uning mazmuni qisman ochib beriladi. Ikkinchi bosqichda aniqlanuvchi tushunchaning Shu jinsga kiruvchi boshqa tur tushunchalardan farqi aniqlahadi, ya'ni uning tur belgisi ko'rsatiladi. Shu tariqa mazkur tushuncha mazmunining qolgan qismi ochib beriladi. Masalan, *bizning oldimizda «Metafora» tushunchasining mazmunini aniqlash vazifasi turibdi, deylik bunda, avval aniqlanuvchi tushunchaning yaqin jinsi topiladi: u «so'z» tushunchasidir. «Metafora so'zidir»* deyish bilan «So'z» tushunchasi mazmunida fikr qilinadigan muhim belgilarining metaforaga ham tegishli ekanligini ko'rsatamiz, ya'ni «metafora» tushunchasi mazmunini tashkil etuvchi umumiy belgilarni aniqlaymiz. Ko'chirma ma'noda ishlatilishi esa, metafora sifatida ishlatilayotgan so'zning tur belgisi, ya'ni individual belgisi hisoblanadi. Bu tur belgini yaqin jinsga qo'shib «*Metafora ko'chirma ma'noda ishlatiladigan so'zidir*» degan to'la ta'rif hosil qilamiz. Shu tariqa eng qisqa yo'l bilan, ya'ni yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish bilan tushunchaning mazmunini aniqlaymiz.

Genetik ta'rifda aniqlanuvchi tushunchaning mazmuni u ifodalagan predmetning kelib chiqishini ko'rsatish orqali ochib beriladi. Masalan, «*Oksid metallarning kislorod bilan reaksiyaga kirishinatisida hosi lbo'lgan kimyoviy birikmadir*», degan ta'rif genetik ta'rifga misoldir. Bu ta'rifning mantiqiy strukturasi yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish orqali ta'riflash bilan bir xildir.

Ta'riflash ma'lum qoidalarga rioya qilishni talab etadi. Ular quyidagilardan iborat:

a) ta'rif tenghajmli bo'lishi kerak ya'ni aniqlanuvchi tushuncha hajmi bilan aniqlovchi tushunchalar hajmlari yig'indisi teng bo'lishi kerak. Bu qoida buzilsa, ta'rif yo haddan tashqari keng, yo haddan tashqari tor bo'lib qoladi. Masalan, «*Mantiq tafakkurni o'rganuvchi fandir*» - haddan tashqari keng, «*Mantiq isbotlash strukturasi o'rganuvchi fandir*» - haddan tashqari tor ta'rifdir.

b) Ta'rif aniq bo'lishi kerak. Buning uchun obrazli iboralar, mazmuni noaniq so'zlar ishlatilmasligi lozim. Masalan, «*Xayol — uchqur ot*», «*Davlat dunyoviy ruhning siyosiy jihatdan namoyon bo'lishidir*» (Gegel) degan ta'riflarda bu qoida talablari buzilgan. Ularda chuqur ma'no bo'lsada, tushunchaning mazmuni aniq ochib berilgan emas.

v) Ta'rif aylana shaklida bo'lib qolmasligi kerak. Ta'rif berishda aniqlovchi tushunchaning mazmunini aniqlash uchun aniqlanuvchi tushunchaning o'ziga murojaat etilsa, ta'rifda aylana hosil bo'ladi. Masalan, «*Mantiq to'g'ri fikrlash haqidagi fandir*» deyilganda ta'rifda aylana vujudga keladi. Chunki, «*To'g'ri fikrlash nima?*», degan savolga, «*U mantiq qonun-qoidalariga rioya qilingan holda fikrlashdir*», deb javob berishga to'g'ri keladi. YA'ni «mantiq» tushunchasiga murojaat qilinadi.

Tavtologiya ham Shu qoidaning buzilishi natijasida sodir bo'ladi. Bunda aniqlanuvchi tushunchadan uning mazmunini ochish uchun foydalanilgan bo'ladi. Masalan, «*Ta'magir ta'magirlik qiluvchi kishidir*» desak tavtologiyaga yo'l qo'ygan bo'lamiz.

g) Ta'rif iloji boricha inkor shaklda bo'lmasligi kerak. Aks holda predmetga xos bo'lgan belgi o'rniga unda yo'q bo'lgan belgi ko'rsatiladi. Masalan, «*Ong moddiy emas*» degan ta'rif «*ong*» tushunchasining mazmunini to'liq ochib bera olmaydi.

Bilish jarayonida **ta'riflashga o'xshash usullar** ham ishlatiladi. Ulardan tushunchani ta'riflashning yuqorida biz ko'rib chiqqan turlarini qo'llash mumkin bo'lmay qolganda yoki unga zaruriyat bo'lmaganda foydalaniladi.

a) Ta'riflashga o'xshash usullardan biri tushunchani unga qarama-qarshi bo'lgan tushuncha orqali ta'riflashdir. Bu usul bilan odatda kategoriyalarning mazmuni ochib beriladi. Masalan, «*Ong materiyaning miyamizdagi in'ikosidir*».

v) Tasvirlashda tushunchaning mazmuni u aks ettiruvchi predmetning ba'zi tashqi belgilarini ko'rsatish orqali aniqlanadi. Badiiy asarlarda tabiat manzaralarini, personajlarning portretlarini chizish, sodir bo'lgan birorta voqeaning bayon etilishi tasvirlashga misol bo'ladi.

s) Tavsiflash yordamida predmetning ba'zi bir munosabatdagi muhim tur belgilari ko'rsatiladi. Bunta misol qilib birorta shaxsga berilgan tavsifnomani ko'rsatish mumkin.

Tafovutlash, osteneiv ta'riflash kabi usullar ham mavjuddir.

Ta'riflash bilishda katta ahamiyatga egadir. U qisqa holda predmet haqida yaxlit fikr, tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Lekin, predmet haqida fikr yuritganda u bilan cheklanib qolish mumkin emas. U albatta bilish jarayonida boshqa bilimlar yordamidakonkretlashtirilishi, chukurlashtirilishi zarur. Ana Shundagina tushuncha ifoda etuvchi predmet haqidagi tasavvur aniq, to'laroq bo'ladi.

Sinflar ustida amallar. Tushunchaning xajmida ma'lum bir umumiy beligiga ega bo'lgan predmetlar to'plami - **sinf** aks etadi. Sinflar ustida bir qancha mantiqiy amallarni o'tkazish, xususan ularni qo'shish (birlashtirish), ko'paytirish (kesishtirish) hamda berilgan sinfga to'ldiruvchi hosil qilish (sinfni inkor etish) mumkin. Bu amallarni bajarish Yangi sinflar va Yangi tushunchalar hosil qilishga olib keladi. Ularni simvolik tarzda ifodalash uchun quyidagi belgilardan foydalanamiz:

A, V, S, D, \dots —lar ixtiyoriy sinflar;

I — universal sinf;

O — bo'sh sinf;

\cup - sinflarni qo'shish belgisi;

\cap - sinflarni ko'paytirish belgisi;

A^1 (Aemas) — A sinfini to'ldiruvchi (inkor etuvchi).

Shuningdek amallarni sxematik tarzda ifodalashda universal sinfni to'g'ri to'rtburchak boshqa sinflarni-doiralalar bilan belgilaymiz.

Sinflarni qo'shish deganda, qo'shiluvchi sinflarning barcha elementlaridan tashkil topgan Yangi sinf hosil qilish tushuniladi. Masalan, «Ommaviy axborot vositalari» (A) va «Televideniye» (V) sinflarini qo'shganda hosil bo'ladigan Yangi sinf «Ommaviy axborot vositalari» dan iborat. Uning sxemasi quyidagicha:

Simvolik ifodasi esa:



$$A \cup V \text{ qA}$$


Sinflarni ko'paytirish ko'paytuvchilar uchun umumiy bo'lgan elementlardan tashkil topadigan Yangi sinfni hosil qilishdan iborat. Masalan, yuqoridagi «Ommaviy axborot vositalari» (A) va «Televideniye» (V) sinflarini ko'paytirib, Yangi sinf «Televideniye» ni hosil qilamiz. Uning sxemasi quyidagicha:

Simvolik ifodasi:

$$A \cap V \text{ qV}$$



Sinfga to'ldiruvchi hosil qilishning mohiyatini berilgan sinf (to'ldiriluvchi sinf) bilan qo'shilganda universal sinfni hosil qiladigan sinfni topish tashkil etadi. To'ldiruvchi sinf berilgan sinfni (to'ldiriluvchi sinfni) inkor etish yo'li bilan hosil qilinadi. Masalan, «Televideniye» (A) ni to'ldiriluvchisi n deb olsak universal sinf «Ommaviy axborot vositalari» (I) bo'lgani holda, to'ldiruvchi sinf «Televideniye emas ommaviy axborot vositalari» dan (A^1) iborat bo'ladi. Uning sxemasi quyidagicha: Simvolik ifodasi esa:



$$A \cup A^1 = I$$

Sinflar ustida olib boriladigan amallar ma'lum qoidalarga bo'ysunadi. Ular quyidagilardan iborat:

$$\left. \begin{array}{l} A \cup A \text{ qA} \\ A \cap A \text{ qA} \end{array} \right\} \text{idempotentlik qonuni}$$

$$\left. \begin{array}{l} A \cup V \text{ qV} \\ V \cup A \text{ qV} \end{array} \right\} \text{kommutativlik qonuni}$$

$A \cap V \supset V \cap A$

$A \cup (V \cap S) \supset (A \cup V) \cap S$ } assosiativlik qonuni
 $A \cap (V \cup S) \supset A \cap (V \cup S)$ }

$A \cup (A \cap V) \supset A$ } yutish qonuni
 $A \cap (A \cup V) \supset A$ }

$A \cup (V \cap S) \supset (A \cup V) \cap (A \cup S)$ } distributivlik qonuni

kommutativlik qonuni

assosiativlik qonuni

yutish qonuni

distributivlik qonuni

Takrorlash uchun savollar

1. Tushunchaning umumiy tavsifi.
2. Taqqoslash, analiz, sintez va abstraksiyalash tushuncha hosil qilishning mantiqiy usullari.
3. Tushunchani chegaralash.
4. Tushunchani umumlashtirish.
5. Tushunchalarni bo'lish.
6. Dixtomik bo'lish.

2.3 – Mulohaza tafakkur shakli sifatida

Reja:

1. Hukm borliqni aks ettirishning mantiqiy shakli sifatida.
2. Oddiy hukmlar.
3. Murakkab hukmlar.
4. Hukmlar o'rtasidagi munosabatlar.
5. Modallikning asosiy turlari. Modal mulohazalar.

1. Hukm borliqni aks ettirishning mantiqiy shakli sifatida

Hukm predmetga ma'lum bir xossaning, munosabatning xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shaklidir.

Hukmning asosiy vazifasi predmet bilan uning xususiyati, predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatishdir. Ana Shuning uchun ham u doimo tasdiq yoki inkor shakldagi fikrdan iborat bo'ladi. Fikr yuritish jarayonida biz predmet va hodisalarning oddiy, tashqi xususiyatlari bilan birga ularning ichki, zaruriy bog'lanishlarini, munosabatlarini bilib boramiz. Predmet va hodisalarning xususiyatlarini ketma-ket o'rganib, ular haqida turli abstraksiyalar hosil qilamiz. Bu abstraksiyalar Hukmlar yordamida ifodalanadi. Bilimlarimiz turlicha bo'lgani uchun, ularni ifodalaydigan hukmlar ham har-xil bo'ladi. Ba'zi hukmlarda aniq, tekshirilgan bilimlar ifodalansa, boshqalarida xususiyatning predmetga xosligi taxmin qilinadi, ya'ni noaniq bilimlar ifodalanadi.

Hukmlar nisbatan tugal fikrdir. Unda tugal predmet bilan uning konkret belgisi haqida bilim ifoda qilingan bo'ladi.

Hukmlar voqelikka mos kelish darajasiga ko'ra chin, xato va noaniq (ehtimol, taxminiy) bo'ladi. Obektiv voqelikka mos kelgan uni to'g'ri ifodalagan hukmlar chin, mos kelmaganlari xato bo'ladi. Ayni vaqtda chinligini ham, xatoligini ham aniqlab bo'lmaydigan hukmlar noaniq hukmlar mavjuddir.

Hukmlar tilda gaplar orqali ifodalanadi. Hukm mantiqiy kategoriya bo'lsa, gap grammatik kategoriyadir. Hukmlar asosan darak gap orqali ifodalanadi. Faqat darak gaplardagina fikr tasdiq yoki inkor holda bo'ladi.

Masalan, "Vaqt orqaga qaytmaydi", "Hayot-bu harakat" kabi gaplar Hukmni ifoda qiladilar.

2. Oddiy hukmlar

Hukmlar tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy hukm deb tarkibidan yana bir hukmni ajratib bo'lmaydigan mulohazaga aytiladi. Tarkibidan ikki yoki undan ortiq hukmni ajratish mumkin bo'lgan mulohazalarga murakkab hukm deyiladi. Masalan, "Mantiq ilmini o'rganish to'g'ri fikrlash madaniyatini shakllantiradi" degan mulohaza oddiy hukmni ifodalaydi. "Mantiq ilmi tafakko'r shakllari va qonunlarini o'rganadi", degan mulohaza murakkab hukmdir. Bu mulohazaning tarkibi ikki qismdan: "Mantiq ilmi tafakko'r shakllarini o'rganadi" va "Mantiq ilmi tafakko'r qonunlarini o'rganadi", degan ikki oddiy hukmdan iborat.

Mulohaza (Hukm) tarkibida mantiqiy ega va mantiqiy kesimni ajratib ko'rsatish mumkin. Mantiqiy ega-sub'ekt (s) fikr qilinayotgan predmet va hodisani bildiradi. Mantiqiy kesim-predikat (p) predmetga xos xususiyatni, munosabatni bildiradi. Predikatda ifodalangan bilimlar hisobiga sub'ekt va predikati uning terminlari deb ataladi.

Hukmning uchinchi zaruriy elementi mantiqiy elementi mantiqiy bog'lamadir. U sub'ekt va predikatni bir-biri bilan bog'laydi, natijada hukm hosil bo'ladi. Oddiy qat'iy hukmning formulasi quyidagicha yoziladi: S-P.

Oddiy hukmlar sifati va miqdoriga ko'ra turlarga bo'linadi. Sifatiga ko'ra tasdiq va inkor hukmlar farqlanadi. Hukmning sifatini mantiqiy bog'lama belgilaydi. Tasdiq hukmlarda belgining predmetga xosligi, inkor hukmlarda, aksincha, xos emasligi ko'rsatiladi. Masalan, "A.Oripov O'zbekiston Respublikasi Madhiyasining muallifidir"-tasdiq hukm, "Matematika ijtimoiy fan emas"-inkor hukm. Miqdoriga ko'ra oddiy hukmlaryakka, umumiyvajuz'iy hukmlargabo'linadi. Bunda sub'ektda ifodalangan predmetlarning soni, ya'ni uning hajmidan kelib chiqiladi.

Yakka hukmlarda birorta belgining predmetga xosligi yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan: "O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlatdir", "Axmedov tarixchi emas".

Umumiy hukmlarda birorta belgining yakka predmetlar sinfining hammasiga yoki undagi har bir predmetga taalluqli yoki taalluqli emasligi haqida fikr bayon qilinadi. Masalan: "Har bir inson baxtli bo'lishni xohlaydi", "Hech bir aqlli odam vaqtini behuda sarflamaydi".

Juz'iy hukmlarda birorta belgining predmetlar to'plamining bir qismiga xos yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan: "Ba'zi faylasuflar notiqdir". "Ko'pchilik talabalar dangasa emas". Juz'iy hukmlarda "ba'zi" "so'zi" "hech bo'lmasa bittasi, balki hammasi" degan ma'noda qo'llaniladi.

Mulohazalarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlashda va ba'zi boshqa holatlarda oddiy hukmlarning miqdor va sifati bo'yicha birlashgan klassifikatsiyasi (asosiy turlari) dan foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. **Umumiy tasdiq hukmlar.** Ular bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham tasdiq bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Hamma talabalar mantiq ilmini o'rganadilar" Bu hukmlar lotin alifbosidagi A harfi bilan belgilanadi va "Hamma S-P dir" formulasi orqali ifodalanadi.

2. **Umumiy inkor hukmlar** bir vaqtning uzida ham umumiy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Xech bir ish bilan rejasiz ish yuritmaydi". Bu hukm "Hech bir S-P emas" formulasi orqali ifodalanadi va lotincha E harfi bilan belgilanadi.

3. **Juz'iy tasdiq hukmlar** bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham tasdiq bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Ba'zi talabalar mas'uliyatli". U lotincha I harfi bilan belgilanadi va "Ba'zi S-P dir" formulasi orqali ifodalanadi.


4. **Juz'iy inkor hukm** bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Ba'zi talabalar sport bilan Shug'ullanmaydilar". Uning formulasi "Ba'zi "S-P emas" bo'lib, lotincha O harfi bilan belgilanadi.

Oddiy hukmlarda terminlar hajmi. Oddiy hukmlardagi terminlar (SvaP) tushinchalar orqali ifodalanganligi tufayli ularning hajmiga ko'ra o'zaro munosabatlarini aniqlash mumkin. Hukmlarda terminlar (SvaP) to'liq yoki to'liqsiz hajmda olingan bo'ladi. Termin to'liq hajmda olinganda uning hajmi boshqa terminning hajmiga to'liq mos bo'ladi yoki mutlaqo mos bo'lmaydi (ularning hajmi bir-birini istisno qiladi). Termin to'liqsiz hajmda olingan bo'lsa, unda uning hajmi boshqasining hajmiga qisman mos keladi yoki undan qisman istisno qilinadi. Oddiy hukmlar determinlar hajmi quyidagicha bo'ladi:

1. A - Umumiy tasdiq - Hukmlarning sub'ekti hamma vaqt to'liq hajmda olingan bo'ladi. Masalan, "Hamma insonlar tirik mavjudotdir".

Bu hukmning sub'ekti - "Inson", predikati - "Tirik mavjudot" tushinchasidir, "Hamma" - umumiylik kvantori. Bu hukmning sub'ekti to'liq hajmda olingan, chunki unda hamma insonlar to'g'risida fikr bildirilgani va bu tushincha "tirik mavjudot" tushinchasining hajmiga to'liq kirishadi. Uning predikati to'liq hajmda olinmagan, chunki unda tirik mavjudotlarning bir qismi - insonlar haqida fikr yuritiladi.


Buning doiraviy sxemasi quyidagicha: (1 - rasm)





Umumiy tasdiq hukmlarining ba'zilarida S ham, P ham to'la hajmda bo'lishi mumkin. Masalan, "Hamma musulmonlar Islom diniga e'tiqod qiladilar" (2-rasm).




2. E - Umumiy inkor - Hukmlarning sub'ekti hamma, predikati ham to'liq hajmda olingan bo'ladi. Masalan, "Hech bir dindor e'tiqodsiz emas". Bu hukmda S- dindorlarni, P-e'tiqodsizlarni ifodalaydi, hech bir -umumiylik kvantoridir. Bunda har ikki terminning hajmi bir-birini istisno qiladi. (3 - rasm)



3. I - Juz'iy tasdiq - Hukmlarning sub'ekti hamma vaqt to'liqsiz hajmda olinadi, predikati esa bazan to'liq, ba'zan to'liqsiz hajmda bo'ladi. Masalan: «Ba'zi talabalar ingliz tilini biladi». Hukmning terminlari quyidagicha: S –talabalar, P-ingliz tilini biladiganlar, ba'zi – mavjudlik kvantori. Bu Hukmlar S ham, P ham to'liqsiz hajmda olingan bo'lib, har ikki terminning hajmi bir – biriga qisman mos keladi (4-rasm)



Yana bir misolni ko'ramiz: «Ba'zi vrachlar xirurgdir». Bu hukmda S- vrachlar, P- xirurglar, ba'zi – mavjudlik kvantoridir. Hukmda sub'ekt to'liq hajmda olinmagan, chunki unda ba'zi vrachlar haqida fikr bildirilgan predikat esa to'liq hajmda olingan, chunki xirurglarning hammasi vrachdir. Predikatning hajmi sub'ektning hajmiga kirgani uchun u to'liq hajmda olinadi. (5 – rasm)



4. O - Juz'iy inkor Hukmlarning sub'ekti hamma vaqt to'liqsiz hajmda, predikati esa to'liq hajmda olinadi. Masalan: «Ba'zi yoshlar hunarmand emas». Bu hukmning terminlari S – yoshlar, P – Hunarmandlar emas, ba'zi – mavjudlik kvantori. Hukmning sub'ekti to'liq hajmda olinmagan, unda yoshlarning bir qismi haqida fikr yuritiladi, xolos. Hukmning predikati esa to'liq hajmda olingan. Unda hunarmandlarning hammasi haqida fikr bildirilgan. (6 – rasm)



Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, umumiy hukmlarning sub'ekti hamma vaqt to'liq hajmda, juz'iy hukmlarning sub'ekti to'liqsiz hajmda olinadi. Inkor hukmlarning

predikati hamma vaqt to'liq hajmda bo'ladi. Tasdiq hukmlarning predikati $R \leq S$ bo'lgandagina to'liq hajmda bo'ladi, boshqa hollarda esa to'liqsiz hajmda olinadi.

Hukmlarda terminlar hajmini aniqlash qat'iy sillogizmni to'g'ri tuzishda va bevosita xulosa chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Oddiy hukmlarda terminlar hajmini quyidagi sxema orqali yaqqol ifodalash mumkin. Bunda «q» – to'liq hajmni, « - » – to'liqsiz hajmni bildiradi.

Hukm turlari	Belgisi	Hukmning formulasi		Terminlar hajmi		Terminlar ningmunosababati
		Formal mantiqda	Matematik mantiqda	S	P	
Umumiy tasdiq hukm	A	Hamma S - P Sa P	$\forall x(S(x) \rightarrow P(x))$	q	±	$S \geq P$
Umumiy inkor hukm	E	Hech bir S - P emas SeP	$\forall x(S(x) \rightarrow P(x))$	q	q	$S < P$
Juz'iy tasdiq hukm	I	Ba'zi S - P S i P	$\exists x (S (x) \wedge P (x))$	-	±	$S \leq P$
Juz'iy inkor hukm	O	Ba'zi S – P emas So P	$\exists x (S (x) \wedge P (x))$	-	q	$S < P$

3. Murakkab hukmlar

Hukm terminlari birdan ortiq bo'lsa, murakkab hukm deb ataladi. Murakkab hukmlar «va», «yoki», «agar ...unda» kabi mantiqiy bog'lamalar, inkor qilish va modal terminlarni qo'llash orqali ikki va undan ortiq oddiy hukmlarni o'zaro birikishidan hosil bo'ladi. Mantiqiy bog'lovchining mazmuniga ko'ra murakkab hukmlarning quyidagi asosiy turlarini farq qilish mumkin: birlashtiruvchi, ayiruvchi, shartli, ekvivalent.

Birlashtiruvchi (kon'yunktiv) hukmlar deb ikki va undan ortiq oddiy hukmlarning «va» «ham», «hamda» kabi mantiqiy bog'lovchilar vositasida o'zaro birikishidan hosil bo'lgan hukmlarga aytiladi. Masalan: 1. «Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi». 2. «A.Navoiy shoir va davlat arbobi bo'lgan». 3. «Muhammad Xorazmiy va Axmad Farg'oniylar matematika fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar».

Birinchi birlashtiruvchi hukm ikki mustaqil oddiy hukmning bog'lanishidan hosil bo'lgan. Ikkinchi hukmda bir xil sub'ektga ega bo'lgan ikki oddiy hukm o'zaro bog'langan. Uchinchi birlashtiruvchi hukmda esa, bir xil predikatga ega bo'lgan ikki oddiy hukm o'zaro bog'langan. O'zbek tilida birlashtiruvchi hukmlar «ammo», «lekin», «biroq», kabi bog'lamalar va (,) vositasida ham tuziladi. Mantiqiy bog'lamalar kon'yunksiya belgisi, «^» orqali ifodalanadi.

Kon'yunksiya (birlashtiruvchi) hukm tarkibidagi oddiy hukmlarni «P» va «Q» shartli belgilari bilan belgilasak, unda bu hukm «P^Q» formulasi orqali ifodalanadi. Kon'yunktiv hukm tarkibidagi oddiy hukmlar chin yoki xato bo'lishi mumkin. Tarkibidagi hamma oddiy hukmlar chin bo'lganda, birlashtiruvchi hukm chin bo'ladi. Boshqa hamma holatlarda esa, xato bo'ladi. Masalan, «YOlg'on gapirish va o'g'irlik qilish jinoyatdir» hukmidagi birinchi oddiy gap «YOlg'on gapirish jinoyatdir» chin bo'lmagani uchun, bu hukm chin bo'lmaydi.

P	Q	P^Q
CHin	CHin	CHin
CHin	Xato	Xato
Xato	CHin	Xato
Xato	Xato	Xato

Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukm deb «yo», «yoki» «yohud» mantiqiy bog'lamalari vositasida oddiy hukmlardan tashkil topgan mulohazaga aytiladi. Bu bog'lovchilar ikki oddiy hukmni yoki bir

qancha predikatlarni, yoki bir qancha sub'ektlarni bir biridan ayirib turadi. Masalan: «Qodirov falsafa yoki sotsiologiya yoki psixologiya bo'limida o'qiydi». Ayiruvchi bog'lamalar «V» - diz'yunksiya belgisi orqali ifodalaniladi. Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukmlar oddiy yoki qat'iy turlarga bo'linadi. Oddiy diz'yunktiv hukm tarkibidagi oddiy hukmlardan biri yoki hammasi chin bo'lishi mumkin, qat'iy diz'yunktiv hukmda esa tarkibidagi oddiy hukmlardan faqat bittasi chin bo'ladi. Oddiy diz'yunktiv hukm(pvq) formulasi bilan qat'iy diz'yunktiv hukm PvQ formulasi bilan belgilanadi. Diz'yunktiv hukmlarning chin shartlari quyidagicha :

p	q	P V q
CHin	CHin	CHin
CHin	Xato	CHin
Xato	CHin	CHin
Xato	Xato	Xato

p	q	pV q
Чин	Чин	Хато
Чин	Хато	Чин
Хато	Чин	Чин
Хато	Хато	Хато

«X.X.Niyoziy shoir yoki dramaturgdir». Bu oddiy diz'yunktiv hukm. «Abdullaev musobakada yo yutadi, yutmaydi». Bu qat'iy diz'yunktiv hukm .

SHartli(implikativ) hukm ikki oddiy hukmning «Agar... unda» mantiqiy bog'lamasi orqali birikishidan hosil bo'ladi .SHartli hukmning mohiyatini aniqlash uchun zaruriy va yyetarli shart tushinchalarini farqlash zarur. Hodisaning zaruriy sharti deb ,uning mavjudligini ta'minlaydigan holatga aytiladi.Agar hodisaning sharti zaruriy bo'lmasa, hodisa ham bo'lmaydi. Masalan: «Agar o'simlik suvsiz qolsa, u quriydi».

Hodisa uchun yyetarli bo'lgan shart deb, har safar Shu shart bo'lganda ,o'sha hodisa kuzatiladigan holatga aytiladi. Masalan: «Agar yomg'ir yog'sa, unda uylarning tomi xo'l bo'ladi». SHartlar «etarli, lekin zaruriy bo'lmagan», «zaruriy lekin etarli bo'lmagan», «zaruriy va etarli» bo'lishi mumkin. Masalan: N sonining ikki va uchga bo'linishi uning oltiga bo'linishi uchun zaruriy va yetarli shart hisoblanadi. N soning ikkiga bo'linishi ,uning oltiga bo'linishi uchun zaruriy,lekin yetarli bo'lmagan shartdir. N sonining unga bo'linishi uchun yetarli, lekin zaruriy shartdir.

SHartli hukm tarkibida asos va natija qismlari farqlanadi. SHartli hukmning «Agar » va «unda » so'zlari oralig'idagi qismi –asos, «Unda» so'zidan keyingi qismi –natija deb ataladi. «Agar yomg'ir yog'sa, unda uylarning tomi xo'l bo'ladi» hukmida «YOmgi r yog'sa » hukmi asos, «uylarning tomi xo'l bo'ladi » hukmi–natija hisoblanadi.

SHartli (**implikativ**) hukmlar «agar unda» mantiqiy bog'lamasi (\rightarrow) belgi bilan ifodalanadi. Hozirgi zamon mantiq ilmida esa (\supset) simvoli bilan belgilanadi .Bu simvollar moddiy implikatsiya belgisi deb ataladi. SHartli hukm esa implikativ hukm deb yuritiladi. Implikativ hukmning asosi –antetsedent, natijasi-konvekvent deyiladi . Implikativ hukm antetsedent –chin ,konsekvent –xato bo'lgan holatdan boshqa hamma ko'rinishlarda chin bo'ladi:

p	q	P \rightarrow q
CHin	CHin	CHin
CHin	Xato	xato
Xato	CHin	chin
Xato	Xato	chin

Ekvivalentlik hukmlari «agar va faqat agar unda» mantiqiy bog'lovchi yordamida ikki oddiy hukmning o'zaro bog'lanishidan hosil bo'ladi. Tabiiy tilda ekvivalentlik hukmi shartli hukm ko'rinishida ifodalanadi. Bunday holatlarda shartli hukmning ekvivalent hukm ekanligini aniqlash zarur bo'ladi. Agar shartli hukmning asosi natijada qayd etilgan fikr uchun zaruriy va etarli shart hisoblansa, unda bu hukm ekvivalent hukm bo'ladi. Masalan: «Agar berilgan butun son juft son bo'lsa, unda o'qituvchilik ikkiga qoldiqsiz bo'linadi » .

Ekvivalent hukmning mantiqiy bog'lovchisi (\leftrightarrow) simvoli, ya'ni (moddiy) ekvivalentlik belgisi bilan ifodalanadi. Ekvivalent hukmning chin bo'lish shartlari quyidagicha:

p	q	$p \leftrightarrow q$
CHin	CHin	CHin
CHin	Xato	Xato
Xato	CHin	Xato
Xato	Xato	CHin

Hukmlarning inkor qilinishi. Ikki hukm bir-biriga zid bo'lib, ulardan biri albatta chin, boshqasi xato bo'lsa, bu hukmlar bir birini qiluvchi hukmlar bo'ladi. Inkor qilinayotgan hukm chin bo'lsa, inkor qilinayotgan hukm xato bo'ladi. Inkor qilinayotgan hukm xato bo'lsa, inkor qilinayotgan hukm chin bo'ladi. Quyidagi hukmlar bir-birini inkor qiladi:

1. A-O Hamma o'zbek ayollari oliy ma'lumotli (xato)

Ba'zi o'zbek ayollari oliy ma'lumotli (chin)

2. E-I Hech bir inson tosh emas (chin)

ba'zi insonlar toshdir (xato)

Hukmlarni predikatning sub'ektga taalluqli emasligini ko'rsatish va hukmni xato deb ko'rsatish orqali inkor qilish mumkin. Birinchisi ichki inkor, ikkinchisi tashki inkor deyiladi.

Masalan :

Ba'zi talabalar a'lochi emas (ichki inkor)

Quyoshning Er atrofida aylanishi – noto'g'ri fikrdir (tashki inkor).

Kon'yuktiv va diz'yuntiv hukmlar inkor qilinganda ularning mantiqiy bog'lamlari almashadi va tarkibidagi oddiy hukmlar inkor qilinadi.

1. Ayiruvchi hukmni inkor qilish.

Men darsdan so'ng yo kutubxonaga ham, do'stimnikiga ham bormadim.

$\mathbf{R \vee q \equiv p \wedge q}$

2. Ayiruvchi inkor hukmni inkor qilish.

«Hunar o'rganmagan yoki ilm olmagan insonlar hayotda o'z o'rnini topmaydi». «Hunar urgangan, ilm olgan insonlar hayotda o'z o'rnini topadi». $\mathbf{R \vee q \equiv p \wedge q}$

3. Birlashtiruvchi hukmni inkor qilish.

«Halol va vijdonli odamlar axloqli bo'ladilar». «Halol bo'lmagan yoki vijdonli bo'lmagan odamlar axloqsiz bo'ladilar».

$\mathbf{R \wedge q \equiv p \vee q}$

4) Birlashtiruvchi inkor hukmni inkor qilish.

«A'lochi va jamoatchi bo'lmagan talabalar tanlovda ishtirok etmaydilar». «A'lochi va jamoatchi bo'lgan talabalar tanlovda ishtirok etadilar».

$\mathbf{R \wedge q \equiv p \vee q}$

Bu formulalar **de-Morgan** qonunlari deb ataladi.

Agar murakkab hukm tarkibida shartli hukm bo'lsa, formula unga aynan teng bo'lgan implikasiyasi bo'lmagan boshqa formulaga almashtiriladi. Masalan, «Agar bo'sh vaqtim bo'lsa, unda televizor ko'raman». «Bo'sh vaqtim bo'ldi, lekin televizor ko'rmadim».

4. Hukmlar (mulohazalar) o'rtasidagi munosabatlar

Mulohazalar (Hukmlar) ham tushunchalar kabi takkoslanadigan (umumiy subekt yoki predikatga ega bo'lgan) va taqqoslanmaydigan turlarga bo'linadi. Taqqoslanadigan mulohazalar **sig'ishadigan yoki sig'ishmaydigan** bo'ladi. Mantiqda ikki mulohaza (pvaq)dan birining chinligidan ikkinchisining xatoligi zaruriy kelib chiqadigan bo'lsa, ular o'zaro sig'ishmaydigan mulohaza (Hukm)lar deyiladi. Sig'ishmaydigan mulohaza (Hukm)lar bir vaqtda chin bo'la olmaydi. Sig'ishadigan mulohazalar aynan bir fikrni to'liq yoki qisman ifodalaydi. Sig'ishadigan mulohaza (Hukm)lar o'zaro ekvivalentlik, mantiqiy bo'ysunish va qisman mos kelish (subkontrar) munosabatida bo'ladi.

Sig'ishmaydigan hukmlar qarama-qarshilik (kontrar) va jiddiylik (kontrardiktorlik) munosabatda bo'ladi. Mulohaza (Hukm)lar o'rtasidagi munosabatlarni sxematik ifodasi " mantiqiy kvadrat" deb ataladi. Mantiqiy kvadrat mulohaza o'rtasidagi chinlik munosabatlari aniqlanadi.

Masalan, "Har bir jamiyat uz axloqiy normalariga ega". Bu A- umumiy tasdiq mulohaza (Hukm), E, I, O ko'rinishlarda quyidagicha ifodalanadi :

E.Hech bir jamiyat o'z axloqiy normalariga ega emas.

I.Ba'zi jamiyatlar o'z axloqiy normalariga ega.

O. Ba'zi jamiyatlar o'z axloqiy normalariga ega emas.

Bu hukmlar taqqoslanadigan mulohaza (hukm) lar bo'lib, ular o'rtasida chinligiga ko'ra o'ziga xos munosabatlar mavjuddir.

Sig'ishmaydigan mulohaza (Hukm)lar o'rtasida qarama-qarshilik (kontror) va zidlik (kontradiktorlik) munosabatlari bo'ladi. Qarama-qarshilik munosabati mazmuniga ko'ra turlicha bo'lgan umumiy hukmlar o'rtasida mavjud bo'lib, bu munosabatga ko'ra ularning har ikkisi bir vaqtda chin bo'la olmaydi. Bu hukmlar bir vaqtda xato bo'lishi mumkin; agar ulardan birining chinligi aniq bo'lsa, unda boshqasi albatta xato bo'ladi. YUqoridagi misollardan A- mulohaza (Hukm) chin, E- mulohaza (Hukm) xato ekanligi ma'lum bo'ladi.

Zidlik munosabati mazmuni va hajmiga ko'ra turlicha bo'lgan mulohaza (Hukm)lar o'rtasida mavjud bo'ladi .Bu mulohaza (Hukm) larning har ikkisi bir vaqtda chin ham xato ham bo'lmaydi. Ulardan biri hamma vaqt chin, boshqasi esa xato bo'ladi.YUqoridagi misollardan A- mulohaza (Hukm) chin bo'lib, O- mulohaza (Hukm) xatodir. Shuningdek, I- mulohaza (Hukm) chin, E- mulohaza (Hukm) xatodir.

Sig'ishadigan mulohaza (Hukm) lardan mazmuni bir xil, hajmi turli xil bo'lgan hukmlar o'zaro bo'ysunish munosabatida bo'ladi. Bunda umumiy mulohaza (Hukm) lar bo'ysundiruvchi, juz'iy mulohaza (Hukm) lar bo'ysunuvchi bo'ladi. Bo'ysunish munosabatida umumiy hukmlar chin bo'lsa, ularga bo'ysunuvchi juz'iy hukmlar ham chin bo'ladi lekin juz'iy hukmlar chin bo'lganda, umumiy hukmlar noaniq (chin va xato) bo'ladi.

YUqoridagi misoldan A – mulohaza (Hukm) chin bo'lgani uchun unga bo'ysunuvchi bir I- mulohaza (Hukm) ham chin bo'ladi. Agar umumiy mulohaza (Hukm) lar xato bo'lsa ularga bo'ysunuvchi juz'iy hukmlar noaniq (chin yoki xato) bo'ladi. Misollarimizda E – mulohaza (Hukm) xato bo'lgani uchun, A – mulohaza (Hukm) ham xato bo'ladi. Ba'zi holatlarda umumiy hukmlar xato bo'lsa, juz'iy hukmlar chin bo'ladi.

Qisman moslik (subkontrar) munosabati mazmuni har xil bo'lgan juz'iy hukmlar o'rtasida mavjud bo'ladi. Bu hukmlar bir vaqtda chin bo'lishi mumkin, lekin har ikkisi bir vaqtda xato bo'lmaydi. Agar ulardan birining xatoligi aniq bo'lsa, unda boshqasi albatta chin bo'ladi. YUqoridagi misolimizda O mulohaza (Hukm) ning xatoligi aniq bo'lgani uchun, I- mulohaza (Hukm) chindir.

Ekvivalentlik munosabatidagi hukmlar hamma vaqt chin bo'ladi, chunki ularda aynan bir fikr turli shaklda ifodalanadi. Masalan, «A.Oripov – O'zbekiston Respublikasi madhiyasi muallifi» «A.Oripov – O'zbekiston Kahramoni" mulohaza (Hukm)lari o'zaro ekvivalentdir, ya'ni ular bir xil sub'ektga, lekin har xil predikatga ega bo'lgan mulohaza (Hukm) lardir.

Hukmlarning chinligiga ko'ra munosabatini ifodalovchi yuqorida ko'rsatilgan qonuniyatlar bilishda katta ahamiyatga ega .

5. Hukmlarning modalligi

Atributiv va munosabat hukmlari, Shuningdek ulardan tashqil topgan murakkab hukmlar assertorik (lot.assero-tasdiqlayman) yoki voqelik hukmlari deyiladi. Ularda predikatda ko'rsatilgan belgining sub'ektda bor yoki yo'qligi haqida fikr bildiriladi. Modal hukmlarda esa predikatning sub'ektga tegishli yoki tegishli emasligi haqidagi fikr qat'iy, kuchli (zaruriy) yoki qat'iy bo'lmagan, kuchsiz (ehtimol) tasdiq yoki inkor shaklida bayon qilinadi. Boshqacha aytganda, modal hukmlarda sub'ekt va predikatning o'zaro munosabati haqida muayyan nuqtai nazardan fikr bildiriladi.

Masalan, «Inson abadiy yashamaydi» assertorik hukmi «Inson abadiy yashashi mumkin emas», deb bayon qilinganda modal hukm ko‘rinishda ifodalanadi. Bu hukm avvalgisiga nisbatan kuchli «Ukam ingliz tilini o‘rganadi» hukmiga nisbatan «Ukam ingliz tilini o‘rganishi mumkin» hukmi kuchsiz tasdiq hukm hisoblanadi. Bu hukmlardan birinchisi assertorik, ikkinchisi modal hukmdir.

Assertorik (voqelik) hukmlarga shart, zarur, mumkin kabi modal tushunchalar (operatorlar) ni kiritish orqali modal hukmlar hosil qilinadi. Modal operator M harfi bilan belgilanadi. Modal hukmlarining formulasi quyidagicha yoziladi:

Assertorikhukmlar		Modalhukmlar
	S-P	M(S-P)
Oddiyhukmlar	S-Pemas	M(S-Pemas)
Murakkabhukmlar	P[^] q	M(p[^] q)
	PVq	M(pVq)
	PVq	M(pVq)
	P→ q	M(p→ q)
	p≡ q	M(p≡ q)

Modal hukmlar modal mantiqda o‘rganiladi. Unda aletik (zaruriy), epistemik (eng ishonchli bilim), deontik (majburiylik), aksiologik(baxolash) va vaqt modalligini ifodalovchi hukmlar taxlil qilingan.

Biz bulardan aletik modal hukmlarini ko‘ribl chiqamiz. Aletik modal hukmlar sub’ekt va predikat o‘rtasidagi ikki turli aloqadorlikni o‘z ichiga oladi: zaruriy va problematik (imkoniy).

Modal hukmlarini ifodalash uchun turli modal operatorlardan foydalaniladi.

«A»-A zaruriydir.

«∇ A»- A tasodifiydir.

«◇A »- A bo‘lishi mumkin.

«¬ A»-A bo‘lishi mumkin emas.

Ba’zan «Lp»-p zaruriydir, «Mr»-r bo‘lishi mukiin belgilaridan ham foydalanadi.

Zaruriy modal hukmlar turli fanlarning, Shu jumladan mantiq qonunlarini va ulardan kelib chiqadigan holatlarni ifodalaydi. Masalan, «Butun bo‘lakdan katta», «Har bir fuqaro qonunlarga bo‘ysunishi shart».

Qonunlarga zid bo‘lgan, ularni va ulardan kelib chiqadigan turli holatlarni inkor etuvchi hukmlar noimkoniyliigi hukmlari deyiladi. Masalan, «Simob daryosining bo‘lishi mumkin emas».

Qonunlar va ulardan kelib chiqadigan holatlarga zid bo‘lmagan, qonunlarni ham, ularni oqibatlarini ham ifodalamaydigan hukmlar tasodifiy hukmlar deyiladi. Masalan, ba’zi hududlarda dengiz ko‘pigining toshqini bo‘lishi tasodifiydir.

Imkoniylik hukmlari deb, qonunlar va ularning oqibatlariga zid bo‘lmagan fikrlarga aytiladi. Masalan, «Marsda hayot bo‘lishi mumkin».

Modal tushunchalarning umumiy harakteri ulardan hamma sohalarda foydalanish imkonini beradi. Bevosita (to‘g‘ri) javob - savolda ko‘rsatilgan no‘malum sohaga taalluqli mulohazalar to‘plamidan iborat. Masalan, "O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Asosiy qonuni) qachon qabul qilingan?" degan savolga "O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Asosiy qonuni) 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan", deb berilgan javob bevosita javob hisoblanadi.

Bilvosita javob-javobni qidirish sohasidan chetga chiqib, qo‘shimcha ma’lumotlarga murojaat qilish asosida hosil qilinadigan mulohazalar to‘plamidan iborat bo‘lib, bevosita (to‘g‘ri) javob ulardan xulosa chiqarish yo‘li bilan hosil qilinadi. Masalan, " Mantiq falsafiy fanmi?" degan savolga "Mantiq tafakkurning shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan" deb beriladigan javob bilvosita javob bo‘ladi.

To‘liq va to‘liqsiz javoblar javobda beriladigan ma’lumotlar miqdori bo‘yicha farq qilinadi. To‘liq javob-o‘zida savolning barcha elementlari (kislmlari) haqida ma’lumotlarni mujassamlashtirgan mulohazalar to‘plamidir, "O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasini kim yozgan?" degan savolga "O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi matnini A.Oripov yozgan, uning musiqasini

esa, M.Burxonov yozgan" deb berilgan javob to'liq javob bo'ladi. To'liqsiz javob-savolni tashkil etuvchi elementlarning bir qismi haqidagina ma'lumotni ifoda etgan mulohazalardan iborat: Masalan, "Jamiyatni demokratlashtirishning mohiyati nimada?" deb quyilgan savolga "Jamiyatni demokratlashtirish xalqning davlatni boshqarishda ishtirok etishini taqozo etadi", deb berilgan javob to'liqsiz bo'ladi, chunki unda jamiyatni demokratlashtirishning boshqa mezonlari haqida ma'lumotlar yo'q.

Mantiqiy qiymati bo'yicha, ya'ni borliqqa munosabatiga ko'ra chin va xato javoblar farq qilinishi mumkin. Agar javobda ifodalangan fikr-mulohazalar borliqqa muvofiq kelsa, uni adekvat holda aks ettirsa, u chin javob, va aksincha, borliqqa muvofiq kelmasa, adekvat tarzda aks ettirmasa, bu xato **javob** bo'ladi. Masalan, "Tib qonunlari" asarining muallifi kim?" deb berilgan savolga "Tib qonunlari" asarining muallifi Ibn Sinodir", deb berilgan javob - chin, "Tib qonunlari" asarining muallifi Ar-Roziydir", deb berilgan javob esa, xato hisoblanadi.

Grammatik shakliga ko'ra javoblar qisqa yoki batafsil bo'ladi. **Qiska javob** "xa" yoki "yo'q" tarzida beriladigan tasdiq yoki inkor shaklidagi bitta murakkab so'zdan iborat. **Batafsil javob** savolning har bir elementi takrorlanadigan mulohazadir. Masalan, "Muhammad payg'ambar tarixiy shaxsmi?" degan savolga "Ha" deb berilgan javob-qisqa javob, "Ha, Muhammad payg'ambar tarixiy shaxs" deb berilgan javob - batafsil javob bo'ladi.

Javobning aniq yoki noaniq bo'lishi savolning sifatiga, uning mantiqiy strukturasi bog'lik. Ma'lumki, savol va javob mantiqan bog'langan bo'ladi, ya'ni javobning mazmuni qo'yilgan savolning sifatiga bog'lik. Ana Shuning uchun ham baxs yuritish jarayonida "savoliga yasha javob" degan qoida amal qiladi. Noaniq, ko'p ma'noli savollarga aniq javob olish qiyin.

Aniq javob - mantiqan to'g'ri qo'yilgan savolga bildiriladigan mulohazadan iborat bo'lib, unda ishlatilayotgan tushunchalar, so'zlarning mazmuni va ma'nosi konkret va ravshan bo'ladi. **Noaniq javobni** ifoda etuvchi mulohazalar ikki xil ma'noli tushunchalar, so'zlarni ishlatish natijasida hosil bo'ladi. U ko'pincha sofizmlarda uchraydi. Masalan, "Uyum" sofizmida sofistning "Agar qum uyumidan bir dona qum olib tashlansa, uyum saqlanadimi?" degan savoliga "Ha" deb javob berishadi. Uning "Yana bir qum donasini olib tashlasak-chi? Unda ham qum uyumi saqlanib qoladimi?" degan navbatdagi savoliga ham "Ha" javobi beriladi. Bu holda, ya'ni tasdiqlovchi javob birorta ham qum donasi qolguncha berilaveradi. Bu yerda mantiqiy xato "Uyum" tushunchasi mazmunining noaniqligidan kelib chiqadi. Mazkur tushuncha faqat o'zining ma'lum bir miqdordagi qumlar to'plamini ifoda qilishi bilangina emas, ya'ni o'zining hajmiga ega bo'lishi bilangina emas, balki sifatii tavsifiga: shakliga, ko'lamiga va Shu kabilarga ham, ya'ni mazmuniga ham ega. Sofist esa urg'uni uning miqdoriga berayapti. Ana Shuning uchun ham javob oxir-oqibatda xato bo'lib chiqadi.

Beriladigan javob to'g'ri bo'lishi uchun ma'lum bir metodologik talablarga rioya qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1. Javob aniq, ravshan va iloji boricha ixcham bo'lishi shart.
2. Javob mantiqan ziddiyasiz bo'lishi zarur.
3. Javob yetarli darajada asoslangan bo'lishi kerak.
4. Javob savoldagi noaniqlikni kamaytirishi, iloji boricha to'la bo'lishi zarur.

5. Norma va hukm.

Norma (me'yoriy qoida) amalga oshirilishi zarur bo'lgan yoki istisno qilinadigan xatti-harakatlarni bildiradi. Ularning talablariga rioya qilish kundalik turmushimizda hamda bilish jarayonida ko'zlangan maqsadga erishishimizga imkon beradi. Masalan, "*Ta'rif teng hajmli bo'lishi kerak*", degan qoidaga rioya qilish tushunchaga beriladigan ta'rifning mantiqan to'g'ri bo'lishini ta'minlaydigan shartlardan biri hisoblanadi. Agar bu qoida talabi buzilsa, tushunchaga beriladigan ta'rif haddan tashqari keng(masalan, "Fan-bilimlar sistemasi") yoki haddan tashqari tor (masalan, "Fan-goyalarda ifoda etilgan bilimlar sistemasi") bo'lib qoladi.

Gapda ifodalangan normalar hukmni (mulohazani) ifoda qilishi ham, qilmasligi ham mumkin. Masalan, "Urushni targ'ib qilish qat'iy man qilinadi", degan gap normativ fikr, hukmni

(mulohazani) ifoda etmaydi. "Saidov O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida mehnat qilish huquqiga ega", degan fikr esa norma (me'yoriy qoida) haqidagi hukm (mulohaza) hisoblanadi; bunda norma "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarimehnat qilish huquqiga ega", degan fikrdan iborat"); Shuning uchun ham u mantiqiy qiymatga ega, ya'ni chin fikrni ifoda etadi. Demak, norma haqidagi hukmlar (normativ hukmlar) boshqa hukmlar singari mantiqiy qiymatga ega, ya'ni chin yoki xato fikrni ifoda etadilar.

Normalar ilmiy bilishda qoidalarni, metodlarni, huquqiy sohada huquqiy normativ hujjatlarni (masalan, qonunlarni, kodekslarni, buyruqlarni va Shu kabilar), axloqda-odob normalarini va boshqa sohalardagi normativ fikrlarni ifoda qiladilar. Ularning bilishdagi va amaliyotdagi ahamiyati ana Shu bilan belgilanadi.

Tarkrorlash uchun savollar

1. Mulohaza (xukm) deganda nimani tuShundingiz?
2. Oddiy xukmni izohlab bering.
3. Murakkab xukmlarning moxiyatini tuShuntiring
4. Xukmlar o'rtasida qanday munosabatlar mavjud
5. Modal xukmlarni izohlab bering.
6. Xukmlar modalliliga ko'ra qanday turlarga bo'linadi.

2.4 – Mavzu. Xulosa chiqarish.

Reja:

1. Xulosa chiqarishning mohiyati
2. Deduktiv xulosa chiqarish
3. Induktiv xulosa chiqarish
4. Analogiya

1.Xulosa chiqarishning mohiyati

Voqelikni bilish jarayonida inson Yangi bilimlarga ega bo'ladi. Bu bilimlar abstrakt tafakkur yordamida, mavjud bilimlarga asoslangan holda vujudga keladi. Bunday bilimlarni hosil qilish ***mantiq ilmida xulosa chiqarish***, deb ataladi.

Xulosa chiqarish deb bir va undan ortiq, chin mulohazalardan ma'lum qoidalar yordamida Yangi bilimlarni keltirib chiqarishdan iborat bo'lgan tafakkur shakliga aytiladi.

Xulosa chiqarish jarayoni asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o'tishdan tashkil topadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalam bor, asoslar chin mulohazalar bo'lishi, o'zaro mantiqan bog'lanishi kerak.

Masalan, «*Aristotel-mantiq fanining asoschisi*» va «*Platon yunon faylasufidir*» degan ikki chin mulohazadan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki bu mulohazalar o'rtasida mantiqiy aloqadorlik yo'q.

Xulosa asoslari va xulosa ham o'zaro mantiqan bog'langan bo'lishi shart. Bunday aloqadorlikning zarurligi xulosa chiqarish qoidalarida qayd qilgan bo'ladi. Bu qoidalar buzilsa, to'g'ri xulosa chiqmaydi. Masalan «*Talaba A — a'lochi*» degan mulohazadan «*Talaba A — odobli*», deb xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasiga ko'ra, aniqrog'i, xulosa chiqarish qoidalarining qatiyligiga ko'ra hamda xulosa asoslarining sonigida va fikrning harakat yo'nalishiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi.

Mazkur klassifikatsiyada xulosa chiqarishni fikrning harakat yo'nalishi bo'yicha turlarga ajratish nisbatan mukammalroq bo'lib, u xulosa chiqarishning boshqa turlari haqida ham ma'lumot berish imkonini yaratadi. Xususan, deduktiv xulosa chiqarish zaruriy xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish (to'liq induksiyaning xisobga olmaganda) va analogiya ehtimoliy xulosa chiqarish,

deb olib qaralishi, bevosita xulosa chiqarish esa deduktiv xulosa chiqarishning bir turi sifatida o'rg anilishi mumkin.

2. Deduktiv xulosa chiqarish

Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati unda umumiy bilimdan juz'iy bilimga o'tishning mantiqan zaruriy harakterga egaligidir. Uning turlaridan biri bevosita xulosa chiqarishdir.

Faqat birgina mulohazaga asoslangan holda Yangi bilimlarning hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish simvolik mantiqda quyidagicha ifodalanadi: $X_{SP} > Y_{SP}$ bunda X va Y oddiy qat'iy mulohazalarni (A, E, I, O), S va R lar esa mulohazalarning sub'ekti va predikatini ifodalaydi. X_{SR} - xulosa asosi yoki **antesedent**, Y_{SP} - xulosa yoki **konsekvent** deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish jarayonida mulohazaning shaklini o'zgartirish orqali Yangi bilim hosil qilinadi. Bunda asos mulohazaning strukturasi, ya'ni sub'ekt va predikat munosabatlarining miqdor va sifat tavsiflari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bevosita xulosa chiqarishning quyidagi mantiqiy usullari mavjud:

1. Aylantirish (lot.-obversio) - *Shunday mantiqiy usulki, unda berilgan mulohazaning miqdorini saqlagan holda, sifatini o'zgartirish bilan Yangi mulohaza hosil qilinadi.* Bu usul bilan xulosa chiqarilganda qo'sh inkor sodir bo'ladi, ya'ni avval asosning predikati, keyin bog'lovchisi inkor etiladi. Buni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin: **S-PG'S-P**

Inkor qilish jarayonida inkor yuklamalaridan (*-ma; -siz; -mac*) yoki inkor qilinayotgan tushunchaga zid bo'lgan tushunchalardan foydalaniladi. Oddiy qat'iy mulohazalarning hammasidan aylantirish usuli bilan xulosa chiqariladi. Xulosa asosi bo'lgan mulohaza xulosada quyidagicha ifodalanadi:

		Xulosa asosi		Xulosa
1	A	Hamma S-P	E	Hech bir S-P mas emas
2	E	Hech bir S-P emas	A	Hamma S emas R dir
3	I	Ba'zi S-P	O	Ba'zi S-P siz emas
4	O	Ba'zi S-Pemas	I	Ba'zi S emas-R dir

Aylantirishda $A-E$ ga, $E-A$ ga, $I-O$ ga, $O-I$ ga o'zgaradi. Masalan:

- A.** Hamma ilmiy qonunlarob'ektiv tavsifga ega.
E. Hech bir ilmiy qonun sub'ektiv tavsifga ega emas.
- E.** Hech bir saxiy hasis emas.
A. Hamma saxiy bo'lmaganlar hasisdir.
- I.** Ba'zi tushunchalar mazmunan konkret bo'ladi
O. Ba'zi tushunchalar mazmunan abstrakt bo'lmaydi.
- O.** Ba'zi mulohazalar murakkab emas.
I. Ba'zi mulohazalar soddadir.

Demak, aylantirish usul bilan xulosa chiqarilganda *«biror nimaning qo'sh inkori uning tasdig'iga tengdir»*, degan qoidaga asoslanadi.

P. Almashtirish (lot.-conversio) - Shunday mantiqiy xulosa chiqarish usuliki, unda xulosa berilgan mulohazadagi sub'ekt va predikatning o'rnini almashtirish orqali keltirib chiqariladi.

		Xulosa asosi		Xulosa	Almashtirish turi
1	A	Hamma S-P	A	Hamma P- S	Sof almashtirish
2	E	Hech bir S-P emas	E	Hech bir P-S emas	Sof almashtirish
3	I	Ba'zi S-P	I	Ba'zi P-S	Sof almashtirish
4	A	Hamma S-P	I	Ba'zi P-S	Toraytirilgan almashtirish
5	I	Ba'zi S-P	A	Hamma P-S	Kengaytirilgan almashtirish

Almashtirishda berilgan mulohazadagi terminlar hajmi e'tiborga olinishi shart. Agar berilgan mulohazadagi terminlar hajmiga e'tibor berilmasa, xulosa noto'g'ri bo'lishi mumkin: Masalan,

Hamma insonlar tirik mavjudotdirlar

Hamma tirik mavjudotlar insonlardir

Xulosa xato, chunki berilgan mulohazada **R** - (*tirik mavjudotlar*) to'liq hajmda olinmagan, xulosada esa to'liq hajmda olingan. YUqoridagi asosdan «*Ba'zi tirik mavjudotlar insonlardir*» deb chiqarilgan xulosa to'g'ri bo'ladi. Shunga ko'ra almashtirishning uch turi farqlanadi: **toraytirilgan**, **kengaytirilgan** va **sof** almashtirish.

YUqoridagi sxemani misollar bilan ko'rib chiqamiz.

1. *A. Hamma tirik mavjudotlar sezish xususiyatiga ega.*
A. Sezish xususiyatiga ega bo'lganlarning hammasi tirik mavjudotdir.
2. *E. Hech bir hasis saxiy emas.*
E. Hech bir saxiy hasis emas.
3. *I. Ba'zi faylasuflar tabiatshunosdir*
I. Ba'zi tabiatshunoslar faylasuflardir.
4. *A. Hamma vrachlar oliy ma'lumotlidir.*
A. Ba'zi oliy ma'lumotlilar vrachlardir.
5. *I. Ba'zi odamlar shoirdir.*
A. Hamma shoirlar odamdir.

Juz'iy inkor mulohazadan (**O**) almashtirish usuli bilan xulosa chiqarib bo'lmaydi, chunki bu mulohazaning predikati to'liq hajmda olingan. Demak, u xulosada ham to'liq hajmda olinishi kerak, ya'ni xulosa umumiy inkor mulohaza (**E**) bo'lishi kerak. U holda xulosaning predikati ham to'liq hajmda olinishi kerak bo'ladi, bu esa mumkin emas, chunki u asosning sub'ektida to'liq hajmda olinmagan.

Masalan:

O. Ba'zi faylasuflar mantiqshunos emas.

E. Hech bir mantiqshunos faylasuf emas.

YOki

O. Ba'zi mantiqshunoslar faylasuf emas.

Har ikki holatda ham xulosa noto'g'ridir.

Demak, almashtirish usuli qo'llanilganda mulohazadagi su'bekt va predikat hajmi aniqlanadi va shu asosda mulohazadagi terminlarning o'rni almashtirilib, xulosa chiqariladi. Bu usul, ayniqsa, tushunchaga berilgan ta'riflarning to'g'riligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

III. Predikatga qarama-qarshi qo'yish (lot.-contrapositio) bevosita xulosa chiqarishning mantiqiy usullaridan biri bo'lib, bu usul qo'llanilganda berilgan mulohaza avval aylantiriladi, so'ngra almashtiriladi. Natijada hosil qilingan mulohazaning (xulosaning) sub'ekti asos mulohaza predikatiga zid, predikati esa uning sub'ektiga mos bo'ladi: ***S-PG'P-S***

Bunda xulosada **S** ning inkor shaklida bo'lishi xulosa bog'lovchisining inkor etilishi natijasidir. Predikatda qarama-qarshi qo'yishda **A-E** ga, **E-I** ga, **O-I** ga o'zgaradi.

Turli mulohazalardan bu usul vositasida xulosa chiqarish quyidagi sxemada ko'rsatilgan:

		Xulosa asosi	Xulosa
1	A	Hamma S-P	Hech bir P emas S emas
2	E	Hech bir S-P emas	Ba'zi Pemas S dir
3	O	Ba'zi S-P	Ba'zi Pemas S dir

Masalan, 1. *A. Hamma hukmlar darak gap orqali ifodalanadi.*

E. Darak gap orqali ifodalanmagan fikr hukm emas.

2. *E. Hech bir vatanparvar o'z Vataniga xiyonat qilmaydi.*

I. Ba'zi Vataniga xiyonat qilmaydiganlar vatanparvardir.

3. *O. Ba'zi talabalar faylasuf emas.*

I. Ba'zi faylasuf bo'lmaganlar talabadir.

Juz'iy inkor mulohazadan predikatda qarama-qarshi qo'yish usuli bilan xulosa chiqarilganda, bu mulohazadan almashtirish usuli bilan xulosa chiqarib bo'lmashligini e'tiborga olish zarur. Shuning uchun **O** mulohazadan:

«Ba'zi S-P emas» shaklida emas, balki «Ba'zi S emas—Rdir».

«Ba'zi P-S emas», «Ba'zi R emas S dir» shaklida xulosa chiqariladi.

Juz'iy tasdiq (**I**) mulohazadan predikatda qarama-qarshi qo'yish usuli bilan xulosa chiqarib bo'lmaydi. CHunki, «**Ba'zi S-R mulohazani aylantirsak «Ba'zi S-R mos emas»** ya'ni juz'iy inkor hukm kelib chiqadi. Undan almashtirish orqali xulosa chiqarib bo'lmaydi.

IV. Mantiqiy kvadrat orqali xulosa chiqarish.

Bunda oddiy qat'iy mulohazalarning o'zaro munosabatlarini (qarang: *mantiqiy kvadrat*) e'tiborga olgan holda, mulohazalardan birining chin yoki xatoligi haqida xulosa chiqariladi. Bu xulosalar mulohazalar o'rtasidagi zidlik, qarama-qarshilik, qisman moslik va bo'ysinish munosabatlariga asoslanadi.

Zidlik (kontradiktorlik) munosabatlariga asoslangan holda xulosa chiqarish. Ma'lumki, zidlik munosabati **A-O** va **E-I** mulohazalari o'rtasida mavjud bo'lib, *istisno qonuniga* bo'ysunadi. Bu munosabatga ko'ra mulohazalardan biri chin bo'lsa boshqasi xato bo'ladi va aksincha, biri xato bo'lsa, boshqasi chin bo'ladi. xulosalar quyidagi tuzilma bo'yicha tuziladi:

A → O; E → I; O → A; I → E

Masalan: A. Hamma insonlar yashash xuquqiga ega.

O. Ba'zi insonlar yashash xuquqiga ega emas.

I. Ba'zi faylasuflar davlat arbobi.

E. Hech bir faylasuf davlat arbobi emas.

Bu misolda asos mulohazaning chinligidan xulosaning xato ekanligi (uchinchisi istisno qonuni asosida) kelib chiqadi.

Qarama-qarshilik (kontrarlik) munosabatlariga asoslangan holda chiqarish. Qarama-qarshilik munosabati **A** va **E** mulohazalar o'rtasida mavjud bo'lib, ziddiyat qonuniga bo'ysunadi. Bu munosabatdagi mulohazalardan birining chinligidan boshqasining xato ekanligi to'g'risida xulosa chiqariladi. Lekin birining xatoligi boshqasining chinligini asoslab bermaydi, chunki har ikki mulohaza ham xato bo'lishi mumkin. Masalan, "**Hamma insonlar yaxshi yashashini xohlaydilar**" degan umumiy tasdiq (**A**) mulohazaning chinligidan "**Hech bir inson yaxshi yashashini xohlaydi**" degan umumiy inkor (**E**) mulohazaning xatoligi kelib chiqadi.

A. Hamma tushunchalar konkret bo'ladi.

E. Hech bir tushuncha konkret emas.

Bu misolda asos mulohaza va xulosa xato. Demak, qarama-qarshilik munosabatidan **A → E**, **E → A** ko'rinishida xulosa chiqarish mumkin.

Qisman moslik (subkontrarlik) munosabatiga asoslangan holda xulosa chiqarish. Bu munosabat juz'iy tasdiq (**I**) va juz'iy inkor (**O**) mulohazalar o'rtasida mavjud bo'ladi. Bu mulohazalarning har ikkisi bir vaqtda chin bo'lishi mumkin, lekin bir vaqtda xato bo'lmaydi. Ulardan birining xatoligi aniq bo'lsa, ikkinchisi chin bo'ladi. Qisman moslik munosabati asosida xulosa chiqarish **I → O; O → I; I - O; O - I**; ko'rinishida bo'ladi.

Masalan:

O. Ba'zi ilmiy qonunlar ob'ektiv xususiyatga ega emas.

I. Ba'zi ilmiy qonunlar ob'ektiv xususiyatga ega.

Bunda asos mulohaza xato bo'lganligi uchun xulosa chin bo'ladi.

I. Ba'zi faylasuflar davlat arbobi.

O. Ba'zi faylasuflar davlat arbobi emas.

Bu misolda asos mulohaza ham, xulosa ham chin fikrdir. Ba'zan asos mulohaza chin bo'lganda xulosaning chinligini ham, xatoligini ham aniqlab bo'lmaydi.

Bo'ysinish munosabatiga asoslangan holda xulosa chiqarish. Bu munosabat sifatlari bir xil bo'lgan umumiy va juz'iy mulohazalar (**A** va **I**; **E** va **O**) o'rtasida mavjud bo'ladi. Umumiy bo'ysindiruvchi mulohazalar chin bo'lsa, juz'iy – bo'ysunuvchi mulohazalar ham chin bo'ladi. Lekin bo'ysunuvchi-juz'iy mulohazalarning chinligidan bo'ysindiruvchi – umumiy

mulohazalarning chinligi haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki bunday holda umumiy mulohazalar chin yoki xato bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, bo'ysunish munosabatiga asoslangan xulosa chiqarish quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

A → I; E → O

Masalan:

A. Hamma mustaqil davlatlar BMT ga a'zo.

I. Ba'zi mustaqil davlatlar BMT ga a'zo.

A – mulohaza chin bo'lgani uchun **I** – mulohaza ham chin.

O. Ba'zi o'zbek ayollari oliy ma'lumotga ega emas.

E. Hech bir o'zbek ayoli oliy ma'lumotga ega emas.

Bu misolda **O** – mulohaza chin bo'lsa ham, **E** – mulohaza xato.

Yuqoridagi munosabatlarni umumlashtirgan holda, asos mulohaza va xulosaning chinlik darajasiga ko'ra, quyidagi holatlarni ko'rsatish mumkin.

1. Asos mulohaza va xulosa chin bo'lgan;

A – I, E – I.

2. Asos mulohaza chin va xulosa xato bo'lgan:

A → O; E → I; O → A; I → E A → E; E → A;

3. Asos mulohaza xato va xulosa chin bo'lgan:

I → O; O → I.

Mantiq kvadrat orqali xulosa chiqarilganda qarama-qarshilik munosabatidagi mulohazalardan biri xato bo'lganda, qisman moslik munosabatidagi mulohazalardan biri chin bo'lganda va bo'ysunish munosabatida juz'iy mulohazalar chin bo'lganda ulardan chiqarilgan xulosa noaniq bo'ladi.

Bevosita xulosa chiqarish usullari bilishda mavjud fikrni aniqlab olishga, uning mohiyatini to'g'ri tushunishga, Shuningdek bir fikrni turli xil ko'rinishda bayon qilishga, Yangi bilimlar hosil qilishga imkoniyat beradi.

Oddiy qat'iy sillogizm

Ma'lumki, deduktiv xulosa chiqarish aslida sillogizm shaklida bo'ladi. **Sillogizm** – *qo'shib xisoblash, degan ma'noni anglatadi*. Bu termindan mantiqda, odatda, deduktiv xulosa chiqarishning ko'proq ishlatiladigan turi xisoblangan oddiy qat'iy sillogizmni ifoda qilish uchun foydalaniladi. **Sillogizm** xulosa chiqarishning Shunday shakli, unda o'zaro mantiqiy bog'langan ikki qat'iy mulohazadan uchinchi – Yangi qat'iy mulohaza zaruriy tarzda kelib chiqadi. Bunda dastlabki mulohazalardan biri, albatta yo umumiy tasdiq, yoki umumiy inkor mulohaza bo'ladi. Hosil qilgan Yangi mulohaza dastlabki mulohazalardan umumiyroq bo'lmaydi. Shunga ko'ra sillogizmni umumiylikka asoslangan xulosa chiqarish, deb atasa bo'ladi.

Masalan, quyidagi mulohazalar berilgan bo'lsin:

Hech bir hasis saxiy emas.

Ba'zi boylar hasisdir.

Bu mulohazalardan zaruriy ravishda - «**Ba'zi boylar saxiy emas**», degan uchinchi mulohaza kelib chiqadi. Sillogizmning tarkibi oddiy qat'iy mulohazalardan tashkil topgani uchun u oddiy qat'iy sillogizm deyiladi.


Sillogizmning tarkibi xulosa asoslari (**praemissae**) va xulosa (**conclusio**) dan tashkil topgan. Xulosa asoslari va xulosadagi tushunchalar **terminlar** deb ataladi. Xulosaning **mantiqiy egasi** — **S** – **kichik termin (terminus minor)**, **mantiqiy kesimi** — **R** – **katta termin (terminus major)** deb ataladi. Xulosa asoslari uchun umumiy bo'lgan, lekin xulosada uchramaydigan tushuncha — **M** - (**terminus medius**) **o'rta termin** deb ataladi. Asoslarda katta terminni O'z ichiga olgan mulohaza katta asos, kichik terminni o'z ichiga olgan mulohaza kichik asos deb ataladi.

Terminlarning katta yoki kichik deb atalishi ular ifodalagan tushunchalarning hajmiga bog'liq. Terminlar o'rtasidagi munosabatni doiralar yordamida quyidagicha ifodalash mumkin.

1. **S** - kichik termin.

2. **M** - O'rta termin.

3. **R** - katta termin.




O'рта termin katta va kichik terminni mantiqiy bog'lovchi element xisoblanadi.

Sillogizm aksiomasi

Aksiomalar – *isbotsizchin deb qabul qilgan nazariy mulohazalar bo'lib*, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Sillogizmning aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi. Sillogizm aksiomasini terminlarning hajmiga yoki mazmuniga ko'ra, ya'ni **atributiv** ta'riflash mumkin.

Sillogizm xulosasining asoslardan zaruriy keltirib chiqarilishi quyidagi qoidaga asoslanadi: «Agar bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumning ichida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumning ichida joylashgan bo'ladi» yoki «Bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumdan tashqarida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumdan tashqarida joylashgan bo'ladi». Bu qoidani quyidagi sxemalar yordamida yaqqol ifodalash mumkin.



Bu qoidalar sillogizm aksiomasining mohiyatini terminlarning hajmi munosabatlari asosida tushuntirib beradi. Sillogizm aksiomaning mohiyati quyidagicha: buyum va hodisalarning sinfi to'g'risida tasdiqlab yoki inkor etib bayon qilingan fikr Shu sinfi ichiga kiruvchi barcha buyum va hodisalarning har biri yoki ayrim qismiga ham taaluqli fikr xisoblanadi.

Masalan:

Tafakkur shakllari ob'ektiv xususiyatga ega.

Tushuncha tafakkur shaklidir.

Tushuncha ob'ektiv xususiyatga ega.

Sillogizm aksiomasini atributiv ifodalaganda predmet bilan uning belgisi o'rtasidagi munosabatga asoslaniladi: biror buyum, hodisa belgisining belgisi, Shu buyum hodisaning belgisidir; buyum, hodisa belgisiga zid bo'lgan narsalar buyum, hodisaning o'ziga ham ziddir.

Sillogizm aksiomalarida fikr shakli va mazmuni o'zaro uzluksiz, ob'ektiv bog'langan bir butunning ayrim tomonlarini ifodalaydi. Bu bir tomondan, hamma umumiylikka xususiylik, juz'iylik va yakkalik xos ekanligini va har bir yakkalik, juz'iylik, xususiylik umumiylik xislatiga ega bo'lishini ifodalasa, ikkinchi tomondan, buyum va belgining o'zaro uzviy bog'langanligini, ya'ni buyumlar jinsi ayrim o'ziga xos belgiga ega bo'lsa, albatta, bu belgi Shu jinsdagi hamma buyumlar uchun ham xos belgi bo'lishini ifodalaydi. Bular esa o'z navbatida yakkalik va umumiylik o'rtasidagi, miqdor va sifat o'rtasidagi dialektik aloqadorlikning tafakkur jarayonida o'ziga xos namoyon bo'lishidir.

Sillogizmning umumiy qoidalari

Xulosa asoslarining chin bo'lishi xulosaning chin bo'lishi uchun yetarli emas. Xulosa chin bo'lishi uchun yana ma'lum qoidalarga amal qilish ham zarur. Bu sillogizmning umumiy qoidalari deb ataladi. Ular sillogizmning terminlari va asoslariga taalluqli bo'lgan qoidalar bo'lib, quyidagilardan iborat:

1. Sillogizmda uchta termin: katta, kichik va o'рта terminlar bo'lishi kerak. Ma'lumki, sillogizmning xulosasi katta va kichik terminlarning o'рта terminga bo'lgan munosabatiga asoslanadi; Shu sababdan ham terminlar soni uchtdan kam yoki ortiq bo'lmasligi talab qilinadi. Agar terminlar soni uchtdan kam bo'lsa, xulosasi Yangi bilim bermaydi.

Masalan:

Hamma notiqalar so'z san'atini chuqur egallagandir.

So'z san'atini chuqur egallaganlar orasida notiqalar ham bor.

Bu ikki mulohazadan xulosa chiqarib bo'lmaydi, chunki terminlar soni ikkita. Terminlar sonining uchtadan ortib ketishi ayniyat qonuni talablarining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, **terminlarning to'rtlanishi (quarternio terminommi)**, deb ataluvchi xatoga olib keladi:

Davlat - iqtisodiy munosabatlarining siyosiy ifodasidir.

Har bir inson uchun sixat-salomatlik eng katta davlatdir.

Bu mulohazalarda «davlat» tushunchasining ikki xil ma'noda qo'llanilishi chetki terminlarning o'zaro mantiqiy bog'lanishiga imkon bermaydi. Terminlarning uchtadan ortiq bo'lishi asoslar o'rtasidagi mantiqiy aloqadorlikning uzilishiga ham sabab bo'ladi:

Hamma notiqqlar-Shuxratparast.

Sitseron-davlat arbobi bo'lgan.

Bu ikki mulohazadan xulosa chiqarib bo'lmaydi, chunki bu mulohazalar o'zaro mantiqiy bog'lanmagan.

2. O'rta termin hech bo'lmaganda asoslardan birida to'la hajmda olinishi kerak.

Agar o'rta termin hech bir asosda to'liq hajmda olinmasa, chetki terminlarning bog'lanishi noaniq bo'ladi va xulosaning chin yoki xatoligini aniqlab bo'lmaydi.

Bazi faylasuflar notiqdir.

Kafedramizning hamma a'zolari faylasufdir.

Bu sillogizmida o'rta termin katta asosda juz'iy hukmning sub'ekti, kichik asosda umumiy tasdiq hukmning predikata bo'lganligi uchun to'liq hajmda olinmagan. Shuning uchun chetki terminlar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanmagan. Bu asoslardan chiqarilgan xulosalar noaniq bo'ladi:

a) *Kafedramizning hamma a'zolari notiqdir.*

b) *Kafedramizning ba'zi a'zolari notiqdir.*

3. Katta va kichik terminlar asoslarda qanday hajmda olingan bo'lsa, xulosada ham Shunday hajmda bo'lishi kerak.

Bu qoidaning buzilishi kichik yoki katta termin hajmining noo'rin kengayib ketishiga olib keladi. Masalan:

Hamma talabalar imtixon topshiradilar.

Hech bir abiturent talaba emas.

Hech bir abiturent imtixon topshirmaydi.

Bu misolda kichik termin hajmining noo'rin kengayib ketishi xulosaning xato bo'lishiga sabab bo'ladi.

4. Ikki inkor hukmdan (asosdan) xulosa chiqarib bo'lmaydi. Masalan:

Ishsizlartadbirkor emas.

Talabalar ishsiz emas.

5. Ikki juz'iy hukmdan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Masalan:

Ba'zi ayollar tadbirkordir.

Ba'zi davlat arboblari ayollardir.

6. Asoslardan biri inkor HUKM bo'lsa, xulosa ham inkor hukm bo'ladi. Masalan:

Hech bir jinoyat jazosiz qolmaydi.

Vatanga xiyonat qilish jinoyatdir.

Vatanga xiyonat qilish jazosiz qolmaydi.

7. Asoslardan biri juz'iy hukm bo'lsa, xulosa ham juz'iy hukm bo'ladi. Masalan:

Yaxshi farzand ota-onasini hurmat qiladi.

Ba'zi yoshlar yaxshi farzanddir.

Ba'zi yoshlar ota-onasini hurmat qiladi.

Sillogizmning figuralari va moduslari



Oddiy qat'iy sillogazmning strukturasida o'rta terminning joylashishiga qarab sillogazmning turiga figurasi farq qilinadi.

I figura

II figura

III figura

IV figura



S-P

S-P

S-P

S-P

I figurada o'rta termin katta asosning sub'ekti, kichik asosning predikati bo'lib keladi.

II figurada o'rta termin katta va kichik asoslarning predikati bo'lib keladi.

III figurada o'rta termin har ikki asosning sub'ekti bo'lib keladi.

IV figurada o'rta termin katta asosning predikati, kichik asosning sub'ekti bo'lib keladi.

Sillogizm asoslari oddiy qat'iy hukmlar(**A, E, I, O**)dan iborat. Bu hukmlarning ikki asos va xulosada o'ziga xos tartibda (to'plamda) kelishi modus deb ataladi. «**Modus**» - *shakl degan ma'noni anglatadi*. Sillogizm figuralarining o'ziga xos moduslari mavjud. Harbir figuraning turi moduslarini aniqlashda, to'g'ri xulosa chiqarishda sillogizmning umumiy qoidalari bilan birga har bir figuraning maxsus qoidalariga ham amal qilinadi. Figuralarning maxsus qoidalari sillogizm terminlarining o'ziga xos bog'lanishi asosida aniqlanadi.

Oddiy qat'iy sillogizmning birinchi figurasi quyidagi maxsus qoidalarga ega:

1. Katta asos umumiy hukm bo'lishi kerak.

2. Kichik asos tasdiq hukm bo'lishi kerak.

I figuraning to'g'rimodusi mavjud:

A A A, E A E, AII, EIO.

Moduslarning birinchi harfi katta asosning, ikkinchi Harfi kichik asosning, uchinchi harfi xulosaning sifat va miqdorini ko'rsatadi. Figuralarning moduslarini bir-biridan farqlash maqsadida, ularning har biri alohida nom bilan ataladi.

A A A - Barbara modusi

A. Hamma ilmiy qonunlar ob'ektiv harakterga ega.

A. Tafakkur qonunlari-ilmiy qonunlardir.

A. Tafakkur qonunlari ob'ektiv harakterga ega .

EAE - Celarent modusi

E. Hech bir dindor ateist emas.

A. Imomlar dindordir.

E Hech bir imom ateist emas.

AII - Darii modusi

A Barcha jinoyatchilar jazoga loyiqdirlar.

I. Ba'zi kishilar-jinoyatchidir.

I. Ba'zi kishilar jazoga loyiqdirlar.

EIO - Ferio modusi.

E. Axloqli insonlarning hech biri vijdotsiz emas.

I. Ba'zi yoshlar axloqli insondir.

O. Ba'zi yoshlar vijdotsiz emas.

Sillogizmning birinchi figurasi oddiy qat'iy hukmlarning barcha turlari bo'yicha xulosalar beradi.

Oddiy qat'iy sillogizmning P-figurasi quyidagi maxsus qoidalarga ega:

1. Katta asos umumiy hukm bo'lishi kerak.

2. Asoslarning biri inkor hukm bo'lishi kerak .

II figuraning to'rtta turri modusi mavjud:

AEE, EAE, AOO, EIO.

AEE - Camestres modusi

A. Hamma hukmlar darak gap orqali ifodalanadi.

E. Savol darak gap orqali ifodalanmaydi.

E. Hech bir savol hukm emas.

EAE - Cesare modusi.

E. Hech bir ateist dindor emas.

A. Imomlar dindordir.

E. Hech bir imom ateist emas.

AOO - Baroko modusi.

- A. Hamma qushlar uchadi.
- O. Ba'zi mavjudotlar uchmaydi.
- O. Ba'zi mavjudotlar qushlar emas.

EIO-Festino modusi.

- E. Qonunlarga amal qilmaganlarning hech biri erkin emas.
- I. Ba'zi fuqarolar erkindirlar.
- O. Ba'zi fuqarolar qonunga amal qiluvchi emaslar.

YUqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, sillogizm P-figurasining xulosalari faqat inkor hukmdan iboratdir.

Oddiy qat'iy sillogizmning SH-figurasining bitta maxsus qoidasi bor: *kichik asos tasdiq hukm bo'lishi kerak*

III figuraning turri moduslari oltita:

AAI, AII, IAI, EAO, EYU, OAO.

AAI - Darapti modusi.

- A. Hamma mantiqShunoslar faylasufdir.
- A. Hamma mantiqShunoslar-ilmli kishilardir.
- I. Ba'zi ilmli kishilar faylasufdir.

AII - Datisi modusi.

- A. Hamma oddiy qat'iy hukmlar xulosa asoslari bo'ladi.
- I. Ba'zi oddiy qat'iy hukmlar chin fikrdir.
- I. Ba'zi chin fiqolar xulosa asoslari bo'ladi.

AII - Disarms modusi.

- I Ba'zi faylasuflar mantiqShunos bo'lgan.
- A. Hamma faylasuflar ilmli kishilardir.
- I. Ba'zi ilmli kishilar mantiqShunos bo'lgan.

EAO - Felapton modusi

- E. Hech bir partiya dastursiz ish yuritmaydi.
- A. Hamma partiyalar siyosiy tashkilotdir.
- O. Ba'zi siyosiy tashkilotlar dastursiz ish yuritmaydi.

EIO - Ferison modusi.

- E. Hech bir dindor e'tiqodsiz emas.
- I. Ba'zi dinlolar-yoshlardir.
- O. Ba'zi yoshlar e'tiqodsiz emas.

OAO - Bokardo modusi.

- O. Ba'zi odamlar rost gapirmaydilar.
 - A. Hamma odamlar yaxshi yashashni xohlaydi.
 - O. Ba'zi yaxshi yashashni xohlovchilar rost gapirmaydilar.
- III figura moduslarining xulosalari faqat juz'iy hukmdan iborat bo'ladi.

Oddiy qat'iy sillogizmning IV-figurasi quyidagi maxsus qoidalarga ega:

1. Asoslarning biri inkor hukm bo'lsa, katta asos umumiy hukm bo'ladi.

2. Katta asos tasdiq, hukm bo'lsa, kichik asos umumiy hukm bo'ladi.

IV-figuraning beshta tugri modusi mavjud:

AAI, AEE, IAI, EAO, EIO.

AAI - Bramalip modusi

- A. Halol odamlarning hammasi vijdonlidir.
- A. Hamma vijdonlilar adolatli kishilardir.
- I. Ba'zi adolatli kishilar halol odamlardir.

AEE-Camenes modusi.

- A. Qo'li ochiq odamlar saxiy bo'ladi.
- E. Hech bir saxiy hasis emas.
- E. Hech bir hasis qo'li ochiq odam emas.

IAI - Dimaris modusi.

- I. Ba'zi yoshlar sport bilan Shug'ullanadilar.
A. SPORT bilan Shug'ullanganlarning hammasi sog'lom kishilardir.
I. Ba'zi sog'lom kishilar yoshlardir.

EAO - Fesapo modusi.

- E. Hech bir sofist rost gapirmaydi.
A. Hamma rost gapirmaydiganlar yolg'onchidir
O. Ba'zi yolg'onchilar sofist emas.

EIO - Fresison modusi.

- E. Hech bir aqlli odam ilmsiz emas.
I. Ba'zi ilmsizlar yoshlardir.
O. Ba'zi yoshlar aqlli odam emas.
Sillogizmning IV-figurasi umumiy tasdiq hukm ko'rinishidagi xulosani bermaydi.

Nomukammal sillogizmlarni mukammal sillogizm ko'rinishiga keltirish

Aristoteldan boshlab barcha mantiqshunoslar sillogizmning I-figurasi va uning moduslariga katta e'tibor berganlar. Ular I-figurani mukammal, deb bilganlar, uning xulosalarini aniq va yaqqol deb xisoblaganlar. Sillogizmning boshqa figuralarini nomukammal deb, ularning xulosalarining chin ekanligini aniqlash uchun I-figuraga keltirish zarur, deb xisoblaganlar. Bu mantiqiy amal bajarilganda moduslarning nomiga e'tibor beriladi:

1. Modusning nomida «s» harfi bo'lsa, undan avval keluvchi unli harf orqali ifodalanadigan hukm to'liq almashtirilishi shart (*conversio simplex*).

2. Modusning nomida «r» harfi bo'lsa, undan avval keluvchi unli harf orqali ifodalanadigan hukm qisman almashtiriladi (*per accidens*).

3. Modusning nomida «m» harfi bo'lsa, unda sillogizm asoslarining o'rini almashtirish (*metathesis yoki mutatio pramissarum*) zarur.

4. Moduslarning bosh harflari (V, S, D, F) ularni I-figuraning qaysi modusiga keltirilishini ifodalaydi. II va IV figuralarning *Cesare*, *Camestres* va *Camenes* moduslari I-figuraning *Celarent* modusiga keltiriladi. II figuraning *Darapti*, *Disarms* moduslarini I-figuraning *Darii* modusiga, *Fressissioni* I-figuraning *Ferio* modusiga keltiriladi.

5. Modusning nomidagi «k» harfi Shu modusning I-figura moduslaridan birortasi orqali alohida usul vositasi isbotlanishini bildiradi. Bu usul *Reductio ad absurdum* deb ataladi.

Endi bu qoidalarga asoslangan holda bir necha misollarni ko'rib chiqamiz:

II-figuraning *Cesare* modusi I-figuraning *Celarent* modusiga keltiriladi (4-qoida). 1-qoidaga ko'ra II-figuraning katta asosi to'liq, almashtiriladi.

II-figura *Cesare* 1-figura

E. Hech bir R-M emas

A. Hamma S-M

E. Hech bir S-P emas

Sxemalarni taqqoslash katta asosni to'liq almashtirish orqali II-figuraning I-figuraga keltirilganligini ko'rsatadi. Masalan,

Hech bir hayvon ongli mavjudot emas.

Inson ongli mavjudot.

Hech bir inson hayvon emas.

Hech bir ongli mavjudot hayvon emas.

Inson ongli mavjudot

Hech bir inson hayvon emas.

Yana bir misol. III-figuraning *Darapti* modusini I-figuraning *Darii* modusiga keltiramiz. *Darapti* dagi kichik asos qisman almashtiriladi (2-qoida).

III figura Darapti

A. Hamma M-R

A. Hamma M-S

I. Ba'zi S-P

II-figura ***Celarent.***

E. Hech bir M-R emas.

A. Hamma S-M

E. Hech bir S-P emas

I. figura

A. Hamma

I. Ba'zi

I. Ba'zi S-P

Darii

M-R

S-M

Masalan,

A. *Hamma mantiqShunoslar faylasufdir.*

A. *Hamma mantiqShunoslar faylasufdir.*

A.Hamma mantiqShunoslar ilmi kishilardir

I. Ba'zi ilmi kishilar mantiqShunosdir

I.Ba'zi ilmi kishilar faylasufdir

I. Ba'zi ilmi kishilar faylasufdir.

IV figuraning **Bramanlip** modusi I figuraning **Barbara** modusiga asoslarning o'rnini almashtirish orqali keltiriladi (3-qoida)

IV figura Bramanlip

A. *Hamma R-M*

A. *Hamma M-S*

I. *Ba'zi S-P*

Masalan,

A. *Halol odamlarning hammasi vijdonlidir.*

A. *Hamma vijdonlilar adolatli kishilardir.*

I. Ba'zi adolatli kishilar halol odamlardir.

A. *Hamma vijdonlilar adolatli kishilardir.*

A. *Halol odamlarning hammasi vijdonlidir.*

A. *Halol odamlarning hammasi adolatli kishilardir.*

IV-figuradagi juz'iy xulosaning I-figuradagi umumiy xulosa ko'rinishini olishi 2-qoida bilan izohlanadi.

Endi II-figuraning **Camestres** modusini I-figuraning **Celarent** modusiga keltiramiz. Buning uchun uchinchi, va birinchi qoidalardan foydalanamiz, ya'ni II figura asoslarining o'rnini o'zgartirib, kichik asosni to'liq almashtiramiz.

I figura Celarent

A. *Hamma R-M*

E. *Hech bir S -M emas*

E. *Hech bir S - R emas*

Masalan:

A. *Hamma insonlar tirik mavjudotdir.*

E. *Hech bir tosh tirik*

_____ mavjudot emas

E. *Hech bir tosh inson emas*

II figura Celarent

E. *Hech bir M-S emas*

A. *Hamma R-M*

E. *Hech bir R-S emas yoki Hechbir S-P emas.*

E. *Hech bir tirik mavjudot tosh emas.*

A. *Hamma insonlar tirik*

_____ mavjudotdir

E. *Hech bir inson tosh emas*

Reductio ad absurdum usuli 5-qoida bilan bog'liq, ya'ni modusning nomida «k» harfi bo'lgan holatlarda qo'llaniladi. Bunday moduslarga II figuraning **Baroko** va III figuraning **Bokardo** moduslari misol bo'ladi. Bu moduslar I figuraning **Barbara** modusiga keltiriladi. Bunda **reductio ad absurdum** ya'ni «bema'nilikka olib kelish» usuli dan foydalaniladi. Bu usulning mohiyati quyidagicha: biz ikki asosdan ma'lum bir xulosaga kelamiz. Kimdir xulosaning turi ekanligini inkor qiladi. Biz bu inkorning bema'ni ekanligini isbotlashimiz kerak. Buning uchun biz xulosa asoslarini tan olgan holda, xulosani inkor qilish mumkin emasligini asoslab beramiz. Masalan:

II-figura Baroko

A. *Hamma R-M*

O. *Ba'zi S-M emas.*

O.Dyomak, ba'zi S-P emas.

Xulosa, ya'ni «*ba'zi S-P emas*» ekanligi inkor qilinadi. Unda Shu xulosaga zid bo'lgan hukm chin deb qabul kylinishi kerak: «*Hamma S-P*» - chin HUKM. Xulosaga zid bo'lgan hukm kichik asos qilib olinadi. Natijada o'rta termini «R» bilan ifodalangan **Barbara** modusli sillogizm hosil qilinadi:

A. *Hamma R-M*

A. *Hamma S-P*

A. *Hamma S-M*

Shunday qilib, dastlabki xulosani inkor qilgan holda “Hamma S-M” degan xulosaga kelinadi. Lekin bu xulosa dastlabki sillogizmning kichik asosiga zid bo‘ladi. Natijada dastlabki sillogizmning asoslarini tan olib, xulosasini inkor qilganlar ziddiyatga duch keladilar. Shunday qilib, biz ularning e’tirozlari «bema’nilikka olib kelganligini», ya’ni ***ad absurdum*** ekanligini asosladik.

III figuraning ***Bokardo*** modusi ham xuddi Shu usul orqali I figuraga keltiriladi.

Bokardo:

O. Ba’zi M-R emas.

A. *Hamma M-S*

O. Ba’zi S-P emas.

«*Ba’zi S-P emas*» degan xulosaning chinligini inkor qilgan holda unga zid bo‘lgan «***Hamma S-P***», degan hukm chin deb olinadi. Bu hukm «***Hamma M-S***» asosi bilan birgalikda o‘rta termini «**S**» bo‘lgan sillogizmni hosil qiladi:

*A. *Hamma S-P**

A. *Hamma M-S*

*A. *Hamma M-R*.*

Shunday qilib, hosil qilingan xulosa «***Ba’zi M-R emas***» degan asosga zid bo‘ladi. Dastlabki sillogizmning asoslari chin deb e’tirof etilgani uchun keyingi sillogizmning xulosasi xato bo‘ladi.

Bunga quyidagi misolni olishimiz mumkin.

III-figura Bokardo

O. Ba’zi faylasuflar tabiyotShunos emas.

*A. *Hamma faylasuflar - insondir.**

O. Ba’zi insonlar tabiyotShunos emas.

Bu sillogizm xulosasining chinligi inkor etilsa, unda unga zid bo‘lgan «***Hamma insonlar tabiyotShunosdir***», degan mulohaza chin bo‘lishi kerak. Bu mulohazani katta asosning o‘rniga qo‘yib, kichik asos bilan birlashtirsak, ***Barbara*** sillogizmni hosil qilamiz:

*A. *Hamma insonlar - tabiyotShunosdir.**

A. *Hamma faylasuflar - insondir.*

*A. *Hamma faylasuflar tabiyotShunosdir.**

Bu sillogizmning xulosasi dastlabki sillogizmning katta asosiga zid, bu esa be’maniliklar, chunki dastlabki sillogizmning asoslari chin deb e’tirof etilgan. Demak, dastlabki sillogizm xulosasining noto‘g‘ri, bema’ni ekanligi asoslab berildi.

Shunday qilib, II-, III- va IV-figura moduslarini I-figuraga keltirish orqali bu sillogizm moduslarining chinligini asoslash mumkin.

Sillogistik xulosa chiqarishda keng tarqalgan xatolar.

I-figura bo‘yicha kichik asos inkor hukm bo‘lganda hosil qilingan xulosa noaniq(ko‘pincha xato) bo‘ladi.

Masalan:

Hamma o‘qituvchilar pedagogdir.

Bu ayol o‘qituvchi emas.

Bu ayol pedagog emas.

II-figurada xulosa asoslarining har ikkisi tasdiq hukm bo‘lganda hosil qilingan xulosa noaniq (ko‘pincha xato) bo‘ladi.

Masalan:

Hamma o‘qituvchilar pedagogdir.

Bu ayol-pedagog.

Bu ayol o‘qituvchi.

Faqat o‘qituvchilargina pedagog bo‘lmaydi, Shuning uchun har ikkala xulosa noaniqdir.

Entimema. (qisqartirilgan qat’iy sillogizm)

Entimema deb, asoslardan biri yoki xulosasi tushirib qoldirilgan sillogizmga aytiladi. **Entimema** - *aqlda, fikrda degan ma'noni anglatadi*. Entimemada sillogizmning tushirib qoldirilgan qismi yodda saqlanadi. Entimemalar uch turli bo'ladi:

1. *Katta asosi tushirib qoldirilga;*
2. *Kichik asosi tushirib qoldirilgan;*
3. *Xulosasi tushirib qoldirilgan.*

Bizga quyidagi sillogizm berilgan bo'lsin:

Falsafa fakultetining hamma talabalari mantiq fanini o'rtanadi.

Sobirov falsafa fakultetining talabasi.

Sobirov mantiq fanini o'rganadi.

Endi bu sillogizmni entimema ko'rinishiga keltiramiz:

1. Sobirov falsafa fakultetining talabasi bo'lganligi uchun mantiq fanini o'rtanadi (**katta asos tushirib qoldirildi**).

2. Falsafa fakultetining hamma talabalari mantiq fanini o'rganadilar, Shu jumladan Sobirov ham (**kichik asos tushirib qoldirildi**).

3. Falsafa fakultetining hamma talabalari mantiq fanini o'rganadilar, Sobirov esa Shu fakultetning talabasi (**xulosa tushirib qoldirildi**).

Entimemalar bahs-munozara yuritish jarayonida, notiqlik san'atida keng qo'llaniladi.

Murakkab va murakkab qisqartirilgan sillogizmlar

Bir-biri bilan o'zaro bog'langan, ikki yoki undan ortiq oddiy qat'iy sillogizmlardan tuzilgan xulosa chiqarish - **polisillogizm**, ya'ni murakkab sillogizm deb ataladi. Polisillogizmda dastlabki sillogizmning xulosasi keyingisining katta yoki kichik asosi bo'ladi. Shunga ko'ra polisillogizmning **progressiv** va **regressiv** turlari farqlanadi.

Progressiv polisillogizmda dastlabki sillogizmning xulosasi keyingisining katta asosi o'rnida keladi. Masalan:

Insonni kamolotga etishtiruvchi narsalar foydalidir.

Ilmni egallash-insonni kamolotga etiltiradi.

Ilmni egallash foydalidir.

Hunar o'rtanish - ilmni egallash demakdir.

Demak, hunar o'rtanish foydalidir.

Regressiv polisillogizmda dastlabki sillogizmning xulosasi keyingisining kichik asosi bo'lib keladi. Masalan:

O'simliklar tirik mavjudotlardir.

Daraxtlar o'simliklardir.

Tirik mavjudotlar hujayradan tashkil topgan.

Daraxtlar tirik mavjudotlardir.

Demak, daraxtlar xujayradan tashkil topgan.

Polisillogizmning qisqartirilgan ko'rinishi –**sorit** deb ataladi.

Soritning tuzilishi quyidagicha:

Hamma A-B

Hamma B-V

Hamma V-G

Hamma G-D

Hamma A-D

Soritlar ham progressiv yoki regressiv bo'ladi. **Progressiv soritda** prosillogizmning xulosasi, **episillogizmlarning** katta asosi tushirib qoldiriladi.

Regressiv soritda prosillogizmning xulosasi, episillogizmlarning kichik asosi tushirib qoldiriladi.

Sillogizmning kichik asosi tushirib qoldirilgan sorit- **Aristotel soriti**, sillogizmning katta asosi tushirib qoldirilgan sorit - **Goklen soriti** deb ataladi.

Epixeyrema–murakkab qisqartirilgan sillogizm bo'lib, uning har ikki asosi qisqartirilgan oddiy sillogizm (**entimema**)lardan iborat bo'ladi. Epixeyremaning sxemasi quyidagicha:

M-Rdir, chunki M-Ndir.

S-Mdir. chunki S-O dir.

S-R dir.

Misol:

Ilmiy qonunlar isbotlangan fikrlardir, chunki ular haqiqatdir.

Fizika qonunlari ilmiy qonunlardir, chunki ular tabiat qonunlaridir.

Fizika qonunlari isbotlangan fikrlardir.

Epixeyremaning to'liq ko'rinishi quyidagicha:

1. ***Haqiqat - isbotlangan fikrdir. N-R dir.***

Ilmiy qonunlar haqiqatdir. M-N dir.

Ilmiy qonunlar isbotlangan fikrlardir. M-R dir

2. ***Tabiat qonunlari – ilmiy qonunlardir. O-Mdir***

Fizika qonunlari–tabiat qonunlaridir. S-Odir

Fizika qonunlari ilmiy qonunlardir. S-Mdir

3. ***Ilmiy qonunlar – isbotlangan fikrlardir. M-Rdir***

Fizika qonunlari–ilmiy qonunlardir. S-Mdir

Fizika qonunlari isbotlangan fikrlardir. S-Rdir

Epixeyreman bahs va munozaralarda, notiqlik san'atida foydalanildi. Epixeyrema murakkab sillogizmning bir turi bo'lishiga qaramay, uning tarkibidagi katta va kichik asosni, xulosani ajratib olish, farqlash oson bo'lgani uchun ham, fikr yuritish jarayonida keng qo'llaniladi.

Murakkab hukmlarga asoslangan deduktiv xulosa chiqarish

Murakkab hukmlarga asoslangan deduktiv xulosa chiqarishda xulosa asoslariga mantiqiy bog'lovchilar orqali bog'langan oddiy hukmlar deb qaraladi. Xulosa asoslari yo shartli, yoki ayiruvchi yoki ham shartli, ham ayiruvchi hukm ko'rinishida bo'lishi mumkin. Asoslardagi hukmlarning turiga ko'ra bunday xulosa chiqarishning quyidagi shakllari mavjud:

1. SHartli xulosa chiqarish.

2. Ayiruvchi xulosa chiqarish.

3. SHartli-ayiruvchi xulosa chiqarish.

SHartli xulosa chiqarish deb har ikki asosi yoki asoslaridan biri shartli hukm bo'lgan sillogizmga aytiladi. Ular sof shartli va shartli-qat'iy turlarga bo'linadi.

Sof shartli xulosa chiqarish deb, har ikki asosi va xulosasi shartli hukm bo'lgan sillogizmga aytiladi. Uning formulasi quyidagicha:

$$1) \quad \begin{array}{l} p \rightarrow q \\ q \rightarrow r \text{ yoki } [(p \rightarrow q) \wedge (q \rightarrow r)] \rightarrow (p \rightarrow r) \end{array}$$

$$2) \quad \begin{array}{l} p \rightarrow q \\ p \rightarrow q \text{ yoki } [(p \rightarrow q) \wedge (p \rightarrow q)] \rightarrow \end{array}$$

q

$$p \rightarrow r$$

q

Masalan:

Agar fikr isbotlangan bo'lsa, unda u chin bo'ladi.

Agar fikr chin bo'lsa, unda uni rad etib bo'lmaydi

Agar fikr isbotlangan bo'lsa, unda uni rad etib bo'lmaydi.

Agar havo yaxshi bo'lsa, konsertga boramiz.

Agar havo yaxshi bo'lmasa ham, konsertga boramiz.

Konsertga boramiz.

Bu turdagi sillogizmlarning xulosasi shartlangan (***shartli hukm***) bo'lgani uchun, ulardan bilish jarayonida kam foydalaniladi.

SHartli-qat'iy xulosa chiqarish deb, katta asosi shartli hukm, kichik asosi oddiy qat'iy hukm bo'lgan sillogizmga aytiladi. Bunday xulosa chiqarishning ikkita turi (***aniq xulosa beradigan***) modusi mavjud:

1. Tasdiqlovchi modus **modus ponens** 2. Inkor etuvchi modus **modus tollens**

$$\begin{array}{l} p \rightarrow q \qquad \qquad \qquad p \rightarrow q \\ \underline{p} \text{ yoki } [(p \rightarrow) \wedge p] \rightarrow q \quad \underline{q} \text{ yoki } [(p \rightarrow q) \wedge q] \rightarrow p \\ qp \end{array}$$

Masalan:

1. *Agap fuqarolar jamiyat qonunlariga amal qilsalar, unda ular erkin bo'ladi.*
Fuqarolar jamiyat qonunlariga amal qiladilar.

Demak, ular erkin bo'ladilar.

2. *Agar me'yor buzilsa, unda miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga olib keladi.*

Miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga olib kelmaydi.

Demak, me'yor buzilmagan.

SHartli qat'iy sillogizmning xulosasi aniq, chin bo'lishi uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. *SHartli hukmdagi asosning chinligidan natijaning chinligi, natijaning xatoligidan asosning xatoligi mantiqan zaruriy ravishda kelib chiqadi.*

2. *SHartli hukmdagi natijaning chinligi asosning chinligini, asosning xatoligi esa natijaning ham xatoligani isbotlamaydi.*

Ayiruvchi xulosa chiqarish deb, har ikki asosi yoki asoslaridan biri ayiruvchi hukm bo'lgan sillogizmga aytiladi.

Sof ayiruvchi xulosa chiqarish deb, har ikki asosi va xulosasi ayiruvchi hukm bo'lgan sillogizmga aytiladi.

Masalan:

Tushunchalar hajmiga ko'ra umumiy, yoki yakka, yoki bo'sh hajmli bo'ladi.

Har bir umumiy tushuncha yo ayiruvchi, yoki to'plovchi bo'ladi.

Demak, tushunchalar hajmiga ko'ra yo ayiruvchi, yoki to'plovchi, yoki yakka, yoki bo'sh hajmli bo'ladi.

Sof ayiruvchi sillogizmning formulasi quyidagicha:

S-avvvc

a-dvf

S-dvf VBVC

Ayiruvchi-qat'iy xulosa chiqarishda xulosa asoslaridan biri ayiruvchi hukm bo'lsa, boshqasi oddiy qat'iy hukm bo'ladi. Bunday xulosa chiqarishning ikki modusi bor:

1. Tasdiqlab-inkor etuvchi modus ponendo tollens;

2. Inkor-etib tasdiqlovchi modus tollendo ponens.

Masalan:

1. Tushunchalar mazmuniga ko'ra konkret yoki abstrakt bo'ladi.

Bu konkret tushuncha.

Demak, bu-abstrakt tushuncha emas.

2. Hukmlar tuzilishiga ko'ra oddiy yoki murakkab bo'ladi.

Berilgan hukm oddiy hukm emas.

Demak, berilgan hukm-murakkab hukmdir.

Ayiruvchi sillogizmda to'g'ri xulosa chiqarish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. Ayiruvchi hukm tarkibidagi oddiy hukmlar bir-birini inkor qilishi, hajmiga ko'ra kesishmasligi shart, aks holda xulosa xato bo'ladi.

Masalan: *Kitoblar qiziqarli yoki fantastik bo'ladi.*

Bu kitob qiziqarli.

Bu kitob fantastik emas.

Kitob ham qiziqarli, ham fantastik bo'lishi mumkin. Bunda ayiruvchi hukm tarkibidagi oddiy hukmlar bir-birini inkor etmaydi va hajmiga ko'ra kesishadi. Shuning uchun xulosa xato.

2. Ayiruvchi hukmda bir-birini inkor etuvchi alternativalar to'liq ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Burchaklar o'tkir yoki o'tmas burchakli bo'ladi.

Bu burchak o'tkir burchakli emas.

Bu burchak o'tmas burchaklidir.

Xulosaning xato bo'lishiga sabab, ayiruvchi hukmdagi alternativalar to'liq ko'rsatilmagan, ya'ni to'g'ri burchakning mavjudligi e'tibordan chetda qolgan.

Ayiruvchi sillogizmlardan ko'proq bir necha yuechimga ega bo'lgan masalalarni aniqlashda, ya'ni muqobil holatlardan birini to'g'ri tanlab olishda foydalaniladi.

SHartli - ayiruvchi - lemmatik (taxminlab) xulosa chiqarish deb, asoslardan biri ikki yoki undan ortiq shartli hukmlardan, ikkinchisi esa ayiruvchi hukmdan iborat bo'lgan sillogizmga aytiladi. Ayiruvchi asosdagi a'zolarning soniga, ko'ra bunday xulosalar **dilemma** (ayiruvchi asos ikki a'zodan iborat bo'lgan), **treilemma** (ayiruvchi asos uch a'zodan iborat bo'lgan) va **polilemma** (ayiruvchi asos to'rt va undan ortiq a'zodan iborat bo'lgan) deb ataladi.

Dilemma oddiy yoki murakkab bo'ladi. Oddiy dilemmaning shartli asosidagi hukmlar yo shartiga, yo natijasiga ko'ra o'xshash bo'ladi. Murakkab dilemmaning shartli asosidagi hukmlar ham shartiga, ham natijasiga ko'ra bir-biridan farq qiadi. **Dilemmalar** konstruktiv (tuzuvchi) yoki **destruktiv** (buzuvchi) turlarga bo'linadi. Demak, **dilemmalar** to'rt xil bo'ladi:

1. Oddiy konstruktiv dilemma.
2. Oddiy destruktiv dilemma.
3. Murakkab konstruktiv dilemma.
4. Murakkab destruktiv dilemma.

Masalan:

1) Agar yoshlar ilm o'rgansalar, hayotda o'z o'rinlarini topadilar.

Agar yoshlar hunar o'rgansalar, hayotda o'z o'rinlarini topadilar.

YOshlar yo ilm yoki hunar o'rganadilar.

Demak, ular hayotda o'z o'rinlarini topadilar.

2) Agar talaba chet tilini yaxshi bilsa, konkursda ishtirok etadi.

Agar talaba chet tilini yaxshi bilsa, chet elga o'qishga boradi.

Talaba konkursda ishtiroketmadi yoki chet elga o'qishga bormadi.

Talaba chet tilini yaxshi bilmaydi.

3) Agar inson yaxshi amallarni bajarsa, uni yaxshi nom bilan eslashadi.

Agar inson yomon amallarni bajarsa, uni yomon nom bilan eslashadi.

Inson yo yaxshi yoki yomon amallarni bajarishi mumkin.

Demak, uni yo yaxshi yoki yomon nom bilan eslashadi.

4) Agar inson boshqalarga yaxshilik qilsa, unga ham boshqalar yaxshilik qiladi.

Agar inson boshqalarga yomonlik qilsa, boshqalar ham unga yomonlik qiladi.

Insonga yo yaxshilik yoki yomonlik qaytmadi.

Demak, u boshqalarga yaxshilik ham, yomonlik ham qiladi.

Dilemmalarni to'g'ri tuzish va hal qilish uchun ko'rilayotgan masalaning barcha yechimlarini aniqlash zarur. Dilemmami ba'zan unga qarama-qarshi mazmundagi boshqa bir dilemma orqali rad etish mumkin. Bunga mantiq ilmi tarixidan quyidagi misolni keltiramiz: «Afinalik ayol o'g'liga Shuday maslahat beradi: Jamoat ishlariga aralashma, chunki agar haqiqatni gapirsang, seni odamlar yomon ko'radi, agar yolg'on gapirsang, unda seni xudolar yomon ko'radi. Bunga Aristotel quyidagicha rad javobni o'ylab topadi: Men jamoat ishlarida ishtirok etaman, chunki agar haqiqatni gapirsam, meni xudolar yaxshi ko'radi, agar yolg'on gapirsam, meni odamlar yaxshi ko'radi».

Trilemmada berilgan masalaning uch xil yechimi haqida taxminlab fikr yuritiladi. Trilemma ham to'rt turga bo'linadi:

1. Oddiy konstruktiv trilemma.
2. Oddiy destruktiv trilemma.
3. Murakkab konstruktiv trilemma.
4. Murakkab destruktiv trilemma.

Masalan:

Agar tergov qilinayotgan shaxs jinoyatga bevosita aloqador bo'lsa, u qattiq jazolanadi.

Agar tergov qilinayotgan shaxs jinoyatga bavoisita aloqador bo'lsa, u yengil jazolanadi.

Agar tergov qilinayotgan shaxs jinoyatga aloqador bo'lmasa, u ozod qilinadi.

Tergov qilinayotgan shaxs jinoyatga yo bevosita, yoki bavoisita aloqador, yoki mutlaqo aloqasizdir.

Demak, tergov qilinayotgan shaxs yo qattiq jazolanadi, yoki yengil jazolanadi, yoki ozod qilinadi.

Bu murakkab konstruktiv trilemma ko‘rinishidagi xulosa chiqarishdir.

SHartli-ayiruvchi xulosalash masalani hal qilishning bir necha usullari mavjudligini, bularning har biri turli oqibatlarni keltirib chiqarishini aniqlab beradi. Sohibkiron Amir Temur ta’biri bilan aytganda bu oqibatlardan qaysi biri davlat va ulus manfaatlariga mos bo‘lsa, ya’ni «savobliroq yoki kam xatarli bo‘lsa», Shunisi tanlab olinadi.

3. Induktiv xulosa chiqarish

- Biz avvalgi mavzuda zaruriy xulosa chiqarish bilan (deduktiv xulosa chiqarish asosida) tanishib chiqqan edik. Mantiqda ehtimoliy xulosa chiqarish ham o‘rganiladi.
- Ehtimoliy xulosa chiqarish turli xil shakllarda, Shu jumladan, induktiv xulosa chiqarish shaklida amalga oshishi mumkin. Ularning barchasiga xos xususiyat – xulosaning asoslardan mantiqiy zaruriy ravishda kelib chiqmasligi hamda faqat ma’lum bir darajada tasdiqlanishidir. Asoslarning xulosani tasdiqlash darajasi mantiqiy ehtimollik, deb nom olgan.
- Induktiv xulosa chiqarish bilan batafsilroq tanishib chiqamiz. Bilish, qaysi sohada amalga oshishidan qat’iy nazar sog‘lom aql darajasidami yoki ilmiy bilishdami – doimo predmet va hodisalarning hissiy idrok etiladigan xossa va munosabatlarini o‘rganishidan boshlanadi. Bu bosqichda sub’ekt turli xil tabiiy jarayonlar, ijtimoiy hodisalarda o‘xshash sharoitlarda ma’lum bir xususiyatlarning takrorlanishini kuzatadi. Bu ana Shu turg‘un holda takrorlanib turuvchi xossaning ayrim predmetning individual xossasi emas, balki ma’lum bir sinfga mansub predmetlarning umumiy xossasi bo‘lsa kerak, degan fikrga kelishga asos bo‘ladi. Masalan, qaysi davlatda demokratiya prinsiplariga yaxshi amal qilinsa o‘sha davlat aholisining ijtimoiy turmush darajasi yuqoriligini kuzatish mumkin. Shu asosda demokratiyaning prinsiplari, shartlari yaxshi amal qiladigan har qanday davlatda aholining turmush darajasi yuqori bo‘ladi, degan xulosaga kelish mumkin.
- *Mana Shunday juz’iy bilimdan umumiy bilimga mantiqan o‘tish induksiya shaklida sodir bo‘ladi (lotincha inductio – yagona asosga keltirish).*
- *Induksiya asosida chiqarilgan xulosalar ilmiy bilishda o‘rnatilgan turli empirik qonuniyatlar, yaratilgan umumlashmalar tarzida o‘z aksini topadi, predmet va hodisalar haqidagi bilimlarimizning kengaytirishiga olib keladi.*
- Induktiv xulosa chiqarish bilvosita xulosa chiqarish xisoblanadi, ya’ni uning asoslari ikkita va undan ortiq muloxazalardan tashkil topgan bo‘ladi. Ular, odatda, yakka predmet yoki predmetlar sinfining bir qismini ifoda qiladilar. Xulosada esa, bir mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasiga nisbatan umumiy hukm tarzidagi fikr hosil qilinadi.
- Demak, induktiv xulosa chiqarishda yakkalik, juz’iylik va umumiylikning dialektik aloqasini kuzatamiz.
- *Kuzatish predmet va hodisalarni o‘rganishning eng oddiy, ko‘p hollarda qo‘llash mumkin bo‘lgan usulidir.* Unda sub’ekt (masalan, tadqiqotchi) kuzatilayotgan hodisaga bevosita ta’sir o‘tkazmasdan, uni tabiiy holatida, bog‘lanishlarida o‘rganadi. Bunda sub’ekt o‘z sezgi organlari, tadqiqotlar olib boriladigan asbob-uskunalar (masalan, mikroskop, tunda ko‘rish asbobi va Shu kabilar) bilan ish ko‘radi.
- Tabiiyki kuzatish pala-partish, uzoq-yuluq holda emas, balki izchil, ko‘pincha avvaldan tuzilgan reja (masalan, tadqiqot rejasi) asosida o‘tkaziladi. Masalan, *korxonalar rahbari uning turli bo‘g‘inlarida, bo‘limlarida ishlayotgan mas’ul xodimlarning, ishchilarining ishini sistemali ravishda, muntazam kuzatib boradi,* induksiya asosida ma’lum bir xulosalarga keladi. Bu xulosalar boshqaruv strukturasi, kadrlar masalasiga ma’lum bir o‘zgartirishlar kiritish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Boshqa bir misol. *Militsiya yoki prokuratura xodimi jinoyatni sodir qilishda Shubhalanayotgan kishini hisbga olishdan avval uning xatti-harakatlarini oldindan tuzilgan reja*

asosida, turli xil sharoitlarda tabiiy holatda, unga xalaqit bermagan holda kuzatib boradi. Bu esa unga qat'iy bir qarorga kelishi uchun zarur bo'lgan faktlarni topishiga yordam berishi mumkin.

- **Induktiv xulosa chiqarishning ikkita turi:** to'liq va to'liqsiz induksiya farq qilinadi.
- To'liq induksiya **induktiv xulosa chiqarishning Shunday turiki, unda birorta belgining ma'lum bir sinfga mansub har bir predmetga xosligini aniqlash asosida, Shu belgining berilgan sinf predmetlari uchun umumiy belgi ekanligi haqida xulosa chiqariladi.**
- To'liq induksiya predmetlarning kichik, sinfiga, elementlari yaqqol ko'zga tashlanib turadigan, miqdor jihatdan cheklangan yopiq sistemalar nisbatan xulosa chiqarishda ishlatiladi. Masalan, *Quyosh sistemasiga kiruvchi planetalar, NATO ga a'zo davlatlar, birorta shaharda joylashgan korxonalar* va Shu kabilar haqida xulosalarni to'la induksiya yo'li bilan olish mumkin. Xususan, Quyosh sistemasiga kiruvchi harakatining yo'nalishi soat strelkasi harakati yo'nalishiga teskari ekanligi haqidagi xulosa aynan ana Shu usul yordamida hosil qilinadi. Xuddi Shuningdek, *“Barcha metallar elektr tokini o'tkazadi”, “NATOGa a'zo davlatlar Shu tashkilotning ustaviga rioya qiladilar”, “Toshkent shahridagi barcha korxonalar elektr energiyasi bilan to'la ta'minlangani”* kabi umumiy hukmlar orqali ifoda qilingan xulosaviy bilimlar ham to'liq induksiya qo'llash asosida shakllanadi.

To'liqsiz induksiya Shunday ehtimoliy xulosa chiqarish turiki, unda birorta belgining bir mantiqiy sinfga tegishli predmetlarning bir qismiga xosligini aniqlash asosida Shu belgining berilgan sinfga mansub barcha predmetlarga xosligi haqida xulosa chiqariladi.

- To'liqsiz induksiyada fikrimiz, xuddi to'liq induksiyadagidek juz'iylikdan umumiylikka kamroq umumiylikka bilimdan ko'proq umumiylikka bilimga qarab harakat qiladi. Lekin unda to'liq induksiyadan farqli o'laroq xulosa kuzatish tajriba davomida qayd etilmagan o'rganilmagan predmetlarga ham tegishli bo'ladi.
- Ommabop induksiyaning **muhim xislatlaridan biri kuzatilayotgan hollarga zid bo'lgan holning yo'qligiga ishonch hosil qilishdir. YA'ni, bunda nechtasida takrorlanishini qayd etish bilan cheklanmasdan, ularga zid bo'lgan holning yo'qligi ham aniqlanadi. Bu, odatda ommabop induksiya asosida qat'iy xulosaga kelishdan oldin** «SHoshmay tur-chi, qani, yana bir tekshirib ko'raylik!» degan fikrga suyanib ish qilishga undaydi, «Yetti o'lehab, bir kesish»ga chaqiradi. Ana Shuning uchun ham ommabop induksiya xalq donishmandligining namoyon bo'lishi turlaridan biri, deb aytish mumkin.
- Ommabop induksiya asoslanadigan belgilarning takrorlanishi haqiqatdan ham ko'p hollarda, induktiv xulosa chiqarishning boshqa turlarida bo'lgani singari, hodisalarning umumiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ana Shuning uchun ham bu usul bilan olingan xulosaning chin bo'lishi ehtimoli nisbatan yuqoriroq xisoblanadi va unga tayanib kishilar o'z faoliyati yo'nalishlarini, amalga oshirish mexanizmlarini belgilaydilar. Ommabop induksiyaning eng oddiy umumlashmalarisiz dehqonchilik, xalq hunarmandchiligi, oddiy xo'jalik ishlarini va Shu kabilarini amalga oshirib bo'lmaydi. Masalan, *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU* kutubxonasidagi kitoblarning qanday ahvolda ekanligini bilish uchun (xulosaviy bilim hosil qilish uchun), undagi kitoblarning bir qismini – turli qavatlardagi, turli bo'limlardagi, turli jivonlardagi kitoblardan bir qanchasini olib tekshirib qo'rish kifoya. Xuddi Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar oldidan okruglardagi deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarning mavqelari haqida saylovchilarning bir qismining fikrini bilish (masalan, so'roq o'tkazish yo'li bilan) asosida muayyan xulosalarga kelish mumkin. Bu misollarda muhokama ommabop induksiya sxemasi bo'yicha qurilgan.

- Kundalik hayotiy tajriba, sog'lom aql ilmiy bilishning boshlang'ich asosi sifatida uning qo'yadigan dastlabki qadamlarini, harakat yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Xususan, fan o'z taraqqiyotining dastlabki bosqichida empirik tadqiqotlar o'tkazadi: ob'ekt ustida o'tkazayotgan tajriba, kuzatish davomida to'plangan faktlarni tasvirlaydi, klassifikatsiya qiladi,

takrorlanib turuvchi xususiyatlarni aniqlaydi, induktiv umumlashmalar shaklida empirik qonuniyatlarni shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida o'rganilayotgan ob'ekt haqida turli xil gipotezalar qurishga, hodisalarni oldindan ko'rishga, ilmiy bashoratlar qilishga yordam beradi.

- Shuni aytish kerakki, ommabop induksiyaning xulosasi bilish sub'ekti uchun qulay faktlarni sanab ko'rsatishga asoslanganligi bois, ehtimoliy, taxminiy fikr bo'lishdan yuqoriga o'ta olmaydi. U qo'shimcha tekshirishlar o'tkazishni, mavjud holatlar va hollarda predmet tabiatining o'zgarishini aniqlashtirishni taqozo etadi. Chunki qulay hollarni, faktlarni sanab ko'rsatish dastlabki induktiv umumlashmalar hosil qilishning zaruriy sharti bo'lsa-da, o'z holicha yetarli emas.
- Xususan, birorta belgining bir turkum predmetlarda takrorlanishi voqeaning kechishi bilan bog'liq tasodifiy holat ham bo'lishi mumkin. Albatta, zaruriyat bilan bog'lanmagan, uni u yoki bu darajada ifoda qilmaydigan tasodif yo'q. Masalan, tajriba olib borilayotgan itga yonida turgan lampochka yongandan keyin ovqat berish bir necha marta takrorlansa, bu itda shartli refleks hosil bo'lishiga olib keladi. Bunda lampochka bilan ovqat berish o'rtasidagi aloqa o'z holicha tasodifiy deb olib qaralishi mumkin. Lekin u itda shartli refleksning hosil bo'lishi bilan bir sistemada olinganda zaruriyatni ifoda etadigan takrorlanib turuvchi hodisaga aylanadi.
- Bu hodisa va umuman bir jinsli predmetlarda takrorlanib turuvchi barcha hodisalar, insonning bilishi jarayonida aql yordamida talqin qilinadi, «qayta ishlanadi» hamda «Bu takrorlanish zaruriyat, qonuniyatning ifodasi bo'lishi mumkin», degan taxminning yaratilishiga olib keladi. Umumiy holda ifodalangan bu taxmin bilishning keyingi bosqichida to'liqsiz induksiya hosil qiluvchi umumlashmaning asosli bo'lishini ta'minlaydigan miqdoriy va sifatiy omillarning o'zaro ta'sirining kuchayishiga va demak, xulosaning ishonchlilik darajasining ortishiga olib keladi. Bunda sifatiy omil belgi takrorlanib turuvchi hodisalar mavjud bo'lgan sharoitning o'zgarib turishini taqozo etadi. O'zgarib turgan sharoitlarda hodisa belgisining takrorlanishi uning zaruriy harakterga ega ekanligi haqidagi ishonchni orttiradi. Ana Shunday sifatiy omil amal qilgan sharoitda miqdoriy omil ham bir tipdagi hollarning ko'p bo'lishi (ular qancha ko'p bo'lsa, umumlashtirishi ehtimoli va natijasi Shuncha yaxshi bo'ladi) holati ham mavjud bo'lsa, xulosaning chin bo'lishi ehtimoli ortadi.
- YUqoridagi saylov haqidagi misolga qaytadigan bo'lsak, so'roq natijalarining chin bo'lish ehtimoli sifatiy (respondentlar tasodifan emas, balki aholining qaysi qatlamiga mansubligi, yoshi, jinsi va Shu kabilar xisobga olingan holda ajratib olingan) va miqdoriy (sifatiy holat bilan bog'liq ravishda respondentlar soni ko'p bo'lsa) ko'rsatgichlar xisobga olingan holda ortadi, degan xulosaga kelish mumkin.
- Shuningdek ommabop induksiya zid holatlar haqidagi faktlarni qasddan yashirgan yoki faktlarni avvaldan o'ylab topib qo'ygan xulosa uchun to'plagan hollarda xato natijalarni beradi.
- Turli xil g'aroyib narsalarga ishonish oqibatida hosil qilinadigan induktiv umumlashmalar, masalan «ko'z tegish», «yo'lni muShuk kesib o'tsa, ishning yurishmasligi», «tushda go'sht ko'rinsa, yaqin kishilardan birining kasal bo'lib qolganligi» haqidagi xulosalar ham ko'pincha haqiqatga mos kelmaydi.
- Ilmiy induksiya ehtimoliy xulosa chiqarishning Shunday turiki, uning asoslarida birorta belgining bir sinfga mansub predmetlarning bir qanchasida takrorlanishi qayd etilishi bilan bir qatorda, u belgining sababiy aloqasi haqida ham ma'lumot mujassamlashgan bo'ladi va ular xulosada berilgan predmetlar sinfga nisbatan hosil qilingan fikrda o'z aksini topadi.
- Ommabop induksiyadan farqli o'laroq, ilmiy induksiyada bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanuvchi belgi Shunchaki qayd etilib qolmasdan, balki u haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish, uning mavjud bo'lishi sababini aniqlash uchun predmetning boshqa belgilari bilan bo'lgan aloqalari, xususan, sababiy bog'lanishlari o'rganiladi. Ana Shuning uchun ham, ya'ni hodisalarning sababini aniqlashga, ularning ifoda etuvchi qonunlarni ochishga qaratilgani uchun

ham to‘liqsiz induksiyaning bu turini ilmiy induksiya deb atashadi.

- Sababiy aloqadorlikni aniqlashga ancha murakkab ish, chunki u borliqda yuqorida qayd etib o‘tilgan hodisalar o‘rtasidagi umumiy aloqadorlikning boshqa turlari bilan birgalikda mavjud. Uni ilmiy bilishda «toza» holda ajratishga hamma vaqt ham osonlikcha erishib bo‘lmaydi. Buning uchun sababiy aloqadorlikning tabiatini, xususiyatlarini yaxshi bilish kerak.
- Sababiyat (kavzallik) ikki hodisa o‘rtasidagi zaruriy aloqa bo‘lib, muayyan sharoitda ulardan biri (sabab hodisa) ikkinchisini (oqibatni) keltirib chiqaradi. Uning muhim xususiyatlari quyidagilar: 1) aloqaning umumiyliigi; 2) vaqtdagi izchilligi, birin – ketinligi; 3) aloqaning zaruriy harakteri; 4) sabab va oqibatning bir ma’noli bog‘lanishda bo‘lishi.
- 1. *Sababiy aloqalarning umumiyliigi* deganda, olamda hech bir hodisaning sababsiz mavjud bo‘la olmasligi tuShuniladi. U har qanday hodisaning o‘z holicha, boshqa hodisalardan mustaqil holda vujudga kela olmasligini, boshqa hodisalar bilan hodisalar ta’sirida paydo bo‘lishi, o‘zgarishi, yo‘q bo‘lish hamda, o‘z navbatida, boshqa hodisalarga ta’sir o‘tkazishini bildiradi. Borliqdagi har bir hodisa o‘z sababiga ega bo‘lib, uni ertami yoki kechmi bilib olish mumkin.
- Turli xil aloqalar, mavjud holatlar orasida noma’lum bo‘lib qolayotgan sabab hodisani topish uchun boshqa omillar, xususan, sababiy aloqada bo‘lgan hodisalarning vaqtdagi ketma-ketligi, izchilligi xisobga olinishi zarur.
- 2. *Sababiy aloqadorlikda bo‘lgan hodisalarning vaqtdagi birin-ketinligi* deganda, sabab hodisaning oqibat (natija) hodisadan doimo oldin kelishi nazarda tutiladi. Sabab hodisa bilan oqibat hodisaning ro‘y berishi orasida turli muddat o‘tishii mumkin. Ba’zan oqibat (natija) sabab hodisadan bir zumdan keyin paydo bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘qning otilishi bilan u tekkan ob’ektning zararlanishi o‘rtasida o‘tadigan vaqt juda qisqa, organizmga tushgan mikroob bilan u qo‘zg‘aydigan kasallikning vujudga kelishi o‘rtasida o‘tadigan vaqt uzoqroq (bir qancha daqiqa, soat, kun) bo‘ladi. Sababiy aloqadorlik ijtimoiy hayotda (masalan, kishilarning huquqiy ongi bilan uni shakllantirishga yo‘naltirilgan hatti-harakat), geologiyada (masalan, ma’lum bir jarayonlar ta’sirida tog‘larning paydo bo‘lishi) va boshqa Shu kabi sohalarda ancha ko‘p vaqt davomida amalga oshadi.
- Sabab hodisa oqibat hodisadan avval keladigan bo‘lgani uchun, u bilishda doimo oqibatdan oldin keladigan hodisalar orasidan qidiriladi. Bunda oqibat bilan bir vaqtda yoki undan keyin keladigan hodisalar istisno (eliminatsiya) qilinadi, ya’ni chiqarib tashlanadi.
- Sabab va oqibatning vaqtdagi izchilligi, birin ketinligi hodisalar o‘rtasidagi sababiy aloqadorlikni aniqlashning zaruriy sharti, lekin o‘z holicha ko‘zlangan maqsadga erishish uchun yetarli emas. Oldinma-ketin kelgan hodisalarning hammasi ham sababiy aloqadorlikdan bo‘lavermaydi. Bu holat xisobga olinmasa «undan keyin, demak, Shu sababga ko‘ra» deb ataladigan xato (lotincha post noc, ergo propter noc) ro‘y beradi. Masalan, chaqmoq chaqish hodisasi momaqaldiroqning sababi deb tuShunganlar, vaholanki haqiqatda bunday emas. Momoqaldiroqning chaqmoqdan keyin kelishiga sabab tovush tezligining yorug‘lik tezligidan kamroq bo‘lishidir. Aslida esa ular bir vaqtda vujudga keladi. Xuddi Shu singari, jinoyat sodir bo‘lishidan avval u sodir etilgan joyda bo‘lgan kishilarning hammasi ham jinoyatchi bo‘lavermaydi.
- 3. *Sababiy aloqadorlikning zaruriyliigi* oqibatning faqat uni vujudga keltiradigan sababning mavjud bo‘lganidagina paydo bo‘lishini anglatadi. Sabab hodisaning yo‘qligi oqibat hodisaning ham Yuzaga chiqmasligini bildiradi. Ana Shuning uchun ham sababiy aloqadorlikni aniqlashda oqibatdan avval keladigan hodisalardan oqibat hodisani keltirib chiqarmaydiganlari olib tashlanadi, ya’ni eliminatsiya qilinadi.
- 4. *Sababiyatning bir ma’noli aloqadarlik* ekanligi muayyan sababning o‘ziga muvofiq keladigan muayyan oqibatni keltirib chiqarishini ifoda etadi. Buni sabab va oqibat o‘rtasidagi aloqadorlikdagi simmetriyaning mavjudligi, ya’ni sabab hodisaning o‘zgarishining oqibat

hodisaning o'zgarishiga olib kelishini tasdiqlaydi. Sababiyatning bu xususiyati uni aniqlash jarayonida faqat o'zaro birgalikda o'zgaruvchi hodisalarni olib qolib, qolganlarini chiqarib yuborishga undaydi.

- Ana Shuning uchun ham sababiy aloqadorlikni aniqlash empirik tadqiqotlar natijalarini samarali tahlil qilishga imkon beruvchi prinsiplarni qo'llash taqozo etadi. Ular sababiy aloqadorlikda bo'lgan hodisalarni ularning borliqdagi tabiiy mavjud bo'lish sharoitidan «ajratib olib», maxsus bilish sharoitlarida o'rganishga imkon beradi. Xususan:
 1. Oqibatdan avval kelgan hodisa murakkab strukturaga ega, u b, c, d, va hokoza holatlardan tashkil topgan deb xisoblanadi.
 2. Mazkur holatlarning har biri mustaqil holda mavjud va boshqalar bilan o'zaro ta'sirda bo'lmaydi deb qaraladi.
 3. Qayd etilgan holatlar mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarning tugal to'plami deb olinadi.
- Bu prinsiplar bilan bir qatorda sababiy aloqadorlikni aniqlashning boshqa bir qancha metodlari ham mavjud. Ular mantiqda ilmiy induksiya metodlari deb yuritiladi.

Ilmiy induksiya metodlari

O'xshashlik metodi. Unda urganilayotgan hodisaning sababi xakidagi xulosa Shu hodisaning bir kancha kuzatilayotgan hollarini solishtirish, ularning o'xshash tomonnini aniqlash asosida xosil kilinadi. Masalan, kimyoviy tarkibi, zichligi, ogirligi, kattaligi turlicha bo'lgan mayatniklar uzunligi bar xil sterjenlarga – ilgaklarga ilintirib, harakatga keltirilganda, bir xil tebranish davriga ega bo'lgan. Bunda hodisaning vujudga kelishi kuzatilyotgan barcha hollarida undan avval kelayotgan holatlarning fakat bittasigina takrorlanadi. Ana Shunga tayanib, mazkur takirorlanuvchi holat kuzatilayotgan hodisaning vujudga kelishining sababi bo'lsa kerak, degan tarzda ehtimoliy xulosa chiqariladi.

O'xshashlik metodi bo'yicha muhokama yuritish sxemasi quyidagi ko'rinishga ega:

Hollar	Hodisa vujudga kelishidan avval mavjud bo'lgan holatlar	Hodisa
1	ABC	d
2	DEV	d
3	VSD	d

Ehtimol, V holat d hodisaning sababidir.

Demak, o'xshashlik metodining mohiyatini quyidagicha ifodalasa bo'ladi:

Agar hodisaning kuzatilayotgan hollari uchun fakat bitta holatgina umumiy bo'lsa, ana Shu holat mazkur hodisaning sababidir.

Tafovut metodi. Bu metod fakat ikkita hol – hodisaning vujudga kelgan va kelmagan hollarini takkoslash asosida hodisaning sababini aniqlash usuli bo'lib, unda mavjud hollar bir – biridan fakat bitta holat bilan farq qiladi: birida u yuk, ikkinchisida – bor va fakat anaShu holat bor holdagina hodisa Yuzaga keladi. Ana Shuning uchun ham mazkur holat kuzatilayotgan hodisaning sababi bo'lsa kerak, deb taxmin kilinadi, ya'ni ehtimoliy xulosa xosil kilinadi. Uning sxemasi quyidagicha:

Hollar	Hodisa vujudga kelihdan avval mavduj bo'lgan holatlar	Hodisa
1	ASD	-
2	AVSD	d

Ehtimol, V holat d hodisa sababidir.

Tafovut metodidan bilishning turli xil sohalarida keng foydalaniladi. Masalan, yaxshi ishlayotgan va yaxshi ishlamayotgan korxonalar solishtirilib, korxonaning yaxshi ishlamasligi sababi aniqlanadi. Meditsinada esa ikki xayvonlar guruxi – eksperiment o'tkazilayotgan va nazorat

kiluvchi guruxlar kiyos kilinib, eksperiment o'tkazilayotgan guruxda sinalgan preparatning samaradorlik darajasi aniqlanishi mumkin. Bunda har ikkala gurux bir xil sharoitda saklanib (A, S, D), eksperiment davomida bittasiga V holati kushiladi. Bu esa avvalgi holda yukbo'lgan d hodisaning vujudga kelishiga sababchi bo'ladi. Ana Shunga asoslanib, « V holati d hodisasi sababi bo'lishi mumkin » degan xulosaga kelinadi.

Demak, tafovut metodiga muvofik, *hodisa vujudga kelayotgan va vujudga kelmayotgan hollar ulrdan avval kelayotgan holatlarning bittasidagina farq qilib, kolgandlarida o'xshash bo'lsa, ana Shu bitta holat kuzatilayotgan hodisaning sababidir.*

Yo'ldosh o'zgarishlar metodi. Bu metod hodisadan avval kelayotgan holatlardan birining o'zgarishi, qolgan holatlar o'zgarimasdan qolganda, hodisaning o'zgarishiga olib kelishi kuzatiladigan sharoitlarda qo'llaniladi.

O'xshashlik va tafovut metodlari holatlardan birortasining takrorlanishi yoki yo'q bo'lishini qayd etishga asoslangan bo'lib, ular sababiy aloqada bo'lgan hodisalarni neytrallashtirish yoki boshqalari bilan almashtirish iloji bo'lgan sharoitlarda qo'llanilishi mumkin edi. Yo'ldosh o'zgarishlar metodidan bunday vaziyatlarda foydalanib bo'lmaydi. Masalan, tushunchaning mazmunining o'zgarishi uning hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishini o'rganishda tushunchaning mazmunini neytrallashtirib, ya'ni uni tushuncha xajmi bilan birga bog'lanishidan «uzib» olib bo'lmaydi. Xuddi Shuningdek, atrof – muxitning ta'sirini istisno qilib bo'lmaydi, ya'ni tajribadan chiqarib tashlab bo'lmaydi. Bunday hollarda faqat yo'ldosh o'zgarishlar metodidagina foydalanish mumkin. U avval va keyin kelayotgan o'zaro bog'liq hodisalardagi yo'ldosh o'zgarishlarni – birining o'zgarish intensivligi va darajasining ikkinchi hodisadagi sodir bo'layotgan o'zgarishlarga muvofiqligini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Yo'ldosh o'zgarishlar metodiga muvofiq, *bir holatning o'zgarishi hodisaning o'zgarishiga ham olib kelsa, Shu holat kuzatilayotgan hodisa o'zgarishining sababidir.*

- **Yo'ldosh o'zgarishlar metodi yordamida juda ko'p qonunlar, Shu jumladan, fizikadagi gazning harorati bilan uning zichligi, tortishish kuchi bilan masofa, iqtisodiyotdagi talab va taklif o'rtasidagi bog'lanishlar va Shu kabilar o'rganiladi.**

Hodisadan avval kelayotgan holatlarni A, V, S lar bilan, bu holatlarning o'zgarishi darajasini 1, 2,..., n bilan, hodisani d bilan belgilasak, yo'ldosh o'zgarishlar metodida muhokama jarayonining quyidagi sxema bo'yicha amalga oshishini ko'ramiz:

Hollar	Hodisa vujudga kelishdan avval mavjud bo'lgan holatlar	Hodisa
1	AVS ¹	d ¹
2	AVS ²	d ²
...
n	AVS ⁿ	d ⁿ

Ehtimol, s holat d hodisa sababidir.

Masalan, Quyoshning dastlabki holatdagi aktivligi S¹ ga teng bo'lganda, Erda radiatsiya darajasini d¹ deb olsak, Quyosh aktivligining S² darajasiga ko'tarilishi Erdagi radiatsiya darajasining ham d² gacha ko'tarilishiga olib keladi. Yo'ldosh o'zgarishlar metodining qo'llanishi ma'lum bir shart – sharoitlarga rioya qilishni taqazo etadi.

Qoldiq metodi. Bu metod o'rganish ob'ekti murakkab hodisadan iborat bo'lib, bittasidan boshqa qismlarining sabablari aniq bo'lganda, ana Shu qolgan qismni vujudga keltiruvchi sababni topish maqsadida qo'llaniladi. Uning muhokama yuritish jarayonida amal qilish sxemasi quyidagicha:

Hollar	Hodisadan avval kelib, uning ayrim qismlarini vujudga keltiruvchi holatlar	hodisa
---------------	--	--------

1	AVS	x, y, z
2	A	x
3	V	y

Ehtimol, S holat z ning sababidir.

Qoldiqlar metodini qo'llash natijasida geliy, rubidiy kabi ximiyaviy elementlar, Neptun planetasi topilgan va boshqa turli sohaga oid ko'p hodisalar aniqlangan.

Bu metodni qo'llaganda muhokama yuritish jarayonining qanday kechishini Neptun planetasining kashf etilishi misolida ko'rib chiqamiz. Uran planetasining harakatini kuzatar ekanlar, olimlar uning xisoblab chiqilganda ko'proq miqdorda og'ishgan orbita bo'ylab harakat qilishini qayd etganlar. Ma'lumki, planetaning og'ishish miqdorining bir qismi unga Shu paytgacha ma'lum bo'lgan planetalarning ta'sir o'tkazishi bilan bog'liq. Qolgan qismining esa boshqa bir kuch ta'sirida bo'layotganini bu erda tushunib olish qiyin emas. Olimlar, Shu paytgacha noma'lum planetasining og'ishish miqdori ko'payayotgan bo'lsa kerak, degan taxminiy fikr bildirishgan. Oradan ma'lum bir vaqt o'tgandan keyin, Levere xisoblash yo'li bilan Yangi planetaning – Neptunning joylashishini aytib beradi. Nixoyat I. Galle 1946 yili Yangi qurilgan teleskop yordamida uni osmon sferasidan topadi.

Agar Uran planetasiga ta'sir etuvchi planetalarni A, V, S lar, Uran planetasining umumiy og'ishish miqdorini tashkil etuvchi qismlarini a, v, s, d bilan belgilagan holda, og'ishishning a miqdorini – A planetasi, v miqdorini – V planetasi, s miqdorini – S planetasi ta'siri bilan bog'lasak, unda d miqdori «Qandaydir noma'lum X planetasi mavjud bo'lib, ana Shuning ta'sirida vujudga kelsa kerak», degan xulosani hosil qiluvchi muhokamaning amalga oshayotganini ko'ramiz.

Statistik umumlashtirish

U to'liqsiz induksiyaning alohida bir turi bo'lib, ilmiy induksiya singari, xulosa chiqarishda eliminatsiya qilish usuliga, yani keraksiz holatlarni muhokamadan chiqarib tashlash yo'li bilan kerakli holatlarni ajratib olishga asoslanadi. U ommoviy tusga ega, keng kulamda sodir bo'ladigan hodisalarni o'rganishda kulaniladi. Masalan, U iksodiy rivojlanish kursatgichlarini o'rganish, tug'ilish va o'lish haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va Shu kabi hollarda muvaffaqiyatli kulaniladi.

Ommaviy tusdagi hodisalarni o'rganish tasodifiy belgilar, ularning mavjud hodisalarda takrorlanishi, kulamini aniqlashga yordam beradi va Shu tariqa sababiy aloqalarni o'rnatishni osonlashtiradi.

4. Analogiya

Analogiya (grek. – *moslik, o'xshashlik*) bevosita xulosa chiqarishning bir turidir. Deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiylikdan xususiylikka qarab, induksiyada xususiylikdan umumiylikka qarab harakatlansa, analogiyada esa bir xususiy holatdan boshqa xususiy holatga qarab harakatlanadi.

Analogiyada peredmenlarning o'xshash xossalriga asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyatda ob'ektiv turli-tumanlik bilan bir qatorda, ob'ektiv o'xshashlik ham mavjuddir. Ular inson ongida o'z ifodasini topadi. Ob'ektiv raellikning turli sohalarga oid qonun va koidalar tuzulishi jihatidan o'xshash bo'lsa, ular aks ettirgan voqealikdan turli narsa va hodisalar ham ma'lum ma'noda o'xshash bo'ladi.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish ob'ektiv reallikning cheksiz ko'rinishlari hamda unda mavjud bo'lgan turli sistemalarning xossalari, munosabatlari strukturalaridagi o'xshashliklarga

asoslanadi. Masalan, sayyoralar, davlatlar, ijtimoiy tuzumlar mohiyatida o'xshashlik bor. Bilishda muhim va nomuhim xossalari o'xshashligi asosida analogiya bo'yicha xulosa chiqariladi.

Analogiya vositasida bir predmetdan (modeldan) boshqa predmetga (prototipga) axborat o'tkaziladi. Xulosa asoslari modelga, xulosa prototipga taalluqli bo'ladi. Masalan, kadimgi greklarning «Dedal va Ikar» afsonasida aytilishicha, ota va bola qullikdan ozod bo'lishi uchun o'zlariga qanot yasashadi va uchib ketishadi. Bunda xulosa chiqarish quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Kush tirik mavjudod, uning qanoti bor, u uchadi.

Inson ham tirik mavjudod, uning qanoti yo'k, u uchmaydi.

Insonning ham qanoti bo'lsa, u, ehtimol uchadi.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish boshqa xulosa chiqarishlar kabi asoslardan, xulosadan va asoslar o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iboratdir. Uning xulosasi ehtimoliy shaklda bo'lib, keyingi tekshirishlarni talab qiladi. Aniq asoslardan ba'zan aniq, ba'zan ehtimoliy xulosa chiqadi.

Analogiya o'zining ob'ektiv asosiga ega. Bular perdmntlar, ularning xossalari o'rtasidagi aloqalar va munosabatlardir.

- Xususiyatlar analogiyasi va munosabatlar analogiyasi.

Modeldan prototipga o'tkazilayotgan axborotning tabiatiga ko'ra analogiyaning ikki turi farqlanadi: xususiyatlar analogiyasi va munosabatlar analogiyasi.

Hulosa, hususiyatlar analogiyasida ikki yakka predmetyoki bir turdagi ikki predmetlar sinfi o'xshash belgilariga ko'ra uzaro takkoslanadi. O'xshash belgilarga asoslanib, birida mavjud bo'lgan belgining boshqasida ham bo'lishi mumkinligi hakida xulosa chiqariladi. Masalan, Er va Kuyosh qator muhim xossalari ko'ra o'xshashdir, ya'ni ular bir sayyoralar tizimiga kiruvchi osmon jismlaridir, ikkisi ham harakatda, kimyoviy tarkibi ham o'xshash. Ana Shu o'xshashliklarga asoslanib olimlar Quyoshda topilgan Yangi element-geliy Erda ham bo'lsa kerak, degan xulosaga kelganlar. Analogiya yo'li bilan chiqarilgan bu xulosaning chinligi ko'po'tmay tasdiqlandi – Erda ham geliy elementi topildi.

Uning xulosalari aniq, ehtimoldan holi bo'lganda, isbotlash jarayonida ishlatiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Xulosa chiqarishning mohiyati.
2. Deduktiv xulosalar chiqarish.
3. Aylantirish usuli.
4. Sillogizm aksiomasi.
5. Sillogizmning umumiy qoida va figuralari.
6. Entimema.
7. Epixeyrema

2.5 – Mavzu. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari

Reja:

1. Argumentlash (dalillash) va ishonch-e'tiqodning shakllanishi
2. Isbotlash va uning strukturasi, isbotlash turlari
3. Raddiya, rad etish usullari
4. Isbotlash va rad etish qoidalari, ularni buzganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar

Vatanimiz O'zbekistonning gullab-yashnashi, barqaror, mustahkam bo'lishi ma'lum bir darajada yoshlarning ongli, bilimli komil inson bo'lishlariga bog'liq. Bu haqda O'zbekistonning birinchi

Prezidenti I.A. Karimov Shunday deb ta'kidlagan: «Komil inson deganda biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tuShunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr uyi, xulosasini mantiq asosida ko'rgan kishi etuk odam bo'ladi».

CHuqur taxlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat baxs-munozara, taxlilga asoslangan to'g'ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo'l ochadi.

Baxs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning o'ziga xos qonun qoidalari mavjud. Bu qoidalarni bilish har bir insonga, Shu jumladan talabalarga, kursantlarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, to'g'ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

1. Argumentlash (dalillash) va ishonch - e'tiqodning shakllanishi

Mantiq ilmida isbotlash va dalillash tushunchalari o'zaro farqlanadi. **Dalillash** deb, biror fikr, mulohazani yoki mulohazalar tizimini voqelikka bevosita murojaat qilish yo'li bilan (*kuzatish, tajriba-eksperiment va hokazo asosida*) yoki chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar yordamida asoslab berishga aytiladi. Dalillash bevosita yoki vositali bo'ladi. **Bevosita dalillash** hissiy bilishga, ya'ni ko'rish, tajriba-eksperiment orqali amalga oshiriladi. **Vositali dalillash** esa, chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalarga asoslanadi va xulosa chiqarish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Dalillashning birinchi usuli *empirik*, ikkinchi usuli *nazariy* bilimlarga asoslanadi. Nazariy va empirik bilimlarning chegarasi nisbiy bo'lganligi kabi, dalillashning yuqoridagi ikki usulga ajratilishi ham nisbiydir.

Dalillashning xususiy ko'rinishi mantiqiy isbotlashdir. **Mantiqiy isbotlash** deb, biror fikr, mulohazaning chinligini, chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar orqali asoslashga aytiladi. *Isbotlashdan maqsad*, biror fikrning chinligini aniqlash bo'lsa, *dalillashdan maqsad* ham fikrning chinligini aniqlash, uning ahamiyatini va muayyan faoliyat uchun qo'llash mumkinligini asoslashdir. Isbotlash jarayonida qo'llaniladigan chin mulohazalar (asoslar) berilgan fikrning chinligini tasdiqlash uchun xizmat qilsa, dalillash, undan tashqari, dalillanayotgan fikrning boshqa Shu kabi fikrlardan afzalroqekanligini asoslash uchun ham xizmat qiladi. Dalillash uchun keltirilgan argumentlar (asoslar) isbotlash uchun keltirilgan argumentlarga nisbatan rang-barang bo'ladi. Dalillash shakllari bilan isbotlash shakllari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Isbotlash xulosa chiqarish ko'rinishida amalga oshadi. *Dalillash*ko'proq suhbat (dialog) ko'rinishida bo'lib, uning ishtirokchilaridan har biri o'z fikrining chinligini isbotlashga, raqibining fikrini rad etishga va tinglovchilarning o'zini ham fikr qilishga, o'z fikrlariga ishontirishga harakat qiladi.

Dalilillash jarayonida *retsipientlarga* (lot-**qabul kiluvchi**) — tinglovchilarga biror fikrning tug'ri yoki xatoligi asoslab beriladi va ularda Shu fikrga nisbatan ishonch tuyg'usi shakllantiriladi. Dalillovchi shaxsning so'z san'atini qay darajada egallaganligi, ya'ni notiqlik mahorati tinglovchilarda ishonch-e'tiqodning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga egabo'ladi, kishilarda ishonch-e'tiqodni shakllantiradi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Dalillash va isbotlash ishonch-e'tiqodni shakllantirish vositasidir.

2. Isbotlash va uning strukturasi, isbotlash turlari

Kishilarning amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ular qo'llayotgan bilimlarning qay darajada chin bo'lishiga, ya'ni bu bilimlarning voqelikni qanchalik tug'ri aks ettirishiga bog'liq. Xato fikrlar predmetlarning real aloqalari va munosabatlarini buzib ko'rsatadi, *bilishda* ko'p chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun ham bilish jarayonida har bir fikrni to'g'ri qurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan ko'rsata olish, xato fikrlarni esa rad qila bilish muhim ahamiyatga ega.

Fikrning chinligini tasdiqlash uchun uni *hodisaning* (*faktning*) o'zi bilan solishtirish mumkin. Lekin ko'p hollarda bilish jarayonida natijalarining chinligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan bog'lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli isbotlashdir.

Isbotlash bir hukmning chinligini u bilan bog'langan boshqa chin hukmlar yordamida asoslashdan iborat bo'lgan mantiqiy amaldir. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: *tezis*, *argumentlar* (asoslar), *isbotlash* usuli-*demonstratsiya*.

Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo'lgan hukm, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e'tibor uning chinligini ko'rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o'zidan, yoki mulohazalar tizimidan, yoki teoremlardan, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalaridan yoki xodisalarning sababini ko'rsatuvchi mulohazalardan va Shu kabilardan iborat bo'ladi.

Argumentlar-tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukmlar. Argumentlar bo'lib faktlarni qayd qiluvchi hukmlar, ta'riflar, aksiomalar, teoremlar, qonunlar hamda boshqa empirik va nazariy umumlashmalar xizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o'zaro bog'langan va tezisning mohiyatiga aloqador bo'lishi lozim.

Ta'riflar ham chin hukmlar bo'lib, ulardan argument sifatida foydalanish mumkin. Masalan, «*Harakat - bu har qanday o'zgarishdan iborat*» degan ta'rif chin hukmdir.

Aksiomalar chinligi o'z-o'zidan ravshan bo'lgan, isbotlashni talab qilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida ko'p martalab takrorlanganligi uchun ham ularni isbotlash zarur emas.

Teoremlar va qonunlarning chinligi isbotlangan bo'ladi, ularni hech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin.

Isbotlash usuli - *demonstratsiya* tezis bilan argumentlar o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo'ladi, ya'ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: *bevosita isbotlash*, *bavosita isbotlash*. **Bevosita isbotlashda** tezisning chinligi to'g'ridan-to'g'ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo'lgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko'phollarda yakka xodisani ifoda qilib keladi va ma'lum bir umumiy bilimdan, masalan qonundan, argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan «*O'zbekiston - mustaqil davlatdir*» degan hukm (tezis)ning chinligi «*O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi*» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo'lgan hukmning (*antitezisning*) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. **Antitezis** qanday shaklda ifodalangan bo'lishiga qarab **apagogik isbotlash** va **ayiruvchi isbotlash** farq qilinadi. **Apagogik isbotlashda** tezis (a) va antitezis (a) o'rtasidagi munosabatga asoslaniladi. Masalan «*Materiya harakatsiz mavjud emas*» degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo'lgan «*Materiya harakatsiz mavjud*» degan hukm olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma'lum bir natijalar keltirib chiqariladi (2-bosqich), so'ngra bu natijalarning xatoligi ko'rsatiladi (3-bosqich) va demak tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, «*Materiya harakatsiz mavjud*» degan hukm chin bo'lsa, «*Moddiy predmetlar strukturasisiz mavjud*» degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin bo'ladi. Bizga ma'lumki, moddiy predmetlar strukturasisiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning o'zaro aloqasisiz) mavjud emas. Demak «*Materiya harakatsiz mavjud*» degan fikr xato, Shu tariqa «*Materiya harakatsiz mavjud emas*» degan fikrning chinligi asoslanadi.

Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi hukmning (kuchli *diz'yunksiyaning*) bir a'zosi bo'lib, uning chinligi boshqa a'zolarining (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Masalan «*jinoyatni yo A, yo V, yo S shaxslar sodir etgan*» degan fikr tekshirilib, «*Jinoyatni V shaxs ham, S shaxs ham sodir etmaganligi aniqlanadi va Shu tariqa Jinoyatni A shaxs sodir qilgan*» degan hukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchiqat'iy sillogizmning inkor etibtasdiqlovchi modusi bo'yicha ko'rilgan:

$avbvc; b\cup s$

a

Barcha muqobil variantlar to'liq olingandagina xulosa chin bo'ladi, ya'ni tezis isbotlanadi.

3. Raddiya, rad etish usullari

Raddiya - isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amaldir. Birorta fikrning chinligini rad etish unga zid bo'lgan fikrning xatoligini ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun, raddiyani isbotlashning xususiy ko'rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (*rad qilinishi lozim bo'lgan hukm*), argumentlar (*tezisni rad qiluvchi hukmlar*) va demonstratsiyadan (*rad etish usuli*) dan tashkil topgan bo'ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish ya'ni baxs, munozara jarayonida uchraydi. Baxs qatnashchilaridan biri ma'lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (**proponent**), boshqasi unga qarshi chiqadi (**opponent**). Halqilinmagan, munozarali masalalar bo'yichaolib boriladigan baxslar polemika hisoblanib, unda qarama-qarshitezislarasoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham olinadi. Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

- 1) tezisni rad etish;
- 2) argumentlarni rad etish;
- 3) demonstratsiyani rad etish.

I. Tezisni rad etish

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo'lib o'tgan voqealarga, statistik ma'lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan: «Sovet davrida O'zbekiston mustaqil Respublika bo'lgan» degan tezisni rad etish, ya'ni uning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O'shadavrda Respublika raxbariyati birorta muhim masalani Moskvaning ruxsatsiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko'rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul "bema'nilikka olib kelish", deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto'g'ri ekanligi isbotlanadi. CHin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks xolda bu bema'nilik bo'ladi. "Bema'nilika olib kelish" usulining formulasi quydagicha:

$$(a \rightarrow b) \rightarrow ((a \rightarrow b) \rightarrow a)$$

3. Tezisni antitezis isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo'lgan Yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi. Masalan, Prezidentimiz I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli maqolasida "Amir Temir buyuk sarkarda bo'lgan va yovuzliklar qilgan", degan tezisni Shunday rad etadi: "Inson bir paytning o'zida ham bunyodkor, ham yovuz bo'lishi mumkin emas. Ne-ne madrasayu masjidlar, oliy koshonalarni qurgan, ne-ne olimu fuzalolarning boshini silagan, Qur'oni karimni yod bilgan inson yovuz bo'lmaydi. Qonxo'r odam "Kuch-adolatda", deyishi mumkinmi?"¹

Darhaqiqat, Sohibqiron Amir Temur homiyligida, uning ko'rsatmasiga binoan yaratilgan bog'lar, qurilgan imoratlar uning bunyodkor shaxs ekanligini yaqqol isbotlaydi.

II. Argumentlarni rad etish

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo'lishi ham mumkin:

$$\frac{p \rightarrow q, p}{\text{ehtimol, } q}$$

III. Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezis chinligining, uning asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo'l qo'yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari ko'pincha birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi.

4. Isbotlash va rad etish qoidalari, ularni buzganda kelib chikadigan mantiqiy xatolar

Tezisga aloqador qoidalar:

1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo'lishi kerak Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o'zining aniq predmetiga ega bo'lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish bexuda ish hisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etishning boshidan oxirigacha o'zgartirilmasligi kerak. Bu qoida buzilsa «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi.

Argumentlarga nisbatan qoidalar:

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin hukmlar bo'lishi va bir-biriga zid bo'lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun yetarli bo'lishi kerak

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan hukmlar bo'lishi lozim.

Isbotlash usulining qoidasi:

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo'lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur.

Isbotlash va rad etish qoidalarining buzilishi, mantiqiy xatolarga olib keladi. Bu xatoliklar uch turga bo'linadi:

I. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar;

I. *Tezisni almashtirish.* Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o'zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo'ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bu Yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining toraytirilishi yoki kengaytirilishi ham baxs jarayonida tezisning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, Respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkurga, milliy g'oyaning ahamiyati to'g'risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo'qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2. *Insoning shaxsiy sifatini baxona qilib tezisni almashtirish.* Baxs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponetning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlar yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, Shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan deb ta'kidlash tezisning almashinishiga sabab bo'ladi. Bunday xatoga ataylab yo'l qo'yiladi. Tinglovchilarning xis-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi.

3. *Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi.* Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis " o'rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A xodisadan V kelib chiqsa, lekin V xodisada №, A kelib chiqmasa, unda A xodisani ifodalovchi tezis Vxodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo'ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo'lib janjalni boshlamagan» tezis (V) o'rniga, «A shaxs umuman janjal bo'lgan yerda yo'q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo'lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko'rgan guvohlar bor.

II. Argument (asos) larga taalluqli xatolar.

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, qadimgi grek faylasufi Fales o'z ta'limotini hamma narsa suvdan paydo bo'lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaddan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, holos.

3. «Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, «So'zning qudrati fikr bilan o'lchanadi» degan tezisni «Fikrning qudrati so'z bilan o'lchanadi» deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yul ko'yiladi.

III. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan borliq xatolar.

1. «YOlg'on (soxta) isbotlash». Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Bunda tezisga aloqador bo'lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, «A shaxs yomon odam» degan tezis «Tunda yomon odamlargina

ko'chada yuradi», «A shaxs ko'chada tunda yuribdi» degan argumentlar bilan asoslansa, fikr Yuzaki (soxta) isbotlangan bo'ladi.

2. SHartlangan fikrdan, shartlanmagan fikrga o'tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo'lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o'zgarmas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi.

3. Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan xatolar:

a) Deduktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bu haqida deduktiv xulosa chiqarish mavzusida batafsil ma'lumot berilgan.

b) Induktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «shoshib umumlashtirish» va «undan keyin, demak Shuning uchun» deb ataluvchi xatoliklardir. Masalan, bir-ikki talabning darsga masuliyasizlik bilan munosabatda bo'lishini umumlashtirib, «hamma talabalar mas'uliyasiz», deb ta'kidlash xatodir.

v) Analogiyada uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «yolg'on analogiya» bilan bog'liq xatolardir. Unda tasodifiy belgi zaruriy deb olinishi, faqat birgina o'xshash belgiga asoslanishi yoki mutlaqo taqqoslab bo'lmaydigan xodisalar o'zaro taqqoslanishi natijasida fikrda chalkashliklar Yuzaga keladi.

Mantiqiy xatolar tafakkur qonunlarini buzish, xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik natijasida Yuzaga keladi. Mantiq tarixida isbotlash jarayonida ataylab (*qasddan*) xatoga yo'l qo'yuvchilar sofistlar deb, ularning ta'limoti esa **sofizm (grek-ayvorlik)** deb ataladi. Fikr yuritish jarayonida bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yilsa, paralogizm deyiladi. CHinligini ham, xatoligini ham birday isbotlash mumkin bo'lgan fikrlar esa, paradoks deb ataladi.

Baxs yuritish san'ati (eristika) o'ziga xos qonun-qoidalarga amal qilishni talab etadi.

Bularga asosan quyidagilar kiradi:

- zaruriyatsiz bahslashmaslik;
- mavzusiz baxs yuritmaslik va baxs davomida mavzudan chetga chiqmaslik yoki mavzuni o'zgartirmaslik;

- baxs mavzusi Yuzasidan o'zaro zid yoki qarama-qarshi fikrlar bo'lmasa, bahsni to'xtatish;

- mavzuni yaxshi biladigan, aqlli odamlar bilangina bahslashish;

- baxs yuritishda mantiqiy qonun-qoidalarga amal qilish, o'zining va muholifining fikrlaridan xulosa chiqara olish, mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish, asoslar to'g'ri bo'lsa, isbotlashning ham to'g'riligini e'tirof etish va h.k.

- bir bahs doirasida bahslashish usullarini aralashtirib yubormaslik

Argumentlashning mantiqiy asoslarini bilish va bahs yuritish qoidalariga amal qilish tafakkur madaniyatini yuqori darajaga ko'tarish imkonini beradi.

Takrorlash uchun savollar

1. Argumentlash va ishonch – e'tiqodning shakllanishi.

2. Mantiqiy isbotlash.

3. Isbotlash va uning strukturasi.

4. Raddiya, rad etish usullari.

5. Isbotlash va rad etish qoidalari.

3.1 – Mavzu. Etika fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati. Axloqiy madaniyat va qadriyatlar.

Reja:

1. Etika fanining tadqiqot doirasi.

2. Etika fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi.

3. Etika fanining yoshlar, xususan, harbiy xizmatchilar tarbiyasidagi roli.

4. Axloqiy madaniyat va qadriyatlar.

1. Etika fanining tadqiqot doirasi.

Kishilik jamiyatining rivojlanishi kelajak avlodning kim bo‘lib etishishi, eng avvalo, ularning bilim saviyasi, madaniyati va salomatligiga bog‘liqdir. Shuning uchun yosh avlod tarbiyasi hamisha diqqat markazimizda turishi lozim.

Har bir jamiyatning, millatning, xalqning o‘z urf-odatlarini, axloq va odob me‘yorlari mavjud. Jamiyat a‘zolar, ota-onalar, muallimlarning xalq oldidagi eng muhim burchlaridan biri milliy urf-odatlarini, axloq va odob qoidalarini yosh avlodga singdirish va Shu yo‘l bilan kelajak avlodga etkazib berishdir.

O‘zbek xalqining ota-bobolarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan hurmat, yoshlarga mehr-shafqat, mehmondo‘stlik, hashar, chanqagan odamga suv, keksalarga joy berish, qo‘l yuvmoqchi bo‘lgan kishining qo‘liga suv quyish, sochiq tutish, g‘am-g‘ussa tushgan xonadonga borib xol-ahvol so‘rash singari noyob milliy urf-odatlarini bor. Biz xalqimizga to‘g‘ri kelmaydigan kelgindi, yot urf-odatlarini singirdik, natijada milliy an‘analarimizni unutdik. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasini “zamonaviylashtirish”ga urinib, o‘zbek udumlarini o‘quvchilar va yoshlar ongiga singdirishda e‘tiborsizlik qildik. Ahvol Shu darajaga borib etdiki, ayrim yoshlarimiz kattalarga joy berish, hurmat qilish, ko‘cha-kuyda salomlashishni ham unutdilar. Ota-onaga, kattalarga hurmatsizlik, or-nomus talablariga rioya qilmaslik, behayolliklar Yuzaga keldi. O‘tmish sarqitlariga qarshi kurash niqobi ostida asrlar davomida qon-qonimizga singib ketgan “Navro‘z”dan voz kechdik, yasama marosimlarni, Yangi shakldagi besunaqay kiyim-kechaklar va kabilarni kiritishga bo‘lgan intilishlar odamlarning g‘azabini qo‘zg‘atdi.

Endilikda avval yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish imkoni yaratildi. Bu imkoniyatdan unumli va oqilona foydalanish zarur.

Hech bir inson jamiyatdan tashqarida, yakka holda yashamaydi. U odamlar orasida o‘sadi, ulg‘ayadi, hayot kechiradi, o‘zining butun hayoti va faoliyati davomida har xil toifadagi ko‘plab insonlar bilan, katta-yu kichik mehnat jamoalari bilan muloqotda bo‘ladi. Bu insonning o‘z kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Jamoa bo‘lib yashash jamiyatda qabul qilingan urf-odat, an‘ana va jamiyat o‘rtasidagi Yuzaga keladigan ob‘ektiv aloqadorlik, ya‘ni ijtimoiy munosabat – xulq-atvor, odob, xatti-harakat, prinsip va normalarining majmuasi axloqning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Binobarin, axloqning manbai jamiyat ehtiyoji va manfaatlaridan iborat.

1. Etika fanining tadqiqot doirasi

Etika bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan qadimiy fan. U bizda “**Ilmi ravish**”, “**Ilmi axloq**”, “**Axloq ilmi**”, “**Odobnoma**” singari nomlar bilan atab kelingan. Ovrupoda esa “**Etika**” nomi bilan mashhur, biz ham yaqin-yaqingacha Shu atamani qo‘llar edik. Uni birinchi bo‘lib YUnon faylasufi **Arastu** muomalaga kiritgan. **Aristotel (Aristoteles)(mil. av. 384-322)** – qadimgi Yunonistonda o‘ziga xos falsafiy ta‘limot yaratgan mashhur mutafakkir. Frakiyaning Stagira shahrida tug‘ilgan. Arastu fanlarni tasnif qilgan ekan, ularni uch guruhga bo‘ladi ya‘ni: **nazariy, amaliy va ijodiy.**

Birinchi guruhga- falsafa, matematika va fizika fanlari;

Ikkinchi guruhga – etika va siyosat;

Uchinchi guruhga esa – san‘at, hunarmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi.

Aristotel fan taraqqiyotining o‘zigacha bo‘lgan barcha yutuqlarini umumlashtirib, fanlarning yagona tizimini yaratdi. Barcha fanlar borliqni tadqiq etish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ular o‘z mohiyatiga ko‘ra, nazariy jihatdan o‘zi xizmat qilish, ichki takomil vazifasini bajarish, amaliy inson xulq-atvori uchun dasturulamal vazifasini bajara oladigan g‘oyalar va ijodiy fanlar biron-bir naf-foydaga yoki go‘zallikni ko‘zlagan bilimlarga bo‘linadi.

Nazariy fanlar umumlashtirish nuqtai nazaridan, o‘z navbatida (yuqoridagi birinchi guruhga e‘tibor bering) “birinchi falsafa”, matematika va fizikadan iboratdir. Birinchi falsafa barcha fanlardan yuqori

turadi. Barcha tabiiy va ijtimoiy ilmga erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, insoniyatni haqiqatga olib borishdir. Shundan kelib chiqqan holda, falsafaning predmetini tafakkur deb belgilash maqsadga muvofiq. Etika axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etadi va amaliyotda insonni ezgulik orqali haqiqatga olib borishga xizmat qiladi. Shu bois uni axloq falsafasi yoxud ezgulik falsafasi deb atash mumkin. Bugungi kunda falsafiy fan sifatida uch yo'nalishda ish olib boradi, ya'ni axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etar ekan, u axloqni:

birinchi-bayon qiladi;

ikkinchi – tuShuntiradi;

uchinchi – o'rgatadi.

Fanlar qatlamining ikkinchi o'rta bosqichini matematika tashkil etib, u jismlardan ajratish mumkin bo'lmagan xossalarning mavhum jihatlaridan sof miqdoriy munosabatlarni o'rganadi. Fizika esa fanlarning pastki qatlam bosqichini tashkil etib, jismlarning tabiatdagi holatlarini ochib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Aristotelning fikricha, inson siyosiy mavjudot bo'lib tug'iladi. Jamiyatni davlatdan ajratib bo'lmaydi. Jamiyat a'zolari uch toifadan iborat bo'lib, ular g'oyat boylar, kambag'allar va o'rta hollarga bo'linadi. Arastu boy va qashshoqlar toifalarini xush ko'rmaydi, chunki jamiyatdagi barcha noxushliklar, siyosiy beqarorlik, turli-tuman tahdid aynan Shu toifalar tufayli Yuzaga keladi. Eng ideal, orzudagi toifa bu o'rta hol kishilar toifasidir. Ular tufayli jamiyat rivoj topadi, el-yurt tinch, vaziyat barqarorlik tusini oladi. Arastuning axloq-odob to'g'risidagi g'oyalari uning davlat, siyosatga oid qarashlarning davomidir.

Arastu san'at, hunarmandchilik, amaliy fanlarda insonning qadr-qimmatini uning aqliy faoliyatida ko'zga tashlanadi. Insonning baxt-saodati haqida fikr yuritib, mutafakkir uni tugallangan umrning kuch-g'ayrati-energiyasi deb ta'riflaydi.

Shunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi ta'limotni fan darajasiga ko'targanlar va "Etika" (ta ethika) deb ataganlar.

Hozirgi kunda bu fanni ilmiy va zamonaviy talablar nuqtai nazaridan "Etika" deb atashni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Bugungi kunda Etika fani nimani o'rgatadi?

Etika – axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, xususiyatlari, jamiyat rivojidadagi o'rni, taraqqiyot qonunlarini o'rganuvchi va haqiqatligi amalda isbotlangan bilimlar majmuidan iborat fan.

Etika fani umumiy etika nazariyasi, tarixiy etika, normativ-qadriyatlar etikasi, kasb etikasi va axloqiy tarbiya nazariyasi kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

Umumiy etika nazariyasi axloqning tabiati, mohiyati, xususiyati, tarkibiy qismlari, uning jamiyat taraqqiyotidagi tutgan o'rnini o'rganadi.

Tarixiy etika axloqning kelib chiqishini, uning tarixiy taraqqiyot qonunlarini, har xil nazariyalarning tarixdagi o'rni, rivojlanish bosqichlari va tamoyillarini tadqiq etadi.

Normativ-qadriyatlar etikasi aniq axloq normalarini, axloqiy majburiylik talablarini, axloqiy meros sifatida shakllanib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan axloqiy qadriyatlar tizimini o'rganadi.

Kasbiy etika har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni o'rganadi va hayotga tatbiq etadi.

Axloqiy tarbiya nazariyasi axloqning jamiyat talabi, ehtiyoji va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni hayotga tatbiq etishning vosita va usullarini o'rganadi va o'rgatadi.

Etika fanining tarkibiy qismlari uzviy birlikda bo'lib, bir-birlarini taqozo etadi va to'ldirib turadi.

"Axloq" – arabcha so'z bo'lib, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, adab degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotda Yuz beradigan barcha jarayonlarni o'zida mujassam etadi.

"Axloq" iborasi ikki xil ma'noga ega.

Bular:

- umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot ob'ektini anglatasa;
- muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi.

Axloqni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning engkichik qismini - **odob**, undan kattaroq qismini -**xulq**, eng qamrovli qismini – **axloq** egallaydi.

Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro, Shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig‘indisi. Axloq normalari kishilarning xatti-harakatlarida o‘z ifodasini topadi. Bunda ba’zi xatti-harakatlar, xulq-atvorlar Axloqiy, ba’zilar Axloqsizlik deb baholanadi. Axloqni alohida falsafiy fan – “Etika” o‘rganadi. Uning burch, vijdon, or-nomus kabi bir qator kategoriyalari mavjud. Inson xatti-harakati va xulqidagi yo‘nalishlar, eng muhim belgilar mujassamlashib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida axloq asosi bo‘lib xizmat qiladi. Xalqimiz axloqiy tafakkur bobida boy merosga ega. Axloqqa oid fikrlar “Avesto”da, qadimiy turkiy bosh bitiklar va boshqa yozma manbalarda o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari, xalqimiz orasida keng tarqalgan pandnoma va odabnomalarda, xalq pedagogikasida, diniy-falsafiy risolalar hamda allomalar merosida axloq masalalariga keng o‘rin berilgan.

“Odob”– (*arab.* Adab so‘zining ko‘pligi) - inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi. Odob asosida axloqiy tamoyillar, me’yorlar, tarbiyalanganlik darajasi va estetik ideal talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o‘zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo‘sinda muomala qilishi, o‘z turmushi, bo‘sh vaqtini qanday tashkil etish, inson tashqi qiyofasi qanday bo‘lishi lozimligiga mansub qoidalar (masalan: or-nomus, sharm-hayo, iffat, kamtarlik, xushmuomalalik va boshqa ko‘pgina fazilatlarni o‘z ichiga oladi). Odob, birinchi navbatda oila muhitida, qolaversa, ta’lim-tarbiya ijtimoiy-foydali mehnat, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi.

Donishmandlar aytibdurkim:

Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go‘zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Odobli odam o‘z tengdoshlari orasida ham tahsinga loyiq, hech qanday ehson bermay kattadan-kichik, hammani shod qiladi. Hech qanaqa hadya qilmay kishilarning g‘animini tarqatadi

Odob ulug‘lar ko‘nglida yoshlarga mehr uyg‘otadi va u odobli yoshga bo‘lgan muhabbat ko‘ngilda abadiy qoladi. YOshlarni ko‘zga ulug‘ qilib ko‘rsatadigan fe‘l-atvori odobdir. Odoblilarning yurish-turishlarida xalq ulug‘vorlikni ko‘radi

Odob-aql va imonning chirog‘i, obro‘-e‘tibor sarmoyasidir

Aqlli odam boshqa bir odamning xatosidan saboq olib, o‘zi Shunday xatoga yo‘liqmaslik uchun harakat qiladi. YOshlik chog‘ida fazilat orttirish uchun zahmat cheksangiz, qariganda fazilatning o‘zi sizga xizmat qiladi

SHarmu hayo niqobidagi chehra qutida saqlangan qimmatbaho gavharga o‘xshaydi

Aql ulug‘likka, aqlsizlik esa tubanlikka etaklaydi

Etti narsa johillarning odati:

Har narsaga achchiqlanish, sinamagan odamga ishonish, do‘st-dushmani ajrata bilmaslik, sirini har kimga aytish, aqlsiz, nodon odamlarning maslahatlariga quloq solish, befoyda so‘zlarni ko‘p so‘zlash va loyiq bo‘lmagan odamlarga yordamlashish

Adabning yuqori bosqichi – go‘zal xulqdir

Oltin topmaginu o‘rgangin hunar,

Hunarning oldida hasdir oltin-zar

Abdurahmon Jomiy

Hunarli kishilar gapirmaydilar,

Qarab tur: hunarning o‘zi gapirar

Ahmad Donish

Har bir kishi – kasb-korini mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq-atvor fazilatlariga ega bo‘lmog‘i kerak

Abu Nasr Farobiy.

“**Xulq**”– oila, jamoa, mahalla-kuy miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui. Xulq – insonning ma’naviy qiyofasi va faoliyatiga xos bo‘lgan axloqiy tushuncha. SHaxs hayot tarzining o‘ziga xosligini, uning faoliyatida axloqiy qadriyatlar tamoyillari nechog‘li o‘zlashtirilganligi, odob me‘yorlari qay tarzda amaliy ahamiyat kasb etganligini va aksincha, odob-axloqqa zid bo‘lgan hislatlar mavjudligini ko‘rsatib turadi. Xulq shaxs axloqiy faoliyatining o‘lchami, ko‘rsatkichidir. SHaxsning yaxshi axloqiy fazilatlar bilan sug‘orilgan faoliyat tarzi “yaxshi xulq” namunasi bo‘lib xizmat qilsa, faoliyatida axloqiy qadriyatlarga zid amallarning namoyon bo‘lishi esa, “yomon xulq”ga misol bo‘la oladi. Inson xulqi uning ma’naviy-axloqiy dunyosining o‘ziga xos ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shuningdek, ma’naviy-ruhiy kechinmalarning inson xulqi orqali namoyon bo‘lishi ko‘p jihatdan mavjud shaxs ta’sirida bo‘lgan muhitning o‘ziga xos tarzda shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Bufikrlarimiznimisollar orqali tushuntirishga harakat qilamiz. Deylik, avtobusda yoshgina yigit, talaba hamma qatori o‘tiribdi. Navbatdagi bekatdan bir kekxa kishi chiqib, o‘tirish uchun atrofga nazar tashlay boshladi. O‘tirgan yigit darhol o‘rnidan turib: “O‘tiring, otaxon!” deb joy bo‘shatdi. Atrofdagi insonlar uning chiroyli xatti-harakatiga qarab, unga ich-ichidan minnatdorchilik bildirib: “Oilada chiroyli tarbiya berilgan ekan, odobli ekan”, deb qo‘yadilar. Hayotda Shunday voqealar ham uchrab turadi ya’ni buning aksi. Talaba teskari qarab olsa, yoki o‘zini juda charchagan holga solib, qariyaga joy bo‘shatmasa, albatta g‘ashimiz keladi, ko‘nglimizdan: “Buncha beodob, surbet ekan!” degan fikr o‘tadi, u bizda yoqimsiz taassurot uyg‘otadi. Qariyaga joy bo‘shatgani yoki bo‘shatmagani oqibatida salondagi yo‘lovchilarning qalbida talabaga nisbatan ijobiy yo salbiy baho beriladi.

Xulqqa quyidagicha misol keltirish mumkin: mahallamizdagi oila boshliqlaridan biri imkon boricha qo‘ni-qo‘shnilarning barcha marakalarida xizmatda turadi, qo‘lidan kelgan yordamini hech kimdan ayamaydi, ochiq ko‘ngil, tirishqoq, oila a’zolariga mehribon va h.k. Unday odamni biz xushxulq inson deymiz va unga mahallamizning namunasi sifatida qaraymiz. Bordi-yu buning aksi bo‘lsa-chi, u qo‘ni-qo‘shnilar bilan qo‘pol muomala bilan gaplashsa, to‘y-ma’rakalarda janjal ko‘tarsa, sal gapga o‘dag‘aylab, musht o‘qtalsa, ichib kelib, oilada xotin-bolalarini urib, haqoratlasa, uni badxulq deymiz. Uning badxulqliligidan oilasi, tevarak-atrofdagi ba’zi shaxslar jabr ko‘radi, mahalladagilarning tinchi buziladi. Bunday shaxslarni darhol mahalla oqsoqollari boshchiligida tarbiyaviy ishlarni olib borishlari lozim.

Oilada, mahalla-kuyda, jamiyatda insonlarning odoblilik va xushxulqlilikning keng yoyilishi jamiyat axloqiy hayotigagina emas, balki butunligicha ijtimoiy taraqqiyotga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir tufayli garchand jamiyat birdaniga yuksalib ketmasa-da, asta-sekinlik bilan, muntazam ravishda yaxshilanib, ravnaq topib boradi.

Axloqqa kelsak, masala o‘ta jiddiy mohiyat kasb etadi: deylik, bir tuman yoxud viloyat prokurori o‘zi mas’ul hududda doimo qonun ustuvorligini ta’minlash uchun intiladi, adolat qaror topishini ko‘zlab ish yuritadi, lozim bo‘lsa, hokimning noqonuniy farmoyishlariga qarshi chiqib, ularning bekor qilinishiga erishadi; oddiy fuqaro nazdida nafaqat o‘z kasbini e’zozlovchi shaxs, balki haqiqiy huquq posboni, adolatli tuzum timsoli tarzida gavdalanadi; u – umrini millat, Vatan va inson manfaatiga bag‘ishlagan yuksak axloq egasi; u, o‘zi yashayotgan jamiyat uchun namuna bo‘ladi. Agar mazkur prokuror, aksincha, qonun himoyachisi degan nomi bo‘la turib, o‘zi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yo‘lida oqni qora, qorani oq deb tursa, u axloqsizlik qilgan bo‘ladi: oddiy fuqaro nazdida birgina kishi – prokuror-amaldor emas, balki butun jamiyat adolatsiz ekan, degan tasavvur uyg‘onadi. Bunday tasavvurlarning muntazam kuchayib borishi esa oxir-oqibat o‘sha jamiyat yoki tuzumni tanazzulga olib keladi.

Bu o'ringda Shuni alohida ta'kidlash joizki, axloqiy tarbiya natijasida odoblilik – xushxulqlilikka, xushxulqlilik – yuksak axloqiylikka aylangani kabi, axloqiy tarbiya yo'lga qo'yilmagan joyda muayyan shaxs, vaqti kelib, odobsizlikdan – badxulqlilikka, badxulqlilikdan – axloqsizlikka o'tishi mumkin.

Xulosa qilib, yuqorida bayon etilgan masalalar, ya'ni axloq, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni kabi muammolarni o'rganish bilan bevosita etika fani Shug'ullanadi.

2. Etikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi

Milliy mustaqillikni mustaxkamlash jarayonida Etikaning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni. Vatanparvar, millatparvar, halol shaxsni – zamonaviy barkamol insonni voyaga etkazish va XXI asrda umumjahoniy miqyosda axloqiy muhitni yaratishga xizmat qilish Etika fanining eng dolzarb vazifalaridan ekanligi haqida ma'lumot berish.

Jamiyatimizdagi hozirgi Yangilanish jarayonida Etikaning o'z o'rni bor. Uning oldida Yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas'ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqqa Yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo'ladi.

Yangicha yondashuvlardan biri-Etikada milliy g'oya va mustaqillik mafkurasiga e'tiborni kuchaytirish bilan bog'liq. Chunki zamonaviy komil inson an'anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan Yangicha mafkuramizni o'zida mujassam etgan, milliy g'oyani o'z ruhiy olamiga singdirgan etuk shaxs bo'lmog'i lozim. Uning qalbida axloq mafkuraviylikni va mafkura axloqiylikni uyg'unlashtirgan ma'naviy hodisalarga aylanmog'i kerak. Chunki mafkura bir yoqlama, mahdud, o'ta siyosiy lashtirilgan g'oyalar tizimi emas, u ham xuddi axloq kabi, axloq bilan yonma-yon turib, insonni yuksak ma'naviy parvozlarga da'vat etuvchi botiniy kuchdir.

Etika oldida qator global muammolarni ham qilishdek o'ta muhim vazifalar ham bor. Ulardan biri va birinchisi ilm-fan taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan texnikaviy bosini bartaraf etish. XX va XXI asrda erishilgan fan-texnika yutuqlari hozirgi paytda inson va u yashayotgan sayyoraning kelajagiga tahdid solmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalari, ballistik raketalar, eng Yangi texnikaviy ko'rsatkichlarga ega qiruvchi, bombardimon harbiy uchoqlar, suv osti va suv usti kemalari, eng Yangi rusmdagi tanklar hamda turli-tuman qurollar hammasi insonni yo'q qilishga qaratilgan. Ularni ishlab chiqarish korxonalari va sinov maydonlari ekologik buhronlarning manbaidir. Bular bir yoki bir necha mamlakat uchun emas, balki global, umumsayyoraviy falokat hisoblanadi. Ularning oldini olishni faqat bir yo'l bilan-biz yashayotgan texnikaviy muhitda (noosferada) axloqiy muhitni (etosferani) barqaror etish orqali hil qilish mumkin. Shuningdek, biologik Etika, ekologik Etika, o'lim jazosini bekor qilish muammolari ham global tabiatga ega.

Etika qadimda fizika va metafizika bilan birgalikda falsafaning uzviy (uchinchi) qismi hisoblanar ekan. Keyinchalik (Arastudan so'ng) alohida falsafiy yo'nalishdagi fan maqomini oldi. Bu fikrni quyidagicha kengaytiribroq talqin etish mumkin. Ma'lumki, falsafaning fanlar podshosi sifatidagi vazifasi barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, insoniyatni haqiqatga olib borishdir. Shundan kelib chiqqan xolda, falsafaning tadqiqot ob'ektini tafakkur deb belgilash maqsadga muvofiq. Etika axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etadi va amaliyotda insonni ezgulik orqali haqiqatga olib borishga xizmat qiladi. Shu bois uni axloq falsafasi yoxud ezgulik falsafasi deb atash mumkin.

Hozir u falsafiy fan sifatida uch yo'nalishda ish olib boradi, ya'ni axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etar ekan, u axloqni:

- 1) bayon qiladi;
- 2) tuShuntiradi;
- 3) o'rgatadi.

Shunga ko'ra, u tajribaviy-bayoniy, falsafiy-nazariy va rasmona-me'yoriy tabiatga ega. Qadimgilar uni amaliy falsafa deb ataganlar. Zero, sof nazariy etikaning bo'lishi mumkin emas. U insoniyat o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikmatlar, naqlar, matal-maqollar tarzida bayon etadi, kishilarni axloqiy qonun-qoidalarga o'rgatadi, ularga axloqning mohiyatini tuShuntiradi va falsafiy

xulosalar chiqaradi. YA'ni etika fanida Aflotun, Arastu, Epikur, Sitseron, Seneka, Avgustin, Farobiy, Ibn Sino, G'azzoliy, Nafasiy, Spinoza, Kant, Xegel, SHopenhauer, Foyerbax, Nitsche, VI.Solovyov, Losskiy singari buyuk faylasuflar yaratgan axloq nazariyasiga doir ta'limotlar bilan birgalikda "Patanjali", "Qutadg'u bilik", "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", Jomiyning "Bahoriston", Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Montening "Tajribanoma", Laroshfukoning "Hikmatlar", Gulxaniyning "Zarbulmasal" kabi amaliy axloqqa bag'ishlangan asarlari ham o'z mustahkam o'rniga ega. Etikaning boshqa falsafiy fanlardan farqi ham, o'ziga xosligi ham undagi nazariya bilan amaliyotning ana Shunday omuxtaligidadir.

Etika boshqa ijtimoiy-falsafiy fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning **nafosatShunoslik** bilan aloqasi qadimiy va o'ziga xos. Avvalo, insonning har bir xatti-harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki go'zallik) ham nafosat (tashqi go'zallik) xususiyatlarini mujassam qiladi. Shu bois Suqrot, Aflotun, farobiy singari qadimgi faylasuflar ko'p xollarda axloqiylikni ichki go'zallik, nafosatni tashqi go'zallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ma'lumki, san'at nafosatShunoslikning asosiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Har bir san'at asarida esa axloqning dolzarb muammolari ko'tariladi va san'atkor doimo o'zi yashayotgan zamonda erishilgan eng yuksak axloqiy darajani badiiy qiyofalar orqali bevosita yoxud bilvosita aks ettiradi. Demak, nafosatShunoslik o'rganayotgan har bir badiiy asar ayni paytda, ma'lum ma'noda, etika nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo'ladi.

Etikaning **dinShunoslik** bilan aloqasi Shundaki, har ikkala fan ham bir xil muammo – axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. CHunki umumjahoniy dinlar vujudga kelguniga qadar mavjud bo'lgan ma'lum urf-odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun-qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayni paytda, dinlar ham axloqqa ana Shunday ta'sir o'tkazganlar.

CHunonchi, islom dinini oladigan bo'lsak, Qur'oni karim, Hadisi sharif, **Ijmo'** va muayyan fatvolardagi mezonlar hamda talabalar musulmon Sharqi millatlari axloqiy darajasining shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, komil inson muammosi har ikkala fan uchun umumiy hisoblanadi. Farq Shundaki, etika bu muammoga zamonaviy tarbiya nuqtai nazaridan yondashadi.

Etikaning **huquqShunoslik** bilan aloqasi uzoq tarixga ega. Ma'lumki, juda ko'p hollarda axloq me'yorlari bilan huquq me'yorlari moxiyatan va mazmunan bir xil bo'ladi. Shunga ko'ra, etikani jamoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan etika deb atash mumkin. Zero, etika bilan huquqShunoslikning tadqiqot ob'ektlari ko'p jihatdan o'xshash, ular faqat yondashuv usuli nuqtai nazaridan farq qiladi, ya'ni huquq me'yorlarining bajarilishi, odatda, maxsus adliya idoralariidagi lavozimli kishilar orqali, majburiy sanksiyalar vositasida yo'lga qo'yiladi; axloq me'yorlari esa umumiy qabul qilingan milliy urf-odatlar, jamoatchilik fikri yordamida, alohida belgilangan kishilar tomonidan emas, balki muayyan ijtimoiy guruh, jamiyat tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, huquqShunoslik kasbi uchun muhim bo'lgan amaliy axloq jihatlarini etikaning huquqShunos odobi deb ataladigan maxsus sohasi tadqiq qiladi va tavsiya etadi.

Etika pedagogika bilan ham chambarchas aloqada. **Pedagogika** (*yun. –pais - bola, agogos - rahbar*) – tarbiya haqidagi ta'limot, tarbiyalash san'ati, tarbiya haqidagi fan. Pedagogika tarbiya va ta'lim sohasiga tegishli bilimlar yig'indisi. Pedagogika tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari va qonuniyatlarini, uning jamiyat hayoti va shaxs taraqqiyotidagi rolini, ta'lim jarayonini aniqlab beradi. U tarbiya nazariyasi, didaktikani o'z ichiga oladi. Shu bois etika o'zining nazariy va ayniqsa, amaliy jihatlarini bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi. Zero, maorif tizimidagi ta'lim-tarbiya o'zini har bir qadamda axloqiy tarbiya sifatida namoyon qiladi.

Qadimdayoq etikaning **ruhShunoslik** (psixologiya) bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istaklarini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhShunoslik, u yoki bu xatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asoslarning ruhiy tabiati va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, etika esa ruhShunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tuShuntiradi.

Etikaning **ijtimoiyShunoslik** (sotsiologiya) bilan aloqasi o'ziga xos. Bu ikkala fan inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy murvatlaridan bo'lmish axloqni o'rganadi. Lekin etikaning miqyosi bu borada keng. Ma'lumki, sotsiologiya insonlarning ommaviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadi. Etika esa, o'z mohiyatiga ko'ra, lozim bo'lganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chiqib, inson axloqining yuksak yutug'i sifatida kelgusi

davrlar uchun ham tarixiy va axloqiy ahamiyat kasb etgan shaxsiy, istisnoli xatti-harakatlarni hamda ularning sababiy asoslarini o'rganadi.

Etikaning **siyosatshunoslik** bilan aloqasi, ayniqsa, o'ziga xos va murakkab. Chunki siyosiy kurash qarama-qarshi axloqiy qoidalar va talablar kurashini taqozo etadi. Shaxsiy intilishlar bilan davlat va jamiyat manfaatlarining mosligi, maqsadlar va vositalarning pok yoki nopokligi muammolari o'rtaga chiqadi. Lekin, aslida siyosat qay darajada axloqiylik kasb etsa, Shunchalik u oqilona bo'ladi. Bu hozirgi kunda etika ham, siyosatshunoslik ham jiddiy tadqiq etilgan eng muhim umumiy muammolardan biridir. Shuningdek, rahbarlik odobi, partiyaviy odob, etiket singari etikaning muomala madaniyati doirasiga kiruvchi maxsus sohalari ham siyosatshunoslik bilan chambarchas bog'liq.

Etika va ekologik madaniyat. Insonning tabiatini o'zgartirish va o'zlashtirishga ongli ijodiy munosabati bo'lib, tabiiy qadriyatlarni kelajak avlodlarga bekamu-ko'st qoldirish mas'uliyati va burchini anglash. Hozirgi davrga kelib insoniyat tabiatga ongli, madaniy munosabatda bo'lish, uning kelajagini belgilovchi omil ekanligini anglay boshladi. Shu asosda "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarini tabiat foydasiga isloh (reforma) qilish, unga madaniy munosabatda bo'lish jarayoni ketmoqda. Madaniyat shakllarining ekologik ehtiyojlar doirasida integratsiyalaShuvi natijasida ekologik-axloqiy madaniyat, ekologik-huquqiy madaniyat, ekologik-iqtisodiy madaniyat va Shu kabi boshqa ekologik madaniyat yo'nalishlari vujudga kelib, o'z mazmunini vazifalarini konkretlashtirmoqda ekologik madaniyat maxsus ijtimoiy madaniyat sifatida inson va jamiyatning tabiatga nisbatan amaliy munosabatini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish funksiyalarini bajaradi. Tabiiy atrof muhit muhofazasining olamshumul muammoga aylanishi va keskinlashib ketayotganligi ijtimoiy hayotda ekologik madaniyatning ustuvorlashib borish qonuniyati vujudga keldi. Chunki, jahonda mamlakatlarning notekis rivojlanganligi, tabiiy atrof muhofazasiga turlicha munosabat, ayniqsa uning texnik-texnologik, intellektual, moddiy-moliyaviy imkoniyatlarining cheklanganligi: a) ijtimoiy taraqqiyotda ekologik madaniyatning rolini va ahamiyatini kuchaytirish chora tadbirlarini ko'rish; b) ekologik madaniyatning boshqa shakllari bilan integratsiyalaShuvchi va differensiyalaShuvi xususiyatlarini o'rganish; v) ekologik madaniyat mazmuni va funksiyasidagi o'zgarishlar dinamikasini tadqiq qilish; g) ekologik madaniyatni rivojlantirish usullarini, vositalarini va yo'nalishlarini ko'rsatish kabi vazifalarning dolzarbligini belgilaydi. Bu vazifalarning samarali hal qilinishi, ekologik xavfsizlik muammolari echimida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Etika va milliy istiqloq g'oyasi. Mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari YUrtboshimiz Islom Karimov asarlarida asoslangan ta'limot. Uning mazmuni quyidagilardan iborat:

- tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish va o'zlikni anglash mezoni bo'lish;
- xalqimizni tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy bayroq vazifasini o'tash;
- inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etish;
- har bir fuqaroning ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan eng maqbul yo'lni ko'rsata olish;
- millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch e'tiqodning manbai bo'lish;
- O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillariga birday taalluqli bo'lish;
- mamlakatimiz aholisi ongi va qalbida "O'zbekiston – yagona Vatan" degan tuyg'uni yuksak darajada shakllantirishga xizmat qilish;
- turli millat, qatlam, din vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen – ijtimoiy hodisa mazmuniga ega bo'lish;
- biron-bir dunyoqarashni mutlaqlashtirmaslik yoki biron-bir kuch, partiya yoki guruh qo'lida siyosiy qurolga aylanmaslik;
- har qanday ilg'or g'oyani o'ziga singdirishi va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olish;
- sub'ektivizm, volyuntarizm kabi illatlardan xoli va jamoatchilikning xolis fikriga tayanuvchi ob'ektiv mafkura bo'lish;
- so'z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olish;

- davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan g'oya, manfaat, maqsad-muddaolarni amalga oshirishning Yangi-Yangi vositalarini tavsiya eta olish, ya'ni Yangicha vaziyatga tez moslashadigan hozirjavob va ijodiy bo'lish.

Milliy istiqlol g'oyasi ana Shu qayd etilgan sifatlarga ega bo'lgan taqdirdagina jamiyat hayotida etakchi ma'naviy-ma'rifiy omilga aylanishi va kutilayotgan muhim vazifalarni bajara olishi mumkin.

Xullas, etika bilan milliy istiqlol g'oyasi o'rtasida, xalqona til bilan aytadigan bo'lsak, et bilan tirnoq darajasidagi yaqinlik mavjud.

3. Etikaning yoshlar, xususan, harbiy xizmatchilar tarbiyasidagi Vatanning roli

Ma'ruzamizning uchinchi savoli "Etikaning yoshlar, xususan, harbiy xizmatchilar tarbiyasidagi roli" haqida so'z yuritamiz.

Axloq-odob avvalo oiladan boshlanadi. So'ng bog'cha, maktab, oliy o'quv dargohlarida ham yoshlarda axloqiy tarbiyasida tarbiyachining yoki murabbiyning roli katta. Keling o'qituvchining roli yoshlar tarbiyasida qanday muhim rol o'ynashiga e'tibor beraylik.

O'qituvchilik jamiyat rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shuvchi kasblardan biri hisoblanadi. Bu kasb axloqning o'ziga xos xususiyatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabalarni eng zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularni hayotga tatbiq etishning yo'llarini ko'rsatib berish;
- ularga zamonaviy usullar asosida ta'lim-tarbiya berish, talabchan bo'lish, o'quvchi-talabalarni o'z bolasidek sevib tarbiya qilish;
- o'z fikrlarini aniq ifodalay olish, o'z ustida tinmay ishlash, o'quvchi-talabalarning qalbidan bilimga chanqoqlik hissini uyg'otish;
- turmushda o'z xulq-atvorini qattiq nazorat qilib, Shu asosda o'quvchi-talabalarga har sohada doimo ibrat bo'lish va x.k.

O'qituvchilar kasb axloqining jamiyat hayotida tutgan o'rni yosh avlodning xat-savodini chiqarish, ularga zamonaviy ilm sirlarini o'rgatish, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va Shu asosda ularda mehnatsevarlik, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash, Vatanni muqaddas deb bilish kabi tuyg'ularni shakllantirish bilan belgilanadi.

Vatan (arabcha – ona yurt) – kishilarning o'zi yashab turgan, avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan, millati shakllangan joy, ijtimoiy muhit, mamlakat. Vatan bir-birini taqozo etuvchi (uy, mahalla, shahar, qishloq, mamlakat kabi) bir qator hududlarni o'zida ifodalaydigan, ijtimoiy tushunchalarni o'z ichiga oladi, avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joy, zamin, o'lkani anglatadi. Vatanparvarlik otabobolardan meros qolgan zaminni sevish, xalq urf-odatlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish, o'z ona Vatani dushmanlardan, yot va begona g'oyalardan himoya qilish, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamasklikni nazarda tutadi.

Vatanparvarlik aniq bir hayotiy muhitda, ijtimoiy zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Uning to'la va to'g'ri shakllanishi, yuksak namunalarni ko'rsatishi uchun ham xalq va Vatan mustaqil bo'lishi lozim. Ana Shu sababdan mustaqillikni e'zozlashimiz, qadriga etishimiz, uni qadam-baqadam mustahkamlab borishimiz zarur. Shu yo'ldagi oliyanob fazilat va ezgu intilishlar bugungi kunda haqiqiy vatanparvarlik namunasidir.

Vatanparvarlik milliy istiqlol g'oyalarini targ'ib qilish, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasidagi do'stlik, tinchlik va ahillikni mustahkamlash uchun kurashishda ham namoyon bo'ladi. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Ozod va obod Vatanni vatanparvarlik g'oyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bunday g'oya va uning asosida shakllanadigan sog'lom mafkura hech qachon Vatandan tashqarida ildiz otmaydi va rivojlanmaydi. U xalqning milliy vatanparvarlik tuyg'usini o'zida aks ettirmasa, jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi bo'la olmaydi.

Vatanparvarlikni kamol toptirish ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, mafkuraviy, tarbiyaviy omillar bilan bog'liq. Bu nihoyatda katta mehnat talab qiluvchi murakkab vazifadir. Barcha kasbdagi

ziyolilar, tarbiyachilarning hozirgi muhim vazifalaridan biri kishilarda, xususan, yoshlarda Vatanga sadoqat, fidoyilik kabi fazilatlarini kamol toptirishdir.

Vatanparvarlik g'oyalari yoshlarimiz ongiga singdirish, avvalambor, oiladan boshlanadi. Ona Vatan, Vatanga muhabbat, Vatan tuyg'usi kabi ilk tushunchalar ham, avvalo, oila muhitida shakllanadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Inson o'zligini, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham Shu qadar ortadi. Vatanparvarlik g'oyalari yoshlar qalbi va ongiga singdirishda ta'lim va tarbiyaning turli shakllari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Vatanparvar insongina hozirgi kunda o'zlarining g'arazli va jirkanch niyatlarini amalga oshirish maqsadida yurtimizga har xil yo'llar bilan kirib kelayotgan, mustaqil dunyoqarashi shakllanib ulgurmagani yoshlarimiz qalbi va ongini qandaydir zararli va buzg'unchi g'oyalar bilan egallashga harakat qilayotgan yovuz kuchlarga qarshi kurasha oladi va o'z yurtini himoya qiladi. CHunki respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Mustaqil o'zbek davlati – xalqimizning tarixiy yutug'idir. O'z davlati bilan faxrlanish va fuqarolarning vatanparvarligi jahondagi ko'pgina mamlakatlarning ilg'or marralarga chiqib olishda yordam bergan. Mamlakatimiz tuprog'ida yashab turgan va o'zini vatanparvar deb hisoblagan har bir kishi uning yaxlitligi va birligini asrab-avaylashi shart".

Vatanni himoya qilish ham eng sharafli kasblardan biridir. Ushbu kasb egalari bo'lmish harbiy xizmatchilar – askar va ofitserlarning kasb axloqiy tarbiyasidagi roli bu:

- vatanparvarlik, mardlik, jasurlik;
- eng zamonaviy jang qurollari, usul va vositalarini bilish va qo'llay olish;
- jangovar o'rtoqlik qoidalariga sodiq qolish;
- jang maydonlarini tashlab ketmaslik;
- asrga tushishdan hazar qilish;
- harbiy qasamyodiga sodiq qolib, harbiy burchni hayotining so'nggi daqiqalari-ga qadar bajarish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Harbiy xizmatchilar kasb axloqining asosiy qoidalari ularning "harbiy qasamyodi" va nizomlarida o'z ifodasini topgan. Harbiy xizmatchilar kasb axloqining jamiyat rivojida tutgan o'rni mazkur mamlakat axolisining rivojida tutgan o'rni mazkur mamlakat axolisining tinch-totuv yashashlari uchun har tomonlama sharoit yaratib berish, ya'ni ularni tashqi xavf-xatar dushman tajovuzidan himoya qilish bilan belgilanadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarini axloqiy tarbiyalash ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, ularning kasbiy buzilishlarining oldini oluvchi eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining axloqiy tarbiyasi deb ularda axloqiy bilimlar, ehtiyojlar, g'oyaviy axloqiy ishonch, axloqiy his-tuyg'ularni shakllantirishga qaratilgan jarayonga aytiladi.

Axloqiy tarbiya ilmiylik, g'oyaviylik, haqqoniylik, maqsad va vositalarning mushtarakligi, voqelik bilan uzviy bog'lanish, ijodiy yondashuv prinsiplariga amal qilgan holda olib borilib, ichki ishlar idoralari xodimlarini kasbiy tanazzulga uchrashdan saqlab turadi.

Axloqiy tarbiya prinsiplaridan tashqari, axloqiy tarbiya metodlaridan o'z vaqtida unumli foydalanish, kasbiy buzilishga yo'l qo'ymaydigan eng ishonchli omil hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya usullari deb ichki ishlar idoralari rahbar xodimlari va jamoalari tomonidan axloqiy e'tiqodlarni, axloqiy his-tuyg'u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining majmuasiga aytiladi.

Axloqiy tarbiya usullari jumlasiga ishontirish, rag'batlantirish va jazolash, shaxsiy namuna ko'rsatish, musobaqa-bellaShuv, tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish kiradi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) ichki ishlar idoralari xodimlarini har qanday qiyin va xavfli sharoitlarda ham yuksak darajada axloqiy g'oyalarga – Vatanga sadoqatli bo'lish, xalqiga chin dildan xizmat qilish, insoniylik, adolatparvarlik, qonuniylik, jamoatchilik, milliy g'urur, sha'n va qadr-qimmatni saqlashni oliy axloqiy hislatlar deb tushunish ruhida tarbiyalash;

- 2) axloqan pok, rostgo'y, sobitqadam, tashabbuskor, mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi ichki ishlar idoralari xodimlarini tarbiyalab etishtirish;
- 3) mard, jasoratli, tadbirkor, o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yishni xayoliga ham keltirmaydigan xodimlar avlodini vujudga keltirish;
- 4) yuksak darajadagi axloqiy-huquqiy madaniyat sohibi bo'lgan, kasb madaniyatining sir-asrorlarini puxta egallab ichki ishlar idoralari xodimlarini kamol toptirish;
- 5) yuksak darajadagi professional bilimga ega bo'lgan, o'zining axloqiy-kasbiy burchini chuqur his qiladigan, "militsiya xodimi" yoki "harbiy xizmatchi", degan yuksak nomga dog' tushirmaydigan ichki ishlar idoralari xodimlarini tarbiyalab etishtirish va ularning qahramonligi, odamiyligi, insonparvarligi, xushmuomalaligi bilan faxrlanish mumkin bo'ladigan huquqshunos mutaxassislarini tarbiyalash.

Etika va estetika. Etika boshqa ijtimoiy va falsafiy fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning estetika bilan aloqasi qadimiy va o'ziga xos.

Avvalo, insonning har bir xatti-harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki go'zallik), ham nafosat (tashqi go'zallik) xususiyatlarini mujassam qiladi.

Etika va dinshunoslik. Etikaning dinshunoslik bilan aloqasi shundaki, har ikkala fan ham bir xil muammo - axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. Chunki umumjahoniy dinlar vujudga kelguniga qadar mavjud bo'lgan ma'lum urf-odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun-qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayni paytda, dinlar ham axloqqa ana shunday ta'sir o'tkazganlar.

Etika va huquqshunoslik. Etikaning huquqshunoslik bilan aloqasi uzoq tarixga ega. Ma'lumki, juda ko'p hollarda axloq me'yorlari bilan huquq me'yorlari mohiyatan va mazmunan bir xil bo'ladi. Shunga ko'ra, axloqni jamoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin.

Etika va pedagogika. Etika pedagogika bilan ham chambarchas aloqada. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini pand-nasihatlarsiz, odobnoma darslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois Etika o'zining nazariy va, ayniqsa, amaliy jihatlari bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi.

Etika va ruhshunoslik. Qadimdayoq Etikaning ruhshunoslik bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istaklarini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asoslarning ruhiy tabiati va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, Etika esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi.

Etika va sotsiologiya. Etikaning sotsiologiya bilan aloqasi o'ziga xos. Bu ikkala fan inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy murvatlaridan bo'lmish axloqni o'rganadi. Lekin Etikaning miqyosibuboradakeng. Ma'lumki, sotsiologiya insonlarning ommaviy xatti-harakat va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasida qadriyat tadqiq etadi. Etika esa, o'z mohiyatiga ko'ra, lozim bo'lganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasida chiqib, inson axloqining yuksak yutuq sifatidaki kelgusidavrlar uchun ham tarixiy va axloqiy ahamiyat kasbetgan shaxsiy, istisnoli xatti-harakatlarni ham daularning sababiy asoslarini o'rganadi.

4. Axloqiy madaniyat va qadriyatlar

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib etishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab etadi, o'zida axloqiy fazilatlarini barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me'yorlar asosida yashashga o'rganadi.

Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri - qanday yashamoq kerak, ikkinchisi - nima qilmog‘-u, nima qilmaslik lozim. Ana Shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko‘rinishidir.

Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma‘nosi, avvalo, ota-onaning o‘zi axloqiy tarbiya ko‘rgan bo‘lishi kerak degani. Zero, qush inida ko‘rganini qiladi: ota-ona oilada yuksak axloq namunasini ko‘rsatishi lozim.

Shuni ham alohida ta‘kidlash joizki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlari ko‘p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To‘g‘ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne‘mat. Shu ma‘naviy ne‘mat -asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz. Aks holda maymun va itlardan ham axloqiy mavjudot tarbiyalab etkazishimiz mumkin bo‘lur edi.

Shunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka etkazish yo‘llaridan biri. Uning vositalari ko‘p. Ularning bir qismi *an‘anaviy tarbiya vositalari* bo‘lsa, yana bir qismi *zamonaviy vositalar*. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. CHunonchi, maktabgacha bo‘lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an‘anaviy tarbiya bilan o‘yinchoqlar va o‘yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo‘llaniladi; bunda bola qizg‘anchilik, g‘irromlik qilmaslikka, halol bo‘lishga o‘yinlar yordamida da‘vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televidenie, radio, qo‘g‘irchoq teatri, kino san‘ati katta rol o‘ynaydi.

Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi - *san‘at*. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san‘atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib romangacha bo‘lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko‘rsatadilar. Ular orqali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo‘ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, avval aytganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: «Kalila va Dimna», «Qobusnoma», «Guliston», «Zarbulmasal» singari bunday mumtoz asarlar an‘anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan-qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham Shunday bo‘lib qolajak.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo‘lgan yo‘li, bu - *namunaviylik* tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota-ona bolaga axloqiy namuna bo‘lishi kerak. Maktabda va oliy o‘quv yurtida muallimlarning ta‘lim berish usullaridan tortib, to «mayda-chuyda» xatti-harakatlarigacha o‘z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo‘ylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta‘minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida *televidenienik*eltirish mumkin. U deyarli barcha san‘at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko‘rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag‘ishlangan muntazam ko‘rsatuvlar ham berib boriladi. O‘zbek tilidagi «Otalar so‘zi - aqlning ko‘zi», «Rivoyat», «Oqshom ertaklari» singari ko‘rsatuvlar bunga misol bo‘la oladi. Shu bois televidenie hech qachon engiltaklikni targ‘ib etuvchi qo‘shiqlar, salkam pornografik reklamalar, inson qalbini qattiqlashtiradigan «o‘ldir-o‘ldir»lardan iborat videofilmlar korxonasi bo‘lib qolmasligi kerak.

Axloqiy tarbiyaning aqliy-ma‘naviy va jismoniy tarbiya bilan qo‘shib olib borilishi maqsadga muvofiq. O‘shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan fuqarolik jamiyatiga aylanadi. Mamlakatimizda buning uchun barcha huquqiy-ijtimoiy shart-sharoitlar yaratilgan.

Xulosa qilib, Etikaning yoshlar, harbiy xizmatchilar tarbiyasidagi rovida Vatanga bo‘lgan muhabbat, Vatanni muqaddas deb bilish, mehnatsevarlik, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash umuminsoniy qadriyatlarni e‘zozlash kabi muqaddas burchi va x.k. tarbiyasidagi katta rol o‘ynashini anglatadi.

Takrorlash uchun savollar

1. “Etika” fanini nimani o‘rgatadi?

2. Axloq, odob, xulq iborasi nimani anglatadi?
3. Komil inson deganda kimni tuShunasiz?
4. Etika qaysi ijtimoiy fanlar bilan yaqindan aloqador?
5. Zamonaviy etika oldida qanday muhim vazifalar mavjud?

3.2 – Mavzu. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni.

Reja:

1. Muhabbat, oila nikohning axloqiy asoslari.
2. Oila - ma'naviy ijtimoiy muhit sifatida.
3. Fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari.
4. Axloqiy tarbiya.

1. Muhabbat, oila nikohning axloqiy asoslari

Inson kamoloti oiladan boshlanadi. Oila kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Shunga ko‘ra, jismonan sog‘lom, ma‘nan barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli yosh avlodni voyaga etkazish oiladan boshlanadi. Oiladagi sog‘lom muhit – sog‘lom mafkurani shakllantiradi. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o‘zaro bir- biriga hurmat, bir–biriga vafodor va sadoqatli bo‘lishga chaqirish bilan milliy mafkurada ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshiradi. Oila qurgan yoshlar hayot qiyinchiliklarini birga engishga, bolalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishga, ota-onalarini e‘zozlab ardoqlashga, bir-biriga mehribon bo‘lgani holda, hurmat ko‘rsatishga intiladilar. Oilada ota – onalar ham o‘z farzandlarini millatiga, vataniga sodiq hizmat qilish uchun to‘g‘ri tarbiyalashga harakat qiladilar. YUrtboshimiz Islom Karimov ta‘biri bilan aytganda: «Oila hayotning abadiylikini, avlodlarning davomiyligini ta‘minlaydigan, muqaddas urf odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib etishishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir.»¹⁰⁰

Nikoh – erkak va ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo‘lib, u fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga hizmat qiladi.

Nikoh o‘z mohiyatiga ko‘ra ahloqiy hodisa. Unda ehtiroslar axloqqa bo‘ysundiriladi. Oila quyidagi xolatlarda quriladi:

1. sevgi – muhabbat bilan;
2. hissob – kitob bilan;
3. urf – odat an‘anaga ko‘ra;
4. majbur bo‘lib qolgan holatlarda;

Oilaviy muhit. Oilaning mustahkamligi oila a‘zolarining axloqiy tarbiyasiga bog‘liq. Xalqimizda bejiz “Sog‘lom turmush tarzi mustaxkam oilaning garovidir” debaytilmagan. Sog‘lom turmush tarzi deganda biz nafaqat oiladagi er va xotinning bir – biriga bo‘lgan munosabati balki, ulardagi axloqiy fazilatlar, imonlilik, poklik, halollik, rostgo‘ylik, shirinso‘zlik, kabi axloqiy me‘yorlarga amal qilgan xolda urf – odatlarga asoslangan, zamonaviy oilani tuShunamiz.

Oila tashvishi ko‘proq ayol zimmasiga tushadi. Xalqimizda bejiz «Insonlar hamma vaqt ayollar istagani kabi bo‘ladilar, agrda buyuk va fazilatli odamlarga ehtiyojningiz bo‘lsa, ayollarga buyuklik va fazilat o‘rgating». – deb aytishmagan.

Oilaning mustahkamligi va totuvligi ko‘p jihatdan ayollarga bog‘liq dedik. Ammo bu fikr, oilada erkaklarning mas‘uliyati kam ekan, degan hulosaga olib kelmasligi kerak. J.Mazdani aytganidek «Erkak va ayol – bamisoli ikki mayin tovushki, inson qalbidagi torlar ularsiz haqiqiy va to‘laqonli ohang berolmaydi.» Darhaqiqat, erkaksiz oila bu baxti kemptik, yarimta oila demak, “erkak-oilaning ustuni» deb bekorga aytilmagan. Oilada azaldan erkaklar ro‘zg‘orning eng og‘ir yumushlarini o‘z zimmalariga olib kelganlar. Ota – bobolarimiz ham oila tinchligi avvalo erkakka bog‘liq, deb bilganlar.

¹⁰⁰ Каримов И.А. Оила фаровонлиги- миллат фаровонлиги Маърифат // 1997й,10дек.

Fuqarolik jamiyatining axloqiy asoslari

Dastlabki axloq maskani bo'lmish oilalar yig'indisi fuqarolik jamiyatini, millatni tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati mohiyatan oila bilan davlat o'rtasidagi daraja. Garchand, uning taraqqiyoti davlat taraqqiyotidan keyinroq ro'y bersa ham, u albatta davlatni taqozo etadi, ya'ni fuqarolik jamiyatining yashashi uchun uning oldida mustaqil nimadir - rasmiy, tizimli boshqaruv bo'lishi kerak.

Fuqarolik jamiyati zamonaviy dunyomizda vujudga keladi, zero, hozirgi paytdagina fuqarolar huquqi haqiqatan ham inobatga olinadi. Fuqarolik jamiyatida har bir odam o'zi uchun maqsad. Biroq, u boshqalar bilan munosabatga kirishmasdan turib, o'z maqsadiga to'la erisha olmaydi: boshqalar uning maqsadga etishishi yo'lidagi vositadir. Natijada har bir alohida maqsad boshqalar bilan o'zaro munosabatlar vositasida, ularning farovonlikka intilishini qanoatlantirgani holda, o'zi ham qanoatlanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, fuqarolik jamiyatida yaxshi, badavlat, baxtli, huquqiy yashash uchun bo'lgan har bir fuqaroning intilishi pirovard natijada butun jamiyatning o'shanday yashashiga olib keladi.

Fuqarolik jamiyati, Shunday qilib, bir kishining ehtiyojini uning mehnati vositasida qondirishi barobarida, Shu mehnat vositasida barcha qolganlarning ham ehtiyojini qondiradi. U o'z a'zolarining shaxsiy erkinliklari va huquqlarini himoya qiladi, odil sud vositasida ular mulkiga daxl qilinishiga yo'l qo'ymaydi. Fuqarolik jamiyati turli tabaqalardan tashkil topadi. Ular orasida tabaqaviy yoki sinfiy ziddiyat singari hodisalar ro'y berishi mumkin emas. Chunki bunda shaxs - davlat fuqarosi, muayyan inson manfaatlarini birinchi o'rinda turadi va bu manfaatlar, aytganimizdek, ham axloqiy, ham qonuniy jihatdan himoya qilinadi. Zotan, «Biz uchun fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. SHaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi»¹⁰¹.

Fuqarolik jamiyatining yashash sharti - erkinlik. SHaxsning qonun doirasidagi so'z erkinligi, fikr erkinligi va faoliyat erkinligiga to'la yo'l qo'yilmas ekan, fuqarolik jamiyati amalda mavjud bo'la olmaydi. Bu jamiyatning yana bir muhim tomoni Shundaki, unda qarindoshlik, urug'doshlik, elatdoshlik singari hissiyotlardan kasbdoshlik, mahalladoshlik hissiyotlari ustun maqomga ega bo'ladi; yonma-yon ishlayotgan va yashayotgan jamiyat a'zolari, «begonalar» - umumiy maqsad uchun kurashayotgan hamma elkadoshlar o'zlarining uzoq qarindoshlaridan ko'ra bir-birlariga yaqinroq ekanliklarini anglab etadilar. Undagi boshqaruv esa erkin tanlov va erkin saylov asosida, hokimiyat idoralari tazyiqidan qonun bilan himoyalangan ixtiyoriy tuzilmalar ko'magida ish olib boradi. Shu bois davlatimiz rahbari Islom Karimov fuqarolik jamiyatini mamlakatimiz siyosiy va davlat qurilishining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ta'kidlaydi va bu xususiyatning mohiyatini «mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari vazifalarini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o'tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalari huquqi va mavqeini oshirishni ko'zda tutadigan «Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari» konsepsiyasini amalga oshirish»dan iborat deb ta'riflaydi.

Mamlakatimizda hozir erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini tuzishga kirishganmiz. Bu jamiyat, ma'lum ma'noda, g'arbliklar tasavvuridagi fuqarolik jamiyatlaridan farq qiladi. G'arbda bu borada e'tibor asosan huquqiy yo'nalishning ustuvorligiga qaratilsa, bizda axloqiy-ma'naviy yo'nalishning ustuvorligini ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, biz qurayotgan fuqarolik jamiyati G'arb dunyosi uchun o'rnak bo'lishi mumkin. Bu faxrlanish hissidan kelib chiqqan balandparvoz gap emas. Masala Shundaki, G'arb jamiyatlari hozirgi paytda axloqiylikni huquqiylikning yuqori bosqichi sifatida qabul qilmoqdalar. Lekin ular uchun «axloqiy o'rin bo'shatishdan» ko'ra «huquqiy o'rinni egallab turish» nafaqat qonuniy, balki zavqliroq tuyuladi. Bizning mentalitetimizda esa buning aksi - har bir «axloqiy o'rin bo'shatish» o'zbek qalbiga quvonch, o'z insonlik burchini bajarganlik hissini to'ldiradi.

¹⁰¹ Каримов И.А. Асарлар. 15 томлик. Т.6. /Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Тошкент. Ўзбекистон. 1998, 127-б.

Bundan tashqari, bizda fuqarolik jamiyati qurishni ma'lum ma'noda tezlashtiradigan, G'arb mentalitetiga xos bo'lmagan makon borki, bu mahalladir. O'zbek mahallalari tom ma'noda axloqiy tarbiyaning maskani; oila kattalari bolaga qanchalik tarbiya bera olsa, o'sha oila yashayotgan mahallaning tarbiya borasidagi hissasi ham Shuncha bo'ladi, desak xato qilmaymiz. Buning ustiga, mahallada xalqimizning qadimiy demokratik an'analari hozir ham o'z kuchini yo'qotgan emas. Mahallada yashayotgan hukumat a'zosi ham, millioner tijoratchi ham, farrosh ham, oddiy o'qituvchi ham bir xildagi mahalladoshlik huquqiga ega. CHunonchi, mahallaning oqsoqoli oddiy o'qituvchi bo'lishi mumkin va ko'p hollarda Shunday ham. Hukumat a'zosi yoki millioner esa, mahallada faqat mahalladoshlik «lavozi»da bo'ladi. Ularning farqlanishi faqat axloqiy jihatlari bilangina belgilanadi. Ana Shu xususiyatlari bilan mahalla o'z-o'zini boshqarish tuzilmasi sifatida oiladan fuqarolik jamiyatiga o'tish uchun axloqiy ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Bunday oraliq bog'lovchi tuzilma, yuqorida aytganimizdek, G'arb olamida yo'q. Demak, Shunga ko'ra ham, bizda fuqarolik jamiyatiga o'tish nisbatan osonroq kechadi, degan fikrni bildirish mumkin. Bu borada Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning: «Shu ma'noda mahallani o'z-o'zini boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin», - degan so'zlari ayni haqiqatdir.¹⁰²

Shunday qilib fuqarolik jamiyati muayyan xalq uchun jam bo'lib, jamoat tarzda yashashning eng oliy shaxsi hisoblanadi va nosiyosiy bo'lgan barcha munosabatlarni o'z ichiga oladi. Unda shaxs erkinligini, «individning ochilishi» ixtiyoriy tarzda tuzilgan fuqarolar uyushmalari, tashkilotlari va birlashmalari doirasida o'zini namoyon qiladi; iqtisodiy, diniy, ma'naviy, axloqiy-estetik milliy, oilaviy v.b. munosabatlar davlat idoralarining aralaShuvisiz, o'z-o'zini boshqarish asosida amalga oshiriladi.

Davlatning axloqiy mohiyati

Buyuk olmon faylasufi Hegel davlatni axloqiy g'oyaning voqe bo'lishi deb ta'riflaydi va tabiiy munosabatlarni ma'naviy munosabatlar bilan muqoyasa qilib, oilani - hissiyotga, fuqarolik jamiyatini - asabning ta'sirlanish qobiliyatiga, davlatni esa o'zi uchun asab tizimiga o'xshatadi; u o'z ichida botinan tashkil topgan, biroq uning yashashi o'zida ikki holatning taraqqiy topishiga bog'liq, bular - oila va fuqarolik jamiyati. Davlat aqlning ro'yobga chiqishi sifatida har bir shaxs ixtiyoriga mosdir. Odatda, davlatning maqsadi o'z fuqarolarini baxtli qilish deb hisoblanadi. Agar fuqarolar qiynalsa, ularning sub'ektiv ehtiyoj-maqsadlari qondirilmasa, davlatning mustahkamligi Shubha ostida qoladi. Davlatning asosi – siyosiy tuzum. Uning taqdiri ham ana Shu siyosiy tuzumga bog'liq.¹⁰³

Ko'pdan-ko'p turli-tuman boshqaruv va tashkiliy institutlardan iborat bo'lgan davlatning eng muhim axloqiy vazifalaridan biri - tarbiya. Agar mazkur tarbiyada ommabop usullarning toshi bosib ketsa, u hol maqtarli emas; yoshlarning o'zligini anglagan shaxs bo'lib etiShuvi mushkullashadi. Shu bois, imkon boricha, tarbiyada individual yondashuvga intilish maqsadga muvofiq.

Demokratik tamoyillarni amalga oshirish jarayonlarida davlat, hamma fuqaro baravariga teng, degan usulda ish ko'rmasligi lozim, hammaning huquqiy tengligini tan olgan holda, ijtimoiy tenglashtirish tamoyiliga yo'l qo'ymaslik kerak. Davlatning mavjud bo'lish sharti, eng avvalo, uning suverenitetida. Bunda xalq tashqi olamga nisbatan mustaqil bo'ladi va o'z davlatini Shu mustaqillik asosida tuzadi. Shu bois suverenitet to'g'risida alohida to'xtalib o'tish joiz. Davlat suvereniteti eng avvalo millat suvereniteti demakdir. U shaxs mustaqiligini, huquqlarini kafolatlaydigan va millat hukmronligini to'liq ta'minlaydigan ijtimoiy-siyosiy hodisalar. Millat suvereniteti birinchi navbatda ularning siyosiy jihatdan o'z - o'zini boshqarishda qadimdan egallab kelgan hudud va undagi foydali qazilmalarga egalik qilishda, o'zi tanlagan davlat hokimiyatida hamda milliy fuqarolikda namoyon bo'ladi. Shuningdek, inson suvereniteti ham davlat

¹⁰² Ўша манба.

¹⁰³ Қаранг: Гегель Г. Философия права. Москва. Мысль, 1990. с.290.

suverenitetining muhim qismi hisoblanadi. U fuqaroning yashashga, mustaqil dunyoqarashga bo'lgan huquqi bilan belgilanadi va zulmga, adolatsizlikka, ochlikka, shaxs erkinligining buzilishiga qarshi kafolatlar majmuini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib suveren davlat inson huquqlarini, shaxs nomusi va qadr - qimatini himoya qilishni o'zining asosiy vazifasi, deb biladi. Uning yuksak axloqiy mohiyati ham ana Shunda. Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin o'z davlatimizni qadimiy davlatchiligimizning eng yaxshi an'analari bilan birga zamonaviy demokratik tamoyillar asosida qurishga kirishdik. Davlatimiz ham ma'naviy-axloqiy, ham jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat berib kelmoqda. 2000 yilning «Sog'lom avlod yili», 2001 yilning «Onalar va bolalar yili» deb atalgani bejiz emas, yosh avlod tarbiyasi bizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mana, ko'rinishidan juda oddiy bir misol. O'zini eng insonparvar davlat deb e'lon qilgan SHO'rolar Ittifoqi bunyodga kelganidan boshlab, deyarli yarim asr mobaynida bola tug'ilgach, onani uch oy ishdan ozod qilardi; ona uch oylik chaqaloqni bog'chaga tashlab, ishga chiqishga majbur bo'lardi, aks holda u buyruq bilan ishdan bo'shatilardi. Keyinchalik bu tarbiya ta'tili 1 yil qilib belgilandi. Bizning davlatimiz esa tashkil bo'lgani barobaridayoq bola tarbiyasini yuksak ijtimoiy-axloqiy hodisa sifatida e'tirof etib, Yangi tug'ilgan bola tarbiyasi uchun onaga 3 yilgacha muddat berdi. Uch yilgacha onaning ish joyi saqlanib turadi. Shu birgina misolning o'ziyoq totalitar tuzum davlati bilan demokratik davlat naqadar katta farq qilishini ko'rsatib turadi.

Axloqiy madaniyat

Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini uning fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Muomala odobi Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri - muomala odobi. U, mohiyatan, o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmana yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinson Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o'ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinsonning naqadar quvonishiga ham sabab ana Shunda.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarni tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik, kamsuqumlik, bosqlik, xushfe'llilik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi.

Darhaqiqat, muomala odobida muloqotning asosiy bo'lmish til katta ahamiyatga ega. zero odamlar bir-birlarini til orqali tuShunadilar. til vositasida o'z fikrini o'zgaga etkazish ma'lum ma'noda san'at. Zarur so'zni topishi, muayyan holatga mos keladigan ifodaviy vositalarni qo'llash, fikrni jumlaviy jihatdan to'g'ri ifodalash, aniq, bosiq, salobat bilan so'zlash hamsuhbatingiz yoki tinglovchining diqqatini tortishda muhim rol o'ynaydi, so'zlovchining nutq madaniyati darajasini ko'taradi. Muomala odobida tilning sofligi masalasi ham muhim. Til sofligi buzilishining asosan uch xil ko'rinishi mavjud. Birinchisi - bir tilda so'zlashayotib ikkinchi tilga o'tib ketish, to'g'rirog'i birvarakay «ikki tilda» so'zlashish. Bunga ikki talabaning so'zlashayotganda o'zbek tilidan rus tiliga, rus tilidan o'zbekchaga muntazam o'tib turishini misol qilib keltirish mumkin. Bu ba'zilar uchun odatiy xol bo'lib qolgan. Ikkinchisi - bir tilda so'zlashayotib ikkinchi tildagi so'zlarni ayniqsa jargonlarni ishlatish. Masalan, «damingni ol», «karoche», «quri», «harip», «voobshim» v.h.

Til sofligining uchinchi buzilishi esa bir tilda soʻzlashgan holda oʻsha tildagi «parazit» soʻzlarni qoʻllashda koʻrinadi. M., «anaqa» «holiginday» v.h. Muomaladagi bunday til sofligining buzilishlari hamsuhbatlarga bilinmasa ham, chetdan kuzatgan odamga nihoyatda hunuk koʻrinadi.

Muomaga odobiga «siz» va «sen»ning oʻz oʻrnida qoʻllanilishi ham ahamiyatga ega. Xususan, uchinchi shaxs ota-ona, aka-opa yoki boshqa yoshi katta odamlar boʻlganida ularga nisban birlikdagi u olmoshini emas, hurmatni anglatuvchi «ular» yoki «u kishi» shaklini qoʻllash odobdan hisoblanadi. Masalan, «Otam Shunday dedi» emas, «Otam Shunday dedilar», «U kishi Shuni hohlayptilar» v.h.

Suhbat paytida tinimsiz harakatda boʻlib turish, qoʻlni paxsa qilib gapirish yoki suhbatdoshining yoshini nazarga olmay, uni oyoqni chalkashtirib oʻtirgan holda tinglash, birov jon kuydirib soʻzlayotganda esnash va boshqa Shunga oʻxshash holatlar ham muomaladagi odobsizlikni bildiradi.

Muomala odobining yana bir «koʻzgusi», bu - insoniy qarash, nigoh, soʻzsiz - noverbal harakatlar. Maʼlumki, odamning qarashida, Yuz ifodasida, qoʻl harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, soʻzga aylanmagan hissiyoti, talablari oʻz aksini topadi. CHunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qoʻl siltab ketish muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Baʼzan qarab qoʻyishning oʻzi soʻzdan ham kuchliroq taʼsir koʻrsatadi. Deylik, bir quruvchi usta oʻz shogirdining xatti-harakatlaridan noroziligini bildirish uchun bosh chayqab, jilmayib qoʻyishi mumkin. Ikkinchi usta esa, bir lahza oʻqrayib qarash bilan munosabatini ifodalaydi. Birinchi usta Yuz ifodasi va xatti-harakati bilan: «Obbo shovvoz-ey, sal shoshilibsan-da, ha, mayli, zarari yoʻq, Shunaqasi ham boʻladi», degan maʼnoni anglatasa, ikkinchi ustaning qarashidan: «YAna ishni rasvo qilibsanku, padarlaʼnat, qachon odam boʻlasan?!», degan soʻzlarni uqish mumkin. Shubhasiz, birinchi usta muomalada odobga rioya qilgan boʻlsa, ikkinchisi uning aksi - shogirdining emas, oʻzining odobsizligini koʻrsatmoqda.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat qilmasdan va odob oʻrgatmasdan bir-biriga taʼsiri, tarbiya va oʻz-oʻzini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovor. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan. Bunda ota-onaning, mahalla-koʻyning taʼsiri katta. Undan foydalana bilish kerak. Zero, axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi.

Etiket. Axloqiy madaniyatda yaqqol koʻzga tashlanadigan munosabatlar koʻrinishidan biri, bu - etiket. U koʻproq insonning tashqi madaniyatini, oʻzaro munosabatlardagi oʻzini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson oʻz munosabatlariga ijodiy yondashsa, yaʼni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega boʻlsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qoʻyilgan xatti-harakatni taqozo etadi.

Etiketning qamrovi keng, u, maʼlum maʼnoda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini oʻz ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va h.k. Etiketga rioya qilishning mumtoz namunasini biz tez-tez televizor ekrani orqali koʻrib turamiz. Bu jarayon ayniqsa, davlat rahbarlariga horijiy mamlakatlar elchilarining ishonch yorliqlarini topshirish marosimlarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Unda faqat bir xil holat, xalqaro miqyosda oʻrnatilgan qoida hukmron. Uni Prezidentning ham, elchilarning ham buzishga haqqi yoʻq. YOki juda oddiy, kichkina bir misol: dasturxonda tanovul payti, pichoqni oʻng qoʻlda ushlash zamonaviy mehmondorchilik etiketining qatʼiy qoidalaridan biri sanaladi - uni buzish atrofda hayrat va istehzo uygʻotadi. Shu bois etiketni odat tusiga aylantirilgan, qatʼiylashtirilgan muomala odobi deyish ham mumkin.

Etiketning bunday zamonaviy koʻrinishlari bilan birga, Shunday milliy-anʼanaviy shakllari ham borki, ularsiz millat madaniy hayotining tasavvur qilish qiyin. Masalan, salomlashish odobini olib koʻraylik. Etiketning bu turiga koʻra, koʻchadan oʻtib ketayotgan odam, koʻcha boʻyida oʻtirganlar yoki turganlarga salom berishi kerak, salom berganda oʻng qoʻl chap koʻkrakda, yurakning ustida turishi, bosh esa engil taʼzimga egilishi lozim. Koʻrishish etiketida esa qoʻlning uchini berib salomlashish koʻrishayotgan odamga nisbatan ginaxonlik, xafagarchilikni bildiradi - odobdan emas. Koʻrishganda yosh yoki martaba nuqtai nazaridan katta kishi birinchi boʻlib qoʻl

uzatishi lozim; ayollar bilan ko‘rishganda ham erkak kishi tomondan Shunday etiket qoidasi bajarilmog‘i talab qilinadi.

Milliy mentalitetda marosimlar etiketi, ayniqsa katta ahamiyatga ega. To‘y marosimida, xususan, qiz bilan ota-onaning xayrlaShuvi, nikoh kechasiga kirib kelishda kuyovning kelinni chap tomonda tutib, to‘yxonaga boshlab kirishi v.h. etiket qonun-qoidalari to‘liq bajarilishi lozim. YOki aza marosimida fotihaga kelgan odamlarni milliy to‘n va do‘ppi kiygan, belbog‘ bog‘lagan holda, qo‘l qovishtirib, boshni bir bu quyi tutgan tarzda kutib olish qat‘iy qoidaga asoslanadi. Bular, bir qarashda, etiketning milliy yoki kasbiy udum, odat, rasm-rusmlardan fparqi yo‘q ekan, degan taasurot qoldirishi mumkin. Bu Yuzaki, yolg‘on taasurot. CHunki udum, odat, rasm-rusmlar muayyan darajada erkinlikka ega, ba‘zan ularni bajarmaslik ham mumkin. Lkin etiketda buning imkoni yo‘q – etiket qonun-qoidalari majburiylik tabiatiga ega.

Etiketning yana bir alohida jihati bor: unda odob bilan go‘zallikning uyg‘unligini ko‘rishimiz mumkin, qat‘iy odob qonun-qoidalari chiroyli xatti-harakatlar vositasida amalga oshiriladi. Demak, etiket estetika bilan ham bog‘liq, aniqrog‘i, o‘zni tutish estetikasi talablariga javob beradi.

Shunday qilib, etiket - takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko‘zini quvontiradigan muomala hodisasi. Lekin, ayni paytda, u asl axloqiy asosini yo‘qotgan majburiy mulozamat tarzida ham namoyon bo‘ladi: etiket qoidalarini bajarayotgan kishi aslida o‘z xohish-ixtiyoriga qarshi ish ko‘rayotgan bo‘lishi ham mumkin. Bu jihatdan u munofiqlikning bir ko‘rinishiga aylanadi. Masalan, siz biror yoqqa shoshilib, darvozadan chiqdingiz, deyluk. Ro‘parangizda tanishingiz yoki qo‘shningiz uchraydi. Siz ko‘rishib, hol-ahvol so‘rashib, so‘ng Sharqona etiketga rioya qilib uni: «Qani uyga kiramiz, choy qilamiz, bir hangomalashamiz», deb ichkariga taklif qilasis. Lekin, aslida, siz uning uyga kirishini aslo istamaysiz, vaqtingiz yo‘q, hatto, Shu uchrashganda ketgan vaqtingizni o‘ylab, pitirlab turibsiz. Demak, siz o‘z istagingizga qarshi, etiket-mulozamat Yuzasidan yolg‘on gaplarni aytasis, xunuk eshitilsa ham na chora - munofiqlik qilasis. Shunga qaramay, umuman olganda, etiket shaxsni muayyan tartib-qoidaga, qanday ichki ruhiy sharoitda bo‘lmasin, bosiqlikka, muloyimlikka va sabr-toqatga o‘rgatishi bilan ahamiyatlidir.

Kasbiy odob. Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. CHunki inson voyaga etib, bir kasbning boshini tutgach, o‘z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro‘y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan Yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o‘rni yuksak. Shu bois kasbiy odobga bafurja to‘xtalish joiz.

Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko‘pchilik jamiyat a‘zolarining hayot-mamotlari, sog‘ligi, ma‘naviy sog‘lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo‘lishi kabi omillar o‘shanday imtiyozli kasb egalarining o‘z kasbiy burch mas‘uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon Yuzasidan ish ko‘rishlariga bog‘liqligi hammaga ma‘lum. CHunonchi, tabobat xodimini, jarrohni olaylik. Deylik, u har bir operatsiya kunida bir necha kishini hayotga qaytaradi; Yuzlab odamlar uning yordamiga muhtoj, unga umid va ishonch, ilinj bilan qaraydilar. Bordi-yu, shaxsiy manfaat yo‘lida jarroh o‘z bemoriga xiyonat qilsa-chi, ya‘ni, uni qasddan halok etsa-chi? Kim uni Shunday qilmasligini kafolatlaydi? YOki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yo‘lida, kasbining kamyobligidan foydalanib, begunoh kishilarni ma‘naviy azobga qo‘yishi, atayin jamiyat oldida sharmanda qilishi va Shuning hisobiga o‘zining ba‘zi bir muammolarini hal qilib olishi mumkin emasmi? Mumkin. Zero, to haqiqat Yuzaga chiqquncha nohaq tanqidga uchragan shaxsning adoi tamom bo‘lishi hech gap emas. Xo‘sh, jurnalistning Shunday qilmasligini kim kafolatlaydi?

Shu bois boshqalarning qo‘lidan kelmaydigan ishlarni bajara oladiganlar faoliyatida o‘zboshimchalik, manfaatparastlik, xudbinlik va kasbni suiiste‘mol qilish singari illatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun, Shuningdek, ular axloqiy darajasini yuksak bosqichda turishini ta‘minlash maqsadida ko‘p hollarda o‘zaro qoidalar majmui yaratilgan. Bu qoidalar majmui, odatda, qasamyod

yoki me'yorlar ko'inishini olgan. Uni buzish o'ta odobsizlik va axloqsizlik, hatto jamiyatga xiyonat tarzida baholanadi. Bunday qasamyodlar juda uzoq tarixga ega. Misol tariqasida hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan Qadimgi YUnon hakimi Hippokrat (milodgacha V-IV asrlar) tomonidan qisqa va lo'nda shaklda tuzilgan, tabobat xodimlari kasbiy odobi qonun-qoidalari jamlangan mashhur «Hippokrat qasami»ni keltirish mumkin.

Tarixda o'z dushmanini davolagan tabiblar ham ko'p uchraydi. CHunonchi, qadimgi hind eposi «Ramayana»da (II asr) behush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shohining xos tabibi kechinmalari Shu jihatdan muhim. Tabib oldida ikki yo'l bor edi: biri - saltanat dushmanini muhtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo'l davolashdan bosh tortish bilan uni o'limga mahkum etish. Tabib uzoq mulohazadan so'ng tabiblik odobi qoidalariga bo'ysunishni - Lakshmanni davolashni afzal ko'radi. Zero, kasbiy odob qonun-qoidalari talabiga ko'ra, bemor to'shagi ustidagi tabib uchun do'st yoki dushman degan tushunchalar o'z ma'nosini yo'qotadi, uning qoshida faqat tibbiy yordamga intizor, shafqatga muhtoj, zaif inson yotadi. Davolanib hayotga qaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk jangchisi va saltanat valiahdi Indirjidni jangda halok etadi hamda tabib fuqaro bo'lgan Lanka davlatining tanazzuliga yo'l ochadi. Lekin, kitobxon tabibni xiyonatkor yoki sotqin demaydi, aksincha, uning ma'naviy jasoratiga, halolligiga, kasbiy burchiga sodiqligiga hayrat bilan tasannolar o'qiydi.

YOki mashhur rus olimi akademik Andrey Saxarovning taqdirini olaylik. Buyuk nazariyotchi, fizik, termoyadro sohasida tengi yo'q mutaxassis, vodorod bombasining asosiy kashfiyotchisi, Vatan mudofaasini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun o'nlab orden va medallar sohibi, ikki marta Sotsialistik Mehnat Qahramoni, obro'li, badavlat bu insonga nima etishmasdi? Nega u hammasidan kechishga - ommaviy qirg'in qurollari, jumladan, o'zi yaratgan vodorod bombasi sinovlariga ochiq bayonotlar bilan qarshi chiqishga ahd qildi? Natijada qatag'onlarga asoslangan sho'rolar tuzumi uni ilmiy jamoatchilikdan ajratib, poytaxtdan olisdagi Rossiya shaharlaridan biriga badarg'a qildi, uning nomini matbuotda yoki kitoblarda qayd etilishini taqiqladi. Vaholanki, u hammadan izzatliroq yashay olishi mumkin edi. Saxarov yuksak axloq yo'lini tanladi - olimlik burchi, odobi talablarini bajarishni har qanday boylik, izzat-ikromdan baland qo'ydi. Buyuk olim o'z kashfiyoti insonning eng oliy huquqi bo'lmish - yashash huquqiga rahna solishi mumkinligi va qisman solayotgani uchun uni amalda qo'llanilishiga qarshi kurashdi. U sho'rolar hukumati va mafkurachilari tomonidan o'zining Vatan mudofaasi quvvatini susaytirishga harakat qilgan salkam xiyonatkor fuqaro deb e'lon etilishiga, boshiga behisob tuhmatlar, ta'na-dashnomlar yog'dirilishiga sabot bilan chidadi, ahddan qaytmadi, yovuzlik saltanati qo'lida o'z olimlik iste'dodining qo'g'irchoq bo'lishiga, harbiy murvatga aylanishiga yo'l qo'ymadi. Oxir-oqibatda u inson huquqlarining jahon tan olgan eng buyuk himoyachilaridan biri sifatida butun insoniyat tahsiniga sazovor bo'ldi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Bulardan tashqari, muallimlik odobi, huquq-tartibot xodimlari odobi, muhandis odobi singari birqancha kasbiy odob turlari borki, ular ham jamiyatda axloqiy munosabatlar silsilasida muhim ahamiyatga ega. Shuni aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun-qoidalarining ta'sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba'zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi. Masalan, rahbarlik odobidagi ba'zi nuqtalarga to'xtalaylik. Rahbar quyi lavozimdakilarga mensimay, qo'pol munosabatda bo'lishi, o'ziga ishonib topshirilgan hudud yoki tashkilotdagi oddiy odamlar arz-dodiga, orzu-istaklariga to'ralarcha qarashi odobsizlikka kirsas, uning shaxsiy boylik orttirishi yo'lida korrupsiya vositasida mamlakat, viloyat yoki tashkilot manfaatlarini qurbon qilishi axloqsizlik, nafaqat rahbarlik kasbiga, balki Vatanga ham xiyonat tarzida baholanishi mumkin. Ba'zan kasbiy odobning kasbiy axloq deb atalishi ham ana Shundan.

Rahbarlikning axloqiy jihatlari, rahbar borasida Islom Karimovning mana bu fikrlari bag'oyat ibratlidir: «Oddiy odamlarning rahbarlarga munosabati ikki fuqaro o'rtasidagi munosabatgina emas. Ayni paytda u jamiyatda qaror topadigan ma'naviy-ruhiy, siyosiy-axloqiy

muhitni ham yaratadi... Haqiqiy rahbar odamlarning ko'ngliga yo'l topib, ularni ezgulikka, yaxshilikka, yaratishga da'vat etadi»¹⁰⁴.

YUqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba'zilar o'ylaganidek, Axloq falsafasining mayda masalalaridan emas. Uni har tomonlama o'rganish, kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatini tadqiq etish XXI asr axloqShunosligida muhim o'rin egallajak. Zero, kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida o'zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma'naviy hodisa sifatida baholanishi lozim.

Etikaning global muammolari

Axloqiy muhit. Etikaning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, u haqda alohida to'xtalmaslikning iloji yo'q. Bu muammolardan biri, eng muhimi, sayyoramizda etosfera - axloqiy muhit davrini yaratish bilan bog'liq.

Ma'lumki, Yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o'z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana Shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o'z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz - eymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyer, lift, kompyuter, poezd, teploxod, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefondagi gaplashar ekanmiz, Yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko'rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo'lsak, necha kunlab yo'l bosishimiz kerakligi haqida o'ylab o'tirmaymiz, to'g'rirog'i, bu esimizga ham kelmaydi. CHunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda o'zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta'sir ko'rsata boshladi. Er tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo'lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o'zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta'limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta'siri ostida biosfera Yangi holat bo'lmish noosferaga o'tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o'z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o'zgarishga kirishganini ta'kidlaydi: «Sayyoramiz Yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o'zgarishlarga duchor etilmoqda, - deb yozadi u. -Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havu qobig'ini, uning barcha tabiiy suvlarini o'zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi Yangi geologik evolyusion o'zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz».¹⁰⁵

Ana Shu nuqtadan tafakkur o'zi nima degan muammo paydo bo'ladi. Bu haqda V.I.Vernadskiy Shunday mulohaza bildiradi: «Tafakkur energiyaning shakli emas. U qanday qilib moddiy jarayonlarni o'zgartira oladi? Bu masala hanuzgacha ilmiy jihatdan echilishi topgan emas»¹⁰⁶.

Vernadskiy hayratga solgan masala hozir ham o'sha-o'sha, hal etilmagan.

Xo'sh, tafakkur o'zi nima? U biologik hodisa bo'lmish insonda, uning ruhiy-fiziologik yaxlitlikdan iborat miyasida tug'iladi, lekin tug'ilishi bilan biologik qobiqdan chiqadi va tashqi muhitda energiyaga o'xshab nimanidir yaratadi. Endi inson bilan uning tafakkuri orasida muayyan masofa paydo bo'ladi, masofa uzoqlashgani sari tafakkurning mohiyati ayon bo'lib boradi: inson kutgan oqibat kutilgandan boshqacha mazmun kasb eta boshlaydi. Nega? Bizningcha, Noosferada, yuqorida aytganimizdek, inson fikri narsalashadi, o'z intellektimiz narsalarga aylanib, bizni o'rab

¹⁰⁴ Каримов И.А. Асарлар. 15 томлик. Т /Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. Тошкент.

Ўзбекистон. 77-б.

¹⁰⁵ Вернадский В.И. Начало и вечность жизни Москва. Сов. Россия, 1989. С. 186 – 187.

¹⁰⁶ Ўша манба; С.185.

oladi. Insonning ichki tabiati muhit mavqeini egallab, tashqi tabiatga ta'sir ko'rsata boshlaydi va ko'p hollarda bundan eng avvalo insonning o'zi ozor chekadi. Tafakkur biologik xususiyatga ega bo'lmagani uchun biologik muhitning o'rnini egallashga, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qiladi. Bu harakat ma'lum nuqtadan o'tganidan so'ng esa o'z ijobiy xususiyatini yo'qota boradi va insoniyat uchun salbiy hodisaga aylana boshlaydi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli ballistik raketalarining yaratilishi ana Shunday salbiy hodisalardandir. Bundan tashqari, noosferaning paydo bo'lishi atmosferani, olamiy okeanni, er osti va er usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, hatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda tirik organizmlarning, o'simliklarning, hayvonlarning ko'pgina turlari jisman yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo'ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz go'zal orollarga ko'mib tashlanishi, kislota yomg'irlarining ko'payib borishi singari hodisalar bag'oyat xatarli. Afsuski, inson ko'ra-bila turib, o'zi o'tirgan shoxga bolta urishni to'xtatmayotir.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma'noda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig'lantirishni taqozo etadi. YA'ni ular insoniyat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma'nodagi axloqiy muammolar sifatida ko'ndalang bo'lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorensning: «YOppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'poslik aybdordir», - degan so'zlari Shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.¹⁰⁷

YUqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o'zini va o'z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa - XXI asrdan boshlab etosfera davriga o'tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin. Bunda Etika fanining o'rni nihoyatda beqiyos.

Biologik axloq. Mazkur hodisa so'nggi bir necha o'n yillik ichida sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi: endilikda, birovning muayyan a'zosini boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yo'li bilan o'tkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish axloqiy nuqtai nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibida dolzarb bo'lib turibdi.

Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqShunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tuShuniladi, xolos. Bu unchalik to'g'ri emas. Bizningcha, biologik axloq muammolari ikki yo'nalishdan iborat: biri - insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq «tashqi», ikkinchisi - insonlarning «o'z-o'ziga va o'zaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bog'liq ichki» axloqiy masalalar.

Biz odatda «ekologik Etika» deganimizda aynan birinchi hodisani nazarda tutamiz. Ikki biologik olamning munosabatlarini, ya'ni ekologik axloqiy muammolarni biologik axloq doirasida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi paytda ekologik axloqning insoniyat uchun naqadar muhimligini hamma biladi, lekin o'z bilganidan qolmaydi – muammoning murakkabligi Shunda. Biz yuqorida noosfera, tafakkur borasidagi mulohazalarimizda ekologik buhroilarning ba'zi ko'rinishlariga to'xtalib o'tdik. Biroq, yana undan tashqari so'nggi paytlarda jahon bo'ylab sintetik jismlar ishlab chiqarishning keng yo'lga qo'yilganligi, hayvonot va ayniqsa o'simliklarning gabrid usulida Yangi turlarining vujudga keltirilishi singari hadislar ham ekologik ahamiyatga ega. Xo'sh, ular tabiat bilan silngishib, uyg'unlashib keta oladimi, tabiat ularni o'ziniki qila biladimi? Bunga hozir javob topish qiyin, ehtimol kashfiyotlarimizning oqibatlarini, yuqorida aytib o'tganimiz - muayyan tafakkur bilan inson orasidagi «masofaning uzoqlashib» borishi natijasida ayon bo'lar?...

Biologik axloqning ikkinchi yo'nalishi tibbiyot ilmi va amaliyotining tobora taraqqiy topib borishi bilan bog'liq.

¹⁰⁷ Лоренц К. Восемь смертных грехов цивилизованного человечества. Журнал. «Вопросы философии» № 3, 1992. с. 42.

Shuningdek, totli o'lim - evtonaziya ham biotibbiy axloqning global muammolaridan. Xudoning ixtiyoridan tashqari o'limni ixtiyor qilgan kishi diniy nuqtai nazardan kechirilmaydi. CHunki sabrli, bardoshli bo'lish, bu dunyo iztiroblarini toqat bilan boshdan kechirish insonning vazifasi. Lekin axloqiy jihatdan olib qaraganda masala qanday baholanadi? Deylik, muayyan inson, bemor o'z kunlarining sanoqli ekanini, lekin bu kunlar sanoqsiz azoblar ichida o'tishini biladi. Shu bois u o'zining ana Shu holatini juda yaxshi biladigan boshqa bir odam - shifokordan azoblariga chek qo'yishni so'raydi. Uning iltimosi va Shu iltimosni bajarish uchun shifokor tomonidan qilingan xatti-harakatlarni qanday, baholash mumkin? Bu xatti - harakatlarni insoniylik va insonparvarlikning ko'rinishi sifatida qabul qilish to'g'rimi? Umuman, evtanaziya axloqiylikmi, axloqsizlikmi? Bu muammo ham umumjahoniy miqyosda o'z echimini kutmoqda.

CHunki tabobat borasidagi so'nggi tadqiqotlar inson o'limi bir lahzada ro'y bermasligini, yurak urishi va nafas olish to'xtaganda ham, miya o'lmasa insonni o'ldi deyish mumkin emasligini isbotlab berdi. Dastlab miya qobig'i, undan keyin miya tanasi halok bo'ladi. Shundan keyingina insonni o'lgan deb hisoblash mumkin. Zero, hozirgi kunda toki miya o'lmas ekan, ko'pgina ichki a'zolarining Yangi tabobat texnikasi vositasida ishlashda davom etishini ta'minlash va Shu orqali ancha muddatgacha insonda tiriklikning minimal darajasini saqlab turish mumkin. Demak, yurak yoki buyrakning ko'chirib o'tkazilishi hali o'lmagan odamning minimal tiriklikka bo'lgan huquqini poymol qilishdir. Buning ustiga, amerikalik neyroxirurg Pol Pirson o'z tajribalariga asoslanib, yurak ko'chirib o'tkazilganda ruh ham ko'chib o'tadi, degan fikrni bildiradi. CHunonchi, 19 yashar qizning yuragi 40 yashar erkakka o'tkazilganida, yigitning fe'l-atvorida juda katta o'zgarishlar ro'y bergan. YOki 20 yashar qizning yuragi va o'pkasi 36 yashar ayolga o'tkazilganda ham Shunga o'xshash o'zgarishlar Yuzaga kelgan: ayolning kulishigacha o'zgarib ketgan. Axloqiy nuqtai nazardan buni qanday izohlash mumkin?

Biologik axloq Etikaning anchadan buyon ko'pchilikka ma'lum muammosi, bu – abort. Ma'lumki, to'rtinchi haftaning oxirida homilada dastlabki yurak urishi paydo bo'ladi. Sakkizinchi haftaning oxirida esa miya tanasining elektrofiziologik faolligini kuzatish mumkin. Demak, har qanday abort, xalq ta'biri bilan aytganda, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklikka bo'lgan huquqdan mahrum etishdir. Xo'sh, abortni axloqsizlik tarzida baholash kerakmi yo yo'qmi? YOki AQSH olimlari tomonidan «inson zotini yaxshilashga» qaratilgan tadqiqotlarni olib ko'raylik. Ularda «yaxshilangan» - sog'lom, kuchli intellekt egasi bo'lgan odamlar hujayrasini ayol organizmidagi endi rivojlanishga kirishgan nisbatan «oddiy odam» hujayrasi o'rniga ko'chirib o'tkazish tajribalarini olib borish mo'ljallangan. Ular amalda tatbiq etilsa, asta-sekinlik bilan insoniyat irsiyat jamg'armasining (genofondining) bir yoqlama o'zgarishiga olib kelishi Shubhasiz. Rumo papasi buni inson zotiga, insoniy tabiatga aralaShuv, uni zo'rlik yo'li bilan o'zgartirish, nafaqat katta gunoh, balki o'ta axloqsizlik deb atadi. Xo'sh, bunday tajribalarni qanday baholash kerak? Bu savollarga ham Etika javob topmog'i lozim.

O'lim jazosi. O'lim, ma'lumki, axloqiy nuqtai nazardan eng ulkan yovuzlik hisoblanadi. Ayniqsa majburiy o'lim. Shunga ko'ra, o'lim jazosining huquqiy jihatdan qo'llanilishi mohiyatan jamiyat tomonidan yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berishdir.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom islom dinining uch asosi borligini aytib, ularning birinchisi odam o'ldirmaslik ekanini ta'kidlaydilar. Buni imom G'azzoliy «Mukoshafaat ul – qulub»da Shunday keltiradi:

«Termiziy va boshqa hadischi rivoyat qiladilar:

Rasulluloh buyurdilarki:

... Islomning uch dasturi bor. Dinning tamoyili Shular ustiga qurilgan. Kim Shu asoslardan tashqari chiqsa, bu bilan u kofirlikka qarab ketgan bo'ladi:

1 – *Qonni (odam o'ldirishni) halol hisoblasa;*

2 – *Ollohdan boshqa iloh yo'qligiga guvohlik (shahodat) bermasa;*

3 – Farz bo‘lgan namozni va ro‘zani inkor etsa». ¹⁰⁸

Demak inson hayoti eng oliy qadriyat ekani diniy nuqtai nazardan ham nafaqat tan olinadi, balki birinchi o‘ringa qo‘yiladi.

O‘lim jazosini kimlar qanchalik oqlashga harakat qilmasin, u - jinoyatchini jazolashdan ko‘ra, undan o‘ch olishga qaratilgan, qadim-qadimlardan kelayotgan xun olish tamoyilining «demokratlashgan», Yangilangan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Aslida esa insonning muayyan jinoyatni sodir etgan hatti-xarakatlari qoralanishi kerak, uning o‘zi emas, u qilgan yovuzlik o‘limga mahkum etilishi lozim - odamni emas, yovuzlikni o‘ldirish oqilona ish emasmi?! YOvuzlikni o‘ldirish, yovuzlik sodir etgan kishining uzzoq muddatli yoki bir umrlik qamoqdagi vijdon azobi va tazarrusi bilan amalga oshirilgani durustmasmi?!

Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni Shundaki, nodemokratik tuzumlarda belgilangan o‘lim jazosi kamdan-kam hollarda adolatli hukm bo‘lib chiqadi. CHunonchi, Lenin, Stalin, Hitler, Pol Potlar hukmronligida millionlab odamlarning qatl etilishi yoki Shu yaqin-yaqinlarda, sho‘rolar tuzumi davrida O‘zbekistonda o‘tkazilgan «Paxta ishi» deb nomlangan qatag‘on paytida otishga hukm qilinganlarning taqdiri bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ana Shu davrlarda o‘limga hukm qilinganlarning juda ko‘pchiligi ke-yinchalik oqlandi, ular gunohsiz deb topildi. Lekin hukm ijro qilib bo‘lingan: nohaq jazolangan - qatl etilgan insonlar adolat tantanasini ko‘rolmaydilar.

Uchinchidan, hatto demokratik jamiyatlarda sudlarning hamma vaqt ham Yuz foiz to‘g‘ri va adolatli hukm chiqarishiga kim kafolat beradi - hakamlar ham inson, hamma qatori xato qilishi mumkin. Jamiyatning keyingi pushaymonidan qatl etilgan odamga nima foyda?

Hulosa, bu misollarning hammasida o‘lim - tor huquqiy jazo doirasidan chiqib ketadi hamda tarixda aldangan, adashgan insoniyatning, jamiyatning va shaxsning axloqsizligi sifatida baholanadi. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi paytdagi ko‘pgina demokratik mamlakatlarda o‘lim jazosining bekor qilinishini o‘sha jamiyatlar axloqiy darajasi bilan bog‘liq ijobiy hodisa deyish mumkin. Bizning mamlakatimizda ham bu borada dadil qadamlar qo‘yilganligi - avval yosh nuqtai nazaridan o‘lim jazosini qo‘llashning chegaralanganligi (60 yoshgacha), keyinroq esa uni butunlay bekor qilishga qaratilgan insonparvarlik harakatlari quvonarli voqea. Bu nafaqat bizga, balki Er Yuzidagi barcha mamlakatlarga taalluqli muhim, umumjahoniy muammo. Etika oldida ana Shunday, tobora globallashib borayotgan axloqiy muammolarni hal etishda etakchilik qilish vazifasi turibdi. Zero mazkur global muammolarni bugungi kunda Etikaning ahamiyatini belgilab beruvchi barometrlar, deyishimiz mumkin.

Takrorlash uchun savollari.

1. Muhabbat, oila nikohning axloqiy asoslari.
2. Oila - ma'naviy ijtimoiy muhit sifatida.
3. Fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari.
4. Axloqiy madaniyat.
5. Axloqiy tarbiya.

4.1 – Mavzu. Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari.

Reja:

1. Estetikaning falsafiy mohiyati.

¹⁰⁸ Ғаззолий. Мукошафаат ул-қулуб. Тошкент. 253-б.

2. Estetikaning ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi.
3. Estetikaning amaliy ahamiyati.

Estetika (yunoncha *aisthetikos* – hissiy idrok, sezgi) – 1) voqealarni hissiy-ta’sirchan, emotsional o’zlashtirish; 2) estetik faoliyat qonuniyatlari to’g’risidagi fan.

Estetikaga oid dastlabki ta’limotlar bundan 2-3 ming yil muqaddam qadimgi Misr, Hindiston, Xitoyda vujudga kelib, Qadimgi Yunonistonda Platon, Aristotel, rimlik Lukretsiy, Goratsiy singari mutafakkirlarning asarlarida har tomonlama rivojlandi. O’rta asrlarda YAqin Sharq va Markaziy Osiyoda ham o’ziga xos estetik g’oyalar vujudga keldi. Nizomiy, Sa’diy, YUusuf Xos Hojib, Navoiy, Behzod kabi san’atkorlar ijodida go’zallik va ezgulikning uyg’unligini tarannum etuvchi estetika tasavvurlar tarkib topdi. Shuningdek, tasavvufona qarashlar keng yoyildi. O’rta asrlar Evropasida “ilohiy go’zallik” (Avreliy Avgustin, Foma Akvinskiy) haqidagi tasavvurlar keng yoyildi. Uyg’onish davri arboblari (Leonardo da Vinchi, L.Alberti, M.Monten, V.SHEkspir, M.Servantes) tabiat bilan jamiyat moxiyatan go’zaldir, san’atkor esa, tabiat va insonning go’zalligini kuylashi kerak, degan estetik tamoyilni qo’llab-quvvatladilar.

1. Estetikaning falsafiy mohiyati

Estetika yoxud nafosatshunoslik eng qadimgi fanlardan biri. Uning tarixi ikki yarim-uch ming yillik vaqtni o’z ichiga oladi. Biroq u o’zining hozirgi nomini XYIII asrda olgan. Ungacha bu fanning asosiy muammosi bo’lmish go’zallik va san’at haqidagi mulohazalar har xil san’at turlariga bag’ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o’z aksini topgan edi.

«Estetika» atamasini birinchi bo’lib buyuk olmon faylasufi Aleksandr Gotlib Baumgarten (Baumgarten / 1714-1762) ilmiy muomalaga kiritgan. Bunda u boshqa bir ulug’ olmon faylasufi Gotfrid Vilgelm Leybnits (Leibniz / 1646-1716) ta’limotidan kelib chiqqan holda munosabat bildirgan edi. Laybnits inson ma’naviy olamini uch sohaga – aql-idrok, iroda-ixtiyor, his-tuyg’uga bo’ladi va ularning har birini alohida falsafiy jihatdan o’rganish lozimligini ta’kidlaydi. Baumgartengacha aql-idrokni o’rganadigan fan – mantiq, iroda-ixtiyorni o’rganuvchi fan esa – axloqshunoslik (etika)ning falsafada ko’pdan buyon o’z o’rni bor edi. Biroq his-tuyg’uni o’rganadigan fan falsafiy maqomda o’z nomiga ega emasdi. Baumgartenning bu boradagi hizmati shundaki, u «his qilish», «sezish», «his etiladigan» singari ma’nolarni anglatuvchi yunoncha *aisthetikos* – «oyestetikos» so’zidan «estetika» (olmoncha «estetik» – «eshmetik») iborasini olib, ana shu bo’shliqni to’ldirdi.

Baumgarten estetikasi hissiy idrok etish nazariyasi sifatida olib qaradi. Lekin, ko’p o’tmay, u goh «go’zallik falsafasi», goh «san’at falsafasi» sifatida talqin etila boshlandi. Estetika fanining eng buyuk nazariyotchilaridan biri Georg Vilgelm Fridrix Xegel (Hegel / 1770-1831) esa o’z ma’ruzalarining kirish qismida yozadi: «Estetika» degan nom muvaffaqiyatsiz chiqqani va Yuzaki ekani sababli boshqa atama qo’llashga urinishlar bo’ldi. So’zning o’z-o’zicha bizni qiziqtirmasligini nazarda tutib, biz «estetika» nomini saqlab qolishga tayyormiz, buning ustiga, u odatiy nutqqa singishib ketgan. Shunga qaramay, bizning fanimiz mazmuniga javob beradigan ibora, bu – «san’at falsafasi» yoki yana ham aniqroq qilib aytganda – «badiiy ijod falsafasi».

Endi «Estetika» fanining mohiyatini anglatadigan «san’at falsafasi» va «go’zallik falsafasi» iboralariga to’xtalamiz. Estetika tarixida birinchi ibora tarafdorlari ko’pchilikni tashkil etadi. Lekin, yuqorida aytib o’tganimizdek, san’at bu fanning yagona tadqiqot ob’ekti emas. Hozirgi paytda texnika estetikasi va uning amaliyotdagi sohasi dizayn, atrof-muhitni go’zallashtirish, tabiatdagi nafosat borasidagi muammolar bilan ham shu fanimiz shug’ullanadi. Demak, uning qamrovini san’atning o’zi bilangina chegaralab qo’yishga haqqimiz yo’q. Zero bugungi kunda inson o’zini o’rab turgan barcha narsahodisalarning go’zal bo’lishini, har qadamda nafosatni his etishni istaydi: biz taqib yurgan soat, biz kiygan kiyim, biz haydayotgan mashina, biz uchadigan tayyora, biz yashayotgan uy, biz mehnat qiladigan ishxona, biz yurgizayotgan dastgoh, biz yozayotgan qalam, biz dam oladigan tomoshabog’lar – hammasidan nafis bir ruh ufurib turishi lozim.

YUqorida aytilganlardan kelib chiqsak, «Go’zallik falsafasi» degan ibora bu fani mohiyatiga ko’proq mos keladi. Negaki, u faqat san’atdagi go’zallikni emas, balki insondagi, jamiyat va tabiatdagi go’zallikni ham o’rganadi. Shuningdek, go’zallikdan boshqa ulug’vorlik, fojaviylik, kulgililik, mo’jizaviylik,

hayolilik uyg'unlik, noziklik singari ko'pdan-ko'p tushunchalar mavjudki, ularni tadqiq etish ham estetika fanining zimmasida. Lekin, bu o'rinda, Shuni unutmaslik kerakki, mazkur tushunchalarning har birida go'zallik, bir tomondan, unsur (element) sifatida ishtirok etsa, ikkinchi tomondan, ularning o'zi go'zallikka nisbatan unsur vazifasini o'taydi. Ana Shu xususiyatlarning voqelikda namoyon bo'lishini biz nafosat deb ataymiz.

Go'zallik, ko'rganimizdek, nafosatning bosh, etakchi xususiyati hisoblanadi. Shu bois u estetikaning mezoniy tushunchalaridan biri sifatida tadqiq va talqin etiladi. Zero go'zallikning ishtirokisiz yuqoridagi xususiyatlarning birortasi estetik tabiatga ega bo'lolmaydi. Masalan, ulug'vorlikni olaylik. U asosan hajmga, miqyosga miqdorga asoslanadi: Buxorodagi «Arslonxon» minorasi yoxud «Minorai Kalon» ulug'vorligi bilan kishini hayratga soladi. Unga tikilar ekansiz, qalbingizni nafosat zavqi qamrab oladi. Lekin xuddi Shunday balandlikdagi kimyoviy korxonada mo'risidan zavqlanolsiz. YOki yonbag'irdan turib, toqqa tikilsangiz, estetik zavq tuyasiz, ammo xuddi Shunday balandlikdagi shahar chetida o'sib chiqqan axlat «tog'i»ga qarab zavqlanmaysiz. CHunki Arslonxon minorasi me'morlik san'ati asari sifatida go'zallik qonuniyatlari asosida bunyod etilgan; tog' esa tabiat yaratgan ulug'vor go'zallik. Zavod mo'risida ham, axlat «tog'»ida ham hajm, miqdor boru, lekin bir narsa-go'zallik etishmaydi. Minora bilan tog'dagi hajmni salobatga aylantiruvchi unsur, bu-go'zallik. Fojaviylik xususiyatida ham go'zallikning ishtirokini ko'rish mumkin. Misol sifatida Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» romanidagi Austrlitda bo'lib o'tgan rus va fransuz qo'shinlari to'qnaShuvidan so'ng, jang maydonida yarador bo'lib yotgan knyaz Andrey Bolkonskiyni eslaylik: bir qo'lida bayroq dastasini ushlagancha ko'm-ko'k maysada moviy osmonga qarab yotgan, oppoq mundirli botir yigit-bayroqdor zobitning tepasiga kelgan Napoleon uni o'lgan deb o'ylab, bu manzaradan hayratlanib: «Mana bu – go'zal o'lim!», deydi. Bu o'rinda asar qahramonining o'limi – fojaviylik, o'limning qahramonlikka aylanishi – ulug'vorlik; fojaviylik bilan ulug'vorlik xususiyatlarining omuxtalaShuvi natijasida esa go'zal manzara, qayg'uli va ulug'vor go'zallik vujudga kelgan. Shuning uchun ham Napoleonning hayrotomuz xitobi bejiz emas. Demak, estetikaning asosiy tadqiqot ob'ekti – go'zallik, biroq, san'at ham o'z navbatida estetikaning go'zallik kabi keng qamrovli tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

San'at estetikaning ob'ekti sifatida o'ziga xos olam. Unda estetik xususiyatlar bo'rtib ko'zga tashlanadi. Shunga ko'ra, uni nafosatga burkangan ijtimoiy hodisa deyish mumkin. San'at hayotni in'ikos ettirar ekan, insonning o'zini o'ziga ko'rsatuvchi ulkan ko'zgu vazifasini o'taydi. U insonni o'rgatadi, da'vat etadi, go'zallashtiradi. Bu vazifalarni bajarishda estetika san'atning ko'makchisi, etakchisi hisoblanadi. Estetika bir tomondan, san'atning paydo bo'lishidan tortib, uning turlariyu janrlarigacha, san'at asarining ichki murvatlaridan tortib, san'atkorning ijodkorlik tabiatigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'rganadi. Ikkinchi tomondan, san'at uchun umumiy qonun-qoidalarni ishlab chiqadi va tadbiq etadi. Uchinchi tomondan, esa san'at asarini idrok etayotgan kishi ruhidagi o'zgarishlarni nafosat nuqtai nazaridan tadqiq qiladi.

Shunday qilib, estetika san'atni to'la qamrab oladi va uning ich-ichiga kirib boradi: badiiy asarning yaratilish arafasidagi shart-sharoitlardan tortib, to u bunyodga kelib, asl egasi – idrok etuvchiga etib borgunigacha bo'lgan va undan keyingi jarayonlarni tadqiq etadi hamda ulardan nazariy xulosalar chiqaradi. Zero «San'at falsafasi» iborasining siri ana Shunda.

- Estetika – falsafiy fanlardan biri. Falsafa esa fanlarning podshosidir. Darhaqiqat, u fanlar podshosi sifatida barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlarni o'z qamroviga olib, ulardan umumiy xulosalar chiqarib, Shular asosida insoniyatni haqiqat tomon etaklaydi. Shu bois tafakkurni falsafaning predmeti deb atash maqsadga muvofiq. Estetika esa falsafiy fan sifatida barcha san'atShunoslik fanlari erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, Shu xulosalar asosida insonni go'zallik orqali haqiqatga etishtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, estetika ishlab chiqqan qonun-qoidalar barcha san'atShunoslik fanlari uchun umumiylik xususiyatiga ega. Masalan, uslub, ritm, kompozitsiya v. h. borasidagi qonuniyatlar barcha san'at turlariga taalluqli. Hech bir alohida san'at turi haqidagi fan bunday imtiyozga ega emas. Masalan, adabiyotShunoslik ishlab chiqqan qofiya nazariyasini musiqa yoki me'morlik san'atiga tadbiq etib bo'lmaydi.

Estetikaning falsafiy mohiyatini yana uning san'at asariga yondashuvida ko'rish mumkin. Ma'lumki, har bir san'atShunoslik ilmi o'z tadqiqot ob'ektiga uch tomonlama – nazariy, tarixiy, tanqidiy jihatdan yondashadi. Masalan, adabiyotShunoslikni olaylik. Adabiyot nazariyasi faqat adabiyotgagina xos bo'lgan

badiiy qonuniyatlarni, badiiy qiyofa yaratish usuli va vositalarini o'rganadi. Adabiyot tarixi muayyan tarixiy–badiiy jarayonlar orqali badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Adabiy tanqid esa adabiy–badiiy ijodning zamonaviy jarayonlarini tadqiq etadi va har bir Yangi asarni baholaydi, asar ijodkorining ijodiy rivojlanishini kuzatib boradi. Musiqada ham, tasviriy san'atda ham va boshqa san'at turlarida ham Shunday. Estetikada esa tadqiqot ob'ektiga yondosh uch emas, birgina nazariy jihatdan amalga oshiriladi: tarix ham, tanqid ham nazariyaga bo'ysundiriladi. To'g'ri, «estetika tarixi» degan ibora va Shu nomda kurslar o'qitiladi. Lekin bu nom, ibora shartli tarzda qo'llaniladi. Chunki, u fan tarixi emas, balki tarixan davrlarga bo'lingan estetik nazariyalar tahlilidir.

Ma'lumki, san'at asarining mavjud bo'lishi uchun to'rt shart yoki unsur albatta zarur. Bular: ijodkor – badiiy asar – badiiy asarni idrok etuvchi – vositachi. Yuqoridagi misol nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak: yozuvchi – roman – kitobxon – tanqidchi. Adabiyotshunoslik bularning har birini odatda alohida-alohida o'rganadi. Deylik, yozuvchi Odil YOqubov ijodiy faoliyati haqida adabiy portret alohida, uning «Ulug'bek xazinasi» romani to'g'risida tadqiqiy maqola alohida, «Ulug'bek xazinasi» romani va zamonaviy kitobxonning didi, saviyasi va talablariga bag'ishlangan taqriz hamda unda kitob nashriga (nashriyotga) doir mulohazalar alohida yozilishi mumkin. Estetika fani hammasini bir yo'la, muayyan tizim sifatida tadqiq etadi va bu tadqiqot umumlashtiruvchilik, nazariylik xususiyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, estetikaning falsafiy mohiyatini ko'rib o'tdik. Endi uning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatlariga to'xtalamiz.

2. Estetikaning ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi

- Etika (Axloqshunoslik). Bu ikkala fan Shu qadar bir–biriga yaqinki, hatto ba'zi davrlarda ular etarli darajada o'zaro chegaralanmagan. Chunki insonning xatti–harakati va niyati ko'pincha ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik, ham nafosat xususiyatlarini o'zida birvarakay mujassam qiladi. Shu sababli «Avesto», «Bibliyo» va «Qur'on» kabi muqaddas kitoblarda, Suqrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ta'limotlarida axloqiylikni – ichki go'zallik, nafosatni – tashqi go'zallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ko'rib o'tganimizdek, san'at estetikaning asosiy tadqiqot ob'ektlaridan hisoblanadi. Har bir san'at asarida esa axloqning dolzarb muammolari ko'tariladi va ijodkor eng yuksak axloqiy darajani badiiy qiyofalar orqali in'ikos ettiradi. Bu in'ikos bevosita ijobiy qahramonlar qiyofasida amalga ohsa, bilvosita salbiy voqea–hodisalarga muallif nuqtai nazari orqali ro'y berishi mumkin. YA'ni, biror–bir badiiy asarda ijobiy qahramonlar umuman bo'lmaydi, lekin undagi voqea–hodisalarga ijodkor o'z zamonasi erishgan axloqiy yuksaklikdan turib baho beradi. Shu bois axloqsiz badiiy asarning bo'lishi mutlaqo mumkin emas. Demak, estetika o'rganayotgan har bir badiiy asar ma'lum ma'noda axloqshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo'ladi. Biroq, bunday yaqinlik, yuqorida aytganimizdek, aslo aynanlikni anglatmaydi. Bu ikkala fanning tadqiqot ob'ektlari orasidagi farqni birinchi bo'lib buyuk Arastu nazariy jihatdan isbotlab bergan edi; u, ezgulik faqat harakatda, go'zallik esa harakatsiz ham namoyon bo'ladi, degan fikrni bildiradi.

- Darhaqiqat, axloqiylik faqat insonning xatti-harakati, qilmishi orqali Yuzaga keladi; odam toki harakatsiz ekan, biz uning na yaxshiligini, na yomonligini bilamiz. Muayyan xatti–harakat sodir qilinganidan keyingina biz uni yo ezgulik, yo yovuzlik, yo yaxshilik, yo yomonlik sifatida baholaymiz. Go'zallik esa, o'zini harakatsiz ham namoyon etaveradi. Olaylik, Ko'kaldosh madrasasi. U hech qachon harakat qilmaydi, lekin go'zallik sifatida mavjud, harakatsizligidan uning go'zalligiga putur etmaydi. Bundan tashqari, axloqning qonun-qoidalari, nasihatlar, hikmatlar umumiylikka, barchaga bir xilda taalluqlilik xususiyatiga ega. Estetika esa muayyanlikni, aniqlikni yoqtiradi. Masalan, axloqshunoslikdagi «yaxshi odam» tushunchasi hammaga–ayolga ham, erkakka ham, yoShu–qariga ham tegishli bo'lishi mumkin. Estetikada esa «go'zal odam» tushunchasi yo'q; yo «go'zal yigit», yo «go'zal qiz» degan tushunchalargina mavjud. Chunki, erkak kishidagi chiroyli mo'ylov faqat erkakning Yuzida, ayol kishidagi husnlardan biri – ko'krak faqat ayol kishi vujudida go'zallikka ega. Endi mo'ylov burab so'zlayotgan ayolni-yu, siynaband taqib yurgan erkakni tasavvur qiling! Boyagi go'zalliklar xunuklikka aylanadi-qoladi. Shuningdek, go'zallik bir vujudda ham faqat o'z o'rnini talab qiladigan «o'ta injiqlik» xususiyatiga ega. Shu joyda olmon nafosatshunosi Fexner qo'llagan misolni keltirish o'rinlidir.

Mutafakkirlarning fikricha, qiz bola Yuzidagi qizillik uning go'zalligidan dalolat beradi. Biroq, qizillik uning burni ustiga ko'chsa – xunuklikka aylanadi. Demak, axloq uchun–umumiylik, nafosat uchun esa–muayyanlik mavjudlik sharti hisoblanadi.

- Psixologiya (RuhShunoslik). Ma'lumki, insonning ruhiy hayotini o'rganar ekan, ruhShunoslik, hissiyotlar masalasiga katta o'rin beradi. Go'zallikni, san'at asarini yaratish va idrok etish ham ma'lum ma'noda hissiyotlar bilan bog'liq. Masalan, oddiy harsang tosh kishida alohida bir hissiy taassurot uyg'otmaydi. Lekin toshga haykaltarosh qo'l urganidan so'ng, undan hayot nafasi, insoniy hissiyotlar ufura boshlaydi. Gap bunda toshga odam qiyofasi berilganida emas, balki Shu qiyofaga bir lahzalik insoniy tuyg'ularning jamlanganidadir. Boshqacharoq qilib aytganda, ijodkor toshga o'zi tomoshabinga etkazishni maqsad qilib qo'ygan hissiyotlarning suratini chizadi va oddiy toshni haqiqiy san'at asariga aylantiradi. Agar ijodkor–haykaltarosh ana Shu hissiyotlarni o'zi mo'ljallagan darajada tomoshabinga etkaza olsa va tomoshabinda o'sha hissiyotlarga yo aynan, yo monand tuyg'ular uyg'ota olsa, mazkur haykal haqiqiy san'at asari hisoblanadi. Estetika haykaltaroshdan haykalga, haykaldan tomoshabinga o'sha hissiyotlarning qay darajada o'tgan–o'tmaganligini, ya'ni, badiiy qiyofa qanchalik puxta yaratilganligini o'rganadi va Shu asosda asarni baholaydi. RuhShunoslik esa ana Shu xissiyotlarning o'zini o'rganadi. Bundan tashqari, ruhShunoslik asar g'oyasidan tortib, to badiiy asar–estetik qadriyat vujudga kelgunga qadar bo'lgan ijodkorning hissiyotlar olamini tadqiq etadi. Albatta, bunday tadqiq va tahlillar o'rganishlar alohida–alohida, muxtor holda emas, balki ikkala fanning bir–biri bilan hamkorligi, birining ikkinchisi hududiga o'tib turishi vositasida ro'y beradi. Shu bois ruhShunoslikka ham, estetikaka ham teng aloqador bo'lgan san'at ruhShunosligi va badiiy ijod ruhShunosligi deb atalgan yo'nalishlar mavjud.

Sotsiologiya (IjtimoiyShunoslik) fani bilan aloqadorligi. Ma'lumki, har bir san'at asari alohida inson shaxsiga e'tibor qilgani holda, jamiyatni ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida badiiy tadqiq etadi. Hatto inson va jamiyat bevosita aks etmagan manzara janridagi asarda ham ijtimoiylik jamiyat a'zosi–muallif qarashlarining bilvosita in'ikosi bo'lmish uslubda o'zini ko'rsatadi. Zero asar muallifi hech qachon o'zi mansub jamiyatdan chetda «tomoshabin» bo'lib turolmaydi. Shuningdek, yirik asarlar sotsiologik tadqiqotlar uchun o'ziga xos material bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, sotsiologiya jamiyat bilan san'atning o'zaro aloqalarini, san'atning ijtimoiy vazifalarini o'rganadi; san'atkorning jamiyatdagi o'rni, mavqei, o'quvchi va tomoshabinlarning ijtimoiy–demografik holatlarini tadqiq etadi; shaxs ijtimoiylaShuvida san'atkor va san'at asarining ahamiyatini tahlil qiladi. Bu muammolarni atroflicha o'rganish uchun maxsus san'at sotsiologiyasi sohasi ham mavjud. U ham ijtimoiyShunoslikka, ham estetikaka birday tegishlidir. Ayni zamonda, muayyan san'at asarlari, janrlari va turlarining jamiyatdagi mavqeini aniqlab beruvchi maxsus sotsiologik so'rov usullari ham mavjudki, ular Shubhasiz, san'at taraqqiyotiga, estetikaning san'at sohasida to'g'ri yo'nalish tanlashiga ko'maklashadi.

DinShunoslik fani bilan aloqadorligi. Din va san'at doimo bir–birini to'ldirib keladi va ko'p hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti bo'lib maydonga chiqadi. Buning ustiga, har bir umumjahoniy dinning «o'z tasarrufidagi» san'at turlari bor: buddhachilik uchun–haykaltaroshlik, nasroniylik uchun–tasviriy san'at, musulmonchilik uchun–badiiy adabiyot. Shuningdek, barcha umumjahoniy dinlar o'z ibodatxonalarini taqozo etadi. Ibodatxonalarining esa me'morlik san'ati bilan bog'liqligi hammamizga ma'lum. Umuman olganda, dinlar deyarli barcha san'at turlari bilan aloqadorlikda ish ko'radi. Asrlar mobaynida ana Shu aloqalar natijasi o'laroq, san'at asarining o'ziga xos ko'rinishi – diniy–badiiy asar vujudga keldi. «Abu Muslim jangnomasi», SHohizinda me'morlik majmui, Kyoln jomesi, Rembrandtning «Muqaddas oila» asari, Hindi–Xitoy mintaqasidagi Buddha ibodatxonalarini ana Shunday diniy–badiiy asarlardir. Ularda diniy g'oyalar badiiyat orqali ifoda topgan. Estetika bunday asarlarni tadqiq etar ekan, albatta, dinShunoslik bilan hamkorlik qilmay iloji yo'q: u o'sha diniy g'oyalarning mohiyatini, har bir umumjahoniy dinning san'at oldiga qo'ygan talablarini yaxshi bilmog'i va hisobga olmog'i lozim.

Pedagogika fani bilan aloqadorligi. Ularning aloqadorligi tarbiya muammolarini hal qilish borasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki pedagogika ham ma'lum ma'noda nafosat tarbiyasi bilan Shug'ullanadi. Lekin bu tarbiya alohida–alohida, muxtor qismlarga bo'lingan holda, turli yosh va sohalar uchun maxsus belgilangan tarbiya tarzida, ya'ni muayyan, aniq chegaralarda olib boriladi. Masalan, maktabgacha tarbiya, o'quvchilar tarbiyasi, sportchilar tarbiyasi v. h. Pedagogika ana Shu sohalar va yosh

bo'yicha olib borilayotgan estetik tarbiya muammolarini o'rganadi. Estetika esa nafosat tarbiyasining umumiy qonun-qoidalarini ishlab chiqadi, ya'ni, inson tug'ilganidan boshlab to o'lgunigacha bosib o'tadigan bosqichlar uchun umumiy bo'lgan tarbiya falsafasi sifatida ish ko'radi. Demak, rus nafosatshunosi M. Kagan aytganidek, pedagogika tarbiya borasida taktik tabiatga ega bo'lsa, estetika uning strategiyasidir.

Semiotika (belgilar va belgilar tizimi haqidagi fan) fani bilan aloqadorligi. Ma'lumki, san'at asarida belgilar va badiiy ramzlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, harflar, notalar v.h. Boshqacharoq qilib aytganda, bilish va baholash faoliyati natijalarini, ya'ni semantik va pragmatik axborotni o'zida mujassam qilgan san'at asari o'sha axborotni etkazib berishga ham mo'ljallangan. Ana Shu san'atning belgi bilan bog'liq tomonini, kommunikativ-vositachilik jihatini semiotika o'rganadi. Ayni paytda, estetikada tuzilmali-semiotik estetika deb ataladigan nazariya ham mavjud. Unda san'at maxsus til yoki belgilar tizimi, alohida san'at asari esa ana Shu tizim belgisi yoki o'sha tizim belgilarining izchilligi sifatida olib qaraladi. Zero bunda belgi san'at asarini idrok etuvchiga uni etkazib beruvchi hodisa tarzida o'rganiladi.

Bundan tashqari, estetika kibernetika, ekologiya va yuqorida aytib o'tganimizdek, barcha san'atshunoslik fanlari bilan ham yaqin aloqadorlikda ish olib boradi. CHunonchi har bir san'at turining «o'z estetikasi» mavjud: so'z san'ati estetikasi, teatr estetikasi, musiqa estetikasi v.h.

3. Estetikaning amaliy ahamiyati

- Har bir fanning inson va jamiyat hayotida o'ziga xos amaliy ahamiyati bor: estetika ham bundan mustasno emas. Avvalo, u kundalik hayotimizda nafosat tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish borasida katta ahamiyatga ega. Erkin, demokratik jamiyatimizning har bir a'zosi go'zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bo'lishlari lozim. Haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay bilishlari, «ommaviylik san'ati»ni rad qila olishlari lozim. Ana Shu nuqtai nazardan qaraganda, estetika jamiyatning barcha a'zolari uchun muhim ahamiyatga ega.

- Estetikaning, ayniqsa, badiiy asar ijodkorlari uchun amaliy ahamiyati katta. CHunonchi, biror bir san'at turida ijod qilayotgan san'atkor birinchi galda, ma'lum ma'noda, o'z sohasining bilimdoni bo'lishi kerak. Deylik, bastakor notani bilmasdan, musiqali asar yaratish qonun-qoidalarini, Shu jumladan, musiqaga ham taalluqli bo'lgan estetikaning umumiy qonuniyatlaridan bexabar xolda tuzukroq asar yaratishi dargumon. Ba'zilar «Daho san'atkorlar qonun-qoidalarsiz ham ijod qilaveradilar» – degan noto'g'ri tasavvurga egalar. Vaholanki, daholarning o'zlari ko'p hollarda nafosat nazariyasi bilan Shug'ullanganlar. Bu borada Abdurrahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Leonardo da Vinchi, Fridrix SHiller kabi buyuklarning nomlarini eslashning o'zi kifoya qiladi.

- Badiiy asarni tadqiq etuvchi olimlar, tanqidchilar-san'atshunoslar va adabiyotshunoslar uchun ham estetikani bilish zarur. Deylik, «sof teatr»ni – faqat sahna san'atining yaxshi bilgan san'atshunos u qanchalik iste'dodli bo'lmasin, yuksak talab darajasida tadqiqot olib borolmaydi, hatto e'tiborga molik maqola ham yoza olmaydi. CHunonchi, u dramaturgiyadan, musiqadan, uslub va kompozitsiya qonun-qoidalaridan, bir so'z bilan aytganda, estetika qonuniyatlaridan xabardor emas. Natijada uning tadqiqoti, maqolasi yoki taqrizi biryoqlama, falsafiy umumlashmalardan xoli, jo'n va sayoz jummlar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi.

- Estetikaning san'atni xalq orasida yoyadigan va targ'ib etadigan tashkilotlar rahbarlari uchun ahamiyati muhim. Ayniqsa, ma'naviyat va mafkura sohalariga matasaddi rahbarlarning estetikadan bexabar bo'lishlari mumkin emas. Aksincha ma'naviyat targ'ibotchilarining estetikaga e'tiborchizligi san'at uchun fojiali holatlarni Yuzaga keltiradi.

- Shuningdek, dizaynchi-injenerlar, atrof-muhitni obodonlashtirish bilan Shug'ullanadigan mutaxassislar faoliyatiga nafosat ilmining sezilarli ta'siri mavjud. Shuningdek, korxonalar rahbarlari, sex boshliqlari mazkur korxonalar yoki sexda dastgohlar dizaynidan tortib, devorlar ranglari-yu, «ichki gulzor»larning joylashtirilishigacha nafosat qonun-qoidalarini asosida bo'lishini ta'minlashlari lozim Zero o'shandagina ish joyida mehnat unumdorligining oshishi tabiiy. Buning uchun esa mazkur rahbarlar estetikadan albatta xabardor bo'lishlari shart.

- Umuman olganda, estetika hamma uchun ham zarur. CHunki inson zoti baribir hayotda tez-tez san'at asarini idrok etuvchi sifatida maydonga chiqadi. Deylik, siz Samarqandga «o'ynab kelgani» bordingiz. Agar estetikadan bexabar bo'lsangiz, Go'ri Amir maqbarasining gumbazi, Registondagi madrasalar yonida qad ko'targan minoralar, peshtoqlardagi ko'hna arabiy yozuvlar sizda qiziqish uyg'otmaydi. Bordi-yu, aksincha, nafosat ilmidan xabardor bo'lsangiz, u holda nafaqat ularning chiroyliligini, balki gumbaz Shunchaki gumbaz emas, Xudo go'zalligining ramzi ekanini, u «jamol» deb atalishini, minoralar – Tangri qudratining timsoli o'laroq «jalol» deyilishini, peshtoqlardagi go'zal yozuvlar – oyatlar, Xudoning belgisi, «sifat» deb nomlanishini eslaysiz va olayotgan taassurotingiz bir necha barobar kuchayadi. Zero estetika orqali biz faqatgina ko'rganlarimizning shaklii go'zalligini emas, balki ayni paytda shakl bilan birga uning falsafiy mohiyatini ham idrok etamiz. Shu sababli, fermerga yoki temir yo'l ishchisiga, yoki tadbirkorga estetika haqida bosh qotirib o'tirish zarur kelibdimi, degan gaplar xato va zararlidir.

- YUqorida ko'rib o'tganlarimizdan Shu narsa ma'lum bo'ladiki, bugungi kun estetika fani oldida ulkan vazifalar turibdi. Zotan biz qurayotgan fuqarolik jamiyatining a'zosi har jihatdan kamol topgan, yuksak nafis did egasi bo'lmog'i lozim. Qolaversa, hozirgi mashinasozlikni, aviasozlikni, umuman, sanoatni zamonaviy dizaynsiz tasavvur etish mutlaqo mumkin emas. Bunda bevosita texnika estetikasining ahamiyati katta. Bulardan tashqari, ayniqsa yoshlarning nafosat tarbiyasiga alohida e'tibor berish–zamonning dolzarb talabi bo'lib qarmoqda. Shu bois «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillaridan biri: «Ta'limning ijtimoiylaShuvi – ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish», deb aniq belgilab qo'yilgani bejiz emas.

- Har bir fanning inson va jamiyat hayotida o'ziga xos amaliy ahamiyati bor. Estetika ham bundan mustasno emas. Fanimiz, avvalo, kundalik hayotimizda estetika tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish borasida katta ahamiyatga ega. Erkin, demokratik jamiyatimizning har bir a'zosi go'zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan estetik did egalari bo'lishlari lozim; haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay bilishlari, “ommaviychilik san'ati”ni rad qila olishlari lozim. Ana Shu nuqtai nazardan qaraganda, estetika jamiyatning barcha a'zolari uchun muhim ahamiyatga ega.

- Estetikaning, ayniqsa, badiiy asar ijodkorlari uchun amaliy ahamiyati katta. CHunonchi, biror bir asar san'at turida ijod qilayotgan san'atkor birinchi galda, ma'lum ma'noda, o'z sohasining bilimdoni bo'lishi kerak. Deylik, bastakor notani bilmasdan turib, musiqali asar yaratish qonun-qoidalaridan, Shu jumladan, musiqaga ham taalluqli bo'lgan estetikaning umumiy qonuniyatlaridan bexabar holda tuzukroq asar yaratishi dargumon. Ba'zilar daho san'atkorlar qonun-qoidalarsiz ham ijod qilaveradalar, degan noto'g'ri tasavvurga egalilar. Vaholanki, daholarning o'zlari ko'p hollarda estetika nazariyasi bilan Shug'ullanganlar. Misol tariqasida, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Leonardo da Vinchi, SHiller, Vagner, SHopen kabi buyuklarning nomlarini eslashning o'zi kifoya qiladi.

- Badiiy asarni tadqiq etuvchi olimlar, tanqidchilar – san'atShunoslar va adabiyotShunoslar uchun ham estetikani bilish zarur. Deylik, “sof teatr” – faqat sahna san'atiningina yaxshi bilgan san'atShunos u qanchalik iste'dodli bo'lmasin, yuksak talab darajasida tadqiqot olib bora olmaydi, hatto e'tiborga molik maqola ham yoza olmaydi. CHunonchi, u dramaturgiyadan, musiqadan, uslub va kompozitsiya qonun-qoidalaridan, bir so'z bilan aytganda, estetika qonuniyatlaridan xabardor emas. Natijada uning tadqiqoti, maqolasi yoki taqrizi biryozqlama, falsafiy umumlashmalardan xoli, jo'n va sayoz jumlar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi.

- Estetikaning san'atni xalq orasida yoyadigan, targ'ib etadigan tashkilotlar rahbarlari uchun ahamiyati, ayniqsa, muhim. Bordiyu ma'naviyat va mafkura sohalariga mutasaddi rahbarlar estetikadan bexabar bo'lsalar, Xudo urdi deyavering. O'sha viloyat, tuman, shahar yoki tashkilotlarda Yuzaki qaraganda kulgili, latifanamo, aslida esa san'at uchun fojiali holatlar Yuzaga keladi.

- Dizaynchi-injenerlar, atrof-muhitni obodonlashtirish bilan Shug'ullanadigan mutaxassislar faoliyatida ham estetika muhim o'rin egallaydi.

- **a). Ma'naviyat va estetik meros**

- Ma'naviyat (arab. ma'no, ma'nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa; zamonaviy ijtimoiy tafakkur rivojida birinchi bor Prezident Islom Karimov tomonidan ilmiy-falsafiy ta'riflanib, nazariy jihatdan asoslab bergan tushuncha. YUrtboshimiz bergan ta'rifga ko'ra, ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. Hozirgi ilm-fanda ma'naviyat “Ma'naviyatShunoslik”, “Ma'naviyat asoslari”, “Ma'naviyat tarixi va nazariyasi”, “Etika”, “NafosatShunoslik” kabi fanlarning asosiy ketegoriyasi hisoblanadi.¹⁰⁹

- Prezidentimizning “YUksak ma'naviyat – engilmas kuch” asarida ta'kidlaganidek, “Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini, uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi”¹. Masalan, Imom Buxoriy va Imom Termiziyning diniy-ma'rifiy merosi, Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid yoki Mirzo Ulug'bekning

- astronomiyaga doir kashfiyotlari, nafaqat millatimiz va mintaqamizda istiqomad qilayotgan xalqlar, balki jahon sivilizatsiyasi, madaniyatidan o'rin olgan bebaho ma'naviy va estetik meros hisoblanadi.

- O'zbek xalqi insoniyatning ma'naviy kamolotiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatgan boy madaniy meros, buyuk qadriyatlarning egasidir. Ota – bobolarimizdan qolgan ulkan moddiy va ma'naviy merosni bir daryo deb ta'savvur etsak, bu boradagi bilimlarimiz undan bir tomchi, xolos. Hozirga qadar o'tmish ajdodlarimizning jahon fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi o'zimizdan ko'ra dunyodagi ko'plab mamalakatlarda ma'lum va mashhur edi.

- 1993 – yil buyuk mutafakkir Abduxoliq G'ijduvoniyning tug'ilganiga 850 yil to'lishiga bag'ishlangan ilmiy anjumanga Italiya davlatining

- O'zbekistondagi elchisi so'zga chiqib: “Men dunyoning ko'plab mamlakatlarida bo'lganman. O'sha yirik mamlakatlarda Shu o'lkada yashab, jahon sivilitsaziyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan bir yoki ikki olimning nomini eshitganman. O'zbekiston tuprog'ida bunday buyuk siymolar Shunchalik ko'p yashab ijod

- etganki, ularning nomini sanab chiqish ham qiyin. Shunday buyuk allomalarni jahonga etkazib bergan mamlakatning xalqiga va tarixiga hurmat bilan qaramaslik aslo mumkin emas”, degan edi. Bu fikrlarda juda katta haqiqat bor. So'nggi o'n yil mobaynida tariximiz va ma'naviy merosimizni o'rganish borasida katta tadbirlar o'tkazildi. Jumladan, Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Najmiddin Kubro, az-Zamaxshariy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ahmad al-Farg'oniy va boshqalarning tavalludiga bag'ishlangan yirik anjumanlar tantanalar Shular jumlasidandir.

- O'zbekistondagi elchisi so'zga chiqib: “Men dunyoning ko'plab mamlakatlarida bo'lganman. O'sha yirik mamlakatlarda Shu o'lkada yashab, jahon sivilitsaziyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan bir yoki ikki olimning nomini eshitganman. O'zbekiston tuprog'ida bunday buyuk siymolar Shunchalik ko'p yashab ijod etganki, ularning nomini sanab chiqish ham qiyin. Shunday buyuk allomalarni jahonga etkazib bergan mamlakatning xalqiga va tarixiga hurmat bilan qaramaslik aslo mumkin emas”, degan edi. Bu fikrlarda juda katta haqiqat bor. So'nggi o'n yil mobaynida tariximiz va ma'naviy merosimizni o'rganish borasida katta tadbirlar o'tkazildi. Jumladan, Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Najmiddin Kubro, az-Zamaxshariy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ahmad al-Farg'oniy va boshqalarning tavalludiga bag'ishlangan yirik anjumanlar tantanalar Shular jumlasidandir.

- Buyuk Amir Temur bobomiz haqidagi tarixiy haqiqatning tiklanishi ham ma'daniy hayotimizda ulkan voqea bo'ldi.

- Tarix haqiqatni tiklash – o'zbek millatining obro'-e'tiborini tiklash, qadr-qimatini tiklash demakdir.

¹⁰ И.А.Каримов. “Юксак маънавият – энгилмас куч”, 29-бет.

- Xalqimizda uzoq o'tmishdan meros qolgan mehmondo'stlik, saxiylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik kabi fazilatlar milliy xususiyatning eng muhim jihati bo'lib hisoblanadi.

- Bu hislatlarni yosh avlod ongiga singdirish, ruhiyatini esa xalq durdonalari – o'gitlarimiz bilan boyitish va ushbu qadriyatlarimizni e'zozlashga o'rgatishimiz lozim.

- Ma'lumki, inson oilada shakllanadi. Sharqda bola tarbiyasi alohida e'tiborda turgan, yaxshi tarbiya ko'rgan kishi nihoyatda ulug'langan.

- Tarbiyali deganda nafaqat yurish-turishi, balki shirin zabonu, ochiq chehralik ham nazarda tutilgan. Hadisu sharifda "YAxshilikning chehralari ochiq, xushro'y odamlardan kutinglar", deyiladi. Insonni har doim ma'naviy pok bo'lib yurishi, kiyimlarini ozoda tutishi, xushmuomala bo'lishi hamisha ulug'lanadi. Masalan, Rim arxitektura san'atiga nazar tashlasak, ular biton qilib, uy-joy qurilishida undan ustalik bilan foydalanganlar, xammomlarini Shunaqa mukammal qurishganki, u erda dam olish xonalari, ovqatlanish zallari, xattoki, kutubxonalar mavjud bo'lgan. YA'ni, ular "tanasi toza, pok odamning miyasi ham yaxshi ishlaydi", degan tushunchaga ega bo'lganlar. Demakki, inson ko'proq vaqtini xammomda o'tkazishi uchun ham Shunday qilingan bo'lsa ajab emas.

- Fazilatlarimining yuksagi, birinchi navbatda, poklik sanaladi. Bu ruhiy ma'naviy poklikdir.

- Donolarimiz o'gitlarida Shunday ajoyib so'zlar keltiriladi: "Og'zingni misvoq bilan poklading, qani endi uni g'iybat, bo'hton kabi so'zlar bilan yana iflos qilmasayding...". Tarbiyaning muhim quroli nutq hisoblanadi. Shuning uchun ham insonlar o'z nutqlarida yoqimsiz ohang bilan mantiqsiz so'zlarni ishlatish, qo'pol, behayo, beandisha so'zlarni ishlatish bilan ularda kattalarga bo'lgan hurmatni so'ngdirmasliklari kerak.

- Ba'zan o'quvchi, talaba yoshlarimizning ham og'zilaridan chiqayotgan haqoratomuz so'zlarni eshtib yoqa ushlaymiz. Besabr "katta" lar esa ba'zan ularga tanbeh tarzida "bunaqa gapingni otangga yoki ongangga gapirasan", "bunaqa beadablikni borib otangga yoki onangga qil", deyishadi. To'xtang... biz ularga bunaqa xunuk qiliqni, hayosiz so'zlarni hech qachon ishlatma, yomon bo'ladi, deb vaqtida to'g'ri yo'lga boshlashimiz kerak-ku. Axir boyagi gapimiz bilan ota-onangni behurmat qil, deb o'rgatishimiz emasmi?...

- Murg'ak tasavvurli bola ilk nomini va malakalarini biz kattalardan oladi. Agar katta yoshdagilari o'zlarining xulq-odoblari, xatti-harakatlari bilan yoshlar o'rtasida hurmat qozona olsalar, ularga ma'naviyatli, madaniyatli inson sifatida ruhiy ozuqa bera oladilar.

- "Ey farzand, agar farzanding bo'lsa unga yaxshi ot qo'ygil, nedinkim otadan farzand haqlaridan biri unga yaxshi ot qo'ymoqdir. YAna biri uldurkim, farzandingni oqil va mehribon doyalarga topshirgaysen, sunnat qilur vaqtda sunnat qilgaysan, qudratinga loyiq to'y va tomosha qilgaysan hamda o'qishni o'rgatgaysan. Agar qizing bo'lsa uni yaxshi doyalarga topshirgin, toki yaxshi parvarish qilgaylar, kattaroq bo'lg'ondan so'ng muallimga topshirgil. Balog'atga etgandan so'ng harakat qilib erga bergil, unga shafqat va marhamat ko'rgizgil, nedinkin qiz otaning asiri bulur...". "Qobusnoma"dan.

- Sharq allomalarini biror-bir asari yo'qki, ularda komil inson haqida so'z yuritilmagan bo'lsin. Ularni fikricha, agar inson axloq-odoblari bo'lishini istasa yurish-turish va hayot kechirishning, madaniyatning me'yorlariga rioya qilishi lozim.

- Axloq va odob malakalarini puxta egallash, ota-ona, keksalarni hurmat qilish, samimiylik, vijdonlilik, sadoqat, o'zaro yordam singari insoniy hislatlar millatimiz ma'naviyat ramzi hisoblanadi. Milliy ruhiyatimizni aks ettiradigan o'zaro iliq munosabat, qarindosh-urug'chilik, mehr-muruvvat kabilarning barchasi xalqimizning boy madaniyati, tili, adabiyoti, san'ati-yu obidalarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

-

- **b). San'at estetikasi**

"San'at – mo'jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san'at vositasidagina kirish mumkin".Ibn SINO

- San'at – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at inson mehnati, aql-idroki, Shuuri bilan yaratilgan ijod mahsulidir. San'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. San'atning turli ko'rinishlari voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o'zlariga xos usullar

yordamida aks ettiradi. (masalan, musiqada – tovushlar, ularning o‘zaro bog‘lanishi uyg‘unligi orqali, badiiy adabiyotda – so‘z, obrazlar orqali). Lekin Shu bilan birga ular o‘rtasida ma’lum umumiylik mavjud. Bu umumiylik Shundan iboratki ularning hammasida voqelik badiiy-obrazli tarzda aks ettiriladi.

- San’atni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs, tortishuvlariga sabab bo‘lib kelgan.

- Masalan, ba’zi san’atkor va san’atshunoslar uni “tabiatning taqlidi” yo “voqealarning aks ettirilishi” deb hisoblasalar, boshqalari san’atni “san’atkorning sof shaxsiy ijodiy mahsuli”, “o‘z-o‘zini izhor etishi”dir, deb bilganlar. Bu san’at predmetining murakkabligi uning xususiyatlari va shakllari, mujassamlashtirish usullarining xilma-xilligi hamda turli davrlarda san’at nazariyotchilarining sinfiy va g‘oyaviy fikrlari o‘rtasidagi tafovutlar bilan izohlanadi.

- San’atda go‘zallik kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Estetika fani go‘zallik san’atning zarur sharti ekanligini, go‘zalliksiz san’atning yo‘qligi va bo‘lishi mumkin emasligini uqtiradi. Ya’ni, go‘zallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi san’atga aloqadordir.

- San’atning quyidagi ikki turi farqlanadi: amaliy va badiiy (nafis). Amaliy san’at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo‘stlik, libos yaratish kabi sohalar kirsa, badiiy san’at turlariga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr, badiiy adabiyot kabilar mansub. San’atda mazmun va shaklni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. San’atning o‘ziga xos xususiyati uning voqealarning ilg‘or va g‘oyaviy nuqtai nazardan turib badiiy obrazlarda aks ettirilishidir. San’atning badiiy shakli til, uslub, obraz kabilar bo‘lib ular mazmunni ifodalash uchun xizmat qiladi.

- Insonning badiiy – ijodiy faoliyati rang-barang bo‘lib, u san’at turlari yoki janrlarda namoyon bo‘ladi. Ular, o‘z navbatida, qator ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, san’at dunyoni badiiy – obrazli anglashning turli, ya’ni umumiy va o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan usullar majmuasidan iborat tarixiy tizimdir.

- San’at juda qadimiy tarixga ega. U jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq holda vujudga kela boshlagan.

- San’atshunoslik – keng ma’nodagi jamiyatning badiiy madaniyatini, umuman, san’atni o‘rganish, tadqiq etish bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy fanlar majmuidir. Bu majmuaga kiruvchi adabiyotshunoslik (filologiya fanlari sirasiga ham kiradi), musiqaShunoslik, teatrShunoslik, kinoShunoslik va tor ma’nodagi san’atshunoslikdan iborat. Tor ma’nodagi san’atshunoslik tas’viriy san’at, amaliy bezak san’ati va me’morchilikni tadqiq etish bilan shug‘ullanadigan ijtimoiy fan bo‘lib, san’atshunoslik deganda, ko‘pincha uning shu ma’nosi ko‘zda tutiladi va keng ishlatiladi. Shu ma’nodagi san’at bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uch tarmoq: a.San’at nazariyasi; b.San’at tarixi; v.Badiiy tanqiddan iborat.

- San’atshunoslik umuman, ana shu tarmoqlar doirasida san’atning borliqqa munosabati, uning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy roli, jamiyat tarixiy taraqqiyoti ob’ektiv qonunlari bilan bog‘liqligi, ijtimoiy tuzum va ishlab chiqarish kuchlari darajasining san’at va me’morchilikka ta’siri, san’atning mazmuni va shakllari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi. San’atkorlarning ijodiy yo‘llarini tavsiflaydi, san’at asarlarni tahlil etadi, ommalashtiriladi va targ‘ib qiladi.

- v). Me’morchilik

- Me’morchilik keng ma’nodagi inson mehnatining muayyan sohasi sifatida juda qadim zamonlarda paydo bo‘lib, kishilarning eng zarur turmush ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan edi. Me’morchilik jamiyatning amaliy foydali ehtiyojlarini qondirishni o‘zining zarur vazifasi va maqsadi qilib olingan. Me’morchilik – me’morlik san’ati inson ijodiy faoliyatining qurilish bilan bog‘liq alohida turidir. Me’morchilik – me’morlik san’ati tarixi, qonuniyatlari, nazariyasi, binolarning turi va uslubi, kompozitsiyasi kabi qator masalalarni o‘rganuvchi san’at sohasidir. Inson dahosi va mehnati bilan yaratilgan muhit – turli-tuman binolar, inshootlar, shahar va qishloqlar me’morchilik nomi bilan yuritiladi.

- Me’morchilik davr o‘tishi bilan o‘zgarib borib, jamiyat taraqqiyotidagi tuzumlarning tub mohiyatini o‘zida ifoda etadi. Me’morchilik asari amaliy xizmatlari bilan bir qatorda, ma’lum g‘oyaviy badiiy mazmun ham ifoda etadi. Me’morchilik mahsuloti jamiyat moddiy madaniyatining tarkibiy qismini tashkil etadi va ayni vaqtda san’at asari sifatida ham namoyon bo‘ladi.

- Bu fikr mulohazalardan badiiy adabiyot barcha san'at turplaridan ustun turadi yoki boshqa turlar o'rnini ham bosa oladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. U qaysidir jihatlari bilan boshqa san'at turlaridan ustun bo'lsa, qaysidir jihatlari bilan ularga "yo'l" beradi, ular bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi. Shu tariqa badiiy adabiyot boshqa san'at turlarini boyitadi, ayni vaqtda uning o'zi ham boyib boradi.

- **e). Teatr, kino san'ati**

- An'anaviy teatr tarixi juda qadimiy va boydir. Uning kurtaklari ibtidoiy jamoa davridayoq Yuzaga kelgan. YA'ni teatr san'ati ov va boshqa mehnat jarayoni aks etgan taqlidiy raqslar, jangovar va xalq o'yinlari, tabiat kuchlariga topinish oqibatida Yuzaga kelgan marosimlar shaklida namoyon bo'lgan. O'zbekistonning ko'pgina soylari va g'orlaridan topilgan qoyatosh tasvirlari va bizgacha etib kelgan ba'zi o'yinlar Shundan dalolat beradi.

- Teatr unsurlari tobora murakkablashib borib, tabiatga, qush va hayvonlarga, ruhlarga bo'lgan ishonch-e'tiqodlar, zardushtiylikdan kelib chiqadigan turli-tuman urf-odatlar, marosimlar bilan chatishib ketib, asrlar osha o'ziga xos tomosha san'atini vujudga keltirgan. Mil av. 7 – 6-asrlardayoq Turonda zardushtiylik va uning muqaddas kitobi Avesto bilan aloqador ikki toifa – kulgili va qayg'uli tomoshalar shakllangan. Siyovush afsonaviy va ilohiy timsolga aylantirilib, unga teatr san'atining piri sifatida e'tiqod qilingan. Shu tarzda Turon teatr san'ati keng malakali taraqqiyot yo'liga tushib oladi, ya'ni diniy marosimlar qobig'idan chiqib, dunyoviy mazmun kasb etadi, inson hayoti, ijtimoiy munosabatlarni tasvirlashga e'tibor kuchayadi. Mahalliy teatr, ayniqsa, 6-7 asrlarda yaxshi rivojlanadi; Turon mulkidan chiqqan cholg'uchilar, xonandalar, raqqosalar, o'yinchilar ipak yo'li orqali qo'shni yurtlarga safar qiladilar. Xitoy yilnomalarining ko'rsatishicha, masalan, Turon san'atkorlarining Xitoyga ta'siri 4-asrdan kuchaya boshlaydi, 6-asrda ular shohanshoh saroyidan o'rin oladilar, 7-asrda esa Xitoy poytaxti CHan-anning barcha ko'ngil ochar joylarini egallaydalar.

- Teatr ayniqsa Mirzo Ulug'bek davrida (1394-1449) Movarounnahrda, Husayn Boyqaro davrida (1469-1506) Xurosonda taraqqiy topdi. Eng sara olimu fozillar, san'at va hunar ahllari to'plangan Samarqand va Hirot shaharlarida xonanda, sozandalarning o'nlab uyushmalari bo'lib, ular saroyda va xalq orasida tomosha berganlar. Bir qancha shaharlarda maxsus tomoshagohlar, sayilgohlar ishlab turgan.

- 18-asr oxiri-19-asr boshida Turkistondagi xonliklar davrida an'anaviy teatrdan o'ziga xos ko'rinishlar paydo bo'ladi. Buxoro amirligidagi yirik shaharlarda masxaraboz, qo'g'irchoqboz, raqqos va boshqa o'yinchilarning uyushmalari vujudga kelib, bu o'z navbatida ularning repertuarining boyishiga va ijrochilik mahoratining oshishiga olib boradi. Xorazm an'anaviy teatrida ikki turkum tomoshalar – to'kma va xatarli o'yin yaxshi shakllanadi, masxarabozlar o'z chiqishlarida tomosha san'atining barcha vositalaridan uyg'un foydalanadilar. Farg'ona vodiysi va Toshkentda qiziqchilik va askiya taraqqiy etib, so'z san'atiga alohida e'tibor beriladi.

- Rossiya mustamlakachiligi davrida Turkiston o'lkasiga o'z g'oyaviy-estetik xususiyatlari bilan mahalliy an'anaviy teatrdan keskin farq qiluvchi rus, keyinroq tatar va ozarbayjon teatr to'dalari kirib kela boshladi. O'zbek madaniyatining ilg'or namoyondalari (Furqat, Ahmad Donish, Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqalar) ular ko'rsatgan tomoshalarga katta qiziqish bilan qarab, mahalliy ziyolilarni ulardan o'rganishga chaqirdilar. Shu tarzda Yangi ko'rinishdagi milliy teatrni yaratish harakati Yuzaga keldi. Bu ishda jadidlar, ya'ni ma'rifatparvarlar bosh-qosh bo'ldilar.

- 1911 yil dastlabki yozma milliy sahna asarlari yaratildi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush yoki o'qimagan bolaning holi", Abdurauf Samadovning "Mahramlar" va Fitratning "Bir farangi bilan buxorolik bir mudarrisning qilgan munozaralari" pesalari Shular jumlasidan. Shundan, ayniqsa" milliy istiqolning otashin jarchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi ma'rifatparvarlik g'oyalarini yorqin ifodalagani bilan e'tiborli bo'ldi.

- 1914 yil Samarqandda Behbudiy boshchiligida tashkil etilgan birinchi o'zbek havaskorlik teatr guruhi uning "Padarkush" dramasi sahna lashtirildi. O'sha yili Toshkentda Abdulla Avloniy tuzgan teatr to'dasi ham "Padarkush" bilan ochildi.

- O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan teatrlarning soni asta-sekinlik bilan orta bordi. Andijon (1919), Qo'qon (1919), Xiva (1922), Buxoro (1922)da teatrlar tashkil etildi. Buxoro teatrining dunyoga kelishida Mannon Uyg'urning xizmati katta bo'ldi. Andijon, Qo'qon teatrlari, ayniqsa milliy dramaturgiyaga alohida e'tibor berdi. "Boy ila xizmatchi", "Tuhmatchilar jazosi", "Zaharli hayot", "Turkiston tabibi" (M.Uyg'ur), "YOndiramiz" (K.YAshin) va boshqalar Shular jumlasidan.

- Urush yillarida o‘zbek teatri namoyandalari bir qancha Yangi spektakllar yaratdilar. (H.Olimjon – “Muqanna”, M.SHayxzoda – “Jaloliddin Manguberdi” va boshqalar).

- 50-60 yillarda Abdulla Qahhorning “SHohi so‘zana” komediyasi, maqsud SHayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek”, U.SHekspirning “YULiy Sezar” va “Qirol Lir” tragediyalari asosida yaratilgan spektakllar mazmunan teranligi, falsafiy mushohadalarga boyligi va badiiy bo‘yoqlarining rang-barangligi bilan tomoshabinlar e‘tiborini jalb etganlar.

- Teatr san‘ati vaqt va o‘rin belgilariga ega. Spektaklda ko‘pgina san‘at turlari qatnashadi. Undagi buyum jihozlar, sahna bezaklari, kiyim-kechak va nihoyat aktyorning o‘zi muayyan fazoli xususiyatga ega. Spektaklda vaqt mezonini ham muhim o‘rin tutadi. Aktyor mahorati teatr san‘atining barcha shakllari uchun muhim xususiyatdir. Teatr san‘atining tub va nodir xususiyatini aktyor maxorati tashkil etadi. Teatr san‘atining boshqa qismlari aktyor ijodini Yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi.

- Teatrning bir qancha turlari mavjud. Masalan, drama teatri, qo‘g‘irchoq teatri, opera va balet teatri, musiqiy drama teatri, bir aktyor teatri. Teatr san‘ati aktyorlarining ijrochilik mahoratiga bog‘liq izlanishlari natijasida shakllanadi.

- Shunday san‘atkorlar bo‘ladiki, ismi sharifini tilga olsangiz, ularning sahnada ijro etgan obrazlari ko‘z oldingizda gavdalanadi. Abror Hidoyatov – Ottelo, Shukur Burhonov – SHoh Edip, Sora Eshonto‘raeva – Jamla, Nabi Rahimov – Xlestakov, Zaynab Sadrieva – Farmon bibi, Soib Xojaev – Toshbolta, G‘ani A‘zamov – Usta Mo‘min, Obid YUNusov – O‘tkuriy, Maxmudjon G‘ofurov – Tohir.

- **Kino.** Ilk film namoyishi Toshkentda 1897 yil o‘tkazilgan. Dastlab O‘zbekistonda filmlar turli millat rejissyorlari tomonidan namoyish etilgan. O‘rta Osiyo xalqlari hayotini tasvirlashga urinib ishlangan filmlar mazmuni mahalliy xalq turmushidan juda yiroq edi. Birinchi bo‘lib milliy urf-odatlar, xalq mehnati, uning tashvish va quvonchlarini o‘z lavhalarida yorqin va to‘g‘ri ifoda etgan kinooperator Xudoybergan Devonov bo‘lib, o‘zbek kinosining shakllanishida uning xizmatlari katta. Dastlab O‘rta Osiyo bo‘yicha bor-yo‘g‘i 40 ta kichik kinoteatr bo‘lgan (20 tasi Toshkentda). O‘zbekiston hududiga joylashgan kinoteatrlar faqat eng katta shaharlarda va aynan evropaliklar joylashgan qismlargagina qurilgan. “Eski shahar”ga o‘xshash mahalliy xalqlar zich joylashgan mahallalarga umuman qurilmagan. Faqat musulmonlarning bayramlaridagina kinoprokatchilar tomonidan urf-odatlar, bozor hayoti, mahalliy xalqning yurish-turishi, Toshkent va o‘lka ko‘rinishlari, evropaliklar hayoti, Buxoro amiri hayotidan lavhalar tushirilgan lentalarni ochiq havoda namoyish etganlar.

- 30-yillarga kelib kinoda anchagina milliy kadrlar etishib chiqdi. M.Qayumov, H.Sulaymonov, A.Rahimov, SH.Zohidov, A.Rahmonov, A.Saidov Shular jumlasidan. “Avliyo qizi”, (rej. O.Frelis), “So‘ngi bek” (rej. CH.Sabinskiy), “YUksalish”, “Ramazon” (rej. N.G‘aniev), “O‘lim qudug‘i” (rej. N.Klado), “Qlich” (raj. Y.A‘zamov), “Yigit” (rej. N.G‘aniev) singari filmlar ishlandi. Ovozsiz kino davrida o‘zbek kinosining shakllanishi va rivoj topishiga rus rejissyor va aktyorlari bilan birga N.G‘aniev, K.YOrmatov, R.Pirmuhamedov, S.Xo‘jaev, E.Hamroev, Y.A‘zamov, M.Qayumov kabi etishib chiqqan yosh milliy kino san‘ati vakillari ham salmoqli hissa qo‘shdi.

- 1940 yil O‘zbekistonda birinchi to‘qmachilik kombinati haqida “Asal” (rej. M.Egorov, B.Kazachkov) filmi yaratildi. Film musiqali sahnalar, qo‘shiq'larga boy bo‘lib, bosh rolni H.Nosirova ijro etgan.

- 40-yillar suratga olingan “Tohir va Zuhra”, “Nasriddinning sarguzashtlari” (1945, 1946, rej. N.G‘aniev), “Alisher Navoiy” (rej. K.YOrmatov) kabi filmlar o‘zbek kinematografiyasining yirik yutug‘i bo‘ldi va ular o‘zbek kinosining oltin fondidan o‘rin oldi.

- 1941-45 yillarda “Ikki jangchi” (rej. L.Lukov), “Nasriddin Buxoroda” (rej. YA.Protazanov), “217-kishi” (rej. M.Romm), YOqut rangli yulduzlar” (rej. A.Usolsev) kabi filmlar chiqarildi.

- “Temir erkak” (1991, rej. I.Ergashev), “Kammi” (1991, rej. J.Fayziev), “Tushlarida g‘amgin yig‘layman”, (1991, rej. S.Nazaprmuhamedov), “Ko‘zlarim yo‘lingda” (1991, rej. F.Musajonov, M.Abzalov), “Qiyomat kuni” (1992, rej. D.Abdullaev), “O‘g‘riyam odam”, “SHarif va Ma‘rif”, “Tilla bola” (1992, 1993, 1994, rej. I.Ergashev), “Kim jinni” (1992, rej. A.Hamroev), “Gunoh”, “Gunoh-2”, “Tavba” (1992, 1994, rej. F.Haydarov), “Odamlar...” (1993, rej. M.Mansurov), “Dalol” (1993, rej. B.Odilov), “Qaltis o‘yinlar” (1993, rej. Z.Royzman), “Qarib quyulmagan” (1993, rej. M.Abzalov), “Ehtiros qurbonlari” (rej. A.Ismoilov, O.Ubaydullaev), “Taqdir eshigi” (1994, rej. L.Fayziev), “Tong

otguncha” (1994, rej. YU.Azimov), “Bomba” (1994, rej. Z.Musaqov) va boshqalar o’sha yillar mahsulidir.

- Respublika kinematografiyasini tashkil etish darajasi hamda uning O‘zbekiston xalqining ma’naviy-axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, ko‘p asrlik ma’naviy, madaniy qadriyatlar va milliy an’analarni qayta tiklash hamda boyitish, Shuningdek bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda milliy kinematografiya taraqqiyotini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat kinokompaniyasi 1996 yilda “O‘zbekkino” Davlat aksionerlik kompaniyasiga aylantirildi.

- **Xulosa qilib**, kino ham san’at turi bo‘lib, hayotdagi voqealarni o‘z xolicha yoki maxsus insterinovka qilib, yoki multifikatsiya, kompyuter vositasida qayta tasvirlab suratga tushirish yo‘li bilan asarlar yaratadi. Kino san’atida adabiyot, teatr va tasviriy san’at, mustiqaning o‘ziga xos estetik jihatlari ifoda vositalari bilan uyg‘unlashib ketadi.

- Bu san’at tomoshabinlarni voqaelik haqida tasavvurlarni, estetik didini shakllantirishda muhim vositadir.

- Kino san’ati – fan texnika taraqqiyoti mo‘jizasiga aylandi. Kino boshqa san’at turlari, xillari, ko‘rinishlari, ifoda vositalaridan qorishma hosil qiladi. Kino san’atiga adabiyotning tasiri juda kuchli. Etuk adabiy manba etuk kinofilm yaratish garovidir. Kino san’ati kinoaktyor oldiga o‘ziga xos talablar qo‘yadi, u ko‘proq o‘zini tabiiy, samimiy, erkin, vazmin va bemalol tutadi. Bu bilan kinoaktyor o‘zining jozibadorligi va extirosililigini yo‘qotmaydi, balki u yaratayotgan obrazning estetik tasir kuchi ortadi.

- XX asrning ikkinchi yarmida “oynai jahon” (televidenie) ravnaq topdi.
-

• Takrorlash uchun savollar:

1. «Estetika» iborasi ilmiy muomalaga qay tariqa kirib kelganligini tuShuntiring?
2. Xegelning «estetika» atamasi haqidagi fikrlarini tuShuntirib bering?
3. Nima uchun estetikani san’at falsafasi deb atashadi?
4. Estetikaning etika fani bilan aloqadorligi va bir-biridan farqini izoxlab bering?
5. Estetika qaysi fanlar bilan o‘zaro yaqin aloqador?
6. Bugungi kunda estetika faning amaliy ahamiyati ko‘proq qaysi sohalarda namoyon bo‘lmoqda?
7. Estetika fanining asosiy vazifalarini aytib bering?

4.2 – Mavzu. Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi. Estetikaning zamonaviy muammolari.

Reja:

1. Jamiyat rivojida tabiatga estetik munosabatning shakllanishi. Tabiatning estetik jihatlari.
2. Ekologik estetikaning qadriyatli maqomi. Ekoestetikaning XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o‘rni. Texnogen sivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga ta’siri. Zamonaviy shaharsozlik estetikasi.
3. Dizaynning estetik xususiyatlari. Xalq amaliy san’ati va dizayn. Estetik tarbiyaning turlari va yo‘nalishlari.

4. Mehnat-turmush estetikasining muhim omili. Insonning tabiiy, axloqiy va estetik didining mutanosibliigi.
5. “Ommaviy madaniyat”ning yoshlar estetik didiga ta’siri.

1. Jamiyat rivojida tabiatga estetik munosabatning shakllanishi.
Tabiatning estetik jihatlari.

Keyingi ikki asrdan ortiq vaqt mobaynida estetikani faqat san’at falsafasi sifatida talqin qilish haqiqatga zid ekani ma’lum bo’lib qoldi. Chunki asta-sekin «san’at estetikasi» yonida yana boshqa «estetikalar» paydo bo’la boshladi. Ularning ba’zilarini estetik faoliyat, estetik soha kabi atamalar bilan nomlashga urinib ko’rdik. Biroq bunday yondashuv doimo nazariy chalkashliklarga olib keldi, hozir ham o’shanday manzarani ko’rish mumkin. Masalan, estetik faoliyat deganimizda san’atni tuShunamiz, boringki, unga dizaynni ham qo’shish mumkin. Lekin tabiatni yoki sportni estetik faoliyat deb aytolmaymiz, ularga taalluqli nazariyalarni estetika sohasi deyish ham qiyin. Chunki mohiyatan ular estetik faoliyat emas, balki estetik xususiyatlar namoyon bo’ladigan voqelik va ular borasidagi nazariyalarni estetikaning qismlari deb atash ham ularga nisbatan to’g’ri emas; bunday atama bilan biz estetika tarixi, estetika nazariyasi, estetik madaniyat singari fanning «katta-kichik» bo’limlarini nazarda tutamiz. Ana Shunday har xilliklar ko’pgina adabiyotlarda, hatto estetika lug’atida ham tez-tez uchrab turadi¹¹¹. Ulardan qutulish maqsadida biz estetikaning ikki qatordan iborat turlarga bo’lgan holda tasniflashtirishni maqsadga muvofiq deb o’ylaymiz. Birinchi qatorni estetikaning eng miqyosli turi – san’at estetikasi, ikkinchi qatorni esa, qolgan barcha, nosan’at estetik ob’ektga asoslangan estetik nazariyalar tashkil etadi. Ular – tabiat estetikasi, turmush estetikasi, mehnat estetikasi, texnika estetikasi va sport estetikasi. San’at estetikasini alohida, keyingi boblarda ko’rib chiqishimizni nazarda tutib, hozir nosan’at ob’ektlar estetikasi qatoridagi estetik nazariyalar turlarini qisqacha nazardan o’tkazamiz.

Tabiat haqida gap ketganda, «tabiatni asrash», hatto «tabiatni qutqarish» degan so’zlarni tez-tez eshitamiz. Xo’sh, tabiatni kimdan asrash va qutqarish kerak? Odamdan, jamiyatdan. Demak, odam, markschilar ta’riflaganidek, tabiatning bir qismi emas, uni odam bir-birini bo’ysundirganidek bo’ysundirishi, «olamni tubdan o’zgartirishi» mumkin emas. Aks holda, oxir-oqibat insoniyat, hayvonot va nabotot dunyosi halokatga mahkum etilishi muqarrar.

Keyingi bir asr mobaynida inson tafakkurining qudrati, fan-texnika taraqqiyoti jahonning deyarli barcha sivilizatsiyalashgan mintaqalarida landshaftning (er Yuzi manzarasining) o’zgarishiga, buzilishiga olib keldi. Masalan, birgina suv omborlarini olib ko’raylik. Hozirgi paytda minglab kvadrat kilometr takrorlanmas landshaft suv ostida qolib ketdi. Vaholanki, landshaft hayvonlar, qushlar, o’simliklar, suv, tuproq kabi qit’aviy xazinalarning uyg’unligidir. Biz esa, tabiatga bo’lgan xudbinlarcha munosabatimiz, unga qornimizni to’ydiradigan, hayotimizni farovon qiladigan vosita deb qarashimiz tufayli ana Shu uyg’unlikni muntazam ravishda buzib kelmoqdamiz.

Tabiat haqida gap ketganda, «tabiatni asrash», hatto «tabiatni qutqarish» degan so’zlarni tez-tez eshitamiz. Xo’sh, tabiatni kimdan asrash va qutqarish kerak? Odamdan, jamiyatdan. Demak, odam, markschilar ta’riflaganidek, tabiatning bir qismi emas, uni odam bir-birini bo’ysundirganidek bo’ysundirishi, «olamni tubdan o’zgartirishi» mumkin emas. Aks holda, oxir-oqibat insoniyat, hayvonot va nabotot dunyosi halokatga mahkum etilishi muqarrar.

Keyingi bir asr mobaynida inson tafakkurining qudrati, fan-texnika taraqqiyoti jahonning deyarli barcha sivilizatsiyalashgan mintaqalarida landshaftning (er Yuzi

¹¹¹ Қаранг: Эстетика. Словарь. С. 35, 276, 421.

manzarasining) o'zgarishiga, buzilishiga olib keldi. Masalan, birgina suv omborlarini olib ko'raylik. Hozirgi paytda minglab kvadrat kilometr takrorlanmas landshaft suv ostida qolib ketdi. Vaholanki, landshaft hayvonlar, qushlar, o'simliklar, suv, tuproq kabi qit'aviy xazinalarning uyg'unligidir. Biz esa, tabiatga bo'lgan xudbinlarcha munosabatimiz, unga qornimizni to'ydiradigan, hayotimizni farovon qiladigan vosita deb qarashimiz tufayli ana Shu uyg'unlikni muntazam ravishda buzib kelmoqdamiz.

Biz tabiatni nutqlarimizda, she'rlarimizda, maqolalarimizda «Ona-tabiat» deb ataymiz. Darhaqiqat, tobimiz qochsa, shifokorlar bizga bahavo, shaffof suvli tabiat qo'ynida joylashgan oromgohlarga borishni, kimsasiz daryo bo'ylaridagi butazorlar orasida chodir qurib, bir muddat tashvishlardan forig' yashashni tavsiya etadilar. SHahar shovqinlaridan, mehnatdan, axborotlar siquvidan charchaganimizda, jamoa bilan yoki oilaviy tarzda shanba yo yakshanba kuni tabiat qo'yniga chiqib dam olamiz. Toliqsak, doim «onamiz» qo'yniga intilamiz, ona-tabiat bizni davolaydi, go'zalligi bilan hayratlantiradi, ruhlantiradi. Lekin bir-ikki kundan so'ng yana hammasini unutamiz, tag'in tabiatga bir xizmatkordek qaraymiz. Nega Shunday? CHunki biz uni tuShunmaymiz, uni bilmaymiz. Shu sababli biror bir odamning yaxshi yoki yomonligiga asl sabablar nimaligini, uning mohiyatini bilmaganimiz, tuShunmaganimiz uchun «falanchining tabiati o'zi Shunaqa», yoki muayyan hayvon yoxud o'simlikning sirsanoatidan bexabarligimiz tufayli uni «tabiatan o'zi Shunday» deyish bilan muammoga nuqta qo'yamiz. Zero, tabiat olami kubromi (katta olammi), olami sug'romi (kichik olammi), ya'ni, odammi, u – sirli, uni lozim darajada tuShunmaymiz va bilmaymiz. Har qancha ekologiyaga e'tibor qilmaylik, uni fan sifatida zo'r berib o'qitmaylik, baribir tabiatni tushunishimiz qiyin, zotan ekologiya tabiatni asrashni, qutqarishni, boyitishni targ'ib qiladi. Biroq ularning hammasiga faqat estetika yordamida, uning ekologiya bilan hamkorligi orqali erishish mumkin. CHunki estetika insonga tabiatni sevishni, uning go'zalligiga beg'araz munosabatda bo'lishni o'rgatadi, ya'ni, tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan tashqaridagi umumolamiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi. Ha, tabiat go'zallik va ulug'vorlik manbai, lekin faqat inson uchungina Shunday emas. Masalan, bulbul tunda, odamlar uxlaganda sayraydi, namozshomgul va ba'zi boshqa gullar faqat qorong'u tushayotgan paytdan boshlab ochiladi. Demak, hayvonlarni, o'tloqlarni, daraxtlarni, daryolarni, tog'larni faqat «biz uchun» deb emas, «biz uchun ham» deb tushunishimiz lozim.

Buyuk Kant tabiatni axloqiylik bilan bog'laydi: «Kimniki bevosita tabiat go'zalligi qiziqтира, bu uning fikrlash tarzida, yo'q deganda, axloqiylikka, ezgulikka qobiliyati mavjudligidan dalolat beradi», – deydi u.¹¹² Ammo Hegelning, tabiatda ideal yo'q, Shu sababli u ikkinchi darajali go'zallik turi, degan fikri estetikada hukmronlik qilib keldi, ayniqsa, bu fikr tabiatni «bo'ysundirishni» targ'ib qilgan markschilikning tegirmoniga suv quydi. Natijada uzoq yillar mobaynida tabiat estetikasiga e'tibor qaratilmadi. Biz me'moriy obidalarni asrash, tiklash haqida qayg'urdik, ularni estetik qadriyatlar deb e'lon qildik, lekin landshaft estetikasini chetga chiqarib qo'ydik. Hozirgi kunda Shu narsa aniq bo'ldiki, tabiatni eng ulug' va mangu estetik qadriyat deb bilmaslik borib turgan estetik savodsizlikdir. Aniqrog'i, bugun tabiatsiz estetikani tasavvur qilish mumkin emas.

Buning sababi, birinchidan, tabiatni nosan'at estetik ob'ekt sifatida to'g'ridan-to'g'ri idrok eta olsak (bunga keyinroq bafurja to'xtalamiz), ikkinchidan, u san'at uchun insondan keyin eng boy material, manba; san'at vositasida in'ikos ettirilgan tabiat estetik qadriyat sifatida ma'naviyatimizni boyitib yashaydi. San'atda aks etgan tabiat o'zining g'oyaviy-badiiyligi, abadiylikning o'chmas lahzasi, takrorlanmas go'zallik yoki ulug'vorlik, ba'zan esa, fojiaiylik sifatida bizni doimiy rom etishi bilan ajralib turadi. Nosan'at estetik ob'ekt sifatida esa, tabiat faqat go'zallik va

¹¹² Кант И. Сочинения в 6 т. Т. 5. М., «Мысль», 1966. С.314.

ulug'vorlikni ifodalaydi, g'oyaviy-badiiy urg'uga ega emas, hissiyotlarimizga san'atdagidek kuchli ta'sir ko'rsatolmaydi, ammo san'atda landshaftning butun go'zalligini aks ettirish imkoni yo'q. Masalan, o'tloqdagi giyohlar ranginligining o'rnini hech bir rassom bo'yog'i bosa olmaydi, ranglarning barchasini aks ettiraman desa, rassomning rangtasviri bir-biri bilan nouyg'un olachalpoq ranglar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi, san'at asariga aylanmaydi. Rassom bizga faqat o'tloqning bir parchasini, o'zi «tanlab olgan» qisminigina, «tanlangan» ranglarnigina ko'rsatishi mumkin. YOki musiqa san'atiga aylangan tabiatni, deydik, Sayfi Jalilning dutorda ijro etilgan «To'rg'ay» kuyini bir-ikki, boringki, o'n-o'n besh marta eshitsangiz, huzur qilasiz, estetik zavq olasiz, biroq uni har kuni tinglasangiz, u kuy qanchalik buyuk san'at asari bo'lmasin, joningizga tegadi. Jonli to'rg'ayning sayraganini esa, yillar davomida har kuni eshitsangiz ham, har gal zavq olasiz. Shu sababli estetikada tabiatni ham nosan'at, ham san'atga aylangan estetik ob'ekt sifatida ikki yoqlama ilmiy yondashuv orqali o'rganish maqsadga muvofiq.

San'atga aylangan estetik ob'ekt sifatida tabiat deyarli barcha san'at turlarida va janrlarida o'z aksini topadi. Boshqacharoq aytganda, tabiatni «o'rganish», «tushunish» barcha san'at turlariga xos. Masalan, badiiy adabiyotda hikoyadan – romangacha, she'rdan – dostongacha tabiat manzarasi tasvirlanmaydigan biror janrni topish mumkin emas. O'rik daraxtining to'rt fasldagi holati, ko'klamdagi gullagan, yozda barg yozib, meva qilgan, kuzdagi oltin rangiga kirgan, qishda yalang'och, shoxlari nayzaga o'xshagan ko'rinishlari badiiy adabiyotda ham, rassomlikda ham o'z ifodasini topgan. O'zbek xalq kuyi «CHO'li iroq»da fojiaviylikni, Betxovenning «Oydin sonati»sida inson qalbi evrilishlarining, xayolga cho'mgan quvonchning ifodasini ilg'aymiz. Me'morlikda yaproqlarning peshtoqlardagi xandasaviy jilvasi, haykaltaroshlikdagi go'zal kiyikning tasviri deysizmi, xullas, tabiat barcha san'at turlarida badiiy asarni go'zallashtirib, ulug'vorlashtirib turuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib Shuni aytish lozimki, tabiat estetikasini «ekologik estetika» doirasiga tiqib qo'yish mumkin emas, uni texnika yoki mehnat estetikasidan keyin turadi, degan gaplar asossiz. U bugungi kunda san'atdan keyingi eng qamrovli tadqiqot ob'ektiga ega bo'lgan, muhimlardan muhimroq estetik nazariya turidir, uning «hurmatini joyiga qo'yish» vaqti allaqachon kelgan.

Ko'rib o'tganimiz – tabiat estetikasi bizni hozir avvalgi davrlarga qaraganda ancha olisdan o'rab turgan biologik muhitning hayotimizni go'zallashtirishdagi, umuman, estetiklashtirishdagi ahamiyatini tadqiq etsa, uni insonni «tabiiylashtirish» vositasi sifatida olib qarasa, texnika estetikasi, aksincha, bugungi kunda bizga eng yaqin bo'lgan noosferani – texnikaviy muhitni muntazam «insoniylashtirib» borish muammolarini o'rganadi.

2. Ekologik estetikaning qadriyatli maqomi. Ekoestetikaning XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o'rni. Texnogen sivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga ta'siri. Zamonaviy shaharsozlik estetikasi.

Inson doimiy ravishda ravnaq topib boradigan mavjudot, uzoq davom etgan insoniy taraqqiyotning mahsuli, ya'ni, tosh asridagi va hozirgi odam, garchand ikkalasi ham odam deb atalsa-da, bir-biridan farq qiladi. Zamonaviy odam aqlan, axloqan nisbatan yuksak darajaga ko'tarilgan, jismonan esa, – go'zallashgan. Texnikani ana Shu go'zallashgan inson yaratgan. Shu o'rinda imom G'azzoliyning inson va uning ijodiga nisbatan aytgan: «YAratilgan yaratganiga o'xshaydi», degan so'zlarini yana bir bor eslaylik. Alloh insonni yaratib, uni o'ziga o'xshashini istasa, inson ham o'z ijodi

mahsulining o'ziga o'xshash bo'lishini xohlaydi. Texnika inson ijodining mahsuli sifatida inson qanchalik nozik, qanchalik aqlli, qanchalik go'zal bo'lsa, Shunga qarab o'zgarib boradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi ikki asr mobaynida, ayniqsa, XX asrda inson tafakkuri, uning jisman va axloqan taraqqiyotidan ilgarilab ketdi. Chunki tafakkur, vujud va axloqdan farqli o'laroq, narsalarga aylanish xususiyatiga ega. Narsaga aylangan tafakkur tinimsiz ravishda Yangi, o'zidan yuksakroq narsaga aylanadigan tafakkurni taqozo etadi, u esa, o'z navbatida yana Yangi narsani yaratadi va Shu tarzda tafakkur olg'a qarab boraveradi. Bu, biz, odatda, hisobga olmaydigan qonuniyat. Chunki tafakkurning nima ekani, u qanday qilib moddiy jarayonlarni o'zgartirishi hozircha noma'lum, vaholanki u biologik hodisa emas. «Tafakkur energiya shakli emas, – deydi akademik V.I.Vernadskiy. – Qanday qilib u moddiy jarayonlarni o'zgartira oladi? Bu savolga ilm hozircha javob topgan emas»¹¹³. Nima bo'lganda ham, tafakkurning ravnaqqa qarab taraqqiy qilib borishi isbot talab qilmaydigan haqiqat. Ana Shu ravnaqning sur'ati biz yaratgan texnika vositalarini tezkorlik bilan o'zgarib, qulaylashib, go'zallashib borishini ta'minlab kelmoqda. Bunda badiiy-texnik yoki estetik faoliyat hisoblanmish dizaynning roli katta.

San'at – estetik faoliyatning o'ziga xos turi, sehrli ma'naviy ko'zgu. Sehrli Shundaki, san'at asarini idrok etayotgan odam unda ham Shu asarni yaratgan inson dunyosini, ham o'z dunyosini qadriyatlar prizmasi orqali ko'radi; o'zining qandayligini va qaerdaligini, yutuqlarini va nuqsonlarini, aqlini va hissiyotlarini aniqlashtirib oladi. Uning estetik mohiyati makon va zamondagi voqelik vositasida go'zallik, ulug'vorlik, fojeaviylik, kulgililik, xunuklik, tubanlik v.b. Estetik xususiyatlarni in'ikos ettirishi hamda ularni baholashi bilan belgilanadi. San'at qadriyatlarining qadrlanishini va qadrsizlangan qadriyatlarni ko'rsatib beradi, bir odam yoki bir necha odam timsolida odam bilan olamning yaxlit, umumlashgan qiyofasini yaratadi, ularning uyg'unligini ta'minlaydi. U kishini yashashga o'rgatadi, go'zallikka da'vat etadi, ma'naviy yuksaltiradi. Shu sababli insoniyat tarixida san'atsiz yashab o'tilgan birorta ham davr yo'q.

Faylasuf-nafosatshunoslar o'rtasida san'atning kelib chiqishi muhim muammolardan bo'lib kelgan. San'atning kelib chiqishi deganda ko'pchilik g'orlarning tosh davrlariga ibtidoiy davrlarda chizilgan ov manzalari va ov hayvonlarining tasvirini nazarda tutadi. Vaholanki gap bu erda san'atning qanday paydo bo'lganligi emas, balki nimadan paydo bo'lganligi to'g'risida borishi kerak. Ba'zilar uni taqliddan, bosh: erotik hissiyotlardan, kimlardir o'yindan, kimdir mehnatdan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Bunday nazariyalar va konsepsiyalar anchagina, lekin ular orasidagi ikkitasining tarafdorlari ko'pchilikni tashkil etadi. Ulardan biri – insonni hayvonlik darajasidan odamlilik pog'onasiga ko'targan narsa mehnat, san'at ham mehnatdan, insonning olamni o'zgartirishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan, san'at faqat ijtimoiy hodisa degan moddiyatchilar ilgari surgan qarash. Ikkinchisi – san'at insonga berilgan ilohiy zavqning, ma'naviy olamning o'yin orqali namoyon bo'lishi, degan ma'naviyatchilar nazariyasi. Biz ana Shu ikkinchi qarash tarafdorimiz. Buning sababi Shuki, mehnat, qanchalik qadrlamaylik, qanchalik sharaflamaylik, u – majburiyat bilan bog'liq, maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy hodisa, o'yin esa har qanday majburiyatdan yiroq, maqsadga muvofiqlik bilan shartlanadigan individual-ijtimoiy hodisa. Demak, mehnat – zaruriyat, o'yin – erkinlik. Inson mohiyatan erkin va erkinlikka intilib yashaydigan mavjudot sifatida o'z erkinligini eng avvalo o'yinda namoyon qiladi. O'yinsiz insonning yashashi mumkin emas, usiz inson hayoti jahannam. Bu o'rinda yana bir bor SHillerning mashhur fikrini keltirish o'rinli: «Inson faqat tom ma'noda inson bo'lgandagina o'ynaydi va o'ynayotgan paytdagina to'liq insonga aylanadi.

Biz tabiatni nutqlarimizda, she'rlarimizda, maqolalarimizda «Ona-tabiat» deb ataymiz. Darhaqiqat, tobimiz qochsa, shifokorlar bizga bahavo, shaffof suvli tabiat qo'ynida joylashgan oromgohlarga borishni, kimsasiz daryo bo'ylaridagi butazorlar orasida chodir qurib, bir muddat tashvishlardan forig' yashashni tavsiya etadilar. SHahar shovqinlaridan, mehnatdan, axborotlar siquvidan charchaganimizda, jamoa bilan yoki oilaviy tarzda shanba yo yakshanba kuni tabiat qo'yniga chiqib dam

¹¹³ Вернадский В.И. Начало и вечность жизни. М., «Советская Россия», 1989. С. 185.

olamiz. Toliqsak, doim «onamiz» qo‘yniga intilamiz, ona-tabiat bizni davolaydi, go‘zalligi bilan hayratlantiradi, ruhlantiradi. Lekin bir-ikki kundan so‘ng yana hammasini unutimiz, tag‘in tabiatga bir xizmatkordek qaraymiz. Nega Shunday? CHunki biz uni tuShunmaymiz, uni bilmaymiz. Shu sababli biror bir odamning yaxshi yoki yomonligiga asl sabablar nimaligini, uning mohiyatini bilmaganimiz, tuShunmaganimiz uchun «falonchining tabiati o‘zi Shunaqa», yoki muayyan hayvon yoxud o‘simlikning sirsanoatidan bexabarligimiz tufayli uni «tabiatan o‘zi Shunday» deyish bilan muammoga nuqta qo‘yamiz. Zero, tabiat olami kubromi (katta olammi), olami sug‘romi (kichik olammi), ya‘ni, odammi, u – sirli, uni lozim darajada tuShunmaymiz va bilmaymiz. Har qancha ekologiyaga e‘tibor qilmaylik, uni fan sifatida zo‘r berib o‘qitmaylik, baribir tabiatni tushunishimiz qiyin, zotan ekologiya tabiatni asrashni, qutqarishni, boyitishni targ‘ib qiladi. Biroq ularning hammasiga faqat estetika yordamida, uning ekologiya bilan hamkorligi orqali erishish mumkin. CHunki estetika insonga tabiatni sevishni, uning go‘zalligiga beg‘araz munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi, ya‘ni, tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan tashqaridagi umumolamiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi. Ha, tabiat go‘zallik va ulug‘vorlik manbai, lekin faqat inson uchungina Shunday emas. Masalan, bulbul tunda, odamlar uxlaganda sayraydi, namozshomgul va ba‘zi boshqa gullar faqat qorong‘u tushayotgan paytdan boshlab ochiladi. Demak, hayvonlarni, o‘tloqlarni, daraxtlarni, daryolarni, tog‘larni faqat «biz uchun» deb emas, «biz uchun ham» deb tushunishimiz lozim.

Buyuk Kant tabiatni axloqiylik bilan bog‘laydi: «Kimniki bevosita tabiat go‘zalligi qiziqтира, bu uning fikrlash tarzida, yo‘q deganda, axloqiylikka, ezgulikka qobiliyati mavjudligidan dalolat beradi», – deydi u.¹¹⁴ Ammo Hegelning, tabiatda ideal yo‘q, Shu sababli u ikkinchi darajali go‘zallik turi, degan fikri estetikada hukmronlik qilib keldi, ayniqsa, bu fikr tabiatni «bo‘ysundirishni» targ‘ib qilgan markschilikning tegirmoniga suv quydi. Natijada uzoq yillar mobaynida tabiat estetikasiga e‘tibor qaratilmadi. Biz me‘moriy obidalarni asrash, tiklash haqida qayg‘urdik, ularni estetik qadriyatlar deb e‘lon qildik, lekin landshaft estetikasini chetga chiqarib qo‘ydik. Hozirgi kunda Shu narsa aniq bo‘ldiki, tabiatni eng ulug‘ va mangu estetik qadriyat deb bilmaslik borib turgan estetik savodsizlikdir. Aniqrog‘i, bugun tabiatsiz estetikani tasavvur qilish mumkin emas.

Buning sababi, birinchidan, tabiatni nosan‘at estetik ob‘ekt sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri idrok eta olsak (bunga keyinroq bafurja to‘xtalamiz), ikkinchidan, u san‘at uchun insondan keyin eng boy material, manba; san‘at vositasida in‘ikos ettirilgan tabiat estetik qadriyat sifatida ma‘naviyatimizni boyitib yashaydi. San‘atda aks etgan tabiat o‘zining g‘oyaviy-badiiyligi, abadiylikning o‘chmas lahzasi, takrorlanmas go‘zallik yoki ulug‘vorlik, ba‘zan esa, fojiviylik sifatida bizni doimiy rom etishi bilan ajralib turadi. Nosan‘at estetik ob‘ekt sifatida esa, tabiat faqat go‘zallik va ulug‘vorlikni ifodalaydi, g‘oyaviy-badiiy urg‘uga ega emas, hissiyotlarimizga san‘atdagidek kuchli ta‘sir ko‘rsatolmaydi, ammo san‘atda landshaftning butun go‘zalligini aks ettirish imkoni yo‘q. Masalan, o‘tloqdagi giyohlar ranginligining o‘rnini hech bir rassom bo‘yog‘i bosa olmaydi, ranglarning barchasini aks ettiraman desa, rassomning rangtasviri bir-biri bilan nouyg‘un olachalpoq ranglar yig‘indisidan iborat bo‘lib qoladi, san‘at asariga aylanmaydi. Rassom bizga faqat o‘tloqning bir parchasini, o‘zi «tanlab olgan» qisminigina, «tanlangan» ranglarnigina ko‘rsatishi mumkin. YOki musiqa san‘atiga aylangan tabiatni, deylik, Sayfi Jalilning dutorda ijro etilgan «To‘rg‘ay» kuyini bir-ikki, boringki, o‘n-o‘n besh marta eshitsangiz, huzur qilasiz, estetik zavq olasiz, biroq uni har kuni tinglasangiz, u kuy qanchalik buyuk san‘at asari bo‘lmasin, joningizga tegadi. Jonli to‘rg‘ayning sayraganini esa, yillar davomida har kuni eshitsangiz ham, har gal zavq olasiz. Shu sababli estetikada tabiatni

¹¹⁴ Кант И. Сочинения в 6 т. Т. 5. М., «Мысль», 1966. С.314.

ham nosan'at, ham san'atga aylangan estetik ob'ekt sifatida ikki yoqlama ilmiy yondashuv orqali o'rganish maqsadga muvofiq.

San'atga aylangan estetik ob'ekt sifatida tabiat deyarli barcha san'at turlarida va janrlarida o'z aksini topadi. Boshqacharoq aytganda, tabiatni «o'rganish», «tushunish» barcha san'at turlariga xos. Masalan, badiiy adabiyotda hikoyadan – romangacha, she'rdan – dostongacha tabiat manzarasi tasvirlanmaydigan biror janrni topish mumkin emas. O'rik daraxtining to'rt fasldagi holati, ko'klamdagi gullagan, yozda barg yozib, meva qilgan, kuzdagi oltin rangiga kirgan, qishda yalang'och, shoxlari nayzaga o'xshagan ko'rinishlari badiiy adabiyotda ham, rassomlikda ham o'z ifodasini topgan. O'zbek xalq kuyi «CHO'li iroq»da fojiaviylikni, Betxovenning «Oydin sonati»sida inson qalbi evrilishlarining, xayolga cho'mgan quvonchning ifodasini ilg'aymiz. Me'morlikda yaproqlarning peshtoqlardagi xandasaviy jilvasi, haykaltaroshlikdagi go'zal kiyikning tasviri deysizmi, xullas, tabiat barcha san'at turlarida badiiy asarni go'zallashtirib, ulug'vorlashtirib turuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib Shuni aytish lozimki, tabiat estetikasini «ekologik estetika» doirasiga tiqib qo'yish mumkin emas, uni texnika yoki mehnat estetikasidan keyin turadi, degan gaplar asossiz. U bugungi kunda san'atdan keyingi eng qamrovli tadqiqot ob'ektiga ega bo'lgan, muhimlardan muhimroq estetik nazariya turidir, uning «hurmatini joyiga qo'yish» vaqti allaqachon kelgan.

Ko'rib o'tganimiz – tabiat estetikasi bizni hozir avvalgi davrlarga qaraganda ancha olisdan o'rab turgan biologik muhitning hayotimizni go'zallashtirishdagi, umuman, estetiklashtirishdagi ahamiyatini tadqiq etsa, uni insonni «tabiiylashtirish» vositasi sifatida olib qarasa, texnika estetikasi, aksincha, bugungi kunda bizga eng yaqin bo'lgan noosferani – texnikaviy muhitni muntazam «insoniylashtirib» borish muammolarini o'rganadi.

Inson doimiy ravishda ravnaq topib boradigan mavjudot, uzoq davom etgan insoniy taraqqiyotning mahsuli, ya'ni, tosh asridagi va hozirgi odam, garchand ikkalasi ham odam deb atalsa-da, bir-biridan farq qiladi. Zamonaviy odam aqlan, axloqan nisbatan yuksak darajaga ko'tarilgan, jismonan esa, – go'zallashgan. Texnikani ana Shu go'zallashgan inson yaratgan. Shu o'rinda imom G'azzoliyning inson va uning ijodiga nisbatan aytgan: «YAratilgan yaratganiga o'xshaydi», degan so'zlarini yana bir bor eslaylik. Alloh insonni yaratib, uni o'ziga o'xshashini istasa, inson ham o'z ijodi mahsulining o'ziga o'xshash bo'lishini xohlaydi. Texnika inson ijodining mahsuli sifatida inson qanchalik nozik, qanchalik aqlli, qanchalik go'zal bo'lsa, Shunga qarab o'zgarib boradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi ikki asr mobaynida, ayniqsa, XX asrda inson tafakkuri, uning jisman va axloqan taraqqiyotidan ilgarilab ketdi. Chunki tafakkur, vujud va axloqdan farqli o'laroq, narsalarga aylanish xususiyatiga ega. Narsaga aylangan tafakkur tinimsiz ravishda Yangi, o'zidan yuksakroq narsaga aylanadigan tafakkurni taqozo etadi, u esa, o'z navbatida yana Yangi narsani yaratadi va Shu tarzda tafakkur olg'a qarab boraveradi. Bu, biz, odatda, hisobga olmaydigan qonuniyat. Chunki tafakkurning nima ekani, u qanday qilib moddiy jarayonlarni o'zgartirishi hozircha noma'lum, vaholanki u biologik hodisa emas. «Tafakkur energiya shakli emas, – deydi akademik V.I.Vernadskiy. – Qanday qilib u moddiy jarayonlarni o'zgartira oladi? Bu savolga ilm hozircha javob topgan emas»¹¹⁵. Nima bo'lganda ham, tafakkurning ravnaqqa qarab taraqqiy qilib borishi isbot talab qilmaydigan haqiqat. Ana Shu ravnaqning sur'ati biz yaratgan texnika vositalarini tezkorlik bilan o'zgarib, qulaylashib, go'zallashib borishini ta'minlab kelmoqda. Bunda badiiy-texnik yoki estetik faoliyat hisoblanmish dizaynning roli katta.

Zamonaviy shaharsozlik estetikasi

¹¹⁵ Вернадский В.И. Начало и вечность жизни. М., «Советская Россия», 1989. С. 185.

San'atshunoslikda «shahar atrofi dizayni», «shahar muhiti dizayni», «shaharni badiiy bezatish» va «shahar dizayni» tushunchalari ishlatiladi. Ular mohiyatan aynan tushunchalardir, Shuning uchun «shahar dizayni» deganda biz shahar ichini, inshootlari va maydonchalarini, aholidan oladigan istirohat maskanlarini, kishilar nigohini, diqqatini tortadigan madaniy, maishiy muassasalar atrofini badiiy-estetik bezatish san'atini, loyihalashtirishni nazarda tutamiz. Uning asosiy retsipienti shahar kishisidir.

«SHahar dizayni» tushunchasi o'tgan asrning o'rtalarida paydo bo'lgan va u kishilar, ayniqsa iste'molchilar to'planadigan joylarni, vitrinalarni informatsiya tarqatish funksiyasini bajaradigan tumbalar reklamalar, ko'rsatkich va afishalarni nazarda tutgan. Dizaynshunos V.L. Glazichevning fikriga ko'ra, yuqoridagi oddiy bezaklar o'rniga 50- yillarga kelib bil-bord, aylanma vitrinalar, savdo-sotiq o'choqlariga ulanib ketgan kiosklar, ko'p qavatli uylar oldida xalq amaliy san'ati namunalari bilan bezatilgan maydonchalar paydo bo'ladi [1]. Natijada kishilarning badiiy-estetik didini shakllantirishga, inshootlar, ko'p qavatli uylar, istirohat maskanlarini dizayn qonunlariga muvofiq badiiy bezatishga ehtiyoj tug'iladi. SHahar kishisining serharakatligi, seyntot, psixologik ta'sirlarning ortib borayotgani, butun badiiy-estetik izlanishlarda va san'at asarlari yaratishda bo'lgani kabi shahar dizayni oldiga ham qator talablar qo'yadi.

Birinchi talab Shunda ediki, shahar dizayni mavjud inshootlar kompleksini, kishilarning ko'zi tushadigan joylarni badiiy-estetik go'zal, betakror va o'ziga xos mohiyatli qilishi lozim. Qad ko'tarayotgan inshootlar sonining oshishi bilan ularning tashqi ko'rinishiga, badiiy-estetik jixatlariga talab ham ko'paydi, ya'ni o'tgan davrda an'anaga aylangan temir-beton inshootlarni qurishga badiiy-estetik ko'rinish, bezash lozim bo'ladi. Masalan, 60- 70 yillarda Toshkentda (ayniqsa CHilonzor tumanida) "xрущевка" nomini olgan temir- beton uylarda deyarli hech qanday badiiy- estetik mohiyat ko'zga tashlanmaydi. Zerikarli, qo'ng'ir rangli beton-uylar ham shaharsozlikda dizayn belgilari shakllanmaganidan dalolat beradi. Mustaqillik yillarida zerikarli ko'rinishdagi temir-beton inshootlarning birinchi qavatini zamonaviy shisha, mramor, plastika, alyubond va rang-barang vitrinalar bilan bezatish an'anaga aylandi. Bugun ushbu binolar dizaynida asekko (devorga rasm chizish uslubi) freska, vitraj, bakkar (xrustal bilan bezatish uslubi), rang-tasvir, grafika, glintika (toshga o'yish san'ati), gobelen, izrazets, inkrustatsiya bilan birga o'zbek xalq amaliy san'ati – naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi va boshqalardan foydalanilayotganini ko'ramiz.

Ikkinchi talab serharakat shahar kishisining vaqtini tejash hamda unda ma'lum bir voqealar, hodisalar haqida ta'surot uyg'otish, fikr shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan [2]. O'sha davrda hukmron bo'lgan kommunistik mafkura ko'chalar, maydonlar va binolarga turli shiorlar, plakatlar ilishni an'anaga aylantirgan. Ularda asosiy e'tibor shriftga, ya'ni shior mazmuniga mos keluvchi shriftdan foydalanishga qaratilgan. SHiorlar ko'pincha qizil alvonga uzoqdan ko'zga tashlanuvchi kesma shriftlar bilan yozilgan. 70-yillarga kelib katta ko'chalarda, korxonalar maydonchalar, istirohat maskanlari va ma'muriy idoralar oldida katta plakatlar, temir konstruksiyalar yoki oq mramor bilan qoplangan stendlar, mozaika pannolar o'rnatish keng tarqaladi. Mazkur stend va pannolarni hozirgacha Toshkent shahrida uchratish mumkin.

Shuni qayd etishimiz kerakki, mazkur plakat, stend va pannolar asosan ideologik vazifani bajargan, ularda shaharning badiiy-estetik obrazini yaratish, san'at asarlarini dizayn talablariga muvofiq loyihalashtirish, bezatish nazarda tutilmagan.

Uchinchi talab shahar – inson konsepsiyasi Yuzaga kelgani bilan bog'liqdir. O'sha davrda o'tkazilgan maxsus tadqiqotlar ko'rsatadiki, shahar Shunchaki makon, kishilar ishlaydigan va istiqomat qiladigan muhitgina emas, u insonning dunyoqarashi, badiiy-estetik didi va hayotiy idealini shakllantiradigan ijtimoiy-tarbiyaviy omildir. SHahar muhiti, undagi tarixiy-madaniy an'analar, turmush tarzi, arxitektura, ko'chalar va

istirohat maskanlari insonda ma'lum etnostereotiplarni shakllantiradi. Mazkur tadqiqotlarda shaharni loyihalashtirishga dizayn san'ati nuqtan nazaridan yondashish lozim, degan fikr ilgari suriladi. To'g'ri, ularda hali «shahar dizayni» degan ibora ishlatilmaydi, ammo tadqiqotchilar shahar muhitini badiiy-estetik g'oyalar va asarlar bilan bezatish konsepsiyasini ilgari suradilar. Masalan, S.B. Bazazyansning fikriga ko'ra, shahar muhiti, ko'chalar, inshoot va maydonlar musavvirga rang-barang san'at turlaridan foydalanishga imkon beradi, Shuning uchun «har bir ijodkor shahar muhitini badiiy-estetik ta'sir ob'ekti, shahar kishisini esa retsipient» sifatida qabul qilishi mumkin.

Shu bilan birga shahar muhitini etnomadaniy belgilarsiz tasavvur etish ham yuqoridagi izlanishlarda ko'zga tashlanadi. SHaharni badiiy-estetik bezatishda o'ziga xoslik, betakrorlik, etnomadaniy an'analarga muvofiqlikni izlash emas, balki nasl-nasabsiz, milliy belgisiz «sotsialistik shaxs» va «sotsialistik san'at» yaratishga intilish ustun turadi.

Shubhasiz, yuqoridagi uchta fundamental ahamiyatga ega talab shahar dizayni haqida tasavvurlar uyg'otdi, shahar-inson aloqalarini badiiy-estetik mohiyat bilan boyitishga etakladi. Toshkentda Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn institutining ochilishi O'zbekistonda dizayn san'atini alohida ilm-fan, ijodiy faoliyat sifatida o'rganish imkonini berdi.

Respublikamizda dizayn haqidagi qarashlar endi shakllanmoqda, «shahar dizayni» tushunchasi ham endi qo'llanilmoqda. Bu borada olib borayotgan ilmiy izlanishlarimiz bizni quyidagi fikrlarni bildirishga undaydi.

SHahar dizayni shaharsozlik, arxitektura, shahar infrastrukturasini va landshaftning tarkibiy qismi sifatida qaralishi, quriladigan har bir inshoot, shakllantiriladigan infrastruktura esa badiiy-estetik mohiyatga betakror, rang-barang, qiziqarli ko'rinishga ega bo'lishi lozim. Buning, uchun shaharsozlar, arxitektorlar dizaynerlar bilan ijodiy hamkorlik o'rnatishi darkor.

SHahar dizayni rang-barang sohalar bilan bog'liq ijodiy faoliyat turidir. U arxitektura, yo'l transporti, savdo-sotiq, madaniy- maishiy xizmatlar uyushtirish, kommunikatsiya, mebelshunoslik, ijtimoiy boshqarish va tabiiy ravishda, san'atning barcha janrlarini, turlarini bilishni talab etadi. Shuning uchun «SHahar dizayni» kursini ishlab chiqish va mutaxassislar tayyorlash jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir. SHahar dizayni atrof-muhitga shahar dizayn inson triadasi sifatida yondashishga undaydi. Mazkur konsepsiya markazida shahar va inson manfaatlarini o'zining ijodiy faoliyatida uyg'unlashtiruvchi mutaxassis – dizayner turadi. Aynan ushbu mutaxassis insonda ijtimoiy muhitdan, undagi badiiy-estetik va etnomadaniy qadriyatlardan to'la qoniqish hissini uyg'otadi, o'z shahrini sevib, uni yanada go'zal qilib, yaratib yashashga undaydi. SHahar dizaynida zamonaviy, g'arbona va an'anaviy, Sharqona san'at janrlarini, turlarini uyg'unlashtirish imkoni kattadir. Ushbu janrlarni, turlarni sintezlashtirish mutaxassisni erkin, keng izlanishlarga undaydi va uning asarlarini ommalashtiradi, hayotiy qiladi. Demak, shahar dizayni badiiy-estetik ijodni ijtimoiy hayotga, amaliyotga yaqinlashtiradi, izlanishlarga pragmatik yo'nalish beradi.

3. Dizaynning estetik xususiyatlari. Xalq amaliy san'ati va dizayn. Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari.

Dizayn (inglizchada loyiha, chizma degani) XX asrning boshlarida «xunuk buyum yaxshi sotilmaydi» degan iqtisodiy talab asosida G'arbdagi sanoat ishlab chiqarishiga kirib keldi. Gap Shundaki, inson bilan texnikaning eskicha shaklidagi o'zaro aloqasi endilikda yaxshi samara bermay qo'ygan edi. Unda inson texnologik rejimga moslashgan holda, tezlik, aniqlik, mustahkamlik kabi texnologik mezonlar asosida ishlaydigan ishchi sifatida baholanardi. Bu nafaqat insonparvarlik, balki texnikaviy

ravnaq nuqtai nazaridan ham nomaqbul edi. Shu bois texnikani insoniylashtirish zaruriyati tug'ildi. Endi ishchi yo xizmatchining shaxsiy qiziqishi, ijodiylik kasb etgani holda, faqat mehnat natijasi bilan cheklanmasdan, mehnat jarayoni va uning mazmuniga ko'chib o'tishi lozim bo'lib qoldi. Bu – mehnatning estetik tabiat kasb etishi va insoniylashtirish demakdir. Shunday qilib, texnikani va ishlab chiqarish muhitini insoniylashtirish mehnatni faqat zaruriyat deb emas, balki ehtiyoj darajasida tushunishga olib keldi; texnikani insoniylashtirish muhitni insonga moslashtirishi barobarida, uni estetik tarzda tashkil etishni ham o'z ichiga oladigan bo'ldi.

Dizaynning zaruriyatga aylanishi nafaqat zamonaviy ilmiy-texnikaviy ravnaqqa, balki ommaviy ishlab chiqarish va umummadaniyat darajasining yuksakligiga ham bog'liq. Bunday sharoitda xaridor o'zining erkin tanlov imkoniyati bilan ishlab chiqarish taklif qilgan mahsulotni rad etishi va o'z ehtiyojiga javob beradigan tovarni yuqori baholashi mumkin. YA'ni, xaridor o'z didiga mos narsani tanlaydi; xarid jarayoni «boriga baraka» tarzidagi tavakkalchilik holatiga emas, balki tovarga faol munosabat shakliga aylanadi. Ana Shunday munosabatga loyiq bo'lishi uchun tovarning shakli muhim ahamiyatga molik. Tabiiyki, birinchi navbatda go'zal va ulug'vor ko'rinishga ega narsalargina jamiyatning e'tiborini qozonadi. Shunda tovarning umummezoniga javob beradigan estetik qadriyat sifatida qabul qilinishi ro'y beradi va u ishlab chiqarishning xaridorga, xaridorning esa, ishlab chiqarishga estetik ta'sirini ta'minlaydi.

Shuni unutmash lozimki, har qanday konstruksiyachi-injener dizayner bo'lolmaydi. Injener-konstruktor, deylik, mashinani loyihalashtirar ekan, dastlab uning motoridan tortib, kuzovigacha bo'lgan qismlari loyihasini chizadi va Shundan keyingina ularni bir-biri bilan bog'lab yaxlit mashina shakliga keltiradi. Natijada har bir qism alohida «o'z hayotiga» ega bo'ladi. YA'ni, mashina zamonaviylashtirilganida (modernizatsiya qilinganida) muayyan detallarni so'nggi loyiha asosida, alohida-alohida almashtirish jarayoni ro'y beradi. Dizaynchi-injener esa, mashinani go'zallik va ulug'vorlik qonuniyatlariga asoslanib, birdaniga muayyan yaxlitlik tarzida tasavvur qiladi. Bu yaxlitlik konstruksiyaga bo'ysunsa-da, o'zini badiiy ijod sifatida namoyon etadi. Shunday qilib, konstruktor-injener mazmunni, dizaynchi-injener shaklni yaratadi, ya'ni birinchi mutaxassis – texnik, ikkinchisi – estetik. Ikkala faoliyatning uyg'unligi tufayli zamonaviy xaridor talabiga javob beradigan mashina vujudga keladi va unda, istaymizmi-istamaymizmi, estetik ko'rinish yaxlitlik sifatida ustuvorlikka, xaridorgirlik ahamiyatiga ega bo'ladi. Zotan, eslaylik, SHiller aytganidek, shakl insonga butunisicha, mazmun – uning muayyan qismigagina ta'sir ko'rsatadi. Xaridor esa, eng avvalo inson.

Biroq, bu – dizaynda hamma narsa shakl bilan bog'liq ekan, degani emas. Unda ham san'atdagidek shakl va mazmun uyg'unligi asosiy omil hisoblanadi. Bunday uyg'unlikka birdan erishish qiyin, u bir necha texnikaviy bosqichlarning hosilasi sifatida vujudga keladi. Masalan, «Zinger» rusumli tikuv dastgohi XX asr davomida rivojlanib, dastlabki qo'pol ko'rinishidan «xohlasang ham, xohlamasang ham ishlaging keladigan» darajada go'zallashib, noziklashib, insonni o'zida ishlashga chaqirib turadigan mashinaga aylandi. YOki o'zimizdagi «Daewoo» korporatsiyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqarilayotgan «Matiz» avtomobiliga e'tibor qiling. U dizayn nuqtai nazaridan o'zidan avvalgi kichik mashinalardan, xususan, «Tiko»dan keskin farqlanadi. Uning yo'lda engil borishi kishida xuddi suzib ketayotgandek tassurot uyg'otadi, asosiy chiroqlari (faralari) ana Shu taassurotingizga mos: ulkan baliqning ko'zlariga o'xshaydi, oldindagi pastki ikki chiroq esa, sizga bodomqovoq – Sharq go'zallariga yarashib turadigan qiyiq ko'zlarni eslatadi. Bunda avtomobilning tashqi ko'rinishi bilan mohiyati nihoyatda muvaffaqiyatli moslashtirilgan: «Matiz» – baliqdek silliq olg'a intiladigan, «epchil», go'zal, Sharqda ishlangan, Sharqona mashina.

Qisqasi, bugungi kunda biz dizayn tufayli atrofimizdagi texnikaviy olamni odamiylashtirib, o'zimizga, estetik didimizga moslashtirib borishga erishdik va

erishmoqdamiz; hozir qalamimizdan tortib, kompyuterimizgacha, mashinamizdan tortib, ko'ylagimizgacha – hammasi bizni har jihatdan qoniqtirishga qaratilgan.

Dizaynning tub ildizi, mohiyat nuqtai nazaridan, ko'rgazmali amaliy san'atga (xalq amaliy san'atiga) borib taqaladi: u ham, bu ham foydalilik, manfaatlilik xususiyatiga ega, ya'ni ular maqsadga muvofiqlikka emas, maqsadga xizmat qiladi. Lekin xalq amaliy san'atiga asos bo'lgan hunar, aytib o'tganimizdek, san'atga aylanishi mumkin, dizayn esa, – dizaynligicha qoladi. Sababi Shuki, hunarmand-usta har bir ashyoga, deydik, uzukka, qumg'onga, xontaxtaga yoki naqshin qutichaga o'z dunyosini, xaridorga mos ruhni singdiradi, ya'ni hunarmand-usta yasagan o'nta mis laganda ustaning o'n xil ruhiy holatini, kechinmalarini ilg'ash mumkin. Dizaynda esa, o'n minglab yoki Yuz minglab ashyolarga zamonaviy texnika vositasida dizaynchi-injenerning bir galgi ruhiy dunyosi singdiriladi. Keyinroq ular modernizatsiya qilinishi mumkin, lekin unda ham yana bir xillik avvalgisidan boshqacharoq namoyon bo'ladi, usta esa, doimo Yangi narsa yasaydi va mana Shu Yangilik rang-baranglik, individuallik hunar mahsulini san'at darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi. Bundan tashqari hunarmand har bir tovarni butunisicha badiiy-ashyoviy yaxlitlik sifatida olib qaraydi va ishlab chiqaradi. YA'ni unda mazmun ham shakl ham bir ruhiy dunyo va «bir qo'lning» mehnati. Dizaynda esa, ashyolar «turli qo'l» ishlagan qismlarni bir mutaxassisning – dizaynning yaxlitlashtirishi natijasida o'zini butunisicha namoyon qiladi. Shu sababli, hunarmandning mahsuloti – san'at, dizaynning ishi nosan'at estetik faoliyat hisoblanadi. Shunga qaramay, dizayn va dizaynning ijodiy mehnati er Yuzida tobora ko'payib borayotgan inson zotining zamonaviy iqtisodiy-maishiy hamda estetik ehtiyojini, ma'naviy talablarini qondirishi bilan muhim hamda e'tiborga loyiq. Texnika estetikasi esa, dizayn nazariyasi sifatida estetikaning o'ziga xos turi, usiz bugungi estetika fanini to'liq tasavvur qilib bo'lmaydi.

Keyingi ikki asrdan ortiq vaqt mobaynida estetikani faqat san'at falsafasi sifatida talqin qilish haqiqatga zid ekani ma'lum bo'lib qoldi. Chunki asta-sekin «san'at estetikasi» yonida yana boshqa «estetikalar» paydo bo'la boshladi. Ularning ba'zilarini estetik faoliyat, estetik soha kabi atamalar bilan nomlashga urinib ko'rdik. Biroq bunday yondashuv doimo nazariy chalkashliklarga olib keldi, hozir ham o'shanday manzarani ko'rish mumkin. Masalan, estetik faoliyat deganimizda san'atni tuShunamiz, boringki, unga dizaynni ham qo'shish mumkin. Lekin tabiatni yoki sportni estetik faoliyat deb aytolmaymiz, ularga taalluqli nazariyalarni estetika sohasi deyish ham qiyin. Chunki mohiyatan ular estetik faoliyat emas, balki estetik xususiyatlar namoyon bo'ladigan voqelik va ular borasidagi nazariyalarni estetikaning qismlari deb atash ham ularga nisbatan to'g'ri emas; bunday atama bilan biz estetika tarixi, estetika nazariyasi, estetik madaniyat singari fanning «katta-kichik» bo'limlarini nazarda tutamiz. Ana Shunday har xilliklar ko'pgina adabiyotlarda, hatto estetika lug'atida ham tez-tez uchrab turadi¹¹⁶. Ulardan qutulish maqsadida biz estetikaning ikki qatordan iborat turlarga bo'lgan holda tasniflashtirishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Birinchi qatorni estetikaning eng miqyosli turi – san'at estetikasi, ikkinchi qatorni esa, qolgan barcha, nosan'at estetik ob'ektga asoslangan estetik nazariyalar tashkil etadi. Ular – tabiat estetikasi, turmush estetikasi, mehnat estetikasi, texnika estetikasi va sport estetikasi. San'at estetikasini alohida, keyingi boblarda ko'rib chiqishimizni nazarda tutib, hozir nosan'at ob'ektlar estetikasi qatoridagi estetik nazariyalar turlarini qisqacha nazardan o'tkazamiz.

Estetik tarbiyaning barcha vositalari shaxsning voqelikka estetik munosabatini ravnaq toptirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat bo'lib, u o'ziga xos ta'sirchanlik, tug'yoniqlik kuchiga ega. Busiz inson bilish ko'lamining vujudga kelishi mumkin emas. Shuningdek, inson badiiy tafakkur qilish qobiliyatini o'stirish ayni paytda estetik tarbiya vositalarining muhim vazifasi sanaladi. Shunga

¹¹⁶ Қаранг: Эстетика. Словарь. С. 35, 276, 421.

ko'ra, estetik tarbiya vositalari ikki xil xususiyati bilan ajralib turadi. Birinchidan, ular voqelikda sodir bo'layotgan hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni insonga tuShunarli tarzda etkazib beradi. Ikkinchidan, zamonaviy fanlarning estetik hususiyatlarni hissiy idrok qilishning faol, tajribalar asosida etkazib berishi bilan diqqatga sazovordir. Shunga ko'ra, estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga - san'at, informatsion texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin. **San'at - estetik tarbiyaning muhim vositasi.** Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning o'zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san'at mohiyatan shaxsning xis-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan. Ma'lumki, ehtiroslar, tuyg'ular, kechinmalar insonning tirikligidan dalolat beradi. CHunonchi, ijobiy fazilatlar, badiiy-estetik ideallar inson hayotining mazmuniga ko'rk bag'ishlaydi. Tarbiyada ayniqsa, axloqiy va estetik tarbiyada hayotning mazmuni va maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi. Gohida maqsad mavhum tushunchaga aylanib shaxsning tabiatiga mutlaqo zid bo'lgan holatlarni keltirib chiqaradi. Pirovardida inson bunday maqsadlarning ta'siridan zarar ko'radi. San'at Shu ma'noda zamonaviy insonni estetik jihatdan tarbiyalashdagi asosiy vositaki, u insonning estetik tuyg'ularini maqsadli, ijobiy tomonga yo'naltiradi, uning kelajakda buyuk ishlarni amalga oshirishiga ko'mak beradi. Biroq, tuyg'ulari xali shakllanib ulgurmagan, estetik didi risoladagidek darajaga ko'tarilmagan odam mavjud hayotiy qiyinchilik va tashvishlar qarshisida ojizlik qiladi va natijada yot g'oyalar ta'siriga tushib qoladi. Ana Shunday salbiy holatlarning paydo bo'lmasligi uchun ham san'at o'zini tobora insonga yaqinlashtirib boradi. CHinakam san'at insonni bu xolatdan qutqarishga qodir bo'lgan estetik tarbi vositasidir. Shuningdek, shaxsning estetik tarbiyasini san'at vositasida amalga oshirishning afzal tomonini ikki xususiyat bilan ifodalash mumkin. Birinchidan, san'at ijtimoiy anglashning boshqa shakllariga qaraganda insonga birmuncha yaqinroq hamda tezroq ta'sir ko'rsata olish imkoniga ega. Ikkinchidan, san'at insonni estetik jihatdan kamolotga etkazish jarayoniga muayyan mafkuraviy mazmun bag'ishlashi bilan birga inson ma'naviy qadriyatlarini ro'yobga chiqarishda yaqindan yordam ko'rsatadi. San'at o'zining estetik bisotini to'laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'lanadi. CHunonchi, inson tafakkurini go'zallashtirish estetikaning tadqiqot obekti hisoblansa, estetik tarbiyaning predmeti esa ma'naviy dunyoni inson tomonidan estetik anglash bilan belgilanadi. Ma'lumki, fuqarolarda yuksak did va idealni shakllantirish estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifaning zalvorli yukini avval ham, hozir ham va bundan keyin ham chinakam san'at, adabiyot va ma'rifat ko'tarishiga Shubha yo'q. Shuni aytish lozimki, so'nggi yillarga kelib san'at va madaniyatga jamiyat hayotini o'zgartiruvchi, unga xizmat qiluvchi, fikrlar almashinuvini ta'minlovchi hamda estetik ahamiyat kasb etuvchi murakkab ijtimoiy jarayon sifatida munosabat bildirilayotganligi diqqatga sazovor. Negaki, turli-tuman madaniy-ma'rifiy tadbirlar, rang-barang ko'rik-tanlovlar, san'at bayramlari va festivallarini o'tkazilshi o'z navbatida kishilarni tayyor ma'naviy «mahsulotning iste'molchisi»ga aylanib qolishidan saqlaydi. Shuningdek, san'atning inson estetik tafakkurini yuksaltirishdagi ahamiyati yana Shu bilan izohlanadiki, san'at avvalo; voqelikni badiiy qiyofalar yordamida aks ettiradi, o'zida moddiylik va ma'naviylikning estetik mazmunini namoyon qiladi, ijtimoiy hayotga Yangicha ko'rk bag'ishlaydi, ularni qaytadan tashkil etadi va o'zgartiradi. Ana Shunga ko'ra, insonning bilimlilik tomoni san'atning ko'rinishlarini namoyon ettirish holatlarini amalga oshiradi. Mazkur xolatlar natijasida estetik tarbiyaviylik hususiyati o'z ifodasini topadi. Demak, ko'rinib turibdiki, san'at voqelikka estetik munosabatning kengqamrovli sohasi bo'lib, u insonni nafosatli hamda badiiy didini shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. San'atning tarbiyaviy-g'oyaviy funksiyasi hayot haqiqatlarini qaytadan tiklash orqali namoyon bo'ladi. Estetik haqiqatning o'zi esa hayotni badiiy ijod qonunlari bilan aks ettirishi natijasida vujudga keladi.

Informatsion texnologiyalar - estetik tarbiyaning global vositasi. Bir paytlar tabiiy va texnika bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari talabalariga "Sizning ideallaringiz asosan qaysi sohalarda aks etadi?", degan savolga ularning ko'pchiligi san'at, adabiyot va ma'rifat sohasida ko'proq aks etadi, degan javob berishgani ham fikrlarimizni isbotlaydi. Biroq, endilikda estetik tarbiyaning Shunday vositalari mavjudki, uning ma'naviy jarayonlarga ko'rsatayotgan global ta'siriga befarq bo'lish aslo mumkin emas. Ana Shunday ta'sirlardan biri - bu elektron axborot vositalardir. Bu

borada “YUksak ma’naviyat – engilmas kuch” asarida qayd etib o‘tilganidek, “Bugungi kunda ular bir vaqtning o‘zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy minbar, Shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda.” Aytish mumkinki, axborot va kommunikatsiya texnologiyasi bugungi kunda insoniy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim vositasiga aylanishi natijasida odamlarning turmush tarzini, o‘zaro aloqasini xatto tashqi ko‘rinishini ham tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 50 millionli auditoriyani radio 38 yilda, televidenie 13 yilda, internet esa bor-yo‘g‘i 4 yilda egallab olar ekan. Shunisi hayratlanarliki, 1998 yilda internetdan 143 million kishi foydalangan bo‘lsa, 2001 yilda ularning soni 700 millionga etgan. Bugungi kunga kelib esa internetdan foydalanayotganlar 1,5 mlrddan oshib ketdi. Bu borada uyali telefon xizmatini aytmasa ham bo‘ladi... Biroq, elektron axborot vositalari qanday xususiyatga egaki, uning ta’sir doirasi bunchalik tez yoyilmoqda? Bu borada mutaxassislar fikriga ko‘ra, avvalo: - narxining arzonligi; - asosiy mahsulot – bilim, axborot, moda va imidj; - Yangi iqtisodiyot - u axborotga ega bo‘lishni xoxlaydigan odamlarga imtiyoz bag‘ishlaydi; - chinakam global xarakterga ega ekanligi. Ahamiyat berilsa, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlarning barchasi yoshlarning manfaatiga, tuyg‘ulariga va dunyoqarishiga mos keladi. Bu xususiyatning barchasi birgina internetda jamlaganligiga e’tibor beradigan bo‘lsak, yoshlarning estetik tarbiyasidagi o‘zgarishga bo‘ladigan ta’sir san’at va adabiyotdanda ko‘lamliroq ekanligiga Shubha qilmasa ham bo‘ladi.

Mahalla - estetik tarbiyaning muhim vositasi. Mahallaning shaxs estetik tarbiyasiga ta’siri nihoyatda katta. Modomiki, mahalla jamiyat ichidagi kichkina jamiyat bo‘lib, u bugun shaxsning ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirishga, uning ijtimoiy–huquqiy madaniyatini shakllantirishga ko‘mak beruvchi makon sifatida ham yuksak ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahalla shaxs nafosatli tarbiyasiga yaqindan ta’sir ko‘rsata olishi bilan boshqa omillardan ajralib turadi. Shu jihatdan mahalla o‘z navbatida o‘z oldigan qo‘ygan ezgu maqsadlarni bajarishi bilan zamonaviy insonni nafosatli jihatdan tarbiyalaydi. CHunonchi mahalla; - o‘ziga qarashli hududning tozaligi, obodligi, ko‘rkamligini hamda fuqarolarning hamjihatligini ta’minlashi bilan; - turmush nafosati va muomala estetikani shakllantirib, insonlar qalbida ijobiy tuyg‘ular, yaxshi orzularni namoyon ettirishi bilan; - mahalliychilik va millatchilik singari salbiy holatlarga yo‘l qo‘ymasligi hamda qo‘shnichilik madaniyatini kamol toptirishi bilan; - san’at, madaniyat, ma’rifat arboblari, ilm ahllari ishtirokida bo‘ladigan rang-barang mavzulardagi ma’ruzalarni, suhbatlarni uyushtira olishi bilan; - isrofchilikka, dabdababozlikka yo‘l qo‘ymagan holda urf-odatlar, an’analar, marosimlar, tantanali shodiyonalarni tartibli, chiroyli o‘tishini ta’minlashi va hokazo Shu kabilar bilan inson estetika tafakkurini shakllantirishda birlamchi maskan bo‘lib hisoblanadi.

Tabiat - estetik tarbiyaning zaruriy vositasi. Shuni maxsus ta’kidlash kerakki, zamonaviy inson tarbiyasini estetik jihatdan kamol toptirishda oila qanchalik ustuvor omil bo‘lib hisoblansa, bu jarayonda tabiat ham undan kam ahamiyat kasb etmaydi. CHunki tabiat bilan ongli tarzda murosa qilmaslik shaxsni nafosatli jihatdan mukammal bo‘lib etishishiga monelik ko‘rsatadi. Shuning uchun inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat inqiroz va halokat yoqasiga kelib qolgan hozirgi vaqtda bu muammoni chetlab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Ma’lumki, inson o‘zining ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida azaldan tabiat bilan hamkorlik qilib kelgan. Tabiatdagi go‘zalliklardan bahramand bo‘lishlari barobarida uni nafosatli tarzda o‘zlashtirishga, inchunun, mavjud hunukliklarni bartaraf qilishga harakat qiladi. Biroq, keyingi bir necha o‘n yillik jahon maamlakatlarining atrof muhit sohasidagi harakatlarini tanqidiy taxlil etish davri bo‘ldi. Sanoatlashtirish inqilobi inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatni abadul abad buzib qo‘yganini insonicht tobora anglab bormoqda. XXI asr o‘rtalariga kelib inson faoliyati erdagi yashash imkoniyatlarining asosiy shartlarini buzib yuborishi xavfi yana ham aniqroq namoyon bo‘lmoqda. Bugunga kelib eng jiddiy o‘zgarish er atmosferasida Yuz berayotganligi barchamizga ayon. Bu ayniqsa, karbonat angidrid va azot okisi singari “parnik” gazlariga taalluqlidir... Bu xolning insoniyatga qanday ta’sir ko‘rsatishini ilgaridan aytib berish qiyin, chunki global iqlim g‘oyatda murakkab tizimdir. Masalan, Yuz minglab yillar barqaror bo‘lib kelgan va millionlab odamlarning taqdirini xal etgan shamollar – yo‘nalishini, yog‘inlar miqdorini o‘zgartirish mumkin. Balki orollar va past qirg‘oq hududlarida yashovchilarga havf–hatar tug‘dirib dengizlardagi suvning sathi ko‘tarilishi mumkin. Aholi haddan tashqarii ko‘payib ketgan va borgan sari kuchliroq tazyiq sezayotgan sayyoramizning aslida busiz ham muammolari bor, Ushbu qo‘shimcha ta’sirlar ochlik va boshqa halokatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi esdan chiqarmaslik kerak. Afsuski, aksariyat xollarda

shaxsning tabiat bilan bo'ladigan munosabati estetik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi hamda uning estetik «no'noqligi» bois ular o'rtasida katta bo'shliq Yuzaga keldi; bu bo'shliq insoniyat boshiga misli ko'rilmagan talofotlarni solishi mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etish pirovardida inson ehtiyoji uchun zarur bo'lgan ko'plab tabiiy–moddiy boyliklarni tejab qolishga, atrof–muhit musaffoligini ta'minlashga, o'simlik va hayvonot olamini asrab qolishga va eng asosiysi inson genofondining yo'q bo'lib ketish havfining oldini oladi. **Mehnatning estetik tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati.** Mehnat ham moddiy, hamda ma'naviy go'zalliklar yaratish bilan estetik tarbiyaning muhim vositasiga aylanadi. Bu jarayon ijtimoiy–foydali mehnatning badiiylik bilan aloqasi ta'sirida vujudga keladi. Mazkur munosabat pirovardida mehnat vositalarining insonga keltiradigan zararini kamaytiradi. qolaversa, mehnatga ijodiy yondashuv jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilovchi omil hisoblanadi. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning iqtisodiy asosi–ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotidir. Ushbu jarayonda eng muhim va dolzarb vazifa insonlarda mehnatga bo'lgan Yangicha tuyg'uni shakllantirishdan iborat. Tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish, odamlarda mulkka egalik xissiyotini tarbiyalash o'z navbatida mehnatga bo'lgan munosabat orqali rivojlanib boradi. Negaki, odamlarda ko'p ukladli, turli mulk tizimlarini barpo etishga bo'lgan rag'bat tarbiyasi insonni bir tomonlama fikrlashdan, boqimandachilik kayfiyatlaridan halos qilib, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni, odamning o'z kuchi va salohiyatiga suyanishini kuchaytiradi, mehnatga hurmat, sadoqat va fidoiylik tuyg'ularini shakllantiradi. Bu pirovardida xalq turmush darajasining o'sishiga olib keladi. Mehnatga bo'lgan Yangicha munosabat o'zining ana Shunday hususiyatlariga ega ekanligi bilan nafosatli tarbiyaning muhim vositasi bo'lib sanaladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari inson estetik tarbiyasiga yaqindan ta'sir qiluvchi qudratli va faol kuchdir. Ayniqsa, televidenie shaxs hamda ommani estetik dunyoqarashini shakllantirishda, ularni nafosatli jihatdan tarbiyalashda yuksak ahamiyat kasb etadi. Rang–barang mavzulardagi ko'rsatuvlar badiiy va hujjatli filmlar, ijtimoiy–ma'naviy mazmundagi reklamalar, telemarafonlar nafosatli tarbiyani maqsadli yo'naltirishda, insonlar tafakkurida go'zallikka bo'lgan Yangicha munosabatni shakllantirishda salmoqli ahamiyat kasb etadi.

Sport – estetik tarbiyaning zamonaviy vositasi. Sport estetik tarbiya vositasi sifatida zamonaviy insonni kamol toptirishda alohida e'tiborga ega. Hozirda sportni rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad avlodni jismonan baquvvat, sog'lom, vatanning jasur himoyachisi qilib tarbiyalashdir. Hozirda yurtimizda sportni rivojlantirishga doir ko'plab dasturlar ishlab chiqilgan va ular jamiyat munosabatlaridan amalda ishtirok qilmoqdalar. Keyingi kunlarda O'zbekiston ko'plab sport turlari bo'yicha jahon musobaqalarni uyushtiruvchi va o'tkazuvchi mamlakat sifatida jahon hamjamiyatida ko'zga ko'rinib bormoqda. Ana Shularning barchasi muayyan ma'noda inson nafosatli dunyoqarashini, tafakkurini sog'lomlashtirishiga qaratilgan. Bir so'z bilan aytganda, sport estetik tarbiyaning muhim vositasi sifatida «Farzandlari sog'lom yurtning kelajagi porloq bo'ladi» - degan maqsadni amalga oshirishga muhim hissa qo'shadi. Bugungi kunda milliy g'oya va milliy mafkura hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarildi. Shunday ekan, har bir inson jamiyatda o'z o'rnini bilishi, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb his qilishi lozim. Endilikda mafkura dunyosida paydo bo'ladigan bo'shliq pirovardida jamiyat, inson va mamlakat uchun naqadar katta xavf solishini anglamoqdamiz. Tarbiyaning estetik shakli esa mazkur jarayonlarda yosh avlodni go'zallik haqidagi tuyg'ularini, tabiatga bo'lgan munosabatini, badiiy adabiyotga qiziqishini, jamiyat ma'naviy rivojidagi Yangicha qarashlarni go'zallik va ulug'vorlik asosida tarbiyalashdek dolzarb vazifani amalga oshirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik tarbiya juda keng ko'lamga ega bo'lib, insonni bir butun shaxs sifatida namoyon qiladi. Shuning uchun har qaysi davr, tuzum, jamiyat estetik tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Biroq, bu jarayon pedagoglar zimmasiga juda katta vazifa yuklaydi. Ayniqsa, bugungi kunda oliy ta'lim muassasasida katta ehtiyojga aylanmoqda. Biroq, ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida bu fanga nihoyatda jo'n va primitiv yondoShuv mavjudligini alohida e'tirof etish zurur. Fanning maqsadini noto'g'ri tushunish mavjud. Estetik tarbiya ma'naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida inson ma'naviy va jismoniy olamining uyg'un tarzda rivojlanishiga ulkan xissa qo'shadi. Estetik tarbiyada insonning tashqi ko'rinishi, uning jamoat orasida o'zini tutishi, jismoniy baquvvat bo'lishi ham katta ahamiyatga ega. Shubhasiz, yuksak did ma'lum darajada kishining estetik tarbiya ko'rganidan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda, ma'naviyatni yuksaltirishda estetik tarbiyaning zaruriyatini quyidagicha izoxlash mumkin. - globallashtirish jarayonida inson tabiatida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni optimallashtiradi; - ma'naviy

tarbiyaning ajralmas qismi sifatida mavjud tahdidlarga qarshi inson goʻzalligini har tomonlama uygʻun rivojlanishini taʼminlaydi; - estetik tarbiyaning asosida insonning hayotga boʻlgan ijodiy munosabati yotadi, bu ijodiylik fetish estetikaning avj olishiga monelik qiladi; - insonning estetik didini tarbiyalash orqali uning gʻayriestetik jarayonlarga munosabati shakllanadi.

4. Mehnat-turmush estetikasining muhim omili. Insonning tabiiy, axloqiy va estetik didining mutanosibliigi.

Mehnat – insonning aqliy yoki jismoniy kuchi bilan amalga oshiriladigan maqsadli faoliyat. U kundalik maʼnaviy va moddiy jihatdan odamzot hayotini farovonlashtirish, maʼnaviy hamda moddiy qadriyatlarni yaratish vositasi. Mehnatda inson, ayni paytda, ham aqliy ham jismoniy tomondan tarbiyalanib, maʼnaviy yuksalib boradi. Biroq mehnat ogʻir majburiyatga aylangan joyda uning bu xususiyatlari yoʻqoladi. Shu sababli, mehnat har jihatdan yuksak samara borishi uchun erkin boʻlishi, mehnat jarayoni ijodiy va qiziqarli kechishi lozim. Zotan oʻziga yoqqan, erkin mehnat turini bajarayotgan kishilarning «Bu ishni men oʻynab qilib qoʻyaman» qabilidagi gaplari, erkin mehnatni oʻyinga qiyoslashlari bejiz emas. Oʻyin – sanʼatning asosi ekanini nazarda tutsak, bu bilan oʻz kasbini, ishini sevgan odamlar uni ijod darajasiga koʻtarishga harakat qilayotganini koʻramiz. Zotan sevmoq – erkinlik, ijod esa, erkinlik mevasi. Mehnat erkinligini, unga erkin munosabatni shakllantirish hamma zamonlarda ham muhim masala boʻlib kelgan. Ogʻir mehnatni engillashtirish, erkinlashtirish maqsadida inson qadimdan uni badiiylashtirishga, estetiklashtirishga intilgan. Bunga halq ogʻzaki ijodidagi mehnat turlariga bagʻishlangan qoʻshiqlar yaxshi misoldir. Ular mehnat jarayonining qiziqarli, «ichdan» boʻlmasa ham, «tashdan» goʻzal, musiqiy, badiiy boʻlib koʻrinishiga xizmat qilgan.

Hozirgi paytda mehnat jarayonining ham «ichdan», ham «tashdan» goʻzal boʻlishini taʼminlashni uygʻun tarzda amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bunda yana dizaynning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini taʼkidlash lozim.

Mehnat estetikasida dizaynga boʻlgan talab koʻpyoqlamalik tabiatiga ega. Unda faqat texnikaviy goʻzallik emas, botunisicha texnologik jarayon va ishlab chiqarish joyi – makon goʻzalligi ham dizayn qonun-qoidalariga boʻysunishi: inson – texnika – makon tizimining estetiklashishi roʻy beradi.

Mehnat bilan nafosatning oʻzaro aloqasi toʻgʻrisida ukrainalik estetik olim D.YU. Kucheryuk diqqatga sazovar fikrlar bildiradi: «Mehnatning mazmuni aynan oʻzini qadriyat sifatida namoyon qilishi bilan belgilanadi, – deb yozadi u. – Nafosat ham mehnatning mazmuniy jihatiga aloqador»¹. Bunga misol tariqasida u inson oʻz ruhiy-fiziologik quvvatining mehnat jarayonini boshqarish mahoratiga egaligidan ruhlanishini va butun vujudi bilan estetik quvonchni his etishini taʼkidlab oʻtadi. Darhaqiqat, bunday holatda insonning ijodiy munosabati, ruhiy koʻtarinkiligi mehnat bilan estetikaning uygʻunlashib ketishiga olib keladi, nafosat mehnat jarayonini jonlantiradigan hodisaga, uni goʻzallashtiradigan qudratga aylanadi. Buning uchun inson – texnika – makon tizimida, yaʼni, dastgohlardan tortib, devoru imoratlargacha, gultuvakdan tortib, darpardalargacha boʻlgan muhitda dizaynning ijodiy yondashuvi lozim; bunda ranglar nafosati ham alohida rol oʻynaydi.

Nima uchundir biz, mehnat estetikasi deganda, koʻpincha faqat jismoniy-moddiy mehnat jarayonlaridagi nafosatni tuShunamiz va asosan uni zoʻr berib tadqiq etishga urinamiz. Vaholanki, maʼnaviy-aqliy sohalardagi mehnat ham jiddiy eʼtiborga, estetik tahlilga loyiq. Masalan, teatr sanʼatidagi mehnatni olib koʻraylik. Ulugʻ rejissyorimiz Mannon Uygʻur Yangi spektaklni tayyorlashda «oʻzi ham tinmagan, boshqalarni ham tindirmagan». Repetitsiya paytida tushlikka chiqishga vaqt topolmaganidan unga uyidan ovqat olib kelishgan. Spektakldan soʻng tunlari tahlil bilan Shugʻullangan, teatr sanʼatining muhim masalalariga doir qoidalarini qogʻozga tushirgan. Buyuk fransuz

¹ Кучерюк Д.Ю. Эстетика труда. Киев, «Виша школа», 1989. С. 276.

yozuvchisi Balzakning esa, kuniga 14-16 soatlab ishlagani hammaga ma'lum. Mehnat tufayligina san'atkor o'z iste'dodini namoyon qila oladi, ayni paytda ana Shu «o'zini qiynash»dan u butun borlig'i bilan quvonch hissini tuyadi. Badiiy ijod estetik faoliyat sifatida san'atkor uchun doimo "shirin azob", «go'zal a'mol» – estetik zavq manbai.

Fanda ham mehnatning o'rne, u olimga beradigan estetik zavq, quvonch san'atdagidan kam emas. Ilmiy mehnat tabiatan estetik kechinmalarga boy, chunki unda bilimga bo'lgan ishtiyoqni, ijod hissini va insonning hayratlanish qobiliyatini namoyon qiluvchi botiniy kuch mavjud. To'g'ri, bir paytlar fan hissiyotga berilmasdan, sovuqqon va holisona haqiqatni bilishga asoslanadi, degan fikr hukmron edi, bunga sabab qilib, bunday qarashning majoziy tafakkurdan yiroqligi ko'rsatilardi. Hozirgi paytda uning aksi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylangan. Zotan, fan tarixi unda ikki sifatni – axloqiy-shaxsiy va estetik ibtidoning mavjudligini ta'kidlab turadi. Buni V.A. Engelgart Shunday ifodalaydi: «Ijod... – san'atning mohiyati. U xuddi Shu darajada fanning ham mohiyatidir. Har ikki holatda insonning yaratish, ya'ni o'zligini namoyon qilish qobiliyati muhim. Ilmiy kashfiyot, xuddi san'at kabi, ijodkorning muayyan xususiyatlarini o'zida saqlab qoladi va keyingi hayoti davomida butun insoniyat boyligiga aylanadi»¹. Zotan ijodiy mehnatni o'z hayotining ma'nosi deb bilgan ilm fidoyisigina haqiqiy olimdir.

Hozirgi kunda san'atkor va olimning ijodiy mehnati faqat ichki, hissiyotlar bilan aloqador shaklda emas, balki tashqi – texnika nuqtai nazaridan ham estetiklashgan. CHunonchi, bugungi yozuvchi o'z mehnat jarayonini kompyutersiz, diktofonsiz tasavvur qilolmaydi, rassomlar, qo'shiqchilar va boshqalar kompyutpr texnologiyasidan foydalanadilar, elektron cholg'u asboblari ham ma'lum ma'noda texnikaning estetiklaShuvidan dalolat beradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin, barcha hodisalarda dizayner tomonidan mukammallashtirilgan go'zallik ijodkorning ma'naviy-ruhiy ko'makchisiga aylanganini ko'ramiz.

Mehnat estetikasi texnika estetikasi kabi atrof-muhitni go'zallashtirish tizimi bilan bog'liq. Korxonada hovlisidagi yashil olam, favvora, daraxtlar, haykallarning uyg'unligi, imoratlar peshtoqlari va devorlarida aks etgan ko'rgazmali amaliy san'at namunalari, binolar ichining yuksak did bilan bezatilishi – hammasi inson mehnatini go'zallashtirishga, mehnat jarayonining estetik zavq bilan amalga oShuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu taxlit, mehnat estetikasi mehnat jarayonidagi nafosatni faqat sanoat ishlab chiqarishi bilan chegaralamaydi, dizayndan keng foydalangan holda, o'zini atrof-muhitni go'zallashtirish tizimidagi asosiy omillardan biri sifatida namoyon etadi va texnika estetikasi bilan doimiy hamkorlikda ish olib boradi.

Mehnat – insonning aqliy yoki jismoniy kuchi bilan amalga oshiriladigan maqsadli faoliyat. U kundalik ma'naviy va moddiy jihatdan odamzot hayotini farovonlashtirish, ma'naviy hamda moddiy qadriyatlarni yaratish vositasi. Mehnatda inson, ayni paytda, ham aqliy ham jismoniy tomondan tarbiyalanib, ma'naviy yuksalib boradi. Biroq mehnat og'ir majburiyatga aylangan joyda uning bu xususiyatlari yo'qoladi. Shu sababli, mehnat har jihatdan yuksak samara borishi uchun erkin bo'lishi, mehnat jarayoni ijodiy va qiziqarli kechishi lozim. Zotan o'ziga yoqqan, erkin mehnat turini bajarayotgan kishilarning «Bu ishni men o'ynab qilib qo'yaman» qabilidagi gaplari, erkin mehnatni o'yinga qiyoslashlari bejiz emas. O'yin – san'atning asosi ekanini nazarda tutsak, bu bilan o'z kasbini, ishini sevgan odamlar uni ijod darajasiga ko'tarishga harakat qilayotganini ko'ramiz. Zotan sevmoq – erkinlik, ijod esa, erkinlik mevasi. Mehnat erkinligini, unga erkin munosabatni shakllantirish hamma zamonlarda ham muhim masala bo'lib kelgan. Og'ir mehnatni engillashtirish, erkinlashtirish maqsadida inson qadimdan uni badiiylashtirishga, estetiklashtirishga intilgan. Bunga

¹ *Энгельгарт В.А. Познание явлений жизни. М., 1984. С.276.*

halq og‘zaki ijodidagi mehnat turlariga bag‘ishlangan qo‘shiqlar yaxshi misoldir. Ular mehnat jarayonining qiziqarli, «ichdan» bo‘lmasa ham, «tashdan» go‘zal, musiqiy, badiiy bo‘lib ko‘rinishiga xizmat qilgan.

Hozirgi paytda mehnat jarayonining ham «ichdan», ham «tashdan» go‘zal bo‘lishini ta‘minlashni uyg‘un tarzda amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bunda yana dizaynning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta‘kidlash lozim.

Mehnat estetikasida dizaynga bo‘lgan talab ko‘pyoqlamalik tabiatiga ega. Unda faqat texnikaviy go‘zallik emas, botunisicha texnologik jarayon va ishlab chiqarish joyi – makon go‘zalligi ham dizayn qonun-qoidalariga bo‘ysunishi: inson – texnika – makon tizimining estetiklashishi ro‘y beradi.

Mehnat bilan nafosatning o‘zaro aloqasi to‘g‘risida ukrainalik estetik olim D.YU. Kucheryuk diqqatga sazovar fikrlar bildiradi: «Mehnatning mazmuni aynan o‘zini qadriyat sifatida namoyon qilishi bilan belgilanadi, – deb yozadi u. – Nafosat ham mehnatning mazmuniy jihatiga aloqador»¹. Bunga misol tariqasida u inson o‘z ruhiy-fiziologik quvvatining mehnat jarayonini boshqarish mahoratiga egaligidan ruhlanishini va butun vujudi bilan estetik quvonchni his etishini ta‘kidlab o‘tadi. Darhaqiqat, bunday holatda insonning ijodiy munosabati, ruhiy ko‘tarinkiligi mehnat bilan estetikaning uyg‘unlashib ketishiga olib keladi, nafosat mehnat jarayonini jonlantiradigan hodisaga, uni go‘zallashtiradigan qudratga aylanadi. Buning uchun inson – texnika – makon tizimida, ya‘ni, dastgohlardan tortib, devoru imoratlargacha, gultuvakdan tortib, darpardalargacha bo‘lgan muhitda dizaynning ijodiy yondashuvi lozim; bunda ranglar nafosati ham alohida rol o‘ynaydi.

Nima uchundir biz, mehnat estetikasi deganda, ko‘pincha faqat jismoniy-moddiy mehnat jarayonlaridagi nafosatni tuShunamiz va asosan uni zo‘r berib tadqiq etishga urinamiz. Vaholanki, ma‘naviy-aqliy sohalardagi mehnat ham jiddiy e‘tiborga, estetik tahlilga loyiq. Masalan, teatr san‘atidagi mehnatni olib ko‘raylik. Ulug‘ rejissyorimiz Mannon Uyg‘ur Yangi spektaklni tayyorlashda «o‘zi ham tinmagan, boshqalarni ham tindirmagan». Repetitsiya paytida tushlikka chiqishga vaqt topolmaganidan unga uyidan ovqat olib kelishgan. Spektakldan so‘ng tunlari tahlil bilan Shug‘ullangan, teatr san‘atining muhim masalalariga doir qoidalarini qog‘ozga tushirgan. Buyuk fransuz yozuvchisi Balzakning esa, kuniga 14-16 soatlab ishlagani hammaga ma‘lum. Mehnat tufayligina san‘atkor o‘z iste‘dodini namoyon qila oladi, ayni paytda ana Shu «o‘zini qiynash»dan u butun borlig‘i bilan quvonch hissini tuyadi. Badiiy ijod estetik faoliyat sifatida san‘atkor uchun doimo “shirin azob”, «go‘zal a‘mol» – estetik zavq manbai.

Fanda ham mehnatning o‘rni, u olimga beradigan estetik zavq, quvonch san‘atdagidan kam emas. Ilmiy mehnat tabiatan estetik kechinmalarga boy, chunki unda bilimga bo‘lgan ishtiyoqni, ijod hissini va insonning hayratlanish qobiliyatini namoyon qiluvchi botiniy kuch mavjud. To‘g‘ri, bir paytlar fan hissiyotga berilmasdan, sovuqqon va holisona haqiqatni bilishga asoslanadi, degan fikr hukmron edi, bunga sabab qilib, bunday qarashning majoziy tafakkurdan yiroqligi ko‘rsatilardi. Hozirgi paytda uning aksi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylangan. Zotan, fan tarixi unda ikki sifatni – axloqiy-shaxsiy va estetik ibtidoning mavjudligini ta‘kidlab turadi. Buni V.A. Engelgart Shunday ifodalaydi: «Ijod... – san‘atning mohiyati. U xuddi Shu darajada fanning ham mohiyatidir. Har ikki holatda insonning yaratish, ya‘ni o‘zligini namoyon qilish qobiliyati muhim. Ilmiy kashfiyot, xuddi san‘at kabi, ijodkorning muayyan xususiyatlarini o‘zida saqlab qoladi va keyingi hayoti davomida butun insoniyat boyligiga aylanadi»¹. Zotan ijodiy mehnatni o‘z hayotining ma‘nosi deb bilgan ilm fidoyisigina haqiqiy olimdir.

¹ Кучерюк Д.Ю. Эстетика труда. Киев, «Виша школа», 1989. С. 276.

¹ Энгельгарт В.А. Познание явлений жизни. М., 1984. С.276.

Hozirgi kunda san'atkor va olimning ijodiy mehnati faqat ichki, hissiyotlar bilan aloqador shaklda emas, balki tashqi – texnika nuqtai nazaridan ham estetiklashgan. CHunonchi, bugungi yozuvchi o'z mehnat jarayonini kompyutersiz, diktofonsiz tasavvur qilolmaydi, rassomlar, qo'shiqchilar va boshqalar kompyutpr texnologiyasidan foydalanadilar, elektron cholg'u asboblari ham ma'lum ma'noda texnikaning estetiklaShuvidan dalolat beradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin, barcha hodisalarda dizayner tomonidan mukammallashtirilgan go'zallik ijodkorning ma'naviy-ruhiy ko'makchisiga aylanganini ko'ramiz.

Mehnat estetikasi texnika estetikasi kabi atrof-muhitni go'zallashtirish tizimi bilan bog'liq. Korxonalar hovlisidagi yashil olam, favvora, daraxtlar, haykallarning uyg'unligi, imoratlar peshtoqlari va devorlarida aks etgan ko'rgazmali amaliy san'at namunalari, binolar ichining yuksak did bilan bezatilishi – hammasi inson mehnatini go'zallashtirishga, mehnat jarayonining estetik zavq bilan amalga oShuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu taxlit, mehnat estetikasi mehnat jarayonidagi nafosatni faqat sanoat ishlab chiqarishi bilan chegaralamaydi, dizayndan keng foydalangan holda, o'zini atrof-muhitni go'zallashtirish tizimidagi asosiy omillardan biri sifatida namoyon etadi va texnika estetikasi bilan doimiy hamkorlikda ish olib boradi.

Turmush estetikasi deganda biz insonning voqelikka keng qamrovli estetik munosabatini tuShunamiz. U hozirgi paytda o'z ichiga kiyinishidan tortib, xulqiy go'zallikkacha, oilaviy an'analardan tortib, oilaviy makongacha bo'lgan «estetik doirani» o'z ichiga oladi. Turmush estetikasida eng muhimi, odamlarning narsalar dunyosiga, go'zallik va ulug'vorlik orqali qarashlari, estetik didga, ijtimoiy ideallarga o'ziga xos munosabatlari namoyon bo'ladi, pirovard natijada u turmush madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Birinchi navbatda turmush estetikasi insonning xulqiy go'zallik qonun-qoidalariga rioya qilib yashashini taqozo etadi. Xulqiy go'zallik esa, oilada jamoat joylarida o'zni tutishni, boshqalar bilan muloqotda, kasbiy munosabatlarda muomala odobi va etiket nuqtai nazaridan yondashuvni, o'zaro suhbatlarda ham so'z vositasida (verbal), ham noverbal jihatlarning go'zal bo'lishini ta'minlaydigan ma'naviy hodisadir. Uni estetika va axloqShunoslik kesishgan nuqta, go'zallikning axloqiylikda, axloqiylikning go'zallikda namoyon bo'lish sharti, desak yanglishmaymiz.

YUqorida aytib o'tganimizdek, turmush estetikasining qamrovi keng, uning aloqalari kundalik turmushning estetik muammolari doirasidagina qolib ketmaydi, balki tabiat estetikasi, texnika estetikasi, atrof-muhitni go'zallashtirish tizimi va estetik tarbiya singari miqyosli ijtimoiy ma'naviy hodisalar bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshadi.

Turmush estetikasida moda alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki, moda deganda tashqi madaniyat shakllarining vaqti-vaqti bilan qisman o'zgarish va takrorlanib turshini tuShunamiz. Bunday takrorlanishlar va o'zgarishlar iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy, estetik omillar kabi ijtimoiy asosga ega bo'ladi. Modani asosiy ko'pchilik e'tirof etadi, u o'zini faqat kiyinishda emas, ishlab chiqarishda ham, siyosatda ham, san'atda ham, fanda ham, hatto mafkurada ham namoyon qila oladi. U ijtimoiy-estetik mezon sifatida baholash xususiyatiga ega va Shu bilan odamlarga nima kerakligini belgilab beradigan hukmron didga aylanadi. Moda bunda odamlarning yashash tarzidan (stilidan) kelib chiqib, doimiy ravishda o'zgarib boradigan hayot mazmuniga mos shaklni taklif etadi. Qisqasi, moda muayyan ma'noda jamiyat yashash tarzining o'ziga xos shakli, zamonaviy usuli sifatida estetik tahlilni taqozo qiladi. Zotan, u umumestetik didning darajasi va o'ziga xosliklarini zamon ko'zgisida aks ettirish xususiyatiga ega. Shu jihatdan u, yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zgaruvchanlik tabiatiga ega, urf bo'lgan narsalar, bir davr, hatto bir yil mobaynida modadan chiqib ketishi mumkin. Masalan, o'tgan asrning elliginchi yillarida erkak va ayollar tagcharmiga maxsus g'arch

qo'yilgan etiklar, tuflilar kiyishardi, yurganda «g'arch-g'urch» qilardi. Hozir esa, iloji boricha tovush chiqarmaydigan, yumshoq poyafzal urf bo'lgan, ya'ni modada. YOki oltmishinchi yillarda bir oz demokratik o'zgarishlar ro'y berishi tufayli qatag'on qilinganlar haqidagi asarlar, xususan, Habib No'monning «YOshlikda bergan ko'ngil» qissasi urf bo'ldi, hozir esa, Tohir Malikning «SHaytanat» romani modada. Bunday holatni «xit» bo'lgan qo'shiqlarga va ular ijrochilariga ham tadbqiq etish mumkin.


Ana Shunday xususiyatlari bilan moda kishilar estetik tarbiyasiga ta'sir o'tkazadi. Biroq bu ta'sir doim ham ijobiy bo'lavermaydi. Hozirgi, globallashuv jarayonlari qizg'in ketayotgan davrda, bir mintaqadan ikkinchi mintaqaga modaning "ko'chishi" ko'pincha salbiy xususiyatga ega. Masalan, biri birining aksi bo'lgan ikki hodisadagi modani olib ko'raylik. Biri – hijob. U aslida sahroga serob arab mamlakatlarida og'iz-burunni, ko'zni, umuman, butun badanni qum zarralaridan asrash maqsadida kiyiladigan libos, keyinchalik u islomiy talabga moslashtirilgan. Bizda esa, uning vazifasini mintaqaviy fasllarimizga mos keladigan ro'mol turlari (qishki, bahorgi, yozgi, kuzgi) bajaradi. Bir paytlardagi paranji hozir modadan chiqib ketgan, qimmatbaho, zarrin (islomda bunday matolar man etilishiga qaramay), buning ustiga sintetik materialdan tikilgan havo o'tkazmaydigan hijob bizning keskin-qit'aviy yozimizda badanni yondirib yuboradi, gigienik nuqtai nazardan zararli. Ikkinchisi – hozir qizlarimizning nihoyatda tor jinsi shim va bel bilan kindikni ochib turadigan kalta kofta kiyishi modada. YOz chillasida shim kiyib, serchang ko'chalarimizda badanning yarmini ochib yurish ham gigiena, ham Sharqona odob va mintaqaviy axloq bilan sig'ishmaydigan holat. Bunday hodisalar yuksak did bilan modaga amal qilish emas, balki ko'r-ko'rona modaparastlik, modaning ketidan quvish, turmush nafosatini jo'nlashtirish sifatida baholanishi lozim. Ana Shunday hodisalarda turmush estetikasining tahlillari, nazariy xulosalari asqotadi.

5. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar estetik didiga ta'siri.

Milliy ma'naviyatga ta'sir o'tkazuvchi tashqi tahdidlar ayni paytda estetik tarbiya jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ijtimoiy-ma'naviy munosabatlar tizimida estetik tarbiyani maqsadli yo'naltirishni taqazo etmoqda. Ta'kidlash o'rinliki, estetika niqobi ostida turli xil ko'rinishdagi "sog'lom turmush tarzi targ'ibotchilari", "ko'ngilochar" va "musaffo tuyg'u" baxsh etuvchi saytlar talaygina. Eng dahshatlisi keyingi paytlarda internet tarmog'ida vampirizm estetikasi va uning targ'iboti bilan bog'liq saytlarning ko'payib borayotganligi tashvishlanarli xoldir. Bu targ'ibot saytlarni oddiygina qidiruv buyrug'i orqali topish mushkul emas. Bunday tahdidlarga qarshi go'zal qadriyatlarini dunyoga tanitish, xalqimizning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlarni yaratish orqali kurashishni zamon talab etmoqdaki, bu yoshlarni ma'naviy jihatdan yuksaltirishda estetik tarbiyaga zaruriyat mavjudligidan dalolat beradi. Bu estetik tarbiyaga nisbatan tahdidlarning birinchi jihati. Estetik tarbiyaga tahdidning ikkinchi jihati insonning tashqi va ichki ko'rinishidagi bog'liqlikni o'rganishga bo'lgan zaruriyat bilan belgilanadi. Bu ilm bugungi kunda biologiya va tibbiyotda fizionomiya nomi bilan mashhur. Vaholangki, o'tmishda bu sohaga jiddiy e'tibor berilib, qator risolalar yaratilgan. Jumladan, olmon mumtoz faylasufi I.Kant bu ilmga "ichki olamni o'rganuvchi ilm" deb ta'rif bergan bo'lsa, Sharq allomalari bu borada "Risolai fil farosa" (X asr), "Farosatnoma" (XYI asr) kabi asarlarni yozib qoldirganlar. Odatda, farosat tushunchasi estetik baxo bilan belgilanadi. u ranjish, nomunosib xolat, ko'ngilga xush yoqmagan ishlar qilganda munosabat bildiramiz. Shuning uchun bo'lsa kerak, kamdan kam xollarda "farosatli kishi, farosati bor, farosatli" degan so'zlarni ishlatamiz. Biroq did, fahm, farosat kabi tushunchalar aynan estetika ilmiga tegishli bo'lib, fahm - haqiqatga, farosat – ezgulikka, did – go'zallikka munosabat orqali namoyon bo'ladi. Har uchchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. Shu ma'noda fahm – aqliy, farosat – axloqiy, did – estetik qobiliyatni Yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, estetik did va farosat murakkab tarbiya jarayonini taqozo etadi. CHunki u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg'unlashgan umumiylikdan iboratdir. "Xo'sh, bu ilmning estetik tarbiyaga nima daxli bor?" - degan savol tug'ilishi tabiiydir. Dahli Shundaki, aynan didsizlik va farosatsizlik insonning asl qiyofasini bilishga, uning niyatini anglashga monelik qiladi. Zero, har qanday chiroyli ko'ringan, istarali bo'lishga intilgan, muomalali inson har doim ham go'zal ishlarni qilavermasligini fahm, farosat, did yordamida

ajratib olishimizga to'g'ri keladi. Inson ma'naviyatining yuksalishi uning fazilati bilan bog'liq ekan, bu jarayon albatta, estetik tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Bir paytlar AQSHda kishilarning ijtimoiy xolati bilan jinoyatchilik o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Evropada esa kishi tug'ilganida vujudida jinoyatga moyil xarakter yoki belgilar bo'ladimi? - degan mavzuda izlanishlar bo'lgan. Hozirda ham hunuk ko'rinishli insonlar yomon bo'ladi, deb ishonuvchilar uchrab turadi. Farosat ilmining bu nazariyasiga ishonish 1920 yillarda Germaniyada haddan tashqari kuchayib ketadi. Misol uchun 1929 yil Dusseldorf shahrida amalga oshirilgan jinoyatlar aholini dahshatga soladi. Politsiya gumon qilgan kishini e'lon qilganida, hech kim ajablanmaydi ham: 21 yoshli aqli zaif Xans SHtausberg. Lekin xuddi Shunday bir jinoyat yana qaytarilgandan keyin "Dusseldorfning haqiqiy qonxo'ri" qo'lga olinadi. U ochiq Yuzli, juda beozor ko'ringan, hech kimda Shubha uyg'otmaydigan Piter Kurten bo'lgan. Shuning uchun ham fiziologik jihatdan yomonlikka moyil shaxs estetik tarbiya ta'sirida xulqini o'zgartirib, go'zal axloqli kishiga aylanishi mumkin. Shuning uchun o'zida mavjud yomon xislatlarni yaxshi tomonga o'zgartirgan va ma'naviy kamolotga erishgan kishi haqida faqat Yuziga qarab hukm chiqarish adolatdan emas. Shu o'rinda estetik tarbiyaga tahdidning uchinchi jihati haqida fikr bildirish va bu borada alohida ta'kidlash shart bo'lgan bir necha mulohazalar bor. Ular orasida insonning estetik tarbiyasiga ta'sir etishning psixologik jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Buni ong osti hodisasi orqali izoxlash mumkin. **Sezilar.** Aytish mumkin, mana Shu 5 ta sezgi ilg'amagan narsani ong osti ilg'ash qobiliyatiga ega. Uzluksiz jarayonni tuyg'ular hotiraga uzluksiz yozadi. Ammo biz ularning hammasini ajrata olmaymiz. Zero kamalakda millionlab, balki cheksiz miqdordagi rang bo'lishiga qaramay bizlar ulardan faqatgina 7 tasinigina ajrata olamiz xolos. **2. Kuzatish.** Bu borada reklama va uning estetik tabiatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Shuning uchun ham mahsulot reklamalari odamlar gavjum bo'ladigan joylar (bozorlar, ko'chalar va hokazo)ga o'rnatiladiki, bunda bevosita kuzatish muhim omilga aylanishi bejiz emas. Ayni paytda mahsulotga bo'lgan qiziqish reklamada ko'rsatilgan shaxsga ixlos tufayli ortadi. **3. Tashviqot.** Ongosti tashviqotga tabiiy xolda eshitilmaydigan ovozlari orqali ta'sir qilishni kiritish mumkin. Supermarket, kafe-bar, bozor hamda ko'ngilochar maskanlarda qo'yiladigan musiqalarda ham haridorlarni chorlash maqsadi ko'zlanadi. **4. YAshirin kadr orqali ta'sir qilish.** Insonning ong osti xislariga yashirin ta'sir qilish xususan 25-kadr ko'pchilik davlatlar tomonidan ta'qib ostiga olingan. Mutaxassislarning fikricha bu turdagi tashviqot har doim ham yaxshi yo'lda ishlatilavermasdan, aksar Shum niyatli insonlarga qo'l kelishi mumkin. Misol uchun kino yoki seriallarda, "Agar bir insonga davomli ravishda "Qo'shningni o'ldir!" shaklidagi yashirin kadr bilan ta'sir qilinsa, u hech ikkilanmasdan qotillikka qo'l urishi mumkin ekanligini tibbiyot psixologiyasi isbotlab berdi. YUqorida ko'rsatib o'tilgan 4 ta jihatga e'tiborsizlik bugungi kunda tashvishli va tahdidli hodisa sifatida e'tirof etilayotgan "ommaviy madaniyat"ni avj olishiga olib keladi. Bu borada birinchi Prezidentimizning "YUksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarlarlarida "Tabiiyki "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzulqilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa Shuning hisobidan boyluk orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi"- degan purma'no hikmat bor. Endi ikki og'iz so'z "ommaviy madaniyat" haqida. Uning kelib chiqishi, ta'siri, tahdidi borasida mazkur anjuman ishtirokchilarining barchasi habardor, desam yanglishmagan bo'laman. Lekin, bir narsaga g'oyatda tahdidli, u ham bo'lsa, ommaviy madaniyat insonni "qiyofasiz" oqimning bir qismiga aylantirib qo'yishidir. Bu illat aksariyat xollarda haqiqat, go'zallik, ezgulik singari muqaddas tushunchalarni umumiste'molchilik ehtiyoji bilan bog'lab, iste'mol va tovar sifatida haridorgir bo'lishiga qaratilgan maqsadni targ'ib qiladi. Bu esa pirovardida "bozor adabiyoti", "bozor san'ati" degan ma'naviyatga tahdid soluvchi hodisalarning "gullab-yashnashi" uchun imkon yaratadi. Bugun turli arzonbaho ishqiy yoki detektiv sarguzashtlarning bozori chaqqon. Didsiz, saviyasiz, "millati"ning tayini yo'q "badiiy" filmlar ham ko'payib ketgan. "Bozor san'ati" deganda, birinchi navbatda, anaShunaqa filmlar va bayram sahnalarida qarsillatib aytiladigan yangroq aShulalar esga tushadi. XXI asr ommaviy madaniyati zamonaviy qiyofada go'yo rivojlangan madaniy dunyoga integratsiyalashish niqoblari ostida namoyon bo'lmoqda. Bu niqoblar ostidagi salbiy xolatlar va ular shakllantirish mumkin bo'lgan illatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar orasidagi keskin tafovutni anglay bilish zamon talabidir. Ommaviy madaniyat eng avvalo, milliy axloqqa zarba berib, jamiyatning g'oyaviy tizimini izdan chiqarishi bilan hatarli ekanligini ham to'g'ri tushunish kerak. Bu havf-xatarga qarshi qatiy

tura oladigan shaxsni shakllantirishda tarbiyaning barcha ko‘rinishlarini uyg‘un xolda olib borish shart. Estetik tarbiya aynan Shu maqsad yo‘lida yosh avlodni milliylikka zid bo‘lmagan estetik ideal timsolida, yuksak didli qilib tarbiyalash bilan dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Xo‘sh “ommaviy madaniyat”ning illat sifatida qanday namoyon bo‘lishi mumkin? 1. “Ommaviy madaniyat” namoyondalarining amallari o‘zlari uchun har taraflama manfaatdorlikka asoslangan: ular “noyob san‘at” namunalari-g‘oyalari nafaqat targ‘ib qiladi, balki pullaydi ham. 2. Faqat bugunni, yana ham aniqrog‘i hozirni ko‘radi va tan oladi. 3. Umuminsoniy madaniyatni bo‘ysindirish va o‘z ta’sir doirasiga tortish kabi tuban maqsadlarni amalga oshirishga harakat qiladi. 4. U odamzodning fikrlashiga tish-tirnog‘i bilan qarshi. Andozalashgan axborot-u mahsulotlar qurshovida qolgan odamlarning o‘zi ham bora-bora bir o‘lchamga tushadi: hammaning yurish-turishi, o‘y-kechinmasi, fikrlash tarzi, bari bir xil. 5. SHaxsning ijtimoiylaShuviga imkon bermaydi. U voqea jarayonlarga loqayd, befarq avlodni shakllantiradi. 6. “Ommaviy madaniyat” o‘z navbatida mafkuraviy, informatsion, iqtisodiy qadriyatlardan foydalangan xolda “ma’rifatparast”lik g‘oyalari asosida o‘ziga xos muomala va muloqot madaniyatini ham targ‘ib qiladi. Buni biz bugungi kunda yoshlar orasida ko‘rishishdagi “boshni boshqa suqishtirish”, imo-ishora, o‘zaro muloqotning



“kurakda turmaydigan so‘zlar”ga tayanilishi orqali ko‘rib guvohi bo‘lmoqdamiz. “Ommaviy madaniyat”ning asl maqsadi har kuyga solish mumkin bo‘lgan olomni shakllantirish bo‘lgani bois, u ma’naviy oziq beradigan, badiiy yuksak, o‘quvchini mushohadaga undab, tasavvur olamini kengayishiga xizmat qiladigan asarlarni yaqiniga yo‘latmaydi. Shuning uchun “ommaviy madaniyat” namunalari badiiy-estetik qimmatga ega emas. Ommaviy madaniyat xoh G‘arb hox Sharq bo‘lsin uning ma’naviy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. U yildan yilga inson shaxsiga, uning estetik tafakkuriga juda katta kuch bilan daxl qiluvchi hodisaga aylanib bormoqda. Bu ayniqsa, estetik tarbiyaning eng muhim vositasi bo‘lgan san‘at orqali jamoatchilikka ta’sir etmoqda. Bu hodisa

san‘atda behayo filmlar, shahvoniy romanlar, tuturuqsiz musiqalar ko‘rinishida namoyon bo‘lib, ularning asosida fahsh, zo‘ravonlik, shafqatsizlik hamda zo‘ravonlik kabi axloqiy illatlar yotishini bugungi kunda jamiyatimizning ziyoli qatlami tushunib etmoqda. Bu borada XX-asrning 70 yillarida amerikalik bir qator sotsiologlar, faylasuflar, san‘atShunoslar “ommaviy madaniyat”ning ijtimoiy taraqqiyotga, ayniqsa umumadaniy jarayonlarga ta’siri haqida bir qator tadqiqotlarni olib borgan edilar. Xususan, sotsiolog CH.Reych o‘zining “Gullayotgan Amerika” kitobida “Isyonkor yoshlar o‘zlarining shaxsiy “madaniyat”larini yaratmoqdalarki, bu madaniyatning asosini kiyim, musiqa va narkotiklar tashkil etmoqda. YOsh “isyonkorlar” madaniyatning ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq falsafiy, axloqiy, estetik ahamiyatidan hamda muomala va muloqot madaniyatidan Yuz o‘g‘irgan xolda o‘zlariga mos qadriyatlarni yaratmoqdalar va ularni himoya qilmoqdalar. Bu kabi “Yangi odam” uchun mazkur qadriyatning asosi – bu o‘zini mavjud tizimdan tashqarida xis qilishga bo‘lgan layoqatidir.”-, degan fikrni bayon etgan edi.

6.Sport va uning ma’naviy-estetik jihatlari.

Sport estetikasi sport sohasidagi estetik qonuniyatlarni o‘rganadi, sportning estetik mazmunini, uning jamiyat madaniyatidagi o‘rnini, sport bilan san‘atning o‘zaro aloqadorligini tadqiq etadi, inson jismoniy kamolotining ma’naviy-estetik jihatlarni tahlildan o‘tkazadi.

Ma’lumki, sport va jismoniy tarbiya deyarli doimo yonma-yon tilga olinsa-da, ular bir-biridan jiddiy farq qiladi. Jismoniy tarbiya asosan inson salomatligini ta’minlashga qaratilgan jamiyatning turli yoshdagi barcha tabaqalari ixtiyoriy tarzda «o‘zi uchun» Shug‘ullanadigan, ommaviylik tabiatiga ega mashqlar yoki mashq majmularidan iborat. Sport esa, uning qaysi sohasida bo‘lmasin, mutaxassis ustozlar nazorati ostida maxsus tayyorgarlik ko‘rgan odamlarning, asosan yoshlarning yakkama-yakka yoki jamoaviy tarzda bellaShuvini o‘z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya qay ko‘rinishda bo‘lmasin, (individualmi, jamoaviymi), bellaShuvni rad etadi va insonga turli mashq shakllaridan

xohlaganini tanlash imkonini beradi. Sportda musobaqa birinchi o'ringda turadi va unda muayyan mashqlar majburiy tarzda bajariladi. Lekin bu majburiylik sportning ma'lum bir turi doirasida sportchiga erkin harakat qilish imkonini beradi, ya'ni sportda ijodiy yondashuv taqiqlanmaydi, balki qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, badiiy gimnastika musobaqalarida har bir sportchi o'zi tanlagan mashqni, o'zi tanlagan kuy jo'rligida bajaradi, lekin sportning ushbu turiga doir qonun-qoidalaridan chetga chiqolmaydi. Shunday qilib, jismoniy tarbiyani sportga qo'shib yuborish yoki ularni aynanlashtirish mumkin emas. Sportning boshqa ko'pchilik turlarida esa, barcha sportchilar bir xil mashqni bajaradilar, lekin ularni bir-biridan farqlantirib turadigan, musobaqa ruhini saqlab, uni so'ndirmaydigan narsa, bu – har bir sportchining bir xildagi mashq ijrosiga ijodiy, o'ziga xos yondashuvdir. Bunda sportchining o'z a'zoi badani ustidan hukmronlik qilishi va Shu hukmronlikni egiluvchan go'zallik, ephillik, ulug'vor xatti-harakatlar shaklida tomoshabinga taqdim etishini taqozo qiladi, xullas, sport inson tanasi go'zalligining namoyishi sifatida diqqatga sazovor.

Sportga qadimgi yunonlar, bundan bir necha ming yillar avval ana Shunday nuqtai nazardan yondashganlar. Lekin, afsuski, keyinchalik musobaqa omili go'zallikni chetga surib, uni g'oliblik va mag'lublik bilan baholanadigan ehtirosli o'yinga, qimorning o'ziga xos turiga aylantirib qo'ydi (qadimgi Rumodagi gladiatorlar bahsi, keyinchalik ot poygasiga pul tikishlar v.h.k.).

Hozirgi paytda sport jahon bo'ylab juda keng yoyilgan madaniy soha sifatida tan olinadi. Ayniqsa, buni O'zbekiston misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bizda mustaqillik sharofati bilan sportga milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida qarash shakllandi, uning hamma turi bo'yicha musobaqalar o'tkazish odat tusiga kirdi, o'zbek kurashi esa, umumbashariy sport turiga aylandi. Madaniyat bilan birgalikdagi vazirlik maqomini oldi. Bularning deyarli barchasi respublikamiz Prezidenti Islom Karimov tashabbusi va nazorati ostida amalga oshirildi. Shu tufayli bugun O'zbekiston sport diyoriga, inson jismoniy go'zalligini jahonga namoyish etayotgan mamlakatlardan biriga aylandi.

Sport estetikasidagi eng muhim muammo, bu uning san'at bilan o'xshashligida. Shundan kelib chiqib, zamonaviy sportni (juda bo'lmaganda, uning ba'zi turlarini) o'ziga xos san'at sifatida talqin qilish keng yoyilgan. Rene Mehyu, Morin Kovich, Benjamin Lou singari g'arb olimlari va ko'plab mashhur sportchilar sportni san'at sifatida qabul qilish mumkin degan fikrni o'rta tashlaydilar. Lekin haqiqatan ham sport san'atmi, ularni aynanlashtirish mumkinmi? Bu savolga to'g'ridan-to'g'ri javob berish qiyin. Shu bois sportning kelib chiqishi va mohiyatiga e'tibor qilib ko'raylik.

Ma'lumki, o'yinni Qadimgi yunon faylasuflari estetik tabiatga ega ekanini ta'kidlab, uni san'at bilan tenglashtirganlar, SHiller esa, ko'rib o'tganimizdek, badiiy faoliyatni o'yinning eng yuksak shakli deb hisoblaydi. Sport esa, eng avvalo o'yin. Undan inson ikki tomonlama estetik zavq oladi: o'yinchi-sportchi va tomoshabin-tarafkash sifatida. bunda tomoshabin san'atni idrok etayotgandek sportchi bilan uyg'unlashib, uning xatti-harakatlariga qo'shib ketadi, ayni paytda o'zi sportchi emasligini, ya'ni estetik masofani his qilib turadi. Bu borada B.Lou o'zining «Sport go'zalligi» degan kitobida F.Kinonning quyidagi fikrlarini keltiradi: «Teatr, – deb yozadi F.Kinon, – tomoshabinga suyanib rivojlanadigan san'at turi... Sport musobaqalarida tomoshabinlar o'zlarini xuddi spektakl tomoshosidagidek tutadilar: ular yuksak mahorat egalariga qarsak chaladilar va yomon o'yin ko'rsatganga nisbatan salbiy munosabatlarini yashirmaydilar. Sportda ham, teatrda ham biz «o'yin» haqida gapiramiz»¹¹⁷. Boshqa bir o'ringda B.Lou H.Slyusherning «Sport va ekzistensiya» kitobidagi quyidagi satrlarga e'tiborni qaratadi: «Sport – toki haqiqiy sport ekan, u estetik fazilat va nafislikka erisha oladi. U sportchi uchun chuqur ma'noga boy holat...

¹¹⁷ Лой Б. Красота спорта. М., «Радуга», 1984. С.92.

sport botiniy yaxlitlikni va yuksak darajadagi hissiy ko'tarinkilikni talab qiladi, – deb yozadi H.Slyusher sportchi his etadigan estetik zavq haqida»¹¹⁸.

San'at bilan sportning yana bir o'xshash tomoni Shundaki, har ikkalasi ham biror bir moddiy ehtiyojni qondirmaydi, bevosita maqsad emas, maqsadga muvofiqlik tarzida voqe bo'ladi, ularning umumiy jihati, mavjudligini oqlaydigan asosiy narsa, bu – odamlarga estetik zavq berish xususiyati. Ayni paytda san'atda ham, sportda ham o'yin ijtimoiylik kasb etmasligi mumkin emas, sportchi san'atkor kabi g'oyaviy-mafkuraviy maylparastlik tabiatiga ega. San'atkor vatanparvarlik, millatparvarlik g'oyalarini bilvosita – badiiy asari orqali ilgari sursa, sportchi o'z jismoniy xatti-harakatlari bilan musobaqalarda vatan bayrog'ini ko'tarishga, «millatni uyaltirib qo'ymaslikka» intiladi, ya'ni bevosita va tabiiy ravishda mafkuraviy vazifani amalga oshiradi. Demak, san'at ham, sport ham Shunchaki zavq berish va o'z iste'dodidan zavqlanish bilangina chegaralanib qolmaydigan ijtimoiy-ma'naviy hodisalardir. Biroq ana Shu mafkuraviylik mafkurabozlikka aylansa, ya'ni ijodkor mafkura uchun axloqiylikdan chekinsa, san'atda haqiqiy badiiy asar yaratishning iloji bo'lmaganidek, sport musobaqasida ham g'irromlik yo'li bilan, «bir amallab» yutib chiqib, haqiqiy g'alabaga erishish mumkin emas, zero, haqiqiy g'alaba tomoshabinning bahosi bilan belgilanadi. Masalan, futbol maydonida raqibi yiqilib, o'rnidan tura olmayotganini ko'rgan futbolchi o'zi qulay vaziyatda bo'lsa ham, to'pni maydon tashqarisiga chiqarib yuboradi, raqib o'rnidan turib, hakam to'pni o'yinga kiritishga ruxsat berganida yiqilgan raqibning o'zi yoki komandadoshi uni yana maydon tashqarisiga chiqarib, to'p egallash navbatini ixtiyoriy tarzda raqib komandaga beradi. Bu – har ikkala komanda o'yinchilarining jo'mardligini, «haqiqiy yigitlar» ekanini, ularning faqat jismoniy emas, balki axloqiy jihatdan ham etukligini ko'rsatadi, tomoshabin hech qachon ularning birortasini to'pni raqibiga berib qo'ydi deb ayblamaydi, afsus chekmaydi, aksincha, xursand bo'ladi, namoyish qilingan mardlikdan zavqlanadi.

Qadimgi yunonlar san'atni «go'zal yolg'on» deb ataganlar, darhaqiqat, san'atkor bizga «bo'lmaganni bo'lgan qilib» ko'rsatadi, bizni chiroyli aldaydi. Sportning ko'pgina turlarida ham Shunaqangi chiroyli aldovni tomosha qilib zavqlanamiz. Masalan, boyagi futbolga qaytaylik: hujumchi ro'parasidagi raqibini, futbol tili bilan aytganda, «chiroyli fintlar» bilan aldab o'tganida biz haqiqiy san'atni ko'ramiz. Hatto reportaj olib borayotgan jurnalist qoyil qolganidan «Go'zal! Bag'oyat go'zal!» demay iloji yo'q. Sportning badiiy gimnastika, sinxron suzish, suvga sakrash kabi turlari raqs san'atidan qolishmaydi, figurali uchish esa, o'ziga xos muz ustidagi balet, unda va badiiy gimnastikada musiqa san'ati ham ishtirok etadi. Sport jismoniy go'zallikni xulqiy go'zallik va go'zal xatti-harakatlar vositasida ma'naviy go'zallikka aylantirishdir. Shu ma'noda sportchi ham artist. Mohir sportchi o'zini bir muddatga jonli haykalga aylantira oladi.

Shular bilan bir qatorda sport san'at uchun material bo'lib xizmat qiladi. bunga o'zimiz guvohmiz: biz sport mavzuidagi rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik namunalarini ko'p ko'rganmiz, hikoya va qissalarni o'qiganmiz. Biroq, bularning hammasi sportni san'at deb qabul qilishimiz uchun etarli asos bo'lolmaydi. Buni sport estetikasi borasida jiddiy tadqiqotlar olib borgan, yuqorida nomi zikr etilgan B.Lou Shunday ta'riflaydi: «Inson badanining – tabiiy shakldagi go'zallik ekanini, sportchi qiyofasi ideal badan tuzilishini o'zida mujassam etishini e'tirof qilar ekanmiz, sportdagi go'zallikni san'atdan ko'ra, tabiatga taalluqli deyishimiz mumkin, zero, sportdagi go'zallik ko'p hollarda tasodifiylik xususiyatiga ega».

B.Lou aynan mana Shu o'rinda haqiqatga yaqin keladi, deb o'ylaymiz: sportda san'at unsurlari mavjud, lekin u butunisicha olganda, san'at emas. YA'ni, sport estetik

¹¹⁸ Ўша маъна. С. 177.

ko‘rinishlarga ega, estetik zavq uyg‘ota oladigan nosan‘at soha. Sport estetikasi uning ana Shu xususiyatlarini tadqiq etadi.

7. Olamni estetik anglashda texnologiyalarning roli. Reklamaning estetik jihatlari va g‘ayriestetik holatlar

So‘nggi paytlarda turmush estetikasini reklamasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. U tobora ommaviylashib, ommaviy axborot vositalari orqali hayotning turli jabhalariga kirib bormoqda. Reklama mamlakat aholisining barcha qatlamlariga mo‘ljallangan. U insonning mayl-istagini, didini, ehtiyojini, qiziqishlarini, voqea-hodisalarga munosabatini shakllantirib, ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatish kuchiga ega. Reklamada go‘zallik, ulug‘vorlik, mo‘‘jizaviylik va kulgililik kabi estetik xususiyatlar in‘ikos etadi. Shu bois reklama ijodkori – dizayner ko‘pincha rassomlik san‘atidan xabardor mutaxassis bo‘ladi. U ijodkor sifatida betartib suvrat, matnlar, sarlavhalar va bo‘shliqdan tartibli xilma-xillikni yaratadi. Ana Shu tartib reklama go‘zalligini ta‘minlaydi, tomoshabinga, o‘quvchiga quvonch bag‘ishlaydi. Reklamada muayyan narsa-hodisaning badiiy qiyofasi yaratiladi, ko‘pincha mashhur yirik asardan yoki voqeadan «kichik asar» – ta‘sirchan epizodlar bunyod etiladi, Shundan kelib chiqib, unda axloqiy-estetik ibtido katta o‘rin egallaydi. Badiiy qiyofaning mavjudligi esa, reklamani san‘atga yaqinlashtiradi, uni muayyan ma‘noda badiiy yaxlitlik darajasiga ko‘taradi. Undagi mubolag‘a usuli, lahzalik hayrat uyg‘otgani holda, kishini reklama qilinayotgan narsa-hodisaning mohiyatiga, foydalili xususiyatiga sezdirmay olib kiradi.

Reklamada rang estetikasi alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tashqi reklamalar atrof-muhitni go‘zallashtirish tamoyillari asosida joylantiriladi va shaharlarimizga kunduzi ham, tunda ham o‘ziga xos chiroy bag‘ishlab turadi. Ayniqsa, tungi reklamalarda nurdan foydalanish ko‘pincha san‘atkorona mahorat bilan amalga oshiriladi.

Xulosa, Reklama, agar faqat foyda, sof iqtisodiy-ma‘naviy jihatlar ko‘zlab ish tutsa, oddiy dallollik vositasiga aylanishi mumkin. Bunday hollarda tomoshabin diqqatini tortishga o‘ta urinish oqibatida behayo tasvirlar vujudga keladi. Vaholanki, u iqtisodiyotga asoslangan keng qamrovli ma‘naviy hodisa, odamlar orasidagi ijtimoiy muloqot shakllaridan biridir. Shu bois reklama estetikasiga alohida e‘tibor berish, unga aholi estetik didini, turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiladigan vosita sifatida qarash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Falsafa (Etika, estetika va mantiq) fanidan munozara mashg‘uloti savollari

Mavzu № 1.1. Falsafa: uning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli

1. Falsafa fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Qanday muammolar falsafiy muammolar hisoblanadi
3. Dunyoqarash tushunchasining mohiyati va mazmuni
4. Mifologik dunyoqarashning o‘ziga hos jihatlari.
5. Diniy dunyoqarashning mohiyati va mazmuni.
6. Falsafiy dunyoqarashning mazmuni.

7. Falsafa fanini boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Mavzu № 1.2 Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq falsafasi

1. Qadimgi Sharq tsivilizatsiyalari, qadimgi Misr, Babil, Xindiston va Xitoyda falsafiy qarashlar.
2. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy qarashlari.
3. Zardushtiylikning muqaddas manbai “Avesto”da falsafiy g’oyalar.
3. Amir Temur davrida ilm – fan, islom falsafasi va tasavvuf ilmini rivojlanishi.
4. Temuriylar davrida falsafiy qarashlar, Shuningdek, nazm, tarix, san’at va arxitekturaning rivojlanishi.
5. O’rta Osiyo honliklar davrida ijtimoiy ahvol va turg’unlik davrining vujudga kelishi.
6. O’rta Osiyo honliklar davri va Chor Rossiyasi, Sobiq Ittifoq davrida falsafiy qarashlar. Jadidchilarning Turkistonni rivojlantirishga bo’lgan falsafiy qarashlari.
7. Mustaqillik davri O’zbekistonda falsafa ilmini rivojlanishi

Mavzu № 1.3 Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G’arb falsafasi.

1. Antik davr yunon falsafasi. Milet, Pifagor, Arastu maktablari. Suqrot, Aflotun va Arastu. Atomizm. Demokrit va Geraklit. Ellinizm davri falsafasi.
2. O’rta asrlar xristian sxolastik falsafasining shakllanishi. Apologetika va patristika. Nominalizm va realizm. 5. Kech o’rta asrlarda reformatsiya jarayoni.
3. Evropa Uyg’onish davri falsafasi. N. Kopernik, Bruno, Galileyning geotsentrik va geliotsentrik nazariyasining ahamiyati.
4. Yangi va eng Yangi davr falsafasining ustuvor yo’nalishlari va muammolari.
5. Yangi davr ingliz va frantsuz falsafasi. Nemis mumtoz falsafasi. I. Kant, Gegel, Feyerbax
6. XX – XXI asr g’arb falsafasidagi falsafiy oqimlar, yo’nalishlar va muammolar

Mavzu № 1.4. Borliq falsafaning fundamental kategoriyasi

1. Borliq va mavjudlik tushunchasi.
2. Inson borlig’i, ma’naviy borliq. Sotsial borliq tushunchasi.
3. Harakat va ularning turlari; ijtimoiy harakat tushunchasi.
4. Tabiatborlig’i struktura (tuzilish) darajalari: makrodunyo, mikro dunyo, megadunyo tushunchalari.
5. Anorganik dunyo va notirik tabiat.
6. Hayot nima?
7. Noosfera tushunchasi.

Mavzu № 1.5 Olamning universal aloqalari va rivojlanish. Falsafaning qonun va kategoriyalari

1. Qadimgi Sharq falsafasida borliqning rivojlanishi haqidagi mifologik, diniy va falsafiy qarashlar.
2. Qadimgi yunon falsafasida borliqning rivojlanishi haqidagi dialektik, metafizik, dogmatik qarashlar.
3. Qonun va qonuniyat tushunchalari. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurida amal qiluvchi qonunlar. Qonunlarning ob'ektiv va sub'ektiv jihati.
4. Falsafaning universal qonuniyatlari. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, Ziddiyatlar, qarama – qarshiliklar birligi, inkor qonuniyati.
5. Falsafiy kategoriyalar: sabab va oqibat, zaruriyat va tasodifiyat, imkoniyat va voqelik, mazmun va shakl, butun va qism, element, struktura va sistema, umumiylik, xususiylik va yakkalik.

Mavzu № 1.6 Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari

1. Falsafa tarixida bilish haqidagi turli yondashuvlarni vujudga kelishi. Agnostitsizm, skeptitsizm, optimizm, gnostitsizm.
2. Gnoseologiya bilish haqida falsafiy ta'limot.
3. Bilish tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni.
4. Bilishning bosqichlari va darajalari. Xissiy va aqliy bilish, empirik va nazariy bilish, kundalik bilish.
3. Bilish, bilim va haqiqat, adekvatlik, fan tushunchalari.
4. Metodologiya – metodlar haqidagi falsafiy ta'limot. Bilish jarayonida qo'llaniluvchi metodlar.
5. Fan metodologiyasi tushunchasi. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodologiyasining o'ziga xos xususiyati.

Mavzu № 1.7. Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlari. Jamiyat va tarix falsafasi.

1. Jamiyat tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni. Jamiyatning ko'rinishlari.
2. Jamiyat va tarixning o'zaro bog'liqligi. Tarix falsafasi.
3. Jamiyat va davlat tushunchalarining o'zaro bog'liqligi. Davlatning turlari.
4. Tsivilazatsiya va madaniyat tushunchalari.
5. Qadriyat tushunchasi.
6. Qadriyatlarning turlari. Qadriyatlar ierarxiyasi.

1.8 -Mavzu. Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)

1. Sharq va g'arb falsafasida inson muammosi haqidagi qarashlar.
2. Falsafiy antropologiyaning predmeti, maqsadi va vazifalari.
3. Inson, odam, shahs, individ va individuallik tushunchalari.
4. Insonga bo'lgan yondashuvlar: introvertiv va ekstrovertiv. Kontseptsiyalar: biologizatorlik va sotsiologizatorlik.
5. Inson borlig'i, uning xayoti va yashashdan maqsadi. Suitsid.
6. Shahs tushunchasi. Xarizmatik, passionar shahs tushunchalari.

1.9 - Mavzu. Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari.

1. Globallashuv tushunchasi va uning mohiyati.
2. Fundamental globallashuv jarayoni.
3. Globallashuv va globalistika tushunchalarining o'zaro bog'liqligi.
4. Global muammo tushunchasi.
5. Global muammolarning tasnifi.
6. Global muammolarni hal etishga qaratilgan yondashuvlar.
7. Globallashuv jarayoni va futurologiya.

2.1 -mavzu. Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari.

1. Falsafa tarixida mantiq ilmini rivojlanishi. Qadimgi Sharq va antik davr yunon falsafasida mantiq haqidagi qarashlar.
2. Mantiq fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
3. Tafakkurning shakllari. Tushuncha, xukm va xulosa chiqarish.
4. Tafakkurning qonunlari. Ayniyat, ziddiyatsizlik, etarli darajada asoslash va uchinchisini istisno etish.
5. Hozirgi zamon fani va texnika taraqqiyotida mantiq fanini o'rni va ahamiyati

2.2-Mavzu. Tushuncha – tafakkurning shakli sifatida.

1. Tushuncha – tafakkurning shakli sifatida.
2. Tushuncha, nom va atamalarning o'zaro bog'liqligi.
2. Tushunchalarning turlari. Umumiy va yakka tushunchalar.
3. Tushunchalarni chegaralash, umumlashtirish va ta'riflash(definitsiya).
4. Tushunchalarni bo'lish va tasniflash.

2.3-mavzu. Mulohaza – tafakkurning shakli sifatida.

1. Mulohaza – tafakkurning shakli sifatida.
2. Hukmlarning turlari. Oddiy hukmlar.
3. [Hukmlar o'rtasidagi munosabatlar.](#)
4. Modallik tushunchasi. Modallik shakliga ko'ra hukmlar.
5. Hukmlar o'rtasidagi munosabatlar. Sig'ishadigan va sig'ishmaydigan hukmlar

2.4-mavzu. Hulosa chiqarish.

1. Xulosa chiqarish – tafakkurning shakli sifatida.
2. Xulosa chiqarishning tuzilishi, turlari va umumiy qoidalari
3. Deduktiv xulosa chiqarish.
4. Induktiv xulosa chiqarish
5. Analogiya.
6. Xulosa chiqarishni inson va jamiyat xayotidagi o'rni.

2.5 -mavzu. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy

shakllari.

- 1.Argumentlash(asosli muhokama yuritish) haqida tushuncha.
- 2.Argumentlash(asosli muhokama yuritish) isbotlash va rad etish tushunchalarining o'zaro bog'liqligi
3. Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar. Paralogizm. Sofizm. Paradoks.
- 4.Kommunikativ modellarda argumentlash: diadog, bahs. polemika.
- 5.Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari: muammo, gipoteza, nazariya

3.1 -mavzu. Etika fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati. Ahloqiy madaniyat va qadriyatlar.

- 1.Ahloq, odob va xulq tushunchalari.
- 2.Falsafa tarixida gedonizm va evdemonizm.
3. AxloqShunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
4. AxloqShunoslik fanining kategoriyalari va tamoyillari. Ahloqiy qadriyatlar.
- 5.Hozirgi zamon axloqShunosligining muammolari.
- 6.“Ommaviy madaniyat” va kosmopolitizm. Bioetika.

3.2 -mavzu. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni.

- 1.Nikoh va oila tushunchalari. Nikohning qonuniy va diniy jihatlari.
- 2.Oilaning psixologik va ijtimoiy – ma'naviy muhitini farzand tarbiyasiga ta'siri.
- 3.Yoshlar psixologiyasida oila va nikohga nisbatan ahloqiy munosabatni shakllantirish.
4. Oilaviy munosabatlarda noan'anaviy munosabatlar. Ajralishlar.
- 5.Oilada ota – ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar.

4.1 -mavzu. Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari.

- 1.Falsafa tarixida estetik qarashlarning shakllanishi.
- 2.Eстетika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
- 3.Eстетika fanini boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
- 4.Eстетikaning asosiy kategoriyalari. Go'zallik va xunuklik. Ulug'vorlik va fojeaviylik, komediyaviylik.
- 5.Eстетikaning asosiy tamoyillari va me'yoriy tushunchalari
- 6.Yosh avlodni estetik dunyoqarashi va tarbiyasini milliy ruhda shakllantirish muammolari.

4.2 -mavzu. Tabiat va texnogen tsivilizatsiya estetikasi. Estetikaning zamonaviy muammolari.

- 1.Jamiyat rivojida tabiatga estetik munosabatning shakllanishi. Tabiatning estetik jihatlari.

2. Ekologik estetikaning qadriyatli maqomi. Ekoestetikaning XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o'ri. Texnogen tsivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga ta'siri. Zamonaviy shaharsozlik estetikasi.
3. Dizaynning estetik xususiyatlari. Xalq amaliy san'ati va dizayn. Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari.
4. Mehnat-turmush estetikasining muhim omili. Insonning tabiiy, axloqiy va estetik didining mutanosibliigi.
5. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar estetik didiga ta'siri.
6. Sport va uning ma'naviy-estetik jihatlari. Voqe'likka estetik munosabatni milliy va umumbashariy ahamiyati.
7. Olamni estetik anglashda texnologiyalarning roli. Reklamaning estetik jihatlari va g'ayriestetik holatla

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

9. Qanday muammolar falsafiy muammolar deb ataladi?
10. Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos jihatlari ayting.
11. Dinning asosiy funksiyalari qaysilar?
12. Falsafiy dunyoqarashning mifologik va diniy dunyoqarashdan asosiy farqi nimada?
13. Falsafa nimani o'rgatadi?
14. Falsafa va fanning o'zaro nisbati qanday?
15. Dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllarini ta'riflang.

16. Falsafa tarixini o'rganish qanday maqsadni ko'zlaydi?
17. Nima uchun falsafa tarixida fikrlar rang-barangligi me'yor hisoblanadi?
18. Ayrim insonning yaxlit falsafiy dunyoqarashi falsafiy plyuralizm asosida qanday shakllanadi?
19. Falsafa tarixida «falsafaning asosiy masalasi»ga ta'rif berish qanday amalga oshirilgan?
20. Hozirgi dunyoda falsafa qanday vazifalarni hal qilmoqda?
21. Qadimgi Sharq va G'arb falsafasining umumiy tomonlari nimada?
22. Qadimgi Sharq va G'arb falsafasining farqli jihatlari nimada?
23. O'rta asr G'arbiy Evropa falsafasining teotsentrik mohiyatini tuShuntirib bering?
24. Ibn Arabiyning filosofemasi nimaga asoslanadi?
25. Bahouddin Naqshbandiyning asosiy g'oyasi nima va uning hozirgi kundagi ahamiyatini ko'rsating.
26. Abu Nasr Forobiy yaratgan bilish nazariyasining ahamiyati nimada?
27. Ibn Sino ijodining o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
28. Yangi va eng Yangi davr falsafasining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
29. F. Bekon va R. Dekart ijodini qiyoslang.
30. J. Lokk ta'limotining o'ziga xos tomonlarini tuShuntiring.
31. Pozitivizm rivojlanishining asosiy bosqichlarini va ulardan har birining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
32. Strukturalizmning poststrukturalizmdan farqi nimada?
33. Evolyutsion epistemologiyaning ahamiyati nimada?
34. Shaxsiy bilimning qanday turlari mavjud?
35. Tadqiqot dasturining xususiyatlari nimalarda ifodalanadi?
36. XX asr o'zbek falsafasining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
37. J. Tulenov ijodida dialektika masalalarining talqini nimaga asoslanadi?
38. XX asr o'zbek falsafasining rivojlanishidagi ijtimoiy siyosiy sharoitlarni tuShuntiring.
39. Ontologiya nimani o'rganadi?
40. Nima uchun «borliq» falsafaning asosiy kategoriyasi hisoblanadi?
41. Falsafa tarixida borliq muammosiga munosabatlar xilma-xilligini asoslang?
42. Borliqning asosiy shakllari qaysilar?
43. Borliqning turli shakllari o'zaro bog'lanadimi?
44. Virtual borliq nima?
45. Falsafada ongni tushunishga nisbatan qanday asosiy yondashuvlar vujudga kelgan?
46. Ongning falsafiy va tabiiy-ilmiy talqini o'rtasidagi farq nimada?
47. Ongning paydo bo'lishini materialistik falsafa qanday tuShuntiradi?
48. Ongning vulgar materialistik talqini
49. Antrop tamoyil nima?
50. Sub'ektiv va ob'ektiv dialektikaning o'zaro va farqi nimada?
51. Dialektikaning bilish mantiqi va metodologiyasi sifatidagi asosiy xususiyatini ayting.
52. Nima uchun ziddiyat tushunchasi dialektikada bosh tushuncha hisoblanadi?
53. Qo'sh inkorning mohiyatini tuShuntiring?

54. Sakrashlarning qanday shakllari mavjud?
55. Bilishning mohiyati nimada?
56. Bilish jarayonida qarama-qarshilik mavjudmi?
57. Bilishda sub'ektning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.
58. Bilishda ob'ekt qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
59. Gnoseologiyaning asosiy muammosi qaysilar?
60. Gnoseologiyaning epistemologiyadan farqi nimada?
61. Bilishning mohiyati nimadan iborat?
62. Falsafiy bilimning boshqa bilim turlaridan farqi nimada?
63. Ilmiy bilishning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
64. Bilishning mohiyati nimada?
65. Bilish jarayonida qarama-qarshilik mavjudmi?
66. Bilishda sub'ektning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.
67. Bilishda ob'ekt qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
68. Gnoseologiya nima?
69. Optimizm, skeptitsizm, agnostitsizm nima?
70. Bilimning qanday shakllarini bilasiz?
71. Ilmiy metodning uch jihatligini asoslang?
72. Ilmiy metodning o'ziga xos belgilari nimalarda namoyon bo'ladi?
73. Ilmiy bilishning barcha metodlarini umumiyligi va qo'llanish darajasiga qarab guruhlariga bo'linganligini tushuntiring?
74. Dialektik metodologiyaning ilmiy bilishdagi o'rni va ahamiyati?
75. Sinergetikaning umumilmiy metod sifatidagi rolini ko'rsating?
76. Jamiyat nima?
77. Ijtimoiy ishlab chiqarish nima?
78. Jamiyat kichik tizimlari nima bilan tavsiflanadi? Ularning birligi nimada?
79. Tsivilizatsiya nima?
80. Evropa tsivilizatsiyasi chindan ham tsivilizatsiyaning oliy shakli hisoblanadimi va u butun insoniyat rivojlanishiga yo'l ko'rsatishga qodirmi?
81. Madaniyat nima? Uning tsivilizatsiya bilan aloqasiga tavsif bering.
82. Turli falsafiy tizimlarda inson haqidagi tasavvurlar qanday shakllangan?
83. Falsafiy antropologiya qachon vujudga kelgan va u nimani o'rganadi?
84. Antropologiyadagi falsafiy va boshqa yo'nalishlar o'rtasidagi farq nimada?
85. Nima uchun inson mohiyati «boqiy» falsafiy muammo hisoblanadi?
86. Insonda biologik va ijtimoiy asoslarning o'zaro nisbati qanday?
87. Inson haqida yagona fan bo'lishi mumkinmi?
88. Insonning bioijtimoiy tabiati falsafiy muammo hisoblanadimi?
89. «Biologizatorlik» va «sotsiologizatorlik» kontseptsiyalarini qanday baholaysiz?
90. Falsafa hayotning mazmunini anglashda yordam berishi mumkinmi?
91. Umrboqiylik mumkinmi?
92. Qadriyat nima?
93. Ijtimoiy munosabatlar va institutlar tizimida qadriyatlar qanday o'rin egallaydi?
94. Baholash nima? qadriyatlar va baholash tushunchalari bir-biri bilan qanday nisbatlashadi?
95. Shaxs qadriyatlari konfliktlaShuvining sababi nimada?

96. Bunday konfliktni boshdan kechirganmisiz?
97. Faoliyat nima?
98. Inson faoliyatining tuzilishi va uning asosiy atributlariga tavsif bering.
99. Moddiylashtirish va moddiylikdan chiqarish nima?
100. Mehnat va begonalaShuvning aloqasi zarurmi? BegonalaShuvga qachon chek qo'yiladi?
101. O'yin nima?
102. Shaxs va jamiyat hayotida o'yin fenomenining saqlanishi nima bilan izohlanadi?
103. Ijod nima? Mehnatning qaysi turlarini siz ijodiy va qaysilarini noijodiy deb hisoblaysiz?
104. Inson faoliyatini tartibga solish mexanizmlari haqida gapirib bering.
105. Huquq va axloqning o'xshashligi va farqiga tavsif bering.
106. Falsafada Yangi mavzu Yuzaga kelishiga nima sabab bo'ldi?
107. Global muammolar qachon va nima uchun paydo bo'ldi?
108. «Globallashuv», «global muammolar», «globalistika» tushunchalarining o'zaro nisbatiga tavsif bering.
109. Texnooptimizmning mohiyati nimadan iborat?
110. Texnopessimistik falsafiy kontseptsiyalar qaysi g'oyalarga asoslanadi?
111. Globallikning mezonlarini ayting. Ularning yordamida qanday vazifalar hal qilinadi?
112. Globallashuv muammolarini echishda falsafa qaysi funktsiyalarni bajaradi?
113. Global muammolar tasnifi nima uchun kerak?
114. «Yangi insonparvarlik» tushunchasi nimani anglatadi?
115. «Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi»ning mazmuni nimada?
- 116.

Fan bo'yicha oraliq nazorat savollari

1. «Falsafa» so'zining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?
2. «Falsafa» atamasini birinchi bo'lib qaysi faylasuf o'z asarida qo'llagan?
3. Arxeolog olimlarning fikriga ko'ra tik oyoqda yuruvchi "homo sapiens" odam taxminan necha million yil oldin vujudga kelgan?
4. Quyidagi javoblardan qaysi birida dunyoqarashning nisbatan muhim funktsiyasi ko'rsatilgan?
5. Dunyoqarashning tuzilishi qanday?
6. Dunyoni sezish bu?

7. Faqat insonga xos xususiyatni aniqlang?
8. Tarixan dunyoqarashning shakllari bu?
9. Mif atamasi qanday ma'nolarni anglatadi?
10. Miflar nimalar orqali ifodalanadi?
11. Quyidagilarning qaysi biri dinning funktsiyasi emas?
12. Fetishizm bu?
13. Magiya bu?
14. Neolitik inqilobi bu?
15. Monoteizm bu?
16. Iudaizm qachon vujudga kelgan?
17. Dunyoqarashning qaysi shakllari e'tiqod va tuyg'ularga tayangan?
18. Falsafiy dunyoqarash dunyoni nimalarga tayangan holda tuShuntiradi?
19. Falsafa nima birinchi o'rinda turadi?
20. Falsafaning predmeti bu?
21. Kosmotsentriзмning asosiy xususiyati nimadan iborat?
22. 17-18-asrlarda falsafa fanlar bilan birlashib uning tadqiqotlar markazida - ...?
23. Quyidagilardan qaysi biri dialektik bilimlar sohasiga tegishli?
24. Tafakkur qonunlari va usullari haqidagi fan bu?
25. Materialistlar deb qaysi toifadagi kishilarni aytish mumkin?
26. Quyidagi qatorlardan kimlar sub'ektiv idealistlar hisoblanadi?
27. Mexanistik materializm tarafdorlari kimlar?
28. Antik falsafaning asosiy savoli?
29. Ekzistentsializm tarafdorlarining eng yirik vakillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
30. Gnoseologik optimizm ta'limoti qanday qarashni ilgari suradi?
31. Agnostitsizm namoyondalarining asosiy g'oyasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
32. Falsafaning qaysi funktsiyasida "Haqiqat nima? Uning me'zonlari qanday?" degan savollar beriladi?.
33. Falsafaning qaysi funktsiyasi etakchi o'rinni egallaydi?
34. 2008 yil Seul shaxrida 22 Jahon falsafasi kongressi qanday umumiy nom ostida o'tdi?
35. Qadimgi mutafakkirlar har tomonlama komil insonni tarbiyalashni qanday atama bilan ifodalagan?
36. Xalqaro Boston kongressida frantsuz mutafakkiri Per Obenk qanday savolni o'rtaga tashlagan edi?
37. Pratorgor, Suqrot, va Platon aytganidek falsafa bu - ... ?
38. "Umumiy nisbiylik nazariyasi" ta'limotining asoschisi kim?
39. Fanning mohiyati bu - ...?
40. Klassik mexanikaning qonunlarini qaysi olim ta'riflagan?
41. XX asrning 30-40 yillarida fan-texnikaning taraqqiyoti nimaga olib keldi?
42. Stsientizm quyidagi fikrlardan qaysi birini ilgari surgan?
43. Ob'ektiv dunyoga va insonning undagi o'rniga, odamzotning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatiga nisbatan yondashuvlar tizimi, bu - ...
44. Tarixan dunyoqarashning dastlabki shakllari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

45. Dinning asosiy funksiyalari qaysi javobda to'g'ri va to'liq ko'rsatilgan?
46. Falsafiy bilimning muhim tarkibiy qismlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?
47. Fan yutuqlarini tan oladigan va ijobiy baholaydigan ta'limotning nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
48. Arxeologik va ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, qaddini tik tutib yuradigan odam yoshi taxminan necha million yilni tashkil etgan?
49. Homo sapiens, ya'ni aqlli odamlar tipi necha ming yil oldin vujudga kelgan?
50. Dunyoni idrok etish bu?
51. Falsafiy tafakkur Qadimgi Sharq va G'arbda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatida qanday ko'rinishda vujudga kelgan?
52. Mifologiyada dastlab qanday masalalar qo'yilgan?
53. Antik davrda falsafa rivojlangan shaharlarni belgilang?
54. Sharq va G'arb falsafasi nimaga qarab rivojlangan ?
55. Markaziy Osiyoda ma'naviy-falsafiy merosning eng qadimgisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
56. "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" g'oyasi kim tomonidan ilgari surilgan?
57. "Men uchun bir kishi, agar u hammadan yaxshi bo'lsa 10 000 kishiga teng" fikr kimga tegishli?
58. "Axmoqni maqtagan aslida unga yomonlik qiladi" ushbu fikr kimga tegishli?
59. "O'lim qo'rqinchli emas: men ungacha mavjudman u mendan keyin mavjud" fikr kimga tegishli?
60. "Oliy himmatlik vaziyatdan mohirona foydalanish: aql idrok bilan bog'langan sahovatlilik" fikr kimga tegishli?
61. "Do'stlik - birga yashashning zaruriy shartidir" ushbu jumla kimga tegishli?
62. "Odamlar seni bilmasliklaridan g'am chekma, o'zing odamlarni bilmasligingdan g'am chek" ushbu fikr kimga tegishli?
63. Milet maktab asoschisi kim?
64. Milet maktabining qaysi namoyondasi olamning asosiga suvni qo'ygan?
65. Anaksimenes olam asosiga nimni qo'ygan?
66. Olam asosiga apeyronni qo'ygan G'arb faylasufi kim?
67. Anaksagoras urug'larni nima deb atagan?
68. Empedokl olov, havoni nima deb atagan?
69. Zardushtiylikda borliqning substansional asosi nima?
70. "Yuksak fazilatli inson bilan munosabatlarda hushmuomala bo'lishi, mamlakatni boshqarishda izchil bo'lishi lozim, ishda imkoniyalardan kelib chiqish, harakatda vaqtni hisobga olish..." ushbu fikr muallifini toping?
71. Platonning g'oyalar haqidagi talimoti qaysi asarlarida o'z aksini topgan?
72. Konfutsiychilik nechinchi asrda vujudga kelgan?
73. Qaysi faylasuf davlatni boy va zodagon kishilar emas, balki ishning ko'zini biladigan oqil odamlar boshqarishi lozim, deb hisoblaydi?
74. "Ayni bir daryoga ikki marta tushishi mumkin emas, ikkinchi marta tushayotgan odamga Yangi suvlar oqadi" degan fikr qaysi faylasufga tegishli?
75. «Dialektika» so'zini ilk bor kim ishlatgan?
76. Zenonning dialektikaga bag'ishlangan mashhur asari?
77. "Har bir narsa o'z-o'zicha va boshqa narsalardan ayni" bu fikr muallifi kim?

78. Aristotel sababiy bog'lanishlarning rang-barangligi muammosini ilgari surib, narsalar va hodisalar vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omilni nima deb atagan?
79. "Kategoriyalar" risolasi muallifi kim?
80. G'arb antik falsafasida materiyaning diskret tuzilishi haqidagi talimot qanday ataladi?
81. Atomistika asoschilari kimlar?
82. Demokrit fikriga ko'ra qaysi modda yumaloq atomlardan iborat?
83. Falsafiy muamolarni echishda Qadimgi Hind falsafasining qaysi maktabi mushohada ahamiyatini alohida qayd etgan?
84. "Osmon har bir insonning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi, uni taqdirlaydi, uni jazolaydi" bu fikr kim tegishli?
85. "Umumiy muhtojlik ayrim insonni xususiy muhtojligidan og'irroq. Zero umumiy muhtojlikda yordamga hech qanday iloj qolmaydi" fikr muallifini toping?
86. "Davlat" asarini muallifi kim?
87. Xudoga, uning mohiyatiga dunyoning birinchi sababi va asosi sifatida yondashish o'rta asrlar falsafasiga xos bo'lib, u qanday nomlanadi?
88. Konfutsiyning qaysi talimoti uning muhim talimotiga aylangan?
89. Nechanchi asrda sxolastika doirasida nominalizm va realizm kurashi avj olgan?
90. O'rta asrlar falsafasiga xos xususiyatni belgilang?
91. Axloq mezonlari kishilarning jamiyatdagi mavqelariga, iqtisodiy ta'minlanganlik darajasiga qarab o'zgarib, takomillashib boruvchi ijtimoiy jarayondir, deb hisoblagan faylasuf qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
92. Qadimgi hind falsafiy maktablarining ikki guruhi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
93. Dunyo bo'linmas bo'lakchalar (atomlar)dan tashkil topgan, degan ta'limotni ilgari surgan yunon faylasufi kim?
94. Ibn Sinoning fanlar klassifikatsiyasida barcha fanlarni qanday turkumlarga ajratilgan?
95. IX-XIII asrlarda qaysi mutafakkirlar Markaziy Osiyo hududida yashay u ijod etgan?
96. Qaysi alloma "Sharq Arastusi" – "Muallim us-soniy" degan yuksak nomga sazovor bo'lgan?
97. Forobiy fikricha bilimlarni o'zlashtirish qanday usul va vositalar orqali amalga oshadi?
98. Forobiy bilishning qanday shakllarini farqlaydi?
99. Abu Ali ibn Sino fikricha moddiy dunyo predmetlari asosan bilishning qaysi turining asosi bo'la oladi?
100. So'fizmda tabiat va Alloh qanday taqiln etiladi?
101. Ibn Arabiy bilishning necha turini ko'rsatadi va ular qaysilar?
102. Yangi davrda E.Torrichelli havo bosimi mavjudligini qanday yo'l bilan aniqladi?
103. Qon aylanishini kim kashf etdi?
104. Ijtimoiy fanlarda tabiiy huquq nazariyasi Angliyada kim tomonidan ishlab chiqildi?

105. Yangi davrda fanlarning rivojlanish jarayonida falsafada qanday ajralishlar sodir bo'ldi?
106. F.Bekon, T.Gobbs, J.Lokk, R.Dekart, B.Spinoza va Leybnits qaysi asrga yashab ijod etgan?
107. Pozitivizmدا bilimlar nechaga bo'linadi?

FALSAFA(ETIKA, ESTETIKA VA MANTIQ) FANIDA TESTLARDAN FOYDALANISH BO'YICHA KO'RSATMALAR

O'quv maqsadlarining, erishiladigan natijasini aniq va osonroq ifodalaydigan shakllardan biri – test topshiriqlaridir. **Test** (inglizcha sinov) – birinchi bor 1864 yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan o'quvchilarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llangan. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixologi F.Gamelton ishlab chiqqan.

Testning turlari:

- Psixologik testlar;
- Intellektual rivojlanish darajasini aniqlovchi testlar;
- Pedagogik testlar;
- Muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar.

Pedagogik test – maqsadga yo‘naltirilgan, qat’iy nazorat ostida, barcha sinalluvchilar uchun birday sharoitda olib boriladigan va pedagogik jarayonni ob’ektiv taftish qilish imkoniga ega ilmiy tadqiqot usulidir. Boshqa tadqiqot usullaridan test o‘zining aniqligi, oddiyligi hamda bajara olishligi va uni avtomatlashtirish mumkinligi bilan farqlanadi. Test ko‘pincha amaliy o‘quv jarayonida, kursantlarning bilimlarini o‘zlashtirganlik darajasini aniqlashda foydalaniladi.

Pedagogik test turlari:

- Birdan-bir to‘g‘ri javobi bo‘lgan yopiq topshiriqlar;
- Bir necha to‘g‘ri javobli yopiq topshiriqlar;
- Bitta so‘z (yoki so‘zlar) tushirib qoldirilgan gapdan tashkil topgan ochiq topshiriqlar;
- To‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlash uchun topshiriqlar;
- O‘zaro bog‘lanishni aniqlash uchun topshiriqlar;
- Ayrim fanlar bo‘yicha bilimlarning chuqurligini aniqlash uchun topshiriqlar;
- Qarama-qarshi munosabatlarni aniqlash testlari;
- O‘qilgan matnni tushunishga oid topshiriqlar;
- Farqlarni aniqlash uchun yopiq topshiriqlar;
- Tafakkurni aniqlovchi testlar va boshqalar;

TEST SAVOLLARI

1-mavzu. FALSAFA: UNING PREDMETI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI ROLI

1. «Falsafa» so‘zining lug‘aviy ma‘nosi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang?

- A. Yunoncha, phileo – sevaman va sophia – donolik
- B. Yunoncha, phileo – sevaman va sophia – bilish
- V. Lotincha, philo – sevaman va sophi – donishmandlik
- G. Lotincha, phileo – sevaman va sophia – donolik

2. «Falsafa» atamasini birinchi bo‘lib qaysi faylasuf o‘z asarida qo‘llagan?

- A. Aristotel
- V. Pifagor
- S. Suqrot

E. Platon

3. Arxeolog olimlarning fikriga ko'ra tik oyoqda yuruvchi "homo sapiens" odam taxminan necha million yil oldin vujudga kelgan?

- A. 5 mln avval
- V. 3,5 mln avval
- S. 1,5 mln avval
- E. 2 mln yil avval

4. Quyidagi javoblardan qaysi birida dunyoqarashning nisbatan muhim funktsiyasi ko'rsatilgan?

- A. Bilish funktsiyasi
- V. Qadriyatlarga munosabati
- S. A, V, E javoblar to'g'ri
- E. Xulq atvorni belgilash

5. Dunyoqarashning tuzilishi qanday?

- A. Dunyoni sezish, idrok etish, tushunish
- V. Dunyoni tasavvur qilish
- S. Axloqni yuksaltirish
- E. A,V,S javoblar to'g'ri

6. Dunyoni sezish bu?

- A. Bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etish
- V. Faqat ob'ektlarni anglash
- S. Inson o'zini tushunish
- E. Aql yordamida tushunish

7. Faqat insonga xos xususiyatni aniqlang?

- A. Dunyoni tushunish
- V. Harakat qilish
- S. Dunyoni sezish (qisman)
- E. Barcha javoblar noto'g'ri

8. Tarixan dunyoqarashning shakllari bu?

- A. Mif, din, falsafa, fan
- V. Mif, fan, ov
- S. Din, san'at, mehnat
- E. Fan, falsafa, ov

9. Mif atamasi qanday ma'nolarni anglatadi?

- A. Rivoyat, afsona
- V. San'at, voqea
- S. O'yin, san'at
- E. Afsona, urush

10. Miflar nimalar orqali ifodalanadi?

- A. Rivoyat, ertaklar
- V. Ertaklar, qo'shiqlar
- S. Mehnat, ov
- E. Qo'shiq, kuy

11. Quyidagilarning qaysi biri dinning funktsiyasi emas?

- A. Farovonlik funktsiyasi
- V. Tartibga solish funktsiyasi
- S. Kommunikativ funktsiyasi
- E. Dunyoqarashni shakllantirish funktsiyasi

12. Fetishizm bu?

- A. U yoki bu mo''jizakor predmetning odamlar hayotida ta'sir ko'rsatishiga sig'inish
- V. Odamlarga sig'inish
- S. Ruxlar va tabiat kuchlariga sig'inish
- E. Bulutlarga sig'inish

13. Magiya bu?

- A. Ilohiy kuchlarga sig'inish
- V. Hayvonlarga sig'inish
- S. Odamlarga sig'inish
- E. Yomg'irga sig'inish

14. Neolitik inqilobi bu?

- A. Inson chorvachilik va ziroatchilik bilan Shug'ullanish
- V. Inson ovchilik va termachilikka o'tishi
- S. San'atning vujudga kelishi
- E. Dinning vujudga kelishi

15. Monoteizm bu?

- A. Yakka xudolik
- V. Ko'p xudolik
- S. Xudosizlik
- E. Ruhlariga sig'inish

16. Iudaizm qachon vujudga kelgan?

- A. Mil. av VII asrda
- V. Mil.av IX asrda
- S. Mil.av XI asrda
- E. Mil.av V asrda

17. Dunyoqarashning qaysi shakllari e'tiqod va tuyg'ularga tayangan?

- A. Mifologik va diniy dunyoqarash
- V. Falsafiy dunyoqarash
- S. Ilmiy dunyoqarash
- E. Kundalik dunyoqarash

18. Falsafiy dunyoqarash dunyoni nimalarga tayangan holda tuShuntiradi?

- A. Aql va bilimlarda
- V. Tuyg'ularda
- S. E'tiqodda
- E. Sezgilarda

19. Falsafa nima birinchi o'rinda turadi?

- A. Savol, masala
- V. Obraz
- S. Aniq, javob
- E. Dalillar

20. Falsafaning predmeti bu?

- A. Olamning yaxlit birligi
- V. Borliq
- S. Inson
- E. Fan

21. Kosmotsentrizmning asosiy xususiyati nimadan iborat?

- A. Kosmos va tabiatni anglashni
- V. Erni tadqiq etishni
- S. Odamni tadqiq etishni
- E. Hayotni anglashni

22. 17-18-asrlarda falsafa fanlar bilan birlashib uning tadqiqotlar markazida - ...?

- A. Bilish va ilmiy metodlar o'rin oldi
- V. Globallashuv o'rin oldi
- S. O'zlikni anglash oldi
- E. To'g'ri javob yuq

23. Quyidagilardan qaysi biri dialektik bilimlar sohasiga tegishli?

- A. Rivojlanish va o'zgarishlar haqidagi ta'limot
- V. Axloq haqidagi ta'limot
- S. Hayot haqidagi ta'limot
- E. Qonunlar va usullarni o'rganuvchi fan

24. Tafakkur qonunlari va usullari haqidagi fan bu?

- A. Mantiq
- V. Dialektika
- S. Etika
- E. Tarix

25. Materialistlar deb qaysi toifadagi kishilarni aytish mumkin?

- A. Olamni azaldan, moddiy deb, ong bu materiyaning mahsuli deyuvchilar
- V. Ongni birinchi o'ringa qo'yuvchilar
- S. Olamning markaziga madaniyatni qo'yuvchilar
- E. To'g'ri javob yuq

26. Quyidagi qatorlardan kimlar sub'ektiv idealistlar hisoblanadi?

- A. Berkli, Yum, Fixte
- V. Dekart, F.Bekon
- S. Gegel, Berdyayev
- E. Platon, Dekart

27. Mexanistik materializm tarafdorlari kimlar?

- A. Golbax, Lametri, P.Gassendi
- V. Gegel, Kant
- S. Fixte, Yum
- E. Berkli, Bekon

28. Antik falsafaning asosiy savoli?

- A. Dunyo nimadan yaratilgan?

- V. Hayot yashashga arziydimi?
- S. Inson nima?
- E. Xudoning borligini qanday asoslash mumkin?

29. Ekzistentsializm tarafdorlarining eng yirik vakillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Kamyu, Sartr
- V. Fixte, Golbax
- S. Baxtin, Sartr
- E. Kant, Gegel

30. Gnoseologik optimizm ta'limoti qanday qarashni ilgari suradi?

- A. Dunyoni anglash va bilish mumkin
- V. Dunyoni bilib bo'lmaydi
- S. Dunyoni bilish mumkin, lekin Shubha bilan qarash kerak
- E. Hamma javob to'g'ri

31. Agnostitsizm namoyondalarining asosiy g'oyasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Dunyoni bilib bo'lmaydi
- V. Dunyoni faqat sezgilar orqali bilish mumkin
- S. Dunyoni to'liq bilish mumkin
- E. Dunyoni aqliy bilish mumkin

32. Falsafaning qaysi funktsiyasida "Haqiqat nima? Uning me'zonlari qanday?" degan savollar beriladi?

- A. Gnoseologik funktsiyada
- V. Dunyoqarash funktsiyasida
- S. Mifologik funktsiyasi
- E. Integrativ funktsiyasi

33. Falsafaning qaysi funktsiyasi etakchi o'rinni egallaydi?

- A. Dunyoqarash funktsiyasi
- V. Gnoseologik funktsiyasi
- S. Ontologik funktsiyasi
- E. Tarbiyaviy funktsiyasi

34. 2008 yil Seul shaxrida 22 Jahon falsafasi kongressi qanday umumiy nom ostida o'tdi?

- A. Hozirgi davrda falsafani qayta anglash
- V. Tarix falsafasini o'rganish
- S. Falsafada Yangi metodni yaratish
- E. Falsafaning umumiy masalalari

35. Qadimgi mutafakkirlar har tomonlama komil insonni tarbiyalashni qanday atama bilan ifodalagan?

- A. Paydeyya
- V. Animiya
- S. Idealistlar
- E. Sofistlar

36. Xalqaro Boston kongressida frantsuz mutafakkiri Per Obenk qanday savolni o'rta tashlagan edi?

- A. Insonning vahshiyona tabiatidan ma'rifatli tabiatga o'tish imkoniyati qay daraja mavjud
- V. Insonning kelib chiqish sabablari
- S. Insoniyatning kelajakdagi muammolari
- E. Olam va odamning o'zaro munosabatlari

37. Prator, Suqrot, va Platon aytganidek falsafa bu - ... ?

- A. Ishontirish emas, to'g'ri fikrlash san'atidir
- V. Falsafa olamni bilish
- S. Umumiylikni o'rganuvchi fan
- E. Ishontirish o'rgatuvchi fan

38. "Umumiy nisbiylik nazariyasi" ta'limotining asoschisi kim?

- A. Eynshteyn
- V. I.Nyuton
- S. N.Bor
- E. R.Ernest

39. Fanning mohiyati bu - ...?

- A. Borliq to'g'risidagi ob'ektiv bilimlarni aniqlash vatizimlashtirish
- V. Borliq to'g'risidagi sub'ektiv bilimlar
- S. Dalillarsiz aniqlash
- E. Hujjatlarni yig'ish

40. Klassik mexanikaning qonunlarini qaysi olim ta'riflagan?

- A. I.Nyuton
- V. R.Dekart
- S. A.Eynshteyn
- E. N.Bor

41. XX asrning 30-40 yillarida fan-texnikaning taraqqiyoti nimaga olib keldi?

- A. Fan inqilobiga
- V. Ma'naviyatning inqirozi
- S. Olamning anglashning qiyinlashuviga
- E. To'g'ri javob yuq

42. Stsientizm quyidagi fikrlardan qaysi birini ilgari surgan?

- A. Fan yutuqlarini tan oladi va ijobiy baholaydi
- V. Falsafani dunyoqarash deb bilish
- S. Falsafani fan deb bilish
- E. Falsafani fan darajasiga tushirish va dunyoqarash masalasini olib tashlash

43. Ob'ektiv dunyoga va insonning undagi o'rniga, odamzotning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatiga nisbatan yondashuvlar tizimi, bu - ...

- A. Dunyoqarash
- B. Tafakkur
- V. Idrok
- G. Tasavvur

44. Tarixan dunyoqarashning dastlabki shakllari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Mif va din
- B. Din va san'at

- V. San'at va mifologiya
- G. Poetika va lirika

45. Dinning asosiy funksiyalari qaysi javobda to'g'ri va to'liq ko'rsatilgan?

- A. Dunyoqarashni shakllantirish, kommunikativ, tartibga solish, kompensatorlik funksiyalari
- B. Dunyoqarashni shakllantirish, komillikka ko'tarish, sabrga o'rgatuvchi funksiyalari
- V. Kamolotga etkazish, kompensatorlik, kommunikativ funksiyalar
- G. Boshqaruvchi, tartibga soluvchi, dunyoqarashni kengaytiruvchi, kompensatorlik funksiyalari

46. Falsafiy bilimning muhim tarkibiy qismlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?

- A. Ontologiya, gnoseologiya, fan metodologiyasi, ijtimoiy falsafa, etika, aksiologiya, falsafiy antropologiya
- B. Fenomenologiya, gnoseologiya, fan metodologiyasi, ijtimoiy falsafa, etika, aksiologiya, falsafiy antropologiya
- V. Pragmatizm, pozitivizm, strukturalizm, etika, estetika, aksiologiya, fenomenologiya
- G. Ontologiya, ma'naviyat asoslari, g'oyalar falsafasi, falsafa tarixi, antropologiya

47. Fan yutuqlarini tan oladigan va ijobiy baholaydigan ta'limotning nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Stsientizm
- B. Gnostizm
- V. Pragmatizm
- G. Antistsientizm

48. Arxeologik va ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, qaddini tik tutib yuradigan odam yoshi taxminan necha million yilni tashkil etgan?

- A. 1,5 mln yilni
- B. 4 mln yilni
- V. 6 mln yilni
- G. 1 mln yilni

49. Homo sapiens, ya'ni aqlli odamlar tipi necha ming yil oldin vujudga kelgan?

- A. 40-60 ming yil
- B. 50-80 ming yil
- V. 30-70 ming yil
- G. 60-90 ming yil

50. Dunyoni idrok etish bu?

- A. Atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishdir
- B. Bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etish
- V. Inson o'zini tushunish
- G. Barcha javoblar to'g'ri

2-mavzu: QADIMGI VA O'RTA ASR FALSAFASI

51. Falsafiy tafakkur Qadimgi Sharq va G'arbda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatida qanday ko'rinishda vujudga kelgan?

- A) Mifologiya
- B) Ontologik

- V) Gnoseologik
- G) Dialektik

52. Mifologiyada dastlab qanday masalalar qo'yilgan?

- A) Dunyo qanday vujudga kelgan va u qanday rivojlanadi? Hayot va o'lim nima?
- B) Nega tug'ildik va nimaga o'lamiz
- V) Biz kimmiz nega tug'ildik
- G) Unday nazariya bo'lmagan

53. Antik davrda falsafa rivojlangan shaharlarni belgilang?

- A) Ioniya, Sitsiliya, Afina
- B) Makedoniya, Samarqand, Buxoro
- V) Buxoro, Toshkent
- G) Xiva, Toshkent

54. Sharq va G'arb falsafasi nimaga qarab rivojlangan ?

- A) Umuminsoniy qadriyatlarga
- B) Davlatlarga qarab
- V) Mehnat taqsimotiga qarab
- G) Qurollarning takomillaShuviga qarab

55. Markaziy Osiyoda ma'naviy-falsafiy merosning eng qadimgisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Avesto
- B) Talmut
- V) Injil
- G) Qur'oni Karim

56. "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" g'oyasi kim tomonidan ilgari surilgan?

- A) Zardusht
- B) G'azzoliy
- V) Nasafiy
- G) Navoiy

57. "Men uchun bir kishi, agar u hammadan yaxshi bo'lsa 10 000 kishiga teng" fikr kimga tegishli?

- A) Geraklit
- B) Platon
- V) Suqrot
- G) Epikur

58. "Axmoqni maqtagan aslida unga yomonlik qiladi" ushbu fikr kimga tegishli?

- A) Demokrit
- B) Epikur
- V) Suqrot
- G) Platon

59. "O'lim qo'rqinchli emas: men ungacha mavjudman u mendan keyin mavjud" fikr kimga tegishli?

- A) Epikur
- B) Suqrot
- V) Platon

G) Arastu

60. “Oliy himmatlik vaziyatdan mohirona foydalanish: aql idrok bilan bog’langan sahovatlilik” fikr kimga tegishli?

- A) Platon
- B) Suqrot
- V) Epikur
- G) Demokrit

61. “Do’stlik - birga yashashning zaruriy shartidir” ushbu jumla kimga tegishli?

- A) Arastu
- B) Platon
- V) Levkip
- G) Iskandar

62. “Odamlar seni bilmasliklaridan g’am chekma, o’zing odamlarni bilmasligingdan g’am chek” ushbu fikr kimga tegishli?

- A) Konfutsiy
- B) Lao Tszi
- V) Suqrot
- G) Arastu

63. Milet maktab asoschisi kim?

- A) Fales
- B) Geraklit
- V) Demokrit
- G) Pifagor

64. Milet maktabining qaysi namoyondasi olamning asosiga suvni qo’ygan?

- A) Fales
- B) Geraklit
- V) Demokrit
- G) Pifagor

65. Anaksimender olam asosiga nimni qo’ygan?

- A) Havoni
- B) Suvni
- V) Tuproqni
- G) O’tni

66. Olam asosiga apeyronni qo’ygan G’arb faylasufi kim?

- A) Anaksimander
- B) Demokrit
- V) Platon
- G) Fales

67. Anaksagor urug’larni nima deb atagan?

- A) Geometriyalar
- B) Geometriyalar
- V) Tsikloplar
- G) Ximeyralar

68. Empedokl olov, havoni nima deb atagan?

- A) Efir
- B) Sfinks
- V) Xufu
- G) Xeops

69. Zardushtiylkda borliqning substantsional asosi nima?

- A) Olov
- B. O't
- V. Tuproq
- G. Havo

70. "Yuksak fazilatli inson bilan munosabatlarda hushmuomala bo'lishi, mamlakatni boshqarishda izchil bo'lishi lozim, ishda imkoniyalardan kelib chiqish, harakatda vaqtni hisobga olish..." ushbu fikr muallifini toping?

- A. Lao Tsz
- B. Konfutsiy
- V. Farobiy
- G. Beruniy

71. Platonning g'oyalar haqidagi talimoti qaysi asarlarida o'z aksini topgan?

- A. Bazm, Fedon, Fedor, Davlat
- B. Metafizika, G'oyalar haqida
- V. Teatet, Parmenid
- G. Sofist, Kritiy

72. Konfutsiychilik nechinchi asrda vujudga kelgan?

- A. Mil.av V asr
- B. Mil. av. VII asr
- V. Mil. av. III asr
- G. Mil.av.IV asr

73. Qaysi faylasuf davlatni boy va zodagon kishilar emas, balki ishning ko'zini biladigan oqil odamlar boshqarishi lozim, deb hisoblaydi?

- A. Suqrot
- B. Platon
- V. Arastu
- G. Epikur

74. "Ayni bir daryoga ikki marta tushishi mumkin emas, ikkinchi marta tushayotgan odamga Yangi suvlar oqadi" degan fikr qaysi faylasufga tegishli?

- A. Geraklit
- B. Suqrot
- V. Arastu
- G. Platon

75. «Dialektika» so'zini ilk bor kim ishlatgan?

- A. Suqrot
- B. Platon
- V. Empidokl
- G. Epikur

76. Zenonning dialektikaga bag'ishlangan mashhur asari?

- A. Bahslar

- B. Munozaralar dialektikasi
- V. Qarama qarshilik dialektikasi
- G. Dialektika

77. “Har bir narsa o’z-o’zicha va boshqa narsalardan ayni” bu fikr muallifi kim?

- A. Platon
- B. Suqrot
- V. Zenon
- G. Epikur

78. Aristotel sababiy bog’lanishlarning rang-barangligi muammosini ilgari surib, narsalar va hodisalar vujudga kelishiga sabab bo’luvchi omilni nima deb atagan?

- A. Materiya va substrat, moddiy sabab
- B. Formal sabab
- V. Xarakterlanuvchi sabab
- G. Yo’naltiruvchi sabab

79. “Kategoriyalar ” risolasi muallifi kim ?

- A. Aristotel
- B. Suqrot
- V. Platon
- G. Empidokl

80. G’arb antik falsafasida materiyaning diskret tuzilishi haqidagi talimot qanday ataladi?

- A. Atomistika
- B. Gumanistika
- V. Kategoriyalik
- G. Mantiqiylik

81. Atomistika asoschilari kimlar?

- A. Levkipp va Demokrit
- B. Epikur va Lukretsiy Kar
- V. Lukretsiy Kar va Levkipp
- G. Demokrit va Epikur

82. Demokrit fikriga ko’ra qaysi modda yumaloq atomlardan iborat?

- A. Sut
- B. Suv
- V. O’t
- G. Tosh

83. Falsafiy muamolarni echishda Qadimgi Hind falsafasining qaysi maktabi mushohada ahamiyatini alohida qayd etgan?

- A. Nyaya
- B. Chorvaka-Lokayata
- V. Lao Tsz
- G. Mimansa

84. “Osmon har bir insonning jamiyatdagi o’rnini belgilaydi, uni taqdirlaydi, uni jazolaydi” bu fikr kim tegishli?

- A. Konfutsiy

- B. Nyaya
- V. Lao Tszı
- G. G'azzoliy

85. "Umumiy muhtojlik ayrim insonni xususiy muhtojligidan og'irroq. Zero umumiy muhtojlikda yordamga hech qanday iloj qolmaydi" fikr muallifini toping?

- A. Demokrit
- B. Platon
- V. Arastu
- G. Geraklit

86. "Davlat" asarini muallifi kim?

- A. Platon
- B. Epikur
- V. Empidokl
- G. Zenon

87. Xudoga, uning mohiyatiga dunyoning birinchi sababi va asosi sifatida yondashish o'rta asrlar falsafasiga xos bo'lib, u qanday nomlanadi?

- A. Teotsentrizm
- B. Geleotsentrizm
- V. Geotsentrizm
- G. Monizm

88. Konfutsiyning qaysi talimoti uning muhim talimotiga aylangan?

- A. Osmon qonuni
- B. Tabiat - inson oshyoni
- V. Jamiyatda davlatning o'rni
- G. Ijtimoiy tabaqalanish

89. Nechanchi asrda sxolastika doirasida nominalizm va realizm kurashi avj olgan?

- A. XI asr
- B. IX asr
- V. XII asr boshida
- G. XII asr oxirida

90. O'rta asrlar falsafasiga xos xususiyatni belgilang?

- A. Teotsentrizm
- B. Kosmotsentrizm
- V. Antropotsentrizm
- G. Metodologizm

91. Axloq mezonlari kishilarning jamiyatdagi mavqelariga, iqtisodiy ta'minlanganlik darajasiga qarab o'zgarib, takomillashib boruvchi ijtimoiy jarayondir, deb hisoblagan faylasuf qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Konfutsiy
- B. Lao Tszı
- V. Suqrot
- G. Farobiy

92. Qadimgi hind falsafiy maktablarining ikki guruhi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Astika va Nastika
- B. Vedanta, Sankhya
- V. Yoga, Vaysheshika
- G. Nyaya va Mimansa

93. Dunyo bo'linmas bo'lakchalar (atomlar)dan tashkil topgan, degan ta'limotni ilgari surgan yunon faylasufi kim?

- A. Demokrit
- B. Fales
- V. Geraklit
- G. Anaksimn

94. Ibn Sinoning fanlar klassifikatsiyasida barcha fanlarni qanday turkumlarga ajratilgan?

- A. Amaliyot fanlari va nazariy fanlar
- B. Samo fanlari va Er fanlari
- V. Mantiq va matematika fanlari
- G. Falsafa va matematika fanlari

95. IX-XIII asrlarda qaysi mutafakkirlar Markaziy Osiyo hududida yashay ijod etgan?

- A. Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy
- B. Forobiy, Ibn Rushd, Farididdin Attor
- V. Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumi, Beruniy
- G. Alisher Navoyi, Forobiy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino

96. Qaysi alloma "Sharq Arastusi" – "Muallim us-soniy" degan yuksak nomga sazovor bo'lgan?

- A. Abu Nasr Forobiy
- B. Abu Rayhon Beruniy
- V. Ibn Sino
- G. Ali Qushchi

97. Forobiy fikricha bilimlarni o'zlashtirish qanday usul va vositalar orqali amalga oshadi?

- A. Sezish, idrok etish, xotira, tasavvur qilish, mantiqiy mulohaza yuritish, tafakkur
- B. Mantiqiy tafakkur, intuitsiya, e'tiqod
- V. Sezish, xotira, tasavvur, iroda, mantiqiy mulohaza, tajriba
- G. Fikriy eksperiment, sezish, his qilish, tasavvur, idrok

98. Forobiy bilishning qanday shakllarini farqlaydi?

- A. Hissiy va oqilona
- B. Intuitiv va mantiqiy
- V. Oqilona va ilohiy
- G. A va B javoblar to'g'ri

99. Abu Ali ibn Sino fikricha moddiy dunyo predmetlari asosan bilishning qaysi turining asosi bo'la oladi?

- A. Sezgining
- B. Tafakkurning

- V. Intuitsiyaning
- G. O'zlikni anglashning

100. So'fizmda tabiat va Alloh qanday taqiln etiladi?

- A. Alloh va tabiatni uzviy deb qaraydi
- B. Tabiat Allohdan ajralgan deb qaraydi
- V. Allohning tabiatga befarqligini yoqlaydi
- G. Tabiatni Alloh yaratgan bo'lsada, tabiatdagi o'zgarishlar ob'ektiv deb qaraydi

101. Ibn Arabiy bilishning necha turini ko'rsatadi va ular qaysilar?

- A. Uch - oqilona-mantiqiy, mushohada yuritish va mistik yo'l
- B. Ikki – intuitiv mushohada va ilhom
- V. Besh – sezgi, tasavvur, iroda, imon va e'tiqod
- G. Etti – vahiy, e'tiqod, mantiqiy mushohada, imon, ixlom, mistik

3-mavzu. Yangi VA ENG Yangi DAVR FALSAFASI

102. Yangi davrda E.Torrichelli havo bosimi mavjudligini qanday yo'l bilan aniqladi?

- A. Eksperimental
- B. Kuzatish
- V. Aniqlamagan
- G. Tajriba asosida.

103. Qon aylanishini kim kashf etdi?

- A. V.Garvey
- B. E.Torrichelli
- V. U.Gilbert
- G. R.Boyl

104. Ijtimoiy fanlarda tabiiy huquq nazariyasi Angliyada kim tomonidan ishlab chiqildi?

- A. T.Gobbs
- B. G.Grotsiy
- V. G.Leybnits
- G. R.Dekart

105. Yangi davrda fanlarning rivojlanish jarayonida falsafada qanday ajralishlar sodir bo'ldi?

- A. Sxolastika va din
- B. Tabiat va din
- V. Sxolastika va tabiat
- G. Falsafada ajralishlar bo'lmadi.

106. F.Bekon, T.Gobbs, J.Lokk, R.Dekart, B.Spinoza va Leybnits qaysi asrga yashab ijod etgan?

- A. XVII asr
- B. XV asr
- V. XIX asr
- G. XX asr

107. Pozitivizmda bilimlar nechaga bo'linadi?

- A. Soxta va haqiqiy bilim
- B. Kundalik va ijtimoiy bilim
- V. Eski va Yangi bilim
- G. Bilimlar ajratilmaydi.

108. Yangi davr falsafasida faylasuflarni qiziqtirgan asosiy masala nima edi?

- A. Substantsiya va uning xossalari
- B. Inson masalasi
- V. Borliq masalasi
- G. Makon va zamon

109. «Harakat – materiyaning tugʻma xossasi» kimning fikri?

- A. F.Bekon
- B. T.Gobbs
- V. R.Dekart
- G. Spinoza

110. T.Gobbsning dunyo haqidagi falsafiy qarashlari qanday?

- A. Deistik
- B. Ateistik
- V. Idealistik
- G. Har xil

111. «Materiya – mustaqil ijodiy kuchga ega» kimning fikri?

- A. R.Dekart
- B. F.Bekon
- V. T.Gobbs
- G. Spinoza

112. Spinoza sababiyatni nechaga boʻlgan?

- A. 2 ga
- B. 3 ga
- V. 4 ga
- G. 7 ga

113. Substantsiya tushunchasini tahlil qilishda gnoseologik yondoshuvga kim asos solgan?

- A. J.Lokk
- B. F.Bekon
- V. T.Gobbs
- G. Spinoza

114. «Ijtimoiy shartnoma» asari kimning qalamiga mansub?

- A. J.J.Russo
- B. Volter
- V. Monteske
- G. D. Yum

115. Jyulen Ofre de Lametrining qaysi asari shov – Shuvga sabab boʻlgan?

- A. «Inson – mashina»
- B. «XVIII asr materializmi va ateizmi kodeksi»
- V. «Falsafiy lugʻat»

G. To'g'ri javob yo'q.

116. Quyidagi fikr muallifini toping: «Inson dunyoga kelganda, u nafaqat hech narsani bilmaydi, balki sezish qobiliyatiga ham ega bo'lmaydi. Bularning barchasini u tajriba orqali o'zlashtiradi».

- A. Kondilyak
- B. Didro
- V. Golbax
- G. Gelvetsiy

117. Shellingning naturfalsafasi uning qaysi qarashlarida namoyon bo'ladi?

- A. Dialektikasida
- B. Borliq masalasida
- V. Bilish falsafasida
- G. To'g'ri javob yo'q.

118. Gegel fikricha, mantiq nechta qismga bo'linadi?

- A. 3 ta
- B. 2 ta
- V. 4 ta
- G. 8 ta

119. «Haqiqat – bir marta va bir umrga berilgan mutlaqo to'g'ri javob emas, balki jarayondir» kimning fikri?

- A. Gegel
- B. Golbax
- V. Didro
- G. Volter

120. «Shaxsiy bilim – bu biluvchining intellektual jonbozligi, fidokorligidir» kimning fikri?

- A. M.Polani
- B. Popper
- V. Feyerabend
- G. To'g'ri javob yo'q.

121. Popper falsafaning bosh maqsadi nimani o'rganishdan iborat, deb bilgan?

- A. Ilmiy kosmologiyani
- B. Borliqni
- V. Mantiqni
- G. To'g'ri javob yo'q.

122. XIX asr oxiri va XX asr boshidagi G'arb falsafasi qanday nom bilan davriylashtiriladi?

- A. Noklassik davr
- B. Postnoklassik davr
- V. Modernistik davr
- G. Postmodern davr

123. Noklassik davrda G'arb falsafasida qanday Yangi oqim va yo'nalishlar vujudga keldi?

- A. Pozitivizm, neopozitivizm, strukturalizm, pragmatizm, ekzistentsializm

- B. Fenomenologiya, okkultizm, marksizm, nominalizm
- V. Sxolastika, neopozitivizm, strukturalizm, pragmatizm, ekzistentsializm
- G. A va B javoblar to'g'ri

124. Stsientistik tendentsiyaning mohiyati nima?

- A. Fan natijalari faqat ijobiy xarakterga ega
- B. Fan natijalari antigumanistik xarakterga ega
- V. Fan va falsafa hech qachon o'zaro muvofiq bo'la olmaydi
- G. Fan inson taqdirini o'zgartirish xususiyatiga ega.

125. Hayot falsafasi, ekzistentsializm va hermenevtika vakillari qarashlarida fan natijalariga nisbatan qaysi yondashuv kuchliroq?

- A. Antistsientistik
- B. Stsientistik
- V. Gumanistik
- G. Antigumanistik

126. Pozitivizmning asoschisi kim?

- A. O.Kont
- B. R.Karnap
- V. G.Spenser
- G. R. Bultman

127. Qaysi falsafiy ta'limot soxta bilimdan haqiqiy bilimni ajratishga harakat qiluvchi ijobiy bilimning falsafiy doktrinasini ilgari surdi?

- A. Pozitivizm
- B. Ekzistentsializm
- V. Pragmatizm
- G. Fenomenologiya

128. Pozitivizmning ikkinchi tarixiy shakli qanday nomlanadi?

- A. Empiriokrititsizm
- B. Postpozitivizm
- V. Neopozitivizm
- G. Mantiqiy pozitivizm

129. Pozitivizmning uchinchi tarixiy shakli qanday nomlanadi?

- A. Neopozitivizm
- B. Postpozitivizm
- V. Empiriokrititsizm
- G. Mantiqiy pozitivizm

130. Pozitivizmning to'rtinchi tarixiy shakli qanday nomlanadi?

- A. Postpozitivizm
- B. Neopozitivizm
- V. Empiriokrititsizm
- G. Mantiqiy pozitivizm

131. Postpozitivizm va neopozitivizm o'zaro bog'liqligi nimada ko'zga tashlanadi?

- A. Ularning ikkisi ham ilmiy bilim tahlili bilan Shug'ullangan, tilga katta e'tibor bergan
- B. Ularning ikkisi ham ilmiy bilimlarning taraqqiyotlar to'qnashuviga ta'sirini o'rgangan

V. Ularning ikkisi ham fan mantig'i va tafakkur uslubini tahlil qilgan

G. Ular o'rtasida mutlaqo bog'liqlik yo'q

132. XX asrda falsafiy-epistemologik tasavvurlar, metodologik mo'ljallar va o'ziga xos tahlil birlashtiruvchi ayrim fanlar (lingvistika, adabiyotshunoslik, etnografiya, tarix, estetika, san'atshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, falsafa)dagi yo'nalishlarni birlashtirgan falsafiy ta'limotni aniqlang?

A. Strukturalizm

B. Postpozitivizm

V. Semiotika

G. Fenomenologiya

133. Insonning biologik evolyutsiya mahsuli sifatidagi talqin etuvchi falsafiy ta'limot bu – ...

A. Evolyutsion epistemologiya

B. Fenomenologiya

V. Strukturalizm

G. Germenevtika

134. «Ilmiy inqiloblar strukturasi» asari muallifi kim?

A. Tomas Kun

B. Stiven Tulmin

V. Mishel Fuko

G. Yurgen Xabermas

135. I.Lakatos ilgari surgan «Raso fan»ning asosiy xususiyatlarini aniqlang?

A. Ilgari ma'lum bo'lmagan dalillarni bashorat qiladi

B. Yangi yordamchi nazariyalarni oldindan aytib beradi

V. Evristik kuchga ega bo'ladi va nazariy jihatdan mustaqil bo'ladi

G. Barcha javoblar to'g'ri

136. Quyidagi qaysi faylasuf-mantiqshunoslardan biri fan va kumulyativizmning mavjud gipotetik-deduktiv modeliga nazariy realizm g'oyasini qarshi qo'yadi?

A. P. Feyerabend

B. Stiven Tulmin

V. Mishel Fuko

G. Yurgen Xabermas

137. Ingliz faylasufi Tomas Gobbs nechanchi yillarda yashab ijod etgan?

A. 1588-1679

B. 1612-1685

V. 1590-1650

G. 1540-1600

138. Qaysi javobda R.Dekartning asari to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Hayvon – mashina

B. Inson – mashina

V. A va B javoblar

G. To'g'ri javob yo'q

139. Rene Dekartning substantsiya haqidagi dualistik ta'limotiga zid o'laroq, gollandiyalik faylasuf Benedikt (Barux) Spinoza dunyo haqida qanday ta'limotni yaratdi?

A. Monistik ta'limotni

B. Dualistik ta'limotni

V. Emperik ta'limotni
G. Barcha javoblar to'g'ri

140. Nemis faylasufi Gotfrid Vilgelm Leybnits nechanchi yillarda yashab ijod etgan?

- A. 1646-1716
- B. 1653-1710
- V. 1670-1720
- G. 1654-1718

141. «Monadologiya» asari qaysi muallifning qalamiga mansub?

- A. G.Leybnits
- B. R.Dekart
- V. T.Gobbs
- G. J.Russo

142. O.Kont qaysi ta'limotning asoschisi?

- A.Pozitivizm
- B. Pragmatizm
- V. Ekzistentsializm
- G. To'g'ri javob yo'q

143. Ingliz faylasufi Jon Lokk substantsiya tushunchasini tahlil qilishga nisbatan qanday yondashuvga asos solgan?

- A. Gnoseologik
- B. Ratsional
- V. Emperik
- G. Faqat B va V javoblar to'g'ri

144. 1632-1704 yillarda yashab ijod etgan faylasufni aniqlang?

- A. Jon Lokk
- B. B.Spinoza
- V. G.Leybnits
- G. To'g'ri javob yo'q

145. «Ruh fenomenologiyasi» asarining muallifini aniqlang?

- A. Gegel
- B. Kant
- V. Shelling
- G. Fixte

146. Pozitivizmning birinchi tarixiy shakli XIX asrning 30-40-yillarida vujudga kelgan paytda unga qaysi faylasuf asos solgan edi?

- A. O.Kont
- B. E.Max
- V. R.Avenarius
- G. Barcha javoblar to'g'ri

147. Strukturalizm so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

- A. Tuzilish, joylashish, tartib**
- B. Qo'shilish, birikish
- V. Tartib, birikish
- G. Faqat A va B javoblar to'g'ri

148. Fanni intellektual faoliyatning boshqa turlaridan farqlash imkonini beruvchi chegara nima deb ataladi?

- A. Demarkatsiya
- B. Epigenetik
- V. Preformistik
- G. Esxatologik

4-mavzu. BORLIQ - FALSAFA KATEGORIYASI

149. «Ontologiya» atamasi qaysi soʻzdan olingan?

- A. Yunoncha «ontos» - borliq, «logos» - soʻz, taʼlimot.
- B. Lotincha «ontos» - borliq, «logos» - soʻz, taʼlimot.
- V. Arabchadan olingan
- G. Toʻgʻri javob yoʻq.

150. Borliq haqidagi tasavvurlar bizgacha qanday etib kelgan?

- A. Afsonalar va miqlar orqali
- B. Ilmiy dalillar orqali
- V. Qadriyatlar, urf - odatlar orqali
- G. Toʻgʻri javob yoʻq.

151. Upanishadalarda dunyo haqidagi qanday tasavvurlar oʻz aksini topgan?

- A. Materialistik va ateistik
- B. Deistik
- V. Ateistik
- G. Toʻgʻri javob yoʻq.

152. «Hamma narsa er va suvdan vujudga keladi va rivojlanadi, hatto «biz ham er va suvdan paydo boʻlganmiz»» kimning fikri?

- A. Ksenofan
- B. Anaksimandr
- V. Fales
- G. Pifagor

153. «Hamma narsa sondir» kimning fikri?

- A. Pifagor
- B. Fales
- V. Anaksimandr
- G. Ksenofan

154. Faylasuflar orasida birinchi boʻlib, borliqni kategoriya sifatida kim tavsifladi?

- A. Parmenid
- B. Anaksimandr
- V. Fales
- G. Pifagor

155. Borliqni tushunishga nisbatan dialektik yondoshuvni ilk bor kim ilgari surdi?

- A. Geraklit
- B. B. Fales
- V. Anaksimandr

G. Ksenofan

156. Sharq mutafakkirlaridan kim borliq muammosini hal qilishda «Vujudi vojib» va «Vujudi mumkin» ning o'zaro nisbatiga murojaat qiladi?

- A. Forobiy
- B. Al - Xorazmiy
- V. At – Termiziy
- G. To'g'ri javob yo'q.

157. Ibn Sino fikricha, «Vujudi vojib» qanday talqin qilingan?

- A. Allohdir
- B. Insondir
- V. Makon
- G. To'g'ri javob yo'q.

158. XVII – XVIII asr materialistik faylasuflari borliq tushunchasini qanday talqin qilishadi?

- A. Fizik borliq bilan bog'laydi.
- B. Materiya bilan bog'laydi.
- V. Inson bilan bog'laydi.
- G. To'g'ri javob yo'q.

159. «Substantsiya» - bu nima?

- A. Dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat.
- B. Mutloq «Men» ning erkin, sof faoliyati.
- V. Ob'ektiv rivojlanuvchi g'oya.
- G. To'g'ri javob yo'q.

160. Neopozitivizm falsafiy yo'nalishi borliq muammosini qanday talqin qildi?

- A. Soxta muammo.
- B. Haqiqiy muammo.
- V. Echimi yo'q muammo.
- G. To'g'ri javob yo'q.

161. «...Menimcha, falsafa va fan ayni bir jarayonning tomonlari – muqarrar va ajralmas tomonlardir. Ular faqat bizning aqlimizda ajraladi...» kimning fikri?

- A. V.I.Vernadskiy
- B. F.Bekon
- V. T.Gobbs
- G. Spinoza

162. Borliqning asosiy kategoriyasi nima?

- A. «borliq» va «yo'qlik»
- B. «sifat» va «miqdor»
- V. «makon» va «zamon»
- G. To'g'ri javob yo'q.

163. Falsafada borliq va yo'qlik o'rtasidagi o'zaro aloqa qanday?

- A. Dialektik
- B. Ziddiyatli
- V. Chambarchas

G. To'g'ri javob yo'q.

164. «... – falsafiy kategoriya sifatida dunyoni, uning butun rang – barangligi va turli – tuman namoyon bo'lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi», bu nima?

- A. Borliq
- B. Yo'qlik
- V. Bilish
- G. To'g'ri javob yo'q.

165. Borliqning shakllari nechtaga bo'linadi?

- A. 4 ta
- B. 3 ta
- V. 2 ta
- G. 5 ta

166. «... – inson va uning faoliyatidan qat'i nazar mavjud bo'lgan narsalar va jarayonlar borlig'i», bu nima?

- A. Tabiat borlig'i
- B. Inson borlig'i
- V. Ma'naviy borliq
- G. Ijtimoiy borliq.

167. Ma'naviy borliq nechtaga bo'linadi?

- A. 2 ta
- B. 3 ta
- V. 4 ta
- G. 5 ta

168. Individuallashtirilgan ma'naviy borliq - bu nima?

- A. Insonning ichki dunyosi.
- B. Insonning tashqi dunyosi.
- V. Ijtimoiy makon va vaqt.
- G. To'g'ri javob yo'q.

169. Ilmiy tasavvurlarga ko'ra, biz yashayotgan sayyora taxminan necha milliard yil muqaddam paydo bo'lgan?

- A. 4,5 milliard
- B. 1 milliard
- V. 3,5 milliard
- G. Aniqlanmagan.

170. «... – inson yaratgan narsalar borlig'i ko'p jihatdan insonning o'z borlig'i bilan bog'lanadi, zero, u bunyod etgan «...», avvalo, uning turli – tuman ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi», bu nima?

- A. Ikkilamchi tabiat
- B. Tabiat
- V. Narsa – buyum
- G. To'g'ri javob yo'q.

171. Aristotel va Leybnits qarashlarida uchragan «entelexiya» tushunchasi nimani anglatadi?

- A. Yunoncha, «entelexia» – «o'z – o'zida maqsadga ega bo'lgan».

- B. Lotincha, «entelechia» – «o'z – o'zida maqsadga ega bo'lgan».
- V. Inglizcha, «entelechia» – «o'z – o'zida maqsadga ega bo'lgan».
- G. To'g'ri javob yo'q.

172. Qaysi falsafiy ta'limot «Hayot kuchi» mavjudligini tan olish orqali hayotni tuShuntiradi?

- A. Vitalizm
- B. Entelexiya
- V. Bunday ta'limot yo'q
- G. To'g'ri javob yo'q.

173. Organik dunyo evolyutsiyasi haqidagi yaxlit ta'limotlar nechanchi asrda vujudga keldi?

- A. XIX asr boshlarida
- B. XVII asr
- V. XV asr
- G. XX asr oxirida.

174. Falsafaning qaysi sohasida borliq va yo'qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalar o'rganiladi?

- A. Ontologiyada
- B. Gnoseologiyada
- V. Aksiologiyada
- G. Ijtimoiy falsafada

175. Qadimgi Sharqda ilk marotaba qaysi manbada borliq masalalari tahlil qilingan?

- A. Veda va Upanishadalarda
- B. Konfutsiy ta'limotida
- V. Islom falsafasida
- G. Daosizmida

176. Qadimgi yunon faylasufi Fales borliqning birinchi sababi sifatida nimani e'tirof etgan?

- A. Suv
- B. Havo
- V. Olov
- G. Er

177. «Borliq bor, yo'qlik esa – yo'q», degan fikr kimga tegishli?

- A. Parmenidga
- B. Platonga
- V. Suqrotga
- G. Zenonga

178. Tirik tabiat borlig'i necha darajaga bo'linadi?

- A. Ikki
- B. Uch
- V. To'rt
- G. Cheksiz

179. Ontologiya tushunchasini falsafada birinchi bor kim qo'llagan?

- A. X. Volf

B. D.Yum
V. J.Berkli
G. I. Kant

180. Xar qanday jismning ajralmas xususiyati nima deb ataladi?

A. Atribut
B. Qism
V. Individuallik
G. Materiya

181. Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga etishga harakat qilar ekanlar, quyosh tunda qaerga ketadi, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo'qoladi kabi savollarga javob topishga uringanlar va bu tasavvurlarni insoniyatga ma'lum bo'lgan eng qadimgi qaysi kitobda aks ettirganlar?

A. Rigvedalarda
B. Upanshadlarda
V. Monumentlarda
G. To'g'ri javob yo'q.

182 «Ontologiya» atamasi falsafada nechanchi asrdan boshlab qo'llanilmoqda?

A. XVII asrdan
B. XX asrdan
V. XVI asrdan
G. XVIII asrdan

183. Dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat nima deb atalad?

A. Substantsiya
B. Shakl
V. Vaqt.
G. Xarakter

184. Empedokl «borliq» atamasini bevosita ishlatmagan bo'lsa ham, «barcha narsalarning nechta negizi» haqida so'z yuritargan?

A. 4
B. 3
V. 2
G. 5

185. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit qachon yashab ijod etgan?

A. Mil. av. 544-483 yillar
B. Mil. av. 644-583 yillar
V. Mil. av. 744-683 yillar
G. Mil. av. 344-283 yillar

186. Qaysi faylasuf «haqiqiy borliq» - «ob'ektiv mavjud g'oyalar dunyosi»ni farqladi va uni «hissiy borliq»qa qarama-qarshi qo'ydi?

A. Platon
B. Aristotel
V. Geraklit
G. Sukrot

187. Markaziy Osiyoning eng qadimiy qaysi kitobida, borliq harakatdagi dunyo, butun jonli va jonsiz narsalarning uyg'unligidagi mavjudlik deb ifodalanadi?

- A. Avestoda
- B. Xadida
- V. Qur'onda
- G. To'g'ri javob yo'q

188. "...Biz qor bosgan, quyunlar charx urayotgan tog'lar orasida turibmiz. qarshimizda ba'zan tuman pardasi osha so'qmoqlar namoyon bo'ladi. Ular ishonchsiz bo'lishi mumkin..." degan fikr kimning qalamiga mansub?

- A. U.Jems
- B. I.Vernadskiy
- V. F.Bekon
- G. T.Gobbs

5-Mavzu. FALSAFA SUBSANTSIYA VA MATERIYA MUAMMOSI

189. O'z – o'zini to'liq belgilovchi borliqni xizmat qiladigan tushuncha?

- A) Substantsiya
- B) Materiya
- V) Reallik
- G) Dalil

190. Subsantsiya bir vaqtning o'zida ham tabiat, ham xudo va sifatida ta'riflagan va bu ikki tushunchani tenglashtirgan faylasufni toping?

- A) Spinoza
- B) Gegel
- V) Fixte
- G) Dekart

**Kursantlar bilimini baholashda quyidagi namunaviy
mezonlar inobatga olinadi:**

Ball	Baho	Kursantning bilim darajasi
86-100	A'lo	<ul style="list-style-type: none"> - xulosa va qaror qabul qilish; - ijodiy fikrlay olish; - mustaqil fikrlay olish, mustaqil mushohada yuritish; - amaliy qo'llay olish qobiliyati - mavzu bilan bevosita bog'liq qonun va qarorlardan, adabiyotlardan foydalanishlik mahorati; - savolni bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish; - savolning nazariy va amaliy tamoyillarni O'zbekistonning hozirgi kun hayoti va o'z kasb faoliyati bilan yuqori darajada bog'lay olish; - savolga oid yuridik kategoriyalar, atamalardan o'rinli foydalanish hamda fikr ifodasida mantiqiylik, aniqlik va tizimlilikka to'liq amal qilish.
71-85	Yaxshi	<ul style="list-style-type: none"> - mustaqil mushohada yuritish; - amaliy qo'llay olish; - mohiyatini tushuntirish; - mavzuni bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish; - savolga oid yuridik kategoriyalar, atamalardan foydalanish hamda fikr ifodasida mantiqiylik, aniqlik va tizimlilikka amal qilish.
55-70	Qoniqarli	<ul style="list-style-type: none"> - savolning mohiyatini tushunish; - mavzuni bilish, aytib berish; - mavzu bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qonniqarsiz	<ul style="list-style-type: none"> - savolning mazmuniga oid aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; - savollarining mazmunini bilmaslik; - savol mazmuniga oid fikrlar ifodasida tizimlilik, mantiqiylik va aniqlikka amal qilmaslik.

FALSAFIY ATAMALAR (GLOSSARIY)

Agnostitsizm – inson ob’ektiv borliqni to’liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

Antistsientizm – fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Antropogen – inson faoliyati bilan bog’liq.

Antropotsentrizm – dunyoni bilishda insonni ustun qo’yuvchi falsafiy yondashuv.

Aprior – tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko’rilgunga qadar, tajribadan qat’iy nazar paydo bo’lgan obraz, g’oya, tushuncha.

Ateizm – xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.

Atribut – xossa.

Bashorat – kelajak haqidagi, ya’ni hali amalda mavjud bo’lmagan, lekin rivojlanishning kutilayotgan rivojini belgilovchi ob’ektiv va sub’ektiv omillar ko’rinishida hozirgi zamonda potentsial mavjud bo’lgan hodisalar va jarayonlar haqidagi bilim.

Belgi – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

Garmoniya – bir butun narsa qismlarining o’zaro muvofiqligi.

Germenevtika – falsafada – tarix, madaniyatni, o’zga individuallikni tushunish san’ati.

Gipotetik – ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.

Globalashuv – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

Globalistika – globalashuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab etishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

Gnoseologiya – bilish nazariyasi.

Deduktsiya – tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo’lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo’l bilan keltirib chiqariladi.

Dezintegratsiya – butunning ayrim qismlarga parchalanishi.

Deizm – Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi va uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Determinizm – barcha voqealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog’langanligi haqidagi falsafiy ta’limot.

Dialektika – harakat, rivojlanish, o’zgarish haqidagi falsafiy ta’limot.

Diskret – uzlukli.

Differentsiatsiya – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo’linishi, parchalanishi, ajralishi.

Ideal – mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.

Ierarxiya – bir narsaning funktsional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko’ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo’ysunishi.

Ijtimoiy prognoz qilish kelajakni muayyan tarzda davriylashtirishni nazarda tutadi

Izotrop – barcha yoʻnalishlarda bir xil.

Indeterminizm – determinizmga qarama-qarshi taʼlimot.

Integratsiya – birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.

Introvertiv – oʻziga, oʻz ichki dunyosiga qarab moʻljal oluvchi.

Imitatsiya – taqlid qilish, soxtalashtirish.

Axborot inqilobi – fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi boʻlib, bunda axborot oʻta muhim resursga aylanadi.

Irratsionalizm – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.

Kauzallik – sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi.

Kommunikatsiya (keng maʼnoda) – muloqot. Ekzistentsializm da – muloqot turi boʻlib, uning yordamida «Men» oʻzini boshqa odamda topadi.

Konstitutsiyalash – yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.

Konsyumerizm – isteʼmol qilishga boʻlgan kuchli ehtiyoj.

Koevolyutsiya – birgalikda tadrijiy rivojlanish.

Kreationsizm – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy taʼlimot.

Materializm – dunyoning moddiyligidan va ongdan qatʼiy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yoʻnalish.

Mahalliy muammolar tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli boʻlgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu erda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Metafizika – Gegeldan oldingi va hozirgi Gʻarb falsafasida borliqning oʻta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlatiladigan atama.

Metodologiya – metod haqidagi taʼlimot, bilishning Yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.

Milliy muammolar tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada baʼzan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning maʼlum qiyinchiliklari, gʻamtashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mintaqaviy muammolar ayrim qitʼalar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda Yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi

Mistika – sirli, gʻayritabiyy, tuShunarsiz narsa yoki hodisa.

Moddiy lashtirish – maʼno strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.

Modus – predmetning unga ayrim holatlardagina xos boʻlgan muvaqqat xossasi.

Monizm – plyuralizmga zid oʻlaroq, muayyan bir asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.

Nano yunoncha “nanos” soʻzidan olingan boʻlib, mitti degan maʼnoni bildiradi.

Nanotexnologiya-mitti texnologiya boʻlib, uning prototipi tabiatning oʻzida mujassam. Koʻzga koʻrinmas bakteriyalar, chumoli, oʻrgimchak va Shunga oʻxshash hasharotlar tabiiy nano jismlardir.

Negativ – salbiy, biror narsaga zid.

Noumen – mushohada yoʻli bilan anglash mumkin boʻlgan mohiyat.

Noosfera – aql-idrok sohasi yoki biosferaning Shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

Obraz – amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.

Okkultizm – maxsus ruhiy mashqlar, alohida marosimlar orqali ayrim insonlarga bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini eʼtirof etuvchi taʼlimot.

Oppozitsiya - qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan-ochiq yoki zimdan qarshilik koʻrsatish.

Panteizm – Xudoni tabiat bilan tenglashtiruvchi falsafiy taʼlimot.

Paradigma – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan eʼtirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yoʻnalishini belgilovchi printsiplar majmui.

Passionar – ichki energiyaga egalik yoki oʻta gʻayratlilik.

Permanent – doimiy, uzluksiz.

Pertseptsiya – idrok etish.

Prognoz qilish – bu maxsus ilmiy metodlar yordamida kelajak haqida bilimlar olish jarayoni

Ratsionalizm – aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb eʼtirof etadigan falsafiy yoʻnalish.

Reduksionizm – murakkab narsa yoki hodisani soddaroq narsa yoki hodisaga bogʻlash.

Relyativizm – bizning barcha bilimlarimiz, qadriyatlarimiz va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.

Refleksiya – oʻz fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.

Sakral – muqaddas.

Sensualizm – hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qoʻyuvchi falsafiy yoʻnalish.

Simvol – biron-bir gʻoyani ifodalovchi belgi, obraz.

Sinkretizm - qismlarga ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralashuvi.

Skeptitsizm – inson bilimining ishonchliligiga Shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy deb eʼlon qiluvchi falsafiy kontseptsiya.

Stereotip – koʻpincha jamiyat tomonidan faol ilgari suriladigan va individ tanqidsiz qabul qiladigan borliqning nisbatan barqaror va soddalashtirilgan obrazi.

Substantsiya – birinchi asos, barcha narsalar va hodisalarning mohiyati.

Stsientizm – madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtirish.

Tabu – biron-bir narsa, harakat, soʻzga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.

Teologiya – diniy taʼlimotlar tizimi.

Teotsentrizm – dunyoni tushunish markaziga Xudoni qo'yuvchi falsafiy yondashuv.

Texnogen – texnika bilan bog'liq, uning ta'siri bilan belgilangan.

Texnokratik – texnikani birinchi o'ringa qo'yuvchi.

Texnooptimizm – turli muammolarni echishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib ko'rsatuvchi falsafiy yondashuv.

Texnopessimizm – fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai va omili deb e'lon qiluvchi falsafiy yondashuv.

Texnotron jamiyat – kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

Transtsendental – o'ta umumiy.

Universum – yagona Olam, yaxlit dunyo.

Xususiy muammolar davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy ob'ektlarga tegishli bo'lgan muammolardir

Fauna – barcha turdagi hayvonlar majmui.

Faoliyat atributlari (xossalari) faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida avvalo sub'ektlilik va moddiylik qayd etiladi.

Fenomen – insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.

Fenomenologiya – bevosita kuzatish mumkin bo'lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta'limot.

Flora – o'simliklar dunyosi.

Fluktuatsiya – o'zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy og'ish.

Futurologiya – kelajak haqidagi fan.

Fundamental globallashuv dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar Yuzaga kelishi bilan bog'liq. Bu jarayonlar natijasida dunyo o'zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, XX asr o'rtalariga kelib esa u to'la darajada borliqqa aylandi.

Evolyutsion epistemologiya – bilishni jonli tabiat evolyutsiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o'rganuvchi fan.

Evristik – ijodiy, noma'lum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi.

Egalitarizm – umumiy tenglikni targ'ib qiluvchi g'oyaviy-siyosiy oqim.

Ekzistentsializm – diqqat markazida hayotning ma'nosi, inson erkinligi va mas'uliyati muammolari turuvchi falsafiy yo'nalish.

Ekologiya – jonli mavjudotlarning o'zini qurshagan muhit bilan o'zaro munosabatlari haqidagi fan.

Ekologik muammo – jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.

Ekologik tanglik – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlarini orqaga qaytarib bo'lmaydigan xususiyat kasb etadi.

Eksplikatsiya – u yoki bu predmet (yoki madaniyat ob'ekti)ning mohiyatini aniqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.

Ekspertiza usulida baholash-bu ilmiy metodning mohiyati ekspertlar (fan va texnikaning turli sohasidagi etakchi mutaxassislar) tomonidan muammoni tahlil qilish va so'ngra natijalarni formallashtirilgan asosda qayta ishlashdan iborat

Ekopessimizm - asosiy e'tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni echish imkoniyatlari salbiy tusda ko'rilgan hol.

Ekstravertiv – sirtga qaratilgan.

Ekstrapolyatsiya metodlari- qonuniyatlari o'tmishda va hozirgi davrda yaxshi ma'lum bo'lgan tendentsiyalarni kelajakka tatbiq etishga asoslanadi.

Empirizm – hissiy idrok etish va tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

Empirik – tajribada ko'rilgan.

Etimologiya – u yoki bu so'z yoki iboraning kelib chiqishi.

Epistemologiya – bilish haqidagi falsafiy ta'limot.

Etnogenez – xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

O'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish – o'zining betakror mohiyatini faoliyatda namoyon etuvchi va gavdalantiruvchi har bir individ axloqiy faoliyatining maqsadi.

Qidiruv prognozi –ijtimoiy ob'ektning kelajagi qanday bo'lishi mumkinligini ko'rsatish uchun tuziladigan prognoz.

FANNING INFORMATSION-USLUBIY TA'MINOTI:

Falsafa fanini o'qitishda zamonaviy (xususan interfaol) metodlar, axborot kommunikatsiya (an'anaviy ta'lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron-didaktik) texnologiyalarining qo'llanishi nazarda tutiladi. Falsafa fani kursida elektron darslikdan, mavzuga oid slaydlardan va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

3.1. Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.:Ўзбекистон, 2018
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008
7. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шаротида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. –Т.: Ўзбекистон, 2009
8. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. –Т.: Ўзбекистон, 2010. -78 б.
9. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 12 ноябрь. – Т.: Ўзбекистон, 2010.
10. Каримов И.А. Асарлар тўплами. 1-18 жилдлар. -Т.:Ўзбекистон, 1996-2010
11. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. -370 б.
12. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажак йўлида хизмат қилиш - энг олий саодатдир. Т.: “Ўзбекистон”, 2015.
13. Каримов И.А. Озодлик ҳавосидан тўйиб нафас олган халқ ўз йўлидан ҳеч қачон қайтмайди. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
14. Каримов И.А. Ҳаёт синовларида тобланган Қашқадарё эли ҳар қандай юксак маррани эгаллашга қодир. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги Фармони. Т.: “Адолат”, 2017.
16. Аристотель. Никомахова этика // Аристотель Сочинения в 4-х томах, том 1, Москва «Мысль» 1983.

17. Соколов В.В. Европейская философия XV-XVII веков [Matn]: Учебное пособие. Москва: Высшая школа, 1984.
18. Зотов А.Ф. Буржуазная философия середины XIX-начала XX века [Matn] : Учебное пособие. -Москва: Высшая школа, 1988.
19. Умаров Э. Эстетика [Matn]: Учебное пособие / Э.Умаров, И.Пал; taqrizchi E.Я.Басин . -Ташкент: Ўқитувчи, 1990.
20. Ахлоқ-одобга оид. Ҳадис намуналари. – Т.: Фан, 1990.
21. Кэрролл Л. Логическая игра. М.1991 г.
22. Современная западная философия [Matn]: Словарь tuzuvchi В.С. Малахов, В.П.Филатов. -Москва: Политиздат, 1991.
23. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992.
24. Кайковус. Қобуснома. Форсчадан Муҳаммад Ризо Огохий таржимаси. “Мерос” нашриёти. Т.: 1992.
25. Розанов В.В. Религия. Философия. Культура. Москва: Республика, 1992.
26. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
27. Сафаров Р. Правила хорошего тона [Matn] Р.Сафаров. -Ташкент: Правда Востока, 1993.
28. Рахимов И.Р. Мантиқ. Тошкент. 1994 йил.
29. Каримов С. Мантиқ [Matn] С.Каримов, taqrizchi С.С.Комилова, Н.Э.Муҳаммадиев. -Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1995.
30. Ватан туйғуси. – Т.: Ўзбекистон. 1996.
31. Амир Темур ва темурийлар даврида маънавият ва санъат. Т.: 1996.
32. Донишмандлар одоб-ахлоқ тўғрисида. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
33. Авесто. Аша алқови. “Соғлом авлод учун” журнали. 1996 йил, 5-6 сонлар.
34. Туленов Ж. Фалсафа. Дарслик. Т.: Ўқитувчи, 1997.
35. Конфуций панд-ўғитлар. “Соғлом авлод учун” журнали 1997 й, 5-6 сонлар.
36. Каримов Ш., Шамсудинов Р. Ватан тарихи. “Ўқитувчи”, Т-1998.
37. Имомназаров М. Миллий маънавият назариясига чизгилар. Т.: “Шарқ” концерни, 1998.
38. Рахимов И.Р. Фалсафа [Matn]: (қисқача конспект). -Тошкент: Университет, 1998.
39. Никиморов. Словар по логике. М. 1998 г.
40. Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. Маърузалар матни. Т.: “ЎАЖБНТ” маркази, 2000.
41. Алиев А. Маънавият, Қадрият ва бадиият. Т.: Академия, 2000.
42. Фалсафа [Matn] : Маърузалар матни / taqrizchi Б.Тўйчиев, Б.Каримов, А.Мўминов . -Тошкент, 2000.
43. Нурмухамедов Н. Маънавият, этика ва эстетика тарбияси. -Т.: Абу Али ибн Сино, 2000.
44. Каримов С. Мантиқ. 2000 йил.
45. Закруллаев А. “Ғоялар кураши”. Т.: “Мовароуннаҳр”, 2000.
46. Шарипов М. Мантиқ. Тошкент. 2001 йил.

47. Сиддиқова Ш. Эстетика [Matn]: (қисқача курс) Ш.Сиддиқова, тақризчи Н.Наҳангов. -Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.
48. Ҳақимова О. Мантиқ ва нутқ маданияти [Matn]: (қисқача курс) / О.Ҳақимова, тақризчи У.Шарипова, О.Тожиев, Н.Наҳангов. -Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.
49. Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. Маърузалар матни. Т.: 2003.
50. Основы философии [Matn]: Учебник / М. А. Ахмедова [и др.]. -Ташкент: Мехнат, 2004.
51. Соифназаров И. Курс лекций по философии.-Т.: 2004.
52. Шарипов М. Мантиқ [Matn]: Ўқув қўлланма М.Шарипов, Д.Файзихўжаева; тақризчи М. М.Хайруллаев. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004.
53. Назаров Қ.Аксиология – қадриятлар фалсафаси. –Т.: ЎФМЖ, 2004.
54. Назаров Қ.Н. Билиш фалсафаси. –Т.: Университет, 2005.
55. Фалсафа асослари [Matn]: Ўқув дастурлари, дарсликлар ва ўқув қўлланмаларини қайта кўриб чиқиш ва янгиларини яратиш бўйича Республика мувофиқлаштириш комиссияси нашрга тавсия этган / тақризчи Б.Тўйчиев, А.Мўминов.–Тошкент.:Ўзбекистон, 2005.
56. Falsafa. Мамашокиров С. таҳрири остида. -Т.: Шарқ, 2005
57. Фалсафа асослари. Назаров Қ.таҳрири остида. –Т.: Шарқ, 2005.
58. Шермухамедова Н.А. Фалсафа ва фан методологияси -Т.: Университет, 2005.
59. Билиш фалсафаси [Matn]: Гносеология. -Тошкент: "Университет", 2005.
60. Falsafa. Ахмедова М. таҳрири остида.-Т.: УФМЖ, 2006
61. Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. Т.: Шарқ, 2006.
62. Абдулла Шер. Эстетика. Маърузалар матни. Т.: 2008.
Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. Т.: Ўзбекистон, 2008.
63. Илалов И.Н.Философия и методология истории [Matn] :Учебное пособие. - Ташкент: Aloqachi, 2008.
64. Жўраев Н.Тарих фалсафасининг назарий асослари [Matn] / Н. Жўраев. Тошкент : Маънавият, 2008.
65. Маънавий юксалиш йўлида. Т.: “Маънавият”, 2008.
66. Хайитов Ш., Хайитова К., Зияутдинова Х. Фалсафа асослари. Альбом схема. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009.
67. Тўйчиев Б.Т. Социальная философия. Альбом схема –Т.: 2009
68. Мантиқ ва мулоҳаза [Matn] /тақризчи М.М. Ҳайдарова, Н.М. Муллабоева - Тошкент : Sharq, 2010.
69. Sher A. AxloqShunoslik [Matn]: Darslik / A. Sher, taqrizchi N. A. Aliqulov, L. Muhammadjonova. -Toshkent: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
70. Бахронов Д.Д., Игамбердив И.Р., Кубаев Ф.С., ва бошқ. Ўзбекистон тарихи. “Ўз. Рес. ИИВ” Т.: 2011.
71. Жакбаров М.. Комил инсон ғоясининг тарихий-фалсафий негизлари. “Тафаккур” нашриёти. Т.: 2011.
72. Азимова Д., Г.М.Эргашева “Маънавият асослари” ўқув-услубий қўлланма. “Ўз. Рес. ИИВ ТОҲТБЮ” Т.: 2012.

3.2. Қўшимча адабиётлар

1. Аль-Фараби. Логические трактаты. Алма-Ата. 1975.
2. Аристотель. Сочинения В 4-х томах. -М.: 1975. ч.1.
3. Ибн Сина. Избранные философские произведения. -М.,1980.
4. Логико-гносеологические идеи мыслителей Средней Азии. -Т.: «Фан», 1981.
5. Рахимов И. Логикадан амалиий машғулотлар ва методик тавсиялар. -Т.: «Ўзбекистон», 1988.
6. Войшвилло Е.К. Символическая логика: классическая и релевантная. — М.: Изд-во МГУ, 1989.
7. Войшвилло Е.К. Понятие как форма мышления.-М.: Изд-во МГУ, 1989.
8. Ивин А.А. Искусства правильно мыслить.-М., 1990.
9. Логика и компьютер. Моделирование рассуждений и проверка правильности программ. -М.: Наука, 1990.
10. Рахимов И. Мантик.- Т., ТошДУ, 1994 й.
11. Ёкубов Т., Каллибеков С. Математик мантиқ элементлари — Т.: Ўқитувчи, 1996.
12. Асмус В. Античная философия. -М.: 1999.
13. Туленов Ж. Диалектика назарияси.-Т.,2000.
14. Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация под редакцией О.Файзуллаева -Т.: Шарқ, 2000.
15. Новейший философский энциклопедический словарь, -М.: 2001.
16. Гуревич П.С. Основы философии -М.: 2002.
17. Хотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан.-Т.: “Минхож”, 2003.
18. Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар. Назаров Қ. таҳрири остида. -Т.: Шарқ, 2004
19. Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. -Т.: Ўзбекистон, 2004.
20. Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O'FMJ, 2006.
21. Ёкубова М. Жамият ахборотлашувнинг фалсафий асослари. Фалс.фан. номз. Дисс. -Т.: Университет, 2007.
22. Мусаев Ф. Демократик давлат куришнинг фалсафий ҳуқуқий асослари. -Т.: Ўзбекистон, 2007
23. Қурбонова Л. Ижодий тафаккурнинг фалсафий методологик таҳлили. Фалс.фан. номз. Дисс. -Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007.
24. Ҳақиқат манзаралари. С.Жўраева таржимаси. -Т.: Янги аср авлоди, 2007
25. Цицерон. Нотиклик санъати ҳақида икки рисола. Таржимон Урфон Отажон. -Т.: Янги аср авлоди, 2007.
26. Мадаева Ш. Миллий менталитет ва демократик тафаккур. -Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007.
27. Ёкубова М. Ахборот технологияларининг фалсафий асослари. -Т.: Университет, 2008
28. Отамуродав С. Глобаллашув ва миллат. -Т.: Янги аср авлоди. 2008.
29. Юнусов А. Ҳуқуқ маънавияти. -Т.: Адолат, 2008.
30. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. -Т.: Маънавият, 2008.
31. Комилов Н. Тафаккур қарвонлари: Шарқу Ғарбнинг цивилизациявий алоқалари. -Т.: Шарқ, 2009.

32. Очилова Б. Миллий-маънавий юксалишда мерос, кадриятлар ва ворисийлик. –Т.: Истиклол, 2009.
33. Сафаров О. Оила маънавияти. –Т.: Маънавият, 2009.
34. Қахҳорова Ш. Глобал маънавият – глобаллашувнинг ғоявий асоси. Т.:Тафаккур, 2009.
35. Қурбонова Л. Борлиқ фалсафаси. –Андижон: АДУ, 2009.
36. Қурбонова Л. Инсон фалсафаси. –Андижон: АДУ, 2009.
37. Мамашокиров С., Усманов Э. Барқарор тараққиётнинг экологик хавфсизлик масалалари. –Т.: Фан, 2009.
38. Ёқубова М. Фан ахборотлашувининг жамият ривожигаги ўрни- Т.:”Стар - Полиграф”, 2010.
39. Бозаров Д. Синергетик парадигма. –Т.: Тафаккур, 2010.
40. Аллаярова С.Н. Фалсафий герменевтиканинг методологик жиҳатлари. Фалс.фан. номз. Дисс. –Т.: Университет, 2010.
41. Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси .- Т.: Академия, 2011
42. Фалсафа энциклопедик луғат. Назаров Қ.таҳрири остида. –Т.: Шарқ, 2011.
43. Жакбаров М. Комил инсон ғоясининг тарихий-фалсафий негизлари. –Т.: Tafakkur, 2011.
44. Айдарбек Тулепов. Ислом [Matn]: ва ақидапараст оқимлар / Тулепов. Айдарбек. -Тошкент : "Шарқ", 2013.
45. Айдарбек Тулепов. Ишид фитнаси [Matn]. -Тошкент: "RUTA-PRINT", 2015 й.

3.3. Интернет сайтлар ва даврий нашрлар

Интернет тизими учун қуйидаги сайтлардан фойдаланиш тавсия этилади:

www.mgimo.ru: www.ziyonet.uz: www.pacademy.edu.uz: www.rags.ru:
www.ssu.runnet.ru: www.pedagog.uz: www.psychology.uz: www.MVD.uz:
www.Lex.uz: www.philosophy.ru: www.philosophy.nsc.ru: www.history.ru:
www.gov.uz: www.edu.uz: www.performance.edu.uz: www.tseu.uz:
www.filosofiya.ru: philosophy.albertina.ru: www.philosophy.com: www.press-service.uz:
www.ziyo.edu.uz: www.tseu.fan.uz: www.teuphil.narod.ru.